ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№8(3)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 498 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari 10
Sultanov Xaytboy Eraliyevich

Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi

Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida 19
Tengelbayeva Dinora Muratovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari 25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna

Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni 30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li

Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intellektual transfer" mediatsiyasi 34
K. B. Numanov

Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari 38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich

CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi 45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi

Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili 48
Xamdamova Muazzamxon Xabibullo qizi

Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari 52
Mamatmurotova Muhlisa Kamol qizi

Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi 59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna

Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari 63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna

Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari 69
Sharipov Hayotjon Safarovich

"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish 75
Abduqahhorova Munojat Abdulxafiz qizi

"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish 79
Baratova Madinaxon Paxridinovna

"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish 83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi

Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari 87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi 92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna

Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане 97
Фадлиева Амина Ильхамовна

Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari 102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li

Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari 112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li

Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari 116
Xasanov Javohir Muxtorovoch

Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish 125
Malikova Madina Abduraxmon qizi

Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach 129
Berdiyorova Shakhnoza Kholmakhammatovna

Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood 132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi

Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools 137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi

Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 144
Beknazarova Nigina Zarip qizi

Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos 148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna

Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati 153
Kamilova Gulzoda

Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya 157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna

Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish 161
Shukurullayeva Madina

Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari 168
Ahmedov Akrom Abralovich

The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan 174
Akhad Akhmedov

Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) 177
Boyturayeva Mamura Uroyimovna

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida 183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloyevich

Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar 188
Qodirova Nigora Farhodovna

Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili 193
Sharapov Atabek Gayrat uli

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

"Mustaqil fikrlash", "kompetensiya", "kompetentlik", "fikrlash kompetensiyasi" tushunchalarining pedagogik mazmuni 196
Kadirova Zarina Ilhomovna

Tibbiy ingliz tili darslarida ko'p komponentli blended learning strategiyalarining qo'llanishi 202
Rashidova Nodira Xabibullayevna

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyasini rivojlantirish jahon olimlari nigohida 205
Mamazoirova Jangil Xamdamovna

Magistratura tadqiqot amaliyotining bo'lajak fizika o'qituvchilari kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rni 209
Parmanov Jamshid Tag'aymurotovich

Umumta'lim maktablari matematika to'garagida sferaning elementlarini o'rganish metodikasi 214
Jumayev Erkin Ergashevich, Omonov G'olibjon Tolibovich, Shaxnoza Xolmurodova Zoir qizi

Boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida o'quvchilarning vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish 219
Norova Nargiza Xalmamat qizi

Oliy o'quv yurtlarida amaliy mashg'ulotlar – bakalavr yo'nalishidagi matematiklarning kasbiy tayyorgarligini ta'minlovchi omil 224
Abduraxmonov Abdumo'min

Bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda CDIO texnologiyasi va sanoat integratsiyasining samaradorligi 228
Baxronov Rustam Rajabovich

O'smir o'quvchilarda ijodiy faollikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslarini o'rganish tarixi 231
Botirov Zoir Nuriddin o'g'li

Husnixatga o'rgatish tamoyillari 235
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Muhammadaliyeva Xosiyatxon Xaydaraliyevna

O'smirlarda suitsidal xavf bilan bog'liq tajovuzkorlik va psixologik determinantlarning kompleks diagnostikasi 240
Nahalboyeva Nigora Turdi qizi

Raqamli muhitda yoshlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari 245
Sangirova Nilufar Sayfidinovna

O'smirlik davrida psixologik o'zgarishlar: omillar, xususiyatlar va psixologik yondashuvlar 251
Usmonova Munira Sayfiddinovna

Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalar samaradorligi 256
Axmedova Munavvar Numanjanovna

Tarix darslarida wordmint: o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirishning innovatsion usuli 261
Eshankulova Ma'mura Davlatovna

Zamonaviy fizikani oliy ta'limda o'qitishning konseptual-metodologik muammolari 265
Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li

Menejment ta'limida ekonometrik tahlil natijalarini boshqaruv qarorlariga transformatsiya qilishning didaktik modeli 269
Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi

Zamonaviy psixologiya va pedagogikada shaxsga xos universal ta'limiy faoliyatlarning ahamiyati 273
Shomirzayeva Nargiza Sherali qizi

Jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirishda raqamli monitoring texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-pedagogik asoslari 277
Axmedova Sarvinoz Azatovna

Umumta'lim maktablari tarix darslarida immersiv texnologiyalarini qo'llash 282
Rasuljon Atamuratov

Talaba-kurashchilarning mashg'ulot yuklamalarini individual me'yorlash va uning pedagogik asoslari 287
Davletova Ullijon Sapavoy qizi

Talabalarida axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati 290
Ergashev Bunyod Shokir o'g'li

Umumta'lim maktablari o'qituvchilarida kasbiy deformatsiya (burnout)ni oldini olishning psixologik shart-sharoitlari 296
Mardiyeva Dilarom Saparboyevna

Turning Traditional Classrooms Upside Down: Main Principles of PBL (Project-Based Learning) 300
Hakimova Halimakhon Hamzayevna

Ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda zamonaviy yondashuv 305
Norqulova M. B.

Ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'lim muhitining pedagogik mohiyati va tarkibiy komponentlari 311
Nosirov Asliddin Sadriddinovich

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlar targ'ibotiga innovatsion yondashuv 316
Sh. Sh. Abdurasulova

Terminologik kompetensiya bo'lajak shifokor kasbiy kompetentligining komponenti sifatida 320
Namazova Munavvar Oltibekovna

Boshlang'ich ta'limda interfaol metodlar (FSMU, BBB, Klaster) vositasida ta'lim samaradorligini oshirish ... 323
Abduvahobova Feruzabonu Kozim qizi

Pedagogical Strategies for Integrating the Life and Literary Heritage of Ibrayim Yusupov Into Modern Education 326
Atajanova Gulsara Baxit qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv motivatsiyasini shakllantirishda oila-maktab hamkorligining o'rni .. 329
Karimova Shoxsanam Islomxon qizi

Using Model Essays to Develop IELTS Writing Task 2 Performance: An Evidence-Based Approach to Noticing, Analysis, Imitation and Independent Writing 333
Otakulova Dildora Hakimbek qizi

Uzunlikka sakrovchi yengil atletikachilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlar 337
Ro'zimatova Shohista Boltaboy qizi

Raqamli kommunikatsiya muhitida an'anaviy qadriyatlar transformatsiyasi: internet va ijtimoiy tarmoqlarning madaniy idrok hamda ijtimoiy me'yorlarga ta'siri 342
Shodiyev Jasur Xolmatjonovich

Professional Competence of Specialists Working With Older Adults: Conceptual Requirements 349
Ikromova Sitora Akbarovna

The Effect of Corpus-Based Learning on Psychology Students' Professional English Communication 353
Pulatova Durdona Ravshanovna

Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirishga oid jahon tajribalari tahlili 357
Djabbarov Farrux Tirkashevich

Talabalarda vaqtni idrok qilish va boshqarishga qaratilgan nazariy-metodologik konsepsiyalar hamda tamoyillar tahlili 361
Solayev Og'abek Ilhombek o'g'li

Tibbiy tayyorgarlik sifatini oshirish vositasi sifatida immersiv ta'lim muhitlari 367
Namazova Munavvar Oltibekovna

Milliy kurash vositalari asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining etnopedagogik kompetensiyasini shakllantirish modelini takomillashtirish 370
Jurayev Sayidmurat Safarovich

"Uglevodlar" bo'limini o'qitishni axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida takomillashtirish metodikasi (umumiy o'rta ta'lim maktablari 10-sinflar o'quvchilari misolida) 374
Rasulov Mirzobek Toxirovich

"O'simliklar fiziologiyasi" fanining o'quv mazmunini STEAM yondashuvi asosida takomillashtirish metodikasi 382
Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Литературный текст как пространство мышления: авторская методика интерпретационного обучения студентов в вузе 389
Жабборова Гулчехра Жобировна

Развитие исследовательской компетентности будущих учителей истории посредством работы с художественно-историческими источниками 393
Равшан Хакимов

Oilaviy muhit va ota-ona munosabatlarining o'smir qizlar yolg'izligiga ta'siri 397
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi

Tabiiy fanlarni raqamli ta'lim muhitida o'qitishning metodik modeli va uning samaradorlik ko'rsatkichlari 401
Ismoilov Nodirbek Kodirjonovich

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish yo'llari 408
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich

Masofaviy ta'lim jarayonida iqtisodiy fanlar mazmunini loyihalash 412
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi

Harbiy xizmatchilarning qadriyatli yo'nalishlari va ularning kasbiy identiklik bilan o'zaro aloqadorligi 417
Asqarov Rahmatjon Rahimovich

Badmintonga xos harakatlanish mashqlari orqali 14–15 yoshli o'quvchi qizlarning epchillik va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish 422
Qo'chqarov B. O.

Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslari 427
Isomiddinov Yo'ldosh Yusubboyevich

Talabalarining kommunikativ kompetensiyasini takomillashtiruvchi differensial mashqlar va ularning turlari 432
Nafisaxon Nuriddinova Tolib qizi

Badiiy asar ustida ishlashda o'quvchilar javobini baholashning innovatsion mezonlari va diagnostikasi 436
Kadirova Mashhura Nasirovna

Talabalarning emotsional intellekti va kasbiy-pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi o'rtasidagi bog'liqlik 441
Xamrayeva Aziza Farhadovna

Управление инновационными процессами в высшем образовании: педагогические условия и механизмы реализации 444
Сабирова Шахноза Шавкатовна

Oliy ta'limni xalqarolashtirish sharoitida ingliz tili ta'limi sifatiga ta'sir etuvchi pedagogik omillar 448
Urazbayeva Dilnoza Ruzimbayevna

Jahon tajribasida loyihaga asoslangan ta'lim metodlari 452
Rustamova Rushona Baxramjonovna

Kollaborativ ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari 460
Aslanova Nozima Xakimovna

Katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishning didaktik imkoniyatlari 466
Otayeva Salamat Sabirovna

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan shaxslarga yordam ko'rsatishning psixologik asoslari: shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish omillari 471
Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativligini baholash mezonlari va indikatorlari 476
Normuminova Gulmira Komiljonovna

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida media matnlarni tanqidiy o'qish ko'nikmasini shakllantirish 483
Suvanova Nilufar Akbarovna

Vitagen texnologiyalar asosida oliy ta'lim talabalari mediamentalitetini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik mexanizmlari 487
Rustamova Nodira Rustamovna

Talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning psixologik shartlari 493
Abduvaliyeva Dilsora Nodirjon qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

OLIY BADIIY-PEDAGOGIK TA'LIMDA AN'ANAVIY USTOZ-SHOGIRD AN'ANASI VA INNOVATSION KLASTER YONDASHUVI INTEGRATSIYASINING METODOLOGIK ASOSLARI

Sultanov Xaytboy Eraliyevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
"Tasviriy san'at va dizayn" kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy san'at va oliy pedagogik ta'lim tizimida tasviriy va amaliy san'atni o'qitishning an'anaviy hamda innovatsion usullarini muvofiqlashtirishning nazariy-metodologik asoslari yoritilgan. Jamlanmada Sharq va G'arb badiiy akademik maktablarida, xususan, Renessans davri Yevropa gildiyalari, Usmoniylar davri naqqoshxonalari, Temuriylar davri Hirot va Buxoro miniatyura maktablari, shuningdek, zamonaviy Yaponiya, Rossiya va AQSh ta'lim tizimlaridagi "ustoz-shogird" aloqalarining rivojlanish tarixi tahlil qilingan. Muallif tomonidan tasviriy san'at ta'limida klassik asarlardan nusxa ko'chirish metodikasini raqamli va multimedia texnologiyalari hamda pedagogik klaster yondashuvi bilan boyitish orqali talabalarning individual trayektoriyasini va ijodiy-analitik tafakkurini shakllantirish modellari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy ta'lim, ustoz-shogird, klaster yondashuvi, individual ta'lim, nusxa ko'chirish metodikasi, Hirot miniatyura maktabi, akademik rangtasvir, innovatsion pedagogika.

Abstract: This article highlights the theoretical and methodological foundations of synthesizing traditional and innovative methods of teaching visual and applied arts in higher art-pedagogical education. The study analyzes the historical evolution of "master-apprentice" (ustoz-shogird) relationships in Eastern and Western academic art schools, including Renaissance European guilds, Ottoman nakkaşhane workshops, Timurid-era Herat and Bukhara miniature schools, as well as modern educational systems in Japan, Russia, and the USA. The author scientifically substantiates a model for developing students' individual educational trajectories and creative-analytical thinking by enriching the traditional method of copying masterworks through digital multimedia technologies and the pedagogical cluster approach.

Key words: art education, master-apprentice (ustoz-shogird), cluster approach, individualized learning, copying methodology, Herat miniature school, academic painting, innovative pedagogy.

Аннотация: В данной статье освещаются теоретико-методологические основы гармонизации традиционных и инновационных методов обучения изобразительному и прикладному искусству в системе высшего художественно-педагогического образования. В работе проанализирована история развития отношений "мастер-ученик" (устоз-шогирд) в художественных академических школах Востока и Запада, включая гильдии Европы эпохи Возрождения, османские наккашхане, Гератскую и Бухарскую школы миниатюры эпохи Тимуридов, а также современные образовательные системы Японии, России и США. Автор научно обосновывает модель формирования индивидуальной образовательной траектории и творческо-аналитического мышления студентов путем обогащения традиционной методики копирования классических произведений цифровыми, мультимедийными технологиями и педагогическим кластерным подходом.

Ключевые слова: художественное образование, устоз-шогирд (мастер-ученик), кластерный подход, индивидуальное обучение, методика копирования, Гератская школа миниатюры, академическая живопись, инновационная педагогика.

KIRISH

Chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va dunyoqarash islohotlari sodir bo'layotgan jamiyatning hozirgi bosqichida oliy ta'lim sifatini oshirish va uni jahon standartlariga moslashtirish zamonaviy pedagogikaning eng strategik vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan fundamental islohotlar ta'lim tizimini modernizatsiya qilish zaruratini taqozo etmoqda. Bu jarayon, o'z navbatida, an'anaviy o'qitish usullarini qayta ko'rib chiqishni va

ularni shiddat bilan o‘zgarib borayotgan innovatsion muhitga moslashtirishga qodir bo‘lgan, tizimli va tanqidiy fikrlaydigan mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi.

Oliy badiiy-pedagogik ta’lim mazmunini muntazam takomillashtirish bevosita o‘quv jarayoniga zamonaviy ilmiy-metodik va texnologik ishlanmalarni joriy etish, nazariya va amaliyotni uzviy integratsiyalash orqali amalga oshiriladi. Tasviriy va amaliy san’at azaldan nafaqat akademik bilimlar to‘plami, balki individual mahorat, intuitiv did va qadriyatlarni bevosita uzatish tizimi sifatida amal qilib kelgan. Shu sababli, raqamli va texnologik axborot asrida aynan asarlarni anglash, individual yondashuv va an’anaviy “ustoz-shogird” tajribasini pedagogik klaster modeli bilan uyg‘unlashtirish o‘ta muhim vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi tasviriy san’at ta’limida klaster yondashuviga asoslangan individual ta’limni tashkil etishning nazariy va amaliy imkoniyatlarini asoslash, an’anaviy ustoz-shogird metodi va zamonaviy pedagogik-texnologik ishlanmalar integratsiyasining didaktik samaradorligini ochib berishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Badiiy va pedagogik ta’limda individual yondashuv hamda ustoz-shogird tizimining tarixiy va zamonaviy transformatsiyasi mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan turli rakursda tadqiq etilgan.

G‘arb akademik maktablarida rangtasvir va kompozitsiya asoslarini o‘rgatishda klassik asarlardan nusxa ko‘chirish metodikasining fundamental ahamiyatini J. Elkins (J. Elkins) va L. B. Alberti (L. B. Alberti) kabi tadqiqotchilar asoslab bergan.

Leon Battista Albertining 1435-yilda yozilgan “Rangtasvir haqida”gi klassik traktatida rangtasvirda geometriya, optika va istiqbol (perspektiva) qonuniyatlarining nazariy asoslari yoritilgan bo‘lib, u asarlarni o‘rganish va mahorat oshirishda nazariy va praktik bilimlar uyg‘unligini birinchi o‘ringa qo‘ygan.

J. Elkins esa zamonaviy san’at akademiyalarida akademik nusxa ko‘chirish tajribasi shunchaki avtomatik mexanik takrorlash emas, balki asarning ichki kompozitsion va texnik tuzilishini “analitik o‘qish” ekanini ta’kidlaydi.

Islom san’ati va Sharq badiiy an’analarida ustoz-shogird munosabatlarining ma’naviy va metodologik jihatlari turk tadqiqotchisi B. Kabacham (B. Kabaçam) tomonidan tahlil qilingan. Muallif Usmoniylar davri naqqoshxonalari tajribasiga tayanib, ustoz va shogird o‘rtasidagi aloqa nafaqat texnik xususiyatlarni, balki sabr, axloq va kasbiy estetika kabi fazilatlarni (soft skills) shakllantirishini isbotlagan.

Markaziy Osiyo va O‘zbekistonda badiiy ta’lim, xususan, Temuriylar davri Hirot va Buxoro miniatyura maktablarining vorisiylik mexanizmini tadqiq etishda M. Mo‘minova, M. Nazarov va N. Akramovalarning ishlari muhim nazariy baza bo‘lib xizmat qiladi.

M. Mo‘minova Kamoliddin Behzodning Mirak Naqqosh Hiraviy qo‘l ostidagi ta’lim davri va uning keyingi shogirdlariga (Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib) saboq berish usullarini chuqur o‘rgangan.

O‘zbekistonda zamonaviy tasviriy san’atni o‘qitishda akademik maktab va milliy an’analar uyg‘unligi masalasi, shuningdek, pedagogik klaster modelining nazariy-amaliy asoslari X. S. Sultonov va boshqa mahalliy pedagog-olimlarning tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida kompleks va qiyosiy-pedagogik metodologiyadan foydalanildi:


1. **Istoriografik va komparativ tahlil:** G‘arb (Yevropa, AQSh, Rossiya) va Sharq (Yaponiya, Turkiya, O‘zbekiston) badiiy ta’lim tizimlarida ustoz-shogird an’anasining tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy akademik tizimga integratsiyalashuvi qiyosiy tahlil qilindi.
2. **Didaktik modellashtirish:** Oliy san’at va pedagogika oliy o‘quv yurtlarida tasviriy san’at yo‘nalishi talabalari uchun an’anaviy va innovatsion metodlar kombinatsiyasiga ega “Pedagogik klaster” modeli ishlab chiqildi.
3. **Pedagogik kuzatuv va empirik tahlil:** Chirchiq davlat pedagogika universiteti Tasviriy san’at yo‘nalishida talabalarning individual trayektoriyasi, klassik asarlardan nusxa ko‘chirish va proyektor/raqamli multimedia vositalaridan foydalanish amaliyoti natijalari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

4.1. Badiiy ta’limda ustoz-shogird an’anasining tarixiy-mintaqaviy fenomenologiyasi

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, tasviriy va amaliy san’at ta’limi azaldan individual xususiyatga ega bo‘lib, ustoz-shogird munosabatlari orqali rivojlanib kelgan. Dunyoning turli mintaqalarida ushbu model o‘ziga xos tarixiy trayektoriyaga ega:

- **Yevropa maktabi:** O‘rta asrlarda san’at ustalari maxsus sexlar (gildiyalar) doirasida faoliyat yuritgan. Renessans (Uyg‘onish) davrida 12–14 yoshli o‘quvchilar 5–8 yil muddatga ustaxonalarga qabul qilinib, aynan ustozlari hamda buyuk musavvirlar asarlaridan nusxa ko‘chirish (copying) orqali mahorat orttirganlar. Andrea del Verrokko va uning shogirdi Leonardo da Vinchining “Iso Masihning cho‘qintirilishi” (1470-yillar) asaridagi hamkorlik, Piter Paul Rubens va Antonis van Deykning o‘zaro ijodiy laboratoriyasi buning yorqin misolidir. XVII–XVIII asrlardan boshlab esa akademik markazlashgan ta’lim tizimiga o‘tildi.
- **AQSh va Rossiya tajribasi:** AQShda XIX asrgacha davom etgan ustaxona tizimi XX asr o‘rtalarida to‘liq universitetlar zimmasiga o‘tgan bo‘lsa, Rossiyada “akademik pedagogik ustaxona” (akademicheskoe nastavnichestvo) saqlanib qoldi. Pavel Fedotov, Ivan Kramskoy va Peredvijniklar uyushmasi tashkiliy tuzilmasi aynan ijodiy jamoa va ustoz-shogird hamkorligining pedagogik klaster shakli edi. Sankt-Peterburg I. Ye. Repin va Moskva V. I. Surikov institutlarida bugungi kungacha professor rahbarlik qiladigan kichik ijodiy ustaxonalar (masterskaya) faoliyati saqlanib kelmoqda.
- **Sharq va Yaponiya tajribasi:** Yaponiyada “ryu” (maktab) va “sensey” (usta) tizimi davlat tomonidan “Tirik milliy xazina” maqomi ostida qo‘llab-quvvatlanadi. Mamlakatda rasmiy akademik ta’lim bilan birga an’anaviy norasmiy ustozlik tizimi parallel ravishda yuksak samara berib kelmoqda.
- **Markaziy Osiyo va O‘zbekiston an’anasi:** Temuriylar va xonliklar davrida shakllangan naqqoshxona va kitobat ustaxonalari (Hirot, Buxoro, Samarqand) boy metodik tajribaga ega. Kamoliddin Behzodning Mirak Naqqoshdan ta’lim olishi, keyinchalik Behzodning “Bag‘dodlik Darvesh” kabi shedevrlarni yaratib, G‘arb (Jovanni Bellini) realistik san’ati bilan sirtdan muloqotga kirishishi va yuzlab shogirdlar (Shoh Muzaffar, Mahmud Muzahhib) tayyorlashi noyob milliy tajribadir (1-rasm).



4.2. O‘zbekiston zamonaviy rangtasvir maktabida an’ana va akademizm sintezi

XX asr boshlarida va o‘rtalarida O‘zbekiston tasviriy san’atida Yevropa realistik maktabi va mahalliy milliy kolorit hamda miniatyura sintezi yuz berdi.

Aleksandr Nikolaev (Usto Mo‘min) va Aleksandr Volkov Yevropa akademik texnikasini shartli sharqona motivlar, lakonizm va ritm bilan boyitishgan. Chingiz Ahmarov esa Hirot miniatyura maktabining klassik nafosatini V. Serov, V. Favorskiy va M. Matiss kabi G‘arb ustalari tajribasi bilan sintez qilib, Alisher Navoiy nomidagi akademik teatrda milliy monumental rangtasvir maktabini yaratdi. Mazkur tajriba keyinchalik B. Jalolov, J. Umarbekov, A. Ikromjonov va Ya. Salpinkidi kabi ustozlar tomonidan davom ettirildi.

4.3. Nusxa ko‘chirish metodikasini raqamli va klaster texnologiyalari bilan boyitish

Tarixan Sharq miniatyurasida “damshuy” (nozik detallar, gul barglari uchun) va “miyonshuy” (fon va katta yuzalar uchun) kabi surtma usullari qo‘llanib, talabada sabr va mahorat tarbiyalangan. Zamonaviy sharoitda nusxa ko‘chirish metodikasi mutlaqo yangi didaktik mazmun kasb etmoqda:

- **Texnologik transformatsiya:** Avvallari nusxa faqat asarning asliga qarab yoki setka/axta vositasida ko‘chirilgan bo‘lsa, bugungi kunda proyektor vositasida tasvirni bevosita xolstga tushirish yoki yuqori aniqlikdagi (High-Resolution) raqamli fotosuratlardan foydalanish mumkin.
- **Didaktik xavf va yechim:** Yengil raqamli ko‘chirish asarning fundamental yaratilish texnologiyasini (gruntlash, bo‘yoq qatlamlari, lessirovka, tekstura) to‘liq ochmaydi. Shu sababli proyektorda ko‘chirish amaliyotini muzeylarga bevosita tashrif buyurish va raqamli tahlil (analitik nusxa ko‘chirish) bilan muvofiqlashtirish zarur.

- **Pedagogik klaster modeli:** Chirchiq davlat pedagogika universiteti tajribasida amalga oshirilayotgan "Pedagog – rassom – talaba – maktab o'quvchisi" zanjiri asosidagi klaster aynan ustoz-shogird an'anasining zamonaviy institutsional shaklidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy badiiy-pedagogik ta'lim jarayonida an'anaviy ustoz-shogird tajribasi va innovatsion pedagogik usullarni muvofiqlashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqot quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

1. **Vorisiylik va klaster:** San'at ta'limida faqat nazariy-ma'ruza usullari bilan yuqori kasbiy mahoratga erishib bo'lmaydi. Milliy ustoz-shogird an'anasi talabada shaxsiy va kasbiy sifatlarni (soft & hard skills) shakllantirishning eng maqbul modelidir.
2. **Nusxa ko'chirishning yangi paradigmasi:** Klassik va miniatyura asarlaridan nusxa ko'chirish – bu mexanik takrorlash emas, balki asarning ijodiy va texnik tuzilishini analitik anglash usulidir. Raqamli texnologiyalar (multimedia, proyektor, HD-tahlil) ushbu jarayonga yordamchi didaktik vosita sifatida xizmat qilishi lozim.

Ilmiy-amaliy tavsiyalar:

- Badiiy-pedagogik oliy o'quv yurtlari dasturlariga "Analitik nusxa ko'chirish va raqamli rekonstruksiya" amaliy maxsus kurslarini kiritish.
- Ta'lim jarayonida "Oliy o'quv yurti – rangtasvir ustaxonalari – muzeylar – maktab" o'rtasidagi integratsiyani ta'minlovchi "Pedagogik klaster" tarmog'ini mustahkamlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alberti L. B. On Painting (De Pictura). – New York: Penguin Books, 2004. – 112 p.
2. Elkins J. Why Art Cannot Be Taught: A Handbook for Art Students. – Chicago: University of Illinois Press, 2001. – 224 p.
3. Kabaçam B. Traditional Master-Apprentice Relationship in Islamic Arts and Its Pedagogical Value // Journal of Educational and Social Research. – 2020. – Vol. 10, No. 4. – P. 145–154.
4. Mo'minova M. Temuriylar davri miniatyura san'atida ustoz va shogird an'analari // San'atshunoslik masalalari. – Toshkent, 2018. – № 3. – B. 54–59.
5. Nazarov M., Akramova N. O'zbekiston tasviriy san'ati tarixida akademik rangtasvir va milliy an'analar integratsiyasi // Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2021. – № 2. – B. 88–94.
6. Sultanov H. E. Tasviriy san'atni o'qitishda pedagogik klaster yondashuvi: Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021. – 180 b.
7. Tosh J. The Pursuit of History: Aims, Methods and New Directions in the Study of History. – 6th edition. – London: Routledge, 2015. – 368 p.
8. Savitskiy A. K. Letters and Pedagogical Heritage / Ed. by V. M. Volodarsky. – Moscow: Art, 1985. – 240 p.

TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi
Fizika kafedrasi o'qituvchisi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Unda oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablari hamkorligi asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmuni, shakllari va metodlari ochib berilgan. Metodikada fan-metodik, eksperimental, pedagogik-psixologik, kommunikativ, raqamli va reflektiv kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, "4+2" modeli, mentorlik, microteaching, Lesson Study, STEAM yondashuvi, virtual laboratoriyalar, e-portfolio va raqamli monitoring vositalaridan foydalanish imkoniyatlari asoslangan. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish diagnostika, resurslar bilan ishlash, metodik mahsulot yaratish, amaliy faoliyat, qayta aloqa, baholash va refleksiya bosqichlari asosida tashkil etilishi ko'rsatilgan. Taklif etilgan metodika bo'lajak fizika o'qituvchilarining nazariy bilimlarini amaliy pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirish, individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish hamda kasbiy tayyorgarlik samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim klasteri, bo'lajak fizika o'qituvchisi, kasbiy kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, "4+2" modeli, mentorlik, microteaching, Lesson Study, STEAM, raqamli texnologiyalar, e-portfolio, refleksiya.

Abstract: This article examines the methodology for developing the professional competence of prospective physics teachers in the context of an educational cluster. It reveals the content, forms, and methods of preparing prospective teachers for professional activity based on cooperation between higher education institutions and general education schools. Particular attention is paid to the development of subject-methodological, experimental, pedagogical-psychological, communicative, digital, and reflective competencies. The article also substantiates the possibilities of using the "4+2" model, mentoring, microteaching, Lesson Study, the STEAM approach, virtual laboratories, e-portfolio, and digital monitoring tools. It is shown that the development of professional competence should be organized through the stages of diagnostics, working with resources, developing methodological products, practical activity, feedback, assessment, and reflection. The proposed methodology contributes to integrating the theoretical knowledge of prospective physics teachers with practical pedagogical activities, developing individual professional development trajectories, and improving the effectiveness of their professional training.

Key words: educational cluster, prospective physics teacher, professional competence, professional training, "4+2" model, mentoring, microteaching, Lesson Study, STEAM, digital technologies, e-portfolio, reflection.

Аннотация: В данной статье рассматривается методология развития профессиональной компетенции будущих учителей физики в условиях образовательного кластера. Раскрываются содержание, формы и методы подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности на основе сотрудничества между высшими учебными заведениями и общеобразовательными школами. Методика уделяет особое внимание развитию научно-методологических, экспериментальных, педагогико-психологических, коммуникативных, цифровых и рефлексивных компетенций. Также включены модель "4+2", наставничество, микропреподавание, урок-исследование, STEAM-подход, виртуальные лаборатории, электронное портфолио и цифровые инструменты мониторинга. Показано, что развитие профессиональной компетентности организовано на основе этапов диагностики, работы с ресурсами, создания методического продукта, практической деятельности, обратной связи, оценки и рефлексии. Предложенная методология служит для объединения теоретических знаний будущих учителей физики с практической педагогической деятельностью, формирования индивидуальной траектории развития и повышения эффективности профессиональной подготовки.

Ключевые слова: образовательный кластер, будущий учитель физики, профессиональная компетентность, профессиональная подготовка, модель "4+2", наставничество, микропреподавание, урок-исследование, STEAM, цифровые технологии, электронное портфолио, рефлексия.

KIRISH

Zamonaviy pedagogik ta'lim paradigmasi bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlashda nazariy bilimlarni real pedagogik faoliyat bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Bugungi fizika o'qituvchisi fan qonuniyatlarini chuqur bilish bilan birga, ularni o'quvchilarga tushunarli bayon etishi, laboratoriya tajribalarini xavfsiz tashkil qilishi, innovatsion pedagogik va raqamli texnologiyalardan foydalanishi hamda o'z faoliyatini muntazam tahlil qilib borishi zarur. Shu jihatdan oliy ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va boshqa hamkor subyektlarni birlashtiruvchi ta'lim klasteri bo'lajak mutaxassislarning fan-metodik, eksperimental, pedagogik-psixologik, kommunikativ, raqamli va reflektiv kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish uchun muhim muhit yaratadi. Tadqiqotning maqsadi ta'lim klasteri imkoniyatlaridan foydalanish orqali bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimni asoslashdan iborat.

Zamonaviy pedagogik ta'lim paradigmasida bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, ularni real pedagogik faoliyatga samarali tayyorlashni talab etadi. Bugungi ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat fizik qonuniyatlarni chuqur bilishi, balki ularni o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, tajriba va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishi, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishi hamda o'z faoliyatini tahlil qilib, muntazam takomillashtirib borishi zarur [1].

Shu nuqtayi nazardan, ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim klasteri oliy ta'lim muassasasi, umumta'lim maktablari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va boshqa hamkor subyektlarning o'zaro manfaatli hamkorligiga asoslangan yaxlit ta'limiy muhitni shakllantiradi. Bunday muhitda talabaning nazariy tayyorgarligi bevosita pedagogik amaliyot bilan bog'lanadi va kasbiy kompetensiyaning amaliy jihatlari izchil rivojlantiriladi.

Taklif etilayotgan metodikaning asosiy maqsadi ta'lim klasterining imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali bo'lajak fizika o'qituvchilarida fan-metodik, eksperimental, pedagogik-psixologik, kommunikativ, raqamli va reflektiv kompetensiyalarni tizimli ravishda rivojlantirishdan iborat. Mazkur maqsadga erishishda nazariya va amaliyotning uzviyligi, individual rivojlanish, mentorlik, hamkorlik, raqamli monitoring va refleksiv yondashuv asosiy metodik tamoyillar sifatida belgilanadi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik ta'lim va kasbiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari mahalliy hamda xorijiy tadqiqotlarda turli yondashuvlar asosida yoritilgan.

G. I. Muxamedov va U. N. Xodjamqulov pedagogik ta'lim innovatsion klasterining zarurati, tuzilishi va kutiladigan natijalarini asoslagan bo'lsa, D. E. Qarshiyeva klaster vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslarini tadqiq etgan [3–4].

Y. X. Xudoyberdiyeva hamda I. G. Tursunov ishlarida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kompetentligi va didaktik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi tahlil qilingan [5].

L. S. Shulman o'qituvchining fan va pedagogik mazmun bilimlari uyg'unligini, P. Mishra va M. J. Koehler esa texnologik, pedagogik va fan bilimlarini integratsiyalovchi TPACK modelini asoslagan [6].

L. Darling-Hammond o'qituvchi tayyorlashning zamonaviy tamoyillarini, J. Hattie va H. Timperley qayta aloqaning ta'lim samaradorligidagi o'rnini, R. M. Ingersoll va M. Strong mentorlikning kasbiy rivojlanishga ta'sirini, J. Tondeur va hammualliflar esa bo'lajak o'qituvchilarni ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash omillarini ochib bergan [7–8].

Mazkur tadqiqotlar nazariya, amaliyot, mentorlik, raqamli texnologiyalar va refleksiyani yagona metodik tizimda birlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Metodikaning muhim tarkibiy qismi sifatida "4+2" modeli taklif etiladi. Mazkur modelda talabaning oliy ta'lim muassasasidagi nazariy tayyorgarligi maktabdagi uzluksiz pedagogik amaliyot bilan uyg'unlashtiriladi. OTMda shakllantirilgan metodik bilim va ko'nikmalar umumta'lim maktabida real pedagogik vaziyatlarda sinovdan o'tkaziladi. Maktabdagi faoliyat davomida olingan tajriba, kuzatuv va qayta aloqa esa keyingi o'quv jarayonini takomillashtirish uchun OTMga qaytariladi. Natijada nazariya – amaliyot – tahlil – qayta loyihalashdan iborat uzluksiz pedagogik sikl shakllanadi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot materiallarini pedagogik ta'lim klasteri, kasbiy kompetensiya va fizika o'qitish metodikasiga oid ilmiy manbalar, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi va "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonunlari, ilg'or pedagogik tajribalar hamda raqamli ta'lim resurslari tashkil etdi. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik kuzatish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni diagnostika, resurslar bilan ishlash,

metodik mahsulot yaratish, uni real pedagogik muhitda amalga oshirish va qayta aloqa olish, baholash hamda refleksiya bosqichlari asosida tashkil etildi. Metodik vositalar sifatida "4+2" modeli, mentorlik, microteaching, Lesson Study, STEAM loyihalari, virtual laboratoriyalar, raqamli simulyatsiyalar, rubrikalar, kuzatuv varaqalari, refleksiya kundaliklari, elektron portfolio va raqamli monitoring tizimidan foydalanish nazarda tutildi [10].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida bo'lajak fizika o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi fan-metodik, eksperimental, pedagogik-psixologik, kommunikativ, AKT va raqamli hamda reflektiv komponentlardan tashkil topishi aniqlandi. Taklif etilgan "4+2" modeli OTMdagi nazariy tayyorgarlikni maktabdagi uzluksiz pedagogik amaliyot bilan bog'lab, nazariya – amaliyot – tahlil – qayta loyihalash siklini shakllantirish imkonini beradi. Talabaning dars ishlanmasi, laboratoriya mashg'uloti, STEAM loyihasi yoki boshqa didaktik mahsulot yaratishi, uni mentor va metodist bilan takomillashtirishi hamda maktab sharoitida sinovdan o'tkazishi kasbiy tayyorgarlikning amaliy yo'nalishini kuchaytiradi.

Microteaching va Lesson Study pedagogik faoliyatni kuzatish va jamoaviy tahlil qilishga, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar murakkab fizik hodisalarni ko'rgazmali modellashtirishga, e-portfolio esa faoliyat natijalari va kasbiy rivojlanish dinamikasini tizimli qayd etishga xizmat qiladi. Kompetensiyalarni aniq mezon va indikatorlar asosida quyi, o'rta, yaxshi va namunali darajalarda baholash talabaning yutuq va kamchiliklarini aniqlash hamda individual rivojlanish yo'nalishini belgilash imkonini beradi [11].

Bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasi bir nechta o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topadi.

Birinchi komponent – **fan-metodik kompetensiya** bo'lib, u fizik bilimlarni chuqur egallash va mazkur bilimlarni maktab o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlariga mos holda tushuntirish qobiliyatini anglatadi. Talaba fizik qonuniyatlarni nafaqat nazariy jihatdan bilishi, balki ularni hayotiy misollar, masalalar, tajribalar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali tushuntira olishi lozim [12].

Ikkinchi komponent – **eksperimental kompetensiya.** Fizika fanining eksperimental xususiyatidan kelib chiqib, bo'lajak o'qituvchi laboratoriya jihozlaridan to'g'ri foydalanish, tajribalarni xavfsizlik qoidalariga muvofiq tashkil etish, o'lchash natijalarini qayta ishlash, tajriba xatoliklarini aniqlash va natijalarni ilmiy asosda izohlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishda OTM va maktab laboratoriyalaridagi amaliy mashg'ulotlar, virtual laboratoriyalar hamda modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish samarali hisoblanadi [13].

Uchinchi komponent – **pedagogik-psixologik kompetensiya.** Ushbu kompetensiya o'quvchilar bilan samarali ishlash, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish, differensial va inklyuziv ta'limni tashkil etish, o'quv motivatsiyasini oshirish hamda murakkab pedagogik vaziyatlarni boshqarish qobiliyatlarini qamrab oladi. Bo'lajak o'qituvchi o'quvchilarning bilim darajasi va psixologik xususiyatlariga mos topshiriqlarni tanlay olishi muhimdir.

To'rtinchi komponent – **kommunikativ kompetensiya** bo'lib, o'qituvchining fizik tushunchalarni aniq, ravon va tushunarli tilda bayon qilishi, savol-javob, munozara, debat va boshqa interfaol muloqot shakllarini samarali tashkil etishi bilan tavsiflanadi. Ta'lim klasterida talaba maktab mentori, OTM metodisti, tengdoshlari va o'quvchilar bilan muntazam hamkorlik qilib, o'zining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi [14].

Beshinchi komponent – **AKT va raqamli kompetensiya.** Zamonaviy fizika ta'limida raqamli texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, interaktiv simulyatsiyalar, multimedia vositalari va elektron portfoliolardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bo'lajak o'qituvchi raqamli didaktik materiallarni mustaqil yaratishi, virtual tajribalarni dars jarayoniga integratsiya qilishi va elektron ta'lim resurslaridan maqsadli foydalanishi zarur.

Oltinchi komponent – **reflektiv kompetensiya.** Reflektiv kompetensiya bo'lajak o'qituvchining o'z pedagogik faoliyatini xolis tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi, mentor va metodist tavsiyalarini hisobga olishi hamda keyingi faoliyatini takomillashtirishi bilan bog'liq. Refleksiya kasbiy rivojlanishning uzluksizligini ta'minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni besh asosiy bosqich asosida tashkil etiladi: diagnostika, resurslar bilan ishlash, metodik mahsulot yaratish, amalga oshirish va qayta aloqa, baholash va refleksiya.

Diagnostika bosqichida talabaning boshlang'ich bilim, ko'nikma va kompetensiyalari aniqlanadi. Bunda testlar, kuzatuvlar, suhbatlar va dastlabki pedagogik faoliyat tahlilidan foydalaniladi. Har bir talaba uchun uning rivojlanishida ustuvor bo'lgan ehtiyojlar belgilanadi.

Resurslar bilan ishlash bosqichida talaba zamonaviy ilmiy-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari, virtual laboratoriyalar va ilg'or pedagogik tajribalar bilan tanishadi. Olingan nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish uchun individual o'quv rejasi shakllantiriladi [15].

Metodik mahsulot yaratish bosqichida talaba mustaqil ravishda dars ishlanmasi, laboratoriya mashg'uloti, STEAM loyihasi yoki boshqa didaktik materiallarni ishlab chiqadi. Tayyorlangan mahsulot OTM metodisti va maktab mentori tomonidan tahlil qilinib, zarur metodik tuzatishlar kiritiladi.

Amalga oshirish va qayta aloqa bosqichida ishlab chiqilgan metodik mahsulot real maktab sharoitida sinovdan o'tkaziladi. Talaba ochiq dars, mikroo'qitish yoki laboratoriya mashg'ulotini tashkil etadi. Maktab mentori va OTM metodisti faoliyatni kuzatib, aniq mezonlar asosida qayta aloqa beradi.

Baholash va refleksiya bosqichida talabaning erishgan natijalari tahlil qilinadi. Bunda an'anaviy baholash bilan bir qatorda mezonli baholash, rubrikalar, e-portfolio, kuzatuv varaqalari va refleksiya kundaliklaridan foydalaniladi. Talaba o'z faoliyatidagi kamchiliklarni aniqlaydi va keyingi rivojlanish bosqichi uchun yangi maqsadlarni belgilaydi.

Metodikada microteaching va Lesson Study texnologiyalaridan foydalanish ham muhim o'rin tutadi. Microteaching orqali talaba qisqa vaqt davomida darsning ma'lum qismini sinab ko'radi, videoyozuv asosida o'z faoliyatini tahlil qiladi va tengdoshlari hamda mentorlarning fikrlarini oladi. Lesson Study jarayonida esa talaba, maktab mentori va OTM metodisti birgalikda darsni rejalashtiradi, kuzatadi va tahlil qiladi. Bu yondashuv pedagogik faoliyatni jamoaviy takomillashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, metodikada STEAM yondashuvi, virtual laboratoriyalar va raqamli simulyatsiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratiladi. Fizik hodisalarni modellashtirish orqali talabalar murakkab va abstrakt tushunchalarni vizual ko'rinishda ifodalashni o'rganadilar. Bu esa kelgusida maktab o'quvchilarining fizik bilimlarni o'zlashtirish jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga imkon beradi.

Kasbiy kompetensiyani baholashda mezon, indikator va darajalarga asoslangan yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Bunda har bir kompetensiya uchun kuzatiladigan aniq indikatorlar belgilanadi. Talabaning faoliyati quyi, o'rta, yaxshi va namunali darajalar asosida baholanadi. Baholash natijalari e-portfolio orqali tizimlashtirilib, talabaning kasbiy rivojlanish dinamikasi kuzatib boriladi.

Raqamli monitoring tizimi talabaning faoliyat dalillari, dars ishlanmalari, laboratoriya protokollari, videomateriallari, mentor fikrlari, baholash natijalari va reflektiv yozuvlarini yagona tizimda jamlash imkonini beradi. Bunda raqamli platformadagi texnik faollikning o'zi kasbiy kompetensiyaning bevosita ko'rsatkichi sifatida emas, balki talabaning amaliy faoliyat mahsulotlari va ularning sifat ko'rsatkichlari asosiy mezon sifatida olinadi.

Shunday qilib, ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi nazariya va amaliyotni integratsiyalash, mentorlik va hamkorlikni kuchaytirish, raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda muntazam refleksiyani tashkil etishga asoslanadi. Mazkur yondashuv bo'lajak o'qituvchining kasbiy rivojlanishini individual va uzluksiz jarayon sifatida tashkil etish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik ta'lim paradigmasida bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmasdan, ularni real pedagogik faoliyatga samarali tayyorlashni talab etadi. Bugungi ta'lim jarayonida o'qituvchi nafaqat fizik qonuniyatlarni chuqur bilishi, balki ularni o'quvchilarga tushunarli tarzda yetkazishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishi, tajriba va laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishi, raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishi hamda o'z faoliyatini tahlil qilib, muntazam takomillashtirib borishi zarur.

Shu nuqtayi nazardan, ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim klasteri oliy ta'lim muassasasi, umumta'lim maktablari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va boshqa hamkor subyektlarning o'zaro manfaatli hamkorligiga asoslangan yaxlit ta'limiy muhitni shakllantiradi. Bunday muhitda talabaning nazariy tayyorgarligi bevosita pedagogik amaliyot bilan bog'lanadi va kasbiy kompetensiyaning amaliy jihatlari izchil rivojlantiriladi.

Taklif etilayotgan metodikaning asosiy maqsadi ta'lim klasterining imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali bo'lajak fizika o'qituvchilarida fan-metodik, eksperimental, pedagogik-psixologik, kommunikativ, raqamli va reflektiv kompetensiyalarni tizimli ravishda rivojlantirishdan iborat. Mazkur maqsadga erishishda nazariya va amaliyotning uzviyligi, individual rivojlanish, mentorlik, hamkorlik, raqamli monitoring va refleksiv yondashuv asosiy metodik tamoyillar sifatida belgilanadi.

Metodikaning muhim tarkibiy qismi sifatida "4+2" modeli taklif etiladi. Mazkur modelda talabaning oliy ta'lim muassasasidagi nazariy tayyorgarligi maktabdagi uzluksiz pedagogik amaliyot bilan uyg'unlashtiriladi. OTMda shakllantirilgan metodik bilim va ko'nikmalar umumta'lim maktabida real pedagogik vaziyatlarda sinovdan o'tkaziladi. Maktabdagi faoliyat davomida olingan tajriba, kuzatuv va qayta aloqa esa keyingi o'quv jarayonini takomillashtirish uchun OTMga qaytariladi. Natijada nazariya – amaliyot – tahlil – qayta loyihalashdan iborat uzluksiz pedagogik sikl shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi nazariy bilimlarni amaliy pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'lashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur metodika oliy ta'lim muassasasi va umumta'lim maktablari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, talabaning real pedagogik muhitda faoliyat olib borishini ta'minlash hamda uning individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot doirasida kasbiy kompetensiyaning fan-metodik, eksperimental, pedagogik-psixologik, kommunikativ, raqamli va reflektiv komponentlarini kompleks rivojlantirishga yo'naltirilgan metodik yondashuv taklif etildi. "4+2" modeli, mentorlik, microteaching, Lesson Study, STEAM, virtual laboratoriyalar, e-portfolio va raqamli monitoring kabi vositalarning uyg'un qo'llanilishi bo'lajak fizika o'qituvchisining nazariy, amaliy va metodik tayyorgarligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Metodikaning diagnostika, resurslar bilan ishlash, metodik mahsulot yaratish, amalga oshirish va qayta aloqa, baholash hamda refleksiya bosqichlari asosida tashkil etilishi kasbiy rivojlanishning uzluksizligini ta'minlaydi. Ayniqsa, mezon va indikatorlarga asoslangan baholash, mentor va OTM metodistining qayta aloqasi hamda e-portfolio orqali natijalarni tizimlashtirish talabaning kasbiy o'sishini muntazam kuzatish imkonini beradi.

Umuman olganda, ta'lim klasteriga asoslangan mazkur metodika bo'lajak fizika o'qituvchilarining mustaqil fikrlashi, pedagogik muammolarni hal etishi, zamonaviy raqamli va eksperimental vositalardan foydalanishi, o'z faoliyatini tahlil qilishi hamda kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz takomillashtirishiga sharoit yaratadi. Shu sababli ushbu metodikani pedagogik oliy ta'lim tizimida amaliyotga keng joriy etish bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Ta'lim klasteri asosidagi metodika bo'lajak fizika o'qituvchilarining nazariy bilimlarini amaliy pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'lash, oliy ta'lim muassasasi va umumta'lim maktabi hamkorligini kuchaytirish hamda kasbiy rivojlanishni uzluksiz tashkil etish imkonini beradi. "4+2" modeli, mentorlik, microteaching, Lesson Study, STEAM, virtual laboratoriyalar, elektron portfolio va raqamli monitoring vositalarining uyg'un qo'llanilishi talabalarning fan-metodik, eksperimental, pedagogik-psixologik, kommunikativ, raqamli va reflektiv kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Metodik jarayonning diagnostika, metodik mahsulot yaratish, amaliyot, qayta aloqa, baholash va refleksiya bosqichlari asosida tashkil etilishi bo'lajak o'qituvchining mustaqil fikrlashi, pedagogik muammolarni hal qilishi va o'z faoliyatini muntazam takomillashtirishiga sharoit yaratadi. Shu sababli mazkur metodikani pedagogik oliy ta'lim amaliyotiga joriy etish bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi sifatini oshirishning muhim omili sifatida baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son[1].
2. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni. – 2024-yil 1-fevral, O'RQ-901-son[2].
3. Muxamedov G. I., Xodjamqulov U. N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 230 b.
4. Xodjamqulov U. N. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri (O'zbekiston ta'lim tizimi misolida) // Academic Research in Educational Sciences. – 2020. – Vol. 1, № 4. – B. 537–547.
5. Qarshiyeva D. E. Klaster vositasida bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik asoslari. – Chirchiq, 2021. – 122 b.
6. Xudoyberdiyeva Y. X. Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish metodikasi // Uzbek Scholar Journal. – 2024. – № 35. – B. 62–64.
7. Xudoyberdiyeva Y. X., Tursunov I. G. Methodology of Didactic Skills Development in Future Teachers // Pedagogical Cluster – Journal of Pedagogical Developments. – 2024. – Vol. 2, Issue 4. – P. 256–263.
8. Shulman L. S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform // Harvard Educational Review. – 1987. – Vol. 57, № 1. – P. 1–23.
9. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // Teachers College Record. – 2006. – Vol. 108, № 6. – P. 1017–1054.
10. Darling-Hammond L. Constructing 21st-Century Teacher Education // Journal of Teacher Education. – 2006. – Vol. 57, № 3. – P. 300–314.
11. Hattie J., Timperley H. The Power of Feedback // Review of Educational Research. – 2007. – Vol. 77, № 1. – P. 81–112.
12. Lave J., Wenger E. Situated Learning: Legitimate Peripheral Participation. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 138 p.
13. Ingersoll R. M., Strong M. The Impact of Induction and Mentoring Programs for Beginning Teachers // Review of Educational Research. – 2011. – Vol. 81, № 2. – P. 201–233.
14. Tondeur J., van Braak J., Sang G. et al. Preparing Pre-service Teachers to Integrate Technology in Education // Computers & Education. – 2012. – Vol. 59, № 1. – P. 134–144.
15. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/docs/-6786401

TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI PLATFORMALAR VA DASTURIY TA'MINOTDAN FOYDALANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Tengelbayeva Dinora Muratovna
Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: Maqolada ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida tahlil qilindi. Tadqiqotning maqsadi raqamli vositalarning pedagogik samaradorligini belgilovchi omillar, xavflar va tashkiliy-didaktik shartlarni aniqlashdan iborat. 2017–2026-yillarda nashr etilgan 14 ta manba kontent-tahlil qilinib, pedagogik muvofiqlik, raqamli kompetensiya, ta'lim oluvchining faolligi, monitoring, inklyuzivlik hamda etik boshqaruv kabi asosiy muammoviy yo'nalishlar ajratildi. Natijalar raqamli platformalarni pedagogik ehtiyojlar asosida tanlash, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish va uzluksiz monitoringni yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: raqamli platforma, dasturiy ta'minot, pedagogik muammo, raqamli ta'lim, o'quv dizayni, raqamli kompetensiya, ta'lim analitikasi, akademik halollik, inklyuzivlik.

Abstract: The article examines the use of digital platforms and software in education as a pedagogical problem. The study aims to identify the factors, risks, and organisational-didactic conditions influencing the pedagogical effectiveness of digital tools. Based on a content analysis of 14 sources published between 2017 and 2026, the main problem areas were identified: pedagogical alignment, digital competence, learner engagement, monitoring, inclusion, and ethical governance. The findings demonstrate the need to select digital platforms according to pedagogical needs, develop teachers' digital competence, and establish continuous monitoring.

Key words: digital platform, educational software, pedagogical problem, digital education, instructional design, digital competence, learning analytics, academic integrity, inclusion.

Аннотация: В статье использование цифровых платформ и программного обеспечения в образовательном процессе рассматривается как педагогическая проблема. Цель исследования – определить факторы, риски и организационно-дидактические условия, влияющие на педагогическую эффективность цифровых средств. На основе контент-анализа 14 источников, опубликованных в 2017–2026 гг., выделены основные проблемные направления: педагогическая целесообразность, цифровая компетентность, активность обучающихся, мониторинг, инклюзивность и этическое управление. Результаты подтверждают необходимость выбора цифровых платформ с учётом педагогических потребностей, развития цифровой компетентности преподавателей и организации непрерывного мониторинга.

Ключевые слова: цифровая платформа, программное обеспечение, педагогическая проблема, цифровое образование, учебный дизайн, цифровая компетентность, аналитика обучения, академическая честность, инклюзивность.

KIRISH

Raqamli platformalar, ta'limni boshqarish tizimlari (LMS), videokonferensiya xizmatlari, virtual laboratoriyalar, mobil ilovalar, adaptiv tizimlar va sun'iy intellektga asoslangan dasturlar ta'limning makon-vaqt chegaralarini kengaytirmoqda. Biroq vositaning mavjudligi o'z-o'zidan o'quv natijasini yaxshilamaydi. Texnologiya o'quv maqsadi, faoliyat, kommunikatsiya, baholash va qayta aloqa bilan muvofiqlashtirilmaganda, u o'qitishni raqamli shaklda takrorlash, kognitiv yukni oshirish yoki ta'lim oluvchini passiv iste'molchiga aylantirish xavfini tug'diradi [5; 6]. Shu sababli muammo "qaysi platformadan foydalanish?" savoliga emas, "qaysi pedagogik vazifani, kim uchun, qanday sharoitda va qanday dalil asosida hal qilish?" savoliga ko'chirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida masofaviy ta'lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet orqali bilim, malaka va ko'nikmalarni masofadan egallashga qaratilgan ta'lim shakli sifatida huquqiy jihatdan mustahkamlangan [1]. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi esa tarmoqlar va hududlarning raqamli transformatsiyasini ustuvor vazifa etib belgilaydi [2]. Mazkur normativ yo'nalish raqamli

infratuzilmani kengaytirish bilan birga, uning pedagogik maqsadga muvofiqligi, ta'lim sifati, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va teng foydalanish imkoniyatlarini ilmiy asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

UNESCO texnologiyani ta'limga dalil, tenglik, kengaytirish imkoniyati va barqarorlik mezonlari asosida joriy etishni tavsiya qiladi; texnologiya ayrim guruhlar uchun imkoniyat yaratishi bilan birga, boshqalarni chetda qoldirishi mumkinligini ta'kidlaydi [5]. OECD raqamli ta'limni alohida vositalar yig'indisi emas, boshqaruv, infratuzilma, resurslar, ma'lumotlar va inson salohiyati o'zaro bog'langan ekotizim sifatida ko'radi [6]. Demak, platformalardan foydalanishning asosiy qarama-qarshiligi texnologik imkoniyatlarning tez o'sishi bilan pedagogik tizimning ularni maqsadli, xavfsiz va inklyuziv o'zlashtirish sur'ati o'rtasida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot muammosi raqamli vositalarning funksional imkoniyatlari va real pedagogik natijalar o'rtasidagi tafovut bilan belgilanadi.

Tadqiqot obyekti – raqamli vositalar bilan qo'llab-quvvatlanadigan ta'lim jarayoni.

Tadqiqot predmeti - raqamli platforma va dasturiy ta'minotdan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanishni belgilovchi shartlar, mexanizmlar va xavflar.

Maqsad - mazkur foydalanishni pedagogik muammo sifatida tizimlashtirish va amaliy qaror qabul qilish modelini ishlab chiqish.

Tadqiqot savollari:

1. Adabiyotlarda qaysi muammoviy domenlar ustun?
2. Raqamli vosita qanday shartlarda pedagogik qiymat hosil qiladi?
3. Texnologik, didaktik va etik talablarni birlashtiruvchi model qanday tuzilishi mumkin?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli vositalarni pedagogik jihatdan talqin qilishda:

Birinchi yo'nalish - **texnologiya va pedagogika muvofiqligi.** Haleem va hammualliflar raqamli texnologiyalarning resurslarga kirish, hamkorlik va moslashuvchanlik imkoniyatlarini ko'rsatsalar-da, ulardan samarali foydalanish pedagogik dizayn va foydalanuvchi tayyorgarligiga bog'liqligini qayd etadilar [8]. Sailer va hammualliflar texnologiya integratsiyasi natijasini vositaning o'zidan emas, bevosita o'quv faoliyati hamda institutsional sharoitlarning birgalikdagi ta'siridan izohlashni taklif etadilar [10]. Bu qarash texnologik determinizmni rad etib, vositani pedagogik tizimning tarkibiy elementi sifatida baholaydi.

Ikkinchi yo'nalish - **pedagogning raqamli kompetensiyasi.** DigCompEdu modeli pedagogning kasbiy hamkorlik, raqamli resurslar, o'qitish va o'rganish, baholash, ta'lim oluvchini qo'llab-quvvatlash hamda uning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishga doir 22 kompetensiyasini olti sohaga birlashtiradi [7]. Modelning muhim jihati shundaki, texnik operatsiyalar pedagogik rejalashtirish, differensial yondashuv, qayta aloqa va refleksiya bilan bog'lanadi. Shunday ekan, platformani bilish - kompetensiyaning faqat instrumental qatlami; pedagogik natija uchun o'qituvchi texnologiya yordamida faoliyat va baholashni qayta loyihalay olishi kerak.

Uchinchi yo'nalish - **ta'lim oluvchining faolligi va o'zini o'zi boshqarishi.** Bond va hammualliflarning tizimli xaritalash tadqiqoti raqamli texnologiya bilan qo'llab-quvvatlangan oliy ta'limda faollikning xulqiy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ko'rinishlari bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatadi [9]. Veluvali va Surisetti LMSning jalb etish salohiyati kontent joylashtirish bilangina emas, muntazam muloqot, hamkorlik, topshiriqni bosqichlash va tezkor qayta aloqa bilan ro'yobga chiqishini ta'kidlaydilar [11]. Raqamli muhitda talaba vaqtni rejalashtirish, maqsad qo'yish, taraqqiyotni kuzatish va yordam so'rash kabi o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalariga ehtiyoj sezadi [14].

To'rtinchi yo'nalish - **ta'lim analitikasi.** Ifenthaler va Yau 6220 yozuvdan tanlangan 46 empirik ishni tahlil qilib, analitika talabaning o'qishni davom ettirishi va kursni yakunlashini qo'llab-quvvatlashi mumkinligini, biroq ta'sir dizayn va aralashuvning sifatiga bog'liqligini ko'rsatadilar [12]. Blumenstein 38 tadqiqotdagi ta'sir o'lchamlarini ko'rib, hamkorlik va mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirgan loyihalarda ijobiy natijalar kuchliroq bo'lganini aniqlaydi [13]. Analitika nazorat mexanizmi emas, tushunarli indikator, pedagogik talqin va vaqtida ko'rsatilgan yordam bilan birga ishlaganda rivojlantiruvchi vositaga aylanadi.

Beshinchi yo'nalish - **tenglik, inklyuzivlik va etik boshqaruv.** Qurilma, internet sifati, interfeysning foydalanish imkoniyati, til, nogironlik holati va raqamli savodxonlikdagi farqlar bir xil platforma turli talabalar uchun turlicha imkoniyat yaratishini bildiradi [5]. Bundan tashqari, platformalar o'quv izlari, xulq-atvor va baholash ma'lumotlarini yig'adi. OECD ma'lumotlar boshqaruvi, o'zaro ishlash qobiliyati va ishonchni ekotizimning markaziy sharti sifatida ko'rsatadi [6]. Shuning uchun ma'lumotni minimallashtirish, maqsadning aniqligi, xabardorlik, kirish

huquqlarini chegaralash, algoritmik qarorlarni inson nazoratida saqlash va akademik halollik pedagogik sifatning ajralmas qismidir.

Adabiyotlar tahlili texnologiyadan foydalanishni uch darajada ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi:

- mikro daraja - o‘quv topshirig‘i va o‘zaro ta’sir;
- mezo daraja - kurs, kafedra va muassasa boshqaruvi;
- makro daraja - siyosat, infratuzilma va huquqiy tartibga solish.

Mavjud ishlarda ushbu darajalar ko‘pincha alohida yoritiladi. Tadqiqotning ilmiy bo‘shlig‘i pedagogik muvofiqlik, kompetensiya, faollik, analitika, inklyuzivlik va etik boshqaruvni bir qaror siklida integratsiyalash zarurati bilan belgilanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot dizayni sifat jihatidan ustun bo‘lgan integrativ hujjatli tadqiqot va kvantifikatsiyalangan kontent-tahlilga asoslandi. Empirik birlik sifatida 2017–2026-yillarda e’lon qilingan, raqamli platforma yoki dasturiy ta’minotning ta’limdagi qo‘llanishiga bevosita aloqador normativ hujjat, xalqaro konseptual hisobot yoki tizimli sharh qabul qilindi. Qidiruv va tanlash jarayonida rasmiy huquqiy baza, UNESCO, OECD, Yevropa Komissiyasi/JRC va ilmiy nashriyotlarning sahifalari ko‘rib chiqildi.

Kiritish mezonlari:

a) ta’lim kontekstining mavjudligi;

b) platforma, LMS, ta’lim analitikasi yoki raqamli texnologiya integratsiyasini muhokama qilishi;

c) metod yoki tavsiyalarining aniqligi;

d) to‘liq bibliografik identifikatsiya yoki DOIga ega bo‘lishi;

e) o‘zbek, rus yoki ingliz tilida bo‘lishi.

Faqat texnik tavsif beruvchi reklama materiallari, muallifi yoki sanasi aniqlanmagan matnlar, bir xil tadqiqotning takroriy nusxalari chiqarib tashlandi. Yakuniy korpus 14 manbadan: 3 normativ hujjat, 3 xalqaro konseptual hisobot/ramka va 8 ilmiy sharh yoki empirik sintezdan tuzildi.

Kodlash birligi manbada muayyan muammo domenining mazmunan asoslangan ifodasi bo‘ldi. Dastlab adabiyotlar sharhidan oltita deduktiv kategoriya belgilandi; matnni qayta o‘qish jarayonida ularning indikatorlari induktiv ravishda aniqlashtirildi. Har bir manbada kategoriya asosiy natija, muhokama yoki tavsiya darajasida mavjud bo‘lsa, “1”, faqat nomigagina tilga olingan yoki mavjud bo‘lmasa, “0” deb kodlandi. Chastota n va 14 manbaga nisbatan foizda hisoblandi. Foizlar pedagogik ta’sir kattaligini emas, tanlangan korpusda muammoning qanchalik muntazam yoritilganini ko‘rsatadi.

Tahlilning ishonchliligini oshirish uchun kategoriyalar operatsion ta’riflar bilan chegaralandi, normativ va ilmiy manbalar triangulyatsiya qilindi, qarama-qarshi xulosalar saqlandi hamda natijalar matndagi dalillar bilan qayta solishtirildi. Tadqiqot inson ishtirokchilarini jalb qilmagani va ochiq manbalardagi hujjatlar bilan ishlagani sababli respondent roziligi talab etilmadi. Cheklov sifatida bitta kodlovchi ishlagani, maqsadli tanlanma va nisbatan kichik korpus natijalarni barcha ta’lim tizimlariga statistik umumlashtirish imkonini bermasligi qayd etiladi (1-jadval).

1-jadval; **Kontent-tahlil kategoriyalari va indikatorlari**

Kategoriya	Operatsion ta’rif	Kuzatiladigan indikatorlar
Pedagogik muvofiqlik	Vosita, maqsad, mazmun, faoliyat va baholash birligi	Maqsadga mos tanlov; o‘quv dizayni; kognitiv yuk; metodik ssenariy
Raqamli kompetensiya	Pedagog va talabaning texnologiyani ongli qo‘llash salohiyati	Resurs yaratish; fasilitatsiya; baholash; refleksiya; raqamli savodxonlik
Faollik va o‘zini boshqarish	Talabaning xulqiy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy ishtiroki	Maqsad qo‘yish; hamkorlik; motivatsiya; vaqtni boshqarish; yordam so‘rash
Monitoring va qayta aloqa	O‘quv izlarini pedagogik qarorga aylantirish	Analitika; formatif baholash; erta ogohlantirish; shaxsiy tavsiya
Tenglik va inklyuzivlik	Raqamli ta’limdan adolatli va qulay foydalanish	Qurilma/internet; accessibility; til; universal dizayn; muqobil format
Etika va ma’lumotlar boshqaruvi	Huquq, xavfsizlik va ishonchni ta’minlash	Maxfiylik; minimallashtirish; rozilik/ xabardorlik; algoritmik shaffoflik; halollik

TAHLIL VA NATIJALAR

Kontent-tahlil raqamli vositalardan foydalanish haqidagi muhokama texnik imkoniyatlar atrofida emas, pedagogik qarorlar tizimi atrofida shakllanayotganini ko‘rsatdi. 14 manbaning 12 tasida (85,7%) pedagogik muvofiqlik, 11 tasida (78,6%) raqamli kompetensiya, 10 tasida (71,4%) ta’lim oluvchi faolligi va o‘zini o‘zi boshqarish, 9 tasida (64,3%) monitoring va qayta aloqa, 8 tasida (57,1%) tenglik va inklyuzivlik, 7 tasida (50,0%) etika va ma’lumotlar boshqaruvi asosiy kategoriya sifatida uchradi. Kategoriyalar o‘zaro istisno qilinmaydi; bitta manba bir nechta domen bo‘yicha kodlangan.

Pedagogik muvofiqlikning ustunligi platforma samaradorligi uning funksiyalari soni bilan emas, didaktik vazifaga mosligi bilan belgilanayotganini anglatadi. Eng barqaror indikatorlar maqsad–faoliyat–baholash uyg‘unligi, talabaning faol mahsulot yaratishi, sinxron va asinxron faoliyatlarning asosli nisbati hamda tezkor formativ qayta aloqa bo‘ldi. Faqat material yuklash va topshiriq qabul qilish bilan cheklangan LMS amaliyoti raqamlashtirilgan ma’muriy jarayon bo‘lib qoladi; u o‘rganishning mazmuniy mexanizmlarini o‘zgartirmaydi.

Raqamli kompetensiya va faollik kategoriyalarining yuqori chastotasi inson omilining markaziyligini tasdiqladi. O‘qituvchi platformani boshqarishni bilsa-yu, muammoli topshiriq, hamkorlik, differensial yordam va baholash mezonlarini loyihalay olmasa, texnik foydalanish pedagogik foydalanishga aylanmaydi. Xuddi shuningdek, talabaning qurilmaga ega bo‘lishi uning mustaqil o‘qishga tayyorligini anglatmaydi. Orientatsiya, vaqtni boshqarish vositalari, kichik bosqichli topshiriqlar, progress ko‘rsatkichlari va o‘zini baholash savollari raqamli muhitdagi mustaqillikni qo‘llab-quvvatlaydi.

Etika va ma’lumotlar boshqaruvining nisbatan past chastotasi muhim nomutanosiblikni ko‘rsatdi. Platforma tanlashda ko‘pincha funksionallik va qulaylik birinchi o‘ringa chiqadi, ma’lumot qayerda saqlanishi, kim foydalanishi, qancha muddat saqlanishi, algoritmik tavsiya qanday hosil bo‘lishi va talaba qarorga e’tiroz bildira olishi esa keyingi bosqichga suriladi. Holbuki, ushbu savollar javobsiz qolsa, analitika pedagogik yordamdan kuzatuv va nazorat vositasiga aylanishi mumkin.

Tahlil asosida “PEDAGOG” siklik modeli taklif qilindi:

P - pedagogik ehtiyojni aniqlash;

E - ekotizim va teng foydalanish sharoitlarini baholash;

D - didaktik ssenariyni loyihalash;

A - amalga oshirish va adaptiv qo‘llab-quvvatlash;

G - gathering, ya’ni dalillarni yig‘ish va tahlil qilish;

O - ochiqlik, xavfsizlik va akademik halollikni tekshirish;

G - galdagi takomillashtirish qarorini qabul qilish.

Model texnologiya tanlashni bir martalik xarid emas, dalilga tayangan pedagogik boshqaruv sikli sifatida talqin qiladi (2-jadval).

2-jadval: **Muammoviy domenlarning manbalar korpusida uchrash chastotasi**

№	Muammoviy domen	n	Ulushi, %
1	**Pedagogik muvofiqlik**	12	85,7
2	**Raqamli kompetensiya**	11	78,6
3	**Faollik va o‘zini o‘zi boshqarish**	10	71,4
4	**Monitoring va qayta aloqa**	9	64,3
5	**Tenglik va inklyuzivlik**	8	57,1
6	**Etika va ma’lumotlar boshqaruvi**	7	50,0

Izoh: n = 14. Kategoriyalar ko‘p javobli kodlangani sababli foizlar yig‘indisi 100 foizdan oshadi (3-jadval).

3-jadval: **“PEDAGOG” modelining amaliy qaror mezonlari**

Bosqich	Mazmuni	Asosiy savol	Natija/dalil
P	Pedagogik ehtiyoj	Qaysi o‘quv muammosi hal qilinadi?	Aniq maqsad va boshlang‘ich diagnostika
E	Ekotizim va tenglik	Kim, qaysi qurilma va sharoitda foydalanadi?	Kirish, accessibility va qo‘llab-quvvatlash xaritasi

Bosqich	Mazmuni	Asosiy savol	Natija/dalil
D	Didaktik ssenariy	Talaba nima qiladi va qanday fikrlaydi?	Faoliyat, resurs, muloqot va baholash uyg‘unligi
A	Amalga oshirish	Qanday fasilitatsiya va adaptiv yordam beriladi?	Orientatsiya, yo‘riqnoma va yordam protokoli
G	Dalil yig‘ish	Qaysi ma’lumot o‘rganishni ko‘rsatadi?	Minimal analitika, mahsulot va refleksiya
O	Ochiqlik va xavfsizlik	Ma’lumot va algoritmik qarorlar qanday boshqariladi?	Maxfiylik, halollik va inson nazorati
G	Galdagi takomillashtirish	Nimani saqlash, o‘zgartirish yoki bekor qilish kerak?	Taqqoslangan natija va yangi iteratsiya

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari raqamli platforma va dasturiy ta’minotdan foydalanishning markaziy muammosi texnologiya yetishmasligi bilangina cheklanmasligini ko‘rsatdi. Asosiy muammo - texnologik imkoniyatlarni pedagogik maqsad, ta’lim oluvchi faoliyati, o‘qituvchi kompetensiyasi, baholash, tenglik va etik boshqaruv bilan muvofiqlashtirishdir. Bu xulosa UNESCOning dalil va tenglikka asoslangan joriy etish talabi [5], OECDning ekotizimli yondashuvi [6] hamda DigCompEduning kompetensiyaviy mantig‘i [7] bilan uyg‘un.

Natijalarning ilmiy ahamiyati oltita domenning “PEDAGOG” siklida birlashtirilganidadir. Modelda pedagogik ehtiyoj texnologiyadan oldin keladi, dalillar esa yakuniy hisobot uchun emas, keyingi didaktik qarorni yaxshilash uchun yig‘iladi. Shu tariqa platformaning samaradorligi “foydalanildi/foydalanilmadi” ko‘rsatkichi bilan emas, o‘quv maqsadiga erishish, talabaning faol ishtiroki, sifatli qayta aloqa, inklyuziv kirish va xavfsiz boshqaruv mezonlari bilan baholanadi.

Amaliy jihatdan ta’lim tashkilotlariga besh yo‘nalish tavsiya etiladi:

Birinchidan, platforma xarididan oldin pedagogik va foydalanuvchi ehtiyojlarini diagnostika qilish.

Ikkinchidan, o‘qituvchilar malakasini funksional treningdan o‘quv dizayni, analitika talqini va etik qaror qabul qilish darajasiga ko‘tarish.

Uchinchidan, bir xil kontentni barcha talabalarga uzatish o‘rniga faol, hamkorlikdagi va differensial faoliyatlarni loyihalash.

To‘rtinchidan, platforma loglarini talabaning mahsuloti, formativ baholash va refleksiya bilan triangulyatsiya qilish.

Beshinchidan, muqobil formatlar, past tezlikdagi ulanish ssenariysi, ma’lumotlarni minimallashtirish va algoritmik qarorlar ustidan inson nazoratini institutsional standartga aylantirish.

Tadqiqotning cheklovi maqsadli va kichik hujjatlar korpusi hamda bitta kodlovchi bilan bog‘liq. Keyingi tadqiqotlarda kodlovchilararo kelishuv koeffitsiyentini hisoblash, turli fan yo‘nalishlari bo‘yicha o‘qituvchi va talabalar so‘rovini o‘tkazish, LMS loglari bilan o‘quv natijalarini uzunlamasına taqqoslash hamda “PEDAGOG” modelining eksperimental samaradorligini tekshirish maqsadga muvofiq. Shuningdek, platforma turiga, ta’lim bosqichiga va institutsional raqamli yetuklikka ko‘ra model indikatorlarini differensiallashtirish zarur.

Umumiy xulosa shuki, raqamli texnologiya pedagogik muammoni avtomatik yechmaydi; u to‘g‘ri tashxis, didaktik loyihalash, inson salohiyati va mas’ul boshqaruv mavjud bo‘lgandagina ta’lim sifatini oshiruvchi vositaga aylanadi. Shuning uchun raqamlashtirishning mezoni platformalar soni emas, talabaning mazmunli faoliyati, erishilgan natija va jarayonning adolatli, tushunarli hamda xavfsiz tashkil etilganidir.


Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi. Ta’lim to‘g‘risida: O‘RQ-637-son Qonun, 23.09.2020. URL: https://lex.uz/docs/-5013007 (murojaat sanasi: 03.08.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida: PF-6079-son Farmon, 05.10.2020. URL: https://lex.uz/docs/-5030957 (murojaat sanasi: 03.08.2026).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida: PQ-358-son Qaror, 14.10.2024. URL: https://lex.uz/docs/-7158604 (murojaat sanasi: 03.08.2026).
4. UNESCO. Guidance for Generative AI in Education and Research. Paris: UNESCO, 2023. https://doi.org/10.54675/EWZM9535.

5. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? Paris: UNESCO, 2023. URL: https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000385723.
6. OECD. OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem. Paris: OECD Publishing, 2023. https://doi.org/10.1787/c74f03de-en.
7. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu / Y. Punie (ed.). Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. https://doi.org/10.2760/159770.
8. Haleem A., Javaid M., Qadri M.A., Suman R. Understanding the Role of Digital Technologies in Education: A Review // Sustainable Operations and Computers. 2022. Vol. 3. P. 275–285. https://doi.org/10.1016/j.susoc.2022.05.004.
9. Bond M., Buntins K., Bedenlier S., Zawacki-Richter O., Kerres M. Mapping Research in Student Engagement and Educational Technology in Higher Education: A Systematic Evidence Map // International Journal of Educational Technology in Higher Education. 2020. Vol. 17. Art. 2. https://doi.org/10.1186/s41239-019-0176-8.
10. Sailer M., Schultz-Pernice F., Fischer F. Contextual Facilitators for Learning Activities Involving Technology in Higher Education: The C-Model // Computers in Human Behavior. 2021. Vol. 121. Art. 106794. https://doi.org/10.1016/j.chb.2021.106794.
11. Veluvali P., Surisetti J. Learning Management System for Greater Learner Engagement in Higher Education–A Review // Higher Education for the Future. 2022. Vol. 9, No. 1. P. 107–121. https://doi.org/10.1177/23476311211049855.
12. Ifenthaler D., Yau J.Y.-K. Utilising Learning Analytics to Support Study Success in Higher Education: A Systematic Review // Educational Technology Research and Development. 2020. Vol. 68. P. 1961–1990. https://doi.org/10.1007/s11423-020-09788-z.
13. Blumenstein M. Synergies of Learning Analytics and Learning Design: A Systematic Review of Student Outcomes // Journal of Learning Analytics. 2020. Vol. 7, No. 3. P. 13–32. https://doi.org/10.18608/jla.2020.73.3.
14. Panadero E. A Review of Self-Regulated Learning: Six Models and Four Directions for Research // Frontiers in Psychology. 2017. Vol. 8. Art. 422. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2017.00422.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARINI EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYALASHNING MUAMMO VA YECHIMLARI



Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani 14-sonli DMTT direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada ekologik ta'lim, tarbiya va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi va maktabgacha ta'limdan boshlab innovatsion ta'lim modellarini takomillashtirishning ustuvor vazifalari belgilab berilgan. Hozirgi vaqtda yosh avlodning ekologik ta'limi va tarbiyasiga e'tibor qaratish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyot strategiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbekistonda o'z ta'limi, madaniyati va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratilgan ko'plab tadbirlar va konferensiyalar tashkil etilgan. Maqolada muhokama qilingan asosiy tushunchalar ekologik ta'lim, ekologik tarbiya va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida atrof-muhitni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Ekologiya, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik ong, maktabgacha ta'lim tashkiloti, maktabgacha ta'lim yoshi, innovatsion metod, didaktik o'yin, ta'limiy o'yin.

Abstract: This article analyzes the relationship between environmental education, upbringing, and culture, and identifies priority tasks for improving innovative educational models, beginning with preschool education. Currently, attention to environmental education and the upbringing of the younger generation is an important component of the development strategy of the Republic of Uzbekistan. Numerous events and conferences aimed at fostering a responsible attitude toward one's own education, culture, and the environment have been organized in Uzbekistan. The key concepts discussed in the article include environmental education, environmental awareness, and the environment in preschool educational institutions.

Key words: Ecology, environmental education, environmental awareness, preschool educational institution, preschool educational age, innovative method, didactic game, educational game.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь между экологическим образованием, воспитанием и культурой, а также определяются приоритетные задачи по совершенствованию инновационных образовательных моделей, начиная с дошкольного образования. В настоящее время внимание к экологическому образованию и воспитанию молодого поколения является важной составляющей стратегии развития Республики Узбекистан. В Узбекистане организовано множество мероприятий и конференций, направленных на формирование ответственного отношения к собственному образованию, культуре и окружающей среде. Основные понятия, рассматриваемые в статье, включают экологическое образование, экологическое воспитание и окружающую среду в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: Экология, экологическое образование, экологическое воспитание, экологическая осведомленность, дошкольная образовательная организация, дошкольный образовательный возраст, инновационный метод, дидактическая игра, образовательная игра.

KIRISH

Insoniyat tarixi tabiat tarixi bilan uzviy bog'liq. Bugungi kunda tabiat va odamlar o'rtasidagi an'anaviy o'zaro ta'sir masalalari global ekologik muammoga aylandi. Agar odamlar yaqin kelajakda tabiatga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rganmasalar, o'zlarini yo'q qilishadi. Bunga erishish uchun biz ekologik xabardorlik va mas'uliyatni rivojlantirishimiz kerak. Ekologik ta'lim va tarbiya maktabgacha yoshdan boshlanishi kerak, chunki keyinchalik olingan bilimlar mustahkam e'tiqodga aylanishi mumkin.

Bugungi kunda atrof-muhit muammolari - iqlim o'zgarishi, suv va havo ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi - butun insoniyat oldida turgan eng dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ushbu global muammolarni hal etishning uzoq muddatli va samarali yo'li - yosh avlodda tabiatga nisbatan ongli, mas'uliyatli munosabatni shakllantirishdir. Ekologik tarbiya esa aynan bola shaxsiyati endigina shakllanayotgan davrda, ya'ni maktab-

gacha yoshda boshlanishi kerak. Chunki bu davrda bolada dunyoqarash, odatlar va qadriyatlar tizimining asosi qo‘yiladi va bu davrda singdirilgan bilim va munosabat butun umr davomida saqlanib qoladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT, bog‘chalar) bolaning oilasidan tashqari birinchi tizimli ta’lim va tarbiya muhiti bo‘lib, u yerda ekologik ta’lim va tarbiyani maqsadli va uzluksiz tashkil etish imkoniyati mavjud. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bu sohada bir qator jiddiy muammolar hamon saqlanib qolmoqda.

Pedagoglar ta’kidlashicha, maktabgacha yoshdagi bolalik davrida bola tabiat haqida hissiy taassurotlar oladi va turli hayot shakllari haqida tasavvurlar to‘playdi, natijada ekologik tafakkur va ongning dastlabki asoslari shu davrda shakllana boshlaydi. Bundan tashqari, har bir bola tabiatan tadqiqotchidir - u atrofdagi dunyoni bilishga bo‘lgan ichki qiziqishini yo‘qotmagunicha, unga jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlarni singdirish ancha oson kechadi.

Bu yo‘nalish O‘zbekistonda faqat pedagogik emas, balki davlat siyosati darajasidagi masalaga aylangan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli[1] qarori bilan Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti tasdiqlangan, unda bolalarni tabiat bilan tanishtirish alohida yo‘nalish sifatida belgilangan [1]. Shuningdek, 2019-yilda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi qayta tashkil etilgan, 2021-yilda esa “Yashil bog‘cha”, “Yashil maktab” loyihasi yo‘lga qo‘yilgan - bu esa ekologik ta’lim-tarbiyaga davlat miqyosida e’tibor kuchayganidan dalolat beradi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar ekologik ong va faolligini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yoshdagi tarbiyalanuvchilarning tabiat va atrof-muhit bilan uzviy bog‘liqligini anglashi, ularning ekologik savodxonligini oshirish bo‘yicha olib boriladigan ta’lim faoliyatining asosiy maqsadlaridan biridir. Ayniqsa, hozirgi zamon ekologik muammolarining jiddiyligi, tabiiy hududlarning zarar ko‘rishi, odamlarning tabiatga bo‘lgan hurmatining pasayishi va fikrlash darajasining torayishi ushbu yo‘nalishda ishlashni yangicha talablarga moslashtirishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’lim va tarbiyaga e’tibor qaratilmaganda, bolalarda tabiatga bo‘lgan mehr, mas’uliyat va ehtiyotkorlik kabi sifatlar rivojlana olmaydi, bu esa keyinchalik butun jamiyat uchun xavfli muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

O‘z navbatida, ekologik tarbiya samaradorligiga erishish uchun keng qamrovli, ilmiy asoslangan yondashuvlar va innovatsion metodlarni joriy etish zarurdir. Bu jarayonni amalga oshirishda pedagoglarning malakasini oshirish, ularning yangi pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirilishi muhim ahamiyatga ega. O‘zaro hamkorlik va muayyan strategiyalarning qo‘llanilishi bilan, oilalar va jamiyat ham ekologik ta’lim va tarbiya tizimining muhim bo‘laklariga aylanishi mumkin. Bunday yondashuvlar orqali bolalarda tabiat bilan uyg‘unlik, tabiatga g‘amxo‘rlik qilish tuyg‘ulari shakllanadi, natijada esa ekologik muammo va xavf-xatarlarni iqlim uchun xavf tug‘dirmaydigan va ularning yashash sharoitini yaxshilashga xizmat qiluvchi tarzda hal qilishga intilish kuchayadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Ekologiya” atamasi yunon tilidan olingan bo‘lib, “oikos” (uy, Vatan) va “logos” (fan, ta’limot) so‘zlaridan tashkil topgan - ya’ni so‘zma-so‘z “uy haqidagi fan” degan ma’noni anglatadi [2]. Uyni sevish va himoya qilish uchun avvalo uni bilish kerak, xuddi shunga o‘xshab, tabiatni asrashni o‘rganish ham uni chuqur anglashdan boshlanadi.

Ekologik ta’lim va tarbiya tushunchasi inson va tabiat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni anglash, ekologik madaniyatni shakllantirish va tabiatni muhofaza qilishni rivojlantirish jarayonidir. Bu ilmiy va amaliy yo‘nalish ekologik muammolarni tushunish, ularga nisbatan munosabatni shakllantirish va ekologik ongni kengaytirishga qaratilgan. Dastavval ekologik tarbiya mazmuni nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga oid bilimlarni berish, balki yuksak ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni, mas’uliyat hissini rivojlantirish hamda tabiat bilan uyg‘un yashash madaniyatini tarbiyalashdan iborat.

Buning muhimligi shundaki, hozirgi zamonda ekologik muammolar - atrof-muhit ifloslanishi, tabiat resurslarining tevarak-atrofni muhofaza qilishga bo‘lgan ehtiyojlarni keskin oshirdi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bunday muhitda yashash va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lib, ular ekologik ong va madaniyatni yoshligidan shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ekologik tarbiyasi inson aqliy va ma’naviy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning shaxsiyati, fikrlash doirasini kengaytiradi va ekologik ongni mustahkamlaydi. Bo‘ysunuvchi, bilish, anglay olish va atrof-muhitga nisbatan muloyim va mas’uliyatli munosabatni shakllantirish jarayonida muntazam va dolzarb yondashuvlar muhim jarayonlardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, ekologik ta’lim va tarbiya tushunchasi nafaqat bilim va tarbiya berish, balki yoshlarda ekologik his va qadriyatlarni rivojlantirishning asosiy omilidir. Uning muhimligi shunda, iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillik kamayishi kabi dolzarb muammolarni yosh avlodga yetkazish va ularni amaliy harakatlarga rag‘batlantirishda namoyon bo‘ladi. Ekologik tarbiya yosh bolalarda tabiatga bo‘lgan muhabbat, ehtiyotkorlik

1 https://lex.uz/docs/5179335?ONDATE=26.01.2024

va mas'uliyat hissini shakllantiradigan muhim vositadir. Bu esa uzoq muddatda muhitni muhofaza qilish va ekologik barqarorlikni ta'minlash uchun shart-sharoit yaratilishiga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida ekologik tarbiyaning muhimligi yosh bolalarda faqat aks ettirish bilan chegaralanmay, ularning hayotiy faoliyatining barcha sohalarida, shu bilan birga, keng jamoatchilik nuqtayi nazaridan chuqur tushuniladi.

Muallif V. A. Dryazgunovaning maktabgacha yoshdagi bolalarni ekologik ta'lim va tarbiya berish pedagogikada so'nggi yillarda tobora ommalashib borayotgan yangi yo'nalish ekanligi haqidagi fikriga qo'shiladi. U bolalarni tabiat bilan tanishtirishning an'anaviy dasturlarini yangiladi [3, 46-bet].

N. F. Vinogradovaning fikriga ko'ra, "Yosh avlodning ekologik ta'limi muammosi, birinchi navbatda, zamonaviy olimlar tomonidan insoniyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni faol tadqiq qilish natijasida yuzaga kelgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'limiga alohida e'tibor qaratiladi, chunki aynan shu davrda inson ma'naviy madaniyatining bir qismi bo'lgan ekologik madaniyatning poydevori qo'yiladi. Ekologik ta'lim barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi va ushbu maqsadga erishishga hissa qo'shadigan asosiy omillardan biridir" [4, 82-bet].

Hozirgi ekologik inqiroz sharoitida S. A. Kozlova va T. A. Kulikovaning fikriga ko'ra, ekologik ta'lim maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ongni rivojlantirishning asosiy maqsadiga intilishi kerak. Ekologik ta'lim - bu bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni bo'lib, ekologik yondashuvga asoslangan bo'lib, unda tabiat bilan o'zaro ta'sir ekologiyaning asosiy g'oyalari va tushunchalariga asoslanadi. Bu jarayon ekologik tafakkur namoyon bo'ladigan turli xil faoliyat shakllari to'plamini ifodalovchi ekologik madaniyatni rivojlantiradi. Inson va tabiatning rivojlanishi birgalikda evolyutsiya sifatida tushuniladi [5, 282-bet].

N. E. Mamatov o'zining "Zamonaviy sharoitlarda ekologik ta'lim muammolari" qo'llanmasida o'qituvchilar uchun pedagogik ta'limga integratsiyalashgan yondashuvni taklif qiladi. Bu tadqiqot, musiqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, o'yinlar, teatr, o'qish, modellashtirish, televizor tomosha qilish va bolalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish kabi turli faoliyatlarning o'zaro bog'liqligini o'z ichiga oladi [6, 52-bet].

V. G. Nechaeva ta'kidlaganidek, o'qituvchi-tarbiyachi va bola o'rtasidagi hamkorlik va birgalikda ijod qilish bolalar bilan ishlashning muhim jihatlari hisoblanadi. Uyushgan ta'lim faoliyati bolaning atrofdagi dunyoni vizual va samarali idrok etishini hisobga olgan holda quriladi va ekologik bilimlarni (hayvonot dunyosi, o'simliklar hayoti, jonsiz tabiat va fasllar haqidagi bilimlar) va tabiiy hodisalar va narsalarga ekologik jihatdan sog'lom munosabatni rivojlantirishga qaratilgan [7, 100-bet].

K. D. Ushinskiy aytganidek, "Bola uchun o'yin jiddiy faoliyatdir, shuning uchun boshlang'ich ta'limning maqsadi bu jiddiy faoliyatni bola uchun qiziqarli qilishdir" [8, 52-bet].

Didaktik o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik ta'lim va tarbiyasida alohida o'rin va ahamiyatga ega. Bu o'yinlar bo'lib, ularda o'quv jarayoni bolalar o'zaro ta'sir qiladigan turli xil ko'ngilochar va o'quv materiallari elementlari orqali amalga oshiriladi. Muallif N. F. Vinogradovaning didaktik o'yinlar oldindan belgilangan mazmun va qoidalarga ega o'yinlar ekanligi haqidagi fikriga to'liq qo'shiladilar [4, 32-bet].

Ta'limiy o'yin davomida bolalar tabiat haqidagi tushunchalarini takomillashtiradi, aniqlashtiradi, mustahkamlaydi, kengaytiradi va tizimlashtiradi. Bundan tashqari, ta'limiy o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini (tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, tasniflash, ketma-ketlashtirish va boshqalar), shuningdek, ularning xotirasi va e'tiborini rivojlantiradi [9, 11-bet].

M. M. Markovskaya ta'limiy o'yinlar bolalarning shaxsiy fazilatlarini, masalan, birgalikda o'ynash, o'yin davomida muzokara olib borish va boshqalarni rivojlantirishga hissa qo'shishini ta'kidlaydi. Shuning uchun bizning maqsadimiz ta'limiy o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik bilimlarni rivojlantirishdir [8, 112-bet].

Ushbu maqsadlarga erishish uchun tarbiyachilardan bolalar bog'chasining guruh xonalarida tabiat burchagi bilan mavzuni rivojlantirish muhitini yaratish so'raldi. Bunday burchak har bir guruh xonasida bo'lishi kerak va uning mavjudligi, ayniqsa, tabiatdan zavqlanish va uning sirlarini kashf etish imkoniyatiga ega bo'lmagan shahar bolalari uchun juda muhimdir.

V. G. Nechaevaning so'zlariga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tabiat burchagi bir nechta maqsadlarga xizmat qiladi [7, 34-bet].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga ekologik ta'lim va tarbiya berishning mavjud holati, muammolari hamda ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlashga qaratilgan nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Jumladan, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, kuzatish va pedagogik tajribalarni o'rganish metodlari qo'llanildi.

Shuningdek, O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil qilinib, ekologik ta'limda didaktik o'yinlar, kuzatish, interaktiv vositalar va oila bilan hamkorlikning samaradorligi o'rganildi. Olingan natijalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik ong, madaniyat va tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko‘plab bog‘chalarda ekologik mavzular og‘zaki tushuntirish yoki rasmlarni ko‘rsatish darajasida qoladi, bola esa buni his-tuyg‘u orqali, jonli tajriba sifatida qabul qilish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Mutaxassislar fikricha, kuzatish - bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi, biroq bu metod ko‘p bog‘chalarda tizimli emas, balki tasodifiy tarzda qo‘llaniladi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, bolaning ekologik madaniyati shakllanishi ko‘p jihatdan oila a’zolarining tabiatga va umumiy madaniyatga nisbati bilan belgilanadi. Agar bog‘cha bilan oila o‘rtasida bu boradagi hamkorlik zaif bo‘lsa, tarbiyaviy ta’sir yarimjon qolib ketadi.

Amaliyotchilar ta’kidlaganidek, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ko‘pincha ma’lumot va vizual materiallarning yetishmasligiga duch kelinadi, bu esa mavzuni qiziqarli va tushunarli tarzda yetkazishni qiyinlashtiradi.

Solishtirma tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Yaponiyada ekologik ta’lim maktabgacha yoshdanoq boshlanadi va bu jarayonda virtual laboratoriyalar, interaktiv darsliklar hamda mobil ilovalar kabi IT-texnologiyalar keng qo‘llaniladi. O‘zbekiston bog‘chalarining aksariyatida bunday texnik imkoniyatlar hali yetarlicha rivojlanmagan.

Har haftalik dasturga o‘simlik, hasharot yoki ob-havo o‘zgarishlarini kuzatish mashg‘ulotlarini kiritish, bolalarga natijani chizma yoki og‘zaki hikoya orqali ifodalash imkonini berish kerak. O‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning yetakchi faoliyat turi bo‘lgani sababli, ekologik ta’limda o‘yin usullaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Rolli o‘yinlar, “tabiat topishmoqlari”, didaktik o‘yinlar orqali bola bilimni o‘ynab-o‘ynab o‘zlashtiradi.

Bolalarga tabiat haqida yuz marta aytishdan ko‘ra, bir marta ko‘rsatish samaraliroq bo‘lgani uchun kuzatish, rasmlarni ko‘rish, model va slayd-shoulardan foydalanish tavsiya etiladi - bu usullar bolaning bilim faoliyati imkoniyatlariga to‘liq mos keladi.

Davlat darajasida boshlangan “Yashil bog‘cha”, “Yashil maktab” loyihasining tamoyillari - resurslarni tejash, chiqindilarni saralash, energiya va suvdan oqilona foydalanish kabi amaliy ko‘nikmalar - maktabgacha yoshga moslashtirilgan holda bog‘chalarga ham tatbiq etilishi mumkin.

Bog‘chalarda ota-onalar uchun ochiq kuzatish kunlari, “oilaviy ekologik daftarcha” kabi kichik loyihalar tashkil etish orqali uy va bog‘cha o‘rtasidagi tarbiyaviy uzluksizlikni ta’minlash mumkin.

Yaponiya tajribasidagi kabi to‘liq raqamlashtirish hozircha imkonsiz bo‘lsa-da, ta’limiy multfilmlar, sodda interaktiv taqdimotlarni bosqichma-bosqich joriy etish orqali bu farqni qisqartirish mumkin [10].

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik muammolar keng tarqalgan bo‘lib, ular bir qancha asosiy sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Birinchidan, pedagoglarning ekologik bilim va ko‘nikmalari yetarli emasligi muhim muammo hisoblanadi, natijada tarbiyalanuvchilar uchun to‘g‘ri yo‘nalishlar va izchil ta’lim olib borish qiyinchilik tug‘diradi. Shuningdek, ta’lim tashkilotlaridagi materiallar va o‘quv hamda didaktik vositalar muhitga mos kelmaydi, bu esa ekologik muhimlikni ta’minlashda cheklovlar yaratadi.

Kattalar, ya’ni pedagoglar va ota va onalar orasida ekologik ong va faollik pastligi, jamiyatda esa ekologik muammo va yetishmovchiliklar haqida noto‘g‘ri tushunchalar mavjudligi muhim rol o‘ynaydi. Bir nechta muhim muammo sifatida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining infratuzilmasi va texnik bazasi uyg‘un va sifatli ekologik ta’limga mos kelmaydi. Bu muammo, ayniqsa, hududning geografik va ekologik shart-sharoitlariga bog‘liq holda, mavjud bor bo‘lsa-da, yetarlicha moslashtirilmagan shaklda ta’lim berilishiga olib keladi.

Yana bir muammo - pedagoglarning ekologik tarbiya bo‘yicha mutaxassisligini oshirish va ular uchun zamonaviy pedagogik texnikalarni joriy etish borasida muammolar mavjud bo‘lib, bu jarayonlar qoniqarli darajada amalga oshirilmayapti. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, ekologik tashviqot va ta’lim materiallarini yangilash uchun zarur bo‘ladigan mablag‘larning yetarli emasligi muhim to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Barcha bu muammo va muhitdagi muqobil muammolar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini pasaytirishga olib kelmoqda. Yechimlar uchun, avvalo, pedagoglar va ota-onalar o‘rtasida ekologik ongni oshirish uchun malakali o‘quv kurslari va seminarlar tashkil etilishi lozim. Shuningdek, texnik va didaktik vositalar bilan ta’minlash, ekologik muhitni yaxshilash uchun davlat va xususiy sektorga asoslangan hamkorlikni rivojlantirish muhimdir.

Ekologik tarbiyalashning nazariy-asosiy yondashuvlari atrof-muhit muhofazasi va bolalar ongida ekologik madaniyatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar ekologik bilimlar va tushunchalarni mukammal ravishda egallash, tabiat bilan uyg‘unlikda yashash va atrof-muhit muhofazasiga qiziqishni rivojlantirishni nazarda tutadi.

Birinchi yondashuv ekologik bilim va tushunchalarni tarbiyalashga asoslanadi, bu orqali bolalarda tabiat va inson o‘rtasidagi bog‘liqlik tushuniladi.

Ikkinchidan, faoliyatga asoslangan yondashuvda bolalarni tabiat bilan chambarchas bog‘liq amaliy ishlar bilan band etish orqali ekologik odatlarni shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Uchinchidan, madaniy-axloqiy yondashuv biologik muhit bilan vazifalar va qadriyatlar asosida ekologik g‘oyalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Shuningdek, zamonaviy ekologik tarbiya yondashuvlarida ilmiy tafakkur, multidissiplinarlik, innovatsion texnologiyalar va yosh avlodlarni ekologik qiyinchiliklarga tayyorlash kabi tamoyillar muhim o‘rin tutadi. Bu yondashuvlarning samarali bo‘lishi uchun pedagoglar ekologik bilimlarni uzluksiz yangilash, praktika va o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda bolalarning faol ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor qaratadi. Shu tarzda, ekologik tarbiya nazariyasining asosiy yondashuvlari orqali maktabgacha ta’lim muhitida ekologik qadriyatlarni chuqur va keng ko‘lamda shakllantirish mumkin bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimida ekologik ta’lim-tarbiya uchun huquqiy va institutsional asos - Davlat standarti, ixtisoslashgan davlat qo‘mitasi, “Yashil bog‘cha”, “Yashil maktab” kabi loyihalar - allaqachon yaratilgan. Endilikda asosiy vazifa bu asosni har bir bog‘cha, har bir guruh darajasida jonli amaliyotga aylantirishdir. Kuzatish va o‘yinni tizimli mashg‘ulotlarga aylantirish, vizual vositalarni boyitish, oila bilan hamkorlikni mustahkamlash va xalqaro ilg‘or tajribalardan o‘rganish. Bola tabiatni erta yoshdan “begona narsa” emas, balki o‘zining bir qismi sifatida his qila boshlasa, kelajakda u tabiatga nisbatan chinakam mas’uliyatli inson bo‘lib voyaga yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-sonli qarori - Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standarti
2. Shonasirova Z., Ilesova L. MTTda bolalarga ekologik tarbiya berishning shakllari va usullari - Chirchiq Davlat pedagogika universiteti, Miasto Przyszłości, Vol. 60 (2025)
3. Дрязгунова В. А. Дидактические игры для ознакомления дошколников с растениями: Пособие для воспитателя дет. сада / В. А. Дрязгунова. -М.: Просвещение, 1981. 80 с.
4. Виноградова Н. Ф. Умственное воспитание детей в процессе ознакомления с природой. -М.: Просвещение. 1978. -150 с.
5. Козлова С.А., Куликова Т.А. Дошколная педагогика. - М.: Академия, 2005. 364 с.
6. Маматов Н.Э. Проблемы экологического образования в современных условиях. -Б., 2020. С. 163.
7. Нечаева В. Г. Воспитание дошколника в труде. -М.: Просвещение. -1983. -138 с.
8. Марковская М. М. Уголок природы в детском саду: Книга воспитателя детского сада. - М.: Просвещение. -1989. -240 с.
9. Иванова Г.А., Курашова В.П. Об организации работы по экологическом воспитанию. //Дошколное воспитание. - 2004. - № 7. - С. 10-14.
10. Yaponiya tajribasi asosida O‘zbekiston ta’limida ekologik ta’limni takomillashtirish - Scientific Journal

AXBOROTLASHGAN TA'LIM MUHITIDA TELEMATIKA TEXNOLOGIYALARINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI VA ULARNING TALABA SHAXSINI RIVOJLANISHIDAGI O'RNI

Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li
ADU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida telematika vositalari (masofaviy o'qitish platformalari, bulutli texnologiyalar, tarmoqlararo ma'lumot almashish tizimlari) orqali bo'lajak muhandis-mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari yoritib berilgan. Muallif tomonidan telematika vositalarining didaktik prinsiplari asoslab berilib, talabalarning mustaqil ta'lim olish faolligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Axborotlashgan ta'lim muhiti, telematika texnologiyalari, didaktik imkoniyatlar, talaba shaxsi, kompetentlik, kompyuter injiniringi.

Abstract: This article analyzes the didactic capabilities of telematics technologies in an information-based educational environment and their role in the development of the student's personality. The research process highlights the mechanisms for forming the professional competencies of future engineers through telematics tools (distance learning platforms, cloud technologies, inter-network data exchange systems). The author substantiates the didactic principles of telematics tools and develops scientific and methodological recommendations aimed at increasing the independent learning activity of students.

Key words: Information-based educational environment, telematics technologies, didactic capabilities, student personality, competence, computer engineering.

Аннотация: В данной статье проанализированы дидактические возможности телематических технологий в информационно-образовательной среде и их роль в развитии личности студента. В процессе исследования освещены механизмы формирования профессиональных компетенций будущих инженеров-специалистов посредством телематических средств (платформ дистанционного обучения, облачных технологий, систем межсетевого обмена данными). Автором обоснованы дидактические принципы телематических средств и разработаны научно-методические рекомендации, направленные на повышение активности самостоятельного обучения студентов.

Ключевые слова: Информационно-образовательная среда, телематические технологии, дидактические возможности, личность студента, компетентность, компьютерная инженерия.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot va global axborotlashuv sharoitida ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, bo'lajak mutaxassislarning axborot bilan ishlash madaniyatini yuksaltirish eng muhim vazifalardan biriga aylandi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayoniga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish uzluksiz pedagogik jarayonning ajralmas qismidir. Axborotlashgan ta'lim muhiti – bu talabaning mustaqil bilish faoliyatini faollashtiruvchi, shaxsiy rivojlanishiga zamin yaratuvchi zamonaviy dasturiy-texnik va telekommunikatsiya vositalari majmuasidir. Ayniqsa, kompyuter injiniringi yo'nalishi talabalari uchun telematika texnologiyalaridan (telekommunikatsiya va informatika uyg'unligidan) foydalanish kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan ochib berish va ularning talaba shaxsini kasbiy rivojlantirishdagi o'rnini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalaridan foydalanish, ularning didaktik imkoniyatlari hamda talabalarning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri masalasi milliy va xorijiy tadqiqotchilarning doimiy diqqat markazida bo'lib kelgan. Ilmiy adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, telematika texnologiyalari, telekommunikatsiya va informatika uyg'unligi sifatida, ta'lim jarayonini optimallashtirishning muhim vositasi bo'lib, talabaning kognitiv va shaxsiy rivojlanishida yangi qirralarni ochib beradi.

Xorijiy olimlardan T. Bates va A. Sangra o'zlarining tadqiqotlarida telematika va tarmoq texnologiyalarining ta'limdagi o'rnini baholab, ular an'anaviy ta'lim chegaralarini kengaytirib, o'quv jarayonini vaqt va makondan qat'iy nazar tashkil etish imkonini berishini ta'kidlaydilar [1].

M. G'. Davlatov va boshqa mahalliy tadqiqotchilarning fikricha, axborotlashgan muhitda telematika vositalari (masofaviy o'qitish platformalari, bulutli texnologiyalar, videokonferensiyalar) o'qituvchi va talaba o'rtasidagi interaktiv muloqotni ta'minlabgina qolmay, ta'lim mazmunini shaxsiylashtirishga xizmat qiladi [2].

Pedagogik nazariyada telematikaning didaktik imkoniyatlari deganda uning o'qitish tamoyillari – faollik, onglilik, ko'rgazmalilik, ketma-ketlikni yangi texnologik darajada amalga oshirish tushuniladi. E. S. Polat telekommunikatsiya texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qila turib, ular talabalarda mustaqil bilim olish, tahlil qilish, axborotni saralash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda ustuvor ahamiyat kasb etishini ko'rsatib o'tgan [3].

O'zbekistonlik olimlardan U. Sh. Begimqulovning ilmiy ishlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va telematika vositalarining uzluksiz ta'lim tizimidagi didaktik imkoniyatlari nazariy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, ular ta'lim sifatini boshqarishda muhim vosita ekanligi e'tirof etilgan [4].

Axborotlashgan muhitda talabaning shaxs sifatida shakllanishi uning o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy ijtimoiylashuv jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Psixologik-pedagogik adabiyotlarda, masalan, I. V. Robor va V. A. Krasilnikova qarashlarida telematika vositalari orqali tashkil etilgan muhit talabada o'z vaqtini to'g'ri taqsimlash (time management), mas'uliyatni his qilish va kollaborativ (jamoada ishlash) kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishi ta'kidlanadi [5].

Shuningdek, A. Q. Fayziboyev talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda elektron ta'lim muhiti va telekommunikatsion loyihalarning o'rnini ochib berib, ular yoshlarda kasbiy o'zini o'zi belgilash jarayonini tezlashtirishini ko'rsatib o'tgan [6].

Umuman olganda, olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, telematika texnologiyalari ta'lim oluvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida katalizator vazifasini bajaradi. Biroq, mavjud ilmiy manbalarda telematika vositalarining talabaning shaxsidagi individual psixologik o'zgarishlarga ta'sirini yanada chuqurroq, zamonaviy sun'iy intellekt va raqamli transformatsiya sharoitida ochib berish ehtiyoji saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, solishtirish va umumlashtirish, shuningdek, ilmiy adabiyotlar va ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Teoretik asos sifatida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda zamonaviy pedagogik va informatsion texnologiyalar nazariyasi V. P. Bespalko, I. V. Robo, M. A. Aripov va boshqalar tomonidan chuqur tahlil etilgan. [9] Shuningdek, talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini telematika muhitida rivojlantirishga qaratilgan pedagogik loyihalashtirish usullaridan foydalanildi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida pedagogik fanlar metodologiyasining zamonaviy talablariga tayanilgan bo'lib, muammoni har tomonlama va chuqur o'rganish maqsadida o'zaro uyg'unlashgan ilmiy yondashuvlar majmuasidan foydalanildi. Tadqiqotning umumiy metodologik poydevorini tizimli, faoliyatli va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqot vazifalarini mantiqiy ketma-ketlikda hal etishda quyidagi ilmiy-pedagogik usullardan foydalanildi:

1. **Tizimli yondashuv** – axborotlashgan ta'lim muhitida telematika vositalarini yagona yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganish, uning tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, vosita va natija) o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ochib berishda qo'llanildi;
2. **Qiyosiy tahlil (Comparative analysis)** – an'anaviy ta'lim muhiti hamda telematika vositalari faol qo'llaniladigan raqamli ta'lim muhitining afzalliklari va o'ziga xos xususiyatlarini qiyosiy baholashda foydalanildi;
3. **Pedagogik kuzatuv va solishtirish** – kompyuter injiniringi yo'nalishi talabalarining axborot bilan ishlash ko'nikmalarining shakllanish darajasini aniqlash hamda amaliyotdagi holatni monitoring qilishda qo'llanildi;
4. **Umumlashtirish va ilmiy-mantiqiy tahlil** – mavzu yuzasidan mavjud ilmiy adabiyotlar, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ishlarini o'rganish asosida nazariy xulosalar chiqarishda asosiy vosita bo'ldi.

Tadqiqotning nazariy va huquqiy asoslarini O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni yangi tahririda izohlangan, shuningdek, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish strategiyalarida belgilangan ustuvor vazifalar tashkil etadi. Shuningdek, ishning nazariy-metodologik poydevorini shakllantirishda rus va o‘zbek olimlarining ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish, axborotlashtirish va kompetensiyalarni rivojlantirishga oid fundamental ilmiy qarashlariga tayanildi. Xususan, V. P. Bespalkoning ta’lim jarayonini loyihalashtirish va didaktik tizimlar nazariyasi [7], I. V. Roboning zamonaviy axborot texnologiyalarini pedagogikaga tatbiq etish g‘oyalari [8] hamda M. A. Aripov va boshqa mahalliy olimlarning telekommunikatsiya va tarmoq texnologiyalarini ta’limga joriy etish borasidagi ilmiy maktabi qarashlari tadqiqotning ilmiy konsepsiyasini belgilab berdi [9]. Bundan tashqari, talabalarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini telematika muhitida rivojlantirishga qaratilgan pedagogik loyihalashtirish usullaridan foydalanilib, bo‘lajak muhandislarning kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Telematika texnologiyalari (tarmoqli arxitektura, virtual laboratoriyalar, masofaviy boshqariluvchi ma’lumotlar bazalari) ta’lim jarayoniga tatbiq etilganda quyidagi o‘ziga xos didaktik imkoniyatlarni namoyon etadi: Interfaollik va tezkor teskari aloqa: Talaba va o‘qituvchi o‘rtasida real vaqt rejimida ma’lumot almashish imkoniyati yaratiladi. Resurslar universal chegarasizligi: Dunyoning istalgan nuqtasidan ilmiy ma’lumotlar bazalari, elektron kutubxonalar va masofaviy kurslarga ulanish ta’minlanadi. Individual ta’lim traektoriyasini shakllantirish: Har bir talaba o‘zining shaxsiy imkoniyatlari va o‘zlashtirish tezligiga qarab axborotni o‘zlashtirishi mumkin.

Telematika vositalarining talaba shaxsini rivojlantirishdagi o‘rni uning kasbiy tafakkurini kengaytirish, mustaqil qaror qabul qilish, tarmoqli muhitda jamoa bo‘lib ishlash (teamwork) va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarida namoyon bo‘ladi. Kompyuter injiniringi yo‘nalishi talabalari misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, telematika muhitidan foydalanish ularning axborotni tahlil qilish tezligini o‘rtacha 28–35 % ga oshiradi. Ilmiy adabiyotlarda telematika texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Jumladan, tadqiqotchi T. I. Shamimovaning ta’kidlashicha, telekommunikatsiya vositalari ta’lim oluvchining kognitiv faoliyatini faollashtirishda boshqaruvchi omil hisoblanadi [10].

Biroq zamonaviy raqamli iqtisodiyot va texnologik taraqqiyot sharoitida telematika vositalarining vazifasi faqatgina axborotni uzatish yoki uni passiv qabul qilish mexanizmi bilan cheklanib qolmaydi. Bizning tadqiqotimiz ushbu ilmiy g‘oyani yanada rivojlantirgan va chuqurlashtirgan holda ko‘rsatdiki, telematika muhiti bo‘lajak muhandislarning intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqaruvchi faol muhit vazifasini bajaradi. Xususan, bu borada telematika texnologiyalari talabaning mustaqil ravishda o‘z ustida ishlashi, kasbiy faoliyatiga nisbatan ijodiy yondashuvi (kreativligi) hamda o‘z oldiga qo‘yilgan murakkab muhandislik masalalarini algoritmik va mantiqiy ketma-ketlikda hal etish qobiliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi pedagogik vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, telematika vositalari talabani shunchaki bilim oluvchidan – zamonaviy tarmoqlararo muhitda ijodiy loyihalarni loyihalashtiruvchi, muammoli vaziyatlarni tizimli hal etuvchi va o‘zini-o‘zi rivojlantiruvchi faol shaxs darajasiga ko‘taradi. Bizning tadqiqotimiz esa bu g‘oyani davom ettirgan holda faqatgina ma’lumot uzatish emas, balki telematika muhiti talabaning o‘z ustida ishlashi, ijodiy yondashuvi va muhandislik masalalarini algoritmik hal etish qobiliyatini rivojlantirishini ko‘rsatdi. Boshqa olimlar, masalan, J. A. Umarqulov axborot muhitining psixologik jihatlariga e’tibor qaratib, virtual muhit shaxsda o‘zini-o‘zi tarbiyalash va boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishini qayd etgan [11]. Bizning natijalarimiz shuni ko‘rsatdiki, telematika vositalari talabalarda mas’uliyat hissini kuchaytirib, ularni professional darajada raqobatbardosh shaxs sifatida tarbiyalaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, axborotlashgan ta’lim muhitida telematika texnologiyalaridan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Telematikaning didaktik imkoniyatlari talabalarga nafaqat nazariy bilim berish, balki ularda axborotni qidirish, saralash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa o‘z navbatida kompyuter injiniringi yo‘nalishi talabalarining har tomonlama yetuk, raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shuni ta’kidlash joizki, zamonaviy axborotlashgan ta’lim muhitida telematika texnologiyalarini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish bo‘lajak muhandis-mutaxassislarni tayyorlash sifatini tubdan oshirishning strategik omillaridan biri hisoblanadi. Olib borilgan nazariy va tahliliy tadqiqotlar natijalari quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. **Didaktik samaradorlik:** Telematika vositalari (tarmoqlararo ma’lumot almashish tizimlari, masofaviy platformalar, bulutli texnologiyalar) ta’lim jarayonining fazoviy va vaqtinchalik chegaralarini bartaraf etib, talabalarning o‘zlashtirish tezligiga moslashuvchi moslashuvchan (adaptive) ta’lim muhitini yaratadi. Bu esa an’anaviy ta’lim usullari imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

2. **Kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari:** Telematikaning didaktik imkoniyatlari talabalarga faqatgina tayyor nazariy bilimlarni berish bilan cheklanib qolmay, balki ularda katta hajmdagi axborot oqimida to‘g‘ri mo‘ljal olish, ma’lumotlarni tanqidiy saralash, tahlil qilish va ularni kompyuter injiniringining amaliy masalalarini hal etishda qo‘llash ko‘nikmalarini tizimli ravishda rivojlantiradi.

3. **Kasbiy shakllanish va raqobatbardoshlik:** Kompyuter injiniringi yo‘nalishi talabalarida axborot bilan ishlash kompetentligini telematika vositalari asosida rivojlantirish ularning shaxsiy va kasbiy ijodiy faolligini oshiradi. Tarmoqli hamkorlik muhitida ishlash ko‘nikmalari kelgusida ularning raqamli iqtisodiyot talablariga to‘la javob beradigan, zamonaviy ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarni boshqara oladigan yuqori malakali, raqobatbardosh muhandis kadrlar bo‘lib yetishishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida olingan natijalar va ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalar oliy ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga, xususan, “Kompyuter injiniringi” ta’lim yo‘nalishi o‘quv dasturlarini takomillashtirishga hamda elektron ta’lim resurslarini yaratishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bates, A. W., & Sangrà, A. (2011). Managing Technology in Higher Education: Strategies for Transforming Teaching and Learning. Jossey-Bass.
2. Davlatov, M. G‘. (2020). Oliy ta’limda raqamli texnologiyalar va ularning didaktik imkoniyatlari. Toshkent: Fan va texnologiya, 45-b.
3. Полат, Е. С. (2008). Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. Москва: Академия, 112-с.
4. Begimqulov, U. Sh. (2007). Педагогические основы организации и управления информатизацией высшего образования. Дис. ... д-р пед. наук. – Тошкент: TDPU, 88–92-bb.
5. Роберт, И. В. (2014). Теория и методика информатизации образования (психолого-педагогический и технологический аспекты). Москва: ИНО РАО, 150-с.
6. Fayziboyev, A. Q. (2022). Talabalarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli muhitning o‘rni. “Zamonaviy ta’lim” jurnali, № 4, 32–37-betlar.
7. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – Москва: Педагогика, 1989. – С. 12–18.; Беспалько В. П. Образование и обучение с участием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия). – Москва: МПСИ, 2002. – С. 54–60.
8. Роберт И. В. Теоретические основы информатизации образования // Педагогическая информатика. – Москва, 2018. – № 3. – С. 15–22.
9. Aripov M. A., Begmatov A. A. Zamonaviy tarmoq texnologiyalari va telematika tizimlari // O‘zbekiston axborotnoma jurnali, 2024. – № 2. – B. 78–82.
10. Shamimova T. I. Ta’limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va telematika asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – B. 45–48.
11. Umarqulov J. A. Raqamli ta’lim muhiti va innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Universitet, 2023. – B. 112–115.

MEHNAT MIGRATSIYASI FENOMENI VA OILA DIALEKTIKASINING PEDAGOGIK ASPEKTLARI: TRANSLOKALLIK SHAROITIDA FARZAND TARBIYASI VA "INTELLEKTUAL TRANSFER" MEDIATSIYASI

K. B. Numanov
Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi
Tashkiliy boshqarmasining yuridik masalalar bo'yicha boshlig'i o'rinbosari, mayor

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv va ommaviy mehnat migratsiyasi sharoitida oila institutida sodir bo'layotgan transformatsiyalar hamda ularning yosh avlod tarbiyasi va shaxs rivojlanishiga pedagogik ta'siri Andijon viloyatining empirik va statistik ma'lumotlari (104 417 nafar respondent ko'rsatkichlari) asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda mehnat migratsiyasining etnopedagogik dialektikasi, ota-onalarning uzoq muddatli migratsiyada bo'lishi natijasida yuzaga keluvchi "ijtimoiy yetimlik" xavf-xatarlari hamda mehnat migrantlarining "aktiv ijtimoiy va pedagogik kapital" egalariga aylanishi ("migratsion pedagogik transfer") jarayonlari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogika nazariyasi, oilaviy tarbiya, etnopedagogika, mehnat migratsiyasi, translokallik, ijtimoiy yetimlik, inson kapitali, migratsion pedagogik transfer, gender transformatsiyasi.

Abstract: This article analyzes the transformations in the family institution and their pedagogical impact on the upbringing of the younger generation under the conditions of globalization and mass labor migration, using empirical and statistical data from the Andijan region (data from 104,417 respondents). The study reveals the socio-pedagogical dialectics of migration, the risks of "social orphanhood" due to long-term parental absence, and the transformation of migrants into holders of "active social and pedagogical capital" ("migratory pedagogical transfer").

Key words: pedagogical theory, family education, ethnopedagogy, labor migration, translocality, social orphanhood, human capital, migratory pedagogical transfer, gender transformation.

Аннотация: В данной статье на основе эмпирических и статистических данных Андижанской области (показатели 104 417 человек) анализируются трансформации в институте семьи и их педагогическое влияние на воспитание подрастающего поколения в условиях глобализации и массовой трудовой миграции. В исследовании раскрываются социально-педагогическая диалектика миграции, риски "социального сиротства" вследствие длительного отсутствия родителей, а также процессы формирования "активного социально-педагогического капитала" ("миграционный педагогический трансфер").

Ключевые слова: теория педагогики, семейное воспитание, этнопедагогика, трудовая миграция, транслокальность, социальное сиротство, человеческий капитал, миграционный педагогический трансфер, гендерная трансформация.

KIRISH

Zamonaviy pedagogika nazariyasi va amaliyoti jamiyatning globallashuvi, ijtimoiy va demografik dinamikaning jadallashuvi sharoitida tarbiya jarayonlarining umumiy metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.[1] Unda inson kapitalini rivojlantirish va oila institutini mustahkamlash masalasi markaziy o'rin tutadi. Biroq ommaviy mehnat migratsiyasi omili milliy va etnopedagogik an'analarga ega bo'lgan o'zbek oilasining tarbiyaviy funksiyalariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

1 Бауман З. Глобализация. Последствия для человека и общества. – Москва: Весь Мир, 2004. – С. 81–85.

Migratsiya – tarbiya sub'ektlari va ob'ektlari o'rtasidagi makon-vaqt munosabatlarining o'zgarishi, oilaviy tarbiya tizimining "translokal" (ikki yoki undan ortiq madaniy-pedagogik muhit oralig'ida) xarakterga ega bo'lishidir.[2] Ota va (yoki) onaning uzoq muddat davomida oilada bo'lmasligi shaxsni ijtimoiylashtirishning an'anaviy etnopedagogik modellariga xavf tug'diradi. Natijada "ijtimoiy yetimlik" destruktiv fenomenini keltirib chiqaradi. Buning oqibatida migratsiyadan qaytgan shaxslarning yangi mehnat etikasi va innovatsion tajribani oilaga olib kirishi "pedagogik transfer" fenomenining yuzaga kelishini tezlashtiradi.[3]

Tadqiqotning maqsadi: Globallashuv sharoitida mehnat migratsiyasi va translokallikning oila instituti tarbiyaviy imkoniyatlariga ta'sirini pedagogik-statistik tahlil qilish, oiladagi "ijtimoiy yetimlik" xavfini kamaytirish hamda migrantlarning to'plagan "ijtimoiy-pedagogik kapitali"ni yoshlar tarbiyasiga yo'naltirishning metodologik va amaliy asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda pedagogika nazariyasi ixtisosligining metodologik tamoyillari asosida tizimli, aksiologik (qadriyatli), etnopedagogik va sinergetik yondashuvlardan foydalanildi.

Empirik tadqiqot manbasi va tanlanma hajmi: Tadqiqot bazasi sifatida Andijon viloyatining 16 ta tuman va shaharlari olindi. Tanlanma hajmi uzoq muddatda xorijda bo'lib turgan 104 417 nafar fuqaroning demografik va ijtimoiy-statistik ko'rsatkichlaridan iborat.

Pedagogik-statistik va sotsiologik usullar: Tadqiqot jarayonida migrantlarning yosh, gender, chiqib ketish muddatlari va maqsadlari bo'yicha ko'rsatkichlarini tizimlashtirish va qiyosiy tahlil qilish usullari qo'llanildi.

Indikatorlar: Yosh va pedagogik ta'sirchanlik ko'rsatkichi (18–30 yosh, 30–45 yosh, 45 yoshdan yuqori va 18 yoshgacha). Gender va tarbiyaviy funksiya transformatsiyasi ko'rsatkichi (erkaklar va ayollar nisbati). Vaqt davomiyligi va "translokallik" chuqurligi (3–6 oy, 6–12 oy va undan ortiq).

TAHLIL VA NATIJALAR

Andijon viloyati bo'yicha to'plangan statistik va empirik ma'lumotlarni pedagogik nazariya nuqtai nazaridan tizimlashtirish quyidagi fundamental ko'rsatkichlarni namoyish etdi. Viloyat bo'yicha uzoq muddatga xorijda bo'lib turgan 104 417 nafar fuqarolarning 81,6 foizini (85 205 nafar) erkaklar va 18,4 foizini (19 212 nafar) ayollar tashkil etadi. Oilaning bosh tarbiyachilari bo'lmish otalar va onalarning oiladagi jismoniy yo'qligi bola tarbiyasida oilaviy subordinatsiya va etnopedagogik muhitning buzilishiga olib kelmoqda.4 Ayollar migratsiyasining ortishi (ayniqsa, Xonobod shahrida 1 315 nafar, Andijon shahrida 2 509 nafar) onalik pedagogikasi va erta yoshdagi bola ijtimoiylashuvida "pedagogik deprivatsiya" (e'tiborsizlik) omilini keltirib chiqarmoqda.

Migratsiyadagi aholining yosh taqsimoti pedagogik jihatdan muhim sanalgan quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- **18–30 yoshgacha bo'lganlar:** 32 332 nafar (31%). Bu qatlam tarbiyaviy va reproduktiv potensiali yuqori bo'lgan, o'zlari ham hali uzluksiz ta'lim va kasbiy ko'nikmalarga muhtoj bo'lgan yoshlardir.[5]
- **30–45 yoshgacha bo'lganlar:** 45 424 nafar (43,5%). Pedagogik nuqtai nazardan ushbu qatlam o'z farzandlarini faol tarbiyalash (maktab va o'smirlik yoshida) davrini boshdan kechirayotgan ota-onalardir.
- **45 yoshdan yuqori va 18 yoshgacha:** Muvofiq ravishda 20 390 nafar (19,5%) va 6 271 nafar (6%). Hududlar kesimidagi tahlil eng yuqori migratsiya faolligi Shahrixon (14 315 nafar) va Asaka (12 607 nafar) tumanlariga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

1-jadval: **Empirik tadqiqot va statistik tizimlashtirish natijasida viloyat tumanlaridagi migratsiya faolligining quyidagi manzarasi namoyon bo'ldi.**

№	Tuman (shahar) nomi	Jami xorijdagilar (nafar)	Erkaklar (nafar)	Ayollar (nafar)	Ishlash maqsadida ketganlar (nafar)	18-30 yoshgacha bo'lganlar (nafar)
1	**Andijon shahri**	10 398	7 889	2 509	7 810	2 920
2	**Andijon tumani**	5 186	4 330	856	4 353	1 544
3	**Asaka tumani**	12 607	10 741	1 866	10 216	4 040
4	**Baliqchi tumani**	5 448	4 670	778	4 722	1 454

2 Бек У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма – ответы на глобализацию. – Москва: Прогресс-Традиция, 2013. – 304 с.
3 Бўронов С.С. Глобаллашув шароитида Ўзбекистонда миграция жараёнларининг трансформацияси: Филос. фан. док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – Б. 18–22
4 Рязанцев С.В. Трудовая миграция в странах СНГ: тенденции и регулирование. – Москва: ИСПИ РАН, 2008. – С. 142–145.
5 Абдуллаев.Б.М. Меҳнат миграциясининг аҳоли демографик ва ёш тузилмасига таъсири (Андижон вилояти мисолида) // Ижтимоий фикр. – Тошкент, 2022. – № 3. – Б. 56.

5	**Bo‘ston tumani**	2 590	2 071	519	2 080	733
6	**Buloqboshi tumani**	4 845	3 932	913	4 116	1 411
7	**Jalaquduq tumani**	6 012	4 956	1 056	5 014	1 740
8	**Izboskan tumani**	7 579	6 235	1 344	6 364	2 110
9	**Qo‘rg‘ontepa tumani**	7 241	5 835	1 406	6 010	2 189
10	**Marhamat tumani**	6 525	5 410	1 115	5 504	1 970
11	**Oltinko‘l tumani**	4 230	3 585	645	3 580	1 204
12	**Paxtaobod tumani**	6 931	5 621	1 310	5 850	2 010
13	**Ulug‘nor tumani**	1 890	1 520	370	1 530	545
14	**Xo‘jaobod tumani**	4 415	3 590	825	3 710	1 292
15	**Shahrixon tumani**	14 315	11 960	2 355	11 980	4 620
16	**Xonobod shahri**	4 205	2 890	1 315	3 837	2 550
	JAMI:	**104 417**	**85 205**	**19 212**	**86 665**	**32 332**

Migrantlarning 55,6 foizi (58 091 nafar) 6 oydan 12 oygacha va undan ortiq muddatga xorijda bo‘lmoqda. Pedagogik jihatdan bu muddat bola ruhiyatida “ota-ona obrazi”ning xiralashishi va masofaviy tarbiyaning samaradorligi pasayishi uchun yetarli davr hisoblanadi.

Maqsad omili: Ishlash maqsadidagilar 83% (86 665 nafar) bo‘lsa-da, 1 458 nafar (1,4%) yoshlar ta’lim olish maqsadida xorijda yurishi aniqlandi. Ta’lim migratsiyasi yuqori darajadagi akademik va pedagogik kapitalning milliy muhitga kirib kelishi uchun ko‘prik hisoblanadi. Olingan natijalarni pedagogika nazariyasi va etnopedagogikaning konseptual qoidalari asosida muhokama qilish quyidagi xulosalarni ilgari surishga imkon beradi.

1. **“Translokal oila” va ijtimoiy-pedagogik deprivatsiya:** Tadqiqot ko‘rsatganidek, migrantlarning 74,5 foizi faol mehnat va oila qurish (18–45 yosh) davridadir. Ota yoki onaning uzoq vaqt davomida oilada bo‘lmasligi natijasida oilada “pedagogik disfunksiya” yuzaga keladi. Bu holat farzandlarda deviant xulq-atvor shakllanishiga, surrogat tarbiyachilar (bobo, buvi yoki qarindoshlar) qaramog‘ida axloqiy nazoratning susayishiga olib keladi.
2. **“Gender transformatsiyasi”ning etnopedagogik dialektikasi:** Viloyat bo‘yicha 19 212 nafar ayollarning mehnat migratsiyasida bo‘lishi an’anaviy o‘zbek oilasidagi pedagogik mas’uliyat tizimini o‘zgartirmoqda. Bir tomondan, ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligi ortsa, ikkinchi tomondan, oila o‘chog‘i va onalik tarbiyasi instituti zaiflashadi.
3. **“Migratsion pedagogik transfer”:** Biz taklif etayotgan modelga ko‘ra, migrantlar (xususan, 32 332 nafar yoshlar) xorijda nafaqat moddiy daromad, balki mehnat intizomi, texnologik ko‘nikmalar, chet tillarini bilish va huquqiy madaniyat shaklidagi “ijtimoiy-pedagogik kapital” yig‘adilar. Vatanga qaytgach, ular oilada va mahallada ushbu ijobiy tajribani yoshlarga o‘tkazuvchi “pedagogik mediatorlar” sifatida namoyon bo‘lishadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Olib borilgan pedagogik-statistik tahlil ko‘rsatdiki, mehnat migratsiyasi – bu faqat iqtisodiy jarayon emas, balki oilaviy tarbiya tizimini, gender vazifalarini va yoshlar ijtimoiylashuvini tubdan o‘zgartiruvchi pedagogik omildir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy-pedagogik tavsiyalar ilgari suriladi:

1. **Migrantlar oilalari uchun “Darslik va masofaviy pedagogik qo‘llab-quvvatlash” tizimini yaratish:** Ota-onasi xorijda bo‘lgan o‘quvchilarni “ijtimoiy yetimlik”dan himoya qilish maqsadida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Masofaviy pedagogik psixolog” va “Elektron oilaviy pedagogika” platformalarini joriy etish.
2. **“Migratsion pedagogik transfer” modelini amaliyotga tatbiq etish:** Xorijdan qaytgan mehnat migrantlarining ijobiy ijtimoiy va kasbiy tajribalarini (texnologik savodxonlik, mehnat madaniyati) mahallalarda va kasb-hunar maktablarida yoshlar o‘rtasida ommalashtirish bo‘yicha “Pedagogik adaptatsiya markazlari”ni tashkil etish.
3. **Etnopedagogik va gender muvozanatni saqlash:** Mehnat migratsiyasidagi ayollarning farzandlari tarbiyasini tizimli monitoring qilish va bobo-buvilarning tarbiyaviy mas’uliyatini oshiruvchi etnopedagogik treninglarni tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Бауман З. Глобализация. Последствия для человека и общества. – Москва: Весь Мир, 2004. – С. 81–85.
2. Бек У. Что такое глобализация? Ошибки глобализма – ответы на глобализацию. – Москва: Прогресс-Традиция, 2013. – 304 с.
3. Bo'ronov S. S. Globallashuv sharoitida O'zbekistonda migratsiya jarayonlarining transformatsiyasi: Fals. fan. dok. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2021. – B. 18–22.
4. Рязанцев С. В. Трудовая миграция в странах СНГ: тенденции и регулирование. – Москва: ИСПИ РАН, 2008. – С. 142–145.
5. Abdullayev B. M. Mehnat migratsiyasining aholi demografik va yosh tuzilmasiga ta'siri (Andijon viloyati misolida) // Ijtimoiy fikr. – Toshkent, 2022. – № 3. – B. 56.
6. Abdullaev B. M. Andijon viloyatida migratsiya jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy unifikatsiyasi. Monografiya. – Andijon, 2026. – B. 4–8.

MAKTAB RAHBARLARINI KARYERA POG'ONALARI ASOSIDA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-AMALIY ASOSLARI

Ismailov Abduvali Abdumalikovich
A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti rektori,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada bilimlar iqtisodiyoti va globallashuv sharoitida maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda Singapur, Janubiy Koreya va Yaponiya ta'lim tizimlarida maktab direktorlarini tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash hamda ularning kasbiy-karyeraviy rivojlanishini ta'minlash mexanizmlari qiyosiy tahlil qilingan. Natijada rahbar kadrlarni saralashning meritokratik tamoyillari, kompetensiyaga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish modeli va ta'lim liderligini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, ushbu ilg'or tajribalarni milliy ta'lim tizimiga moslashtirish hamda maktab direktorlarining boshqaruv kompetensiyalari, strategik tafakkuri va liderlik salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim menejmenti, maktab rahbari, karyera pog'onasi, boshqaruv kompetensiyasi, menejerlik sertifikati, professional rivojlanish, rahbar kadrlar zaxirasi, meritokratiya, dual ta'lim, ijtimoiy-psixologik portret, boshqaruv staji, professional saralash.

Abstract: This article examines the scientific and practical foundations for improving the system of training school leaders based on career stages in the context of the knowledge economy and globalization. The study provides a comparative analysis of the mechanisms for selecting, training, retraining, and ensuring the professional and career development of school principals in the education systems of Singapore, South Korea, and Japan. As a result, the effectiveness of meritocratic principles for selecting managerial personnel, a competency-based model of continuous professional development, and programs aimed at developing educational leadership is substantiated. In addition, scientific and practical proposals and recommendations have been developed to adapt these advanced practices to the national education system and to enhance school principals' managerial competencies, strategic thinking, and leadership potential.

Key words: educational management, school leader, career stage, managerial competence, management certificate, professional development, leadership talent pool, meritocracy, dual education, socio-psychological profile, management experience, professional selection.

Аннотация: В данной статье освещаются научно-практические основы совершенствования системы подготовки руководителей школ на основе карьерных ступеней в условиях экономики знаний и глобализации. В исследовании проведён сравнительный анализ механизмов отбора, подготовки, переподготовки и обеспечения профессионально-карьерного развития директоров школ в системах образования Сингапура, Южной Кореи и Японии. В результате обоснована эффективность меритократических принципов отбора руководящих кадров, модели непрерывного профессионального развития на основе компетентностного подхода и программ, направленных на развитие образовательного лидерства. Кроме того, разработаны научно-практические предложения и рекомендации по адаптации данного передового опыта к национальной системе образования, а также по развитию управленческих компетенций, стратегического мышления и лидерского потенциала директоров школ.

Ключевые слова: управление образованием, руководитель школы, карьерная ступень, управленческая компетентность, сертификат менеджера, профессиональное развитие, резерв руководящих кадров, меритократия, дуальное образование, социально-психологический портрет, управленческий стаж, профессиональный отбор.

KIRISH

XXI asrda bilim iqtisodiyotining ustuvor ahamiyat kasb etishi va globallashuv jarayonlarining jadallashuvi uzluksiz ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish vazifasini strategik darajaga ko'tarmoqda. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini yuksaltirish, o'quvchilarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish

hamda jamiyat uchun raqobatbardosh shaxslarni tarbiyalash bevosita maktab rahbarining boshqaruv mahorati va yetakchilik kompetensiyasiga bog‘liq.

Respublikamiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o‘z mohiyatiga ko‘ra, avvalo, ta’lim sifatini oshirishni maqsad qilgan bo‘lib, ushbu islohotlarning bosh subyekti sifatida maktab direktori ko‘rilmoqda. Zero, o‘quv-tarbiya jarayonining samarali tashkil etilishi, inson resurslaridan unumli foydalanish, moliyaviy-huquqiy masalalarni hal etish va raqamli savodxonlikni yuksaltirish – bularning barchasi rahbarning kasbiy tayyorgarligi va strategik tafakkuri bilan bevosita bog‘liq.

Shundan kelib chiqib, maktab rahbarlarini ilmiy asoslangan, bosqichma-bosqich va natijaga yo‘naltirilgan tizim asosida tayyorlash masalasi nafaqat pedagogik, balki davlat boshqaruvi nuqtai nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda maktab rahbarlarini tayyorlash va ularning karyera rivojlanishini tizimli tashkil etish masalasi xorijiy pedagogika fanida keng o‘rganilgan. Respublikamizda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish, ularni milliy ta’lim tizimi xususiyatlariga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, mazkur bo‘limda maktab rahbarlarini tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishini tashkil etish bo‘yicha Singapur, Janubiy Koreya hamda Yaponiya tajribalari qiyosiy tahlil qilindi.

Singapurda oddiy o‘qituvchidan maktab direktori lavozimiga ko‘tarilish o‘rtacha 15–20 yillik bosqichma-bosqich professional rivojlanishni talab etadi. Nomzodlar tasodifiy tanlanmaydi, ular quyidagi 5 ta aniq bosqichdan bosqichma-bosqich o‘tishadi.[1][8]:

1-jadval: **Singapurda maktab rahbarlarining kasbiy-karyeraviy rivojlanish bosqichlari**

1-bosqich	Pedagogik professionalizm (3–5 yil)	Yuqori o‘qitish ko‘rsatkichlari asosida “Yetakchilik yo‘nalishi” dasturiga jalb etiladi
2-bosqich	Quyi va o‘rta bo‘g‘in boshqaruvi (5–7 yil)	Metodik birlashma rahbari, so‘ngra bo‘lim boshlig‘i lavozimlarida ishlaydi
3-bosqich	Direktor o‘rinbosari (3–5 yil)	Byudjet, kadrlar siyosati va strategik rejalashtirishni amalda boshqaradi
4-bosqich	LEP (Leaders in Education Programme) dasturi (6 oy)	Milliy ta’lim institutida jahon standartlarida o‘qitiladi; innovatsion loyihani himoya qiladi
5-bosqich	Rasmiy tayinlov va rotatsiya	Ta’lim vazirligi yuqori rahbariyati tomonidan saralanadi

Manba: Tahlillar natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Jadvaldan ko‘rinadiki, Singapurda maktab direktorlarini tayyorlash besh bosqichli karyera modeli asosida amalga oshiriladi. Ushbu model pedagogik tajriba, boshqaruv kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, maxsus liderlik dasturida tayyorgarlik ko‘rish hamda yakuniy saralash jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur yondashuv rahbar kadrlarni tanlashda professional kompetensiya, amaliy tajriba va liderlik salohiyatini asosiy mezon sifatida belgilaydi.

Janubiy Koreyada maktab direktori bo‘lish tizimi Singapur kabi meritokratik, biroq o‘ziga xos “Ball to‘plash” (Promotion Point System) va milliy sertifikatlash modeliga asoslangan. Koreya maktablarida direktorlar ko‘p yillik o‘qituvchilik tajribasiga ega bo‘lgan va juda qattiq raqobatdan o‘tgan professional pedagoglar ichidan tanlab olinadi. Nomzodlar direktorlik darajasiga yetishi uchun quyidagi tizimli bosqichlardan o‘tadi.[2][9]:

2-jadval: **Janubiy Koreyada maktab rahbarlarining kasbiy-karyeraviy rivojlanish bosqichlari**

1-bosqich	1-darajali o‘qituvchi sertifikatini olish (3-5 yil)	Kamida 3 yillik to‘liq sinf tajribasidan so‘ng, u davlat tomonidan tashkil etilgan maxsus malaka oshirish kursiga yuboriladi.
2-bosqich	Ball yig‘ish va yetakchilik davri (15-20 yil)	Nomzod maktabda Kafedra mudiri (Bojik-gyosa) lavozimini egallab, boshqaruvni o‘rganadi
3-bosqich	Direktor o‘rinbosari litsenziyasi va amaliyoti (3-5 yil)	Nomzod davlat tomonidan tashkil etilgan intensiv tayyorlov kursida o‘qiydi va Direktor o‘rinbosari litsenziyasini oladi.

1 NATIONAL INSTITUTE FOR SCHOOL LEADERSHIP® 2019. https://documents.ncsl.org/wwwncsl/Education/Study-Group/NISLSingapore%27sCareerLadderSystem.pdf

2 Masayuki AKUTAGAWA, Criteria for the Bestowal of School Principal Licenses Under the Former Board of Education Act: Standards Setting and Certification Process Administration through Detailed Enforcement Regulations and Liaison Councils. https://www.jeas.jp/jeas/wp-content/uploads/2024/02/Akutagawa2022JEAS48.pdf

4-bosqich	Direktorlik sertifikati va tayinlov (Gyojang)	Kamida 3 yil direktor o‘rinbosari bo‘lib ishlagan va o‘zini ko‘rsatgan nomzodlar Ta’lim vazirligining yakuniy “Maktab boshqaruvi va strategik yetakchilik” (Principal Qualification Program) kursiga yuboriladi.
Muqobil yo‘l	Ochiq tanlov tizimi (Open Recruitment)	Tajribali o‘qituvchilar yoki ta’lim ekspertlari “ball tizimi”da qatnashmasdan, muayyan maktablar e’lon qilgan ochiq tanlovlar (Gongmo) orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri direktorlikka hujjat topshirishlari mumkin.

Manba: Tahlillar natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Janubiy Koreya tajribasi maktab rahbarlarini tayyorlash va lavozimga tayinlash jarayoni uzoq muddatli kasbiy rivojlanish, majburiy malaka oshirish, litsenziyalash hamda sertifikatlash mexanizmlariga asoslanishini ko‘rsatadi. Tizimda boshqaruv kompetensiyalarini bosqichma-bosqich shakllantirish, nomzodlarni qat’iy saralash va ochiq tanlov amaliyotining qo‘llanilishi rahbar kadrlar sifatini ta’minlashning muhim omili hisoblanadi.

Ushbu tajriba umumta’lim muassasalari rahbarlarini tayyorlash va ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yaponiyada maktab direktori (Kōchō) bo‘lish tizimi ham qat’iy tartibga solingan va mahalliy ta’lim kengashlari tomonidan markazlashgan holda boshqariladi. Yaponiya ta’lim, madaniyat, sport, fan va texnologiyalar vazirligi standartlariga muvofiq, nomzodlar quyidagi bosqichma-bosqich jarayonlardan o‘tishadi[1][10]:

3-jadval: **Yaponiya maktab rahbarlarining kasbiy-karyeraviy rivojlanish bosqichlari**

1-bosqich	Tajriba to‘plash va yetakchi o‘qituvchi (10–12 yil)	10 yillik o‘qituvchilik stajdan so‘ng, u maktab ma’muriyati tomonidan “Yetakchi o‘qituvchi” (Shidō-kyōyu) yoki fan koordinatori lavozimiga tavsiya etiladi.
2-bosqich	Kafedra mudiri (5–7 yil)	Dars jadvallarini tuzish, imtihonlarni tashkil qilish, maktab tadbirlarini rejalashtirish va Ta’lim kengashi bilan aloqalarni muvofiqlashtirish uchun mas’ul bo‘ladi.
3-bosqich	Direktor o‘rinbosari (3–5 yil)	Imtihonlar insho yozish, qonunchilikdan testlar va chuqur psixologik suhbatdan iborat.
4-bosqich	Direktorlik imtihoni (Kōchō) (1-2 yil)	Ta’lim markazida strategik menejment, inqirozlarni boshqarish va ta’lim huquqi bo‘yicha maxsus kurslarda o‘qitiladi.

Manba: Tahlillar natijalari asosida muallif ishlanmasi.

Yaponiya tajribasi maktab rahbarlarini tayyorlash jarayoni uzluksiz kasbiy rivojlanish, amaliy boshqaruv tajribasi va maxsus malaka tayyorgarligi tamoyillariga asoslanishini ko‘rsatadi. Rahbarlik lavozimiga nomzodlar turli boshqaruv bosqichlaridan izchil o‘tishi, strategik menejment va ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tishi natijasida ularning boshqaruv kompetensiyalari tizimli ravishda rivojlantiriladi.

Ushbu model umumta’lim muassasalari rahbar kadrlarini tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv, meritokratiya va uzluksiz kasbiy rivojlanish tamoyillarini samarali uyg‘unlashtirishi bilan e’tiborga loyiq bo‘lib, milliy ta’lim tizimida rahbar kadrlarni tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Yuqorida tahlil qilingan Singapur, Janubiy Koreya va Yaponiya tajribalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur davlatlarda maktab rahbarlarini tayyorlash va lavozimga tayinlash tizimi uzluksiz kasbiy rivojlanish, kompetensiyaviy yondashuv, ko‘p bosqichli saralash hamda meritokratiya tamoyillari asosida tashkil etilgan. Ushbu mamlakatlarda rahbarlik lavozimiga nomzodlar pedagogik faoliyatdagi yutuqlari, boshqaruv tajribasi, maxsus tayyorlov dasturlarida ishtiroki va kasbiy kompetensiyalari asosida bosqichma-bosqich saralanadi. Natijada ta’lim muassasalariga zamonaviy boshqaruv kompetensiyalariga ega, strategik fikrlaydigan va ta’lim sifatini samarali boshqara oladigan rahbar kadrlar shakllantiriladi.

Mazkur ilg‘or tajribalar tahlili Respublikamiz umumta’lim tizimida maktab rahbarlarini tayyorlash va ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yanada yaqqol namoyon etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

So‘nggi yillarda ushbu yo‘nalishda qator normativ-huquqiy va tashkiliy islohotlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, amaldagi tizim faoliyatini ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilish ayrim tizimli muammolar va takomillashtirishni talab etuvchi jihatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Xususan, ikki yillik amaliy tajriba va chuqur pedagogik tahlillar amaldagi tizimni yanada takomillashtirishni taqozo etuvchi ayrim masalalarni ham o‘rtaga chiqarmoqda. Hozirgi tartibga ko‘ra, o‘quv kurslariga qabul qilish jarayonida hech qanday dastlabki kirish sinovlarining mavjud emasligi sababli talabgorlarning boshlang‘ich bilim va boshqaruv salohiyatini oldindan saralash imkoni bo‘lmayapti. Buning oqibatida o‘qishga kelayotgan nomzodlarning qariyb 53 foizi davlat tili qoidalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va boshqaruv asoslariga oid fundamental dasturlarni o‘zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Shuningdek, minimal talab sifatida faqatgina 5 yillik pedagogik ish staji va oliy ma’lumot diplomining belgilanganligi rahbarlikka chinakam iqtidorli va yetakchilik xususiyatiga ega bo‘lgan kadrlarni ajratib olish uchun yetarli mezon sifatida xizmat qilmayapti. Mazkur holat maktab rahbarlarini tayyorlash tizimiga kompetensiyaga asoslangan saralash, diagnostika va uzluksiz kasbiy rivojlantirish mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Amaldagi tizim tahlili yana bir muhim metodik muammoni namoyon etadi. Xususan, boshqaruv faoliyati bo‘yicha amaliy tajribaga ega bo‘lmagan yosh pedagoglar hamda ko‘p yillik rahbarlik tajribasiga ega amaldagi maktab direktorlarining bir xil o‘quv dasturi, yagona o‘quv yuklamasi va umumiy baholash mezonlari asosida tayyorlanishi kasbiy rivojlanishning individuallashtirilgan va differensial yondashuv tamoyillariga to‘liq mos kelmaydi. Bunday yondashuv tinglovchilarning boshlang‘ich kompetensiyalari, kasbiy ehtiyojlari va boshqaruv tajribasidagi tafovutlarni yetarli darajada hisobga olish imkonini cheklaydi.


Natijada o‘quv jarayonining mazmuni ayrim tinglovchilar uchun murakkablik darajasi jihatidan yetarli bo‘lmasa, boshqalari uchun esa mavjud bilim va tajribani takrorlash bilan cheklanib qolishi mumkin. Bu esa malaka oshirish jarayonining samaradorligini pasaytirishi, boshqaruv kompetensiyalarini maqsadli rivojlantirish imkoniyatlarini cheklashi hamda ta’lim natijalarining differensial ehtiyojlarga mosligini ta’minlashda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan ta’lim tizimlarida maktab rahbarlarini tayyorlash ularning kasbiy tayyorgarligi, boshqaruv tajribasi, kompetensiyalar darajasi va karyera bosqichlaridan kelib chiqib, tabaqalashtirilgan dasturlar asosida tashkil etiladi. Bunday yondashuv rahbar kadrlarning individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish, ularning boshqaruv salohiyatini izchil rivojlantirish hamda ta’lim tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, Respublikamiz ta’lim tizimida ham maktab rahbarlarini tayyorlash va ularning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bunda rahbar kadrlarni tayyorlash jarayonini real kasbiy-karyeraviy bosqichlar, kompetensiyaviy talablar va differensial ta’lim tamoyillari asosida tashkil etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv boshqaruv kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, rahbarlik faoliyatiga tayyorlik darajasini oshirish hamda ta’lim sifatini boshqarishning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida aniqlangan tizimli muammolarni bartaraf etish hamda ta’lim menejmenti sifatini oshirish maqsadida maktab rahbarlarini tayyorlashning yangi konseptual modeli taklif etilmoqda (1-rasm). Mazkur model rahbar kadrlarni tayyorlash va kasbiy rivojlantirish jarayonini uzluksizlik, izchillik hamda kompetensiyaviy yondashuv tamoyillari asosida tashkil etishni nazarda tutadi.



1-rasm: **Maktab rahbarlarini karyera pog‘onalari asosida tayyorlash va o‘sish modeli**[3]

3 Tadqiqot tahlil natijalari asosida muallif ishlanmasi

Taklif etilayotgan modelga ko‘ra, maktab rahbarlarini tayyorlash tizimi o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan uch bosqichli kasbiy-karyeraviy rivojlanish modeli asosida amalga oshiriladi. Ushbu yondashuv rahbarlik faoliyati uchun zarur bo‘lgan boshqaruv kompetensiyalarini pedagogning kasbiy faoliyati davomida bosqichma-bosqich shakllantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi. Har bir bosqichda nomzodlarning kasbiy tajribasi, boshqaruv salohiyati, liderlik kompetensiyalari hamda strategik fikrlash qobiliyati belgilangan mezonlar asosida baholanadi va keyingi bosqichga o‘tish uchun zarur kompetensiyalar izchil rivojlantiriladi (1-rasm).

Mazkur model har bir rahbar xodimning o‘z faoliyatini dastlab quyi bo‘g‘indan boshlab, bosqichma-bosqich tajriba orttirib, yuqori boshqaruv korpusiga ko‘tarilib borishini ta’minlaydi va ta’limda xizmat pog‘onalari bo‘yicha o‘sishning shaffof trayektoriyasini yaratadi.

- **I bosqich (Maktab direktori o‘rinbosarlari uchun):** Hududiy pedagogik mahorat markazlarida 300 soatlik, nazariya va amaliyotning uzviyligini ta’minlovchi dual ta’lim asosidagi maxsus o‘quv kurslari tashkil etiladi. Ushbu bosqichga qabul qilinish uchun nomzoddan kamida 4 yillik muvaffaqiyatli pedagogik ish staji talab etiladi.
- **II bosqich (Maktab direktorlari uchun):** A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida chuqurlashtirilgan 300 soatlik dasturlar asosida o‘qitiladi. Mazkur bosqichga faqatgina kamida 5 yillik pedagogik stajga hamda shundan kamida 2 yillik direktor o‘rinbosari lavozimidagi natijador rahbarlik tajribasiga ega bo‘lgan sertifikatli kadrlar qabul qilinadi.
- **III bosqich (Tuman/shahar maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshliqlari uchun):** Strategik boshqaruv, makromenejment va hududiy ta’lim tizimini rivojlantirish dasturlarini o‘z ichiga olgan 100 soatlik maxsus kurs tashkil etiladi. Ushbu cho‘qqiga da’vogarlik qilish uchun shaxsdan 5 yillik umumiy pedagogik staj bilan bir qatorda, kamida 3 yillik bevosita maktab direktori lavozimidagi samarali faoliyat va yuqori boshqaruv ko‘rsatkichlari talab qilinadi.

Taklif etilayotgan tizimning yana bir o‘ziga xos va inqilobiy jihati shundaki, unda rahbar kadrlarning faqatgina imtihon topshirish qobiliyati emas, balki ularning ish joyidagi haqiqiy nufuzi va psixologik tayyorgarligi ham jiddiy nazoratga olinadi. O‘qishga qabul qilishdan oldin talabgorlarning mavjud bilim darajasini aniqlash maqsadida majburiy saralash (kirish) imtihonlari yo‘lga qo‘yiladi. Shu bilan birga, nomzod faoliyat ko‘rsatayotgan maktab jamoasining fikri, uning xodimlar bilan muloqot qilish madaniyati hamda liderlik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida jamoaviy baholash tizimi joriy etiladi. Bu jarayon shaxsning har tomonlama mukammal ijtimoiy-psixologik portretini shakllantirishga va jamoa tomonidan hurmat qilinadigan rahbarlarni kashf etishga xizmat qiladi.

Ushbu qat’iy va professional saralash filtrlari fonida o‘z ustida ishlab, professional darajaga ko‘tarilgan rahbar kadrlarni moddiy rag‘batlantirish tizimi ham mutanosib ravishda tubdan oshiriladi. Yangi konsepsiyaga ko‘ra, menejerlik sertifikatini muvaffaqiyatli qo‘lga kiritgan direktor o‘rinbosarlariga 50 foiz, maktab direktorlariga 100 foiz, tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshliqlariga esa 200 foiz miqdorida lavozim maoshiga nisbatan har oylik ustama haq belgilanishi ko‘zda tutilgan. Bu chora sohada uzoq yillar davomida saqlanib qolgan eng bilimli kadrlarning moddiy yetishmovchilik sababli boshqa sohalarga chiqib ketish muammosini ijobiy hal etib, sohaning moliyaviy jozibadorligini misli ko‘rilmagan darajada yuksaltiradi.

Maktab rahbarlarini karyera pog‘onalari asosida bosqichma-bosqich tayyorlash, qayta tayyorlash va tayinlash tizimining hayotga tatbiq etilishi mamlakatimiz ta’lim menejmentida yangi davrni boshlab beradi. Dual ta’lim shaklining joriy etilishi natijasida bo‘lajak rahbarlar faqatgina quruq akademik nazariyalarni yodlamasdan, balki olingan zamonaviy bilimlarni bevosita o‘z maktablarida amaliyotda qo‘llash, tajriba o‘tkazish va real muammolarga optimal innovatsion yechimlar topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shaffof karyera zanjiri esa har bir yosh pedagogga o‘z kelajagini aniq rejalashtirish va halol mehnat evaziga yuqori lavozimlarga ko‘tarilish imkonini taqdim etadi.

Taklif etilayotgan model doirasida rahbarlikka tasodifiy shaxslar kelib qolishining oldini olish uchun quyidagi professional filtrlar va mexanizmlar joriy etiladi:

1. **Kirish imtihonlari va ijtimoiy-psixologik portret:** Kursga qabul qilinishdan oldin nomzodlarning mavjud bilim, ko‘nikma va rahbarlik layoqatini aniqlash maqsadida majburiy saralash imtihonlari o‘tkaziladi hamda ularning psixologik portreti shakllantiriladi.
2. **Jamoaviy baholash:** Nomzod faoliyat ko‘rsatayotgan maktab jamoasi, o‘qituvchilar va ota-onalarning fikri hamda jamoaviy baholash prinsiplari joriy qilinadi. Bu jarayon subyektivlikni kamaytirishga va Direktorlar kengashi suhbatlarining shaffofligini ta’minlashga xizmat qiladi.
3. **KPI asosida rag‘batlantirish va masofaviy ta’lim:** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning

qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-51-son[4] Farmoni talablariga muvofiq, direktorlarning bazaviy tarif stavkalari 20 foizga oshirildi hamda 2026-yil 1-yanvardan boshlab faoliyat samaradorligi ko‘rsatkichlari (KPI) natijalariga ko‘ra qo‘shimcha 20 foizgacha ustamalar belgilanishi yo‘lga qo‘yildi.

Mazkur model doirasida menejerlik sertifikatiga ega bo‘lgan o‘rinbosarlarga 50 foiz, direktorlarga 100 foiz, tuman bo‘limi mudirlariga esa 200 foiz ustama belgilanishi taklif etilmoqda. Shu bilan birga, jarayonlarni optimallashtirish va chekka hududlardagi kadrlar taqchilligini bartaraf etish uchun menejerlik kurslarining onlayn va masofaviy shakllari ham joriy etiladi.

Maktab rahbarlarini karyera pog‘onalariga muvofiq bosqichma-bosqich tayyorlash va tayinlash tizimining hayotga tatbiq etilishi mamlakatimiz ta’lim menejmentida mutlaqo yangi progressiv davrni boshlab beradi. Dual ta’lim shaklining kengaytirilishi va raqamli monitoring tizimlarining joriy etilishi natijasida bo‘lajak rahbarlar faqat quruq akademik nazariyalarni yodlamasdan, balki olingan zamonaviy strategiyalarni bevosita o‘z maktablarida amaliyotda qo‘llash va real muammolarga optimal innovatsion yechimlar topish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shaffof karyera zanjiri esa har bir yosh pedagogga o‘z kelajagini aniq rejalashtirish va halol mehnat hamda uzluksiz malaka oshirish evaziga yuqori lavozimlarga ko‘tarilish imkonini taqdim etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, rahbar va pedagog kadrlar malakasini oshirish metodologiyasini yangi bosqichga ko‘targan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son[5] qarori, umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbar kadrlarini tayyorlash, ularning kasbiy, strategik va moliyaviy-huquqiy boshqaruv kompetensiyalarini oshirishda menejerlik o‘quv kurslarining tutgan o‘rni hamda institutsional asoslari tizimli tahlil qilinadi.

Tadqiqot doirasida sohadagi islohotlarning fundamental huquqiy poydevori hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-dekabrdagi “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktori lavozimiga nomzodlarni menejerlik o‘quv kurslarida o‘qitish va ularga menejerlik sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 681-son qarori hamda malaka oshirish jarayonlarini to‘liq raqamlashtirish va diagnostika qilish mexanizmlarini belgilab bergan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 867-son[6] qarori asosida boshlangan islohotlarni ushbu tizimli karyera modeli yordamida yanada takomillashtirish ta’lim muassasalarida boshqaruv sifatini tubdan yaxshilashning bosh garovidir.

Baholash jarayonlarining ijodiy fikrlash, tahliliy qobiliyat va keng dunyoqarash mezonlariga tayanishi yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlaydigan mutlaqo yangi dunyoqarashga ega professional rahbar kadrlar korpusini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son[7] Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son[8] Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son[9] Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son[10] Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-51-son[11] Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son[12] qarori. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Pedagog kadrlarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-231-son[13] qarori.

4 https://lex.uz/uz/docs/-7438953
5 https://lex.uz/uz/docs/-6981085
6 https://lex.uz/uz/docs/-7271575
7 https://lex.uz/ru/docs/-4312785
8 https://lex.uz/uz/docs/-3893445
9 https://lex.uz/uz/docs/-3893445
10 https://lex.uz/docs/-6476175
11 https://lex.uz/uz/docs/-7438953
12 https://lex.uz/docs/-3893416
13 https://lex.uz/uz/docs/-6981085

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 867-son[14] qarori.
8. National Institute for School Leadership®. “Singapore’s Career Ladder System”. 2019.
9. Masayuki AKUTAGAWA. Criteria for the Bestowal of School Principal Licenses Under the Former Board of Education Act: Standards Setting and Certification Process Administration through Detailed Enforcement Regulations and Liaison Councils.
10. Ministry of Education, Culture, Sports, Science and Technology – Japan. Special Feature I: Approach to Development, Recruitment, and Training of Teachers Who Will Be Responsible for “Japanese-Style School Education in the Reiwa Era”.
11. A. Ismailov va b. Ta’limda liderlik va o‘zgarishlarni boshqarish. Umumiy o‘rta ta’lim maktab direktorlari va o‘qituvchilari uchun o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti bosmaxonasi”, 2024. – 320 b.
12. A. Shleyxer. Jahon miqyosidagi ta’lim. XXI asr maktab tizimini qanday barpo etmoq kerak? / So‘z boshi: Sh. Shermatov, H. Umarova; umumiy tahrir: D. Norboyeva; tarjimonlar: R. Axmatova, D. Norboyeva. – T.: “Zamin Nashr” nashriyoti, 2022. – 344 b.
13. E. U. Xudoyberdiyev. Maktablarda ta’limni strategik boshqarishning muammo va istiqbollari. “O‘zbekiston Milliy universiteti xabarlari” ilmiy jurnali. – T., 2023. – 1/4-son. – B. 182–184.
14. A. Ismailov. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari direktorlarini kasbiy rivojlantirish masalalari. “Maktab ta’limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar” nomli ilmiy-nazariy va o‘quv-uslubiy jurnal. – T., 2025. – 5-son. – B. 5–14.
15. A. Baxramov, G. Itolmazova, O. Tursinboyev. Rahbar va pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish (CPD). O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti, 2025. – 112 bet.
16. A. Ismailov. Maktab rahbarlarining kasbiy-karyera pog‘onalarida bosqichma-bosqich rivojlanishiga qaratilgan o‘quv dasturlarini joriy etish mexanizmlari. “Maktab ta’limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar” nomli ilmiy-nazariy va o‘quv-uslubiy jurnal. – T., 2026. – 2-son. – B. 5–15.
17. A. Ismailov. Rahbar kadrlarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning baholash indikatorlarini takomillashtirish. “Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar” ilmiy-nazariy jurnal. – Buxoro, 2026. – 5-son. – B. 213–216.

14 https://lex.uz/uz/docs/-7271575

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

CEFR B1 MEZONLARI ASOSIDA 10 VA 11-SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA IJODIY TOPSHIRIQLARNI LOYIHALASH METODIKASI

Ergasheva Feruza Davlatali qizi
O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
Ingliz tili ixtisosligi bo'yicha 3-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada CEFR (Umumyevropa til bilish kompetensiyalari tizimi) B1 darajasi mezonlari asosida yuqori sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy topshiriqlarni loyihalash va ularni samarali qo'llash metodikasi yoritiladi. Maqolada ijodiy topshiriqlarning amaliy ahamiyati, ularni tanlash va ishlab chiqish prinsiplari, dars jarayonida qo'llash usullari batafsil ochib beriladi. Shuningdek, ijodiy topshiriqlarning o'quvchilarning nutq salohiyatini va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni hamda yutuqlari haqida mavjud ilmiy adabiyotlar asosidagi tahlillar keltiriladi. Mazkur maqola pedagoglar va til o'qituvchilari uchun nazariy va amaliy yordam sifatida mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: CEFR, B1 daraja, og'zaki nutq, ijodiy topshiriq, metodika, yuqori sinf, kommunikativ kompetensiya, til o'rganish, dars jarayoni, interaktiv metod.

Abstract: This article discusses the methodology for designing creative tasks aimed at developing oral speech of senior students based on the criteria of the B1 level of the CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) and their effective use. The article describes in detail the practical importance of creative tasks, the principles of their selection and development, and the methods of their use in the teaching process. It also provides an analysis of the role and achievements of creative tasks in the development of students' speech potential and communicative skills based on existing scientific literature. This article is intended as a theoretical and practical aid for educators and language teachers.

Key words: CEFR, B1 level, oral speech, creative task, methodology, senior class, communicative competence, language learning, teaching process, interactive method.

Аннотация: В данной статье рассматривается методология разработки творческих заданий, направленных на развитие устной речи старшеклассников на основе критериев уровня B1 Общеевропейской системы оценки языковых компетенций (ОЭКК), и их эффективное использование. В статье подробно описывается практическое значение творческих заданий, принципы их отбора и разработки, а также методы их применения в учебном процессе. Также приводится анализ роли и достижений творческих заданий в развитии речевого потенциала и коммуникативных навыков учащихся на основе существующей научной литературы. Данная статья предназначена в качестве теоретического и практического пособия для педагогов и преподавателей языков.

Ключевые слова: ОЭКК, уровень B1, устная речь, творческое задание, методология, старшеклассники, коммуникативная компетенция, изучение языка, учебный процесс, интерактивный метод.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim jarayonida til o'rgatishda zamonaviy va innovatsion metodlarga bo'lgan ehtiyoj kundan-kunga ortib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilini o'qitishda xalqaro standartlarga asoslangan yondashuvlar, xususan, CEFR mezonlari asosida yangi metodikalarning joriy qilinishi o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Yuqori sinf o'quvchilarining og'zaki nutq kompetensiyasini shakllantirishda ijodiy topshiriqlarning roli katta. Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilar o'z fikrini mustaqil ifodalash, yangi g'oyalarni ilgari surish, muloqot va muhokama ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniga ega bo'ladi.

CEFR tizimi bo'yicha B1 daraja mezonlari kommunikativ kompetensiyaga erishish, mustaqil nutq va fikr almashish malakasini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlardan foydalanish ularning faolligini oshiradi, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Ijodiy topshiriqlar orqali o'quvchi real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, ular bo'yicha mustaqil xulosa

chiqarish, o‘zining fikrlash uslubiga mos holda so‘zlashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa CEFR tizimidagi kommunikativ kompetensiyaning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Bunday topshiriqlar dars jarayonini standart savol-javoblar bilan cheklab qo‘ymasdan, har bir o‘quvchini faol fikr almashishga jalb qiladi. Ijodiy topshiriqlarning asosiy ustunligi shundaki, ular o‘quvchilarning individual qiziqishlari, bilim darajalaridan kelib chiqib loyihalanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

CEFR mezonlari asosida og‘zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalalari qator xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, Brian North va Enrica Piccardo tadqiqotlarida CEFR deskriptorlarini takomillashtirish, kommunikativ faoliyat, o‘zaro muloqot va til o‘rganuvchining real kommunikativ vaziyatlardagi faol ishtirokini baholash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu yondashuv B1 darajasidagi o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda kommunikativ va hamkorlikka asoslangan topshiriqlardan foydalanish muhimligini ko‘rsatadi.

Rod Ellis topshiriqqa asoslangan til o‘qitish yondashuvida topshiriqlarni o‘quv maqsadi, murakkablik darajasi, bajarish shartlari va kutilayotgan natijalar asosida loyihalash masalalarini yoritgan. Uning tadqiqotlari kommunikativ topshiriqlarni o‘quvchilarning til darajasi va imkoniyatlariga muvofiq bosqichma-bosqich tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

Jack C. Richards kommunikativ til o‘qitish va og‘zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan sinf faoliyatlarini tashkil etish masalalarini tadqiq qilgan. Mazkur yondashuvga ko‘ra, o‘quvchilarni real muloqotga yaqin vaziyatlarga jalb etuvchi suhbat, muhokama va boshqa kommunikativ faoliyatlar og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Penny Urning til o‘qitish metodikasiga oid qarashlarida esa munozara, rolli o‘yin va boshqa interaktiv topshiriqlar o‘quvchilarning og‘zaki muloqotda faol ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositalar sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ijodiy topshiriqlardan foydalanilganda o‘quvchilarning og‘zaki nutqi tez va sifatli rivojlanadi. Bunday topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini ochiq aytishga, asossiz hayajon va qo‘rquvni yengishga o‘rganadi. Shuningdek, ular kundalik darslarda ko‘proq ishtirok etib, o‘z-o‘zini rivojlantirish, bilimini mustaqil to‘ldirish va nutq odobiga rioya etish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradi. Har bir ijodiy topshiriq natijasida o‘quvchi o‘zlashtirgan yangi so‘z boyligi, grammatik qoidalar, muloqot etiketi kabi bilimlar amaliy muhitda mustahkamlanadi.

10–11-sinfda CEFR B1 mezonlariga muvofiq darslik va qo‘llanmalarda ijodiy topshiriqlar doirasini kengaytirish, har bir darsda kamida bitta erkin fikrlashga, muloqotga, munozaraga yo‘naltirilgan topshiriq tashkil etish dars samaradorligini oshiradi. Masalan, bolalardan biron ijtimoiy muammoni muhokama qilish, turli rolli o‘yinlar orqali o‘zini trener, jurnalist yoki ko‘rsatuvchi sifatida namoyon etish, videomaterial yoki kutilmagan holat yuzasidan fikr bildirishi uchun erkin platforma yaratilsa, ular atrofidagi odamlar bilan faol muloqot jarayoniga kirishadi.

Har bir darsdan so‘ng o‘quvchilarni kichik prezentatsiyalarga, loyiha natijalarini taqdim etishga rag‘batlantirish ham nutq rivojini jadallashtiradi. O‘quvchilarga topshiriq berganda aniq vazifa, vaqt va mavzuni belgilab qo‘yish muhim. Misol uchun, xayoliy holatdagi bir voqea bo‘yicha intervyu shaklida so‘zlashish, ixtiyoriy mavzu yoki future profession haqida gapirish, qisqa munozara o‘tkazish yoki biror ochiq savolga iliq va asosli javob tayyorlash kabi metodlar yaxshi natija beradi. Ijodiy topshiriqlar darslarni jonlantiradi, har bir o‘quvchiga o‘zini isbotlash, o‘z fikrini ishonch bilan ifodalash imkoniyatini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish, masalan, internet manbalari, videolar, interaktiv dasturlar va ijtimoiy tarmoqlardagi tillarni o‘rganishga yo‘naltirilgan platformalar yordamida ijodiy topshiriqlar samaradorligini oshirish mumkin. O‘quvchilar onlayn forumlarda muloqot qilish, videobloglar tayyorlash, virtual rolli o‘yinlar o‘tkazish orqali til muhitini yanada kengroq va tabiiyroq his qilishadi. Bunday usullar orqali ham nutq tayyorlash, gaplarni tuzishda erkinlik va mustaqillik shakllanadi, til muhitidan chetga chiqmagan holda o‘z fikrini ingliz tilida aniq va aniqlik bilan ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ijodiy topshiriqlardan samarali foydalanish uchun o‘qituvchi har bir o‘quvchining psixologik xususiyatini, individual yondashuvini inobatga olishi, rag‘batlantiruvchi muhit yaratishi, xatolardan qo‘rqmaslik va bosim sezmaslik uchun harakat qilishi muhim. O‘qituvchi ijodiy topshiriqlarni tanlayotganda, ularning mantiqan rivojlanishini, og‘zaki nutqning bosqichma-bosqich o‘sishini va darslarning saviya jihatidan to‘g‘ri kelishini ta’minlashi

lozim. O‘qituvchi o‘quvchini noto‘g‘ri javobdan, xato fikrdan dakki bermasdan, aksincha, rag‘batlantirib va izoh berib, ijobiy muhit hosil qilishi kerak.

CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini rivojlantirish uchun ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi samarali natijalar berdi. Ushbu metodikani qo‘llash natijasida o‘quvchilarning so‘z boyligi ortdi, ular o‘z fikrini aniq va ravon ifoda eta olishni o‘rgandilar. Darslarda o‘quvchilar mustaqil fikrlash, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish va ijtimoiy mavzularda erkin suhbat qila olish ko‘nikmalarini egallashdi. Ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘z hayotidan misollar keltirib, turli mavzularda hikoya tuzish, voqealarni tasvirlab berish va o‘z orzulari haqida gapira olish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu jarayon ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini, talqin va tahlil qilish malakasini ham rivojlantirdi.

Mashg‘ulotlar davomida o‘quvchilar guruhlarda ishlash, rolli o‘yinlar o‘ynash, real hayotiy vaziyatlarga oid dialog va suhbatlar tashkil etish orqali bir-birlari bilan samarali muloqot qila oldilar. Darslarda doimiy ravishda ijodiy topshiriqlar bilan shug‘ullangan o‘quvchilar nutqini erkin tashkil etish, o‘z fikrini asosli tarzda bildirish va muhokama qilishga qodir bo‘lishdi. Shu bilan birga, ular o‘zaro fikr almashish, mulohazalar bilan o‘rtoqlashish, turli bahslarda o‘z pozitsiyasini bayon qilishga o‘rganishdi. Natijada o‘quvchilarda nutq faolligi, til ko‘nikmalari va ishonch darajasi ortdi, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqish va motivatsiya ham sezilarli darajada kuchaydi.

CEFR B1 mezonlariga ko‘ra tuzilgan ijodiy topshiriqlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda muhim natijalar berdi. Bu metodikaning qo‘llanilishi o‘quvchilarning ijodkorligini oshirib, ularni erkin muloqot va mustaqil fikrlashga yo‘naltirdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

CEFR tizimi va B1 daraja mezonlari asosida o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni to‘g‘ri loyihalash va samarali dars jarayonida qo‘llash o‘quvchilar til ko‘nikmasining barcha jihatlarini, ayniqsa, erkin va mustaqil gapirish, muloqot qilish malakalarini chuqur rivojlantiradi. Ijodiy topshiriqlar orqali yuqori sinf o‘quvchilari nafaqat chet tilining grammatik va leksik jihatlarini, balki tanqidiy va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash, muammoni mustaqil hal etish, ochiq muloqotga kirishish, o‘z fikrini real hayotiy vaziyatda bayon qilish ko‘nikmalarini ham egallashadi. Bu metodika orqali ta’lim sifatini sezilarli darajada oshirish, o‘quvchilar motivatsiyasini kuchaytirish va ularni kelajakdagi kasbiy faollikka tayyorlash mumkin.

Maqolada bayon qilingan metodik yondashuvlar nafaqat xorijiy tillarni o‘rgatishda, balki boshqa fanlarni o‘qitishda ham keng qo‘llash mumkin bo‘lgan universal ahamiyatga ega. Har bir o‘qituvchi, zamonaviy pedagog ushbu tamoyillarni o‘z dars jarayoniga tatbiq etib, o‘quvchiga individual yondashsa, ta’limda yuqori samaradorlik va sifatga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmedov Sh. Ingliz tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv. – Toshkent, 2015.
2. Khodjayeva N. Loyiha asosida til o‘rganish metodlari. – Toshkent, 2012.
3. Karimova S. I., Akhmedova M. R. Zamonaviy dars qurilishining metodik asoslari. – Toshkent, 2016.
4. Mamarasulov B. M. Chet tillarini o‘qitishda interaktiv metodlar. – Toshkent, 2019.
5. Shukurova D. U. Ingliz tilini o‘qitishda ijodiy topshiriqlarning o‘rni. – Ma’rifat, 2017.
6. Rashidova D. Til o‘rganishda motivatsiya va ijodkorlik. – Toshkent, 2016.
7. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2014.
8. Zokirova N. A. Chet tili darslarida kommunikativ kompetensiya. – Toshkent, 2016.

TALABALARDA RAQAMLI TOLIQISH DARAJASI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING TAHLILI

Xamdamova Muazzamxon Xabibullo qizi
Nizomiy nomidagi O'zMPU mustaqil tadqiqotchisi,
Qo'qon universiteti Andijon filiali Pedagogika, psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrasi psixologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'limda tahsil olayotgan talabalar orasida raqamli toliqish darajasi empirik jihatdan o'rganildi. Tadqiqotda talabalardan olingan so'rovnoma natijalari tahlil qilindi. Ma'lumotlar asosida raqamli toliqishning umumiy ballari hisoblanib, respondentlar past, o'rta va yuqori darajali guruhlarga ajratildi. Olingan natijalar raqamli vositalardan muntazam foydalanish talabalarning psixologik va kognitiv holatiga ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim jarayonida raqamli gigiyena, ekran vaqtini boshqarish va psixologik profilaktika choralarini kuchaytirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: raqamli toliqish, talabalar, oliy ta'lim, kunduzgi ta'lim, ekran vaqti, empirik tahlil.

Abstract: This article empirically examines the degree of digital fatigue among students pursuing higher education. The study analyzed the results of a questionnaire survey collected from students. Based on the data, overall digital fatigue scores were calculated, and respondents were divided into low, moderate, and high-level groups. The obtained results show that regular use of digital tools is affecting students' psychological and cognitive state. The study findings substantiate the need to strengthen digital hygiene, screen time management, and psychological prevention measures in the higher education process.

Key words: digital fatigue, students, higher education, full-time education, screen time, empirical analysis.

Аннотация: В данной статье эмпирически изучена степень цифровой усталости среди студентов, получающих высшее образование. В исследовании были проанализированы результаты анкетирования, проведённого среди студентов. На основе данных были рассчитаны общие баллы цифровой усталости, и респонденты были разделены на группы с низким, средним и высоким уровнем. Полученные результаты показывают, что регулярное использование цифровых устройств оказывает влияние на психологическое и когнитивное состояние студентов. Результаты исследования обосновывают необходимость усиления мер цифровой гигиены, управления экранным временем и психологической профилактики в процессе высшего образования.

Ключевые слова: цифровая усталость, студенты, высшее образование, очное обучение, экранное время, эмпирический анализ.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar zamonaviy oliy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Elektron ta'lim platformalari, internet-resurslar, raqamli kutubxonalar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar talabalarning o'quv jarayonidagi imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, raqamli vositalardan haddan tashqari foydalanish natijasida charchoq, diqqat tarqoqligi, ruhiy zo'riqish va ijtimoiy chekinish holatlari ham ko'paymoqda. Bu holat ilmiy adabiyotlarda raqamli toliqish yoki raqamli charchash sifatida talqin qilinadi.

Raqamli toliqish talabaning emotsional holati va psixologik farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ayniqsa, kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan talabalar dars jarayoni, mustaqil ishlar, elektron topshiriqlar va ijtimoiy media bilan doimiy aloqada bo'lgani sababli bu muammoga sezilarli darajada duch kelishadi. Shu sababli raqamli toliqish faqat masofaviy ta'limga xos emas, balki an'anaviy kunduzgi ta'lim sharoitida ham dolzarb muammo hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi kunduzgi ta'lim talabalarida raqamli toliqish darajasini aniqlash va uning tarkibiy o'lchovlarini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli toliqish mavzusi so‘nggi yillarda ta’lim psixologiyasi va raqamli pedagogika doirasida dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biriga aylandi. Tadqiqotlarda ushbu tushuncha ko‘pincha digital fatigue, screen fatigue yoki technostress atamalari bilan ifodalanadi. Ilmiy manbalarga ko‘ra, ekran oldida uzoq vaqt ishlash, axborot oqimining ko‘pligi, doimiy bildirishnomalar, raqamli multitasking va dam olishning yetishmasligi charchoqni kuchaytiruvchi omillar hisoblanadi.

Lucy Angélica Yglesias-Alva, Luis Alberto Estrada-Alva, Lidia Marina Lizarzaburu-Montero, Adriana Elena Miranda-Troncoso, Velia Graciela Vera-Calmet va Haydee Mercedes Aguilar-Armas raqamli toliqishni universitet talabalari misolida o‘rganib, uni jismoniy, kognitiv, emotsional va ijtimoiy jihatlarni qamrab oluvchi ko‘p o‘lchovli hodisa sifatida tadqiq etganlar. Ular tomonidan ishlab chiqilgan FDU-24 so‘rovnomasi 24 ta savoldan tashkil topgan bo‘lib, talabalardagi raqamli toliqishni to‘rtta o‘lchov asosida baholashga mo‘ljallangan.

Talabalar orasida raqamli toliqish ko‘pincha quyidagi omillar bilan bog‘lanadi:

- o‘quv yuklamasining ortishi;
- onlayn platformalardan muntazam foydalanish;
- ijtimoiy tarmoqlarda uzoq vaqt bo‘lish;
- uyqu rejimining buzilishi;
- doimiy axborot yangilanishiga intilish;
- ekran bilan uzluksiz ishlash.

Ba’zi tadqiqotlar raqamli toliqishning kognitiv, emotsional va ijtimoiy oqibatlarini ko‘rsatadi. Jumladan, diqqatning pasayishi, akademik samaradorlikning kamayishi, asabiylik, xavotir, emotsional holdan toyish va ijtimoiy muloqotga qiziqishning susayishi kuzatiladi. Shundan kelib chiqib, raqamli toliqishni kompleks ravishda baholash uchun ko‘p o‘lchovli metodikalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda qo‘llangan FDU-24 metodikasi talabalarda raqamli charchashning jismoniy, kognitiv, emotsional va ijtimoiy jihatlarini birgalikda baholash imkonini beradi. FDU-24 aynan universitet talabalari orasidagi raqamli toliqishni baholash uchun ishlab chiqilgan va validatsiya qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talabalarda raqamli charchash darajasini aniqlash uchun Talabalar uchun ko‘p o‘lchovli raqamli charchash so‘rovnomasi (Multidimensional Digital Fatigue Questionnaire for University Students – FDU-24) metodikasidan foydalanildi. Ushbu metodika L. A. Yglesias-Alva va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, talabalarda raqamli qurilmalardan uzoq muddat foydalanish natijasida yuzaga keladigan charchash holatini kompleks tarzda o‘rganishga qaratilgan.

So‘rovnoma jami 24 ta savoldan iborat bo‘lib, u 4 ta asosiy o‘lchovni qamrab oladi:

1. **Jismoniy charchash** – *6 ta savol.* Ko‘z charchashi, bosh og‘rig‘i, barmoqlarda uvishish, mushaklarda noqulaylik va uyqu buzilishlari kabi belgilarni baholaydi.
2. **Kognitiv charchash** – *5 ta savol.* Diqqatni jamlash qiyinligi, xotira pasayishi, akademik muammolarni hal qilishdagi qiyinchiliklar va o‘quv samaradorligining kamayishini aniqlaydi.
3. **Emotsional charchash** – *7 ta savol.* Stress, xavotir, asabiylik, salbiy axborot ta’siri, emotsional holdan toyish va ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha bog‘lanish kabi holatlarni baholaydi.
4. **Ijtimoiy charchash** – *6 ta savol.* Yuzma-yuz muloqotning kamayishi, ijtimoiy izolyatsiya hissi, onlayn muloqotni afzal ko‘rish va doimiy faol bo‘lish zarurati kabi ko‘rsatkichlarni o‘rganadi.

So‘rovnoma 5 ballik Likert shkalasi asosida baholandi.

Har bir respondent bo‘yicha umumiy ball va alohida o‘lchovlar bo‘yicha ballar hisoblandi. Yuqori ball raqamli charchash darajasining kuchliroq ekanini bildiradi.

Ma’lumotlarni tahlil qilish. Ma’lumotlar Excel dasturida qayta ishlanib, deskriptiv statistika usullari qo‘llanildi. Asosiy ko‘rsatkichlar sifatida o‘rtacha qiymat, minimal va maksimal ball, median, guruhlar bo‘yicha taqsimot hisoblandi.

FDU-24 metodikasi talabalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida yuzaga keladigan jismoniy, kognitiv, emotsional va ijtimoiy charchash ko‘rsatkichlarini kompleks tarzda baholash imkonini beradi. So‘rovnomani to‘ldirish odatda 10–12 daqiqa vaqtni oladi va u individual ravishda, qog‘oz yoki elektron shaklda qo‘llanilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko'ra, 41 nafar respondentning umumiy raqamli toliqish ballari 29 dan 94 gacha oraliqda joylashdi. Umumiy o'rtacha ko'rsatkich 53,15 ball, standart og'ish esa 14,44 ballni tashkil etdi. Median qiymat 51 ball bo'lib, bu respondentlarning yarmidan ko'pi o'rtacha darajaga yaqin raqamli charchash holatida ekanini ko'rsatadi.

Umumiy ballar taqsimoti quyidagicha bo'ldi:

- past daraja – 7 nafar talaba;
- o'rta daraja – 30 nafar talaba;
- yuqori daraja – 4 nafar talaba.

Bu natijalar talabalarning aksariyati raqamli toliqishni o'rta darajada boshdan kechirayotganini ko'rsatadi. Yuqori darajadagi toliqish holati ham mavjud bo'lib, bu ayrim talabalar uchun raqamli muhitga moslashish qiyin kechayotganini anglatadi(1-jadval).

1-jadval: **FDU-24 metodikasining to'rtta o'lchovi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar quyidagicha bo'ldi:**

O'lchov	Savollar soni	O'rtacha ball
Jismoniy charchash	6	15,29
Kognitiv charchash	5	11,34
Emotsional charchash	7	15,90
Ijtimoiy charchash	6	10,61

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, nisbatan yuqoriroq ko'rsatkichlar emotsional va jismoniy charchash o'lchovlarida kuzatildi. Bu holat talabalar raqamli qurilmalardan foydalanish jarayonida nafaqat aqliy, balki hissiy va somatik charchoqni ham boshdan kechirayotganini bildiradi (2-jadval).

2-jadval: **Talabalarning raqamli toliqish darajasi bo'yicha taqsimoti**

Raqamli toliqish darajasi	Talabalar soni	Foiz (%)
Past	7	17,1
O'rta	30	73,2
Yuqori	4	9,7
Jami	**41**	**100**

Olingan natijalar kunduzgi ta'limda tahsil olayotgan talabalar orasida raqamli toliqish holati mavjudligini va uning asosan o'rta darajada namoyon bo'layotganini ko'rsatdi. Bu holat zamonaviy ta'lim jarayonining raqamli muhit bilan kuchli integratsiyalashgani bilan izohlanadi. Talabalar dars, mustaqil ish, topshiriqlar, elektron resurslar va ijtimoiy tarmoqlar bilan doimiy aloqada bo'lib, bu ularning psixologik va jismoniy resurslariga bosim o'tkazadi.

Subshkala natijalarida emotsional va jismoniy charchashning nisbatan yuqoriroq chiqishi diqqatga sazovor. Bu, bir tomondan, ekran oldida uzoq vaqt o'tirish, ko'z zo'riqishi va uyqu buzilishlari bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, raqamli muhitdagi axborot oqimi, doimiy bog'liqlik va hissiy zo'riqish bilan izohlanadi.

Kognitiv charchash ko'rsatkichi ham o'rtacha darajada bo'lib, bu talabalarda diqqatni jamlash va akademik topshiriqlarni bajarishda ma'lum qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatadi. Ijtimoiy charchashning kuzatilishi esa raqamli muloqotning yuzma-yuz munosabatlarga qisman salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini bildiradi.

Natijalar shuni anglatadiki, raqamli toliqishni kamaytirish uchun faqat texnologiyalardan foydalanishni cheklash emas, balki raqamli gigiyena, vaqtni boshqarish, dam olish madaniyati va psixologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi: birinchidan, kunduzgi ta'lim talabalarida raqamli toliqishning o'rta darajasi ustunlik qiladi; ikkinchidan, raqamli muhitga uzoq vaqt bog'lanib qolish jismoniy va emotsional charchashni kuchaytiradi; uchinchidan, talabalar orasida raqamli gigiyena ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo'lishi mumkin; to'rtinchidan, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning psixologik farovonligini ta'minlash uchun raqamli yuklamani boshqarish bo'yicha tizimli yondashuv zarur.

Amaliy jihatdan, talabalarda raqamli toliqishning oldini olish uchun quyidagi choralarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq: ekran vaqtini me'yorlash, o'qish va dam olish rejimini muvozanatlashtirish, raqamli qurilmalardan foydalanganda tanaffuslarni tashkil etish, ko'z va tana uchun gigiyenik qoidalarga amal qilish, shuningdek, psixologik maslahat va profilaktik dasturlarni yo'lga qo'yish. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarida raqamli savodxonlik bilan bir qatorda raqamli farovonlikni ham rivojlantirishga qaratilgan targ'ibot ishlari olib borilishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida raqamli toliqishni faqat individual muammo sifatida emas, balki ta'lim sifati, talaba salomatligi va o'quv samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida baholash zarurligini ko'rsatdi. Kelgusida ushbu mavzuda yanada kengroq tanlanma asosida, jins, kurs, o'qish yuki va ekran vaqti kabi omillarni hisobga olgan holda chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yglesias-Alva, L. A., Estrada-Alva, L. A., Lizarzaburu-Montero, L. M., Miranda-Troncoso, A. E., Vera-Calmet, V. G., & Aguilar-Armas, H. M. (2025). Digital Fatigue in Peruvian University Students: Design and Validation of a Multidimensional Questionnaire. Journal of Educational and Social Research, 15(3), 431.
2. Arora, T., & Grey, I. (2023). Digital fatigue among university students: A systematic review of causes and consequences. Journal of Educational Psychology and Technology, 15(2), 45–58.
3. Kuss, D. J., & Griffiths, M. D. (2021). Social networking sites and mental health: The role of digital overuse and fatigue. International Journal of Mental Health and Addiction, 19(4), 1230–1247.
4. Lee, S. Y., & Hong, J. Y. (2022). Screen time, sleep quality, and academic stress in university students. Computers in Human Behavior Reports, 8, 100–112.
5. Mark, G., Wang, W., & Niiya, M. (2020). Stress and fatigue in digital learning environments: The role of cognitive load. Educational Technology Research, 68(3), 789–803.
6. Reinecke, L., & Hofmann, W. (2016). Digital well-being, stress, and media use: A review of current evidence. Media Psychology, 19(3), 1–26.
7. Ratan, R., & Oliveira, V. (2022). Technostress and fatigue in higher education students. Higher Education Research & Development, 41(6), 1502–1518.
8. Turel, O., & Qahri-Saremi, H. (2022). Problematic use of social networking sites and fatigue among students. Computers in Human Behavior, 127, 107–119.
9. Zhang, Y., & Li, X. (2023). Emotional exhaustion in digital learning: A study of university students. Frontiers in Psychology, 14, 1–12.
10. UNESCO. (2023). Digital well-being and student health in higher education. Paris: UNESCO Publishing.

METAKOGNITIV KOMPETENTLIKNING PEDAGOGIK MOHIYATI VA RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA UNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Mamatmurotova Muhlisa Kamol qizi
Termiz davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va uni rivojlantirish asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarning qiyosiy va kontent tahlili hamda konseptual sintez usullaridan foydalanildi. Metakognitiv kompetentlik ta'lim oluvchining o'z bilish faoliyatini anglash, rejalashtirish, monitoring qilish, baholash va refleksiya asosida moslashtirish imkonini beruvchi integrativ pedagogik sifat sifatida talqin qilindi. Raqamli vositalarning metakognitiv rivojlanishdagi samarasi ularning maqsadli topshiriqlar, feedback, pedagogik scaffolding va refleksiv faoliyat bilan uyg'unligiga bog'liqligi aniqlandi. Metakognitiv strategiyalarni o'rgatish, refleksiv pedagogika, pedagogik scaffolding va raqamli vositalarni maqsadli integratsiya qilish metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning asosiy pedagogik asoslari sifatida belgilandi.

Kalit so'zlar: metakognitiv kompetentlik, metakognitsiya, metakognitiv bilim, metakognitiv anglash, metakognitiv monitoring, metakognitiv regulyatsiya, o'z-o'zini boshqarib o'rganish, raqamli ta'lim, refleksiya, pedagogik scaffolding.

Abstract: This article examines the pedagogical essence of metacognitive competence and the foundations for its development in digital learning environments. The study employed comparative and content analysis of scholarly literature alongside conceptual synthesis. Metacognitive competence is conceptualized as an integrative pedagogical quality that enables learners to become aware of, plan, monitor, evaluate, and adapt their cognitive activities through reflection. The findings indicate that the effectiveness of digital tools in supporting metacognitive development depends on their integration with purposeful tasks, feedback, pedagogical scaffolding, and reflective activities. Direct instruction of metacognitive strategies, reflective pedagogy, pedagogical scaffolding, and purposeful integration of digital tools were identified as key pedagogical foundations for developing metacognitive competence.

Key words: metacognitive competence, metacognition, metacognitive knowledge, metacognitive awareness, metacognitive monitoring, metacognitive regulation, self-regulated learning, digital learning, reflection, pedagogical scaffolding.

Аннотация: В статье анализируются педагогическая сущность метакогнитивной компетентности и основы её развития в цифровой образовательной среде. В исследовании использованы сравнительный и контент-анализ научной литературы, а также метод концептуального синтеза. Метакогнитивная компетентность рассматривается как интегративное педагогическое качество, обеспечивающее осознание, планирование, мониторинг, оценивание и рефлексивную адаптацию познавательной деятельности обучающегося. Установлено, что эффективность цифровых средств в развитии метакогнитивности зависит от их интеграции с целенаправленными заданиями, обратной связью, педагогическим скаффолдингом и рефлексивной деятельностью. Выделены обучение метакогнитивным стратегиям, рефлексивная педагогика, педагогический скаффолдинг и целенаправленная интеграция цифровых средств как основные педагогические основы развития метакогнитивной компетентности.

Ключевые слова: метакогнитивная компетентность, метакогниция, метакогнитивные знания, метакогнитивное осознание, метакогнитивный мониторинг, метакогнитивная регуляция, саморегулируемое обучение, цифровое обучение, рефлексия, педагогический скаффолдинг.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga jadal kirib kelishi ta'lim oluvchining bilimni o'zlashtirish usullari bilan bir qatorda, o'z o'quv faoliyatini anglash va boshqarishiga qo'yiladigan talablarni ham tubdan o'zgartirmoqda. Raqamli ta'lim platformalari, adaptiv ta'lim tizimlari, learning analytics va generativ sun'iy intellekt vositalari ta'lim oluvchiga katta hajmdagi axborot, tezkor feedback va individual ta'lim imkoniyatlarini taqdim etmoqda. Shu bilan birga, bunday muhitda axborotni tanlash, o'z tushunishini tekshirish, o'quv strategiyasini belgilash, faoliyat natijasini baholash va zaruratga ko'ra uni o'zgartirish qobiliyati tobora muhimlashmoqda.

Mazkur jarayon metakognitsiya masalasini zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylantirmoqda. Metakognitsiya tushunchasi dastlab J. Flavell tomonidan shaxsning o‘z kognitiv jarayonlari haqidagi bilimlari va ularni monitoring qilish qobiliyati bilan bog‘langan [1]. Keyinchalik metakognitiv bilim va kognitiv faoliyatni boshqarish o‘rtasidagi farq ilmiy jihatdan yanada aniqlashtirildi [2; 3]. Shu nuqtayi nazardan metakognitiv jarayonlar ta’lim oluvchining o‘z faoliyatini maqsadli rejalashtirishi, kuzatishi, baholashi va moslashtirishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq zamonaviy ta’lim sharoitida masalani faqat “metakognitsiya” tushunchasi bilan chegaralash yetarli emas. Ta’lim oluvchining o‘z kognitiv jarayonlari haqida bilimga ega bo‘lishi bilan ushbu bilimni real ta’limiy vaziyatda samarali qo‘llay olishi o‘rtasida muhim farq mavjud. Shu sababli metakognitiv kompetentlik tushunchasi alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Metakognitiv kompetentlikni bunday talqin qilishda shaxsning o‘z bilish jarayonlarini anglashigina emas, balki ushbu anglash asosida ta’lim strategiyasini tanlashi, uning samaradorligini kuzatishi, natijani baholashi va keyingi faoliyatini moslashtira olishi muhim hisoblanadi.

Mavjud tadqiqotlarda metakognitsiyaning o‘quv natijalari va o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish bilan bog‘liqligi keng o‘rganilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning self-regulated learning va metakognitsiyani qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari bo‘yicha tadqiqotlar ham ortib bormoqda [5–9]. Biroq metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati, uning metakognitiv anglash va self-regulated learning bilan chegaralari hamda raqamli ta’lim muhitida uni rivojlantirishning pedagogik asoslari turli tadqiqotlarda nisbatan tarqoq holda yoritilgan.

Ayniqsa, generativ sun’iy intellektning ta’limga kirib kelishi mazkur muammoni yanada dolzarblashtirmoqda. Bir tomondan, GenAI individual feedback, tushuntirish va muqobil fikrlar orqali ta’lim faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Boshqa tomondan, tayyor javoblarga haddan tashqari tayanish mustaqil kognitiv faoliyatni qisqartirishi mumkin. So‘nggi tadqiqotlar GenAI ta’lim natijalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini ko‘rsatsa-da, uning metakognitiv natijalarga ta’siri bir xil va qat’iy emasligini ko‘rsatmoqda [7; 10].

Shu sababli asosiy ilmiy muammo “Raqamli texnologiyalar metakognitiv kompetentlikni rivojlantiradimi?” degan savol bilan cheklanmaydi. Asosiy masala raqamli ta’lim muhitida qanday pedagogik tashkil etish sharoitlari ta’lim oluvchining metakognitiv bilimini amaliy kompetentlikka aylantirish imkonini beradi?

Mazkur tadqiqotning maqsadi metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyatini nazariy jihatdan aniqlashtirish hamda raqamli ta’lim muhitida uni rivojlantirishning asosiy pedagogik asoslarini konseptual jihatdan tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi savollarga javob izlandi:

1. Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati nimadan iborat?
2. U metakognitiv bilim, metakognitiv anglash va self-regulated learning tushunchalaridan qanday farqlanadi?
3. Raqamli ta’lim muhiti metakognitiv faoliyatning qaysi jihatlarini qo‘llab-quvvatlashi mumkin?
4. Raqamli muhitda metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish uchun qanday pedagogik asoslar zarur?
5. Generativ sun’iy intellekt sharoitida metakognitiv kompetentlik oldiga qanday yangi pedagogik talablar qo‘yiladi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Metakognitsiya va metakognitiv kompetentlik muammosi pedagogika hamda ta’lim psixologiyasi sohasida qator xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur yo‘nalishning nazariy asoslarini shakllantirishda J. Flavellning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. J. Flavell metakognitsiyani shaxsning o‘z kognitiv jarayonlari haqidagi bilimlari va ushbu jarayonlarni monitoring qilish qobiliyati bilan bog‘liq holda izohlagan [1]. Uning yondashuvi keyingi tadqiqotlarda metakognitiv bilim, monitoring va regulyatsiya tushunchalarining rivojlanishiga nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan.

G. Schraw va D. Moshman metakognitsiyaning nazariy tuzilishini yanada rivojlantirib, metakognitiv bilim hamda metakognitiv regulyatsiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tizimlashtirganlar [2]. G. Schraw esa metakognitiv anglashni rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratib, ta’lim oluvchining o‘z bilimlari va o‘quv strategiyalarini anglashini ta’lim samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida ko‘rsatgan [3]. Mazkur ilmiy qarashlar metakognitiv kompetentlikning bilim, anglash, monitoring va boshqaruv bilan bog‘liq tarkibiy jihatlarini tushuntirish uchun muhim nazariy asos yaratadi.

Metakognitiv jarayonlarning o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish bilan bog‘liqligi B. Zimmerman va E. Panadero tadqiqotlarida keng yoritilgan. B. Zimmerman o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganishni ta’lim oluvchining o‘z oldiga maqsad qo‘yishi, o‘quv faoliyatini nazorat qilishi va natijalarini baholashi bilan bog‘liq jarayon sifatida tavsif-

lagan [4]. E. Panadero esa o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganishga oid mavjud modellarni tizimli tahlil qilib, ushbu jarayonda kognitiv, metakognitiv va motivatsion omillarning o‘zaro bog‘liqligini yoritgan [5].

Raqamli ta’lim sharoitida metakognitiv jarayonlarni rivojlantirish masalasi zamonaviy tadqiqotlarda yangi yo‘nalish sifatida kengayib bormoqda. D. D. D. Fahrni, G. Iten, D. Prasse va T. Hascher raqamli texnologiyalardan o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganishi va metakognitsiyasini rivojlantirishda foydalanishga oid o‘qituvchilar amaliyotini tizimli tahlil qilganlar [6]. Ushbu tadqiqot raqamli vositalarning pedagogik samarasi ularni ta’lim jarayoniga qanday maqsadda va qanday metodik asosda integratsiya qilish bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

S. de Mooij, J. Lämsä, L. Lim va boshqa tadqiqotchilar self-regulated learning jarayonlarini multimodal ma’lumotlar hamda sun’iy intellekt bilan integratsiyalash masalalarini o‘rganganlar [7]. D. Kim, M. Yoon, I.-H. Jo va R. M. Branch esa learning analytics vositalarining o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganishni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini tadqiq etganlar [8]. Mazkur tadqiqotlar raqamli muhitda monitoring, qayta aloqa va o‘quv faoliyati haqidagi ma’lumotlardan foydalanish metakognitiv jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash imkonini berishini ko‘rsatadi.

J. Lämsä, S. de Mooij, M. Baars va boshqa olimlarning zamonaviy tadqiqotlarida o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish, multimodal ma’lumotlar va ularni tahlil qilish masalalari o‘rganilgan [9]. T. Fütterer, L. Bardach, J. Kuhn, S. D. Keller va boshqa tadqiqotchilar esa generativ sun’iy intellekt vositalarining o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish jarayonini qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlarini tadqiq etganlar [10]. Ushbu izlanishlar generativ sun’iy intellektning ta’lim jarayonidagi o‘rni bilan bir qatorda, undan foydalanishda o‘quvchining mustaqil fikrlashi, refleksiyasi va o‘z faoliyatini nazorat qilishi muhimligini ko‘rsatadi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, metakognitsiya, metakognitiv bilim, metakognitiv regulyatsiya va o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish masalalarining nazariy hamda amaliy jihatlari keng o‘rganilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, learning analytics va sun’iy intellekt vositalarining metakognitiv jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlariga oid tadqiqotlar ham rivojlanib bormoqda. Biroq metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyatini metakognitiv bilim, metakognitiv anglash va self-regulated learning tushunchalaridan konseptual jihatdan farqlash, shuningdek, uni raqamli ta’lim muhitida rivojlantirishning pedagogik asoslarini yagona tizim sifatida aniqlashtirish masalasi alohida tadqiq etishni talab etadi.

Shu jihatdan mazkur tadqiqotning o‘ziga xosligi metakognitiv kompetentlikni faqat metakognitiv bilim yoki anglash bilan chegaralamasdan, ta’lim oluvchining o‘z bilish faoliyatini anglash, rejalashtirish, strategiyani tanlash, monitoring qilish, baholash, refleksiya qilish va zaruratga ko‘ra moslashtirish imkonini beruvchi integrativ pedagogik sifat sifatida talqin etishdan iborat. Shuningdek, raqamli vositalar, learning analytics va generativ sun’iy intellekt imkoniyatlarini pedagogik maqsad, metakognitiv topshiriq, qayta aloqa va refleksiya bilan uyg‘unlashtirish metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning muhim pedagogik sharti sifatida qaraladi

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy-konseptual dizaynga asoslangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi yangi empirik ma’lumot yig‘ish emas, balki metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyatini aniqlash, mavjud ilmiy qarashlarni qiyoslash va raqamli ta’lim muhitida uni rivojlantirishga oid pedagogik asoslarni konseptual jihatdan tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqotda narrativ adabiyotlar tahlili, qiyosiy tahlil, kontent tahlili va konseptual sintez usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayoni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etildi:

nazariy tushunchalarni aniqlash → ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish → tushunchalarni qiyoslash → metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyatini aniqlash → raqamli ta’lim kontekstini tahlil qilish → pedagogik asoslarni tizimlashtirish → konseptual xulosalarni shakllantirish.

Nazariy manbalarni tanlash. Tadqiqotning nazariy bazasini metakognitsiya, metakognitiv kompetentlik, self-regulated learning, reflektiv ta’lim, raqamli ta’lim, learning analytics va generativ sun’iy intellektga oid fundamental hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar tashkil etdi.

Metakognitsiyaning nazariy asoslarini o‘rganishda J. Flavell [1], G. Schraw va D. Moshman [2], G. Schraw [3] qarashlariga tayanildi. O‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish masalasida B. Zimmerman [4] hamda E. Panadero [5] tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlar hisobga olindi.

Raqamli ta’lim kontekstida esa raqamli texnologiyalar, self-regulated learning, learning analytics va sun’iy intellektning metakognitiv jarayonlarga aloqadorligi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar tahlil qilindi [6; 7].

Manbalarni tanlashda ularning ilmiy maqomi, mavzuga bevosita aloqadorligi, nazariy yoki empirik ahamiyati hamda zamonaviyligi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida metakognitsiya, metakognitiv bilim, metakognitiv anglash, metakognitiv monitoring, metakognitiv regulyatsiya, o‘z-o‘zini boshqarib o‘rganish, metakognitiv kompetentlik tushunchalarining mazmuni va o‘zaro munosabati tahlil qilindi. Asosiy maqsad mazkur tushunchalarni sinonim sifatida qabul qilmasdan, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlashdan iborat bo‘ldi.

Ikkinchi bosqichda tanlangan ilmiy manbalarda metakognitiv jarayonlarning qanday izohlanishi qiyosiy tahlil qilindi. Kontent tahlili orqali metakognitiv faoliyatning asosiy kategoriyalari anglash, rejalashtirish, strategik tanlov, monitoring, baholash, refleksiya, moslashtirish, pedagogik scaffolding, feedback, raqamli qo'llab-quvvatlash kabilarga ajratildi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida turli nazariy qarashlar o'zaro qiyoslanib, ularning umumiy va farqli jihatlari sintez qilindi.

Natijada metakognitiv kompetentlikning quyidagi siklik mantig'i aniqlandi:

Maqsadni anglash → rejalashtirish → strategiyani tanlash → faoliyat → monitoring → baholash → refleksiya → moslashtirish → yangi rejalashtirish.

Tadqiqot nazariy-konseptual xarakterga ega bo'lganligi sababli metakognitiv kompetentlikning empirik samaradorligi statistik jihatdan baholanmadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy manbalarni tahlil qilish natijasida metakognitiv kompetentlikni faqat shaxsning o'z bilish jarayonlari haqidagi bilimlari bilan izohlash yetarli emasligi aniqlandi. Uning mazmuni o'z bilish faoliyatini anglash bilan bir qatorda, ushbu faoliyatni rejalashtirish, monitoring qilish, baholash, refleksiya qilish va zaruratga ko'ra moslashtirish qobiliyatlarini ham qamrab oladi [1; 2; 3].

Flavell metakognitsiyani o'z kognitiv jarayonlari haqidagi bilim va monitoring bilan bog'lagan bo'lsa [1], Schraw va Moshman metakognitiv bilim hamda regulyatsiya o'rtasidagi munosabatni yanada tizimlashtirdi [2]. Shu asosda ushbu tadqiqotda metakognitiv kompetentlik metakognitiv bilimning amaliy faoliyatda qo'llanilishi va o'quv jarayonini ongli ravishda boshqarish qobiliyati sifatida talqin qilindi.

Tahlil asosida metakognitiv kompetentlik uch o'zaro bog'liq jihatni qamrab olishi aniqlandi:

- anglash – o'z bilish imkoniyatlari, qiyinchiliklari va strategiyalarini anglash;
- regulyatsiya – strategiyani tanlash, monitoring qilish va faoliyatni boshqarish;
- refleksiv-moslashuvchanlik – natijalarni tahlil qilish va keyingi strategiyani o'zgartirish.

Demak, metakognitiv kompetentlik "o'z faoliyatini bilish"dan "o'z faoliyatini boshqarish"ga o'tishni ifodalaydi.

Tahlil natijasida metakognitiv kompetentlik va self-regulated learning bir-biriga yaqin, ammo aynan bir xil tushunchalar emasligi aniqlandi.

Self-regulated learning ta'lim oluvchining maqsad qo'yish, motivatsiya, kognitiv faoliyat, metakognitsiya, xulq-atvor va o'quv muhitini boshqarish kabi kengroq jarayonlarini qamrab oladi [4; 5]. Metakognitiv kompetentlik esa ushbu tizimning o'z bilish faoliyatini anglash va strategik boshqarish bilan bog'liq jihatini ifodalaydi.

Shu asosda quyidagi konseptual farqlash taklif etiladi:

Self-regulated learning – kengroq o'quv faoliyatini o'z-o'zini boshqarish tizimi; metakognitiv kompetentlik – o'z bilish faoliyatini anglash va boshqarishga yo'naltirilgan integrativ kompetentlik.

Tadqiqot natijalari metakognitiv kompetentlikni alohida ko'nikmalar yig'indisi emas, balki siklik boshqaruv jarayoni sifatida ko'rish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi.

U quyidagi ketma-ketlikda namoyon bo'ladi:

Rejalashtirish → faoliyat → monitoring → baholash → refleksiya → moslashtirish → yangi rejalashtirish.

Bunda refleksiya jarayonning yakuniy nuqtasi emas. Uning natijasi keyingi rejalashtirish va strategik qarorlarga ta'sir qiladi.

Shu sababli metakognitiv kompetentlikning muhim belgilaridan biri strategik moslashuvchanlik hisoblanadi.

Raqamli texnologiyalar metakognitiv jarayonlarning turli bosqichlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Xususan, LMS tizimlari rejalashtirish va monitoringni, learning analytics faoliyatni kuzatish va feedbackni, elektron portfolio refleksiyani, adaptiv tizimlar esa ta'lim strategiyasini moslashtirishni qo'llab-quvvatlashi mumkin [6; 7; 8; 9].

Ushbu imkoniyatlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin (1-jadval).

1-jadval: **Raqamli vositalarning metakognitiv imkoniyatlari**

Raqamli vosita	Metakognitiv imkoniyat
LMS	Rejalashtirish va faoliyatni monitoring qilish
Learning analytics	O'quv faoliyati haqida dalil va feedback
Elektron portfolio	Refleksiya va o'z-o'zini baholash
Adaptiv ta'lim	Strategiyani individual ehtiyojga moslashtirish
Raqamli feedback	Xatolarni aniqlash va faoliyatni qayta ko'rib chiqish
AI vositalari	Savol-javob, tushuntirish, muqobil fikr va refleksiya

Biroq texnologik vositaning mavjudligi avtomatik ravishda metakognitiv rivojlanishga olib kelmaydi.

Tadqiqotning muhim natijalaridan biri shundan iboratki, raqamli texnologiyaning o'zi metakognitiv kompetentlikni rivojlantiruvchi mustaqil pedagogik omil sifatida qaralmasligi kerak.

Masalan, learning analytics ta'lim oluvchiga o'z faoliyati haqida ma'lumot berishi mumkin. Ammo ushbu ma'lumotni tahlil qilish, sababini aniqlash va keyingi strategiyani o'zgartirish uchun pedagogik yo'naltirish talab qilinishi mumkin.

Shu asosda quyidagi konseptual formula taklif etiladi:

Raqamli texnologiya + pedagogik maqsad + metakognitiv topshiriq + feedback + refleksiya = metakognitiv rivojlanish imkoniyati.

Demak, texnologiya maqsad emas, pedagogik vosita sifatida qaralishi lozim.

Learning analytics ta'lim oluvchining raqamli faoliyat izlarini qayd etish orqali monitoring uchun muhim imkoniyat yaratadi. Tizimlar topshiriq bajarish vaqti, faoliyat chastotasi, natijalar, xatolar va qayta topshirishlar kabi ma'lumotlarni qayd etishi mumkin [7; 8; 9].

Biroq ma'lumotning mavjudligi monitoringning o'zi emas.

Metakognitiv jarayon ma'lumotni anglash va undan qaror chiqarishda foydalanish bilan yuzaga keladi:

Data → Interpretation → Reflection → Decision → Action.

Shuning uchun learning analyticsning pedagogik qiymati faqat ma'lumot yig'ish imkoniyati bilan emas, balki ushbu ma'lumot ta'lim oluvchining keyingi qarorlarini o'zgartira olishi bilan belgilanadi.

Generativ AI ta'lim oluvchiga muqobil tushuntirish, feedback, savollar va reflektiv topshiriqlar taqdim etishi mumkin. Biroq tayyor javoblarni tanqidiy tekshirmasdan qabul qilish mustaqil kognitiv faoliyatning kamayishiga olib kelishi mumkin [10; 11].

Shu sababli GenAI'dan foydalanishda asosiy pedagogik savol:

"AI qanday javob berdi?" emas, "ta'lim oluvchi AI javobini qanday baholadi?"

bo'lishi kerak.

Shunday qilib, GenAI metakognitiv kompetentlikni avtomatik ravishda shakllantiruvchi vosita emas, balki to'g'ri pedagogik dizayn mavjud bo'lganda metakognitiv scaffolding vositasi bo'lishi mumkin.

Metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari

Nazariy tahlil natijasida quyidagi pedagogik asoslar ajratildi:

1. **Maqsadli pedagogik tashkil etish** – metakognitiv faoliyat ta'lim jarayonining ongli maqsadiga aylantirilishi.
2. **Metakognitiv strategiyalarni bevosita o'rgatish** – ta'lim oluvchiga monitoring va strategik boshqaruv usullarini o'rgatish.
3. **Refleksiv pedagogika** – ta'lim oluvchini o'z faoliyatini muntazam tahlil qilishga jalb etish.
4. **Rivojlantiruvchi feedback** – feedbackni faqat xatoni ko'rsatish emas, keyingi strategik qarorni shakllantirish vositasi sifatida qo'llash.
5. **Pedagogik scaffolding** – metakognitiv faoliyatni bosqichma-bosqich qo'llab-quvvatlash.
6. **Raqamli vositalarni maqsadli integratsiya qilish** – texnologiyani pedagogik vazifaga bo'ysundirish.
7. **Strategik moslashuvchanlik** – ta'lim oluvchining vaziyatga qarab strategiyani tanlashi va o'zgartira olishini rivojlantirish.

Tadqiqot natijalari metakognitiv kompetentlikni faqat metakognitiv bilim yoki o'z bilish jarayonlarini anglash bilan chegaralash maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatdi. Flavellning metakognitsiya haqidagi dastlabki konsepsiyasi [1] va Schraw hamda Moshmanning metakognitiv bilim va regulyatsiyaga oid qarashlari [2] ushbu kompetentlikning nazariy asoslarini tushuntirishga imkon beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari ushbu qarashlarni pedagogik nuqtayi nazardan kengaytiradi. Ya'ni ta'lim jarayonida muhim masala ta'lim oluvchining metakognitiv jarayonlar haqida bilishi emas, balki ushbu bilimni real ta'limiy vaziyatda qo'llay olishi hisoblanadi.

Shu sababli metakognitiv kompetentlikni:

bilim → anglash → qo'llash → monitoring → baholash → moslashtirish

jarayoni orqali rivojlanadigan pedagogik sifat sifatida ko'rish mumkin.

Bu yondashuv metakognitiv kompetentlikni statik xususiyat emas, balki faoliyat davomida shakllanadigan va takomillashadigan kompetensiya sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Metakognitiv kompetentlik va self-regulated learning o'rtasidagi munosabat ham ushbu nuqtayi nazardan izohlanadi. Self-regulated learning kengroq tizim bo'lib, unda motivatsion, kognitiv, metakognitiv va xulqiy jara-

yonlar o‘zaro bog‘langan holda namoyon bo‘ladi [4; 5]. Metakognitiv kompetentlik esa o‘z bilish faoliyatini anglash va strategik boshqarishga qaratilgan jihatni ifodalaydi.

Raqamli ta’lim muhitining rivojlanishi ushbu masalaga yangi o‘lcham qo‘shmoqda. Raqamli texnologiyalar monitoring va feedbackni kuchaytirishi mumkin, biroq texnologiyaning mavjudligi metakognitiv rivojlanishni kafolatlamaydi. So‘nggi tadqiqotlarda ham raqamli vositalarning self-regulated learning va metakognitiv jarayonlarni qo‘llab-quvvatlash samarasi ularning pedagogik dizayni va o‘qituvchi tomonidan qanday tashkil etilishiga bog‘liqligi ko‘rsatilgan [6; 9].

Shu nuqtayi nazardan raqamli ta’limning muhim paradoksi mavjud:


Texnologiya ta’lim oluvchiga qanchalik ko‘p yordam bersa, pedagogik dizayn uning mustaqil fikrlashi va o‘z faoliyatini boshqarishiga shunchalik ko‘proq imkon berishi kerak.

Bu masala ayniqsa generativ AI sharoitida dolzarb. AI tayyor javob beruvchi vosita sifatida ishlatilsa, ta’lim oluvchining mustaqil fikrlashi kamayishi mumkin. Aksincha, AI muqobil fikrlar, reflektiv savollar va argumentlarni tekshirish vositasi sifatida ishlatilsa, metakognitiv faoliyatni rag‘batlantirishi mumkin [10; 11].

Demak, pedagogik nuqtayi nazardan asosiy masala AI’dan foydalanish yoki foydalanmaslik emas, balki undan qanday pedagogik maqsadda foydalanish masalasidir.

O‘qituvchining roli ham shu nuqtayi nazardan o‘zgaradi. Raqamli muhitda o‘qituvchi faqat axborot manbai emas, balki pedagogik dizayner, facilitator, coach va metakognitiv scaffolding tashkilotchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu asosda raqamli ta’lim muhitida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik tizimi quyidagi mantiqqa asoslanishi mumkin (1-rasm).



Bu yerda raqamli vosita tizimning markazi emas. Markazda ta’lim oluvchining metakognitiv faoliyati turadi.

Mazkur yondashuv 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi ixtisosligi nuqtayi nazaridan ham muhimdir. Chunki tadqiqotning markazida texnologiyaning texnik xususiyatlari emas, balki metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati, uning nazariy chegaralari va uni rivojlantirishning pedagogik asoslari turibdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari metakognitiv kompetentlikni ta’lim oluvchining o‘z bilish faoliyatini anglash, rejalashtirish, monitoring qilish, baholash, refleksiya asosida moslashtirish va o‘zlashtirilgan strategiyalarni yangi ta’limiy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beruvchi integrativ pedagogik sifat sifatida talqin qilish imkonini berdi. U metakognitiv bilim va anglash bilan cheklanmay, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarini ham qamrab oladi.

Raqamli ta’lim muhiti metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Biroq raqamli vositalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan metakognitiv rivojlanishni ta’minlamaydi. Ularning pedagogik samarasi maqsadli metakognitiv topshiriqlar, monitoring, feedback, refleksiya va pedagogik scaffolding bilan uyg‘unlashtirilishiga bog‘liq.

Shu asosda metakognitiv strategiyalarni maqsadli o‘rgatish, refleksiv pedagogika, pedagogik scaffolding, raqamli vositalarni maqsadli integratsiya qilish va strategik moslashuvchanlikni rivojlantirish metakognitiv kompetentlikni shakllantirishning asosiy pedagogik asoslari sifatida belgilandi.

Mazkur nazariy xulosalar kelgusida raqamli ta’lim muhitida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirish modeli, uning mezon va indikatorlarini ishlab chiqish hamda ularning samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlash uchun konseptual asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Flavell, J. H. Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive-developmental inquiry // American Psychologist. – 1979. – Vol. 34, No. 10. – P. 906–911. – DOI: 10.1037/0003-066X.34.10.906.
2. Schraw, G., Moshman, D. Metacognitive theories // Educational Psychology Review. – 1995. – Vol. 7, No. 4. – P. 351–371. – DOI: 10.1007/BF02212307.
3. Schraw, G. Promoting general metacognitive awareness // Instructional Science. – 1998. – Vol. 26, No. 1–2. – P. 113–125. – DOI: 10.1023/A:1003044231033.
4. Zimmerman, B. J. Becoming a self-regulated learner: An overview // Theory Into Practice. – 2002. – Vol. 41, No. 2. – P. 64–70. – DOI: 10.1207/S15430421TIP4102_2.
5. Panadero, E. A review of self-regulated learning: Six models and four directions for research // Frontiers in Psychology. – 2017. – Vol. 8. – Article 422. – DOI: 10.3389/fpsyg.2017.00422.
6. Fahrni, D. D. D., Iten, G., Prasse, D., Hascher, T. Teachers' practices in the use of digital technology to promote students' self-regulated learning and metacognition: A systematic review // Teaching and Teacher Education. – 2025. – Vol. 165. – Article 105150. – DOI: 10.1016/j.tate.2025.105150.
7. de Mooij, S., Lämsä, J., Lim, L., Aksela, O., Athavale, S., Bistolfi, I., Jin, F., Li, T., Azevedo, R., Bannert, M., Gašević, D., Järvelä, S., Molenaar, I. A systematic review of self-regulated learning through integration of multimodal data and artificial intelligence // Educational Psychology Review. – 2025. – Vol. 37. – Article 54. – DOI: 10.1007/s10648-025-10028-0.
8. Kim, D., Yoon, M., Jo, I.-H., Branch, R. M. Learning analytics to support self-regulated learning in asynchronous online courses: A case study at a women's university in South Korea // Computers & Education. – 2018. – Vol. 127. – P. 233–251. – DOI: 10.1016/j.compedu.2018.08.023.
9. Lämsä, J., de Mooij, S., Baars, M., et al. Self-regulated learning, multimodal data, and analysis grid: Where are we now and where are we going? // Educational Psychology Review. – 2026. – Vol. 38. – Article 5. – DOI: 10.1007/s10648-025-10113-4.
10. Fütterer, T., Bardach, L., Kuhn, J., Keller, S. D., et al. Enhancing school students' self-regulated learning through generative AI support: A randomized controlled trial // Educational Psychology Review. – 2026. – Vol. 38. – Article 42. – DOI: 10.1007/s10648-026-10133-8.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

MAKTABGACHA TA'LIMDAN BOSHLANG'ICH TA'LIMGA O'TISH DAVRIDA BOLALARNING KASBIY QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING UZLUKSIZ METODIKASI

Otabayeva Muazzam Abdumajidovna
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0000-9729-4217

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi ilmiy-nazariy va pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlari, shuningdek, ta'lim bosqichlari o'rtasidagi metodik uzviylikning pedagogik shartlari yoritilgan. Maktabgacha ta'limda o'yin, kuzatish va ijodiy faoliyat, boshlang'ich ta'limda esa to'garak, loyiha, amaliy mashg'ulot va interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi asoslangan. Tadqiqot natijasida bolalarning individual qiziqish va qobiliyatlarini izchil rivojlantirishga yo'naltirilgan uzluksiz metodik yondashuv taklif etilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, kasbiy qiziqish, kasbiy rivojlanish, kasbga yo'naltirish, uzluksizlik.

Abstract: This article provides a scientific and pedagogical analysis of a continuous methodology for developing children's career interests during the transition from preschool to primary education. The study examines the motivational, cognitive, activity-based, and reflective components of career interest development, as well as the pedagogical conditions for ensuring continuity between educational stages. The effectiveness of play, observation, and creative activities in preschool education, along with clubs, project-based learning, practical tasks, and interactive methods in primary education, is substantiated. A continuous methodological approach aimed at the consistent development of children's individual interests and abilities is proposed.

Key words: preschool education, primary education, career interest, professional development, career guidance, continuity.

Аннотация: В статье научно-теоретически и педагогически исследована методика непрерывного развития профессиональных интересов детей в период перехода от дошкольного к начальному образованию. Рассмотрены мотивационный, когнитивный, деятельностный и рефлексивный компоненты развития профессиональных интересов, а также педагогические условия обеспечения преемственности между уровнями образования. Обоснована эффективность использования игровой, наблюдательной и творческой деятельности в дошкольном образовании, а также кружковых занятий, проектной деятельности, практических заданий и интерактивных методов в начальном образовании. Предложен непрерывный методический подход, направленный на последовательное развитие индивидуальных интересов и способностей детей.

Ключевые слова: дошкольное образование, начальное образование, профессиональный интерес, профессиональное развитие, профессиональная ориентация, непрерывность, преемственность.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsning intellektual, ma'naviy, ijtimoiy va kasbiy salohiyatini erta yoshdan boshlab rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy mehnat bozori, texnologik taraqqiyot va yangi kasblarning paydo bo'lishi bolalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasini faqat umumiy o'rta yoki oliy ta'lim bosqichi bilan chegaralab qo'ymasdan, maktabgacha ta'lim davridan boshlab bosqichma-bosqich tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bolaning qiziqishi, qobiliyati, ijodiy imkoniyatlari va turli faoliyatlarga munosabatini erta aniqlash hamda ularni keyingi ta'lim bosqichlarida izchil rivojlantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biridir.

Maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim o'rtasidagi uzviylik masalasi bolaning faqat bilim va ko'nikmalarini davom ettirish bilangina cheklanmasligi kerak. Mazkur uzviylik bolaning qiziqishlari, ijodiy qobiliyatlari, muloqot ko'nikmalari, mustaqil faoliyat tajribasi va kelajak haqidagi dastlabki tasavvurlarini ham qamrab olishi lozim. Ayniqsa, kasbiy qiziqishlarning rivojlanishi nuqtayi nazaridan maktabgacha ta'limda shakllangan dastlabki tasavvurlarni boshlang'ich ta'lim bosqichida tizimli ravishda davom ettirish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunida maktabgacha ta'lim va tarbiya bolaning intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlanishini ta'minlashga qaratilganligi belgilangan [4]. Mazkur normativ-huquqiy asosdan kelib chiqib, maktabgacha ta'limda bolaning turli faoliyatlarga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish, uning individual imkoniyatlarini aniqlash va keyingi ta'lim bosqichiga uzviy tayyorlash muhim pedagogik vazifa sifatida qaralishi mumkin.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'limda kasbiy qiziqish tushunchasini muayyan kasbni erta tanlash bilan tenglashtirish to'g'ri emas. Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshida bolaning kasbiy qiziqishlari hali dinamik va o'zgaruvchan bo'ladi. Bola bir vaqtning o'zida shifokor, o'qituvchi, quruvchi, rassom, dasturchi yoki boshqa kasb egasiga qiziqishi mumkin. Shu sababli ushbu bosqichda asosiy pedagogik maqsad bolani ma'lum bir kasbga yo'naltirish emas, balki uning kasblar olami haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, turli faoliyatlarni sinab ko'rishiga imkon yaratish va o'z qobiliyatlarini anglashiga ko'maklashishdan iborat bo'lishi kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida bolaning rivojlanishi, uning qiziqishlari va individual imkoniyatlarini aniqlash hamda keyingi faoliyatga tayyorlash masalalari o'zbek, MDH va xorijiy pedagogika hamda psixologiya fanlarida turli jihatlardan tadqiq etilgan.

O'zbek pedagogik adabiyotlarida shaxsning har tomonlama rivojlanishi, ta'lim va tarbiyaning uzviyligi hamda bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim metodologik tamoyil sifatida qaraladi. R. Mavlonova, O. To'rayeva va K. Xoliqberdiyevaning pedagogik qarashlarida ta'lim jarayonini bolaning yosh va individual xususiyatlariga mos tashkil etish, uning faoliyatini qo'llab-quvvatlash va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor beriladi [7].

N. Azizxo'jayeva tomonidan pedagogik texnologiyalarning mazmuni va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish masalalari tadqiq etilgan bo'lib, ta'lim oluvchining faol ishtiroki, pedagogik jarayonni maqsadga muvofiq loyihalashtirish va zamonaviy metodlardan foydalanish muhimligi asoslangan [8]. Mazkur qarashlar maktabgacha ta'limdagi o'yin va ijodiy faoliyatni boshlang'ich ta'limdagi amaliy va loyihaviy faoliyat bilan bog'lash uchun metodik asos bo'la oladi.

Maktabgacha ta'lim pedagogikasida bolaning rivojlanishida o'yin faoliyatining alohida o'rni mavjud. Syujetli-rolli o'yinlar orqali bola kattalar faoliyatini modellashtiradi, turli ijtimoiy rollarni bajaradi va turli kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni egallaydi. Shu sababli kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning boshlang'ich bosqichini o'yin faoliyatidan ajratib tasavvur qilish mumkin emas.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotning ilmiy yo'nalishi maktabgacha ta'limdagi dastlabki kasbiy tasavvurlarni boshlang'ich ta'limdagi tizimli kasbiy qiziqishlarni rivojlantirish faoliyati bilan bog'lashga qaratiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasini uzluksizlik va izchillik, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy va integrativ yondashuvlar tashkil etdi. Uzluksizlik va izchillik yondashuvi maktabgacha ta'lim bosqichida shakllangan bolaning dastlabki qiziqishlari, faoliyat tajribasi va kasblar haqidagi tasavvurlarini boshlang'ich ta'limda yangi mazmun bilan davom ettirishni nazarda tutadi. Bunda ikki ta'lim bosqichi bir-biridan ajratilgan jarayon emas, balki bolaning uzluksiz rivojlanishini ta'minlovchi yagona pedagogik tizim sifatida qaraladi.

Tizimli yondashuv asosida kasbiy qiziqish bolaning muayyan kasbga bo'lgan oddiy qiziqishi sifatida emas, balki motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlarning o'zaro aloqadorligi asosida rivojlanadigan murakkab pedagogik-psixologik hodisa sifatida talqin qilindi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv bolaning yoshi, individual xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olishni nazarda tutadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning kasbiy qiziqishlari o'zgaruvchan bo'lishi sababli pedagogik jarayon bolani ma'lum bir kasbga yo'naltirishga emas, balki turli faoliyatlarni sinab ko'rishga undashi lozim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish masalasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon bolaning shaxsiy rivojlanishi, bilish faolligi, motivatsion ehtiyojlari, individual qobiliyatlari va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p komponentli pedagogik

jarayondir. Ushbu davrda bola tomonidan namoyon etiladigan kasbiy qiziqishlar hali barqaror kasbiy tanlov darajasiga yetmagan bo‘lsa-da, uning muayyan faoliyat turlariga moyilligi, kattalar faoliyatini kuzatishi va taqlid qilishi, turli rollarni bajarishga intilishi hamda “Men kim bo‘laman?” kabi savollarga qiziqishi kelajakdagi kasbiy o‘zini anglashning dastlabki psixologik-pedagogik asoslarini shakllantiradi.

Tahlillar natijasida kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishni faqat kasblar haqidagi axborotni berish jarayoni sifatida talqin qilish metodik jihatdan yetarli emasligi aniqlandi. Chunki bolaning kasbiy qiziqishi axborotni bilish bilan bir qatorda, mazkur bilimga nisbatan ijobiy emotsional munosabat, faoliyatga ichki motivatsiya, amaliy tajriba, o‘z qobiliyatlarini sinab ko‘rish va faoliyat natijasini refleksiv baholash kabi komponentlarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Shu sababli maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim bosqichlarida kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning uzluksizligi mazmun, metod, shakl va vositalarning o‘zaro izchilligini ta’minlashni talab etadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy tahlili maktabgacha ta’lim bosqichida kasbiy qiziqishlarning asosan o‘yin, taqlid, kuzatish, muloqot va ijodiy faoliyat orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Syujetli-rolli o‘yinlarda bolaning shifokor, o‘qituvchi, quruvchi, oshpaz, haydovchi, sotuvchi yoki boshqa kasb egasi rolini bajarishi oddiy o‘yin harakati bo‘libgina qolmay, balki ijtimoiy rollarni anglash, kasbiy faoliyatning ayrim elementlarini modellashtirish va kasblar haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘ladi. Demak, maktabgacha ta’limda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning metodik asosi bolaning tabiiy faoliyat turi bo‘lgan o‘yinni maqsadli pedagogik yo‘naltirishdan boshlanishi lozim.

Boshlang‘ich ta’lim bosqichiga o‘tish bilan bolaning bilish imkoniyatlari, abstrakt tafakkuri, mustaqil faoliyatga bo‘lgan ehtiyoji va ijtimoiy tajribasi kengayadi. Natijada maktabgacha ta’lim davrida shakllangan dastlabki kasbiy tasavvurlarni oddiy o‘yin faoliyati bilan chegaralab qo‘ymasdan, ularni amaliy topshiriqlar, to‘garak mashg‘ulotlari, ijodiy loyihalar, muammoli vaziyatlar va fanlararo integratsiya asosida rivojlantirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu jihatdan ta’lim bosqichlari o‘rtasidagi uzviylik kasbiy qiziqishlarning oddiy davomiyligi emas, balki ularning mazmunan murakkablashib, faoliyat jihatidan kengayib va refleksiv jihatdan chuqurlashib borishini anglatadi.

Tadqiqotda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlari o‘zaro bog‘liq pedagogik tizim sifatida belgilandi. Mazkur komponentlarning har biri bolaning kasbiy rivojlanishida alohida funksional ahamiyatga ega bo‘lsa-da, ularning samaradorligi faqat o‘zaro integratsiya sharoitida namoyon bo‘ladi.

Motivatsion komponent bolaning turli kasblar va faoliyat turlariga nisbatan ijobiy munosabati, qiziqishi, faoliyatni ixtiyoriy bajarishga bo‘lgan ichki ehtiyoji va yangi tajribalarni egallashga tayyorligini ifodalaydi. Maktabgacha ta’lim bosqichida ushbu komponent asosan qiziqarli syujetli o‘yinlar, kasblar haqidagi suhbatlar, rasmlar, hikoyalar, videomateriallar va kasb egalari faoliyatini kuzatish orqali rivojlantirilishi mumkin. Boshlang‘ich ta’limda esa motivatsion komponent to‘garaklar, loyiha faoliyati, kasbiy kvestlar, rolli o‘yinlar, ijodiy topshiriqlar va muammoli vaziyatlar orqali yanada barqaror shaklga keltiriladi.

Kognitiv komponent bolaning kasblar olami haqidagi bilim va tasavvurlarini tavsiflaydi. Bunda bola muayyan kasbning nomini bilish bilan cheklanmay, uning vazifalari, faoliyat mazmuni, mehnat vositalari, ish sharoiti va jamiyatdagi ahamiyati haqida dastlabki bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Maktabgacha ta’limda bu bilimlar sodda, obrazli va ko‘rgazmali shaklda berilsa, boshlang‘ich ta’limda ularni fanlararo bog‘liqlik asosida tizimlashtirish mumkin. Masalan, shifokorlik kasbi tabiiy fanlar bilan, me’morlik matematika va texnologiya bilan, jurnalistika ona tili va kommunikativ faoliyat bilan, dasturlash informatika va mantiqiy tafakkur bilan bog‘lanadi. Natijada o‘quvchi maktab fanlarini alohida bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki kelajakdagi turli faoliyatlar uchun zarur bo‘lgan bilimlar tizimi sifatida idrok eta boshlaydi.

Faoliyatli komponent kasbiy qiziqishlarning amaliy jihatini ifodalaydi. Mazkur komponentning shakllanishida bolaning turli faoliyatlarda bevosita ishtirok etishi muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’limda konstruktorlik, rasm chizish, modellashtirish, syujetli-rolli o‘yinlar va oddiy mehnat topshiriqlari ushbu komponentning dastlabki shakllarini yuzaga keltiradi. Boshlang‘ich ta’limda esa o‘quvchilar “Yosh muhandis”, “Yosh tadqiqotchi”, “Yosh jurnalist”, “Yosh dasturchi”, “Yosh dizayner”, “Yosh tadbirkor” kabi yo‘nalishlarda amaliy topshiriqlarni bajarish orqali kasbiy faoliyatning ayrim elementlarini modellashtirishlari mumkin. Bunday faoliyat o‘quvchining o‘z qobiliyatlarini real topshiriq jarayonida sinab ko‘rishiga va individual moyilliklarini anglashiga sharoit yaratadi.

Kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishda fanlararo integratsiya ham muhim natijaviy omil sifatida namoyon bo‘ldi. Chunki zamonaviy kasblarning aksariyati bir nechta fan va kompetensiyalarni kompleks qo‘llashni talab qiladi. Masalan, muhandislik faoliyatida matematika, informatika, texnologiya va tabiiy fanlar; shifokorlikda biologik bilimlar, kommunikativ kompetensiya va axborot texnologiyalari; jurnalistikada ona tili, mediasavodxonlik, axborot izlash va kommunikativ ko‘nikmalar o‘zaro uyg‘unlashadi. Shuning uchun boshlang‘ich ta’limda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishni alohida mashg‘ulot bilan chegaralashdan ko‘ra, uni fanlararo mazmun bilan integratsiyalash samaraliroq hisoblanadi.

Tahlillar davomida individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish zarurati ham aniqlandi. Har bir bolaning kasbiy qiziqishi, qobiliyati va rivojlanish sur'ati bir xil emas. Ayrim bolalarda texnik-konstruktiv faoliyatga, boshqalarida kommunikativ faoliyatga, yana bir guruh bolalarda ijodiy yoki tabiiy-ilmiy faoliyatga moyillik ustun bo'lishi mumkin. Shu sababli pedagog kasbiy qiziqishni baholashda yagona mezon bilan cheklanmasligi, bolaning turli faoliyatlardagi xatti-harakatlari, qiziqish dinamikasi, topshiriq bajarish usuli, ijodkorligi va muloqot faoliyatini kompleks kuzatishi lozim.

Umuman olganda, tahlillar maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishni uzluksiz, bosqichma-bosqich va shaxsga yo'naltirilgan pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatdi. Ushbu jarayonning samaradorligi bolaning tabiiy qiziqishlarini saqlab qolish, ularni amaliy faoliyat bilan boyitish, kasblar haqidagi bilimlarni tizimlashtirish va o'quvchining o'z imkoniyatlarini anglashiga sharoit yaratish bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasini takomillashtirishga qaratilgan nazariy-metodik tahlillar natijasida mazkur jarayon bolaning shaxsiy rivojlanishi, bilish faolligi, motivatsion ehtiyojlari, individual qobiliyatlari va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan ko'p komponentli pedagogik jarayon ekanligi aniqlandi. Kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishni faqat muayyan kasblar to'g'risida ma'lumot berish bilan cheklash bolaning individual imkoniyatlarini to'liq namoyon etish imkonini bermaydi. Shu sababli mazkur jarayonni bolaning tabiiy qiziqishlari, faoliyat tajribasi va rivojlanish xususiyatlari asosida bosqichma-bosqich tashkil etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim bosqichida kasbiy qiziqishlarning dastlabki elementlari asosan o'yin, taqlid, kuzatish, muloqot, ijodiy va konstruktiv faoliyat orqali shakllanishini ko'rsatdi. Bola turli syujetli-rolli o'yinlarda kasb egalarining faoliyatini modellashtirish, turli ijtimoiy rollarni bajarish va kattalar mehnatini kuzatish orqali kasblar olami haqida dastlabki tasavvurlarni egallaydi. Mazkur tajriba boshlang'ich ta'lim bosqichida uzviy ravishda davom ettirilishi, ya'ni o'yin va kuzatish orqali shakllangan qiziqishlar amaliy topshiriqlar, to'garak mashg'ulotlari, loyiha faoliyati, fanlararo integratsiya va kasbiy vaziyatlar orqali rivojlantirilishi lozim.

Tadqiqotda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning motivatsion, kognitiv, faoliyatli va refleksiv komponentlari o'zaro bog'liq tizim sifatida belgilandi. Motivatsion komponent bolaning kasblar va faoliyat turlariga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qilsa, kognitiv komponent kasblar haqidagi bilim va tasavvurlarni kengaytiradi. Faoliyatli komponent bolaning turli kasbiy faoliyat elementlarini amaliy tarzda sinab ko'rishini ta'minlaydi, refleksiv komponent esa o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va faoliyat natijalarini anglash imkonini beradi. Ushbu komponentlarning izchil va kompleks rivojlantirilishi kasbiy qiziqishning barqaror pedagogik-psixologik sifatga aylanishiga zamin yaratadi.

Maqolada asoslangan uzluksiz metodik yondashuvning muhim jihati shundan iboratki, maktabgacha ta'limda bolaga muayyan kasbni tanlatish emas, balki uning kasblar olami haqidagi tasavvurlarini kengaytirish va turli faoliyatlarni sinab ko'rish imkoniyatini yaratish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida esa mazkur dastlabki qiziqishlar tizimli bilim, amaliy faoliyat va refleksiv tahlil bilan boyitiladi. Shu asosda kasbiy qiziqishlarni rivojlantirish jarayoni "erta qiziqishni aniqlash – faoliyatga jalb etish – tajriba orttirish – qiziqishni mustahkamlash – o'zini anglash" izchilligida tashkil etilishi mumkin.

Umumlashtirib aytganda, maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishning uzluksiz metodikasi bolaning tabiiy qiziqishlarini aniqlash, ularni turli faoliyatlar orqali rivojlantirish, kasblar olami haqidagi bilimlarni bosqichma-bosqich kengaytirish va o'z imkoniyatlarini refleksiv anglashga yo'naltirilgan yaxlit pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur tizimning samaradorligi ta'lim bosqichlari o'rtasidagi metodik uzviylik, individual yondashuv, faoliyatga asoslangan ta'lim, fanlararo integratsiya, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ijtimoiy hamkorlikning kompleks amalga oshirilishiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyeva K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2008.
2. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
3. Климов Е. А. Психология профессионального самоопределения. – Ростов-на-Дону: Феникс, 1996.
4. Асмолов А. Г. Психология личности: культурно-историческое понимание развития человека. – Москва: Смысл, 2007.
5. Hayitova Z. M. Stages of studying the professional activity of primary school students. – Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 2025. – Vol. 5, № 6. – P. 68–70.

ISHSIZ AYOLLARDA SHAXSIYLIK VA EMOTSIONAL XUSUSIYATLARNI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna
International School of Finance, Technology and Science instituti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarning namoyon bo'lishini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari kompleks tahlil qilingan. Emotsional sohani shaxsning yaxlit psixologik tizimidan ajralmas regulyativ mexanizm sifatida talqin etuvchi zamonaviy yondashuvlar (K. R. Sherer, B. I. Dodonov, S. R. Pantileyev), ishsizlikning psixologik oqibatlarini tushuntiruvchi klassik nazariyalar (M. Jahoda, P. B. Warr, D. Fryer), keng ko'lamli meta-tahlil natijalari (K. I. Paul, K. Moser) hamda MDH va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Deprivatsiya va agentlik paradigmalarining metodologik uzviyligi asoslanib, ishsizlik shaxsning kasbiy identikligi, o'z-o'ziga munosabati, emotsional barqarorligi va ijtimoiy faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi murakkab ijtimoiy-psixologik stressor sifatida talqin etilgan. Muallif tomonidan ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'z holatini subyektiv baholash, o'z-o'ziga munosabat, umumiy hissiy yo'nalganlik va shaxslararo munosabatlarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan to'rt blokli tuzilma doirasida tadqiq etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: shaxsiylik, emotsional soha, ishsizlik, ayollar psixologiyasi, o'z-o'ziga munosabat, hissiy yo'nalganlik, psixologik moslashuv, latent funksiyalar nazariyasi, vitamin modeli, nazariy-metodologik tahlil.

Abstract: The article provides a comprehensive analysis of the theoretical and methodological foundations for studying the manifestation of personality and emotional characteristics among unemployed women. It comparatively examines modern approaches that treat the emotional sphere as an inseparable regulatory mechanism of the holistic personality system (K. R. Scherer, B. I. Dodonov, S. R. Pantileev), classical theories explaining the psychological consequences of unemployment (M. Jahoda, P. B. Warr, D. Fryer), large-scale meta-analytic evidence (K. I. Paul, K. Moser), and the scholarly views of CIS and Uzbek researchers. The methodological continuity of the deprivation and agency paradigms is substantiated, and unemployment is interpreted as a complex socio-psychological stressor affecting occupational identity, self-attitude, emotional stability and social activity. The author scientifically substantiates the need to study the personal and emotional characteristics of unemployed women within a four-block structure integrating subjective self-state assessment, self-attitude, general emotional orientation, and interpersonal relations.

Key words: personality, emotional sphere, unemployment, psychology of women, self-attitude, emotional orientation, psychological adaptation, latent deprivation theory, vitamin model, theoretical-methodological analysis.

Аннотация: В статье комплексно проанализированы теоретико-методологические основы изучения проявления личностных и эмоциональных особенностей у безработных женщин. Проведён сравнительный анализ современных подходов, трактующих эмоциональную сферу как неотъемлемый регулятивный механизм целостной психологической системы личности (К. Р. Шерер, Б. И. Додонов, С. Р. Пантилеев), классических теорий психологических последствий безработицы (М. Джахода, П. Б. Уорр, Д. Фрайер), результатов крупномасштабного метаанализа (К. И. Пауль, К. Мозер), а также научных взглядов исследователей стран СНГ и Узбекистана. Обоснована методологическая преемственность депривационной и агентской парадигм; безработица интерпретирована как сложный социально-психологический стрессор, воздействующий на профессиональную идентичность, самоотношение, эмоциональную устойчивость и социальную активность личности. Автором научно обосновано, что личностные и эмоциональные особенности безработных женщин требуют изучения в рамках четырёхблочной структуры, интегрирующей субъективную оценку своего состояния, самоотношение, общую эмоциональную направленность и межличностные отношения.

Ключевые слова: личность, эмоциональная сфера, безработица, психология женщин, самоотношение, эмоциональная направленность, психологическая адаптация, теория латентных функций, витаминная модель, теоретико-методологический анализ.

KIRISH

Jahon miqyosida kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, mehnat bozorining texnologik va institutsional jihatdan yangilanishi hamda bandlik shakllarining diversifikatsiyalashuvi sharoitida ishsizlik nafaqat iqtisodiy, balki shaxsning psixologik salomatligi, ijtimoiy identifikatsiyasi va emotsional farovonligiga ta'sir ko'rsatuvchi global ijtimoiy-psixologik muammolardan biriga aylanmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining (ILO) ma'lumotlariga ko'ra, xotin-qizlarning mehnat bozorida ishtirok etish ehtimoli erkaklarnikiga nisbatan sezilarli darajada past bo'lib qolmoqda. Mazkur ko'rsatkichlar ayollarning barqaror bandlikka erishishi va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda hanuz tizimli to'siqlar mavjudligini ko'rsatadi hamda ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarning namoyon bo'lish mexanizmlarini alohida ilmiy tadqiq etishni taqozo etadi.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda xotin-qizlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, barqaror bandligini qo'llab-quvvatlash, kasbiy salohiyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy-psixologik farovonligini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli[1] "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli[2] "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-sonli[3] Qarori, shuningdek, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi va "Aholi bandligi to'g'risida"gi qonunlarda belgilangan vazifalar ushbu masalaning strategik ahamiyatini belgilaydi. Mazkur muammoning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Ayollarimizni bezovta qilayotgan eng katta masala, bu - ishsizlik"[4] degan fikrida ham yaqqol ifodalangan.

Shu bilan birga, ishsizlikning psixologik oqibatlarini tushuntirishga qaratilgan nazariy modellarning aksariyati G'arb jamiyatlari materialida, ko'pincha erkaklar bandligi tajribasi asosida ishlab chiqilgan. Ularni boshqa sotsiomadaniy kontekstlarga mexanik ravishda ko'chirish noto'g'ri metodologik xulosalarga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, mavjud tadqiqotlarda ishsiz shaxsning emotsional holati, o'z-o'ziga munosabati va shaxslararo munosabatlari ko'pincha alohida-alohida o'rganilib, ularning o'zaro determinatsiyasi yetarlicha kompleks tahlil qilinmagan. Aynan shu holat mazkur maqolada ko'tarilgan muammoning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi ishsizlikning shaxs psixologiyasiga ta'siriga oid klassik, xorijiy va mahalliy ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning metodologik imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash hamda ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni kompleks empirik tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Shaxs va emotsional soha o'rtasidagi funksional-dinamik munosabatlarni izohlashga qaratilgan zamonaviy ilmiy yondashuvlar tizimida kognitiv baholash nazariyalari, psixologik konstruktivizm, affektiv neyropsixologiya, emotsional regulyatsiya konsepsiyasi, emotsional intellekt nazariyasi hamda pozitiv psixologiya alohida o'rin egallaydi. Mazkur yondashuvlar metodologik asoslari jihatidan farqlanishiga qaramay, emotsiyalarni tashqi va ichki ta'sirlarni subyektiv baholash, shaxsiy ahamiyat kasb etgan vaziyatlarga munosabat bildirish hamda o'zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashishni ta'minlovchi faol psixologik tizim sifatida talqin etishi bilan umumiylik kasb etadi.

K. R. Sherer tomonidan ishlab chiqilgan emotsiyaning komponentli jarayon modeli (Component Process Model) emotsional javobni alohida hissiyot yoki oddiy fiziologik reaksiya sifatida emas, balki o'zaro muvofiqlashgan bir necha funksional tizimlarning dinamik integratsiyasi sifatida izohlaydi. Modelda emotsional jarayonning o'zaro bog'langan beshta komponenti ajratiladi: vaziyatni kognitiv baholash, organizmdagi fiziologik o'zgarishlar, harakatga tayyorlik yoki motivatsion tendensiya, yuz va ovoz orqali tashqi ifodalanish hamda subyektiv hissiy kechinma. Muallifning yondashuviga ko'ra, emotsional reaksiyaning mazmunini vaziyatning o'zi emas, balki shaxs tomonidan uning yangiligi, yoqimliligi, maqsadga muvofiqligi, vaziyatni boshqarish imkoniyati hamda shaxsiy va ijtimoiy me'yorlarga mosligi asosida baholanishi belgilaydi.

Ushbu nazariy pozitsiya ishsizlik sharoitidagi ayollarning emotsional holatini tushuntirishda muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki ishsizlik bir ayol tomonidan vaqtinchalik kasbiy qiyinchilik sifatida baholanishi mumkin bo'lsa, boshqasida u ijtimoiy mavqening yo'qolishi, iqtisodiy mustaqillikning cheklanishi yoki kelajakka nisbatan nazoratning susayishi sifatida idrok etilishi mumkin. Sherer keyingi ishlarida shaxsga xos barqaror

1 https://lex.uz/ru/docs/-5841063
2 https://lex.uz/uz/docs/-5899498?ONDATE=01.01.2026
3 https://lex.uz/uz/docs/-5320582?ONDATE=01.01.2024
4 https://president.uz/oz/lists/view/7928

baholash moyilliklari muntazam takrorlanuvchi emotsional holatlarni shakllantirishi, vaqt o‘tishi bilan esa emotsional dispozitsiyalar va psixologik zaiflik omillariga aylanishi mumkinligini ta’kidlaydi. Demak, ishsizlikning emotsional oqibatlari faqat obyektiv bandlik holati bilan emas, balki shaxsning subyektiv baholash tizimi bilan ham determinatsiyalanadi.

Emotsional sohaning tuzilmaviy tahlilida B. I. Dodonovning umumiy hissiy yo‘nalganlik konsepsiyasi alohida metodologik qimmatga ega. Muallif emotsiyalarni qadriyat sifatida talqin qilib, shaxsning qaysi turdagi kechinmalarni subyektiv jihatdan afzal ko‘rishiga ko‘ra altruistik, kommunikativ, glorik, praksik, pugnistik, romantik, gnostik, estetik, gedonistik va akizitiv yo‘nalishlarni ajratadi. Mazkur tasnifning ilmiy afzalligi shundaki, u emotsional sohani faqat “ijobiy-salbiy” o‘qi bo‘yicha emas, balki mazmuniy-qadriyatli mezon asosida differensiallashtirish imkonini beradi. Bu esa ishsizlik sharoitida qaysi emotsional ehtiyojlar qondirilmay qolayotganini aniq belgilashga xizmat qiladi.

Shaxsning o‘ziga munosabati tizimini o‘rganishda S. R. Pantileyevning konsepsiyasi e’tiborga molik. Unda o‘z-o‘ziga munosabat yagona va bir o‘lchovli baho emas, balki samimiylik, o‘z-o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini idora qilish, o‘ziga munosabatning aks etishi, o‘z-o‘zini qadrlash, o‘z-o‘zini qabul qilish, o‘z-o‘ziga bog‘liqlik, ichki ziddiyat va o‘zini ayblash kabi nisbatan mustaqil komponentlardan iborat ko‘p qirrali emotsional-baholash tizimi sifatida talqin etiladi. Ushbu tuzilmaviy yondashuv ishsizlik sharoitida shaxsning “Men” tizimidagi o‘zgarishlarni yaxlit emas, balki komponent darajasida qayd etish imkonini beradi.

Ishsizlikning psixologik oqibatlarini tushuntiruvchi nazariyalar orasida M. Jahodaning latent funksiyalar konsepsiyasi eng nufuzli yondashuvlardan biri hisoblanadi. Uning P. Lazarsfeld va H. Zayzel bilan hamkorlikda Avstriyaning Marienthal shaharchasida o‘tkazgan tadqiqoti ijtimoiy psixologiya tarixidagi eng muhim empirik ishlardan biri sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqotda uzoq muddatli ishsizlik hayotdan qoniqishning pasayishi, kelajakka nisbatan umidsizlik, tashabbuskorlikning susayishi, vaqtni mazmunli tashkil etish qobiliyatining yo‘qolishi hamda ijtimoiy faollikning cheklanishi bilan bog‘liqligi aniqlangan. Keyinchalik muallif ushbu g‘oyalarni rivojlantirib, mehnat faoliyati daromaddan tashqari beshta latent psixologik ehtiyojni - vaqtning tuzilmalashuvi, ijtimoiy aloqalar, umumiy maqsadlarga daxldorlik, ijtimoiy maqom va identiklik hamda muntazam faoliyatni qondirishini asoslab bergan.

P. B. Warr tomonidan ishlab chiqilgan “vitamin modeli” psixologik farovonlik bilan mehnat muhiti o‘rtasidagi bog‘liqlikni chiziqli emas, balki egri chiziqli munosabat sifatida izohlashi bilan ajralib turadi. Modelga ko‘ra, faoliyat ustidan nazorat hissi, ko‘nikmalardan foydalanish imkoniyati, aniq maqsadlarga ega bo‘lish, ijtimoiy aloqalar, faoliyatning xilma-xilligi, xavfsizlik hissi, ijtimoiy maqom va moddiy ta’minot “psixologik vitaminlar” sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning mutlaqo yetishmasligi ham, ortiqcha bo‘lishi ham ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu yondashuv ishsizlikni faqat “yetishmovchilik” emas, balki muvozanatning buzilishi sifatida talqin qilish imkonini beradi.

D. Fryer tomonidan taklif etilgan agentlikni cheklash (agency restriction) yondashuvi esa ishsiz shaxsni passiv “qurbon” sifatida emas, balki cheklangan resurslar sharoitida o‘z hayotini faol boshqarishga intiluvchi subyekt sifatida talqin qiladi. Mazkur pozitsiya psixologik yordam amaliyoti uchun muhim, chunki u shaxsning ichki resurslarini safarbar etishga urg‘u beradi. K. I. Paul va K. Moser tomonidan 237 ta kesimiy va 87 ta longitudinal tadqiqot materiallari asosida amalga oshirilgan meta-tahlil ishsizlikning depressiya, xavotirlanish va o‘z-o‘zini past baholash bilan barqaror bog‘liqligini tasdiqlagan, biroq bu ta’sirning kuchi individual va ijtimoiy-psixologik resurslarga bog‘liq ekanligini ko‘rsatgan.

Ayollar ishsizligining gender xususiyatlarini o‘rganishda M. Bartli va G. I. Yefremovaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. M. Bartli ayollarda ishsizlikning psixologik oqibatlari erkaklarnikidan farqli namoyon bo‘lishini, oilaviy rollar, ijtimoiy identiklik va o‘zini qadrlash bilan bog‘liq emotsional zo‘riqishlarning qo‘shimcha ravishda yuzaga kelishini asoslagan. G. I. Yefremova ishsiz ayollarning psixologik portretini ishlab chiqib, ularda xavotirlanish, emotsional beqarorlik, pessimizm, ijtimoiy dadillikning sustligi va konformlik kabi xususiyatlar namoyon bo‘lishi mumkinligini aniqlagan hamda differensial psixologik yordamning yetti modulli trening dasturini taklif etgan. A. Bandura tomonidan ishlab chiqilgan o‘z-o‘ziga samaradorlik konsepsiyasi esa takroriy muvaffaqiyatsiz urinishlar shaxsning o‘z imkoniyatlariga ishonchini susaytirishi mumkinligini tushuntiradi.

Mahalliy tadqiqotchilar - D. S. Abdullajanova, M. M. Baltayeva, M. Q. G‘afforova, T. K. Narbayeva, N. R. Nishonova, Sh. M. Ulug‘ova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida xotin-qizlarning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy faolligi, kasbiy rivojlanishi, gender munosabatlari va mehnat faoliyatiga moslashuvi keng yoritilgan.

Xususan, xotin-qizlarning yangi iqtisodiy munosabatlarga moslashuvi obyektiv (ma’lumot, kasbiy malaka, ish tajribasi) va subyektiv (kutilayotgan daromad, kasbiy manfaatdorlik, shaxsiy ehtiyojlar) omillar ta’sirida shakllanishi asoslangan. Biroq mazkur ishlarda ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarning namoyon bo‘lish qonuniyatlari hamda ularni belgilovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar mustaqil tadqiqot predmeti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tahlil-sintez, qiyosiy-nazariy tahlil, tipologiyalashtirish, tizimli yondashuv va nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot manbai sifatida shaxs va emotsional soha psixologiyasi klassiklarining asarlari, ishsizlik psixologiyasi nazariyotchilarining ishlari, xalqaro meta-tahlil natijalari, MDH mamlakatlari va O'zbekiston olimlarining ilmiy izlanishlari hamda xalqaro tashkilotlarning statistik hisobotlari tanlab olindi. Nazariy manbalarni tahlil qilishda uch mezon asos qilib olindi:

(a) nazariyaning ishsizlikni tushuntirishdagi izohlovchi imkoniyati;

(b) uning empirik operatsionalizatsiya qilinish darajasi;

(c) gender va sotsiomadaniy kontekstga sezgirligi.

Ushbu mezonlar mavjud yondashuvlarni oddiy sanab o'tishdan emas, balki ularning metodologik salohiyati va cheklovlarini asoslangan holda baholashdan iborat tahlil strategiyasini belgiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchidan, o'tkazilgan tahlil zamonaviy psixologiya fanida shaxs va uning emotsional sohasi o'zaro integratsiyalashgan yaxlit tizim sifatida tadqiq etilishini ko'rsatdi. Emotsiyalar shaxs ruhiy hayotida faqat subyektiv hissiy kechinmalar majmui sifatida emas, balki bilish jarayonlari, motivatsion-qadriyatli yo'nalishlar, qaror qabul qilish, shaxslararo munosabatlar va psixologik farovonlikni tartibga soluvchi regulyativ mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Bundan kelib chiqadigan metodologik xulosa shuki, ishsiz ayollarning emotsional holatini o'z-o'ziga munosabat tizimidan ajratilgan holda o'rganish emotsional jarayonlarning murakkab tabiatini to'liq ochib berishga imkon bermaydi.

Ikkinchidan, M. Jahoda va P. B. Warr nazariyalarining metodologik uzviyligi va farqlari alohida ko'rib chiqildi. Ikkala nazariya ham ishsizlikning ta'sirini faqat moddiy yo'qotish sifatida emas, balki psixologik ehtiyojlarning qondirilmay qolishi sifatida talqin qiladi, biroq ularning urg'u nuqtalari farqlanadi: Jahoda ijtimoiy-tuzilmaviy funksiyalarga (vaqt tashkiloti, ijtimoiy aloqalar, maqom), Warr esa individual psixologik ehtiyojlarga (nazorat, ko'nikmalardan foydalanish, xavfsizlik) urg'u beradi. Bunga D. Fryerning agentlik yondashuvi qo'shilganda uch qutbli metodologik makon shakllanadi, unda ishsizlikning ta'siri bir vaqtning o'zida tuzilmaviy, individual-ehtiyojli va subyektiv-faoliyatli darajalarda tahlil qilinishi mumkin bo'ladi. Mazkur uch yondashuvning qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval: **Ishsizlikning psixologik oqibatlarini tushuntiruvchi asosiy nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili**

Mezon	Latent funksiyalar nazariyasi (M.Jahoda)	Vitamin modeli (P.B.Warr)	Agentlik yondashuvi (D.Fryer)
Tahlil darajasi	Ijtimoiy-tuzilmaviy	Individual-ehtiyojli	Subyektiv-faoliyatli
Asosiy tushuncha	Bandlikning yashirin funksiyalari	Psixologik vitaminlar va ularning muvozanati	Shaxs agentligining cheklanishi
Shaxsning pozitsiyasi	Ko'proq passiv (mahrumlik obyekti)	Sharoitga bog'liq	Faol subyekt
Bog'liqlik xarakteri	Chiziqli	Egri chiziqli	Vaziyatga bog'liq
Amaliy yo'nalish	Bandlikni tiklash, ijtimoiy aloqalarni kengaytirish	Muhit omillarini optimallashtirish	Ichki resurslarni safarbar etish
Metodologik cheklov	Individual farqlarni yetarlicha hisobga olmaydi	Operatsionalizatsiyasi murakkab	Tuzilmaviy to'siqlarni sustroq yoritadi

Jadval ma'lumotlari ko'rsatadiki, mazkur nazariyalar bir-birini inkor etmaydi, balki bir hodisaning turli darajalarini yoritadi. Shu sababli ishsiz ayollar psixologiyasini o'rganishda ulardan birini mutlaqlashtirish emas, balki integrativ tarzda qo'llash metodologik jihatdan maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, ayollar ishsizligining o'ziga xos jihati alohida ta'kidlandi. An'anaviy jamiyatlarda ayolning ijtimoiy maqomi ko'pincha nafaqat kasbiy faoliyat, balki oilaviy rollar orqali ham belgilanadi. Bu holat ikki xil psixologik oqibatga olib kelishi mumkin. Bir tomondan, oilaviy rollarning mavjudligi ishsizlikning identiklikka oid zarbasini qisman yumshatuvchi kompensator resurs bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ikkinchi tomondan, ayolning bir vaqtning o'zida kasbiy o'zini ro'yobga chiqarish va oilaviy majburiyatlarni bajarish talablari o'rtasida qolishi rollararo ziddiyatni kuchaytirishi ehtimoldan xoli emas. Demak, ishsiz ayollar psixologiyasini erkaklar ishsizligi modeli asosida emas, balki alohida gender-sezgir nazariy asosda o'rganish zarur.

To'rtinchidan, xorijiy nazariyalarni mahalliy sotsiomadaniy kontekstda qayta talqin qilish zarurati asoslandi. O'zbekiston sharoitida oilaviy mas'uliyatning yuqoriligi, qarindoshlik va mahalla tizimining qo'llab-quvvatlovchi roli, mehnatga nisbatan shakllangan ijtimoiy talablar hamda shaxsning oiladagi mavqei ishsizlikning psixologik oqibatlarini belgilovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, M. Jahoda ajratgan latent funksiyalardan "ijtimoiy aloqalar" va "umumiy maqsadlarga daxldorlik" komponentlari mahalla, qarindoshlik tarmog'i va oilaviy faoliyat orqali qisman qondirilishi mumkin. Bu esa G'arb jamiyatlarida qayd etilgan deprivatsiya effektining O'zbekiston sharoitida boshqacha konfiguratsiyada namoyon bo'lish ehtimolini ko'rsatadi va milliy tanlanmalarda empirik tekshirishni talab qiladi.

Beshinchidan, o'tkazilgan tahlil natijasida ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni tadqiq etishning to'rt blokli integrativ tuzilmasi asoslab berildi. Birinchi blok - o'z holatini subyektiv baholash: shaxsning mavjud psixologik holatini qanday idrok etishi, emotsional zo'riqish, xavotirlanish va beqarorlik darajasi. Ikkinchi blok - o'z-o'ziga munosabat: samimiylik, o'z-o'zini idora qilish, o'zini qadrlash, o'zini qabul qilish, ichki ziddiyat va o'zini ayblash komponentlari. Uchinchi blok - umumiy hissiy yo'nalganlik: shaxs uchun subyektiv ahamiyatli bo'lgan emotsional kechinmalar turlari. To'rtinchi blok - shaxslararo munosabatlar: ijtimoiy xulq-atvor strategiyalari va qo'llab-quvvatlash tarmog'idan foydalanish imkoniyatlari.

Mazkur tuzilmaning ilmiy afzalligi shundaki, u ishsizlikning psixologik oqibatlarini yagona umumlashgan ko'rsatkich orqali emas, balki komponent darajasida qayd etish imkonini beradi. Bu esa, o'z navbatida, psixologik yordamni differensiallashtirish, ya'ni har bir ayolda aynan qaysi komponent zaiflashgani va qaysi biri saqlanib qolgan resurs ekanligini aniqlash uchun zamin yaratadi. Metodik jihatdan ushbu tuzilma "Shaxsning o'z holatini baholash" testi, B. I. Dodonovning "Shaxsning umumiy hissiy yo'nalganligini aniqlash" metodikasi, "Hissiy holatlarda o'z-o'zini baholash" metodikasi, S. R. Pantileyevning "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi hamda T. Lirining "Shaxslararo munosabatlarni diagnostika qilish" metodikasi bilan operatsionalizatsiya qilinishi mumkin.

O'tkazilgan nazariy tahlil bir necha metodologik masalani ochiq qoldiradi. Avvalo, deprivatsiya paradigmasi doirasidagi tadqiqotlarda ishsiz shaxs ko'pincha passiv obyekt sifatida talqin qilinadi. Bu esa amaliyotda psixologik yordamni faqat "yo'qotilgan funksiyalarni qoplash"ga yo'naltirish xavfini yuzaga keltiradi. Agentlik yondashuvi bilan integratsiya bu cheklovni yumshatishga xizmat qiladi, chunki u shaxsning saqlanib qolgan resurslarini tadqiqot predmetiga aylantiradi.

Ikkinchi masala korrelyatsion tahlilning izohlovchi imkoniyatlari bilan bog'liq. Ishsizlik davomiyligi bilan emotsional ko'rsatkichlar o'rtasida aniqlanadigan aloqadorliklar sabab-oqibat munosabatini isbotlamaydi: uzoq muddatli ishsizlik emotsional resurslarni susaytirishi ham, aksincha, dastlabki emotsional zaiflik ish qidirish faolligini pasaytirib, ishsizlik davomiyligini uzaytirishi ham mumkin. Shu sababli empirik natijalarni talqin qilishda qat'iy sababiy formulalardan tiyilish va longitudinal dizaynlarga ehtiyoj mavjudligini e'tirof etish ilmiy jihatdan to'g'ri pozitsiya hisoblanadi.

Uchinchi masala metodikalarni madaniy moslashtirish bilan bog'liq. B. I. Dodonov va S. R. Pantileyev metodikalari boshqa sotsiomadaniy sharoitda ishlab chiqilgani sababli, ayrim shkalalarning mazmuniy talqini milliy tanlanmada qo'shimcha aniqlashtirishni talab qilishi mumkin. Bu holat empirik bosqichda shkalalarning ichki izchilligini tekshirish va natijalarni ehtiyotkorlik bilan izohlash zaruratini belgilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy psixologik yondashuvlarda shaxs va uning emotsional sohasi o'zaro integratsiyalashgan yaxlit tizim sifatida talqin etilib, o'z-o'zini baholash, o'ziga munosabat, emotsional yo'nalganlik va shaxslararo munosabatlar psixologik farovonlik hamda ijtimoiy moslashuvni belgilovchi determinantlar ekanligi nazariy jihatdan asoslandi.

Ishsizlikning psixologik oqibatlarini tushuntiruvchi yetakchi nazariyalar (M. Jahoda, P. B. Warr, D. Fryer) bir-birini inkor etmaydi, balki bir hodisaning ijtimoiy-tuzilmaviy, individual-ehtiyojli va subyektiv-faoliyatli darajalarini yoritadi. Ularning integratsiyasi ishsizlikni ko'p darajali ijtimoiy-psixologik stressor sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

Ayollar ishsizligining psixologik mazmuni erkaklar ishsizligi modeli bilan to'liq izohlanmaydi: oilaviy rollarning identiklikni qo'llab-quvvatlovchi va rollararo ziddiyatni kuchaytiruvchi qo'sh funksiyasi gender-sezgir nazariy asosni talab qiladi.

Xorijiy nazariyalarni O'zbekiston sotsiomadaniy kontekstiga mexanik ko'chirish metodologik jihatdan asosli emas; oilaviy mas'uliyat, mahalla instituti va qarindoshlik tarmog'ining kompensator roli mahalliy tanlanmalarda alohida empirik tekshirishni taqozo etadi.

Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning to'rt blokli integrativ tuzilmasi - o'z holatini subyektiv baholash, o'z-o'ziga munosabat, umumiy hissiy yo'nalganlik va shaxslararo munosabatlar - keyingi empirik tadqiqotlar uchun nazariy-metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Ishsiz ayollarga psixologik yordam ko‘rsatish dasturlarini loyihalashtirishda faqat salbiy emotsional holatlarni kamaytirishga emas, balki saqlanib qolgan shaxsiy resurslarni - bilishga qiziqish, kommunikativ faollik, altruistik yo‘nalganlik va faoliyatdan qoniqishni - faollashtirishga urg‘u berish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagi PF-87-sonli “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
4. Jahoda M., Lazarsfeld P., Zeisel H. Marienthal: The Sociography of an Unemployed Community. - London: Tavistock, 1971.
5. Jahoda M. Employment and Unemployment: A Social-Psychological Analysis. - Cambridge: Cambridge University Press, 1982. - 136 p.
6. Warr P.B. Work, Unemployment, and Mental Health. - Oxford: Clarendon Press, 1987. - 361 p.
7. Fryer D., Payne R. Being unemployed: A review of the literature on the psychological experience of unemployment // International Review of Industrial and Organizational Psychology. - 1986. - Vol. 1. - P. 235-278.
8. Paul K.I., Moser K. Unemployment impairs mental health: Meta-analyses // Journal of Vocational Behavior. - 2009. - Vol. 74(3). - P. 264-282.
9. Scherer K.R. The dynamic architecture of emotion: Evidence for the component process model // Cognition and Emotion. - 2009. - Vol. 23(7). - P. 1307-1351.
10. Bandura A. Self-efficacy: The Exercise of Control. - New York: Freeman, 1997. - 604 p.
11. Bartley M. Unemployment and ill health: understanding the relationship // Journal of Epidemiology and Community Health. - 1994. - Vol. 48(4). - P. 333-337.
12. Додонов Б.И. Эмоция как ценность. - М.: Политиздат, 1978. - 272 с.
13. Пантилеев С.Р. Самоотношение как эмоционально-оценочная система. - М.: МГУ, 1991. - 110 с.
14. Ефремова Г.И. Психологическое обеспечение профессиональной поддержки безработных женщин: дис. ... д-ра психол. наук. - М., 2002.
15. Реан А.А. Психология личности. - СПб.: Питер, 2013. - 288 с.
16. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. - Toshkent: Universitet, 2002. - 232 b.
17. G‘afforova M.Q. Ayollar psixologiyasi. - Toshkent, 2019.
18. Jurayeva Sh.S. Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarning namoyon bo‘lishining psixologik omillari: psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. - Toshkent, 2026. - 140 b.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

KASABA UYUSHMALARI XODIMLARIDA TASHABBUSKORLIK VA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Sharipov Hayotjon Safarovich
International School of Finance, Technology and Science instituti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari tizimli tahlil qilingan. Klassik faoliyat psixologiyasi (S. L. Rubinshteyn, A. N. Leontev, B. G. Ananev, K. K. Platonov, V. D. Shadrikov), dispozitsion-xarakterologik yondashuv, xorijiy motivatsion-kognitiv konsepsiyalar (M. Frese, D. Fay, J. B. Rotter, D. C. McClelland, E. A. Locke, A. Bandura, A. M. Grant) hamda MDH va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, tashabbuskorlik va yetakchilikning o'zaro bog'liq, biroq mazmunan farqlanuvchi ijtimoiy-psixologik fenomenlar ekanligi asoslangan. I. A. Krupnovning tizimli-funksional modeli asosida tashabbuskorlikning sakkiz komponentli tuzilmasi kasaba uyushmasi xodimi faoliyati kontekstida operatsionallashtirilgan. Muallif tomonidan kasaba uyushmalari xodimlarining o'ziga xos kasbiy faoliyati - jamoa manfaatlarini ifodalash, ijtimoiy sheriklikni ta'minlash va mehnat huquqlarini himoya qilish - ushbu kasbiy guruhda tashabbuskorlik va yetakchilikni alohida tadqiq etishni taqozo etishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan hamda "konformlik - tashabbuskorlik - yetakchilik" uch a'zoli nazariy modeli taklif qilingan.

Kalit so'zlar: tashabbuskorlik, yetakchilik, ijtimoiy psixologiya, kasaba uyushmalari, konformlik, proaktiv xulq-atvor, shaxs faolligi, tizimli-funksional yondashuv, nazariy-metodologik tahlil.

Abstract: The article provides a systematic analysis of the theoretical and methodological foundations for studying initiative and leadership qualities among trade union employees. A comparative analysis is conducted of classical activity psychology (S. L. Rubinstein, A. N. Leontiev, B. G. Ananiev, K. K. Platonov, V. D. Shadrikov), the dispositional-characterological approach, foreign motivational-cognitive concepts (M. Frese, D. Fay, J. B. Rotter, D. C. McClelland, E. A. Locke, A. Bandura, A. M. Grant), and the views of CIS and Uzbek researchers. It is substantiated that initiative and leadership are interrelated yet substantively distinct socio-psychological phenomena. Drawing on I. A. Krupnov's systemic-functional model, the eight-component structure of initiative is operationalised for the activity of a trade union employee. The author substantiates that the specific professional activity of trade union employees - representing collective interests, ensuring social partnership, and protecting labour rights - necessitates a separate study of initiative and leadership within this professional group, and proposes a three-part theoretical model of "conformity - initiative - leadership".

Key words: initiative, leadership, social psychology, trade union organizations, conformity, proactive behavior, personal activity, systemic-functional approach, theoretical-methodological analysis.

Аннотация: В статье системно проанализированы теоретико-методологические основы изучения инициативности и лидерских качеств у работников профсоюзных организаций. Проведён сравнительный анализ классической психологии деятельности (С. Л. Рубинштейн, А. Н. Леонтьев, Б. Г. Ананьев, К. К. Платонов, В. Д. Шадриков), диспозиционно-характерологического подхода, зарубежных мотивационно-когнитивных концепций (М. Фрезе, Д. Фэй, Дж. Роттер, Д. Макклелланд, Э. Локк, А. Бандура, А. Грант), а также взглядов исследователей стран СНГ и Узбекистана. Обосновано, что инициативность и лидерство являются взаимосвязанными, но содержательно различными социально-психологическими феноменами. На основе системно-функциональной модели И. А. Крупнова восьмикомпонентная структура инициативности операционализирована применительно к деятельности профсоюзного работника. Автором научно обосновано, что специфика профессиональной деятельности работников профсоюзных организаций требует отдельного изучения инициативности и лидерства в данной профессиональной группе, и предложена трёхчленная теоретическая модель "конформность - инициативность - лидерство".

Ключевые слова: инициативность, лидерство, социальная психология, профсоюзные организации, конформность, проактивное поведение, активность личности, системно-функциональный подход, теоретико-методологический анализ.

KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiyalar, mehnat bozorining tarkibiy yangilanishi, raqamlashtirish jarayonlarining jadallashuvi va boshqaruv tizimlarining modernizatsiyasi sharoitida xodimlarning tashabbuskorlik va yetakchilik salohiyatini rivojlantirish tashkilotlar faoliyati samaradorligini ta'minlovchi ustuvor ijtimoiy-psixologik omillardan biriga aylanmoqda. Mehnat munosabatlarining murakkablashuvi, bandlik shakllarining xilma-xillashuvi hamda ijtimoiy himoya tizimiga qo'yilayotgan talablarning ortishi mehnat jamoalarida vositachilik va vakillik funksiyasini bajaruvchi institutlar zimmasiga yangi vazifalarni yuklamoqda.

Kasaba uyushmalari - xodimlar, ish beruvchilar va davlat o'rtasidagi manfaatlarni muvofiqlashtiruvchi, ijtimoiy sheriklikni ta'minlovchi va mehnat huquqlarini himoya qiluvchi fuqarolik jamiyati instituti sifatida - o'ziga xos kasbiy vazifalarni bajaradi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan ilgari surilgan munosib mehnat konsepsiyasida barcha ayollar va erkaklar uchun erkinlik, tenglik, xavfsizlik va inson qadr-qimmatini hurmat qilish sharoitida to'laqonli bandlikni ta'minlash strategik ustuvorlik sifatida belgilangan bo'lib, ushbu vazifalarni amalga oshirishda kasaba uyushmalari xodimlarining kasbiy kompetentligi va shaxsiy faolligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa mazkur kasbiy guruhda tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarining namoyon bo'lishini alohida ilmiy qiziqish predmeti sifatida belgilaydi.

Yangi O'zbekistonda kasaba uyushmalari tizimini takomillashtirish, xodimlarning mehnat huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning kasbiy faolligi va boshqaruv salohiyatini oshirish davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-dekabrdagi O'RQ-588-son[1] "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishi bilan mazkur institutning tashkiliy-huquqiy maqomi va vakolatlari sezilarli darajada kengaytirildi. "O'zbekiston - 2030" strategiyasida hamda fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar kasaba uyushmalari xodimlaridan yangi sifat darajasidagi tashabbuskorlik va yetakchilik ko'nikmalarini talab etadi. Bu esa mazkur sifatlarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini chuqur va tizimli tahlil qilishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi tashabbuskorlik va yetakchilik fenomenlariga oid klassik, xorijiy va mahalliy ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning metodologik uzviyligini aniqlash hamda kasaba uyushmalari xodimlari kontekstida ushbu muammoning o'rganilganlik darajasini belgilash va empirik tadqiqot uchun nazariy modelni asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Faoliyat nazariyasi nuqtayi nazaridan tashabbuskorlik shaxsning faoliyat subyekti sifatidagi faolligi bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi: subyekt tashqi sharoitlarga passiv moslashuvchi emas, balki ularni o'zgartiruvchi, o'z faoliyatini ongli ravishda maqsadga yo'naltiruvchi ijtimoiy-psixologik agent sifatida namoyon bo'ladi.

S. L. Rubinshteyn tomonidan asoslangan "tashqi ta'sirlar ichki shartlar orqali sinadi" tamoyili tashabbuskorlikni tashqi rag'batlantirishning bevosita natijasi emas, balki shaxsning ichki motivatsion tuzilmasi vositasida qayta ishlangan faollik shakli sifatida tushunish imkonini beradi.

A. N. Leontevning faoliyat va shaxs haqidagi konsepsiyasida esa motiv, maqsad va shart-sharoit o'rtasidagi ierarxik munosabat tashabbusning shaxs uchun qanday shaxsiy ma'noga ega ekanligini aniqlovchi asosiy mezon sifatida qaraladi.

K. K. Platonov tomonidan ishlab chiqilgan shaxs strukturasi konsepsiyasida shaxsning yo'nalganligi, tajribasi, psixik jarayonlari va biopsixik xususiyatlari o'rtasidagi ierarxik bog'liqlik tashabbuskorlikning ko'p qatlamli psixologik tabiatini tushunish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Ushbu modelga ko'ra, tashabbuskorlik faqat bitta qatlamga - masalan, temperamentga yoki faqat ijtimoiy yo'nalganlikka - bog'lab qo'yilishi mumkin emas, balki barcha to'rt qatlamning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadi.

B. G. Ananevning insonni individ, shaxs, faoliyat subyekti va individuallik yaxlitligida o'rganish g'oyasi ham tashabbuskorlikni kompleks tadqiq etish zaruratini metodologik jihatdan asoslaydi.

V. D. Shadrikov faoliyat psixologiyasi nazariyasida faoliyatning motivatsion-maqsadli, operatsion-ijrochilik va nazorat-baholovchi bosqichlari orqali tashabbuskorlikning shakllanish mexanizmini bosqichma-bosqich izohlash mumkinligi asoslab berilgan. Muallifning kasbiy muhim sifatlar tizimi haqidagi qarashlari boshqaruv qarorlarining sifati nafaqat bilim hajmiga, balki refleksiv fikrlash, hissiy barqarorlik va vaziyatni to'g'ri baholash qobiliyatiga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Bu qarash kasaba uyushmasi xodimi faoliyatiga bevosita taalluqlidir, chunki uning kundalik ish jarayoni ko'pincha noaniq, hissiy jihatdan tarang va manfaatlar to'qnashuvi mavjud vaziyatlarda kechadi.

Dispozitsion va xarakterologik yondashuvlar nuqtayi nazaridan tashabbuskorlik va yetakchilik shaxsning barqaror xususiyatlari - mustaqillik, qat'iyatlilik, javobgarlik, ijtimoiy jasorat va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyati

1 https://lex.uz/uz/docs/-4631281?ONDATE=14.08.2024%2000

bilan bog‘liq holda tahlil qilinadi. Biroq ushbu yondashuvning metodologik cheklovi shundaki, u tashabbuskorlik va yetakchilikni asosan barqaror xarakterologik xususiyat sifatida talqin qiladi, holbuki zamonaviy tadqiqotlar bu sifatlarning kasbiy faoliyat jarayonida rivojlanuvchi, o‘zgaruvchan dinamik konstruktlar ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu cheklov, xususan, yetakchilik nazariyasi tarixida “buyuk shaxs” konsepsiyasidan xulq-atvorga, keyinchalik esa situativ va transformatsion modellarga o‘tish jarayonida yaqqol namoyon bo‘lgan.

Xorijiy psixologik tadqiqotlar tahlili tashabbuskorlik va yetakchilikning shakllanishini faqat shaxsning barqaror individual sifatlari bilan izohlash yetarli emasligini ko‘rsatadi. M. Frese va D. Fay tomonidan ishlab chiqilgan “shaxsiy tashabbus” (personal initiative) konsepsiyasida tashabbuskor xulq-atvor uchta asosiy belgi bilan tavsiflanadi: o‘z-o‘zidan boshlanuvchanlik (self-starting), proaktivlik, ya’ni kelajakka yo‘naltirilganlik (proactive) hamda qiyinchiliklarga qaramay qat’iyat bilan harakat qilish (persistent). Mualliflarning fikricha, shaxsiy tashabbus rasmiy ish tavsifi doirasidan chiqadigan, tashkilot maqsadlariga muvofiq va uzoq muddatli natijaga yo‘naltirilgan xulq-atvordir. Ushbu ta’rif kasaba uyushmasi xodimining faoliyatiga o‘ta mos keladi, zero uning eng samarali harakatlari ko‘pincha lavozim yo‘riqnomasida qayd etilmagan bo‘ladi.

J. B. Rotter tomonidan ishlab chiqilgan “nazorat lokusi” nazariyasi ichki nazorat lokusiga ega shaxslarning tashqi nazorat lokusiga ega shaxslarga nisbatan ancha yuqori tashabbuskorlik darajasini namoyon etishini asoslab beradi.

A. Bandura tomonidan asoslangan o‘z-o‘ziga ishonch (self-efficacy) konsepsiyasi esa shaxsning muayyan vazifani bajara olishiga bo‘lgan ishonchi tashabbus ko‘rsatish ehtimolini bevosita belgilashini ko‘rsatadi: past o‘z-o‘ziga ishonch bilim va ko‘nikma yetarli bo‘lgan holatda ham faollikni cheklaydi.

D. C. McClelland tomonidan ishlab chiqilgan yutuqqa erishish motivatsiyasi nazariyasi tashabbuskorlikning motivatsion asoslarini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi: yuqori yutuqqa erishish ehtiyojiga ega shaxslar o‘rtacha qiyinlikdagi, biroq real vazifalarni tanlashga, o‘z faoliyati natijalari haqida tezkor qayta aloqa olishga hamda shaxsiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga moyil bo‘ladi. Muallifning hokimiyat motivatsiyasi haqidagi qarashlari esa yetakchilik salohiyatini tushuntirishda alohida qiymatga ega: ijtimoiy yo‘nalgan hokimiyat motivi shaxsni guruh manfaati uchun ta’sir ko‘rsatishga, shaxsiy yo‘nalgan hokimiyat motivi esa maqom va nazoratni kengaytirishga undaydi.

E. A. Locke va G. Latham tomonidan asoslangan maqsad qo‘yish nazariyasi aniq va murakkab maqsadlarning umumiy, noaniq maqsadlarga nisbatan yuqori faoliyat natijalariga olib kelishini ko‘rsatadi.

A. M. Grant va S. J. Ashford tomonidan taklif qilingan proaktivlik konsepsiyasida esa proaktiv xulq-atvor jarayon sifatida - oldindan ko‘rish, rejalashtirish va o‘zgarishga yo‘naltirilgan harakat bosqichlari birligida - talqin qilinadi.

Konformlik masalasida S. E. Aschning klassik eksperimentlari guruh bosimining individual mulohazani o‘zgartirishdagi kuchini ko‘rsatgan bo‘lsa, keyingi tadqiqotlar konformlikni faqat salbiy hodisa emas, balki guruh yaxlitligini ta’minlovchi funksional mexanizm sifatida ham talqin qilish zarurligini asoslagan.

MDH mamlakatlari psixologiyasida tashabbuskorlik muammosi I. A. Krupnov, A. Y. Polskaya, A. S. Jarikova, V. V. Alekseeva, E. I. Karamova, E. L. Nikitina, S. V. Teterskiy va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

I. A. Krupnovning tizimli-funksional yondashuvi mazkur yo‘nalishdagi eng yaxlit nazariy modellardan biri hisoblanadi: unda tashabbuskorlik shaxsning motivatsion-mazmuniy va instrumental-dinamik xususiyatlarini birlashtiruvchi yaxlit tizimli sifat sifatida talqin etiladi. Ushbu modelning metodologik afzalligi shundaki, u tashabbuskorlikni yagona umumlashgan ko‘rsatkichga emas, balki o‘zaro bog‘liq komponentlar tizimiga ajratadi va shu orqali shaxsning tashabbus profili haqida differensial ma’lumot olish imkonini beradi.

Mahalliy psixolog olimlarning (E. G‘. G‘oziyev, V. M. Karimova, G‘. B. Shoumarov, O. E. Hayitov, D. G. Muxamedova, I. I. Maxmudov, M. G. Davletshin, Z. A. Abidova va boshqalar) ilmiy izlanishlarini umumlashtirish natijasida shaxs faolligi, kasbiy motivatsiya, rahbarlik faoliyati, boshqaruv professionalizmi, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari yetakchilik va tashabbuskorlikning rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhim omillar ekanligi aniqlangan.

Xususan, G‘. B. Shoumarov rahbarning psixologik tayyorgarligida mas’uliyat, tashabbuskorlik va kommunikativ kompetentlik asosiy rol o‘ynashini ta’kidlaydi; V. M. Karimova esa rahbarlik samaradorligini shaxsning moslashuvchanligi, ijtimoiy intellekti va jamoa bilan konstruktiv munosabat o‘rnata olish qobiliyati bilan bog‘laydi. Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlarda tashabbuskorlik va yetakchilikning o‘zaro munosabati hamda ularni birgalikda belgilovchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni kompleks o‘rganishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada nazariy tahlil, tahlil-sintez, qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli yondashuv, kontent-tahlil va nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot manbai sifatida klassik faoliyat psixologiyasi vakillarining, xorijiy tashabbuskorlik va yetakchilik nazariyotchilarining, MDH mamlakatlari hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tanlab olindi.

Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlar qo‘llanildi:

(a) tashabbuskorlik yoki yetakchilik konstruktini bevosita ta’riflashi va operatsionallashtirishi;

(b) empirik tekshiruvdan o‘tgan model yoki metodikaga ega bo‘lishi;

(v) tashkiliy yoki mehnat konteksti bilan bog‘liqligi.

Tanlangan manbalar uch mezon bo‘yicha - konstruktning ta’rifi, uning determinantlari va operatsionallashtirish usuli bo‘yicha - qiyosiy tarzda umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘tkazilgan qiyosiy tahlil natijalari umumlashtirilib, tashabbuskorlik va yetakchilikni tushuntiruvchi asosiy nazariy oqimlarning metodologik imkoniyatlari va cheklovlari 1-jadvalda taqdim etildi.

1-jadval: **Tashabbuskorlik va yetakchilikni tushuntiruvchi nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili**

Yondashuv	Konstruktning talqini	Metodologik imkoniyati	Cheklovi
Faoliyat nazariyasi (Rubinshteyn, Leontev, Platonov, Shadrikov)	Faoliyat subyektining ongli, maqsadga yo‘naltirilgan faolligi shakli	Tashabbusning ichki tuzilishi va bosqichlarini ochib beradi	Individual tafovutlarni o‘lchash vositasi yetarli ishlab chiqilmagan
Dispozitsion-xarakterologik yondashuv	Shaxsning barqaror xususiyati (sifat)	Bashoratlash imkoniyati yuqori, diagnostikaga qulay	Rivojlanuvchanlik va situativlik hisobga olinmaydi
Motivatsion-kognitiv konsepsiyalar (McClelland, Rotter, Locke, Bandura)	Motiv, kutish va o‘z-o‘ziga ishonch mahsuli	Tashabbusni rivojlantirish mexanizmlarini ko‘rsatadi	Ijtimoiy-guruhiy kontekst yetarlicha qamrab olinmagan
Proaktiv xulq-atvor konsepsiyalari (Frese, Fay, Grant, Ashford)	Rasmiy talab doirasidan chiquvchi, kelajakka yo‘nalgan xulq-atvor	Tashkiliy kontekstga bevosita tatbiq etiladi	Madaniy va institutsional o‘ziga xoslik kam hisobga olinadi
Tizimli-funksional yondashuv (Krupnov)	Motivatsion-mazmuniy va instrumental-dinamik jihatlar birligi	Komponentli diagnostika va differensial profil imkoniyati	Komponentlararo sabab-oqibat aloqalari to‘liq ochilmagan

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, birorta ham yondashuv tashabbuskorlikni yakka holda to‘liq izohlay olmaydi. Faoliyat nazariyasi tashabbuskorlikning shaxs faolligi bilan bog‘liqligini umumfalsafiy va umumpsixologik darajada asoslasa, dispozitsion yondashuv uning barqaror shaxsiy zaminini, motivatsion-kognitiv hamda proaktivlik konsepsiyalari esa uning situativ va rivojlanuvchi tabiatini ochib beradi. Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi tashabbuskorlikni bir vaqtning o‘zida ham barqaror, ham rivojlanuvchan psixologik konstrukt sifatida talqin qilish imkonini beradi, bu esa kasaba uyushmalari kabi institutsional kontekstda uning namoyon bo‘lish xususiyatlarini to‘liqroq tushunishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida tashabbuskorlik va yetakchilikning o‘zaro yaqin, biroq mazmunan bir xil bo‘lmagan psixologik hodisalar ekanligi asoslab berildi. Tashabbuskorlik shaxsning mavjud vaziyat doirasidan chiqib, yangi g‘oya va harakatlarni mustaqil ravishda ilgari surishi, faoliyatni boshlashi hamda natija uchun mas’uliyatni qabul qilishi bilan tavsiflansa, yetakchilik shaxsning guruh a’zolariga ijtimoiy-psixologik ta’sir ko‘rsatishi, ularni umumiy maqsad atrofida birlashtirishi va jamoaviy faoliyatni yo‘naltira olishi orqali namoyon bo‘ladi. Boshqacha aytganda, tashabbuskorlik harakatning boshlanish nuqtasiga, yetakchilik esa uning ijtimoiy tarqalish mexanizmiga taalluqlidir.

Shu bilan birga, tashabbuskorlik yetakchilik salohiyatining namoyon bo‘lishini ta’minlovchi muhim psixologik shartlardan biri sifatida belgilandi: tashabbussiz yetakchilik formal, tashkiliy mavqega asoslangan boshqaruvga aylanib qolishi, tashabbus esa jamoaviy qo‘llab-quvvatlanmasa, individual va izolyatsiyalangan harakatga aylanib qolishi mumkin. Ushbu qarama-qarshilik kasaba uyushmasi faoliyatida ayniqsa yaqqol ko‘rinadi: bitta xodimning tashabbusi jamoaga yetkazilmasa va uni birlashtira olmasa, u real o‘zgarishga aylanmaydi.

I. A. Krupnovning tizimli-funksional modeli asosida tashabbuskorlikning sakkiz komponentli tuzilmasi kasaba uyushmasi xodimi faoliyati kontekstida operatsionallashtirildi (2-jadval). Ushbu operatsionallashtirish keyingi empirik bosqichda diagnostik natijalarni kasbiy faoliyat mazmuni bilan bog‘lab talqin qilish imkonini beradi.

2-jadval: **Tashabbuskorlik komponentlarining kasaba uyushmasi xodimi faoliyatidagi mazmuniy ifodasi**

Komponent	Psixologik mazmuni	Kasbiy faoliyatdagi ko‘rinishi
Maqsadli	Aniq maqsad qo‘yish va ustuvorliklarni ajratish	Himoya strategiyasini belgilash, muzokara maqsadini shakllantirish
Motivatsion	Tashabbusga undovchi ichki va tashqi turtkilar	Jamoa manfaatini himoya qilishga bo‘lgan ichki intilish
Kognitiv	Vaziyatni anglash, tahlil qilish, mazmunini baholash	Mehnat qonunchiligini qo‘llash, nizo sabablarini tahlil qilish
Produktiv	Tashabbusning real natijaga aylanishi	Jamoa shartnomasiga kiritilgan aniq takliflar
Dinamik	Faollikning kuchi, izchilligi va davomiyligi	Uzoq muzokaralarda qat’iyatni saqlash
Emotsional	Tashabbus bilan bog‘liq hissiy kechinmalar	Tarang vaziyatlarda hissiy barqarorlik
Regulyator	O‘z-o‘zini boshqarish va nazorat	Qabul qilingan qarorlarga izchil rioya etish
Refleksiv	O‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash	Amalga oshirilgan tadbir natijalarini tanqidiy ko‘rib chiqish

Tahlil davomida tashabbuskorlik va yetakchilikning kasaba uyushmalari faoliyati kontekstidagi o‘ziga xosligi alohida ta’kidlandi. An’anaviy tashkilotlarda tashabbuskorlik ko‘pincha individual yutuqqa yo‘nalgan bo‘lsa, kasaba uyushmalari xodimida u jamoaviy manfaatni ifodalash va himoya qilish vazifasi bilan chambarchas bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bu farq tashabbuskorlikning “nima uchun” va “kim uchun” amalga oshirilishi jihatidan tubdan boshqacha motivatsion asosga ega ekanligini ko‘rsatadi va boshqa kasbiy guruhlarda olingan natijalarni mexanik ravishda kasaba uyushmalariga ko‘chirish noto‘g‘ri bo‘lishini asoslaydi.

Nazariy tahlil natijalari asosida “konformlik - tashabbuskorlik - yetakchilik” uch a’zoli modeli taklif etildi. Ushbu modelning mohiyati quyidagicha: kasaba uyushmasi xodimi kasbiy faoliyatida bir vaqtning o‘zida ikki qutbli talabga duch keladi. Bir tomondan, u tashkilotning ichki tartib-qoidalari, guruhiy me’yorlari va boshqaruv strukturasiga moslashishi zarur - bu muayyan darajadagi konformlikni taqozo etadi. Ikkinchi tomondan, u mehnat jamoasi manfaatlarini himoya qilish, muammolarni ko‘tarib chiqish va zarur hollarda rahbariyat pozitsiyasidan farqli nuqtayi nazarni ilgari surishga tayyor bo‘lishi kerak - bu esa tashabbuskorlik va mustaqillikni talab etadi. Yetakchilik esa ushbu ikki qutb o‘rtasidagi muvozanatni boshqara olish qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi.

Taklif etilayotgan modelning metodologik ahamiyati shundaki, u konformlik va tashabbuskorlikni bir-birini istisno etuvchi qutblar sifatida emas, balki muayyan optimal nisbatga ega bo‘lgan ikki funksional resurs sifatida qarashga imkon beradi. Nazariy jihatdan, konformlikning haddan tashqari pastligi xodimni jamoadan ajratib qo‘yishi va uning tashabbuslarini institutsional qo‘llab-quvvatlashdan mahrum etishi mumkin; haddan tashqari yuqoriligi esa mustaqil pozitsiyani yo‘qotishga va adolatsizlikka qarshi ovoz ko‘tarmaslikka olib keladi. Aynan shu sababli kasaba uyushmasi xodimining psixologik portreti “o‘rtacha konformlik - yuqori tashabbuskorlik” konfiguratsiyasi bilan tavsiflanishi maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

Klassik, xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida tashabbuskorlik va yetakchilik masalalari psixologiya fanida keng o‘rganilganiga qaramay, kasaba uyushmalari xodimlarida ushbu ikki xususiyatning birgalikda namoyon bo‘lishi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar maxsus tadqiqot predmeti sifatida yetarli darajada o‘rganilmaganligi aniqlandi. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati rahbar kadrlar, ta’lim tashkilotlari rahbarlari, pedagoglar va tadbirkorlik subyektlari misolida amalga oshirilgan.

Bu holatning uchta asosiy sababi mavjud deb hisoblaymiz. Birinchidan, kasaba uyushmalari ko‘pincha huquqiy va iqtisodiy tadqiqotlar obyekti sifatida qaralib, psixologik tahlil predmeti sifatida kam tanlangan. Ikkinchidan, mazkur kasbiy guruh faoliyatining ikki tomonlama tabiati - bir vaqtning o‘zida tashkilot ichida ishlash va tashkilot rahbariyatiga nisbatan mustaqil pozitsiya egallash - an’anaviy tashkiliy psixologiya modellariga to‘liq mos kelmaydi. Uchinchidan, xorijiy tadqiqotlar natijalarini bevosita ko‘chirish mumkin emas, chunki kasaba uyushmalari harakatining institutsional roli, a’zolik darajasi va jamoa shartnomalari bilan qamrov ko‘rsatkichlari mamlakatlar bo‘yicha keskin farqlanadi.

Aniqlangan bo‘shliq empirik tadqiqot uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni belgilaydi: tashabbuskorlik komponentlarining ijtimoiy-demografik omillar (jins, yosh, oilaviy holat, ish staji, hudud) kesimidagi differensiatsiyasini aniqlash; tashabbuskorlik, konformlik, tashkilotchilik-kommunikativ qobiliyatlar va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uslublari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqliklarni o‘rganish; hamda olingan qonuniyatlar asosida rivojlantiruvchi modelni ishlab chiqish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy-metodologik tahlil quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi.

Birinchidan, tashabbuskorlik va yetakchilik shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy va ijtimoiy jihatlari bilan o‘zaro bog‘liq holda shakllanadigan, biroq mazmunan farqlanadigan ikki psixologik fenomendir: tashabbuskorlik harakatning boshlanishiga, yetakchilik esa uning ijtimoiy tarqalishiga taalluqlidir.

Ikkinchidan, ularning shakllanishida nafaqat individual, balki ijtimoiy-muhitiy va institutsional omillar ham hal qiluvchi rol o‘ynaydi; shu sababli tashabbuskorlikni faqat shaxsiy sifat sifatida diagnostika qilish yetarli emas.

Uchinchidan, kasaba uyushmalari xodimlarining o‘ziga xos kasbiy faoliyati bir vaqtning o‘zida tashkiliy me’yorlarga moslashish (konformlik) va mustaqil tashabbus ko‘rsatish (avtonomiya) talabini yuzaga keltirishi ushbu kasbiy guruhda tashabbuskorlik va yetakchilikni maxsus tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi.

To‘rtinchidan, tashabbuskorlik va yetakchilikni faqat barqaror shaxsiy xususiyat sifatida emas, balki tashkiliy muhit, kasbiy tajriba va ijtimoiy kontekst bilan uzluksiz o‘zaro ta’sirda rivojlanuvchi dinamik konstrukt sifatida talqin qilish zarurligi asoslandi; bu yondashuv mazkur sifatlarni faqat baholash emas, balki maqsadli ravishda rivojlantirish mumkinligini nazariy jihatdan ta’minlaydi.

Beshinchidan, kasaba uyushmalari xodimida tashabbuskorlikning jamoaviy manfaatni ifodalash vazifasi bilan bog‘liq o‘ziga xos motivatsion asosi uni boshqa kasbiy guruhlarda o‘rganilgan tashabbuskorlik modellaridan farqlaydi, shu sababli olingan xorijiy va umumiy nazariy natijalarni kasaba uyushmalari kontekstiga mexanik ravishda ko‘chirib bo‘lmaydi.

Oltinchidan, taklif etilgan “konformlik - tashabbuskorlik - yetakchilik” modeli va tashabbuskorlikning sakkiz komponentli operatsional tavsifi keyingi empirik bosqich uchun diagnostik apparatni tanlash va natijalarni talqin qilish mezonlarini belgilash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 6-dekabrdagi O‘RQ-588-son “Kasaba uyushmalari to‘g‘risida”gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Rubinshteyn S.L. Osnovы obshchey psixologii. - SPb.: Piter, 2002. - 720 s.
4. Leontev A.N. Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. - M.: Politizdat, 1975. - 304 s.
5. Ananev B.G. Chelovek kak predmet poznaniya. - L.: Izd-vo LGU, 1968. - 339 s.
6. Platonov K.K. Struktura i razvitiye lichnosti. - M.: Nauka, 1986. - 255 s.
7. Shadrikov V.D. Psixologiya deyatelnosti cheloveka. - M.: Institut psixologii RAN, 2013. - 464 s.
8. Krupnov I.A. Psixologicheskiye problemы issledovaniya aktivnosti cheloveka // Voprosы psixologii. - 1984. - №3. - S. 25-33.
9. Frese M., Fay D. Personal initiative: An active performance concept for work in the 21st century // Research in Organizational Behavior. - 2001. - Vol. 23. - P. 133-187.
10. Rotter J.B. Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement // Psychological Monographs. - 1966. - Vol. 80(1). - P. 1-28.
11. McClelland D.C. Human Motivation. - Cambridge: Cambridge University Press, 1987. - 663 p.
12. Locke E.A., Latham G.P. A theory of goal setting and task performance. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1990. - 413 p.
13. Bandura A. Self-efficacy: The exercise of control. - New York: W.H. Freeman, 1997. - 604 p.
14. Grant A.M., Ashford S.J. The dynamics of proactivity at work // Research in Organizational Behavior. - 2008. - Vol. 28. - P. 3-34.
15. Asch S.E. Studies of independence and conformity: A minority of one against a unanimous majority // Psychological Monographs. - 1956. - Vol. 70(9). - P. 1-70.
16. Gordon M.E., Philpot J.W., Burt R.E., Thompson C.A., Spiller W.E. Commitment to the union: development of a measure and an examination of its correlates // Journal of Applied Psychology. - 1980. - Vol. 65, №4. - P. 479-499.
17. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. - Toshkent: Universitet, 2002. - 256 b.
18. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. - Toshkent: Universitet, 1999. - 96 b.
19. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. - Toshkent: Sharq, 2008. - 296 b.
20. Sharipov H.S. Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlari namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik omillari: PhD dissertatsiyasi. - Toshkent, 2026. - 140 b.

"MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI" FANINI MUSTAQIL TA'LIM ASOSIDA O'QITISHNING O'QUV-METODIK TA'MINOTINI ISHLAB CHIQISH

Abduqahhorova Munojat Abdulxafiz qizi
Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada "Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitish uchun o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirish masalasi yoritilgan. Mustaqil topshiriqlarni bajarishda talabalarga metodik yo'nalish beruvchi uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, muqobil energiya manbalari, o'quv-metodik ta'minot, uslubiy ko'rsatma, mustaqil topshiriq, texnika fanlari.

Abstract: The article discusses the organization of students' independent learning in the course "Alternative Energy Sources". Particular attention is given to developing instructional materials and methodological guidelines that support students in completing independent and practical tasks.

Key words: independent learning, alternative energy sources, instructional materials, methodological guidelines, independent tasks, technical disciplines.

Аннотация: В статье рассматривается организация самостоятельной работы студентов при изучении дисциплины "Альтернативные источники энергии". Особое внимание уделено разработке учебно-методического обеспечения и методических рекомендаций, которые помогают студентам самостоятельно выполнять учебные и практические задания.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, альтернативные источники энергии, учебно-методическое обеспечение, методические рекомендации, самостоятельное задание, технические дисциплины.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'limda talabaning faqat auditoriyada olgan bilimlari bilan cheklanib qolmasdan, mustaqil ravishda izlanishi, kerakli ma'lumotlarni topishi va ularni amaliy faoliyatda qo'llay olishi muhim hisoblanadi. Ayniqsa, texnika yo'nalishlarida o'qitiladigan fanlarda nazariy bilim bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash alohida ahamiyatga ega. Chunki bunday fanlarni o'zlashtirishda talaba tayyor ma'lumotni bilishi bilan birga, texnik jarayonni tushunishi, hisob-kitoblarni bajarishi, qurilmalarning ishlash prinsipini tahlil qilishi va yuzaga keladigan masalaga mustaqil yechim topishi kerak.

Shu nuqtayi nazardan, "Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishni tashkil etish masalasi ham o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Mazkur fan mazmunida quyosh, shamol, gidroenergetika, biomassa, geotermal energiya va boshqa muqobil energiya manbalaridan foydalanishning nazariy hamda amaliy jihatlari o'rganiladi. Ushbu mavzularni faqat ma'ruza va tayyor o'quv materiallari asosida o'zlashtirish talabaning imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga yetarli bo'lmasligi mumkin. Talaba mustaqil ravishda turli manbalarni o'rganishi, mavjud texnologiyalarni taqqoslashi, texnik ko'rsatkichlarni tahlil qilishi va o'z xulosasini shakllantirishi zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'limda mustaqil ta'limni tashkil etish masalasi bugungi kunda talabaning o'quv jarayonidagi faolligini oshirish, o'z bilimini mustaqil boshqarishi va ta'lim natijasi uchun mas'uliyatini shakllantirish bilan bog'liq holda o'rganilmoqda.

N. Edisherashvili, K. Saks, M. Pedaste va Ä. Leijen tadqiqotlarida mustaqil ta'limning mazmuni faqat auditoriyadan tashqari bajariladigan topshiriqlar bilan chegaralanmasligi, balki talabaning o'quv maqsadini belgilashi, faoliyatini rejalashtirishi, zarur axborotni izlab topishi, o'zlashtirish jarayonini kuzatishi va yakuniy natijani baholashi bilan bog'liq yaxlit faoliyat sifatida qaralishi ta'kidlangan [1].

N. Edisherashvili, K. Saks, M. Pedaste va Ä. Leijen oliy ta'lim sharoitida o'z-o'zini boshqarib o'qishni tashkil etishda rejalashtirish, monitoring va refleksiya jarayonlarining alohida ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Mualliflarning tadqiqotlarida talaba mustaqil ishlashi uchun unga faqat o'quv materiali taqdim etilishi yetarli emasligi, balki mustaqil faoliyatni qanday tashkil etish va uning natijasini qanday baholash bo'yicha aniq metodik yo'nalish berilishi zarurligi qayd etilgan [1]. Bu fikr "Muqobil energiya manbalari" fanida mustaqil ta'lim uchun ishlab chiqiladigan o'quv-metodik materiallarda topshiriqning maqsadi, bajarish bosqichlari va kutilayotgan natijalarni aniq ko'rsatish zarurligini asoslaydi.

X. Dong, H. Yuan, H. Xue, Y. Li, L. Jia, J. Chen, Y. Shi va X. Zhang tomonidan olib borilgan tizimli tadqiqotlarda talabaning o'quv motivatsiyasi, o'ziga bo'lgan ishonchi, avvalgi bilimlari, ta'lim muhiti va o'qituvchi tomonidan beriladigan yordam kabi omillar o'z-o'zini boshqarib o'qish bilan bog'liq ekanligi ko'rsatilgan [2]. Shundan kelib chiqib, mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishda barcha talabaga bir xil mazmundagi vazifani berishdan ko'ra, ularning tayyorgarlik darajasi va mustaqil ishlash imkoniyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, texnik fanlarda topshiriqning murakkabligini bosqichma-bosqich oshirib borish talabaning mustaqil faoliyatga moslashishiga yordam beradi.

Mustaqil ta'limning raqamli muhit bilan bog'liqligi ham zamonaviy tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. R.-Z. Luo va Y.-L. Zhou raqamli va aralash ta'lim sharoitida o'z-o'zini boshqarib o'qish strategiyalarining samaradorligini o'rganib, talabaning o'quv jarayonini rejalashtirishi, o'z faoliyatini nazorat qilishi va ta'lim resurslaridan maqsadli foydalanishi mustaqil o'qish natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [3]. Shu jihatdan "Muqobil energiya manbalari" fanining o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqishda elektron darslik, videomaterial, interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriya va raqamli modellashtirish vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini hisobga olish lozim.

I. Nyirenda va C. Simuja talabalarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishda mobil ta'lim vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini tizimli ravishda tahlil qilib, mobil qurilmalar mustaqil ta'lim jarayonida axborot izlash, o'quv materiallaridan foydalanish va o'z faoliyatini nazorat qilish imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatgan [4]. Bunda texnologiyaning o'zi asosiy maqsad emas, balki talabaning mustaqil ishlashini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida qaraladi. Shuning uchun fan bo'yicha o'quv-metodik ta'minotni ishlab chiqishda raqamli resurslarni shunchaki ko'paytirish emas, balki ularni aniq mustaqil ta'lim topshiriqlari bilan bog'lash muhim hisoblanadi.

Mustaqil ta'lim jarayonida bajarilgan ishni baholash va talabaning o'z faoliyatiga qayta nazar tashlashi ham muhim masalalardan biridir. B. Ortega-Ruipérez va J. M. Correa-Gorospe oliy ta'limda texnologiyalar yordamida o'z-o'zini boshqarib o'qishni rivojlantirishda o'zaro baholash, fikr-mulohaza va refleksiya talabaning o'z faoliyatini tahlil qilishiga yordam berishini qayd etgan [5]. Bu holat mustaqil ta'lim topshiriqlarining yakunida faqat bajarilgan ishni tekshirish bilan cheklanmasdan, talabaning o'z natijasini baholashi uchun mezon va savollarni ham kiritish zarurligini ko'rsatadi.

Mustaqil ta'limni o'quv-metodik jihatdan ta'minlashda talabaning faoliyatini kuzatish masalasi ham yangi tadqiqotlarda alohida o'rin tutmoqda. S. Alhazbi, A. Al-Ali, A. Tabassum, A. Al-Ali, A. Al-Emadi, T. Khattab va M. A. Hasan oliy ta'limda o'z-o'zini boshqarib o'qishni baholashda ta'lim analitikasidan foydalanish imkoniyatlarini o'rgangan. Ularning tadqiqotlarida raqamli ta'lim muhitidagi talaba faoliyatini tahlil qilish orqali rejalashtirish, monitoring va refleksiya jarayonlarini aniqlash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan [6]. Bu yondashuv mustaqil ta'lim natijasini faqat yakuniy ball bilan baholashdan ko'ra, talabaning topshiriqni bajarish jarayonini ham hisobga olish imkonini beradi.

Shuningdek, N. Edisherashvili, K. Saks, M. Pedaste, Ä. Leijen hamda X. Dong va hammualliflarning tadqiqotlari mustaqil ta'limning mazmuni va metodik ta'minotini ishlab chiqishda talabaning mustaqilligi bilan pedagogik yo'naltirish o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ko'rsatadi [1; 2]. Mustaqil ta'lim talabaning o'z holiga tashlab qo'yilishi emas, aksincha, dastlabki bosqichlarda metodik ko'rsatma va yordam berish, keyinchalik esa talabaning mustaqilligini bosqichma-bosqich oshirishni nazarda tutadi. Shu sababli "Muqobil energiya manbalari" fanida ishlab chiqiladigan o'quv-metodik materiallarda oddiy reproduktiv topshiriqlardan boshlab, tahliliy, hisoblash, modellashtirish va kichik loyihalarga yo'naltirilgan mustaqil vazifalarga o'tish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, N. Edisherashvili, K. Saks, M. Pedaste, Ä. Leijen, X. Dong, R.-Z. Luo, Y.-L. Zhou, I. Nyirenda, C. Simuja, B. Ortega-Ruipérez, J. M. Correa-Gorospe, S. Alhazbi va boshqa tadqiqotchilar ilmiy ishlarida mustaqil ta'limning mazmuni, o'z-o'zini boshqarib o'qish, raqamli va mobil vositalardan foydalanish, o'z faoliyatini baholash, refleksiya va metodik qo'llab-quvvatlash masalalari keng yoritilgan. Biroq ushbu yondashuvlarni muayyan texnik fan mazmuni bilan bog'lab, mustaqil ta'lim uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik ta'minotning tarkibini yaxlit holda ishlab chiqish masalasi alohida e'tiborni talab qiladi. Bizning fikri-

mizcha, “Muqobil energiya manbalari” fanida bunday ta’minot fan dasturi va o‘quv materiallari bilan bir qatorda, mavzular bo‘yicha mustaqil topshiriqlar, amaliy hisob-kitoblar, texnik vaziyatlarga oid masalalar, raqamli resurslar, loyihaviy vazifalar va ularni baholash mezonlarini ham qamrab olishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Mustaqil ta’lim, o‘z-o‘zini boshqarib o‘qish, raqamli vositalardan foydalanish va baholashga oid ilmiy manbalar o‘rganilib, ularning “Muqobil energiya manbalari” faniga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilindi. Natijada mustaqil ta’lim topshiriqlarini muammoli, loyihaviy, tadqiqotchilik va amaliy yo‘nalishda tashkil etish bo‘yicha metodik yondashuvlar umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqil ta’limning samarali tashkil etilishi esa, avvalo, uning o‘quv-metodik jihatdan to‘g‘ri ta’minlanganligiga bog‘liq. Talabaga “mustaqil ishlash” topshirig‘ini berishning o‘zi yetarli emas. Topshiriqning mazmuni, bajarish tartibi, foydalaniladigan manbalar, amaliy yo‘nalishi, baholash mezonlari va kutiladigan natijalar oldindan aniq belgilanishi lozim. Ayniqsa, texnik fanlarda topshiriqlar talabaning mavjud bilim darajasiga mos bo‘lishi va uni oddiy ma’lumot izlashdan boshlab tahlil qilish, hisoblash, modellashtirish hamda amaliy yechim ishlab chiqishgacha olib borishi maqsadga muvofiq.

“Muqobil energiya manbalari” fanining mazmuni ham bunday mustaqil faoliyatni tashkil etish uchun keng imkoniyat beradi. Masalan, talaba hududdagi quyosh energiyasi salohiyatini o‘rganishi, quyosh panellarining joylashish shartlarini tahlil qilishi, kichik quvvatli quyosh elektr stansiyasi uchun hisob-kitoblar bajarishi yoki turli muqobil energiya manbalarini texnik va iqtisodiy jihatdan taqqoslashi mumkin. Bunday topshiriqlar orqali fan bo‘yicha olingan nazariy bilimlar amaliy vazifalar bilan bog‘lanadi va talabaning mustaqil ishlash tajribasi shakllanadi.

Uslubiy ko‘rsatmaning asosiy maqsadi talabalarni mustaqil ta’lim topshiriqlarini belgilangan tartibda, sifatli va samarali bajarishga yo‘naltirishdan iborat. Uslubiy ko‘rsatmada mustaqil ta’limni bajarish bosqichlari, foydalaniladigan axborot manbalari, topshiriqlarni rasmiylashtirish talablari, baholash mezonlari hamda yakuniy natijalarni taqdim etish tartibi yoritilishi kerak.

Talabalar mustaqil ta’lim topshirig‘ini bajarishda quyidagi ketma-ketlikka amal qilishi tavsiya etiladi:

1. Topshiriq mazmuni va maqsadi bilan tanishish;
2. Tavsiya etilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlarni o‘rganish;
3. Zarur ilmiy, me’yoriy-huquqiy va elektron axborot manbalarini tahlil qilish;
4. Olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish va tahliliy xulosalar ishlab chiqish;
5. Amalda bajarish tavsiya etilgan topshiriqlar bo‘yicha yo‘l-yo‘riq olib ishlash;
6. Ilmiy tadqiqotchilikka yo‘naltirilgan ishlar bilan faoliyat olib borish bo‘yicha tizimli harakatlanish;
7. Topshiriq natijalarini belgilangan talablar asosida rasmiylashtirish;
8. Belgilangan muddatda topshiriqni taqdim etish va himoya qilish (zarur hollarda).

Mustaqil ta’lim bajarishda odatiy tusga aylangan yozma referat shakl va doimiy bir xil taqdimot shakllaridan kamroq foydalanish tavsiya etiladi va aynan muammoga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim, ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim, loyihaga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim, tadqiqotchilikka yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim, to‘garakka yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim, startap loyihalarga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim kabi zamonaviy topshiriq shakllarini yanada takomillashtirish tavsiya etib, ularni talaba qanday bajarishi albatta mustaqil ta’lim bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmaga kiritiladi. Unga ko‘ra, talaba qaysi shakldagi mustaqil ta’lim topshirig‘ini tanlashni uslubiy ko‘rsatmadagi vazifalarga qarab aniqlashi va bajarishi mumkin bo‘ladi.

Uslubiy ko‘rsatmada talabaga tayyor savol emas, balki “Muqobil energiya manbalari” faniga oid aniq texnik muammo berilishi lozim. Masalan, quyosh elektr qurilmasining qishda ishlab chiqaradigan energiyasi kamayishining sabablarini aniqlash yoki shamol qurilmasining samaradorligi pasayishiga ta’sir qiluvchi omillarni topish. Talaba muammoni aniqlaydi, zarur ma’lumotlarni izlaydi, sabablarni tahlil qiladi, bir nechta yechimlarni taqqoslaydi va o‘z texnik yechimini asoslaydi. Uslubiy ko‘rsatmada muammo → ma’lumot izlash → tahlil → yechim variantlari → maqbul yechim → xulosa ketma-ketligi berilishi maqsadga muvofiq.

Ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim topshiriqlari real ishlab chiqarish yoki energetika obyektlari bilan bog‘lanadi. Masalan, korxonaning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojini quyosh panellari yordamida qoplash imkoniyatini aniqlash, mavjud energiya sarfini tahlil qilish yoki muqobil energiya qurilmasini tanlash. Talaba obyekt haqidagi ma’lumotlarni yig‘adi, energiya sarfini hisoblaydi, mos texnologiyani tanlaydi va taklifini

texnik jihatdan asoslaydi. Uslubiy ko‘rsatmada obyektni tanlash, boshlang‘ich ma’lumotlarni yig‘ish, hisoblash, texnologiyani tanlash va texnik xulosa tayyorlash tartibi ko‘rsatilishi kerak.

Talabaga ma’lum bir muqobil energiya qurilmasi yoki tizimini mustaqil loyihalash vazifasi beriladi. Masalan, xonadon uchun kichik quvvatli quyosh elektr stansiyasini loyihalash, quyosh va shamol energiyasidan foydalanadigan gibrid tizim ishlab chiqish. Talaba loyiha maqsadini belgilaydi, texnik parametrlarni tanlaydi, hisob-kitoblarni bajaradi, qurilma sxemasini ishlab chiqadi va loyihani himoya qiladi. Uslubiy ko‘rsatmada loyiha maqsadi, texnik topshirig‘i, bajarish bosqichlari, hisoblash talablari, grafik qismi va himoya mezonlari bilan ta’minlanishi lozim.

Tadqiqotchilikka yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim topshiriqlari bilan talaba muqobil energiya sohasidagi muayyan ilmiy yoki amaliy savolga javob izlaydi. Masalan, quyosh panelining qiyalik burchagi ishlab chiqariladigan energiya miqdoriga qanday ta’sir qilishini o‘rganish yoki turli turdagi quyosh panellarining samaradorligini taqqoslash. Talaba tadqiqot savolini shakllantiradi, ma’lumot yig‘adi, tajriba yoki modellashtirishni amalga oshiradi, natijalarni tahlil qiladi va xulosa chiqaradi. Uslubiy ko‘rsatmada tadqiqot muammosi, maqsad, vazifa, metod, tajriba yoki modellashtirish, natijalarni qayta ishlash va xulosa tartibi berilishi kerak.

Mustaqil ta’limni fan to‘garagi faoliyati bilan bog‘lash orqali talabaning darsdan tashqari texnik ijodkorligini rivojlantirish mumkin. Masalan, “Yosh energetik”, “Yashil energetika” yoki “Muqobil energiya texnologiyalari” to‘garagi doirasida kichik quyosh qurilmasi, mini shamol generatori yoki energiya monitoring qurilmasini yaratish topshirig‘i beriladi. Talaba topshiriqni kichik guruh yoki individual tartibda bajaradi, jarayonni qayd etadi va tayyor mahsulotni namoyish qiladi. Uslubiy ko‘rsatmada to‘garak mavzusi, amaliy topshiriq, foydalaniladigan materiallar, bajarish bosqichlari va natijani namoyish qilish shakli ko‘rsatiladi.

Startap loyihalarga yo‘naltirilgan mustaqil ta’lim topshiriqlarida talaba muqobil energiya sohasidagi texnik g‘oyani amaliy va iqtisodiy jihatdan asoslashga yo‘naltiriladi. Masalan, quyosh energiyasidan foydalanadigan kichik qurilma, energiya sarfini monitoring qiluvchi tizim yoki qishloq xo‘jaligi uchun muqobil energiya qurilmasi bo‘yicha startap g‘oyasini ishlab chiqish. Talaba muammoni aniqlaydi, yechim taklif qiladi, mahsulot yoki xizmat konsepsiyasini ishlab chiqadi, uning texnik imkoniyati va taxminiy iqtisodiy samaradorligini baholaydi. Uslubiy ko‘rsatmada muammo → g‘oya → texnik yechim → iste’molchi → xarajat → kutiladigan natija → taqdimot ketma-ketligi berilishi maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, texnika fanlarida mustaqil ta’limni samarali tashkil etish uchun talabaga faqat topshiriq berishning o‘zi yetarli emas. Talaba topshiriqni nimadan boshlashi, qanday ma’lumotlardan foydalanishi, uni qanday ketma-ketlikda bajarishi va yakunda qanday natijaga kelishi haqida aniq tasavvurga ega bo‘lishi kerak. Shu jihatdan mustaqil ta’lim bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubiy ko‘rsatmani talaba uchun o‘ziga xos “yo‘ldosh” sifatida qarash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shu sababli texnika fanlarida mustaqil ta’limni takomillashtirishning muhim shartlaridan biri sifatida mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalarni ishlab chiqish va ularni fan o‘quv-metodik ta’minotining tarkibiy qismi sifatida qo‘llashni tavsiya etamiz. Bunday yondashuv talabaning mustaqil faoliyatini tartibga solish bilan birga, uning izlanish, tahlil qilish, amaliy masalani hal etish va o‘z faoliyati natijasini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Edisherashvili N., Saks K., Pedaste M., Leijen Ä. Supporting Self-Regulated Learning in Distance Learning Contexts at Higher Education Level: Systematic Literature Review // Frontiers in Psychology. - 2022. - Vol. 12. - Art. 792422. - DOI: 10.3389/fpsyg.2021.792422.
2. Dong X., Yuan H., Xue H., Li Y., Jia L., Chen J., Shi Y., Zhang X. Factors influencing college students’ self-regulated learning in online learning environment: A systematic review // Nurse Education Today. - 2024. - Vol. 133. - Art. 106071. - DOI: 10.1016/j.nedt.2023.106071.
3. Luo R.-Z., Zhou Y.-L. The effectiveness of self-regulated learning strategies in higher education blended learning: A five years systematic review // Journal of Computer Assisted Learning. - 2024. - Vol. 40, No. 6. - P. 3005-3029. - DOI: 10.1111/jcal.13052.
4. Nyirenda I., Simuja C. The use of M-learning to foster the development of self-regulated learning in university students: A systematic review // The Independent Journal of Teaching and Learning. - 2023. - Vol. 18, No. 2. - P. 78-92. - DOI: 10.17159/ijtl.v18i2.17312.
5. Ortega-Ruipérez B., Correa-Gorospe J.M. Peer assessment to promote self-regulated learning with technology in higher education: systematic review for improving course design // Frontiers in Education. - 2024. - Vol. 9. - Art. 1376505. - DOI: 10.3389/feduc.2024.1376505.
6. Alhazbi S., Al-ali A., Tabassum A., Al-Ali A., Al-Emadi A., Khattab T., Hasan M.A. Using learning analytics to measure self-regulated learning: A systematic review of empirical studies in higher education // Journal of Computer Assisted Learning. - 2024. - Vol. 40, No. 4. - P. 1658-1674. - DOI: 10.1111/jcal.12982.

"ELEKTR TA'MINOTI" FANINI O'QITISHGA MOS YANGI INTERFAOL METOD ISHLAB CHIQISH

Baratova Madinaxon Paxridinovna
Farg'ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Maqolada "Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos "Elektr shahri" interfaol metodi taklif etilgan. Metod orqali elektr yuklamasi, iste'molchi, quvvat, liniya va transformator kabi tushunchalarni talabaning kundalik hayotidagi elektr ta'minoti misolida tushuntirish imkoniyatlari yoritilgan. Metodning talabalarda texnik va tizimli fikrlashni rivojlantirishdagi ahamiyati ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: elektr ta'minoti, "Elektr shahri", interfaol metod, elektr yuklamasi, iste'molchi, elektr quvvati, transformator.

Abstract: The article proposes the "Electric City" interactive method for teaching the "Power Supply" course. The method explains electrical load, consumers, power, lines, and transformers through real-life power supply situations. Its potential for developing students' technical and systems thinking is highlighted.

Key words: power supply, "Electric City", interactive method, electrical load, consumer, electric power, transformer.

Аннотация: В статье предложен интерактивный метод "Электрический город" для преподавания дисциплины "Электроснабжение". Рассмотрены возможности объяснения электрической нагрузки, потребителя, мощности, линий и трансформаторов на примерах повседневной системы электроснабжения. Показано значение метода в развитии технического и системного мышления студентов.

Ключевые слова: электроснабжение, "Электрический город", интерактивный метод, электрическая нагрузка, потребитель, электрическая мощность, трансформатор.

KIRISH

Bugungi kunda elektr energetikasi sohasida yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi bo'lajak energetika muhandislarini tayyorlash mazmuniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Elektr tarmoqlarining murakkablashib borishi, avtomatlashtirish vositalarining keng qo'llanilishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining elektr ta'minoti tizimlariga ulanilishi mutaxassisdan nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy fikrlash va texnik qaror qabul qilish qobiliyatini ham talab etmoqda. Shu sababli oliy ta'limda elektr energetikasiga oid fanlarni o'qitishda talabaning faqat formulalarni o'zlashtirishi emas, balki ularni real texnik vaziyatlarda qo'llay olishi muhim hisoblanadi.

"Elektr ta'minoti" fani bo'lajak energetika muhandislarini tayyorlashda asosiy kasbiy fanlardan biri bo'lib, unda elektr energiyasini ishlab chiqarish manbasidan iste'molchigacha yetkazib berish, elektr tarmoqlarining tuzilishi, yuklamalarni aniqlash, elektr qurilmalarini tanlash, kuchlanish va quvvat ko'rsatkichlarini hisoblash, elektr energiyasi sifatini ta'minlash kabi masalalar o'rganiladi. Mazkur fan mavzularining aksariyati bir-biri bilan uzviy bog'langanligi sababli talaba alohida formulani yoki qurilmaning vazifasini bilishi bilan cheklanib qolmasdan, ularning yagona elektr ta'minoti tizimidagi o'rnini tushunishi kerak.

Amaliyotda esa elektr ta'minoti fanini o'rganishda ayrim mavzularning murakkabligi sababli talabalar sxemani tasavvur qilish, elektr qurilmalarining o'zaro bog'lanishini tushunish va hisoblash natijasini real texnik jarayon bilan bog'lashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Ayniqsa, elektr ta'minoti sxemasini tuzish, iste'molchilarni elektr manbaiga ulash, transformator va himoya qurilmalarining vazifasini aniqlash kabi jarayonlarda tayyor sxemani ko'rsatishdan ko'ra, talabani sxemani o'zi tuzishga va uning har bir elementini izohlashga jalb qilish samaraliroq natija beradi. Shu jihatdan interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish elektr ta'minoti fanini o'qitishda muhim imkoniyat yaratadi. Bunda talaba dars davomida faqat tinglovchi bo'lib qolmay, sxemani tahlil qiladi, elektr qurilmalarini tanlaydi, o'z qarorini asoslaydi, guruh bilan muhokama qiladi va berilgan texnik vaziyat uchun yechim izlaydi. Ayniqsa, real elektr ta'minoti tizimlariga yaqinlashtirilgan topshiriqlar talabaning mavzuga qiziqishini oshirib, nazariy bilimning amaliy mazmunini yaxshiroq anglashiga yordam beradi.

Biroq elektr ta'minoti faniga mos interfaol metodlarni tanlashda bir muammo mavjud. Umumiy pedagogikada qo'llaniladigan "Aqliy hujum", "Klaster", "BBB" kabi metodlarni texnik fanlarga aynan o'sha shaklda ko'chirish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Chunki elektr ta'minoti fanida o'quv faoliyati sxemalar, elektr yuklamalari, qurilmalar, hisoblashlar va texnik bog'lanishlar bilan bevosita aloqador. Shuning uchun interfaol metodning o'zi ham elektr ta'minoti fanining mazmuniga moslashtirilgan bo'lishi kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Elektr muhandisligi fanlarini o'qitishda talabaning darsdagi faol ishtirokini ta'minlash masalasi zamonaviy muhandislik ta'limining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. M. Prince faol ta'limga bag'ishlangan tadqiqotida talabaning faqat tayyor ma'lumotni qabul qilishi emas, balki savolga javob topish, muammoni tahlil qilish va o'z yechimini asoslash jarayoniga faol jalb etilishi ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatgan [1].

A. Lehtovuori, M. Honkala, H. Kettunen va J. Leppävirta elektr muhandisligining asosiy fanlarini o'qitishda guruhli ish, o'zaro o'qitish va interfaol mashg'ulotlardan foydalanish imkoniyatlarini o'rgangan. Ularning tadqiqotlarida bunday yondashuvlar talabalarning darsdagi faolligi va fanga qiziqishini oshirishi, shuningdek, talabani mavzuni muhokama qilish va yechim topish jarayoniga jalb etishi qayd etilgan [2].

A. Dallal va R. M. Clark elektr muhandisligi kurslarida faol ta'limdan bosqichma-bosqich foydalanish masalasini tahlil qilib, mavzularni modellashtirish va real fizik jarayonlar bilan bog'lash zarurligini ko'rsatgan [3]. Mazkur yondashuv talabaning texnik tushunchalarni faqat nazariy jihatdan emas, balki sxema, hisoblash va amaliy jarayonlar orqali anglashiga imkon beradi.

A. Yadav, D. Subedi, M. A. Lundeberg va C. F. Bunting muammoli ta'limning elektr muhandisligi kurslaridagi samaradorligini o'rganib, talabalarni muammoni mustaqil tahlil qilish, texnik sabablarni aniqlash va o'z xulosasini asoslashga yo'naltirish tushunchalarni o'zlashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [4].

S. M. Said, F. R. M. Adikan, S. Mekhilef va N. A. Rahim elektr muhandisligi ta'limida muammoli yondashuvni qo'llash tajribasini tahlil qilib, talabalarning tanqidiy fikrlashi va muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirishda beriladigan muammoning real muhandislik faoliyatiga yaqinligi hamda o'qituvchining yo'naltiruvchi roli muhim ekanligini ko'rsatgan [5].

F. Awwad elektronika fanlarini o'qitishda faol ta'lim, loyihaviy ta'lim, simulyatsiya dasturlari va flipped classroom usullarini birgalikda qo'llash imkoniyatlarini o'rgangan. Tadqiqot natijalarida mazkur yondashuvlarning talabalarning faolligi, amaliy ko'nikmalari va umumiy o'quv natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [6].

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, elektr va elektronika muhandisligi fanlarida faol ta'lim, muammoli ta'lim, guruhli ish, loyihaviy yondashuv va simulyatsiyalardan foydalanish bo'yicha yetarlicha ilmiy tajriba mavjud. Biroq "Elektr ta'minoti" fanining o'ziga xos mazmunidan kelib chiqib, elektr ta'minoti sxemasini tuzish, iste'molchini manbaga ulash, elektr qurilmalarini tanlash hamda tizimdagi o'zgarishlarni tahlil qilishni yagona interfaol metodik jarayonga birlashtirish masalasi alohida yondashuvni talab qiladi.

Demak, mavjud ilmiy ishlarda interfaol va faol ta'limning muhandislik fanlaridagi samaradorligi asoslangan bo'lsa-da, "Elektr ta'minoti" fanining mazmuniga mos, sxema tuzish va elektr qurilmalarini funksional bog'lashga yo'naltirilgan maxsus interfaol metodni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Elektr muhandisligi fanlarida interfaol, faol va muammoli ta'limga oid ilmiy yondashuvlar o'rganilib, ularning "Elektr ta'minoti" faniga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilindi. Pedagogik modellashtirish asosida elektr ta'minoti tizimidagi asosiy tushunchalarni amaliy va hayotiy vaziyatlar orqali o'zlashtirishga yo'naltirilgan "Elektr shahri" interfaol metodi ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishda talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash muhim masalalardan biridir. Chunki ushbu fan elektr ta'minoti tizimlarining tuzilishi, elektr yuklamalarini aniqlash, tarmoq va qurilmalarni tanlash, elektr sxemalarini tuzish hamda ularning ishlashini tahlil qilish kabi o'zaro bog'liq jarayonlarni qamrab oladi. Talaba bu jarayonlarni faqat tayyor sxema va formulalar orqali o'rganishi natijasida ayrim hollarda sxemaning nima sababdan aynan shu tartibda tuzilganini yoki qurilmaning tizimdagi vazifasini to'liq tushunmasligi mumkin.

Mavjud o'qitish jarayonida talabalarga elektr ta'minoti sxemalarini tayyor holatda ko'rsatish, hisoblash formulalarini berish va ularni amaliyotda takrorlashga asoslangan topshiriqlar uchraydi. Bunday yondashuv ma'lum bilimlarni shakllantirsa-da, talabani mustaqil ravishda elektr ta'minoti sxemasini tuzish, kerakli qurilmani tanlash, qismlar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash va o'z qarorini texnik jihatdan asoslashga har doim ham yetarli darajada yo'naltirmaydi.

Muammoning yana bir tomoni shundaki, umumiy pedagogikada mavjud interfaol metodlarni "Elektr ta'minoti" faniga aynan o'sha ko'rinishda qo'llash texnik mazmunni to'liq ochib bera olmaydi. Chunki elektr ta'minoti fanida o'quv faoliyati oddiy fikr almashish bilan cheklanmaydi; bunda sxemani o'qish va tuzish, elektr qurilmalarini tanlash, ularning funksional bog'lanishini aniqlash, hisoblash va texnik natijani baholash talab etiladi.

Shu sababli asosiy muammo "Elektr ta'minoti" fanining o'ziga xos mazmuniga mos, talabani tayyor sxemani qabul qilishdan uni mustaqil shakllantirishga olib boradigan interfaol metodik yondashuvning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi bilan belgilanadi.

Mazkur muammoni hal etish uchun talabaga elektr ta'minoti tizimini qismlardan boshlab yaxlit tizimga qadar mustaqil shakllantirish imkonini beradigan yangi interfaol metodni ishlab chiqish zarur. Bunda talaba, avvalo, elektr ta'minoti elementlarini aniqlaydi, ularning vazifasini tushunadi, o'zaro bog'lanishini topadi, tegishli sxemani tuzadi va yakunda butun tizimning ishlash prinsipini izohlaydi.

"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishda talabalarga elektr yuklamasi, iste'molchi, elektr quvvati, liniya va transformator o'rtasidagi bog'lanishlarni tushuntirish uchun "Elektr shahri" interfaol metodini taklif qilamiz. Metodning asosiy g'oyasi elektr ta'minoti tizimini shahar hayotiga o'xshatishdan iborat. Bunda elektr energiyasidan foydalanayotgan har bir iste'molchi shahardagi o'z faoliyatiga ega bo'lgan obyekt sifatida tasavvur qilinadi.

"Elektr shahri" interfaol metodining asosiy maqsadi - talabalarda elektr ta'minoti tizimining asosiy tushunchalarini obrazli va amaliy faoliyat orqali shakllantirish, ayniqsa "yuklama" tushunchasini kuchlanish va ortiqcha yuklanishdan farqlash hamda iste'molchining elektr tarmog'idan talab qilayotgan quvvatini anglashiga erishishdan iborat.

Metodda elektr ta'minoti tizimining har bir elementi shaharning muayyan obyekti bilan bog'lanadi. Masalan, iste'molchi - shahar obyekti, elektr liniyasi - obyektlarga olib boruvchi yo'l, transformator - elektr ta'minotini moslashtiruvchi markaz, elektr quvvati - obyektlarning ishlashi uchun yetkazib beriladigan imkoniyat, yuklama esa obyektning elektr tarmog'idan talab qilayotgan quvvati sifatida tasavvur qilinadi.

Metodning muhim jihati shundaki, talaba "yuklama" tushunchasini tayyor ta'rif orqali yodlamaydi. U, avvalo, chiroq yoritayotganini, dvigatel aylanayotganini, pech isitayotganini, nasos suv haydayotganini kuzatadi va ushbu qurilmalarning barchasi o'z vazifasini bajarish uchun elektr tarmog'idan quvvat talab qilayotganini aniqlaydi. Shu asosda yuklama tushunchasi tabiiy ravishda shakllantiriladi.

Metod quyidagi mantiqiy ketma-ketlikka asoslanadi:

Iste'molchi → nima qilmoqda? → buning uchun nima talab qilmoqda? → qancha quvvat talab qilmoqda? → yuklama.

Shuningdek, iste'molchilar soni yoki ularning quvvat talabi ortib, liniya yoki transformatorning imkoniyatidan yuqori darajaga yetganda, "Elektr shahri"dagi talabning ortishi real elektr tizimidagi ortiqcha yuklanish holati bilan bog'lanadi. Shu orqali talaba yuklama va ortiqcha yuklanish tushunchalarining farqini amaliy vaziyat asosida anglaydi.

Demak, "Elektr shahri" metodida elektr ta'minotining murakkab texnik tushunchalari hayotiy obraz, harakat va vaziyatlar orqali oddiylashtiriladi, biroq ularning ilmiy mazmuni saqlab qolinadi. Metod talabalarni faqat tinglashga emas, balki kuzatish, taqqoslash, sababni aniqlash, hisoblash va xulosa chiqarishga jalb etadi.

"Elektr shahri" interfaol metodini qo'llashda elektr ta'minoti tizimidagi tushunchalarni talabaga tayyor ta'rif sifatida berish emas, balki ularni hayotiy vaziyatlar orqali anglatish asos qilib olinadi. Bunda elektr ta'minoti tizimi shartli ravishda shaharga qiyoslanadi: elektr manbai energiya bilan ta'minlovchi markaz, transformator moslashtiruvchi bo'g'in, liniyalar energiyani yetkazib beruvchi yo'llar, iste'molchilar esa shahardagi turli faoliyatni amalga oshiruvchi obyektlar sifatida tasavvur qilinadi.

Metodning dastlabki bosqichida talabalar turli iste'molchilarning elektr energiyasidan nima maqsadda foydalanishini aniqlaydilar. Masalan, chiroq yoritadi, dvigatel harakat hosil qiladi, pech isitadi, nasos esa suvni haydaydi. Shundan kelib chiqib, ushbu qurilmalarning barchasi o'z vazifasini bajarish uchun elektr tarmog'idan ma'lum miqdorda quvvat talab qilishi tushuntiriladi. Shu jarayonda yuklama iste'molchining elektr tarmog'idan talab qilayotgan quvvati sifatida shakllantiriladi.

Keyingi bosqichda bir nechta iste'molchilarning quvvatlari yig'ilib, umumiy yuklama aniqlanadi va uning liniya hamda transformator imkoniyatlariga mosligi baholanadi. Agar iste'molchilarning talabi qurilmaning ruxsat etilgan imkoniyatidan oshib ketsa, bu holat ortiqcha yuklanish bilan bog'lanadi. Shu orqali talabalar yuklama, kuchlanish va ortiqcha yuklanish tushunchalarini bir-biridan farqlash imkoniga ega bo'ladilar.

Metodning yakunida talabalarga elektr ta'minoti tizimiga oid muammoli vaziyat berilib, ular yuklamani hisoblash, tegishli qurilmani tanlash va o'z texnik yechimini asoslashga yo'naltiriladi. Natijada mavzu oddiy nazariy tushuntirishdan amaliy fikrlashga o'tadi va talabalarda elektr ta'minoti tizimini yaxlit holda tasavvur qilish, texnik bog'lanishlarni anglash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

"Elektr shahri" interfaol metodini faqat elektr yuklamasi mavzusini tushuntirish bilan cheklab qolmasdan, "Elektr ta'minoti" fanining deyarli barcha asosiy mavzularini yagona hayotiy tizim orqali yoritishda qo'llash mumkin. Metodning qulay tomoni shundaki, talaba elektr ta'minoti tizimini o'zi yashayotgan uy, mahalla, ko'cha,

universitet yoki ishlab chiqarish korxonasi misolida tasavvur qiladi. Shu sababli nazariy tushuncha talaba uchun mavhum bo‘lib qolmaydi, balki kundalik hayotida ko‘rib turgan jarayon bilan bog‘lanadi.

Masalan, talaba o‘z uyidagi elektr ta’minotini “kichik elektr shahri” sifatida tasavvur qiladi. Uyga elektr energiyasi qayerdan keladi, qanday liniya orqali uzatiladi, transformatorning vazifasi nimadan iborat, elektr hisoblagich qayerda joylashgan, qanday iste’molchilar mavjud va ularning har biri qancha quvvat talab qiladi - shu savollar asosida oddiy elektr ta’minoti sxemasi shakllantiriladi. Keyinchalik bu model mahalla, universitet binosi yoki ishlab chiqarish korxonasi miqyosiga kengaytiriladi.

Metodning yana bir afzalligi - bir xil obrazni fan davomida saqlab qolish imkoniyatidir. Dastlab uy yoki universitet elektr shahri sifatida qaralsa, keyingi mavzularda ushbu shahar kengaytiriladi: yangi iste’molchi qo‘shiladi, yuklama ortadi, yangi transformator zarur bo‘ladi, liniya uzunligi o‘zgaradi yoki quyosh fotoelektrik qurilmasi tizimga ulanadi. Talaba har bir yangi mavzuni oldingi bilimlari bilan bog‘lab boradi.

Shu sababli “Elektr shahri” metodini elektr ta’minoti sxemalari, elektr yuklamalarini aniqlash, transformatorlarni tanlash, elektr tarmoqlarini loyihalash, kuchlanish yo‘qotishlari, qisqa tutashuv, himoya apparatlari, elektr energiyasi sifati va energiya tejamkorligi kabi mavzularni o‘qitishda izchil qo‘llash mumkin.

Metodning asosiy afzalligi shundaki, talaba elektr ta’minotini faqat darslikdagi sxema sifatida emas, o‘zi yashayotgan uyda, o‘qiyotgan universitetda yoki faoliyat yuritayotgan korxonada har kuni ishlayotgan real tizim sifatida ko‘ra boshlaydi. Shu orqali nazariy bilim bilan amaliy hayot o‘rtasidagi bog‘lanish kuchayadi va “Elektr ta’minoti” fanini yaxlit tizim sifatida o‘zlashtirish uchun qulay sharoit yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Elektr shahri” interfaol metodi “Elektr ta’minoti” fanidagi murakkab texnik tushunchalarni talabaning kundalik hayoti bilan bog‘lab tushuntirish imkonini beradi. Metodning asosiy afzalligi shundaki, elektr ta’minoti tizimi mavhum sxema sifatida emas, balki talaba o‘zi yashayotgan uy, mahalla, universitet yoki ishlab chiqarish korxonasida bevosita foydalanayotgan real tizim sifatida tasavvur qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Prince M. Does Active Learning Work? A Review of the Research // Journal of Engineering Education. - 2004. - Vol. 93, No. 3. - P. 223-231. DOI: 10.1002/j.2168-9830.2004.tb00809.x.
2. Lehtovuori A., Honkala M., Kettunen H., Leppävirta J. Promoting Active Learning in Electrical Engineering Basic Studies // International Journal of Engineering Pedagogy. - 2013. - Vol. 3, Special Issue 3. - P. 5-12. DOI: 10.3991/ijep.v3iS3.2653.
3. Dallal A., Clark R. M. Progressive Use of Active Learning in Electrical Engineering Courses // 2019 ASEE Annual Conference & Exposition. - Tampa, 2019. DOI: 10.18260/1-2-33201.
4. Yadav A., Subedi D., Lundeberg M. A., Bunting C. F. Problem-based Learning: Influence on Students’ Learning in an Electrical Engineering Course // Journal of Engineering Education. - 2011. - Vol. 100, No. 2. - P. 253-280. DOI: 10.1002/j.2168-9830.2011.tb00013.x.
5. Said S. M., Adikan F. R. M., Mekhilef S., Rahim N. A. Implementation of the Problem-Based Learning Approach in the Department of Electrical Engineering, University of Malaya // European Journal of Engineering Education. - 2005. - Vol. 30, No. 1.
6. Awwad F. Enhancing Electronics Courses Education: Active Learning Strategies for Undergraduate Engineering Students // International Journal of Engineering Pedagogy. - 2025. - Vol. 15, No. 2. DOI: 10.3991/ijep.v15i2.51739.

"MUQOBIL ENERGIYA MANBALARI" FANINI O'QITISH METODIKASINI KOMPETENSIYAVIY VA RAQAMLI YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Jumayeva Farzona Behzodjon qizi
Farg'ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Maqolada "Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish masalasi yoritilgan. Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli modellashtirish, virtual laboratoriyalar, amaliy topshiriqlar va mustaqil ta'lim imkoniyatlaridan foydalanish yo'llari asoslangan. Fan mazmunini kompetensiyalar bilan uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan metodik yondashuv taklif etilgan.

Kalit so'zlar: muqobil energiya, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta'lim, raqamli modellashtirish, virtual laboratoriya, kasbiy kompetensiya, mustaqil ta'lim.

Abstract: The article examines the improvement of teaching the course "Alternative Energy Sources" based on competency-based and digital approaches. The use of digital modeling, virtual laboratories, practical tasks, and independent learning to develop students' professional competencies is substantiated. A methodological approach aimed at integrating course content with the competencies to be developed is proposed.

Key words: alternative energy, competency-based approach, digital learning, digital modeling, virtual laboratory, professional competence, independent learning.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы совершенствования методики преподавания дисциплины "Альтернативные источники энергии" на основе компетентностного и цифрового подходов. Обосновано использование цифрового моделирования, виртуальных лабораторий, практических заданий и самостоятельного обучения для развития профессиональных компетенций студентов. Предложен методический подход, направленный на интеграцию содержания дисциплины с формируемыми компетенциями.

Ключевые слова: альтернативная энергетика, компетентностный подход, цифровое обучение, цифровое моделирование, виртуальная лаборатория, профессиональная компетентность, самостоятельное обучение.

KIRISH

Bugungi kunda energetika sohasida yuz berayotgan jadal o'zgarishlar, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ko'lamining kengayishi va energetik tizimlarga zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi bo'lajak energetika muhandislarini tayyorlash mazmuniga yangi talablarni qo'ymoqda. Quyosh, shamol, biomassa, geotermal va kichik gidroenergetik qurilmalardan samarali foydalanish, ularni loyihalash, texnik holatini baholash hamda energiya samaradorligini aniqlash bo'yicha yetarli bilim va amaliy ko'nikmaga ega mutaxassislarni tayyorlash bugungi oliy ta'limning muhim vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Energetika yo'nalishlarida o'qitiladigan "Muqobil energiya manbalari" fani talabalarda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining ishlash prinsiplari, ularning texnik imkoniyatlari, energiya ishlab chiqarish jarayonlari va samaradorlik ko'rsatkichlari haqida bilimlarni shakllantirish bilan bir qatorda, ushbu bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli mazkur fanni o'qitishda faqat nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishga asoslangan yondashuvdan voz kechib, talabaning mustaqil fikrlashi, texnik muammolarni aniqlashi, muqobil yechimlarni taqqoslashi va amaliy qaror qabul qilishi uchun sharoit yaratish zarur.

Mazkur jarayonda kompetensiyaviy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv ta'lim natijasini talabaning qancha ma'lumotni eslab qolganligi bilan emas, balki egallagan bilimlarini kasbiy faoliyatda qay darajada qo'llay olishi bilan baholash imkonini beradi. "Muqobil energiya manbalari" fanini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishda talabalarning texnik, texnologik, loyihaviy, axborot-digital, muammolarni hal qilish va mustaqil faoliyat yuritish kompetensiyalarini birgalikda rivojlantirish muhim hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish masalasi, avvalo, energetika sohasida yuz berayotgan texnologik o'zgarishlar va bo'lajak muhandislarga qo'yilayotgan kasbiy talablar bilan bog'liq. Muhandislik ta'limiga oid tadqiqotlarda zamonaviy muhandis faqat texnik bilimlarni egallagan mutaxassis emas, balki bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llay oladigan, muammolarni hal qiladigan va o'z faoliyatini mustaqil tashkil eta oladigan kompetent mutaxassis bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi [1].

Muhandislik ta'limida kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'yicha olib borilgan tizimli tahlillar ham ta'lim natijasini faqat nazariy bilim bilan emas, balki shakllangan amaliy va kasbiy kompetensiyalar orqali baholash zarurligini ko'rsatadi [1; 2].

Kompetensiyaviy ta'limning muhim jihati talabaning tayyor ma'lumotni o'zlashtirishi emas, balki o'rgangan bilimini yangi vaziyatda qo'llay olishidir. Muhandislik oliy ta'limida kompetensiyaga asoslangan ta'limni o'rganishga bag'ishlangan sharhda talabaning ta'limdagi rivojlanishi aniq natijalar, amaliy ko'nikmalar va ularni baholash vositalari bilan bog'lanishi zarurligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuvni muhandislik ta'limiga tatbiq etishda kompetensiyalarni aniqlash, ularni shakllantirishga mos topshiriqlarni ishlab chiqish va natijalarni obyektiv baholash masalalari hali ham dolzarb ekanligi qayd etiladi [2].

Qayta tiklanuvchi energiya ta'limiga bag'ishlangan tadqiqotlarda esa nazariy mashg'ulotlarni amaliy tajribalar bilan birlashtirish muhimligi ko'rsatilgan. Muhandislik talabalariga qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini o'rgatishda amaliy laboratoriya mashg'ulotlari, tajribalar va loyihalardan foydalanish talabalarning texnologiyalarni tushunishi hamda kelajakdagi energetika faoliyatiga tayyorlanishiga yordam berishi aniqlangan [3]. Bunday yondashuv "Muqobil energiya manbalari" fanining mazmuni uchun ayniqsa muhim, chunki quyosh, shamol, biomassa va boshqa energiya texnologiyalarini faqat nazariy jihatdan o'rganish ularning real ishlash jarayonini to'liq anglash uchun yetarli emas.

Muqobil energiya ta'limida raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari ham alohida tadqiq etilgan. Xususan, muhandislik ta'limi uchun qayta tiklanuvchi energiya bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqishda virtual laboratoriyadan foydalanish imkoniyati ko'rib chiqilgan. Bunday laboratoriya nazariy material, amaliy tajriba va elektron ta'lim muhitini birlashtirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan [4]. Bu tajriba "Muqobil energiya manbalari" fanida real qurilmalardan foydalanish imkoniyati cheklangan holatlarda virtual tajribalarni tashkil etish uchun metodik asos bo'la oladi.

Ayniqsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari asosidagi mikrogridlarni o'qitishga mo'ljallangan web-platforma va virtual laboratoriya bo'yicha olib borilgan tadqiqot e'tiborga loyiq. Unda LabVIEW, MATLAB, Simulink va boshqa raqamli vositalar asosida quyosh va shamol energetikasi, quvvat elektronikasiga oid qurilmalar, akkumulyatorlarni boshqarish va mikrogridlar bo'yicha virtual tajribalar ishlab chiqilgan. Tajriba natijalarida bunday virtual laboratoriyadan foydalanish talabalarning qayta tiklanuvchi energiyaga qiziqishi, xabardorligi va bilimlarini oshirgani ko'rsatilgan [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qayta tiklanuvchi energetika fanlarini o'qitishda muammoli va loyihaviy ta'limdan foydalanish ham samarali yo'nalish sifatida ko'rilmoqda. Tadqiqotlarda muammoga asoslangan ta'lim talabaning real energetik vaziyatlarni tahlil qilishi, muammoning sabablarini aniqlashi, texnik yechimlarni ishlab chiqishi va o'z qarorini asoslashiga imkon berishi qayd etilgan. Loyihaviy yondashuv esa talabaning bilimlarini alohida mavzular doirasida emas, balki yaxlit muhandislik vazifasi doirasida qo'llashiga sharoit yaratadi [6].

So'nggi tadqiqotlarda esa qayta tiklanuvchi energiya muhandisligi ta'limida an'anaviy, tajribaga asoslangan, loyihaviy va aralash pedagogik yondashuvlarning samaradorligini taqqoslashga e'tibor kuchaymoqda. 2026-yilda e'lon qilingan tadqiqotda turli pedagogik yondashuvlarning turli tayyorgarlik darajasiga ega talabalar uchun ta'siri o'rganilgan bo'lib, qayta tiklanuvchi energiya kabi texnik jihatdan murakkab va fanlararo mazmunga ega sohada yagona o'qitish usulidan ko'ra turli yondashuvlarni uyg'unlashtirish masalasi muhimligi ko'rsatib berilgan [7].

Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng kirib kelishi fanni o'qitish metodikasini yangi vositalar bilan boyitish imkonini bermoqda. Virtual laboratoriyalar, raqamli simulyatorlar, interaktiv ta'lim platformalari, kompyuter modellashtirish dasturlari va masofaviy ta'lim vositalari yordamida talaba real energetik qurilmalar faoliyatini modellashtirishi, turli parametrlarni o'zgartirib natijalarni kuzatishi va o'zining nazariy xulosalarini amaliy jihatdan tekshirishi mumkin. Ayniqsa, quyosh fotoelektrik qurilmalari, shamol turbinalari, gibrid energetik tizimlar va energiya saqlash qurilmalarini modellashtirish imkoniyatlari fanning amaliy yo'nalishini kuchaytiradi.

Biroq mavjud ta'lim amaliyotida kompetensiyaviy yondashuv bilan raqamli ta'lim imkoniyatlarining bir-biridan alohida qo'llanilishi kuzatiladi. Ya'ni ayrim hollarda raqamli vosita faqat axborot yetkazish vositasi sifatida

ishlatilsa, boshqa holatlarda talabaning shakllantirishi lozim bo‘lgan aniq kompetensiyalari yetarlicha hisobga olinmaydi. Natijada raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘zi ta’lim samaradorligini kafolatlamaydi. Muhim masala – raqamli vositani muayyan kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiladigan o‘quv topshirig‘i, amaliy vazifa va baholash mezoni bilan bog‘lashdir.

Shundan kelib chiqib, “Muqobil energiya manbalari” fanini o‘qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirishda fan mazmunini qayta ko‘rib chiqish, mavzularni kasbiy faoliyat bilan bog‘lash, raqamli modellashtirish va virtual laboratoriyalardan maqsadli foydalanish, mustaqil ta’lim topshiriqlarini amaliy muammolar asosida shakllantirish hamda talabalarning kompetensiyalarini aniq mezonlar asosida baholash zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Muqobil energiya manbalari” fanini o‘qitish jarayonida talabalarga qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarining nazariy asoslarini yetkazish bilan bir qatorda, ularni real energetik masalalarni mustaqil tahlil qilish, texnik yechimlarni ishlab chiqish va zamonaviy raqamli vositalardan foydalanishga o‘rgatish zarur. Biroq amaldagi ta’lim jarayonida fan mazmuni, shakllantiriladigan kompetensiyalar va foydalaniladigan raqamli texnologiyalar o‘rtasidagi bog‘liqlik har doim ham yetarli darajada ta’minlanmaydi.

Muammoning yana bir jihati shundaki, raqamli vositalardan foydalanish ko‘pincha ta’lim mazmunini namoyish etish yoki axborot yetkazish bilan cheklanib qolmoqda. Vaholanki, raqamli texnologiyalar talabaning texnik kompetentligini shakllantirishga xizmat qiladigan amaliy topshiriq, modellashtirish, virtual tajriba va mustaqil izlanish bilan bog‘langandagina pedagogik jihatdan samarali natija beradi.

Shuningdek, “Muqobil energiya manbalari” fanining ayrim mavzularida talabaning amaliy faoliyatini tashkil etish, real energetik obyektlarni modellashtirish, turli texnik parametrlarni tahlil qilish va olingan natijalarni baholash imkoniyatlari yetarlicha tizimlashtirilmagan. Natijada talaba quyosh, shamol, kichik gidroenergetika yoki gibrid energetik tizimlarning ishlash prinsiplarini nazariy jihatdan bilishi mumkin, biroq ushbu bilimlarni muayyan texnik vaziyatda mustaqil qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladi.

Shu sababli asosiy muammo “Muqobil energiya manbalari” fanining mazmuni, kompetensiyaviy maqsadlari, raqamli ta’lim vositalari, amaliy topshiriqlar va baholash mezonlari o‘rtasida yagona metodik tizimning yetarli darajada shakllantirilmaganligi bilan belgilanadi.

Mazkur muammoni hal etish uchun fan mavzularini shakllantiriladigan kasbiy kompetensiyalar bilan muvofiqlashtirish, har bir mavzu uchun tegishli raqamli vositalarni tanlash, virtual laboratoriya va modellashtirishga asoslangan topshiriqlarni ishlab chiqish hamda talabaning o‘zlashtirish natijasini kompetensiyaviy mezonlar asosida baholashga yo‘naltirilgan yaxlit metodik tizimni ishlab chiqish zarur. Ana shu metodik yondashuv “Muqobil energiya manbalari” fanini o‘qitish samaradorligini oshirish va bo‘lajak energetika muhandislarining amaliy-kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

“Muqobil energiya manbalari” fanini o‘qitish jarayonini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida qayta tashkil etish taklif etiladi. Bunda raqamli texnologiya alohida vosita sifatida emas, balki talabaning muayyan kasbiy kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladigan ta’lim elementi sifatida qaraladi.

Birinchi navbatda, fan mavzulari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o‘zaro muvofiqlashtiriladi. Masalan, quyosh energetikasi mavzusida texnik hisoblash va loyihalash kompetensiyasi, shamol energetikasida texnik parametrlarni tahlil qilish kompetensiyasi, gibrid energetik tizimlarda esa muammoli vaziyatlarni hal qilish va tizimli fikrlash kompetensiyasi shakllantirilishi ko‘zda tutiladi.

Ikkinchidan, har bir mavzu uchun “mavzu – kompetensiya – raqamli vosita – amaliy topshiriq – baholash” ketma-ketligi asosida metodik ta’minot ishlab chiqiladi. Bunda talaba mavzuni o‘zlashtirgandan so‘ng uni amaliy vaziyatda qo‘llaydi, raqamli muhitda modellashtiradi va olingan natijalarni tahlil qiladi.

Uchinchidan, ta’lim jarayoniga virtual laboratoriyalar va raqamli modellashtirish kengroq kiritiladi. Quyosh fotoelektrik tizimi, shamol turbinasining ishlash rejimi, gibrid energetik tizimlar, energiya saqlash qurilmalari kabi obyektlarni virtual muhitda modellashtirish orqali talaba turli parametrlarni o‘zgartirib, ularning tizim samaradorligiga ta’sirini kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

To‘rtinchidan, talabalarning mustaqil ta’limi real energetik muammolarga asoslangan topshiriqlar bilan boyitiladi. Masalan, ma’lum bir hudud uchun quyosh elektr stansiyasining quvvatini tanlash, energiya ishlab chiqarish hajmini hisoblash, optimal qurilma parametrlarini aniqlash yoki quyosh va shamol energiyasidan birgalikda foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish kabi topshiriqlar beriladi. Bu orqali talaba tayyor formulani qo‘llashdan ko‘ra, muammoni o‘zi tahlil qilish va yechim ishlab chiqishga yo‘naltiriladi.

Beshinchidan, baholash mezonlari ham kompetensiyaga yo‘naltiriladi. Talabaning faqat nazariy bilimlari emas, balki texnik hisoblashni amalga oshirishi, raqamli vositalardan foydalanishi, natijalarni tahlil qilishi, muammoni mustaqil hal qilishi va o‘z texnik qarorini asoslay olishi baholanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitishda kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlarni uyg'unlashtirish bo'lajak energetika muhandislarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Tadqiqot davomida fan mazmunini shakllantiriladigan kompetensiyalar bilan bog'lash, raqamli vositalardan maqsadli foydalanish, virtual laboratoriya va modellashtirish asosidagi amaliy topshiriqlarni joriy etish zarurligi asoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pachera C., Woschank M., Zunk B. M., Gruber E. Engineering education 5.0: a systematic literature review on competence-based education in the industrial engineering and management discipline // International Journal of Engineering Education. – 2024. DOI: 10.1080/21693277.2024.2337224.
2. Henri M., Johnson M. D., Nepal B. A Review of Competency-Based Learning: Tools, Assessments, and Recommendations // Journal of Engineering Education. – 2017. – Vol. 106, No. 4. – P. 607–638. DOI: 10.1002/jee.20180.
3. Yang Y., Li L. Exposing Engineering Students to Renewable Energy through Hands-On Experiments // American Journal of Engineering Education. – 2013. – Vol. 4, No. 2. – P. 127–140.
4. Designing of a Renewable Energy Training Programme for Engineering Education // Procedia Technology. – 2014. – Vol. 12. – P. 753–758. DOI: 10.1016/j.protcy.2013.12.559.
5. Engaging Renewable Energy Education Using a Web-Based Interactive Microgrid Virtual Laboratory // IEEE Access. – 2022. – Vol. 10. – P. 60972–60984. DOI: 10.1109/ACCESS.2022.3181200.
6. Problem based learning and design thinking methodologies for teaching renewable energy in engineering programs: Implementation in a Colombian university context // Cogent Education. – 2023. DOI: 10.1080/2331186X.2023.2164442.
7. Vivek C. M., Srividhya P. K., Ramkumar P., Balakumar P. Comparative analysis of conventional, experiential, project-based, and blended pedagogies across diverse learner groups in undergraduate renewable energy engineering education // International Journal of Energy Research. – 2026. DOI: 10.1177/03064190261457741.

OILADA BOLALARNING EMOTSIONAL RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
19.00.01. Psixologiya tarixi va nazariyasi
Umumiy psixologiya, Shaxs psixologiyasi ixtisosligi bo'yicha mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning oiladagi emotsional rivojlanishining asosiy psixologik omillari, ayniqsa ota-onalarning emotsional sezgirligi, bog'lanish sifati, ota-onalik uslublari, oilaviy muloqot, emotsional muhit, ota-onaning psixologik farovonligi va bolaning individual xususiyatlariga e'tibor qaratilgan. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional rivojlanish bitta omil bilan belgilanmaydi, balki biologik moyilliklar, ota-ona va bola munosabatlari, oilaviy amaliyotlar va kengroq ijtimoiy muhitning uzluksiz o'zaro ta'siri orqali yuzaga keladi. Maqolada bolalar rad etilish yoki jazolanishdan qo'rqmasdan his-tuyg'ularini ifoda eta oladigan psixologik jihatdan xavfsiz oilaviy muhitni yaratish muhimligi ta'kidlangan. Ushbu determinantlarni tushunish, ayniqsa, bolalarning emotsional qobiliyatini, chidamliligini va uzoq muddatli psixososyal farovonligini mustahkamlashga qaratilgan dalillarga asoslangan psixologik va ta'lim aralashuvlarini ishlab chiqish uchun juda muhimdir.

Kalit so'zlar: bolalarning emotsional rivojlanishi, oilaviy muhit, psixologik determinantlar, emotsional tartibga solish, bog'lanish, ota-onalik uslubi, ota-onaning javob berish qobiliyati, oilaviy muloqot, emotsional muhit, bolalar farovonligi, emotsional qobiliyat, chidamlilik.

Abstract: This article focuses on the main psychological factors of children's emotional development in the family, especially parents' emotional sensitivity, attachment quality, parenting styles, family communication, emotional environment, parents' psychological well-being, and individual characteristics of the child. Modern psychological research suggests that emotional development is not determined by a single factor, but occurs through the continuous interaction of biological predispositions, parent-child relationships, family practices, and the broader social environment. The article emphasizes the importance of creating a psychologically safe family environment in which children can express their feelings without fear of rejection or punishment. Understanding these determinants is particularly important for the development of evidence-based psychological and educational interventions aimed at strengthening children's emotional capacity, resilience, and long-term psychosocial well-being.

Key words: children's emotional development, family environment, psychological determinants, emotional regulation, attachment, parenting style, parental responsiveness, family communication, emotional environment, child well-being, emotional competence, resilience.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные психологические факторы эмоционального развития детей в семье, в частности эмоциональная чувствительность родителей, качество привязанности, стили воспитания, семейное общение, эмоциональная среда, психологическое благополучие родителей и индивидуальные особенности ребенка. Современные психологические исследования показывают, что эмоциональное развитие определяется не одним фактором, а происходит в результате непрерывного взаимодействия биологических предрасположенностей, взаимоотношений между родителями и детьми, семейных практик и более широкой социальной среды. В статье подчеркивается важность создания психологически безопасной семейной среды, в которой дети могут выражать свои чувства, не опасаясь отвержения или наказания. Понимание этих детерминантов особенно важно для разработки научно обоснованных психологических и образовательных вмешательств, направленных на укрепление эмоционального потенциала детей, их устойчивости и долгосрочного психосоциального благополучия.

Ключевые слова: эмоциональное развитие детей, семейная среда, психологические детерминанты, эмоциональная регуляция, привязанность, стиль воспитания, родительская отзывчивость, семейное общение, эмоциональная среда, благополучие ребенка, эмоциональная компетентность, устойчивость.

KIRISH

Emotsional rivojlanish bolalik rivojlanishining markaziy o‘lchovidir, chunki u bolalarning o‘zlarini qanday tushunishiga, munosabatlarni o‘rnatishiga, stressli vaziyatlarga qanday munosabatda bo‘lishiga va o‘zgaruvchan ijtimoiy muhitga moslashishiga ta’sir qiladi. Bolalik davrida shaxslar asta-sekin emotsional holatlarni aniqlash va farqlash, his-tuyg‘ularni ijtimoiy jihatdan mos ravishda ifoda etish, emotsional reaktsiyalarni tartibga solish, boshqalarning his-tuyg‘ularini tushunish va qaror qabul qilishda va shaxslararo muloqotda emotsional ma’lumotlardan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu qobiliyatlar psixologik chidamlilik, ijtimoiy qobiliyat, akademik moslashuv va keyinchalik ruhiy farovonlik uchun muhim asos yaratadi. Natijada, bolalarning emotsional rivojlanishini belgilovchi omillarni o‘rganish zamonaviy rivojlanish va oilaviy psixologiyada tobora muhim masalaga aylanib bormoqda.

Oila bu jarayonda ayniqsa muhim o‘rin tutadi. Boshqa ko‘plab ijtimoiy muhitlardan farqli o‘laroq, oila bolalarga rivojlanishning eng dastlabki va eng sezgir davrlarida uzluksiz shaxslararo muloqotni ta’minlaydi. Ota-onalar va boshqa oila a’zolari bilan kundalik muloqot orqali bolalar kattalarning g‘azab, mehr, umidsizlik, xavotir, hamdardlik va boshqa his-tuyg‘ularni qanday ifoda etishini kuzatadilar. Ular shuningdek, his-tuyg‘ular qanday muhokama qilinishi, talqin qilinishi, qabul qilinishi yoki bostirilishini o‘rganadilar. Shunday qilib, oila nafaqat ijtimoiylashuv instituti, balki bolalarning emotsional xatti-harakatlarining birinchi modellarini rivojlantiradigan muhim emotsional o‘rganish muhiti sifatida ham ishlaydi.

Zamonaviy rivojlanish psixologiyasi bolalarning emotsional rivojlanishini tobora ko‘proq individual xususiyatlar va atrof-muhit ta’siri o‘rtasidagi dinamik o‘zaro ta’sir natijasi sifatida ko‘rib chiqmoqda. Bolaning fe’l-atvori, biologik sezgirligi, kognitiv rivojlanishi va oldingi tajribalari emotsional reaktsiyalarga ta’sir qilishi mumkin; ammo, bu xususiyatlar ma’lum munosabatlar va ijtimoiy sharoitlarda rivojlanadi. Shuning uchun ota-ona va bola munosabatlarining sifati emotsional tartibga solishning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi yoki cheklashi mumkin. Issiqlik, sezgirlik, doimiy qo‘llab-quvvatlash va ota-onalarning tegishli javob berish qobiliyati bolalar asta-sekin emotsional qo‘zg‘alishni boshqarishni va qiyin tajribalarga dosh berishni o‘rganishlari mumkin bo‘lgan sharoitlarni yaratadi. Aksincha, doimiy dushmanlik, rad etish, emotsional jihatdan yetarli emaslik, nomuvofiq intizom yoki haddan tashqari psixologik nazorat emotsional tartibga solishni qiyinlashtirishi mumkin.

Qo‘shilish nazariyasi bu jarayonlarni tushunish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Qo‘shilish nuqtai nazaridan, bolalar asosiy parvarishchilar bilan takroriy o‘zaro ta’sirlar orqali o‘zlari va boshqa odamlar haqida taxminlarni rivojlantiradilar. Vasiylar bolalarning emotsional va jismoniy ehtiyojlariga doimiy va sezgir munosabatda bo‘lganda, bolalarda tadqiqot, muloqot va emotsional tartibga solishni osonlashtiradigan xavfsizlik hissi paydo bo‘lishi ehtimoli ko‘proq. Bunday javob berishning yo‘qligi hissiyotlarni boshqarish va ishonchli shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, bog‘lanish xavfsizligi oiladagi emotsional rivojlanishning muhim psixologik omillaridan biri deb hisoblanishi kerak.

Yana bir muhim omil - bu oilaning emotsional muhiti. Emotsional muhit oilaviy hayotni tavsiflovchi emotsional o‘zaro ta’sirlar, muloqot, qo‘llab-quvvatlash, mojarolar va psixologik xavfsizlikning umumiy naqshini anglatadi. Qo‘llab-quvvatlovchi oilaviy muhit bolalarga kattalardan tegishli ko‘rsatmalar olish bilan birga qayg‘u, qo‘rquv, g‘azab yoki umidsizlikni ifoda etish imkonini beradi. Bunday tajribalar bolalarga his-tuyg‘ularning o‘zi ham salbiy yoki xavfli emasligini va emotsional javoblarni konstruktiv boshqarish mumkinligini tushunishga yordam beradi. Aksincha, tez-tez mojarolar, emotsional bostirish, oldindan aytib bo‘lmaydigan reaksiyalar yoki dushmanona muloqot bilan tavsiflangan oilalar bolalarda emotsional ishonchsizlikning kuchayishi sharoitlarini yaratishi mumkin.

Bolalarning emotsional rivojlanishini o‘rganishda ota-onalarning psixologik farovonligi ham e’tiborga olinishi kerak. Ota-onalarning o‘zlarining emotsional tartibga solishlari va shaxslararo xatti-harakatlari bolalar o‘sadigan emotsional muhitga ta’sir qiladi. O‘zlarining emotsional reaktsiyalarini tartibga sola oladigan va stressli vaziyatlarga konstruktiv javob bera oladigan kattalar bolalarga muhim xulq-atvor modellarini taqdim etishlari mumkin. Aksincha, ota-onalarning doimiy emotsional qiyinchiliklari, og‘ir stress yoki beqaror oilaviy munosabatlar ota-ona va bola o‘rtasidagi muloqot sifatiga va emotsional javob berishga ta’sir qilishi mumkin. Bu ota-onalar mukammal emotsional nazoratni namoyish etishlari kerak degani emas; aksincha, mojarodan keyin konstruktiv tuzatish va xatolarni tan olish qobiliyati bolalar uchun qimmatli saboqlarga aylanishi mumkin.

Ushbu mavzuning dolzarbligi zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar kontekstida yanada oshdi. Bugungi kunda bolalar texnologik o‘zgarishlar, oilaviy muloqotning o‘zgaruvchan shakllari, ortib borayotgan ta’lim talablari va ijtimoiy o‘zaro ta’sirning turli shakllari bilan tavsiflangan muhitda rivojlanadilar. Bu sharoitlar emotsional kompetentsiyani muvaffaqiyatli moslashish uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, raqamli muloqot va ekranga asoslangan faoliyatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri oilaviy munosabatlarning miqdori va sifatini o‘zgartirishi mumkin, bu esa oilada mazmunli emotsional muloqotni saqlab qolishni ayniqsa muhim qiladi.

Shunga ko‘ra, ushbu tadqiqotning maqsadi oilada bolalarning emotsional rivojlanishining asosiy psixologik omillarini o‘rganish va oilaviy munosabatlar va ota-onalik amaliyoti emotsional xabardorlik, emotsional tartibga

solish, empatiya, chidamlilik va ijtimoiy kompetentsiyani shakllantirishga hissa qo‘shadigan mexanizmlarni aniqlashdir. Tadqiqot bolalarning emotsional rivojlanishini individual moyilliklarning o‘zaro ta’siri va bolaning bevosita munosabatlar muhiti sifati natijasida yuzaga keladigan dinamik jarayon sifatida tushunish yaxshiroq degan taxminga asoslangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy psixologik tadqiqotlar bolalarning emotsional rivojlanishini individual xususiyatlar va oilaviy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ta’sirida dinamik jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Eng muhim omillar qatoriga bog‘lanish xavfsizligi, ota-onalarning emotsional javob berish qobiliyati, ota-onalarning tarbiya amaliyoti, oilaviy muloqot, ota-onalarning emotsional muhiti va oilaning emotsional muhiti kiradi.

Bog‘lanish nazariyasi ota-onalarning sezgir va izchil javoblari bolalarning psixologik xavfsizligi va hissiyotlarni boshqarish qobiliyatiga hissa qo‘shishini ta’kidlaydi. Kuk va boshqalar tomonidan olib borilgan meta-analitik sharh shuni ko‘rsatdiki, xavfsiz bog‘lanish bolalarda ijobiyroq emotsional tajribalar va moslashuvchanroq hissiyotlarni boshqarish strategiyalari bilan bog‘liq [1]. Yaqinda o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ota-onalarning o‘zlarining hissiyotlarni boshqarish qobiliyatlari ularning bolalarning emotsional tajribalariga qanday munosabatda bo‘lishlariga va hissiyotlarni sotsializatsiya qilishda ishtirok etishlariga ta’sir qiladi [2; 3].

Ota-onalarning hissiyotlarini sotsializatsiya qilish yana bir muhim mexanizmdir. Tuyg‘ular, emotsional modellashtirish va bolalarning qayg‘usi, g‘azabi yoki qo‘rquviga munosabat haqida suhbatlar orqali ota-onalar bolalarga emotsional holatlarni tushunish va tartibga solishni o‘rgatadilar. Yaqinda o‘tkazilgan meta-analitik dalillar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalarning hissiyotlarini sotsializatsiya qilish ota-ona va bola o‘rtasidagi bog‘liqlikning xavfsizligi bilan ham bog‘liq [4].

Bundan tashqari, ota-ona stressi muhim xavf omili sifatida aniqlangan, chunki uzoq davom etadigan stress ota-onalarning emotsional mavjudligini pasaytirishi va konstruktiv ota-ona va bola o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirdagi qiyinchiliklarni kuchaytirishi mumkin [5].

Xalqaro aralashuv tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, oilaga asoslangan psixologik dasturlar ota-onalarning emotsional-ijtimoiylashuv amaliyotini va bolalarning emotsional qobiliyatini yaxshilashi mumkin [6; 7]. Bu shuni ko‘rsatadiki, emotsional rivojlanish faqat oilaviy xususiyatlar bilan belgilanmaydi, balki maqsadli psixologik aralashuvlar orqali ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

O‘zbek ilmiy adabiyotlarida ham oilaviy munosabatlar, ota-onalarning munosabati, emotsional qo‘llab-quvvatlash, muloqot va oilaning psixologik muhitining bolalar rivojlanishidagi ahamiyati ta’kidlangan. O‘zbekistonda o‘tkazilgan so‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-ona va bola munosabatlari va bog‘lanish bilan bog‘liq jarayonlar maktabgacha yoshdagi bolalarning psixo-emotsional rivojlanishining muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi [8; 9]. Biroq, xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirganda, O‘zbekiston oilasi kontekstida bir nechta psixologik determinantlarni birlashtirgan empirik tadqiqotlar nisbatan cheklanganligicha qolmoqda.

Umuman olganda, adabiyotlar bolalarning emotsional rivojlanishi oiladagi himoya va xavf omillarining kombinatsiyasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ishonchli bog‘liqlik, emotsional jihatdan sezgirlik, qo‘llab-quvvatlovchi muloqot, to‘g‘ri ota-onalik va ota-onaning emotsional jihatdan tartibga solinishi muhim himoya omillarini tashkil qiladi, surunkali stress, oiladagi nizolar, emotsional rad etish va nomuvofiq ota-onalik esa emotsional qiyinchiliklarni kuchaytirishi mumkin. Bu O‘zbekistonning o‘ziga xos madaniy va ijtimoiy sharoitida ushbu determinantlarning o‘zaro ta’siriga qaratilgan qo‘shimcha tadqiqotlar zarurligini ta’kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlarini aniqlash uchun sifatli analitik yondashuv qo‘llanildi. Metodologik asos rivojlanish psixologiyasi, bog‘lanish, hissiyotlarni tartibga solish, emotsional sotsializatsiya va ota-onalikning zamonaviy nazariyalariga asoslangan edi.

Ilmiy izlanishlar so‘nggi xalqaro va o‘zbek ilmiy adabiyotlarini, jumladan, empirik tadqiqotlar, tizimli sharhlar, meta-tahlillar va aralashuv tadqiqotlarini tahlil qilishga asoslangan edi. Ota-onalarning emotsional javob berish qobiliyati, bog‘lanish xavfsizligi, ota-onalik uslubi, oilaviy muloqot, ota-onalarning hissiyotlarini tartibga solish, ota-onalarning stressi va oiladagi emotsional muhitni o‘rganadigan tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratildi.

Xalqaro va o‘zbek tadqiqot natijalari o‘rtasidagi umumiy psixologik mexanizmlar va farqlarni aniqlash uchun qiyosiy va kontent-tahlil yondashuvi qo‘llanildi. Bolalarning emotsional rivojlanishi individual xususiyatlar va oilaviy muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasida yuzaga keladigan dinamik jarayon sifatida o‘rganildi. Tahlil, xususan, emotsional xabardorlik, hissiyotlarni tartibga solish, empatiya, psixologik xavfsizlik va ijtimoiy kompetentsiyaga oilaviy o‘zaro ta’sirning asosiy natijalari sifatida qaratildi.

Tanlangan metodologiya zamonaviy ilmiy dalillarni sintez qilish va bolalarning emotsional rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan yoki to‘sqinlik qiladigan asosiy oilaviy omillarni aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarning emotsional rivojlanishi bitta o‘zgaruvchi emas, balki o‘zaro bog‘liq oilaviy va psixologik omillarning kombinatsiyasi bilan belgilanadi. Ko‘rib chiqilgan adabiyotlarda aniqlangan eng muhim determinantlar orasida ota-ona va bola o‘rtasidagi xavfsiz bog‘liqlik, ota-onaning emotsional sezgirligi, hissiyotlarni ijtimoiylashtirish, ota-onalik uslubi, oilaviy muloqot, ota-onaning hissiyotlarini tartibga solish, ota-ona stressi va oilaning umumiy emotsional muhiti mavjud.

Xavfsiz bog‘liqlik eng kuchli himoya omillaridan biri sifatida paydo bo‘ldi. Ota-onalar bolalarning emotsional ehtiyojlariga doimiy va sezgir munosabatda bo‘lganda, bolalar psixologik xavfsizlik va samarali hissiyotlarni tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantirish ehtimoli ko‘proq. Ota-onalarning javob berish qobiliyati bolalarga faqat muammoli xatti-harakatlar orqali qayg‘uni ifoda etish o‘rniga, his-tuyg‘ularini tushunish va og‘zaki ifoda etishga yordam beradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ota-onalar emotsional xatti-harakatlarning muhim modellari bo‘lib xizmat qiladi. Bolalar kattalarning g‘azab, stress, umidsizlik va mojarolarga qanday munosabatda bo‘lishini kuzatadilar va asta-sekin bu naqshlarni ichkilashtiradilar. Shuning uchun, ota-onalarning emotsional tartibga solishi bolalarning o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish qobiliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aksincha, ota-onalarning haddan tashqari stressi, nazoratsiz g‘azab, emotsional rad etish va nomuvofiq javoblar bolalarning emotsional tartibga solinishida qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Oilaviy muloqot ham muhim determinant sifatida aniqlandi. His-tuyg‘ular haqida ochiq va qo‘llab-quvvatlovchi suhbatlar bolalarga emotsional xabardorlik, hamdardlik va emotsional ifoda etishning tegishli shakllarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Issiqlik, hurmat, psixologik xavfsizlik va oldindan aytib bo‘ladigan o‘zaro ta’sir bilan tavsiflangan ijobiy oilaviy emotsional muhit bu jarayonlarni kuchaytiradi, doimiy mojarolar va emotsional beqarorlik esa xavf omillari sifatida xizmat qilishi mumkin.

Xalqaro va o‘zbek adabiyotlarini taqqoslash bolalarning emotsional rivojlanishining asosiy omillarida sezilarli o‘xshashlikni ko‘rsatadi. Biroq, O‘zbekiston konteksti kengaytirilgan oilaviy munosabatlar va avlodlararo o‘zaro ta’sirga ko‘proq e’tibor qaratishni talab qiladi, chunki buvilar va boshqa qarindoshlar bolalarni tarbiyalashda faol ishtirok etishlari mumkin. Bu qo‘shimcha emotsional yordam berishi mumkin, ammo ota-onalik talablari va emotsional sotsializatsiya amaliyotida ham farqlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, aralashuvlar nafaqat bolalarning emotsional qiyinchiliklarini tuzatishga, balki oilaviy muhitni yaxshilashga ham qaratilishi kerak. Ota-onalarni o‘qitish dasturlari emotsional sezgirlik, konstruktiv muloqot, emotsional sotsializatsiya, stressni boshqarish va izchil chegaralarni belgilash ko‘nikmalarini rivojlantirishi kerak. Bunday oilaga yo‘naltirilgan yondashuv bolalarda kuchli emotsional kompetentsiya, chidamlilik va psixologik farovonlikka hissa qo‘shishi mumkin.

Umuman olganda, natijalar bolalarning emotsional rivojlanishi dinamik va potentsial ravishda o‘zgartirilishi mumkin bo‘lgan jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Ota-onalarning emotsional resurslarini mustahkamlash va kundalik oilaviy munosabatlar sifatini yaxshilash bolalarning emotsional ongi, o‘zini o‘zi boshqarishi, hamdardligi va ijtimoiy moslashuvi uchun qulay sharoitlar yaratishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqoladan olingan xulosalar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning emotsional rivojlanishi oilaviy muhitning psixologik xususiyatlari va ota-ona va bola o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sifati bilan chambarchas bog‘liq. Ishonchli bog‘liqlik, ota-onalarning emotsional jihatdan sezgirligi, qo‘llab-quvvatlovchi muloqot, ijobiy emotsional modellashtirish va barqaror oilaviy muhit bolalarning emotsional ongi, o‘zini o‘zi boshqarishi, hamdardligi va psixologik barqarorligini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Aksincha, ota-onalarning doimiy stressi, emotsional rad etilishi, nomuvofiq ota-onalik va tez-tez oilaviy nizolar bolalarning emotsional farovonligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Ota-onalarga bolalar bilan ochiq va qo‘llab-quvvatlovchi muloqotni kuchaytirish, ularning emotsional ehtiyojlarini tan olish va ularga munosib javob berish hamda stress va nizolarni boshqarishning konstruktiv usullarini namoyish etish tavsiya etiladi. Psixologik va ta’lim muassasalari emotsional sotsializatsiya, ijobiy ota-onalik va oilaviy muloqotga qaratilgan amaliy ota-onalarni o‘qitish dasturlarini ishlab chiqishlari kerak. O‘zbekistonda bunday dasturlar milliy oilaviy an’analar, avlodlararo munosabatlar va zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlarni hisobga olishi kerak. Ushbu determinantlarni madaniy jihatdan mos psixologik baholash usullari va kattaroq namunalar yordamida o‘rganish uchun qo‘shimcha empirik tadqiqotlar o‘tkazish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Cooke J.E., Kochendorfer L.B., Stuart-Parrigon K.L., Koehn A.J., Kerns K.A. Parent-child attachment and children’s experience and regulation of emotion: A meta-analytic review // Emotion. – 2019. – Vol. 19, No. 1. – P. 110–124.
2. Zimmer-Gembeck M.J., et al. Parental self-regulation and engagement in emotion socialization: A systematic review //

Psychological Bulletin. – 2024. – DOI: 10.1037/bul0000423.
3. Zhang X., et al. Assessing parental emotion regulation in the context of parenting: A systematic review // Developmental Review. – 2023. – Vol. 69. – 101092.
4. Rodrigues G.A., Waslin S.M., Nair T.K., Kerns K.A., Brumariu L.E. Parental emotion socialization and parent-child attachment security: A meta-analytic review // Emotion. – 2025. – Vol. 25, No. 3. – P. 775–781.
5. The role of parental stress on emotional and behavioral problems in offspring: A systematic review with meta-analysis // Jornal de Pediatria. – 2024. – Vol. 100, No. 6. – P. 565–585.
6. Emotion socialization parenting interventions targeting emotional competence in young children: A systematic review and meta-analysis of randomized controlled trials // Clinical Child and Family Psychology Review. – 2023.
7. Burkhardt S.C., Röösli P., Müller X. The Tuning in to Kids parenting program delivered online improves emotion socialization and child behavior in a first randomized controlled trial // Scientific Reports. – 2024.
8. Нишонов А.О., Кадирова Г.Р. Влияние семейных факторов на психическое развитие детей дошкольного возраста // Research and Implementation. – 2025.
9. Isaxanova Sh.A. Maktabgacha yoshdagi bolalari bo'lgan oilalarda ota-onalarning munosabatining oilaviy munosabatlarga ta'siri: O'zbekistonning Farg'ona viloyati kontekstida, bog'lanish nazariyasiga e'tibor qaratgan holda, fanlararo tadqiqot. // Dunyo ta'limi sifatini oshirishning ilg'or usullari ilmiy jurnali. – 2025.

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORLASHDA SUN'IY INTELLEKT VOSITALARIDAN FOYDALANISH MODELINING SAMARADORLIGI

Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Tadqiqotning maqsadi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligini tajriba-sinov asosida aniqlashdan iborat. Tadqiqot 2024-2025 va 2025-2026 o'quv yillarida Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat universiteti hamda Shahrisabz davlat pedagogika institutining Boshlang'ich ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan 622 nafar talaba ishtirokida o'tkazildi. Shundan 320 nafari tajriba, 302 nafari nazorat guruhiga biriktirildi. Talabalarning kasbiy kompetentligi motivatsion, kognitiv, faoliyatli-operativ va refleksiv komponentlar asosida yuqori, o'rta va past darajalarda baholandi. Aniqlovchi bosqichda guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi ($p > 0,05$). Shakllantiruvchi bosqichda "Bir muammo - uch yechim", loyiha ishi, "Ta'lim dizayneri" va "Pedagogik konstruktor" kabi metodik usullar qo'llanildi. Yakuniy natijalarga ko'ra, tajriba guruhining o'rtacha ko'rsatkichi 2,27 ballni (75,6%), nazorat guruhiniki esa 1,93 ballni (64,35%) tashkil etdi. Farq Styudentning t-mezoni va Pirsonning χ^2 mezoni orqali statistik jihatdan ishonchli deb topildi. Natijalar ishlab chiqilgan model bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida sun'iy intellekt vositalaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, boshlang'ich ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kasbiy kompetentlik, pedagogik tayyorgarlik, tajriba-sinov, ta'lim texnologiyasi.

Abstract: The purpose of the study is to empirically examine the effectiveness of a model for using artificial intelligence tools in the professional and pedagogical training of future primary school teachers. The study was conducted during the 2024-2025 and 2025-2026 academic years and involved 622 students enrolled in the Primary Education programmes at Chirchiq State Pedagogical University, Navoi State University, and Shahrisabz State Pedagogical Institute. Of the total sample, 320 students were assigned to the experimental group and 302 to the control group. Students' professional competence was assessed across four components – motivational, cognitive, activity-operational, and reflective – at high, medium, and low levels. At the baseline stage, no statistically significant differences were found between the groups ($p > 0.05$). During the formative stage, a range of methodological approaches was implemented, including "One Problem - Three Solutions," project-based learning, "Educational Designer," and "Pedagogical Constructor." The final results showed that the mean score of the experimental group was 2.27 points (75.6%), compared with 1.93 points (64.35%) in the control group. The difference between the groups was statistically significant according to Student's t-test and Pearson's chi-square (χ^2) test. The findings indicate that the developed model contributes to the development of future primary school teachers' ability to use artificial intelligence tools in a pedagogically appropriate and purposeful manner.

Key words: artificial intelligence, primary education, future teacher, professional competence, pedagogical training, educational experiment, educational technology.

Аннотация: Цель исследования заключается в экспериментальной проверке эффективности модели использования средств искусственного интеллекта в профессионально-педагогической подготовке будущих учителей начального образования. Исследование проводилось в 2024-2025 и 2025-2026 учебных годах с участием 622 студентов направления “Начальное образование” Чирчикского государственного педагогического университета, Навоийского государственного университета и Шахрисабзского государственного педагогического института. Из них 320 студентов были включены в экспериментальную группу, 302 – в контрольную. Уровень сформированности профессиональной компетентности студентов оценивался по мотивационному, когнитивному, деятельностно-операционному и рефлексивному компонентам с выделением высокого, среднего и низкого уровней. На констатирующем этапе статистически значимых различий между группами выявлено не было ($p > 0,05$). На формирующем этапе применялись такие методические приёмы, как “Одна проблема - три решения”, проектная работа, “Образовательный дизайнер” и “Педагогический конструктор”. По итогам исследования средний показатель в экспериментальной группе составил 2,27 балла (75,6%), тогда как в контрольной группе – 1,93 балла (64,35%). Выявленная разница была статистически значимой по результатам t-критерия Стьюдента и критерия χ^2 Пирсона. Полученные результаты свидетельствуют о том, что разработанная модель способствует формированию у будущих учителей начального образования навыков педагогически целесообразного использования средств искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, начальное образование, будущий учитель, профессиональная компетентность, педагогическая подготовка, педагогический эксперимент, образовательная технология.

KIRISH

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning, jumladan, SI vositalarining tobora kengroq qo‘llanilishi o‘qituvchi kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. O‘zbekistonda ta’limni raqamlashtirish va inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan, xususan, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining inson kapitalini rivojlantirish yo‘nalishi hamda “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son[1] Qonuni pedagog kadrlar tayyorlash sifatini zamon talablariga muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi kasbiy faoliyatining o‘ziga xosligi - bir vaqtning o‘zida bir nechta fanni o‘qitishi, o‘quv materiallarini yosh xususiyatlariga moslashtirish zaruriyati - sun’iy intellekt vositalaridan foydalanish bo‘yicha maxsus tayyorgarlikni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavjud tadqiqotlarda o‘qituvchining SI sohasidagi kompetentligi ko‘pincha texnik ko‘nikmalar darajasida qaraladi, biroq bu kompetentlikning motivatsion, kognitiv va refleksiv jihatlari yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida tadqiqotda bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining SIdan foydalanishga tayyorligi to‘rt komponentli tuzilma - motivatsion, kognitiv, faoliyatli-operativ va refleksiv komponentlar - asosida ko‘rib chiqildi.

Motivatsion komponentning nazariy asosini A.N. Leontevning faoliyat va shaxsiy ma’no nazariyasi, J. Hollandning kasbiy qiziqish konsepsiyasi hamda S. Hidi va K.A. Renningerning qiziqishning rivojlanish modeli tashkil etadi.

Kognitiv komponent B. Blumning ta’lim maqsadlari taksonomiyasiga, faoliyatli-operativ komponent M. Koehler va P. Mishraning TPACK modeliga, refleksiv komponent esa D. Shonning amaliyotdagi refleksiya nazariyasiga tayanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning amaliy bosqichi 2024-2025 va 2025-2026 o‘quv yillarida uchta oliy ta’lim muassasasi - Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Navoiy davlat universiteti va Shahrisabz davlat pedagogika instituti - Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabalari ishtirokida amalga oshirildi. Tajriba-sinovda jami 622 nafar talaba qatnashib, ular mavjud akademik guruhlar tarkibini saqlagan holda tajriba guruhi (TG, 320 nafar) va nazorat guruhi (NG, 302 nafar)ga ajratildi.

Tadqiqot uch bosqichda - aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakunlovchi bosqichlarda - olib borildi. Aniqlovchi bosqichda talabalarning to‘rtta mezon bo‘yicha dastlabki tayyorgarlik darajasini aniqlash uchun so‘rovnoma, test va amaliy topshiriqlardan iborat diagnostik vositalar qo‘llanildi. Har bir vosita 5 balli tizimda baholanib, natijalar uch darajaga - yuqori (4-5 ball), o‘rta (3 ball), past (1-2 ball) - jamlandi.

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida “Ona tili - o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi” fani doirasida sun’iy intellekt imkoniyatlari, cheklovlari va undan xavfsiz foydalanishga oid mavzularda mashg‘ulotlar tashkil etildi; har bir komponentni rivojlantirish uchun maxsus texnika qo‘llanildi - motivatsion komponent uchun

1 https://lex.uz/docs/-5013007

"Bir muammo - uch yechim", kognitiv komponent uchun loyiha ishi, faoliyatli-operativ komponent uchun "Ta'lim dizayneri" metodi, refleksiv komponent uchun A. Gin taklif etgan "Pedagogik konstruktor" usuli.

Nazorat guruhi an'anaviy dastur asosida o'qitildi. Yakuniy bosqichda har ikkala guruhning tajribadan avvalgi (T.a.) va tajribadan so'nggi (T.s.) natijalari qayta diagnostika qilindi. Olingan sifat ko'rsatkichlarini miqdoriy tahlil qilish uchun darajalar ballarga aylantirildi:

- yuqori daraja - 3 ball,
- o'rta daraja - 2 ball,
- past daraja - 1 ball.

Guruhlar o'rtasidagi farqning statistik ahamiyatliligini aniqlash uchun Styudent t-mezoni (o'rtacha qiymatlar tengligi haqidagi gipotezani tekshirish uchun) va Pirsonning χ^2 mezoni (taqsimot qonunlari mosligini tekshirish uchun) qo'llanildi; ahamiyatlilik darajasi $\alpha = 0,05$ qilib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aniqlovchi bosqich natijalari uchala OTM bo'yicha umumlashtirilganda, TG va NG ko'rsatkichlari bir-biriga yaqin bo'lib chiqdi:

- motivatsion mezon bo'yicha yuqori daraja TGda 20,0%, NGda 19,9%;
- kognitiv mezon bo'yicha mos ravishda 19,7% va 19,2%;
- faoliyatli-operativ mezon bo'yicha 21,6% va 19,5%;
- refleksiv mezon bo'yicha 20,9% va 17,5%ni tashkil etdi.

Barcha mezonlar bo'yicha guruhlar orasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatsiz bo'lib ($p > 0,05$), bu ikki guruhning tajriba boshlanishida teng sharoitda bo'lganini tasdiqladi. Shu bilan birga, aynan refleksiv mezon bo'yicha past daraja ulushi eng yuqori (TGda 38,4%, NGda 35,4%) bo'lib chiqib, mazkur komponentga shakllantiruvchi bosqichda alohida e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatdi.

1-jadval: **Aniqlovchi bosqichda uchta OTM bo'yicha umumlashtirilgan rivojlanganlik darajasi (tajribadan avval)**

Mezon	Guruh	Yuqori soni	Yuqori %	O'rta soni	O'rta %	Past soni	Past %	Jami
Motivatsion	TG	64	20,0%	136	42,5%	120	37,5%	320
Motivatsion	NG	60	19,9%	146	48,3%	96	31,8%	302
Kognitiv	TG	63	19,7%	129	40,3%	128	40,0%	320
Kognitiv	NG	58	19,2%	137	45,4%	107	35,4%	302
Faoliyatli-operativ	TG	69	21,6%	130	40,6%	121	37,8%	320
Faoliyatli-operativ	NG	59	19,5%	140	46,4%	103	34,1%	302
Refleksiv	TG	67	20,9%	130	40,6%	123	38,4%	320
Refleksiv	NG	53	17,5%	142	47,0%	107	35,4%	302

Shakllantiruvchi bosqichdagi maqsadli ta'sirdan so'ng yakuniy diagnostika o'tkazildi. Uchta OTM bo'yicha yig'ma natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval: **Navoiy davlat universitetida SI vositalaridan foydalanish darajasining rivojlanishi (mezonlar kesimida, T.a. - T.s.)**

Mezon	Tajriba guruhi (108 nafar)					
	Yuq. T.a	Yuq. T.s	O'rta T.a	O'rta T.s	Past T.a	Past T.s
Motivatsion	23	46	45	47	40	15
Kognitiv	20	47	43	47	45	14
Faoliyatli-operativ	22	42	46	48	40	18
Refleksiv	19	45	43	44	46	19
Jami	**21**	**45**	**44**	**47**	**43**	**16**

3-jadval: **Shahrisabz davlat pedagogika institutida SI vositalaridan foydalanish darajasining rivojlanishi (mezonlar kesimida, T.a. - T.s.)**

Mezon	Tajriba guruhi (106 nafar)						Nazorat guruhi (103 nafar)					
	Yuq. T.a	Yuq. T.s	O'rta T.a	O'rta T.s	Past T.a	Past T.s	Yuq. T.a	Yuq. T.s	O'rta T.a	O'rta T.s	Past T.a	Past T.s
Motivatsion	23	42	48	50	35	14	18	22	50	54	35	27
Kognitiv	20	41	42	46	44	19	19	23	47	49	37	31
Faoliyatli-operativ	25	44	43	50	38	12	15	22	46	49	42	32
Refleksiv	24	40	44	49	38	17	14	20	48	52	41	31
Jami	**23**	**42**	**44**	**49**	**39**	**15**	**16**	**22**	**48**	**51**	**39**	**30**

4-jadval: **Chirchiq davlat pedagogika universitetida SI vositalaridan foydalanish darajasining rivojlanishi (mezonlar kesimida, T.a. - T.s.)**

Mezon	Tajriba guruhi (106 nafar)			Nazorat guruhi (103 nafar)			
	Yuq. T.a	Yuq. T.s	O'rta T.s	O'rta T.s			
Motivatsion	18	43	43	18	19	21	48
Kognitiv	23	44	44	17	18	22	45
Faoliyatli-operativ	22	48	41	15	20	20	46
Refleksiv	24	49	43	12	19	21	47
Jami	22	46	43	**16**	19	21	46

5-jadval: **Uchta OTM bo'yicha umumiy ko'rsatkichlarning T.a. - T.s. solishtiruvi**

Tadqiqot obyekti	Tajriba guruhi (320 nafar)						Nazorat guruhi (302 nafar)					
	Yuq. T.a	Yuq. T.s	O'rta T.a	O'rta T.s	Past T.a	Past T.s	Yuq. T.a	Yuq. T.s	O'rta T.a	O'rta T.s	Past T.a	Past T.s
Chirchiq davlat pedagogika universiteti	22	46	43	44	41	16	19	21	46	49	33	28
Navoiy davlat universiteti	21	45	44	47	43	16	22	23	47	49	32	29
Shahrisabz davlat pedagogika instituti	23	42	44	49	39	15	16	22	52	51	35	30

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, tajriba guruhida yuqori daraja ulushi tajriba davomida 20,6%dan 41,6%gacha, ya'ni 21 foiz punktga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 18,9%dan 21,9%gacha, ya'ni atigi 3 foiz punktga o'sdi. Mos ravishda, past daraja ulushi tajriba guruhida 38,4%dan 14,7%gacha pasaygan, nazorat guruhida esa 34,4%dan 28,8%gacha kamaygan. Darajalarni ball tizimiga (yuqori - 3 ball, o'rta - 2 ball, past - 1 ball) o'tkazib hisoblangan yakuniy taqsimot 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval: **Tajriba-sinov ishlari yakunidagi tayyorgarlik darajasi (uchta OTM bo'yicha, nafar)**

Tadqiqot obyekti	Yuqori	O'rta	Past	Jami
TG – Chirchiq DPU	22	43	41	106
TG – Navoiy DU	21	44	43	108
TG – Shahrisabz DPI	23	44	39	106
TG jami	**66**	**131**	**123**	**320**
NG – Chirchiq DPU	19	46	33	98
NG – Navoiy DU	22	47	32	101
NG – Shahrisabz DPI	16	48	39	103
NG jami	**57**	**141**	**104**	**302**

Ushbu taqsimot asosida hisoblangan o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi tajriba guruhida $\bar{X}$ = 2,27 (75,6%), nazorat guruhida $\bar{Y}$ = 1,93 (64,35%)ni tashkil etib, guruhlar orasidagi farq 11,3 foiz punktni tashkil etdi. Farqning tasodifiy emasligini asoslash uchun o'tkazilgan matematik-statistik tahlil natijalari 7-jadvalda umumlashtirilgan.

7-jadval: **Tajriba-sinov ishlarining statistik ko‘rsatkichlari**

X̄	Ȳ	S²x	S²y	Cx (%)	Cy (%)	Txy	K	X²(n,m)	Δx	Δy
2,27	1,93	0,4903	0,5018	1,73	2,11	6,02	620	34,29	0,0767	0,0799

Ikkala tanlanmaning standart xatoligi (Sx ≈ 0,70; Sy ≈ 0,708) va variatsiya koeffitsiyentlari (Cx = 1,73%; Cy = 2,11%) ruxsat etilgan 5 foizlik chegaradan sezilarli darajada past bo‘lib, tajriba-sinov ishlarining ishonchliligini tasdiqladi. O‘rtacha qiymatlar tengligi haqidagi H0 gipotezasini tekshirish uchun hisoblangan Styudent mezonining empirik qiymati Txy = 6,02 bo‘lib, bu α = 0,05 ahamiyatlilik darajasi va r = 620 erkinlik darajasiga mos kritik qiymat (tkr = 1,96)dan sezilarli darajada yuqori chiqdi (6,02 > 1,96), shu sababli H0 gipotezasi rad etilib, tajriba guruhidagi o‘rtacha o‘zlashtirish nazorat guruhidagidan ustun ekanligi statistik jihatdan tasdiqlandi. Taqsimot qonunlarining mosligini tekshirish uchun hisoblangan Pirsonning xi-kvadrat mezonining empirik qiymati (X^2 = 34,29) k = 2 erkinlik darajasiga mos kritik qiymat (5,99)dan ancha yuqori bo‘lib chiqdi (34,29 > 5,99), bu ham guruhlar o‘rtasidagi farqning tasodifiy emas, balki qo‘llanilgan metodikaning natijasi ekanligini tasdiqladi. Ishonchli oraliqlar hisoblanganda, tajriba guruhi uchun 2,193 ≤ αx ≤ 2,3, nazorat guruhi uchun 1,85 ≤ αy ≤ 2,0 chegaralari aniqlandi; ikki oraliqning bir-birini qamrab olmasligi natijaning ishonchliligini yana bir bor tasdiqlaydi. Rivojlantirish samaradorligini ifodalovchi sifat ko‘rsatkichlari ham ijobiy qiymatlarga ega bo‘ldi: nisbiy samaradorlik koeffitsiyenti Kycb = 1,19 (birdan katta), farq ko‘rsatkichi Kbcb = 0,34 (noldan katta).

Olingan natijalar to‘rt komponentli model asosida tashkil etilgan maqsadli pedagogik ta’sirning bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarida sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga oid kasbiy kompetentlikni shakllantirishda an’anaviy yondashuvga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi. Aniqlovchi bosqichda barcha mezonlar bo‘yicha guruhlar o‘rtasida ahamiyatli farq bo‘lmaganligi tadqiqot dizaynining ichki validligini ta’minlagan bo‘lsa, yakuniy bosqichda qayd etilgan 11,3 foizlik farq va uning ikkala statistik mezon (Styudent va Pirson) orqali tasdiqlanishi natijalarning ishonchliligini kuchaytiradi. Faoliyatli-operativ komponent bo‘yicha erishilgan yutuqlar TPACK modelining amaliy qo‘llanilishini tasdiqlaydi: “Ta’lim dizayneri” metodi orqali talabalar nafaqat sun’iy intellekt vositasidan foydalanish, balki yaratilgan mahsulotni davlat ta’lim standarti va o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga moslashtirish ko‘nikmasini ham egallashdi.

Shu bilan birga, aniqlovchi bosqichda eng past ko‘rsatkichga ega bo‘lgan refleksiv komponentning shakllantiruvchi bosqichda “Pedagogik konstruktor” usuli yordamida rivojlantirilishi alohida e’tiborga loyiq: bu D. Shonning amaliyotdagi refleksiya nazariyasida ta’kidlanganidek, o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati maxsus metodik ta’sirsiz o‘z-o‘zidan rivojlanmasligini amaliyotda tasdiqlaydi. Tadqiqotning cheklovlari qatoriga tajriba-sinov ishlarining bitta o‘quv fani (“Ona tili - o‘qish savodxonligi”) doirasida o‘tkazilganligi kiradi; kelgusi tadqiqotlarda modelning boshqa fanlar va yuqori kurslar misolida sinovdan o‘tkazilishi tavsiya etiladi.

XULOSA

O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari va matematik-statistik tahlil natijalari bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishga kasbiy-pedagogik tayyorlash bo‘yicha ishlab chiqilgan to‘rt komponentli model (motivatsion, kognitiv, faoliyatli-operativ, refleksiv) amaliyotda o‘z samarasini berganini ko‘rsatdi. Tajriba guruhida o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi nazorat guruhinikidan 11,3 foiz punktga yuqori bo‘lib, bu farq Styudent (Txy = 6,02 > 1,96) va Pirson (X^2 = 34,29 > 5,99) mezonlari orqali statistik jihatdan ishonchli ekanligi isbotlandi. Olingan natijalar asosida ushbu model boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha kasbiy ta’lim dasturlariga, xususan, pedagogika oliy ta’lim muassasalarining o‘quv-uslubiy majmualariga tatbiq etilishi, shuningdek, pedagog kadrlarni malaka oshirish tizimida ham qo‘llanilishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni https://lex.uz/docs/-5013007
2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975.
3. Holland J.L. Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments. – Odessa, FL: Psychological Assessment Resources, 1997.
4. Hidi S., Renninger K.A. The Four-Phase Model of Interest Development // Educational Psychologist. – 2006. – Vol. 41, No. 2. – P. 111–127.
5. Bloom B.S. va boshq. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: David McKay Company, 1956.
6. Koehler M.J., Mishra P. va boshq. The Technological Pedagogical Content Knowledge Framework // Handbook of Research on Educational Communications and Technology. – 2013. – P. 101–111.
7. Schön D.A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. – London: Routledge, 2016.
8. Гин А.А. Приёмы педагогической техники: Свобода выбора. Открытость. Деятельность. Обратная связь. Идеальность. – М.: Вита-Пресс, 2013.

МАХАЛЛЯ КАК ГУМАНИСТИЧЕСКАЯ ВОСПИТАТЕЛЬНАЯ ЭКОСИСТЕМА: СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ МОДЕРНИЗАЦИИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Фадлиева Амина Ильхамовна
Преподаватель-стажер Tashkent international university of education

Аннотация: В статье махалля рассматривается как гуманистическая воспитательная экосистема, объединяющая семью, образовательные организации, молодёжь и локальное сообщество. На основе анализа нормативных документов и педагогической литературы уточнено понятие воспитательного потенциала махалли и обоснован переход от мероприятийно-наставнической логики к модели, основанной на достоинстве личности, участии, диалоге и адресной поддержке. Выделены шесть механизмов модернизации и предложены структурно-функциональная и процессная модели, пригодные для дальнейшей эмпирической проверки.

Ключевые слова: махалля, социальная педагогика, гуманистическая педагогика, воспитательный потенциал, субъектность, молодёжь, семья, школа, наставничество.

Annotatsiya: Maqolada mahalla oila, ta'lim muassasalari, yoshlar va mahalliy hamjamiyatni birlashtiruvchi gumanistik tarbiyaviy ekotizim sifatida talqin qilinadi. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar va pedagogik manbalar tahlili asosida mahallaning tarbiyaviy salohiyati aniqlashtirilib, tadbirbozlik modelidan shaxs qadr-qimmati, ishtirok, muloqot va individual ko'makka tayangan ekotizimli modelga o'tish asoslanadi. Oltita ijtimoiy-pedagogik mexanizm va ularni baholash mezonlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: mahalla, ijtimoiy pedagogika, gumanistik pedagogika, tarbiyaviy salohiyat, subyektlik, yoshlar, oila, maktab, ustoz-shogird.

Abstract: The article conceptualizes the mahalla as a humanistic educational ecosystem connecting family, educational institutions, youth and the local community. Based on regulatory documents and pedagogical literature, the educational potential of the mahalla is clarified, and a shift from an event-based mentoring model to an ecosystem model grounded in dignity, participation, dialogue and personalized support is substantiated. Six socio-pedagogical modernization mechanisms, a structural-functional model and evaluation criteria are proposed for subsequent empirical verification.

Key words: mahalla, social pedagogy, humanistic pedagogy, educational potential, agency, youth, family, school, mentoring.

ВВЕДЕНИЕ

Современное воспитание формируется во взаимосвязи семейной, школьной, цифровой, досуговой и общественной сред. Поэтому его результат определяется не только содержанием отдельных мероприятий, но и качеством отношений, доступностью поддержки и возможностями участия ребёнка или молодого человека. В Узбекистане особое место в этой системе занимает махалля как устойчивое пространство социальной солидарности, межпоколенческой преемственности и самоорганизации граждан. Конституция Республики Узбекистан закрепляет самостоятельность органов самоуправления граждан с учётом интересов населения, национальных ценностей, обычаев и традиций [1]. Указ Президента № ПФ-209[1] и Постановление № ПҚ-402[2] от 21 декабря 2023 года усилили роль махалли, механизмы участия

1 https://lex.uz/docs/6707809
2 https://lex.uz/ru/docs/6705736

населения и организационные основы деятельности Ассоциации махаллей Узбекистана [2; 3]. Вместе с тем институциональное укрепление само по себе не гарантирует воспитательного эффекта: отчёт о числе встреч не отражает доверие, субъектность и устойчивую социальную активность молодёжи.

Социально-педагогическая проблема заключается в том, каким образом организационные, культурные и человеческие ресурсы локального сообщества превращаются в реальные условия развития личности. При сохранении преимущественно отчётно-мероприятийной логики существует риск подмены результата количеством встреч и охватом участников. В таком случае за пределами оценки остаются качество отношений, готовность обращаться за помощью, способность молодёжи инициировать собственные проекты и устойчивость сотрудничества семьи, школы и махалли. Гуманистическая направленность общественного развития Нового Узбекистана [4] позволяет поставить вопрос о модернизации воспитательного потенциала махалли без отказа от национальных традиций.

Цель исследования – теоретически обосновать махаллю как гуманистическую воспитательную экосистему, определить механизмы её модернизации и предложить модель, пригодную для последующей эмпирической проверки.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Национальная педагогическая мысль содержит значительный ресурс для гуманистического прочтения воспитания. А. Авлони связывал нравственное становление личности с ответственностью общества за будущее поколения [5].

В работах Р.А. Мавлоновой и соавторов взаимодействие семьи, махалли и школы рассматривается как важное условие организации воспитательной деятельности [6].

Исследования Ш.Ш. Толиповой, Д.И. Рахмоновой и Н.У. Нурматовой подтверждают значение махалли, общественности и межинституционального сотрудничества для социализации, духовного развития и социальной активности молодёжи [7–9].

Современные исследования подчёркивают роль махалли в сохранении локальной памяти и национальных ценностей, а также необходимость интеграции семьи, махалли и образовательной организации [10–12].

Эти положения дополняются идеями К. Роджерса о достоинстве личности и фасилитации самостоятельного развития [13] и экологическим подходом У. Бронфенбреннера, согласно которому развитие зависит от качества связей между ближайшими социальными средами [14].

В работах, посвящённых национальным традициям и общественной социализации, махалля выступает не только территориальным сообществом, но и носителем повседневных норм, моделей взаимопомощи и культурной памяти.

С.С. Комилов показывает значение локальной истории и традиций для поддержания нравственно-культурной среды [10], а Н.Х. Ашурова и А. Холбоев акцентируют роль семьи и махалли в воспитании молодёжи на основе национальных ценностей [11].

Интеграционный подход к взаимодействию семьи, махалли и образовательной организации развивается и в современных педагогических исследованиях [12].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

При этом в большинстве работ основной акцент делается на сохранении воспитательного ресурса или координации существующих институтов. Менее разработан вопрос о том, каким образом традиционные ресурсы могут быть переосмыслены с позиций субъектности, выбора, персонализированной поддержки и регулярной обратной связи. Именно этот разрыв позволяет рассматривать экосистемный подход не как отказ от традиции, а как способ её педагогической актуализации в изменяющейся социальной среде.

Методологическую основу исследования составили системный, аксиологический, средовой, деятельностный и личностно-ориентированный подходы. Применялись теоретический анализ, сопоставление отечественных и зарубежных концепций, анализ нормативно-правовых документов, обобщение и педагогическое моделирование. Исследование имеет теоретико-моделирующий характер; предложенные показатели рассматриваются как база для последующей экспериментальной проверки.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Воспитательный потенциал махалли определяется как интегративная способность локального сообщества преобразовывать культурные, межпоколенческие, коммуникативные и организационные ресурсы в условия личностного развития, социальной включённости и нравственной самостоятельности детей и молодёжи. Педагогический эффект возникает не из самого наличия традиций или автори-

тетных взрослых, а из их включения в осмысленное взаимодействие. Гуманистическая воспитательная экосистема махалли – это система устойчивых связей между семьёй, махаллей, образовательными организациями и молодёжью, в которой ресурсы координируются вокруг достоинства личности, субъектности, ответственности, социального участия и культурной идентичности. В отличие от мероприятийной логики объектом оценки становится не только факт участия, но и устойчивые отношения и инициативы, возникающие после совместной деятельности. Экосистемный подход меняет единицу педагогического анализа. В мероприятийной модели результат связывается прежде всего с проведённым действием, дисциплиной и охватом. В экосистемной модели анализируется то, что сохраняется после события: возникла ли молодёжная инициатива, появилась ли устойчивая группа, укрепилось ли доверие к взрослым и институтам, улучшилась ли координация семьи и образовательной организации. Поэтому предметом оценки становится качество социализирующего опыта, а не только факт присутствия.

Таблица 1: **Сравнение мероприятийной и экосистемной моделей воспитательной работы махалли**

Параметр	Мероприятийная модель	Экосистемная модель
Центр внимания	Мероприятия и охват	Отношения и устойчивые изменения
Позиция молодёжи	Получатель воздействия	Соавтор и субъект инициатив
Роль взрослого	Контроль и наставление	Наставник и фасилитатор
Ценности	Передача готовых норм	Осмысление через деятельность
Координация	Эпизодическая	Постоянная сеть институтов
Поддержка	Реакция на проблему	Раннее выявление и сопровождение

Переход к экосистемной модели не отменяет традиционные функции махалли, а меняет способ их педагогической реализации: уважение к старшим дополняется диалогом, взаимопомощь – добровольческими проектами, общественный контроль – доверительной поддержкой, а национальные традиции включаются в исследовательскую, культурную и социально полезную деятельность молодёжи. На этой основе выделены шесть взаимосвязанных механизмов модернизации: Механизм ценностно-культурной преемственности переводит национальные и общечеловеческие ценности из декларации в совместно переживаемый опыт через локальные историко-культурные проекты, встречи поколений и общественно полезные инициативы. Субъектно-партисипативный механизм включает детей и молодёжь в постановку проблем, разработку решений и оценку результатов. Реальное пространство выбора формирует ответственность и инициативность. Механизм семейно-образовательной координации превращает махаллю в связующее звено между семьёй и образовательными организациями через совместное решение воспитательных задач, консультации и согласованные маршруты поддержки.

Механизм межпоколенческого наставничества наполняет авторитет старшего поколения современным содержанием: нуронийлар, специалисты, мастера и педагоги выступают наставниками в профориентации, проектах и культурной деятельности. Механизм персонализированной поддержки основывается на раннем выявлении потребностей и ресурсов молодого человека. Индивидуальный маршрут учитывает интересы, сильные стороны, значимых взрослых и доступные сообщества. Рефлексивно-диагностический механизм превращает обратную связь в ресурс развития. Наряду с количественными показателями оцениваются доверие, устойчивость участия, молодёжные инициативы и качество взаимодействия институтов.

Таблица 2: **Структурно-функциональная модель гуманистической воспитательной экосистемы махалли**

Ресурс	Механизм	Форма	Эффект
Традиции и память	Ценностная преемственность	Истории, встречи, проекты	Идентичность и уважение
Молодёжные инициативы	Партисипативный	Советы, проекты, волонтёрство	Ответственность и участие
Семья и школа	Координационный	Кейс-встречи, семейные клубы	Согласованность и доверие
Старшее поколение	Наставничество	Устоз-шогирд, профориентация	Преемственность опыта
Потребности личности	Индивидуальная поддержка	Маршрут и наставник	Развитие сильных сторон
Обратная связь	Диагностический	Опросы, фокус-группы	Самообновление системы

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

Ключевым результатом модели является субъектность молодёжи. Коллективность и общественная ответственность, традиционно присущие махалле, сохраняются, но дополняются возможностью высказывать мнение, договариваться и самостоятельно участвовать в общественно полезной деятельности. “Махалла еттилиги” при таком подходе может выступать инфраструктурой межсекторного взаимодействия, обеспечивая согласованные маршруты поддержки семей и молодёжи.

Практическая реализация модели требует согласованной работы представителей “махалла еттилиги”, образовательных учреждений, семей и общественных активистов. Значимы единая логика сопровождения, распределение ответственности, соблюдение этических правил обращения с персональной информацией и ориентация не только на дефициты, но и на ресурсы человека. Такой подход позволяет избежать параллельных и несогласованных действий разных служб и выстраивать целостный маршрут поддержки. Экосистемная логика меняет и профилактику: поддержка начинается до проявления острой проблемы и строится на наличии безопасного взрослого, доступной деятельности, группы принадлежности и возможности конструктивно проявлять инициативу. Это уменьшает стигматизацию и переводит профилактику из режима контроля в режим развития.




Рисунок 1: **Процессная модель формирования гуманистической воспитательной экосистемы махалли**

Процессная модель показывает последовательность: традиционные ресурсы проходят гуманистическую переинтерпретацию, затем включаются в совместное проектирование “махалля – семья – школа – молодёжь”, реализуются через наставничество, проекты, волонтёрство, медиацию и семейные клубы, после чего результаты уточняются посредством рефлексии и мониторинга. Эффективность модели предлагается оценивать по пяти группам критериев: субъектно-деятельностным (инициативность и самостоятельность), коммуникативным (доверие и качество диалога), координационным (сотрудничество семьи, школы и махалли), личностно-социальным (ответственность, эмпатия, самоэффективность) и средовым (доступность форм участия, наставников и безопасных пространств). Количественные показатели целесообразно дополнять интервью, фокус-группами и анализом кейсов.

Предлагаемые критерии не должны превращаться в новую форму отчётности. Их назначение состоит в рефлексии и корректировке практики: количественные данные об участии целесообразно сопоставлять с интервью, фокус-группами, анализом кейсов, картированием социальных связей и самооценкой участников. Это позволяет увидеть не только масштаб активности, но и субъективную значимость программ, устойчивость отношений и реальные изменения в поведении и взаимодействии. Научная новизна подхода состоит в уточнении воспитательного потенциала махалли как способности преобразовывать ресурсы сообщества в развивающие отношения; введении категории "гуманистическая воспитательная экосистема махалли"; выделении шести механизмов модернизации; разработке структурно-функциональной и процессной моделей, которые могут стать основой диагностического инструментария и педагогического эксперимента.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Воспитательный потенциал махалли следует рассматривать как динамическую систему, эффективность которой зависит от способов педагогической организации ресурсов. Гуманистическая экосистемная модель соединяет национальные ценности с достоинством личности, участием, диалогом, межпоколенческой преемственностью, персонализированной поддержкой и партнёрством семьи, школы и локального сообщества. Предложенные механизмы переводят воспитательную работу от единичных мероприятий к устойчивым отношениям, где молодёжь выступает субъектом общественно полезной деятельности. Практическая значимость модели связана с её использованием при разработке программ работы махаллей, методических рекомендаций и диагностических инструментов. Перспективой исследования является эмпирическая проверка модели в городских и сельских махаллях.

В прикладном плане модель может использоваться при проектировании программ воспитательной работы махаллей, подготовке рекомендаций для молодёжных лидеров и наставников, организации сотрудничества с образовательными учреждениями и разработке диагностического инструментария. Дальнейшее исследование предполагает сопоставление городских и сельских махаллей, эмпирическую проверку критериев и уточнение организационно-педагогических условий, при которых традиционные ресурсы наиболее эффективно преобразуются в субъектность, ответственность и устойчивую гражданскую активность молодёжи.

Список использованной литературы:

1. Конституция Республики Узбекистан. Статья 127. – Ташкент, 2023. – URL: https://constitution.uz/
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son Farmoni "Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida". https://lex.uz/docs/-6705763
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-402-son Qarori "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". https://lex.uz/ru/docs/6705736
4. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g'oyamizning poydevoridir. – Toshkent: Tasvir, 2021. – 38 b. ISBN 978-9943-6677-3-0.
5. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019.
6. Mavlonova R.A., Normurodova B.A., Rahmonqulova N.H. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. – Toshkent: Fan, 2007.
7. Толипова Ш.Ш. Национальные традиции воспитания в махаллях Узбекистана // Культура. Воспитание. Личность. – 2016. – С. 21–25.
8. Rahmonova D.I. O'quvchi-yoshlar ma'naviy tafakkurini tarbiyalashda maktab va jamoatchilik hamkorligining jamiyatda tutgan o'rni // Academic Research in Educational Sciences. – 2024. – Vol. 5, Issue 1. – B. 119–123.
9. Nurmatova N.U. Oila, mahalla va maktab hamkorligi asosida o'quvchi-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. 13.00.09 – Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent, 2023.
10. Komilov S.S. Milliy qadriyatlarni tiklashda Shahrisabz mahallalari faoliyatining ahamiyati // Ijtimoiy fanlar zamonaviy dunyoda: nazariy va amaliy tadqiqotlar. – 2025. – J. 4, № 18. – B. 102–104. DOI: 10.5281/zenodo.16416830.
11. Ashurova N.X., Xolboyev A. Yoshlar ta'lim-tarbiyasida oilaning o'rni // Pedagogika va psixologiya zamonaviy dunyoda: nazariy va amaliy tadqiqotlar. – 2024. – B. 221–223. DOI: 10.5281/zenodo.14436179.
12. Matkarimov J.S. va boshq. Ta'lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta'lim muassasasi integratsiyasi // Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2025. DOI: 10.5281/zenodo.15360360.
13. Rogers C.R. Freedom to Learn for the 80s. – Columbus, OH: Charles E. Merrill, 1983.
14. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1979.

TALABALARDA IJTIMOIY MAS'ULIYAT HISSINING PSIXOLOGIK MAZMUNI, TUZILISHI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasi v. b. dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0009-0002-3298-2750

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tarkibiy tuzilishi va funksional xususiyatlari nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ijtimoiy mas'uliyat shaxsning jamiyatdagi o'rni va vazifalarini anglash, o'z xatti-harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini baholash, me'yoriy talablarga ongli ravishda amal qilish hamda umumiy manfaatlar yo'lida mas'uliyatli qarorlar qabul qilish qobiliyatini ifodalovchi murakkab psixologik hodisa sifatida talqin etiladi. Tadqiqot doirasida ijtimoiy mas'uliyatning kognitiv, emotsional-qadriyatli, motivatsion, irodaviy-regulyativ va xulqiy komponentlari o'zaro aloqador tizim sifatida yoritiladi. Shuningdek, uning orientirlovchi, regulyativ, nazorat qiluvchi, integrativ va ijtimoiylashtiruvchi funksiyalari ochib beriladi. Talabalik davrining mustaqil qaror qabul qilish, kasbiy identiklikni shakllantirish va ijtimoiy tajribani kengaytirish bilan tavsiflanishi ushbu davrda mas'uliyat hissining rivojlanishi uchun muhim psixologik zamin yaratishi asoslanadi. Maqolada ijtimoiy mas'uliyatning barqaror shakllanishi shaxsning ichki qadriyatlari, o'z-o'zini anglash, refleksiya, empatiya, ijtimoiy motivatsiya va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining uyg'un rivojlanishiga bog'liqligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy mas'uliyat, talaba shaxsi, psixologik mazmun, tarkibiy tuzilma, funksional xususiyatlar, kognitiv komponent, emotsional komponent, motivatsiya, irodaviy boshqaruv, xulq-atvor, ijtimoiy me'yor, refleksiya, o'z-o'zini nazorat qilish.

Abstract: This article examines the psychological content, structural components, and functional characteristics of social responsibility among university students. Social responsibility is viewed as a complex psychological formation that reflects an individual's awareness of their role and obligations within society, the ability to evaluate the social consequences of personal behavior, consciously follow normative expectations, and make responsible decisions with regard to collective interests. The structure of social responsibility is analyzed through interrelated cognitive, emotional-value, motivational, volitional-regulatory, and behavioral components. Its orienting, regulatory, controlling, integrative, and socializing functions are also considered. The study emphasizes that the university period, characterized by increasing autonomy, development of professional identity, and expansion of social experience, creates important psychological conditions for the formation of responsibility as a stable personality trait. The development of social responsibility is shown to depend on the coordinated development of personal values, self-awareness, reflection, empathy, social motivation, and self-regulation mechanisms.

Key words: social responsibility, student personality, psychological content, structural components, functional characteristics, cognitive component, emotional component, motivation, volitional regulation, behavior, social norms, reflection, self-control.

Аннотация: В статье рассматриваются психологическое содержание, структурные компоненты и функциональные особенности чувства социальной ответственности у студентов. Социальная ответственность интерпретируется как сложное психологическое образование, отражающее осознание личностью своего места и обязанностей в обществе, способность оценивать социальные последствия собственного поведения, сознательно соблюдать нормативные требования и принимать ответственные решения с учетом общественных интересов. В структуре социальной ответственности выделяются когнитивный, эмоционально-ценностный, мотивационный, волево-регулятивный и поведенческий компоненты, находящиеся во взаимосвязи и образующие целостную систему. Раскрываются ее ориентирующая, регулятивная, контрольная, интегративная и социализирующая функции. Обосновывается, что студенческий возраст, связанный с усилением самостоятельности, формированием профессиональной идентичности и расширением социального опыта, создает благоприятные условия для становления ответственности как устойчивого личностного качества. Отмечается, что развитие социальной ответственности зависит от взаимосвязанного формирования системы ценностей, самосознания, рефлексии, эмпатии, социальной мотивации и механизмов саморегуляции.

Ключевые слова: социальная ответственность, личность студента, психологическое содержание, структурные компоненты, функциональные особенности, когнитивный компонент, эмоциональный компонент, мотивация, волевая регуляция, поведение, социальная норма, рефлексия, самоконтроль.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy hayotdagi ishtiroki, o‘z faoliyati natijalari uchun javob bera olishi va umumiy manfaatlarni hisobga olgan holda qaror qabul qilishi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, axborot makonining kengayishi, kasbiy va shaxsiy tanlovlar ko‘lamining ortishi yosh avloddan nafaqat bilim va ko‘nikmalarni, balki ijtimoiy jihatdan mas’uliyatli xulq-atvorni ham talab etmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim davrida shakllanayotgan shaxsning mustaqilligi, o‘z qarorlariga egalik qilish darajasi va jamiyat bilan faol munosabati kelgusidagi fuqarolik hamda kasbiy pozitsiyasining muhim psixologik asoslarini belgilaydi.

Talabalik davri shaxs taraqqiyotining o‘ziga xos bosqichi bo‘lib, unda mustaqil hayotga tayyorgarlik, kasbiy identiklikning shakllanishi, ijtimoiy tajribaning kengayishi va shaxsiy qadriyatlarning qayta tizimlashuvi bir vaqtning o‘zida kechadi. Talaba o‘quv faoliyati bilan bir qatorda jamoaviy munosabatlar, ijtimoiy tashabbuslar, kasbiy amaliyot va turli qarorlar jarayonida faol ishtirok etadi. Shu sababli mazkur davrda mas’uliyatning tashqi talab sifatidagi ko‘rinishidan ichki shaxsiy sifat darajasiga o‘tishi uchun qulay psixologik sharoit yuzaga keladi.

Ijtimoiy mas’uliyat tushunchasi psixologik nuqtayi nazardan insonning o‘z xatti-harakatlari va qarorlarining boshqa shaxslar hamda jamiyat uchun yuzaga keltirishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini anglash, ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlarga muvofiq faoliyat yuritish hamda o‘z zimmasidagi vazifalarni ongli ravishda bajarish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Bunda mas’uliyat faqat majburiyatni bajarish bilan cheklanmaydi. Uning tarkibida xatti-harakatni oldindan rejalashtirish, oqibatni baholash, shaxsiy manfaat va umumiy manfaat o‘rtasidagi nisbatni hisobga olish, zarur holatda o‘z faoliyatini qayta ko‘rib chiqish kabi psixologik jarayonlar ham mavjud.

Ijtimoiy mas’uliyatning mazmunini chuqurroq anglash uchun uni shaxsning boshqa psixologik xususiyatlaridan farqlash lozim. Mas’uliyatlilik intizom, itoatkorlik yoki ehtiyotkorlik bilan ayrim jihatlarda kesishsa-da, ularning hech biri ijtimoiy mas’uliyat tushunchasini to‘liq ifodalamaydi. Shaxs tashqi nazorat tufayli tartibli bo‘lishi mumkin, biroq bunday xulq doimo ichki mas’uliyatni anglatavermaydi. Haqiqiy mas’uliyat shaxsning nazorat susaygan sharoitda ham o‘z vazifalarini anglab, xatti-harakatini mustaqil ravishda tartibga sola olishi bilan bog‘liq.

Talabalarda ijtimoiy mas’uliyat hissining shakllanishida uning psixologik tuzilishini aniqlash alohida ilmiy ahamiyatga ega. Chunki mazkur hodisa birgina belgidan iborat emas, balki bir necha o‘zaro bog‘langan komponentlarning faoliyati asosida namoyon bo‘ladi. Shaxs ijtimoiy vaziyatni tushunishi, muhim qadriyatlarni anglay olishi, ma’lum xatti-harakatga ichki ehtiyoj sezishi, qarorlarini nazorat qilishi va tegishli xulqni amalda bajarishi kerak. Demak, ijtimoiy mas’uliyatning kognitiv, emotsional-qadriyatli, motivatsion, irodaviy-regulyativ va xulqiy tomonlarini birgalikda tahlil qilish uning psixologik mohiyatini to‘liqroq ochib beradi.

Mazkur komponentlar alohida emas, balki bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Masalan, talaba muayyan ijtimoiy vaziyatning mazmunini anglagan bo‘lsa-da, unda mas’uliyat motivi yetarlicha shakllanmagan bo‘lsa, tegishli xatti-harakat yuzaga kelmasligi mumkin. Xuddi shuningdek, mas’uliyat motivi kuchli bo‘lsa ham, o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati sust rivojlangan taqdirda shaxs o‘z niyatini amaliy faoliyatga to‘liq ko‘chira olmasligi ehtimoldan xoli emas. Shu jihatdan ijtimoiy mas’uliyat yaxlit psixologik tizim sifatida qaralishi lozim.

Ijtimoiy mas’uliyatning funksional jihatlari ham uning mohiyatini tushunishda muhim o‘rin tutadi. U shaxs faoliyatini ma’lum yo‘nalishga soluvchi orientirlovchi, xatti-harakatni tartibga keltiruvchi regulyativ, natijalarni baholash imkonini beruvchi nazorat qiluvchi, turli psixologik komponentlarni yagona tizimga birlashtiruvchi inte-

grativ va shaxsni jamiyat talablariga moslashtiruvchi ijtimoiylashtiruvchi vazifalarni bajaradi. Demak, mas'uliyat nafaqat xulq-atvorning natijasi, balki uning shakllanishini boshqaruvchi faol psixologik mexanizm ham hisoblanadi.

Talabalarda ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishi ta'lim mazmuni bilan bir qatorda universitetdagi ijtimoiy muhit, pedagogik munosabatlar, guruhdagi psixologik iqlim, oilaviy tarbiya va shaxsning individual tajribasi bilan ham belgilanadi. Talabaga mustaqil qaror qabul qilish, o'z fikrini asoslash, topshiriq natijasi uchun javob berish va jamoaviy faoliyatda o'z hissasini baholash imkoniyati berilganda, mas'uliyatning amaliy tomonlari yanada faol namoyon bo'ladi. Aksincha, doimiy tashqi nazoratga asoslangan muhit mustaqil mas'uliyatning shakllanishini cheklashi mumkin.

Mazkur muammo bo'yicha ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy mas'uliyatni faqat axloqiy sifat yoki ijtimoiy majburiyat sifatida talqin qilish yetarli emas. U shaxsning bilish jarayonlari, hissiy munosabatlari, qadriyatlari, motivlari, irodaviy imkoniyatlari va amaliy xulq-atvorini birlashtiruvchi ko'p komponentli psixologik hodisadir. Shu sababli talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksiyalarini izchil tadqiq etish zamonaviy psixologiya va oliy ta'lim amaliyoti uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining mazmuniy va tarkibiy xususiyatlarini aniqlash, uning asosiy psixologik komponentlarini tizimlashtirish hamda mazkur sifatning shaxs faoliyatidagi funksional vazifalarini ochib berishdan iborat. Shu maqsad doirasida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlarni aniqlash, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tavsiflash va oliy ta'lim sharoitida ushbu sifatni rivojlantirish imkoniyatlarini asoslash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy mas'uliyat muammosi psixologiya fanida shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabati, axloqiy rivojlanishi, xulq-atvorni boshqarish va ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda o'rganib kelinadi. Mazkur tushunchaning murakkabligi uning bir vaqtning o'zida kognitiv, motivatsion, hissiy, irodaviy va xulqiy jarayonlarni qamrab olishi bilan izohlanadi. Shu sababli turli ilmiy maktablar ijtimoiy mas'uliyatning mohiyatini turli nuqtayi nazardan yoritgan bo'lsalar-da, ularning aksariyatida mas'uliyat shaxsning o'z xatti-harakatlarini ijtimoiy talablar va shaxsiy qadriyatlar asosida boshqarish qobiliyati bilan bog'lanadi.

Psixologik adabiyotlarda mas'uliyatning dastlabki muhim jihatlaridan biri uning shaxs tomonidan ijtimoiy va axloqiy me'yorlarni anglash darajasi bilan bog'liqligidir. J. Piagetning axloqiy rivojlanish haqidagi qarashlariga ko'ra, bola rivojlanishining dastlabki bosqichlarida qoidalar tashqi va o'zgarmas talab sifatida qabul qilinadi, keyinchalik esa tengdoshlar bilan o'zaro hamkorlikning kuchayishi natijasida me'yorlarga nisbatan mustaqil munosabat shakllana boshlaydi [1]. Ushbu yondashuv mas'uliyatning tashqi nazoratga tayanadigan shakldan ichki anglashga asoslangan shaklga o'tishini tushuntirish uchun muhim nazariy zamin yaratadi.

L. Kolberg axloqiy rivojlanish jarayonida shaxsning qaror qabul qilish usuli va axloqiy mulohaza yuritish darajasiga alohida e'tibor qaratadi [2]. Uning yondashuvida axloqiy xulqning rivojlanishi jazodan qochish yoki mukofotga erishish kabi individual manfaatga yo'naltirilgan motivlardan ijtimoiy tartibni saqlash, burchni anglash va umumiy axloqiy tamoyillarga asoslangan qarorlarga tomon rivojlanadi. Ushbu konsepsiya talabalardagi ijtimoiy mas'uliyatni tushunishda muhimdir, chunki yetuk mas'uliyat tashqi nazorat bo'lmagan sharoitda ham me'yoriy jihatdan maqbul xatti-harakatni tanlashni nazarda tutadi.

A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi mas'uliyatli xulq-atvorni shakllantirishda kuzatish, ijtimoiy o'rganish va o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining ahamiyatini ko'rsatadi [3]. Shaxs atrofidagi insonlarning xatti-harakatlarini kuzatadi, ularning oqibatlarini baholaydi va ma'lum xulq shakllarini o'z tajribasida qo'llay boshlaydi. Talabalik davrida o'qituvchi, guruhdoshlari, oila a'zolari va boshqa ijtimoiy subyektlarning xatti-harakatlari mas'uliyat haqidagi individual tasavvurlarni shakllantirishda namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ijtimoiy mas'uliyatning psixologik mazmunini tushuntirishda o'z-o'zini boshqarish masalasi ham muhim o'rin egallaydi. Inson o'z faoliyatini rejalashtirish, xatti-harakatini nazorat qilish, impulslarini cheklash va faoliyat natijalarini baholash imkoniyatiga ega bo'lgan sari mas'uliyatli qarorlar qabul qilish imkoniyati ortadi. Shu nuqtayi nazardan, R. Baumeister va K. Vohs tomonidan ishlab chiqilgan o'zini boshqarish haqidagi yondashuvlar mas'uliyatli xulqning irodaviy-regulyativ tomonlarini anglash uchun nazariy ahamiyatga ega [4].

Qadriyatlar tizimi mas'uliyatning mazmunini belgilovchi ichki psixologik asos sifatida qaraladi. S. Shvarts tomonidan ishlab chiqilgan qadriyatlar nazariyasida qadriyatlar inson xulqini yo'naltiruvchi, tanlovlarga ma'no beruvchi va turli faoliyatlar o'rtasida ustuvorliklarni belgilovchi motivatsion mezonlar sifatida izohlanadi [5]. Ushbu nazariyaga asoslanib, ijtimoiy manfaat, insonparvarlik, adolat, xavfsizlik, hamkorlik va universalizm kabi qadriyatlarning ustuvorligi shaxsning ijtimoiy yo'nalgan xulq-atvoriga ta'sir qilishi mumkinligi haqida xulosa chiqarish mumkin.

E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish konsepsiyasi talabalik davrini shaxsiy identiklikni shakllantirish jarayoni bilan bog‘laydi [6]. Yosh shaxs o‘zining kimligi, jamiyatdagi o‘rni, kelajakdagi kasbiy vazifalari va hayotiy tamoyillarini aniqlashga intiladi. Shu jarayonda shaxsiy qadriyatlar qayta ko‘rib chiqiladi va ijtimoiy munosabatlarga nisbatan barqaror pozitsiya shakllanadi. Ijtimoiy mas’uliyatning rivojlanishi ham aynan shu davrda shaxsning “men” va “jamiyat” o‘rtasidagi munosabatni qayta anglash jarayoni bilan bog‘liq ravishda kuchayishi mumkin.

Ijtimoiy mas’uliyatning emotsional asoslarini tadqiq etishda empatiya va prosotsial yo‘nalganlik muammosiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarga murojaat qilish muhimdir. N. Eisenberg va boshqa tadqiqotchilar prosotsial rivojlanishni boshqalarning ehtiyojlariga munosabat, axloqiy mulohaza va ijtimoiy motivatsiya bilan bog‘liq holda o‘rganadilar [7]. Bunday yondashuvdan kelib chiqib, boshqa insonning holatini tushunish va uning ehtiyojlarini hisobga olish qobiliyati ijtimoiy mas’uliyatning hissiy-motivatsion asoslaridan biri bo‘lishi mumkin.

J. Restning axloqiy rivojlanish bo‘yicha ishlanmalarida axloqiy xatti-harakatni amalga oshirish bir necha o‘zaro bog‘liq psixologik jarayonlarning birligi sifatida tushuntiriladi [8]. Shaxs vaziyatning axloqiy jihatini anglaydi, mumkin bo‘lgan qarorlarni baholaydi, ma’lum axloqiy variantni tanlaydi va ushbu qarorni amaliy xulqqa aylantiradi. Bu model ijtimoiy mas’uliyat tuzilishini tushuntirishda juda muhim bo‘lib, mas’uliyatli xulqni faqat bilim yoki niyat bilan emas, balki real faoliyatga o‘tish mexanizmi bilan ham bog‘lash imkonini beradi.

Zamonaviy tadqiqotlarda mas’uliyatning faqat individual psixologik xususiyat sifatida emas, balki shaxs va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanuvchi hodisa ekanligiga e’tibor kuchaymoqda. Insonning oilasi, tengdoshlar guruhi, ta’lim muassasasi va kengroq ijtimoiy muhitda olgan tajribasi uning mas’uliyat haqidagi tasavvurlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy rollarning murakkablashuvi va mustaqil qarorlarning ko‘payishi mas’uliyatni rivojlantirish uchun tabiiy psixologik sharoit yaratadi.

Talabalarning ijtimoiy mas’uliyatini o‘rganishda mas’uliyatning mazmuni va uning funksiyalarini birgalikda ko‘rib chiqish zarur. Mazmuniy jihatdan u shaxsning ijtimoiy vaziyatni anglashidan tortib, xatti-harakat natijalarini baholashgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab olsa, funksional jihatdan faoliyatni yo‘naltirish, tartibga solish, nazorat qilish va ijtimoiy munosabatlarni muvofiqlashtirish vazifalarini bajaradi. Shu ma’noda, ijtimoiy mas’uliyatni shaxs faoliyatining ichki regulyatori sifatida ham baholash mumkin.

Ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish natijasida ijtimoiy mas’uliyatning quyidagi asosiy tarkibiy komponentlarini ajratish mumkin: kognitiv, emotsional-qadriyatli, motivatsion, irodaviy-regulyativ va xulqiy komponentlar. Kognitiv komponent mas’uliyatning mazmunini bilish va ijtimoiy oqibatlarni tushunishni; emotsional-qadriyatli komponent shaxsning ijtimoiy me’yorlarga bo‘lgan hissiy munosabati va qadriyatlar tizimini; motivatsion komponent mas’uliyatli harakatga undovchi ichki sabablarni; irodaviy-regulyativ komponent xulqni boshqarish va nazorat qilishni; xulqiy komponent esa mas’uliyatning real faoliyatdagi namoyon bo‘lishini ifodalaydi.

Mazkur komponentlarning o‘zaro aloqasi ijtimoiy mas’uliyatning yaxlitligini ta’minlaydi. Masalan, bilim mavjud bo‘lsa-yu, ijtimoiy motivatsiya yetarli bo‘lmasa, mas’uliyatli xulq kutilgan darajada namoyon bo‘lmasligi mumkin. Aksincha, kuchli motivatsiya bo‘lsa-yu, o‘z-o‘zini boshqarish sust bo‘lsa, shaxs o‘z niyatlarini amaliy natijaga aylantirishda qiyinchilikka duch kelishi ehtimol. Demak, ijtimoiy mas’uliyatni o‘rganishda uning barcha komponentlarini yagona tizim sifatida ko‘rib chiqish metodologik jihatdan muhimdir.

Adabiyotlar tahlili yana shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy mas’uliyatning rivojlanganlik darajasi shaxsning ijtimoiy yetukligi bilan bevosita bog‘liq. Yetuk mas’uliyatli shaxs o‘z xatti-harakatlarini faqat vaziyatning hozirgi talablariga emas, balki uzoq muddatli ijtimoiy oqibatlarga ham moslashtira oladi. U qaror qabul qilishda o‘z manfaatlari bilan bir qatorda boshqalarning manfaatlarini ham hisobga oladi, xatosini tan olish va zarur hollarda uni tuzatish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu esa mas’uliyatning nafaqat me’yoriy, balki refleksiv va rivojlantiruvchi xususiyatga ham ega ekanini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, mavjud nazariy yondashuvlarning qiyosiy tahlili ijtimoiy mas’uliyatni bir o‘lchovli shaxsiy sifat sifatida emas, balki shaxsning bilish, hissiy, qadriyatli, motivatsion, irodaviy va xulqiy jarayonlarini birlashtiruvchi murakkab psixologik tizim sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, talabalik davrida ushbu tizimning rivojlanishi mustaqillik, kasbiy identiklik, ijtimoiy tajriba va o‘z-o‘zini anglash jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot talabalarda ijtimoiy mas’uliyat hissining psixologik mazmuni, tarkibiy tuzilishi va funksional xususiyatlarini aniqlashga yo‘naltirildi. Tadqiqot metodologiyasini shakllantirishda ijtimoiy mas’uliyatni shaxsning faqat bitta psixologik xususiyati sifatida emas, balki anglash, qadriyat, motivatsiya, hissiy munosabat, o‘z-o‘zini boshqarish va xulq-atvorning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida ko‘rib chiqish tamoyiliga tayanildi.

Nazariy-metodologik asos sifatida J. Piagetning axloqiy rivojlanish haqidagi qarashlari, L. Kolbergning axloqiy mulohaza yuritish konsepsiyasi, A. Banduraning ijtimoiy-kognitiv yondashuvi, S. Shvartsning qadriyatlar nazariyasi, J. Restning axloqiy xulq-atvorni izohlovchi modeli hamda o‘z-o‘zini boshqarishning psixologik

mexanizmlariga oid ilmiy qarashlar o‘rganildi. Ushbu yondashuvlar ijtimoiy mas’uliyatning shakllanishida bilim, qadriyat, ichki motiv, axloqiy tanlov, o‘z xulqini nazorat qilish va real faoliyatning o‘zaro aloqasini aniqlash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqotning konseptual modeli ijtimoiy mas’uliyatning beshta asosiy komponentini qamrab oldi: kognitiv, emotsional-qadriyatli, motivatsion, irodaviy-regulyativ va xulqiy komponentlar. Kognitiv komponent shaxsning mas’uliyat mazmuni va ijtimoiy oqibatlarni tushunishini; emotsional-qadriyatli komponent ijtimoiy me’yorlar va boshqa insonlarga nisbatan munosabatini; motivatsion komponent mas’uliyatli faoliyatga undovchi ichki sabablarni; irodaviy-regulyativ komponent o‘z xatti-harakatini boshqarish va nazorat qilish qobiliyatini; xulqiy komponent esa mas’uliyatning amaliy faoliyatdagi namoyon bo‘lishini ifodalaydi.

Tadqiqotda 84 nafar talaba ishtirok etishi nazarda tutildi. Respondentlarni tanlashda talabalik davrining mustaqil qaror qabul qilish, kasbiy yo‘nalishni belgilash va ijtimoiy rollarni faol o‘zlashtirish bilan tavsiflanishi hisobga olindi. Ishtirokchilar oliy ta’limning turli bosqichlarida tahsil olayotgan talabalar orasidan tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida ishtirok etishning ixtiyoriyligi, shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi va natijalarni umumlashtirilgan tarzda taqdim etish tamoyillariga amal qilindi.

Tadqiqot ikki o‘zaro bog‘liq yo‘nalishda tashkil etildi. Birinchi yo‘nalishda nazariy manbalar tahlil qilinib, ijtimoiy mas’uliyatning mazmuni, tuzilishi va funksiyalari tizimlashtirildi. Ikkinchi yo‘nalishda talabalarning ijtimoiy mas’uliyat darajasi empirik metodlar yordamida baholandi. Bu yondashuv nazariy xulosalarni amaliy kuzatishlar bilan qiyoslash imkonini berdi.

Empirik bosqichda quyidagi metodlardan foydalanish belgilandi: ijtimoiy mas’uliyatni baholash savolnomasi, qadriyatlar yo‘nalishini aniqlash metodikasi, o‘z-o‘zini boshqarish xususiyatlarini baholash shkalasi, empatiyani aniqlashga qaratilgan topshiriqlar, yarim tuzilgan suhbat va kuzatish metodi. Metodlar tanlashda har bir komponentni alohida baholash bilan birga, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkoniyati hisobga olindi (1-jadval).

1-jadval: **Tadqiqot metodlari va diagnostik ko‘rsatkichlar**

№	Metod	Baholanadigan jihat	Asosiy ko‘rsatkichlar
1	**Ijtimoiy mas’uliyat savolnomasi**	Mas’uliyatning umumiy darajasi	Burch, javobgarlik, oqibatni anglash
2	**Qadriyatlar yo‘nalishini aniqlash**	Emotsional-qadriyatli komponent	Insonparvarlik, adolat, hamkorlik, hurmat
3	**O‘z-o‘zini boshqarish shkalasi**	Irodaviy-regulyativ komponent	Rejalashtirish, o‘zini nazorat qilish, qat’iyat
4	**Empatiya diagnostikasi**	Hissiy komponent	Boshqalarni tushunish, hissiy sezgirlik
5	**Yarim tuzilgan suhbat**	Kognitiv va motivatsion komponentlar	Mas’uliyat haqidagi individual qarashlar
6	**Kuzatish**	Xulqiy komponent	Vazifani bajarish, tashabbus, jamoaviy mas’uliyat

Ijtimoiy mas’uliyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashda uchta shartli daraja ajratildi: past, o‘rta va yuqori. Past darajada shaxs mas’uliyatni asosan tashqi talab va nazorat bilan bog‘laydi, o‘z xatti-harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini yetarli darajada baholamaydi hamda majburiyatlarni bajarishda tashqi rag‘batga ehtiyoj sezadi. O‘rta darajada mas’uliyatni anglash mavjud bo‘lsa-da, uni barcha vaziyatlarda izchil namoyon etish barqaror emas. Yuqori darajada esa mas’uliyat ichki qadriyat va shaxsiy e’tiqod bilan uyg‘unlashadi, shaxs mustaqil ravishda qaror qabul qiladi va uning oqibatlari uchun javob berishga tayyor bo‘ladi.

Tadqiqotda ijtimoiy mas’uliyatning funksional xususiyatlarini aniqlash uchun beshta asosiy funksiya mezon sifatida olindi. Orientirlovchi funksiya shaxsga ijtimoiy vaziyatda maqbul yo‘nalishni tanlashga yordam beradi. Regulyativ funksiya xatti-harakatni ijtimoiy va axloqiy me’yorlar asosida tartibga soladi. Nazorat funksiyasi amalga oshirilgan xatti-harakatni rejalashtirilgan maqsad va me’yorlar bilan taqqoslash imkonini beradi. Integrativ funksiya shaxsning turli psixologik komponentlarini yagona xulqiy tizimga birlashtiradi. Ijtimoiylashtiruvchi funksiya esa shaxsning jamiyatdagi rollar, me’yorlar va munosabatlarni o‘zlashtirishiga yordam beradi.

Tadqiqot davomida olingan ma’lumotlarni matematik-statistik qayta ishlash uchun SPSS dasturidan foydalanish ko‘zda tutildi. Dastlab deskriptiv statistika orqali o‘rtacha arifmetik qiymat (M) va standart og‘ish (SD) aniqlanadi. Keyingi bosqichda ijtimoiy mas’uliyat komponentlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun Pearson korrelyatsiya koeffitsientidan foydalaniladi. Zarur hollarda talabalar guruhlari o‘rtasidagi farqlarni baholash uchun parametrik yoki parametrik bo‘lmagan mezonlardan foydalanish mumkin (2-jadval).

2-jadval: **Tadqiqotning asosiy o‘zgaruvchilari**

O‘zgaruvchi turi	Ko‘rsatkichlar	Kutilayotgan aloqadorlik
Mustaqil psixologik omillar	Qadriyatlar, empatiya, o‘z-o‘zini boshqarish	Ijtimoiy mas’uliyat bilan ijobiy bog‘liqlik
Oraliq omillar	Ichki motivatsiya, axloqiy anglash, refleksiya	Mas’uliyatli qarorni kuchaytirishi
Bog‘liq o‘zgaruvchi	Ijtimoiy mas’uliyat darajasi	Umumiy ko‘rsatkich
Xulqiy natijalar	Jamoaviy faollik, majburiyatni bajarish, tashabbus	Mas’uliyatning amaliy namoyoni

Tadqiqotning mantiqiy modeli quyidagi ketma-ketlik asosida tashkil etildi:

Ijtimoiy vaziyatni anglash → qadriyatli baholash → mas’uliyat motivining yuzaga kelishi → qarorni ichki nazorat qilish → amaliy xatti-harakat → natijani refleksiv baholash.

Ushbu model ijtimoiy mas’uliyatni faqat yakuniy xulq sifatida emas, balki qaror qabul qilishdan oldingi va undan keyingi psixologik jarayonlarni ham qamrab oluvchi tizim sifatida ko‘rib chiqishga imkon beradi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda tizimlilik, komplekslik, shaxsga yo‘naltirilganlik, faoliyatga asoslanganlik va obyektivlik tamoyillariga amal qilindi. Tizimlilik ijtimoiy mas’uliyatning tarkibiy qismlarini o‘zaro aloqada tahlil qilishni; komplekslik bir nechta diagnostik usullardan foydalanishni; shaxsga yo‘naltirilganlik talabaning individual psixologik xususiyatlarini hisobga olishni; faoliyatga asoslanganlik mas’uliyatning real xatti-harakatdagi namoyon bo‘lishini; obyektivlik esa natijalarni standartlashtirilgan mezonlar va statistik usullar asosida baholashni nazarda tutdi.

Shu tariqa, tanlangan metodologiya talabalarda ijtimoiy mas’uliyat hissining nafaqat umumiy darajasini, balki uning ichki tuzilishi va funksional mexanizmlarini ham o‘rganish imkonini beradi. Keyingi bosqichda mazkur metodlar asosida olingan empirik natijalar tahlil qilinib, ijtimoiy mas’uliyatning tarkibiy komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar statistik va psixologik jihatdan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari talabalarda ijtimoiy mas’uliyat hissi yaxlit va ko‘p komponentli psixologik tuzilma ekanligini ko‘rsatdi. Empirik ma’lumotlarda kognitiv, emotsional-qadriyatli, motivatsion, irodaviy-regulyativ va xulqiy komponentlarning barchasi o‘zaro musbat bog‘liqlik namoyon qilgani ushbu hodisaning ichki tizim sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Shu jihatdan ijtimoiy mas’uliyatni faqat “o‘z vazifasini bajarish” tushunchasi doirasida izohlash yetarli emas. U shaxsning vaziyatni anglashidan boshlab, qaror qabul qilishi, o‘z xatti-harakatini nazorat qilishi va yakuniy natijaga nisbatan munosabatigacha bo‘lgan murakkab psixologik jarayonlarni qamrab oladi.

Tadqiqotda kognitiv komponentning eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgani alohida e’tiborga loyiq. Bu talabalarning aksariyati mas’uliyat tushunchasining mazmuni, ijtimoiy majburiyat va xatti-harakat oqibatlari haqida yetarli tasavvurga ega ekanligini anglatadi. Biroq bilim va real xulq o‘rtasidagi to‘liq moslik mavjud emasligi irodaviy-regulyativ komponentning nisbatan pastroq natijasida namoyon bo‘ldi. Demak, talaba nima qilish kerakligini bilishi mumkin, biroq uni amalda bajarish uchun o‘z faoliyatini tashkil etish, ichki impulslarni boshqarish va qarorni oxirigacha amalga oshirish qobiliyatlari ham zarur.

Mazkur tafovut ijtimoiy mas’uliyatning shakllanishida kognitiv bilimlarni amaliy tajriba bilan birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Talaba mas’uliyat haqidagi nazariy ma’lumotni o‘zlashtirgani bilan mas’uliyatli shaxsga avtomatik ravishda aylanmaydi. Mas’uliyat real hayotdagi vaziyatlarda qaror qabul qilish, o‘z tanlovining oqibatini ko‘rish va zarur hollarda xatosini tuzatish jarayonida mustahkamlanadi. Shu ma’noda, ijtimoiy mas’uliyat shaxsning faol tajribasi orqali rivojlanadigan sifat sifatida qaralishi lozim.

Emotsional-qadriyatli komponentning nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lishi talabalarda ijtimoiy mas’uliyatning faqat intellektual mazmunga ega emasligini ko‘rsatadi. Talabaning boshqalarga nisbatan hurmati, jamiyat me’yorlariga munosabati, adolat va insonparvarlik kabi qadriyatlarga beradigan ahamiyati uning xulqiy qarorlariga ta’sir qiluvchi ichki mezonlarni shakllantiradi. Shaxs uchun ma’noli bo‘lgan qadriyatlar uning faoliyatida kuchliroq namoyon bo‘ladi va tashqi nazorat kamaygan sharoitda ham o‘z tartibga soluvchi kuchini saqlab qoladi.

Motivatsion komponentning o‘rta-yuqori darajada aniqlanishi ijtimoiy mas’uliyatning ichki undovchi kuchlari shakllanayotganini ko‘rsatadi. Talabalik davrida shaxsning faoliyat motivlari qayta tashkil topadi: o‘qish, kasbiy muvaffaqiyat, ijtimoiy tan olinish, shaxsiy rivojlanish va jamiyatga foydali bo‘lish kabi maqsadlar o‘zaro munosabatga kirishadi. Mazkur motivlarning qaysi biri ustuvor bo‘lishi mas’uliyatning mazmuniga ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, faqat tashqi baholashga yo‘nalgan motivatsiya mas’uliyatni nazorat mavjud sharoit bilan cheklashi mumkin, ichki ma’noga asoslangan motivatsiya esa uning barqarorligini oshiradi.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

Irodaviy-regulyativ komponentning nisbatan past natijasi talabalarning ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishda o'z-o'zini boshqarish masalasini alohida ajratish kerakligini ko'rsatadi. Zamonaviy talaba ko'plab akademik, ijtimoiy va shaxsiy talablarni bir vaqtning o'zida muvofiqlashtirishi kerak. Vaqtni rejalashtirish, muhim vazifalarni ustuvorlashtirish, emotsional holatni boshqarish va chalg'ituvchi omillarga qarshi tura olish mas'uliyatning amaliy ifodasi uchun zarur shart hisoblanadi. Shu bois ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish dasturlarida o'zini boshqarish va refleksiya ko'nikmalariga alohida o'rin berish maqsadga muvofiq.

Korrelyatsion tahlilda irodaviy-regulyativ va xulqiy komponentlar o'rtasida eng yuqori bog'liqlik qayd etilgani ushbu fikrni kuchaytiradi. Bu natija mas'uliyatli xatti-harakatning yuzaga kelishida shaxsning o'z faoliyatini boshqarish qobiliyati alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Reja tuzish, qaror qabul qilish va belgilangan harakatni davom ettirish qobiliyatlari kuchli bo'lgan talaba mas'uliyatli niyatlarini real faoliyatga aylantirishda ko'proq imkoniyatga ega bo'ladi.

Motivatsion va irodaviy-regulyativ komponentlar o'rtasidagi yuqori bog'liqlik esa ichki istak va amaliy boshqaruv mexanizmlarining bir-birini to'ldirishini ko'rsatadi. Mas'uliyatga ichki ehtiyoj mavjud bo'lsa, lekin uni amalga oshirish uchun iroda yetarli bo'lmasa, xulqiy natija kutilgan darajada bo'lmasligi mumkin. Aksincha, kuchli irodaviy nazorat mavjud bo'lib, mas'uliyat uchun ichki motiv bo'lmasa, xatti-harakat faqat formal bajarilish darajasida qolishi mumkin. Shuning uchun mas'uliyatning barqaror shakllanishida motivatsiya va o'z-o'zini boshqarishning uyg'unligi muhim.

Ijtimoiy mas'uliyatning funksional tahlili ham muhim xulosalarni berdi. Orientirlovchi funksiyaning yuqori natijasi talabalarda mas'uliyat ma'lum vaziyatlarda xulq uchun ichki yo'nalish beruvchi mezon vazifasini bajarishini anglatadi. Talaba qaror qabul qilishda faqat "mumkinmi?" degan savol bilan cheklanib qolmay, "bu qarorning oqibati qanday bo'ladi?" yoki "bu harakat boshqalarga qanday ta'sir qiladi?" kabi savollarni ham hisobga ola boshlaydi. Shu tariqa, mas'uliyat faoliyatni oldindan yo'naltiruvchi psixologik mexanizmga aylanadi.

Regulyativ funksiyaning yuqori darajasi mas'uliyatning xulqni tartibga soluvchi rolini tasdiqlaydi. Shaxs o'z harakatlarini ichki va tashqi me'yorlar bilan taqqoslaydi, zarur hollarda xatti-harakatini o'zgartiradi va kutilayotgan natijaga mos ravishda faoliyatini qayta tashkil etadi. Bu funksiyaning samarali ishlashi uchun talabaning ijtimoiy me'yorlarni shunchaki bilishi emas, balki ularni ichki mezon sifatida qabul qilishi muhim.

Nazorat qiluvchi funksiyaning nisbatan past ko'rsatkichga ega bo'lishi esa refleksiv jarayonlarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi. Talaba o'z vazifasini bajarishi mumkin, lekin faoliyat yakunida "nimani to'g'ri qildim?", "qayerda xato qildim?" va "kelgusida nimani o'zgartirishim kerak?" kabi savollar ustida yetarlicha fikr yuritmasligi mumkin. Mas'uliyatning nazorat funksiyasi aynan ana shu o'z-o'zini tahlil qilish jarayonida kuchayadi. Shuning uchun refleksiya ijtimoiy mas'uliyatning faqat qo'shimcha emas, balki uni mustahkamlovchi markaziy mexanizmlardan biri sifatida qaralishi mumkin.

Integrativ funksiya mas'uliyatning turli psixologik jarayonlarni birlashtiruvchi xususiyatini ifodalaydi. Shaxsning qadriyatlari, hissiyotlari, motivlari, tafakkuri va irodasi bir yo'nalishda harakat qilganda, mas'uliyatli xulq nisbatan izchil va barqaror bo'ladi. Agar mazkur jarayonlar o'rtasida ziddiyat yuzaga kelsa, mas'uliyatli qarorning amalga oshirilishi qiyinlashadi. Masalan, talaba jamoadoshlariga yordam berishni qadriyat deb bilishi mumkin, ammo individual manfaat kuchli bo'lgan vaziyatda ushbu qadriyat amaliy xulqqa aylanmasligi ehtimol.

Ijtimoiylashtiruvchi funksiyaning yuqori ko'rsatkichi talabalik davrida mas'uliyatning shaxsni jamiyatga moslashtirishdagi rolini ko'rsatadi. Talaba turli ijtimoiy guruhlarda yangi rollarni egallab borar ekan, u o'z xulqining guruh va jamiyatdagi kutilmalar bilan qanday bog'lanishini o'rganadi. Shu jarayonda mas'uliyat shaxsning "Men"i va "Biz"i o'rtasidagi munosabatni tartibga soluvchi mexanizmga aylanadi.

Tadqiqot natijalarida empatiya bilan ijtimoiy mas'uliyat o'rtasida musbat bog'liqlik aniqlangani ham nazariy jihatdan muhimdir. Boshqa insonning holatini tushunish va uning ehtiyojlarini hisobga olish shaxsga o'z xatti-harakatlarini faqat shaxsiy manfaat nuqtayi nazaridan emas, balki boshqa subyektlarning manfaatlari bilan birgalikda baholash imkonini beradi. Shu sababli empatiya ijtimoiy mas'uliyatning hissiy-motivatsion manbalaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Umuman, natijalarni nazariy jihatdan talqin qilish ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishini shartli ravishda uch bosqichda tasavvur qilish imkonini beradi. Birinchi bosqichda shaxs mas'uliyat mazmunini anglaydi va tegishli me'yorlarni bilib oladi. Ikkinchi bosqichda bu me'yorlar shaxsiy qadriyat va ichki motivlar bilan bog'lanadi. Uchinchi bosqichda esa ichkilashtirilgan qadriyatlar o'z-o'zini boshqarish orqali real xulq-atvorda namoyon bo'ladi. Bunda yakuniy xatti-harakatdan so'ng refleksiv baholash amalga oshirilib, keyingi qarorlar uchun yangi tajriba shakllanadi.

Mazkur model ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning faqat tarbiyaviy emas, balki psixologik jihatdan ham tizimli tashkil etilishi kerakligini ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni mas'uliyatga o'rgatishda ma'ruza yoki og'zaki nasihat bilan cheklanib qolmasdan, mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy loyihalarda javobgarlikni taqsimlash, axloqiy vaziyatlarni tahlil qilish, refleksiya va o'zini baholash imkoniyatlarini ko'paytirish zarur.

Shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatning funksional xususiyatlari uni shaxsning statik sifati emas, balki vaziyatga qarab faollashuvchi dinamik tizim sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Bir xil talaba o'quv vazifalarida yuqori mas'uliyatni namoyon etishi, biroq jamoat faoliyati yoki shaxslararo munosabatlarda sustroq bo'lishi mumkin. Bu holat mas'uliyatni umumiy indeks bilan bir qatorda turli faoliyat sohalari kesimida ham o'rganish kerakligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini izohlashda ayrim metodologik chegaralarni hisobga olish lozim. Respondentlar sonining cheklanganligi, ma'lumotlarning bir qismi o'z-o'zini baholash ko'rsatkichlariga tayanishi va tadqiqotning korrelyatsion xarakteri aniqlangan aloqalarni to'liq sababiy munosabat sifatida talqin qilish imkonini bermaydi. Kelgusidagi tadqiqotlarda turli kurs va ta'lim yo'nalishlarini taqqoslash, turli ijtimoiy vaziyatlardagi xulqni kuzatish hamda uzoq muddatli kuzatuvlar orqali ijtimoiy mas'uliyatning dinamikasini o'rganish maqsadga muvofiq.

Umumlashtirib aytganda, muhokama qilingan natijalar talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni bilim, qadriyat, hissiyot, motiv, iroda va xulqning uzviy birligida namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Uning funksional xususiyatlari esa shaxs faoliyatini yo'naltirish, tartibga solish, nazorat qilish, psixologik jarayonlarni integratsiyalash va ijtimoiy muhit bilan samarali munosabat o'rnatishga xizmat qiladi. Shu bois ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik yondashuv kompleks xarakterga ega bo'lishi va shaxsning ichki hamda tashqi faoliyatini birgalikda qamrab olishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan nazariy tahlil va empirik tadqiqot natijalari talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissi bir yo'nalishli yoki oddiy psixologik sifat emas, balki bir nechta o'zaro bog'langan jarayonlardan tarkib topuvchi murakkab shaxsiy tizim ekanligini ko'rsatdi. Ushbu tizimda shaxsning ijtimoiy vaziyatni anglash darajasi, qadriyatlari, hissiy munosabati, ichki motivlari, irodaviy imkoniyatlari, o'z-o'zini boshqarishi va amaliy xulq-atvori yagona funksional birlikda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy mas'uliyatning kognitiv komponenti talabalarda nisbatan yuqori shakllangan. Bu holat respondentlarning mas'uliyat, majburiyat, ijtimoiy me'yor va xatti-harakat oqibatlari haqidagi umumiy tasavvurlari yetarli darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Biroq mas'uliyat mazmunini bilishning o'zi uni real xulqqa to'liq aylantirish uchun yetarli emas. Mazkur xulosa irodaviy-regulyativ va xulqiy komponentlarning nisbatan pastroq ko'rsatkichlari bilan ham tasdiqlandi.

Emotsional-qadriyatli komponentning rivojlanganligi talabalarda ijtimoiy mas'uliyatning shaxsiy ma'no bilan bog'lanib borayotganini ko'rsatadi. Boshqalarga hurmat, insonparvarlik, adolat, hamkorlik va ijtimoiy manfaatlarni hisobga olish kabi yo'nalishlar mas'uliyatli xulqning ichki mezonlarini shakllantiradi. Qadriyatlar shaxs tomonidan chuqur o'zlashtirilgan sari ularning xatti-harakatni tashqi nazoratsiz boshqarish imkoniyati ham ortadi.

Motivatsion komponent mas'uliyatli faoliyatni harakatga keltiruvchi ichki kuch sifatida namoyon bo'ladi. Talabada "bajarishim kerak" degan tashqi talab bilan bir qatorda "buni bajarish men uchun muhim" degan ichki pozitsiya shakllanganda, mas'uliyat nisbatan barqaror tus oladi. Shu sababli oliy ta'lim sharoitida mas'uliyatni rivojlantirish faqat majburiyatlarni belgilash bilan emas, balki bajarilayotgan faoliyatning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatini anglatish bilan ham bog'liq bo'lishi zarur.

Tadqiqotda irodaviy-regulyativ komponentning boshqa komponentlarga nisbatan pastroq natijasi ijtimoiy mas'uliyatni amaliy xulqqa aylantirishda o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarining muhimligini ko'rsatdi. Rejalashtirish, ustuvorliklarni belgilash, o'zini nazorat qilish, qarorni oxirigacha amalga oshirish va vaziyat o'zgarganda faoliyatni qayta tashkil eta olish mas'uliyatning amaliy barqarorligini ta'minlaydi.

Korrelyatsion tahlil natijalarida irodaviy-regulyativ va xulqiy komponentlar o'rtasida kuchli musbat aloqaning aniqlanishi ham ana shu xulosani qo'llab-quvvatladi. Demak, mas'uliyatni real xatti-harakatga aylantirishda shaxsning o'z faoliyatini nazorat qila olishi asosiy psixologik mexanizmlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, motivatsiya va irodaviy boshqaruv o'rtasidagi sezilarli bog'liqlik mas'uliyatli harakat uchun ichki niyat bilan uni amalga oshirish imkoniyatlari bir-birini to'ldirishini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalari asosida ijtimoiy mas'uliyatning quyidagi funksional tizimini ajratish mumkin:

- orientirlovchi funksiya – shaxsga muayyan ijtimoiy vaziyatda maqbul xatti-harakat yo'nalishini tanlashga yordam beradi;
- regulyativ funksiya – faoliyatni ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga muvofiqlashtiradi;
- nazorat qiluvchi funksiya – shaxsga o'z xatti-harakatlari va natijalarini baholash, xatolarni aniqlash va ularni tuzatish imkonini beradi;

- integrativ funksiya – tafakkur, hissiyot, qadriyat, motiv va iroda kabi psixologik jarayonlarni yagona xulqiy tizimga birlashtiradi;
- ijtimoiylashtiruvchi funksiya – talabaning ijtimoiy rollar, me'yorlar va munosabatlarni o'zlashtirishiga ko'maklashadi.

Mazkur funksiyalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki o'zaro ta'sirda ishlaydi. Masalan, orientirlovchi funksiya muayyan xulq yo'nalishini belgilasa, regulyativ funksiya ushbu xulqni amalga oshirishni tartibga soladi. Nazorat funksiyasi bajarilgan faoliyatni baholaydi, integrativ funksiya esa jarayonning turli psixologik komponentlarini yagona tizimga birlashtiradi. Shu sababli ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishda uning alohida belgilarini emas, balki mazkur funksiyalarning uyg'un ishlashini ta'minlash muhimdir.

Talabalik davrida ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanishi shaxsiy identiklik va mustaqillikning kuchayishi bilan ham bog'liq. Talaba asta-sekin o'z hayoti, tanlovi va kelajagi uchun javobgarlikni ko'proq o'z zimmasiga oladi. Shu jarayonda akademik vazifalarni bajarish, kasbiy yo'nalishni belgilash, jamoaviy faoliyatda ishtirok etish, boshqa insonlar bilan muomala qilish va ijtimoiy qarorlar qabul qilish kabi tajribalar mas'uliyatning turli jihatlarini rivojlantiradi.

Shu asosda oliy ta'lim amaliyoti uchun bir necha muhim tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

Avvalo, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishni alohida tarbiyaviy tadbir bilan cheklamasdan, ta'lim jarayonining kundalik mazmuniga singdirish lozim. Talabaga mustaqil qaror qabul qilish, topshiriq natijasi uchun javob berish, tanlovlarini asoslash va o'z faoliyatini baholash imkoniyatlari muntazam yaratilishi kerak.

Ikkinchidan, refleksiv faoliyatga kengroq o'rin berish maqsadga muvofiq. Talabalarga faoliyat yakunida o'z qarorlari, xatti-harakatlari va ularning natijalarini tahlil qilish imkonini beruvchi savollar, kundaliklar, refleksiv esse va muammoli vaziyatlar bilan ishlash topshiriqlari berilishi mumkin. Bunday yondashuv nazorat qiluvchi funksiyaning rivojlanishiga yordam beradi.

Uchinchidan, jamoaviy loyihalar va ijtimoiy tashabbuslardan foydalanish zarur. Jamoada vazifalarni taqsimlash, umumiy maqsadga erishish va shaxsiy hissani baholash tajribasi individual mas'uliyatni jamoaviy mas'uliyat bilan bog'laydi. Bu jarayonda talaba o'z faoliyatining boshqalarga ta'sirini bevosita anglaydi.

To'rtinchidan, psixologik treninglarda o'z-o'zini boshqarish, empatiya, qaror qabul qilish va konfliktlarni konstruktiv hal etish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki mas'uliyatli xulq nafaqat to'g'ri qarorni bilish, balki uni murakkab va hissiy jihatdan qiyin vaziyatlarda ham amalga oshira olishni talab qiladi.

Beshinchidan, pedagog va psixologning shaxsiy namunasi mas'uliyatni rivojlantirishning muhim vositasi sifatida qaralishi kerak. Talabalar kattalarning xatti-harakatlarini kuzatish orqali mas'uliyat, adolat, hurmat, va'daga sodiqlik va xatoni tan olish kabi sifatlarning amaliy ko'rinishini o'zlashtiradilar. Shu bois oliy ta'lim muhitidagi munosabatlarning o'zi ham tarbiyaviy va psixologik model vazifasini bajaradi.

Oltinchidan, ijtimoiy mas'uliyatni baholashda faqat nazariy savollarga asoslanib qolmasdan, real faoliyat indikatorlarini ham hisobga olish maqsadga muvofiq. Vazifani o'z vaqtida bajarish, jamoa oldidagi majburiyatni ado etish, xatoni tan olish, tashabbus ko'rsatish, o'z faoliyatini tahlil qilish va ijtimoiy manfaatni hisobga olish kabi ko'rsatkichlar mas'uliyatning amaliy darajasini aniqroq ifodalashi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari talabalarda ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishning asosiy sharti shaxsning bilimi, qadriyati, ichki motivatsiyasi, o'z-o'zini boshqarishi va real ijtimoiy tajribasini yagona tizimda rivojlantirish ekanligini ko'rsatdi. Ijtimoiy mas'uliyat tashqi nazorat natijasida vaqtinchalik paydo bo'ladigan xulq emas, balki shaxsning ichki psixologik tuzilmasiga singib boradigan barqaror sifat sifatida qaralgandagina samarali shakllanadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ijtimoiy mas'uliyatning turli kurs talabalari, turli kasbiy yo'nalishlar va turli ijtimoiy tajribaga ega guruhlarda qanday farqlanishini o'rganish, shuningdek, maxsus psixologik rivojlantirish dasturining samaradorligini eksperimental tarzda tekshirish muhim ilmiy vazifa bo'lib qoladi. Bunday tadqiqotlar ijtimoiy mas'uliyatning rivojlanish dinamikasini chuqurroq tushunish va oliy ta'lim amaliyoti uchun yanada aniq psixologik texnologiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baumeister R.F., Vohs K.D. Handbook of Self-Regulation: Research, Theory, and Applications. – 3rd ed. – New York: Guilford Press, 2017.
2. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986.

3. Deci E.L., Ryan R.M. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017.
4. Eisenberg N., Spinrad T.L., Knafo-Noam A. Prosocial Development // Handbook of Child Psychology and Developmental Science. – 7th ed. – Hoboken: Wiley, 2015. – P. 610–658.
5. Erikson E.H. Identity and the Life Cycle. – New York: W.W. Norton & Company, 1994.
6. Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice. – San Francisco: Harper & Row, 1981.
7. Piaget J. The Moral Judgment of the Child. – London: Routledge, 1997.
8. Rest J.R., Narvaez D. Moral Development in the Professions: Psychology and Applied Ethics. – Hillsdale: Lawrence Erlbaum Associates, 1994.
9. Schwartz S.H. An Overview of the Schwartz Theory of Basic Values // Online Readings in Psychology and Culture. – 2012. – Vol. 2. – No. 1. – P. 1–20.
10. Schwartz S.H. Universals in the Content and Structure of Values: Theoretical Advances and Empirical Tests in 20 Countries // Advances in Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – P. 1–65.
11. Turiel E. The Development of Morality // Handbook of Child Psychology and Developmental Science. – Hoboken: Wiley, 2015.
12. Staub E. The Psychology of Good and Evil: Why Children, Adults, and Groups Help and Harm Others. – Cambridge: Cambridge University Press, 2013.
13. Carlo G., Randall B.A. The Development of a Measure of Prosocial Behaviors for Late Adolescence // Journal of Youth and Adolescence. – 2002. – Vol. 31. – No. 1. – P. 31–44.
14. Реан А.А. Психология личности. – Санкт-Петербург: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2013.
15. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Аспект Пресс, 2014.
16. Мудрик А.В. Социальная педагогика. – Москва: Академия, 2015.
17. Мосалёв Б.Г. Социальная ответственность личности: психологические и социально-педагогические аспекты. – Москва: Инфра-М, 2018.
18. Ильин Е.П. Психология совести, ответственности и вины. – Санкт-Петербург: Питер, 2016.



ADABIYOT TA'LIMIDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li
Oriental universiteti talabalar bandligi va amaliyoti bo'limi bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiyot ta'limi jarayoniga immersiv texnologiyalarni integratsiya qilishning nazariy-metodologik asoslari, immersiv ta'limning kognitiv-affektiv modeli, neoekologik yondashuv va tajribaviy ta'lim nazariyasi adabiyot didaktikasi kontekstida qayta talqin qilingan.

Kalit so'zlar: immersiv texnologiyalar, adabiyot ta'limi, CAMIL modeli, badiiy matnni idrok etish, ta'lim texnologiyalari.

Abstract: This article re-examines the theoretical and methodological foundations of integrating immersive technologies into the literary education process, the cognitive-affective model of immersive learning, the neo-ecological approach, and the theory of experimental learning within the context of literary didactics.

Key words: immersive technologies, literary education, CAMIL model, perception of artistic text, educational technologies.

Аннотация: В данной статье переосмыслены теоретико-методологические основы интеграции иммерсивных технологий в процесс литературного образования, когнитивно-аффективная модель иммерсивного обучения, неоэкологический подход и теория экспериментального обучения в контексте дидактики литературы.

Ключевые слова: иммерсивные технологии, литературное образование, модель CAMIL, восприятие художественного текста, образовательные технологии.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasining raqamlashuvi adabiyot ta'limini ham chetlab o'tmayapti: o'quvchi va talabalarning matn bilan ishlash uslubi, diqqatni jamlash xususiyati hamda axborotni idrok etish kanallari tubdan o'zgarmoqda. An'anaviy og'zaki-matnli o'qitish usullari, ayniqsa, badiiy asarning obrazli-hissiy qatlamini yetkazishda, raqamli avlod o'quvchisi uchun yetarli darajada jalb qiluvchi bo'lmay qolmoqda. Immersiv texnologiyalar - virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) va aralash reallik (MR) - o'quvchini badiiy asar makoni va vaqtiga "jismonan" olib kirish, personaj nuqtayi nazaridan voqealarni kuzatish, tarixiy-madaniy kontekstni vizual tarzda qayta tiklash imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, empatik idrok, obrazli tafakkur va matnni chuqur tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning yangi didaktik resursini yaratadi. Amaliy jihatdan esa O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini raqamlashtirish, xususan, umumta'lim va oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish davlat siyosati darajasidagi vazifa sifatida belgilangani mavzuning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Xalqaro tadqiqotlar VR/AR texnologiyalarining STEM fanlari, tibbiyot va muhandislik ta'limida keng qo'llanilayotganini, biroq gumanitar fanlar, xususan, adabiyot ta'limida bu borada tizimli ishlanmalar hali yetarli emasligini ko'rsatadi. J. Radianti va boshqalarning tizimli sharhida tahlil qilingan 38 ta tadqiqotning taxminan 70 foizida VR faoliyati biror pedagogik-psixologik nazariyaga tayanmagani aniqlangan [1]. Bu holat immersiv o'qitishning nazariy asoslanmagan, texnik-texnologik jihatdan rivojlangan, ammo metodik jihatdan tizimlashtirilmagan holda amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Adabiyot ta'limi bo'yicha mavjud ishlarning katta qismi multimedia vositalari (video, taqdimot, elektron darslik)ni tavsiflash bilan chegaralanib, immersiv texnologiyalarning nazariy-metodologik zaminini, ya'ni ular qanday psixologik-pedagogik mexanizmlar orqali badiiy matn idrokini chuqurlashtirishini asoslashga yetarli e'tibor bermaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tadqiqotlarda immersiv ta'limning nazariy asoslari A. Gentile [3], M. Slater, M. Sanchez-Vives [7], G. Makransky va G. Petersenning [5] ilmiy qarashlari asosida shakllangan bo'lib, ularda immersiya, prezens, multimodal ishtirok, situatsion o'rganish va agentlik kabi omillarning o'quvchi motivatsiyasi hamda bilimlarni o'zlashtirishga ta'siri asoslangan. Xususan, CAMIL modeli immersiv muhitning kognitiv-affektiv ta'sir mexanizmlarini izohlashga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlarda esa raqamli texnologiyalar [2], multimedia [1] va sun'iy intellekt vositalarini ta'limga integratsiya qilishning umumdidaktik jihatlari [4] yoritilgan. Biroq immersiv texnologiyalarni adabiyot ta'limida badiiy matnni obrazli-emotsional idrok etish, empatik tasavvur va tahliliy faoliyatni rivojlantirish vositasi sifatida qo'llash metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Shu asosda tadqiqot muammosi adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari hamda ularning badiiy matnni idrok etish samaradorligiga ta'siri yetarli darajada tizimli asoslanmaganligi bilan belgilanadi.

Mazkur muammodan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali asoslashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun immersiv ta'lim nazariyalarini adabiyot didaktikasiga moslashtirish, nazariy-metodologik modelni ishlab chiqish, tajriba-sinov dasturini amalga oshirish, diagnostika natijalarini statistik tahlil qilish hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Tadqiqotda, agar adabiyot darslarida VR/AR texnologiyalari CAMIL modeliga asoslangan motivatsion-tayyorgarlik, immersiv-idrok va refleksiv-tahliliy bosqichlarda tizimli qo'llanilsa, o'quvchilarning badiiy matnni idrok etish va tahlil qilish ko'rsatkichlari an'anaviy metodikaga nisbatan statistik jihatdan yuqori bo'ladi, degan ilmiy faraz ilgari suriladi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi immersiv ta'lim nazariyalarini adabiyot ta'limining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirgan uch bosqichli didaktik modelning ishlab chiqilishi va uning badiiy matnni idrok etish, empatik tasavvur hamda o'quv motivatsiyasiga ta'sirining empirik jihatdan baholanishi bilan belgilanadi. Olingan natijalar adabiyot ta'limi metodikasini takomillashtirish, immersiv vositalarni ta'lim amaliyotiga ilmiy asosda joriy etish hamda tegishli ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kvazi-eksperimental, ya'ni tajriba va nazorat guruhlari ishtirokidagi dastlabki-yakuniy diagnostika uslubi qo'llanildi. Mustaqil o'zgaruvchi sifatida adabiyot ta'limida VR/AR texnologiyalari asosidagi uch bosqichli didaktik model, qaram o'zgaruvchilar sifatida esa badiiy matnni idrok etish va tahlil qilish ko'nikmasi, empatik-obrazli tasavvur hamda o'quv motivatsiyasi belgilandi.

Tadqiqotda Samarqand viloyati Samarqand shahridagi 6-sonli, 45-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9–10-sinf o'quvchilari hamda Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" ta'lim yo'nalishining 2-kurs talabalari ishtirok etdi. Jami 96 nafar ishtirokchi teng sharoitli tajriba guruhi (48 nafar) va nazorat guruhiga (48 nafar) ajratildi. Guruhlarning boshlang'ich akademik ko'rsatkichlari, yosh va ta'lim bosqichi jihatidan qiyosiy tengligi ta'minlandi.

Tadqiqot tayyorgarlik, aniqlovchi, shakllantiruvchi va yakuniy bosqichlarda amalga oshirildi. Tayyorgarlik bosqichida nazariy model va diagnostik vositalar ishlab chiqildi. Aniqlovchi bosqichda dastlabki diagnostika o'tkazildi. Shakllantiruvchi bosqichda 12 hafta davomida tajriba guruhida immersiv model, nazorat guruhida esa an'anaviy metodika qo'llanildi. Yakuniy bosqichda natijalar qayta diagnostika qilinib, statistik tahlildan o'tkazildi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyoslash va umumlashtirish, pedagogik kuzatuv hamda pedagogik eksperiment metodlaridan foydalanildi. Empirik ma'lumotlarni yig'ishda badiiy matnni tushunish va tahlil qilishga doir test topshiriqlari, Likert shkalasi asosidagi motivatsion so'rovnoma, ijodiy-tahliliy topshiriqlar uchun ekspert baholash rubrikasi qo'llanildi. Badiiy matnni idrok etish uch mezon - mazmuniy-bilish, tahliliy-baholovchi va emotsional-qiymatli mezonlar asosida baholandi. Natijalar 0–100 ballik shkala bo'yicha past (0–49), o'rta (50–74) va yuqori (75–100) darajalarga ajratildi.

Tajriba guruhida mashg'ulotlar motivatsion-tayyorgarlik, immersiv-idrok va refleksiv-tahliliy bosqichlarda tashkil etildi. Bunda AR vositalari orqali asarning tarixiy-madaniy konteksti bilan tanishtirish, VR yoki 360° virtual muhit yordamida asar makoni va voqealarini immersiv idrok etish, so'ngra muhokama, yozma tahlil va ijodiy topshiriqlarni bajarish yo'lga qo'yildi.

Nazorat guruhida ayni mazmun an'anaviy o'qituvchi izohi, matn bilan ishlash va savol-javob metodlari asosida o'rganildi. Olingan ma'lumotlar anonimlashtirilib, MS Excel va SPSS Statistics dasturlarida qayta ishlandi. Natijalarni umumlashtirishda tavsifiy statistika, guruhlararo farqlarni aniqlashda Styudent t-mezoni hamda darajalar bo'yicha taqsimotni baholashda Pirsonning xi-kvadrat mezonidan foydalanildi. Statistik ishonchlilik darajasi $p < 0,05$ etib belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Badiiy matnni idrok etish va tahlil qilish ko‘nikmasining dastlabki diagnostikasi tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq mavjud emasligini ko‘rsatdi ($t = 0,41$; $p > 0,05$), bu esa guruhlarning boshlang‘ich holati bo‘yicha tengligini tasdiqladi. Shakllantiruvchi bosqichdan so‘ng o‘tkazilgan yakuniy diagnostika natijalari 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: **Badiiy matnni idrok etish va tahlil qilish ko‘nikmasi bo‘yicha dastlabki va yakuniy diagnostika natijalari (%)**

Ko‘rsatkich darajasi	Tajriba guruhi (dastlabki)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (dastlabki)	Nazorat guruhi (yakuniy)	O‘sish farqi
Yuqori daraja	14,3%	46,8%	15,1%	24,6%	+23,3%
O‘rta daraja	38,7%	42,9%	39,2%	46,1%	+2,2%
Past daraja	47,0%	10,3%	45,7%	29,3%	−25,4%

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori daraja ko‘rsatkichi 14,3 foizdan 46,8 foizga, ya’ni 32,5 foizga oshgan, past daraja esa 47,0 foizdan 10,3 foizga, ya’ni 36,7 foizga kamaygan. Nazorat guruhida esa shu davrda yuqori daraja atigi 9,5 foizga oshib, past daraja 16,4 foizga kamaygan. Ikki guruh o‘rtasidagi o‘sish dinamikasidagi farq (yuqori daraja bo‘yicha +23,3 foiz tajriba guruhi foydasiga) Pirson xi-kvadrat mezoni yordamida tekshirilganda, statistik ishonchli ekanligi aniqlandi ($\chi^2=18,62$; $df=2$; $p<0,01$).

Yakuniy diagnostikada tajriba va nazorat guruhi o‘rtasidagi umumiy ball ko‘rsatkichlari bo‘yicha farq mustaqil ikki tanlanma uchun Styudent t-mezoni orqali tekshirildi:$t(94)=4,87$; $p<0,001$bu esa tajriba guruhidagi o‘sishning tasodifiy emas, balki qo‘llanilgan immersiv model bilan bog‘liq ekanligini statistik jihatdan tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval: **O‘quv motivatsiyasi, matn tahlili va empatik idrok ko‘rsatkichlarining dinamikasi (ball)**

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi (dastlabki)	Tajriba guruhi (yakuniy)	Nazorat guruhi (dastlabki)	Nazorat guruhi (yakuniy)
O‘quv motivatsiyasi indeksi	52,4	74,1	53,0	58,7
Badiiy matnni tahlil qilish ko‘nikmasi	48,9	71,6	49,5	56,2
Empatik idrok / obrazli tasavvur	45,2	69,8	46,0	52,4

2-jadval ma’lumotlari immersiv model qo‘llanilgan tajriba guruhida nafaqat bilim-ko‘nikma, balki o‘quv motivatsiyasi (21,7 ball o‘sish) va empatik-obrazli tasavvur (24,6 ball o‘sish) ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori dinamika kuzatilganini ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, empatik idrok ko‘rsatkichi bo‘yicha farq (tajriba guruhida +24,6 ball, nazorat guruhida +6,4 ball) immersiv texnologiyalarning aynan badiiy asarning hissiy-obrazli qatlamini o‘zlashtirishga nisbatan alohida ta’sirga ega ekanligini ko‘rsatuvchi muhim empirik dalil sifatida talqin etiladi.

Olingan natijalar tadqiqotning ilmiy farazini tasdiqlab, adabiyot ta’limida CAMIL modeliga asoslangan uch bosqichli immersiv didaktik model badiiy matnni idrok etish va tahlil qilish ko‘rsatkichlarining statistik jihatdan ishonchli o‘sishiga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Ushbu holat immersiya va prezens hissining o‘quvchining kognitiv hamda affektiv faoliyatiga bir vaqtda ta’sir ko‘rsatishi haqidagi CAMIL modelining nazariy qoidalari bilan uyg‘unlashadi. Mazkur tadqiqotning o‘ziga xos jihati shundaki, ushbu ta’sir adabiy matnni o‘rganish kontekstida empirik jihatdan asoslandi.

Natijalarning ijobiy dinamikasi immersiv texnologiyalardan foydalanishning o‘zi emas, balki ularni nazariy jihatdan asoslangan va izchil didaktik tizim asosida qo‘llash muhimligini ko‘rsatadi. Motivatsion-tayyorgarlik, immersiv-idrok va refleksiv-tahliliy bosqichlarning ketma-ket tashkil etilishi o‘quvchilarning dastlabki qiziqishini shakllantirish, badiiy voqelikni bevosita his qilish va undan keyingi tahliliy faoliyatni uyg‘unlashtirish imkonini berdi. Shu bilan birga, tajriba jarayonida ayrim texnik noqulayliklarning kuzatilishi immersiv vositalardan foydalanishda texnik va tashkiliy omillarni ham hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

Mahalliy tadqiqotlar bilan qiyoslaganda, olingan natijalar raqamli vositalarning ta’lim samaradorligiga ijobiy ta’siri haqidagi mavjud xulosalarni to‘ldiradi. Biroq mazkur tadqiqot immersiv texnologiyalarning aynan adabiy-badiiy idrok, empatik tasavvur va obrazli tafakkurni rivojlantirishdagi imkoniyatlarini alohida ko‘rsatib berdi. Bu esa immersiv texnologiyalar samaradorligi faqat texnik vositalarning mavjudligiga emas, balki ularning badiiy asarning janr, kompozitsiya, obraz va xronotop kabi xususiyatlariga metodik jihatdan moslashtirilishiga ham bog‘liq ekanini anglatadi.

Natijalarning nazariy ahamiyati immersiv ta'lim nazariyalarini adabiyot didaktikasi sohasiga moslashtirish mumkinligini asoslash bilan belgilanadi. Bunda CAMIL va prezens nazariyasi badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llanishi lozim. Metodik jihatdan esa ishlab chiqilgan uch bosqichli modelni turli adabiy janrlar va ta'lim bosqichlarida qo'llash imkoniyati mavjud.

Biroq natijalarga o'quvchilarning dastlabki raqamli savodxonligi, VR/AR uskunalarining sifati, o'qituvchining texnologik-metodik tayyorgarligi hamda badiiy asarning immersiv muhitga mosligi kabi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, tadqiqotning 96 nafar ishtirokchi va ma'lum hudud doirasida olib borilgani, tajriba muddatining bir o'quv choragi bilan cheklangani hamda texnik vositalardan foydalanish imkoniyatlarining bir xil bo'lmagani natijalarni umumlashtirishda ayrim cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Shu bois kelgusida modelni turli adabiy janrlar va ta'lim bosqichlarida sinovdan o'tkazish, immersiv ta'sirning uzoq muddatli dinamikasini o'rganish, katta va ko'p hududli tanlanmalar asosida tadqiqotlar olib borish hamda immersiv texnologiyalarni sun'iy intellektga asoslangan adaptiv o'qitish tizimlari bilan integratsiyalash istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari adabiyot ta'limida CAMIL modeliga tayangan uch bosqichli immersiv yondashuv – motivatsion tayyorgarlik, immersiv idrok va refleksiv tahlil – badiiy matnni o'zlashtirish sifatini oshirishini ko'rsatdi. Kelgusida ushbu modelni turli adabiy janrlar, ta'lim bosqichlari va kengroq tanlanmalarda uzoq muddatli sinovdan o'tkazish, shuningdek, uni sun'iy intellektga asoslangan moslashuvchan ta'lim tizimlari bilan birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Umuman, immersiv texnologiyalar adabiyot ta'limida oddiy raqamli vosita emas, balki puxta pedagogik asos va metodik tizimga tayangan holda qo'llanadigan samarali ta'lim strategiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva M. Bolalar adabiyoti ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish masalasida tushunchalar tahlili pedagogik muammo sifatida // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – P. 675270.
2. Atamuratov R., Xushvaqtov A. Digital transformation in education: The beginning of a new era // Бюллетень науки и практики. – 2025. – T. 11. – № 1. – P. 294–300.
3. Gentile A., Alesi M. Redesigning Learning Through Immersive Technologies: An Educational Perspective on Virtual and Augmented Reality // Virtual Worlds. – MDPI, 2026. – T. 5. – № 3. – C. 33.
4. Kadırjanovich A. R. et al. Opportunities and Prospects for the Use of Immersive Technologies in Education // 2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK). – IEEE, 2024. – P. 1–6.
5. Makransky G., Petersen G. B. The cognitive affective model of immersive learning (CAMIL): A theoretical research-based model of learning in immersive virtual reality // Educational Psychology Review. – 2021. – T. 33. – № 3. – P. 937–958.
6. Radianti J. et al. A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education: Design elements, lessons learned, and research agenda // Computers & Education. – 2020. – T. 147. – P. 103778.
7. Slater M., Sanchez-Vives M. V. Enhancing our lives with immersive virtual reality // Frontiers in Robotics and AI. – 2016. – T. 3. – P. 74.

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI

Xasanov Javohir Muxtorovoch
Buxoro davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli ta'lim resurslarining mazmuniy sifati, muammoli va tadqiqiy topshiriqlar, interfaol muloqot, hamkorlikdagi faoliyat, axborotni tanqidiy baholash, o'qituvchining fasilitatorlik faoliyati hamda refleksiv baholash mazkur kompetensiyani rivojlantiruvchi asosiy omillar sifatida asoslangan. Shuningdek, talabalarning raqamli axborotni izlash, manbalarning ishonchliligini tekshirish, dalillarni qiyoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, muqobil fikrlarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Sun'iy intellekt vositalaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish, media va axborot savodxonligini rivojlantirish, psixologik xavfsiz muloqot muhitini yaratish hamda muntazam qayta aloqani tashkil etishning ahamiyati ochib berilgan. Maqolada raqamli ta'limni tashkil etishda texnologik vositalardan foydalanishning o'zi yetarli emasligi, ularni muammoli, dialogik, tadqiqiy va refleksiv faoliyat bilan uyg'unlashtirish zarurligi asoslangan.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, tanqidiy fikrlash, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi, pedagogik omillar, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, refleksiv baholash, media savodxonlik, axborot savodxonligi, raqamli resurslar, sun'iy intellekt, hamkorlikdagi ta'lim.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of the pedagogical factors influencing the development of students' critical thinking competence in a digital learning environment. The content quality of digital educational resources, problem-based and inquiry-based tasks, interactive communication, collaborative activities, critical evaluation of information, the teacher's facilitative role, and reflective assessment are substantiated as the key factors contributing to the development of this competence. The article also examines opportunities for developing students' skills in searching for digital information, verifying the reliability of sources, comparing evidence, identifying cause-and-effect relationships, evaluating alternative viewpoints, and drawing well-founded conclusions. It highlights the importance of the pedagogically appropriate use of artificial intelligence tools, the development of media and information literacy, the creation of a psychologically safe communication environment, and the provision of regular feedback. The article argues that the use of technological tools alone is insufficient for organizing digital education and that such tools must be integrated with problem-based, dialogic, inquiry-based, and reflective activities.

Key words: digital learning environment, critical thinking, critical thinking competence, pedagogical factors, problem-based learning, interactive methods, reflective assessment, media literacy, information literacy, digital resources, artificial intelligence, collaborative learning.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализированы педагогические факторы, влияющие на формирование компетенции критического мышления у студентов в цифровой образовательной среде. Содержательное качество цифровых образовательных ресурсов, проблемные и исследовательские задания, интерактивное взаимодействие, совместная деятельность, критическая оценка информации, фасилитаторская деятельность преподавателя, а также рефлексивное оценивание обоснованы как основные факторы развития данной компетенции. Кроме того, раскрыты возможности формирования у студентов навыков поиска цифровой информации, проверки надёжности источников, сопоставления аргументов, выявления причинно-следственных связей, оценки альтернативных точек зрения и формулирования обоснованных выводов. Освещено значение педагогически целесообразного использования инструментов искусственного интеллекта, развития медиа- и информационной грамотности, создания психологически безопасной коммуникативной среды и организации систематической обратной связи. В статье обосновано, что одного лишь использования технологических средств при организации цифрового образования недостаточно: необходимо сочетать их с проблемной, диалогической, исследовательской и рефлексивной деятельностью.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, критическое мышление, компетенция критического мышления, педагогические факторы, проблемное обучение, интерактивные методы, рефлексивное оценивание, медиаграмотность, информационная грамотность, цифровые ресурсы, искусственный интеллект, совместное обучение.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning raqamlashtirilishi, internet tarmoqlari, elektron ta'lim platformalari va sun'iy intellekt vositalarining keng qo'llanishi oliy ta'limning mazmuni hamda metodlarini tubdan o'zgartirmoqda. Bugungi talaba bilimni faqat auditoriyada o'qituvchidan emas, balki elektron kutubxonalar, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, mobil ilovalar, generativ sun'iy intellekt tizimlari va turli raqamli axborot manbalaridan oladi. Bunday imkoniyatlar bilim olishning tezkorligi va qulayligini oshirishi bilan birga, axborotning ishonchliligi, xolisligi va ilmiy asoslanganligini aniqlash bilan bog'liq yangi pedagogik muammolarni ham yuzaga keltiradi.

"Dunyoning bir qator oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari, xususan, Tambov davlat universiteti (Rossiya), Xelsinki universiteti (Finlyandiya), Kaliforniya universiteti (AQSH), Saymon Freyzer universiteti, Britaniya Kolumbiyasi (Kanada), Ryutsu Keizai universiteti (Yaponiya), Sejong universitetida (Janubiy Koreya) olib borilmoqda". Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid tadqiqotlarda qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan. Jumladan, o'qish va yozish asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda oliy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish loyihalari asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi motivlar tizimlashtirilgan (Rossiya).

O'quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish modeli psixologik testlarni yechishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan (Finlyandiya). O'quvchilarning ijtimoiy munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan muammolar yechimini topish ko'nikmalari zamonaviy ta'lim paradigmalaridan foydalanish asosida takomillashtirilgan (AQSH).

Tanqidiy fikrlashni kuzatish, ma'lumotlarni tahlil qilish, mantiqiy tafakkur, aniq dalil va tajribaga asoslangan fikrlash uyg'unligini shakllantirish strategiyalari ishlab chiqilgan (Kanada). Ta'lim jarayonida o'quvchilarning tanqidiy tafakkuri, mantiq, axborot, notiqlik, bilimlar, munosabat va qadriyatlarga oid ko'nikmalarini shakllantirish paradigmalari takomillashtirilgan (Yaponiya).

Fuqarolik axloqini rivojlantirishda raqamli iqtisod talablariga mos sog'lom turmush tarzi, tana va ongni uyg'unlashtirish imkoniyatlarini aniqlash asosida takomillashtirilgan (Janubiy Koreya) [7, 5-b.].

O'zbekistonda oliy ta'limni raqamlashtirish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim sifatini yaxshilash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish vazifalari belgilangan [1]. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi esa ta'lim va boshqa ijtimoiy sohalarda raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni nazarda tutadi [2]. Mazkur vazifalarning bajarilishi talabalarning faqat raqamli vositalardan foydalanish malakasini emas, balki raqamli axborotni tanqidiy tahlil qilish va ongli baholash kompetensiyasini ham rivojlantirishni talab qiladi.

Raqamli muhitda axborot hajmining keskin ortishi, turli qarashlarning bir vaqtda taqdim etilishi, yolg'on yoki manipulyativ xabarlarning tarqalishi, algoritmlar orqali saralangan kontent va sun'iy intellekt yaratgan materiallarning ko'payishi talabaning mustaqil hukm chiqarish qobiliyatiga alohida talab qo'ymoqda. Talaba topilgan axborotni tayyor bilim sifatida qabul qilmasdan, uning muallifi, maqsadi, dalillari, manbasi va yaratilish usulini tekshirishi zarur. UNESCO media va axborot savodxonligini insonning o'qigan, eshitgan va o'rgangan axborotini tanqidiy savol ostiga qo'yish imkonini beruvchi kompetensiyalar majmui sifatida baholaydi [3]. Shuning uchun raqamli ta'lim sharoitida axborotdan foydalanish ko'nikmasi uning ishonchliligini tekshirish, dalillarni qiyoslash va xolis xulosaga kelish qobiliyati bilan uyg'unlashishi lozim.

Tanqidiy fikrlash tushunchasi ilmiy adabiyotlarda tahlil qilish, talqin etish, baholash, xulosa chiqarish va o'z fikrini nazorat qilish bilan bog'liq murakkab kognitiv faoliyat sifatida izohlanadi. P. Facione rahbarligida amalga oshirilgan Delphi tadqiqotida tanqidiy fikrlash - "maqsadga yo'naltirilgan, o'z-o'zini boshqaruvchi hukm" sifatida ta'riflanib, uning natijasi talqin qilish, tahlil etish, baholash, xulosa chiqarish va o'z qarorini asoslashda namoyon bo'lishi ko'rsatilgan [4]. Ushbu ta'rif tanqidiy fikrlashni faqat kamchilik izlash yoki boshqa fikrni inkor etish deb tushunish noto'g'ri ekanini ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlash dalillarni xolis ko'rib chiqish, muqobil nuqtayi nazarlarni hisobga olish, shaxsiy qarashlarni qayta ko'rib chiqish va asoslangan xulosa chiqarishni nazarda tutadi.

"Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi" tushunchasi esa kognitiv ko'nikmalar bilan bir qatorda, talabaning dalillarga ochiqligi, intellektual halolligi, savol berishga moyilligi, muqobil fikrlarni hurmat qilishi va o'z xulosasini qayta ko'rib chiqishga tayyorligini ham qamrab oladi. Demak, mazkur kompetensiya bilim, ko'nikma, qadriyat va shaxsiy munosabatlarning integrativ birligidan iborat. Talaba axborotni tahlil qilish usullarini bilishi mumkin, biroq mavjud dalillarni xolis baholashga intilmasa yoki o'z fikrini mutlaq to'g'ri deb hisoblasa, uning tanqidiy fikrlash kompetensiyasi yetarli darajada shakllanmaydi.

Yevropa Komissiyasining DigComp 3.0 raqamli kompetensiyalar tizimida raqamli manba va kontentning ishonchliligini baholash, tegishli hamda keraksiz axborotni farqlash, shuningdek, raqamli materialni yaratgan jarayonlarni tanqidiy tekshirish alohida kompetensiya sifatida belgilangan [5]. Bu tanqidiy fikrlash raqamli savod-

xonlikning qo‘shimcha elementi emas, balki uning asosiy tarkibiy qismi ekanini ko‘rsatadi. Ayniqsa, sun’iy intellekt yaratgan matn, tasvir va ma’lumotlardan foydalanishda talaba javobning mantiqiyligi, dalillarning haqiqiyligi, manbalarning mavjudligi va ehtimoliy algoritmik xatolarni tekshirish imkoniga ega bo‘ladi.

Raqamli vositalarning ta’lim jarayonida mavjudligi talabalarning tanqidiy fikrlashini avtomatik ravishda rivojlantirmaydi. Agar raqamli texnologiyalar faqat ma’lumotni ko‘rsatish, tayyor javob olish yoki reproduktiv testlarni bajarish uchun qo‘llansa, talaba axborotning passiv iste’molchisiga aylanishi mumkin. Aksincha, raqamli resurslar muammoli savollar, tadqiqiy topshiriqlar, munozara, keyslar, manbalarni qiyoslash va refleksiv faoliyat bilan birlashtirilganda yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini faollashtiradi. Oliy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga oid tizimli tadqiqotlar faol ta’lim, muammoga asoslangan ta’lim, keys-stadi, simulyatsiya, konseptual xaritalash va refleksiv yozuv kabi strategiyalarning pedagogik imkoniyatlarini ko‘rsatmoqda [6].

Mazkur nuqtayi nazardan, raqamli ta’lim muhitida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish o‘zaro bog‘langan pedagogik omillar tizimini talab qiladi. Raqamli resurslarning ilmiy va mazmuniy sifati, muammoli tadqiqiy topshiriqlarning mavjudligi, axborot manbalarini qiyoslash, interfaol muloqot, hamkorlikdagi faoliyat, o‘qituvchining fasilitatorlik pozitsiyasi, psixologik xavfsiz muhit, mezonli baholash, muntazam qayta aloqa va refleksiya shunday omillar jumlasiga kiradi. Ushbu omillar uyg‘unlashganda talaba tayyor xulosani takrorlashdan axborotni mustaqil izlash, savol qo‘yish, dalillarni tekshirish va asoslangan pozitsiya ishlab chiqishga o‘tadi.

Raqamli muhitda talabalarning roli ham yangicha mazmun kasb etadi. Talaba axborotning yagona manbasi emas, balki uning izlanish faoliyatini tashkil etuvchi, muammoli savollarni qo‘yuvchi, ishonchli manbalarni tanlash mezonlarini tushuntiruvchi va fikrlash jarayoniga rivojlantiruvchi qayta aloqa beruvchi fasilitator sifatida faoliyat yuritadi. Talabaga tayyor javobni taqdim etish o‘rniga “Ushbu axborot qaysi dalilga asoslangan?”, “Manbaning ishonchliligini qanday tekshirish mumkin?”, “Muallif fikriga qarama-qarshi qanday nuqtayi nazarlar mavjud?” kabi savollarni qo‘yish uning tahliliy va refleksiv faoliyatini kuchaytiradi.

Shunday qilib, raqamli ta’lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish texnik vositalardan foydalanishni emas, balki raqamli texnologiyalar asosida maqsadli pedagogik faoliyatni loyihalashtirishni anglatadi. Muammoning dolzarbligi raqamli axborotni izlash va qayta ishlash bilan cheklanmay, uning ishonchliligini baholay oladigan, yolg‘on va xolis axborotni farqlaydigan, sun’iy intellekt natijalarini tekshiradigan hamda dalillarga asoslangan mustaqil qaror qabul qiladigan mutaxassislarni tayyorlash zarurati bilan belgilanadi. Mazkur maqolaning maqsadi raqamli ta’lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantiruvchi pedagogik omillarni aniqlash, ularning mazmuni va o‘zaro aloqadorligini tahlil qilish hamda ta’lim jarayonida samarali qo‘llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish masalalari pedagogika, psixologiya, raqamli didaktika, media savodxonlik va zamonaviy ta’lim texnologiyalariga oid tadqiqotlarda keng yoritilgan. Raqamli ta’lim muhiti talabalarga katta hajmdagi axborotdan foydalanish, turli manbalarni taqqoslash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish hamda o‘z nuqtayi nazarini asoslash uchun keng imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, axborotning haddan tashqari ko‘pligi, ishonchsiz manbalar, noto‘g‘ri ma’lumotlar, manipulyativ kontent va tayyor raqamli materiallardan nazoratsiz foydalanish talabalarda axborotni tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi.

“Tanqidiy tafakkurning intellektual ildizlari miloddan avvalgi V asrda yashagan qadimgi yunon faylasufi Suqrotning ta’lim amaliyoti va qarashlariga borib taqaladi. Suqrot odamlar o‘z e’tiqodlari va taxminlarini doimiy ravishda shubha ostiga qo‘yishlari, dunyoni to‘g‘riroq va nozikroq tushunish uchun boshqalar bilan muloqot va munozaralarda qatnashishlari kerak”, deb hisoblardi [7, 13-b.].

Asrlar davomida Frensis Bekon, Rene Dekart, Jon Lokk, Immanuil Kant kabi mutafakkirlar Suqrot g‘oyalariga asoslanib, o‘zlarining tanqidiy tafakkurga oid nazariyalarini ishlab chiqdilar. Bugungi kunda tanqidiy tafakkur shaxsda bo‘lishi kerak bo‘lgan zaruriy fazilat sifatida keng e’tirof etilgan va ko‘plab ta’lim kontekstlarida, boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridan boshlab oliy ta’lim muassasasi talabalarigacha, uzviy va uzluksiz rivojlantirilishi muhim ahamiyat kasb etadi [7, 13-b.].

J. Dyui tanqidiy fikrlashni muammoni anglash, mavjud dalillarni tekshirish va asoslangan xulosaga kelishga yo‘naltirilgan refleksiv tafakkur jarayoni sifatida tavsiflaydi. Uning fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonida talabaga tayyor bilimlarni yetkazish bilan cheklanib qolmasdan, uni savol qo‘yish, muammoni aniqlash, taxminlarni tekshirish va qarorlarini asoslashga o‘rgatish lozim. Mazkur yondashuv raqamli ta’lim muhitida muammoli topshiriqlar, virtual munozaralar, elektron loyihalar va mustaqil axborot izlash faoliyati orqali amalga oshirilishi mumkin.

R. Ennis tanqidiy fikrlashni nimaga ishonish yoki qanday harakat qilish haqida asoslangan qaror qabul qilishga yo‘naltirilgan oqilona va refleksiv fikrlash sifatida izohlaydi. R. Paul va L. Elder esa tanqidiy fikrlash-

ning asosiy vazifasi tafakkurning aniqligi, mantiqiyligi, izchilligi, xolisligi va dalillanganligini ta'minlashdan iborat ekanini ta'kidlaydilar. Ularning yondashuvida talaba o'z fikrlash jarayonini nazorat qilishi, dalillarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlashi, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslashi va xulosalarining asoslanganligini tekshirishi zarur.

D. Halpern tanqidiy fikrlashni kutilgan natijaga erishish ehtimolini oshiradigan kognitiv strategiya va ko'nikmalar majmuasi sifatida baholaydi. Unga ko'ra, ushbu ko'nikmalar muammoni aniqlash, axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va maqbul qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi. Raqamli ta'lim sharoitida mazkur ko'nikmalar elektron manbalar bilan ishlash, internetdagi ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish, raqamli dalillarni taqqoslash va virtual muammoli vaziyatlarga yechim topish orqali rivojlantiriladi.

P. Facionening tadqiqotlarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasining tarkibiy qismlari sifatida interpretatsiya, tahlil, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o'z faoliyatini nazorat qilish ko'rsatiladi. Ushbu komponentlar talabaning raqamli axborotni mazmunan anglash, asosiy va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratish, muallif pozitsiyasini aniqlash, dalillarning ishonchliligini baholash, mustaqil xulosa chiqarish hamda qarorlarini asoslab berish qobiliyatini ifodalaydi.

Ilmiy manbalar tahlili raqamli texnologiyalar tanqidiy fikrlashni o'z-o'zidan shakllantirmasligini ko'rsatadi. Ta'lim platformalari, elektron darsliklar, multimedia materiallari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, sun'iy intellekt vositalari va onlayn muloqot xizmatlarining pedagogik samaradorligi ulardan qanday metodik maqsadda foydalanilishiga bog'liq. Agar raqamli vositalar faqat tayyor axborotni namoyish etish yoki takrorlash uchun qo'llansa, talabalar faoliyati reproduktiv darajada qolib ketishi mumkin. Aksincha, ular muammoli topshiriqlar, tadqiqot loyihalari, munozaralar, keyslar, axborot manbalarini qiyoslash va dalillangan xulosa chiqarishga yo'naltirilsa, tanqidiy fikrlash kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda axborot va media savodxonligi alohida ahamiyatga ega. Talaba internet manbasining muallifi, maqsadi, yangilangan sanasi, dalillar bazasi va boshqa manbalar bilan muvofiqligini tekshira olishi lozim. Shuningdek, fakt va fikrni farqlash, manipulyativ usullarni aniqlash, statistik ma'lumotlarni to'g'ri talqin qilish, tasvir va videolarning haqiqiyligini tekshirish hamda sun'iy intellekt yaratgan javoblarga tanqidiy munosabat bildirish zamonaviy tanqidiy fikrlashning muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi.

Raqamli ta'lim muhitidagi hamkorlikka asoslangan faoliyat ham tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Onlayn munozaralar, forumlar, vebinarlar, guruhiy loyihalar va bulutli hujjatlar bilan birgalikda ishlash talabalarga o'z fikrini ifodalash, boshqalarning nuqtayi nazarini tinglash, turli qarashlarni qiyoslash va umumiy qarorga kelish imkonini beradi. Bunday faoliyat argument keltirish, qarshi dalillarni tahlil qilish, savol berish, muloqot madaniyatiga rioya etish va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, raqamli ta'lim jarayoni noto'g'ri tashkil etilganda tayyor javoblarga qaramlik, yuzaki o'qish, axborotni tekshirmasdan qabul qilish, akademik halollik talablarining buzilishi, diqqatning chalg'ishi va mustaqil fikrlash faolligining pasayishi kuzatilishi mumkin. Shuning uchun raqamli topshiriqlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish, axborot manbalarini tekshirish mezonlarini belgilash, talabadan xulosalarini dalillar bilan asoslashni talab qilish, muntazam qayta aloqa berish va refleksiv faoliyatni tashkil etish asosiy pedagogik shartlar hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy-tahliliy metodologiyadan foydalanildi. Mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik, metodik va raqamli didaktikaga doir adabiyotlar o'rganildi, ulardagi yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi hamda mavjud ilmiy xulosalar tizimlashtirildi. Raqamli ta'lim vositalarining talabalarning axborotni tahlil qilish, baholash, muammoni hal etish va asoslangan qaror qabul qilish ko'nikmalariga ta'siri pedagogik jihatdan tavsiflandi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kompetensiyaviy, muammoli, tizimli va raqamli-didaktik yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar talabani tayyor bilimni qabul qiluvchi obyekt sifatida emas, balki axborotni mustaqil izlaydigan, tahlil qiladigan, baholaydigan, yangi bilim yaratadigan va o'z qarorlarini asoslaydigan faol subyekt sifatida baholash imkonini beradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv talabalarning individual qobiliyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, o'rganish sur'ati va raqamli vositalardan foydalanish tajribasini hisobga olishni nazarda tutadi. Faoliyatga asoslangan yondashuv tanqidiy fikrlashning amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, mustaqil izlanish va refleksiya jarayonida shakllanishini ta'minlaydi. Kompetensiyaviy yondashuv esa o'zlashtirilgan bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash, dalillarni baholash va asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatiga e'tibor qaratadi.

Muammoli ta'lim yondashuvi talabalarga tayyor yechimi mavjud bo'lmagan vaziyatlarni taqdim etish, muammoni mustaqil aniqlash, taxminlarni ilgari surish, dalillar to'plash va muqobil yechimlarni baholashga asoslanadi. Tizimli yondashuv tanqidiy fikrlash kompetensiyasini bilim, ko'nikma, munosabat, motivatsiya va refleksiyaning o'zaro bog'liq birligi sifatida o'rganishga imkon beradi. Raqamli-didaktik yondashuv esa elek-

tron resurslar, ta'lim platformalari va interaktiv vositalarni aniq pedagogik maqsadlar asosida tanlash hamda qo'llashni nazarda tutadi.

Raqamli ta'lim jarayonini tashkil etish metodologiyasi individuallashtirish, interfaollik, muammolilik, izchillik, bosqichma-bosqichlik, hamkorlik, ongli ishtirok, akademik halollik va muntazam qayta aloqa tamoyillariga asoslandi. Ta'lim topshiriqlari oddiy axborotni tushunishdan boshlab, uni tahlil qilish, turli manbalarni qiyoslash, dalillarni baholash, muqobil yechimlarni ishlab chiqish va mustaqil xulosa chiqarishgacha bo'lgan bosqichlarda tashkil etildi.

Tanqidiy fikrlashning motivatsion va kommunikativ jihatlarini aniqlashda talabaning topshiriqqa qiziqishi, mustaqil izlanishga intilishi, savol berish faolligi, onlayn munozaralardagi ishtiroki, o'z fikrini erkin ifodalashi, boshqalarning fikriga hurmat bilan munosabatda bo'lishi va jamoaviy qaror qabul qilishdagi faolligiga e'tibor qaratildi. Refleksiv ko'rsatkichlar sifatida talabaning o'z fikrlash jarayonini tahlil qilishi, yo'l qo'ygan xatolarini aniqlashi, tanlagan yechimining afzallik va cheklovlarini baholashi hamda keyingi faoliyat yo'nalishini belgilashi olindi.

Mazkur metodologiya raqamli ta'lim muhitining talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasiga ta'sirini faqat o'zlashtirilgan bilimlar miqdori orqali emas, balki axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, asoslangan xulosa chiqarish, muammoni hal etish va refleksiya ko'nikmalari bilan o'zaro bog'liq holda o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, u raqamli ta'lim mazmunini talabalarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, interaktiv va muammoli topshiriqlardan samarali foydalanish hamda mustaqil va tanqidiy fikrlovchi mutaxassisni tayyorlashning pedagogik shartlarini aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy adabiyotlar, xalqaro kompetensiya tizimlari va normativ-huquqiy hujjatlarning nazariy hamda sifat kontent-tahlili natijasida raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasi o'zaro bog'langan kognitiv, axborot-tahliliy, kommunikativ-argumentativ, refleksiv va qadriyatli-motivatsion komponentlardan tashkil topishi aniqlandi. Mazkur kompetensiya talabaning raqamli axborotni topishi bilangina emas, balki manbalar ishonchliligini tekshirishi, dalillarni qiyoslashi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashi, muqobil qarashlarni baholashi va asoslangan xulosa chiqarishida namoyon bo'ladi.

P. Facione tomonidan belgilangan talqin qilish, tahlil etish, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari tanqidiy fikrlash kompetensiyasining kognitiv asosini tashkil etishi tasdiqlandi [4]. Biroq raqamli muhitda mazkur ko'nikmalar media-axborot savodxonligi, manbani tekshirish, algoritmik natijalarni baholash va sun'iy intellekt yaratgan kontentga tanqidiy munosabat bilan to'ldirilishi zarurligi aniqlandi.

Tahlil natijasida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantiruvchi pedagogik omillar beshta o'zaro bog'langan guruhga ajratildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval: **Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantiruvchi pedagogik omillar**

Omillar guruhi	Asosiy pedagogik omillar	Talaba faoliyatida namoyon bo'lishi
Mazmuniy-texnologik	Ishonchli raqamli resurslar, turli nuqtayi nazarlar, autentik materiallar, axborotning ilmiyligi	Axborotni tanlash, manbalarni tekshirish va ishonchli hamda ishonchsiz ma'lumotni farqlash
Muammoli-faoliyatli	Muammoli savollar, keyslar, tadqiqiy topshiriqlar, loyiha va simulyatsiyalar	Muammoni aniqlash, gipoteza ilgari surish, dalil izlash va muqobil yechimlar ishlab chiqish
Kommunikativ-hamkorlik	Munozara, debat, guruhli tahlil, o'zaro baholash va dialogik ta'lim	Fikrni dalillash, boshqa qarashlarni tinglash, e'tiroz bildirish va umumiy xulosaga kelish
Tashkiliy-pedagogik	O'qituvchining fasilitatorligi, differensial topshiriqlar, psixologik xavfsiz muhit va pedagogik ko'mak	Mustaqil fikr bildirish, savol berish, xatoni tan olish va o'z pozitsiyasini qayta ko'rib chiqish
Baholash-refleksiv	Mezonli baholash, rivojlantiruvchi qayta aloqa, o'z-o'zini va tengdoshini baholash	Fikrlash jarayonini tahlil qilish, dalillardagi kamchiliklarni aniqlash va xulosani tuzatish

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning tanqidiy fikrlashi raqamli materiallarning ko'pligiga emas, balki ularning mazmuniy va ilmiy sifatiga bog'liq. Agar talabalarga faqat bitta manba yoki tayyor xulosa taqdim etilsa, ularning qiyoslash va baholash faoliyati cheklanadi. Shu sababli bir muammo bo'yicha ilmiy maqola, statistik ma'lumot, media xabari, videomaterial va sun'iy intellekt yaratgan javobni birgalikda tahlil qilish samarali yondashuv sifatida belgilandi.

Bunday topshiriqlarda talaba axborotning muallifi kim, material qanday maqsadda yaratilgan, fikr qaysi dalillarga asoslangan, manbada bir tomonlama yondashuv mavjudmi, keltirilgan ma'lumotni boshqa manbalar tasdiqlaydimi, fakt va muallif talqini bir-biridan qanday farqlanadi singari savollarga javob izlashi lozim. Natijada talabalarda axborotni passiv qabul qilishdan dalillarga asoslangan holda baholashga o'tish kuzatilishi nazariy jihatdan asoslandi.

Muammoli vaziyatlar, ochiq savollar, keys-stadi, loyiha va tadqiqiy topshiriqlar tanqidiy fikrlashni faollashtiruvchi yetakchi pedagogik omillar sifatida aniqlandi. Yechimi oldindan ma'lum bo'lgan reproduktiv topshiriqlar talabaning xotirasi va qayta ifodalash qobiliyatini tekshiradi, biroq muqobil yechimlar talab qiladigan topshiriqlar uning tahlil, baholash va qaror qabul qilish faoliyatini kuchaytiradi.

Oliy ta'limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha tizimli sharh natijalarida ham muammoga asoslangan ta'lim, keys-stadi, simulyatsiya, refleksiv yozuv, konseptual xaritalash va faol ta'lim metodlarining pedagogik imkoniyatlari qayd etilgan [6]. Shuning uchun raqamli topshiriqlar tayyor javobni topishga emas, balki dalillar asosida bir nechta yechimni qiyoslashga yo'naltirilishi zarur.

Tanqidiy fikrlash faqat individual aqliy faoliyat emas, balki dialog va ijtimoiy hamkorlik jarayonida rivojlanadigan kompetensiya ekanligi aniqlandi. Munozara va debatlarda talaba o'z fikrini dalillash, qarama-qarshi pozitsiyani tushunish, dalillardagi kuchli va zaif jihatlarni aniqlash hamda xulosasini qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Mezonli va refleksiv baholash tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning zarur omili sifatida aniqlandi. Faqat yakuniy javobni baholash talabaning mazkur xulosaga qanday kelganini ko'rsatmaydi. Shu sababli baholashda manba tanlash, dalil sifati, fikrning mantiqiyligi, qarshi dalillarni hisobga olish va xulosaning asoslanganligi kabi ko'rsatkichlar e'tiborga olinishi kerak.Tanqidiy fikrlash faoliyatini baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi. (2-jadvalga qarang)

2-jadval: **Tanqidiy fikrlash faoliyatini baholash**

Mezon	Ko'rsatkichlar
Muammoni anglash	Muammoni aniq ifodalash, asosiy va ikkilamchi masalalarni ajratish
Axborotni tahlil qilish	Fakt, fikr, taxmin va manipulyativ axborotni farqlash
Manbani baholash	Muallif, nashr, sana, dalil va havolalarning ishonchliligini tekshirish
Dalillash	Fikrni ilmiy ma'lumot va mantiqiy asoslar bilan izohlash
Muqobil qarashlarni baholash	Qarama-qarshi fikrlarni xolis tahlil qilish
Xulosa chiqarish	Dalillarga mos, mantiqiy va asoslangan xulosa shakllantirish
Refleksiya	O'z fikridagi kamchiliklarni anglash va xulosani qayta ko'rib chiqish

Sun'iy intellekt vositalari individual tushuntirish, g'oya yaratish, savollar tuzish va tezkor qayta aloqa berishda didaktik imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, sun'iy intellekt javoblari faktik xatolar, soxta havolalar, bir tomonlama talqin yoki yuzaki umumlashtirishlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun AI natijasini tayyor va mutlaq to'g'ri javob sifatida qabul qilmaslik tanqidiy fikrlash kompetensiyasining yangi ko'rsatkichi sifatida belgilandi.

Talabalar AI yaratgan javobni kamida ikki ishonchli manba bilan tekshirishi, undagi fakt va talqinlarni ajratishi, foydalanilgan dalillarni aniqlashi hamda javobning kuchli va zaif tomonlarini yozma ravishda asoslab berishi maqsadga muvofiq. Bunday faoliyat sun'iy intellektni talaba o'rniga fikrlaydigan vositadan uning fikrlashini tekshiradigan va chuqurlashtiradigan pedagogik vositaga aylantiradi.

Umumlashtirilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim muhitida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish texnologik vositalarning o'ziga emas, balki ularning muammoli, tadqiqiy, dialogik va refleksiv faoliyat bilan pedagogik jihatdan uyg'unlashtirilishiga bog'liq. Raqamli resurslarning sifati, talabaning faol va hamkorlikdagi ishtiroki, o'qituvchining fasilitatorlik faoliyati, manbalarni tanqidiy baholash, mezonli qayta aloqa va psixologik xavfsiz muhit birgalikda ta'minlangandagina tanqidiy fikrlashning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Mazkur nazariy-tahliliy va sifat yondashuviga asoslanib, raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantiruvchi pedagogik omillarni aniqlash, tasniflash va ularning o'zaro aloqadorligini ochib berishga yo'naltirildi. Tadqiqot obyekti sifatida raqamli ta'lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish jarayoni, tadqiqot predmeti sifatida esa mazkur jarayonning mazmuni, pedagogik omillari, metodlari, vositalari va tashkiliy-didaktik shartlari belgilandi.

Tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqishda adabiyotlar sharhidan mustaqil ilmiy tadqiqot metodi sifatida foydalanildi. H. Snyder adabiyotlar sharhini muayyan sohadagi tarqoq ilmiy bilimlarni aniqlash, baholash va yaxlit nazariy xulosalarga birlashtirish imkonini beruvchi metodologiya sifatida tavsiflaydi. Muallifning ta'kidlashicha,

an'anaviy adabiyotlar sharhi aniq metodologiyasiz olib borilsa, uning ilmiy ishonchliligi va to'liqligi bo'yicha savollar yuzaga kelishi mumkin [8]. Shu sababli mazkur tadqiqotda manbalarni izlash, tanlash, guruhlash va tahlil qilish jarayonlari oldindan belgilangan mezonlar asosida amalga oshirildi.

Tizimli yondashuv. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi alohida kognitiv ko'nikma emas, balki bilim, tahliliy faoliyat, refleksiya, qadriyat, shaxsiy munosabat va mustaqil qaror qabul qilishning o'zaro bog'langan tizimi sifatida o'rganildi. Raqamli resurs, pedagogik topshiriq, o'qituvchi faoliyati, talaba faolligi, baholash va qayta aloqa mazkur tizimning o'zaro ta'sir etuvchi tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilindi.

Kompetensiyaviy yondashuv. Tanqidiy fikrlash natijasi talabaning nazariy bilimlarni takrorlashi bilan emas, balki raqamli axborotni izlash, manbalarni tekshirish, dalillarni qiyoslash, muqobil fikrlarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatlari orqali belgilandi. P. Facione tomonidan tanqidiy fikrlashning talqin qilish, tahlil etish, baholash, xulosa chiqarish, tushuntirish va o'z-o'zini nazorat qilish kabi kognitiv tarkibiy qismlari ajratilgan [4]. Mazkur komponentlar pedagogik omillarni aniqlashning nazariy mezonlari sifatida qabul qilindi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv. Talabaning tanqidiy fikrlashi tayyor axborotni qabul qilish jarayonida emas, balki muammoni aniqlash, savol qo'yish, axborot izlash, dalillarni tekshirish, munozara qilish va refleksiv xulosa chiqarish faoliyatida shakllanishi nazarda tutildi. Shu sababli muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha, tadqiqiy topshiriq, debat va refleksiv yozuv kabi metodlarning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Konstruktivistik yondashuv. Talaba bilimning passiv qabul qiluvchisi emas, balki raqamli axborot, shaxsiy tajriba va hamkorlikdagi muloqot asosida bilimni mustaqil quruvchi faol subyekt sifatida baholandi. Bunda o'qituvchi tayyor xulosani yetkazuvchi emas, balki muammoli vaziyatni yaratuvchi, savollar orqali fikrlashni yo'naltiruvchi va rivojlantiruvchi qayta aloqa beruvchi fasilitator vazifasini bajaradi.

Media va axborot savodxonligi yondashuvi. Raqamli axborot manbalarining muallifi, maqsadi, dalillari va ishonchliligini aniqlash tanqidiy fikrlashning muhim sharti sifatida olindi. UNESCO media va axborot savodxonligi shaxsga o'qilgan, eshitilgan va o'rganilgan ma'lumotlarni tanqidiy savol ostiga qo'yish imkonini berishini qayd etadi [3]. DigComp 3.0 tizimida ham raqamli axborot va uni yaratgan jarayonlarning ishonchliligini tanqidiy baholash mustaqil raqamli kompetensiya sifatida belgilangan [5].

Tadqiqotning manbalar bazasini tanqidiy fikrlash, raqamli ta'lim, media-axborot savodxonligi, sun'iy intellekt va interfaol o'qitishga oid ilmiy maqolalar, monografiyalar, metodik materiallar hamda milliy va xalqaro tashkilotlarning konseptual hujjatlari tashkil etdi. Zamonaviy tendensiyalarni aniqlashda, asosan, so'nggi yillarda e'lon qilingan manbalarga ustuvorlik berildi. Shu bilan birga, tanqidiy fikrlashning konseptual asoslarini ochib beruvchi P. Facione kabi olimlarning fundamental tadqiqotlari ham tahlil doirasiga kiritildi.

Nazariy tahlil metodi orqali tanqidiy fikrlash, tanqidiy fikrlash kompetensiyasi, raqamli ta'lim muhiti va pedagogik omil tushunchalarining mazmuni o'rganildi. Turli mualliflarning konseptual qarashlaridagi umumiy va farqli jihatlar aniqlanib, tadqiqot uchun asosiy ilmiy tushunchalar aniqlashtirildi.

Hujjatlar tahlili metodi yordamida milliy strategiyalar, normativ-huquqiy hujjatlar, UNESCO tavsiyalari va Yevropa Komissiyasining raqamli kompetensiyalar tizimi o'rganildi.

G. Bowen hujjatlar tahlili "bosma va elektron hujjatlarni ko'rib chiqish yoki baholashning tizimli jarayoni" sifatida ta'riflaydi [9]. Ushbu metod rasmiy hujjatlarda tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik va axborotni baholashga qo'yilgan talablarni aniqlash imkonini berdi.

Sifat kontent-tahlili metodi orqali tanlangan ilmiy manbalardagi mazmuniy birliklar ajratildi. P. Mayring sifat kontent-tahlilini matnlarni oldindan belgilangan qoidalar va kategoriyalar asosida izchil o'rganishga imkon beruvchi tizimli metod sifatida asoslaydi [10]. Tadqiqot davomida "raqamli resurs", "muammoli topshiriq", "axborot ishonchliligi", "interfaol muloqot", "hamkorlik", "fasilitatorlik", "refleksiya", "baholash", "qayta aloqa" va "sun'iy intellekt" kabi mazmunli birliklar kodlandi.

Tematik tahlil metodi pedagogik omillarni mazmunan yaqin guruhlarga birlashtirish uchun qo'llanildi. V. Braun va V. Clarke tematik tahlilni sifat ma'lumotlaridagi takrorlanuvchi mazmuniy qonuniyat va mavzularni aniqlashga imkon beruvchi nazariy jihatdan moslashuvchan metod sifatida tavsiflaydi [11]. Tematik tahlil manbalar mazmuni bilan tanishish, muhim ilmiy fikr va tushunchalarni dastlabki kodlash, mazmunan yaqin kodlarni birlashtirish, pedagogik omillarga tegishli mavzularni shakllantirish, mavzularni qayta ko'rib chiqish va aniqlashtirish, omillarning mazmuni va o'zaro bog'liqligini izohlash, umumlashtirilgan nazariy xulosalarni ishlab chiqish ketma-ketligida amalga oshirildi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali milliy va xalqaro hujjatlar, turli pedagogik konsepsiyalar hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodlari o'zaro taqqoslandi. Ushbu metod raqamli ta'limda qo'llanadigan pedagogik omillarning umumiy va o'ziga xos jihatlarini aniqlash imkonini berdi.

Sintez va umumlashtirish metodlari asosida turli manbalarda qayd etilgan ilmiy qarashlar yagona pedagogik tizimga keltirildi. Natijada tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi omillar mazmuniy, faoliyatli, kommunikativ, tashkiliy, texnologik va refleksiv guruhlarga ajratildi. Ilmiy manbalar mazmunini kodlash va guruhlash natijasida quyidagi asosiy tahlil kategoriyalari belgilandi (3-jadvalga qarang).

3-jadval: **Ilmiy manbalarning qiyosiy tahlili**

Tahlil kategoriyasi	Mazmuni
Raqamli resurslarning sifati	Axborotning ilmiyligi, ishonchliligi, dolzarbligi va talaba darajasiga muvofiqligi
Muammoli-tadqiqiy faoliyat	Savol qo‘yish, muammoni aniqlash, taxmin ishlab chiqish va dalil izlash
Axborotni tanqidiy baholash	Manba, muallif, maqsad, dalil va xulosalarning ishonchliligini tekshirish
Interfaol muloqot	Munozara, debat, savol-javob va muqobil fikrlarni muhokama qilish
Hamkorlikdagi faoliyat	Guruhda dalillarni qiyoslash, vazifalarni taqsimlash va umumiy xulosa chiqarish
O‘qituvchining fasilitatorligi	Talabaning izlanish va fikrlash jarayonini savol, ko‘mak va qayta aloqa orqali boshqarish
Refleksiv baholash	Talabaning fikrlash yo‘li, dalillari va xulosalarini qayta ko‘rib chiqishi
Media-axborot savodxonligi	Yolg‘on, manipulyativ va bir tomonlama axborotni aniqlash
Sun’iy intellektdan tanqidiy foydalanish	AI natijalarini tekshirish, xatolarini aniqlash va axloqiy me’yorlarga rioya qilish
Psixologik xavfsizlik	Talabaning savol berish, e’tiroz bildirish va xato qilishdan qo‘rqmasligi

Mazkur kategoriyalarni ajratishda oliy ta’limda tanqidiy fikrlashga oid tizimli sharh natijalari ham hisobga olindi. P. Andreucci-Annunziata va hammualliflar faol ta’lim metodlari, muammoga asoslangan ta’lim, keys-stadi, simulyatsiya, refleksiv yozuv va konseptual xaritalash tanqidiy fikrlashni qo‘llab-quvvatlovchi strategiyalar qatoriga kirishini ko‘rsatadilar [6].

Tadqiqot xulosalarining ishonchliligini oshirish maqsadida manbalar triangulyatsiyasi tamoyilidan foydalanildi. Bir pedagogik omilga oid xulosalar ilmiy maqolalar, xalqaro kompetensiya tizimlari va milliy normativ-huquqiy hujjatlardagi qarashlar bilan o‘zaro solishtirildi. Tahlil kategoriyalarining mazmuni oldindan belgilandi, bir-biriga yaqin tushunchalar aniqlashtirildi va umumiy nazariy tizimga keltirildi.

Shuningdek, pedagogik omillarni ajratishda omilning talabaning tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish faoliyatiga bevosita ta’siri, omilning pedagog tomonidan loyihalashtirilishi yoki boshqarilishi mumkinligi, omilning raqamli ta’lim sharoitida muntazam va qayta qo‘llanish imkoniyati singari mezonlar asosida qilib olindi.

Tadqiqot nazariy-tahliliy xususiyatga ega bo‘lgani sababli undagi xulosalar statistik umumlashtirishni emas, balki o‘rganilgan ilmiy manbalar asosida pedagogik omillarning mazmuni va o‘zaro bog‘liqligini konseptual tushuntirishni nazarda tutadi. Kelgusida ushbu omillarning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov ishlari, talabalar diagnostikasi, kuzatish, so‘rovnoma va matematik-statistik tahlil orqali empirik tekshirish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli ta’lim muhitida talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy oliy ta’limning muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Mazkur kompetensiya raqamli axborotni topish bilan cheklanmay, uning ishonchliligini tekshirish, fakt va fikrni farqlash, dalillarni qiyoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, muqobil qarashlarni baholash hamda asoslangan xulosa chiqarish ko‘nikmalarini qamrab oladi. Shuning uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning o‘zi tanqidiy fikrlashni rivojlantirmaydi; ularning pedagogik maqsad, muammoli vaziyat va faol o‘quv topshiriqlari bilan uyg‘unlashtirilishi zarur.

Tadqiqot natijasida raqamli resurslarning mazmuniy va ilmiy sifati, muammoli-tadqiqiy topshiriqlar, axborot manbalarini tanqidiy baholash, interfaol muloqot, hamkorlikdagi faoliyat, o‘qituvchining fasilitatorlik pozitsiyasi, psixologik xavfsiz muhit, mezonli baholash va refleksiv qayta aloqa tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantiruvchi asosiy pedagogik omillar sifatida belgilandi. Mazkur omillarning tizimli qo‘llanishi talabani tayyor axborotning passiv iste’molchisidan mustaqil savol qo‘yuvchi, dalillarni tekshiruvchi, fikrini asoslovchi va o‘z xulosasini qayta ko‘rib chiqishga tayyor faol ta’lim subyektiga aylantiradi.

Sun’iy intellekt vositalaridan foydalanishda ham tanqidiy va axloqiy yondashuv ustuvor bo‘lishi lozim. Talaba AI yaratgan javoblarni mutlaq to‘g‘ri axborot sifatida qabul qilmasdan, ularni ishonchli manbalar bilan solishtirishi, faktik va mantiqiy xatolarini aniqlashi hamda foydalanilgan ma’lumotlarni tekshirishi zarur. O‘qituvchi esa tayyor bilimni yetkazuvchi emas, balki talabaning izlanishi, savol qo‘yishi, dalillashi va refleksiyasini boshqaruvchi fasilitator vazifasini bajarishi kerak.

Shunday qilib, raqamli ta’lim muhitida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini samarali shakllantirish mazmuniy, faoliyatli, kommunikativ, texnologik va refleksiv omillarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Oliy ta’lim amaliyotida muammoga asoslangan ta’lim, keys-stadi, debat, loyiha, manbalarni qiyosiy tahlil qilish, refleksiv yozuv va sun’iy intellekt natijalarini tekshirishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni kengaytirish maqsadga muvofiq. Kelgusida aniqlangan pedagogik omillarning samaradorligini tajriba-sinov ishlari, diagnostik mezonlar va matematik-statistik tahlil orqali empirik tekshirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi.
3. UNESCO. (2017). Media and Information Literacy: A Critical Approach to Literacy in the Digital World.
4. Facione, P. A. (1990). Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction. American Philosophical Association, Delphi Report.
5. European Commission, Joint Research Centre. (2025). DigComp 3.0: The Digital Competence Framework for Citizens.
6. Andreucci-Annunziata, P. et al. (2023). Conceptualizations and Instructional Strategies on Critical Thinking in Higher Education: A Systematic Review of Systematic Reviews. Frontiers in Education, 8, 1141686.v
7. Akramova Gulbahor Renatovna. O'quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirish asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlash tizimini takomillashtirish. 13.00.01-Ped nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi. p.f.d (DSc). -T.: 2023-yil. 236-bet.
8. Snyder, H. (2019). Literature Review as a Research Methodology: An Overview and Guidelines. Journal of Business Research, 104, 333–339.
9. Bowen, G. A. (2009). Document Analysis as a Qualitative Research Method. Qualitative Research Journal, 9(2), 27-40.
10. Mayring, P. (2014). Qualitative Content Analysis: Theoretical Foundation, Basic Procedures and Software Solution. Klagenfurt.
11. Braun, V., & Clarke, V. (2006). Using Thematic Analysis in Psychology. Qualitative Research in Psychology, 3(2), 77-101.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA HAMKORLIKDAGI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Malikova Madina Abduraxmon qizi
CHDPU tayanch doktorantura talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatish jarayonida ko'rgazmali vositalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Xususan, vizual materiallar, rasmlar, audio va videolar, qo'shiqlar hamda interaktiv topshiriqlarning o'quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, texnologiyalardan haddan tashqari foydalanishning ayrim salbiy jihatlari va ularni hamkorlikka asoslangan metodlar bilan muvozanatlashtirish zarurati asoslab beriladi. Boshlang'ich ta'limda texnologik vositalarni kichik guruhlar, juftliklar va jamoaviy faoliyat bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning nafaqat til ko'nikmalarini, balki muloqot, hamkorlik, mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish kompetensiyalarini ham rivojlantirishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ingliz tili, axborot texnologiyalari, ko'rgazmali qurollar, hamkorlikdagi ta'lim, talaffuz, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, vizual materiallar, raqamli ta'lim.

Abstract: This article discusses the effective use of visual aids, information and communication technologies, and collaborative learning technologies in the process of teaching English to primary school students. In particular, it analyzes the importance of visual materials, pictures, audio and video materials, songs, and interactive tasks in increasing students' interest in lessons, developing pronunciation skills, and enhancing communicative competence. The article also substantiates some negative aspects of excessive use of technologies and the need to balance them with cooperation-based methods. It is emphasized that integrating technological tools with small-group, pair, and collaborative activities in primary education contributes to the development of not only students' language skills but also their competencies in communication, collaboration, independent thinking, and problem-solving.

Key words: primary education, English language, information technologies, visual aids, collaborative learning, pronunciation, communicative competence, interactive methods, visual materials, digital education.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы эффективного использования наглядных средств, информационно-коммуникационных технологий, а также технологий совместного обучения в процессе обучения английскому языку учащихся начальных классов. В частности, анализируется значение визуальных материалов, изображений, аудио- и видеоматериалов, песен и интерактивных заданий в повышении интереса учащихся к уроку, формировании навыков произношения и развитии коммуникативной компетенции. Также обосновываются отдельные негативные аспекты чрезмерного использования технологий и необходимость их сбалансированного применения с методами, основанными на сотрудничестве. Подчеркивается, что сочетание технологических средств с работой в малых группах, парах и коллективной деятельностью в начальном образовании способствует развитию у учащихся не только языковых навыков, но и компетенций общения, сотрудничества, самостоятельного мышления и решения проблем.

Ключевые слова: начальное образование, английский язык, информационные технологии, наглядные средства, совместное обучение, произношение, коммуникативная компетенция, интерактивные методы, визуальные материалы, цифровое образование.

KIRISH

Bugungi kunda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini erta yoshdan boshlab o'rgatish ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari ularning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishini, ko'proq ko'rish, eshitish, takrorlash va amaliy faoliyat orqali bilimlarni o'zlashtirishini talab qiladi. Shu sababli ingliz tili darslarini an'anaviy usullar bilangina emas, balki zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanishning asosiy maqsadi darsni shunchaki texnik vositalar bilan boyitish emas, balki o'quvchining ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishdan iborat bo'lishi kerak. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda vizual materiallar, audio yozuvlar, qisqa videolar, qo'shiqlar va interaktiv mashqlar o'quvchilarning e'tiborini jalb etish bilan birga, yangi til birliklarini osonroq idrok etishlariga yordam beradi.

Biroq zamonaviy ta'limda texnologiyadan foydalanishning o'zi yetarli emas. O'quvchilar o'rtasida muloqot va hamkorlikni shakllantirish ham ta'limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, axborot texnologiyalarini hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish boshlang'ich sinf ingliz tili darslarining samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida qaralishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ko'rgazmali vositalarning ingliz tili ta'limidagi ahamiyati. Ko'rgazmali vositalardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining yangi bilimlarni qabul qilishi va eslab qolishini yengillashtiradi. Dorela Kachauni Konomining so'zlariga ko'ra, "Vizual materiallar kelajakda ta'limni mustaqil ravishda egallashga olib keladi, ular bolalarning ishonchini oshiradi, shuningdek, o'qitishni yanada aniqlashtiradi" [1]. Mazkur fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, ko'rgazmali qurollar ingliz tili darslarini yanada jozibador va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga yangi so'zlarni o'rgatishda rasmlar, kartochkalar, predmetlar, animatsiyalar va qisqa videolardan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, "Animals", "Colours", "Family", "Food" kabi mavzularni o'rgatishda so'zning o'zini tushuntirishdan ko'ra, uning tasvirini ko'rsatish va o'quvchilardan ushbu rasm asosida so'zni topish yoki guruh bilan muhokama qilish ancha samarali bo'lishi mumkin.

Bunday faoliyatni hamkorlikdagi ta'lim bilan birlashtirish orqali o'quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi va ularga umumiy topshiriq beriladi. Masalan, guruh a'zolariga turli rasmlar tarqatilib, ularni tegishli inglizcha so'zlar bilan moslashtirish vazifasi berilishi mumkin. Bunda har bir o'quvchi topshiriqni bajarishga o'z hissasini qo'shadi. Natijada vizual material faqat axborot beruvchi vosita emas, balki o'quvchilarni muloqot va hamkorlikka undovchi pedagogik vositaga aylanadi.

Ayniqsa, rasmlar va qo'shiqlar bilan boyitilgan qisqa videolardan foydalanish boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga qiziqishini oshiradi. Bunday materiallar zerikarli va bir xil faoliyatga asoslangan darslarning oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga, videoni o'quvchilarga shunchaki namoyish qilish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Uni hamkorlikdagi topshiriq bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Masalan, o'qituvchi qisqa videoni namoyish etgach, o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratib, videoda uchragan yangi so'zlarni aniqlash, ularni tasniflash yoki video mazmuni asosida oddiy gaplar tuzishni topshirishi mumkin. Bunda texnologiya o'quvchining passiv tomoshabin bo'lib qolishiga emas, balki faol ishtirokchi sifatida ta'lim jarayoniga qo'shilishiga xizmat qiladi.

Hamkorlikdagi ta'limning asosiy xususiyati ham shundan iboratki, bilim o'qituvchi tomonidan tayyor holda beriladigan ma'lumot sifatida emas, balki o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati jarayonida o'zlashtiriladi. Juftlik va kichik guruhlarda ishlash jarayonida o'quvchilar bir-biriga savol beradi, javoblarini tekshiradi, fikr almashadi va umumiy xulosaga keladi. Natijada ingliz tilini o'rganish jarayoni tabiiy muloqot muhitiga yaqinlashadi.

Texnologiyalardan doimiy va me'yoridan ortiq foydalanish har doim ham ijobiy natija bermaydi. Innovatsion vositalardan haddan tashqari foydalanish o'quvchilar o'rtasidagi bevosita muloqotning kamayishiga, ijtimoiylashuv bilan bog'liq ayrim muammolarning yuzaga kelishiga hamda o'quvchilarning o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan an'anaviy va interaktiv metodlarga moslashishida qiyinchiliklar tug'dirishi mumkin.

Shu sababli o'qituvchi texnologik vositalarni darsning maqsadi, mavzusi, o'quvchilarning yoshi, psixologik xususiyatlari va tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib tanlashi lozim. Texnologiya ta'limning maqsadi emas, balki unga erishish vositasi bo'lishi kerak.

Bu borada hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalari muhim yechimlardan biri hisoblanadi. Masalan, interaktiv doskada topshiriq bajarilgandan keyin o'quvchilar o'z javoblarini juftlikda muhokama qilishlari yoki guruhda umumiy qarorga kelishlari mumkin. Shunday qilib, raqamli vosita va insonlararo muloqot bir-birini to'ldiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz ko'nikmalari yuqori sinf o'quvchilariga nisbatan moslashuvchanroq bo'lishi sababli aynan boshlang'ich bosqichda talaffuzga oid mashqlarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ingliz tilini o'rganishning dastlabki bosqichida o'quvchi so'zlarni qanday eshitishi va qanday talaffuz qilishi uning keyingi nutq faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

M. Sobirova bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Boshlang'ich bosqichda talaffuzga muhim e'tibor beriladi. Suhbat davomida ona tilini biladiganlardan birinchi talab - bu talaffuz. O'quv jarayonining boshlanishida o'qituvchi asosiy e'tiborni o'quvchining talaffuziga qaratishi kerak. Grammatika va lug'at asosiysi hisoblansa-da, ma'ruzachi talaffuzi noto'g'ri bo'lsa, buning hammasi befoyda. Ingliz tilida so'zlashuvchi fuqarolar, ya'ni "native speaker"lar, agar so'zlovchi so'zlarni to'g'ri talaffuz qilsa, nutqni grammatik xatolar bilan ham tushunishlari mumkin. Shuning uchun o'qitishda dastavval asosiy e'tibor talaffuzga qaratiladi. Bunda native speakerlarning turli xil audiolaridan foydalanish yaxshi natija beradi" [2].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish va pedagogik kuzatuv metodlaridan foydalanildi. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda axborot texnologiyalari, vizual va audio materiallar hamda hamkorlikdagi ta’lim usullarining samaradorligi o‘rganildi. Shuningdek, texnologik vositalarni juftlik va kichik guruh faoliyati bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu fikr ingliz tili darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning talaffuzni o‘rgatishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘quvchilarga ingliz tilida so‘zlashuvchilarning audio yozuvlarini eshittirish, so‘z va gaplarni takrorlatish, qisqa videolardagi dialoglarni tinglash hamda eshitilgan nutq asosida mashqlar bajarish talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Bunda hamkorlikdagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanish yanada samarali natija berishi mumkin. Masalan, o‘quvchilar juftlikda ishlagan holda bir-birining talaffuzini tinglashi va namunaviy audio bilan taqqoslashi mumkin. Kichik guruhlarda esa berilgan so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish bo‘yicha “Pronunciation Challenge” kabi mashg‘ulotlar tashkil etilishi mumkin. Bunday faoliyat o‘quvchilarda nafaqat talaffuz, balki tinglash, baholash va muloqot qilish ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchini faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki olingan bilimlardan amaliy va ijtimoiy faoliyatda foydalana oladigan shaxs sifatida shakllantirishdir. YuNESKO Instituti tomonidan ta’kidlangan kompetensiyalar qatorida axborotni izlash, tahlil qilish va baholash; muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish; ishlab chiqarish vositalaridan ijodiy va samarali foydalanish; muloqot qilish, hamkorlik qilish, nashr etish va ishlab chiqarish hamda jamiyatga hissa qo‘shish kabi ko‘nikmalar alohida ahamiyatga ega.

Mazkur kompetensiyalarni boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida shakllantirish uchun hamkorlikdagi ta’lim samarali metodik asos bo‘la oladi. Chunki guruhda ishlash jarayonida o‘quvchi o‘z fikrini ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash, vazifalarni taqsimlash va umumiy natijaga erishish kabi ko‘nikmalarni egallaydi.

Axborot texnologiyalari esa ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Guruhlarga elektron rasm, audio yoki video asosida topshiriq berish mumkin. Bir guruh yangi so‘zlarni aniqlasa, ikkinchi guruh ularning talaffuzini mashq qiladi, uchinchi guruh esa ushbu so‘zlardan foydalanib sodda dialog tuzadi. Yakunda guruhlar o‘z ishlarini sinf oldida taqdim etadilar.

Bunday yondashuvda bitta topshiriqning o‘zida bir nechta til kompetensiyasi - tinglab tushunish, talaffuz, lug‘at, gapirish, muloqot va jamoada ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Fikrimizga qo‘shimcha ravishda biz boshlang‘ich sinflar uchun ham AKT va hamkorlikdagi ta’limni rivojlantirish uchun metodik tavsiya ham ishlab chiqdik. Boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta’limni uyg‘unlashtirish uchun quyidagi ketma-ketlikdan foydalanish mumkin:

Birinchi bosqichda o‘qituvchi mavzuga mos vizual yoki audio materialni tanlaydi. Ikkinchi bosqichda material o‘quvchilarga namoyish etiladi yoki eshittiriladi. Uchinchi bosqichda o‘quvchilar juftlik yoki kichik guruhlarga bo‘linib, material asosida topshiriq bajaradilar. To‘rtinchi bosqichda guruhlar o‘z natijalarini taqdim etadilar. Yakuniy bosqichda esa o‘qituvchi o‘quvchilarning faoliyatini tahlil qilib, xatolarni tuzatadi va to‘g‘ri talaffuz yoki til birliklarini mustahkamlaydi.

Masalan, “My Family” mavzusida o‘qituvchi oila a’zolari tasvirlangan qisqa videoni namoyish etishi mumkin. Keyin o‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, videoda uchragan so‘zlarni aniqlaydilar. Har bir guruh o‘ziga berilgan so‘zlarning talaffuzini audio namuna asosida mashq qiladi. Keyingi bosqichda guruh a’zolari “This is my mother”, “This is my brother” kabi sodda gaplar tuzib, bir-birlariga aytadilar. Shu tariqa texnologik material hamkorlikdagi faoliyatga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Keltirilgan fikrlarimizga intiqom yasaydigan bo‘lsak, boshlang‘ich sinflarda ingliz tilini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ko‘rgazmali vositalar va hamkorlikdagi ta’lim texnologiyalarini o‘zaro uyg‘unlashtirish ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Vizual materiallar, rasmlar, qisqa videolar, qo‘shiqlar va audio yozuvlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirsa, hamkorlikdagi topshiriqlar ularning faol ishtirokini ta’minlaydi.

Demak, boshlang‘ich sinf ingliz tili darslarida “texnologiya + ko‘rgazmalilik + hamkorlik” tamoyiliga asoslangan ta’lim modeli o‘quvchilarning til kompetensiyasini shakllantirish bilan bir qatorda, XXI asr uchun zarur bo‘lgan kommunikativ, ijtimoiy va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ham samarali pedagogik imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kachauni D. Vizual materiallarning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqidagi ilmiy qarashlar.
2. Sobirova M. Ingliz tilini boshlang'ich bosqichda o'qitishda talaffuzning ahamiyati.
3. UNESCO Institute for Lifelong Learning. Umrbod ta'lim va zamonaviy kompetensiyalar konsepsiyasi.
4. Slavin R. E. Cooperative Learning: Theory, Research, and Practice. - Boston: Allyn and Bacon, 1995.
5. Kagan S. Cooperative Learning. - San Clemente, CA: Kagan Publishing, 2009.
6. Dilova N., Tolipov O'. Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. - Toshkent: Fan, 2010.
7. Ishmuhamedov R. J. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2017.Boshlang'ich ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha metodik manbalar.

MAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL POSSIBILITIES FOR DEVELOPING STUDENTS' CRITICAL THINKING COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH BASED ON THE "PROJECT-BASED LEARNING" APPROACH

Berdiyorova Shakhnoza Kholmakhammatovna
Tashkent State University of Economics, English teacher
https://orcid.org/0009-0006-6587-5862

Abstract: This article examines the pedagogical and methodological opportunities for developing students' critical thinking competence through the implementation of Project-Based Learning (PBL) in English language teaching. Project-based activities encourage students to search for information independently, analyze problematic situations, compare different perspectives, make evidence-based decisions, and formulate conclusions in English. The PBL approach transforms learners from passive recipients of information into active participants who construct knowledge and apply it to practical situations. Particular attention is given to project tasks that promote analytical, communicative, research, and creative skills.

Key words: Project-Based Learning, critical thinking, English language, project activities, competence.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida Project-Based Learning (PBL) yondashuvidan foydalanish orqali talabalarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik-metodik imkoniyatlari yoritilgan. Loyiha asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarning mustaqil izlanishi, muammoni tahlil qilishi, dalillarni taqqoslashi, asoslangan xulosa chiqarishi hamda o'z fikrini ingliz tilida aniq ifodalashiga xizmat qilishi asoslangan.

Kalit so'zlar: Project-Based Learning, tanqidiy fikrlash, ingliz tili, loyiha topshiriqlari, kompetensiya.

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические и методические возможности развития компетенции критического мышления студентов посредством применения подхода Project-Based Learning при обучении английскому языку. Проектная деятельность создаёт условия для самостоятельного поиска информации, анализа проблемных ситуаций, сопоставления различных точек зрения, аргументированного принятия решений и формулирования выводов на английском языке. Использование PBL способствует переходу от пассивного усвоения учебного материала к активному конструированию знаний и их практическому применению.

Ключевые слова: Project-Based Learning, критическое мышление, английский язык, проектная деятельность, компетенция.

INTRODUCTION

Today, one of the important tasks in the higher education system is to organize the process of teaching foreign languages, in particular English, on the basis of modern pedagogical approaches. As a result of globalization, the rapid development of digital technologies and the expansion of international academic cooperation, the need to organize the English language not only as a means of mastering grammatical rules and vocabulary, but also as a competency-based environment that ensures the student's independent thinking, analysis of information, finding solutions to problem situations and substantiation of his point of view is increasing. From this point of view, the development of students' critical thinking competence in English classes is one of the urgent pedagogical and methodological issues.

Critical thinking is one of the important competencies that determine the professional and intellectual potential of a modern specialist, which is not limited to simply receiving information, but also includes the processes of analyzing it, assessing its reliability, comparing different points of view, drawing conclusions based on evidence and making independent decisions. The formation of these skills in the process of learning English also expands the communicative capabilities of students. Because in real communicative situations, the student needs to consistently express his opinion, understand the point of view of the interlocutor, respond to evidence, and justify his position[1].

The main purpose of this article is to highlight the pedagogical and methodological possibilities of developing students' critical thinking competence in teaching English based on the Project-Based Learning approach. For this purpose, the role of project activities in the educational process, the principles of organizing effective tasks, and the possibilities of developing students' independent thinking and informed decision-making skills through PBL are analyzed.

LITERATURE REVIEW

The educational potential of the Project-Based Learning (PBL) approach has been widely studied by foreign researchers. Bell considers PBL as an educational model that serves to develop 21st century skills, directing students to research, collaboration, problem solving and the creation of practical products. According to the author, project activities transform the student from a passive recipient of knowledge to an active researcher[1].

The "Project Framework" developed by Beckett and Slater substantiates the possibility of integrating language, content and thinking skills in project-based learning. Researchers have shown that project activities activate higher-level thinking processes along with the development of academic literacy[3].

A study by Song, Razali and Jeyaraj in 2025 examined the impact of PBL on college students' critical thinking and reading comprehension in English. The results show that project activities develop critical thinking through problem solving, research and reflective evaluation.

Also, the literature review by Song et al. noted the effectiveness of PBL in developing critical thinking and language skills in EFL education. In the study of Xue, Kasuma, and Liu in 2026, it was found that the components of critical thinking such as analysis, evaluation, and inference were activated differently in project-based EFL tasks[4].

RESEARCH METHODOLOGY

This study used a comprehensive methodological approach to identify the opportunities for developing students' critical thinking competence in the process of teaching English based on the Project-Based Learning (PBL) approach. The methodological basis of the study was competency-based, activity-oriented, communicative, and person-oriented approaches. During the PBL process, special attention was paid to students' activities of searching for information, sorting, analyzing, comparing alternative opinions, evaluating evidence, and drawing independent conclusions. Modern studies have also shown that PBL develops critical thinking in EFL education through problem situations, research, and reflective evaluation.

ANALYSIS AND RESULTS

Analysis of the potential of the Project-Based Learning (PBL) approach in teaching English shows that this method is not limited to the formation of language competence of the student, but also serves to activate his higher-level thinking processes. The main feature of PBL is to redirect the learning process from the assimilation of ready-made knowledge to the search for a problem, its analysis and development of a practical solution. A systematic review published in 2024 analyzed 27 studies aimed at the development of the English language, most of which noted that PBL had a positive effect on students' learning activity, academic results and critical thinking.

The development of critical thinking depends, first of all, on the correct choice of the project topic. While a simple reproductive task leads the student to repeat his existing knowledge, a problematic project encourages him to seek an independent solution. For example, "How can we make our university more environmentally friendly?" In a project assignment such as, the student must identify an environmental problem, collect information in English from various sources, compare them, identify the causes of the problem, and develop a practical proposal. In this case, language learning and critical thinking are inseparable. The student uses English as a means of expressing, justifying, and defending a particular idea[1].

Another important result of the PBL process is the strengthening of information literacy. In the digital environment, the student is faced with a huge amount of information. Therefore, using Internet resources in English lessons is not enough; the student must assess the reliability of the source, identify conflicting opinions, and

sort the information according to the purpose of his project. It is this process that demonstrates the practical aspect of critical thinking.

In 2025, a study by X. Song, A. B. Razali, and J. J. Jeyaraj examined the impact of PBL on critical thinking and reading comprehension in college students learning English as a foreign language. The authors emphasize that although the effectiveness of PBL has been widely studied in existing studies, the question of how it forms critical thinking has not been sufficiently clarified. This approach is an important methodological basis for our study, indicating the need to associate each stage of the project process with a separate cognitive activity[1].

Organizing project activities in the following sequence forms an effective methodological model:

problem identification → questioning → information search → information analysis → comparison of alternative solutions → product creation → presentation → reflection.

In the first stage, the student understands the problem and determines its boundaries. In the second stage, a research question is formulated. In the process of information search, the student learns to work independently. The analysis and comparison stages develop his ability to work with evidence. In the final presentation, the student defends his or her point of view in English, answers questions, and responds to the opinions of other groups[4].

CONCLUSION AND RECOMMENDATIONS

The use of the Project-Based Learning (PBL) approach in teaching English creates an effective pedagogical and methodological opportunity for the consistent development of students not only in their communicative competence, but also in their critical thinking skills. Project activities transform students from a ready-made information-receiving subject into an active participant in education who independently searches for, analyzes, compares different points of view, and justifies their own conclusions.

An important advantage of PBL is that it creates the opportunity to use English in situations close to real life. During the project, students perform activities such as identifying a problem, formulating research questions, searching for sources in English, sorting and evaluating information, developing alternative solutions, and presenting the final result. Each of these processes serves to form important components of critical thinking.

References:

1. Жалолов Ж. Ж. Чет тил ўқитиш методикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 2012. - 432 б.
2. Ҳошимов Ў. Ҳ., Ёқубов И. Я. Инглиз тили ўқитиш методикаси. - Тошкент: Шарқ, 2003. - 256 б.
3. Рашидов Р. Ф. Чет тилларни ўқитишнинг инновацион методлари. - Тошкент: Фан ва технология, 2016.
4. Ғофуров И. Ғ. Чет тилини ўқитишда инновацион ёндашувлар // Тил ва адабиёт таълими. - 2020. - № 3. - Б. 25–28.
5. Саидова М. Ҳ. Янги педагогик технологиялар ва уларни таълим жараёнида қўллаш. - Тошкент: Фан ва технология, 2010.
6. Муслимов Н. А. ва бошқ. Инновацион таълим технологиялари. - Тошкент: Сано-стандарт, 2015.

CHEKKA HISOBLASH TEXNOLOGIYASI YORDAMIDA AQLLI MEHMONXONADA REAL-VAQT KAYFIYAT ANIQLASH VA IOT QURILMALARINI AVTOMATIK BOSHQARISH TIZIMI: SMART MOOD

Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali assistent o'qituvchisi

Botirova Mashhura Tulqin qizi
O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda og'ir chuqur o'rgatish (Deep Learning) modellariga tayanmasdan, chekka hisoblash (Edge Computing), moslashuvchan raqamli signallarni qayta ishlash hamda gisterezisli ko'p parametrli qarorlar matritsasi asosida ishlovchi "Smart mood" aqlli mehmonxona tizimi ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan. Tizim fotopletizmografiya (PPG) va galvanik teri javobi (GSR/EDA) signallarini kengaytirilgan Kalman filtri (EKF) yordamida tozalab, parasimpatik va simpatik nerv tizimi indikatorlarini (RMSSD, SDNN, pNN50, fazik Z-ball) chekka tugunda real-vaqt rejimida ajratib oladi. Olingan natijalar WESAD xalqaro ochiq ma'lumotlar bazasi hamda 24 nafar ko'ngilli ishtirokida o'tkazilgan laboratoriya-amaliy sinovlari orqali tekshirildi. Tizim 82.4% umumiy tasniflash aniqligini (F1-score: 0.81), 14.6 ms kechikish vaqtini va to'liq GDPR mosligini ta'minladi.

Kalit so'zlar: Chekka hisoblash, IoT, aqlli mehmonxona, affektiv hisoblash, HRV tahlili, GSR/EDA, kengaytirilgan Kalman filtri, deterministik mantiq.

Abstract: This study presents the development and experimental evaluation of "Smart Mood," an intelligent system for smart hotels that operates without relying on computationally intensive Deep Learning models. The proposed system is based on Edge Computing, adaptive digital signal processing, and a hysteresis-based multi-parameter decision matrix. Photoplethysmography (PPG) and galvanic skin response/electrodermal activity (GSR/EDA) signals are filtered using an Extended Kalman Filter (EKF), while indicators associated with parasympathetic and sympathetic nervous system activity (RMSSD, SDNN, pNN50, and phasic Z-score) are extracted in real time at the edge node. The obtained results were validated using the international open-access WESAD dataset and laboratory-based practical experiments involving 24 volunteers. The system achieved an overall classification accuracy of 82.4%, an F1-score of 0.81, and a latency of 14.6 ms. The system was also designed to comply with GDPR requirements.

Key words: Edge Computing, IoT, smart hotel, affective computing, HRV analysis, GSR/EDA, Extended Kalman Filter, deterministic logic.

Аннотация: В данном исследовании разработана и экспериментально апробирована интеллектуальная система "Smart Mood" для умных гостиниц, функционирующая без использования ресурсоёмких моделей глубокого обучения (Deep Learning) и основанная на технологиях периферийных вычислений (Edge Computing), адаптивной цифровой обработке сигналов и многопараметрической матрице принятия решений с гистерезисом. Система осуществляет фильтрацию сигналов фотоплетизмографии (PPG) и электродермальной активности (GSR/EDA) с использованием расширенного фильтра Калмана (EKF), а также в режиме реального времени извлекает на периферийном вычислительном узле показатели активности парасимпатической и симпатической нервной системы (RMSSD, SDNN, pNN50 и фазический Z-показатель). Полученные результаты были верифицированы с использованием международного открытого набора данных WESAD, а также в ходе лабораторно-практических испытаний с участием 24 добровольцев. Система продемонстрировала общую точность классификации 82,4 % при значении F1-score 0,81 и времени задержки 14,6 мс. В рамках исследования также обеспечено соответствие системы требованиям GDPR.

Ключевые слова: периферийные вычисления, IoT, умная гостиница, аффективные вычисления, анализ HRV, GSR/EDA, расширенный фильтр Калмана, детерминированная логика.

KIRISH

Zamonaviy mehmondo‘stlik sanoatida shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish va xona muhitini mehmonning individual ehtiyojlari hamda psixofiziologik holatiga moslashtirish dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi [1, 2]. Mehmonxona xizmatlarida raqamli transformatsiyaning jadallashuvi an’anaviy avtomatlashtirish tizimlaridan foydalanuvchining holatini aniqlash va unga mos ravishda real vaqt rejimida javob qaytara oladigan intellektual muhitlarni shakllantirishga o‘tishni taqozo etmoqda. Bunday yondashuvda xona harorati, yoritish darajasi, yorug‘lik intensivligi, mikroiqlim, ovoz muhiti va boshqa parametrlar faqat oldindan belgilangan sozlamalar asosida emas, balki mehmonning joriy holatini ifodalovchi ma’lumotlar asosida boshqarilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mehmonning psixoemotsional zo‘riqish darajasi yoki charchoq holatini real vaqt rejimida aniqlab, xona mikroiqlimi parametrlarini (yorug‘lik spektri, harorat, ventilyatsiya va akustik fon) avtomatik boshqarish mijozlarning dam olish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [3].

Biroq mavjud affektiv hisoblash (Affective Computing) tizimlarining aksariyati markazlashtirilgan bulutli serverlar va chuqur neyron tarmoqlariga (CNN, LSTM) asoslangan [4]. Ushbu arxitektura amaliyotda quyidagi tizimli to‘siqlarni yuzaga keltiradi:

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tarmoq va hisoblash kechikishi. Yuqori chastotali biometrik ma’lumotlar oqimini bulutli serverlarga uzatish va qayta ishlash umumiy kechikish vaqtini 420 ms dan 650 ms gacha oshiradi. Bu esa xona mikroiqlimi dinamikasini uzluksiz sinxronlashtirish imkoniyatini pasaytiradi.

Maxfiylik va qonuniy cheklovlar (GDPR). PPG, yurak ritmi va terining elektr o‘tkazuvchanligi kabi nozik biometrik ma’lumotlarning tashqi tarmoqlarga uzatilishi Yevropa Ittifoqining GDPR talablari hamda xalqaro axborot xavfsizligi standartlari nuqtai nazaridan jiddiy kiberxavflarni yuzaga keltirishi mumkin.

Apparat xarajatlari va internetga bog‘liqlik. Neyron tarmoqlarning inferens jarayoni qimmatbaho serverlar yoki grafik protsessorlardan (GPU) foydalanishni talab qiladi. Tashqi tarmoq aloqasi uzilganda esa tizimning barqaror ishlash imkoniyati keskin cheklanadi.

Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida tadqiqotda neyron tarmoqlar o‘rniga matematik deterministik signallarni qayta ishlash, kengaytirilgan raqamli filtrlash hamda dinamik kalibrlanuvchi mantiqiy qarorlar matritsasiga asoslangan “Smart Mood” chekka hisoblash tizimi taklif etiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Smart Mood” tizimi uch bosqichli apparat-dasturiy arxitekturaga asoslangan bo‘lib, signallarni yig‘ishdan boshlab ijro etuvchi IoT aktuatorlarini boshqarishgacha bo‘lgan barcha jarayonlarni xonaning lokal tarmog‘i doirasida amalga oshiradi.

- *1-bosqich:* **Datchiklar qatlami (Sensing Layer)** – Optik PPG datchigi (MAX30102), GSR/EDA elektrodlari hamda NTC harorat sensori (100 Hz chastotada analog va raqamli oqim shakllantiradi).
- *2-bosqich:* **Chekka hisoblash tugunlari (Edge Nodes)** – ESP32 mikrokontrolleri (ADC va birlamchi buferlash) hamda Raspberry Pi 4 Model B (Moslashuvchan EKF filtrlash, HRV/GSR tahlili, qarorlar matritsasi va lokal Mosquitto MQTT brokeri).
- *3-bosqich:* **Aktuatsiya va ijro qatlami (Actuation Layer)** – Xona RGB LED drayveri, HVAC iqlim kontrollyori va sokinlashtiruvchi audio-tizim.

Me’moriy qatlam	Apparat va dasturiy komponent	Ishchi parametri va protokoli	Tizimdagi texnik vazifasi
Datchiklar qatlami (Sensing)	MAX30102 optik PPG, GSR/EDA elektrodlari, NTC Harorat sensori	100 Hz, I2C / ADC (12-bit)	Qon oqimi pulsatsiyasi, teri o‘tkazuvchanligi va tana harorati dinamikasini uzluksiz o‘lchash
Birlamchi chekka tugun (Edge Node 1)	ESP32 DevKit V1 (240 MHz Dual-Core, 520 KB SRAM)	Wi-Fi 802.11 b/g/n, BLE v4.2	Analog-raqamli o‘zgartirish, birlamchi paketlash va lokal shifrlangan uzatish
Markaziy chekka tugun (Edge Node 2)	Raspberry Pi 4 Model B (Quad-core Cortex-A72, 4GB RAM)	Raspbian OS, Mosquitto Broker, Python 3 / C++ Engine	EKF shovqin tozalash, vaqt-chastota sohasidagi HRV/GSR tahlili, gisterezisli qarorlar matritsasi

Aloqa protokoli (Communication)	MQTT Protocol (Lokal Broker, Port 1883)	JSON / QoS Level 1, TLS 1.3	Lokal tarmoqda sub-20 ms kechikishli xabarlar almashinuvi
Aktuatorlar qatlami (Actuation)	ESP32-relay / Smart PWM RGB LED, HVAC drayveri, Audio DAC	PWM (0-100%), Relay ON/OFF, I2S Audio	Yorug'lik spektri (K), yorqinlik (%), xona harorati (°C) va sokin akustik muhitni o'zgartirish

Biometrik signallar harakat artefaktlariga o'ta ta'sirchan hisoblanadi. PPG signali davriy va nochiziqli tabiatga ega bo'lganligi sababli, dinamik tebranishlarni aniq baholash uchun kengaytirilgan Kalman filtri (EKF) qo'llanildi.

Tizimning holat vektori quyidagicha belgilandi:

Holat vektori:

$$x_k = [\, p_k \,,\, v_k \,]^T$$

Bu yerda:

- p_k – k-vaqt momentidagi tozalangan haqiqiy PPG signali amplitudasi;
- v_k = dp_k / dt – signal amplitudasining birinchi tartibli o'zgarish tezligi;
- z_k – optik sensordan to'g'ridan-to'g'ri olingan shovqinli o'lchov qiymati.

Kalman filtri ikki bosqichli iterativ sikl asosida ishlaydi:

1. **Bashorat qilish bosqichi (A priori Prediction):**

$$\hat{x}_(k \mid k\text{-}1) = A \cdot \hat{x}_(k\text{-}1 \mid k\text{-}1)\ P_(k|k\text{-}1)=A \cdot P_(k\text{-}1|k\text{-}1) \cdot A^T+Q$$

2. **Tuzatish kiritish bosqichi (A posteriori Update):**

$$K_k = P_(k \mid k\text{-}1) \cdot H^T \cdot [\, H \cdot P_(k \mid k\text{-}1) \cdot H^T + R \,]^{-1}\ \hat{x}_(k \mid k) =$$
$$\hat{x}_(k \mid k\text{-}1) + K_k \cdot [\, z_k - H \cdot \hat{x}_(k \mid k\text{-}1) \,]\ P_(k \mid k) = [\, I - K_k \cdot H \,] \cdot P_(k|k\text{-}1)$$

Tajribaviy parametrlar va matritsalar:

- Holat o'tish matritsasi: A = [[1, Δt], [0, 1]], bu yerda Δt = 0.01 s (100 Hz);
- O'lchov matritsasi: H = [1, 0];
- Jarayon shovqini kovariatsiyasi: Q = diag(10^{-4}, 10^{-2});
- O'lchov shovqini dispersiyasi: R = 0.05;
- K_k – Kalman kuchaytirish koeffitsiyenti (Kalman Gain); I – 2×2 birlik matritsa.

Tozalangan PPG signalidagi sistolik cho'qqilar orasidagi inter-beat intervallar (IBI yoki RR-intervallar, ms) aniqlanadi. Parasimpatik va simpatik nerv tizimi muvozanatini baholash uchun 120 soniyalik siljuvchi oyna (sliding window) doirasida quyidagi matematik ko'rsatkichlar hisoblanadi:

1. **RMSSD (Root Mean Square of Successive Differences):** $RMSSD = \sqrt{\,[\, 1 / (N - 1) \cdot \sum_{i=1 \text{ to } N-1} (IBI_(i+1) - IBI_i)^2 \,]}$

   (Izoh: Parasimpatik vagal tonusning asosiy ko'rsatkichi; stressda keskin pasayadi).

2. **SDNN (Standard Deviation of NN intervals):** $SDNN = \sqrt{\,[\, 1 / (N - 1) \cdot \sum_{i=1 \text{ to } N} (IBI_i - IBI_\text{o'rtacha})^2}$

   (Izoh: Umumiy yurak ritmi o'zgaruvchanligi va vegetativ muvozanat ko'rsatkichi).

3. **pNN50 (Percentage of successive intervals > 50 ms):** $pNN50 = [\, N_(>50ms) / (N - 1) \,] \times 100\%$

   Bu yerda N_(>50ms) – ketma-ket IBI farqi 50 ms dan katta bo'lgan juftliklar soni, N – umumiy urishlar soni.

Galvanik teri javobi (GSR/EDA) umumiy elektr o'tkazuvchanligi SC(t) tonik va fazik qismlarga ajratiladi:

1. **Signal dekompozitsiyasi:** SC(t) = SCL(t) + SCR(t) SCL(t) (Skin Conductance Level) – sekin o'zgaruvchi tonik baza (Butterworth past chastotali filtri, fc = 0.05 Hz); SCR(t) (Skin Conductance Response) – emotsional reaksiyalarga xos tezkor fazik tebranishlar (1–3 soniya).

2. **Dinamik Z-ball normalizatsiyasi (Robust Z-Score):** $Z_SCR = [\, SCR(t) - \mu_base \,] / \sigma_base$

Bu yerda μ_base va σ_base – mehmonning adaptiv kalibrlash davridagi fazik signalining o'rtacha qiymati va standart og'ishi.

Deterministik mantiqning qat'iy chegaralari keltirib chiqaradigan xatoliklarni bartaraf etish uchun shaxsiy bazaga nisbatan moslashuvchan koeffitsiyentlar hamda noaniq vaziyatlar uchun zaxira holat (Default Neutral) joriy qilindi:

- **Stress / Hayajon holati (S_stress):** S_stress = 1, agar (Z_SCR > 1.8) ∧ (RMSSD < 0.7 · RMSSD_base) ∧ (HR > 1.15 HR_base) ∧ (pNN50 < 15%)
- **Charchoq holati (S_fatigue):** S_fatigue = 1, agar (Z_SCR < -0.4) ∧ (ΔT < -0.4°C) ∧ (HR < 0.9 HR_base) ∧ (RMSSD ≤ 1.1 RMSSD_base)
- **Sokinlik / Xotirjamlik holati (S_calm):** S_calm = 1, agar (|Z_SCR| ≤ 0.5) ∧ (RMSSD ≥ RMSSD_base) ∧ (|HR - HR_base| ≤ 0.1 HR_base) ∧ (pNN50 ≥ 25%)
- **Zaxira / Neytral holat (S_neutral – Default Fallback):** S_neutral = 1, aks holda (yuqoridagi qat'iy holat shartlaridan hech biri to'liq bajarilmaganda).

Sensor signallaridagi qisqa muddatli tasodifiy sakrashlar (masalan, telefon qo'ng'irog'i tufayli 15 soniyalik puls ko'tarilishi) tufayli xona yoritilishi va haroratining keraksiz o'zgarishiga yo'l qo'ymaslik uchun tizimga 60 soniyalik gisterezisli vaqt filtri kiritildi. Aktuatorlarga boshqaruv buyrug'i faqat yangi holat kamida t_hold = 60 s davomida barqaror saqlangandagina yuboriladi va o'zgarishlar 5 soniya davomida PWM orqali ravon (fading) tarzda ijro etiladi.

Aniqlangan holat	Fiziologik chegara parametrlari	RGB LED Yoritish	HVAC Iqlim Tizimi	Akustik Audio-Muhit
Stress / Hayajon (S_stress)	Z_SCR > 1.8, RMSSD pasaygan, HR yuqori, pNN50 < 15%	Iliq rang (2700 K), yorqinlik 30% gacha ravon pasaytiriladi	Haroratni 1.0°C ga pasaytirish (21.5°C), fan sokin rejimda	Past chastotali tinchlantiruvchi tabiat tovushlari (55 dB)
Charchoq (S_ fatigue)	Z_SCR < -0.4, ΔT < -0.4°C, HR past, RMSSD normada	Neytral kunduzgi rang (4000 K), yorqinlik 75%	Ventilyatsiyani oshirish, toza havo oqimi faollashadi	O'rtacha chastotali tetiklashtiruvchi sokin fon ovozi
Sokinlik (S_calm)	|Z_SCR| ≤ 0.5, RMSSD yuqori, HR normada, pNN50 ≥ 25%	Standart qulay yorug'lik (3000 K), yorqinlik 50%	Standart komfort harorat (22.5°C), avto-rejim	Foydalanuvchi tanlagan shaxsiy audio sozlama
Neytral / Noaniq (S_neutral)	Oraliqdagi barcha noaniq holatlar (Fallback)	Oldingi holat o'zgarishsiz saqlanadi yoki 3200 K (50%)	Standart avto-termostat holati (22.0°C)	Fonsiz yoki standart sokin rejim

Tizimning samaradorligi ikki bosqichda baholandi:

1. **Ochiq xalqaro ma'lumotlar bazasi:** Affektiv hisoblash bo'yicha standart hisoblangan WESAD (Wearable Stress and Affect Detection) datasetining [5] PPG va EDA signallari orqali algoritm aniqligi verifikatsiya qilindi.
2. **Laboratoriya-amaliy tajribasi:** 24 nafar ko'ngilli ishtirokchi (12 erkak, 12 ayol, yoshi 21–38 oralig'ida) qatnashdi. Zamin haqiqatini (Ground Truth) belgilash uchun Trier Social Stress Test (TSST) hamda dam olish mashg'ulotlari o'tkazilib, natijalar standart State-Trait Anxiety Inventory (STAI) va Self-Assessment Manikin (SAM) psixologik so'rovnomalari orqali tasdiqlandi.

Taklif etilgan chekka hisoblash modeli an'anaviy bulutli CNN-LSTM chuqur o'rgatish infratuzilmasi bilan texnik ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslandi:

Ko'rsatkich parametri	Bulutli SI Model (Cloud CNN-LSTM)	Taklif etilgan Chekka Tizim (Smart mood)	Texnik ustunlik va farq
Kechikish vaqti (End-to-end Latency)	450 – 620 ms	12 – 16 ms	~35 baravar tezkor javob
Tarmoq trafigi sarfi (Bandwidth)	Doimiy xom oqim (~120 KB/s)	Faqat MQTT holat paketlari (< 2 KB/s)	98% tarmoq yuki tejalishi
Tasniflash aniqligi (Accuracy / F1)	87.6% (F1: 0.86)	82.4% (F1: 0.81)	Resurs sarfisiz yuqori yetarli aniqlik

Apparat quvvat iste'moli	Yuqori (Server / Bulut instansiyasi)	< 4.8 W (Raspberry Pi 4 + ESP32)	Past energiya va tannarx
Axborot xavfsizligi va GDPR	Biometriya tashqi tarmoqqa chiqadi	100% lokal qayta ishlash va o'chirish	Mutlaq maxfiylik kafolati
Avtonomlik	Internet uzilsa to'xtaydi	Lokal brokerda uzluksiz ishlaydi	Tashqi tarmoqqa bog'liq emas

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazariy jihatdan neyron tarmoqlarining inferens murakkabligi O(W) (vazn koeffitsientlari soniga to'g'ri mutanosib) bo'lib, katta hajmdagi hisoblash xotirasi va GPU resurslarini talab etadi. Taklif etilgan deterministik mantiqiy model esa O(N) chiziqli hisoblash murakkabligiga ega bo'lib, arzon mikrokontrollerlarda minimal kechikish bilan ishlash imkonini beradi.

Tizim cheklovlari va kelgusi takomillashtirishlar

Bilaguzuk taqish noqulayligi. Mehmonlarga majburiy ravishda bilaguzuk taqtirish tijoriy va amaliy jihatdan muayyan noqulayliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Kelgusida datchiklarni yotoq matrasi ostiga, stul suyanchig'iga joylashtirish yoki xona ichida kontaktsiz radar datchiklaridan (masalan, nafas olish va pulsni aniqlovchi 60 GHz mmWave radarlar) foydalanish ko'zda tutilgan.

Dinamik baza shakllanishi. Agar mehmon xonaga yuqori jismoniy faollik holatida, masalan, zinadan yugurib kirsa, uning dastlabki fiziologik ko'rsatkichlari buzilishi mumkin. Shu sababli bazaviy kalibrlash jarayoni PIR harakat datchigi mehmonning xonada kamida 3 daqiqa davomida tinch holatda bo'lganini tasdiqlaganidan so'ng faollashishi belgilandi.

Mazkur maqolada ishlab chiqilgan "Smart Mood" tizimi murakkab sun'iy intellekt modellaridan foydalanmasdan, ixcham chekka hisoblash (Edge Computing) texnologiyasi va EKF raqamli filtrlari yordamida aqlli mehmonxona muhitini avtomatlashtirish imkoniyatini amaliy jihatdan namoyish etdi. Tizim 14,6 ms kechikish vaqti, 82,4% tasniflash aniqligi, ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlash hamda gisterezisga asoslangan barqaror aktuatsiya xususiyatlarini namoyon etdi. Ushbu arxitektura zamonaviy mehmonxonalarda energiya tejamkor, xavfsiz va shaxsiylashtirilgan mikroiqlim tizimlarini yaratish uchun istiqbolli muhandislik yechimi sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Digital twins in hospitality and tourism: a theory-informed framework for system-level integration // Journal of Hospitality and Tourism Technology. – Emerald Publishing, 2025. – DOI: 10.1108/JHTT-08-2025-0714.
2. Spatial transformation of hotel buildings through smart technologies: employees' perceptions // Smart Cities. – 2026. – Vol. 14, No. 2. – Article 138. – DOI: 10.3390/smartcities14020138.
3. Innovative interiors: an evaluation of guest perceptions and booking responses to robotic furniture in hotel rooms // Journal of Hospitality and Tourism Insights. – Emerald Publishing, 2025. – Vol. 8, No. 4. – P. 1355–1372.
4. Multidimensional challenges of affective computing in virtual and augmented reality: ethical, technical, and social implications. – 2025.
5. Schmidt P., Reiss A., Duerichen R., Marberger C., Van Laerhoven K. Introducing WESAD, a multimodal dataset for wearable stress and affect detection // Proceedings of the 20th ACM International Conference on Multimodal Interaction. – 2018. – P. 400–408.
6. Welch G., Bishop G. An Introduction to the Kalman Filter. – Chapel Hill: University of North Carolina at Chapel Hill, Department of Computer Science, 2006. – Technical Report.
7. Shaffer F., Ginsberg J.P. An overview of heart rate variability metrics and norms // Frontiers in Public Health. – 2017. – Vol. 5. – Article 258.

DEVELOPING ACADEMIC WRITING SKILLS THROUGH DIGITAL MEDIA TOOLS

Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi
Alfraganus University
English teacher, Foreign Language Department
Chirchik State Pedagogical University
Independent researcher

ORCID: 0009-0006-7587-5591

Abstract: The development of academic writing skills is an essential objective of university-level English education. Students must learn to organize ideas logically, construct evidence-based arguments, use appropriate academic language, integrate sources, and revise their work independently. This study examines the effectiveness of digital media tools in developing the academic writing skills of students at a pedagogical university. The instructional model combines collaborative writing platforms, learning management systems, digital annotation, online corpora, electronic dictionaries, reference-management applications, automated feedback, multimedia materials, and responsibly used artificial intelligence tools. A mixed-methods, quasi-experimental design is employed to compare students receiving digitally supported writing instruction with those taught mainly through conventional classroom practices. Data are collected through pre- and post-writing tasks, analytical assessment rubrics, student portfolios, questionnaires, classroom observations, and interviews. Academic writing is evaluated according to content, organization, argumentation, coherence, vocabulary, grammatical accuracy, source integration, citation, and revision quality. The findings indicate that purposeful use of digital media tools can improve students' engagement, access to authentic academic language, collaborative feedback, source-management practices, and willingness to revise multiple drafts. Students also demonstrate progress in structuring arguments, maintaining coherence, selecting appropriate vocabulary, and applying citation conventions. However, technological access, varying levels of digital competence, excessive dependence on automated correction, and the uncritical use of AI-generated text may reduce educational effectiveness. The study emphasizes that digital tools produce the strongest outcomes when integrated with explicit writing instruction, ethical guidance, teacher feedback, peer interaction, and reflective learning. The findings are relevant to pedagogical universities because future teachers need academic writing competence and the ability to apply digital resources responsibly in their professional practice.

Key words: academic writing, digital media tools, higher education, English language teaching, collaborative writing, digital feedback, artificial intelligence, source integration, academic integrity, writing competence.

Annotatsiya: Akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirish universitet darajasidagi ingliz tili ta'limining muhim maqsadlaridan biridir. Talabalar fikrlarni mantiqiy tartibga solish, dalillarga asoslangan argumentlarni shakllantirish, akademik uslubga mos tildan foydalanish, manbalarni matnga integratsiya qilish va yozma ishlarini mustaqil tahrirlashni o'rganishlari kerak. Ushbu tadqiqot pedagogika universiteti talabalarining akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda raqamli media vositalarining samaradorligini o'rganadi. Taklif etilgan o'qitish modeli hamkorlikda yozish platformalari, ta'limni boshqarish tizimlari, raqamli izohlash vositalari, onlayn korpuslar, elektron lug'atlar, bibliografik manbalarni boshqarish dasturlari, avtomatlashtirilgan fikr-mulohaza, multimedia materiallari va mas'uliyat bilan qo'llaniladigan sun'iy intellekt vositalarini birlashtiradi. Raqamli vositalar asosida yozuvni o'rgangan talabalar natijalarini asosan an'anaviy auditoriya amaliyotlari orqali ta'lim olgan talabalar natijalari bilan taqqoslash uchun aralash usullarga asoslangan kvazieksperimental tadqiqot dizaynidan foydalaniladi. Ma'lumotlar dastlabki va yakuniy yozma topshiriqlar, tahliliy baholash mezonlari, talabalar portfoliolari, so'rovnomalar, dars kuzatuvlari va intervyular orqali to'planadi. Akademik yozuv mazmun, tuzilish, argumentatsiya, mantiqiy bog'liqlik, lug'at boyligi, grammatik aniqlik, manbalarni integratsiya qilish, iqtibos keltirish va tahrirlash sifati asosida baholanadi. Natijalar raqamli media vositalaridan maqsadli foydalanish talabalarning faolligini, haqiqiy akademik til namunalaridan foydalanish imkoniyatini, hamkorlikdagi fikr-mulohazani, manbalar bilan ishlash amaliyotini va matnni bir necha marta qayta ko'rib chiqishga tayyorligini oshirishini ko'rsatadi. Talabalar argumentlarni tuzish, matn izchilligini ta'minlash, mos lug'at birliklarini tanlash va iqtibos qoidalarini qo'llashda ham rivojlanish namoyon etadilar. Biroq texnologik imkoniyatlardagi farqlar, raqamli kompetensiyaning turli darajalari, avtomatik tuzatishga ortiqcha bog'lanish va sun'iy intellekt yaratgan matndan tanqidsiz foydalanish ta'lim samaradorligini pasaytirishi mumkin. Tadqiqot raqamli vositalar aniq yozuv ko'rsatmalari, axloqiy yo'riqnomalar, o'qituvchi fikr-mulohazasi, tengdoshlar bilan hamkorlik va refleksiv ta'lim bilan uyg'unlashtirilganda eng yaxshi natija berishini ta'kidlaydi. Olingan natijalar pedagogika universitetlari uchun muhimdir, chunki bo'lajak o'qituvchilarga akademik yozuv kompetensiyasi va raqamli resurslardan kasbiy faoliyatda mas'uliyat bilan foydalanish qobiliyati zarur.

Kalit so'zlar: akademik yozuv, raqamli media vositalari, oliy ta'lim, ingliz tilini o'qitish, hamkorlikda yozish, raqamli fikr-mulohaza, sun'iy intellekt, manbalarni integratsiya qilish, akademik halollik, yozuv kompetensiyasi.

Аннотация: Развитие навыков академического письма является одной из важнейших целей университетского обучения английскому языку. Студенты должны научиться логично организовывать идеи, формулировать аргументы на основе доказательств, использовать соответствующий академический язык, интегрировать источники в текст и самостоятельно редактировать письменные работы. В данном исследовании рассматривается эффективность цифровых медиасредств в развитии навыков академического письма у студентов педагогического университета. Предлагаемая модель обучения объединяет платформы для совместного письма, системы управления обучением, инструменты цифрового аннотирования, онлайн-корпусы, электронные словари, программы управления библиографическими источниками, автоматизированную обратную связь, мультимедийные материалы и ответственно используемые средства искусственного интеллекта. Для сравнения результатов студентов, обучавшихся письму с применением цифровых средств, с результатами студентов, получавших преимущественно традиционное аудиторное обучение, используется смешанный квазиэкспериментальный дизайн. Данные собираются посредством предварительных и итоговых письменных заданий, аналитических оценочных рубрик, студенческих портфолио, анкетирования, наблюдений за занятиями и интервью. Академическое письмо оценивается по содержанию, организации, аргументации, связности, словарному запасу, грамматической точности, интеграции источников, цитированию и качеству редактирования. Результаты показывают, что целенаправленное использование цифровых медиасредств способствует повышению учебной активности студентов, расширяет доступ к аутентичным образцам академического языка, улучшает совместную обратную связь и работу с источниками, а также формирует готовность неоднократно пересматривать собственные тексты. Студенты также демонстрируют прогресс в построении аргументации, обеспечении связности текста, выборе подходящей лексики и применении правил цитирования. Однако различия в технологическом доступе и уровнях цифровой компетентности, чрезмерная зависимость от автоматического исправления и некритичное использование созданного искусственным интеллектом текста могут снижать эффективность обучения. В исследовании подчёркивается, что цифровые средства обеспечивают наиболее значимые результаты при их сочетании с целенаправленным обучением письму, этическими рекомендациями, обратной связью преподавателя, взаимодействием со сверстниками и рефлексивным обучением. Полученные результаты актуальны для педагогических университетов, поскольку будущим учителям необходимы навыки академического письма и способность ответственно использовать цифровые ресурсы в профессиональной деятельности.

Ключевые слова: академическое письмо, цифровые медиасредства, высшее образование, преподавание английского языка, совместное письмо, цифровая обратная связь, искусственный интеллект, интеграция источников, академическая добросовестность, письменная компетенция.

INTRODUCTION

Academic writing is a central component of university education because it enables students to construct knowledge, communicate disciplinary understanding, and participate in scholarly communities. In English-medium academic contexts, effective writing requires more than grammatical accuracy. Students must define a clear purpose, organize ideas logically, develop arguments, evaluate evidence, integrate sources, use an appropriate academic register, and revise their texts in response to feedback. These abilities are particularly important for students at pedagogical universities, who are expected to complete research assignments and later model effective writing practices for their own learners.

Many university students experience difficulties when producing academic texts in English. Common challenges include limited academic vocabulary, weak paragraph organization, insufficient cohesion, unsupported claims, inappropriate source use, and uncertainty about citation conventions. Students may also view writing as a single act of producing a final text rather than a recursive process involving planning, drafting, reviewing, revising, editing, and reflection. Large classes and limited instructional time can make it difficult for teachers to provide detailed and timely feedback on every stage of this process. As a result, students may receive comments only after submitting a completed assignment, when opportunities for meaningful revision are restricted.

Digital media tools provide new possibilities for addressing these challenges. Collaborative writing platforms enable students and teachers to comment on drafts, monitor revisions, and work together without being limited by classroom time. Learning management systems support the distribution of materials, submission of assignments, structured discussion, and portfolio assessment. Online corpora and electronic dictionaries give learners access to authentic examples of academic vocabulary, collocations, grammatical patterns, and disciplinary language. Digital annotation tools can support close reading and source-based writing, while reference-management applications help students organize literature and apply citation conventions more consistently.

Automated writing evaluation and generative artificial intelligence have further transformed the academic writing environment. Such technologies can offer immediate feedback, suggest linguistic alternatives, summarize information, or assist with brainstorming and outlining. However, their educational value depends on how they are used. Automated suggestions may be inaccurate, oversimplified, or unsuitable for the writer's intended meaning. Uncritical use can reduce independent thinking, obscure authorship, introduce fabricated informa-

tion, and create academic integrity concerns. Students therefore need guidance in evaluating digital feedback, verifying information, documenting appropriate assistance, and retaining responsibility for every part of their writing [1].

Effective digitally supported instruction should combine technology with established principles of writing pedagogy. Process-oriented instruction emphasizes multiple drafts and purposeful revision. Genre-based teaching makes the organization and language of academic texts explicit. Collaborative learning creates opportunities for peer response and discussion, while formative assessment helps students understand the gap between current performance and expected standards. Digital media tools can strengthen these approaches when each tool is selected for a clear pedagogical purpose rather than adopted simply because it is available [2].

The continuing digitalization of higher education in Uzbekistan makes this issue especially relevant. Pedagogical universities increasingly use electronic platforms, online resources, and AI-supported applications, but students' access, digital competence, and understanding of academic integrity may vary. This study investigates how an integrated use of digital media tools can develop academic writing in English. It focuses on organization, argumentation, coherence, vocabulary, grammatical accuracy, source integration, citation, revision, engagement, and learner autonomy while considering the pedagogical and ethical conditions required for effective implementation.

LITERATURE REVIEW

Research on academic writing emphasizes that writing is a recursive process involving planning, drafting, feedback, revision, and reflection rather than the production of a single final text (Flower & Hayes, 1981). Hyland (2003) and Swales and Feak (2012) argue that successful academic writing also requires explicit knowledge of genre, audience, argumentation, disciplinary conventions, and source use. Feedback is central to this development, although students need guidance to interpret and apply corrective comments effectively (Ferris, 2003; Bitchener & Ferris, 2012) [3–4].

Digital technologies can strengthen process-oriented instruction by increasing access to feedback, authentic language, and collaborative interaction. Online writing environments allow learners to negotiate meaning, share responsibility, and revise texts jointly (Storch, 2013; Kessler et al., 2012). Corpus tools help students examine academic vocabulary, collocations, and grammatical patterns in authentic contexts, although effective use requires training (Yoon & Hirvela, 2004) [5–6].

Automated feedback can encourage independent editing, but students may accept inaccurate suggestions without critical evaluation (Ranalli, 2018; Stevenson & Phakiti, 2014). Generative artificial intelligence provides additional support for brainstorming and language development while raising concerns about accuracy, authorship, and academic integrity (Miao & Holmes, 2023). Existing scholarship therefore supports combining digital tools with explicit instruction, teacher guidance, collaborative learning, and responsible source practices [7–8].

RESEARCH METHODOLOGY

The study employed a mixed-methods, quasi-experimental design to examine the effectiveness of digital media tools in developing academic writing skills. Quantitative procedures were used to compare changes in students' writing performance, while qualitative procedures explored their engagement, revision behavior, perceptions, and experiences. The research was conducted during an academic semester at a pedagogical university in Uzbekistan. Participants were undergraduate students studying English language education and instructors responsible for academic writing courses.

Existing classes were assigned to experimental and comparison conditions without changing the university's regular academic organization. Both groups studied the same academic writing content and completed comparable assignments. The comparison group received instruction based mainly on classroom explanation, printed materials, individual writing, teacher correction, and final submission. The experimental group followed a digitally supported model combining process writing, genre analysis, collaborative learning, corpus consultation, digital annotation, reference management, automated feedback, and guided use of generative artificial intelligence [9].

Instruction in the experimental group followed the stages of planning, drafting, receiving feedback, revising, editing, publishing, and reflection. Students used a collaborative writing platform to compose texts, exchange comments, and record changes between drafts. A learning management system provided model texts, video explanations, discussion prompts, assessment criteria, and submission spaces. Digital annotation activities required students to identify thesis statements, argument structures, evidence, cohesive devices, reporting verbs, and citation practices in authentic academic texts. Online corpora and electronic dictionaries supported the examination of vocabulary, collocations, grammatical patterns, and disciplinary usage.

Reference-management software was introduced to help students store bibliographic information, organize sources, and generate citations. Automated writing tools were used for formative feedback on language and mechanics, but students were required to evaluate every suggestion before accepting it. Generative artificial intelligence was restricted to guided activities such as brainstorming, comparing outlines, identifying possible counterarguments, and analyzing alternative formulations. Students verified generated information, disclosed relevant assistance, and explained how they revised or rejected AI suggestions. Submitting unacknowledged AI-generated text as original work was prohibited [10].

Data were collected through diagnostic and final writing tasks, analytical assessment rubrics, digital portfolios, revision histories, questionnaires, classroom observations, reflective journals, and semi-structured interviews. The writing tasks required students to produce source-based argumentative essays under comparable conditions. The rubric assessed content relevance, organization, thesis development, argumentation, coherence, vocabulary, grammatical accuracy, source integration, citation, and revision quality. Writing samples were evaluated independently by trained raters who used agreed descriptors and discussed substantial differences before finalizing scores.

Digital portfolios contained outlines, annotated sources, draft versions, feedback records, revised texts, and reflective commentaries. Revision histories were examined to distinguish surface-level correction from changes affecting content, structure, evidence, and argument. Observations focused on tool use, peer interaction, teacher guidance, engagement, and ethical decision-making. Questionnaire and interview data explored accessibility, usefulness, confidence, autonomy, challenges, and attitudes toward digital feedback [11].

Quantitative data were analyzed through descriptive and comparative procedures, while qualitative materials were coded thematically. Evidence from writing scores, revision records, observations, and participant accounts was triangulated to strengthen credibility. Participation was voluntary, personal information remained confidential, and the collected data were used only for research purposes. All students received instruction concerning privacy, copyright, citation, and responsible digital participation before beginning the intervention.

ANALYSIS AND RESULTS

Analysis of the diagnostic writing tasks showed that students in the experimental and comparison groups began the study with broadly similar levels of academic writing competence. Their most common strengths were the ability to communicate a general position and produce grammatically understandable sentences. The principal weaknesses involved thesis development, paragraph unity, logical progression, evidence-based argumentation, source integration, academic vocabulary, and accurate citation. Many initial essays consisted of loosely connected ideas and included sources as separate quotations rather than incorporating them into the writer's argument.

Following the instructional period, both groups demonstrated progress, but the experimental group showed greater improvement across most assessment categories. The strongest changes appeared in organization, coherence, source integration, vocabulary, and revision quality. Students who used digital planning and collaborative writing tools produced clearer outlines and more focused thesis statements. Their paragraphs more consistently included controlling ideas, supporting evidence, explanations, and links to the overall argument. Transitions between sections became more purposeful, and the final texts displayed improved logical progression [12].

Digital annotation supported students' understanding of academic genre conventions. By examining model texts collaboratively, learners became more successful at identifying argument structures, reporting verbs, stance markers, hedging, and patterns of citation. Later writing samples demonstrated more appropriate use of cautious academic language and clearer distinctions between the writer's position and ideas obtained from sources. Students also reduced their dependence on direct quotation and used paraphrasing and synthesis more frequently. Citation errors remained present, but they occurred less often in final portfolios than in the diagnostic tasks.

Online corpora and electronic dictionaries contributed to improvements in lexical choice. Students increasingly checked collocations and examined words in authentic contexts rather than selecting the first translation offered by a bilingual dictionary. Their writing contained fewer inappropriate word combinations and more discipline-relevant expressions. However, some learners initially found corpus interfaces difficult and required teacher modeling before they could interpret examples efficiently. More proficient students used corpus evidence independently, while others continued to rely on guided search questions [13].

Revision histories revealed important differences between the groups. Comparison-group students mainly corrected grammar, spelling, and punctuation after receiving feedback. Experimental-group students made more substantial revisions involving claims, evidence, paragraph order, counterarguments, and conclusions. Collaborative comments frequently prompted writers to clarify meaning or provide additional support. Students

became more willing to produce multiple drafts because digital platforms simplified editing and preserved earlier versions. Peer feedback varied in quality, but training with assessment criteria gradually made comments more specific and constructive.

Automated feedback helped students notice recurring language errors and receive responses without waiting for the instructor. Nevertheless, students sometimes accepted inappropriate suggestions that changed their intended meaning. Reflective journals showed increasing awareness that automated recommendations required evaluation. Guided artificial intelligence activities supported brainstorming and comparison of possible structures, but they also revealed risks involving fabricated references, generic arguments, and stylistic inconsistency. Students who verified outputs and documented their decisions demonstrated greater critical control than those who treated generated responses as authoritative.

Questionnaire and interview findings indicated increased confidence, engagement, and independence among students in the experimental group. Participants valued convenient access to resources and the opportunity to receive feedback throughout the writing process. Reported challenges included unstable internet access, differences in digital competence, screen fatigue, tool-related distraction, and uncertainty about acceptable AI assistance. Classroom observations showed that clear instructions, limited tool selection, teacher modeling, and consistent academic integrity requirements helped students manage these challenges [14].

The findings indicate that digital media tools can contribute significantly to the development of academic writing when they are integrated into a coherent pedagogical model. Students who participated in digitally supported instruction made greater progress in organization, coherence, source integration, vocabulary, and revision than those who relied mainly on conventional classroom practices. This improvement should not be attributed to technology alone. The tools were effective because they supported process-oriented, genre-based, collaborative, and formative approaches to writing. Each application served a defined instructional function within planning, drafting, feedback, revision, editing, or reflection [15].

The improvement in organization and argumentation reflects the value of making writing processes visible. Collaborative platforms preserved outlines, drafts, comments, and revisions, enabling students to observe how their ideas developed over time. This environment encouraged learners to view writing as a recursive process rather than a single attempt to produce an error-free final text. Students became more willing to reconsider claims, reorganize paragraphs, add evidence, and address counterarguments. Revision histories also provided instructors with evidence of students' decision-making and made it possible to distinguish meaningful development from surface correction.

Digital annotation and genre analysis strengthened students' awareness of academic conventions. Rather than memorizing isolated rules, learners examined how experienced writers introduced topics, expressed positions, incorporated evidence, signaled relationships, and limited claims. This supported more purposeful use of academic language. However, model texts should not be presented as rigid templates. Students need opportunities to recognize that academic writing conventions vary according to discipline, genre, audience, and communicative purpose. Future teachers particularly benefit from discussing why writers make particular linguistic and structural choices.

Collaborative writing and peer feedback created opportunities for dialogue about meaning. When students responded to drafts, they encountered different interpretations and had to clarify their arguments. Training with assessment criteria improved the quality of feedback, although peer comments remained uneven. This finding confirms that effective peer review requires modeling, guided practice, and attention to respectful communication. Teachers should combine peer response with expert feedback because students may overlook conceptual, linguistic, or citation problems that require specialized knowledge [16].

Corpus tools and electronic dictionaries supported greater lexical independence by allowing students to investigate authentic usage. Learners could compare collocations, grammatical patterns, and disciplinary expressions instead of depending exclusively on translation. Difficulties with corpus interfaces show that access alone is insufficient. Teachers should demonstrate manageable search strategies and design tasks that gradually move from guided examination to independent consultation. Excessive numbers of platforms may also create cognitive overload, so tool selection should remain limited and purposeful.

Automated feedback and generative artificial intelligence presented both educational opportunities and risks. Immediate feedback helped students identify recurring language problems, while guided AI activities supported brainstorming and structural comparison. At the same time, inappropriate corrections, generic arguments, fabricated references, and changes in authorial voice demonstrated the limitations of automated systems. Students require critical AI literacy, clear disclosure expectations, and regular verification practices. Academic integrity policies should explain acceptable assistance and preserve student responsibility rather than relying only on prohibition [17].

The findings are relevant to pedagogical universities in Uzbekistan, where expanding digital infrastructure creates possibilities for flexible writing instruction. Institutional effectiveness depends on reliable access, lecturer preparation, multilingual support, and shared ethical guidelines. The study was limited to one educational context and an intervention conducted within a restricted period. Further research could investigate long-term writing development, disciplinary differences, teacher education outcomes, and the effects of particular digital tools on independent writing performance [18].

CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS

The study examined the effectiveness of digital media tools in developing the academic writing skills of students at a pedagogical university. The findings showed that an integrated digital approach can improve organization, argumentation, coherence, academic vocabulary, grammatical accuracy, source integration, citation, and revision quality. Students who used collaborative platforms, digital annotation, online corpora, electronic dictionaries, reference-management applications, automated feedback, and guided artificial intelligence demonstrated stronger engagement with the writing process than students whose instruction relied mainly on conventional practices [19].

Digital media tools were most effective when connected to explicit principles of academic writing instruction. Collaborative platforms enabled students to plan, draft, comment, revise, and reflect within a shared environment. Their revision histories made the development of texts visible and encouraged learners to reconsider content and organization rather than focusing only on grammar and spelling. Digital portfolios also helped students recognize writing as a gradual process involving experimentation, feedback, evaluation, and improvement [20].

Genre analysis and digital annotation supported students in identifying the structural and linguistic features of academic texts. Learners became more aware of thesis statements, paragraph development, argument patterns, cohesive devices, reporting verbs, hedging, and citation practices. Examining authentic models allowed them to connect language choices with communicative purposes. Such instruction should remain flexible because academic conventions differ across genres and disciplines. Students need to understand the reasons for particular conventions rather than reproduce fixed templates without reflection.

Online corpora and electronic dictionaries promoted independent language learning by providing authentic examples of vocabulary, collocations, and grammatical patterns. These resources helped students make more informed lexical choices and reduce dependence on direct translation. However, effective corpus consultation requires teacher modeling and carefully sequenced practice. Students should initially complete guided searches before applying the tools independently to their own writing. Universities should avoid introducing too many applications simultaneously, since excessive technological complexity may distract learners from the writing task.

Peer review and collaborative writing strengthened communication, audience awareness, and responsibility. Students learned to interpret assessment criteria, identify problems in drafts, formulate constructive comments, and respond to alternative perspectives. Peer feedback was most useful when combined with teacher guidance and clear models of effective response. Individual reflection and documented revision were also necessary to ensure that collaboration supported each student's development.


Automated feedback and generative artificial intelligence should be treated as supportive resources rather than authorities or substitutes for independent writing. Students must verify suggestions, evaluate their relevance, protect confidential information, and remain responsible for the accuracy and originality of their texts. Clear institutional guidance should define acceptable assistance, required disclosure, source verification, and authorship expectations. Ethical AI use should be incorporated into academic writing instruction as part of academic integrity and digital literacy.

Pedagogical universities in Uzbekistan can strengthen academic writing education by developing reliable digital infrastructure, providing professional training for lecturers, and establishing common standards for technology use. Future teachers need both strong writing competence and the ability to guide their learners in responsible digital practices. Course design should combine technological resources with explicit instruction, formative assessment, meaningful feedback, and opportunities for repeated revision.

Further studies should investigate the long-term retention of writing skills, differences across disciplines and proficiency levels, and the transfer of digital writing practices to independent research. Research may also examine how particular combinations of human and automated feedback influence authorial voice, critical thinking, and academic integrity. Digital media tools provide valuable opportunities for academic writing development, but their success depends on purposeful pedagogy, ethical awareness, equitable access, and sustained human judgment.

References:

1. Hyland, K. (2003). Second Language Writing. Cambridge University Press.
2. Flower, L., & Hayes, J. R. (1981). A cognitive process theory of writing. College Composition and Communication, 32(4), 365–387.
3. Storch, N. (2013). Collaborative Writing in L2 Classrooms. Multilingual Matters.
4. Swales, J. M., & Feak, C. B. (2012). Academic Writing for Graduate Students: Essential Tasks and Skills (3rd ed.). University of Michigan Press.
5. Warschauer, M. (2010). Invited commentary: New tools for teaching writing. Language Learning & Technology, 14(1), 3–8.
6. Ferris, D. R. (2003). Response to Student Writing: Implications for Second Language Students. Lawrence Erlbaum Associates.
7. Yoon, H., & Hirvela, A. (2004). ESL student attitudes toward corpus use in L2 writing. Journal of Second Language Writing, 13(4), 257–283.
8. Miao, F., & Holmes, W. (2023). Guidance for Generative AI in Education and Research. UNESCO.
9. Kessler, G., Bikowski, D., & Boggs, J. (2012). Collaborative writing among second language learners in academic web-based projects. Language Learning & Technology, 16(1), 91–109.
10. Bitchener, J., & Ferris, D. R. (2012). Written Corrective Feedback in Second Language Acquisition and Writing. Routledge.
11. Godwin-Jones, R. (2018). Second language writing online: An update. Language Learning & Technology, 22(1), 1–15.
12. Pecorari, D. (2013). Teaching to Avoid Plagiarism: How to Promote Good Source Use. Open University Press.
13. Elola, I., & Oskoz, A. (2010). Collaborative writing: Fostering foreign language and writing conventions development. Language Learning & Technology, 14(3), 51–71.
14. Graham, S., & Perin, D. (2007). Writing Next: Effective Strategies to Improve Writing of Adolescents in Middle and High Schools. Alliance for Excellent Education.
15. Aull, L. (2017). Corpus analysis of argumentative versus explanatory discourse in writing task genres. Journal of Writing Analytics, 1, 1–47.
16. Stevenson, M., & Phakiti, A. (2014). The effects of computer-generated feedback on the quality of writing. Assessing Writing, 19, 51–65.
17. Zawacki-Richter, O., Marín, V. I., Bond, M., & Gouverneur, F. (2019). Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education: Where are the educators? International Journal of Educational Technology in Higher Education, 16, 39.
18. Ranalli, J. (2018). Automated written corrective feedback: How well can students make use of it? Computer Assisted Language Learning, 31(7), 653–674.
19. Hyland, K. (2005). Metadiscourse: Exploring Interaction in Writing. Continuum.
20. Li, J., & Zhu, W. (2013). Patterns of computer-mediated interaction in small writing groups using wikis. Computer Assisted Language Learning, 26(1), 61–82.



XOTIN-QIZLARDA EMOTSIONAL DEFITSIT VA NIKOHDAN TASHQARI MUNOSABATLAR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Beknazarova Nigina Zarip qizi
Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti kichik ilmiy xodim

Annotatsiya: Mazkur maqolada xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi oilaviy munosabatlarda emotsional ehtiyojlarning qondirilmasligi, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi emotsional yaqinlikning pasayishi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yetishmovchiligi hamda nikohdan tashqari emotsional yoki romantik munosabatlarga moyillik o'rtasidagi o'zaro aloqani aniqlashdan iborat. Tadqiqotda so'rovnoma, psixodiagnostik metodikalar, korrelyatsion va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish taklif etiladi. Maqolada emotsional defitsitning asosiy tarkibiy qismlari sifatida emotsional yaqinlikning yetishmasligi, e'tibor va qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj, yolg'izlik hissi, muloqotdan qoniqmaslik va munosabatlardagi emotsional sovuqlik ko'rib chiqiladi. Tahlil natijalari emotsional ehtiyojlarning muntazam ravishda qondirilmasligi nikohdan tashqari munosabatlarga moyillikning oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, mazkur bog'liqlikni faqat individual omillar bilan emas, balki oilaviy muloqot, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, nikohdan qoniqish va jamiyatdagi gender me'yorlari bilan kompleks ravishda izohlash zarurligi asoslanadi.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, emotsional defitsit, nikoh, nikohdan tashqari munosabatlar, emotsional yaqinlik, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, yolg'izlik, nikohdan qoniqish, ijtimoiy-psixologik omillar.

Abstract: This article analyzes the socio-psychological characteristics of the relationship between emotional deficit and women's propensity toward extramarital relationships. The main purpose of the study is to identify the relationship between unmet emotional needs in marital relationships, reduced emotional intimacy between spouses, insufficient social support, and the tendency to engage in emotional or romantic extramarital relationships. The study proposes the use of questionnaires, psychodiagnostic methods, correlation analysis, and comparative analysis. The main components of emotional deficit examined in the article include a lack of emotional intimacy, the need for attention and support, feelings of loneliness, dissatisfaction with communication, and emotional detachment within relationships. The results of the analysis indicate that the systematic failure to meet emotional needs may be associated with an increased propensity toward extramarital relationships. At the same time, the article substantiates the need to explain this relationship comprehensively, taking into account not only individual psychological factors but also family communication, social support, marital satisfaction, and gender norms prevailing in society.

Key words: women, emotional deficit, marriage, extramarital relationships, emotional intimacy, family relationships, social support, loneliness, marital satisfaction, socio-psychological factors.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические особенности взаимосвязи между эмоциональным дефицитом и склонностью женщин к внебрачным отношениям. Основная цель исследования заключается в выявлении взаимосвязи между неудовлетворённостью эмоциональных потребностей в семейных отношениях, снижением эмоциональной близости между супругами, недостатком социальной поддержки и склонностью к эмоциональным или романтическим внебрачным отношениям. В исследовании предполагается использование анкетирования, психодиагностических методик, корреляционного и сравнительного анализа. В качестве основных компонентов эмоционального дефицита рассматриваются недостаток эмоциональной близости, потребность во внимании и поддержке, чувство одиночества, неудовлетворённость общением и эмоциональная холодность в отношениях. Результаты анализа показывают, что систематическая неудовлетворённость эмоциональных потребностей может быть связана с повышением склонности к внебрачным отношениям. Вместе с тем обосновывается необходимость комплексного объяснения данной взаимосвязи с учётом не только индивидуально-психологических факторов, но и особенностей семейной коммуникации, социальной поддержки, удовлетворённости браком и гендерных норм, существующих в обществе.

Ключевые слова: женщины, эмоциональный дефицит, брак, внебрачные отношения, эмоциональная близость, семейные отношения, социальная поддержка, одиночество, удовлетворённость браком, социально-психологические факторы.

KIRISH

Oila insonning emotsional xavfsizligi, psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy institutlardan biridir. Nikoh munosabatlarining barqarorligi nafaqat iqtisodiy yoki maishiy sharoitlar, balki er-xotin o‘rtasidagi emotsional yaqinlik, o‘zaro hurmat, ishonch, qo‘llab-quvvatlash va samarali muloqot bilan ham belgilanadi. Zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlarning mazmuni sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. Ayollarning ta’lim va kasbiy faoliyatdagi ishtiroki, ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalishi, individual ehtiyojlarning ortishi va shaxslararo munosabatlarga qo‘yiladigan psixologik talablarning kuchayishi nikoh munosabatlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda.

Emotsional defitsit tushunchasi shaxsning yaqin munosabatlarda mehr, e’tibor, tushunish, qo‘llab-quvvatlash, qabul qilinish va emotsional yaqinlik kabi ehtiyojlarining yetarli darajada qondirilmasligini anglatadi. Bunday holat uzoq vaqt davom etganda shaxsda yolg‘izlik, qadrsizlanish, emotsional bo‘shliq, norozilik va munosabatlardan qoniqmaslik hissi paydo bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, nikoh munosabatlarida emotsional aloqa zaiflashganda, ayol boshqa shaxslar bilan muloqot orqali o‘zining emotsional ehtiyojlarini qondirishga intilishi ehtimoli yuzaga keladi. Bunday muloqot dastlab oddiy ijtimoiy aloqa shaklida bo‘lishi, keyinchalik esa emotsional yaqinlik yoki romantik munosabatlarga aylanishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan, nikohdan tashqari munosabatlarni faqat axloqiy yoki individual tanlov sifatida emas, balki shaxslararo va oilaviy munosabatlar tizimida yuzaga keluvchi murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida o‘rganish muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotning maqsadi xotin-qizlarda emotsional defitsit darajasi bilan nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda ushbu jarayonni belgilovchi ijtimoiy-psixologik omillarni kompleks tahlil qilishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqotda, avvalo, emotsional defitsitning psixologik mazmuni va uning asosiy ko‘rsatkichlari, jumladan, emotsional yaqinlikning yetishmasligi, e’tibor va qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyoj, yolg‘izlik hissi hamda oilaviy muloqotdan qoniqmaslik holatlari o‘rganiladi; shuningdek, xotin-qizlarning nikohdan qoniqish darajasi va turmush o‘rtog‘i bilan emotsional yaqinligi baholanadi.

Tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biri emotsional defitsit va nikohdan tashqari emotsional yoki romantik munosabatlarga moyillik o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni aniqlash bo‘lib, bunda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, oilaviy muloqot sifati va nikohdan qoniqish kabi omillarning roli tahlil qilinadi. Tadqiqot gipotezasiga ko‘ra, xotin-qizlarda emotsional defitsit darajasi oshgani sari nikohdan tashqari emotsional va romantik munosabatlarga moyillik ham ortishi mumkin; ya’ni oilada mehr, e’tibor, tushunish va emotsional qo‘llab-quvvatlashga bo‘lgan ehtiyojlarning muntazam ravishda qondirilmasligi boshqa shaxslar bilan emotsional yaqinlik izlash ehtimolini kuchaytiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lishi taxmin qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash maqsadida emotsional ehtiyojlar va emotsional yaqinlikni baholash so‘rovnomasi, nikohdan qoniqish shkalasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni baholash metodikasi, yolg‘izlik hissini aniqlash shkalasi hamda nikohdan tashqari munosabatlarga moyillikni baholovchi mualliflik so‘rovnomasi qo‘llanildi. 120 nafar turmush qurgan xotin-qiz jalb qilindi. Respondentlarning yoshi 25–45 yosh oralig‘ida bo‘lib, nikoh davomiyligi 3 yildan 20 yilgacha deb belgilandi.

1-jadval: **Respondentlarning ijtimoiy-demografik tavsifi**

Ko‘rsatkich	Guruh	n	%
Yosh	25–30 yosh	32	26,7
	31–35 yosh	36	30,0
	36–40 yosh	29	24,2
	41–45 yosh	23	19,1
Nikoh davomiyligi	3–5 yil	25	20,8
	6–10 yil	37	30,8
	11–15 yil	34	28,3
	16–20 yil	24	20,0

Asosiy ko‘rsatkichlari sifatida emotsional defitsit, nikohdan qoniqish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, yolg‘izlik va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o‘rganildi.

2-jadval: **Tadqiqotning asosiy psixologik ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkich	O‘rtacha qiymat (M)	Standart og‘ish (SD)	Daraja
Emotsional defitsit	3,42	0,81	O‘rtacha-yuqori
Nikohdan qoniqish	2,91	0,76	O‘rtacha
Emotsional yaqinlik	2,84	0,79	O‘rtacha
Yolg‘izlik	3,18	0,83	O‘rtacha-yuqori
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash	3,01	0,72	O‘rtacha
Nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik	2,76	0,85	O‘rtacha

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalardan ko‘rinishicha, respondentlarda emotsional defitsitning o‘rtacha darajasi nisbatan yuqori bo‘lgan. Shu bilan birga, nikohdan qoniqish va emotsional yaqinlik ko‘rsatkichlari o‘rtacha darajada qayd etilgan. Emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion tahlil amalga oshirildi.

3-jadval: **Asosiy o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘liqlik**

O‘zgaruvchilar	r	p
Emotsional defitsit – nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik	0,58	<0,001
Emotsional defitsit – nikohdan qoniqish	-0,64	<0,001
Emotsional defitsit – emotsional yaqinlik	-0,61	<0,001
Emotsional defitsit – yolg‘izlik	0,67	<0,001
Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash – emotsional defitsit	-0,49	<0,001
Nikohdan qoniqish – nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik	-0,53	<0,001
Emotsional yaqinlik – nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik	-0,47	<0,001

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o‘rtasida ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bog‘liqlik mavjud ($r=0,58$; $p<0,001$). Emotsional defitsit oshgani sari nikohdan qoniqish pasaygan ($r=-0,64$; $p<0,001$). Shuningdek, emotsional defitsit va yolg‘izlik o‘rtasida kuchli ijobiy bog‘liqlik aniqlangan ($r=0,67$; $p<0,001$). Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash esa emotsional defitsit bilan manfiy bog‘langan ($r=-0,49$; $p<0,001$). Bu esa yaqin ijtimoiy muhit tomonidan qo‘llab-quvvatlanishning yetarli bo‘lishi emotsional bo‘shliqni kamaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

4-jadval: **Emotsional defitsit darajasi bo‘yicha guruhlar taqqoslanishi**

Guruh	n	Nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik (M)	SD
Past emotsional defitsit	39	1,94	0,61
O‘rtacha emotsional defitsit	45	2,67	0,68
Yuqori emotsional defitsit	36	3,73	0,72

Yuqori emotsional defitsit guruhidagi respondentlarda nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik ko‘rsatkichi past emotsional defitsit guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi kuzatiladi. Biroq ushbu natijani nikohdan tashqari munosabatlarning bevosita sababi emotsional defitsitdir, degan qat’iy xulosa sifatida talqin qilish mumkin emas. Mazkur bog‘liqlikka nikohdan qoniqmaslik, kommunikativ muammolar, shaxsiy ehtiyojlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi va individual psixologik xususiyatlar ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Tadqiqot natijalari xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, emotsional yaqinlikning yetishmasligi, muntazam e’tibor va qo‘llab-quvvatlashning kamayishi hamda yolg‘izlik hissining kuchayishi nikoh munosabatlaridan qoniqishning pasayishi bilan birga kuzatiladi.

Emotsional ehtiyojlar uzoq vaqt davomida qondirilmagan holatda shaxsda “meni tushunadigan inson kerak”, “mening his-tuyg‘ularimga e’tibor berilmayapti” yoki “men oilada bo‘lsam ham o‘zimni yolg‘iz his qilaman” kabi subyektiv kechinmalar shakllanishi mumkin. Bunday psixologik holat shaxsni boshqa odamlar bilan emotsional aloqa izlashga undashi ehtimolini oshiradi. Shu bilan birga, nikohdan tashqari munosabatlarni faqat emotsional defitsit bilan izohlash ilmiy jihatdan biryoqlama yondashuv bo‘ladi. Chunki ushbu jarayon ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelishi mumkin.

5-jadval: **Nikohdan tashqari munosabatlarga ta'sir qiluvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar**

Omil	Ta'sir mexanizmi	Kutiladigan yo'nalish
Emotsional defitsit	Mehr va e'tibor ehtiyojlarining qondirilmasligi	Moyillikni oshiradi
Nikohdan qoniqmaslik	Oilaviy munosabatlardan norozilik	Moyillikni oshiradi
Emotsional yaqinlikning pastligi	Er-xotin o'rtasidagi hissiy masofaning ortishi	Moyillikni oshiradi
Yolg'izlik	Oila ichida ham psixologik yolg'izlikni his qilish	Moyillikni oshiradi
Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash	Psixologik resurslarning mavjudligi	Moyillikni kamaytiradi
Oilaviy muloqot sifati	Muammolarni ochiq muhokama qilish imkoniyati	Moyillikni kamaytiradi
O'z-o'zini qadrlash	Shaxsiy chegaralar va ehtiyojlarni anglash	Ikki tomonlama ta'sir
Stress va emotsional zo'riqish	Psixologik resurslarning kamayishi	Bilvosita oshirishi mumkin

Mazkur natijalar asosida emotsional defitsitni nikohdan tashqari munosabatlarning yagona determinanti emas, balki risk omillaridan biri sifatida baholash maqsadga muvofiq. Tadqiqotning yana bir muhim jihati shundan iboratki, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash emotsional defitsit bilan manfiy bog'liqlikni namoyon qilgan. Bu oilaviy muammolarni bartaraf etishda faqat er-xotin munosabatlariga emas, balki ayolning kengroq ijtimoiy muhitiga ham e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA

O'tkazilgan nazariy va empirik tahlil asosida shuni ta'kidlash mumkinki, xotin-qizlarda emotsional defitsit oilaviy munosabatlarda mehr, e'tibor, tushunish, emotsional yaqinlik va qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyojlarning yetarli darajada qondirilmasligi bilan tavsiflanadi. Emotsional defitsit darajasining yuqoriligi nikohdan qoniqishning pasayishi va yolg'izlik hissining kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, o'z navbatida, emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlarga moyillik o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bunda emotsional yaqinlik va nikohdan qoniqishning yuqori darajasi nikohdan tashqari munosabatlarga moyillikni kamaytiruvchi muhim himoya omillari sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xotin-qizlarning emotsional resurslarini mustahkamlash, yolg'izlik hissini kamaytirish va emotsional defitsitning salbiy oqibatlarini yumshatishda muhim psixologik resurs hisoblanadi. Shu sababli nikohdan tashqari munosabatlarni faqat ayolning individual qarori yoki axloqiy xatti-harakati sifatida emas, balki shaxsiy, oilaviy va ijtimoiy-psixologik omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan murakkab psixologik hodisa sifatida kompleks o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bowlby J. A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development. – London: Routledge, 1988. – 224 p.
2. Gottman J. M., Silver N. The Seven Principles for Making Marriage Work. – New York: Harmony Books, 2015. – 288 p.
3. Hazan C., Shaver P. Romantic Love Conceptualized as an Attachment Process // Journal of Personality and Social Psychology. – Washington, 1987. – Vol. 52. – № 3. – P. 511–524.
4. Reis H. T., Shaver P. Intimacy as an Interpersonal Process // Handbook of Personal Relationships / Ed. by S. Duck. – Chichester: Wiley, 1988. – P. 367–389.
5. Rusbult C. E., Martz J. M., Agnew C. R. The Investment Model Scale: Measuring Commitment Level, Satisfaction Level, Quality of Alternatives, and Investment Size // Personal Relationships. – 1998. – Vol. 5. – № 4. – P. 357–391.
6. Glass S. P., Wright T. L. Justifications for Extramarital Relationships: The Association between Attitudes, Behaviors, and Gender // Journal of Sex Research. – 1992. – Vol. 29. – № 3. – P. 361–387.
7. Atkins D. C., Baucom D. H., Jacobson N. S. Understanding Infidelity: Correlates in a National Random Sample // Journal of Family Psychology. – 2001. – Vol. 15. – № 4. – P. 735–749.
8. Allen E. S., Atkins D. C., Baucom D. H., Snyder D. K., Gordon K. C., Glass S. P. Intrapersonal, Interpersonal, and Contextual Factors in Engaging in and Responding to Extramarital Involvement // Clinical Psychology: Science and Practice. – 2005. – Vol. 12. – № 2. – P. 101–130.
9. Fincham F. D., May R. W. Infidelity in Romantic Relationships // Current Opinion in Psychology. – 2017. – Vol. 13. – P. 70–74.
10. Levinger G. A Social Psychological Perspective on Marital Dissolution // Journal of Social Issues. – 1979. – Vol. 35. – № 4. – P. 21–47.

SUN'IY INTELLEKT: MADANIY VOSITACHIMI YOKI MADANIY "DARVOZABON"MI? CHET TILI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH UCHUN TANQIDIY NAZARIY ASOS

Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
v.b. dotsenti, ped. f. f. d. (PhD)

https://orcid.org/0009-0000-6043-4829

Annotatsiya: Generativ sun'iy intellekt (GenAI) chet tili ta'limiga jadal kirib bormoqda, biroq uning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi ikkiyoqlama tabiati bir tomondan madaniy vositachi, ikkinchi tomondan madaniy "darvozabon" (gatekeeper) sifatidagi roli yetarli tanqidiy tahlil qilinmagan. Ushbu maqola empirik va nazariy manbalarni tizimli tahlil qilish orqali GenAI vositalarining madaniy xolislik va nomutanosiblik xavflarini, shuningdek, ularning ta'limiy salohiyatini yoritadi. Tahlil natijalari GenAI tizimlarining G'arb va ingliz tilida so'zlashuvchi davlatlar qadriyatlariga moyilligini tasdiqlovchi dalillarni, shuningdek, chet tili o'qituvchilarini tayyorlashda tanqidiy sun'iy intellekt savodxonligi zarurligini ko'rsatdi. Maqola yakunida bo'lajak o'qituvchilar uchun to'rt komponentli tanqidiy nazariy asos (aniqlash, tekshirish, vositachilik qilish, aks ettirish) taklif etiladi.

Kalit so'zlar: generativ sun'iy intellekt; madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi; algoritmik xolislik; tanqidiy sun'iy intellekt savodxonligi; chet til o'qituvchilarini tayyorlash.

Abstract: Generative artificial intelligence (GenAI) is rapidly being integrated into foreign language education; however, its dual nature in developing intercultural communicative competence-as a cultural mediator on the one hand and a cultural "gatekeeper" on the other-has not yet received sufficient critical examination. Through a systematic analysis of empirical and theoretical sources, this article explores the risks of cultural bias and imbalance associated with GenAI tools, as well as their educational potential. The findings reveal evidence indicating that GenAI systems tend to favor the values and perspectives of Western and English-speaking countries and highlight the need to develop critical AI literacy in foreign language teacher education. Finally, the article proposes a four-component critical theoretical framework for pre-service teachers consisting of identification, verification, mediation, and reflection.

Key words: generative artificial intelligence; intercultural communicative competence; algorithmic fairness; critical AI literacy; foreign language teacher education.

Аннотация: Генеративный искусственный интеллект (GenAI) стремительно внедряется в процесс обучения иностранным языкам, однако его двойственная природа в формировании межкультурной коммуникативной компетенции - с одной стороны, как культурного посредника, а с другой - как культурного "привратника" (gatekeeper) - до сих пор не получила достаточного критического осмысления. В данной статье посредством систематического анализа эмпирических и теоретических источников рассматриваются риски культурной предвзятости и дисбаланса, присущие инструментам GenAI, а также их образовательный потенциал. Результаты анализа выявили данные, подтверждающие склонность систем GenAI к ценностям западных и англоязычных стран, а также продемонстрировали необходимость формирования критической грамотности в области искусственного интеллекта при подготовке преподавателей иностранных языков. В заключение статьи предлагается четырехкомпонентная критическая теоретическая модель для будущих преподавателей, включающая следующие компоненты: выявление, проверка, посредничество и рефлексия.

Ключевые слова: генеративный искусственный интеллект; межкультурная коммуникативная компетенция; алгоритмическая беспристрастность; критическая грамотность в области искусственного интеллекта; подготовка преподавателей иностранных языков.

KIRISH

Generativ sun'iy intellekt (GenAI) texnologiyalarining chet til ta'limiga jadal kirib borishi so'nggi uch-to'rt yil ichida ta'lim tadqiqotlarining markaziy mavzularidan biriga aylandi [1]. ChatGPT va shunga o'xshash yirik til modellari (LLM) talabalarga individuallashtirilgan mashqlar, tezkor fikr-mulohaza va cheksiz muloqot amaliyoti imkoniyatini taqdim etib, til o'qitish metodikasida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi [2]. Biroq ushbu texnologik imkoniyatlarning aksariyati til bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, GenAI vositalarining madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni nisbatan kam o'rganilgan sohalardan biri bo'lib qolmoqda [3].

Muammoning dolzarbligi shundaki, GenAI tizimlari garchi "neytral" yoki "obyektiv" vosita sifatida taqdim etilsa-da, aslida ularni o'qitish uchun ishlatilgan matnli korpuslarning madaniy, tilshunoslik va mafkuraviy tarkibini aks ettiradi [4]. Boshqacha aytganda, GenAI bir tomondan talabalarga turli madaniyatlar haqida ma'lumot va muloqot amaliyoti taqdim etuvchi madaniy vositachi (cultural mediator) vazifasini bajarishi mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar uning javoblari muayyan madaniy qarashlarni ustuvor qilib ko'rsatsa yoki boshqa madaniyatlarni noto'g'ri, soddalashtirilgan yoki stereotipik tarzda aks ettirsa, u madaniy "darvozabon"ga, ya'ni qaysi madaniy ma'nolar "to'g'ri" yoki "ko'rinadigan" ekanligini bir tomonlama belgilovchi vositaga aylanishi mumkin [5].

Ushbu ikkiyoqlama xavf-imkoniyat muvozanati, ayniqsa, bo'lajak chet til o'qituvchilarini tayyorlash kontekstida alohida metodik ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu mutaxassislar kelajakda GenAI vositalaridan sinfda foydalanish yoki foydalanmaslik, ularning natijalarini tanqidiy baholash va o'quvchilarga madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish borasida pedagogik qarorlar qabul qiluvchi shaxslar hisoblanadi [6]. Shu sababli ushbu maqolaning maqsadi so'nggi ilmiy adabiyotlar asosida GenAIning madaniy vositachilik va madaniy "darvozabonlik" funksiyalarini tanqidiy tahlil qilish hamda chet til o'qituvchilarini tayyorlash uchun amaliy nazariy asos taklif etishdan iborat.

Tadqiqot quyidagi savollarga javob izlaydi:

(1) GenAI vositalari madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda qanday ijobiy salohiyatga ega?

(2) Empirik dalillar GenAI tizimlarining madaniy xolisligi bo'yicha nimalarni ko'rsatadi?

(3) Chet til o'qituvchilarini tayyorlash dasturlari ushbu ikkiyoqlama xavfni bartaraf etish uchun qanday tanqidiy savodxonlik komponentlarini o'z ichiga olishi lozim?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bir qator tadqiqotlar GenAI vositalarining chet tili ta'limida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, Sarwari va boshqalar [7] ko'p madaniyatli universitet muhitida magistrantlar orasida o'tkazgan tadqiqotida GenAI vositalaridan muntazam va maqsadli foydalanish madaniyatlararo tushunishning oshishi bilan bog'liqligini aniqladi, garchi natijalar talabalarning raqamli savodxonligi va oldingi madaniy tajribasiga bog'liq holda farqlansa-da. Klimova va Chen [3] tomonidan o'tkazilgan tizimli sharh GenAI va AKT vositalarining universitet talabalarida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan o'n bir tadqiqotni tahlil qilib, chatbotlar va virtual reallik vositalarining o'quvchilarga madaniy farqlarni real vaqt rejimida his qilish va ular bilan ishlashga o'rgatishda o'lchanadigan samaradorlik ko'rsatishini, biroq tadqiqotlarning aksariyati qisqa muddatli va metodologik jihatdan xilma-xil ekanligini ta'kidladi.

Kohnke, Moorhouse va Zou [2] GenAIning til o'qitishdagi imkoniyatlarini tahlil qilib, uning talabalarga turli registrlarda, uslublarda va madaniy kontekstlarda til birliklarini generatsiya qilish orqali madaniy-pragmatik xilma-xillikni namoyish etish salohiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Bunday vositalar, ayniqsa, chet tilida tabiiy suhbatdosh topish imkoniyati cheklangan o'quv muhitlarida (masalan, kam resursli yoki chekka hududlardagi ta'lim muassasalarida) talabalarga muqobil muloqot amaliyoti maydonini yaratib berishi mumkin. Miao va Xolms tomonidan tayyorlangan YuNESKOning rasmiy qo'llanmasida ham GenAI ta'lim tengligini oshirish salohiyatiga ega ekanligi ta'kidlanadi, biroq bu salohiyat faqat texnologiyaning o'zidan emas, balki uni pedagogik jihatdan to'g'ri vositachilik qilingan holda qo'llashdan kelib chiqishi alohida ta'kidlanadi [8].

Shu bilan birga, so'nggi yillarda o'tkazilgan bir qator yirik miqyosli empirik tadqiqotlar GenAI tizimlarining madaniy xolisligi bo'yicha jiddiy tashvishlarni ochib berdi. Eng ishonchli dalillardan biri sifatida Tao, Viberg, Beyker va Kizilsek tomonidan PNAS Nexus jurnalida chop etilgan tadqiqotni keltirish mumkin [4]. Mualliflar besh xil keng qo'llaniladigan yirik til modelini (GPT-4o, GPT-4-turbo, GPT-4, GPT-3.5-turbo, GPT-3) 107 ta davlat va hududning vakillik so'rovlari ma'lumotlari bilan qiyoslab, barcha tekshirilgan modellar ingliz tilida so'zlashuvchi G'arbiy Yevropa davlatlariga xos qadriyatlarga sezilarli darajada moyil ekanligini aniqladilar. Bu natija shuni ko'rsatadiki, GenAI tizimlari o'zlarini "universal" yoki "madaniy jihatdan neytral" vosita sifatida taqdim etsa-

da, aslida ular muayyan madaniy nuqtai nazarni me'yor sifatida ko'rsatib, boshqa madaniyatlarni "og'ish" yoki "istisno" sifatida talqin qilish xavfini tug'diradi.

Bunga qo'shimcha ravishda, Naous, Ryan va Xu [5] o'tkazgan tadqiqot yirik til modellarining arab tilidagi va G'arb madaniyatiga oid kontekstlarni taqqoslab, modellarning mahalliy madaniy kontekstga oid so'rovlarga ham ko'pincha G'arbcha me'yor va taxminlar asosida javob berish tendensiyasini namoyon qilishini aniqladi, ya'ni model ko'pincha mahalliy madaniy kontekstga mos kelmaydigan, ammo G'arb madaniyatida odatiy hisoblangan ssenariylarni taklif qiladi. Xuddi shunday, boshqa tadqiqotlar GenAI tizimlarida irqiy, jinsiy va ijtimoiy-iqtisodiy stereotiplarga oid tizimli og'ishlar mavjudligini tasdiqlagan [9].

Ushbu dalillarning metodik ahamiyati shundaki, ular GenAIning madaniy "neytralligi" haqidagi keng tarqalgan taxminni bevosita rad etadi. Agar chet til o'qituvchisi yoki talaba GenAI tomonidan taqdim etilgan madaniy ma'lumotni tanqidiy tekshirmasdan qabul qilsa, u nafaqat noto'g'ri, balki bir tomonlama madaniy qarashlarni ham o'zlashtirish xavfiga duch keladi. Shu nuqtai nazardan, GenAI shunchaki neytral "vositachi" emas, balki qaysi madaniy ma'nolar ko'rinadigan yoki "normal" deb taqdim etilishini bir tomonlama belgilovchi faol "darvozabon" vazifasini bajarishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqola alohida empirik tadqiqot natijalarini emas, balki 2015-2025-yillar oralig'ida nashr etilgan ilmiy manbalarning tanqidiy-tahliliy sintezini taqdim etadi. Manbalar Scopus, Web of Science, ERIC va Google Scholar ma'lumotlar bazalaridan "generative AI", "large language models", "cultural bias", "intercultural competence", "critical AI literacy", "language teacher education" kalit so'zlari kombinatsiyasi asosida qidirildi. Manbalarni tanlashda quyidagi mezonlar qo'llanildi:

(a) 2015-yildan keyin nashr etilgan bo'lishi;

(b) taqqoslanuvchi tahlil, tizimli sharh yoki original empirik tadqiqot natijalarini taqdim etishi;

(v) GenAI, madaniy xolislik yoki chet til ta'limi kontekstidagi tanqidiy sun'iy intellekt savodxonligi mavzulariga bevosita tegishli bo'lishi.

Tanlangan manbalar uch mavzuiy yo'nalish bo'yicha tizimlashtirildi va tahlil qilindi: GenAIning madaniy vositachilik salohiyati, uning madaniy xolislikka oid empirik dalillari hamda chet til o'qituvchilarini tayyorlashda tanqidiy sun'iy intellekt savodxonligi modellari. Natijalar tavsiflovchi-tahliliy usulda sintez qilinib, xulosa qismida amaliy nazariy asos ko'rinishida umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan ikkiyoqlama xavf-imkoniyat muvozanatini hisobga olgan holda, so'nggi tadqiqotlar chet til o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarida tanqidiy sun'iy intellekt savodxonligini shakllantirish zarurligini alohida ta'kidlamoqda. Long va Magerko [10] tomonidan ishlab chiqilgan asosiy SI savodxonligi modeli "bilish va tushunish", "qo'llash", "baholash va yaratish" hamda "axloqiy masalalar" kabi to'rt komponentni o'z ichiga oladi, biroq bu model dastlab umumiy ta'lim konteksti uchun ishlab chiqilgan bo'lib, til va madaniyatga xos jihatlarni alohida ajratib ko'rsatmaydi.

Chet tili ta'limiga xos tanqidiy SI savodxonligi modellari yaqinda faolroq ishlab chiqila boshlandi. Tour, Pegrum va Makdonald [11] ingliz tili o'quvchilarini AI savodxonligi amaliyotlariga jalb qilishning konseptual asosini taklif qilib, til o'quvchilari nafaqat AI vositalaridan qanday foydalanishni, balki ularning natijalari qanday ishlab chiqarilishini va kimning manfaatlariga xizmat qilishini ham tanqidiy tushunishlari zarurligini ta'kidlaydi. Stokuell [12] esa GenAIning til o'qitishdagi yo'lini tahlil qilib, o'qituvchilarning texnologik vositalarni sinfga passiv tarzda kiritishdan ko'ra, ularning til va shaxsni shakllantirishdagi kuch munosabatlarini anglagan holda ongli pedagogik qarorlar qabul qilishlari lozimligini ta'kidlaydi.

Moorhouse va Kohnke [6] tomonidan o'tkazilgan tadqiqot boshlang'ich chet til o'qituvchilari tayyorlash dasturlaridagi til o'qituvchi-ta'limchilarining GenAIga nisbatan qarashlarini o'rganib, ko'pchilik ta'limchilar GenAIning amaliy foydasini tan olsa-da, uning madaniy va axloqiy jihatlarini tanqidiy baholash uchun tizimli tayyorgarlikka ega emasligini aniqladi. Shunga o'xshash tarzda, Moorhouse va uning hamkasblari [13] tomonidan o'tkazilgan aralashuv tadqiqoti maxsus ishlab chiqilgan qisqa muddatli kurs orqali til o'qituvchi-ta'limchilarining professional generativ sun'iy intellekt kompetensiyasini rivojlantirish mumkinligini, biroq bunday kompetensiya tasodifan emas, balki maqsadli metodik aralashuv orqali shakllanishini ko'rsatdi.

Yuqorida keltirilgan natijalar asosida chet til o'qituvchilarini tayyorlash dasturlari uchun to'rt komponentli tanqidiy nazariy asos - AVR modeli (Aniqlash - Vositachilik - Refleksiya - Rag'batlantirish, ingl. Detect - Mediate - Reflect - Empower) taklif etiladi. Ushbu model quyidagi jadvalda umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval: **Chet til o‘qituvchilarini tayyorlash uchun AVR tanqidiy nazariy asosi**

Komponent	Mohiyati	Amaliy misol
1. Aniqlash (Detect)	GenAI javoblarida madaniy og‘ish yoki bir tomonlama qarashlarni aniqlash ko‘nikmasi	Bir xil savolni turli madaniy kontekst bilan berib, javoblarni qiyoslash mashqi
2. Vositachilik (Mediate)	GenAI natijalarini o‘quvchilarga tanqidiy tarzda taqdim etish va izohlash	AI javobini “yakuniy haqiqat” emas, balki muhokama boshlang‘ich nuqtasi sifatida qo‘llash
3. Refleksiya (Reflect)	O‘z va o‘quvchilarning AI natijalariga nisbatan munosabatini tahlil qilish	Refleksiv kundalik yoki portfolio orqali AI bilan ishlash tajribasini yozma tahlil qilish
4. Rag‘batlantirish (Empower)	O‘quvchilarni AI’ning madaniy cheklovlarini mustaqil tekshirishga undash	Loyihaviy topshiriq: AI javobini mahalliy ekspert yoki manba bilan solishtirish

Ushbu model amaliyotga tatbiq etilganda, u chet til o‘qituvchisini GenAIdan butunlay voz kechishga emas, balki uni ongli, tanqidiy va pedagogik jihatdan asoslangan tarzda qo‘llashga yo‘naltiradi. Xususan, “Aniqlash” komponenti o‘qituvchilarga GenAI javoblarining madaniy neytral emasligini amaliy mashqlar orqali his qilish imkonini beradi. Masalan, bir xil savolni “oddiy oila bayrami” yoki “muvaffaqiyatli tadbirkor” kabi umumiy tushunchalar bo‘yicha turli madaniy belgilar bilan so‘rab, natijalar qanchalik G‘arbcha me’yorlarga tayanishini kuzatish mumkin. “Vositachilik” komponenti esa o‘qituvchining o‘zini AI bilan o‘quvchi o‘rtasidagi passiv kanal emas, balki faol pedagogik vositachi sifatida ko‘rishini talab qiladi: AI javobi darsda avtomatik ravishda “to‘g‘ri javob” sifatida taqdim etilmasdan, balki tanqidiy muhokama uchun material sifatida ishlatiladi.

“Refleksiya” komponenti bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘z kasbiy amaliyotida AI bilan ishlash tajribasini muntazam ravishda yozma yoki og‘zaki tahlil qilishini nazarda tutadi, bu esa Moorhouse va boshqalar [13] tomonidan qayd etilgan “tasodifiy emas, maqsadli shakllanish” tamoyiliga mos keladi. Nihoyat, “Rag‘batlantirish” komponenti o‘quvchilarning o‘zlarini ham AI natijalarini tanqidiy tekshiruvchi faol subyektlarga aylantirishga qaratilgan bo‘lib, bu Tour va boshqalar [11] tomonidan taklif etilgan til o‘quvchilarini AI savodxonligi amaliyotlariga jalb qilish g‘oyasini kengaytiradi.

Alohida ta’kidlash lozimki, taklif etilgan model GenAIni til ta’limidan butunlay chetlashtirishni emas, balki uning ikkiyoqlama tabiatini - vositachilik salohiyati va darvozabonlik xavfini - bir vaqtning o‘zida tan olgan holda undan ongli foydalanishni maqsad qiladi. Bu yondashuv YUNESKOning GenAI bo‘yicha rasmiy tavsiyalarida ilgari surilgan “inson nazorati markazda qolishi kerak” tamoyiliga [8] hamda tanqidiy AI savodxonligi bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlarda ta’kidlangan “texnologik vositani emas, balki kuch munosabatlarini tushunish” talabiga [12] mos keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada olib borilgan tanqidiy-tahliliy sintez shuni ko‘rsatdiki, generativ sun’iy intellekt chet tili ta’limida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirishning kuchli, ammo ikkiyoqlama vositasidir. Bir tomondan, GenAI talabalarga kengaytirilgan muloqot amaliyoti, xilma-xil registr va kontekstlarga kirish imkonini berib, madaniy vositachi vazifasini bajarishi mumkin. Ikkinchi tomondan, so‘nggi yirik miqyosli empirik tadqiqotlar, xususan, 107 davlat ma’lumotlari asosida o‘tkazilgan tahlil [4], GenAI tizimlarining G‘arb va ingliz tilida so‘zlashuvchi qadriyatlarga tizimli moyilligini qat’iy tasdiqlaydi, bu esa uning nazoratsiz qo‘llanilishi madaniy “darvozabonlik” xavfini keltirib chiqarishini ko‘rsatadi.

Shu sababli bo‘lajak chet til o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlari GenAIdan foydalanish bo‘yicha faqat texnik ko‘nikmalarni emas, balki taklif etilgan AVR (Aniqlash-Vositachilik-Refleksiya-Rag‘batlantirish) kabi tanqidiy nazariy asosni ham o‘z ichiga olishi zarur. Kelgusi tadqiqotlar ushbu modelning haqiqiy o‘quv sharoitida amaliy sinovdan o‘tkazilishini, uning turli til va madaniy kontekstlarda (jumladan, Markaziy Osiyo ta’lim tizimida) qo‘llanilish samaradorligini hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning tanqidiy AI savodxonligi darajasini o‘lchovchi maxsus baholash vositalarini ishlab chiqishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kasneci E., Seßler K., Küchemann S. [va boshq.] ChatGPT for good? On opportunities and challenges of large language models for education // Learning and Individual Differences. - 2023. - Vol. 103. - Art. 102274.
2. Kohnke L., Moorhouse B.L., Zou D. ChatGPT for language teaching and learning // RELC Journal. - 2023. - Vol. 54, No. 2. - P. 537-550.
3. Klimova B., Chen J.H. The impact of AI on enhancing students’ intercultural communication competence at the university level: A review study // Language Teaching Research Quarterly. - 2024. - Vol. 43. - P. 102-120.

4. Tao Y., Viberg O., Baker R.S., Kizilcec R.F. Cultural bias and cultural alignment of large language models // PNAS Nexus. - 2024. - Vol. 3, No. 9. - Art. pgae346.
5. Naous T., Ryan M.J., Xu W. Having beer after prayer? Measuring cultural bias in large language models // arXiv preprint. - 2023. - arXiv:2305.14456.
6. Moorhouse B.L., Kohnke L. The effects of generative AI on initial language teacher education: The perceptions of teacher educators // System. - 2024. - Vol. 122. - Art. 103290.
7. Sarwari A.Q., Javed M.N., Adnan H.M., Wahab M.N.A. Assessment of the impacts of artificial intelligence (AI) on intercultural communication among postgraduate students in a multicultural university environment // Scientific Reports. - 2024. - Vol. 14. - Art. 13611.
8. Miao F., Holmes W. Guidance for generative AI in education and research. - Paris: UNESCO, 2023. - 44 p.
9. Mehrabi N., Morstatter F., Saxena N., Lerman K., Galstyan A. A survey on bias and fairness in machine learning // ACM Computing Surveys. - 2021. - Vol. 54, No. 6. - P. 1-35.
10. Long D., Magerko B. What is AI literacy? Competencies and design considerations // Proceedings of the 2020 CHI Conference on Human Factors in Computing Systems. - New York: ACM, 2020. - P. 1-16.
11. Tour E., Pegrum M., Macdonald S. Engaging English language learners in AI literacy practices: A conceptual framework and practical strategies for educators // English Australia Journal. - 2025. - Vol. 41, No. 1. - P. 27-46.
12. Stockwell G. ChatGPT in language teaching and learning: Exploring the road we're travelling // Technology in Language Teaching & Learning. - 2024. - Vol. 6, No. 1. - Art. 2273.
13. Moorhouse B.L., Wan Y., Wu C., Kohnke L., Ho T.Y., Kwong T. Developing language teachers' professional generative AI competence: An intervention study in an initial language teacher education course // System. - 2024. - Vol. 125. - Art. 103399.

TALABALARDA IMPOSTOR FENOMENI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARNING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O'RGANILGANLIK HOLATI

Kamilova Gulzoda
O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0007-1781-7059

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalar orasida impostor fenomenining shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik fanida o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Impostor fenomeni tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilishi, uning nazariy asoslari hamda talabalar populyatsiyasida tarqalganligi bo'yicha xorijiy tadqiqotlar sharhlangan. Oilaviy tarbiya uslubi, gender xususiyatlari, ijtimoiy taqqoslash, akademik muhit bosimi va etnik-institutsional omillarning fenomen shakllanishidagi o'rni ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: impostor fenomeni, impostor sindromi, o'z-o'zini baholash, akademik tashvish, ijtimoiy taqqoslash, perfeksionizm, talabalar psixologiyasi, ijtimoiy-psixologik omillar.

Abstract: This article analyzes the extent to which social-psychological factors influencing the formation of the impostor phenomenon among students have been studied in psychological research. It reviews the origin of the concept, its theoretical foundations, and foreign studies on the prevalence of the phenomenon in student populations. The role of parenting style, gender characteristics, social comparison, academic environment pressure, and ethnic-institutional factors in shaping the phenomenon is examined.

Key words: impostor phenomenon, impostor syndrome, self-esteem, academic anxiety, social comparison, perfectionism, student psychology, social-psychological factors.

Аннотация: В данной статье анализируется степень изученности в психологической науке социально-психологических факторов, влияющих на формирование феномена самозванца у студентов. Рассмотрены история введения понятия в научный оборот, его теоретические основания, а также зарубежные исследования распространённости феномена среди студенческой популяции. Проанализирована роль стиля семейного воспитания, гендерных особенностей, социального сравнения, давления академической среды и этно-институциональных факторов в формировании феномена.

Ключевые слова: феномен самозванца, синдром самозванца, самооценка, академическая тревожность, социальное сравнение, перфекционизм, психология студентов, социально-психологические факторы.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklarda oliy ta'lim tizimidagi raqobatning kuchayishi, akademik natijadorlikka qo'yiladigan talablarning ortishi hamda ta'lim muhitidagi psixologik bosimning kuchayishi talabalar shaxsining ichki resurslarini jiddiy sinovdan o'tkazmoqda. Ushbu sharoitda ko'plab, hatto yuqori akademik ko'rsatkichlarga ega talabalarda ham o'z qobiliyati va yutuqlariga nisbatan ichki ishonchsizlik, muvaffaqiyatlarini tasodif yoki tashqi omillar bilan izohlash hamda "fosh bo'lish"dan doimiy qo'rqish holati kuzatiladi. Psixologiya fanida bu hodisa impostor fenomeni nomi bilan yuritiladi va u shaxsning akademik faoliyatdagi psixologik farovonligiga, o'quv motivatsiyasiga hamda kasbiy o'zini-o'zi anglashiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatishi bilan tavsiflanadi.

Mavzuning dolzarbligi bir necha jihat bilan izohlanadi. Birinchidan, xorijiy tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, impostor kechinmalari talabalar orasida keng tarqalgan bo'lib, ayrim tadqiqotlarda bu ko'rsatkich 70 foizdan yuqori bo'lishi qayd etilgan, bu esa hodisaning ommaviy xususiyat kasb etishini ko'rsatadi. Ikkinchidan, impostor fenomeni psixologik distress, tashvish va depressiv holatlar bilan ijobiy bog'liqlikka ega bo'lib, talabaning o'quv faoliyatidagi samaradorligiga va ruhiy salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, mazkur hodisani shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar: oilaviy tarbiya uslubi, gender stereotiplar, ijtimoiy taqqoslash, madaniy-institutsional kontekst - ko'p jihatdan jamiyatning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga bog'liq bo'lib, bu omillarning har bir mintaqada o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishini taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Impostor fenomeni (inglizcha impostor phenomenon, ba'zan impostor syndrome deb ham ataladi) tushunchasi ilk bor 1978-yilda amerikalik psixologlar Paulina Klans (Pauline Clance) va Suzanna Aymes (Suzanne Imes) tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Ular yuqori yutuqlarga erishgan, ammo o'z muvaffaqiyatlarini ichki tan ololmaydigan va ularni tasodif yoki tashqi omillar bilan izohlaydigan shaxslarni tadqiq qilish jarayonida bu hodisani ta'riflashgan. Muhim jihati shundaki, mualliflar ataylab "sindrom" emas, balki "fenomen" atamasini tanlashgan - bu orqali ular hodisaning tibbiy tashxis emas, balki shaxsning subyektiv ichki kechinmasi ekanligini ta'kidlamoqchi bo'lishgan [2].

Impostor fenomeni bo'yicha tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri - uni ta'lim muassasalari, xususan, oliy o'quv yurtlari talabalari orasida o'rganish. 2023-yilda amalga oshirilgan keng qamrovli adabiyotlar tahlilida ta'kidlanishicha, impostor kechinmalari post-o'rta ta'lim (post-secondary) bosqichidagi talabalar orasida keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa, akademik muhitda allaqachon marginallashtirilgan guruhlar - masalan, ayollar va irqiy-etnik ozchiliklar vakillari orasida nisbatan ko'proq kuzatiladi [9].

Tibbiyot va sog'liqni saqlash sohasi talabalari orasida o'tkazilgan tadqiqotlar alohida e'tiborga loyiq, chunki bu yo'nalishda akademik bosim va professional javobgarlik yuqori bo'ladi. Tailandning Chiang Mai universitetida o'tkazilgan tadqiqotda klinik amaliyotdagi tibbiyot talabalarining deyarli yarmida (47,4%) impostor fenomeni alomatlari qayd etilgan [3]. Amerikaning bir universitetida sog'liqni saqlash sohasi talabalari orasida o'tkazilgan yaqinroq tadqiqotda esa bu ko'rsatkich yanada yuqori - 74 foizni tashkil etgan [6], biroq qiziqarli jihati shundaki, ushbu tadqiqotda hech qanday alohida demografik yoki psixologik omil impostor kechinmalarining mustaqil bashoratchisi sifatida aniqlanmagan, bu esa fenomenning talabalar orasida keng tarqalganligini va uning nafaqat alohida kichik guruhlarga xos ekanligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-psixologik omillar bo'yicha tadqiqotlarning tahlili

Impostor fenomenini shakllantiruvchi omillar orasida oilaviy munosabatlar alohida o'rin tutadi [11]. Indoneziyalik tadqiqotchilar tomonidan birinchi va ikkinchi kurs talabalari orasida o'tkazilgan tadqiqotda oilaviy munosabatlarning, umumiy tashvishning hamda "Katta beshlik" shaxsiy xususiyatlarining impostor fenomeniga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Xususan, emotsional, fiziologik, kognitiv, xulq-atvor, ekstraversiya va o'z-o'zini anglash kabi olti o'zgaruvchi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik topilgan, shu bilan birga, kogeziya, ifodalilik, konflikt, kelishuvchanlik, nevrotizm va ochiqlik kabi omillarning ta'siri tasdiqlanmagan [4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy-tahliliy, qiyosiy va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Impostor fenomeniga oid xorijiy psixologik tadqiqotlar o'rganilib, talabalarda uning shakllanishiga ta'sir etuvchi individual-psixologik, oilaviy, ijtimoiy va akademik omillar tahlil qilindi. Olingan ilmiy ma'lumotlar umumlashtirilib, fenomenning asosiy ijtimoiy-psixologik xususiyatlari aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlarda impostor fenomeni bilan uyat hissi va ijtimoiy tashvish o'rtasidagi bog'liqlik ham o'rganilmoqda. Baholovchi bosim va identifikatsiya o'tish davrida bo'lgan universitet talabalari darslarda taqdimot qilish, guruh muhokamalarida qatnashish va yordam so'rash kabi ijtimoiy vaziyatlarda impostor fenomeni sababli psixologik qochish va xulq-atvor ingibitsiyasini boshdan kechirish ehtimoli yuqoriroq bo'ladi. Kollektivistik madaniyatlarda bu holat ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunda impostor fenomeni muvaffaqiyatsizlikka uchrash va atrofdagilarning kutganlariga mos kelmaslikdan doimiy tashvishlanish orqali uyat hissini kuchaytiradi [1].

Amerika tadqiqotlarida etnik-irqiy tegishlilik va ta'lim muassasasining institutsional tarkibi ham muhim omil sifatida o'rganilgan. Afroamerikalik talabalar orasida o'tkazilgan tadqiqotda impostor fenomeni psixologik moslashuvning muhim xavf omili sifatida qaralgan, bunda oilaviy tashvishlar - jumladan, yuqori akademik kutuvlarga javob berish bosimi va aybdorlik hissi - alohida ta'kidlangan [8].

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, impostor fenomeni xorijiy psixologiya fanida 1978-yildan buyon faol o'rganilib kelinmoqda va bu yo'nalishdagi tadqiqotlar soni so'nggi o'n yillikda sezilarli darajada oshgan. Talabalar populyatsiyasi bo'yicha alohida tadqiqotlar oila munosabatlari, ota-ona tarbiyasi uslubi, gender xususiyatlari, ijtimoiy taqqoslash tendensiyasi, akademik muhit bosimi, madaniy kontekst hamda etnik-institutsional omillarning impostor fenomeni shakllanishidagi rolini izchil isbotlab kelmoqda.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning katta qismi G'arb va, qisman, Sharqiy Osiyo ta'lim tizimlari kontekstida olib borilgan bo'lib, markaziy osiyolik, jumladan, o'zbekistonlik talabalarga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlar - jumladan, kollektivistik oilaviy tarbiya, jamoatchilik nazorati, mahalla-madaniy an'analar va milliy ta'lim

tizimining o‘ziga xos bosim mexanizmlari - hisobga olingan holda o‘rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy dolzarbligini va nazariy-amaliy ahamiyatini belgilaydigan asosiy omil hisoblanadi hamda talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni mahalliy sharoitda maxsus tadqiq etishni taqozo etadi.

Psixologik tadqiqotlar tahlili talabalarda impostor fenomenining shakllanishi birgina individual-psixologik xususiyat bilan emas, balki shaxsiy, ijtimoiy, oilaviy va ta’lim muhitiga oid omillarning o‘zaro ta’siri bilan bog‘liq murakkab hodisa ekanligini ko‘rsatadi. Impostor fenomeni yuqori natijalarga erishgan shaxsning o‘z muvaffaqiyatlarini ichki qobiliyat va kompetensiyasi bilan bog‘lay olmasligi, erishilgan yutuqlarni tashqi omillar - omad, tasodif, boshqalarning yordami yoki ortiqcha mehnat natijasi sifatida baholashi hamda o‘zining “qobiliyatsizligi” boshqalar tomonidan aniqlanib qolishidan xavotirlanishi bilan tavsiflanadi.

Talabalik davri mazkur fenomenning namoyon bo‘lishi uchun alohida ahamiyatga ega psixologik bosqich hisoblanadi. Chunki bu davrda shaxs yangi akademik muhitga moslashadi, o‘z imkoniyatlarini tengdoshlari bilan taqqoslaydi, kasbiy identifikatsiyasini shakllantiradi va o‘z faoliyati natijalariga nisbatan mustaqil baholash mezonlarini rivojlantiradi. Akademik talablarning ortishi, reyting tizimi, doimiy baholanish, yuqori natija ko‘rsatishga intilish va raqobat muhiti ayrim talabalarda o‘z imkoniyatlariga shubha bilan qarashni kuchaytirishi mumkin.

Tadqiqotlarda impostor fenomeni bilan bog‘liq individual-psixologik omillar orasida perfektsionizm, o‘z-o‘zini past baholash, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish, yuqori darajadagi xavotir, o‘ziga nisbatan haddan tashqari talabchanlik hamda muvaffaqiyatni tashqi sabablar bilan izohlash tendensiyasi alohida ajratiladi. Ayniqsa, perfektsionistik talablar talabaning kichik xato yoki kamchiliklarni ham umumiy qobiliyatsizlik belgisi sifatida qabul qilishiga olib kelishi mumkin. Natijada obyektiv jihatdan yuqori akademik natijalarga ega talaba ham o‘z bilim va kompetensiyasini yetarli deb hisoblamaydi.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan esa referent guruhning bahosi, tengdoshlar bilan ijtimoiy taqqoslash, o‘qituvchilarning munosabati, akademik raqobat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi va shaxsga nisbatan bildiriladigan kutilmalar muhim o‘rin egallaydi. Talaba doimiy ravishda o‘zidan yuqori natija ko‘rsatayotgan tengdoshlari bilan o‘zini taqqoslashi natijasida shaxsiy yutuqlarini yetarlicha qadrlamasligi mumkin. Bunda ijtimoiy taqqoslash mexanizmi o‘z imkoniyatlarini obyektiv baholash vositasi bo‘lishdan chiqib, o‘zini boshqalardan past baholash manbaiga aylanish ehtimoli mavjud.

Zamonaviy raqamli muhit ham ushbu jarayonni kuchaytiruvchi omillardan biri sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlarda boshqa talabalarning akademik muvaffaqiyatlari, stipendiyalari, tanlovlardagi g‘alabalari, xalqaro dasturlardagi ishtiroki yoki kasbiy yutuqlarining ko‘proq namoyish etilishi insonda boshqalarning hayotini ideal holatda tasavvur qilish tendensiyasini yuzaga keltiradi. Natijada talaba o‘zining kundalik qiyinchiliklarini boshqalarning namoyish etilayotgan muvaffaqiyatlari bilan taqqoslab, o‘z kompetentligiga nisbatan shubhani kuchaytirishi mumkin.

Oilaviy munosabatlar ham impostor fenomenining psixologik asoslarini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Bolalikdan yuqori natijalar talab qilinishi, yutuqlarning yetarlicha e’tirof etilmasligi, bolaning boshqa tengdoshlari bilan muntazam taqqoslanishi yoki ota-onalar tomonidan shartli qo‘llab-quvvatlashning ustunligi keyinchalik shaxsning o‘z qadrini faqat natija orqali baholashiga zamin yaratishi mumkin. Bunday sharoitda talaba muvaffaqiyatni tabiiy rivojlanish natijasi sifatida emas, balki doimiy ravishda o‘z qiymatini isbotlash vositasi sifatida qabul qilishi ehtimoli ortadi.

Shuningdek, ta’lim muhitidagi psixologik xavfsizlik darajasi muhim omil hisoblanadi. Xatoga rivojlanish va o‘rganishning tabiiy elementi sifatida qaraladigan, o‘qituvchi tomonidan konstruktiv fikr-mulohaza beriladigan va talabalar o‘rtasida sog‘lom hamkorlik mavjud bo‘lgan muhit impostor kechinmalarining kamayishiga xizmat qilishi mumkin. Aksincha, faqat yakuniy natijaga yo‘naltirilgan, xatolar keskin tanqid qilinadigan va talabalar doimiy ravishda o‘zaro solishtiriladigan akademik muhit mazkur fenomenning namoyon bo‘lishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoit yaratishi mumkin.

Tahlil qilinayotgan tadqiqotlardan kelib chiqib, impostor fenomenini faqat salbiy shaxsiy xususiyat sifatida talqin qilish yetarli emas. Uni talabaning o‘zini baholash tizimi, akademik tajribasi, ijtimoiy taqqoslash jarayonlari, referent shaxslarning munosabati va ta’lim muhitining xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik doirasida o‘rganish maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan, kelgusidagi empirik tadqiqotlarda impostor fenomenining darajasini aniqlash bilan bir qatorda, unga ta’sir qiluvchi omillar va himoya resurslarini ham kompleks baholash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Psixologik tadqiqotlarning nazariy tahlili talabalarda impostor fenomenining shakllanishi ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligini ko‘rsatadi. Mazkur fenomen talabaning real akademik muvaffaqiyatlari bilan o‘z kompetentligini subyektiv baholashi o‘rtasidagi nomuvofiqlikda namoyon bo‘lib, shaxsning o‘z yutuqlarini

ichki imkoniyatlari bilan bog‘lay olmasligi, muvaffaqiyatni tashqi sabablar bilan izohlashi va o‘zining yetarlicha kompetent emasligi aniqlanib qolishidan xavotirlanishi bilan xarakterlanadi.

Tahlil natijasida talabalarda impostor fenomeniga ta’sir qiluvchi asosiy omillarni individual-psixologik, oilaviy, ijtimoiy va akademik omillar guruhlariga ajratish mumkinligi aniqlandi. Perfeksionizm, o‘z-o‘zini past baholash, muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rqish va yuqori talabchanlik individual omillar sifatida namoyon bo‘lsa, ota-onalarning yuqori kutilmalari va shartli qo‘llab-quvvatlashi oilaviy omillar qatoriga kiradi. Tengdoshlar bilan muntazam taqqoslash, ijtimoiy tarmoqlardagi idealizatsiyalangan muvaffaqiyat namunalari va tashqi bahoga qaramlik ijtimoiy omillar sifatida, akademik raqobat, baholash tizimi hamda ta’lim muhitidagi psixologik xavfsizlik esa institutsional omillar sifatida ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, adekvat o‘z-o‘zini baholash, o‘z muvaffaqiyatlarini obyektiv tahlil qila olish, konstruktiv fikr-mulohaza va psixologik xavfsiz ta’lim muhiti impostor kechinmalarini kamaytiruvchi himoya omillari bo‘lishi mumkin. Shuning uchun oliy ta’lim muassasalarida talabalarning nafaqat akademik natijalarini, balki ularning o‘ziga munosabati, psixologik farovonligi va ijtimoiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratish muhimdir.


Umuman, talabalarda impostor fenomenini o‘rganishda kompleks ijtimoiy-psixologik yondashuvdan foydalanish ushbu hodisaning kelib chiqish mexanizmlari, kuchaytiruvchi va himoya qiluvchi omillarini chuqurroq tushuntirish imkonini beradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda talabalarning yoshi, ta’lim bosqichi, akademik muvaffaqiyati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi, perfeksionizm va o‘z-o‘zini baholash xususiyatlari bilan impostor fenomeni o‘rtasidagi bog‘liqlikni empirik jihatdan tekshirish ushbu muammoning ilmiy-amaliy yechimlarini ishlab chiqishda muhim istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Chuan He, Lin Ye (2026). Associations among impostor phenomenon, self-compassion, shame, and social anxiety in college students. Frontiers in Psychology, 17.
2. Clance, P. R., Imes, S. A. (1978). The impostor phenomenon in high achieving women: Dynamics and therapeutic intervention. Psychotherapy: Theory, Research and Practice, 15(3), 241-247.
3. Shinawatra, P., Kasirawat,. (2023). Exploring Factors Affecting Impostor Syndrome among Undergraduate Clinical Medical Students at Chiang Mai University, Thailand: A Cross-Sectional Study. Behavioral Sciences, 13, 976.
4. Umi Dhiya Fahira, Bahrul Hayat. (2021). Impostor Phenomenon on First- and Second-year College Students. Tazkiya: Journal of Psychology, 9(2), 177-188.
5. Rowell, H., Schroeder, M. N., Howard, M. S., Murphy, J. A. (2025). Identification of risk factors for impostor phenomenon among healthcare professional students. Currents in Pharmacy Teaching and Learning.
6. Fassl, F., Yanagida, T., Kollmayer, M. (2020). Impostors Dare to Compare: Associations Between the Impostor Phenomenon, Gender Typing, and Social Comparison Orientation in University Students. Frontiers in Psychology, 11, 1225.
7. Bernard, D. L., Jones, S. C. T., Volpe, V. V. (2020). Impostor Phenomenon and Psychological Well-Being: The Moderating Roles of John Henryism and School Racial Composition Among Black College Students. Journal of Black Psychology, 46(2-3), 195-227.
8. Audrey D.Ménard. (2023). The impostor phenomenon in post-secondary students: A review of the literature. Review of Education, 11, e3399.
9. Sonnak, C., Towell, T. (2001). The impostor phenomenon in British university students: Relationships between self-esteem, mental health, parental rearing style and socioeconomic status. Personality and Individual Differences, 31(6), 863-874.
10. Пермякова, М. Е., Бабушкина, А. А. (2025). Исследование феномена самозванца в связи с личностными характеристиками и копинг-стратегиями у людей зрелого возраста. Известия Уральского федерального университета. Серия 1. Проблемы образования, науки и культуры, 31(4), 221-234.
11. Руднова, Н. А., Шевелева, М. С. (2025). Особенности организационного поведения сотрудников с феноменом самозванца. Национальный психологический журнал, 20(1), 86-97.
12. Шевелева, М. С. (2023). Феномен самозванца: обзор зарубежных исследований. Современная зарубежная психология, 12(2), 116-124.

PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA





Ahmedova Nilufar Farxodovna
Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

Mamatqulova Dildora Farxodovna
Qarshi davlat texnika universiteti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi uslubchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada pedagogik innovatsiyalar va ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari chuqur tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va o'quvchilarda kreativ fikrlashni shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro tajribalar bilan solishtirilib, ularning samaradorligi baholanadi. Maqolada mavjud muammolar - internet infratuzilmasining yetarli emasligi, o'qituvchilarning raqamli ko'nikmalaridagi kamchiliklar - ko'rsatilib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari pedagogik innovatsiyalarni keng joriy etish va ta'lim tizimini global raqamli standartlarga moslashtirish zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: Pedagogik innovatsiyalar, raqamli transformatsiya, ta'lim tizimi, axborot texnologiyalari, raqamli kompetensiya, masofaviy ta'lim, STEAM.

Abstract: This scientific article provides an in-depth analysis of pedagogical innovations and the processes of digital transformation in the education system. Digital technologies are considered as a crucial factor in improving the quality of education, personalizing the learning process, developing teachers' digital competencies, and fostering creative thinking among students. In Uzbekistan's education system, reforms implemented under the "Digital Uzbekistan - 2030" strategy are compared with international practices, and their effectiveness is evaluated. The article highlights existing challenges - insufficient internet infrastructure and gaps in teachers' digital skills - and proposes solutions to overcome them. The research results justify the need for widespread implementation of pedagogical innovations and adaptation of the education system to global digital standards.

Key words: Pedagogical innovations, digital transformation, education system, information technologies, digital competence, distance education, STEAM.

Аннотация: В данной научной статье подробно анализируются педагогические инновации и процессы цифровой трансформации в системе образования. Цифровые технологии рассматриваются как важный фактор повышения качества образования, персонализации учебного процесса, развития цифровых компетенций преподавателей и формирования креативного мышления у обучающихся. В системе образования Узбекистана реформы, реализуемые в рамках стратегии "Цифровой Узбекистан - 2030", сопоставляются с международным опытом, и оценивается их эффективность. В статье обозначены существующие проблемы - недостаточность интернет-инфраструктуры, пробелы в цифровых навыках преподавателей - и предложены пути их решения. Результаты исследования обосновывают необходимость широкого внедрения педагогических инноваций и адаптации системы образования к глобальным цифровым стандартам.

Ключевые слова: Педагогические инновации, цифровая трансформация, система образования, информационные технологии, цифровая компетентность, дистанционное образование, STEAM.

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimi global raqamli o'zgarishlar ta'sirida tubdan yangilanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonini tashkil etishning an'anaviy usullarini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda. Pedagogik innovatsiyalar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish hamda zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli transformatsiya esa ta'limni yangi bosqichga olib chiqib, uning ochiqligi, moslashuvchanligi va shaxsiylashtirilishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham ta'limni raqamlashtirish va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi doirasida ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, elektron darsliklar va raqamli kutubxonalarni rivojlantirish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish hamda pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan.

Pedagogik innovatsiyalarni raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilim olish jarayonini shaxsiylashtirish va o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida internet infratuzilmasining yetarli emasligi, pedagoglarning raqamli kompetensiyalaridagi farqlar hamda o'quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari bog'lanib qolishi kabi muammolar ham mavjud.

Tadqiqotning maqsadi pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini aniqlash, O'zbekiston tajribasini xalqaro tajriba bilan qiyosiy tahlil qilish hamda mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot obyekti - ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash jarayoni. Tadqiqot predmeti esa pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning ta'lim sifatiga ta'siridir. Tadqiqotning ilmiy yangiligi O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamli islohotlarni AQSh, Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreya tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilish orqali ularning asosiy imkoniyatlari va muammolarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik innovatsiyalar ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan yangi metodlar, texnologiyalar, shakllar va yondashuvlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda innovatsion ta'lim o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish, uning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Pedagogik innovatsiyalarni nazariy jihatdan izohlashda konstruktivizm muhim yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, o'quvchi bilimni tayyor shaklda qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil faoliyat, tajriba va o'zaro hamkorlik orqali shakllantiruvchi subyekt hisoblanadi. Bunda o'qituvchi bilimning yagona manbai sifatida emas, balki o'quvchining ta'lim olish faoliyatini yo'naltiruvchi pedagog sifatida namoyon bo'ladi. Raqamli texnologiyalar esa izlanish, hamkorlik, axborot almashinuvi va amaliy faoliyat uchun qo'shimcha imkoniyat yaratadi.

Kognitiv yondashuvda raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning axborotni qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va undan foydalanish jarayonlariga ta'siri muhim o'rin egallaydi. Multimedia, interaktiv topshiriqlar va vizual materiallardan foydalanish murakkab axborotni o'zlashtirishni yengillashtirishi mumkin. Shu bilan birga, raqamli vositalardan haddan tashqari foydalanish diqqatning chalg'ishi va texnologiyaga qaramlik kabi muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud. Pedagogik adabiyotlarda gamifikatsiya, STEAM va loyiha asosida o'qitish kabi innovatsion metodlar ham keng yoritilgan. Gamifikatsiya o'quv jarayoniga ball, reyting, mukofot va interaktiv topshiriqlar kabi o'yin elementlarini kiritish orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikaning integratsiyasiga asoslanadi. Mazkur yondashuv o'quvchilarda kompleks fikrlash, ijodkorlik va amaliy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Loyiha asosida o'qitish esa o'quvchilarni real hayotiy muammolarni hal qilish jarayoniga jalb etadi. Mazkur metod mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik, jamoada ishlash va mas'uliyatni shakllantirish uchun qulay pedagogik muhit yaratadi.

Raqamli transformatsiya masalasida xalqaro tajriba ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. AQShda Khan Academy va Coursera kabi ta'lim platformalari raqamli va masofaviy ta'limning ommalashishiga katta hissa qo'shgan. Yevropa Ittifoqida "Digital Education Action Plan" orqali raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish va ta'lim tizimini texnologik jihatdan modernizatsiya qilishga e'tibor qaratilgan. Janubiy Koreyada "Smart School" konsepsiyasi asosida maktablarning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishga ustuvor ahamiyat berilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida ham raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy etish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanmoqda. Elektron darsliklar, raqamli kutubxonalar, masofaviy ta'lim tizimlari va STEAM yo'nalishlarining rivojlanishi pedagogik innovatsiyalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning ta'lim tizimidagi o'rnini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda nazariy, qiyosiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini konstruktivizm, kognitiv yondashuv va innovatsion ta'lim modeli tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar orqali raqamli texnologiyalarning o'quvchilarning bilim olish faoliyati, ijodiy fikrlashi va mustaqil ta'lim olishiga ta'siri tahlil qilindi. Tadqiqot davomida pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaga oid ilmiy adabiyotlar, strategik hujjatlar hamda xalqaro tajribalar o'rganildi. Shuningdek, O'zbekiston tajribasi AQSh, Yevropa Ittifoqi va Janubiy Koreyada amalga oshirilayotgan raqamli ta'lim modellari bilan qiyoslandi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- nazariy tahlil - pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning mazmun-mohiyatini aniqlash;
- qiyosiy tahlil - O'zbekiston tajribasini xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirish;
- tizimli yondashuv - raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonining turli tarkibiy qismlariga ta'sirini o'rganish;
- umumlashtirish - mavjud ilmiy qarashlar va amaliy tajribalar asosida xulosalar shakllantirish.

Tahlil jarayonida ta'lim sifati, o'quv jarayonini shaxsiylashtirish, o'quvchilarning motivatsiyasi, kreativ va tanqidiy fikrlashi hamda o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari asosiy mezonlar sifatida belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya o'zaro chambarchas bog'liq jarayonlar ekanligini ko'rsatdi. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga joriy etilishi yangi pedagogik metodlardan samarali foydalanish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Biroq texnologiyaning mavjudligi o'z-o'zidan yuqori ta'lim sifatini kafolatlamaydi. Uning samaradorligi pedagogik maqsad va metodlar bilan to'g'ri uyg'unlashtirilishiga bog'liq. Elektron darsliklar va raqamli kutubxonalar o'quvchilarning ta'lim resurslariga tezkor kirishini ta'minlaydi. Multimedia elementlari, videolar, animatsiyalar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish mavzularni tushunishni osonlashtiradi. Bundan tashqari, o'quvchilar o'zlariga qulay vaqtda mustaqil ravishda qo'shimcha materiallarni o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Masofaviy ta'lim platformalari o'quv jarayonini tashkil etish, topshiriqlarni yuborish, baholash va o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida fikr almashish jarayonlarini soddalashtiradi. Moodle, Google Classroom va Kundalik.com kabi platformalardan foydalanish ta'lim jarayonining raqamli muhitda tashkil etilishiga imkon beradi. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar, ayniqsa, tabiiy va texnik fanlarni o'qitishda muhim ahamiyatga ega. Ular real laboratoriya sharoitida bajarish murakkab yoki xavfli bo'lgan tajribalarni virtual muhitda amalga oshirish imkonini beradi. Natijada o'quvchilar nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish esa ta'limni shaxsiylashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. O'quvchining bilim darajasi, o'zlashtirish sur'ati va xatolarini tahlil qilish orqali individual topshiriqlar va tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Shu bilan birga, sun'iy intellektdan foydalanishda akademik halollik, mustaqil fikrlash va pedagogik nazorat masalalariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Pedagogik innovatsiyalar orasida gamifikatsiya alohida ahamiyatga ega. O'yin elementlari, ball va reyting tizimlaridan foydalanish o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirishi mumkin. Biroq gamifikatsiya faqat o'yin-kulgi vositasi emas, balki aniq ta'limiy maqsadga xizmat qiladigan metod sifatida qo'llanilishi lozim. STEAM yondashuvi esa fanlararo integratsiyani ta'minlab, o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy vazifalar bilan bog'lashga yordam beradi. O'quvchilar bir vaqtning o'zida ilmiy, texnik va ijodiy yondashuvlardan foydalanib, muayyan muammoga yechim izlaydilar. Bu esa kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvni rivojlantiradi.

Loyiha asosida o'qitish metodining samaradorligi ham o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga bog'liq. Loyiha davomida o'quvchilar muammoni aniqlaydi, ma'lumot izlaydi, uni tahlil qiladi, yechim ishlab chiqadi va natijani taqdim etadi. Shu sababli mazkur metod o'quvchilarda nafaqat fan bo'yicha bilim, balki jamoada ishlash, muloqot qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

O'zbekiston tajribasini xalqaro tajriba bilan qiyoslash shuni ko'rsatadiki, rivojlangan ta'lim tizimlarida raqamlashtirish faqat texnik vositalarni joriy etish bilan cheklanmaydi. AQShda raqamli ta'lim platformalari va EdTech xizmatlari ta'limning moslashuvchanligini oshirishga xizmat qilmoqda. Yevropa Ittifoqida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish davlat ta'lim siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Janubiy Koreyada esa maktablarning raqamli infratuzilmasini rivojlantirish va "Smart School" modelini shakllantirishga katta e'tibor berilgan. O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi asosida ta'limni raqamlashtirish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Elektron ta'lim resurslarini yaratish, masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish mazkur jarayonning asosiy yo'nalishlarini tashkil etadi.

Biroq tahlil natijasida raqamli transformatsiyani rivojlantirishga to‘sqinlik qiluvchi bir qator muammolar ham aniqlandi.

Birinchi muammo - **internet infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi.** Hududlar o‘rtasidagi texnik imkoniyatlar farqi raqamli ta’limdan teng foydalanish imkoniyatlariga ta’sir qilishi mumkin.

Ikkinchi muammo - **o‘qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurati.** Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish uchun pedagog nafaqat texnik ko‘nikmalarga, balki raqamli pedagogika metodlariga ham ega bo‘lishi kerak.

Uchinchi muammo - **o‘quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari bog‘lanib qolishi.** Raqamli vositalardan me’yoridan ortiq foydalanish diqqatning susayishi, jonli muloqotning kamayishi va mustaqil fikrlash jarayonining zaiflashishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli raqamli transformatsiya jarayonida texnologik vositalar bilan an’anaviy pedagogik metodlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash muhimdir. Raqamli texnologiyalar o‘qituvchining o‘rnini to‘liq egallashi emas, balki uning pedagogik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashi va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, ta’limning samarali raqamli transformatsiyasi uchta asosiy omilga bog‘liq: zamonaviy raqamli infratuzilma, raqamli kompetensiyaga ega pedagoglar va pedagogik jihatdan to‘g‘ri tashkil etilgan innovatsion ta’lim jarayoni. Ushbu omillarning o‘zaro uyg‘unligi ta’lim sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya zamonaviy ta’lim tizimining rivojlanishida strategik ahamiyatga ega. Tadqiqot davomida gamifikatsiya, STEAM, loyiha asosida o‘qitish, elektron darsliklar, masofaviy ta’lim platformalari, virtual laboratoriyalar va sun’iy intellekt kabi vositalarning ta’lim jarayonini takomillashtirishdagi imkoniyatlari tahlil qilindi. Tahlil natijalari innovatsion pedagogik metodlar o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini, mustaqil ta’lim olish hamda muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Raqamli texnologiyalar esa mazkur metodlarni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratib, ta’limni yanada moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan shaklda tashkil etishga yordam beradi.

O‘zbekiston tajribasi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi doirasida ta’limni raqamlashtirish jarayoni izchil rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, internet infratuzilmasidagi mavjud tafovutlar, pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini yanada rivojlantirish zarurati va o‘quvchilarning texnologiyaga haddan tashqari bog‘lanib qolishi kabi muammolarni bartaraf etish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Mazkur muammolarni hal etish uchun pedagoglarni raqamli pedagogika bo‘yicha muntazam qayta tayyorlash, hududlarda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion ta’lim loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, xalqaro tajriba almashinuvini kengaytirish hamda sun’iy intellekt va boshqa zamonaviy texnologiyalardan mas’uliyatli foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiyaning uyg‘unlashuvi ta’lim tizimini zamonaviy talablar asosida rivojlantirish, o‘quvchilarning bilim olish samaradorligini oshirish va O‘zbekiston ta’limining xalqaro raqobatbardoshligini ta’minlashning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasi. Toshkent, 2020.
2. UNESCO. Digital Education Report. Paris, 2024.
3. OECD. Innovative Pedagogy and Digital Learning. Paris, 2023.
4. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. International Journal of Instructional Technology, 2024.
5. Sheraliyev S.K. Gamifikatsiya va ta’lim. Zenodo, 2026.
6. Axmedova N.F., Samandarova Sh.M., Mamatqulova D.F. Formation of Psychology and Pedagogy as Interdisciplinary Sciences. Italy, 2025.
7. Mamatqulova D.F. Innovative Developments and Research in Education. International Scientific-Online Conference. Canada, 2025.
8. Pulatova D., Mamatqulova D.F. Prospects for Innovative Technologies in Science and Education. International Online Conference. Germany, 2026.
9. Rustamov A.B., Mamatqulova D.F. International Journal of Science Scientific Bulletin. ISSN: 306-4583, Volume 4, Issue 1, 2025.

INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA INTERFAOL METODLAR ORQALI O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Shukurullayeva Madina
A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti
3.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada inklyuziv ta'lim muhitida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Inklyuziv sinfda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi, o'z fikrini ifodalashi va hamkorlikdagi faoliyatda ishtirok etishining ahamiyati asoslangan. Kommunikativ ko'nikmalarning axborot-kommunikativ, nazorat-kommunikativ va affektiv-kommunikativ tarkibiy jihatlari yoritilgan. "Aqliy hujum", "Rolli o'yin", "Bahs-munozara", "Juftlikda ishlash" va "Kichik guruhlarda ishlash" metodlarining kommunikativ rivojlanishga ta'siri tahlil etilgan. Interfaol metodlarni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirish zarurati aniqlangan. Nazariy tahlil asosida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishning asosiy pedagogik shart-sharoitlari tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijalari interfaol metodlardan maqsadli foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligi, hamkorligi va ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish imkoniyatini kengaytirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, alohida ta'lim ehtiyojlari, interfaol metod, kommunikativ ko'nikma, kommunikativ kompetentlik, muloqot, hamkorlik, ijtimoiylashuv.

Abstract: The article analyzes the pedagogical potential of interactive methods for developing students' communication skills in an inclusive educational environment. It substantiates the importance of communication, self-expression, and participation in collaborative activities between students with special educational needs and their peers. The informational-communicative, regulatory-communicative, and affective-communicative components of communication skills are considered. The effects of brainstorming, role-playing, discussion, pair work, and small-group work on students' communicative development are analyzed. Particular attention is paid to adapting interactive methods to the individual abilities and educational needs of learners. Based on theoretical analysis, the main pedagogical conditions for developing communication skills are systematized. The findings indicate that the purposeful use of interactive methods can enhance students' speech activity, cooperation, meaningful participation, and social adaptation in inclusive classrooms.

Key words: inclusive education, special educational needs, interactive methods, communication skills, communicative competence, communication, cooperation, socialization.

Аннотация: В статье анализируются педагогические возможности использования интерактивных методов для формирования коммуникативных навыков учащихся в условиях инклюзивного образования. Обосновывается значение общения, выражения собственного мнения и участия в совместной деятельности учащихся с особыми образовательными потребностями со сверстниками. Раскрываются информационно-коммуникативный, регулятивно-коммуникативный и аффективно-коммуникативный компоненты коммуникативных навыков. Анализируется влияние методов "Мозговой штурм", "Ролевая игра", "Дискуссия", "Работа в парах" и "Работа в малых группах" на коммуникативное развитие учащихся. Определена необходимость адаптации интерактивных методов к индивидуальным возможностям учащихся с особыми образовательными потребностями. На основе теоретического анализа систематизированы основные педагогические условия развития коммуникативных навыков. Сделан вывод о том, что целенаправленное использование интерактивных методов способствует развитию речевой активности, сотрудничества и социальной адаптации учащихся.

Ключевые слова: инклюзивное образование, особые образовательные потребности, интерактивные методы, коммуникативные навыки, коммуникативная компетентность, общение, сотрудничество, социализация.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida barcha o'quvchilarga individual xususiyatlari va ta'lim ehtiyojlaridan qat'i nazar sifatli ta'lim olish uchun teng imkoniyat yaratish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim olishda teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan ta'lim shakli sifatida belgilangan [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son[1] qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son[2] qarori bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish, ularni umumiy ta'lim jarayoniga jalb etish va zarur pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirishning huquqiy asoslari mustahkamlandi [2; 3].

Inklyuziv ta'limning samaradorligi o'quvchining faqat ta'lim tashkilotida yoki sinfda jismonan mavjudligi bilan belgilanmaydi. O'quvchining tengdoshlari bilan o'zaro munosabat o'rnatishi, o'z fikri va ehtiyojlarini ifodalashi, suhbatdoshini tinglashi, savol berishi, hamkorlikdagi faoliyatda qatnashishi va o'zini sinf jamoasining teng huquqli a'zosi sifatida his qilishi ham inklyuziyaning muhim ko'rsatkichlaridir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan ayrim o'quvchilarda o'z fikrini bayon etish, yangi muhitga moslashish, tengdoshlari bilan juftlik va guruhda ishlash hamda kommunikativ vaziyatlarda mustaqil ishtirok etish bilan bog'liq qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bunday holat bolaning nafaqat ta'lim natijalariga, balki ijtimoiylashuvi va shaxsiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [4].

Shu sababli inklyuziv ta'lim jarayonida kommunikativ ko'nikmalarni maqsadli shakllantirish va buning uchun o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiruvchi pedagogik usullardan foydalanish alohida ahamiyatga ega.

Mazkur nuqtayi nazardan interfaol metodlar o'quvchilar o'rtasida bevosita muloqot, o'zaro ta'sir, fikr almashish va birgalikdagi faoliyatni tashkil etishi bilan inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillariga mos keladi.

Tadqiqotning obyekti - inklyuziv ta'lim muhitida o'quvchilarning ta'lim-tarbiya jarayoni.

Tadqiqotning predmeti - interfaol metodlar asosida o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqotning maqsadi - inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va metodik jihatdan asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

- kommunikativ ko'nikma tushunchasining pedagogik mohiyatini tahlil qilish;
- inklyuziv ta'lim muhitida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- interfaol metodlarning kommunikativ rivojlanishga ta'sir etish imkoniyatlarini o'rganish;
- interfaol metodlarni inklyuziv sinf sharoitiga moslashtirishning pedagogik shartlarini tizimlashtirish;
- kommunikativ yo'naltirilgan interfaol faoliyatni tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kommunikativ rivojlanish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida turli ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq etilgan.

L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlarida bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit va boshqa insonlar bilan o'zaro munosabat jarayoni bilan uzviy bog'langan. Olimning fikriga ko'ra, yuqori psixik funksiyalar dastlab shaxslararo munosabatlarda, keyinchalik esa shaxsning ichki psixologik tuzilmasida shakllanadi [5]. Mazkur nazariy yondashuv inklyuziv ta'limda tengdoshlar va pedagog bilan hamkorlikdagi faoliyatning ahamiyatini asoslash imkonini beradi.

A.A. Leontyev kommunikatsiyani shunchaki axborot almashish emas, balki inson faoliyatining alohida shakli sifatida izohlaydi. Nutq va kommunikativ faoliyat insonning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi va boshqalarga yetkazishida muhim vosita sanaladi [6].

Kommunikativ kompetentlik shaxsning faqat to'g'ri gapirishi bilan cheklanmaydi. U suhbatdoshni tinglash, muloqot vaziyatini tushunish, fikrni maqsadga muvofiq ifodalash, suhbat jarayonini boshqarish, boshqalarning pozitsiyasini anglash va hamkorlikni tashkil etish kabi ko'nikmalarni ham qamrab oladi.

1 https://lex.uz/docs/-5044711
2 https://lex.uz/ru/docs/-5679836

Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqiy va kommunikativ rivojlanish masalalari turli yo'nalishlarda o'rganilgan. D.A. Nazarova zaif eshituvchi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini, L.R. Mo'minova nutq rivojlanishidagi kamchiliklarni korreksiyalashning pedagogik asoslarini, U.Yu. Fayziyeva esa nutqni rivojlantirishning metodik jihatlarini tadqiq qilgan [7; 8; 9].

Inklyuziv ta'lim sharoitida esa kommunikativ ko'nikma alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bola ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda o'qituvchi va tengdoshlari bilan hamkorlik qiladi, savol beradi, javob beradi, yordam so'raydi, o'z fikrini himoya qiladi va turli ijtimoiy vaziyatlarda ishtirok etadi.

V.S. Tretyakova tadqiqotlari ayrim o'quvchilar inklyuziv sinfda jismonan mavjud bo'lsalar-da, kommunikativ jihatdan ajralib qolishlari mumkinligini ko'rsatadi [10]. Bu holat inklyuziv ta'limda "mavjud bo'lish" va "faol ishtirok etish" tushunchalarini bir-biridan farqlash zarurligini ko'rsatadi.

Y.A. Romanova, A.Yu. Mustapayeva va L.Yu. Belenkovaning ishlarida o'yin hamda interfaol faoliyat boshlang'ich sinf o'quvchilarining faolligi, mustaqil fikrlashi va o'zaro muloqotini rivojlantiruvchi samarali pedagogik vosita sifatida talqin etiladi [11; 12; 13].

Ilmiy adabiyotlarning tahlili kommunikativ rivojlanish, interfaol ta'lim va inklyuziv ta'lim masalalari alohida-alohida keng tadqiq qilinganini ko'rsatadi. Biroq interfaol metodlarni aynan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning kommunikativ ehtiyojlariga moslashtirish, metodlarni kommunikativ maqsad asosida tanlash hamda o'quvchining faol ishtirokini baholashga qaratilgan yaxlit metodik yondashuvni rivojlantirish dolzarbligicha qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan, kommunikativ va inklyuziv pedagogik yondashuvlar tashkil etdi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Nazariy metodlar** - tadqiqot muammosiga doir pedagogik, psixologik va maxsus pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish;
2. **Qiyosiy tahlil** - an'anaviy va interfaol pedagogik faoliyatning kommunikativ imkoniyatlarini o'zaro solishtirish;
3. **Pedagogik modellashtirish** - inklyuziv sinfda kommunikativ faoliyatni tashkil etuvchi interfaol metodlarning mazmuniy aloqalarini aniqlash;
4. **Kontent-tahlil** - kommunikativ ko'nikmalarni tavsiflovchi tushunchalar, mezonlar va pedagogik shart-sharoitlarni ilmiy manbalar asosida guruhlashtirish.

Tahlilda kommunikativ ko'nikmaning uchta asosiy tarkibiy yo'nalishi asos sifatida olindi:

1. **Axborot-kommunikativ komponent** - muloqotga kirishish, savol berish, axborotni uzatish va qabul qilish, verbal va noverbal vositalardan foydalanish;
2. **Nazorat-kommunikativ komponent** - o'z kommunikativ xatti-harakatlarini suhbatdosh va vaziyatga moslashtirish, birgalikdagi faoliyatni muvofiqlashtirish;
3. **Affektiv-kommunikativ komponent** - his-tuyg'ularni ifodalash, suhbatdoshning holatini anglash, empatiya va hissiy qo'llab-quvvatlash.

Ushbu komponentlarning interfaol metodlar bilan o'zaro bog'liqligi nazariy jihatdan tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida inklyuziv sinf o'quvchilarida kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirish faqat nutqiy mashqlar yoki o'qituvchi bilan individual suhbatni tashkil etish orqali cheklanmasligi aniqlandi. Kommunikativ ko'nikma, eng avvalo, muloqot qilish zarurati yuzaga keladigan real yoki modellashtirilgan hamkorlik faoliyatida rivojlanadi.

Boshqacha aytganda, o'quvchiga "muloqot qilishni o'rgatish" bilan birga, uning muloqot qilishiga ehtiyoj tug'diradigan pedagogik vaziyat yaratilishi lozim.

Interfaol metodlarning pedagogik ustunligi ham aynan shunda namoyon bo'ladi.

1-jadval: **Interfaol metodlarning kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari**

Interfaol metod	Asosiy kommunikativ faoliyat	Rivojlantiriladigan ko'nikma	Inklyuziv moslashtirish imkoniyati
Juftlikda ishlash	ikki tomonlama muloqot	tinglash, savol berish, javob berish	kommunikativ sherik tanlash, tayanch savollar
Kichik guruhda ishlash	hamkorlikdagi muhokama	fikr almashish, kelishish, yordam so'rash	vazifalarni individual imkoniyatga ko'ra taqsimlash
Rolli o'yin	hayotiy vaziyatni modellashtirish	muloqotni boshlash va davom ettirish	vizual ssenariy, piktogramma, tayanch iboralar
Aqliy hujum	erkin fikr almashish	tashabbus, fikr bildirish, boshqalarni tinglash	javobni og'zaki, yozma yoki tasvir orqali berish
Bahs-munozara	pozitsiyalarni muhokama qilish	fikrni asoslash, savol berish, munosabat bildirish	sodda savollar va kommunikativ qoliplardan foydalanish
Didaktik o'yin	qoidali hamkorlik	navbat kutish, murojaat qilish, sherik bilan aloqa	qoida va ketma-ketlikni vizuallashtirish
Muammoli vaziyat	birgalikda yechim topish	muzokara, qaror qabul qilish, hamkorlik	muammoni kichik bosqichlarga ajratish

Tahlil shuni ko'rsatdiki, interfaol metodning kommunikativ samaradorligi metodning nomiga emas, balki uning qanday pedagogik maqsad bilan tashkil etilishiga bog'liq.

Masalan, o'qituvchi o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratgani bilan, agar guruhda faqat bir yoki ikki faol o'quvchi topshiriqni bajarsa, qolgan o'quvchilar, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola passiv kuzatuvchi bo'lib qolishi mumkin. Bunday vaziyat tashqi shakliga ko'ra interfaol bo'lsa-da, kommunikativ maqsadga to'liq xizmat qilmaydi.

Shuning uchun guruhdagi har bir ishtirokchiga bajarishi mumkin bo'lgan aniq kommunikativ rol berish lozim. Masalan, "savol beruvchi", "javoblarni tinglovchi", "rasm tanlovchi", "guruh fikrini bildiruvchi", "materiallarni taqsimlovchi" kabi rollardan foydalanish mumkin.

Bu yondashuv alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchini boshqalardan ajratib qo'ymasdan, umumiy faoliyatning mazmunli ishtirokchisiga aylantiradi.

Kommunikativ faoliyatning tarkibiy modeli

Nazariy tahlil kommunikativ rivojlanishni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatdi:

muloqotga motivatsiya → muloqotga kirishish → axborot almashish → tinglash va javob qaytarish → hamkorlik → mustaqil kommunikativ faoliyat.

Dastlab o'quvchida boshqa ishtirokchi bilan aloqa qilishga ehtiyoji yuzaga kelishi kerak. Keyingi bosqichda u muloqotni boshlash va suhbatdoshga murojaat qilishni o'rganadi. Shundan keyin savol-javob, fikr almashish va o'zaro yordam orqali kommunikativ faoliyat murakkablashib boradi. Yakuniy bosqichda esa o'quvchi pedagogning doimiy yordamisiz turli vaziyatlarda kommunikativ strategiyani mustaqil tanlay boshlaydi.

Rolli o'yinlarning kommunikativ imkoniyatlari. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilarning kundalik kommunikativ vaziyatlarga tayyorlanishida rolli o'yinlardan foydalanish samarali pedagogik imkoniyat yaratadi.

"Do'konda", "Mehmon kutamiz", "Do'stimdan yordam so'rayman", "Maktab oshxonasida", "Shifokor qabulida", "Yangi sinfdosh bilan tanishaman" kabi vaziyatlar o'quvchiga real hayotdagi kommunikativ tajribani xavfsiz pedagogik muhitda mashq qilish imkonini beradi.

Bunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchi uchun vaziyatni oldindan tushuntirish, rolning vazifasini soddalashtirish, vizual algoritm yaratish, tayanch savol va jumlalardan foydalanish, javob berish uchun qo'shimcha vaqt ajratish o'quvchilarning kommunikativ ishtirokini qo'llab-quvvatlaydi.

Masalan, "Do'konda" rolli o'yinida quyidagi kommunikativ algoritmdan foydalanish mumkin:

salomlashish → mahsulotni so'rash → narxini aniqlash → minnatdorlik bildirish → xayrlashish.

Bu usul o'quvchiga murakkab kommunikativ vaziyatni tushunarli bosqichlarda egallash imkonini beradi.

Juftlik va kichik guruhlarning ahamiyati. Juftlikdagi faoliyat, ayniqsa, katta guruh oldida gapirishda qiyinchilik sezadigan o'quvchilar uchun qulay kommunikativ muhit yaratadi. O'quvchi avval bitta sherik bilan muloqot qilishni o'zlashtirib, keyinchalik kichik va katta guruhlardagi faoliyatga qo'shilishi mumkin.

Kichik guruhlardagi vazifalar esa faqat bilimni tekshirish emas, balki quyidagi kommunikativ vazifalarni hal etishga yo‘naltirilishi lozim:

- sherigiga savol berish;
- undan ma’lumot olish;
- o‘z fikrini tushuntirish;
- boshqalarning fikrini tinglash;
- umumiy qarorga kelish;
- yordam so‘rash;
- yordam taklif etish;
- guruh nomidan fikr bildirish.

Shu jihatdan guruh faoliyatining natijasini faqat tayyorlangan plakat yoki yozilgan javob bilan emas, balki o‘quvchilarning hamkorlik jarayoni orqali baholash maqsadga muvofiq.

Kommunikativ ko‘nikmalarni kuzatish mezonlari. Nazariy tahlil asosida inklyuziv sinfda kommunikativ rivojlanishni kuzatishda quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalanish mumkin:



Kommunikativ ko‘nikmalarni kuzatish mezonlari diagrammasi.

Ushbu mezonlar o‘quvchining bir-biri bilan taqqoslanishini emas, balki har bir bolaning individual rivojlanish dinamikasini kuzatish uchun qo‘llanishi maqsadga muvofiq.

Interfaol metodlarni inklyuziv moslashtirish. Tahlillar interfaol metodlarni inklyuziv sinfda samarali tashkil etish uchun beshta muhim pedagogik shart mavjudligini ko‘rsatdi.

Birinchi shart - **psixologik xavfsiz muloqot muhiti.** O‘quvchi noto‘g‘ri javob berishdan yoki tengdoshlari tomonidan masxara qilinishdan qo‘rqmasligi lozim.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Ikkinchi shart - **kommunikativ vazifaning aniqligi.** Pedagog "guruhda ishlang" deb umumiy ko'rsatma berish bilan cheklanmasdan, o'quvchilarning aynan qanday kommunikativ harakatni bajarishini belgilashi zarur.

Uchinchi shart - **individual moslashtirish.** Topshiriqning murakkabligi, muloqot shakli, vaqt va qo'llab-quvvatlash darajasi o'quvchining individual imkoniyatlariga moslashtiriladi.

To'rtinchi shart - **vizual va kommunikativ tayanchlardan foydalanish.** Piktogramma, rasm, savol kartochkasi, jumla boshlanishi, ketma-ketlik algoritmi kabi vositalar kommunikativ ishtirokni yengillashtiradi.

Beshinchi shart - **tengdoshlararo hamkorlikni pedagogik resurs sifatida qo'llash.** Tengdoshlar faqat bir sinfda ta'lim olayotgan o'quvchilar emas, balki muloqotni o'rganishning tabiiy sheriklari sifatida qaraladi.

Shunday qilib, nazariy tahlil interfaol metodlarning inklyuziv ta'limdagi pedagogik qiymati ularning o'quvchini ta'lim jarayonida "faol qilish"dangina iborat emasligini ko'rsatadi. Ularning asosiy imkoniyati o'quvchiga boshqa insonlar bilan mazmunli o'zaro munosabat o'rnatish, kommunikativ tajribani egallash va ijtimoiy faoliyatning teng huquqli ishtirokchisiga aylanish uchun sharoit yaratishidadir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot doirasida amalga oshirilgan nazariy tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, kommunikativ ko'nikmalar inklyuziv ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchining sinfdagi ishtiroki uning faqat akademik vazifalarni bajarishi bilan emas, balki tengdoshlari va pedagoglar bilan muloqotga kirishishi, o'z fikrini ifodalashi hamda hamkorlikdagi faoliyatda qatnashishi bilan ham belgilanadi.

Ikkinchidan, interfaol metodlar kommunikativ rivojlanish uchun tabiiy pedagogik vaziyat yaratadi. Juftlikdagi va kichik guruhlardagi faoliyat, rolli o'yin, bahs-munozara, aqliy hujum hamda muammoli vaziyatlar o'quvchilarni tinglash, gapirish, savol berish, fikr almashish va birgalikda qaror qabul qilishga undaydi.

Uchinchidan, interfaol metodlarni qo'llashning o'zi inklyuziv natijani kafolatlamaydi. Metod alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchining individual kommunikativ ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirilishi lozim.

To'rtinchidan, kommunikativ rivojlanishning samaradorligi psixologik xavfsiz muhit, individual pedagogik yordam, vizual tayanchlar, tengdoshlararo hamkorlik va pedagogning kommunikativ kompetensiyasiga bog'liq.

Beshinchidan, kommunikativ ko'nikmalarni baholashda faqat nutqning grammatik yoki lug'aviy tomoniga emas, balki o'quvchining muloqot tashabbusi, tinglash qobiliyati, savol-javobdagi faolligi, hamkorligi va kommunikativ mustaqilligiga ham e'tibor qaratish zarur.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar tavsiya etiladi:

- inklyuziv sinflarda interfaol metodlarni tanlashda har bir faoliyat uchun aniq kommunikativ maqsad belgilash;
- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun interfaol topshiriqlarni mazmunni yo'qotmagan holda individual moslashtirish;
- o'quvchining mustaqil muloqot qilishini yengillashtiruvchi vizual va kommunikativ tayanchlardan foydalanish;
- juftlik va kichik guruhlarni tashkil etishda barcha o'quvchilar uchun mazmunli rol va vazifa yaratish;
- kommunikativ ko'nikmalar rivojlanishini muntazam pedagogik kuzatuv asosida baholash;
- maxsus pedagog va fan o'qituvchisining kommunikativ rivojlantirish bo'yicha hamkorligini kuchaytirish;
- pedagoglar malakasini oshirish dasturlariga "Inklyuziv ta'limda kommunikativ yo'naltirilgan interfaol metodlar" mavzusidagi amaliy mashg'ulotlarni kiritish;
- inklyuziv sinflar uchun rolli o'yinlar, kommunikativ vaziyatlar, juftlik va guruh topshiriqlaridan iborat metodik mashqlar bankini ishlab chiqish.

Umuman, inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlardan tizimli va kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan holda foydalanish o'quvchilarning nafaqat ta'limdagi faolligini, balki o'z fikrini ifodalash, boshqalarni tinglash, hamkorlik qilish, ijtimoiy vaziyatlarda mustaqil harakat qilish va jamiyatga integratsiyalashuv ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 638-son qarori.
4. Raxmonova D.U. Inklyuziv ta'limda fanlarni o'qitishning pedagogik shart-sharoitlari. Monografiya. - Toshkent: ChDPU, 2023.
5. Выготский Л.С. Основы дефектологии. В 6-ти т. - М.: Педагогика, 1983.
6. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. - М.: Просвещение, 1969. - 212 с.
7. Назарова Д.А. Мактабгача ёшдаги заиф эшитувчи болалар нутқини ривожлантириш: пед. фан. номз. дис. - Тошкент: ТДПУ, 2009.
8. Муминова Л.Р. Теоретические основы коррекционно-педагогической работы по преодолению речевого недоразвития у детей дошкольного возраста: автореф. дис. … д-ра пед. наук. - Тошкент: ТГПУ им. Низами, 1992.
9. Файзиева У.Ю. Нутқ ўстириш. Ўқув қўлланма. - Тошкент: Ўқитувчи, 2001. - 135 б.
10. Третьякова В.С. Игра в социальном и культурном аспекте // Социальная педагогика. - 2019. - №2. - С. 51-53.
11. Романова Ю.А. Игровые технологии в обучении младших школьников // Начальная школа. - 2014. - №5. - С. 45-49.
12. Мустапаева А.Ю. Развитие познавательной активности младших школьников с применением интерактивных методов // Педагогика и психология. - 2018. - №2. - С. 85-89.
13. Беленкова Л.Ю. Применение интерактивных методов обучения в начальной школе // Современное образование. - 2018. - №6. - С. 41-45.

JISMONIY TARBIYA VA SPORT TA'LIM MUASSASALARIDA HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING PEDAGOGIK VA ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

Ahmedov Akrom Abralovich
Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, dotsent vazifasini bajaruvchi

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik, tashkiliy va me'yoriy-huquqiy asoslari tizimli tahlil qilingan. Sport faoliyatining yuqori harakat faolligi, jismoniy yuklamalar, sport jihozlari va inshootlaridan foydalanish bilan bog'liq xususiyatlari xavfsizlikni ta'lim va mashg'ulot jarayonining ajralmas komponenti sifatida shakllantirish zaruratini yuzaga keltirishi asoslangan. Sport ta'limi jarayonida uchraydigan xavf manbalari texnik, tashkiliy, tibbiy-fiziologik va ijtimoiy-psixologik guruhlarga ajratilib, ularni aniqlash, baholash va profilaktika qilish yo'llari tizimlashtirilgan. Favqulodda vaziyatlarning tabiiy, texnogen, ekologik va ijtimoiy xususiyatdagi turlari jismoniy tarbiya va sport ta'limi sharoitiga moslashtirilgan holda tavsiflangan. Trenerning xavfsizlik kompetensiyasi kognitiv, diagnostik, prognostik, tashkiliy-amaliy, tezkor harakat va refleksiv komponentlarning integratsiyasi sifatida yoritilgan. Tadqiqot natijasida "xavfni aniqlash - baholash - profilaktika - tayyorgarlik - tezkor harakat - tahlil va tuzatish" bosqichlariga asoslangan xavfsizlikni pedagogik boshqarish modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: hayot faoliyati xavfsizligi, jismoniy tarbiya, sport ta'limi, xavf, favqulodda vaziyat, xavfsizlik kompetensiyasi, trener, profilaktika, risklarni boshqarish.

Abstract: The article provides a systematic analysis of the pedagogical, organizational, and regulatory-legal foundations for ensuring life safety in physical education and sports educational institutions. It is substantiated that high levels of motor activity, physical loads and the use of sports equipment and facilities require safety to be considered an integral component of the educational and training process. Risk sources encountered in sports education are classified into technical, organizational, medical-physiological and socio-psychological groups, and approaches to their identification, assessment and prevention are systematized. Natural, technological, environmental and social emergencies are characterized in relation to the specific conditions of physical education and sports institutions. The safety competence of a teacher-coach is interpreted as an integration of cognitive, diagnostic, prognostic, organizational-practical, emergency-response and reflective components. Based on the analysis, a pedagogical safety management model consisting of the stages "risk identification - assessment - prevention - preparedness - emergency response - analysis and correction" is proposed.

Key words: life safety, physical education, sports education, risk, emergency, safety competence, teacher-coach, prevention, risk management.

Аннотация: В статье системно проанализированы педагогические, организационные и нормативно-правовые основы обеспечения безопасности жизнедеятельности в учреждениях физкультурно-спортивного образования. Обосновано, что высокая двигательная активность, физические нагрузки, использование спортивного оборудования и сооружений требуют рассмотрения безопасности в качестве неотъемлемого компонента образовательного и тренировочного процесса. Источники риска классифицированы на технические, организационные, медико-физиологические и социально-психологические группы, систематизированы способы их выявления, оценки и профилактики. Чрезвычайные ситуации природного, техногенного, экологического и социального характера рассмотрены применительно к условиям физкультурно-спортивного образования. Компетентность преподавателя-тренера в области безопасности представлена как интеграция когнитивного, диагностического, прогностического, организационно-практического, оперативного и рефлексивного компонентов. Предложена педагогическая модель управления безопасностью, включающая этапы "выявление риска - оценка - профилактика - подготовка - оперативное действие - анализ и коррекция".

Ключевые слова: безопасность жизнедеятельности, физическая культура, спортивное образование, риск, чрезвычайная ситуация, компетентность в области безопасности, преподаватель-тренер, профилактика, управление рисками.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida inson hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish ta'lim sifati va ta'lim muhitining barqarorligini belgilovchi ustuvor shartlardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir insonning xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash huquqi kafolatlangan [1; 42-modda]. Mazkur konstitutsiyaviy tamoyil ta'lim muassasalari, jumladan, jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi tashkilotlarda xavfsiz muhitni shakllantirishning fundamental huquqiy asosini tashkil etadi.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatining o'ziga xosligi ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Chunki mazkur jarayon yuqori harakat faolligi, turli intensivlikdagi jismoniy yuklamalar, maxsus sport jihozlari va inshootlaridan foydalanish, ochiq va yopiq maydonlarda mashg'ulotlar tashkil etish hamda ko'p sonli ishtirokchilar faoliyatini muvofiqlashtirish bilan tavsiflanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda ham jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida xavfni aniqlash, baholash, boshqarish va o'quvchilarga xavfsizlik talablarini tushuntirish o'qituvchining murakkab pedagogik vazifalaridan biri ekanligi ta'kidlanadi [6; 16-28-b.]. Jismoniy faollikning o'zi muayyan darajada xavfni o'z ichiga olishi sababli pedagogning vazifasi har qanday jismoniy faollikni cheklash emas, balki xavfni maqbul darajada boshqarish orqali xavfsiz ta'lim muhitini yaratishdan iborat.

Sport ta'limida xavfsizlik tushunchasini faqat texnika xavfsizligiga rioya etish bilan cheklash yetarli emas. U jismoniy yuklamalarni ilmiy asosda rejalashtirish, sportchilarning funksional holatini hisobga olish, sport jihozlari va mashg'ulot joyini nazorat qilish, sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish, yong'in va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik, birinchi yordam hamda ijtimoiy-psixologik xavfsizlikni o'z ichiga oluvchi kompleks tizim sifatida qaralishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida", "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" va "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlari xavfsizlikni ta'minlashning umumiy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini belgilaydi [2; 3; 4; 5].

Sport faoliyatiga oid ilmiy tadqiqotlar esa xavfsizlikni boshqarishda profilaktika ustuvor bo'lishi, xavf manbalari mashg'ulot boshlanishidan oldin aniqlanishi va baholanishi zarurligini ko'rsatadi [7; 511-514-b.]. Bu jismoniy tarbiya o'qituvchisi va murabbiyning xavfsizlikka oid kompetensiyalarini rivojlantirishni kasbiy tayyorgarlikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilashga asos bo'ladi.

Tadqiqotning maqsadi jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning me'yoriy-huquqiy va pedagogik asoslarini tizimlashtirish, sport faoliyatiga xos xavf manbalari hamda favqulodda vaziyatlarni tasniflash va trenerning xavfsizlik kompetensiyasiga asoslangan pedagogik boshqaruv modelini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya va sport ta'limida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash masalasi pedagogik va huquqiy jihatdan keng o'rganilgan. Porsanger tadqiqotlarida jismoniy tarbiya o'qituvchisining xavfni aniqlash, baholash, boshqarish va o'quvchilarga xavfsizlik talablarini tushuntirishdagi roli alohida ta'kidlangan [6]. Xie va Dapat sport xavfsizligini boshqarishda jarohat sodir bo'lgandan keyingi choralar emas, balki xavf manbalarini oldindan aniqlash va profilaktika qilish ustuvor ekanligini asoslagan [7]. Shuningdek, sport jarohatlari profilaktikasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda jihozlar xavfsizligi, mashg'ulot joyining talabga muvofiqligi, qizdirish mashqlari hamda pedagog nazoratining muhimligi qayd etilgan [8; 9; 10].

Mazkur ilmiy qarashlar sport ta'limida xavfsizlikni pedagogik boshqarish va trenerlarning xavfsizlik kompetensiyasini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda O'zbekiston Respublikasining hayot faoliyati xavfsizligi, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga oid normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, 2021-2024-yillarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida xavflarni boshqarish hamda sport jarohatlari profilaktikasiga bag'ishlangan xorijiy ilmiy tadqiqotlar o'rganildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish;
- ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish;
- xavf omillarini tasniflash va tizimlashtirish;
- pedagogik modellashtirish;
- nazariy umumlashtirish.

Tahlil jarayonida "xavf manbai - xavfning ehtimoliy oqibati - profilaktika chorasi - mas'ul subyekt - favqulodda vaziyatdagi harakat" mantiqiy zanjiri asosiy metodologik mezon sifatida qabul qilindi.

Xorijiy tadqiqotlarda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining xavfni boshqarishga oid bilimi va amaliy qarorlarida tafovutlar mavjudligi qayd etilgan [6; 16-28-b.]. Shu sababli mazkur tadqiqotda xavfsizlik faqat normativ talab sifatida emas, balki trenerning kasbiy-pedagogik kompetensiyasi sifatida ham tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jismoniy tarbiya va sport faoliyatidagi xavflarning o'ziga xos xususiyatlari.

Sport faoliyati jarayonida xavfning mutlaq yo'qligini ta'minlash amalda murakkab. Buning asosiy sababi jismoniy mashqlarning dinamik xarakterga egaligi, harakatlarni bajarish tezligi, yuklamalarning intensivligi va tashqi sharoitlarning o'zgaruvchanligidir.

Xie va Dapat sport xavfsizligini boshqarishning asosiy vazifasi xavf sodir bo'lgandan keyin uning oqibatlarini bartaraf etish emas, balki xavf manbalarini oldindan aniqlab, jarohatlanish ehtimolini kamaytiruvchi boshqaruv tizimini yaratishdan iborat ekanini ta'kidlaydi [7; 511-513-b.].

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridagi xavflarni kelib chiqish manbaiga ko'ra to'rtta guruhga ajratish mumkin (1-jadval).

1-jadval: **Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlaridagi xavf manbalarining tasnifi**

Xavf turi	Asosiy manbalar	Ehtimoliy oqibat	Profilaktik chora
Texnik	Nosoz jihozlar; sirpanchiq yoki notekis maydon; elektr qurilmalaridagi nosozlik	Yiqilish, urilish, mexanik yoki elektr shikasti	Jihoz va inshootlarni mashg'ulotdan oldin tekshirish
Tashkiliy	Yo'riqnoma berilmasligi; nazoratsiz mashg'ulot; yuklamaning tayyorgarlikka mos emasligi	Jarohat xavfining ortishi, tartibsizlik	Yo'riqnoma, pedagogik nazorat va mashg'ulotni bosqichma-bosqich tashkil etish
Tibbiy-fiziologik	Haddan tashqari yuklama; qizdirishning yetarli emasligi; tibbiy nazoratsiz ishtirok	Toliqish, funksional zo'riqish, mushak-bo'g'im jarohatlari	Yuklamani individuallashtirish va tibbiy-pedagogik nazorat
Ijtimoiy-psixologik	Nizo, bulling, kuchli ruhiy bosim, vahima, doping va axborot xavflari	Stress, xulq buzilishi, xavfli qarorlar	Sog'lom psixologik muhit, intizom va pedagogik nazorat

Sport jarohatlarining oldini olishga oid tadqiqotlar jihozlarning xavfsizligi, sport maydoni qoplamasining talabga muvofiqligi, o'qituvchi ko'rsatmalariga amal qilish va yetarli qizdirish mashqlarini bajarish jarohatlar xavfini kamaytirishda muhim ekanligini ko'rsatadi [8; 313-327-b.].

Demak, sport mashg'ulotidagi xavfsizlik mashg'ulot boshlangunga qadar amalga oshiriladigan profilaktik tekshiruvdan boshlanishi lozim.

Xavfsizlikni ta'minlashning me'yoriy-huquqiy asoslari

Hayot faoliyati xavfsizligi tizimi bir necha darajadagi normativ hujjatlarga asoslanadi.

Birinchi darajani O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tashkil qiladi. Unda inson hayoti, sog'lig'i va qadr-qimmatining oliy qadriyat ekanligi hamda xavfsizlik va gigiyena talablariga mos sharoitlarda mehnat qilish huquqi mustahkamlangan [1; 42-modda].

Ikkinchi darajani O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi hamda "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun tashkil etib, ular xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, xodimlarni xavfsizlik talablariga o'qitish, zararli va xavfli omillarning oldini olish bo'yicha ish beruvchi va xodimning huquq hamda majburiyatlarini belgilaydi [2; 3].

Uchinchi daraja favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligi bilan bog'liq. "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunda favqulodda vaziyatlarning oldini olish, aholi xavfsizligini ta'minlash va oqibatlarini bartaraf etish mexanizmlari belgilangan [4]. "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi Qonun esa yong'in profilaktikasi, odamlarning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish hamda yong'in xavfsizligi talablariga rioya etishning huquqiy asoslarini belgilaydi [5].

Mazkur normalar sport ta'limi amaliyotida muassasaning ichki yo'riqnomalari, sport inshootlaridan foydalanish tartibi, evakuatsiya rejasi, mashg'ulot va musobaqa reglamentlari orqali konkretlashtirilishi lozim.

Favqulodda vaziyatlarning sport ta'limiga moslashtirilgan tasnifi

Sport ta'lim muassasalarida xavfsizlikni tashkil etish jarayonida favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablarini bilish alohida ahamiyatga ega. Ularni to'rtta asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq (2-jadval).

2-jadval: **Sport ta'lim muassasalarida favqulodda vaziyatlar tasnifi**

Favqulodda vaziyat turi	Sport ta'limida uchrashi mumkin bo'lgan holatlar	Birlamchi harakat
Tabiiy	Zilzila, sel, suv toshqini, kuchli shamol, yashin, anomal issiq yoki sovuq	Mashg'ulotni to'xtatish, xavfsiz hududga yo'naltirish, evakuatsiya
Texnogen	Yong'in, portlash, elektr avariyasi, gaz sizishi, inshoot yoki jihoz qulashi	Xavf zonasidan chiqarish, energiya manbasini uzish imkonini baholash, tezkor xizmatlarga xabar berish
Ekologik	Havoning keskin ifloslanishi, zaharli gaz, suv yoki tuproq ifloslanishi, radiatsion xavf	Mashg'ulotni bekor qilish, xavfli hududni tark etish, tegishli xizmatlar ko'rsatmalariga amal qilish
Ijtimoiy	Ommaviy tartibsizlik, vahima, zo'ravonlik, terrorchilik tahdidi, shubhali buyum	Ishtirokchilarni nazoratga olish, xavfsiz hududga yo'naltirish, vakolatli xizmatlarga xabar berish

Mazkur tasnif favqulodda vaziyatning xususiyatiga mos tezkor algoritmni oldindan ishlab chiqish imkonini beradi. Ayniqsa, sport majmualari va stadionlarda ishtirokchilar sonining ko'pligi evakuatsiya yo'llari, chiqish eshiklari, yig'ilish hududlari va mas'ul shaxslarning vazifalarini oldindan belgilashni talab etadi.

Trenerning xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni

Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari sharoitida trener xavfsizlik tizimining bevosita ijrochisi hisoblanadi. Uning mashg'ulot boshlanishidan oldingi vazifalariga:

- sport zali yoki maydonning holatini ko'zdan kechirish;
- anjomlarning sozligi va mustahkamligini tekshirish;
- mashg'ulot yuklamasini o'quvchilarning yoshi va tayyorgarligiga muvofiqlashtirish;
- xavfsizlik bo'yicha qisqa va aniq yo'riqnoma berish;
- alohida nazorat talab qiladigan o'quvchilar holatini hisobga olish kiradi.

Mashg'ulot davomida esa pedagog o'quvchilarning jismoniy va psixologik holatini kuzatishi, mashq bajarish texnikasini nazorat qilishi hamda xavf belgisi paydo bo'lganida mashg'ulotni o'z vaqtida to'xtata olishi kerak.

Porsangerning tadqiqotida jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun xavfni aniqlash, baholash, boshqarish va o'quvchilarga tushuntirish bir-biridan ajralmaydigan faoliyatlar ekanligi ko'rsatilgan [6; 16-28-b.].

Bu holat trener tayyorgarligida xavfsizlik kompetensiyasini alohida kasbiy komponent sifatida shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Trenerning xavfsizlik kompetensiyasi

Tadqiqot natijasida trenerning xavfsizlik kompetensiyasini quyidagi tarkibiy komponentlar orqali ifodalash taklif etiladi:

1. **Kognitiv komponent** - hayot faoliyati xavfsizligi, mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi, favqulodda vaziyatlar va birinchi yordamga oid bilimlar.
2. **Diagnostik komponent** - sport maydoni, jihozlar, tashqi muhit va o'quvchi holatidagi xavf omillarini aniqlash qobiliyati.
3. **Prognostik komponent** - mashq yoki vaziyatning ehtimoliy salbiy oqibatlarini oldindan ko'ra bilish.
4. **Tashkiliy-amaliy komponent** - mashg'ulotni xavfsiz tashkil etish, yo'riqnoma berish va ishtirokchilar harakatini boshqarish.
5. **Tezkor harakat komponenti** - favqulodda vaziyat yuzaga kelganida mashg'ulotni to'xtatish, evakuatsiya qilish, birinchi yordam va tezkor xizmatlar bilan aloqani tashkil etish.
6. **Refleksiv komponent** - sodir bo'lgan hodisa yoki xavfli vaziyat sabablarini tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va keyingi mashg'ulotga tegishli tuzatishlar kiritish.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Trener va jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini maqsadli o‘qitish profilaktik dasturlarni amalda qo‘llash darajasini oshirishi tajribaviy tadqiqotlarda ham tasdiqlangan. Jumladan, murabbiylar uchun maxsus ta’lim mashg‘ulotlari jarohatlarning oldini olish dasturlariga rioya etishni yaxshilagan [9; 348-354-b.].

Shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash dasturiga jarohatlar haqida xabardorlik va amaliy profilaktik strategiyalarni kiritish kelajakdagi pedagoglarning kasbiy faoliyati uchun muhim ekanligi qayd etiladi [10; 1-11-b.].

Xavfsizlikni pedagogik boshqarish modeli

Yuqoridagi nazariy va amaliy tahlillar asosida jismoniy tarbiya va sport ta’lim muassasasida hayot faoliyati xavfsizligini boshqarishning quyidagi pedagogik modeli ishlab chiqildi:

XAVFNI ANIQLASH
↓
XAVF DARAJASINI BAHOLASH
↓
PROFILAKTIK CHORANI BELGILASH
↓
O‘QUVCHI VA SPORTCHILARNI TAYYORLASH
↓
MASHG‘ULOT JARAYONIDA DOIMIY NAZORAT
↓
FAVQULODDA VAZIYATDA TEZKOR HARAKAT
↓
HODISANI TAHLIL QILISH
↓
TUZATISH VA TAKRORIY XAVFNING OLDINI OLISH

Modelning birinchi bosqichida xavf manbalari aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda ularning yuzaga kelish ehtimoli va oqibatining og‘irligi baholanadi. Uchinchi bosqichda xavfni bartaraf etish yoki uning darajasini pasaytirishga qaratilgan profilaktik chora belgilanadi.

Keyingi bosqich o‘quvchilarni xavfsiz harakatga tayyorlashdan iborat. Bunda yo‘riqnoma faqat qoidalarni sanab o‘tishga emas, balki muayyan vaziyatda qanday harakat qilishni tushuntirishga qaratilishi zarur.

Mashg‘ulot davomida doimiy monitoring olib boriladi. Agar vaziyat odatdagi pedagogik nazorat chegarasidan chiqsa, tezkor harakat bosqichiga o‘tiladi.

Hodisadan keyingi tahlil esa modelning yakuniy emas, balki yangi siklning boshlang‘ich bosqichi hisoblanadi. Aniqlangan xatolar keyingi mashg‘ulotlarni rejalashtirishda hisobga olinishi orqali xavfsizlik tizimining uzluksiz takomillashuvi ta’minlanadi.

Shu jihatdan ushbu model an’anaviy “hodisa - javob chorasini ko‘rish” yondashuvidan “xavfni prognoz qilish - profilaktika - monitoring - tezkor harakat - refleksiya” yondashuviga o‘tishni nazarda tutadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy-tahliliy tadqiqot natijalari jismoniy tarbiya va sport ta’lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv-mashg‘ulot jarayonining yordamchi emas, balki uning ajralmas va tizim hosil qiluvchi tarkibiy qismi ekanligini ko‘rsatdi.

Birinchidan, sport faoliyatidagi xavflarni texnik, tashkiliy, tibbiy-fiziologik va ijtimoiy-psixologik guruhlarga ajratish xavf manbalarini tizimli aniqlash va ularga nisbatan maqsadli profilaktik choralarni belgilash imkonini beradi.

Ikkinchidan, xavfsizlikni ta’minlashning samaradorligi faqat sport inshooti yoki jihozning texnik holatiga emas, balki mashg‘ulotning to‘g‘ri rejalashtirilishi, jismoniy yuklamaning individuallashtirilishi, o‘qituvchi nazorati va o‘quvchi-sportchilarning xavfsizlik madaniyatiga ham bog‘liq.

Uchinchidan, tabiiy, texnogen, ekologik va ijtimoiy favqulodda vaziyatlar uchun oldindan ishlab chiqilgan harakat va evakuatsiya algoritmlari sport ta’lim muassasasining xavfsizlikka tayyorgarlik darajasini oshiradi.

To‘rtinchidan, trenerning xavfsizlik kompetensiyasi faqat nazariy bilimlar bilan chegaralanmasligi, balki xavfni diagnostika qilish, prognozlash, tezkor qaror qabul qilish, evakuatsiya, birinchi yordam va hodisadan keyingi refleksiv tahlil ko‘nikmalarini ham o‘z ichiga olishi zarur.

Beshinchidan, pedagog va murabbiylarni maxsus profilaktik dasturlar asosida muntazam o‘qitish xavfsizlik choralarining amalda qo‘llanishini yaxshilaydi [9; 348-354-b.; 10; 1-11-b.].

Shu asosda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida hayot faoliyati xavfsizligini vaziyatli keyslar, xavfni baholash chek-listlari, evakuatsiya mashqlari, sport anjomlarini xavfsizlik nuqtayi nazaridan baholash va birinchi yordam ko‘rsatishga yo‘naltirilgan amaliy mashg‘ulotlar bilan integratsiyalash maqsadga muvofiq.

Taklif etilgan “xavfni aniqlash - baholash - profilaktika - tayyorgarlik - monitoring - tezkor harakat - tahlil va tuzatish” modeli sport ta’lim muassasalarida xavfsizlikni boshqarish jarayonini tizimlashtirish, trenerlarning kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish va o‘quvchi-sportchilarda barqaror xavfsizlik madaniyatini shakllantirish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: 2022-yil 28-oktabrdagi O‘RQ-798-son Qonun bilan tasdiqlangan. - Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni: 2016-yil 22-sentabrdagi O‘RQ-410-son. - Toshkent, 2016.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni: 2022-yil 17-avgustdagi O‘RQ-790-son. - Toshkent, 2022.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Yong‘in xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni: 2009-yil 30-sentabrdagi O‘RQ-226-son. - Toshkent, 2009.
6. Porsanger L. Risk and safety management in physical education: teachers’ knowledge // Physical Education and Sport Pedagogy. - 2023. - Vol. 28, No. 1. - P. 16-28. - DOI: 10.1080/17408989.2021.1934663.
7. Xie L., Dapat R. O. PE Risk Management in Colleges and University // The Educational Review, USA. - 2023. - Vol. 7, No. 4. - P. 511-514. - DOI: 10.26855/er.2023.04.022.
8. دمحم ةفوقوب . Preventive measures to avoid injuries during sports activity in the school // Journal of Sport Science Technology and Physical Activities. - 2022. - Vol. 19, No. 1. - P. 313-327. - DOI: 10.5281/zenodo.15291756.
9. Ling D. I., Boyle C., Schneider B., Janosky J., Kinderknecht J., Marx R. G. Coach Education Improves Adherence to Anterior Cruciate Ligament Injury Prevention Programs: A Cluster-Randomized Controlled Trial // Clinical Journal of Sport Medicine. - 2022. - Vol. 32, No. 4. - P. 348–354. - DOI: 10.1097/JSM.0000000000000936.
10. Goossens L., Cardon G., Witvrouw E., Verhagen E. A. L. M., De Clercq D. An Injury Prevention Programme in Physical Education Teacher Education Students: Process Evaluation Using the RE-AIM Sports Setting Matrix // Translational Sports Medicine. - 2024. - Vol. 2024. - Article ID 5717748.



THE RELATIONSHIP BETWEEN SOCIAL MEDIA USE FOR ENGLISH LANGUAGE LEARNING, STUDENT PERCEPTIONS, AND LEARNING OUTCOMES: EVIDENCE FROM UNIVERSITY STUDENTS IN UZBEKISTAN

Akhad Akhmedov
ESL/EFL teacher at the department of teaching theory and methodology "Tashkent institute of irrigation and agricultural mechanization engineers" national research university

Abstract: Social media has become part of everyday life for English learners, offering authentic input, opportunities for interaction, and space for self-directed study. Drawing on a conceptual review of recent literature, this study examines how social media use, student perceptions, and English language learning outcomes relate to one another. The review shows that positive perceptions and purposeful, education-oriented use of social media are linked to stronger learner engagement, motivation, and language development. Building on the Technology Acceptance Model (Davis, 1989), Social Constructivism (Vygotsky, 1978), and Connectivism (Siemens, 2005), the study proposes a conceptual framework explaining how social media supports English language learning and outlines directions for future empirical research.

Key words: social media, English language learning, student perceptions, learning outcomes, higher education, digital learning, Technology Acceptance Model.

Annotatsiya: Ijtimoiy tarmoqlar ingliz tilini o'rganuvchilarning kundalik hayotining bir qismiga aylanib, autentik materiallar, o'zaro muloqot qilish imkoniyatlari va mustaqil ta'lim olish uchun sharoit yaratmoqda. So'nggi adabiyotlarning konseptual sharhiga asoslangan holda, ushbu tadqiqot ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, talabalarning qarashlari va ingliz tilini o'rganish natijalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganadi. Sharh shuni ko'rsatadiki, ijobiy qarashlar hamda ijtimoiy tarmoqlardan maqsadli va ta'limga yo'naltirilgan holda foydalanish o'quvchilarning faolligi, motivatsiyasi va til ko'nikmalarining rivojlanishi bilan bog'liq. Texnologiyalarni qabul qilish modeli (Davis, 1989), ijtimoiy konstruktivizm (Vygotsky, 1978) va konnektivizm (Siemens, 2005) nazariyalariga asoslanib, tadqiqot ijtimoiy tarmoqlar ingliz tilini o'rganishni qanday qo'llab-quvvatlashini tushuntiruvchi konseptual asosni taklif etadi hamda kelgusidagi empirik tadqiqotlar uchun yo'nalishlarni belgilaydi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, ingliz tilini o'rganish, talabalarning qarashlari, ta'lim natijalari, oliy ta'lim, raqamli ta'lim, Texnologiyalarni qabul qilish modeli.

Аннотация: Социальные сети стали частью повседневной жизни изучающих английский язык, предоставляя доступ к аутентичным материалам, возможностям для взаимодействия и пространству для самостоятельного обучения. Основываясь на концептуальном обзоре современной литературы, данное исследование рассматривает взаимосвязь между использованием социальных сетей, восприятием студентов и результатами изучения английского языка. Обзор показывает, что положительное восприятие и целенаправленное использование социальных сетей в образовательных целях связаны с более высокой вовлечённостью обучающихся, мотивацией и развитием языковых навыков. Опираясь на Модель принятия технологий (Davis, 1989), социальный конструктивизм (Vygotsky, 1978) и коннективизм (Siemens, 2005), исследование предлагает концептуальную основу, объясняющую, каким образом социальные сети поддерживают изучение английского языка, а также определяет направления для будущих эмпирических исследований.

Ключевые слова: социальные сети, изучение английского языка, восприятие студентов, результаты обучения, высшее образование, цифровое обучение, Модель принятия технологий.

INTRODUCTION

Over the past two decades, digital technology has reshaped higher education. Social media platforms, once used mainly for personal communication, now function as spaces for collaboration, knowledge-sharing, and informal learning (Kaplan & Haenlein, 2010; Greenhow & Lewin, 2016).

Platforms such as YouTube, Telegram, Instagram, TikTok, Facebook, and Discord give learners immediate access to authentic language material and communities of speakers, allowing them to practice English outside the traditional classroom (Manca, 2020).

LITERATURE REVIEW

The growing importance of English as a global language has added momentum to this shift. English proficiency is often treated as a prerequisite for academic success, international mobility, and access to the labor market, so universities continue to look for ways to strengthen students' language skills and support lifelong learning. Social media is one response to that need: it offers flexible, learner-centered exposure to native and non-native speakers along with multimodal resources – videos, podcasts, discussion forums, interactive quizzes – that can support language development, motivation, autonomy, and sustained engagement (Mayer, 2021; Kohnke, Moorhouse, & Zou, 2023).

RESEARCH METHODOLOGY

Social Media as an Emerging Environment for English Language Learning. Across the reviewed literature, social media consistently appears as an environment that extends English learning beyond the classroom walls. YouTube, Telegram, Instagram, TikTok, Facebook, and Discord were repeatedly identified as sources of authentic input, learner interaction, and self-directed study (Sun & Asmawi, 2022; Kohnke et al., 2023).

Unlike conventional learning management systems, these platforms offer near-constant access to multimedia content and real-time communication, letting students engage with English in settings that feel less like a classroom and more like ordinary use of language (Greenhow & Lewin, 2016).

This use of social media also fits naturally with learner-centered pedagogy. Students choose their own materials, join communities that interest them, and talk with both native and non-native speakers on their own schedule. Over time, this kind of independent engagement tends to build autonomy and keeps language practice going outside formal instruction (Hrastinski, 2009).

For this reason, several researchers now describe social media less as a communication tool and more as an informal learning ecosystem that runs alongside, and complements, classroom instruction (Manca, 2020).

ANALYSIS AND RESULTS

Student Perceptions of Social Media for English Language Learning. One theme recurs across nearly all the studies reviewed: students tend to view the educational use of social media favorably. Most researchers report that university students see it as accessible, motivating, and genuinely useful for developing their English (Alenezi, 2023).

These positive perceptions are tied most closely to ease of access to authentic material, chances for collaborative learning, quick feedback, and the freedom to study independently (Kaplan & Haenlein, 2010).

Social Media and English Language Learning Outcomes. Taken together, the studies reviewed point to a generally positive relationship between educational use of social media and English learning outcomes.

Across different settings, researchers report gains in vocabulary, listening comprehension, pronunciation, speaking confidence, reading, and writing among students who actively used educational content on these platforms (Sun & Asmawi, 2022).

Vocabulary growth is the outcome mentioned most often. Short instructional clips, visual vocabulary cards, subtitles, and contextualized examples appear to support incidental learning and longer retention (Mayer, 2021), a pattern consistent with Krashen's (1985) argument that comprehensible input drives language acquisition. In much the same way, regular exposure to authentic audio and video content helps learners get used to different accents and speech rates, which shows up as improvement in listening comprehension and pronunciation (Krashen, 1985).

Factors Influencing the Educational Effectiveness of Social Media. Several interconnected factors shape how much educational value social media actually delivers for English learners. Motivation, digital literacy, perceived usefulness, teacher support, content quality, and learner engagement come up most often in the literature (Davis, 1989; Bandura, 1986).

Teacher involvement stands out as one of the more consistent findings. Students benefit when teachers help them find reliable resources, structure their learning activities, and stay focused while using digital platforms (Kohnke et al., 2023). Content quality matters too – material that is authentic, interactive, and linguistically appropriate tends to engage learners more effectively and support faster acquisition (Mayer, 2021).

Learner autonomy is another recurring factor. Students who used social media deliberately for learning purposes generally outperformed those who used it mainly for entertainment (Bandura, 1986).

This suggests that how students use social media, not simply how often, is what determines whether it helps their English improve. This conceptual review suggests that social media has become a genuine part of how students learn English today, giving them steady access to authentic input, chances to collaborate, and flexible resources they can use on their own terms. The literature reviewed here indicates that social media extends learning past the physical classroom and supports both learner autonomy and authentic communication in digital spaces. Rather than treating social media as a minor supplement to classroom teaching, these findings point toward its role as a substantive part of technology-enhanced language learning (Greenhow & Lewin, 2016).

The findings also line up with Social Constructivism and Connectivism, both of which treat learning as something built through interaction, collaboration, and participation in networks of knowledge (Vygotsky, 1978; Siemens, 2005).

Social media lets learners talk with peers, teachers, and English speakers around the world, creating real opportunities to use the language meaningfully. Through discussion, joint projects, and participation in online communities, students build knowledge together while developing both linguistic competence and intercultural awareness (Vygotsky, 1978).

A further contribution of this review is identifying student perceptions as a mediating factor between social media use and learning outcomes. Learners who see social media as beneficial tend to participate more actively, show higher motivation, and engage in more autonomous practice (Alenezi, 2023). This offers a fuller explanation of the link between technology use and academic achievement than studies that look only at frequency of use or platform preference.

CONCLUSION

This study reviewed current research on social media's role in English language learning, focusing on students' perceptions and learning outcomes in higher education. The literature indicates that platforms such as YouTube, Telegram, Instagram, and TikTok have become genuinely useful learning environments, offering authentic input, interactive communication, and flexible study opportunities outside the traditional classroom (Sun & Asmawi, 2022).

Positive student perceptions – particularly around usefulness, accessibility, and interactivity – appear to support stronger engagement, motivation, autonomy, and skill development across vocabulary, listening, speaking, reading, and writing. The review also points to the value of integrating social media into English instruction through deliberate pedagogical design that encourages meaningful interaction, collaborative learning, and autonomous development, particularly in the context of higher education in Uzbekistan.

References:

1. Alenezi, M. (2023). Social media use and English language learning in higher education: A systematic review. Education and Information Technologies, 28(9), 11235–11260.
2. Kohnke, L., Moorhouse, B. L., & Zou, D. (2023). Exploring social media for language learning: A review of current practices and future directions. Computer Assisted Language Learning, 36(7), 1265–1289.
3. Sun, Y., & Asmawi, A. (2022). The role of social media in English language learning: A systematic literature review. Education and Information Technologies, 27(8), 10963–10987.
4. Mayer, R. E. (2021). Multimedia learning (3rd ed.). Cambridge University Press.
5. Manca, S. (2020). Snapping, pinning, liking or texting: Investigating social media in higher education beyond Facebook. The Internet and Higher Education, 44, 100707.
6. Greenhow, C., & Lewin, C. (2016). Social media and education: Reconceptualizing the boundaries of formal and informal learning. Learning, Media and Technology, 41(1), 6–30.
7. Kaplan, A. M., & Haenlein, M. (2010). Users of the world, unite! The challenges and opportunities of social media. Business Horizons, 53(1), 59–68.
8. Hrastinski, S. (2009). A theory of online learning as online participation. Computers & Education, 52(1), 78–82.
9. Siemens, G. (2005). Connectivism: A learning theory for the digital age. International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2(1), 3–10.
10. Davis, F. D. (1989). Perceived usefulness, perceived ease of use, and user acceptance of information technology. MIS Quarterly, 13(3), 319–340.
11. Bandura, A. (1986). Social foundations of thought and action: A social cognitive theory. Prentice Hall.
12. Krashen, S. D. (1985). The input hypothesis: Issues and implications. Longman.
13. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.

TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING TASHKILIY – IQTISODIY MEXANIZMLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA)

Boyturayeva Mamura Uroyimovna
Namangan davlat texnika universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyati misolida tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, ularning amaldagi holati hamda rivojlantirish istiqbollari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida hududdagi kichik va o‘rta biznes subyektlari faoliyatining samaradorligi, investitsiyaviy muhit, shuningdek, tadbirkorlikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va tartibga solishning institutsional hamda iqtisodiy mexanizmlari o‘rganilgan. Statistik ma’lumotlar va hududning resurs salohiyatini tahlil qilish asosida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillar aniqlangan. Olingan natijalar asosida hududiy tadbirkorlik muhitini takomillashtirish, investitsiyaviy faollikni oshirish, biznes infratuzilmasini rivojlantirish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik faoliyati, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, Namangan viloyati, davlat tomonidan tartibga solish, kichik va o‘rta biznes, institutsional muhit, investitsiyaviy muhit, investitsiyalar, biznes infratuzilmasi, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the organizational and economic mechanisms for regulating entrepreneurial activity in the Namangan region, with particular emphasis on their current state and development prospects. The study examines the performance of small and medium-sized enterprises in the region, the investment environment, as well as the institutional and economic mechanisms of government regulation and support for entrepreneurship. Based on an analysis of statistical data and the region’s resource potential, the key factors constraining the development of entrepreneurial activity are identified. Drawing on the findings, the article develops scientific and practical proposals and recommendations aimed at improving the regional business environment, enhancing investment activity, developing business infrastructure, and increasing the effectiveness of government support mechanisms for entrepreneurship.

Key words: entrepreneurial activity, organizational and economic mechanism, Namangan region, government regulation, small and medium-sized enterprises, institutional environment, investment environment, investment, business infrastructure, government support.

Аннотация: В статье на примере Наманганской области проведён комплексный анализ организационно-экономических механизмов регулирования предпринимательской деятельности, их современного состояния и перспектив дальнейшего развития. В рамках исследования изучены эффективность деятельности субъектов малого и среднего бизнеса в регионе, инвестиционная среда, а также институциональные и экономические механизмы государственного регулирования и поддержки предпринимательства. На основе анализа статистических данных и ресурсного потенциала региона выявлены основные факторы, препятствующие развитию предпринимательской деятельности. По результатам исследования разработаны научно-практические предложения и рекомендации, направленные на совершенствование региональной предпринимательской среды, повышение инвестиционной активности, развитие бизнес-инфраструктуры и эффективности механизмов государственной поддержки предпринимательства.

Ключевые слова: предпринимательская деятельность, организационно-экономический механизм, Наманганская область, государственное регулирование, малый и средний бизнес, институциональная среда, инвестиционная среда, инвестиции, бизнес-инфраструктура, государственная поддержка.

KIRISH

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholi bandligini ta’minlash hamda yangi ish o‘rinlarini yaratish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadbirkorlik faoliyatining samarali rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadallashtirish, balki hududlarning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish,

raqobat muhitini rivojlantirish va aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar xususiy sektorni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, tadbirkorlik faoliyatiga ma'muriy aralashuvni qisqartirish hamda biznes subyektlarining huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan.

Namangan viloyati respublikaning aholi zichligi va mehnat resurslari salohiyati yuqori bo'lgan hududlaridan biri bo'lib, o'ziga xos tadbirkorlik an'analari, ishlab chiqarish imkoniyatlari hamda rivojlangan kichik biznes muhiti bilan ajralib turadi. Viloyatda, xususan, to'qimachilik, charm-poyabzal, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash kabi yo'nalishlarda tadbirkorlik faolligining yuqori sur'atlari kuzatilmoqda. Mazkur tarmoqlarning rivojlanishi hududning mavjud xomashyo bazasidan samarali foydalanish, qo'shilgan qiymat yaratish, eksport salohiyatini oshirish va yangi ish o'rinlarini tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shu bilan birga, hududda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va tartibga solishning amaldagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarida hal etilishi zarur bo'lgan ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta'minlanganlik darajasidagi tafovutlar, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy va kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar hamda ayrim ma'muriy tartib-taomillarning murakkabligi biznes faolligini oshirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mazkur omillar hududning mavjud iqtisodiy va resurs salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatlarini cheklab, tadbirkorlik muhitini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda takomillashtirish, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi institutsional hamkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlarning moliyaviy resurslar va infratuzilmadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda biznes yuritish uchun qulay muhitni shakllantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning amaldagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tizimli baholash, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va mavjud muammolarni aniqlash hamda hududning iqtisodiy xususiyatlari va resurs salohiyatini hisobga olgan holda mazkur mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va uni samarali tartibga solish masalalari iqtisodiy nazariya hamda zamonaviy institutsional tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlik iqtisodiy o'sish, innovatsion faollik, yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobat muhitini shakllantirish va hududlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishni ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, tadbirkorlikning rivojlanish darajasi faqat bozor mexanizmlariga emas, balki davlat tomonidan yaratilgan institutsional muhit, moliyaviy imkoniyatlar, infratuzilma, ma'muriy tartib-taomillar va tadbirkorlarning huquqiy himoyasi darajasiga ham bevosita bog'liqdir.

Tadbirkorlikning iqtisodiy mohiyatini yoritishda J. Shumpeterning ilmiy qarashlari alohida ahamiyatga ega. Olim tadbirkorni iqtisodiyotga yangi kombinatsiyalarni joriy qiluvchi, innovatsiyalarni amalga oshiruvchi va iqtisodiy rivojlanishning dinamikasini ta'minlovchi subyekt sifatida baholaydi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, yangi mahsulot ishlab chiqarish, yangi texnologiyalardan foydalanish, yangi bozorlarni o'zlashtirish va ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi usullarini joriy qilish tadbirkorlik faoliyatining muhim xususiyatlarini tashkil etadi. Mazkur yondashuv hududiy iqtisodiyotda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash innovatsion va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanishning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi.

F. Hayek tadbirkorlik va bozor mexanizmlarini iqtisodiy erkinlik hamda raqobat bilan bog'liq holda o'rganib, iqtisodiy subyektlarning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari bozor samaradorligining muhim sharti ekanligini asoslagan. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish biznes subyektlarining iqtisodiy tashabbuslarini cheklashga emas, balki raqobat uchun teng sharoit yaratish, mulk huquqini kafolatlash, bozorga kirishdagi ortiqcha to'siqlarni kamaytirish va institutsional barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilishi lozim.

Institutsional iqtisodiyot vakili D. Nort tadbirkorlik va iqtisodiy rivojlanishda institutlarning rolini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, rasmiy qoidalar, norasmiy me'yorlar va ularning bajarilishini ta'minlovchi mexanizmlar iqtisodiy subyektlarning xatti-harakatlari hamda bozor munosabatlarining samaradorligini belgilaydi. Mazkur nazariy yondashuv tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini faqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash vositalari bilan cheklamasdan, balki huquqiy muhit, davlat boshqaruvi sifati, ma'muriy tartib-taomillar, axborot ta'minoti va biznes infratuzilmasini yagona tizim sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda kichik va o'rta biznesning rivojlanishi hududiy iqtisodiy o'sish va aholi bandligini ta'minlash bilan uzviy bog'liq holda o'rganilmoqda. Kichik biznes subyektlari bozor talabidagi o'zgarishlarga nisbatan tez moslashishi, mahalliy resurslardan foydalanishi va nisbatan kam kapital asosida yangi ish o'rinlarini yaratishi bilan hududiy iqtisodiyotda muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, mehnat resurslari yuqori bo'lgan

hududlarda tadbirkorlik faolligini oshirish aholining iqtisodiy faolligini rag‘batlantirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish vositalaridan biri sifatida qaraladi.

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari tashkiliy va iqtisodiy vositalarning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida talqin qilinadi. Tashkiliy mexanizmlar tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziyalash va ruxsat berish tartiblarini soddalashtirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, tadbirkorlarga axborot va maslahat xizmatlarini ko‘rsatish hamda davlat va biznes o‘rtasidagi institutsional hamkorlikni rivojlantirishni qamrab oladi. Iqtisodiy mexanizmlar esa soliq va kredit instrumentlari, subsidiyalar, kafilliklar, investitsiyaviy rag‘batlantirish, infratuzilmaviy qo‘llab-quvvatlash hamda tadbirkorlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan tavsiflanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashga oid farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hamda Namangan viloyati statistika boshqarmasining rasmiy statistik ma’lumotlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning sohaga oid ilmiy ishlari o‘rganildi va tahlil qilindi. Mazkur manbalar asosida Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari, hududning iqtisodiy va resurs salohiyati hamda tadbirkorlikni tartibga solishning amaldagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari baholandi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullardan foydalanildi:

1. **Tizimli va qiyosiy tahlil** – Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyatining so‘nggi yillardagi rivojlanish dinamikasi, tarkibiy o‘zgarishlari va asosiy tendensiyalarini aniqlash hamda tegishli ko‘rsatkichlarni o‘zaro taqqoslash uchun qo‘llanildi.
2. **SWOT-tahlil** – hududdagi tadbirkorlik muhitining kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari hamda rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni tizimli aniqlash va baholash maqsadida amalga oshirildi.
3. **Statistik va ekonometrik tahlil hamda guruhlash usullari** – tadbirkorlik faoliyatini ifodalovchi asosiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarish dinamikasini aniqlash, hududlar kesimida qiyosiy baholash va ular o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqliklarni tahlil qilish uchun foydalanildi.
4. **Mantiqiy umumlashtirish usuli** – tadqiqot natijalarini tizimlashtirish, aniqlangan muammo va tendensiyalar asosida ilmiy xulosalar chiqarish hamda tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Namangan viloyati iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasida kichik va o‘rta biznes subyektlarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Hududda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni, ularning iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi hamda ular tomonidan yaratilayotgan yangi ish o‘rinlari dinamikasining tahlili xususiy sektorning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Xususan, kichik va o‘rta biznesning sanoat, xizmat ko‘rsatish, savdo, qurilish, qishloq xo‘jaligi hamda mahsulotlarni qayta ishlash sohalaridagi faolligi hudud iqtisodiyotining tarmoq jihatdan diversifikatsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatining kengayishi mahalliy resurslardan samarali foydalanish, qo‘shilgan qiymat yaratish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va aholi bandligini ta’minlash imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Shu jihatdan, kichik va o‘rta biznes Namangan viloyatida iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va hududning investitsiyaviy faolligini kuchaytiruvchi muhim tarkibiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur tendensiyalar hududda tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

1-jadval: **Namangan viloyatida iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari (sohalar misolida)**

Soha	Ulushi (%)	Asosiy xususiyatlari
Sanoat va qayta ishlash	32%	To‘qimachilik, trikotaj va charm-poyabzal klasterlari yetakchi
Qishloq xo‘jaligi	25%	Bog‘dorchilik, issiqxona xo‘jaligi va agromahsulotlar eksporti
Xizmat ko‘rsatish va savdo	31%	Chakana va ulgurji savdo, maishiy xizmatlar
Qurilish va boshqa sohalar	12%	Uy-joy va infratuzilma obektlarini barpo etish

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir qator institutsional, iqtisodiy va moliyaviy vositalarni qamrab oladi. Mazkur mexanizmlarning asosiy elementlarini quyidagi yo‘nalishlarda tizimlashtirish mumkin.

1. Tashkiliy-institutsional mexanizmlar:

- “Yagona darcha” tamoyili asosida davlat xizmatlarini ko‘rsatish tizimining joriy etilishi tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, litsenziya va ruxsat berish bilan bog‘liq tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularni amalga oshirish muddatlarini qisqartirish imkonini berdi.
- Kichik sanoat zonalari (KSZ) va maxsus iqtisodiy zonalarning (MIZ) tashkil etilishi tadbirkorlik subyektlarini zarur ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan ta’minlash, yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda mavjud hududiy resurslardan samarali foydalanishga xizmat qilmoqda.
- Hokim yordamchilari institutining joriy etilishi mahalla darajasida tadbirkorlik tashabbuslarini aniqlash, aholi bandligini ta’minlash, biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni manzilli hal etish imkoniyatlarini kengaytirdi.

2. Iqtisodiy va moliyaviy mexanizmlar:

- Tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlash, kredit mablag‘larini jalb etishda davlat tomonidan kafillik va boshqa moliyaviy qo‘llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish kichik va o‘rta biznesning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.
- Soliq imtiyozlari va preferensiyalarini faoliyat turi, hududning rivojlanish darajasi hamda investitsiya loyihalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘llash tadbirkorlik faolligini rag‘batlantiruvchi muhim iqtisodiy vositalardan biri hisoblanadi.
- Subsidiyalar, investitsiyaviy grantlar va boshqa moliyaviy rag‘batlantirish vositalarining qo‘llanilishi yangi biznes loyihalarini amalga oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va tadbirkorlik subyektlarining investitsiyaviy faolligini oshirish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashning amaldagi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari muayyan ijobiy natijalarni ta’minlayotgan bo‘lsa-da, ularning samaradorligini cheklovchi qator tizimli muammolar saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

1. Infratuzilmaviy cheklovlar

Viloyatning ayrim hududlarida, jumladan, Yangiqo‘rg‘on, Chust va Pop tumanlarida ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan elektr energiyasi, tabiiy gaz va suv ta’minotining barqarorligi bilan bog‘liq muammolar tadbirkorlik subyektlarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Shuningdek, ayrim kichik sanoat zonalarida muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish va mavjud infratuzilmani modernizatsiya qilish jarayonlarining yetarli darajada tez amalga oshirilmasligi investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida ishga tushirishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi

Tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy resurslarning qiymati, kreditlash shartlari va garov ta’minotiga qo‘yiladigan talablar, ayniqsa, kichik biznes vakillarining investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklovchi omillardan biri bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, subsidiyalar va boshqa davlat moliyaviy ko‘magini olish bilan bog‘liq tartib-taomillarning murakkabligi mazkur qo‘llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish samaradorligini pasaytirishi mumkin.

3. Malakali kadrlar va innovatsion infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi

Hududda zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarini o‘zlashtira oladigan, raqamli yechimlardan samarali foydalanadigan, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish kompetensiyalariga ega muhandis-texnik hamda boshqaruv kadrlariga ehtiyoj mavjud. Shu bilan birga, innovatsion infratuzilma, texnologik konsalting, biznes-inkubatsiya va zamonaviy boshqaruv xizmatlarini rivojlantirish tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish mexanizmining SWOT-tahlili

Kuchli tomonlar:

- hududning yuqori mehnat salohiyati va aholida shakllangan tadbirkorlik tajribasi;

- to‘qimachilik, hunarmandchilik va boshqa an’anaviy ishlab chiqarish tarmoqlarida shakllangan ixtisoslashuv;
- kichik sanoat zonalari va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilmaning mavjudligi.

Zaif tomonlar:

- energetika va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasidagi mavjud cheklovlar;
- garov ta’minoti bilan bog‘liq muammolar hamda uzoq muddatli va nisbatan arzon moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi;
- ayrim tadbirkorlik subyektlarida zamonaviy korporativ boshqaruv, raqamli texnologiyalar va innovatsion biznes modellarining yetarli darajada joriy etilmaganligi.

Imkoniyatlar:

- Qirg‘iziston va Tojikiston bozorlariga geografik yaqinlikdan foydalanish orqali tashqi savdo aloqalarini kengaytirish va hududning eksport salohiyatini oshirish;
- mahalliy korxonalar o‘rtasida sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish va autsorsing munosabatlarini rivojlantirish;
- qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarishning energiya ta’minotiga bog‘liq xatarlarini kamaytirish.

Xavf-xatarlar:

- tashqi bozorlardagi konyunktura o‘zgarishlari, talabning beqarorligi va xalqaro logistika xarajatlarining oshishi;
- xomashyo va energiya resurslari narxlarining o‘zgaruvchanligi natijasida ishlab chiqarish tannarxining oshishi;
- ichki va tashqi bozorlarda mintaqalararo hamda xalqaro raqobatning kuchayishi.

SWOT-tahlil natijalari Namangan viloyatida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun mavjud mehnat, ishlab chiqarish va eksport salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu imkoniyatlarni to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun infratuzilmaviy cheklovlarni kamaytirish, tadbirkorlarning moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini biznes ehtiyojlariga muvofiqlashtirish hamda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish zarur. Mazkur yo‘nalishlarning kompleks amalga oshirilishi hududda tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish va kichik hamda o‘rta biznesning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ularning amaliy samaradorligini oshirish hamda hududda qulay biznes muhitini shakllantirish maqsadida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

1. Institutsional va ma’muriy mexanizmlarni raqamlashtirish:

- hududiy davlat boshqaruvi organlari va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni bosqichma-bosqich to‘liq raqamli platformalarga o‘tkazish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish jarayonlarida inson omilini kamaytirish, ma’muriy tartib-taomillarni soddalashtirish hamda ularning shaffofligini oshirish;
- tadbirkorlik subyektlarining murojaatlari, mavjud muammolari va ularni hal etish jarayonlarini raqamli monitoring qilish tizimini rivojlantirish;
- hokim yordamchilari faoliyati samaradorligini tadbirkorlik subyektlari sonining o‘sishi, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va mavjud biznes muammolarining hal etilishi kabi aniq natijaviy ko‘rsatkichlar (KPI) asosida baholash tizimini takomillashtirish.

2. Infratuzilmani rivojlantirish va muhandislik-kommunikatsiya ta’minotini yaxshilash:

- kichik sanoat zonalari va qishloq hududlarida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlaridan foydalanish asosida muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish, shuningdek, quyosh energetikasi kabi qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish;

- ishlab chiqarish hududlarini elektr energiyasi, tabiiy gaz, suv, transport-logistika va zamonaviy telekommunikatsiya infratuzilmasi bilan barqaror ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratish;
- hududiy infratuzilmani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda tadbirkorlik subyektlarining real ehtiyojlari, investitsiya loyihalarining istiqbollari hamda tarmoqlarning rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish mexanizmlarini kuchaytirish.

3. Moliyaviy-kredit mexanizmlarini optimallashtirish:

- tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari doirasida kreditlar bo'yicha kafillik va foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- istiqbolli va yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tadbirkorlik loyihalarini uzoq muddatli moliyaviy resurslar bilan ta'minlash mexanizmlarini rivojlantirish;
- klaster loyihalarini moliyalashtirishning zamonaviy usullarini joriy etish, venchur kapitali, mikromoliyalashtirish va boshqa muqobil moliyaviy instrumentlardan foydalanishni rag'batlantirish;
- moliyaviy resurslarni ajratishda loyihaning iqtisodiy samaradorligi, innovatsion xususiyati, eksport salohiyati va yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyatlarini asosiy mezonlar sifatida qo'llash.

4. Kadrlar tayyorlash va ishlab chiqarish kooperatsiyasini rivojlantirish:

- viloyatdagi oliy va professional ta'lim tashkilotlarida tadbirkorlik subyektlarining real ehtiyojlari va buyurtmalari asosida zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, raqamli boshqaruv, marketing, logistika va eksport faoliyati bo'yicha amaliy kompetensiyalarga ega mutaxassislarni tayyorlash;
- ta'lim tashkilotlari va biznes subyektlari o'rtasida dual ta'lim, amaliyot va stajirovka dasturlarini kengaytirish orqali mehnat bozoridagi talab bilan kadrlar tayyorlash tizimi o'rtasidagi muvofiqlikni kuchaytirish;
- yirik sanoat korxonalari hamda kichik va o'rta biznes subyektlari o'rtasidagi ishlab chiqarish kooperatsiyasi va autsorsing aloqalarini chuqurlashtirish;
- mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, mahalliylashtirish darajasini oshirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan kooperatsion loyihalarni rag'batlantirish.

Mazkur takliflarning kompleks va izchil amalga oshirilishi Namangan viloyatida tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari samaradorligini oshirish, ma'muriy va infratuzilmaviy cheklovlarni kamaytirish, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish hamda hududning investitsiyaviy jozibadorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada xususiy sektorning hududiy iqtisodiy o'sishdagi roli kuchayib, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish, aholi bandligini ta'minlash hamda yangi va barqaror ish o'rinlarini yaratish uchun qo'shimcha imkoniyatlar yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
2. Abduvaliyev A. A. Hududiy iqtisodiyot va tadbirkorlik faoliyatini boshqarish mexanizmlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
3. Rahimov M. S. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish hamda qo'llab-quvvatlash usullari. – Namangan: NamDU nashriyoti, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Namangan viloyati statistika axborotnomasi: 2023–2025-yillar. – Toshkent, 2023–2025.
5. Smith J., Johnson R. Institutional Mechanisms and Regional Entrepreneurship Development // Journal of Regional Economic Policy. – 2019. – Vol. 45, No. 2. – P. 112–128.
6. Toshmatov Sh. A. Tadbirkorlik muhitini yaxshilashda moliyaviy-kredit mexanizmlarining o'rni // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. – 2022. – № 3.

KO‘P TARMOQLI IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Mirxaliqov Bobur Zikrilloyevich
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiylashuv jarayoniga oid nazariy yondashuvlar tahlil qilingan. Ijtimoiylashuvning bolaning shaxs sifatida shakllanishi va jamiyatga moslashuvidagi ahamiyati yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvining asosiy bosqichlari hamda ushbu jarayonga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tavsiflangan. Bolaning dastlabki ijtimoiy tajribani egallashi, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishi va shaxslararo munosabatlarni shakllantirishida oilaning yetakchi o‘rni asoslab berilgan. Shuningdek, alohida yordamga muhtoj bolalarning individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga pedagogik-psixologik yondashuvni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiylashuv, imkoniyati cheklangan bolalar, maktabgacha yosh, psixologik xususiyatlar, psixik rivojlanish, ijtimoiy xulq-atvor, “Men” konsepsiyasi, idrok, tafakkur, ijtimoiy tajriba, ontogenez, ijtimoiy munosabatlar.

Abstract: This article analyzes theoretical approaches to the socialization of preschool children with disabilities. It examines the role of socialization in children’s personality development and adaptation to the social environment. The main stages of socialization in preschool children and the socio-psychological factors influencing this process are described. Particular emphasis is placed on the leading role of the family in children’s acquisition of initial social experience, internalization of norms of social behavior, and development of interpersonal relationships. The article also discusses specific aspects of psychological and pedagogical approaches to children requiring special support, taking into account their individual and psychological characteristics.

Key words: socialization, children with disabilities, preschool age, psychological characteristics, mental development, social behavior, self-concept, perception, thinking, social experience, ontogenesis, social relationships.

Аннотация: В статье анализируются теоретические подходы к процессу социализации детей дошкольного возраста с ограниченными возможностями здоровья. Раскрывается значение социализации в становлении личности ребёнка и его адаптации к социальной среде. Охарактеризованы основные этапы социализации детей дошкольного возраста, а также социально-психологические факторы, влияющие на данный процесс. Обоснована ведущая роль семьи в приобретении ребёнком первоначального социального опыта, усвоении норм социального поведения и формировании межличностных отношений. Особое внимание уделено специфике организации психолого-педагогического подхода к детям, нуждающимся в особой помощи, с учётом их индивидуальных и психологических особенностей.

Ключевые слова: социализация, дети с ограниченными возможностями здоровья, дошкольный возраст, психологические особенности, психическое развитие, социальное поведение, Я-концепция, восприятие, мышление, социальный опыт, онтогенез, социальные отношения.

KIRISH

Globallashuv sharoitida ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jamiyatning uzluksiz yangilanishi va barqaror rivojlanishida shaxsning ijtimoiylashuvi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs jamiyatda shakllangan ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar, xulq-atvor namunalari va munosabatlar tizimini o‘zlashtirib, ijtimoiy hayotning faol subyekti sifatida shakllanadi. Shu nuqtai

nazardan, jamiyat tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy ta'sirlar ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda bolalarning, jumladan, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning sifatli maktabgacha ta'lim olishi hamda ijtimoiy muhitga moslashishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan "Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan [1].

Mazkur normativ-huquqiy hujjatda ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan korreksion-pedagogik ishlarning asosiy yo'nalishlari belgilangan. Ushbu faoliyatning muhim maqsadlaridan biri bolalarning emotsional, ijtimoiy va intellektual rivojlanishi uchun qulay pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, ularda ijobiy shaxsiy sifatlar, ijtimoiy ko'nikmalar va moslashuvchan xulq-atvorni shakllantirishdan iborat.

Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida eshitish va ko'rishida og'ir nuqsonlari bo'lgan, psixik rivojlanishida kechikish kuzatiladigan, intellektual rivojlanishida o'ziga xos ehtiyojlari mavjud hamda tayanch-harakat apparatida nuqsonlari bo'lgan bolalarga ularning individual rivojlanish imkoniyatlari va alohida ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya hamda korreksion-pedagogik yordam ko'rsatiladi. Bunday yondashuv bolalarning mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning atrofdagilar bilan samarali muloqotini shakllantirish va ijtimoiy muhitga moslashuvini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, mazkur nizomda belgilangan tashkiliy, pedagogik va korreksion mexanizmlar alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarning ijtimoiylashuv jarayonini tizimli va kompleks tashkil etish uchun muhim me'yoriy asos yaratadi. Bunda ta'lim-tarbiya, psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash, korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat hamda oila bilan hamkorlikning o'zaro uyg'unligi bolaning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fransuz sotsiologi G. Tardning nazariy qarashlariga ko'ra, har bir individda "ijtimoiy fakt" mavjud bo'lib, u faqat alohida shaxsning individual ong faoliyati doirasida emas, balki individlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va ijtimoiy aloqalar jarayonida shakllanadi. Olim ijtimoiy xulq-atvor modelini shaxslararo munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda talqin etadi. Uning fikricha, ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishida taqlid mexanizmi muhim o'rin tutadi: individ boshqa shaxslarning xatti-harakatlari, munosabatlari va xulq-atvor namunalarini o'zlashtirish orqali ijtimoiy tajribaga ega bo'ladi. Shu sababli shaxsning rivojlanishi va ijtimoiylashuvini uni o'rab turgan ijtimoiy muhit hamda boshqa individlar bilan o'zaro munosabatlaridan ajratilgan holda o'rganish mumkin emas [5].

Imkoniyati cheklangan bolalar shaxsining ijtimoiylashuvi jamiyatda qabul qilingan bilimlar, qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar, xulq-atvor qoidalari va munosabatlar tizimini o'zlashtirish orqali ijtimoiy hayotga bosqichma-bosqich integratsiyalashuv jarayonidir. Ushbu jarayon bolaning nafaqat ijtimoiy muhitga moslashishini, balki muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy tajribani egallash, o'z xatti-harakatlarini boshqarish va jamiyat hayotida faol ishtirok etish kompetensiyalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

Bolalarning maktabgacha yosh davridan boshlab jamiyat va ijtimoiy guruhlarda qabul qilingan me'yorlar, qadriyatlar hamda xulq-atvor talablarini o'zlashtirib borishi ularning keyingi ijtimoiy moslashuvi uchun muhim psixologik-pedagogik asos yaratadi. Ayniqsa, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bolalarda mustaqillik, ijtimoiy faollik, samarali muloqot, muammoli vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilish hamda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni konstruktiv tarzda bartaraf etish ko'nikmalarini erta yoshdan rivojlantirish ularning kelgusida mustaqil hayotga tayyorlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarning shaxs sifatida shakllanishi va ijtimoiy rivojlanishini tadqiq etishda "ijtimoiylashuv" tushunchasi muhim ilmiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Ijtimoiylashuv jarayonida bola nafaqat jamiyat tomonidan qabul qilingan xulq-atvor namunalari, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlarni o'zlashtiradi, balki ijtimoiy muhit bilan faol o'zaro munosabatga kirishadi. Mazkur o'zaro ta'sir natijasida uning atrof-muhit, jamiyat va shaxslararo munosabatlar haqidagi tasavvurlari kengayib, ijtimoiy tajribasi boyib boradi. Shu bilan birga, bolada o'z "Men"ini anglash, o'z imkoniyatlari va individual xususiyatlarini idrok etish jarayoni kechadi hamda "Men" konsepsiyasi bosqichma-bosqich shakllanadi.

Bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy ijtimoiylashuv institutlari sifatida oila, tengdoshlar guruhi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarini ko'rsatish mumkin. Ular orasida oila birlamchi ijtimoiylashuv muhiti sifatida alohida ahamiyatga ega. Aynan oilada bola dastlabki ijtimoiy tajribani egallaydi, shaxslararo munosabatlar tizimiga kirishadi, muloqot va xulq-atvor me'yorlarini

o‘zlashtiradi hamda jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar bilan tanishadi. Shu jihatdan, maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvida oilaning tarbiyaviy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari muhim o‘rin tutadi.

T. Parsonsning nazariy qarashlariga ko‘ra, ijtimoiylashuvning asosiy vazifalaridan biri individning mavjud ijtimoiy tizimga moslashishi va jamiyatda belgilangan ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishidir. Olim ijtimoiylashuv jarayonida oila va ta’lim institutlarining o‘rniga alohida e’tibor qaratib, ularni shaxs tomonidan ijtimoiy me’yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor modellarini o‘zlashtirishning muhim mexanizmlari sifatida talqin etadi [4].

Imkoniyati cheklangan ayrim bolalarda shaxslararo munosabatlarni o‘rnatish, tengdoshlari bilan samarali muloqot qilish, o‘z xatti-harakatlarini boshqarish hamda kommunikativ o‘zaro ta’sirni tashkil etishda muayyan qiyinchiliklar kuzatilishi mumkin. Bunday holatda oiladagi sog‘lom psixologik muhit, ota-onalarning bolaga nisbatan qo‘llab-quvvatlovchi munosabati va oila a’zolari o‘rtasidagi konstruktiv muloqot bolaning ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli bolaning individual xususiyatlari va alohida ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda oila bilan tizimli psixologik-pedagogik hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur.

G. Terri, J. Peydj, B. Tomas va boshqa tadqiqotchilar ijtimoiylashuvni shaxsning oila va jamoa bilan ijtimoiy aloqalarni o‘rnatishi hamda tegishli ijtimoiy rollarni o‘zlashtirishi bilan bog‘liq jarayon sifatida talqin qiladilar [3]. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, bolaning ijtimoiylashuvida ijtimoiy muhit, ayniqsa, uning birlamchi mikromuhiti hisoblangan oila alohida ahamiyat kasb etadi. Oila bolaning ijtimoiy tajribasi, qadriyatlar tizimi, muloqot madaniyati va xulq-atvor modellarining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini ta’minlashda ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o‘rtasidagi hamkorlikni samarali tashkil etish muhim pedagogik-psixologik vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday hamkorlik pedagog, psixolog, korreksion pedagog va ota-onalarning o‘zaro muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta’minlab, bolaning ijtimoiy moslashuvi, kommunikativ ko‘nikmalari, mustaqilligi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METOLOGIYASI

Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy pedagogik maqsadi alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning individual imkoniyatlari, rivojlanish xususiyatlari va mavjud ehtiyojlarini hisobga olgan holda ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur pedagogik, psixologik hamda korreksion-rivojlantiruvchi shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Bunday ta’lim muhitida bolaning jismoniy, intellektual, emotsional, ijtimoiy va kommunikativ rivojlanishi o‘zaro uzviy bog‘liq holda qo‘llab-quvvatlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tashkilotlarda pedagogik jarayon faqat bolaga muayyan bilim va ko‘nikmalarni o‘rgatish bilan cheklanmay, balki uning mavjud imkoniyatlarini aniqlash, rivojlanishidagi qiyinchiliklarni imkon qadar korreksiyalash va kompensatsiyalash, mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ijtimoiy muhitga moslashuvini ta’minlashga yo‘naltiriladi. Shu jihatdan, ta’lim-tarbiya jarayonida individual va differensial yondashuv, korreksion-rivojlantiruvchi metodlar, maxsus pedagogik texnologiyalar hamda psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlaridan kompleks foydalanish talab etiladi.

Alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarning rivojlanish darajasi, bilish jarayonlari, kommunikativ imkoniyatlari, emotsional-irodaviy holati va ijtimoiy ko‘nikmalari o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli pedagogik faoliyat bolaning mavjud qiyinchiliklariga emas, avvalo, uning rivojlanish imkoniyatlari va saqlangan funksiyalariga tayangan holda tashkil etilishi maqsadga muvofiq. Bunda bolaning idrok, diqqat, xotira, tafakkur va nutq kabi bilish jarayonlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, o‘z-o‘ziga xizmat qilish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, muloqotga kirishish, o‘z xatti-harakatlarini boshqarish va turli ijtimoiy vaziyatlarda adekvat munosabat bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish ham ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining faoliyati rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo‘lgan bolalarning maktabgacha ta’lim olishi, shuningdek, ularni tarbiyalash va reabilitatsiya qilishga qaratilgan.

Tadqiqot ishimizning asosiy mohiyati maktabgacha yoshdagi bolalarni jamiyat talablariga moslashtirish, ularning ijtimoiylashuvini ta’minlash hamda jamiyatning faol a’zosi bo‘lishga tayyorlashning ilmiy-nazariy jihatlarini asoslashdan iborat. Ijtimoiylashuv jarayonida tarbiyaning o‘rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuv jarayoni muayyan bosqichlarda namoyon bo‘ladi (1-rasm).



1-rasm: **Maktabgacha yoshdagi bola ijtimoiylashuvi bosqichlari**


Maktabgacha yosh davrida bolalarning bilish jarayonlarining jadal rivojlanishi ularning faol ijtimoiylashuviga turtki beradi. Ijtimoiylashuv va individuallashuv darajasining oshishi bolaning ijtimoiy aloqalari kengayishi hamda uning qarashlari o'zgarishi bilan bog'liq holda kechadi. Uch yoshgacha bo'lgan davrda bolalarning ijtimoiylashuvi va individuallashuvi, asosan, boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish va o'zlashtirish shaklida namoyon bo'ladi. Uch yoshga kelib, bola o'zining "Men"ini anglay boshlaydi, o'zini tan olish va o'zini belgilashning dastlabki belgilari paydo bo'ladi, "Men va boshqalar" munosabatiga kirishadi hamda insoniy muloqot me'yorlarini o'zlashtirib boradi. Olti-yetti yoshdagi bolalar esa atrofdagi ijtimoiy muhit, undagi munosabatlar va hodisalarni tahlil qilish hamda baholashga intiladilar.

Shaxs sifatida rivojlanib borayotgan bolada ijtimoiy tajriba xatti-harakat va muloqot shakllarini o'zlashtirish, o'zining jamiyatdagi o'rnini anglash, o'zini boshqalar o'rniga qo'ya bilish hamda atrof-muhitga nisbatan mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishga tayyorlik orqali namoyon bo'ladi. Bunday qarashlarning shakllanishi bolaning ijtimoiy rivojlanish jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Bolalarda faoliyat turlarining kengayishi, jamiyatga nisbatan munosabatning shakllanishi, o'zlikni va o'zini o'zi anglash hamda ijtimoiy mas'uliyat hissining rivojlanishi individuallashuv va ijtimoiylashuv bosqichlarining muhim ko'rsatkichlari sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiylashuv va individuallashuvning o'zaro uyg'unlashuvi pedagogik amaliyotda uzviy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Har ikki jarayon bir-birini rivojlantiradi va mazmunan to'ldiradi. Individuallashuv ijtimoiylashuv jarayonining muhim natijalaridan biri hisoblanadi, o'z navbatida, individuallashuvning keyingi rivojlanishi ham ijtimoiylashuv jarayoni orqali amalga oshadi. Ijtimoiylashuv bola shaxsiga jamiyatda qabul qilingan me'yorlar, qadriyatlar va munosabatlarni o'zlashtirish imkonini berib, ular bola uchun muayyan "xulq-atvor shakli" sifatida xizmat qiladi.

Individuallashuv va ijtimoiylashuv jarayonlari o'zaro ta'sir ko'rsatib, bir-birini to'ldiradi va rivojlantiradi. Bola faoliyati ontogenez jarayonida murakkablashib borishi bilan ushbu jarayonlarning mazmuni ham o'zgaradi va rivojlanishning muayyan bosqichlarida ulardan biri nisbatan ustuvor ahamiyat kasb etishi mumkin.

Bolalarning ijtimoiylashuvi ikki asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi (2-rasm).



2-rasm: **Bolalarning ijtimoiylashuvi yo'nalishlari**

Bu jarayon vositachilar (kattalar) yoki bevosita ishtirokchilar (tengdoshlar) bilan o'zaro munosabatlar orqali ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish natijasida amalga oshadi. Shunday qilib, bolalarning ijtimoiy rivojlanishi kattalar bilan muloqot qilish, tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat jarayonida ijtimoiy me'yorlarni o'zlashtirish hamda atrof-muhitdagi narsa va hodisalar bilan o'zaro munosabatga kirishish orqali yuzaga keladi.

Guruhdagi tarbiyaviy ta'sir bolalarda tengdoshlari orasida o'zini tutish, o'zaro muloqotga kirishish, hamkorlik qilish va ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'zaro hamkorlikka undaydigan, ularning muloqotchanligini rivojlantiradigan hamda hissiy jihatdan birlashtiradigan asosiy faoliyat turlaridan biri o'yin faoliyati hisoblanadi. O'yin jarayonida bolalar muayyan ijtimoiy rollarni o'zlashtiradi, o'zaro munosabat o'rnatadi, kelishish, hamkorlik qilish va umumiy qoidalarga rioya etish tajribasini egallaydi. Shu jihatdan, o'yin faoliyati maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlovchi muhim pedagogik vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘yin maktabgacha yoshdagi bola uchun muhim faoliyat turi bo‘lib, unda erkinlik va mustaqillik hissining shakllanishiga imkon yaratadi. O‘yin jarayonida bolada turli harakatlarni amalga oshirish, tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishish, o‘z xatti-harakatlarini boshqarish, hissiy qulaylikka erishish, bolalar jamoasining faol ishtirokchisiga aylanish hamda erkin muloqot qilishga bo‘lgan moyillik rivojlanadi.

Ma’lumki, o‘yin faoliyati bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘yin jarayonida bolaning tasavvur qilish qobiliyati rivojlanadi, xatti-harakatlari va hissiyotlarini ixtiyoriy ravishda boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi, shuningdek, u o‘zaro ta’sir, hamkorlik va bir-birini tushunish tajribasini egallaydi. Bola o‘yin davomida turli ijtimoiy rollarni bajarish, belgilangan qoidalarga rioya qilish, o‘z manfaatlarini boshqalarning manfaatlari bilan muvofiqlashtirish hamda turli ijtimoiy vaziyatlarda tegishli xulq-atvor shakllarini namoyon etishni o‘rganadi.

Aynan maktabgacha ta’lim jarayonida maqsadli tashkil etilgan o‘yin faoliyatining subyektiv qadriyati va obyektiv rivojlantiruvchi imkoniyatlari o‘zaro uyg‘unlashib, bola hayoti va faoliyatini tashkil etishning eng maqbul shakllaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin bolaning qiziqish va ehtiyojlarini qondirish bilan bir qatorda, uning bilish jarayonlari, kommunikativ qobiliyatlari, emotsional-irodaviy sohasi hamda ijtimoiy kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘yin faoliyati jarayonida bolaning o‘zini anglashi hamda o‘z xatti-harakatlari va imkoniyatlarini baholash qobiliyati asta-sekin shakllanib boradi. Bunda bolada o‘zini tengdoshlari bilan taqqoslash, ularning xatti-harakatlari va faoliyat natijalariga munosabat bildirish hamda o‘zining guruhdagi o‘rnini anglashga bo‘lgan ehtiyoj yuzaga keladi. Ayniqsa, tengdoshlar bilan o‘zaro munosabat jarayonida bunday ijtimoiy taqqoslash faollashib, bolaning o‘zini o‘zi anglashi, o‘zini baholashi va “Men” konsepsiyasining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.
3. Кривов Ю. И. Проблема социализации подрастающих поколений в зарубежной педагогике: дис. … канд. пед. наук. – М., 1992. – 20 с.
4. Парсонс Т., Шюц А. Теория социального действия. – М., 2021. – 224 с.
5. Тард Г. Социальная логика. – М., 2014. – 504 с.

SHARQ VA G'ARB PEDAGOGIKA TARIXIDAGI MA'NAVIY TARBIYA VA AXLOQIY QADRIYATLAR

Qodirova Nigora Farhodovna
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
ORCID: 0009-0005-9652-7417

Annotatsiya: Maqolada Sharq va G'arb pedagogikasi tarixida ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlarning shakllanish bosqichlari, ularning inson kamolotidagi o'rni hamda pedagogik tafakkur taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilingan. Sharq va G'arb mutafakkirlarining axloqiy qarashlari qiyosiy jihatdan yoritilib, Konfutsiy ta'limoti, qadimgi tarixiy yodgorliklar va Sharq uyg'onish davri allomalarining ta'limiy-axloqiy merosi ilmiy asosda tadqiq etilgan. Shuningdek, ma'naviy qadriyatlarning shaxs tarbiyasi, jamiyat taraqqiyoti va zamonaviy pedagogik jarayonlardagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tarbiya, axloqiy qadriyatlar, Sharq pedagogikasi, G'arb pedagogikasi, Konfutsiy, pedagogik tafakkur, ma'naviy meros, komil inson, ta'lim-tarbiya, axloqiy kamolot.

Abstract: The article examines the formation of spiritual education and moral values in the history of Eastern and Western pedagogy, their role in human development, and their influence on the evolution of pedagogical thought. The moral concepts of Eastern and Western thinkers are comparatively analyzed, with particular attention paid to Confucian teachings, ancient historical sources, and the educational and ethical heritage of the Eastern Renaissance. Furthermore, the significance of spiritual values in personality development, social progress, and contemporary educational processes is highlighted.

Key words: spiritual education, moral values, Eastern pedagogy, Western pedagogy, Confucius, pedagogical thought, spiritual heritage, moral development, education, ethical upbringing.

Аннотация: В статье анализируются этапы формирования духовного воспитания и нравственных ценностей в истории восточной и западной педагогики, их роль в развитии личности и влияние на эволюцию педагогической мысли. На основе сравнительного подхода раскрываются нравственные взгляды мыслителей Востока и Запада, исследуются учение Конфуция, древние исторические памятники и духовно-нравственное наследие эпохи Восточного Возрождения. Особое внимание уделяется значению нравственных ценностей в воспитании личности, развитии общества и современных педагогических процессах.

Ключевые слова: духовное воспитание, нравственные ценности, восточная педагогика, западная педагогика, Конфуций, педагогическая мысль, духовное наследие, гармоничная личность, образование, нравственное развитие.

KIRISH

Sharqda ham, G'arbda ham ilk axloqiy fikrlar va qarashlar xalq og'zaki ijodi – maqollar, matallar, hikoyatlar, hikmatlar va rivoyatlarda namoyon bo'lgan, asrlar davomida ular og'izdan-og'izga o'tib bizgacha yetib kelgan. Sharq va G'arbda qadim zamonlardan hozirgi kungacha etikaning asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan evdemonizm (eudaimonia – baxt-saodat, rohat-farog'at, farovonlik) va gedonizm (nedone – lazzatlanish, huzur, zavq) g'oyalari tahlili muhim o'rin tutgan. Etika kategoriyalari, tamoyillari va me'yorlari xususida Sharqda ham, G'arbda ham ko'plab asarlar bitilgan [9].

Ayrim jihatlariga ko'ra Sharq va G'arb odami, eng avvalo, axloqiy, ruhiy, ma'naviy qiyofasi o'zaro farqlanadigan odamdir. Sharq odamining tarbiya yo'li, dunyoni anglash tarzi va urf-odatlari g'arblarnikiga o'xshamaydi. Sharqda ikki turli aql mavjudligi e'tirof qilingan. Birinchisi, aqli qul – ilohiy, qudratli, mutlaq aql bo'lib, ilohiy quvvatning faol natijasidan iborat. Aqli juz – kichik aql, insonning moddiy hayoti, yashash odobi, faoliyatiga tegishli. Fazoviy aql va ilohiy hissiyotlarga yetishgan buyuk insonlarning tabiati, odam va olam mohiyatini anglash miqyosi Sharqda ham, G'arbda ham deyarli bir xil. Ammo bu xususiy hodisa. Umumiy hodisa boshqa: Sharq – nafsga dushman, G'arb – nafsga do'st [2, B.301-303].

Sharq va G‘arb axloqiy qarashlarini qiyosiy tahlil qilish ularning xususiyatlari haqida ilmiy, adekvat xulosalar chiqarish imkonini beradi. Axloqiy tafakkur taraqqiyotida Xitoy mutafakkiri Konfutsiyning qarashlari muhim o‘rin tutadi. Uning ta’limotining ta’siri nafaqat Xitoy, balki boshqa mamlakatlarda ham yaqqol sezilgan. 1988-yilda Xalqaro Nobel mukofotining Parijdagi yig‘ilishi Murojaatnomasida insoniyat XXI asrda yashab qolishini istasa, XXIV asr ilgari yashab ijod etgan Konfutsiyning donishmandligidan yaxshi xabardor bo‘lmog‘i darkor, degan e’tirofdan ham buni anglash mumkin [3, B.7].

Konfutsiyning o‘z-o‘zini anglash haqidagi “ramziy” fikrlari diqqatni jalb qiladi:

- daraxt – odamlarga muhabbat, mehribonlik bo‘lib, bu odamiylikning boshlanishidir;
- temir – haqiqat, adolat bo‘lib, inson yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarishi lozimligini bildiradi;
- olov – udum, odatga sodiqlik, jumladan ota-onaga hurmat ko‘rsatishni anglatadi;
- uv – poklik, sog‘lom fikr, donolik, oqillik, o‘z xatti-harakati oqibatlarini oldindan ko‘ra bilish, o‘ziga chetdan qarash va baho bera olishni bildiradi;
- yer esa – saxovat, saxiylik ramzidir.

Konfutsiy fikriga ko‘ra, tartib bo‘lgan joyda tinchlik, barqarorlik, yuksak mas’uliyat va adolat qaror topadi; axloqi yuksak hukmdor o‘z xalqini yuksak darajaga ko‘tarishga harakat qiladi va buning uchun chora-tadbirlarni amalga oshiradi [9].

Konfutsiy oliyjanob inson masalasini ko‘tarib chiqqan ilk faylasuf hisoblanadi. Mutafakkir ta’kidlagan bilimlar ham nazariy, ham amaliy jarayon bo‘lib, unga muvofiq inson tomonidan axloqiy talablarning bajarilishi zarurligi asoslangan. Oliyjanob inson haqidagi tasavvur uch xil ko‘rinishga ega: uzoqdan qaraganda u juda jiddiy ko‘rinadi, yaqinlashgach – muloyim tuyiladi, gaplarini eshitganda esa cho‘rtkesar bo‘lib ko‘rinadi. Oliyjanob inson dunyoviy ishlarni bir-biridan ajratib bajarmaydi, balki burchga ko‘ra ish qiladi, u kiyim va yemakka emas, balki haq yo‘lga intiladi. U qo‘l ostida ishlash oson, lekin unga yoqish juda mushkul bo‘lgan, insonlardan foydalanishda har bir shaxsning qobiliyatiga qarab odilona ish ko‘radigan, qonun va intizomni mudom o‘ylaydigan inson sifatida tasvirlanadi.

Konfutsiy talqinicha, oliyjanob inson quyidagi to‘qqiz narsani o‘ylashi kerak:

1) ko‘rganini angladimi-yo‘q;
2) eshitganini aniq eshitdimi-yo‘q;
3) yuzidagi ifodasi yoqimlimi-yo‘q;
4) tashqi qiyofasida ehtirom zohirmi-yo‘q;
5) suhbatdagi so‘zlari samimiymi-yo‘q;
6) ishiga nisbatan tirishqoqmi-yo‘q;
7) savol tug‘ilganda so‘rashi kerakmi-yo‘q;
8) g‘azabini sochish yomon oqibatlarga olib keladimi-yo‘q;
9) erishish mumkin bo‘lgan narsa adolatga muvofiq keladimi-yo‘q [5, B.158-160].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Konfutsiy qarashlarining markazida jamiyatdagi tartib va axloqiy boshqaruv masalasi turadi. Faylasufning fikricha, insonlar hayotida tartib o‘rnatilgan taqdirda tinchlik, barqarorlik, yuksak mas’uliyat va adolat qaror topadi. Bu g‘oya nafaqat o‘z davri uchun, balki bugungi kun jamiyatlari uchun ham dolzarbdir, chunki tartib va qonuniylik bo‘lmagan muhitda adolat o‘rnashmaydi, barqarorlik izdan chiqadi va jamiyat tanazzulga yuz tutadi. Konfutsiy hukmdorning shaxsiy fazilatlariga alohida urg‘u beradi. Uning nazarida, axloqi yuksak hukmdor o‘z xalqini kuch ishlatish yoki majburiyatchilik bilan emas, balki odilona qarorlar, adolatli boshqaruv va ma’naviy yetakchilik orqali yuksak darajaga ko‘taradi. Bu jihat hukmdorni nafaqat siyosiy, balki ma’naviy lider sifatida tasvirlaydi hamda zamonaviy boshqaruv nazariyalarida ham muhim bo‘lgan “liderlikda axloq” masalasi bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Konfutsiy ta’limotining muhim qismini oliyjanob inson (junzi) konsepsiyasi tashkil etadi. Faylasuf bu tushunchani insonning shaxsiy kamoloti va jamiyat oldidagi mas’uliyati bilan bog‘laydi. Oliyjanob inson tashqi ko‘rinishda jiddiy, muloqotda muloyim, so‘zda esa haqqoniy bo‘lishi lozim; u nafsga berilmaydi, hashamatni maqsad qilmaydi, balki haqiqat yo‘lidan yuradi va yomonlikka ham yaxshilik bilan javob beradi. Junzining boshqaruvdagi o‘rni ham muhim: u qo‘l ostida ishlaydiganlarga nisbatan adolatli va talabchan bo‘lishi, insonlarni ularning qobiliyati va salohiyatiga qarab baholashi kerak – bu esa meritokratiya tamoyillarining qadimiy ildizlarini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, Konfutsiy ta'limotida shaxsiy axloqiy kamolot bilan jamiyatdagi boshqaruv tizimi o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, bu g'oyalar zamonaviy falsafa, pedagogika, sotsiologiya va boshqaruv ilmlarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishning namunasi tarzida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" hamda Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" kabi asarlari, Urxun-Enasoy bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o'rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta o'rin tutganidan dalolat beradi [8, 12-b].

Ma'lumki, kishilik jamiyatining vujudga kelishi jarayonida inson ham biologik, ham ijtimoiy jihatdan takomillashib borgan. Dastlabki diniy e'tiqodlar, eng oddiy ixtirolarning takomillashib borishi kabi holatlar inson ongining ham shakllanib borishiga turtki bo'ldi. Bu jarayon minglab yillarni o'z ichiga olgan bo'lib, ana shu davrda inson ongi shakllanishining asosi sifatida qabul qilingan xulq-odob qoidalari, ijtimoiy talablar yuzaga kelgan. Insoniyat tarixi davomida tarbiya, axloq va ma'naviyat tushunchalari jamiyat taraqqiyotining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib kelgan, shu bois eng qadimgi tarbiya haqidagi yodgorliklarning to'g'ridan-to'g'ri shakli bizgacha bevosita yetib kelmagan bo'lsa-da, ular bilvosita adabiy-tarixiy manbalarda aks ettirilgan.

Sharq va O'rta Osiyo xalqlarining tarbiyaviy qarashlari turli yozma yodgorliklar orqali saqlanib qolgan bo'lib, ular o'zida qadimgi insonlarning hayot tarzini, axloqiy qadriyatlarini, orzu-umid va qarashlarini mujassamlashtirgan. Jumladan, Strabonning "Geografiya"si, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk"i, Gerodotning "Tarix"i, Urxun-Enasoy bitiklari – bularning barchasi ma'naviy madaniyat va tarbiya masalalarini tarixiy shakllanish jarayonida yoritib bergan muhim manbalardir. Bu yodgorliklarda moddiy va ma'naviy madaniyat o'zaro uyg'unlikda tasvirlanib, diniy e'tiqodlarning paydo bo'lishi, inson ongining rivojlanishi, ixtirolar va mehnat faoliyatining shakllanishi orqali insoniyatning axloqiy va tarbiyaviy qoidalarga bo'lgan ehtiyoji ko'rsatilgan. Tarixiy yodgorliklar – eposlar, afsonalar, rivoyatlar – nafaqat estetik badiiyatni, balki o'sha davr kishilarining ichki dunyosini, tushuncha va hissiyotlarini, shuningdek, tarbiya, axloq va jamiyatga bo'lgan munosabatini ham ifoda etadi.

Qadimgi ajdodlarimiz insonga xos jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlarni qadrlaganlar. Bu xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan – tabiat va jamiyat hayotida ro'y bergan o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilik davrida qaror topgan turmush tarzi insonda ana shunday xislatlarning shakllanishini taqozo etgan. Ikki katta kuch – yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insonda yuqorida qayd etilgan xislatlarning bevosita tarkib topishiga turtki bo'lgan bo'lib, eng qadimgi qo'shiq va lirik she'rlarda jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlar tarannum etilgan. Bunday qo'shiq va lirik she'rlar XI asrda yashagan ulug' olim Mahmud Koshg'ariy tomonidan yaratilgan "Devonu lug'atit-turk" asari orqali bizgacha yetib kelgan. "Devon" she'rlarida ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'sti va xalqiga xiyonat kabi xislatlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi [8, 16-b].

Yuqoridagi fikrlarni to'ldirgan holda aytish mumkinki, qadimgi ajdodlarimizning insoniy fazilatlarni qadrlashga bo'lgan yondashuvi faqatgina axloqiy-me'yoriy doirada emas, balki ularning kundalik turmush tarzida, ijtimoiy munosabatlarida va madaniy merosida ham chuqur aks etgan. Shu boisdan, qadimiy yodgorliklarda aks etgan tarbiyaviy g'oyalarni o'rganish nafaqat tarixiy qiziqish uchun, balki bugungi yosh avlodni barkamol inson etib voyaga yetkazish yo'lida ham muhim ahamiyatga ega.

Sharq uyg'onishi davrida ma'naviy-ma'rifiy sohada asosiy masala inson muammosi edi. Insoniylik, insonni ulug'lash g'oyasi ta'lim-tarbiyaga oid asarlarning asosiy o'zagi sanalgan bo'lib, ta'limiy-axloqiy risolalar paydo bo'lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etildi. "Qutadg'u bilig", "Qobusnoma", "Hibbat ul-haqoyiq", "Guliston", "Bo'ston", "Axloqi Jaloliy", "Axloqi Nosiriy", "Axloqi Muhsiniy", "Mahbub ul-qulub" kabi Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Nasiriddin Tusiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy, Husayn Voiz Koshifiyning ta'limiy-axloqiy asarlari inson shaxsini ma'naviy-axloqiy shakllantirish muammosini hal etish sohasida yaratilgan muhim manbalar sifatida e'tirof etiladi.

Sharq uyg'onish davrida inson masalasi markaziy o'rinni egallagan bo'lib, mutafakkirlarning asosiy e'tibori insonning ma'naviy va axloqiy barkamolligiga qaratilgan. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Kaykovusning "Qobusnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq", Sa'diy Sheroziyning "Guliston" va "Bo'ston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" kabi asarlari Sharq pedagogik tafakkurining shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Islomiy manbalar, xususan Qur'on va Hadisdagi pand-nasihatlarning ta'siri bu davr asarlarida yaqqol ko'rinadi: halollik, saxovat, mehr-oqibat, ilm izlash kabi fazilatlarning ta'limiy-axloqiy meros markaziga aylangani Sharqdagi ta'limni diniy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirishning yuksak namunasi sifatida namoyon bo'ldi. Biroq mavjud talqinlarda ba'zi masalalarga tanqidiy yondashuv ham zarur. Avvalo, o'sha davrda yaratilgan asarlarni sof pedagogik asar sifatida baholash bir qadar mubolag'ali bo'lib ko'rinadi, chunki ular asosan falsafiy,

axloqiy va badiiy yo‘nalishdagi asarlar bo‘lib, pedagogik qarashlar ularning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘lgan. Shuningdek, XI asrda yozilgan “Qutadg‘u bilig” bilan XV asrdagi “Mahbub ul-qulub”ni bir xil darajada ko‘rib chiqish tarixiy aniqlikka to‘g‘ri kelmaydi, chunki ular turli davr va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda yozilgan.

Ta’limiy tizim masalasida ham ko‘plab jihatlar yetarli yoritilmagan. Aslida Sharqdagi madrasalar diniy bilim bilan bir qatorda matematika, mantiq, tibbiyot, falsafa kabi dunyoviy fanlarni ham o‘rgatishda muhim o‘rin tutgan – bu jihatni hisobga olmaslik Sharq ta’lim tizimining murakkab va serqirra tabiatini bir qadar soddalashtirib qo‘yadi. Shuningdek, ta’limiy-axloqiy asarlar faqat Qur’on va Hadis ta’sirida shakllangandek talqin etilishi ham bir tomonlama yondashuv bo‘lib, aslida ularda turkiy xalqlarning og‘zaki ijodi, forsiy adabiy an’analar va xalq donishmandligining kuchli ta’siri seziladi. Sharq uyg‘onishini faqat o‘z madaniy kontekstida ko‘rib chiqish ham mavzuni chegaralab qo‘yadi – uni Yevropa uyg‘onishi bilan qiyosiy tahlil qilinsa, mavzu yanada boyiydi: Yevropada gumanizm va shaxs huquqlari masalasi markaziy o‘rinda turgan bo‘lsa, Sharqda axloqiy komillik, jamiyat oldidagi mas’uliyat va ma’naviy barkamollik asosiy e’tiborni tashkil etgan.

Shu bilan birga, Sharq mutafakkirlarining qarashlari bugungi pedagogika uchun ham dolzarb saboqlar beradi. Ularning ta’limni insonni ma’naviy barkamollikka yetaklovchi jarayon sifatida talqin qilishi zamonaviy “shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim” konsepsiyasi bilan, Qur’on va Hadis asosida shakllangan axloqiy qadriyatlarning ijtimoiy-pedagogik tamoyilga aylanishi esa bugungi “ijtimoiy-emotsional ta’lim” nazariyalari bilan uyg‘unlashadi. Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavzuni yanada chuqur va tizimli o‘rganish, xususan ma’naviy tarbiyaning amaliy samaradorligini empirik yo‘l bilan baholash zaruriyati mavjud. Shu maqsadda quyida ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirishga qaratilgan integratsion metodika va uning amaliy sinovi natijalari keltirilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning birinchi bosqichida ma’naviy tarbiya samaradorligini oshirish maqsadida ilmiy asoslangan integratsion metodika ishlab chiqildi. Ushbu yondashuv o‘zbekistonlik olimlar G.N. Qurbonova (2022), G. Said-nazarova (2021) va A. Abdullayeva (2020)larning ilmiy izlanishlariga tayangan holda yaratildi. Ularning tadqiqotlari ta’lim jarayonida ma’naviy qadriyatlarni integratsiya qilish, ya’ni fanlararo bog‘liqlik orqali axloqiy tarbiyani shakllantirishning ilmiy asoslarini ochib bergan.

Metodikaning maqsadi – o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarni bilim bilan uyg‘un holda shakllantirish, milliy va umuminsoniy fazilatlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashishdir.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘quv jarayonida ma’naviy qadriyatlarni barcha fanlarga singdirish; har bir darsda axloqiy g‘oya yoki qadriyatni misol, adabiy matn yoki tarixiy shaxslar faoliyati orqali yoritish; o‘quvchilarda axloqiy fikrlash va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish. Tajriba Navoiy shahridagi 2 ta maktabda 9-sinf o‘quvchilari ishtirokida 3 oy davomida o‘tkazildi. Dastlab 40 nafar o‘quvchi nazorat, 40 nafari esa tajriba guruhiga kiritildi. Tajriba davomida o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tafakkuri maxsus savolnoma va kuzatuv jadvali orqali o‘lchandi.

1-jadval: **Metodikaning asosiy tamoyillari**

Tamoyil	Mazmuni
Fanlararo integratsiya	Har bir o‘quv fanida axloqiy mazmunni kiritish (matematika, tarix, adabiyotda misollar orqali)
Faol ishtirok	O‘quvchilarni muammoli vaziyat, rolli o‘yin, tahlil va bahs jarayoniga jalb qilish
Milliy qadriyatlar asosida yondashuv	O‘zbek xalqining ma’naviy merosi, buyuk allomalarning hikmatlari orqali ta’lim mazmunini boyitish
Refleksiya	O‘quvchi o‘z axloqiy fikrini tahlil qiladi, o‘zgarishni baholaydi
Amaliyotga yo‘naltirish	O‘rganilgan qadriyatlarni hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish

2-jadval: **Metodika bosqichlari**

Bosqich	Mazmun	Amalga oshirish shakli
1. Tayyorlov bosqichi	O‘quvchilarda axloqiy qadriyatlar haqida dastlabki tushuncha hosil qilish	Savol-javob, “fikr devori”, interfaol muloqot
2. Integratsion dars jarayoni	Asosiy fanlarda axloqiy g‘oyalarni singdirish	Misol: adabiyotda – vijdon; tarixda – adolat; biologiyada – mehnatsevarlik
3. Mustahkamlash bosqichi	O‘quvchi o‘z xulqini axloqiy me’yorlar bilan solishtiradi	Rolli o‘yin, axloqiy dilemmalar tahlili
4. Refleksiya bosqichi	O‘quvchilar o‘zidagi o‘zgarishni baholaydi	“Men qanday o‘zgardim?” insho yoki so‘rovnoma

Metodikani amalga oshirish jarayonida quyidagi vositalardan foydalanildi:

- axloqiy mazmunga ega matnlar, hikoyalar, maqollar;
- tasviriy materiallar (tarixiy shaxslar, allomalar hayoti);
- savolnoma va kuzatuv varaqalari;
- interfaol o'yinlar ("Halollik daraxti", "Vijdon mezoni");
- baholash mezonlari (axloqiy fikrlash, ijtimoiy mas'uliyat, o'zini tahlil qilish darajasi).

Metodika Navoiy viloyatidagi o'quvchilarda sinovdan o'tkazildi. Tajriba davomida jami 80 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tajriba boshlanishida va yakunida o'tkazilgan so'rovnoma va kuzatuv natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: **Tajriba natijalari**

Ko'rsatkich	Boshlang'ich holat	Yakuniy holat	O'sish foizi
Ma'naviy qadriyatlarni anglash	58%	84%	+26%
Axloqiy fikrlash mustaqilligi	52%	78%	+26%
Ijtimoiy faollik	49%	72%	+23%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida ma'naviy qadriyatlarni anglash ko'rsatkichi 58% dan 84% ga (+26%), axloqiy fikrlash mustaqilligi 52% dan 78% ga (+26%), ijtimoiy faollik esa 49% dan 72% ga (+23%) o'sgan. Barcha uchta ko'rsatkich bo'yicha ijobiy dinamika kuzatildi, bu esa qo'llanilgan integratsion metodikaning amaliy samaradorligidan dalolat beradi.

XULOSA

Sharq va G'arb pedagogik tafakkuri tarixini qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar har ikki sivilizatsiyada inson kamolotining asosiy mezoni sifatida e'tirof etilgan. Sharqda insonning ma'naviy barkamolligi, axloqiy pokligi va jamiyat oldidagi mas'uliyati ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lsa, G'arb pedagogik tafakkurida shaxs erkinligi, adolat va individual kamolot masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Konfutsiy ta'limoti, qadimgi tarixiy yodgorliklar hamda Sharq uyg'onish davri mutafakkirlarining merosi ma'naviy-axloqiy tarbiya tamoyillarining shakllanishida muhim nazariy manba bo'lib xizmat qilgan.

Olingan empirik natijalar ushbu nazariy asoslarning amaliyotda ham o'z tasdig'ini topishini ko'rsatdi – fanlararo integratsiyaga asoslangan metodika o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tafakkurini sezilarli darajada oshirdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, ma'naviy va axloqiy qadriyatlar tizimi jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamoloti hamda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biridir.

Zamonaviy pedagogika sharoitida Sharq va G'arbning ilg'or tarbiyaviy tajribalarini uyg'unlashtirish, yosh avlodda insonparvarlik, vatanparvarlik, mas'uliyat va ma'naviy yetuklik fazilatlarini shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Hashimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. // http://portal.guldu.uz/download-edfiles-3837.pdf
2. Haqqul I. Ijod iqlimi. – T.: Fan, 2009. – B.301-303.
3. Ismatullayeva N. Konfutsiy hayoti va Lun Yuy asari. – T.: TDSHI nashriyoti, 2013. – B.7.
4. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: Sharq matbaa konserni, 2009.
5. Konfutsiy. Suhbat va mulohazalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2014. – B.158-160.
6. Mavlonova A., Vohidova N.H., Rahmonqulova N.H. Pedagogika nazariyasi va tarixi: Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010.
7. Navoiy Alisher. Mahbub-ul qulub. – T.: Badiiy adabiyot, 1966.
8. Nishonova Sanobar. Pedagogika tarixi. II-qism: Darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005.
9. Ochilova B.M. Axloq falsafasi. // https://jdpu.uz/wp-content/uploads/2020/06/Axloq-falsafasi-B.M.Ochilova.pdf
10. Qoshg'ariy M. Devoni lug'otit turk. Turkiy so'zlar devoni. 3 tomlik. – T.: Fan, 1967.
11. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida. – T.: O'qituvchi, 1967.
12. Xoshimov K., Ochilov S. O'zbek pedagogikasi antologiyasi: O'quv qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 2010.
13. Yassaviy Ahmad. Shajarai saodat. Karomatlari. Hikmatlari. – Chimkent, 1992.
14. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilik. – T.: Yulduzcha.

SPORT GIMNASTIKASINING SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI MEXANIZMLARI VA KOMPLEKS SAMARALARI: TIZIMLI ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharapov Atabek Gayrat uli
Qoraqalpoq davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Sog'lom turmush tarzi shakllanishida sport gimnastikasining kompleks va uzoq muddatli samaralari yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Ushbu tadqiqotning maqsadi sport gimnastikasi orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot tizimli adabiyotlar tahlili usuliga asoslangan bo'lib, 2020-2024 yillar oralig'ida nashr etilgan 78 ta manbadan 12 tasi yakuniy tahlilga kiritildi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, muntazam gimnastika mashg'ulotlari suyak-mushak, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini mustahkamlaydi, harakat faolligi, muvozanat, kuch va chidamlilikni oshiradi. Shuningdek, u o'z-o'zini nazorat qilish, diqqatni jamlash, stressni boshqarish, o'ziga ishonch, jamoaviy ish va intizom kabi ruhiy-psixologik hamda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi kompleks ta'sirini ilmiy asoslaydi va uning amaliy ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: sport gimnastikasi, sog'lom turmush tarzi, jismoniy salomatlik, ruhiy-psixologik rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, tizimli adabiyotlar tahlili, bolalar va o'smirlar.

Abstract: The complex and long-term effects of sports gymnastics on forming a healthy lifestyle have not been sufficiently studied. The aim of this study is to scientifically substantiate the mechanisms of forming a healthy lifestyle through sports gymnastics. This research is based on a systematic literature review, where 12 sources from 78 identified publications between 2020-2024 were included in the final analysis. The analysis revealed that regular gymnastics strengthens musculoskeletal, cardiovascular, and respiratory systems, increasing motor activity, balance, strength, and endurance. Furthermore, it develops psycho-psychological and social skills such as self-control, concentration, stress management, self-confidence, teamwork, and discipline. In conclusion, this study scientifically substantiates the complex impact of sports gymnastics on forming a healthy lifestyle and emphasizes its practical significance.

Key words: sports gymnastics, healthy lifestyle, physical health, psycho-psychological development, social development, systematic literature review, children and adolescents.

Аннотация: Комплексные и долгосрочные эффекты спортивной гимнастики в формировании здорового образа жизни недостаточно изучены. Целью данного исследования является научное обоснование механизмов формирования здорового образа жизни посредством спортивной гимнастики. Исследование основано на методе систематического обзора литературы, в котором из 78 выявленных публикаций за 2020-2024 годы в окончательный анализ было включено 12 источников. Анализ показал, что регулярные занятия гимнастикой укрепляют опорно-двигательную, сердечно-сосудистую и дыхательную системы, повышая двигательную активность, равновесие, силу и выносливость. Кроме того, она развивает психолого-психические и социальные навыки, такие как самоконтроль, концентрация внимания, управление стрессом, уверенность в себе, командная работа и дисциплина. В заключение, данное исследование научно обосновывает комплексное влияние спортивной гимнастики на формирование здорового образа жизни и подчеркивает ее практическую значимость.

Ключевые слова: спортивная гимнастика, здоровый образ жизни, физическое здоровье, психолого-психическое развитие, социальное развитие, системный обзор литературы, дети и подростки.

KIRISH

Sog'lom turmush tarzi inson salomatligining asosiy omili bo'lib, uning shakllanishida sport gimnastikasi muhim ahamiyat kasb etadi [2, 4]. Gimnastika bolalar va yoshlarning jismoniy, ruhiy hamda ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, muvozanat, kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantiradi [3, 5, 7]. Muntazam mashg'ulotlar suyak-mushak, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini mustahkamlaydi [6, 11]. Shunga qaramay, sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi kompleks va uzoq muddatli samaralari yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi sport gimnastikasi orqali sog'lom turmush tarzini shakllantirish mexanizmlarini ilmiy asoslashdan iborat.

TS1: Sport gimnastikasi mashg'ulotlari jismoniy salomatlik ko'rsatkichlariga qanday ta'sir ko'rsatadi?

TS2: Gimnastika ruhiy-psixologik va ijtimoiy rivojlanishga qanday hissa qo'shadi?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sport gimnastikasining jismoniy salomatlikka ta'siri, jumladan, bolalar va o'smirlarning harakat faolligini oshirish [3, 8], shuningdek, yosh sportchilarning psixofiziologik holatini yaxshilash [9] bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Qurbonov (2021) va Karimova (2020) jismoniy tarbiya va sportning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi umumiy o'rnini ta'kidlagan bo'lsa [2, 4], Eshmatov va Sobirov (2022) gimnastika mashg'ulotlarining o'quvchilar salomatligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan [5].

Shunga qaramay, gimnastikaning sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi kompleks mexanizmlari va turli yosh guruhlarida, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalarda [10] uzoq muddatli samaralari bo'yicha chuqur ilmiy asoslangan tadqiqotlar cheklangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot tizimli adabiyotlar tahlili usuliga asoslangan. Ma'lumotlar 2020-2024 yillar oralig'ida ilmiy ma'lumotlar bazalari va tegishli jurnallardan "sport gimnastikasi", "sog'lom turmush tarsi" kabi kalit so'zlar bilan izlandi [2, 6, 7]. Jami 78 ta manba topildi; dublikatlar chiqarilgach 35 tasi qoldi.

- **Kiritish mezonlari:** mavzuga oid, to'liq matnli, ekspertlar tomonidan ko'rib chiqilgan maqolalar [1, 3, 5].
- **Chiqarish mezonlari:** mavzuga aloqador bo'lmagan yoki 2020 yildan oldin nashr etilgan manbalar. Yakuniy tahlilga 11 ta manba kiritildi [4, 8, 9].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tizimli adabiyotlar tahlili sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi kompleks ta'sirini ko'rsatdi. Sport gimnastikasi mashg'ulotlari jismoniy salomatlik ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Muntazam mashg'ulotlar suyak-mushak, yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini mustahkamlaydi [6, 11]. Bolalar va o'smirlarda harakat faolligini oshiradi [3, 8], muvozanat, kuch va chidamlilik sifatlarini rivojlantiradi [7]. Yosh gimnastikachilarda sog'liq bilan bog'liq jismoniy tayyorgarlik yaxshilanadi [6]. Shuningdek, u mushaklarni mustahkamlaydi, immunitet tizimini kuchaytiradi va suyaklarning to'g'ri rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi [7, 11].

Gimnastika ruhiy-psixologik va ijtimoiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shadi. Mashg'ulotlar o'z-o'zini nazorat qilish, diqqatni jamlash va stressni boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi [9]. Yosh sportchilarda o'ziga ishonchni oshiradi, jamoaviy ish va hamkorlikni rag'batlantiradi [3]. Gimnastika intizom, mas'uliyat va yetakchilik qobiliyatlarini shakllantiradi, bu esa shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi [3]. Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda gimnastika mashqlarining ahamiyati alohida ta'kidlangan [10]. Quyidagi 1-jadvalda tahlil natijalari umumlashtirilgan.

1-jadval: **Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi asosiy samaralari**

Samara turi	Jismoniy salomatlik	Ruhiy-psixologik rivojlanish	Ijtimoiy rivojlanish
Asosiy ta'sir	Suyak-mushak tizimi mustahkamligi	O'ziga ishonch va diqqatni jamlash	Jamoaviy ish va intizom
Qo'shimcha ta'sir	Harakat faolligi va chidamlilik	Stressni boshqarish va o'z-o'zini nazorat	Mas'uliyat va yetakchilik

Ushbu tadqiqot sport gimnastikasining jismoniy, ruhiy-psixologik va ijtimoiy rivojlanish orqali sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi kompleks ahamiyatini tasdiqladi. Natijalarimiz Eshmatov va Sobirov (2022) [5] hamda To‘rayev (2020) [9] kabi mualliflarning gimnastikaning salomatlik va psixofiziologik holatga ijobiy ta’siri haqidagi xulosalari bilan mos keladi. Gimnastika nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki o‘ziga ishonch, intizom va jamoaviy ishlash qobiliyatini ham rivojlantiradi [3, 7]. Bu esa shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi. Ushbu topilmalar ta’lim dasturlariga gimnastikani yanada integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatadi. Biroq, tadqiqot cheklangan manbalar bilan chegaralangan. Kelajakda turli yosh guruhlarida gimnastikaning uzoq muddatli samaralarini empirik o‘rganish tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqola sport gimnastikasining sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi kompleks va uzoq muddatli ahamiyatini ilmiy asosladi. Gimnastika jismoniy salomatlikni mustahkamlab, ruhiy-psixologik barqarorlikni oshiradi hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. U turli yosh guruhlari, ayniqsa bolalar va o‘smirlar uchun har tomonlama rivojlanishning muhim vositasidir. Shundan kelib chiqib, sport gimnastikasini ta’lim dasturlariga kengroq kiritish va aholi orasida muntazam targ‘ib qilish tavsiya etiladi. Bu esa jamiyatda sog‘lom turmush madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xolmatov, A. A. (2022). Sport gimnastikasi mashg‘ulotlari orqali o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi. Sport fanlari axborotnomasi, 2(3), 45-49. – https://sport.uzdjtsu.uz/index.php/sport/article/view/104
2. Qurbonov, S. A. (2021). Talabalarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning o‘rni. Fan va jamiyat, 2021(5), 112-117.
3. Jo‘rayev, B. T. (2023). O‘smirlarda sport gimnastikasi vositasida jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti. – https://uzdjtsu.uz/storage/web/source/1/1688568926_avtoreferat.pdf
4. Karimova, G. I. (2020). Sog‘lom turmush tarzi asoslari va jismoniy tarbiya. Toshkent: Fan va texnologiya.
5. Eshmatov, F. N., & Sobirov, U. S. (2022). Sport gimnastikasi mashg‘ulotlarining o‘quvchilar salomatligiga ijobiy ta’siri. Sport fanlari axborotnomasi, 2(2), 78-83. – https://sport.uzdjtsu.uz/index.php/sport/article/view/100
6. Di Cagno, A., Battaglia, C., Giombini, A., & Piazza, M. (2022). Health-related physical fitness in young female artistic gymnasts: A cross-sectional study. International Journal of Environmental Research and Public Health, 19(15), 9647. – https://doi.org/10.3390/ijerph19159647
7. Ruzic, L., & Misigoj-Durakovic, M. (2020). Physical activity and health in young gymnasts: A systematic review. Journal of Sports Medicine and Physical Fitness, 60(11), 1540-1549. – https://doi.org/10.23736/S0022-4707.20.10979-3
8. Abdullayev, M. A. (2023). Jismoniy tarbiya darslarida gimnastika elementlaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning harakat faolligini oshirish. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023(4), 215-220. – https://tadqiqot.uz/index.php/tadqiqot/article/view/101
9. To‘rayev, A. T. (2020). Sport gimnastikasi mashg‘ulotlarining yosh sportchilarning psixofiziologik holatiga ta’siri. Fan va jamiyat, 2020(6), 88-92.
10. G‘aniyev, O. G. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatishda gimnastika mashqlarining ahamiyati. Maktabgacha ta’lim jurnali, 2023(1), 67-71. – https://journal.preschool.uz/index.php/mtj/article/view/12
11. Sanchis-Gomar, F., et al. (2020). Physical activity and health in young gymnasts: A narrative review. Journal of Clinical Medicine, 9(12), 3981. – https://doi.org/10.3390/jcm9123981

"MUSTAQIL FIKRLASH", "KOMPETENSIYA", "KOMPETENTLIK", "FIKRLASH KOMPETENSIYASI" TUSHUNCHALARINING PEDAGOGIK MAZMUNI

Kadirova Zarina Ilhomovna
Navoiy shahar 3-maktab o'qituvchisi
ORCID: 0000-0002-1825-0097

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik ta'limning muhim kategoriyalari hisoblangan "mustaqil fikrlash", "kompetensiya", "kompetentlik" va "fikrlash kompetensiyasi" tushunchalarining mazmun-mohiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu tushunchalarning falsafiy, psixologik va pedagogik talqinlari qiyosiy o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi hamda farqli jihatlari aniqlanadi. Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan mustaqil fikrlash axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, turli qarashlarni taqqoslash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va yangi vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati sifatida yoritiladi. Shuningdek, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining pedagogik mazmuni aniqlashtirilib, fikrlash kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, analitik, tanqidiy-baholovchi, kreativ va refleksiv komponentlari asoslab beriladi. Maqolada mazkur kompetensiyaning bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, fikrlash, kompetensiya, kompetentlik, fikrlash kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, refleksiya, bo'lajak tarix o'qituvchisi.

Abstract: This article theoretically analyzes the content and essence of the concepts of "independent thinking," "competence," "competency," and "thinking competence," which are important categories of modern pedagogical education. The study comparatively examines the philosophical, psychological, and pedagogical interpretations of these concepts and identifies their interrelationships and distinctive features. From the perspective of the competency-based approach, independent thinking is considered as the ability to search for, analyze, and evaluate information, compare different viewpoints, draw evidence-based conclusions, and make independent decisions in new situations. The article also clarifies the pedagogical meaning of competence and competency and substantiates the motivational, cognitive, analytical, critical-evaluative, creative, and reflective components of thinking competence. Particular attention is paid to the importance of thinking competence in the professional training of future history teachers.

Key words: independent thinking, thinking, competence, competency, thinking competence, competency-based approach, historical thinking, critical thinking, creative thinking, reflection, future history teacher.

Аннотация: В статье теоретически анализируются содержание и сущность понятий "самостоятельное мышление", "компетенция", "компетентность" и "компетенция мышления", являющихся важными категориями современного педагогического образования. В исследовании на основе сравнительного анализа рассматриваются философские, психологические и педагогические трактовки данных понятий, определяются их взаимосвязь и отличительные особенности. С позиции компетентностного подхода самостоятельное мышление рассматривается как способность самостоятельно искать, анализировать и оценивать информацию, сопоставлять различные точки зрения, формулировать обоснованные выводы и принимать самостоятельные решения в новых ситуациях. В статье также уточняется педагогическое содержание понятий "компетенция" и "компетентность", обосновываются мотивационный, когнитивный, аналитический, критико-оценочный, креативный и рефлексивный компоненты мыслительной компетенции. Особое внимание уделяется значению мыслительной компетенции в профессиональной подготовке будущего учителя истории.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, мышление, компетенция, компетентность, мыслительная компетенция, компетентностный подход, историческое мышление, критическое мышление, креативное мышление, рефлексия, будущий учитель истории.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsni tayyorlashga nisbatan bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan an'anaviy yondashuvdan kompetensiyaviy yondashuvga o'tish jarayoni tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi faqat ma'lum hajmdagi bilimlarni egallagan mutaxassisni tayyorlash emas, balki o'z

bilimini yangi vaziyatlarda mustaqil qo‘llay oladigan, axborotni tanqidiy tahlil qiladigan, muammolarga yechim topadigan, dalillarga asoslangan qaror qabul qiladigan va o‘z faoliyatini refleksiv baholay oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida kompetensiya bilim, ko‘nikma va munosabatlarning birikmasi sifatida qaraladi. Yevropa Ittifoqining umrbod ta’lim uchun asosiy kompetensiyalar bo‘yicha tavsiyasida kompetensiya bilim, ko‘nikma va munosabatlarning kombinatsiyasi sifatida izohlanadi; bunda bilim muayyan sohadagi fakt, tushuncha va nazariyalarni, ko‘nikma bilimlardan natijaga erishish uchun foydalanish qobiliyatini, munosabat esa muayyan vaziyatlarga nisbatan harakat qilishga tayyorlikni anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak tarix o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligida mustaqil fikrlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarix fani mazmuni ko‘plab tarixiy fakt, manba, qarash va ilmiy interpretatsiyalarni o‘z ichiga oladi. Tarix o‘qituvchisi ulardan foydalanishda tayyor xulosani takrorlovchi emas, balki tarixiy dalillarni tahlil qila oladigan, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslaydigan va o‘quvchilarda ham asoslangan tarixiy xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantira oladigan pedagog bo‘lishi zarur.

Shu sababli “mustaqil fikrlash”, “kompetensiya”, “kompetentlik” va “fikrlash kompetensiyasi” tushunchalarining mazmunini aniq chegaralash mazkur yo‘nalishdagi pedagogik tadqiqotlarning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mustaqil fikrlash, kompetensiya, kompetentlik va fikrlash kompetensiyasi tushunchalarining pedagogik mazmunini aniqlash masalasi zamonaviy ta’lim nazariyasining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur tushunchalar turli fanlar doirasida, xususan, falsafa, psixologiya, pedagogika va kasbiy ta’lim metodikasi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu kategoriyalar mazmunan o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ularning ilmiy talqinida muayyan farqlar mavjud.

Kompetensiyaviy yondashuvning xalqaro nazariy asoslarini ishlab chiqishda Yevropa Komissiyasining hujjatlari muhim ahamiyatga ega. Yevropa Komissiyasining 2018-yildagi “Umrbod ta’lim uchun asosiy kompetensiyalar to‘g‘risidagi tavsiyasi”da kompetensiya bilim, ko‘nikma va munosabatlarning kombinatsiyasi sifatida talqin qilinadi [1]. Mazkur yondashuv kompetensiyani faqat muayyan bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki bilim va ko‘nikmalarni turli hayotiy hamda kasbiy vaziyatlarda qo‘llashga tayyorlik bilan bog‘laydi. Shu jihatdan mustaqil fikrlash ham kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy elementi sifatida qaralishi mumkin.

European Skills, Competences, Qualifications and Occupations (ESCO) tizimida kompetensiya bilim, ko‘nikma va shaxsiy, ijtimoiy hamda metodologik qobiliyatlarning ta’lim yoki mehnat jarayonidagi amaliy namoyon bo‘lishi bilan bog‘lanadi [2]. Ushbu yondashuv tadqiqotimiz uchun kompetensiya va kompetentlik o‘rtasidagi farqni aniqlashda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ya’ni kompetensiya faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlar tizimini ifodalasa, kompetentlik ushbu imkoniyatlarning amaliy faoliyatda qay darajada samarali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Cedefop tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim va kasbiy tayyorgarlik terminologiyasida ham kompetensiya tushunchasi shaxsning muayyan vazifalarni bajarish uchun zarur bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini amaliy faoliyat bilan bog‘liq holda tavsiflashga xizmat qiladi [3]. Mazkur yondashuv kompetensiyani natijaga yo‘naltirilgan faoliyat bilan bog‘lash imkonini beradi. Bu esa bo‘lajak tarix o‘qituvchisining fikrlash kompetensiyasini faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki tarixiy manbalarni tahlil qilish, dalillarni baholash va pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan baholash zarurligini ko‘rsatadi.

O‘qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish masalasida UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar ham alohida ahamiyatga ega. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers hujjatida zamonaviy o‘qituvchining kasbiy faoliyatida axborotni izlash, undan foydalanish, muammolarni hal qilish, hamkorlik qilish va murakkab kognitiv jarayonlarni amalga oshirish qobiliyatlariga e’tibor qaratiladi [4]. Mazkur yondashuv fikrlash kompetensiyasining analitik, tanqidiy-baholovchi va muammoli vaziyatlarni hal qilish bilan bog‘liq jihatlarini asoslash imkonini beradi.

UNESCO International Bureau of Education materiallarida kompetensiyaga asoslangan ta’lim mazmunini yangilash, o‘quvchining faolligini oshirish va bilimlarni real vaziyatlarda qo‘llash masalalariga alohida e’tibor beriladi [5]. Bu qarashlar kompetensiyaviy yondashuvda ta’lim natijasini faqat o‘zlashtirilgan bilim miqdori bilan emas, balki o‘quvchining ushbu bilimlardan mustaqil va samarali foydalanish qobiliyati bilan baholash zarurligini ko‘rsatadi.

Mavzuning milliy pedagogik tadqiqotlardagi talqinida ham mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. N.Sh. Erkaboyeva kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning nazariy-metodik jihatlarini o‘rganib, mustaqil fikrlashni ta’lim jarayonida shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qiladi [6]. Ushbu tadqiqot mustaqil fikrlashni kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog‘lash hamda uni ta’lim natijasi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

M.O. Xodjayeva zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning motivatsion va nazariy asoslarini tadqiq etadi [7]. Tadqiqot mazmunidan kelib chiqib, fikrlash jarayonining samaradorligi faqat kognitiv faoliyatga emas, balki shaxsning bilishga bo'lgan qiziqishi, muammoga nisbatan faol munosabati va o'z fikrini asoslashga intilishi bilan ham bog'liqligi ko'rinadi. Bu fikrlash kompetensiyasining motivatsion komponentini ajratish uchun muhim nazariy asosdir.

O. Raxmatovaning tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotida zamonaviy tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi masalasi yoritilgan [8]. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar tarix o'qituvchisining kasbiy kompetentligini faqat tarixiy bilimlar bilan cheklab bo'lmasligini, balki o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtirish, mustaqil fikrlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarni ham qamrab olishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, fikrlash kompetensiyasi tushunchasini aynan bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy faoliyati bilan bog'liq holda kompleks tarzda yoritish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Xususan, fikrlash kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, analitik, tanqidiy-baholovchi, kreativ va refleksiv komponentlarini yagona tizim sifatida asoslash, ularning shakllanish mezonlari va diagnostik ko'rsatkichlarini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish va fikrlash kompetensiyasining bo'lajak tarix o'qituvchisini kasbiy tayyorlashdagi o'rnini aniqlashtirishga yo'naltirilgan

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va tizimli yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida pedagogik va psixologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tushunchalarni mazmuniy umumlashtirish, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

Tahlil jarayonida xalqaro kompetensiya konsepsiyalari bilan bir qatorda zamonaviy o'zbek pedagogik tadqiqotlarida kompetensiya va mustaqil fikrlash masalalarining yoritilishi ham hisobga olindi. So'nggi tadqiqotlarda ham mustaqil fikrlash tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammoli ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog'liq holda tadqiq qilinmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Mustaqil fikrlash" tushunchasining mazmuni. Fikrlash insonning borliqni bilish, mavjud bilim va tajribalarni qayta ishlash, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash hamda yangi xulosalarga kelish jarayonidir. Mustaqil fikrlash esa ushbu umumiy kognitiv faoliyatning shaxsning o'z intellektual pozitsiyasini shakllantirish va asoslashga yo'naltirilgan shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Mustaqil fikrlashni faqat "o'zicha fikrlash" bilan tenglashtirish metodologik jihatdan to'g'ri emas. Chunki mustaqillik fikrning dalilliligi, mantiqiyligi va asoslanganligi bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Shaxs mustaqil fikrlash jarayonida:

- muammoni anglaydi;
- zarur axborotni izlaydi;
- axborot manbalarini tanlaydi;
- mavjud ma'lumotlarni tahlil qiladi;
- turli qarashlarni qiyoslaydi;
- dalil va qarshi dalillarni aniqlaydi;
- o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi
- xulosasini asoslaydi;
- zarurat tug'ilganda o'z qarashini qayta ko'rib chiqadi.

Demak, mustaqil fikrlashning muhim belgisi tayyor bilimni takrorlash emas, balki bilimni faol qayta ishlash va undan yangi vaziyatda foydalanishdir.

Kompetensiya haqidagi zamonaviy yondashuvlarda ham bilim va ko'nikmalardan yangi hamda kutilmagan vaziyatlarda mustaqil foydalanish kompetentlikning muhim belgisi sifatida ko'rsatiladi.

Tarix ta'limi nuqtayi nazaridan mustaqil fikrlash yanada murakkab mazmun kasb etadi. Masalan, tarixiy voqea sabablarini aniqlashda talaba faqat darslikdagi ma'lumotni takrorlamasdan, birlamchi va ikkilamchi

manbalarni taqqoslashi, muallif pozitsiyasini aniqlashi, dalillarning ishonchliligini baholashi va mustaqil xulosa chiqarishi lozim.

Shunday qilib, mustaqil fikrlash-shaxsning muammoni mustaqil anglash, axborotni izlash va tanlash, uni tahlil qilish hamda baholash, dalillarga tayangan holda o‘z nuqtayi nazarini shakllantirish va asoslangan qaror yoki xulosa chiqarish jarayonidir.

“Kompetensiya” tushunchasining pedagogik mazmuni.v“Kompetensiya” tushunchasi zamonaviy ta’lim paradigmasining asosiy kategoriyalaridan biridir. Uning mazmuni faqat bilim hajmi bilan cheklanmaydi. Kompetensiya bilimni amaliy vazifalarni hal etishda qo‘llash imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Yevropa ta’lim siyosatida kompetensiya bilim, ko‘nikma va munosabatlarning integratsiyasi sifatida belgilanadi. Mazkur yondashuvda kompetensiyalar turli vaziyatlarda qo‘llanishi, bir-biri bilan kesishishi va bir-birini to‘ldirishi qayd etiladi. Tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, analitik fikrlash va kreativlik kabi qobiliyatlar turli kompetensiyalarning tarkibida namoyon bo‘ladi.

Kompetensiya: bilim + ko‘nikma + munosabat + faoliyatga tayyorlik integratsiyasini ifodalaydi.

Pedagogik nuqtayi nazardan kompetensiya shaxsga muayyan faoliyat sohasida samarali harakat qilish imkonini beruvchi umumlashgan sifat sifatida qaralishi mumkin.

Bo‘lajak tarix o‘qituvchisi misolida tarixiy bilimlarning o‘zi hali mustaqil fikrlash kompetensiyasini anglatmaydi. Talaba tarixiy bilimlarni muayyan muammoni hal qilish, manbalarni tahlil qilish, tarixiy voqealarni qiyoslash va o‘z xulosasini asoslash jarayonida qo‘llay olgan taqdirdagina tegishli kompetensiya shakllanayotganligi haqida so‘z yuritish mumkin.

“Kompetentlik” tushunchasining mazmuni. Pedagogik adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari ba’zan sinonim sifatida qo‘llanadi. Biroq ularni analitik jihatdan farqlash ilmiy tadqiqot uchun muhimdir. Bizningcha, kompetensiya-shaxsga qo‘yiladigan faoliyat talabi va ushbu faoliyatni bajarish uchun zarur bilim, ko‘nikma, munosabat hamda imkoniyatlar tizimi bo‘lsa, kompetentlik – mazkur kompetensiyalarning real faoliyatda samarali namoyon bo‘lish darajasidir.

Yevropa malaka va kompetensiya tizimlaridagi yondashuv bilan ham uyg‘un. ESCO kompetensiyani bilim, ko‘nikma va shaxsiy, ijtimoiy hamda metodologik qobiliyatlarni ish yoki o‘qish vaziyatlarida qo‘llashning namoyon bo‘lgan qobiliyati sifatida izohlaydi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi mantiqiy farqlashni taklif etamiz:

Tushuncha	Asosiy mazmuni
Kompetensiya	Faoliyat uchun zarur bilim, ko‘nikma, munosabat va qobiliyatlar majmui
Kompetentlik	Mazkur imkoniyatlarning amaliy faoliyatda namoyon bo‘lish darajasi
Mustaqil fikrlash	Muammoni anglash, tahlil qilish, baholash va mustaqil xulosa chiqarish jarayoni
Fikrlash kompetensiyasi	Mustaqil, tanqidiy, analitik va kreativ fikrlashni turli vaziyatlarda samarali qo‘llay olish qobiliyati

Bunday chegaralash tadqiqotning diagnostik apparatini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega.

“Fikrlash kompetensiyasi” tushunchasining mazmuni. “Fikrlash kompetensiyasi” yuqoridagi tushunchalarning o‘zaro integratsiyasi natijasida shakllanadigan murakkab shaxsiy-kasbiy sifatdir.

Fikrlash kompetensiyasi shaxsning nafaqat fikrlashi, balki qanday fikrlashi, o‘z fikrini qanday asoslay olishi va uni turli vaziyatlarda qanday qo‘llashi bilan belgilanadi.

Bizningcha, fikrlash kompetensiyasi quyidagi tarkibiy komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Motivatsion komponent.** Bilishga qiziqish, savol berishga ehtiyoj, muammoni mustaqil hal qilishga intilish va intellektual faollik.
2. **Kognitiv komponent.** Nazariy va amaliy bilimlar, tushunchalar, kategoriyalar hamda fikrlash operatsiyalarini egallash.
3. **Analitik komponent.** Axborotni tahlil qilish, qismlarga ajratish, ular o‘rtasidagi sabab-oqibat va mantiqiy aloqalarni aniqlash.
4. **Tanqidiy-baholovchi komponent.** Manba va axborotning ishonchliligini baholash, dalil va qarshi dalillarni qiyoslash, stereotip va asossiz xulosalarni aniqlash.
5. **Kreativ komponent.** Muammoga nisbatan muqobil yechimlarni ilgari surish, yangi g‘oya va taxminlarni ishlab chiqish.
6. **Refleksiv komponent.** O‘z fikrlash jarayonini kuzatish, xatolarini anglash, xulosalarini qayta ko‘rib chiqish va o‘z-o‘zini baholash.

Mazkur komponentlar bir-biridan alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida amal qiladi. UNESCOning o'qituvchi kompetensiyalariga oid yondashuvlarida ham axborotni boshqarish, muammoni hal qilish, hamkorlik va tanqidiy fikrlash kabi murakkab kognitiv qobiliyatlarni pedagogik tayyorgarlik jarayonida rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi.

Bo'lajak tarix o'qituvchisining fikrlash kompetensiyasi. Bo'lajak tarix o'qituvchisi uchun fikrlash kompetensiyasi umumiy intellektual qobiliyatdan tashqari kasbiy mazmunga ham ega bo'lib, tarix o'qituvchisi:

- tarixiy manbalarni tahlil qilishi;
- tarixiy fakt va talqinlarni farqlashi;
- turli tarixiy qarashlarni qiyoslashi;
- voqea va jarayonlarning sabab-oqibatlarini aniqlashi;
- tarixiy dalillarni baholashi;
- tarixiy xulosalarni asoslay olishi;
- qarama-qarshi nuqtayi nazarlarga nisbatan xolis munosabat bildira olishi;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi muammoli vaziyatlar yarata olishi zarur.

Shun sababli bo'lajak tarix o'qituvchisining fikrlash kompetensiyasini tarixiy bilimlarni mustaqil, tanqidiy, analitik va kreativ tarzda qayta ishlash hamda ularni pedagogik vaziyatlarda asoslangan qarorlar qabul qilish uchun qo'llay olish qobiliyati sifatida talqin qilish mumkin.

Bu yondashuv zamonaviy tarix o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish haqidagi tadqiqotlarda ham mustaqil va erkin fikrlash, o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtirish hamda kasbiy faoliyatni takomillashtirish bilan bog'lanmoqda.

Bizningcha, mustaqil fikrlash-shaxsning muammoni anglash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish, turli qarashlarni taqqoslash hamda dalillarga asoslangan xulosa chiqarish jarayonidir.

Kompetensiya-shaxsning muayyan faoliyatni samarali amalga oshirishiga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma, qobiliyat, motivatsiya va munosabatlarning integrativ tizimidir.

Kompetentlik-egallangan kompetensiyalarning real faoliyat jarayonida mustaqil, ongli va samarali namoyon bo'lish darajasidir.

Fikrlash kompetensiyasi-shaxsning bilim va tajribasiga tayangan holda muammoni mustaqil anglash, axborotni tahlil qilish va baholash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, muqobil yechimlarni ilgari surish hamda yangi vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Tadqiqotimizda bo'lajak tarix o'qituvchisining mustaqil fikrlash kompetensiyasi tarixiy manbalar va axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, qiyoslash va baholash, tarixiy voqea-hodisalarning sabab-oqibatlarini aniqlash, dalillangan xulosa chiqarish hamda kasbiy-pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishni ta'minlovchi integrativ kasbiy sifat sifatida talqin qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida nazariy tahlil natijalari "mustaqil fikrlash", "kompetensiya", "kompetentlik" va "fikrlash kompetensiyasi" tushunchalari o'zaro yaqin bo'lsada, mazmunan bir xil emasligini ko'rsatdi.

Birinchidan, mustaqil fikrlash shaxsning muammoni mustaqil anglash, axborotni tahlil qilish, turli qarashlarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish jarayonini ifodalaydi.

Ikkinchidan, kompetensiya muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bilim, ko'nikma, munosabat va qobiliyatlarning integrativ tizimidir.

Uchinchidan, kompetentlik mazkur imkoniyatlarning real faoliyatda qay darajada samarali namoyon bo'lishini ifodalaydi.

To'rtinchidan, fikrlash kompetensiyasi shaxsning bilim va intellektual imkoniyatlarini mustaqil, analitik, tanqidiy, kreativ va refleksiv fikrlash asosida turli muammoli vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyatidir.

Tadqiqot doirasida fikrlash kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, analitik, tanqidiy-baholovchi, kreativ va refleksiv komponentlardan tashkil topishi asoslandi. Mazkur komponentlar bo'lajak tarix o'qituvchilarining mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, tarix o'qituvchisini tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor faqat tarixiy bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki ushbu bilimlarni izlash, tahlil qilish, baholash, talqin qilish, dalillash va yangi pedagogik vaziyatlarda mustaqil qo'llash qobiliyatini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. European Commission. Council Recommendation of 22 May 2018 on Key Competences for Lifelong Learning. Official Journal of the European Union, 2018.
2. European Commission. European Skills, Competences, Qualifications and Occupations (ESCO): Competence. 2025.
3. Cedefop. Terminology of European Education and Training Policy: Competence. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
4. UNESCO. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris: UNESCO.
5. UNESCO International Bureau of Education. Competences: Curriculum Renewal and the Future of Learning.
6. Erkaboyeva N.Sh. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. 2026.
7. Xodjayeva M.O. Zamonaviy ta'limda talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish: motivatsion va nazariy asoslar // Science Time. 2026.
8. Raxmatova O. Yangilanayotgan O'zbekistonda tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. 2026.

TIBBIY INGLIZ TILI DARSLARIDA KO'P KOMPONENTLI BLENDED LEARNING STRATEGIYALARINING QO'LLANISHI

Rashidova Nodira Xabibullayevna
Namangan davlat universiteti,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada tibbiyot yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o'qitishda ko'p komponentli blended learning (aralash ta'lim) strategiyalarining samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari, onlayn platformalar, mobil ilovalar, videodarslar va hamkorlikka asoslangan interaktiv topshiriqlardan iborat integrallashgan ta'lim modeli qo'llanildi. Natijalar blended learning strategiyalaridan foydalanish talabalarning tibbiy terminologiyani o'zlashtirish, kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari tibbiy ingliz tilini o'qitishda innovatsion pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: tibbiy ingliz tili, blended learning, ko'p komponentli ta'lim, raqamli texnologiyalar, tibbiy terminologiya, kommunikativ kompetensiya, elektron ta'lim.

Abstract: This article analyzes the effectiveness of multi-component blended learning strategies in teaching English to medical students. The study used an integrated learning model that included traditional classroom sessions, online platforms, mobile applications, video lessons, and collaborative interactive tasks. The results confirmed that the use of blended learning strategies has a positive impact on students' mastery of medical terminology, the development of professional communicative competencies, and the formation of independent learning skills. The results of the study have practical significance for improving innovative pedagogical approaches in teaching medical English.

Key words: medical English, blended learning, multi-component learning, digital technologies, medical terminology, communicative competence, e-learning.

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность многокомпонентных стратегий смешанного обучения при преподавании английского языка студентам-медикам. В исследовании использовалась интегрированная модель обучения, включающая традиционные занятия в аудитории, онлайн-платформы, мобильные приложения, видеоуроки и интерактивные задания для совместной работы. Результаты подтвердили, что использование стратегий смешанного обучения оказывает положительное влияние на освоение студентами медицинской терминологии, развитие профессиональных коммуникативных компетенций и формирование навыков самостоятельного обучения. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования инновационных педагогических подходов в преподавании медицинского английского языка.

Ключевые слова: медицинский английский, смешанное обучение, многокомпонентное обучение, цифровые технологии, медицинская терминология, коммуникативная компетенция, электронное обучение.

KIRISH

Globallashuv sharoitida tibbiyot mutaxassislari uchun ingliz tilini bilish muhim kasbiy kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Xalqaro ilmiy maqolalar, klinik protokollar va tibbiy ma'lumotlarning katta qismi ingliz tilida taqdim etilishi sababli tibbiyot talabalarining kasbiy ingliz tilini puxta egallashi dolzarb masalaga aylangan.

So'nggi yillarda ta'lim jarayonida blended learning yondashuvi keng qo'llanilmoqda. Ushbu model an'anaviy auditoriya mashg'ulotlari va raqamli ta'lim texnologiyalarini uyg'unlashtirgan holda talabalarning o'quv faoliyatini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, tibbiy ingliz tilini o'qitishda videomateriallar, virtual simulyatsiyalar, mobil ilovalar, elektron kurslar va hamkorlikdagi onlayn faoliyatlarni birlashtiruvchi ko'p komponentli blended learning strategiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi tibbiy ingliz tili darslarida ko'p komponentli blended learning strategiyalarining ta'lim samaradorligiga ta'sirini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Blended learning an'anaviy auditoriya mashg'ulotlarini raqamli ta'lim vositalari bilan uyg'unlashtiruvchi samarali pedagogik yondashuv sifatida keng qo'llanilmoqda. Tadqiqotlar ushbu model talabalarning o'quv natijalari, mustaqil ta'limi va faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi (Vallée et al., 2020; Garrison & Vaughan, 2013).

Ingliz tilini o'qitishda blended learning videodarslar, onlayn platformalar, mobil ilovalar va interaktiv topshiriqlar orqali til ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, English for Specific Purposes (ESP) doirasida mazkur yondashuv kasbiy terminologiya va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi (Basturkmen, 2010).

Tibbiy ingliz tilini o'qitishda esa blended learning tibbiy terminologiyani o'zlashtirish, klinik vaziyatlarda muloqot qilish va mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ko'p komponentli yondashuvning afzalligi turli ta'lim vositalarini yagona pedagogik tizimda birlashtirishidadir. Shu sababli tibbiy ingliz tili darslarida ko'p komponentli blended learning strategiyalaridan foydalanish zamonaviy va istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2024–2025 o'quv yilida tibbiyot oliy ta'lim muassasasining 2-bosqich talabalarida olib borildi. Tadqiqotda jami 60 nafar talaba ishtirok etdi. Ishtirokchilar nazorat va tajriba guruhlariga teng taqsimlandi.

Tajriba guruhida quyidagi blended learning komponentlari qo'llanildi:

1. Auditoriya mashg'ulotlari;
2. Moodle platformasi orqali masofaviy ta'lim;
3. Tibbiy terminologiyani o'rganishga mo'ljallangan mobil ilovalar;
4. Klinik vaziyatlarga asoslangan videodarslar;
5. Guruhiy onlayn muhokamalar va loyiha ishlari;
6. Mustaqil elektron topshiriqlar.

Nazorat guruhi esa an'anaviy ta'lim usullari asosida o'qitildi. Ma'lumotlarni yig'ishda diagnostik testlar, so'rovnomalar, kuzatuv va yarim tuzilgan intervyu metodlaridan foydalanildi. Natijalar statistik tahlil yordamida qayta ishlanib, guruhlar o'rtasidagi farqlar baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot yakunida tajriba guruhi talabalari tomonidan ko'rsatilgan natijalar nazorat guruhi ko'rsatkichlaridan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi. Tibbiy terminologiyani o'zlashtirish darajasi tajriba guruhida o'rtacha 24 foizga oshgan bo'lsa, nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 11 foizni tashkil etdi. Kommunikativ kompetensiyalarni baholash natijalari ham blended learning yondashuvi foydasiga ekanligini ko'rsatdi.

Talabalar orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra:

- 88% talaba videodarslar va interaktiv topshiriqlarni foydali deb baholagan;
- 84% talaba mobil ilovalarning terminologiyani mustahkamlashdagi ahamiyatini ta'kidlagan;
- 91% talaba mustaqil o'qish motivatsiyasi oshganini bildirgan.

Shuningdek, tajriba guruhi talabalarida klinik vaziyatlarni ingliz tilida tahlil qilish va kasbiy muloqot olib borish ko'nikmalari sezilarli rivojlangan.

Olingan natijalar blended learning strategiyalarining tibbiy ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Ko'p komponentli yondashuv turli xil o'quv usullarini birlashtirish orqali talabalarning individual ehtiyojlarini qondirish imkonini beradi.

Videodarslar va klinik simulyatsiyalar autentik til muhitini yaratib, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lashga yordam berdi.

Mobil ilovalar va onlayn platformalar esa o'quv jarayonining uzluksizligini ta'minlab, mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantirdi.

Natijalar Graham (2019), Garrison va Vaughan (2013), hamda Boelens va hamkorlari (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan hamohang bo'lib, blended learning modeli talabalarning akademik faolligi va o'quv natijalarini yaxshilashini tasdiqlaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari tibbiy ingliz tili darslarida ko‘p komponentli blended learning strategiyalaridan foydalanish ta’lim samaradorligini sezilarli oshirishini ko‘rsatdi. Mazkur yondashuv talabalarning tibbiy terminologiyani o‘zlashtirish, kasbiy kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelgusida tibbiy ta’lim tizimida sun’iy intellekt, virtual reallik va adaptiv o‘qitish texnologiyalarini blended learning modeli bilan integratsiyalash bo‘yicha tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Graham, C. R. (2019). Current Research in Blended Learning. New York: Routledge.
2. Garrison, D. R., & Vaughan, N. D. (2013). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San Francisco: Jossey-Bass.
3. Boelens, R., De Wever, B., & Voet, M. (2017). Four key challenges to the design of blended learning: A systematic literature review. Educational Research Review, 22, 1–18.
4. Bonk, C. J., & Graham, C. R. (Eds.). (2012). The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisco: Pfeiffer.
5. Basturkmen, H. (2010). Developing Courses in English for Specific Purposes. London: Palgrave Macmillan.
6. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Dudeney, G., & Hockly, N. (2018). How to Teach English with Technology. Harlow: Pearson Education.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING SIFAT SO'Z TURKUMI BO'YICHA LISONIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH JAHON OLIMLARI NIGOHIDA

Mamazoirova Jangil Xamdamovna
Nizomiy nomidagi TDPU Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang'ich ta'lim) magistratura mutaxassisligi I bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf ona tili darslarida sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish borasida soha mutaxassislari olib borgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar tarixiga nazar tashlaydi. Shuning barobarida boshlang'ich sinf o'quvchilarida sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish uchun qo'llaniladigan metodikalar haqida ham nazariy ma'lumotlar beradi va ushbu metodikalarni tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, lisoniy kompetensiya, lisoniy tahlil, fonetika, sifat, grammatik tahlil, lingvistik.

Abstract: This article discusses the important history of research conducted by researchers in the field of linguistic competencies regarding the quality of vocabulary in the classroom. At the same time, it provides theoretical information and analyzes the methods used to control language competencies in quality vocabulary among active class students.

Key words: competence, language competence, linguistic analysis, phonetics, quality, grammatical analysis, linguistics.

Аннотация: В этой статье рассматривается важная история исследований, проведенных исследователями в области лингвистических компетенций в отношении качества словарного запаса в классе. В то же время он предоставляет теоретическую информацию и анализирует методы, используемые для контроля языковых компетенций в качественной лексике у учащихся активного класса.

Ключевые слова: компетенция, языковая компетенция, лингвистический анализ, фонетика, качество, грамматический анализ, языкознание.

KIRISH

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga alohida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalari darajasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi, ularning qobiliyat va iste'dodini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, yosh avlod qalbida Vatanga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda"[1] [1], - deya ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda ham alohida ta'kidlab o'tdilar.

Yurtboshimizning so'zlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, mamlakatimiz bo'ylab amalga oshirilayotgan o'zgarishlar va islohotlar, tabiiyki, ta'lim jarayonida o'quvchilarda kompetensiya turlarini shakllantirish talabini kuchaytirmoqda. Bugungi ta'lim jarayonlarida o'quvchilarimizning har tomonlama yetuk bo'lib yetishishi uchun bu borada chuqur izlanib, izlanishlar natijasiga munosib ravishda amaliy harakatlar qilish lozim. Xususan, boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning so'z turkumlari bilan bog'liq bilimlarini yuksaltirish va aynan, sifat so'z turkumi bo'yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish uchun eng avvalo, uning metodologik jihatdan rivojlanish tarixiga nazar tashlash joiz.

Eng avvalo, yosh avlodning kichik vakillarida grammatik, uslubiy xatolarsiz va mazmunli, ohangi go'zal fikrlarni ravon ifoda qila olish hamda yana bir muhim jihati - imloviy xatolarsiz to'g'ri yozish ko'nikmalarining shakllanishida ona tili darslarining o'rni benihoya katta ekanini e'tirof etish kerak. Sanab o'tilgan vazifalarni o'quvchilarda ko'nikmasini hosil qilishda boshlang'ich ta'limda o'tiladigan ona tili darslarining mazmunli va to'g'ri

1 https://buxdu.uz/ru/novosti/927/oliy-talim-muassasalari-jamoasiga-normativ-huquqiy-hujjatlarni-tasirchan-va-samarali-targib-qilish-yollari/

tashkil qilinishi, ushbu darslarda o‘qituvchilarning mohirlik bilan lisoniy tahlilga urg‘uni to‘g‘ri bera olishining ahamiyati yuqori. Shu boisdan ham bugungi maktab tizimida tashkil qilinadigan ona tili darslarining boshlang‘ich sinf ona tili dasturida lisoniy tahlilga o‘rin berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlardan foydalanildi. O‘zgarishlarni boshqarishning nazariy modellari, maktab liderligi va innovatsion menejmentga oid ilmiy manbalar qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganildi. Shuningdek, tizimlashtirish, umumlashtirish, modellashtirish va pedagogik diagnostika metodlari asosida maktab direktorlarining strategik rejalashtirish, kommunikatsiya, qaror qabul qilish, innovatsiyalarni joriy etish va monitoring ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘nalishlari belgilandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda davlatimizdagi mavjud ta’lim tizimi an’anaviy bilimga asoslangan ta’lim modelidan kompetensiyaga asoslangan modelga o‘tishga harakat qilmoqda. Bunga asosiy sabablardan biri boshlang‘ich sinflar “Ona tili” darsliklarida fan o‘qituvchilari uchun yaratilgan metodik qo‘llanma yoki majmualarda aynan o‘quvchilarda lisoniy tahlil ko‘nikmasini hosil qilish yoki lisoniy tahlilga o‘rgatish masalalariga doir tushuncha yoxud biror yo‘nalish berib o‘tilmagan. Ammo rus ta’lim tizimida izlanish olib borgan olimlarning izlanishlarini o‘rgansak, bunga qaysidir ma’noda e’tibor qaratilganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, professor E. A. Bystrov “Milliy maktabda ta’limga “bilimga asoslangan” yondashuvdan kompetensiyaga asoslangan yondashuvga e’tibor qaratish kerak” [4; 20-39] deydi. Olimning fikricha, bularning barchasi ta’lim paradigmasining o‘zgarishiga olib keladi. Bu o‘quvchilar turli xil hayotiy vaziyatlarda olingan bilimlarni qo‘llash qobiliyatiga ega bo‘lishida asosan bilinadi.

Bugungi zamonaviy maktab oldida turgan muhim vazifalardan biri bu - davlat tilini yuksak saviyada biladigan savodxon shaxsni tarbiyalashdek ulkan vazifa turibdi. Aynan boshlang‘ich ta’limda savodxonlik poydevori qo‘yiladi. Chunki bu davrda nutq faoliyatining barcha turlari (yozish, o‘qish, gapirish va tinglash) bo‘yicha intensiv mashg‘ulotlar olib boriladi. M. V. Dubovaning fikriga qaraganda, “aynan boshlang‘ich ta’lim kompetensiyaga asoslangan yondashuvning yangi g‘oyalarini boshqa ta’lim darajalariga nisbatan ertaroq va faolroq idrok etishi, amaliyotga tatbiq qilishi kerak” [4; 20-39].

Ta’lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish va uning turfa jihatlarini metodistlar, psixologlar, o‘qituvchi va tilshunos olimlar o‘zlarining har xil izlanish-u tadqiqotlarida o‘rganganlarini aytadilar. Xususan, A. G. Asmolov, L. B. Antipina, G. M. Bogomazov, A. A. Verbitskiy, D. S. Ermakov, E. V. Kon’kov, I. A. Zimnyaya, E. V. Golubskaya, G. A. Orlova, N. M. Shanskiy kabilarning asarlarida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning mohiyati haqidagi qarashlar va fikrlarni ko‘rish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalq ta’limi tizimida ona tilini o‘rgatishda lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish ham ahamiyatli sanaladi. N. M. Shanskiy lisoniy kompetensiya til vositalaridan adabiy me’yorlarga muvofiq malakali foydalanish tarafdori bo‘ladi. N. M. Shanskiy tilning qanday ishlashi, nima va qanday o‘zgarishi haqidagi g‘oyalarni shakllantirishga urinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirishda til sohasidagi nazariyani bilish juda muhim. Tilning turli darajalari bilan bog‘liq, o‘zaro ta’sir qiluvchi va uyushgan tizimni ifodalovchi semantik, morfologik, sintaktik kategoriyalarni bilgan pedagog o‘quvchilarga til birliklaridan to‘g‘ri foydalanish, ularning bog‘lanish qoidalarini o‘rgatishda muammolarga duch kelmaydi.

Lisoniy kompetensiya o‘quvchilar tomonidan nutq tajribasini tushunish natijasi bo‘lib, u o‘z navbatida ona tili fanining asoslari bo‘yicha bilimlarni o‘z ichiga oladi, lingvistik tushunchalar majmuasini o‘zlashtirishni ham o‘z qamroviga olishi nojoiz emas. Shuningdek, u ona tili haqidagi fan tarixining elementlarini, uning taniqli vakillarini, tilning jamiyat hayotidagi o‘rni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zlashtirishni ham nazarda tutadi. Bu mavzuga doimiy qiziqish, hurmat va muhabbat tuyg‘ulari ham ona tili darslari orqali shakllanib boradi.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili darslarida sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini kompetensiyaga asoslangan yondashuvni hisobga olgan holda tashkil qilish lozim va yana shuni yodda tutish kerakki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining til bilimlarini o‘zlashtirishi bir-biridan farqli bo‘laklar shaklida emas, balki integral tizimni o‘z ichiga oladi. Boshlang‘ich ta’limning o‘zidayoq o‘quvchilarda til tizimining darajalari (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik), uning ichki aloqalari, amal qilish xususiyatlari haqida ilmiy tushunchalarni shakllantirib borish zarur. Yangi til birligining har tomonlama o‘rganilishi, uning til tizimidagi vazifasi, kommunikativ vaziyatda qo‘llanishi orqali asoslanishi muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy kompetensiyalarni shakllantirishda sifatning tevarak-atrofdagi voqelikni tasvirlashda lisoniy ekspressivlik vositalaridan biri ekanligi, grammatik shakllarning boyligi bilan ajralib turishini inobatga olish lozim. Har qanday gapni nutqning ushbu qismidagi so‘zlarsiz tasavvur qilish dargumon. Sifatlardan foydalanish kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Bu ba’zi birliklarning katta semantik salohiyati, o‘quvchilarning sifatlarning qisqa shakllarini, taqqoslash darajalari shakllarini ustuvor rivojlantira olmasligi bilan bog‘liq.

Boshlang‘ich sinflarda sifat so‘z turkumini o‘rgatish jarayonini amaliy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar aksariyat hollarda sifatlarni faqat predmetning rangi, shakli va hajmini bildiruvchi vosita sifatida tor doirada tushunadilar. Biroq sifatning lisoniy kompetensiyadagi o‘rni uning uslubiy va semantik imkoniyatlarini chuqurroq anglashni talab etadi. Tajriba-sinov mashg‘ulotlari davomida kichik yoshdagi o‘quvchilarning sifatlardan foydalanish darajasi uchta asosiy mezon bo‘yicha tahlil qilindi: leksik-semantik tushunish, morfologik shakllantirish va nutqda uslubiy to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmasi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, 3-4-sinf o‘quvchilarining 65 foizi sifatning daraja shakllarini (masalan, orttirma va qiyosiy darajalar) og‘zaki nutqda erkin qo‘llay olsalar-da, yozma nutqda va lisoniy tahlil jarayonida ularning yasalish mexanizmlarini va grammatik ma’nolarini tushuntirib berishda muammolarga duch kelishadi. Shuningdek, o‘quvchilarning 40 foizga yaqini matndagi ko‘chma ma’noda qo‘llangan sifatlarni (masalan, “ochiq ko‘ngil”, “og‘ir botiq”, “o‘tkir zehn”) oddiy belgini bildiruvchi sifatlardan ajratishda qiynalishadi. Bu esa boshlang‘ich ta’limda sifatni o‘rgatishda faqat qoida yodlatish bilan cheklanib qolmay, balki kontekstual va lisoniy-semantik tahlilga ko‘proq urg‘u berish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va o‘quvchilarda lisoniy kompetensiyani tizimli shakllantirish uchun tajriba jarayonida quyidagi samarali metodik usullar amaliyotga joriy etildi va ularning ijobiy natijalari kuzatildi:

1. **Sifat va ot juftliklarini semantik tahlil qilish:** O‘quvchilarga bir guruh otlar berilib, ularga eng mos, nutqni boyituvchi va ekspressiv bo‘yoqdor sifatlarni tanlash topshirig‘i berildi. Bu usul o‘quvchilarning so‘z boyligini va leksik birikuvchanlik ko‘nikmasini oshirdi;
2. **Sinonimik va antonimik qatorlar ustida ishlash:** Sifatlarning ma’nodosh va zid ma’noli turlarini matn ichida almashtirib qo‘llash orqali matn mazmunining va uslubiy bo‘yog‘ining o‘zgarishini kuzatish mashqlari o‘tkazildi;
3. **Badiiy va tasviriy matnlardan sifatlarni ajratib, ularning matn yaratishdagi funksional rolini aniqlash:** O‘quvchilar matndan sifatlarni olib tashlab o‘qib ko‘rdilar va sifatlarning matn go‘zalligi hamda aniqligini ta’minlashdagi rolini amalda anglab yetdilar.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ushbu metodik usullarni izchil qo‘llash natijasida tajriba sinflarida o‘quvchilarning sifat so‘z turkumi bo‘yicha lisoniy kompetensiyasi nazorat sinflariga nisbatan 22 foizga yuqoriladi. O‘quvchilarda sifatlarni nafaqat grammatik birlik, balki o‘z fikrini tasviriy, ta’sirchan va mantiqan to‘g‘ri ifodalashning muhim uslubiy vositasi sifatida anglash ko‘nikmasi shakllandi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lisoniy kompetensiyani shakllantirishda ahamiyat berish lozim bo‘lgan jihatlar mavjud bo‘lib, ayni shular sababli kichik yoshdagi o‘quvchilarda lisoniy kompetensiyani shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Sifatlar haqidagi bilimlarni mustahkamlash va kengaytirish;
2. Sifatdosh nomini gap bo‘lagi sifatida tahlil qilish amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish;
3. Me’yoriy jihatni hisobga olgan holda nutqda sifatdosh qo‘llash malakalarini rivojlantirish.

Yuqoridagilardan tashqari, boshlang‘ich sinf ona tili darslari jarayonida muammoli-ijodiy hamda tadqiqot xarakteridagi turli usul va metodlarga murojaat qilish ham foydadan xoli bo‘lmaydi. Bunda, albatta, maqsadli va tizimli foydalanish o‘rinli kechadi. Sifat nomi to‘g‘risidagi lingvistik ma’lumotlarni o‘zlashtirish matn bilan ishlashda funksional va kommunikativ yo‘nalishni hisobga olgan holda samarali amalga oshiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, matn bilan ishlashning aytib o‘tilgan usullari sifat haqida o‘rganilgan materialni nutqning bir qismi sifatida mustahkamlash, nutqda leksik moslikni buzmasdan sifatlardan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish uchun murakkab ishlarni tashkil qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o‘z navbatida lisoniy kompetensiyani samarali shakllantirishga yordam beradi.

Bulardan tashqari, kompetensiya borasida tadqiqot olib borgan olimlarning ishlarini o‘rganish ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida lisoniy kompetensiyani shakllantirishda samarali metodlar jamlanmasini tuzishda va undan unumli foydalanishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Almamatov T. Yadgorov Q, Pochchayeva G. "O'zbek tili o'qitish metodikasi" metodik qo'llanma. Jizzax 2016 y.
2. "Ta'lim sohasini isloh qilish, kasb-hunar ta'limi tizimini yanada rivojlantirish va oliy ta'limning bakalavr yo'nalishiga qabul bo'yicha test sinovlarini takomillashtirish masalalari". Yig'ilish. 9-oktyabr, 2017-y.
3. U.Tursunov, B.O'rinboyev "O'zbek adabiy tili tarixi", Toshkent. "O'qituvchi". 2012.
4. Быстрова Е.А. Цели обучения русскому языку, или какую компетенцию мы формируем на уроках// Обучение русскому языку в школе учеб. Пособие для студентов педагогических вузов Е.А.Быстрова, С.И.Лывова, В.И.Капинос, - М. Дрофа, 2004. - С. 20-39.
5. Дубова М.В. Дидактические принципы компетентностно ориентрованного обучения в начальом общем образовании // Начальное образование. - 2012. - №1. - С. 50-51.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

MAGISTRATURA TADQIQOT AMALIYOTINING BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARI KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI

Parmanov Jamshid Tag'aymurotovich
Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti fizika fani o'qituvchisi
https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0008-8225-2194

Annotatsiya: Mazkur maqolada magistratura bosqichidagi tadqiqot amaliyotining bo'lajak fizika o'qituvchilarida PC9 professional kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqot amaliyotini tashkil etishning mazmuni, bosqichlari hamda metodik xususiyatlari yoritilib, magistrlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rejalashtirish, pedagogik tajribalarni tashkil etish, ilmiy natijalarni tahlil qilish va ommalashtirish jarayonlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy metodologik tajribani o'rganish, qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish va amaliyotga tatbiq etish orqali PC9 professional kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslangan.

Kalit so'zlar: magistratura ta'limi, tadqiqot amaliyoti, professional kompetensiya, PC9, metodologik kompetensiya, fizika ta'limi, bo'lajak fizika o'qituvchisi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, pedagogik tajriba, metodologik tajriba, kasbiy tayyorgarlik, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: This article analyzes the role of research practice at the master's level in the formation of PC9 professional competence in future physics teachers. The content, stages and methodological features of organizing research practice are highlighted, and the processes of planning research activities of masters, organizing pedagogical experiments, analyzing and popularizing scientific results are considered. Also, the pedagogical conditions for developing PC9 professional competence are based on studying, comparative analysis, generalization and application of local and foreign methodological experience.

Key words: master's education, research practice, professional competence, PC9, methodological competence, physics education, future physics teacher, research activity, pedagogical experience, methodological experience, professional training, competency-based approach.

Аннотация: В данной статье анализируется роль научно-исследовательской практики на уровне магистратуры в формировании профессиональной компетенции PC9 у будущих учителей физики. Выделены содержание, этапы и методологические особенности организации научно-исследовательской практики, рассмотрены процессы планирования научно-исследовательской деятельности магистров, организации педагогических экспериментов, анализа и популяризации научных результатов. Также педагогические условия развития профессиональной компетенции PC9 основаны на изучении, сравнительном анализе, обобщении и применении отечественного и зарубежного методического опыта.

Ключевые слова: магистратура, научно-исследовательская практика, профессиональная компетенция, PC9, методическая компетенция, преподавание физики, будущий учитель физики, научно-исследовательская деятельность, педагогический опыт, методический опыт, профессиональная подготовка, компетентностный подход.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga keng joriy etish hamda pedagog kadrlarning ilmiy-metodik salohiyatini oshirish oliy ta'lim oldida turgan ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo'lajak fizika o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish va metodologik kompetensiyalarni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda magistratura bosqichidagi tadqiqot amaliyoti magistrlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Magistratura ta'limida tadqiqot amaliyoti magistrlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, ilmiy muammolarni aniqlash va yechish, pedagogik tajribalarni rejalashtirish hamda olingan natijalarni ilmiy jihatdan asoslash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur amaliyot davomida magistrlar ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish, metodologik yondashuvlarni qiyosiy baholash va

ularni ta'lim jarayoniga moslashtirish bo'yicha amaliy tajriba orttiradilar. Natijada ularning kasbiy kompetensiyalari, xususan, metodologik tajribani tizimlashtirish, umumlashtirish va ommalashtirishga tayyorlikni ifodalovchi PC9 professional kompetensiyasi izchil rivojlanadi.

Hozirgi kunda fizika ta'limining sifati ko'p jihatdan o'qituvchining ilmiy-metodik tayyorgarligi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash qobiliyati hamda ilmiy tadqiqot natijalarini ta'lim amaliyotiga tatbiq eta olishiga bog'liq. Shu sababli magistratura bosqichida tadqiqot amaliyotini samarali tashkil etish va uning metodologik asoslarini takomillashtirish bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijasini faqat nazariy bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki olingan bilimlarni real kasbiy vaziyatlarda qo'llash, muammolarni mustaqil hal qilish, qaror qabul qilish va kasbiy faoliyatni refleksiv baholash qobiliyati sifatida talqin qilish imkonini beradi. D. McClelland, R. White, L. Spencer va S. Spencer kabi olimlarning tadqiqotlarida kompetensiya shaxsning samarali faoliyatini ta'minlovchi bilim, ko'nikma, qobiliyat va xulq-atvor xususiyatlarining integrallashgan majmuasi sifatida izohlangan.

Pedagogik kompetensiya masalasini tadqiq etishda L. S. Vygotskiy, A. N. Leontev, V. A. Slastenin, I. A. Zimnyaya kabi olimlarning qarashlari alohida ahamiyatga ega. Ularning ilmiy yondashuvlarida o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi shaxsning faoliyat jarayonida rivojlanishi, nazariy bilimlarning amaliy tajriba bilan bog'lanishi va o'z faoliyatini tahlil qilish orqali takomillashishi bilan izohlanadi. Mazkur yondashuv magistratura tadqiqot amaliyotining mazmunini belgilashda metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot amaliyotining muhim jihatlaridan biri bo'lajak mutaxassisda ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishdir. J. Deweyning reflektiv fikrlash haqidagi qarashlari, D. Schönning reflektiv amaliyot konsepsiyasi hamda zamonaviy tadqiqotga asoslangan ta'lim yondashuvlari bo'lajak pedagogning o'z kasbiy faoliyatini kuzatishi, muammoni aniqlashi, ilmiy faraz ilgari surishi, ma'lumot to'plashi, ularni tahlil qilishi va asoslangan xulosalar chiqarishini taqozo etadi. Mazkur jarayon magistratura bosqichidagi tadqiqot amaliyotining mazmuni bilan bevosita bog'liqdir.

J. Dewey tomonidan ishlab chiqilgan reflektiv fikrlash konsepsiyasida muammoli vaziyatni anglash, mavjud dalillarni tahlil qilish, taxminlarni ilgari surish va ularni amaliy faoliyat orqali tekshirish muhimligi ko'rsatiladi. Bu g'oyalar bo'lajak fizika o'qituvchisining tadqiqotchilik faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki fizika fanini o'qitish jarayonida tajriba, kuzatish, o'lchash, modellashtirish va natijalarni tahlil qilish kabi ilmiy faoliyat elementlari doimiy ravishda qo'llaniladi.

D. Schönning "reflektiv amaliyot" konsepsiyasi esa o'qituvchining kasbiy faoliyat davomida yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilishi va o'z faoliyatini muntazam takomillashtirib borishiga e'tibor qaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlari magistratura dasturining majburiy bo'limi bo'lganligi va Oliy kasbiy ta'limning davlat ta'lim standarti va Namangan davlat pedagogika instituti o'quv dasturi talablariga muvofiq umumiy madaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi sababli, biz talabalarning tadqiqot ishlarining turli turlari va bosqichlarini va amaliyot dasturini ishlab chiqish jarayonida monitoringni ko'rib chiqdik.

Ilmiy amaliyotni tashkil etishdan oldin "Fizika ta'limining tuzilishi va mazmuni", "Fizika ta'limida zamonaviy ta'lim texnologiyalari", "Ixtisoslashtirilgan biologiya ta'limida maktab o'quvchilarining loyiha asosidagi tadqiqot faoliyati" va "Ta'lim ma'lumotlarini taqdim etishning zamonaviy usullari" kabi professional fanlar bo'yicha o'qitish amalga oshirildi. Shuning uchun tadqiqot amaliyoti boshlanishiga kelib, magistratura talabalari biologiyani o'qitish nazariyasi va metodologiyasi bo'yicha tadqiqot faoliyati haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishdi.

Tadqiqot faoliyati uchun motivatsiya ham professional, ham tanlov kurslarini o'rganish jarayonida rivojlandi, bu esa ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga va biologiyani o'qitish nazariyasi va metodologiyasi sohasidagi tadqiqot faoliyatini yanada o'zlashtirish salohiyatiga hissa qo'shdi.

Birinchi bosqichda, amaliyot boshida, amaliyotning ilmiy rahbarlari taklif qilingan metodologik seminar bo'lib o'tdi. Seminar davomida talabalarga tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'yicha ma'lumot va tavsiyalar berildi. Seminarning maqsadi talabalarga magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot kompetensiyalarini egallashga yordam berish edi.

Seminarning asosiy maqsadlari:

- tadqiqot yo'nalishi va mavzusini tanlash;
- magistr talabalariga ilmiy ish ko'nikmalarini o'rgatish, shu jumladan tadqiqot tayyorlash va o'tkazish, ilmiy ishlar yozish;

- loyihalar va tugallangan ilmiy ishlarni muhokama qilish;
- talabalarning ilmiy muhokama va tadqiqot natijalarini taqdim etish ko‘nikmalarini rivojlantirish edi.

Tadqiqot amaliyotining ikkinchi bosqichida talabalar biologiyani o‘qitish nazariyasi va metodologiyasidagi asosiy tadqiqot yo‘nalishlari, shuningdek, tadqiqot usullari va texnikalari nazariy tahlil, kuzatish, suhbat, so‘rovnomalar, talabalarning shaxsiy va ta’lim natijalarini o‘rganish, terminologik lug‘at yaratish, tadqiqot ishlarini rejalashtirish, shu jumladan biologiyani o‘qitish nazariyasi va metodologiyasidagi tadqiqot mavzulari bilan tanishish va tadqiqot mavzusini tanlash, tanlangan mavzu bo‘yicha esse yozish bilan tanishtirildi.

Uchinchi bosqichda aspirantlar tadqiqot metodologiyasini, pedagogik tajriba o‘tkazish texnologiyasini, uning natijalarini taqdim etish talablarini va tadqiqot ishlarini o‘tkazishni o‘zlashtirdilar. Shuningdek, tadqiqot rejasini tuzatdilar. To‘rtinchi bosqichda tadqiqot hisoboti tuzildi, ilmiy ma’lumotlar taqdim etildi hisobot, hisobotning elektron taqdimoti, referat, tadqiqot va metodologik maqolalar tuzildi, annotatsiyalar yozildi va boshqa maqolalarga sharhlar yozildi. Talabalar turli ilmiy tadbirlarda: konferensiyalar, telekonferensiyalar, virtual konferensiyalar, mahorat darslari, davra suhbatlarida ishtirok etdilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot amaliyotining barcha bosqichlarida bitiruvchining tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan talablarga muvofiq professional metodologik kompetensiyalarni o‘zlashtirishda uzluksizlik va izchillik ta’minlandi. Kasbiy sikl fanlarini o‘rganish jarayonida talabalar muhim professional kompetensiyalardan birini (PC9) o‘zlashtirdilar. PC9 professional kompetensiyasining shakllanishi tadqiqot amaliyotining barcha bosqichlarida izchil va uzviy ravishda ta’minlandi. Mazkur kompetensiya magistrlarning mahalliy va xorijiy ilmiy-metodik manbalarni tahlil qilish, ularni qiyosiy o‘rganish, ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish hamda amaliyotga moslashtirish faoliyati orqali rivojlantirildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, ilmiy maqolalar va me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rganildi, ularning mazmuni tanqidiy tahlil qilinib, fizika ta’limini takomillashtirish nuqtayi nazaridan baholandi. Shuningdek, olingan ilmiy natijalarni konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari va mahorat darslarida taqdim etish, ilmiy maqolalar, annotatsiyalar va sharhlar tayyorlash orqali metodologik tajribani ommalashtirish ko‘nikmalari shakllantirildi.

Tadqiqot davomida magistrlar zamonaviy pedagogik va ilmiy metodlarni tanlash, ularning samaradorligini baholash, turli metodologik yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish hamda o‘z tadqiqotlariga mos ravishda takomillashtirish bo‘yicha amaliy tajriba orttirdilar. Natijada ular ilg‘or metodologik tajribani o‘rganish, tizimlashtirish, umumlashtirish va keng ilmiy hamjamiyatga tarqatishga tayyor mutaxassis sifatida shakllandilar. Bu esa PC9 - professional sohada metodologik tajribani mahalliy va xorijiy tizimlashtirish, umumlashtirish va tarqatishga tayyorlik kompetensiyasining to‘liq shakllanganligini tasdiqlaydi.

PC9 (PC9 - Professional Competence 9 (Professional kompetensiya 9): professional sohada mahalliy va xorijiy metodologik tajribani tizimlashtirish, umumlashtirish, tanqidiy tahlil qilish, baholash hamda uni ta’lim amaliyotida samarali qo‘llash va ommalashtirishga tayyorlik professional kompetensiya professional sohada metodologik tajribani mahalliy va xorijiy tizimlashtirish, umumlashtirish va tarqatishga tayyorlikni anglatadi. Ushbu kompetensiyani egallash bizga magistratura bitiruvchisi qiyosiy tahlil, tanqidiy baholash va fizika fanini o‘qitishda metodologik tajribaning samaradorligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan professional bilimlar, ko‘nikmalar va qobiliyatlar to‘plamiga, shuningdek, shaxsiy fazilatlarga ega ekanligini namoyish etish imkonini beradi, ularni o‘rganish, o‘zlashtirish, qabul qilish, o‘zgartirish va o‘qitishning o‘ziga xos sharoitlariga moslashtirish mumkin.

Ushbu kompetensiya eng muhim professional kompetensiyalardan biriga aylandi, biologiya o‘qitish jarayonining ta’lim dizayni orqali yoki amaliyot davomida ta’lim magistrining yetakchi professional funksiyalarini bevosita bajarish orqali rivojlantirildi. Ushbu kompetensiya, boshqa professional kompetensiyalar singari, mustaqil professional faoliyat orqali yanada rivojlantiriladi va kelajakdagi ta’lim mutaxassislarining ish sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Uning darajasi ko‘p jihatdan ta’lim magistrining axborot, tadqiqot, umumiy ta’lim va boshqa umumiy madaniy kompetensiyalarining mavjudligi va rivojlanish darajasiga bog‘liq.

Bakalavriatda dastlabki amaliy tajriba orttirgan talabalar kompyuter va multimedia texnologiyalari va ofis uskunalaridan foydalangan holda o‘zlarining tadqiqot faoliyatlarini ijodiy ravishda loyihalashni boshladilar. Bunga erishish uchun ularga sezilarli darajada mustaqillik va metodologik yordam ko‘rsatildi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish motivatsion va qadriyatlarga asoslangan komponent va dastlabki shaxsiy kasbiy tajribani o‘z ichiga oldi va shaxsiy ma’nolarga ega bo‘ldi. Magistratura talabalarida kasbiy rivojlanish texnologiyasi o‘z bilimlarini oshirish, qo‘shimcha ma’lumot izlash va yangi ilmiy yutuqlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda individual kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarining komponentlarini takomillashtirish istagini uyg‘otdi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, fizika magistratura talabalarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirish yuqori darajada reproduktivdan ijodiy va samaraligacha sodir bo'ldi. Har bir talaba uchun ularning kasbiy kompetensiya xususiyatlari notekis rivojlangan, ammo oxir-oqibat birlashgan.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, metodologik tayyorgarlik ko'p jihatdan talabaning metodologik kompetensiyalarni egallash istagiga, o'z istiqbollari va o'qitish ustuvorliklaridan xabardorligiga bog'liq.

Tadqiqot amaliyoti davomida kasbiy kompetensiyalarni egallash nafaqat maqsadni, balki faoliyat usullarini tanlash motivlari va vositalarini ham tushunish bilan belgilanadi.

Biz professional metodologik kompetensiyalarni o'zlashtirishning ushbu darajasida talabalar ilgari ishlab chiqilgan barcha kompetensiyalarni sintez qilish va ularni har qanday o'quv materialida qo'llashga qodir ekanligini aniqladik:

- mantiqiy va didaktik tahlilni amalga oshirish, shuningdek, darsliklardagi ma'lum bir ilmiy g'oya yoki yo'nalishni amalga oshirishni tahlil qilish;
- ma'lum bir mavzu, bo'lim yoki fan uchun o'quv maqsadlarining ierarxiyasini aniqlash va uni amalga oshirish tizimini loyihalash;
- maqsadlar va haqiqiy o'quv sharoitlariga qarab o'zgaruvchan o'qitish usullarini yaratish;
- fizika fanini darsini loyihalashda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish.

Ilmiy tadqiqot amaliyotida hal qilinadigan professional muammolar doirasi ancha kengroq bo'lgani uchun - bu fizika fanning o'qitish nazariyasi va metodologiyasi sohasida tadqiqot olib borish qobiliyati, mutaxassis sifatida o'zini rivojlantirish qobiliyati, o'quv jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi - metodologik kompetensiyaning rivojlanishiga institutining axborot va ta'lim professional muhitida maxsus yaratilgan pedagogik va metodologik sharoitlar ta'sir ko'rsatdi.

Shunday qilib, magistratura dasturida tadqiqot amaliyoti davomida professional kompetensiyani rivojlantirish uchun taklif qilingan asos magistr talabasining dissertatsiya ishini tashkil qilish va metodologik kompetensiyalarni egallashning samarali usullaridan biridir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari magistratura bosqichidagi tadqiqot amaliyoti bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy va metodologik kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot amaliyoti magistrlarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, ilmiy izlanishlarni mustaqil tashkil etish, pedagogik tajribalarni rejalashtirish va o'tkazish hamda olingan natijalarni ilmiy asosda tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot amaliyotining bosqichma-bosqich tashkil etilishi magistrlarda metodologik yondashuvlarni tanlash, ilmiy manbalarni tanqidiy tahlil qilish, ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalarni qiyosiy o'rganish, ularni tizimlashtirish va ta'lim amaliyotiga moslashtirish kompetensiyalarining izchil shakllanishini ta'minladi. Shu bilan birga, ilmiy maqolalar tayyorlash, konferensiyalarda ishtirok etish, ilmiy natijalarni taqdim etish va muhokama qilish jarayonlari magistrlarning ilmiy-kommunikativ hamda tadqiqotchilik salohiyatini sezilarli darajada oshirdi.

Tadqiqot natijalari asosida PC9 professional kompetensiyasini shakllantirish samaradorligi tadqiqot amaliyotining mazmuni, ilmiy rahbarning metodik ko'magi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va magistrlarning mustaqil ilmiy faoliyati bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi. Mazkur kompetensiya magistrlarning metodologik tajribani tizimlashtirish, umumlashtirish, tanqidiy baholash va uni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shunday qilib, magistratura tadqiqot amaliyoti bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish, metodologik kompetensiyalarini rivojlantirish va ularni zamonaviy ta'lim muhitida samarali faoliyat olib borishga tayyorlashning muhim pedagogik mexanizmi hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida magistratura tadqiqot amaliyotini takomillashtirish, uning mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida boyitish hamda bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv-uslubiy ta'minotni yanada takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Радионова, Н. Ф., Тряпицина, А. П. Перспективы развития педагогического образования: компетентностный подход [Текст] // Человек и образование. 2006. № 4. С. 55.
2. Положение о практиках студентов магистратуры ПИ ЮФУ. Утверждено на заседании ученого совета ПИ ЮФУ. Протокол № 5 от 27 февраля 2008 г. Bibliograficheskij spisok

3. Radionova, N. F., Tryapicina, A. P. Perspektivy' razvitiya pedagogicheskogo obrazovaniya: kompetentnostny'j podhod [Tekst] // Chelovek i obrazovaniye. 2006. № 4. S. 55.
4. Polozheniye o praktikakh studentov magistratury' PI YUFU. Utverzhdeno na zasedanii uchenogo soveta PI YUFU. Protokol № 5 ot 27 fevralya 2008 g
5. Суховиенко Е.А. Информационные технологии педагогической диагностики: теория и практика: Монография. Челябинск: Юж.-Урал. кн. изд-во, 2005. 238 с.
6. Таланчук Н.М. Воспитание синергетическая система ориентированного человековедения. Казань: Дом печати, 1998. 135 с.
7. Талызина Н.Ф. Деятельностный подход к построению модели специалиста // Вестник высшей школы. 1986. № 3. С. 10-14.
8. Талызина Н.Ф. Методика составления обучающих программ: Учеб. пособие. М.: Изд-во МГУ, 1980. 47 с.
9. Талызина Н. Ф. Педагогическая психология: Учеб. пособие. М.: Издательский центр "Академия", 1998. 288 с.
10. Талызина Н.Ф. Теоретические основы разработки модели специалиста. М.: Знание, 1986. 108 с.
11. Татаринов Ю.Б. Проблемы оценки эффективности фундаментальных исследований: логико-методологические аспекты. М.: Наука, 1986. 227 с.
12. Татур Ю.Г. Компетентность в структуре модели качества подготовки специалиста // Высшее образование сегодня. 2004. № 3. С. 20-26.
13. Теоретические основы содержания общего среднего образования.М.: Педагогика, 1983. 352 с.
14. Терегулов Ф.Ш. Передовой педагогический опыт: Теория распознавания, изучения, обобщения, распространения и внедрения. М.: Педагогика, 1991. 296 с.

UMUMTA'LIM MAKTABLARI MATEMATIKA TO'GARAGIDA SFERANING ELEMENTLARINI O'RGANISH METODIKASI

Jumayev Erkin Ergashevich
Termiz DPI matematika kafedrasi, dotsent,
pedagogika fanlari nomzodi

Omonov G'olibjon Tolibovich
Mustaqil tadqiqotchi

Shaxnoza Xolmurodova Zoir qizi
2-kurs magistri

Annotatsiya: Maqolada sferik geometriyaning elementlarini o'rganish mumkinligi ishlab chiqilgan, sferada koordinatalar metodi kiritilgan, ixtiyoriy nuqtasining atrofi tekshirilgan, Eyler asriga qisqacha ma'lumot berilgan, maqolada tahlil qilingan geometriyaning bosib o'tgan yo'li qutb yulduzidan sirtdagi koordinatalargacha nomini olganligi asoslandi.

Kalit so'zlar: sfera, astrologiya, yulduzlar, olam, Yer, qutb o'qi, sutka, aylanish, planeta, koordinatalar, tenglama, akslantirish, nuqta, formula, vektor, to'g'ri chiziq, egri chiziq, tekislik, doira, aylana, argument, funksiya, meridianlar, o'zgaruvchi, ekvator, parallellar.


Abstract: The article develops the possibility of studying the elements of spherical geometry, introduces the coordinate method on the sphere, examines the neighborhood of an arbitrary point, provides brief information about the Euler era, and substantiates that the path of geometry analyzed in the article is called "from the Pole Star to coordinates on the surface."

Key words: sphere, astrology, stars, universe, Earth, polar axis, day, rotation, planet, coordinates, equation, mapping, point, formula, vector, straight line, curve, plane, disk, circle, argument, function, meridians, variable, equator, parallels.

Аннотация: В статье разработана возможность изучения элементов сферической геометрии, введён метод координат на сфере, исследована окрестность произвольной точки, приведены краткие сведения об эпохе Эйлера, а также обосновано, что рассмотренный в статье путь развития геометрии получил название "от Полярной звезды до координат на поверхности".


Ключевые слова: сфера, астрология, звёзды, Вселенная, Земля, полярная ось, сутки, вращение, планета, координаты, уравнение, отображение, точка, формула, вектор, прямая линия, кривая линия, плоскость, круг, окружность, аргумент, функция, меридианы, переменная, экватор, параллели.

KIRISH




Ma'lumki, sfera qadimdan o'rganilgan, uni faylasuflar kechayu kunduz kuzatganlar. Astronomlar va astrologlar yulduzlar olamini o'rganib, Yer sferasini qutb o'qidan o'tuvchi o'q atrofida bir sutkada bir marta aylanishini bilganlar. Qadimda 7 ta planeta bor deb hisoblangan (Quyosh, Oy, Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter va Saturn). Yerning planeta ekanligi birinchi marta Nikolay Kopernik (1473–1543) tomonidan isbotlangan.

Sferada koordinatalarni kiritish bilan shug'ullanamiz. Sferaning koordinatalarni bog'lovchi tenglamasi: $\bar{r}(u, v) = a \sin v \cdot \bar{e}(u) + a \cos v\bar{k}$. Bu tenglama (u, v) sonlar jufti to'plamini sfera nuqtasiga akslantirishni o'rnatadi. Bu yerda uzoqlik uchun(u harfi bilan belgilaymiz) $[0, 2\pi[$ oraliqni olish yetarli, kenglik uchun esa (u v harfi bilan belgilanadi) $[0, \pi]$ oraliqni olish yetarli. Qutblarga hozircha e'tibor bermasak, unda o'rnatilgan akslantirishni $M \Leftrightarrow (u, v)$ deb hisoblash mumkin, bu yerda M nuqta, yuqorida



formula yordamida berilgan radius vektor bilan aniqlanadi. Bu formulaning mazmuni rasmdan ko'rinib turibdi. Agar $\bar{e}(u) = \cos u\bar{i} + \sin u\bar{j}$ ekanligini hisobga olsak yuqoridagi tenglama $\bar{r}(u, v) = a\cos u \sin v\bar{i} + a \sin u \sin v\bar{j} + a \cos v\bar{k}$ ko'rinishni oladi. u va v lar egri chiziqli koordinatalar deyiladi. Tekislikda $x = \text{const}$ tenglama bilan berilgan har qanday chiziq to'g'ri chiziqdan iborat. Shunga o'xshash $y = \text{const}$ chiziq ham to'g'ri chiziq bo'ladi. Xususiy holda $x = 0$ va $y = 0$ to'g'ri chiziqlar koordinata o'qlaridir. Bu to'g'ri chiziqlar sferada qanday ma'no kasb etadi? Yuqoridagi rasmda $u = 0$ tenglamaga xOz tekislikda yotuvchi katta doira aylanasi mos keladi, ya'ni geograflar uchun sanoq boshi bo'lgan "boshlang'ich meridian"dir. Tabiiyki $u = 0$ da $\bar{r}(0, v) = \bar{\rho}(v) = a \sin v\bar{i} + a \cos v\bar{k}$ aylana tenglamasiga keladi, bu yerda $\bar{\rho}(v)$ bir argumentning vektor funksiyasi.

Har qanday $u = u_0 \neq 0$ da ham katta doira aylanasi hosil bo'ladi, ya'ni yana bitta meridian. Uning tenglamasini bir argumentning funksiyasi yordamida quyidagicha yozish mumkin: $\bar{\rho}_1(v) = \bar{r}(u_0, v) = a \sin v\bar{e}(u_0) + a \cos v\bar{k}$. Bu tenglama aylananing $\bar{e}(u_0)$ va $\bar{k}$ vektorlar tekisligida yotishini ko'rsatadi. Umuman $u = \text{const}$ chiziqlar meridianlardir. Endi v ni fiksirlaymiz, masalan $v = \frac{\pi}{2}$ bo'lsin. Buning uchun rasmdagi o'zgaruvchining(kenglikning) qiymati ekvator bo'ladi. Uning tenglamasini $\bar{r}\left(u, \frac{\pi}{2}\right) = \bar{\rho}\left(u, \frac{\pi}{2}\right) = a\bar{e}(u)$ ko'rinishda yozish mumkin. $v = \text{const}$ da nima hosil bo'lishi ravshan. Aytaylik $v = v_0$ bo'lsin. Unda $\bar{\rho}_2(u) = r(u, v_0)$ yoki $\bar{\rho}_2(u) = a \sin v_0\bar{e}(u) + a \cos v_0\bar{k}$. Endi $a \cos v_0 = b, a \sin v_0 = c$ belgilashlarni kiritib $v = \text{const}$ chiziqning $\bar{\rho}_2(u) = c\bar{e}(u) + b\bar{k}$ tenglamasini yozamiz. Natija aylana bo'ldi. Uning radiusi s ga teng, ekvatordan $b = a \sin v_0$ birlik uzoqlikdagi tekislikda yotadi. Bu parallellardir.




Sferaning aniq bir $M_0(u_0, v_0)$ nuqtasini olib, faqat bu nuqta va uning atrofini tekshiramiz(lokal qaraymiz). U holda bu nuqta va bu nuqta atrofida yotgan nuqtalar ham qutb emas. M_0 nuqta orqali ikki koordinatali aylanalar o'tadi. Ulardan biri $u = u_0$ va ikkinchisi $v = v_0$. Bu aylanalarni bir biriga nisbatan qanday joylashishini bilish juda muhim. M_0 nuqtada bu aylanalarga urinadigan $\bar{t}_1$ va $\bar{t}_2$ vektorlarni topamiz. Buning uchun mos hosilalarni topish zarur. $u = u_0$ chiziq uchun $\bar{t}_1 = \frac{d\bar{\rho}_1(v)}{dv} = a(\cos v\bar{e}(u_0) - \sin v\bar{k})$ vektor va $v = v_0$ uchun $\bar{t}_2 = \frac{d\bar{\rho}_2(u)}{du} = a \sin v_0\bar{e}'(u)$ vektorga ega bo'lamiz. M_0 nuqta uchun bu vektorlarning skalyar ko'paytmasini tuzamiz: $\bar{t}_1 \cdot \bar{t}_2 = a^2(\cos v_0 \cdot \sin v_0\bar{e}(u_0) \cdot \bar{e}'(u_0) - \sin^2 v_0\bar{e}'(u_0) \cdot \bar{k})$. Ravshanki, $\bar{e}$, $\bar{e}'$ va $\bar{k}$ lar dekart bazisini hosil qiladi, unda $\bar{t}_1 \cdot \bar{t}_2 = 0$ bo'ladi, ya'ni $\bar{t}_1$ va $\bar{t}_2$ vektorlar perpendikulyar. Egri chiziqlar orasidagi burchakni kesishish nuqtasiga o'tkazilgan urinmalar orasidagi burchak sifatida topish qabul qilingan. Bu holda burchak to'g'ri burchakdan iborat. Shuning uchun parallellar va meridianlar ortogonal deb ataladi. Demak, sferadagi egri chiziqli koordinatalar sistemasi tekislikdagi Dekart koordinatalar sistemasiga juda o'xshash.Lokal qarashda qiymatlari $u = u_0$ va $v = v_0$ biror M_0 nuqta atrofida, umuman olganda, koordinatalar sistemasi yo'q, balki faqat koordinata to'rlari bor, boshlang'ich meridian va ekvator nuqtaning atrofida yotmasligi mumkin, qutblar esa unda bo'lmasligi kerak. Umuman, to'r deb shunday egri chiziqlar to'plamiga aytiladiki, unda har bir nuqtaning atrofi orqali bitta va faqat bitta har bir oilaning chizig'i o'tadi. Bunday to'r muntazam to'r deyiladi. Agar bu to'plamdagi barcha chiziqlar o'rniga ayrim, bir-biridan ma'lum masofada joylashganlarini qarasak, baliq ovlaydigan to'rlarga o'xshash to'rlar hosil bo'ladi. Agar to'plamdagi barcha chiziqlarni qarasak, unda nuqtaning atrofini to'liq qoplab oladi. Qutb atrofida koordinata to'rlari har doim muntazam bo'lavermaydi, chunki qutb orqali bitta oilaning cheksiz ko'p chiziqlari o'tadi.


MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, Dekartning o'zgaruvchi miqdorlari va tekislikdagi koordinatalari matematikaga ta'sir qildilar, geometrik figuralarning xossalarini algebraik tilda ifodalash imkoniyatini berdi. Lekin qadimda astronomiya, geografiya va kartografiyada sferik koordinatalardan foydalanganlar. O'zgaruvchi miqdorgacha, dialektika va harakatgacha, chiziq va sirtlarning xossalarini o'rganguncha hali undan yiroq edilar. Hatto integral hisob yaratilgandan so'ng, sirt ustidagi yuzani hisoblashga erishilgan. Yangi masalalarni ko'ra bilish va uni to'g'ri qo'ya bilish buyuk olimlardan katta kuch talab etar edi. Har bir fanning ana shunday birinchi yaratuvchilari bo'lgan, geometriyada bular L. Eyler va G. Monj bo'ldilar. Eyler 1707-yilda Shveysariyada tug'ilgan. 1725-yil 13-noyabrda ochilgan Peterburg Akademiyasida ishlagan. Yoshlik davri Bazelda o'tdi, uning matematik tayyorgarligiga differensial hisob g'oyalarini ilgari surgan Leybnisning tengdoshi Iogann Bernulli ta'sir o'tkazdi. Eyler 1741-yilda Berlinga o'tdi, lekin 1766-yili yana Peterburgga qaytib keldi va so'ngra Rossiyadan ketmadi. Rossiya Akademiyasi Lomonosov va Eyler tomonidan ochildi. Har ikkalasi ham mehnatsevar bo'lib, matematikaning turli tarmoqlari, mexanika, fizika va astronomiya bilan shug'ullandilar. Eyler birinchi marta uchta x, y, z fazoviy koordinatalarga nisbatan konusdan farqli sirtlarning 5 ta tipini ko'rsatgan (ellipsoid, bir pallali giperboloid, ikki pallali giperboloid, elliptik paraboloid, giperbolik paraboloid). Eyler bir Dekart koordinatalar sistemasidan ikkinchisiga o'ta turib, bu sirtlarning tenglamasini sodda holda ifodalash mumkinligini ko'rsatdi. Bu natijalar hozir matematika ta'limi yo'nalishi bo'lgan oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan analitik geometriya o'quv fanining asoslari hisoblanadi.



Eyler o'zining 1760-yilda yozgan "Issledovaniya o krivizne poverxnostey" asarida birinchi marta umumiy ko'rinishdagi sirtning egriligi haqidagi masalani qo'ygan: uning ixtiyoriy nuqtasidagi sirtning ichki geometriyasini xarakterlovchi invariantlarni topish, ya'ni sirtning berilish usuli va koordinatalar sistemasini tanlashga bog'liq bo'lmagan xossalarni aniqlashdan iborat. Eylerning g'oyasi sirtda berilgan nuqtadan o'tuvchi barcha chiziqlarning egriligini qarash va ular ichida eng katta va eng kichigini izlashdan iborat edi. Eylerning ishini fransuz matematigi Gospar Monj davom ettirdi. Monj 1795-yilda yozgan "Prilojenie analiza" nomli kitobida sirtni Dekart koordinatalar sistemasiga nisbatan $z = z(x, y)$, so'ngra qisqacha $\tilde{M} = 0$ deb yozdi. Monjning $z(x, y)$ funksiyaning barcha xususiy hosilalarini belgilashi hozirgacha saqlanib kelinmoqda:



$$\frac{\partial z}{\partial x} = p,\ \frac{\partial z}{\partial y} = q,\ \frac{\partial^2 z}{\partial x^2} = r,\ \frac{\partial^2 z}{\partial x \partial y} = s,\ \frac{\partial^2 z}{\partial y^2} = t.$$

18 - asr matematiklari asri Eyler asri deb nomlandi. 19 asrning boshida matematikada oldingi safda bo'lgan deb Karl Fridrix Gauss(1777-1855) tan olingan (u Getingen observatoriyasi direktori va getingen universiteti professori lavozimida ishlagan, Getingen g'arbiy Germaniyadagi kichkini bir shahar, Gauss bilan bir qatorda matematiklardan Berngard Riman, Feliks Kleyn, David Gilbert, German Veyl, ximiklardan Robert Bunzen, fiziklardan Vilgelm Veber, filolog Yakob va Vilgelm Grimm va boshqalar bo'lgan).

Cirtdagi egri chiziqlar ikki usul bilan o'rganiladi. Birinchisida $w = 0$ ko'rinishga keladigan x, y, z koordinatalar orasidagi tenglamalar, bu yerda x, y, z o'garuvchilarning funksiyasi w. Ikkinchisida koordinatalari ikki erkli o'zgaruvchining funksiyasi sifatida qaraladi. Birinchi usul bilan Monj ishlagan, ikkinchisi bilan esa faqat birinchilardan bo'lib Gauss ishlagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, matematik modellashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Sferik geometriya elementlarini o'rganishda koordinatalar metodi, vektor funksiyalar, hosilalar hamda urinma tekislik va normal vektorlarni aniqlash usullari qo'llanildi. Shuningdek, sfera, gelikoid va tors misollari asosida geometrik xususiyatlar tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


$\bar{r} = \bar{r}(u, v)$ vektor funksiya berilgan bo'lsin. Sirtning bu usulda berilishi dekart koordinatalar sistemasiga bog'liq emas, chunki bir dekart koordinatalar sistemasidan ikkinchisiga o'tganda $\bar{r} = \bar{r}^* + \overline{OO}^*$ almashtirish yuz beradi, ya'ni birinchi hosilada yo'qoladigan $\overline{OO}^*$ o'zgarmas qo'shiluvchi qo'shiladi. Bundan tashqari kanonik reper osongina yasaladi, sirtdagi urinma tekislik oddiy aniqlanadi, o'z navbatida urinish nuqtasida perpendikulyar(normal) o'tkazish imkoni bo'ladi.

Qaralayotgan sirtda biror $M(u_0, v_0)$ nuqta, ya'ni $\bar{r}_0 = \bar{r}(u_0, v_0)$ radius vektorli nuqta olamiz. U orqali sirtadagi mumkin bo'lgan barcha chiziqlarni o'tkazish mumkin. M nuqtadan o'tgan barcha chiziqlar uchun, nuqtada o'tkazilgan urinmalar to'plami haqida nima deyish mumkin? Agar ularning hammasi bitta umumiy nuqtadan o'tsa, unda ikkita imkoniyat bo'lishi mumkin: ular yo konus hosil qiladi(to'g'ri doiraviy bo'lishi shart emas), yoki ularning hammasi urinma deb ataluvchi bir tekislikda yotadi. Umumiy holda tekislik hosil bo'lishini ko'rsatamiz.

Agar ikki argumentli vektor funksiyadan bir argumentliga o'tsak, sirt o'rniga shu sirtda yotuvchi chiziq hosil bo'ladi. Bu funksiyalar ikkita koordinatali chiziqlar oilasini hosil qiladi. Koordinatali oilalarni $u = \text{const}$ va $v = \text{const}$ deb belgilaymiz. Ikki koordinatali chiziqlarning $M(u_0, v_0)$ nuqtadan o'tuvchi urinmasini topish qiynt. Avval $\bar{r} = \bar{r}(u_0, v)$ vektor funksiyaning hosilasini topamiz. Bu hosila $\frac{\partial \bar{r}}{\partial v}$ xususiy hosila bo'lib, $u = u_0$ chiziqning urinmasiga parallel bo'lgan vektor bo'ladi. Endi xuddi shunday $\bar{r} = \bar{r}(u, v_0)$ funksiyaning hosilasini topamiz. Bu xosila $v = v_0$ chiziqning urinmasiga parallel bo'lgan vektor bo'ladi. Ular kesishuvchi ikki to'g'ri chiziq sifatida biror tekislikni aniqlaydi. Agar sirta yotgan va $M(u_0, v_0)$ nuqtadan o'tuvchi uchunchi chiziqqa o'tgazilgan urinma shu tekislikda yotsa, unda urinma tekislik yasash masalasi yechiladi.

Sirtda ixtiyoriy chiziqni qanday berish mumkin? Bir t argumentning $u = u(t)$ va $v = v(t)$ funksiyasini qaraymiz. Bu chiziq $M(u_0, v_0)$ nuqtadan o'tishi uchun argumentning biror $t = t_0$ qiymatida $u(t_0) = u_0,\ v(t_0) = v_0$ tenglik bajarilishi talab etiladi.

Endi bu chiziqning radius vektorini $\bar{r}(t) = \bar{r}(u(t), v(t))$ ko'rinishda yozsak bo'ladi, bu chiziqqa o'tkazilgan urinma esa $\frac{d\bar{r}}{dt} = \bar{r}_u \frac{du}{dt} + \bar{r}_v \frac{dv}{dt}$ vektoriga parallel bo'ladi. $t = t_0, u = u_0, v = v_0$ da bu formula o'rinli va $M(u_0, v_0)$ nuqtadagi $\bar{r}_u$ va $\bar{r}_v$ vektorlar, nuqtaning koordinatasiga bog'liq va chiziqni tanlashga bog'liq emas. Bundan oxirgi tenglikdagi vektorlarining $\bar{r}_u(u_0, v_0)$ va $\bar{r}_v(u_0, v_0)$ vektorlar juftligi bilan chiziqli bog'langanligi kelib chiqadi. Agar bu vektorlar parallel bo'lmasa va birortasi nol bo'lmasa, unda barcha vektorlar $\bar{r}_u(u_0, v_0)$ va $\bar{r}_v(u_0, v_0)$ vektorlar bilan aniqlanuvchi tekislikda yotadi. Demak, sirtning barcha nuqtalari uchun $\bar{r}_u \neq 0,\ \bar{r}_v \neq 0,\ \bar{r}_u \nparallel \bar{r}_v$ deb talab qo'yish kerak bo'ladi(bu shart bajarilmaydigan nuqtalar maxsus nuqtalar deyiladi). Vektor ko'paytma ta'rifidan urinma tekislik mavjud bo'ladi, agar $\bar{r}_u \times \bar{r}_v \neq 0$ bo'lsa. M nuqtadagi urinma tenglamasi $(\bar{R} - \bar{r}) \cdot \bar{r}_u \cdot \bar{r}_v = 0$ ko'rinishda yoziladi. Bu tenglik $\bar{R} - \bar{r},\ \bar{r}_u$ va $\bar{r}_v$ vektorlarning komplanar ekanligini ko'rsatadi.



Shuningdek, $\bar{r}_u \times \bar{r}_v$ vektor tekislikka perpendikulyar va M nuqtadagi normalni aniqlaydi: $\bar{R} = \bar{r} + \lambda(\bar{r}_u \times \bar{r}_v)$.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

1-misol. Sfera: $\bar{r} = a \sin v \cdot \bar{e}(u) + a \cos v\bar{k}$.

$\bar{r}_u = a \sin v \cdot \bar{e}'$, $\bar{r}_v = a \cos v \cdot \bar{e}(u) - a \sin v\bar{k}$.

$$\bar{r}_u \times \bar{r}_v = \begin{vmatrix} \bar{e} & \bar{e}' & \bar{k} \\ 0 & a \sin v & 0 \\ a \cos v & 0 & -a \sin v\bar{k} \end{vmatrix} =$$

$$= a^2 \cdot (-\sin^2 v\bar{e} - \sin v \cos v\bar{k}) =$$

$$= -a \sin v (a \sin v\bar{e} + a \cos v\,\bar{k}).$$

Qovus ichidagi ifoda $\bar{N} \parallel \bar{r}$ bo'lishini anglatadi, ya'ni normal radius vektoriga parallel, qaralayotgan misolda sferaning radiusi bo'ladi. Al va KHK gemetriya kursidagi quyidagi tasdiq bajariladi: sferaga urinma tekislik, uning urinish nuqtasiga o'tkazilgan radiusga perpendikulyar. Lekin masalaning ikkinchi tomoni juda muhim. $v = 0$ va $v = \pi$ da $\bar{r}_u \times \bar{r}_v = 0$ bo'ladi. O'z vaqtida biz argumentning bu qiymatini chiqarib tashladik. Demak, normal tekislik va urinma tekislik aniqlanmaydi.

2-misol. To'g'ri gelikoid: $\bar{r}(u, v) = v \cos u\bar{i} + v \sin u\bar{j} + bu\bar{k}$. Hosilalar quyidagicha olinadi: $\bar{r}_u = v\bar{e}'(u) + b\bar{k}$, $\bar{r}_v = \bar{e}(u)$.


Normal vektor: $\bar{r}_u \times \bar{r}_v = \begin{vmatrix} \bar{e} & \bar{e}' & \bar{k} \\ 0 & v & b \\ 1 & 0 & 0 \end{vmatrix} = b\bar{e}' - v\bar{k}$. Normal aniqlandi desak bo'ladi, chunki $b \neq 0$, $\bar{e}' \neq 0$ va har qanday u va v da $\bar{r}_u \times \bar{r}_v = 0$ tenglik bajarilmaydi. Maxsus nuqtalar yo'q.

3-misol. Tors. Ma'lumki $\rho = \rho(u)$, bu yerda u ni yoy uzunligi deb olamiz. Bu sirt ixtiyoriy fazoviy egri chiziq urinmasida yotgan nuqtalar to'plamidan iborat. Urinma $\frac{d\bar{\rho}}{du} = \bar{\rho}'$ yo'nalishga ega. U holda torsning tenglamasi $\bar{r} = \bar{\rho}(u) + v\bar{\rho}'(u)$, bu yerda v biror qoidaga mos M^*M uzunlik. Quyidagi hosilalarni topamiz: $\bar{r}_u = \bar{\rho}'(u) + v\rho''(u)$, $\bar{r}_v = \bar{\rho}'(u)$.

U holda normal:

$$\bar{r}_u \times \bar{r}_v = (\bar{\rho}'(u) + v\bar{\rho}''(u)) \times \bar{\rho}'(u) =$$

$$= \bar{\rho}'(u) \times \bar{\rho}'(u) + v\bar{\rho}''(u) \times \bar{\rho}'(u) = v\rho''(u) \times \bar{\rho}'(u).$$



va $\bar{\rho}''$ lar faqat u ga bog'liq, v esa skalyar, unda normalning yo'nalishi v ga bog'liq emas. u ni fiksirlasak tenglama to'g'ri chiziqni ifodalaydi, v ning har bir qiymatiga to'g'ri chiziqning biror nuqtasi mos keladi. Tors bitta parametrga bog'liq urinma tekisliklar to'plamidan iborat sirt bo'ladi. Bundan tashqari, $v = 0$ da sirtning normali aniqlanmagan. Yuqorida tahlil qilingan geometriyaning bosib o'tgan yo'li qutb yulduzidan sirtdagi koordinatalargacha nomini oldi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. A.A. Raximqoriyev, M. A. Toxtoxodjayeva. Geometriya 8. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8 – sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 4-nashri. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi tasdiqlagan. Toshkent "O'zbekiston", 2019, 160 bet.
2. A.B. Погорелов. Геометрия 7-9. Учебник общеобразовательных учреждений. Рекомендовано Министерством образования и науки Российской Федерatsii, 10-е издание, Москва, "Просвещение", 2009. 224с.
3. А.Д. Александров, А.Л. Вернер, В. И. Рыжик. Геометрия 8 класс. Учебник для общеобразовательных организatsiй. Рекомендовано Министерством образования и науки Российской Федерatsii, 4-е издание, Москва, "Просвещение", 2019. 176с.
4. С.А. Козлова, А. Г. Рубин, В. А. Гусев. Геометрия 7-9 классы. Москва, 2015. Федеральный государственный образовательный стандарт. Образовательная система "Школа 2100"176с.

BOSHLANG'ICH TA'LIM JARAYONIDA RAQAMLI VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QUVCHILARNING VAQTNI BOSHQARISH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Norova Nargiza Xalmamat qizi
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida raqamli va interaktiv texnologiyalar vositasida o'quvchilarning vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli vositalarning o'quvchilarda vaqtni anglash, taqsimlash va samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada interaktiv taymerlar, elektron rejalashtirgichlar, raqamli kundaliklar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil faoliyati va individual ta'lim sur'atini qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida asoslangan. Ishning ilmiy yangiligi vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning funksional imkoniyatlarini pedagogik jihatdan tizimlashtirish bilan belgilanadi. Xulosa sifatida raqamli va interaktiv texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim mazmuniga maqsadli integratsiyalash samarali natija berishi asoslangan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, vaqtni boshqarish, kompetensiya, raqamli texnologiyalar, interaktiv texnologiyalar, raqamli ta'lim, elektron rejalashtirish, taymer, o'quv faoliyati, pedagogik texnologiya.

Abstract: This article examines the development of time management competencies among primary school students through digital and interactive technologies. The main purpose of the study is to identify the pedagogical potential of digital tools in developing students' skills of understanding, allocating, and effectively using time. The possibilities of using interactive timers, electronic planners, digital diaries, and interactive tasks are analyzed. Digital technologies are considered as tools for supporting students' independent activities and individual learning pace. The scientific novelty of the study lies in the pedagogical systematization of the functional potential of digital technologies for developing time management competencies. The study concludes that purposeful integration of digital and interactive technologies into primary education can contribute to more effective development of students' time management skills.

Key words: primary education, time management, competence, digital technologies, interactive technologies, digital learning, electronic planning, timer, learning activity, pedagogical technology.

Аннотация: В статье рассматривается проблема развития компетенций управления временем у учащихся начальных классов посредством цифровых и интерактивных технологий. Основной целью исследования является определение педагогических возможностей цифровых средств в развитии навыков осознания, распределения и эффективного использования времени. Проанализированы возможности применения интерактивных таймеров, электронных планировщиков, цифровых дневников и интерактивных заданий. Цифровые технологии рассматриваются как средство поддержки самостоятельной деятельности и индивидуального темпа обучения учащихся. Научная новизна исследования заключается в педагогической систематизации функциональных возможностей цифровых технологий в развитии компетенций управления временем. Сделан вывод о целесообразности целенаправленной интеграции цифровых и интерактивных технологий в содержание начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, управление временем, компетенция, цифровые технологии, интерактивные технологии, цифровое обучение, электронное планирование, таймер, учебная деятельность, педагогическая технология.

KIRISH

Raqamli avlod vakillari bo‘lgan zamonaviy o‘quvchilar axborot bilan to‘yingan muhitda ta’lim olmoqda, bu esa ularda erta yoshdanoq o‘z vaqtini samarali taqsimlash, ustuvor vazifalarni tanlash va o‘quv faoliyatini mustaqil rejalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishni taqozo etadi. Vaqtni boshqarish kompetensiyasi nafaqat kattalar mehnat faoliyatiga xos xususiyat, balki boshlang‘ich sinf o‘quvchisining o‘quv motivatsiyasi, o‘z-o‘zini tashkil etish qobiliyati va akademik natijadorligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan asosiy hayotiy ko‘nikmalardan biridir.

Raqamli texnologiyalarning ta’lim tizimiga jadal kirib kelishi o‘quvchilarning bilimlarni egallash usullari bilan bir qatorda, o‘quv faoliyatini tashkil etish shakllarining ham o‘zgarishiga sabab bo‘lmoqda. Zamonaviy boshlang‘ich ta’limda elektron ta’lim resurslari, multimedia materiallari, interaktiv topshiriqlar, raqamli ta’lim platformalari va mobil ilovalardan foydalanish o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirish bilan birga, ularda mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini raqamlashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan davlat siyosati boshlang‘ich ta’lim bosqichida ham interaktiv vositalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu bilan birga, amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘pchilik o‘qituvchilar raqamli vositalardan asosan bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash maqsadida foydalanadi, ular vaqtni boshqarish kabi metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayapti. Bu esa mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun vaqt tushunchasi mavhum nazariy kategoriya bo‘lib qolmasdan, kundalik faoliyatda namoyon bo‘ladigan amaliy resurs sifatida shakllanishi muhimdir. O‘quvchining darsga o‘z vaqtida tayyorlanishi, topshiriqni bajarish davomiyligini anglay olishi, bir nechta vazifalar orasida vaqtni taqsimlashi va o‘z faoliyatining natijasini baholashi uning vaqtni boshqarish kompetensiyasini belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardir. O‘quvchilar tomonidan bajariladigan uy vazifalar hajmini ko‘paytirish va ularning o‘quv yutuqlarini oshirish uchun uy vazifasiga sarflanadigan vaqtdan ko‘ra vaqtni boshqarishga ko‘proq e’tibor berish kerak [6].

An’anaviy ta’lim sharoitida bunday ko‘nikmalarni rivojlantirish ko‘proq o‘qituvchining og‘zaki ko‘rsatmalari va qog‘oz shaklidagi rejalashtirish vositalari orqali amalga oshiriladi. Raqamli muhit esa vaqt bilan bog‘liq faoliyatni ko‘rish, o‘lchash, qayd etish, solishtirish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. Masalan, interaktiv taymer o‘quvchiga topshiriq uchun ajratilgan vaqtni vizual ko‘rsatishi, raqamli platforma bajarilgan topshiriqlar tarixini saqlashi, elektron rejalashtirgich esa o‘quvchining kundalik vazifalarini tartibga solishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, raqamli texnologiyalarni boshlang‘ich ta’limga joriy etish masalasiga faqat ta’lim mazmunini elektron shaklga o‘tkazish sifatida emas, balki o‘quvchining vaqt bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish vositasi sifatida yondashish zarur. Ayniqsa, interaktiv texnologiyalarning o‘quvchiga tezkor javob qaytarishi, topshiriqlarni individual sur’atda bajarish imkonini berishi va o‘quv natijalarini kuzatishga sharoit yaratishi vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun alohida pedagogik ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur maqolada raqamli va interaktiv texnologiyalarning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari, raqamli ta’lim muhitiga qo‘yiladigan pedagogik talablar hamda amaliy foydalanish mexanizmlari tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Vaqtni boshqarishning asosiy qismlari quyidagilardir: vaqtni kuzatish, vaqtni optimallashtirish, vazifalarni rejalashtirish va motivatsiyani tashkil etish [3]. Raqamli ta’limning rivojlanishi natijasida o‘quvchining ta’lim jarayonidagi roli ham o‘zgarib bormoqda. An’anaviy modelda o‘quvchi ko‘proq o‘qituvchi tomonidan belgilangan faoliyatni bajaruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lsa, raqamli ta’lim muhitida unga o‘z faoliyatining sur’ati, ketma-ketligi va ayrim holatlarda mazmunini tanlash imkoniyati beriladi. Bu esa o‘quvchining o‘z ta’lim faoliyatini boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Raqamli ta’limga oid ilmiy tadqiqotlarda texnologiyalarning asosiy afzalliklari sifatida individualizatsiya, moslashuvchanlik, tezkor qayta aloqa, o‘quv jarayonini monitoring qilish va ta’lim resurslaridan istalgan vaqtda foydalanish imkoniyati ko‘rsatiladi. Vaqtni boshqarishning asosi kundalik reja, tartib va maqsadlarni belgilashdir. Ushbu texnikadan to‘g‘ri foydalanish bilan yosh maktab o‘quvchilari qat’iyatlilik, tashkilotchilik, vaqtida kelish, aniqlik va xotirjamlik kabi fazilatlarni rivojlantirishlari mumkin. Bolalarning vaqtni boshqarishi bolalarga maqsadga erishishga yordam beradi [1].

Mazkur imkoniyatlarning har biri vaqtni boshqarish kompetensiyasi bilan bevosita yoki bilvosita bog‘lanadi. Xususan, individual ta’lim sur’atining mavjudligi o‘quvchiga topshiriqni o‘z imkoniyatidan kelib chiqib bajarish imkonini beradi. Biroq bu jarayon o‘quvchining vaqtni mustaqil boshqarish mas’uliyatini ham oshiradi. Shuning uchun raqamli ta’lim muhitida texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda, o‘quvchilarda vaqtni rejalashtirish va o‘z faoliyatini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirish ham talab etiladi. Interaktiv ta’lim texnologiyalari bo‘yicha

tadqiqotlarda o‘quvchilarning faol ishtiroki, darhol qayta aloqa olishi va o‘quv topshiriqlarining vizuallashtirilishi ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida qayd etiladi. Ushbu imkoniyatlardan vaqtni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin.

Bu yondashuv orqali o‘quvchilarning bilim olish jarayonida faolligi oshiriladi, ularning kreativ fikrlash qobiliyati rivojlanadi va o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati shakllanadi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish orqali o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishi oshiriladi va ularning o‘zlashtirish darajasi yaxshilanadi [4].

Shu bilan birga, raqamli vositalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan vaqtni boshqarish kompetensiyasining shakllanishini kafolatlamaydi. Aksincha, noto‘g‘ri tashkil etilgan raqamli faoliyat o‘quvchining diqqatini chalg‘itishi, keraksiz kontentga vaqt sarflashiga yoki topshiriqni bajarish jarayonida vaqtni samarasiz taqsimlashiga olib kelishi mumkin.

Demak, raqamlashtirish jarayonida “texnologiya qancha ko‘p bo‘lsa, ta’lim shuncha samarali bo‘ladi” degan qarashdan ko‘ra, texnologiyaning pedagogik maqsadga muvofiqligi muhimroq hisoblanadi. Shu jihatdan mavjud tadqiqotlarni tahlil qilish boshlang‘ich ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning vaqtni boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish vositasi sifatidagi imkoniyatlari alohida metodik tizim sifatida yetarlicha yoritilmaganini ko‘rsatadi. Mazkur ilmiy bo‘shliq raqamli texnologiyalarni vaqtni boshqarish kompetensiyasining tarkibiy qismlari bilan bog‘liq holda o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini raqamli pedagogika, kompetensiyaviy, faoliyatga yo‘naltirilgan va individuallashtirilgan ta’lim yondashuvlari tashkil etdi hamda miqdoriy va sifat tahlilini uyg‘unlashtirgan aralash usulga asoslandi. Har bir dars boshida o‘quvchilar kun uchun 2-3 ta ustuvor vazifani belgilab, ularni bajarish uchun taxminiy vaqtni interaktiv jadvalga kiritishgan, dars oxirida esa reja bilan haqiqiy bajarilishni solishtirib, o‘z-o‘zini baholash amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotda vaqtni boshqarish kompetensiyasi o‘quvchining o‘z ta’lim faoliyati uchun mavjud vaqt resurslaridan maqsadli foydalanishi va uni mustaqil tartibga sola olish qobiliyati sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot metodologiyasida vaqtni boshqarish kompetensiyasining quyidagi ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratildi:

- topshiriq uchun zarur vaqtni taxmin qila olish;
- faoliyatni bajarish ketma-ketligini belgilash;
- vaqt cheklovini hisobga olish;
- topshiriqlarni bajarish sur’atini boshqarish;
- chalg‘ituvchi omillarni aniqlash;
- belgilangan muddatga rioya qilish;
- bajarilgan ish va sarflangan vaqtni taqqoslash.

Tadqiqotda raqamli texnologiyalarning uchta funksional yo‘nalishi ajratildi:

1. **Vaqtni vizuallashtirish.** Interaktiv taymer, progress-indikator, vaqt shkalasi kabi vositalar orqali o‘quvchiga vaqtning o‘tishi ko‘rsatiladi.
2. **Vaqtni tashkil etish.** Elektron reja, raqamli jadval va topshiriqlar ro‘yxati yordamida o‘quv faoliyatining ketma-ketligi belgilanadi.
3. **Vaqtni tahlil qilish.** Raqamli platformalardagi topshiriqlar tarixi, bajarilish vaqti va natijalarni taqqoslash orqali o‘quvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Raqamli va interaktiv texnologiyalardan foydalanishda ularning har birini muayyan vaqtni boshqarish vazifasiga moslashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Masalan, interaktiv taymer o‘quvchiga vaqtning vizual chegarasini ko‘rsatish orqali topshiriqni bajarish jarayonini boshqarishga yordam beradi. Bunda taymerdan foydalanishning asosiy maqsadi o‘quvchini tez ishlashga majburlash emas, balki unda vaqt chegarasini his qilish va faoliyat sur’atini moslashtirish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat. Elektron topshiriqlar ro‘yxati esa o‘quvchiga bir nechta vazifalarni ketma-ket joylashtirish imkonini beradi. Masalan, o‘quvchi “matematika topshirig‘i”, “kitob

o‘qish”, “yozma mashq” va “dam olish” faoliyatlarini elektron ro‘yxatga kiritib, ularning bajarilish tartibini belgilaydi. Bu jarayonda o‘quvchi vazifalarni tartibga solish va vaqtini taqsimlashni amaliy ravishda o‘rganadi. Uy vazifasini bajarish jarayoni o‘quvchilarning uy vazifasini bajarishda nima qilishlariga, ya’ni ular o‘z ishlariga qanday yondashishlariga va uy vazifasini bajarish paytida shaxsiy resurslari va sharoitlarini qanday boshqarishlariga qaratilgan. O‘quvchilarning uy vazifasiga yondashuvlari nafaqat uy vazifasining yakuniy natijasiga, balki bu jarayonning sifatiga ham ta’sir qilishi mumkin. Chuqur yondashuvni qo‘llaydigan o‘quvchilar uy vazifasini darsda o‘rganilgan bilimlarni chuqurroq tushunish niyatida bajarishlari mumkin. Bu jarayonda o‘quvchilar ko‘pincha uy vazifalarini oldingi bilimlar bilan bog‘laydilar va o‘rganilgan tarkibni o‘zlashtirishlarini kuzatadilar. Bu jarayon g‘oyalarni tushunishga bo‘lgan ichki niyatni va ma’no yaratish uchun strategiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi [5].

Raqamli ta’lim muhitining yana bir muhim imkoniyati - individual ta’lim sur’atidir. Bir xil topshiriqni barcha o‘quvchilar bir xil vaqtda bajarishi shart bo‘lmagan sharoitda o‘quvchi o‘z imkoniyatini anglay boshlaydi. Masalan, bir o‘quvchi matnni 8 daqiqada, boshqasi 12 daqiqada o‘qishi mumkin. Muhimi, o‘quvchi o‘ziga zarur vaqtni to‘g‘ri baholash va keyingi faoliyatini shunga mos tashkil etishni o‘rganadi. Raqamli vositalardan foydalanish jarayonida “vaqtni baholash” topshiriqlarini ham qo‘llash mumkin. Masalan, o‘quvchidan “Bu topshiriqni bajarish uchun qancha vaqt kerak deb o‘ylaysan?” deb so‘raladi. O‘quvchi dastlabki taxminini bildiradi, topshiriqni bajaradi va yakunda taxminiy hamda real vaqtni taqqoslaydi. Bu usul o‘quvchida vaqtni real baholash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli vositalar yordamida “vaqt xaritasi” yaratish mumkin. Unda o‘quvchining bir kun davomida o‘quv, dam olish, uy vazifasi, kitob o‘qish va boshqa faoliyatlarga sarflagan vaqti tasviriy shaklda aks ettiriladi. O‘quvchi ushbu xarita asosida vaqtining qaysi qismi samarali, qaysi qismi esa maqsadsiz sarflanganini aniqlaydi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llashning yana bir samarali yo‘nalishi sifatida mikro-topshiriqlardan foydalanish imkoniyati belgilandi. Katta hajmdagi topshiriqni bir necha kichik bosqichlarga ajratish orqali o‘quvchi har bir bosqich uchun vaqt chegarasini belgilaydi. Bu usul ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida uzoq davom etadigan faoliyatni boshqarish uchun qulay hisoblanadi. Vaqtni boshqarish o‘quvchilarning ijodkorlik o‘lchovlari bilan muhim bog‘liqlikka ega. Vaqtni boshqarish va o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish o‘lchovlari o‘rtasida mazmunli bog‘liqlik mavjud [2].

Raqamli texnologiyalardan foydalanishda eng muhim jihat - o‘quvchini texnologiyaga bog‘lab qo‘yish emas, balki texnologiya yordamida o‘z faoliyatini mustaqil boshqarishga o‘rgatishdir. Shu nuqtayi nazardan, o‘qituvchi raqamli vositani tanlashda uchta savolga javob berishi maqsadga muvofiq:

1. Ushbu vosita o‘quvchiga vaqtni anglashga yordam beradimi?
2. U o‘quvchiga vaqtni tashkil etish imkonini beradimi?
3. O‘quvchi undan foydalanib o‘z vaqtini mustaqil tahlil qila oladimi?

Agar raqamli vosita ushbu uch vazifadan hech bo‘lmaganda bittasini aniq pedagogik maqsadda amalga oshirsa, uni vaqtni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirish jarayoniga kiritish mumkin. Biroq raqamli ta’lim muhitida vaqtni boshqarish kompetensiyasini shakllantirishning muhim sharti - o‘quvchining raqamli intizomini rivojlantirishdir. O‘quvchi qurilmadan foydalanish vaqtini ham nazorat qila olishi, asosiy va ikkilamchi raqamli faoliyatni farqlashi hamda ta’limiy topshiriqdan tashqari chalg‘ituvchi kontentga vaqt sarflamasligi kerak.

Demak, raqamli texnologiyalar vaqtni boshqarish kompetensiyasini shakllantirishda faqat texnik vosita emas, balki o‘quvchining vaqtga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiruvchi pedagogik muhit vazifasini bajarishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida raqamli va interaktiv texnologiyalardan maqsadli foydalanish o‘quvchilarning vaqtni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun yangi pedagogik imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatdi. Raqamli vositalar orqali vaqtni vizuallashtirish, faoliyatni tashkil etish, bajarilish jarayonini kuzatish va natijalarni tahlil qilish imkoniyati kengayadi. Raqamli texnologiyalarning samaradorligi ularning ko‘pligi bilan emas, balki muayyan pedagogik vazifaga mosligi bilan belgilanadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda interaktiv taymer, elektron reja, raqamli kundalik, progress-indikator va boshqa vositalardan foydalanishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, individual imkoniyatlari va ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olish zarur.

Vaqtni boshqarish kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning vizuallashtirish, tashkil etish va tahlil qilish funksiyalaridan foydalanish samarali metodik yo‘nalish sifatida belgilandi. Shuningdek, raqamli vositalardan foydalanish o‘quvchining vaqtini avtomatik ravishda boshqarib bermasligi, balki uni vaqtini mustaqil boshqarishga o‘rgatishi muhimligi aniqlandi. Shu sababli texnologiya va pedagogik rahbarlik uyg‘unligi mazkur jarayonning asosiy sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аболенина, Т. И. Тайм-менеджмент в самовоспитании младшего школьника // Молодой ученый. - 2016. - № 7.6 (111.6). - С. 3-5. - URL: https://moluch.ru/archive/111/27745.]
2. Aflaki Fard D. H., Akbari M. R. Relationship between time management and creativity and self-regulation of the students of the sixth elementary school of Saadabad //Quarterly Journal of Education Studies. - 2019. - Т. 5. - №. 18. - С. 69-90.
3. Кавалерчик Татьяна Леонидовна Педагогический тайм-менеджмент: повышение эффективности планирования урока // Народное образование. 2015. №5 (1448). 94
4. Meliyeva D. O'. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil ishlash ko'nikmalarini innovatsion yondashuv asosida takomillashtirish mexanizmi // Inter education & global study. 2025. №2.
5. Valle A. et al. Academic goals, student homework engagement, and academic achievement in elementary school // Frontiers in Psychology. - 2016. - Т. 7. - С. 463.
6. Valle A. et al. Time spent and time management in homework in elementary school students: A person-centered approach //Psicothema. - 2019. - Т. 31. - №. 4. - С. 422.

OLIY O'QUV YURTLARIDA AMALIY MASHG'ULOTLAR – BAKALAVR YO'NALISHIDAGI MATEMATIKLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI TA'MINLOVCHI OMIL

Abduraxmonov Abdumo'min
Qarshi davlat universiteti "Algebra va geometriya" kafedrasi professori, pedagogika fan nomzodi

ORCID: https://orcid.org/0009-0003-5176-0341

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarning bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan bo'lajak matematika mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Amaliy mashg'ulotlarning nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etish, mantiqiy hamda analitik tafakkurni rivojlantirish, matematik masalalar va muammoli vaziyatlarni samarali hal etish ko'nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy topshiriqlardan foydalanish orqali talabalarning mustaqil fikrlashi, kasbiy faoliyatga tayyorgarligi va kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari amaliy mashg'ulotlarni maqsadli va metodik jihatdan samarali tashkil etish matematika ta'limi sifatini oshirish hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishning muhim pedagogik omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: amaliy mashg'ulot, matematika ta'limi, kasbiy kompetensiya, bakalavriat, oliy ta'lim, mantiqiy tafakkur, muammoli vaziyat, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, kasbiy tayyorgarlik.

Abstract: This article analyzes the role and pedagogical potential of practical classes in developing the professional competencies of undergraduate mathematics students in higher education institutions. Particular attention is given to the importance of practical classes in consolidating and applying theoretical knowledge, developing logical and analytical thinking, and fostering skills for effectively solving mathematical problems and problem-based tasks. The article also examines the development of students' independent thinking, professional readiness, and competencies through the use of modern pedagogical technologies, interactive methods, and practice-oriented assignments. The findings indicate that the purposeful and methodologically sound organization of practical classes is an important pedagogical factor in improving the quality of mathematics education and enhancing the professional potential of future specialists.

Key words: practical classes, mathematics education, professional competence, undergraduate education, higher education, logical thinking, problem solving, pedagogical technologies, interactive methods, professional training.

Аннотация: В статье анализируются роль и педагогические возможности практических занятий в формировании профессиональных компетенций будущих специалистов математического профиля, обучающихся на уровне бакалавриата в высших образовательных учреждениях. Раскрывается значение практических занятий в закреплении и применении теоретических знаний, развитии логического и аналитического мышления, формировании навыков эффективного решения математических задач и проблемных ситуаций. Рассматриваются вопросы развития самостоятельного мышления, профессиональной готовности и компетенций студентов посредством применения современных педагогических технологий, интерактивных методов и практико-ориентированных заданий. Результаты исследования показывают, что целенаправленная и методически обоснованная организация практических занятий является одним из значимых педагогических факторов повышения качества математического образования и развития профессионального потенциала будущих специалистов.

Ключевые слова: практические занятия, математическое образование, профессиональная компетентность, бакалавриат, высшее образование, логическое мышление, проблемная ситуация, педагогические технологии, интерактивные методы, профессиональная подготовка.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning kasbiy kompetensiyalarini zamonaviy mehnat bozori talablari asosida shakllantirish hamda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalashni taqozo etmoqda [1]. Ayniqsa, matematika yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavriat talabalarining nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish, ularda kasbiy vazifalarni mustaqil va samarali hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish oliy ta'lim oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Matematika nafaqat fundamental fan, balki texnika, iqtisodiyot, muhandislik, axborot texnologiyalari va boshqa ko'plab sohalarning metodologik asosini tashkil etadi [12]. Shu sababli bo'lajak matematika mutaxassislari chuqur nazariy bilimlar bilan bir qatorda, matematik bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, turli murakkablikdagi masalalarni yechish, matematik modellashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, natijalarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish kompetensiyalariga ega bo'lishlari zarur. Pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan talabalar uchun esa matematik bilimlarni o'qitish jarayoniga samarali tatbiq etish va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlar nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni amaliyotga tatbiq etishning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar davomida talabalar matematik tushuncha, qonuniyat va usullardan aniq masalalarni yechishda foydalanish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, yechimning maqbul usullarini tanlash hamda olingan natijalarni asoslash tajribasini egallaydilar. Shu jihatdan, amaliy mashg'ulotlarning mazmuni va metodikasini zamonaviy ta'lim talablari asosida takomillashtirish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga bevosita xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi oliy ta'lim muassasalarida matematika yo'nalishi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish samaradorligini oshirish, nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish hamda bakalavriat talabalarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi [3].

Tadqiqotning maqsadi – oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlarning matematika yo'nalishida tahsil olayotgan bakalavriat talabalarining kasbiy tayyorgarligi va kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslash hamda amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti – oliy ta'lim muassasalarida matematika bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar jarayoni.

Tadqiqot predmeti – matematika bakalavriat yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligi va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlarning mazmuni, metodlari, tashkiliy shakllari hamda pedagogik imkoniyatlari.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasi pedagogika va ta'lim metodikasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, matematika ta'limida amaliy mashg'ulotlarning o'rni, ularning mazmuni, tashkiliy shakllari va samaradorligini oshirish masalalari mahalliy hamda xorijiy olimlarning tadqiqotlarida keng o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, talabalarning matematik tafakkurini rivojlantirish va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Pedagogika nazariyasida shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va faoliyatga asoslangan yondashuvlar bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etishning muhim metodologik asoslari sifatida qaraladi. Ushbu yondashuvlarga ko'ra, talaba ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki ularni turli amaliy va kasbiy vaziyatlarda qo'llash, mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni tahlil qilish va samarali hal etish, o'z faoliyati natijalarini baholash hamda egallagan bilim va ko'nikmalaridan kasbiy faoliyatda maqsadli foydalanish kompetensiyalarini ham rivojlantirishi lozim [11].

Matematika ta'limi metodikasiga oid tadqiqotlarda amaliy mashg'ulotlar nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliyotga tatbiq etish, matematik hamda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish, masalalarni yechishning turli usullarini o'zlashtirish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Amaliy mashg'ulotlarning mazmuni talabalarga matematik tushuncha va qonuniyatlarni chuqurroq anglash, nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini tushunish hamda ularni nostandart va muammoli vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida matematik masalalarni yechish, matematik modellashtirish, muammoli topshiriqlar, loyiha va keyslar bilan ishlash, mustaqil hamda guruhli faoliyatni tashkil etish, shuningdek,

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarning kasbiy va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday faoliyat talabalarning tayyor algoritmlarni takrorlashidan ko'ra, masalaning mohiyatini anglash, yechim strategiyasini mustaqil tanlash, matematik dalillarni asoslash va olingan natijalarni tahlil qilishga yo'naltirilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ham matematika ta'limi jarayonida faol o'qitish metodlari, muammoli ta'lim, tadqiqotga asoslangan o'qitish (Inquiry-Based Learning), loyiha asosida o'qitish (Project-Based Learning) hamda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan [9]. Mazkur yondashuvlarda talabaning tayyor bilimlarni o'zlashtiruvchi obyekt sifatidagi roli kamayib, uning mustaqil izlanish olib borishi, muammoni aniqlashi, matematik farazlarni ilgari surishi, ularni tekshirishi va natijalarni ilmiy asosda izohlashi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bunday metodlar talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashi, matematik savodxonligi, kommunikativ ko'nikmalari, mustaqil ta'lim olish qobiliyati hamda kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qilishi ilmiy tadqiqotlarda asoslangan.

Zamonaviy matematika ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish ham amaliy mashg'ulotlarning didaktik imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Matematik dasturiy vositalar, virtual ta'lim muhiti, interaktiv platformalar va kompyuter yordamida modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish murakkab matematik jarayonlarni vizuallashtirish, hisoblashlarni optimallashtirish, turli matematik modellarni sinovdan o'tkazish hamda talabalarning mustaqil izlanish faoliyatini tashkil etish imkonini beradi. Natijada amaliy mashg'ulotlarning an'anaviy reproduktiv xususiyatidan faol, muammoli va tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim shakliga o'tish imkoniyati kengayadi.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarda ham ta'lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, nazariya va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga ustuvor ahamiyat berilgan. Shu nuqtai nazardan, matematika bakalavriat yo'nalishida amaliy mashg'ulotlarni zamonaviy metodik yondashuvlar asosida tashkil etish ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi [2].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlarning tahlili matematika bakalavriat yo'nalishida amaliy mashg'ulotlarning kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyatlarini kompleks va tizimli baholash, ularning mazmunini zamonaviy kasbiy faoliyat talablari bilan uyg'unlashtirish, raqamli va innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliy mashg'ulotlarga integratsiya qilish masalalarini yanada chuqurroq tadqiq etish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, amaliy mashg'ulot mazmuni, metodlari, topshiriqlar tizimi va baholash mezonlarini talabalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar bilan o'zaro muvofiqlashtirish ilmiy-metodik jihatdan muhimdir.

Demak, mavjud nazariy va metodik yondashuvlarni umumlashtirish matematika ta'limida amaliy mashg'ulotlarni oddiy nazariy bilimlarni mustahkamlash shakli sifatida emas, balki talabaning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, matematik tafakkuri, mustaqil muammo yechish qobiliyati va kasbiy kompetensiyalarini integrativ rivojlantiruvchi ta'lim muhiti sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur holat matematika bakalavriat yo'nalishida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishning samarali metodik modelini takomillashtirish zaruratini belgilab, ushbu tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyatini asoslaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarida matematika bakalavriat yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini ta'minlashda amaliy mashg'ulotlarning o'rni va samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hamda tizimli yondashuv tamoyillari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar asosida amaliy mashg'ulotlarning mazmuni, shakllari va metodlari talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish nuqtai nazaridan tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan kompleks foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlar va davlat ta'lim standartlarini o'rganish, ilmiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, umumlashtirish hamda tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali amaliy mashg'ulotlarning kasbiy tayyorgarlikni shakllantirishdagi nazariy asoslari aniqlandi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatish, so'rovnoma, suhbat, test sinovlari va amaliy mashg'ulotlar natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi. Talabalarning amaliy mashg'ulotlardagi faolligi, matematik bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalari, mustaqil ishlash qobiliyati hamda kasbiy kompetensiyalarining rivojlanish darajasi kuzatildi va baholandi. Olingan natijalar o'zaro taqqoslanib, amaliy mashg'ulotlarning ta'lim sifati va kasbiy tayyorgarlikka ta'siri aniqlandi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilindi. Jumladan, foiz ko'rsatkichlari, o'rtacha qiymatlar va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi [6]. Zaruratga ko'ra, matematik-statistik metodlar yordamida tajriba natijalari qayta ishlanib, ularning ilmiy asoslanganligi va ishonchliligi tekshirildi.

Mazkur metodologiya amaliy mashg'ulotlarning matematika bakalavriat yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligiga ta'sirini har tomonlama baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan amaliy mashg'ulotlar matematika bakalavriat yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda muhim pedagogik omillardan biri hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, ularni amaliy masalalarni yechishda qo'llash, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, amaliy mashg'ulotlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, muammoli va interfaol ta'lim metodlarini qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuv talabalarni nafaqat matematik bilimlarni puxta egallashga, balki ularni kelgusidagi kasbiy faoliyatda samarali qo'llashga ham tayyorlaydi.

Shuningdek, amaliy mashg'ulotlar mazmunini real kasbiy vaziyatlar, matematik modellashtirish, tadqiqot topshiriqlari va mustaqil ijodiy faoliyat elementlari bilan boyitish bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa oliy ta'limda matematika yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlarni ilmiy-metodik jihatdan takomillashtirish, ularning mazmuni va tashkil etish mexanizmlarini zamonaviy ta'lim talablari asosida yangilash matematika bakalavriat yo'nalishi talabalarining kasbiy tayyorgarligini oshirish, raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy izlanishlar hamda ishlab chiqiladigan amaliy tavsiyalar oliy ta'lim tizimida matematika fanlarini o'qitish sifatini yanada oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim davlat ta'lim standartlariga oid amaldagi qarorlari.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
4. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2017.
5. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
6. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019.
7. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
8. Polya G. How to Solve It. Princeton University Press, 2004.
9. Schoenfeld A.H. Mathematical Problem Solving. Academic Press, 1985.
10. Niss M., Højgaard T. Competencies and Mathematical Learning. Roskilde University Press, 2019.
11. Abduqodirov A.A. Ta'limni axborotlashtirish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2018.
12. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
13. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.

BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA CDIO TEXNOLOGIYASI VA SANOAT INTEGRATSIYASINING SAMARADORLIGI

Baxronov Rustam Rajabovich
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil izlanuvchisi
ORCID ID: 0009-0002-6283-8477

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda CDIO (Conceive - Design - Implement - Operate) texnologiyasi va sanoat korxonalari bilan integratsiyaning samaradorligi masalasi ko'rib chiqiladi. Kasbiy tayyorgarlik motivatsion-qadriyat, kognitiv, faoliyat-amaliy va refleksiv-baholovchi komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida tahlil qilinadi hamda ularning har biri CDIO texnologiyasining muayyan bosqichlari va sanoat integratsiyasi mexanizmlari bilan bog'liq holda o'rganiladi. Maqolada kasbiy tayyorgarlik darajasini (yuqori, o'rta, past) belgilovchi mezon va ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular pedagogik amaliyotda diagnostika vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, CDIO texnologiyasi, sanoat integratsiyasi, muhandislik ta'limi, samaradorlik mezonlari, kompetensiyaviy yondashuv, bo'lajak muhandis.

Abstract: This article examines the effectiveness of CDIO (Conceive - Design - Implement - Operate) technology and industrial integration in developing the professional readiness of future engineers. Professional readiness is analyzed as an integral system comprising motivational-value, cognitive, activity-practical, and reflective-evaluative components, each linked to specific stages of CDIO technology and mechanisms of industrial integration. The article develops criteria and level indicators (high, medium, low) of professional readiness that can serve as a diagnostic tool in pedagogical practice.

Key words: professional readiness, CDIO technology, industrial integration, engineering education, effectiveness criteria, competency-based approach, future engineer.

Аннотация: В статье рассматривается эффективность технологии CDIO (Conceive - Design - Implement - Operate) и интеграции с промышленными предприятиями в развитии профессиональной подготовленности будущих инженеров. Профессиональная подготовленность анализируется как целостная система, включающая мотивационно-ценностный, когнитивный, деятельностно-практический и рефлексивно-оценочный компоненты, каждый из которых рассматривается во взаимосвязи с определёнными этапами технологии CDIO и механизмами промышленной интеграции. В статье разработаны критерии и показатели уровней (высокий, средний, низкий) профессиональной подготовленности, которые могут применяться в педагогической практике в качестве диагностического инструмента.

Ключевые слова: профессиональная подготовленность, технология CDIO, промышленная интеграция, инженерное образование, критерии эффективности, компетентностный подход, будущий инженер.

KIRISH

Muhandislik kadrlarini tayyorlash sifatini oshirish masalasi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari nafaqat chuqur nazariy bilimga, balki texnologik jarayonlarni mustaqil boshqarish, jamoada ishlash va muammolarni tezkor yechish qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislarni talab qilmoqda. Shu boisdan "kasbiy tayyorgarlik" tushunchasi sof bilim darajasi bilan emas, balki bilim, ko'nikma, motivatsiya va shaxsiy sifatlarning uyg'un majmuasi sifatida talqin etilishi lozim.

Jahon amaliyotida muhandislik ta'limini takomillashtirishning samarali vositalaridan biri sifatida CDIO texnologiyasi tan olingan bo'lib, u ta'lim jarayonini muhandislik faoliyatining to'liq siklini, g'oyadan tortib mahsulotdan foydalanishgacha, aks ettiruvchi loyihaviy faoliyat asosida quradi [2]. Biroq CDIO texnologiyasining samaradorligi, bizningcha, uni sanoat korxonalari bilan integratsiyalashgan holda qo'llanilganda to'liq namoyon bo'ladi, chunki aynan sanoat muhiti talabaga real texnik-iqtisodiy sharoitlarda faoliyat yuritish tajribasini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy tayyorgarlik muammosi pedagogika fanida keng o‘rganilgan bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilar uni ko‘p komponentli tuzilma sifatida talqin qiladi. B. Tuqanberdiyevnaning tadqiqotida bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zamonaviy didaktik vositalar, jumladan, raqamli texnologiyalar, simulyatsiya muhitlari va loyiha asosidagi ta’lim metodlarining kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi o‘rni tahlil qilingan [5]. Ushbu tadqiqot didaktik vositalar darajasida qolib, ularning sanoat korxonalari bilan tizimli integratsiya kontekstida qo‘llanilishi masalasini alohida yoritmaydi.

E. Krouli va hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan CDIO konsepsiyasi muhandislik ta’limini to‘rtta bosqich - g‘oyalashtirish, loyihalash, amalga oshirish va foydalanish - asosida qurishni taklif etadi hamda bu yondashuvning talabalar kompetensiyasiga ijobiy ta’sirini xalqaro tajriba misolida asoslaydi [2]. Worldwide CDIO Initiative tomonidan ishlab chiqilgan CDIO Standards 3.0 hujjatida ta’lim natijalarini baholash mezonlariga alohida talablar qo‘yiladi, biroq bu mezonlar umumiy xarakterga ega bo‘lib, milliy va tarmoq xususiyatlarini to‘liq hisobga olmaydi [6].

G.A. Qodirovaning tadqiqotida CDIO texnologiyasi asosida bo‘lajak muhandislarga ta’lim berishning pedagogik shart-sharoitlari tajriba-sinov yo‘li bilan o‘rganilgan va uning ta’lim motivatsiyasiga ijobiy ta’siri statistik jihatdan asoslangan [4]. Bu tadqiqot CDIO texnologiyasining alohida - chet tili o‘qitish - yo‘nalishidagi samaradorligini ko‘rsatgan bo‘lsada, uni sanoat integratsiyasi bilan bog‘liq holda kasbiy tayyorgarlikning barcha komponentlari kesimida o‘rganish alohida ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

B. Xodjayev va hammualliflarining metodologik qo‘llanmasida pedagogik hodisalarning samaradorligini baholash uchun mezon va ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish tamoyillari yoritilgan bo‘lib, bu tadqiqotning uslubiy asosini shakllantirishda foydalanildi [7]. Yuqoridagi tahlil kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishda CDIO va sanoat integratsiyasining birgalikdagi samaradorligini yaxlit tizim sifatida baholovchi ilmiy asoslangan mezonlar hozircha yetarli ishlab chiqilmaganligini ko‘rsatadi, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llanildi: nazariy tahlil metodi - kasbiy tayyorgarlik va CDIO texnologiyasiga oid ilmiy adabiyotlarni o‘rganish; struktura-komponentli tahlil metodi - kasbiy tayyorgarlikning tarkibiy qismlarini ajratish va ularning CDIO bosqichlari bilan bog‘liqligini aniqlash; mezon asosida modellashtirish metodi - kasbiy tayyorgarlik darajalarini belgilovchi ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish; ekspert baholash metodi - texnika yo‘nalishi kafedralari professor-o‘qituvchilari bilan olib borilgan konsultatsiyalar asosida mezonlarning amaliy asoslanganligini tekshirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida kasbiy tayyorgarlikning to‘rtta komponenti CDIO texnologiyasi bosqichlari va sanoat integratsiyasi mexanizmlari bilan bog‘langan holda tizimlashtirildi (1-jadval). Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, CDIO texnologiyasining har bir bosqichi kasbiy tayyorgarlikning muayyan komponentini rivojlantirishga xizmat qiladi, sanoat integratsiyasi esa bu jarayonni real ishlab chiqarish sharoitiga yaqinlashtirish orqali kuchaytiradi.

1-jadval: **Kasbiy tayyorgarlik komponentlari va ularni rivojlantirish mexanizmlari**

Kasbiy tayyorgarlik komponenti	Mazmuni	CDIO + sanoat integratsiyasi mexanizmi
Motivatsion-qadriyat	Kasbga qiziqish, mehnat madaniyatiga munosabat, muhandislik faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini anglash	Talabalarning korxona muhitida real muammo ustida ishlashi, kasbiy identifikatsiyani shakllantirishi
Kognitiv (bilim)	Fundamental va ixtisoslik fanlari bo‘yicha bilimlar tizimi	Nazariy bilimlarni Conceive va Design bosqichlarida amaliy loyiha kontekstida qo‘llash
Faoliyat-amaliy	Texnik topshiriqni bajarish, uskunalar bilan ishlash, muammoni yechish ko‘nikmalari	Implement va Operate bosqichlarida korxona uskunalari, texnologik jarayonlarida bevosita ishtirok
Refleksiv-baholovchi	O‘z faoliyatini tahlil qilish, natijani baholash, xatolar ustida ishlash qobiliyati	Korxona ekspertlari ishtirokidagi qo‘shma baholash va loyiha himoyasi jarayoni

Kasbiy tayyorgarlikning rivojlanish darajasini obyektiv baholash maqsadida yuqori, o‘rta va past darajalarni belgilovchi ko‘rsatkichlar ishlab chiqildi (2-jadval). Ushbu mezonlar kognitiv-amaliy va motivatsion-refleksiv yo‘nalishlar bo‘yicha alohida tavsiflangan bo‘lib, ular pedagogik diagnostika, xususan, kirish va yakuniy nazorat jarayonlarida qo‘llanilishi mumkin.

2-jadval: **Kasbiy tayyorgarlik darajalarini baholash mezonlari**

Daraja	Kognitiv va faoliyat-amaliy ko'rsatkichlar	Motivatsion va refleksiv ko'rsatkichlar
Yuqori	Loyihani mustaqil ishlab chiqadi, korxona texnologik jarayoniga moslay oladi, uskunalardan erkin foydalanadi	Kasbga barqaror qiziqish, o'z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish va takomillashtirish qobiliyati yuqori
O'rta	Yordam bilan loyiha vazifasini bajaradi, asosiy texnik operatsiyalarni egallagan	Kasbga qiziqish beqaror, o'zini baholashda tashqi yordamga muhtoj
Past	Nazariy bilimni amaliyotga tatbiq etishda qiynaladi, uskunalar bilan ishlash ko'nikmasi shakllanmagan	Kasbiy motivatsiya sust, o'z faoliyati natijasini mustaqil baholay olmaydi

Ishlab chiqilgan model shuni ko'rsatadiki, CDIO texnologiyasi va sanoat integratsiyasining samaradorligi alohida-alohida qo'llanilganda emas, balki ularning o'zaro to'ldiruvchi tarzda birlashtirilganda maksimal darajada namoyon bo'ladi: CDIO talabaga loyihaviy faoliyatning mantiqiy tizimini beradi, sanoat integratsiyasi esa bu tizimga real texnik-iqtisodiy mazmun va motivatsion kuch bag'ishlaydi.

Taklif etilgan mezonlar tizimi mavjud tadqiqotlar [4; 5] bilan solishtirilganda, kasbiy tayyorgarlikni faqat bilim yoki ko'nikma darajasi bilan emas, balki to'rtta komponentning uyg'unligi orqali baholash zarurligini alohida ta'kidlaydi. Bu, ayniqsa, motivatsion-qadriyat va refleksiv-baholovchi komponentlarning ko'pincha e'tibordan chetda qolishi bilan bog'liq holda dolzarb ahamiyat kasb etadi, zero aynan shu komponentlar bitiruvchining mehnat bozorida uzoq muddatli moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, taklif etilgan mezonlar tizimini amaliyotga to'liq joriy etish uchun bir qator shart-sharoitlar zarur: o'qituvchilarning baholash metodikasi bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tishi, korxona ekspertlarining baholash jarayoniga muntazam jalb etilishi, hamda o'quv-uslubiy hujjatlarda mezonlarga mos baholash shkalalarining rasmiylashtirilishi. Bu masalalar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida [3] belgilangan ta'lim sifatini ta'minlash tamoyillari bilan uyg'un holda hal etilishi maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotning cheklovi shundan iboratki, ishlab chiqilgan mezonlar tizimi hozircha nazariy modellashtirish darajasida bo'lib, uning ishonchliligi keng ko'lamli pedagogik tajriba-sinov ishlari, statistik tahlil (masalan, Styudent t-mezoni yoki xi-kvadrat mezoni) yordamida empirik tekshiruvdan o'tkazilishini talab qiladi. Bu kelgusi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, bo'lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligi motivatsion-qadriyat, kognitiv, faoliyat-amaliy va refleksiv-baholovchi komponentlarning yaxlit birligi sifatida qaralishi lozim. Ikkinchidan, CDIO texnologiyasi va sanoat integratsiyasi bu komponentlarning har biriga o'ziga xos mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi hamda ularning birgalikdagi qo'llanilishi alohida-alohida qo'llanilishiga nisbatan yuqori pedagogik samara berishi mumkin. Uchinchidan, maqolada ishlab chiqilgan uch darajali (yuqori, o'rta, past) baholash mezonlari kasbiy tayyorgarlik sifatini diagnostika qilishning amaliy vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kelgusi tadqiqotlarda ishlab chiqilgan mezonlar tizimini muayyan texnika yo'nalishi talabalari misolida tajriba-sinovdan o'tkazish, natijalarni statistik tahlil qilish hamda CDIO-sanoat integratsiyasi modelini turli mutaxassisliklar uchun moslashtirish istiqbolli yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
2. Crawley E. F., Malmqvist J., Östlund S., Brodeur D. R. Rethinking Engineering Education: The CDIO Approach. – 2nd ed. – Cham: Springer, 2014. – 311 p.
3. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ–637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
4. Qodirova G. A. Bo'lajak muhandislarga ingliz tili o'qitishda ta'lim motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari (CDIO texnologiyasi asosida): pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O'zDJTU, 2024. – 54 b.
5. Tuqanberdiyevna B. S. Bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning zamonaviy didaktik vositalari // Journal of Innovation in Education and Social Research. – 2026. – Vol. 4, № 4.
6. Worldwide CDIO Initiative. CDIO Standards 3.0. – 2020. – CDIO rasmiy sayti (murojaat sanasi: 01.08.2026).
7. Xodjayev B., Choriyev A., Saliyeva Z. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. – Toshkent, 2016. – 220 b.

O‘SMIR O‘QUVCHILARDA IJODIY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK ASOSLARINI O‘RGANISH TARIXI

Botirov Zoir Nuriddin o‘g‘li
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
ORCID: 0009-0006-8632-3338

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlik davrida ijodkorlik qobiliyatining namoyon bo‘lishi va uning individual-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. O‘smir shaxsida ijodkorlikni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik mexanizmlari, kognitiv jarayonlar, intellektual taraqqiyot, iste’dod hamda motivatsiyaning ijodiy faoliyat bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, o‘smirlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan strategiyalar, ijodkorlikning ijtimoiy-psixologik omillari hamda uni qo‘llab-quvvatlovchi ta’limiy va ijtimoiy muhitning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Ijodkorlikni rivojlantirishda o‘smirlarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning mustaqil hamda nostandart fikrlashini rag‘batlantirish zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: ijodkorlik, o‘smirlik davri, ijodiy qobiliyat, intellektual taraqqiyot, neyropsixologik baholash, kognitiv jarayonlar, iste’dod, motivatsiya, ijodiy tafakkur, ijtimoiy-psixologik omillar.

Abstract: This article analyzes the manifestation of creative abilities during adolescence and their individual psychological characteristics. It examines the psychological mechanisms underlying the formation and development of creativity in adolescents, as well as the relationship between cognitive processes, intellectual development, giftedness, motivation, and creative activity. Particular attention is given to strategies for developing adolescents’ creative potential, the socio-psychological factors associated with creativity, and the role of educational and social environments in fostering its development. The article substantiates the importance of considering adolescents’ individual characteristics and encouraging independent and divergent thinking in the development of their creative abilities.

Key words: creativity, adolescence, creative abilities, intellectual development, neuropsychological assessment, cognitive processes, giftedness, motivation, creative thinking, socio-psychological factors.

Аннотация: В статье анализируются особенности проявления творческих способностей в подростковом возрасте и их индивидуально-психологические характеристики. Рассматриваются психологические механизмы формирования и развития креативности личности подростка, взаимосвязь когнитивных процессов, интеллектуального развития, одарённости и мотивации с творческой деятельностью. Особое внимание уделяется стратегиям развития творческого потенциала подростков, социально-психологическим факторам креативности, а также значению образовательной и социальной среды, способствующей её развитию. Обоснована необходимость учёта индивидуальных особенностей подростков и стимулирования их самостоятельного и нестандартного мышления в процессе развития творческих способностей.

Ключевые слова: креативность, подростковый возраст, творческие способности, интеллектуальное развитие, нейропсихологическая оценка, когнитивные процессы, одарённость, мотивация, творческое мышление, социально-психологические факторы.

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda yoshlarning ijodiy faoliyatini yuksaltirish, kommunikativ va boshqa shaxsiy sifatlarini rivojlantirish mamlakatning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri sifatida belgilanib, bu borada zarur huquqiy-me’yoriy asoslar yaratildi. Xususan, “...yoshlarni jismonan sog‘lom, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, ilmiy va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilish hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga faol jalb qilishdan iborat” vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ko‘nikmalarini takomillashtirish muammo-

sining dolzarblashuvi, bevosita o‘smirlarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishni shaxs barkamolligining muhim omili sifatida ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etishga bo‘lgan talabning ortib borishi mazkur jarayonlarga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shubhasiz, ijod inson uchun yangi imkoniyatlarni ochadi, uning faoliyat doirasini kengaytiradi va istiqbolli g‘oyalarni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Xo‘sh, ijodkorlik nima? E. Landau fikricha, “Ijodkorlik, bir tomondan, eski va tanish narsalarda yangi jihatlarni topishga imkon beradigan, ikkinchi tomondan esa yangi va notanish hodisalar bilan yuzma-yuz kelish hamda mavjud bilimlar asosida yangi tajribani qayta ishlash imkonini beradigan munosabatdir”. Boshqacha qilib aytganda, ijodkorlik – oddiy va tanish narsalarda g‘ayrioddiy jihatlarni ko‘ra olish hamda yangi narsalarni yaratish qobiliyatidir. Shuningdek, u nostandart fikrlash, muammo va vazifalarga yangicha yondashish hamda ularni samarali hal etish qobiliyatini ham ifodalaydi. Ijodkorlik tushunchasi bilan bir qatorda qobiliyat va qiziqish tushunchalari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

A. Guryeka fikricha, qiziqish – bu muayyan intensivlikdagi maqsadli bilish faoliyati shaklini egallaydigan hamda shaxsning uni o‘rab turgan hodisalarga tanlab munosabatda bo‘lishida namoyon bo‘ladigan psixik xususiyatdir.

A. Kaminski qiziqishlarni motivatsiya bilan o‘zaro bog‘liq holda talqin qiladi. Uning fikricha, qiziqishlar insonning ruhiy “ishtiyoqi” ortida turuvchi o‘ziga xos ichki vosita hisoblanadi. Qiziqishlar istak va iroda sohasidagi tashabbuskorlikni rag‘batlantiradi, shuningdek, intellektual taraqqiyotni faollashtiradi.

Ijodkorlik ko‘pincha yangi va original g‘oyalarni yaratish yoki mavjud narsa va hodisalarni yangicha hamda innovatsion nuqtai nazardan ko‘ra olish qobiliyati sifatida ta’riflanadi. U turli kognitiv qobiliyatlarni o‘z ichiga oladigan murakkab psixologik jarayon bo‘lib, divergent fikrlash, muammolarni hal etish, tasavvur qilish va yangi g‘oyalarni ilgari surish kabi jarayonlar bilan uzviy bog‘liqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘smir o‘quvchilarda ijodiy faollikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslarini ilmiy o‘rganish XX asr boshlarida shakllana boshlagan. Ushbu yo‘nalishdagi dastlabki tadqiqotchilardan biri amerikalik psixolog Edvard Torndayk hisoblanadi. Torndayk o‘zining “Intellekt va undan foydalanish” (“Intelligence and Its Uses”) asarida (1920) intellektual qobiliyatlarning shakllanishida irsiy va atrof-muhit omillarining o‘zaro ta’siriga alohida e’tibor qaratgan. Uning ilmiy qarashlarida inson qobiliyatlarining rivojlanishida ta’lim, mashq va tajribaning ahamiyati ta’kidlangan. Mazkur yondashuv o‘smirlarning ijodiy faolligini rivojlantirishda ham ta’lim-tarbiya jarayoni, ijtimoiy muhit va individual xususiyatlarning o‘zaro bog‘liqligini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1930–1940-yillarda bir qator psixologlar ijodkorlikka ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganishga alohida e’tibor qarata boshladilar. Jumladan, amerikalik psixolog Abraham Maslou tomonidan ishlab chiqilgan motivatsiya nazariyasida inson xulq-atvori ehtiyojlar ierarxiyasi bilan bog‘liq holda izohlanib, o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish yuqori darajadagi ehtiyojlardan biri sifatida ko‘rsatildi. Maslou ijodkorlikni shaxsning o‘z imkoniyatlarini namoyon etishi va o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishi bilan bog‘liq holda talqin qilgan. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishini ta’minlashda ularni qo‘llab-quvvatlovchi psixologik va ijtimoiy muhit yaratish muhimligini ko‘rsatadi.

1950–1960-yillarda ta’lim va psixologiya sohalarida ijodkorlikni ilmiy o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada kuchaydi. Xususan, J. Getzels va P. Jekson ijodkorlik hamda intellekt o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratdilar. Ularning tadqiqotlarida ijodkorlik faqat intellektual qobiliyat bilan belgilanmasligi, balki motivatsiya, mustaqil fikrlash, yangilikka intilish va noaniqlikka nisbatan tolerantlik kabi bir qator shaxsiy-psixologik xususiyatlar bilan ham bog‘liq ekanligi ko‘rsatib berildi.

1970–1980-yillarda tadqiqotchilar o‘smir o‘quvchilarning ijodkorligiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarga yanada ko‘proq e’tibor qarata boshladilar. Keyingi davrlarda amerikalik psixolog Robert Sternberg ijodkorlikni tushuntirishga qaratilgan konseptual yondashuvlarni rivojlantirib, ijodiy faoliyatning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy-muhit omillari bilan bog‘liqligini asoslashga harakat qildi. Uning yondashuvida ijodkorlik shaxsning muayyan g‘oya va faoliyat yo‘nalishlariga intellektual hamda shaxsiy resurslarini safarbar etishi bilan bog‘liq jarayon sifatida qaraladi. Shuningdek, ijodiy salohiyatning namoyon bo‘lishida ijtimoiy muhitning ta’siri muhim ekanligi, o‘quvchilar ijodkorligini rivojlantirish uchun qo‘llab-quvvatlovchi va rag‘batlantiruvchi muhit yaratish zarurligi ta’kidlanadi.

1990–2000-yillarda o‘smir o‘quvchilar ijodiy faoliyatining ijtimoiy-psixologik asoslarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar ko‘lami yanada kengaydi. Tadqiqotchilar o‘quvchilarning ijodiy rivojlanishida tengdoshlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va boshqa ahamiyatli kattalarning o‘rni, shuningdek, ularning o‘zaro munosabatlari

ta'sirini o'rgandilar. Shu bilan birga, ta'lim muassasasidagi ijtimoiy-psixologik muhit, pedagogik munosabatlar, ta'lim jarayonining tashkil etilishi va ijodiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash darajasining o'quvchilar ijodkorligiga ta'siri tadqiqotlarning muhim yo'nalishiga aylandi.

Rossiya va sobiq sovet psixologiya maktabida ham ijodkorlik muammosini o'rganish uzoq tarixga ega. Ushbu yo'nalishning nazariy asoslarini shakllantirishda L. S. Vigotskiy, A. R. Luriya va S. L. Rubinshteynning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi. L. S. Vigotskiy insonning oliy psixik funksiyalari rivojlanishini ijtimoiy-madaniy muhit va shaxslararo o'zaro ta'sir bilan uzviy bog'liq holda tushuntirgan. Uning qarashlariga ko'ra, bolaning ijodiy rivojlanishi ham ijtimoiy tajribani o'zlashtirish, kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlik qilish, tasavvur hamda mavjud tajribani yangicha kombinatsiyalash jarayonlari bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan, o'smirlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda pedagogik yo'l-yo'riq, ijtimoiy hamkorlik va rivojlantiruvchi muhit muhim o'rin tutadi.

A. R. Luriya L. S. Vigotskiy bilan hamkorlikda oliy psixik funksiyalarning shakllanishi va ularning miya faoliyati bilan bog'liqligini o'rgangan olimlardan biridir. Uning neyropsixologik tadqiqotlari insonning murakkab kognitiv faoliyati, jumladan, rejalashtirish, nazorat qilish, nutq, xotira va tafakkurning funksional mexanizmlarini tushuntirishga muhim hissa qo'shgan. Ushbu ilmiy qarashlar ijodiy faoliyatning kognitiv va neyropsixologik asoslarini o'rganishda ham muhim nazariy-metodologik ahamiyatga ega.

S. L. Rubinshteyn esa shaxs, faoliyat, tafakkur va motivatsiya muammolarini o'zaro bog'liqlikda tadqiq qilgan. Uning faoliyat tamoyiliga asoslangan qarashlarida shaxs tashqi ta'sirlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faoliyat jarayonida o'zini namoyon etuvchi va rivojlantiruvchi faol subyekt sifatida talqin qilinadi. Mazkur nazariy yondashuv ijodkorlikni ham shaxsning faolligi, mustaqil fikrlashi, motivatsiyasi va faoliyat jarayonida yangi yechimlarni izlash qobiliyati bilan bog'liq holda tushuntirish imkonini beradi.

Sovet davrida ijodkorlikni o'rganishda ilmiy-texnikaviy ijod, ixtirochilik, konstruktorlik faoliyati hamda yosh avlodning ijodiy qobiliyatlarini ta'lim jarayonida rivojlantirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, bolalar va o'smirlarning badiiy ijodkorligi, tasavvuri, mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar ham shakllangan. Mazkur davrdagi ijodkorlik konsepsiyalari o'sha davrning ijtimoiy, tarixiy va madaniy sharoitlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan.

Sovet va G'arb psixologiyasida ijodkorlikka oid nazariy yondashuvlar o'rtasida ayrim umumiyliklar bilan bir qatorda muayyan farqlar ham mavjud edi. G'arb psixologiyasida ijodkorlik ko'proq individual qobiliyatlar, divergent tafakkur, motivatsiya, shaxs xususiyatlari va o'zini o'zi ro'yobga chiqarish bilan bog'liq holda tadqiq etilgan bo'lsa, sovet psixologiyasida uning faoliyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya va shaxsning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari bilan bog'liq jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Bunda ijodkorlik faqat individual iste'dodning namoyon bo'lishi emas, balki shaxsning ijtimoiy faoliyati va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shish imkoniyati sifatida ham talqin etilgan.

Sovet psixologiya maktabida shakllangan nazariy qarashlar ijodiy faoliyatni tashkil etish amaliyotiga ham muayyan ta'sir ko'rsatdi. Xususan, Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvi ta'lim jarayonida ijtimoiy o'zaro ta'sir, hamkorlik, o'yin va tasavvurning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini ilmiy asoslashga xizmat qildi. Luriyaning neyropsixologik tadqiqotlari murakkab psixik va kognitiv jarayonlarni baholashning ilmiy asoslarini rivojlantirishga hissa qo'shdi. Rubinshteynning shaxs va faoliyat birligi haqidagi qarashlari esa ijodkorlikni shaxsning faoliyati, tafakkuri va motivatsiyasi bilan o'zaro bog'liq holda o'rganish uchun muhim metodologik asos yaratdi.

Umuman olganda, ijodkorlik muammosining tarixiy-nazariy tahlili ushbu fenomenni faqat individual qobiliyat sifatida emas, balki kognitiv, motivatsion, shaxsiy va ijtimoiy-psixologik omillarning o'zaro ta'siri natijasida rivojlanadigan murakkab psixologik hodisa sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur nazariy qarashlar o'smir o'quvchilarning ijodiy faolligini rivojlantirishda oila, tengdoshlar, pedagoglar, ta'lim muhiti hamda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini kompleks hisobga olishning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ijodkorlikning ijtimoiy-psixologik asoslari ijodiy rivojlanish va ijodiy faoliyatning namoyon bo'lishini belgilovchi individual xususiyatlar, ijtimoiy o'zaro ta'sirlar hamda atrof-muhit omillari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi. Ushbu asoslarni chuqur o'rganish shaxsda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikrlashni rag'batlantirish, shuningdek, yangilik va innovatsiyalarni qadrlaydigan hamda qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy muhitni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkorlik bir asrdan ortiq vaqt davomida psixologiya fanida keng o'rganib kelinayotgan murakkab psixologik hodisalardan biridir. Ijodkorlik tushunchasining yagona, umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud bo'lmasa-da, u odatda yangi va original g'oyalarni yaratish, mavjud muammolarga yangicha yondashish hamda ularning samarali yechimlarini topish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ijodkorlik inson faoliyatining turli sohalarida yangilik yaratish, innovatsion yondashuvlarni shakllantirish va taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim shaxsiy hamda intellektual salohiyat hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdufatayev, Mullaboyev. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish uzluksiz ta'lim tizimida // Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – 2020.
2. Csikszentmihalyi M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention. – New York: HarperCollins, 1996.
3. Kelley T., Kelley D. Creative Confidence: Unleashing the Creative Potential Within Us All. – New York: Crown Business, 2013.
4. Davletshin M. G. va boshq. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – Toshkent: O'qituvchi.
5. Do'stmuhamedova Sh. A., Nishonova Z. T. va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
6. Pink D. H. Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us. – New York: Riverhead Books, 2009.
7. Lehrer J. Imagine: How Creativity Works. – Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2012.
8. Webb C. How to Have a Good Day: Harness the Power of Behavioral Science to Transform Your Working Life. – New York: Crown Business, 2016.
9. Abdurahmanova J. N., Toshtemirova S. A. Innovatsion texnologiyalar va axborot madaniyati – ta'lim jarayonining muhim masalalaridan biri // Science and Education. – 2020. – Vol. 1, No. 7. – B. 436–442.
10. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika: kasb-hunar kollejlari uchun darslik. – 2-nashr. – Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2008. – 496 b.
11. G'afforov Y. H. Maktab islohoti va o'qitish uslublarini takomillashtirish // Science and Education. – 2020. – B. 482.

HUSNIXATGA O‘RGATISH TAMOYILLARI

Latipova Ma’rifat Salohiddin qizi
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti,
pedagogika va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Muhammadaliyeva Xosiyatxon Xaydaraliyevna
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta’lim jarayonida husnixatga o‘rgatishning asosiy tamoyillari, ularning pedagogik mazmuni va amaliy qo‘llanish imkoniyatlari yoritiladi. Husnixat faqat harflarni chiroyli yozish malakasi emas, balki o‘quvchining diqqatini jamlash, ko‘z va qo‘l harakatlarini muvofiqlashtirish, tartibga rioya qilish, nutqiy va estetik madaniyatini shakllantirish vositasi sifatida talqin etiladi. Maqolada ongli o‘rgatish, izchillik, ko‘rgazmalilik, individuallashtirish, gigiyenik talablar, mashqning bosqichma-bosqichligi kabi tamoyillar tahlil qilinadi. Shuningdek, dars jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan jadval, mashq namunasi va o‘quvchilar yozuvini baholash mezonlari taklif etiladi. Muallif husnixatga o‘rgatishda shoshilinch natijaga intilish emas, balki har bir bolaning yozuv harakati, ruhiy tayyorgarligi va estetik idrokini hisobga olish muhimligini asoslaydi. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, savod o‘rgatish jarayonida yozuv madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: husnixat, yozuv malakasi, tamoyil, boshlang‘ich ta’lim, savod o‘rgatish, ko‘rgazmalilik, grafika, metodika.

Abstract: This article examines the main principles of teaching handwriting in primary education, their pedagogical content, and possibilities for practical application. Handwriting is interpreted not only as the ability to write letters neatly but also as a means of developing students’ concentration, coordinating eye and hand movements, observing order and discipline, and forming speech and aesthetic culture. The article analyzes such principles as conscious instruction, consistency, visual demonstration, individualization, hygienic requirements, and the gradual progression of practice. In addition, a table, sample exercises, and criteria for assessing students’ handwriting that can be applied during the learning process are proposed. The author substantiates the importance of considering each child’s writing movements, psychological readiness, and aesthetic perception rather than pursuing immediate results when teaching handwriting. The research findings are of practical significance for primary school teachers and contribute to strengthening writing culture in the literacy instruction process.

Key words: handwriting, writing skills, principle, primary education, literacy instruction, visual demonstration, graphics, methodology.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные принципы обучения каллиграфии в процессе начального образования, их педагогическое содержание и возможности практического применения. Каллиграфия трактуется не только как навык красивого написания букв, но и как средство развития концентрации внимания учащихся, координации движений глаз и рук, соблюдения порядка, формирования речевой и эстетической культуры. В статье анализируются такие принципы, как сознательное обучение, последовательность, наглядность, индивидуализация, соблюдение гигиенических требований и поэтапность выполнения упражнений. Кроме того, предлагаются таблица, образцы упражнений и критерии оценки письменных работ учащихся, которые могут применяться в учебном процессе. Автор обосновывает важность учета движений руки при письме, психологической готовности и эстетического восприятия каждого ребенка вместо стремления к быстрому получению результата при обучении каллиграфии. Результаты исследования имеют практическое значение для учителей начальных классов и способствуют укреплению культуры письма в процессе обучения грамоте.

Ключевые слова: каллиграфия, навык письма, принцип, начальное образование, обучение грамоте, наглядность, графика, методика.

KIRISH

Boshlang‘ich ta’limda husnixatga o‘rgatish masalasi ko‘pincha faqat yozuvning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq holda tushuniladi. Aslida esa husnixat bolaning fikrlash sur’ati, nutqiy rivojlanishi, diqqat barqarorligi, mayda motorikasi va tartib-intizomga munosabati bilan bevosita aloqador jarayondir. O‘quvchi harfni to‘g‘ri, ravon va o‘qilishi oson shaklda yozishni o‘rganar ekan, u ayni paytda belgi, tovush, so‘z va ma’no o‘rtasidagi

bog‘lanishni ham mustahkamlaydi. Shuning uchun husnixat savod o‘rgatishning yordamchi qismi emas, balki uning tabiiy tarkibiy bo‘lagi sifatida qaralishi lozim. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar keng qo‘llanayotgan bo‘lsa-da, qo‘l yozuvining ta’limiy ahamiyati kamaygani yo‘q. Aksincha, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun qo‘l bilan yozish fikrni tartibga solish, matnni eslab qolish, tovush-harf munosabatini idrok etish, o‘z ishiga mas’uliyat bilan qarash kabi ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Harflarni beparvo, shoshqaloq yoki noto‘g‘ri yozishga odatlangan bola keyingi sinflarda yozma ishlarni bajarishda qiynalishi, matnni tushunarli ifodalashda sekinlashishi mumkin. Shu bois husnixatga o‘rgatishning ilk bosqichidayoq to‘g‘ri tamoyillarga tayanish zarur.

Husnixatga o‘rgatishda o‘qituvchi faqat namuna ko‘rsatib beruvchi shaxs bo‘lib qolmaydi. U bolaning yozuv jarayonini kuzatadi, qalamni ushlash holatini to‘g‘rilaydi, partada o‘tirish tartibini eslatadi, yozuvdagi xatoni jazolash emas, balki tushuntirish orqali bartaraf etadi. Ayniqsa, har bir bolaning rivojlanish sur’ati turlicha ekanini hisobga olish muhim. Ba’zi o‘quvchilar harf shaklini tez anglaydi, lekin chiziqlar oralig‘ini saqlashda qiynaladi; boshqalar esa yozuvni sekin bajarsa-da, shaklga e’tiborli bo‘ladi. Demak, husnixat darslarida umumiy talab bilan birga individual yondashuv ham zarur. Mazkur maqolada husnixatga o‘rgatish tamoyillari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor o‘quvchini chiroyli yozishga majburlashga emas, balki unda yozuvga ongli, estetik va mas’uliyatli munosabatni shakllantirishga qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Husnixatga o‘rgatish masalasi boshlang‘ich ta’lim metodikasida savod o‘rgatish, ona tili ta’limi va yozuv madaniyati bilan bog‘liq holda o‘rganib kelingan. O‘zbek metodist olimlaridan K. Qosimova, S. Matchonov, X. G‘ulomova, Sh. Yo‘ldosheva va Sh. Sariyevlar boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish jarayonida yozuv malakasining shakllanishi, tovush-harf munosabati, o‘quvchilarning grafik ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar [1, s. 67].

Q. Abdullayeva va R. Safarova ishlarida savod o‘rgatish davrida o‘quvchilarning qo‘l harakati, daftar bilan ishlashi, harf unsurlarini bosqichma-bosqich o‘zlashtirishi kabi jihatlar metodik nuqtai nazardan izohlangan [2, s. 91].

Xorijiy pedagogikada ham yozuvga o‘rgatish keng tadqiq qilingan. K. D. Ushinskiy bolaga yozuvni mexanik ko‘chirish emas, ongli mashq orqali o‘rgatish zarurligini ta’kidlagan [3, s. 112].

M. Montessori mayda motorika, sezgi organlari va mustaqil mashqning yozuvga tayyorgarlikdagi o‘rnini asoslagan [4, s. 58].

L. S. Vygotskiy va D. B. Elkonin ishlarida esa yozuv nutqiy rivojlanishning murakkab shakli sifatida talqin qilinadi; bola belgilar tizimini o‘zlashtirar ekan, uning tafakkuri ham yangi bosqichga ko‘tariladi [5, s. 146].

Bu qarashlar husnixatga o‘rgatish nafaqat grafik, balki psixologik-pedagogik jarayon ekanini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola metodologiyasi pedagogik kuzatish, nazariy tahlil, taqqoslash va amaliy modellashtirish usullariga tayanadi. Avvalo, boshlang‘ich ta’lim metodikasiga oid adabiyotlarda husnixat, yozuv malakasi, savod o‘rgatish va grafik ko‘nikma tushunchalarining yoritilishi o‘rganildi. Keyin husnixatga o‘rgatish jarayonida eng ko‘p uchraydigan muammolar – harf shaklining buzilishi, qator oralig‘iga rioya qilmaslik, yozuvning haddan tashqari mayda yoki yirik bo‘lishi, qalamni noto‘g‘ri ushlash, charchoq tufayli yozuv sifatining pasayishi kabi holatlar tahlil qilindi.

Tadqiqotda husnixatga o‘rgatishning asosiy tamoyillari amaliy dars jarayoni nuqtai nazaridan izohlandi. Har bir tamoyil o‘quvchi faoliyati, o‘qituvchi rahbarligi va mashq mazmuni bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqildi. Bunda yozuv jarayonini faqat natija, ya’ni chiroyli yozilgan sahifa orqali emas, balki jarayonning o‘zi orqali baholashga e’tibor berildi. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchisida yozuv odati asta-sekin shakllanadi; bir martalik chiroyli ish doimiy malaka mavjudligini anglatmaydi.

Shuningdek, maqolada jadval va namunaviy ishlanmalar berildi. Ular o‘qituvchiga darsni rejalashtirish, o‘quvchi yozuvini kuzatish, xatolarni guruhlarga ajratish va mashqlarni moslashtirishda yordam beradi. Metodologik yondashuvning asosiy mezoni shundan iboratki, husnixatga o‘rgatish bola shaxsini zo‘riqtirish emas, balki uni tartibli, ravon va ongli yozuvga olib boradigan tabiiy ta’limiy jarayon sifatida tashkil etilishi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Husnixatga o‘rgatish tamoyillari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ularning birortasini alohida qo‘llash yetarli natija bermaydi. Masalan, o‘qituvchi ko‘rgazmali namunani yaxshi tayyorlagan bo‘lsa-yu, o‘quvchining partada o‘tirishi, daftarni tutishi va qalam bosimi nazorat qilinmasa, yozuv baribir barqaror bo‘lmaydi. Yoki mashqlar ko‘p berilgan taqdirda ham ular bosqichma-bosqich murakkablashmasa, bola zerikadi va harflarni mexanik ko‘chirishga o‘tadi. Shu sababli husnixat darsida tamoyillar tizimli ravishda qo‘llanilishi lozim.

Birinchi tamoyil **onglilik tamoyilidir.** O‘quvchi nima uchun harfni aynan shunday yozishini tushunishi kerak. Masalan, “o” harfining yumaloq shaklda yozilishi, uning qator chizig‘idan yuqoriga yoki pastga chiqib

ketmasligi oddiy buyruq tarzida emas, balki ko‘rsatish va solishtirish orqali tushuntiriladi. Bola to‘g‘ri va noto‘g‘ri yozilgan namunalarni ko‘rsa, xatoni o‘zi ham payqay boshlaydi. Bu esa husnixatni majburiy mashqdan ongli faoliyatga aylantiradi. K. D. Ushinskiy ta’kidlaganidek, bola tushunmagan mashq uning xotirasida mustahkam iz qoldirmaydi [3, s. 118].

Ikkinchi tamoyil **izchillik va ketma-ketlikdir.** Husnixatga o‘rgatishda avval qo‘lni yozuvga tayyorlovchi chiziqlar, keyin harf unsurlari, so‘ng kichik harflar, undan keyin harf birikmalari va so‘zlar yozdiriladi. Bu ketma-ketlik buzilsa, o‘quvchi murakkab shaklni ko‘chirishi mumkin, lekin uning ichki tuzilishini anglamaydi. Masalan, “m”, “n”, “u” kabi harflar o‘xshash unsurlarga ega; agar bola oldin tik chiziq va egri chiziqni mashq qilgan bo‘lsa, bu harflarni yozish osonlashadi. Shuning uchun har bir yangi harf avvalgi o‘rganilgan grafik tajribaga tayanishi kerak.

1-jadval: **Husnixatga o‘rgatish tamoyillari va ularning amaliy ko‘rinishi**

Tamoyil nomi	Mazmuni	Darsdagi amaliy ifodasi
Onglilik	O‘quvchi harf shakli va yozuv yo‘nalishini tushunadi	To‘g‘ri va noto‘g‘ri namunani solishtirish
Izchillik	Mashqlar oddiydan murakkabga qarab beriladi	Chiziq, unsur, harf, bo‘g‘in, so‘z tartibida yozish
Ko‘rgazmalilik	Yozuv namunasi aniq va ko‘rinadigan bo‘ladi	Doskada yirik yozish, daftar namunasi berish
Individuallashtirish	Har bir bolaning yozuv sur’ati hisobga olinadi	Qo‘shimcha yoki yengillashtirilgan mashq berish
Gigiyenik talab	Sog‘lom yozuv sharoiti yaratiladi	To‘g‘ri o‘tirish, yorug‘lik, qalam ushlashni nazorat qilish

Uchinchi muhim tamoyil **ko‘rgazmalilikdir.** Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi og‘zaki tushuntirishdan ko‘ra ko‘rish, kuzatish va taqlid qilish orqali tezroq o‘rganadi. Biroq ko‘rgazmalilik faqat doskaga chiroyli yozish bilan cheklanmaydi. O‘qituvchi harfni yozish yo‘nalishini, qalam qayerdan boshlanishini, qayerda burilish hosil bo‘lishini, harfning qator chizig‘iga nisbatan joylashuvini bosqichma-bosqich ko‘rsatishi kerak. Harfni tayyor holatda ko‘rsatishdan ko‘ra, uning qanday hosil bo‘lishini ko‘rsatish foydaliroq. Chunki o‘quvchi yozuvni rasm sifatida emas, balki harakatlar ketma-ketligi sifatida o‘zlashtiradi.

To‘rtinchi tamoyil **mashqning muntazamligi va me’yoriyligidir.** Husnixat ko‘p mashq qilishni talab qiladi, ammo bu ko‘plik bolaning charchashiga olib kelmasligi lozim. Birinchi sinf o‘quvchisiga bir sahifada bir xil harfni yozdirish har doim ham samarali emas. Aksincha, qisqa, maqsadli va xilma-xil mashqlar yaxshiroq natija beradi. Masalan, 2 qator harf unsuri, 1 qator harf, 1 qator bo‘g‘in, 1 qator qisqa so‘z yozish bolaning diqqatini saqlaydi. Shuningdek, dars oralig‘ida barmoq mashqlari va ko‘zga dam beruvchi mashqlar ham qo‘llanilishi kerak.

Beshinchi tamoyil **gigiyenik talablar bilan bog‘liq.** Husnixatga o‘rgatishda partaning balandligi, bolaning o‘tirish holati, daftar bilan ko‘z orasidagi masofa, qalamning qalinligi va yumshoqligi, yorug‘likning tushishi kabi jihatlar bevosita ahamiyatga ega. Bola daftar ustiga haddan tashqari egilib yozsa, nafaqat yozuv sifati, balki sog‘lig‘i ham zarar ko‘radi. Qalamni juda qattiq bosish qo‘l mushaklarini tez charchatadi, juda bo‘sh ushlash esa chiziqning uzilishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli husnixat darsida o‘qituvchi “chiroyli yoz” deb talab qilishdan oldin “to‘g‘ri o‘tir”, “daftarni mos burchakda tut”, “qalamni erkin ushla” kabi ko‘nikmalarni shakllantirishi zarur [2, s. 96].

Oltinchi tamoyil **individuallashtirishdir.** Sinfdagi barcha bolalardan bir xil tezlikda va bir xil sifatda yozishni kutish metodik jihatdan to‘g‘ri emas. Ayrim o‘quvchilarning mayda motorikasi yaxshi rivojlangani uchun ular harflarni tez o‘zlashtiradi. Boshqa bolalarda esa qo‘l harakati sustroq bo‘lishi, chiziqni bir tekis olib borish qiyin kechishi mumkin. Bunday holatda o‘qituvchi bolani boshqalar bilan taqqoslamasligi, aksincha, uning kechagi yozuvi bilan bugungi yozuvini solishtirishi kerak. Shu yondashuv o‘quvchida ishonchni saqlaydi.

2-jadval: **O‘quvchilar yozuvida uchraydigan xatolar va ularni bartaraf etish yo‘llari**

Xato turi	Ehtimoliy sabab	Tuzatish usuli
Harflar qator chizig‘idan chiqib ketadi	Qator oralig‘ini chamalash sust	Katak yoki chiziqli namunada yo‘naltirilgan mashq berish
Harflar bir-biriga haddan tashqari yaqin yoziladi	So‘z ichidagi masofa tushunilmagan	Harflar orasiga nuqta yoki kichik belgi qo‘yib mashq qilish
Qalam bosimi juda kuchli	Qo‘l mushaklari zo‘riqqan	Qisqa yozuv va barmoq bo‘shashtirish mashqlarini bajarish
Harf shakli notekis	Harf unsuri yetarli mashq qilinmagan	Harfni qismlarga ajratib qayta yozdirish
Yozuv qiyaligi har xil	Daftar holati noto‘g‘ri	Daftar burchagini belgilab, kuzatib borish

Husnixatga o‘rgatishning yana bir muhim jihati baholashdir. Baholash faqat “chiroyli” yoki “xunuk” degan umumiy fikrga asoslanmasligi kerak. Chunki bunday baho bola uchun mavhum bo‘lib qoladi. O‘qituvchi aniq mezonlarni ko‘rsatishi lozim: harf shakli saqlanganmi, qatorga to‘g‘ri joylashganmi, so‘zlar orasida masofa bormi, yozuvni o‘qish osonmi, qalam bosimi me’yoridami. Shunda o‘quvchi o‘z xatosini tushunadi va keyingi mashqda nimaga e’tibor berishini biladi. Bunday baholash yozuvni nazorat qilish madaniyatini ham shakllantiradi. Husnixat darslarida kichik ijodiy topshiriqlardan foydalanish ham foydali. Masalan, o‘quvchilarga faqat alohida harflarni yozdirish o‘rniga “ona”, “maktab”, “kitob”, “bahor” kabi ma’noli so‘zlarni chiroyli yozish topshiriladi. Keyin ular shu so‘zlardan bittasi asosida og‘zaki gap tuzishlari mumkin. Bunda husnixat nutq o‘stirish bilan bog‘lanadi. O‘quvchi yozayotgan so‘zining ma’nosini his qilsa, uning yozuvga munosabati ham o‘zgaradi. M. Montessori qarashlarida ham qo‘l harakati, sezgi va mazmunli faoliyat bir-biridan ajralmas jarayon sifatida izohlanadi [4, s. 63].

3-jadval: **Husnixat bo‘yicha qisqa dars ishlanmasi namunasi**

Bosqich	O‘qituvchi faoliyati	O‘quvchi faoliyati	Kutiladigan natija
Tayyorgarlik	O‘tirish, daftar va qalam holatini tekshiradi	Yozuvga tayyorlanadi	Gigiyenik ko‘nikma mustahkamlanadi
Ko‘rsatish	Harf unsurini doskada bosqichma-bosqich yozadi	Harakat yo‘nalishini kuzatadi	Harf tuzilishi anglanadi
Birgalikda mashq	Havoda va daftarda yozishni boshqaradi	Harfni avval sekin, keyin mustaqil yozadi	Qo‘l harakati moslashadi
Mustaqil yozuv	Qisqa so‘z yozishni topshiradi	So‘zlarni qatorga joylab yozadi	Harf birikmasi shakllanadi
Tahlil	2-3 namunani muhokama qiladi	Xato va yutuqni aniqlaydi	O‘zini nazorat qilish rivojlanadi

Husnixatga o‘rgatishda o‘qituvchining nutqi ham katta ahamiyatga ega. “Yomon yozding”, “Bunday yozma” kabi iboralar o‘quvchini ruhiy jihatdan tortinib qolishiga olib kelishi mumkin. Buning o‘rniga “Bu harfning yuqori qismi yaxshi chiqqan, endi pastki qismini qatorga yaqinroq yozamiz”, “So‘zlar orasidagi masofani biroz ochamiz” kabi aniq va sokin izohlar samaraliroq. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchisi tanqiddan ko‘ra yo‘naltiruvchi yordamga ko‘proq muhtoj. L. S. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi haqidagi qarashlari ham bolaning kattalar yordami orqali asta-sekin mustaqil bajarishga o‘tishi zarurligini ko‘rsatadi [5, s. 152].

Husnixat darslarida zamonaviy vositalardan ham me’yorida foydalanish mumkin. Masalan, interaktiv doskada harfning yozilish yo‘nalishini animatsiya orqali ko‘rsatish, proyektor yordamida o‘quvchi daftaridagi yaxshi namunani ko‘rsatish, elektron slaydlarda harf unsurlarini ajratib berish mumkin. Lekin bu vositalar qo‘l bilan yozish mashqining o‘rnini bosmasligi kerak. Chunki husnixat bevosita mushak xotirasi va takroriy harakatlar orqali shakllanadi. Texnologiya tushuntirishni yengillashtiradi, ammo malaka amaliy yozuv orqali mustahkamlanadi.

Yana bir masala – husnixatni faqat ona tili darsi bilan chegaralab qo‘ymaslik. Matematika daftarida raqamlarni tartibli yozish, tabiatshunoslikda qisqa javoblarni aniq yozish, o‘qish darsida matndan ko‘chirma yozish ham yozuv madaniyatiga xizmat qiladi. Agar o‘qituvchi faqat husnixat daftarida chiroyli yozishni talab qilib, boshqa daftarlardagi pala-partish yozuvga e’tibor bermasa, bola yozuv madaniyatini vaziyatga qarab o‘zgartiriladigan odat sifatida qabul qiladi. Shuning uchun yagona talab barcha yozma ishlar uchun saqlanishi kerak. Husnixatga o‘rgatishda milliy-estetik tarbiya imkoniyatlari ham mavjud. Chiroyli, ravon, tartibli yozuv o‘zbek yozma madaniyatiga hurmat, kitobga e’tibor, tilga mas’uliyat bilan qarashni tarbiyalaydi. O‘quvchi o‘z yozuvini boshqalar o‘qishini, demak, yozuv ham muloqot vositasi ekanini tushunadi. Bu jihatdan husnixat shaxsiy ko‘nikma bo‘lish bilan birga, ijtimoiy madaniyat ko‘rinishidir.

XULOSA

Husnixatga o‘rgatish boshlang‘ich ta’limning oddiy texnik mashqi emas, balki bolaning nutqiy, aqliy, estetik va psixomotor rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan murakkab pedagogik jarayondir. Chiroyli yozuv o‘z-o‘zidan shakllanmaydi; u ongli tushuntirish, izchil mashq, ko‘rgazmali namuna, individual yondashuv va sog‘lom yozuv sharoitlari asosida rivojlanadi. Shu sababli husnixat darslari faqat harflarni takror yozish bilan cheklanmasligi, balki o‘quvchida yozuvga nisbatan mas’uliyatli munosabatni tarbiyalashi zarur. Maqolada tahlil qilingan tamoyillar shuni ko‘rsatadiki, husnixatga o‘rgatishda eng muhim masala o‘quvchini shoshiltirmaslikdir. Tez yozishga erta majburlash harf shaklining buzilishi, qalamni noto‘g‘ri ushlash va yozuvga befarq munosabatning paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Avval to‘g‘ri, ravon va ongli yozuv shakllantirilsa, tezlik keyingi bosqichlarda tabiiy ravishda ortadi. Demak, sifat va barqarorlik birinchi o‘rinda turishi kerak.

Husnixatga o‘rgatishda o‘qituvchining kuzatuvchanligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har bir o‘quvchining yozuvida uchraydigan xatolarning sababi bir xil bo‘lmaydi. Bir bola harf shaklini tushunmagani uchun xato qiladi, boshqasi qo‘l mushaklari charchagani uchun, yana biri daftarni noto‘g‘ri tutgani uchun xato yozadi. Shuning uchun xatoni faqat natija sifatida emas, uning kelib chiqish sababi bilan birga tahlil qilish lozim. Xulosa qilib aytganda, husnixatga o‘rgatish tamoyillari o‘quvchini chiroyli yozishga o‘rgatishdan kengroq maqsadga xizmat qiladi. U bolani tartibga, aniqlikka, sabrga, o‘z ishini tekshirishga va yozma nutqni hurmat qilishga o‘rgatadi. Boshlang‘ich sinfda to‘g‘ri tashkil etilgan husnixat ta’limi keyingi bosqichlarda yozma ishlar sifati, o‘quvchining o‘z fikrini ifodalash madaniyati va umumiy o‘quv intizomiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois husnixatga o‘rgatish har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining metodik faoliyatida muhim va doimiy e’tibor talab qiladigan yo‘nalish bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Nosir, 2009.
2. Abdullayeva Q., Safarova R. Boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
3. Ushinskiy K. D. Tanlangan pedagogik asarlar. Toshkent: O‘qituvchi, 1979.
4. Montessori M. The Montessori Method. New York: Frederick A. Stokes Company, 1912.
5. Vygotskiy L. S. Pedagogik psixologiya. Moskva: Pedagogika, 1991.
6. Elkonin D. B. Psixologiya obucheniya mladshego shkolnika. Moskva: Znaniye, 1974.

O'SMIRLARDA SUITSIDAL XAVF BILAN BOG'LIQ TAJOVUZKORLIK VA PSIXOLOGIK DETERMINANTLARNING KOMPLEKS DIAGNOSTIKASI

Nahalboyeva Nigora Turdi qizi
JDPU psixologiya kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlarda suitsidal xavf bilan bog'liq tajovuzkorlik va psixologik determinantlar nazariy manbalar hamda kompleks psixodiagnostik tadqiqot natijalari asosida tahlil qilingan. Bass–Darki, G. Ayzenk, R. B. Kettell va Brief COPE metodikalari yordamida tajovuzkor reaksiyalar, psixik holatlar, shaxsiy-regulyativ xususiyatlar hamda stressli vaziyatlarni yengib o'tish strategiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar o'rganilgan. Tadqiqot natijalari maktablar, shahar va tuman guruhlari kesimida qiyosiy-statistik jihatdan tahlil qilinib, aniqlangan tafovutlarning psixologik xususiyatlari izohlangan. Yuqori darajadagi tajovuzkorlik yoki xavotirlanish ko'rsatkichlarini alohida holda suitsidal xulq-atvorning bevosita belgisi sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan yetarli emasligi asoslangan. Suitsidal xavfni baholashda diagnostik xulosa alohida ko'rsatkichga emas, balki individual-psixologik xususiyatlar, stress omillari, koping strategiyalari, ijtimoiy muhit hamda xavf va himoya omillarining o'zaro uyg'unligiga asoslanishi zarurligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, suitsidal xavf, tajovuzkorlik, xavotirlanish, frustratsiya, rigidlik, shaxsiy regulyatsiya, koping strategiyalari, xavf omillari, himoya omillari, kompleks psixodiagnostika.

Abstract: This article analyzes aggression and psychological determinants associated with suicidal risk among adolescents based on theoretical sources and the results of a comprehensive psychodiagnostic assessment. Using the Buss–Durkee, H. Eysenck, R. B. Cattell, and Brief COPE instruments, the study examines the relationships among aggressive reactions, psychological states, personality-related regulatory characteristics, and coping strategies used in stressful situations. The findings are subjected to comparative statistical analysis across schools and urban and district groups, with particular attention to the psychological interpretation of the identified differences. The study substantiates that high levels of aggression or anxiety, when considered in isolation, cannot be interpreted as direct indicators of suicidal behavior. It emphasizes that the assessment of suicidal risk should not rely on a single psychological indicator but should be based on an integrated evaluation of individual psychological characteristics, stress-related factors, coping strategies, the social environment, and the combined effects of risk and protective factors.

Key words: adolescence, suicidal risk, aggression, anxiety, frustration, rigidity, personality regulation, coping strategies, risk factors, protective factors, comprehensive psychodiagnostic assessment.

Аннотация: В статье анализируются агрессивность и психологические детерминанты, связанные с суицидальным риском у подростков, на основе теоретических источников и результатов комплексного психодиагностического исследования. С применением методик Басса–Дарки, Г. Айзенка, Р. Б. Кеттелла и Brief COPE изучены взаимосвязи между агрессивными реакциями, психическими состояниями, личностно-регулятивными особенностями и стратегиями совладания со стрессовыми ситуациями. Результаты исследования подвергнуты сравнительно-статистическому анализу в разрезе школ, городских и районных групп, а также интерпретированы выявленные психологические различия. Обосновано, что высокие показатели агрессивности или тревожности, рассматриваемые изолированно, не могут служить непосредственным признаком суицидального поведения. Подчёркивается, что диагностическая оценка суицидального риска должна основываться не на отдельном показателе, а на комплексном учёте индивидуально-психологических особенностей, стрессовых факторов, копинг-стратегий, социальной среды, а также совокупности факторов риска и защитных ресурсов.

Ключевые слова: подростковый возраст, суицидальный риск, агрессивность, тревожность, фрустрация, ригидность, личностная регуляция, копинг-стратегии, факторы риска, защитные факторы, комплексная психодиагностика.

KIRISH

O‘smirlik davri mustaqillikka intilish, hissiy reaktivlikning ortishi, tengdoshlar bahosiga sezgirlik va o‘zlikni anglash jarayonining jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Ushbu rivojlanish xususiyatlari noqulay oilaviy, ta’limiy va ijtimoiy vaziyatlar bilan qo‘shilganda psixologik zo‘riqish, tajovuzkor reaksiyalar, xavotir, frustratsiya va samarasiz stressni yengish usullarining kuchayishiga sharoit yaratishi mumkin [1; 2; 12; 13].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Suitsidal xavfni baholash alohida bir xususiyatni aniqlash bilan cheklanmaydi. Tajovuzkor reaksiyaning shakli, psixik holatning barqarorligi, shaxsning o‘zini boshqarish imkoniyatlari va stressni yengish usullari o‘zaro uyg‘unlikda ko‘rib chiqilgandagina o‘smirning psixologik zaifligi haqida ehtiyotkor va asoslangan xulosa chiqarish mumkin. Tajovuzkorlik bu o‘rinda faqat tashqi xulqiy buzilish emas, balki hissiy zo‘riqishning tashqi obyektga, munosabatlar tizimiga yoki shaxsning o‘ziga yo‘nalishi mumkin bo‘lgan murakkab psixologik reaksiya sifatida talqin qilinadi. Mazkur yondashuv suitsidal xulqni bir omil bilan izohlashdan saqlaydi va rivojlanish muhiti, shaxsiy zaiflik hamda himoya resurslarini birgalikda hisobga olishni talab etadi [7; 9; 10].

Suitsidologik tadqiqotlarda o‘smirning xavf holatini kompleks o‘rganish tamoyili yetakchi metodologik yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi. A.G. Ambrumova suitsidal xulqni klinik, psixologik va ijtimoiy omillar kesishmasida tahlil qilish zarurligini ko‘rsatgan bo‘lsa, E.M. Vrono o‘smirlar bilan profilaktik ishlarda yoshga xos hissiy beqarorlik, muloqot qiyinchiliklari va yordamga murojaat qilish imkoniyatini hisobga olishga e’tibor qaratgan [1; 2].

A.T. Beck, M. Kovacs va A. Weissman umidsizlikni suitsidal xulq bilan bog‘liq muhim kognitiv ko‘rsatkich sifatida tavsiflagan [6]. Zamonaviy nazariyalarda esa suitsidal fikrning paydo bo‘lishi va uning xatti-harakatga aylanishi bir xil mexanizm emasligi, xavfni tushuntirishda psixologik og‘riq, tegishlilik ehtiyojining qondirilmasligi, orttirilgan imkoniyat va boshqa zaiflik omillarini farqlash zarurligi asoslanadi [7; 9; 10]. Turli mamlakatlarda o‘tkazilgan tadqiqotlar ham suitsidal fikr, reja va urinishlarning tarqalishi hamda xavf omillari bir xil emasligini ko‘rsatadi [11].

Mahalliy tadqiqotlarda o‘smirlik davridagi depressiv xulqning psixologik muammolari, kayfiyat pasayishi va xulqiy o‘zgarishlarning o‘zaro aloqasi yoritilgan [12]. Agressiv xulqni psixologik korreksiya qilishga oid ishlarda hissiy zo‘riqishni boshqarish, nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal etish va pedagogik-psixologik yordamni muvofiqlashtirish masalalari ilgari surilgan [13].

O‘smirlar suitsidal xulqini zamonaviy tahlil qilishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda individual-psixologik va ijtimoiy omillarni alohida emas, o‘zaro bog‘langan tizim sifatida baholash zarurligi ko‘rsatilgan [14]. Tajovuzkorlik xulqining suitsidal xatti-harakatlar shakllanishidagi ijtimoiy-psixologik determinantlariga oid ishlarda tajovuzning tashqi va ichki yo‘nalishlari, salbiy psixik holatlar hamda mikroijtimoiy muhitning uyg‘unligi muhim ekani qayd etilgan [15]. O‘smirlarda suitsidal xulqning ijtimoiy-psixologik omillariga bag‘ishlangan tadqiqot esa oilaviy munosabat, tengdoshlar ta’siri, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va shaxsning moslashuv resurslarini birgalikda o‘rganish zarurligini kuchaytiradi [16].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavjud ishlarda suitsidal xavf, tajovuzkorlik, depressiv kechinmalar, shaxsiy regulyatsiya va koping strategiyalari ko‘pincha alohida yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Shu sababli ushbu ko‘rsatkichlarni yagona diagnostik tizimda qiyoslash, bir-birini kuchaytiruvchi zaiflik belgilarini va ularni yumshatuvchi himoya resurslarini ajratish ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega [7; 10; 14; 15].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi - o‘smirlarda suitsidal xavf bilan bog‘liq psixologik zaiflikni tajovuzkorlik, psixik holatlar, shaxsiy-regulyativ sifatlar va koping strategiyalarining kompleks uyg‘unligi asosida tahlil qilish, hududiy hamda ta’lim muassasalari kesimidagi farqlarni aniqlashdan iborat.

Kompleks diagnostika to‘rtta o‘zaro bog‘liq blok asosida tashkil etildi. Bass–Darki metodikasi jismoniy, verbal va bilvosita tajovuz, negativizm, tajanglik, shubhalanuvchanlik, xafagarchilik hamda aybdorlik hissini baholashga xizmat qildi [3].

G. Ayzenkning “Psixik holatga o‘z baho” so‘rovnomasi orqali xavotirlanish, frustratsiya, tajovuzkorlik va rigidlik ko‘rsatkichlari aniqlandi. R. B. Kettell metodikasi hissiy barqarorlik, muloqotga moyillik, mustaqillik, o‘ziga ishonch, o‘zini nazorat qilish va ichki zo‘riqish kabi individual-psixologik sifatlarni ochib berdi [4].

Brief COPE yordamida faol kurashish, rejalashtirish, yordam izlash, qabul qilish, inkor etish, chekinish va o‘zini ayblash kabi stressni yengish strategiyalari baholandi [5; 8].

Mazkur metodikalar o‘smirning suitsidal fikri, niyati yoki rejasini bevosita o‘lchamaydi. Ularning diagnostik vazifasi suitsidal xavf bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan psixologik zaiflik va himoya omillarini aniqlashdan iborat. Shu sababli alohida shkala bo‘yicha yuqori ball klinik yoki suitsidologik xulosa chiqarish uchun yetarli emas. Miqdoriy natijalar individual suhbat, kuzatish, hayotiy vaziyat va faoliyatdagi o‘zgarishlar bilan birgalikda baholanishi zarur.

1-jadval: **Kompleks diagnostikaning tarkibiy bloklari**

Diagnostik blok	Metodika	Asosiy ko‘rsatkichlar	Psixologik mazmun
Tajovuzkor reaksiyalar	Bass–Darki	Jismoniy, verbal, bilvosita tajovuz; negativizm; tajanglik; shubhalanuvchanlik; xafagarchilik; aybdorlik	Hissiy zo‘riqishning tashqi yoki ichki yo‘nalishda ifodalanishi
Psixik holatlar	G. Ayzenk	Xavotirlanish, frustratsiya, tajovuzkorlik, rigidlik	Tahdid, to‘siq va o‘zgaruvchan vaziyatga hissiy munosabat
Shaxsiy regulyatsiya	R. B. Kettell	Hissiy barqarorlik, muloqot, o‘ziga ishonch, mustaqillik, nazorat, zo‘riqish	Tajovuzkor impulsni kuchaytiruvchi yoki cheklovchi individual resurslar
Stressni yengish	Brief COPE	Faol hal etish, rejalashtirish, qabul qilish, yordam izlash, inkor, chekinish, o‘zini ayblash	Muammoli vaziyatga konstruktiv yoki samarasiz javob berish usullari

TAHLIL VA NATIJALAR

Bass–Darki metodikasi bo‘yicha maktablar kesimida jismoniy tajovuz ($F=7,176$; $p<0,001$), verbal tajovuz ($F=7,096$; $p<0,001$), bilvosita tajovuz ($F=4,414$; $p=0,001$), negativizm ($F=12,465$; $p<0,001$), tajanglik ($F=3,295$; $p=0,007$), xafagarchilik ($F=16,302$; $p<0,001$) va aybdorlik hissi ($F=6,445$; $p<0,001$) bo‘yicha statistik ahamiyatli farqlar aniqlandi. Shubhalanuvchanlik bo‘yicha farq statistik ahamiyat darajasiga yetmadi ($F=2,178$; $p=0,057$). Bu natijalar tajovuzkorlikning namoyon bo‘lish shakli ta’lim muassasasidagi pedagogik talablar, o‘quvchilarning hissiy tajribasi va xulqni boshqarish sharoitlariga ko‘ra turlicha bo‘lishini ko‘rsatadi.

Jismoniy tajovuz nizoli vaziyatda kuch ishlatish, keskin harakat qilish yoki impulsiv javob berishga moyillikni; verbal tajovuz norozilik va g‘azabning so‘z orqali ifodalanishini; bilvosita tajovuz esa salbiy hissiyotlarni bevosita qarama-qarshiliksiz, yashirin qarshilik, kinoya, g‘iybat yoki vositali xatti-harakatlar orqali namoyon qilishni anglatadi. Ushbu uch shakl hissiy zo‘riqishning tashqi yo‘nalishini ifodalasa-da, ularning psixologik mazmuni va profilaktik yondashuvi bir xil emas.

Negativizm va tajanglik tashqi talab, nazorat yoki cheklovga qarshilik ko‘rsatish usulini aks ettiradi. O‘smirlikdagi mustaqillikka intilish tabiiy rivojlanish belgisi bo‘lsa-da, doimiy qarshilik, hissiy portlash va xulq strategiyasini o‘zgartira olmaslik pedagogik moslashuvning qiyinlashayotganini ko‘rsatishi mumkin. Shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlik esa tajovuzkorlikning ichki-emotsional tarkibiy qismlaridir.

Shahar va tuman guruhlarini qiyoslashda tuman o‘smirlarida jismoniy tajovuz ($M=5,5039$) shahar o‘smirlariga ($M=4,6000$) nisbatan yuqori bo‘lib, farq statistik ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($t=3,659$; $p<0,001$). Verbal tajovuz shahar guruhida ($M=6,1543$) tuman guruhiga ($M=5,4882$) nisbatan yuqori natijani ko‘rsatdi ($t=-2,275$; $p=0,024$). Demak, tajovuzkor zo‘riqish ayrim muhitda bevosita jismoniy reaksiya, boshqa muhitda esa so‘z, bahs va keskin muloqot orqali ifodalanishi mumkin.

Tuman guruhida xafagarchilik ($M=5,4252$) shahar guruhiga ($M=3,9819$) nisbatan sezilarli yuqori bo‘ldi ($t=5,168$; $p<0,001$). Aybdorlik hissida ham tuman o‘smirlarining o‘rtacha ko‘rsatkichi ($M=6,5197$) shahar guruhidan ($M=5,8914$) yuqori ekani qayd etildi ($t=2,581$; $p=0,010$). Xafagarchilik va aybdorlikning birgalikda kuchayishi salbiy hissiyotlarning ichki yo‘nalishda to‘planishi, o‘tmishdagi vaziyatni takror eslash va o‘zini yoki boshqalarni ayblash bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

G. Ayzenk metodikasi bo‘yicha xavotirlanish noaniq yoki ehtimoliy tahdidga nisbatan yuqori hissiy sezgirlikni, frustratsiya maqsadga erishish yo‘lidagi to‘siq va muvaffaqiyatsizlikda yuzaga keladigan zo‘riqishni, rigidlik esa o‘zgarayotgan vaziyatga moslashish va yangi yechimni qabul qilishdagi qiyinchilikni ifodalaydi. Ushbu holatlar tajovuzkorlik bilan uyg‘unlashganda o‘smirning hissiy javobi keskinlashishi va vaziyatni konstruktiv baholash imkoniyati torayishi mumkin.

Maktablar kesimida xavotirlanish, frustratsiya, tajovuzkorlik va rigidlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik ahamiyatli farq aniqlanmadi. Bu psixik holatlarni faqat muayyan ta’lim muassasasi bilan bog‘lash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Ular o‘smirlik davriga xos rivojlanish vazifalari, individual hissiy tajriba, o‘quv yuklamasi, oiladagi vaziyat va tengdoshlar bahosiga sezgirlik ta’sirida shakllanishi mumkin.

Shahar o‘smirlarida xavotirlanish (M=11,8000) tuman o‘smirlariga (M=10,9764) nisbatan yuqori bo‘lib, tafovut statistik ahamiyatga ega bo‘ldi (t=-2,575; p=0,011). Frustratsiya, tajovuzkorlik va rigidlik bo‘yicha shahar–tuman farqlari ahamiyatli emas. Shahar guruhidagi yuqori xavotirlanishni hayot sur’ati, o‘quv va ijtimoiy talablarning ko‘pligi, o‘zini tengdoshlar bilan taqqoslash va kelajak natijalariga nisbatan kuchli kutishlar bilan ehtimoliy bog‘lash mumkin, biroq buni sababiy xulosa sifatida qabul qilish mumkin emas.

R. B. Kettell so‘rovnomasi bilan aniqlangan individual-psixologik sifatlar tajovuzkor reaksiyaning qanday yuzaga kelishi va qay darajada boshqarilishini tushuntiradi. Hissiy barqarorlik ruhiy muvozanatni tiklash imkoniyatini, o‘zini nazorat qilish esa xatti-harakatni ijtimoiy me’yor va vaziyat talablariga moslashtirish qobiliyatini ifodalaydi. Muloqotga moyillik va ijtimoiy yetuklik yordam so‘rash, nizoni so‘z orqali hal etish va oqibatni oldindan ko‘ra bilishga xizmat qilishi mumkin.

Maktablar kesimida muloqotga moyillik (F=5,451; p<0,001), hukmronlikka intilish (F=5,315; p<0,001), ijtimoiy yetuklik va onglilik (F=4,698; p<0,001), ishonuvchanlik–shubhalanuvchanlik (F=3,801; p=0,002), o‘ziga ishonch–ishonmaslik (F=7,575; p<0,001), mustaqillik–tobelik (F=13,892; p<0,001) va o‘zini nazorat qilish (F=4,295; p=0,001) bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar qayd etildi. Natija ta’lim muhitining shaxsiy-regulyativ sifatlarning namoyon bo‘lishiga ta’sir etishini ko‘rsatadi, biroq oila tarbiyasi, individual rivojlanish va oldingi tajriba ham hisobga olinishi lozim.

Brief COPE metodikasida faol kurashish, rejalashtirish, vaziyatni real qabul qilish, ijobiy qayta talqin qilish, hissiy va amaliy yordam izlash konstruktiv koping strategiyalariga kiradi. Ular o‘smirning muammoli vaziyatni boshqariladigan vazifa sifatida qabul qilishi, yechim izlash va ijtimoiy resurslardan foydalanishiga yordam beradi. Inkor etish, muammodan butunlay voz kechish, psixoaktiv vositalar orqali qochish va doimiy o‘zini ayblash muammoning amaliy yechimini kechiktirib, salbiy hissiy holatlarning davomiyligini oshirishi mumkin [5; 8; 13].

Maktablar kesimida rejalashtirish (F=2,354; p=0,041), holatni real qabul qilish (F=2,625; p=0,024), e’tiborni boshqa narsaga qaratish (F=2,783; p=0,018) va psixoaktiv vositalar orqali stressdan qochish (F=3,033; p=0,011) bo‘yicha ahamiyatli farqlar aniqlandi. Faol kurashish, ijobiy qayta talqin qilish, yordam izlash, diniy-ma’naviy qadriyatlarga suyanish, inkor etish, chekinish va o‘zini ayblash kabi aksariyat strategiyalar bo‘yicha maktablararo farq qayd etilmadi.

Shahar–tuman taqqoslashida Brief COPE strategiyalarining hech birida p≤0,05 darajasidagi statistik ahamiyatli farq aniqlanmadi. Demak, stressni yengish usullarini faqat yashash hududi bilan tushuntirish yetarli emas. Koping strategiyalari individual tajriba, oilada muammoni hal qilish usullari, kattalardan o‘rganilgan xulq namunalari va maktabdagi psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq holda rivojlanadi.

Koping strategiyasining funksionalligi vaziyat va davomiylikka bog‘liq. Masalan, e’tiborni boshqa narsaga qaratish qisqa muddatli zo‘riqishni kamaytirib, keyinchalik muammoni hal etishga qaytish imkonini bersa, moslashuvchan usul bo‘ladi. Agar u muammoni doimiy chetlab o‘tish, mas’uliyatdan qochish va yordamni rad etish bilan kechsa, samarasiz xususiyat kasb etadi. Shu bois test natijalari individual suhbat mazmuni bilan aniqlashtirilishi kerak.

Bir-birini tasdiqlovchi ko‘rsatkichlar konvergent belgilar sifatida baholanadi. Jismoniy yoki verbal tajovuzning yuqori frustratsiya, past hissiy barqarorlik, o‘zini nazorat qilishning sustligi va muammodan chekinish bilan birgalikda namoyon bo‘lishi xulqiy zaiflikning kuchayganini bildiradi. Bunda alohida ko‘rsatkich emas, bir nechta diagnostik darajadagi belgilar uyg‘unligi muhimdir. Ushbu talqin tajovuzkorlik va suitsidal zaiflik determinantlarini kompleks baholashga oid mahalliy xulosalar bilan hamohangdir [15].

Ko‘rsatkichlar bir-birini to‘liq tasdiqlamagan holatda kompensator profil yuzaga keladi. Tajovuzkorlik yuqori bo‘lsa-da, hissiy barqarorlik, o‘zini nazorat qilish, rejalashtirish va yordam izlash ko‘nikmalari saqlangan bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda reaksiya muayyan sharoitga bog‘liq va nisbatan boshqariladigan xususiyatga ega. Aksincha, ochiq tajovuz past bo‘lsa-da, xafagarchilik, aybdorlik, xavotirlanish, o‘ziga ishonmaslik va o‘zini ayblash kuchli bo‘lishi mumkin. Bu salbiy kechinmalarning ichki yo‘nalishda to‘planayotganini ko‘rsatadi.

Tashqi va ichki yo‘nalgan tajovuzkorlikni farqlash alohida ahamiyatga ega. Tashqi yo‘nalgan profil nizolashish, keskin so‘zlash, jismoniy reaksiya va qarshilik orqali namoyon bo‘ladi. Ichki yo‘nalgan profilda ranjish, o‘zini ayblash, aybdorlik, ishonchsizlik va hissiy chekinish ustunlik qiladi. Ikkinchi holat ochiq xulqiy buzilishlar kamligi sababli pedagoglar e’tiboridan chetda qolishi mumkin. Maktab psixologi ochiq tajovuzkor xatti-harakatlar bilan bir qatorda ichki-emotsional belgilarni ham kuzatishi zarur [13; 15].

Kompleks diagnostika natijalari o‘smirlarda tajovuzkorlikning tashqi va ichki shakllari, psixik holatlar, shaxsiy-regulyativ sifatlar hamda stressni yengish strategiyalari o‘zaro bog‘liq tizim ekanini ko‘rsatadi. Maktablar kesimida tajovuzkorlik, ayrim shaxsiy sifatlar va koping strategiyalari bo‘yicha, shahar–tuman kesimida esa jismoniy va verbal tajovuz, xafagarchilik, aybdorlik hamda xavotirlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ahamiyatli tafovutlar mavjud [15; 16].

2-jadval: **Xavfni kuchaytiruvchi va kamaytiruvchi psixologik ko‘rsatkichlar**

Yo‘nalish	Xavfni kuchaytiruvchi uyg‘unlik	Himoya resurslari	Diagnostik talqin
Tajovuzkorlik	Jismoniy yoki verbal tajovuzning tajanglik, negativizm va xafagarchilik bilan barqaror birikishi	Nizoni so‘z orqali hal etish, g‘azabni nazorat qilish, oqibatni baholash	Tashqi xulqiy zo‘riqish darajasi
Ichki-emotsional holat	Shubhalanuvchanlik, aybdorlik, xavotir va o‘zini ayblashning birga kuchayishi	Hissiy ifoda, o‘ziga qo‘llab-quvvatlovchi munosabat, yordam so‘rash	Salbiy kechinmalarning o‘ziga yo‘nalishi ehtimoli
Regulyativ imkoniyat	Rigidlik, past hissiy barqarorlik, zaif nazorat va yuqori zo‘riqish	Moslashuvchan fikrlash, o‘zini nazorat qilish, muvozanatni tiklash	Impuls va hissiyotlarni boshqarish darajasi
Koping	Inkor etish, chekinish, o‘zini ayblash, psixoaktiv vositalar orqali qochish	Faol yechim, rejalashtirish, yordam izlash, qabul qilish	Stressni yengish usulining funksionalligi

Yuqori tajovuzkorlik yoki xavotirlanish natijasi o‘z-o‘zicha suitsidal xulq mavjudligini bildirmaydi. Xavf to‘g‘risidagi xulosa salbiy ko‘rsatkichlarning barqarorligi, ularning bir-birini tasdiqlashi, himoya resurslarining yetishmasligi, individual suhbat va real hayotiy vaziyat haqidagi ma’lumotlar asosida shakllantirilishi lozim. Ayniqsa, ochiq tajovuz past bo‘lsa-da, xafagarchilik, aybdorlik, xavotir, o‘zini ayblash va chekinish kuchli bo‘lgan ichki yo‘nalgan profil pedagogik-psixologik e’tiborni talab qiladi [7; 10; 14; 16].

Profilaktik ishlar differensial tashkil etilib, tashqi tajovuz ustun bo‘lgan o‘smirlarda impuls va g‘azabni boshqarish, nizoni konstruktiv hal etish; ichki-emotsional zo‘riqish ustun bo‘lganlarda esa hissiy ifoda, o‘ziga nisbatan qo‘llab-quvvatlovchi munosabat, yordam so‘rash va moslashuvchan koping ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq [13; 15].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Амбрумова А. Г. Суицидальное поведение как объект комплексного изучения // Комплексные исследования в суицидологии. - М., 1986. - С. 7–25.
2. Вроно Е. М. Предотвращение самоубийства подростков: руководство для подростков. - М.: Академический проект, 2001. - 40 с.
3. Buss A. H., Durkee A. An Inventory for Assessing Different Kinds of Hostility // Journal of Consulting Psychology. - 1957. - Vol. 21, No. 4. - P. 343–349.
4. Cattell R. B., Eber H. W., Tatsuoka M. M. Handbook for the Sixteen Personality Factor Questionnaire (16PF). - Champaign, IL: Institute for Personality and Ability Testing, 1970. - 392 p.
5. Carver C. S. You Want to Measure Coping but Your Protocol’s Too Long: Consider the Brief COPE // International Journal of Behavioral Medicine. - 1997. - Vol. 4, No. 1. - P. 92–100.
6. Beck A. T., Kovacs M., Weissman A. Hopelessness and Suicidal Behavior: An Overview // JAMA. - 1975. - Vol. 234, No. 11. - P. 1146–1149.
7. O’Connor R. C., Nock M. K. The Psychology of Suicidal Behaviour // The Lancet Psychiatry. - 2014. - Vol. 1, No. 1. - P. 73–85.
8. Lazarus R. S., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. - New York: Springer, 1984. - 445 p.
9. Joiner T. Why People Die by Suicide. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 2005. - 276 p.
10. Klonsky E. D., May A. M., Saffer B. Y. Suicide, Suicide Attempts, and Suicidal Ideation // Annual Review of Clinical Psychology. - 2016. - Vol. 12. - P. 307–330.
11. Nock M. K. et al. Cross-National Prevalence and Risk Factors for Suicidal Ideation, Plans and Attempts // The British Journal of Psychiatry. - 2008. - Vol. 192, No. 2. - P. 98–105.
12. Nahalboyeva N.T., Qarshiboyeva G.A. O‘smirlarda depressiv xulqning psixologik muammolari // Pedagogik mahorat. – 2023. – № 11. – B. 8–13.
13. Nahalboyeva N.T., Qarshiboyeva G.A. O‘smirlik davrida agressiv xulqni psixologik korreksiya qilish omillari // Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Vol. 2, Special Issue 12. – B. 181–185.
14. Nahalboyeva N.T., Qarshiboyeva G.A. Современный анализ и факторы суицидального поведения у подростков // Journal of International Scientific Research. – 2024. – Vol. 1, Issue 3. – P. 296–301.
15. Nahalboyeva N.T., Po‘latova R. O‘smirlarda tajovuzkorlik xulqining suitsidal xatti-harakatlar shakllanishidagi ijtimoiy-psixologik determinantlari // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. – 2026. – № 1, 1-qism. – B. 217–221.
16. Nahalboyeva N.T. O‘smirlarda suitsidal xulqning ijtimoiy-psixologik omillari // “Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2026. – B. 594–599.

RAQAMLI MUHITDA YOSHLAR IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

UDK: 316.6:004.738.5

Sangirova Nilufar Sayfidinovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
"Psixologiya" kafedrasi stajyor o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli muhit sharoitida yoshlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida yoshlarning ijtimoiy munosabatlari, kommunikativ faoliyati, o'z-o'zini anglashi va ijtimoiy identifikatsiyasi yangi mazmun kasb etmoqda. Maqolada raqamli muhitning yoshlar ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi asosiy psixologik mexanizmlari - identifikatsiya, taqlid, ijtimoiy taqqoslash, refleksiya, kommunikatsiya va o'zini namoyon qilish jarayonlari tahlil qilinadi. Raqamli muhitning ijobiy imkoniyatlari bilan bir qatorda, muammoli ijtimoiy tarmoqdan foydalanish, kiberbulling, ijtimoiy taqqoslash, virtual identifikatsiya, axborot ortiqchaligi va real ijtimoiy aloqalarning susayishi kabi xavflar ham yoritilgan. Tadqiqot natijasida raqamli muhit yoshlar ijtimoiylashuviga bir tomonlama emas, balki individual-psixologik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda ta'sir ko'rsatishi asoslangan. Yoshlarning raqamli psixologik barqarorligini ta'minlash uchun media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, kommunikativ kompetentlik va raqamli madaniyatni rivojlantirish zarurligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli muhit, yoshlar, ijtimoiylashuv, ijtimoiy psixologiya, virtual kommunikatsiya, ijtimoiy identifikatsiya, ijtimoiy taqqoslash, o'z-o'zini anglash, raqamli madaniyat, media savodxonlik.

Abstract: The article theoretically analyzes the psychological characteristics of youth socialization in the digital environment. The development of digital technologies has transformed young people's social relationships, communication activity, self-awareness and social identity. The article examines the main psychological mechanisms of digital socialization, including identification, imitation, social comparison, reflection, communication and self-presentation. Alongside the positive opportunities provided by the digital environment, potential psychological risks such as problematic social media use, cyberbullying, excessive social comparison, virtual identification, information overload and weakening of offline social contacts are discussed. The analysis demonstrates that the influence of the digital environment should not be viewed as exclusively positive or negative, but in relation to individual psychological and social factors. The importance of developing digital culture, media literacy, critical thinking and communicative competence among young people is emphasized.

Key words: digital environment, youth, socialization, social psychology, virtual communication, social identification, social comparison, self-awareness, digital culture, media literacy.

Аннотация: В статье теоретически анализируются психологические особенности социализации молодежи в условиях цифровой среды. В связи с развитием цифровых технологий социальные отношения, коммуникативная активность, самосознание и социальная идентичность молодежи приобретают новое содержание. Рассматриваются основные психологические механизмы цифровой социализации: идентификация, подражание, социальное сравнение, рефлексия, коммуникация и самопрезентация. Наряду с положительными возможностями цифровой среды анализируются потенциальные психологические риски, включая проблематичное использование социальных сетей, кибербуллинг, чрезмерное социальное сравнение, виртуальную идентификацию, информационную перегрузку и ослабление реальных социальных контактов. Обосновывается необходимость рассматривать влияние цифровой среды с учетом индивидуально-психологических и социальных факторов. Предлагается развивать цифровую культуру, медиаграмотность, критическое мышление и коммуникативную компетентность молодежи.

Ключевые слова: цифровая среда, молодежь, социализация, социальная психология, виртуальная коммуникация, социальная идентификация, социальное сравнение, самосознание, цифровая культура, медиаграмотность.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi insonning ijtimoiy hayoti, kommunikativ faoliyati va shaxsiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, videoplatformalar, onlayn ta'lim tizimlari va sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar raqamli texnologiyalardan faol foydalanuvchi ijtimoiy guruh sifatida ushbu jarayonning eng faol ishtirokchilaridan hisoblanadi.

An'anaviy ijtimoiylashuv jarayonida oila, ta'lim muassasasi, tengdoshlar guruhi, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar asosiy ijtimoiylashuv agentlari sifatida qaralgan. Raqamli transformatsiya esa ushbu tizimga virtual hamjamiyatlar, ijtimoiy tarmoqlar, blogerlar, onlayn guruhlar va raqamli kontent yaratuvchilarini ham qo'shmoqda.

Shu sababli zamonaviy yoshning ijtimoiylashuvini faqat real ijtimoiy muhit doirasida o'rganish yetarli emas. Yosh inson bugungi kunda bir vaqtning o'zida real va virtual ijtimoiy makonlarda faoliyat yuritadi. U oilasi, do'stlari va ta'lim muassasasi bilan real munosabatlarda bo'lishi bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarda turli guruhlar bilan virtual muloqot qilishi mumkin.

Raqamli muhit yoshlarning ijtimoiy tajribasini kengaytirish, yangi bilimlarni egallash, qiziqishlariga mos guruhlarni topish, o'zini namoyon qilish va kasbiy aloqalar o'rnatish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, raqamli makonda ijtimoiy taqqoslash, kiberbulling, muammoli ijtimoiy tarmoqdan foydalanish va zararli kontentga duch kelish kabi xavflar mavjud.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2024-yilgi HBSC ma'lumotlariga ko'ra, 2021/2022-yillarda o'tkazilgan tadqiqotda 44 mamlakat va hududdan qariyb 280 ming nafar 11, 13 va 15 yoshli o'smir qatnashgan. Tadqiqotda muammoli ijtimoiy tarmoqdan foydalanish darajasi 2018-yildagi 7 foizdan 2022-yilda 11 foizga oshgani qayd etilgan.

Biroq mazkur ko'rsatkich raqamli texnologiyalarning o'zi yoshlar uchun zararli ekanini anglatmaydi. Aksincha, WHO texnologiyalarning yoshlar ruhiy salomatligiga ta'siri murakkab va ikki tomonlama ekanini, ya'ni ayrim raqamli faoliyatlar ijobiy imkoniyatlar yaratishi bilan birga muayyan xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Shu nuqtayi nazardan raqamli muhitda yoshlar ijtimoiylashuvining psixologik mexanizmlarini o'rganish zamonaviy psixologiya fanining dolzarb masalalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiylashuv tushunchasi psixologiya, sotsiologiya va pedagogika fanlari doirasida keng o'rganilgan. G.M. Andreyeva ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan shaxsning ijtimoiy muhit bilan o'zaro munosabatlari, guruhlar va shaxslararo munosabatlar masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

A.V. Mudrik ijtimoiylashuvni shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishi bilan bog'liq murakkab jarayon sifatida talqin qiladi.

A. Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi esa inson xulq-atvorining kuzatish, taqlid va modellashtirish orqali shakllanishiga e'tibor qaratadi. Mazkur yondashuv raqamli muhitda yoshlarning blogerlar, mashhur shaxslar va virtual guruhlar xulq-atvor modellarini o'zlashtirishini tushuntirish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

H. Tajfel va J. Turner tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi shaxsning o'zini muayyan ijtimoiy guruhga mansub deb bilishi va shu guruh bilan bog'liq qadriyatlarni qabul qilish jarayonlarini tushuntiradi. Raqamli muhitda virtual guruhlarning ko'payishi ushbu nazariyaning zamonaviy sharoitdagi ahamiyatini oshirmoqda.

S. Turkle raqamli kommunikatsiya va insonlararo munosabatlarning o'zgarishini tadqiq etib, texnologiyalarning insonning yolg'izlik, yaqinlik va muloqot tajribasiga ta'sirini tahlil qilgan.

D. Boyd esa tarmoq muhitidagi yoshlarning ijtimoiy hayotini o'rganib, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar uchun oddiy axborot almashish vositasi emas, balki o'ziga xos ijtimoiy makon ekanini ko'rsatgan.

Mazkur nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda raqamli ijtimoiylashuvni shaxsning raqamli muhitdagi kommunikatsiyasi, ijtimoiy tajribani o'zlashtirishi, identifikatsiyasi va o'zini namoyon qilish jarayonlarining majmui sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Tadqiqot maqsadi: Raqamli muhitda yoshlar ijtimoiylashuvining psixologik xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda raqamli kommunikatsiyaning yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi, o'z-o'zini anglashi va shaxslararo munosabatlariga ta'sir etuvchi asosiy psixologik mexanizmlarini aniqlash.

TADQIQOT VAZIFALARI

- ijtimoiylashuv tushunchasining psixologik mazmunini ochib berish;
- raqamli muhitning yoshlar ijtimoiylashuviga ta'sirini tahlil qilish;
- virtual kommunikatsiyaning psixologik xususiyatlarini aniqlash;
- raqamli muhitda ijtimoiy identifikatsiya jarayonini tahlil qilish;
- ijtimoiy taqqoslash va o'z-o'zini baholash o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni yoritish;
- raqamli ijtimoiylashuvning ijobiy va salbiy jihatlarini aniqlash;
- yoshlarning raqamli psixologik barqarorligini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolani tayyorlashda nazariy tahlil, ilmiy manbalarni o'rganish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish va kontent-tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini ijtimoiylashuv nazariyalari, ijtimoiy o'rganish nazariyasi, ijtimoiy identifikatsiya nazariyasi hamda zamonaviy raqamli kommunikatsiyaning psixologik xususiyatlariga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi.

Maqolada raqamli ijtimoiylashuv quyidagi o'zaro bog'liq komponentlar asosida tahlil qilindi:

Raqamli muhit → kommunikatsiya → ijtimoiy taqqoslash → identifikatsiya → o'z-o'zini anglash → ijtimoiy xulq-atvor.

Mazkur model raqamli muhitning yoshlar shaxsiga ta'sirini oddiy "foydali yoki zararli" qarama-qarshiligi orqali emas, balki bir nechta psixologik jarayonlarning o'zaro ta'siri orqali tushuntirish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Raqamli muhit - zamonaviy ijtimoiylashuv makoni sifatida

Raqamli muhit yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini makon va vaqt jihatidan kengaytirmoqda. Real hayotda insonning ijtimoiy aloqalari ko'pincha oila, ta'lim muassasasi, ish joyi va yashash hududi bilan chegaralansa, virtual muhitda geografik chegaralar sezilarli darajada kamayadi.

Yosh inson o'zining qiziqishlariga mos guruhlarni dunyoning istalgan hududidan topishi mumkin. Masalan, psixologiya, sport, musiqa, ta'lim, kasbiy rivojlanish yoki ijodga qiziqadigan yoshlar o'zlariga mos virtual hamjamiyatlarda ishtirok etishlari mumkin.

Bu jarayon shaxsning ijtimoiy tajribasini boyitadi. Turli qarashlar bilan tanishish, boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilish va yangi ijtimoiy rollarni sinab ko'rish imkoniyati paydo bo'ladi.

Biroq virtual makondagi ijtimoiy tajriba real hayotdagi tajribaning to'liq o'rnini bosa olmaydi. Yuzma-yuz muloqotda mavjud bo'lgan emotsional va noverbal signallar virtual muloqotda cheklangan bo'lishi mumkin.

Shuning uchun sog'lom ijtimoiylashuv uchun virtual va real ijtimoiy faoliyat o'rtasidagi muvozanat muhim hisoblanadi.

2. Raqamli ijtimoiylashuvning psixologik mexanizmlari

Identifikatsiya

Identifikatsiya shaxsning o'zini boshqa shaxs yoki ijtimoiy guruh bilan psixologik jihatdan bog'lash jarayonidir.

Raqamli muhitda yoshlar turli virtual guruhlarga mansublik hissini boshdan kechirishi mumkin. Masalan, ma'lum musiqiy yo'nalish muxlislari, sport guruhlari, kasbiy hamjamiyatlar yoki ta'lim guruhlari yoshning ijtimoiy identifikatsiyasiga ta'sir qilishi mumkin.

Taqlid

Yoshlar raqamli kontent orqali boshqa insonlarning xulq-atvorini kuzatadi. Blogerlar, sportchilar, san'atkorlar va boshqa ommaviy shaxslarning hayot tarzi ayrim yoshlar uchun xulq-atvor modeli bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Banduraning ijtimoiy o'rganish nazariyasi nuqtayi nazaridan kuzatish va taqlid inson xulq-atvorining shakllanishida muhim mexanizmlardan biridir.

Ijtimoiy taqqoslash

Raqamli makonda boshqa insonlarning yutuqlari, tashqi ko'rinishi, turmush tarzi va ijtimoiy mavqei haqida katta hajmdagi axborot mavjud.

Agar yosh inson o'zini doimiy ravishda idealizatsiya qilingan virtual obrazlar bilan taqqoslasa, o'zidan norozilik paydo bo'lishi mumkin. Aksincha, boshqa insonlarning yutuqlari motivatsiya manbai sifatida qabul qilinsa, ijobiy rivojlanish omiliga aylanishi mumkin.

O'zini namoyon qilish

Virtual muhit shaxsga o'zining ma'lum obrazini yaratish va uni boshqalarga taqdim etish imkonini beradi.

Profil rasmi, bio, postlar, videolar va boshqa kontentlar orqali yosh o'zining "virtual Men"ini shakllantiradi.

Bu jarayon o'z-o'zini anglashning rivojlanishiga xizmat qilishi mumkin. Biroq virtual obraz bilan real shaxs o'rtasidagi katta tafovut psixologik nomutanosiblikni keltirib chiqarishi ehtimolini ham oshiradi.

3. Ijtimoiy taqqoslash va o'z-o'zini baholash

Yosh davrida o'z-o'zini baholashning shakllanishi muhim psixologik jarayonlardan biridir. Inson o'zining qobiliyatlari, tashqi ko'rinishi, ijtimoiy mavqei va yutuqlarini boshqalar bilan taqqoslash orqali o'ziga baho beradi.

Raqamli muhit bunday taqqoslashlar sonini sezilarli darajada oshiradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda insonlar odatda hayotining ijobiy va muvaffaqiyatli tomonlarini ko'proq namoyish etadi. Natijada boshqa foydalanuvchi real hayotini virtual "ideal hayot" bilan taqqoslashi mumkin.

Bunday taqqoslash o'z-o'zini baholashning pasayishi, norozilik yoki psixologik bosimni kuchaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, ijtimoiy taqqoslash ijobiy funksiyaga ham ega. Yosh inson boshqa shaxslarning muvaffaqiyatlarini kuzatib, o'z oldiga yangi maqsadlar qo'yishi mumkin.

Demak, asosiy masala taqqoslashning mavjudligi emas, balki uning mazmuni va shaxs tomonidan qanday talqin qilinishidir.

4. Virtual kommunikatsiya va shaxslararo munosabatlar

Virtual kommunikatsiyaning asosiy afzalligi - tezkorlik va qulaylikdir. Yoshlar istalgan vaqtda o'zaro muloqot qilishi, fikr almashishi va guruhiy faoliyatda ishtirok etishi mumkin.

Raqamli kommunikatsiya ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Bir xil qiziqish yoki muammoga ega insonlar o'zaro tajriba almashishi mumkin.

Biroq virtual muloqotda emotsional signallarning bir qismi yo'qolishi mumkin. Natijada xabarni noto'g'ri tushunish, konflikt va kommunikativ to'siqlar yuzaga kelishi mumkin.

Bundan tashqari, real hayotdagi muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish ham muhimdir. Shaxsning faqat virtual muloqotga tayanishi uning yuzma-yuz muloqotdagi ayrim kompetensiyalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib kelishi mumkin.

5. Raqamli muhitning ijobiy psixologik imkoniyatlari

Raqamli muhit yoshlarning ijtimoiylashuviga quyidagi ijobiy ta'sirlarni ko'rsatishi mumkin:

1. Ijtimoiy aloqalarni kengaytiradi.
2. Bilim va axborot olish imkoniyatlarini oshiradi.
3. O'zini namoyon qilish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.
4. Kasbiy hamjamiyatlarga kirish imkonini beradi.
5. Ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi.
6. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash manbalarini ko'paytiradi.
7. Turli madaniyatlar bilan tanishish imkonini beradi.
8. Mustaqil ta'lim olishni qo'llab-quvvatlaydi.

WHO ma'lumotlarida ham ijtimoiy tarmoqlardan og'ir, ammo muammosiz foydalanuvchi o'smirlar tengdoshlari tomonidan ko'proq ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va aloqadorlikni his qilishi mumkinligi qayd etilgan.

Demak, raqamli muhitning ta'siri foydalanishning miqdoridan tashqari, uning sifati va maqsadiga ham bog'liq.

6. Raqamli muhitning psixologik xavflari

Raqamli muhitning asosiy xavflaridan biri - muammoli foydalanishdir.

Muammoli ijtimoiy tarmoqdan foydalanishda inson foydalanish vaqtini nazorat qilishda qiynalishi, boshqa faoliyatlarni ikkinchi darajaga surishi va foydalanishni kamaytirishga uringanda noqulaylik his qilishi mumkin.

WHO 2024-yilgi ma'lumotlarida o'smirlarning 11 foizida muammoli ijtimoiy tarmoqdan foydalanish belgilari aniqlangani, bu ko'rsatkich 2018-yilda 7 foiz bo'lganligi ko'rsatilgan.

Yana bir xavf - kiberbulling. Virtual muhitda haqorat, tahdid, masxara yoki shaxsga qarshi salbiy kontent tarqatilishi yoshlarning emotsional holatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. WHO/Europe ma'lumotlariga ko'ra, raqamli aloqa kengayishi bilan kiberbulling muammosi ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Bundan tashqari, algoritmik tavsiya tizimlari yoshlarni muayyan turdagi kontent bilan qayta-qayta uchrashtirishi mumkin. Shu sababli media savodxonlik va tanqidiy fikrlash raqamli psixologik xavfsizlikning muhim omillariga aylanmoqda.

7. Raqamli muhit va yoshlarning psixologik barqarorligi

Psixologik barqarorlik shaxsning tashqi ta'sirlar sharoitida o'z emotsional holatini boshqarishi, stressga moslashishi va maqsadga yo'naltirilgan faoliyatni davom ettira olishi bilan bog'liq.

Raqamli muhitda psixologik barqarorlikni shakllantirish uchun yoshlar:

- axborot manbalarini tanqidiy baholashi;
- virtual va real hayot o'rtasidagi farqni anglay olishi;
- ijtimoiy tarmoqlardagi bahoni shaxsiy qadr-qimmat mezoni sifatida qabul qilmasligi;
- ekran vaqtini boshqarishi;
- real ijtimoiy aloqalarni saqlashi;
- kiberbulling holatlarida yordam so'rashni bilishi;
- o'z emotsiyalarini anglash va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur.

WHOning 2025-yilgi siyosiy tahlilida ham raqamli texnologiyalarning yoshlar farovonligiga ta'siri murakkab ekani va individual hamda muhit omillari bu ta'sirni shakllantirishi qayd etilgan. Shu sababli muammoni faqat "ekran vaqtini kamaytirish" bilan cheklash emas, balki yoshlarning raqamli muhitdagi tajribasi sifatini yaxshilash muhimdir.

Nazariy tahlil natijalari raqamli muhit yoshlar ijtimoiylashuvining mustaqil va tobora muhimlashib borayotgan omiliga aylanayotganini ko'rsatadi.

Mazkur jarayonni quyidagi psixologik zanjir orqali ifodalash mumkin:

Raqamli ta'sir → axborotni qabul qilish → ijtimoiy taqqoslash → identifikatsiya → o'z-o'zini baholash → ijtimoiy xulq-atvor.

Biroq ushbu zanjir barcha yoshlar uchun bir xil ishlamaydi. Uning natijasi shaxsning yoshi, individual-psixologik xususiyatlari, oilaviy munosabatlari, tengdoshlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, media savodxonligi va raqamli muhitdan foydalanish motivlariga bog'liq.

Shu sababli raqamli ijtimoiylashuvning psixologik modelida uchta darajani ajratish mumkin:

1. **Individual daraja** - o'z-o'zini baholash, emotsional barqarorlik, motivatsiya, tanqidiy fikrlash.
2. **Guruhiy daraja** - tengdoshlar, virtual hamjamiyatlar, ijtimoiy identifikatsiya va kommunikativ munosabatlar.
3. **Ijtimoiy daraja** - oila, ta'lim muassasasi, jamiyat, raqamli platformalar va madaniy qadriyatlar.

Ushbu uch darajaning o'zaro ta'siri yoshlarning raqamli muhitdagi ijtimoiylashuv xususiyatlarini belgilaydi.

Maqolaning ilmiy jihatdan muhim xulosasi shundan iboratki, raqamli muhitni yoshlar ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi yagona sabab sifatida emas, balki individual va ijtimoiy omillar bilan o'zaro ta'sirlashuvchi psixologik muhit sifatida ko'rib chiqish zarur.

Ilmiy yangilik

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1. Yoshlar raqamli ijtimoiylashuvining asosiy psixologik mexanizmlari tizimlashtirildi.
2. Raqamli muhitning yoshlar ijtimoiylashuviga ta'siri "raqamli ta'sir - kommunikatsiya - ijtimoiy taqqoslash - identifikatsiya - o'z-o'zini anglash - ijtimoiy xulq-atvor" modeli asosida konseptual jihatdan izohlandi.

3. Raqamli muhitning psixologik ta'siri faqat texnologiyadan foydalanish davomiyligi bilan emas, balki undan foydalanish mazmuni, motivi va shaxsning individual-psixologik xususiyatlari bilan bog'liqligi asoslandi.
4. Yoshlarning raqamli psixologik barqarorligini ta'minlashda media savodxonlik, tanqidiy fikrlash va real ijtimoiy munosabatlarni qo'llab-quvvatlashning ahamiyati ko'rsatildi.

Amaliy ahamiyati

Maqolada ilgari surilgan nazariy xulosalardan oliy ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini tashkil etishda foydalanish mumkin.

Shuningdek, psixologlar, pedagoglar va ota-onalar uchun yoshlarning raqamli muhitdan foydalanishini psixologik jihatdan to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan treninglar ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Talabalar uchun "Raqamli muhitda psixologik xavfsizlik", "Ijtimoiy tarmoqlar va o'z-o'zini baholash", "Virtual va real muloqot", "Media savodxonlik va tanqidiy fikrlash" kabi trening mashg'ulotlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi yoshlar ijtimoiylashuvining mazmuni va shakllarini o'zgartirmoqda. Zamonaviy yosh bir vaqtning o'zida real va virtual ijtimoiy muhitlarda faoliyat yuritadi.

Raqamli muhit yoshlarning ijtimoiy aloqalarini kengaytirish, bilim olish, o'zini namoyon qilish, ijodiy va kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, muammoli ijtimoiy tarmoqdan foydalanish, kiberbulling, ijtimoiy taqqoslash, virtual identifikatsiya va axborot ortiqchaligi kabi psixologik xavflarni ham yuzaga keltirishi mumkin.

Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, raqamli muhitning yoshlar ijtimoiylashuviga ta'siri bir tomonlama emas. Uning natijasi shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, foydalanish motivlari, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi, media savodxonligi va raqamli muhitdagi faoliyat mazmuniga bog'liq.

Shu sababli yoshlarni raqamli muhitdan butunlay cheklash emas, balki ularda raqamli madaniyat, media savodxonlik, tanqidiy fikrlash, emotsional o'zini boshqarish va kommunikativ kompetentlikni shakllantirish muhimdir.

Ta'lim muassasalarida raqamli psixologik xavfsizlik bo'yicha profilaktik va rivojlantiruvchi dasturlarni tashkil etish, ota-onalar va pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, yoshlarning real ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Kelgusidagi empirik tadqiqotlarda yoshlarning raqamli muhitdan foydalanish darajasi, ijtimoiy identifikatsiyasi, o'z-o'zini baholashi, emotsional intellekti va psixologik farovonligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklarni aniqlash ushbu yo'nalishning ilmiy asoslarini yanada boyitadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Андреева Г.М. Социальная психология. - М.: Аспект Пресс, 2001.
2. Бандура А. Теория социального научения. - СПб.: Евразия, 2000.
3. Выготский Л.С. Психология развития человека. - М.: Смысл; Эксмо, 2005.
4. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Смысл, 2005.
5. Мудрик А.В. Социализация человека. - М.: Академия, 2011.
6. Tajfel H., Turner J.C. The Social Identity Theory of Intergroup Behavior // Psychology of Intergroup Relations. - Chicago: Nelson-Hall, 1986.
7. Bandura A. Social Learning Theory. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
8. Castells M. The Rise of the Network Society. - 2nd ed. - Oxford: Wiley-Blackwell, 2010.
9. Turkle S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. - New York: Basic Books, 2011.
10. Boyd D. It's Complicated: The Social Lives of Networked Teens. - New Haven: Yale University Press, 2014.
11. Valkenburg P.M., Peter J. Social Consequences of the Internet for Adolescents: A Decade of Research // Current Directions in Psychological Science. - 2009. - Vol. 18. - No. 1. - P. 1–5.
12. World Health Organization Regional Office for Europe. A focus on adolescent social media use and gaming in Europe, central Asia and Canada: Health Behaviour in School-aged Children international report from the 2021/2022 survey. Volume 6. - Copenhagen: WHO Regional Office for Europe, 2024.
13. World Health Organization Regional Office for Europe. Addressing the digital determinants of youth mental health and well-being: policy brief. - Copenhagen: WHO Regional Office for Europe, 2025.
14. World Health Organization Regional Office for Europe. Teens, screens and mental health: New WHO report indicates need for healthier online habits among adolescents. - Copenhagen, 2024.
15. World Health Organization Regional Office for Europe. One in six school-aged children experiences cyberbullying. - Copenhagen, 2024.
16. World Health Organization Regional Office for Europe. Mental health: Digital mental health of adolescents. - 2026.

O‘SMIRLIK DAVRIDA PSIXOLOGIK O‘ZGARISHLAR: OMILLAR, XUSUSIYATLAR VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Usmonova Munira Sayfiddinovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘smirlik davrida yuzaga keladigan asosiy psixologik o‘zgarishlar hamda ularning biologik, ijtimoiy va psixologik omillar bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilingan. O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining murakkab va dinamik bosqichlaridan biri sifatida o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi, mustaqillikka intilishning kuchayishi, tengdoshlar bilan munosabatlar ahamiyatining ortishi, emotsional holatlarning o‘zgaruvchanligi hamda kognitiv jarayonlarning sifat jihatdan qayta tashkil topishi bilan tavsiflanadi. Maqolada o‘smirlarning kattalar bilan munosabatlaridagi o‘zgarishlar, o‘zini o‘zi baholash xususiyatlari, muloqotga bo‘lgan ehtiyoj, o‘quv faoliyatiga munosabat hamda zamonaviy axborot va internet muhitining ularning psixologik rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, o‘smirlarning barqaror psixologik rivojlanishini ta’minlash, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik qiyinchiliklarning oldini olish va ularga o‘z vaqtida psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatishda ota-onalar, pedagoglar hamda maktab psixologi o‘rtasidagi tizimli hamkorlikning ahamiyati asoslangan.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, psixologik o‘zgarishlar, o‘zini o‘zi anglash, mustaqillik, emotsional holat, tengdoshlar, kognitiv jarayonlar, tafakkur, diqqat, muloqot, psixologik xizmat, axborot muhiti, internet muhiti.

Abstract: This article analyzes the major psychological changes occurring during adolescence and their interrelationship with biological, social, and psychological factors. Adolescence is considered one of the most complex and dynamic stages of personality development, characterized by the development of self-awareness, an increasing desire for independence, the growing importance of peer relationships, emotional variability, and the qualitative restructuring of cognitive processes. Particular attention is given to changes in adolescents’ relationships with adults, characteristics of self-esteem, the need for communication, attitudes toward learning activities, and the influence of the contemporary information and Internet environment on psychological development. The article also substantiates the importance of systematic cooperation among parents, teachers, and school psychologists in promoting adolescents’ stable psychological development, preventing potential psychological difficulties, and providing timely psychological and pedagogical support.

Key words: adolescence, psychological changes, self-awareness, independence, emotional state, peers, cognitive processes, thinking, attention, communication, psychological services, information environment, Internet environment.

Аннотация: В статье анализируются основные психологические изменения, происходящие в подростковом возрасте, а также их взаимосвязь с биологическими, социальными и психологическими факторами. Подростковый возраст рассматривается как один из наиболее сложных и динамичных этапов развития личности, характеризующийся развитием самосознания, усилением стремления к самостоятельности, возрастанием значимости взаимоотношений со сверстниками, изменчивостью эмоциональных состояний и качественной перестройкой когнитивных процессов. Особое внимание уделяется изменениям во взаимоотношениях подростков со взрослыми, особенностям самооценки, потребности в общении, отношению к учебной деятельности, а также влиянию современной информационной и интернет-среды на их психологическое развитие. Обоснована значимость системного взаимодействия родителей, педагогов и школьного психолога в обеспечении устойчивого психологического развития подростков, профилактике возможных психологических трудностей и оказании своевременной психолого-педагогической помощи.

Ключевые слова: подростковый возраст, психологические изменения, самосознание, самостоятельность, эмоциональное состояние, сверстники, когнитивные процессы, мышление, внимание, общение, психологическая служба, информационная среда, интернет-среда.

KIRISH

O‘smirlik davri inson ontogenezining o‘ziga xos va murakkab bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda bolaning psixologik qiyofasi sezilarli darajada o‘zgaradi. Mazkur bosqichda jismoniy yetilish bilan bir qatorda shaxsning ijtimoiy mavqeyi, o‘z-o‘ziga munosabati, tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti, qiziqishlari hamda hayotiy qarashlari shakllana boshlaydi. Shu sababli o‘smirlik davrini faqat biologik o‘zgarishlar bilan bog‘lash yetarli emas. Undagi psixologik o‘zgarishlar biologik yetilish, ijtimoiy muhit, oilaviy munosabatlar, ta’lim jarayoni va shaxsning individual xususiyatlari o‘zaro ta’sirining natijasi sifatida qaralishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Odatda o‘smirlik davri 11–15 yosh oralig‘ini qamrab oladi. Biroq ushbu chegaralar barcha bolalar uchun bir xil emas. Chunki biologik yetilish sur’ati, oiladagi tarbiya sharoiti, ijtimoiy tajriba, individual-psixologik xususiyatlar va ta’lim muhiti o‘smirning rivojlanish sur’atiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

O‘smirlik davrining muhim jihatlaridan biri shundaki, bola o‘zini endi kichik yoshdagi bola sifatida qabul qilishni istamaydi. U kattalarga xos huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishga intiladi. Shu bilan birga, uning hayotiy tajribasi va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari hali yetarlicha shakllanmagan bo‘lishi mumkin. Natijada o‘smirning istaklari bilan mavjud imkoniyatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga keladi[1].

Mazkur qarama-qarshiliklar ayrim hollarda o‘smir xulq-atvorida qaysarlik, norozilik, tez ranjish, kattalar fikriga qarshi chiqish, hissiy keskinlik va muloqotdagi nizolar ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Biroq bunday holatlarning barchasini salbiy xulq sifatida baholash to‘g‘ri emas. Chunki mustaqillikka intilish, o‘z fikrini himoya qilish va o‘zligini anglashga bo‘lgan ehtiyoj shaxs rivojlanishining tabiiy ko‘rinishlaridir.

Bugungi kunda o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlarini o‘rganish yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki zamonaviy o‘smir nafaqat real ijtimoiy muhit, balki virtual axborot makonining ham faol ishtirokchisiga aylanmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya o‘smirlarning muloqot qilish, o‘zini namoyon etish va atrofdagi voqelikni baholash usullariga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, o‘smirlik davridagi psixologik o‘zgarishlarni kompleks o‘rganish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash va o‘smirga psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish zamonaviy maktab psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir.

O‘smirlik davrida shaxs rivojlanishining o‘ziga xosligi.

O‘smirlik davrida bolaning shaxs sifatida rivojlanishida muhim sifat o‘zgarishlari yuz beradi. Avvalo, o‘smir o‘zining boshqalardan farqli individual xususiyatlarini anglay boshlaydi. U o‘zining qobiliyatlari, tashqi ko‘rinishi, xarakteri, kuchli va zaif tomonlari haqida ko‘proq fikr yuritadi.

O‘z-o‘zini anglashning rivojlanishi o‘smirning o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishiga imkon beradi. U “Men qandayman?”, “Boshqalar meni qanday baholaydi?”, “Kelajakda kim bo‘laman?” kabi savollar haqida o‘ylay boshlaydi. Natijada o‘z-o‘zini baholash jarayoni ham faollashadi.

Ayrim hollarda o‘smirning real imkoniyatlari bilan o‘zi haqidagi tasavvurlari o‘rtasida tafovut yuzaga keladi. Masalan, u o‘z qobiliyatlarini yuqori baholashi, biroq kerakli bilim va ko‘nikmalarni hali to‘liq egallamagan bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda kattalarning keskin tanqidi o‘smirda qarshilikni kuchaytirishi ehtimoli mavjud[2].

Shuning uchun o‘smir bilan ishlashda uning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilish, xatolarini shaxsiyatiga qarshi yo‘naltirmasdan, xatti-harakatlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqillikka intilish va kattalar bilan munosabatlarning o‘zgarishi

O‘smirlik davrida mustaqillikka bo‘lgan ehtiyoj keskin kuchayadi. O‘smir o‘z qarorlarini mustaqil qabul qilish, o‘z vaqtini rejalashtirish, do‘stlarini tanlash va o‘z fikrini erkin ifodalashni xohlaydi.

Biroq ota-ona va pedagoglar tomonidan o‘smirning mustaqillikka bo‘lgan ehtiyojini to‘liq tan olmaslik turli nizolarga olib kelishi mumkin. Masalan, o‘smirning har bir qarorini nazorat qilish, doimiy taqiqlar qo‘yish yoki uning fikrini mensimaslik unda norozilikni kuchaytirishi mumkin[3].

Shu bilan birga, o‘smirga cheksiz erkinlik berish ham to‘g‘ri emas. Bu davrda mustaqillik mas’uliyat bilan birgalikda shakllantirilishi kerak. Ota-ona va pedagogning asosiy vazifasi o‘smir o‘rniga qaror qabul qilish emas, balki uning mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishdan iborat.

O‘smir bilan muloqotda buyruq va jazodan ko‘ra suhbat, tushuntirish, kelishuv va o‘zaro ishonch samaraliroq natija beradi. Ayniqsa, uning fikrini tinglash va qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish o‘smirning kattalarga nisbatan ishonchini mustahkamlaydi[3].

Emotsional sohadagi o‘zgarishlar

O‘smirlik davrida emotsional holatning o‘zgaruvchanligi ko‘p kuzatiladi. Bir vaziyatda faol va quvnoq bo‘lgan o‘smir boshqa vaziyatda tez ranjishi yoki jahli chiqishi mumkin. Bunday emotsional o‘zgarishlarning yuzaga kelishida biologik yetilish bilan bir qatorda ijtimoiy munosabatlar, o‘z-o‘zini baholash va tengdoshlarning fikri ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘smirlar uchun boshqalarning bahosi ayniqsa ahamiyatlidir. Sinfdoshlarining munosabati, tashqi ko‘rinishiga berilgan baho, do‘stlarining uni qabul qilishi yoki rad etishi uning emotsional holatiga sezilarli ta’sir qilishi mumkin.

Shu sababli o‘smirning hissiy reaksiyalarini faqat “injiqlik” yoki “tarbiyasizlik” sifatida baholash noto‘g‘ri. Pedagog va psixolog uning ortida qanday ehtiyoj yoki ichki kechinma turganini aniqlashi lozim.

O‘smirda emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘z hislarini nomlash, muammoli vaziyatni tahlil qilish, nafas olish mashqlari, relaksatsiya, ijobiy fikrlash va muloqot treninglaridan foydalanish mumkin.

Tengdoshlar bilan muloqotning psixologik ahamiyati

O‘smirlik davrida tengdoshlar bilan munosabat alohida ahamiyat kasb etadi. O‘smir uchun do‘stlarining uni qabul qilishi, hurmat qilishi va guruhda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi muhim ehtiyojga aylanadi.

Tengdoshlar guruhida o‘smir o‘zini namoyon qilish, fikr almashish, hamkorlik qilish va ijtimoiy rollarni sinab ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Do‘stlik munosabatlarida ishonch, sadoqat, tenglik va o‘zaro yordam kabi qadriyatlar shakllanadi[4].

Biroq tengdoshlar ta’siri har doim ham ijobiy bo‘lavermaydi. Guruh tomonidan qabul qilinish istagi ayrim o‘smirlarni o‘z xohishiga zid bo‘lgan xatti-harakatlarni amalga oshirishga undashi mumkin. Shu sababli o‘smirda mustaqil fikrlash, “yo‘q” deyish, bosimga qarshilik ko‘rsatish va oqibatlarni oldindan baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish muhimdir.

Bilish jarayonlarining rivojlanishi

O‘smirlik davrida tafakkur sifat jihatidan o‘zgaradi. O‘smir konkret vaziyatlarni tahlil qilish bilan birga mavhum va nazariy tushunchalar haqida ham fikr yurita boshlaydi. U sabab va oqibat munosabatlarini aniqlash, turli fikrlarni solishtirish, dalillar keltirish va mustaqil xulosaga kelishga intiladi.

Nutq rivojida ham sezilarli o‘zgarishlar kuzatiladi. O‘smirning so‘z boyligi kengayadi, murakkab tushunchalarni ifodalash qobiliyati rivojlanadi. U o‘z fikrini asoslash va suhbatdoshining fikriga baho berishga ko‘proq ehtiyoj sezadi.

Diqqat jarayonida ham ixtiyoriylik kuchayadi. O‘smir o‘z diqqatini maqsadli ravishda boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lib boradi. Biroq uning diqqati mazmunli, qiziqarli va shaxsiy ahamiyatga ega faoliyatda yaxshiroq jamlanadi. Shuning uchun ta’lim jarayonida o‘smirning qiziqishlarini hisobga olish muhim.

Xotira ham tobora mantiqiy xarakter kasb etadi. O‘smir ma’lumotni mexanik yodlashdan ko‘ra uning mazmunini tushunish, guruhlash, taqqoslash va mantiqiy bog‘lash orqali yaxshiroq o‘zlashtiradi[5].

O‘smirlik davrida internet muhitining psixologik ta’siri

Bugungi raqamli muhit o‘smirlarning psixologik rivojlanishiga yangi omillarni olib kirdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘smir o‘z tengdoshlari bilan muloqot qiladi, axborot izlaydi, o‘z qiziqishlarini namoyon etadi va virtual guruhlarga qo‘shiladi.

Virtual muhitning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ayrim xavflari ham mavjud. Haddan tashqari internetdan foydalanish o‘qishga ajratiladigan vaqtning qisqarishi, uyqu rejimining buzilishi, real muloqotning kamayishi va diqqatning tarqoqlashishiga olib kelishi mumkin.

O‘smirning virtual muhitga haddan tashqari bog‘lanishida ko‘pincha psixologik ehtiyojlar muhim o‘rin tutadi. Masalan, real hayotda o‘zini yetarlicha qadrlangan deb his qilmayotgan o‘smir virtual muhitda o‘ziga e’tibor va tan olinishni izlashga harakat qilishi mumkin.

Shuning uchun internetdan foydalanishni faqat taqiqlash bilan bog‘liq yondashuv yetarli emas. Ota-ona va pedagoglar o‘smirning virtual faolligi ortida qanday ehtiyoj turganini tushunishga harakat qilishlari kerak. Real hayotda mazmunli faoliyat, sport, ijod, muloqot va jamoaviy faoliyat uchun sharoit yaratish internetga haddan tashqari bog‘liqlikning oldini olishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘smirlar bilan psixologik ishlashning asosiy yo‘nalishlari

O‘smirlik davridagi psixologik o‘zgarishlarni samarali boshqarishda maktab psixologining faoliyati muhim ahamiyatga ega. Psixolog o‘smirning individual xususiyatlarini diagnostika qilish bilan birga, uning muammolarini o‘z vaqtida aniqlashi va psixologik yordam ko‘rsatishi zarur.

Bunda quyidagi yo‘nalishlar samarali hisoblanadi:

- o‘smirning o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘ziga baho berish xususiyatlarini o‘rganish;
- emotsional holat va stressga chidamlilik darajasini aniqlash;
- tengdoshlar bilan muloqotdagi muammolarni aniqlash;
- ota-ona va o‘smir o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish;
- nizoli vaziyatlarda konstruktiv xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish;
- mustaqil qaror qabul qilish va mas’uliyatni rivojlantirish;
- internetdan xavfsiz va me’yorida foydalanish madaniyatini shakllantirish;
- o‘smirning ijobiy qiziqishlari va qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash.

Psixologik yordam individual suhbat, guruhiy trening, psixologik maslahat, psixodiagnostika, art-terapiya elementlari, kommunikativ mashqlar va ota-onalar bilan psixologik-ma’rifiy ishlar orqali amalga oshirilishi mumkin[6].

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘smirlik davrini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mazkur davrda yuzaga keladigan psixologik o‘zgarishlarni yagona sabab bilan izohlab bo‘lmaydi. O‘smir shaxsining rivojlanishi biologik yetilish, ijtimoiy muhit va individual-psixologik xususiyatlarning o‘zaro ta’siri natijasidir.

Ayniqsa, o‘smirning mustaqillikka intilishi va kattalarning nazorati o‘rtasidagi muvozanat muhim ahamiyatga ega. O‘smirning barcha tashabbuslarini cheklash unda norozilikni kuchaytirishi mumkin. Aksincha, nazoratsiz erkinlik ham uning noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga sabab bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Shu sababli “nazorat qilish”dan ko‘ra “yo‘naltirish”, “buyruq berish”dan ko‘ra “muloqot qilish”, “jazolash”dan ko‘ra “xatti-harakat oqibatini tushuntirish” tamoyillariga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq[7].

O‘smirning psixologik barqarorligini ta’minlashda uchta asosiy muhit – oila, maktab va tengdoshlar muhiti o‘zaro uyg‘un bo‘lishi kerak. Ushbu muhitlarda o‘smir o‘zini xavfsiz, qadrlangan va tushunilgan deb his qilsa, uning ijobiy shaxsiy sifatlari rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Zamonaviy maktab psixologi o‘smirning muammosini faqat muammo paydo bo‘lgandan keyin hal qiluvchi mutaxassis sifatida emas, balki muammolarning oldini oluvchi va psixologik rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘smirlik davri shaxs rivojlanishining muhim va murakkab bosqichi bo‘lib, unda biologik yetilish bilan bir qatorda o‘z-o‘zini anglash, mustaqillikka intilish, emotsional soha, tafakkur, diqqat, xotira va ijtimoiy munosabatlarda sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi.

O‘smirlikdagi qaysarlik, norozilik, kattalar fikriga qarshi chiqish yoki emotsional beqarorlikni faqat salbiy xulq sifatida baholash noto‘g‘ri. Bunday holatlar ko‘pincha o‘smirning mustaqil shaxs sifatida shakllanish jarayonining namoyon bo‘lishidir. Muhimi, ushbu jarayonni to‘g‘ri yo‘naltirish va o‘smirga ijtimoiy jihatdan maqbul xulq-atvorni egallashga yordam berishdir.

O‘smir bilan ishlashda ota-ona, pedagog va psixologning hamkorligi, samimiy muloqot, shaxsiy chegaralarni hurmat qilish va konstruktiv talablarni qo‘yish muhim hisoblanadi. Shuningdek, zamonaviy axborot muhitining o‘smir ruhiyatiga ta’sirini hisobga olish, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish va real ijtimoiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash zarur.

Demak, o‘smirlik davridagi psixologik o‘zgarishlarni chuqur anglash nafaqat ta’lim-tarbiya samaradorligini oshiradi, balki kelajakda ruhiy jihatdan barqaror, mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy mas’uliyatli va sog‘lom shaxsni shakllantirish uchun muhim psixologik-pedagogik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G'oziyev E. G. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
2. Barotov Sh. R. Psixologik xizmat asoslari. – Toshkent, 2012.
3. Nishonova Z. T. Psixologik maslahat. – Toshkent, 2010.
4. Shoumarov G. B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2008.
5. Usmonova M. S. Zamonaviy yoshlar orasida hayotiy maqsadlar transformatsiyasi va motivatsiya darajasining pasayishi // International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education. – Rome, Italy, 2026. – February 28. – P. 128.
6. Usmonova M. S. O'smirlar ongida ma'naviy dezadaptatsiya va uning psixologik determinantlari // "Shaxs integrativ rivojlanishi paradigmasida zamonaviy psixologiyaning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2026. – 22-aprel.
7. G'oziyev E. G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.

NUTQ BUZILISHLARI MAVJUD BOLALARNING IJTIMOIY MOSLASHUVINI RIVOJLANTIRISHDA PSIXOLOGIK INTERVENSIYALAR SAMARADORLIGI

Axmedova Munavvar Numanjanovna
Buxoro xalqaro universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuv jarayonini rivojlantirishda psixologik intervensiyalarning samaradorligi tahlil qilinadi. Nutqdagi kamchiliklar bolaning tengdoshlari bilan muloqot qilishiga, hissiy holatiga, o'zini baholashiga hamda ijtimoiy faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli psixologik qo'llab-quvvatlash va maqsadli intervension dasturlar muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda bolalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish hamda emotsional barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan psixologik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Xususan, o'yin terapiyasi, kognitiv-xulqiy yondashuv, guruhli mashg'ulotlar va ota-onalar bilan hamkorlikdagi psixologik ish shakllarining natijalari yoritiladi. Tadqiqot natijalari nutq buzilishlari mavjud bolalarda ijtimoiy integratsiya, muloqot faolligi va ijtimoiy kompetensiyalarning rivojlanishiga psixologik intervensiyalar ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: nutq buzilishi, ijtimoiy moslashuv, psixologik intervensiya, kommunikativ ko'nikmalar, bolalar psixologiyasi, ijtimoiy integratsiya, emotsional rivojlanish.

Abstract: This article examines the effectiveness of psychological interventions in improving social adaptation among children with speech disorders. Speech impairments significantly affect children's communication abilities, emotional well-being, self-esteem, and interaction with peers. Therefore, psychological support and targeted intervention programs play an important role in promoting successful social functioning. The study focuses on psychological approaches aimed at developing communication skills, enhancing social adaptation, and strengthening emotional stability. In particular, the effectiveness of play therapy, cognitive-behavioral approaches, group-based activities, and parent-oriented psychological support is discussed. The findings indicate that psychological interventions contribute positively to social integration, increased communication activity, and the development of social competencies among children with speech disorders. The results emphasize the importance of early psychological support and interdisciplinary cooperation in achieving better adaptation outcomes.

Key words: speech disorders, social adaptation, psychological intervention, communication skills, child psychology, social integration, emotional development.

Аннотация: В данной статье рассматривается эффективность психологических интервенций в развитии социальной адаптации детей с нарушениями речи. Речевые нарушения оказывают значительное влияние на коммуникативную активность ребенка, его эмоциональное состояние, самооценку и процесс взаимодействия со сверстниками. В связи с этим особую значимость приобретают психологическая поддержка и применение специализированных интервенционных программ. В исследовании анализируются методы, направленные на развитие коммуникативных навыков, повышение уровня социальной адаптации и укрепление эмоциональной устойчивости детей. Особое внимание уделяется игровой терапии, когнитивно-поведенческому подходу, групповым формам работы и взаимодействию с родителями. Полученные результаты показывают, что использование психологических интервенций способствует улучшению социальной интеграции, расширению коммуникативных возможностей и формированию социальных компетенций у детей с нарушениями речи.

Ключевые слова: нарушения речи, социальная адаптация, психологическая интервенция, коммуникативные навыки, детская психология, социальная интеграция, эмоциональное развитие.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim va psixologiya amaliyotida bolalarning ijtimoiy moslashuvi masalasi eng dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, nutq buzilishlari mavjud bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi, ta'lim muhitiga moslashuvi hamda samarali kommunikativ faoliyatni shakllantirishi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Nutq insonning asosiy kommunikativ vositasi bo'lib, uning yordamida shaxs atrofdagilar bilan o'zaro munosabat o'rnatadi, hissiyot va fikrlarini ifodalaydi, ijtimoiy tajribani o'zlashtiradi hamda shaxsiy rivojlanish jarayonini amalga oshiradi. Shu sababli bolalik davrida yuzaga keladigan nutq buzilishlari nafaqat til va nutq faoliyatiga, balki bolaning psixologik rivojlanishi, emotsional holati va ijtimoiy moslashuviga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Nutq buzilishlari - bu nutqning shakllanishi, qabul qilinishi yoki ifodalanishidagi turli darajadagi buzilishlar bo'lib, ularga fonetik-fonematik rivojlanishdagi kamchiliklar, umumiy nutq rivojlanmaganligi, duduqlanish, dislaliya, rinolaliya, dizartriya, alaliya va boshqa holatlar kiradi. Bunday buzilishlar bolalarda muloqot qilishdagi qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, tengdoshlar bilan munosabatlarning cheklanishiga, ijtimoiy faollikning pasayishiga va o'ziga nisbatan ishonchning susayishiga olib kelishi mumkin. Nutqiy nuqson mavjud bo'lgan bolalarda ko'pincha uyatchanlik, xavotirlilik, ijtimoiy chekinish, o'z fikrini erkin ifoda eta olmaslik hamda kommunikativ tashabbusning pastligi kuzatiladi.

Ijtimoiy moslashuv shaxsning jamiyat talablari, ijtimoiy normalar va atrof-muhit sharoitlariga mos ravishda o'z xulq-atvori va faoliyatini tashkil etish jarayonidir. Bolalar rivojlanishida ijtimoiy moslashuvning muvaffaqiyatli kechishi ularning ta'limdagi natijalari, tengdoshlari bilan munosabatlari, emotsional farovonligi va kelajakdagi shaxsiy kamolotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Nutq buzilishlari mavjud bolalarda esa ushbu jarayon murakkablashadi, chunki kommunikativ cheklovlar ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va saqlash imkoniyatlarini kamaytiradi.

Psixologik intervensiyalar nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Psixologik intervensiya deganda bolaning emotsional, ijtimoiy va xulqiy rivojlanishini yaxshilashga qaratilgan maqsadli psixologik ta'sir usullari tushuniladi. Mazkur yondashuv tarkibiga individual va guruhli psixologik mashg'ulotlar, o'yin terapiyasi, kognitiv-xulqiy metodlar, art-terapiya, kommunikativ treninglar hamda ota-onalar bilan psixologik maslahat ishlari kiradi. Ushbu metodlar bolaning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, emotsional zo'riqishni kamaytirish, o'zini baholashni yaxshilash va muloqotdagi faol ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda nutq buzilishlari va ijtimoiy moslashuv o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab tadqiqotlarda o'rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta yoshdan boshlab tashkil etilgan psixologik va pedagogik yordam bolalarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish hamda ularning jamiyatga integratsiyasini yengillashtirishda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, multidisiplinar yondashuv - ya'ni psixolog, logoped, pedagog va ota-onalar hamkorligi asosida olib borilgan intervension dasturlar ijobiy natijalarni ta'minlaydi.

Bugungi kunda inkluziv ta'limning rivojlanishi, maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining kuchayishi hamda psixologik xizmatlarning kengayishi ushbu mavzuning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish orqali ularning ta'lim sifati, ijtimoiy faolligi va hayot sifatini yaxshilash imkoniyati yaratiladi.

Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi - nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalarning samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish hamda samarali psixologik yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari psixologlar, logopedlar, pedagoglar hamda ota-onalar faoliyatida amaliy ahamiyat kasb etishi kutiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish hamda ushbu jarayonda psixologik intervensiyalarning samaradorligini o'rganish zamonaviy psixologiya, defektologiya, logopediya va maxsus pedagogikaning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar nutqning faqat lingvistik hodisa emas, balki shaxs rivojlanishi, ijtimoiy munosabatlar va psixologik farovonlik bilan uzviy bog'liq murakkab tizim ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli nutq buzilishlari mavjud bolalarni o'rganishda biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni birgalikda tahlil qiluvchi kompleks yondashuv ustunlik qilmoqda.

Nutq rivojlanishi va ijtimoiylashuv o'rtasidagi bog'liqlik masalasi dastlab klassik rivojlanish psixologiyasi doirasida yoritilgan. Rus psixologik maktabi vakillari orasida ayniqsa L.S. Vigotskiyning ilmiy qarashlari mazkur yo'nalish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Vigotskiy nutqni bolaning oliy psixik funksiyalarini shakllantiruvchi asosiy vosita sifatida talqin qilgan va ijtimoiy muhitning rivojlanishdagi hal qiluvchi rolini alohida ta'kidlagan. Uning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning nutqiy rivojlanishi dastlab ijtimoiy muloqot orqali shakllanadi, keyinchalik esa ichki nutq va tafakkur tizimiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, nutq buzilishlari bolaning nafaqat til faoliyatini, balki ijtimoiy tajribani egallash va shaxs sifatida shakllanish jarayonini ham murakkablashtiradi.

L.S. Vigotskiy g'oyalarini rivojlantirgan A.R. Luriya nutq faoliyatining neyropsixologik mexanizmlarini o'rgangan va nutq buzilishlarining shaxsning emotsional hamda ijtimoiy rivojlanishiga ta'sirini ilmiy asoslagan. Luriya nutqni markaziy nerv tizimi faoliyati bilan bog'liq murakkab funksional tizim sifatida ko'rib chiqqan va nutqdagi buzilishlar bolaning xulq-atvori, muloqot uslubi hamda moslashuv imkoniyatlariga ta'sir qilishini ko'rsatgan. Olimning fikricha, korreksion ishlar faqat nutqni tiklash bilan cheklanmasdan, bolaning ijtimoiy faoliyatini ham rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Rus defektologiya maktabining yana bir muhim vakili R.E. Levina nutq rivojlanishidagi nuqsonlarni tizimli ravishda o'rgangan. U umumiy nutq rivojlanmaganligi bo'lgan bolalarda nutq komponentlari bilan bir qatorda kommunikativ qiyinchiliklar va ijtimoiy moslashuv muammolari ham kuzatilishini ta'kidlagan. Levinaning ilmiy ishlari logopedik va psixologik ta'sirning integratsiyalashgan modelini ishlab chiqishga asos bo'ldi. Uning tadqiqotlarida bolaning nutqiy faolligi va ijtimoiy moslashuvi o'zaro bog'liq jarayon sifatida baholangan.

E.M. Mastyukova, O.S. Nikolskaya, T.B. Filicheva va G.V. Chirkina kabi rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham nutq buzilishlari mavjud bolalarda ijtimoiy va emotsional rivojlanishning o'ziga xos jihatlarini ochib bergan. Ular bunday bolalarda tashabbusning pasayishi, ijtimoiy qo'rquv, muloqotdan qochish va tengdoshlar bilan munosabat o'rnatishda qiyinchiliklar tez-tez uchrashini qayd etganlar. Ayniqsa, Filicheva va Chirkina logopedik korreksiya bilan bir qatorda psixologik qo'llab-quvvatlashni ham tizimli ravishda tashkil etish zarurligini asoslab bergan.

Xorijiy ilmiy maktablarda nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini o'rganish ko'proq rivojlanish psixologiyasi va ijtimoiy-kommunikativ yondashuv doirasida olib borilgan. Shveysariyalik olim J. Piaje bolalar kognitiv rivojlanishi jarayonida nutq va ijtimoiy tajriba o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib bergan. Unga ko'ra, bola tafakkuri va ijtimoiy faoliyati nutq orqali tashkil topadi hamda rivojlanadi. Nutqdagi cheklanishlar esa ijtimoiy o'zaro ta'sirning samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Amerikalik psixolog A. Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasi orqali bolaning xulq-atvori muloqot va kuzatish jarayonida shakllanishini ta'kidlagan. Bandura nazariyasiga ko'ra, nutq buzilishlari mavjud bolalarda ijtimoiy tajriba olish imkoniyatlarining kamayishi o'z-o'zini baholash va ijtimoiy ishtirok darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ijobiy model yaratish, qo'llab-quvvatlovchi muhit va psixologik treninglar moslashuv jarayonida muhim hisoblanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda nutq buzilishlari va psixologik holat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan mualliflardan biri D.H. Skuse hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida kommunikativ buzilishlar mavjud bolalarda ijtimoiy tashvish, emotsional qiyinchiliklar va ijtimoiy izolyatsiya xavfi yuqori ekanligi qayd etilgan. Shu bilan birga, C. Conti-Ramsden va hamkorlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar til rivojlanishidagi buzilishlarga ega bolalarda o'smirlik davrida ijtimoiy moslashuvdagi muammolar saqlanib qolishini ko'rsatgan.

Nutq buzilishlari mavjud bolalarda psixologik intervensiyalarning samaradorligini o'rganishda kognitiv-xulqiy yondashuv alohida o'rin tutadi. A. Beck tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv nazariya asosida tashkil etilgan psixologik yordam dasturlari bolalarda salbiy ijtimoiy tajribalarni qayta ishlash, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va ijtimoiy faoliyatni kuchaytirishga xizmat qilishi aniqlangan. Bundan tashqari, C. Rogersning insonparvarlik yondashuvi bolaning individual imkoniyatlari va qo'llab-quvvatlovchi psixologik muhitning ahamiyatini ko'rsatadi.

So'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlar nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda multidisiplinar yondashuv eng yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu modelda psixolog, logoped, pedagog va ota-onalarning hamkorligi asosiy omil sifatida qaraladi. Intervension dasturlarga emotsional intellektni rivojlantirish, kommunikativ treninglar, o'yin terapiyasi, guruhli mashg'ulotlar va oilaviy maslahatlar kiritilganda bolalarda ijtimoiy faollik, tengdoshlar bilan munosabat sifati hamda moslashuv ko'rsatkichlari sezilarli yaxshilanishi kuzatilgan.

Shunday qilib, mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvi ko'p omilli jarayon bo'lib, uni samarali rivojlantirish uchun faqat logopedik ta'sir yetarli emas. Psixologik intervensiyalarni tizimli ravishda tashkil etish, bolaning emotsional holati va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, yaqin ijtimoiy muhitni faol jalb etish eng muhim shartlardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv bolalarning ijtimoiy integratsiyasini kuchaytirish va ularning shaxsiy rivojlanish salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalarning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda miqdoriy (quantitative) tadqiqot dizaynidan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosi rivojlanish psixologiyasi, maxsus psixologiya, logopediya hamda korreksion pedagogika tamoyillariga tayangan holda ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida eksperimental yondashuv qo'llanildi, ya'ni dastlab ishtirokchilarning boshlang'ich holati aniqlanib, so'ng maxsus tashkil etilgan psixologik intervension dastur joriy etildi va yakuniy natijalar statistik jihatdan baholandi.

Tadqiqot obyekti sifatida nutq buzilishlari tashxisi qo‘yilgan kichik va o‘rta maktab yoshidagi bolalar tanlandi. Tadqiqot ishtirokchilari O‘zbekiston sharoitida faoliyat yuritayotgan umumta’lim maktablari hamda maxsus ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan bolalar orasidan tanlab olindi. Tanlov jarayonida nutq rivojlanishidagi buzilish darajasi, yosh xususiyatlari va psixologik holat ko‘rsatkichlari inobatga olindi. Tadqiqotda jami 60 nafar bola (30 nafar eksperimental guruh, 30 nafar nazorat guruhi) ishtirok etdi.

Tadqiqotning diagnostik bosqichida O‘zbekiston amaliyotida muntazam qo‘llaniladigan va ilmiy ishonchliligi tasdiqlangan metodikalardan foydalanildi. Bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasini aniqlash uchun K. Rojers va R. Daymondning “Ijtimoiy-psixologik moslashuv diagnostikasi” metodikasi (moslashtirilgan variant), kommunikativ faoliyat va shaxslararo munosabatlarni baholash uchun V. F. Ryaxovskiyning kommunikativlik darajasini aniqlash testi, emotsional holatni aniqlash maqsadida esa Lusher rang testi qo‘llanildi. Nutq rivojlanishi darajasi logopedik kuzatuv protokollari asosida baholandi. Mazkur metodikalar O‘zbekiston ta’lim va psixologik amaliyotida keng qo‘llanib kelinayotgan diagnostik vositalar sirasiga kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Intervension bosqich 10 hafta davomida amalga oshirildi. Psixologik ta’sir dasturi haftasiga ikki marotaba tashkil etilib, har bir mashg‘ulot 45-50 daqiqa davom etdi. Dastur tarkibiga kommunikativ treninglar, ijtimoiy rolli o‘yinlar, emotsional o‘zini boshqarish mashqlari, guruhli muloqot faoliyatlari hamda ota-onalar bilan psixologik maslahat ishlari kiritildi. Intervensiyaning asosiy maqsadi bolalarda muloqot tashabbusini rivojlantirish, ijtimoiy ishtirokni kuchaytirish va moslashuv ko‘rsatkichlarini yaxshilashdan iborat bo‘ldi.

Olingan ma’lumotlar IBM SPSS Statistics dasturida qayta ishlanib, tavsifiy statistika (Descriptive Statistics), juft tanlov uchun t-test (Paired Samples t-test) va guruhlararo farqlarni aniqlash uchun Independent Samples t-test usullaridan foydalanildi. Natijalar statistik ahamiyatlilik darajasi $p \leq 0,05$ mezoni asosida baholandi (1-jadval).

1-jadval: **Nutq buzilishlari mavjud bolalarda psixologik intervensiyadan oldingi va keyingi ijtimoiy moslashuv ko‘rsatkichlari (SPSS dasturi asosida tahlil natijalari)**

Ko‘rsatkichlar	Eksperimental guruh (n=30) Intervensiya-gacha M±SD	Eksperimental guruh (n=30) Intervensiyadan so‘ng M±SD	t	p	Nazorat guruhi (n=30) Boshlang‘ich M±SD	Nazorat guruhi (n=30) Yakuniy M±SD	t	p
Ijtimoiy moslashuv umumiy indeksi	42,6 ± 6,8	58,4 ± 5,3	7,84	0,001	43,1 ± 6,5	45,0 ± 6,2	1,17	0,247
Kommunikativ faollik	14,3 ± 3,1	20,2 ± 2,6	6,91	0,001	14,8 ± 2,8	15,6 ± 3,0	0,96	0,341
Tengdoshlar bilan muloqot sifati	11,7 ± 2,9	17,5 ± 2,4	6,58	0,001	12,0 ± 2,7	12,8 ± 2,5	1,05	0,301
Emotsional barqarorlik	13,5 ± 3,3	18,9 ± 2,7	5,83	0,002	13,8 ± 3,1	14,2 ± 3,0	0,74	0,465
Ijtimoiy tashabbus ko‘rsatkichlari	10,9 ± 2,5	16,8 ± 2,1	7,02	0,001	11,3 ± 2,4	11,7 ± 2,2	0,81	0,423
O‘zini baholash darajasi	12,1 ± 2,8	17,6 ± 2,3	6,34	0,001	12,4 ± 2,5	13,0 ± 2,4	0,89	0,382
Umumiy moslashuv samaradorligi	105,1 ± 10,4	149,4 ± 9,6	8,27	0,001	107,4 ± 11,2	111,3 ± 10,8	1,22	0,236

Jadval natijalari eksperimental guruhda psixologik intervensiyalar o‘tkazilgandan keyin barcha asosiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ijobiy o‘zgarishlar kuzatilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ijtimoiy moslashuv umumiy indeksi, kommunikativ faollik va ijtimoiy tashabbus darajalaridagi o‘sish statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi ($p \leq 0,05$). Nazorat guruhida esa ko‘rsatkichlar bo‘yicha kichik o‘zgarishlar qayd etilgan bo‘lsa-da, ular statistik jihatdan ishonchli natija bermadi.

Shunday qilib, metodologik yondashuv va SPSS dasturi yordamida olingan natijalar nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalarni tizimli qo'llash yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa amaliy psixologiya, logopediya va maxsus pedagogika yo'nalishlarida kompleks yordam dasturlarini kengaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish masalasi zamonaviy psixologiya, logopediya va maxsus pedagogika yo'nalishlarida ustuvor ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. O'tkazilgan nazariy va metodologik tahlillar shuni ko'rsatdiki, nutqdagi buzilishlar faqat talaffuz yoki til tizimidagi qiyinchiliklar bilan chegaralanmaydi, balki bolaning shaxsiy rivojlanishi, emotsional holati, tengdoshlari bilan munosabatlari va jamiyatga moslashuv jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Nutqiy cheklanishlar mavjud bo'lgan bolalarda kommunikativ faollikning pasayishi, o'z fikrini erkin ifoda eta olmaslik, ijtimoiy tashabbusning sustligi va o'ziga bo'lgan ishonchning kamayishi kabi holatlar ko'proq uchrashi aniqlandi.

Adabiyotlar tahlili natijalari rus va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari asosida nutq rivojlanishi bilan ijtimoiy moslashuv o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Nutq bolaning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini tashkil etuvchi asosiy vosita bo'lgani sababli undagi buzilishlar ijtimoiy tajribani egallash jarayonini murakkablashtiradi. Shu bilan birga, tadqiqotlar ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni faqat nutq nuqsonining o'zi bilan emas, balki bolaning psixologik holati, oilaviy muhit, ta'lim sharoiti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi bilan ham bog'liq holda ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Tadqiqot metodologiyasi doirasida qo'llanilgan psixologik diagnostika vositalari hamda statistik tahlil natijalari psixologik intervensiyalar nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuv ko'rsatkichlarini yaxshilashda samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Intervension dasturlarni muntazam tashkil etish natijasida bolalarda kommunikativ faollik, emotsional barqarorlik, tengdoshlar bilan muloqot sifati, ijtimoiy tashabbus va o'zini baholash darajasi ijobiy tomonga o'zgargani kuzatildi. Bu esa psixologik yordam faqat muammoni kamaytirishga emas, balki bolaning ichki resurslarini faollashtirish va uning ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishini anglatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari korreksion faoliyatning yuqori samaradorligi mutaxassislararo hamkorlik mavjud bo'lgandagina yuzaga chiqishini ko'rsatdi. Psixolog, logoped, pedagog va ota-onalarning yagona maqsad asosida olib boradigan tizimli faoliyati bolalarning ijtimoiy integratsiyasini tezlashtiradi hamda ularning kundalik hayotga moslashish darajasini oshiradi. Ayniqsa, erta bosqichda tashkil etilgan psixologik qo'llab-quvvatlash keyingi rivojlanish natijalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Mazkur tadqiqot asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, nutq buzilishlari mavjud bolalarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirishda psixologik intervensiyalar yordamchi emas, balki kompleks korreksion jarayonning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Psixologik yondashuvlarning tizimli va ilmiy asosda tashkil etilishi bolalarning kommunikativ salohiyatini oshirish, ijtimoiy moslashuvini mustahkamlash hamda ularning shaxsiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Kelgusida mazkur yo'nalishda yosh xususiyatlari, nutq buzilishlarining turlari va intervension dasturlar davomiyligini hisobga olgan holda kengroq empirik tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa O'zbekiston sharoitida nutq buzilishlari mavjud bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Психология развития ребенка. - Москва: Издательство "Смысл", 2005. - 512 с.
2. Выготский Л.С. Основы дефектологии. - Санкт-Петербург: Лань, 2003. - 654 с.
3. Лурия А.Р. Язык и сознание. - Москва: Издательство Московского университета, 1998. - 336 с.
4. Лурия А.Р. Высшие корковые функции человека. - Санкт-Петербург: Питер, 2008. - 624 с.
5. Левина Р.Е. Нарушения речи у детей дошкольного возраста. - Москва: Просвещение, 2005. - 223 с.

TARIX DARSLARIDA WORDMINT: O‘QUVCHINI FAOL ISHTIROKCHIGA AYLANTIRISHNING INNOVATSION USULI



Eshankulova Ma'mura Davlatovna
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi
Guliston shahri

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarix fanini o‘qitishda WordMint platformasidan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari tadqiq etiladi. Tadqiqotning maqsadi WordMint asosidagi interfaol topshiriqlarning o‘quvchilar faolligi, motivatsiyasi va tarixiy tushunchalarni o‘zlashtirishiga ta'sirini metodik jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy tahlil va pedagogik kuzatish metodlaridan foydalanildi. Natijalar WordMintdan pedagogik maqsad asosida foydalanish o‘quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtirish, tarixiy atamalarni mustahkamlash va mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Maqolaning ilmiy yangiligi WordMint topshiriqlarini tarixiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirilgan metodik tizim sifatida tavsiya etishdan iborat.

Kalit so‘zlar: tarix ta'limi, WordMint, raqamli ta'lim, interfaol metod, gamifikatsiya, tarixiy tafakkur, motivatsiya, o‘quvchi faolligi, raqamli pedagogika.

Abstract: This article examines the pedagogical potential of using the WordMint platform in teaching history. The purpose of the study is to analyze the role of WordMint-based interactive activities in improving students' engagement, motivation, and understanding of historical concepts. The study uses literature analysis, comparative analysis, and pedagogical observation methods. The findings show that the purposeful use of WordMint can increase student participation, reinforce historical terminology, and support the development of independent thinking. The scientific novelty of the article lies in proposing WordMint activities as a methodological system aimed at developing historical thinking.

Key words: history education, WordMint, digital education, interactive method, gamification, historical thinking, motivation, student engagement, digital pedagogy.

Аннотация: В данной статье исследуются педагогические возможности использования платформы WordMint в преподавании истории. Цель исследования заключается в методическом анализе влияния интерактивных заданий, созданных на основе WordMint, на активность, мотивацию учащихся и усвоение ими исторических понятий. В исследовании использованы методы анализа научной литературы, сравнительного анализа и педагогического наблюдения. Полученные результаты показывают, что целенаправленное использование WordMint способствует повышению активности учащихся, закреплению исторических терминов и развитию самостоятельного мышления. Научная новизна статьи заключается в рассмотрении заданий WordMint как методической системы, направленной на развитие исторического мышления.

Ключевые слова: историческое образование, WordMint, цифровое образование, интерактивный метод, геймификация, историческое мышление, мотивация, активность учащихся, цифровая педагогика.

KIRISH

Bugungi ta'lim jarayonida o‘quvchiga tayyor bilimni berishdan ko‘ra, uni bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarishga yo‘naltirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tarix fanini o‘qitishda mazkur yondashuv alohida ahamiyatga ega. Chunki tarixiy bilim faqat sana, ism va voqealarni yod olishdan iborat emas. O‘quvchi tarixiy jarayonlarning sabab va oqibatlarini tushunishi, voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashi, turli nuqtayi nazarlarni solishtirishi va dalillarga asoslangan xulosa chiqarishi lozim.

Tadqiqotning obyekti tarix fanini o‘qitish jarayonida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa WordMint platformasi asosida yaratilgan interfaol topshiriqlarning o‘quvchilar faolligi va tarixiy tafakkurini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlaridir.

Tadqiqotning maqsadi tarix darslarida WordMint platformasidan foydalanishning metodik imkoniyatlarini tahlil qilish va undan samarali foydalanish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- tarix ta'limida interfaol va raqamli yondashuvlarning ahamiyatini o'rganish;
- WordMint platformasining didaktik imkoniyatlarini aniqlash;
- WordMint topshiriqlarini tarix darsining turli bosqichlariga integratsiya qilish imkoniyatlarini tahlil qilish;
- gamifikatsiya elementlarining tarixiy bilimlarni o'zlashtirishdagi o'rnini ko'rib chiqish;
- WordMintdan foydalanishning afzalliklari va mavjud cheklovlarini aniqlash;
- tarix o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mavzuning dolzarbligi ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning kengayib borayotgani bilan belgilanadi. Biroq texnologiyani darsga shunchaki kiritishning o'zi ta'lim samaradorligini kafolatlamaydi. Asosiy masala – raqamli vositaning aniq pedagogik maqsadga xizmat qilishi va o'quvchini faol bilish jarayoniga jalb eta olishidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli texnologiyalardan ta'lim jarayonida foydalanish masalasi xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. UNESCOning "Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education: A tool on whose terms?" hisobotida raqamli texnologiyalar ta'lim mazmunini turlicha ifodalash, o'quvchilarni hamkorlikka jalb qilish va mashq qilish imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etiladi [1].

Shu bilan birga, texnologiya o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik muloqotni almashtirmasligi, balki uni qo'llab-quvvatlashi zarurligi ta'kidlanadi. Tarix ta'limida gamifikatsiya masalasiga bag'ishlangan tadqiqotlar ham mazkur yondashuvning dolzarbligini ko'rsatadi. Shen va hammualliflar tarix ta'limida gamifikatsiyadan foydalanishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni bibliometrik jihatdan tahlil qilib, ushbu yo'nalishga qiziqish ortib borayotganini aniqlaganlar [2].

Martínez-Hita, Gómez-Carrasco va Miralles-Martínez tadqiqotlarida tarixiy tafakkurga asoslangan gamifikatsiyalashgan loyihaning o'quvchilarning o'zlashtirishiga ta'siri o'rganilgan [3].

Suprianto va Yuliantri ham gamifikatsiyaning o'quvchilar motivatsiyasi hamda tarixiy tushunchalarni tushunishiga ta'sirini tadqiq etganlar [4].

Scholz va hammualliflar esa tarixni o'qitishda o'yin elementlarini tizimli pedagogik yondashuv asosida loyihalash zarurligini ko'rsatganlar [5].

Mazkur tadqiqotlarning umumiy jihati gamifikatsiya va interfaol metodlarning o'quvchi motivatsiyasi hamda ishtirokiga ijobiy ta'sirini o'rganishdan iborat. Ushbu maqolaning o'ziga xosligi esa WordMint platformasining texnik imkoniyatlarini alohida ko'rsatish bilangina cheklanmay, uni tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodik vosita sifatida tahlil qilishidadir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va pedagogik kuzatish usullaridan foydalanildi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli orqali raqamli ta'lim, gamifikatsiya va tarix ta'limida interfaol metodlardan foydalanishga oid manbalar o'rganildi. Ushbu tahlil WordMintdan foydalanishning nazariy-pedagogik asoslarini aniqlashga imkon berdi.

Qiyosiy tahlil usuli an'anaviy savol-javob va takrorlash usullarini WordMint asosidagi interfaol topshiriqlar bilan solishtirishda qo'llanildi. Bunda o'quvchi faolligi, mustaqil ishlash imkoniyati, hamkorlik va tarixiy tushunchalarni qayta ishlash jihatlari asosiy mezon sifatida olindi.

Pedagogik kuzatish va metodik tahlil orqali WordMint topshiriqlarining tarix darsining turli bosqichlarida qo'llanish imkoniyatlari o'rganildi. Xususan, motivatsiya, o'tgan mavzuni takrorlash, yangi mavzuga kirish, mustahkamlash, nazorat va refleksiya bosqichlari tahlil qilindi.

Tadqiqotda topshiriqlarni yaratishda quyidagi metodik tamoyillarga asoslanildi:

- aniq pedagogik maqsad,
- o'quvchilarning yosh va bilim darajasiga moslik,
- oddiydan murakkabga tamoyili,
- topshiriqdan keyingi mazmunli tahlilni tashkil etish.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: **Tahlil natijalari WordMint platformasidan tarix darsining turli bosqichlarida foydalanish mumkinligini ko‘rsatdi.**

Dars bosqichi	WordMintdan foydalanish maqsadi
Tashkiliy-motivatsion bosqich	O‘quvchilarning diqqatini mavzuga jalb qilish
O‘tgan mavzuni takrorlash	Asosiy tarixiy tushunchalarni esga tushirish
Yangi mavzuga kirish	Mavzuga oid tayanch tushunchalarni aniqlash
Yangi bilimni mustahkamlash	Atama va tarixiy tushunchalarni mustahkamlash
Nazorat	O‘zlashtirish darajasini aniqlash
Refleksiya	Dars davomida o‘rganilgan tushunchalarni qayta ko‘rib chiqish

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, WordMintdan faqat dars oxirida o‘yin sifatida foydalanish yetarli emas. Uni darsning umumiy metodik tuzilmasiga integratsiya qilish talab etiladi.

Tarix fanida faktik materiallar, jumladan, sanalar, tarixiy shaxslar, davlatlar, sulolalar va atamalar katta o‘rin egallaydi. WordMint asosida yaratilgan krossvord, so‘z qidirish va anagramma topshiriqlari ushbu tushunchalarni qayta eslash va mustahkamlashga yordam beradi. Masalan, “O‘rta asrlar tarixi” mavzusida feodalizm, vassal, senyor, ritsar, natural xo‘jalik va manufaktura kabi tushunchalar asosida topshiriqlar tuzish mumkin.

Biroq tahlil davomida oddiy so‘zni topish topshirig‘i o‘z-o‘zidan tarixiy tafakkurni rivojlantirmasligi aniqlandi. Shu sababli WordMint topshirig‘idan keyin tahliliy savollar berish muhimdir. Masalan, “Amir Temur davri” mavzusida Samarqand, Temur, Ulug‘bek, Husayn Boyqaro, Hirot, rasadxona va tuzuklar tushunchalari yashiriladi. O‘quvchilar ularni topgach, quyidagi savollar beriladi:

1. Qaysi tushunchalar tarixiy shaxsni bildiradi?
2. Qaysi biri geografik joy hisoblanadi?
3. Qaysi biri tarixiy asar?
4. Qaysi biri ilmiy inshoot?
5. Ular o‘rtasida qanday tarixiy bog‘liqlik mavjud?

Natijada oddiy so‘z qidirish topshirig‘i yuqori darajadagi fikrlash faoliyatiga aylanishi mumkin.

Tahlil WordMintdan guruhli gamifikatsiya shaklida foydalanish ham samarali bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Masalan, sinfni bir nechta guruhlarga bo‘lib, ularga bir xil mazmundagi topshiriqlar beriladi. Bunda baholash faqat tezlikka asoslanmasligi kerak.

2-jadval: **Quyidagi baholash mezonlaridan foydalanish mumkin**

Mezon	Ball
Topshiriqni to‘g‘ri bajarish	3 ball
Tarixiy atamalarning mazmunini tushuntirish	2 ball
Guruhdagi hamkorlik	1 ball
Qo‘shimcha tarixiy fakt keltirish	1 ball

Ushbu yondashuv o‘quvchini faqat birinchi bo‘lib topshiriqni bajarishga emas, balki uning tarixiy mazmunini tushunishga ham yo‘naltiradi.

Tahlil natijasida WordMintdan foydalanishning quyidagi asosiy pedagogik imkoniyatlari aniqlandi:

1. **O‘quvchi faolligining oshishi.** Interfaol topshiriqlar ko‘proq o‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida faol ishlashga jalb qilish imkonini beradi.
2. **Motivatsiyaning kuchayishi.** Izlash, topish va natijaga erishish jarayoni o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi.
3. **Bilimlarning mustahkamlanishi.** Tarixiy ma’lumotlar turli shakllarda qayta ishlanishi natijasida ularni takrorlash imkoniyati kengayadi.
4. **Hamkorlikning rivojlanishi.** Guruhli topshiriqlar o‘quvchilarni fikr almashish va umumiy qarorga kelishga o‘rgatadi.

5. **Tarixiy tafakkurning rivojlanishi.** Agar topshiriqdan keyin taqqoslash, sabab-oqibatni aniqlash va xulosa chiqarishga oid savollar berilsa, o'quvchilar faktlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga o'rganadi.

Shu bilan birga, tahlil davomida bir qator muammolar ham aniqlandi. Birinchidan, barcha o'quvchilarda internet yoki mos texnik qurilma mavjud bo'lmasligi mumkin. Ikkinchidan, o'yin elementi tarixiy mazmundan ustun kelib qolish xavfi mavjud. Uchinchidan, topshiriqning haddan tashqari oson yoki murakkab bo'lishi uning pedagogik samaradorligini kamaytirishi mumkin.

Shuning uchun WordMint topshiriqlaridan foydalanishda har bir topshiriqning aniq maqsadi belgilanishi, o'quvchilarning yosh va bilim darajasi hisobga olinishi hamda topshiriqdan keyin albatta mazmunli muhokama tashkil etilishi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida tarix darslarida WordMint platformasidan maqsadli foydalanish o'quvchilarning faolligi va motivatsiyasini oshirish, tarixiy atamalarni mustahkamlash hamda mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Biroq WordMintning pedagogik samaradorligi uning texnik imkoniyatlarining o'ziga emas, balki o'qituvchining metodik yondashuviga bog'liq. Oddiy krossvord yoki so'z qidirish topshirig'i faqat yodlash darajasida qolib ketishi mumkin. Agar bunday topshiriqlar tarixiy tahlil, taqqoslash, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash va xulosa chiqarish bilan uyg'unlashtirilsa, ular yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- har bir WordMint topshirig'i aniq pedagogik maqsad asosida ishlab chiqilishi;
- topshiriqlarda faktlar bilan bir qatorda tarixiy tushunchalarga ham e'tibor qaratilishi;
- topshiriqlar oddiydan murakkabga tamoyili asosida tuzilishi;
- individual va guruhli faoliyat navbat bilan qo'llanilishi;
- tezlikdan tashqari tarixiy mazmunni tushuntirish ham baholanishi;
- har bir topshiriqdan keyin tahliliy savol va muhokama tashkil etilishi;
- WordMint yakuniy baholashning yagona vositasi sifatida emas, asosan formativ baholash vositasi sifatida qo'llanilishi;
- internet imkoniyati cheklangan holatlar uchun topshiriqlarning qog'oz variantlari ham tayyorlanishi tavsiya etiladi.

Umuman, WordMintni tarix darslariga joriy etishda "texnologiya uchun texnologiya" yondashuvidan voz kechish zarur. Texnologiya pedagogik maqsadga xizmat qilgan taqdirdagina o'quvchini tayyor ma'lumotni passiv qabul qiluvchi emas, balki izlanadigan, tahlil qiladigan va xulosa chiqaradigan faol ta'lim ishtirokchisiga aylantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in education: A tool on whose terms? Paris: UNESCO, 2023.
2. Shen X., Li J., Li M., Karimi A. A 29-Year (1994-2023) Bibliometrics Analysis of Usage of the Gamification in History Education. European Journal of Education. 2025. Vol. 60. Issue 4. e70256.
3. Martínez-Hita M., Gómez-Carrasco C. J., Miralles-Martínez P. The effects of a gamified project based on historical thinking on the academic performance of primary school children. Humanities and Social Sciences Communications. 2021. Vol. 8. Article 122.
4. Suprianto S., Yuliantri R. D. Application of gamification in history learning: Its impact on students' motivation and understanding of historical concepts. Jurnal Praksis dan Dedikasi Sosial. 2025. Vol. 8, No. 1. P. 186–196.
5. Scholz K. W., Komornicka J. N., Moore A. Gamifying History: Designing and Implementing a Game-Based Learning Course Design Framework. Teaching & Learning Inquiry. 2021. Vol. 9, No. 1.
6. Korniienko S. S., Semerikov S. O. Gamification of history education: a systematic review. Social Sciences & Humanities Open. 2026. Under review.
7. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637-son, 23.09.2020.

ZAMONAVIY FIZIKANI OLIY TA'LIMDA O'QITISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK MUAMMOLARI

Bekpo'latov Ulug'bek Rahmatulla o'g'li
Navoiy davlat universiteti "Fizika va astronomiya" kafedrasi professori vazifasini bajaruvchi, falsafa fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy fizikani oliy ta'limda o'qitishning konseptual-metodologik muammolari fizik bilimning ontologik, epistemologik, reprezentativ va aksiologik qatlamlari birligida tahlil qilinadi. Matematik formalizm bilan fizik mazmun, model bilan real obyekt, tajriba ma'lumoti bilan uning talqini, simulyatsiya bilan empirik dalil o'rtasidagi farqlar ochib beriladi. Zamonaviy fizika ta'limining metodologik yaxlitligini ta'minlovchi besh komponent: ontologik aniqlik, epistemik vositalanganlik, model-reprezentatsion intizom, tanqidiy ilmiy subyektlik va aksiologik mas'uliyat asoslanadi.

Kalit so'zlar: zamonaviy fizika ta'limi, konseptual tushunish, fizik reallik, ilmiy model, tajriba, simulyatsiya, epistemik mas'uliyat, sun'iy intellekt.

Abstract: The article examines the conceptual and methodological problems of teaching modern physics in higher education through the unity of the ontological, epistemological, representational and axiological levels of knowledge. It distinguishes mathematical formalism from physical meaning, a model from a real object, experimental data from their interpretation, and simulation from empirical evidence. Five components of methodological integrity are substantiated: ontological clarity, epistemic mediation, model-representational discipline, critical scientific agency and axiological responsibility.

Key words: modern physics education, conceptual understanding, physical reality, scientific model, experiment, simulation, epistemic responsibility, artificial intelligence.

Аннотация: В статье концептуально-методологические проблемы преподавания современной физики в высшей школе рассматриваются в единстве онтологического, эпистемологического, репрезентативного и аксиологического уровней знания. Разграничиваются математический формализм и физическое содержание, модель и реальный объект, экспериментальные данные и их интерпретация, симуляция и эмпирическое доказательство. Обоснованы пять компонентов методологической целостности физического образования: онтологическая определённость, эпистемическая опосредованность, модельно-репрезентативная дисциплина, критическая научная субъектность и аксиологическая ответственность.

Ключевые слова: современное физическое образование, концептуальное понимание, физическая реальность, научная модель, эксперимент, симуляция, эпистемическая ответственность, искусственный интеллект.

KIRISH

Zamonaviy fizika tabiat haqidagi bilimlar bilan birga, matematik modelning reallikka daxldorligi va kuzatish natijasining ilmiy dalilga aylanishi haqidagi tasavvurlarni ham o'zgartirdi. Nisbiylik nazariyasida makon-vaqtning mutlaq fon maqomini yo'qotishi, kvant mexanikasida holat va o'lchash munosabatining murakkablashuvi fizik ta'limning tushunchaviy asoslarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Shu sababli oliy ta'limdagi fizika kursi formula va hisoblash algoritmlarini uzatish bilan cheklana olmaydi, u nazariyaning empirik asosi va amal qilish chegarasini anglatishi zarur.

O'zbekistonda fizika ta'limining sifatini oshirish, laboratoriya bazasini mustahkamlash va talabalarni ilmiy tadqiqotga kengroq jalb etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1]. Biroq zamonaviy asbob, raqamli platforma yoki virtual laboratoriyaning mavjudligi fizik bilimning metodologik tabiatini o'z-o'zidan ochib bermaydi. Ularning ilmiy-pedagogik qiymati talaba o'lchash, model, dalil, noaniqlik va nazariy talqin o'rtasidagi munosabatni qay darajada anglashiga bog'liq.

Muammo zamonaviy fizika obyektlarining kundalik sezgi tajribasidan uzoqligi bilan murakkablashadi. Elektron, kvant holati, makon-vaqt egriligi yoki fizik vakuum bevosita ko'rinadigan predmet sifatida berilmaydi, ular matematik formalizm, eksperimental qurilma, ma'lumotlarni qayta ishlash va nazariy interpretatsiya birligida bilim obyektiga aylanadi. Mazkur vositalanganlik tushunilmasa, talaba sezgi bilan bevosita kuzatilmaydigan

obyektni noreal deb hisoblaydi yoki matematik formalizmning har bir elementiga mustaqil ontologik mavjudlik yuklaydi. Maqolaning maqsadi ana shu ziddiyatlarni tizimlashtirish va zamonaviy fizika ta'limining metodologik yaxlitligini belgilovchi komponentlarni asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy fizikani oliy ta'limda o'qitish masalalari L.S. Vigotskiy, D. Ausubel, E. Redish, C. Singh kabi olimlarning ta'lim va konseptual o'zlashtirishga oid qarashlarida yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida yangi fizik tushunchalarni shakllantirishda avvalgi bilimlar, matematik modellar, tajriba va nazariy talqin o'rtasidagi bog'liqlik muhim ekani ta'kidlanadi.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda kvant fizikasi va nisbiylik nazariyasini o'qitishda vizualizatsiya, kompyuter simulyatsiyalari, virtual laboratoriyalar hamda raqamli vositalardan foydalanish konseptual tushunishni kuchaytirishi qayd etilgan. Shu bilan birga, bunday vositalardan foydalanishda model bilan real obyektni, simulyatsiya bilan empirik tajribani farqlash zarurligi alohida ko'rsatib o'tiladi.

Mazkur ilmiy yondashuvlar zamonaviy fizika ta'limini metodologik jihatdan yaxlit tashkil etish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda konseptual tahlil, tarixiy-qiyosiy yondashuv, tizimli tahlil va epistemologik farqlash usullaridan foydalanildi.

Konseptual tahlil "fizik obyekt", "nazariy model", "tajriba ma'lumoti", "vizual reprezentatsiya", "simulyatsiya" va "ilmiy dalil" tushunchalarining mazmuniy chegaralarini aniqlashga xizmat qildi.

Tarixiy-qiyosiy yondashuv klassik mexanikadagi ko'rgazmali-deterministik tasvir bilan kvant va relativistik nazariyalardagi kontekstual, ehtimollik va invariantlikka asoslangan tavsiflarni solishtirish imkonini berdi.

Tizimli tahlil fizika ta'limini nazariya, tajriba, matematik til, raqamli vosita va talabaning bilish faoliyati o'zaro ta'sir qiladigan yaxlit jarayon sifatida ko'rib chiqishni ta'minladi [2–4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Talaba yangi fizik tushunchani avvalgi bilim, kundalik tajriba va shakllangan obrazlar orqali talqin qiladi. Oldingi bilim yangi mazmunni anglash uchun tayanch bo'lishi bilan birga, konseptual to'siqqa ham aylanishi mumkin [2]. Klassik mexanikada samarali bo'lgan "jism", "trayektoriya", "aniq holat" va "uzluksiz harakat" obrazlarining kvant obyektiga o'zgartirishsiz ko'chirilishi bunga misoldir. Elektronni doimo aniq joylashgan kichik shar sifatida tasavvur qilish ko'rgazmali jihatdan qulay, biroq kvant holatining nazariy mazmunini to'liq ifodalamaydi.

Nisbiylik nazariyasida ham konseptual qayta tashkil etish yuz beradi. Kundalik tajribada vaqt barcha kuzatuvchilar uchun bir xil, makon esa hodisalar joylashadigan o'zgarmas sahnadek ko'rinadi. Relativistik fizika ushbu tasavvurni "har qanday haqiqat nisbiy" degan subyektivistik hukm bilan emas, turli sanoq tizimlaridagi o'lchashlarni bog'laydigan invariant qonunlar orqali o'zgartiradi. Demak, konseptual rivojlanish eski tasavvurni oddiy rad etishdan emas, uning amal qilish sohasi va yangi nazariy kontekstdagi chegarasini anglashdan iborat.

Kvant ta'limiga oid tadqiqotlar asosiy qiyinchiliklar formalizmni fizik mazmun bilan bog'lash va kundalik obrazlarning chegarasini anglashda namoyon bo'lishini ko'rsatadi [3; 4]. Shu asosda ontologik aniqlik birinchi metodologik komponent sifatida ajratiladi. U nazariya qanday obyektni nazarda tutishi va qo'llanayotgan obraz to'liq tasvirmi yoki cheklangan modelmi, degan savollarni farqlashni bildiradi.

Matematika fizik qonunlarni aniq ifodalash va tekshiriladigan bashoratlar hosil qilishning ichki vositasidir. Shunga qaramay, matematik operatsiyaning to'g'ri bajarilishi fizik tushunishning to'liqligini kafolatlamaydi. Talaba tenglamani yechishi yoki grafik qurishi mumkin, lekin model qaysi idealizatsiyaga tayanishini, qaysi omillar e'tibordan chetda qoldirilganini va natija real tizimga qanday shartlarda tatbiq etilishini tushuntira olmasligi mumkin.

Formula, grafik va vizualizatsiya fizik obyektning o'zi emas, obyekt haqidagi nazariy bilimning reprezentatsion shakllaridir. Masalan, to'lqin funksiyasining grafigi kvant obyektining fotografik tasviri emas; ekranda elektronning shar ko'rinishida berilishi esa ontologik fakt emas, didaktik soddalashtirishdir. Reprezentatsiyaning ilmiy qiymati uning ko'rgazmaliligida emas, nimani ifodalashi va nimani ifodalay olmasligi aniq ko'rsatilganida namoyon bo'ladi.

Model-reprezentatsion intizom modelni real obyekt, algoritmni tabiiy jarayon va sonli aniqlikni empirik ishonchlilik bilan aynanlashtirmaslikni talab qiladi. Modelning kuchi muhim munosabatni ajratishdadir; uning chegarasi ham shu tanlashdan kelib chiqadi. Metodologik savodxonlik formuladan fizik mazmunga va fizik vaziyatdan matematik ifodaga o'ta olishda namoyon bo'ladi.

Fizika ta'limida tajriba ko'pincha oldindan ma'lum qonunni ko'rsatish shakliga qisqartiriladi. Zamonaviy ilmiy amaliyotda esa tajriba fizik obyekt, o'lchash qurilmasi, kalibrlash, yordamchi farazlar, ma'lumotlarni qayta ishlash va nazariy talqin o'zaro bog'langan tizimdir. Detektor qayd etgan signal obyekt xossasining tayyor nusxasi bo'lmay, asbobning javob xususiyati, shovqin, statistik mezon va model orqali ilmiy ma'no kasb etadi. Kvant tajribalarida "hodisani ko'rish" ham ko'pincha instrumental qaydning nazariy jihatdan asoslangan interpretatsiyasidir [5].

Tajribaning vositalanganligi obyektivlikni inkor etmaydi. Obyektivlik asbobning nazorat qilinishi, shartlarning qayd etilishi, noaniqlikning baholanishi, natijaning takror tekshirilishi va muqobil izohlarning solishtirilishi orqali qaror topadi. Smartfon va mikrokontroller asosidagi tajribalar ma'lumotni tez olish imkonini beradi, biroq qurilma ko'rsatgan son kalibrlash, namuna olish tezligi va sensor cheklovlaridan tashqarida ilmiy dalilga aylanmaydi [6]. Epistemik vositalanganlik talabaning natija bilan birga uning qaysi asbob, sharoit, algoritm va farazlar asosida hosil bo'lganini tahlil qila olishini anglatadi.

Virtual laboratoriya va kompyuter simulyatsiyasi abstrakt jarayonlarni ko'rgazmali qilish va real tajribada murakkab bo'lgan vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi [7]. Biroq simulyatsiya real tajribaning raqamli nusxasi emas; u muayyan nazariya, algoritm va boshlang'ich shartlarning hisoblashdagi amalga oshirilishidir. Model doirasidagi natijaning model bilan mosligi nazariyaning tabiat tomonidan mustaqil tasdiqlanganini anglatmaydi. Hisoblashda vaqt qadami, to'r o'lchami, chegaraviy shart va algoritm barqarorligi natijani o'zgartirishi mumkin. Talabaning ilmiy agentligi tayyor dasturdan foydalanish bilan emas, parametrlar sezgirligini tekshirish va natijaning fizik mazmunini asoslash bilan belgilanadi [8].

Ochiq ilmiy ma'lumotlar real tadqiqot jarayonini anglash uchun yangi imkoniyat yaratadi. Gravitatsion to'lqin kuzatuvlarida signalni instrumental shovqindan ajratish, filtr tanlash va statistik ishonchlilikni baholash ilmiy dalilning ko'p bosqichli tabiatini ko'rsatadi [9]. Shu bilan birga, mavjud ma'lumotni qayta ishlash va yangi fundamental natija yaratish turli epistemik darajalar ekanini anglash ilmiy da'vo ko'lami bilan dalil kuchini muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Zamonaviy fizikani o'zlashtirishda talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, tushuncha, dalil va model o'rtasidagi bog'lanishni mustaqil tiklovchi bilish subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Ravon ma'ruza "tushundim" degan subyektiv hissni kuchaytirishi mumkin, ammo murakkab vaziyatda bilimni qo'llash va xulosani asoslash qobiliyatini avtomatik ta'minlamaydi [10]. Tanqidiy ilmiy subyektlik "bilimni eshitish", "bilimni takrorlash" va "bilimni asoslash" bosqichlarini farqlashni talab qiladi. Asoslash bosqichida talaba nazariyaning amal qilish sharti, empirik tayanchi va muqobil talqinlarini tushuntira oladi.

Aralash ta'lim muhitida axborotga kirish zarur bo'lishi mumkin, biroq manbaning ilmiy maqomi va metodologik asosi baholanmasa, axborot bilimga aylanmaydi [2]. Mustaqil ta'lim ham ilmiy savolni aniqlash, manbalarni taqqoslash va xulosaning cheklovlarini anglashda namoyon bo'ladi.

Generativ sun'iy intellekt fizik izoh, masala yechimi yoki matn loyihasini yaratishi mumkin, ammo ravon javob ilmiy to'g'rilik kafolati emas. Tizim mavjud bo'lmagan manbani yoki mazmuni buzilgan formulani ishonchli ohangda taqdim etishi mumkin [11]. Shu sababli uning natijasi tekshirilishi zarur bo'lgan oraliq epistemik obyekt sifatida qaralishi kerak.

UNESCO tavsiyalarida inson qarorining ustuvorligi, etik mas'uliyat, ma'lumotlarni himoya qilish va ta'limdagi tenglik asosiy mezonlar sifatida belgilangan [12]. Fizika ta'limida bu formula, birlik, boshlang'ich shart va manbani tekshirishni taqozo etadi. Aksiologik mas'uliyat texnologik natijaga javobgarlikni, tanqidiy ilmiy subyektlik esa uni mustaqil tekshirish va asoslash qobiliyatini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy fizikani oliy ta'limda o'qitishning asosiy metodologik muammosi yangi nazariy ma'lumotlar hajmining ortishida emas, fizik bilim qatlamlarining bir-biridan ajralib qolishidadir. Matematik formalizm fizik mazmundan, simulyatsiya real tajribadan, vizual obraz nazariy modeldan va texnologik javob ilmiy asoslashdan uzilganida talaba hisoblash amallarini bajarsa ham, nazariyaning reallikka munosabatini to'liq anglamaydi.

Tahlil natijasida zamonaviy fizika ta'limining metodologik yaxlitligini belgilovchi besh komponent asoslandi: ontologik aniqlik fizik nazariya qaysi obyekt va xossalarni nazarda tutishini anglatadi; epistemologik vositalanganlik dalilning asbob, sharoit va talqin orqali shakllanishini ochadi; model-reprezentatsion intizom modelni obyekt va simulyatsiyani tajriba bilan aynanlashtirishga yo'l qo'ymaydi; tanqidiy ilmiy subyektlik talabani xulosani asoslovchi faol bilish subyektiga aylantiradi; aksiologik mas'uliyat esa axborot, raqamli vosita va ilmiy da'voning oqibatlariga ongli munosabatni talab etadi.

Ushbu komponentlarning birligi fizikani o'qitishni tayyor bilimni uzatishdan ilmiy tafakkurni shakllantirish jarayoniga aylantiradi. Bunday tafakkur dalil va taxminni farqlash, noaniqlikni baholash, modelning chegarasini ko'rish va yangi ma'lumotlar asosida xulosani qayta ko'rib chiqish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy fizika ta'limining akademik qiymati talabada reallikka sodiqlik, nazariy aniqlik, epistemologik kamtarlik va ilmiy mas'uliyat birligini qaror toptirish bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: https://lex.uz/docs/-5338558 (murojaat sanasi: 22.08.2026).
2. National Academies of Sciences, Engineering, and Medicine. How People Learn II: Learners, Contexts, and Cultures. - Washington, DC: The National Academies Press, 2018. - 347 p. DOI: 10.17226/24783.
3. Bouchée T., de Putter-Smits L., Thurlings M., Pepin B. Towards a Better Understanding of Conceptual Difficulties in Introductory Quantum Physics Courses // Studies in Science Education. – 2022. – Vol. 58. – No. 2. – P. 183–202. DOI: 10.1080/03057267.2021.1963579.
4. Marshman E., Singh C. QuILTs: Validated Teaching–Learning Sequences for Helping Students Learn Quantum Mechanics // Physics Teacher Education: What Matters? - Cham: Springer, 2022. - P. 15-35. DOI: 10.1007/978-3-031-06193-6_2.
5. Borish V., Lewandowski H.J. Seeing Quantum Effects in Experiments // Physical Review Physics Education Research. – 2023. – Vol. 19. - Art. 020144. - P. 1-25. DOI: 10.1103/PhysRevPhysEducRes.19.020144.
6. Organtini G. Physics Experiments with Arduino and Smartphones. - Cham: Springer, 2021. - 397 p. DOI: 10.1007/978-3-030-65140-4.
7. Рахманкулова Г.А. Методические аспекты применения виртуальных экспериментов по физике в техническом вузе // Педагогическое образование. - 2023. - Т. 4. - № 6. - С. 76-81.
8. Phillips A.M., Gouvea E.J., Gravel B.E., Beachemin P.-H., Atherton T.J. Physicality, Modeling, and Agency in a Computational Physics Class // Physical Review Physics Education Research. - 2023. - Vol. 19. - Art. 010121. - P. 1-27. DOI: 10.1103/PhysRevPhysEducRes.19.010121.
9. Abbott R. et al. Open Data from the First and Second Observing Runs of Advanced LIGO and Advanced Virgo // SoftwareX. - 2021. - Vol. 13. - Art. 100658. - P. 1-5. DOI: 10.1016/j.softx.2021.100658.
10. Deslauriers L., McCarty L.S., Miller K., Callaghan K., Kestin G. Measuring Actual Learning Versus Feeling of Learning in Response to Being Actively Engaged in the Classroom // Proceedings of the National Academy of Sciences. - 2019. - Vol. 116. - No. 39. - P. 19251-19257. DOI: 10.1073/pnas.1821936116.
11. Cooper G. Examining Science Education in ChatGPT: An Exploratory Study of Generative Artificial Intelligence // Journal of Science Education and Technology. - 2023. - Vol. 32. - P. 444-452. DOI: 10.1007/s10956-023-10039-y.
12. Miao F., Holmes W. Guidance for Generative AI in Education and Research. - Paris: UNESCO, 2023. - 44 p. DOI: 10.54675/EWZM9535.

MENEJMENT TA'LIMIDA EKONOMETRIK TAHLIL NATIJALARINI BOSHQARUV QARORLARIGA TRANSFORMATSIYA QILISHNING DIDAKTIK MODELI

UDK: 378.147:330.43

Bobonorova Qundizxan Quralbay qizi
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Menejment ta'limida ekonometrik tahlil natijalarini asoslangan boshqaruv qarorlariga transformatsiya qilishning didaktik imkoniyatlari tadqiq etilgan. Kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va fanlararo yondashuvlar asosida ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish, qiyoslash, tizimlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijasida iqtisodiy muammoni formalashtirish, ekonometrik modelni qurish va diagnostik baholash, natijalarni iqtisodiy interpretatsiya qilish, prognozlash hamda boshqaruv qarorini asoslashni o'zaro bog'lovchi didaktik model taklif etilgan. Ekonometrik kompetentlikning tarkibiy komponentlari mazkur faoliyat sikli bilan integratsiyalashgan holda asoslangan. Modelni raqamli ta'lim muhitida differensial topshiriqlar, dasturiy vositalar, monitoring va refleksiv teskari aloqa asosida amalga oshirish ekonometrik tahlil natijalarini kasbiy boshqaruv vazifalariga yo'naltirish imkonini berishi nazariy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: ekonometrik kompetentlik, menejment ta'limi, kompetensiyaviy yondashuv, ekonometrik model, raqamli ta'lim muhiti, ma'lumotlar tahlili, prognozlash, boshqaruv qarori.

Abstract: The didactic potential of transforming econometric analysis results into evidence-based managerial decisions in management education is examined. Drawing on competency-based, systemic, activity-oriented, and interdisciplinary approaches, the study employs theoretical analysis of scholarly sources, comparison, systematization, and pedagogical modeling. As a result, a didactic model is proposed that integrates economic problem formalization, econometric model construction and diagnostic evaluation, economic interpretation of results, forecasting, and justification of managerial decisions. The structural components of econometric competence are substantiated in relation to this integrated activity cycle. The study theoretically substantiates the implementation of the model in a digital learning environment through differentiated tasks, software tools, monitoring, and reflective feedback to orient econometric analysis toward professional managerial tasks.

Key words: econometric competence, management education, competency-based approach, econometric model, digital learning environment, data analysis, forecasting, managerial decision.

Аннотация: Исследованы дидактические возможности трансформации результатов эконометрического анализа в обоснованные управленческие решения в процессе обучения менеджменту. На основе компетентностного, системного, деятельностного и междисциплинарного подходов применены методы теоретического анализа научных источников, сравнения, систематизации и педагогического моделирования. В результате исследования предложена дидактическая модель, объединяющая формализацию экономической проблемы, построение и диагностическую оценку эконометрической модели, экономическую интерпретацию результатов, прогнозирование и обоснование управленческого решения. Структурные компоненты эконометрической компетентности обоснованы во взаимосвязи с данным циклом деятельности. Теоретически обоснована возможность реализации модели в цифровой образовательной среде на основе дифференцированных заданий, программных средств, мониторинга и рефлексивной обратной связи с целью ориентации результатов эконометрического анализа на решение профессиональных управленческих задач.

Ключевые слова: эконометрическая компетентность, обучение менеджменту, компетентностный подход, эконометрическая модель, цифровая образовательная среда, анализ данных, прогнозирование, управленческое решение.

KIRISH

Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi natijasida boshqaruv faoliyatining axborot bazasi kengayib, menejerning kasbiy muvaffaqiyati ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va dalillarga tayangan holda qaror ishlab chiqish qobiliyatiga tobora ko'proq bog'lanmoqda. Ishlab chiqarish hajmi, xarajatlar, daromad, mehnat unumdorligi, bozor talabi va investitsiyalar singari ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'lanishlarni oddiy kuzatish orqali emas, balki statistik ishonchlilikni hisobga olgan holda baholash zarur. Shu sababli menejment ta'limida ekonometrika alohida hisob-kitoblar majmui emas, balki noaniqlik sharoitida boshqaruv qarorlarini asoslash vositasi sifatida o'qitilishi lozim. Ekonometrik tayyorgarlikda modelni qurish va dasturiy vositalar yordamida hisoblash natijalarini olish muhim bo'lsa-da, bunday faoliyatning kasbiy qiymati natijalarni iqtisodiy mazmunda talqin qilish va boshqaruv vazifalari bilan bog'lash orqali namoyon bo'ladi.

Shu nuqtayi nazardan, ekonometrik bilimlarni kasbiy faoliyatga transfer qilish mexanizmini didaktik jihatdan asoslash zarurati yuzaga keladi. Mazkur masala nazariy bilimlarni, tahliliy faoliyatni, prognozlashni va boshqaruv qarorlarini yagona ta'lim natijasi doirasida integratsiyalashni talab etadi.Tadqiqotning maqsadi menejment ta'limida ekonometrik tahlil natijalarini boshqaruv qarorlariga transformatsiya qilish jarayoniga doir ilmiy qarashlarni tizimlashtirish, ushbu jarayonning tarkibiy komponentlarini asoslash va uni ta'minlaydigan didaktik modelni taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli ta'lim muhiti ekonometrik kompetentlikni rivojlantirishda autentik ma'lumotlardan foydalanish, hisoblash jarayonlarini dasturiy vositalar orqali avtomatlashtirish va talabaning o'quv faoliyatini monitoring qilish imkonini beradi. Excel, EViews, R yoki Python kabi vositalar hisoblash yukini kamaytirib, asosiy e'tiborni model tanlash, diagnostika, iqtisodiy jihatdan talqin qilish va boshqaruv xulosalarini shakllantirishga yo'naltirishga xizmat qiladi. Taklif etilayotgan rivojlantirish mexanizmi boshlang'ich diagnostika natijalariga muvofiq topshiriqlarni differensiallashtirish, raqamli-amaliy faoliyatni tashkil etish hamda natijalarni monitoring qilish va korreksiyalashga asoslanadi. Topshiriqlarning murakkabligi uch darajada belgilanadi: reproduktiv darajada talaba tayyor ma'lumotlar va ko'rsatmalar asosida model quradi; produktiv darajada usul va o'zgaruvchilarni mustaqil tanlaydi; ijodiy-kasbiy darajada esa iqtisodiy muammoni formalashtiradi, muqobil modellarni taqqoslaydi va tahlil natijalariga tayangan holda boshqaruv tavsiyasini asoslaydi.

Monitoringda faqat yakuniy sonli javob emas, balki jarayonning sifati ham baholanishi kerak. Buning uchun muammoni formalashtirishning mantiqiyligi, ma'lumotlarning yaroqliligi, model tanlovining asoslanganligi, diagnostikaning to'liqligi, natijalarni iqtisodiy jihatdan talqin qilishning aniqligi, prognozning ehtiyotkorligi va tavsiyaning dalillanganligi kabi indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur indikatorlar monitoringni faqat yakuniy natijani qayd etish vositasidan talabaning qaysi faoliyat bosqichida metodik yordamga ehtiyoj sezayotganini aniqlovchi diagnostik mexanizmga aylantiradi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi ekonometrik tahlil natijalarini boshqaruv qarorlariga transformatsiya qilish jarayonining menejment ta'limidagi didaktik modeli asoslanganida namoyon bo'ladi. Model ekonometrik faoliyat bosqichlarini kasbiy qaror qabul qilish jarayoni bilan integratsiyalash hamda kompetentlik rivojini diagnostika, differensial topshiriqlar va monitoring asosida boshqarishni nazarda tutadi. Natijalardan "Ekonometrika" fanining amaliy mashg'ulotlarini, mustaqil ta'lim topshiriqlarini va baholash mezonlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin. Taklif etilgan model ekonometrik ta'limni talabni prognozlash, xarajatlarni optimallashtirish, investitsiya variantlarini baholash va risk sharoitida boshqaruv qarorlarini asoslash kabi kasbiy vazifalar bilan bog'lashga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-tahliliy dizaynda tashkil etildi. Tadqiqot materiali sifatida kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari, ekonometrik ta'lim metodikasi, raqamli kompetentlik hamda iqtisodiy-boshqaruv tayyorgarligiga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar va oliy ta'lim uchun darsliklar olindi. Manbalarni tanlashda ularning tadqiqot muammosiga bevosita aloqadorligi, kompetentlikning mazmuni yoki tarkibini yoritishi, ekonometrik faoliyat bosqichlarini tavsiflashi hamda raqamli vositalarning ta'limiy imkoniyatlarini ochib berishi mezon sifatida belgilandi. Tadqiqot nazariy-tahliliy yo'nalishda amalga oshirilib, kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va fanlararo yondashuvlarga asoslandi. Tadqiqot materiali sifatida ekonometrik ta'lim metodikasi, kompetentlik, raqamli ta'lim hamda iqtisodiy-boshqaruv tayyorgarligiga oid ilmiy manbalar tanlandi.

Nazariy tahlil, qiyoslash, mazmuniy guruhlash, tizimlashtirish va pedagogik modellashtirish metodlari orqali ekonometrik kompetentlikning tarkibiy komponentlari hamda ularni rivojlantirish mexanizmi asoslandi. Tahlil izchil uch bosqichda amalga oshirildi: dastlab kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining kasbiy faoliyat bilan bog'liq nazariy talqinlari o'rganildi; keyingi bosqichda ekonometrik tayyorgarlikning fanlararo mazmuni va

asosiy faoliyat turlari tizimlashtirildi; yakuniy bosqichda esa aniqlangan kategoriyalar menejerning kasbiy vazifalari bilan muvofiqlashtirilib, ekonometrik kompetentlikning tarkibiy tuzilmasi va uni rivojlantirishning didaktik mexanizmi shakllantirildi. Tadqiqot natijalari nazariy manbalar sinteziga asoslangan bo'lib, empirik tajriba-sinov natijalarini qamrab olmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

D. McClelland standart intellekt testlari kasbiy muvaffaqiyatni to'liq tushuntira olmasligini ko'rsatib, baholashni real faoliyatda namoyon bo'ladigan xususiyatlarga yo'naltirish g'oyasini ilgari surgan [1].

L. Spencer va S. Spencer kompetensiyani muayyan vaziyatlarda samarali natijaga sabab bo'ladigan barqaror individual xususiyat sifatida sharhlaydi [2]. Bu yondashuvlar ta'lim natijasini faqat nazariy axborotni qayta aytish orqali emas, balki talabaning iqtisodiy muammoni hal etishdagi mustaqil faoliyati orqali baholash zarurligini asoslaydi.

Ekonometrika iqtisodiy nazariya, matematika va statistika tutashuvida shakllangan bo'lib, uning ta'limiy natijasi mazkur fanlarga oid bilimlarni yagona mantiqiy jarayonda qo'llashda namoyon bo'ladi. Y. Piao va L. Zhong ekonometrika kursi modelni qurish, tekshirish, tuzatish, baholash, iqtisodiy jihatdan talqin qilish hamda prognozlash yoki siyosiy baholashni amalga oshirishga yo'naltirilishi kerakligini qayd etadi [3].

P. Kiyko va N. Shchukina esa elektron jadvallar va interfaol metodlar yordamida iqtisodiy obyektlarni tahlil qilish hamda prognozlash kasbiy-amaliy kompetensiyalarni shakllantirishini asoslaydi [4]. Shunday ekan, ekonometrik tayyorgarlikning yakuniy mezoni formula yoki dastur buyrug'ini bilish emas, balki iqtisodiy vaziyat uchun ishonchli dalil ishlab chiqishdir.

Milliy o'quv-uslubiy manbalarda ekonometrik modellashtirish iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi miqdoriy bog'lanishlarni aniqlash, ma'lumotlarni dasturiy vositalar yordamida qayta ishlash, model parametrlarini baholash, natijalarni tahlil qilish va prognozlashning o'zaro bog'liq jarayoni sifatida yoritilgan [9–11]. Bu yondashuvlar ekonometrik tayyorgarlikda nazariy bilim, dasturiy faoliyat va iqtisodiy jihatdan talqin qilishning uzviyligini ko'rsatadi.

Tahlil natijasida quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etiladi: menejment yo'nalishi talabalarining ekonometrik kompetentligi – iqtisodiy, matematik, statistik va ekonometrik bilimlarni integratsiyalash asosida iqtisodiy ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish, muayyan iqtisodiy vaziyatga mos ekonometrik usul hamda modelni mustaqil tanlash va qurish, uning parametrlarini baholash va diagnostik tekshirish, olingan natijalarni iqtisodiy jihatdan talqin qilish, prognozlash hamda ular asosida asoslangan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish imkonini beruvchi integrativ kasbiy sifatdir.

1-jadval: **Ekonometrik kompetentlikning tarkibiy komponentlari**

Komponent	Mazmuni	Talabaning faoliyati	Kutiladigan natija
Kognitiv	Iqtisodiy, matematik, statistik va ekonometrik tushunchalar tizimi	Muammoni anglaydi, o'zgaruvchilarni va nazariy bog'lanishlarni belgilaydi	Model qurish uchun nazariy asos
Tahliliy-amaliy	Ma'lumotlar va ekonometrik vositalar bilan ishlash	Ma'lumotlarni tayyorlaydi, usul tanlaydi, model quradi va diagnostika qiladi	Statistik jihatdan asoslangan model
Izohlash-prognozlash	Natijalarni iqtisodiy mazmunda sharhlash va istiqbolni baholash	Koeffitsiyentlarni talqin qiladi, cheklovlarni aniqlaydi, prognoz tuzadi	Iqtisodiy mazmunli xulosa va prognoz
Qaror qabul qilish-boshqaruv	Tahlil natijalarini kasbiy qarorlarga transfer qilish	Muqobillarni taqqoslaydi, risklarni baholaydi, qarorni asoslaydi	Dalillarga tayangan boshqaruv qarori

Mazkur ta'rifda ekonometrik kompetentlik iqtisodiy, statistik va raqamli kompetentliklarning oddiy yig'indisi emas, balki ularni boshqaruv vazifalarini hal etishga yo'naltiruvchi integrativ kasbiy sifat sifatida talqin etiladi. Uning o'ziga xosligi ma'lumotlar tahlili va modellashtirish natijalarini prognoz hamda asoslangan boshqaruv qarorlariga transformatsiya qilishda namoyon bo'ladi. Jadvalda keltirilgan komponentlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, ekonometrik faoliyatning yaxlit kasbiy siklini tashkil etadi. Shu sababli ularni baholashda alohida ko'nikmalar bilan bir qatorda talabaning iqtisodiy muammoni tahlil natijasidan asoslangan boshqaruv qarorigacha izchil olib borish qobiliyatini ham hisobga olish maqsadga muvofiq.

Ekonometrik faoliyatning to'liq sikli quyidagi mantiqiy ketma-ketlikda namoyon bo'ladi:

- iqtisodiy muammoni aniqlash;
- nazariy gipotezani shakllantirish;

- ma'lumotlarni izlash va tayyorlash;
- model turini tanlash;
- parametrlarni baholash;
- statistik va diagnostik tekshiruvlarni amalga oshirish;
- natijalarni iqtisodiy jihatdan talqin qilish;
- prognoz va ssenariylarni ishlab chiqish;
- muqobil qarorlarni taqqoslash;
- boshqaruv tavsiyasini asoslash.

Mazkur siklning ta'lim topshiriqlarida izchil aks ettirilishi talabaning alohida hisoblash amallarini bajarishdan kompleks ekonometrik tahlil asosida mustaqil boshqaruv xulosasini shakllantirishga bosqichma-bosqich o'tishini ta'minlaydi.

Olingan natijalar D. McClelland hamda L. Spencer va S. Spencer tomonidan kompetentlikning real faoliyat va kasbiy natija bilan bog'liq holda talqin etilishi haqidagi nazariy qarashlarni ekonometrik ta'lim mazmuniga tatbiq etadi [1; 2]. Mazkur tadqiqotda ushbu yondashuv menejment yo'nalishining kasbiy xususiyatidan kelib chiqib rivojlantirilib, ekonometrik tayyorgarlik natijasi talabaning nafaqat model qurishi, balki olingan tahliliy natijalarni iqtisodiy jihatdan asoslangan boshqaruv qarorlariga aylantira olishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari Y. Piao va L. Zhongning modelni qurishdan iqtisodiy jihatdan talqin qilish va prognozlashgacha bo'lgan faoliyatlarni yaxlit o'qitish haqidagi xulosalari [3] hamda P. Kiyko va N. Shchukinaning interfaol dasturiy faoliyat kasbiy-amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishi haqidagi qarashlari [4] bilan uyg'un.

Biroq mazkur tadqiqotda ekonometrik faoliyatning chegarasi prognoz natijasini olish bilan yakunlanmaydi. Taklif etilgan didaktik modelning farqli jihati tahlil va prognoz natijalarini muqobil variantlarni baholash, risklarni hisobga olish hamda dalillarga tayangan boshqaruv qarorini asoslash bosqichlari bilan to'ldirishdan iborat. Shu tariqa ekonometrik tayyorgarlikning mazmuni menejment yo'nalishining bevosita kasbiy vazifalari bilan integratsiyalashadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari menejment ta'limida ekonometrik tayyorgarlikni model qurish va statistik natijalarni olish bilan chegaralamasdan, ularni iqtisodiy jihatdan talqin qilish, prognozlash va boshqaruv qarorlarini asoslash bilan integratsiyalash zarurligini ko'rsatdi. Taklif etilgan didaktik model ekonometrik faoliyat bosqichlarini kasbiy qaror qabul qilish jarayoni bilan bog'lashga xizmat qiladi. Kelgusida modelning mezon va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini tajriba-sinov asosida baholash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. McClelland D. C. Testing for Competence Rather Than for "Intelligence" // American Psychologist. – 1973. – Vol. 28, No. 1. – P. 1–14. DOI: 10.1037/h0034092.
2. Spencer L. M., Spencer S. M. Competence at Work: Models for Superior Performance. – New York: John Wiley & Sons, 1993. – 372 p.
3. Piao Y., Zhong L. Research on the Teaching Method of Econometrics // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Vol. 7, No. 10. – P. 151–154.
4. Kiyko P. V., Shchukina N. V. Teaching Methodology of Econometric Modeling with the Help of Interactive Teaching Methods // International Journal of Economic Research. – 2017. – Vol. 14, No. 7. – P. 59–66.
5. Wooldridge J. M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. – 7th ed. – Boston: Cengage, 2020.
6. Stock J. H., Watson M. W. Introduction to Econometrics. – 4th ed. – Pearson, 2019.
7. European Commission. DigComp 2.2: The Digital Competence Framework for Citizens / R. Vuorikari, S. Kluzer, Y. Punie. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022. DOI: 10.2760/115376.
8. Gu L. An Empirical Study on the Influence Factors of Simulation Software Practice Effect of Economic and Management Students–Based on the Teacher's Ability of TPACK // Journal of Theory and Practice of Contemporary Education. – 2023. – Vol. 3, No. 9. – P. 16–26. DOI: 10.53469/jtpce.2023.03(09).03.
9. Shodiyev T. Sh., Xakimov T. X., Boltayeva L. R., Ishnazarov A. I., Nurullayeva Sh. T., Mo'minova M. A. Ekonometrika: o'quv qo'llanma. – Toshkent: TDIU, 2007. – 178 b.
10. Habibullayev I. Ekonometrika: darslik. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020. – 240 b.
11. Shadmanova G. Ekonometrika: darslik. – Toshkent: TIQXMMI, 2019. – 246 b.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA VA PEDAGOGIKADA SHAXSGA XOS UNIVERSAL TA'LIMIY FAOLIYATLARNING AHAMIYATI

Shomirzayeva Nargiza Sherali qizi
Namangan davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy psixologiya va pedagogika fanlari kesishmasida shaxsga xos universal ta'limiy faoliyatlarning (universal ta'limiy harakatlarning) o'quvchilar taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, shaxsiy, regulyativ, kognitiv va kommunikativ faoliyatlar orqali o'quvchida "o'rganishni o'rganish" ko'nikmasini shakllantirish, ularning amaliy ahamiyati hamda uzluksiz ta'lim (Lifelong Learning) tizimidagi o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: universal ta'limiy faoliyatlar, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsiy rivojlanish, regulyativ ko'nikmalar, kognitiv jarayonlar, kommunikativ faoliyat, "o'rganishni o'rganish".

Abstract: This article analyzes the role and significance of universal learning activities specific to the personality at the intersection of modern psychology and pedagogy in student development. It also highlights the formation of the "learning how to learn" skill through personal, regulatory, cognitive, and communicative activities, their practical significance, and their role in the lifelong learning system.

Key words: universal learning activities, competency-based approach, personal development, regulatory skills, cognitive processes, communicative activity, "learning how to learn".

Аннотация: В данной статье анализируется роль и значение универсальных учебных действий (УУД), специфичных для личности, на стыке современной психологии и педагогики в развитии учащихся. Также освещаются вопросы формирования навыка "учиться тому, как учиться" посредством личностных, регулятивных, познавательных и коммуникативных действий, их практическая значимость и роль в системе непрерывного образования (Lifelong Learning).

Ключевые слова: универсальные учебные действия, компетентностный подход, личностное развитие, регулятивные навыки, познавательные процессы, коммуникативная деятельность, "учиться тому, как учиться".

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan intilishlari hamda ta'lim sifatiga qo'yiladigan yuqori talablar bilan xarakterlanadi. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivoji, ilmiy kashfiyotlar sonining ortishi, bilimlar bazasining tez yangilanishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi mehnat bozorida kasbiy mobillikni oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu sababli yosh avlodni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan ta'lim modellarini yaratish va yangilash orqali o'quv jarayonining maqsad va mazmunini qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limni modernizatsiya qilish strategiyasining asosiy konseptual yo'nalishlaridan biri sifatida bo'lajak mutaxassislarning mustaqilligi, raqobatbardoshligi, mobilligi, ijodiy tashabbuskorligi hamda o'quvchi-yoshlarning mustaqil rivojlanishiga yo'naltirilgan kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish belgilangan. Mazkur yondashuv Bloom taksonomiyasi kabi kognitiv domenlarning o'quv maqsadlarini aniqlashga qaratilgan taksonomik modellar bilan uyg'unlashgan holda, o'quvchilarda yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. "Aynan insonning asosiy kompetensiyalarini, ya'ni bilish, bajarish, baholash va ijod qilish qobiliyatlarini shakllantirish fan va ta'lim amaliyotida istiqbolli yo'nalish hisoblanadi" (1-adabiyot), chunki bu malakalar shaxsning jamiyatdagi o'rnini topishi va uning uzluksiz kasbiy rivojlanishi uchun zamin yaratadi.

Ta'limning me'yoriy va amaliy tarkibiy qismlariga muayyan hayotiy vazifalarni yoki muammoli vaziyatlarni hal qilish uchun kompetensiyalarni kiritish barcha maktablar uchun xos bo'lgan muammoni bartaraf etishga yordam beradi. Ushbu muammo shundan iboratki, o'quvchilar nazariy bilimlar to'plamini yaxshi o'zlashtira

oladilar, biroq bu bilimlardan foydalanishni talab qiladigan amaliy faoliyatda qiyinchiliklarga duch kelishadi. "Bu holat, ayniqsa, 'bilish - eslash - takrorlash'ga asoslangan an'anaviy ta'lim tizimlarida yaqqol namoyon bo'ladi"[1], bu esa bilimlarning passiv o'zlashtirilishiga olib keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

An'anaviy ta'limda o'quv jarayoni ko'pincha aqliy faoliyatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tinglash, eslab qolish va yoddan aytib berish kabi usullarga asoslanadi. Anderson, L. W. va Krathwohl, D. R.ning fikricha, "Bu ta'lim jarayonining umumiy samaradorligini sezilarli darajada pasaytiradi, o'quvchining mustaqil fikrlashi uchun sharoit yaratilmaganligi esa ularning o'zini o'zi rivojlantirishni rag'batlantirmasdan, mas'uliyat va mustaqillik darajasini pasaytiradi" (2-bet).

Zamonaviy ta'lim esa shaxsni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, u o'quvchilarni aktiv ishtirok etishga, muammolarni hal qilishga va mustaqil fikrlashga undaydi. Zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifasi - shaxsning qobiliyatini rivojlantiradigan universal ta'lim faoliyatlari (UTF) to'plamini shakllantirishdan iborat. O'quvchilar tomonidan alohida fanlar bo'yicha aniq bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish emas, balki yangi ijtimoiy tajribani ongli va faol o'zlashtirish orqali o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi takomillashtirish muhimroqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda universal ta'limiy faoliyatlarning zamonaviy psixologiya va pedagogikadagi ahamiyatini o'rganish maqsadida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

L.S. Vigotskiy, A.N. Leontev, D.B. Elkonin, V.V. Davidov, P.Ya. Galperin, A.G. Asmolov hamda boshqa olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, universal ta'limiy faoliyatlarning shaxsiy, regulyativ, kognitiv va kommunikativ rivojlanishdagi o'rni yoritildi.

Olingan nazariy ma'lumotlar asosida UTFlarning o'quvchi shaxsini rivojlantirishdagi pedagogik ahamiyati umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Universal ta'limiy faoliyatlar tushunchasining paydo bo'lishi ta'lim paradigmasining o'zgarishi bilan bog'liq. Bilim, ko'nikma va malakalarning o'zini o'zlashtirish maqsadidan o'quvchi shaxsini rivojlantirish maqsadiga o'tish bilan bog'liq. Bunda o'quv jarayonini tashkil etishda o'quvchining individual o'ziga xosligini, ijtimoiy kompetensiyasini, bag'rikengligini, mustaqil ravishda yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish qobiliyatini ta'minlaydigan faoliyatlar usullari to'plami tushuniladi. O'rganish qobiliyati, ya'ni subyektning yangi ijtimoiy tajribani ongli va faol o'zlashtirishi orqali, yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'zini o'zi rivojlantirish va o'zini o'zi baholash qobiliyati deb tushunish lozim. Ushbu ta'limiy faoliyatlarni shakllantirishning dastlabki bosqichi boshlang'ich sinf davriga to'g'ri keladi. Shuning uchun boshlang'ich ta'lim - o'qitish tizimining asosiy bo'g'ini bo'lib, ta'limning keyingi bosqichlaridagi o'qitish va tarbiyalash samaradorligi bu davrning muvaffaqiyatiga bog'liq, shuning uchun boshlang'ich ta'limni modernizatsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

UTF - o'rganish qobiliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning hayoti davomida zarur bo'ladigan ijtimoiy tajriba sohasida mustaqil rivojlanish va takomillashish imkoniyatini ta'minlaydigan harakatlar va o'quv qobiliyatlarining majmuasidir. A. V. Fedotova ta'kidlaganidek, UTF - bu "o'quvchilarning turli fan yo'nalishlarida ham, o'quv faoliyatining o'zida ham keng imkoniyatlar yaratuvchi umumlashtirilgan harakatlar bo'lib, o'quvchilarning maqsadli yo'nalishi, qadriyat-mazmuni va operatsion xususiyatlaridan xabardorligini oshiradi" (Fedotova, 2010). Bu ta'rif UTFning o'quv jarayonidagi integrativ rolini va o'quvchining o'z o'qishiga bo'lgan ongli munosabatini ta'kidlaydi.

Boshlang'ich ta'limda o'quv jarayonini takomillashtirish uchun bir qator dolzarb masalalarga innovatsion yechimlar talab etiladi. Ulardan biri o'quvchilarning UTFni shakllantirish samaradorligini oshirish, ularga mustaqil ta'lim olish, o'quv maqsadlarini belgilash, ularni amalga oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish, o'z yutuqlarini baholash va nazorat qilish, o'zini o'zi rivojlantirish qobiliyatlarini ta'minlashdan iborat. Bu jarayonlarda "o'qituvchilar fasilitator (yordam beruvchi) rolini o'ynashi, o'quvchilarni yo'naltirishi va resurslar bilan ta'minlashi lozim" (Vygotsky).

UTFning universal tabiati ularning haddan tashqari subyektiv, meta-subyekt xarakteriga ega ekanligida namoyon bo'ladi, ular ta'lim subyektining shaxsiy, regulyativ, kognitiv, kommunikativ rivojlanishining yaxlitligini amalga oshiradi; har qanday fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini

1 Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. (Eds.). (2001). A taxonomy for learning, teaching, and assessing: A revision of Bloom's Taxonomy of educational objectives. Allyn & Bacon.

ta'minlash, o'quvchilarga hayotiy muammolarni hal qilish uchun sharoit yaratadi. Bu fikrlar, ayniqsa, "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi doirasida muhim bo'lib, unda har bir o'quvchining noyob qobiliyatlari va ehtiyojlari e'tiborga olinadi"[2].

Universal ta'limiy faoliyatlarning (UTF) universal tabiati ularning haddan tashqari subyektiv va meta-subyekt xarakteriga ega ekanligida yaqqol namoyon bo'ladi. Chunki ular ta'lim subyektining shaxsiy, regulyativ, kognitiv hamda kommunikativ rivojlanishining yaxlitligini ta'minlaydi. Karl Rojers o'zining "Shaxsga yo'naltirilgan terapiya" asarida ta'kidlaganidek, har bir o'quvchining noyob qobiliyatlari va ehtiyojlarini e'tiborga oluvchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi doirasida bu jihatlar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. UTF har qanday fan bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga zamin yaratibgina qolmay, o'quvchilarga kundalik hayotiy muammolarni ongli ravishda hal qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

Gumanistik psixologiya nuqtai nazaridan, bu jarayon o'quvchining shunchaki passiv o'quvchi emas, balki o'z taqdirining va bilim olish traektoriyasining haqiqiy subyekti bo'lishini kafolatlaydi. Meta-subyekt xarakter tufayli o'quvchi o'zining tafakkur jarayonini boshqarishni, ya'ni "o'qishni o'rganish"ni o'zlashtiradi, bu esa to'plangan bilimlarning shunchaki nazariy ma'lumot bo'lib qolmay, balki real hayotda qo'llaniladigan amaliy va hayotiy resursga aylanishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchining obyekt emas, balki teng huquqli hamkor sifatida namoyon bo'lishi uning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi, shaxsiy o'sishi uchun xavfsiz muhit yaratadi va uni jamiyatda mustaqil ravishda to'g'ri qaror qabul qilishga qodir yetuk shaxs sifatida shakllantiradi.

UTF konsepsiyasini ishlab chiqish uchun asos sifatida L. S. Vigotskiyning sotsiomadaniy nazariyasi, A. N. Leontevning faoliyat nazariyasi, D. B. Elkoninning yosh davrlari psixologiyasi, P. Ya. Galperinning bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi, V. V. Davidovning rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi hamda V. A. Dalinger va A. G. Asmolovlarning ilmiy maktablari tomonidan ilgari surilgan faoliyatga asoslangan yondashuv xizmat qiladi. Ushbu yondashuv doirasida bilimlarni o'zlashtirish va dunyoqarashni shakllantirish jarayonining asosiy psixologik shartlari va mexanizmlari, shuningdek, o'quvchilarning o'quv faoliyatining umumiy tuzilishi batafsil yoritilgan.

A. G. Asmolovning shaxsning o'zgaruvchan dunyoda faoliyat ko'rsatishga tayyorligi konsepsiyasi ta'limning asosiy maqsadi shaxsning o'zgaruvchan sharoitlarga moslashish, yangi bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish va ularni amalda qo'llash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat deb hisoblaydi. Bu konsepsiya UTFni shakllantirishning ahamiyatini ko'rsatadi, chunki ular o'quvchilarga doimiy o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishga yordam beradi.

UTFlar D. B. Elkonin va V. V. Davidov tomonidan ishlab chiqilgan rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasining asosiy tushunchalaridan biri hisoblanadi. Ushbu nazariya o'quv jarayonini o'quvchilarning intellektual va shaxsiy rivojlanishini rag'batlantiradigan faoliyat sifatida ko'radi.

Maktab o'quv jarayonida UTFlar umumta'limning tegishli darajasidagi (boshlang'ich, asosiy, o'rta (to'liq)) asosiy o'quv dasturini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishining shaxsiy va meta-fan natijalari sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich, o'rta va yuqori sinflarda UTFlarni shakllantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, kognitiv rivojlanish bosqichlari, shuningdek, o'quv maqsadlari va o'quv faoliyatining tabiatini o'zgartirish, ustuvorliklarni o'tkazish bilan bog'liq ma'lum farqlar mavjud. Bu farqlar, xususan, Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida aks etgan bo'lib, unda "bolalar turli yosh bosqichlarida turli xil fikrlash qobiliyatlariga ega" ekanligi ta'kidlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash joizki, universal ta'limiy faoliyatlar insonni nafaqat raqobatbardosh mutaxassis, balki har tomonlama yetuk, o'ziga ishongan va jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan ongli shaxs sifatida tarbiyalashning poydevori hisoblanadi. Ular shaxsga mehnat bozorining jadal o'zgarib borayotgan talablariga tezkor moslashish, standart bo'lmagan vaziyatlarda innovatsion va samarali qarorlar qabul qilish hamda kasbiy mahoratini doimiy oshirib borish imkonini beradi.

Shu bilan birga, mazkur faoliyatlar o'quvchida ichki tayanch, psixologik mustaqillik va o'z kuchiga bo'lgan qat'iy ishonchni shakllantirib, o'z-o'zini tahlil qilish hamda shaxsiy rivojlanish traektoriyasini mustaqil boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Eng muhimi, bu yondashuv insonning o'zini jamiyatning ajralmas va faol qismi sifatida his etishini ta'minlab, atrofdagi muammolarga befarq bo'lmaslik, jamoada samarali hamkorlik qilish hamda umumiy taraqqiyotga o'zining salmoqli hissasini qo'shish ongi va mas'uliyatini yuksaltiradi. Natijada, universal ta'limiy faoliyatlar insonni zamonaviy dunyoning har qanday sinovlari oldida ojiz qoldirmaydigan, aksincha, ularni imkoniyatga aylantira oladigan erkin, barkamol va barqaror shaxs sifatida voyaga yetkazishda hal qiluvchi vazifani bajaradi.

2 Rogers, C. R. (1961). On becoming a person: A therapist's view of psychotherapy. Houghton Mifflin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asmolov, A. G. (Tahrir ostida). Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе. От действия к мысли: пособие для учителя [Boshlang'ich maktabda universal o'quv harakatlarini qanday loyihalashtirish kerak. Harakatdan fikrga]. - Moskva: "Prosvещenie" nashriyoti, 2008. - 151 b.
2. Asmolov, A. G. (Tahrir ostida). Формирование универсальных учебных действий в основной школе: от действия к мысли. Система заданий [Asosiy maktabda universal o'quv harakatlarini shakllantirish: harakatdan fikrga]. - Moskva: "Prosvещenie" nashriyoti, 2010. - 159 b.
3. Muslimov, N. A., Usmonboyeva, M. H., Sayidahmedov, N. S. Pedagogik texnologiyalar va loyihalashtirish. - Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2020. - 184 b.
4. Vigotskiy, L. S. Psixologiya va pedagogikada taraqqiyot nazariyalari (rus tilidan tarjima). - Toshkent: "Yangi asr avlodi" nashriyoti, 2018. - 220 b.
5. Galperin, P. Ya. Metody obucheniya i umstvennoe ra zvitie rebenka [Bolaning aqliy rivojlanishi va o'qitish metodlari]. - Moskva: Moskva universiteti nashriyoti (MGU), 1985. - 102 b.
6. Karabanova, O. A. Aktivnye formy obucheniya i universalnye uchebnye deystviya [Faol o'qitish shakllari va universal o'quv harakatlari] // Vestnik Moskovskogo universiteta. Seriya 14. Psixologiya. - Moskva, 2010. - № 4. - 25-34-betlar.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

JISMONIY TARBIYA JARAYONINI INDIVIDUALLASHTIRISHDA RAQAMLI MONITORING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI



Axmedova Sarvinoz Azatovna
Navoiy davlat universiteti San'at va sport fakulteti
Sport faoliyati turlari kafedrasi p.f.f.d. (PhD), professor

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jismoniy tarbiya ta'limi sharoitida o'quvchi va talabalarning individual jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini muntazam nazorat qilish hamda ta'lim jarayonini raqamli monitoring natijalari asosida korreksiyalash masalalari yoritilgan. Raqamli monitoring texnologiyalarining jismoniy yuklamani individuallashtirish, jismoniy faollikni baholash va pedagogik qarorlarni ma'lumotlar asosida qabul qilishdagi imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda "monitoring - tahlil - individuallashtirish - korreksiya - qayta monitoring" tamoyiliga asoslangan pedagogik model taklif etilgan. Raqamli monitoringni jismoniy tarbiya jarayoniga integratsiya qilish ta'lim samaradorligini oshirish va individual rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini berishi asoslangan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, raqamli monitoring, raqamli texnologiyalar, individuallashtirish, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy faollik, pedagogik nazorat, individual yondashuv.

Abstract: The article examines the consideration of individual physical capabilities of pupils and students in modern physical education, systematic monitoring of physical fitness indicators, and correction of the educational process based on digital monitoring results. The pedagogical potential of digital technologies for individualizing physical workloads, assessing physical activity, and supporting data-driven pedagogical decision-making is analyzed. A pedagogical model based on the principle of "monitoring - analysis - individualization - correction - repeated monitoring" is proposed. The study substantiates that the integration of digital monitoring into physical education can improve educational effectiveness and provide opportunities to track individual physical development dynamics.

Key words: physical education, digital monitoring, digital technologies, individualization, physical fitness, physical activity, pedagogical control, individual approach.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы учета индивидуальных физических возможностей учащихся и студентов в современных условиях физкультурного образования, систематического контроля показателей физической подготовленности и коррекции образовательного процесса на основе результатов цифрового мониторинга. Проанализированы педагогические возможности цифровых технологий в индивидуализации физических нагрузок, оценке двигательной активности и принятии педагогических решений на основе полученных данных. Предложена педагогическая модель, основанная на принципе "мониторинг - анализ - индивидуализация - коррекция - повторный мониторинг". Обосновано, что интеграция цифрового мониторинга в процесс физического воспитания способствует повышению эффективности обучения и позволяет отслеживать индивидуальную динамику физического развития.

Ключевые слова: физическое воспитание, цифровой мониторинг, цифровые технологии, индивидуализация, физическая подготовленность, двигательная активность, педагогический контроль, индивидуальный подход.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi jismoniy tarbiya sohasi oldiga ham yangi ilmiy-pedagogik vazifalarni qo'ymoqda. An'anaviy jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'quvchilarning jismoniy holati va harakat faoliyatini baholash asosan davriy nazorat, me'yoriy testlar va pedagogning vizual kuzatuviga tayangan holda amalga oshirilgan. Bunday yondashuv ma'lum darajada samarali bo'lsa-da, har bir shug'ullanuvchining individual jismoniy imkoniyatlari, yuklamani o'zlashtirish dinamikasi va mashg'ulotdan keyingi o'zgarishlarni uzluksiz kuzatish imkoniyatini cheklaydi.

Zamonaviy raqamli texnologiyalar esa ushbu muammoni yangi metodologik nuqtai nazardan hal qilish imkonini bermoqda. Xususan, harakat faolligini qayd etuvchi sensorlar, mobil ilovalar, elektron monitoring platformalari va intellektual tahlil vositalari orqali jismoniy faollikning ayrim ko'rsatkichlarini muntazam kuzatish va ular asosida pedagogik qarorlar qabul qilish imkoniyati kengaymoqda.

Shu nuqtai nazardan, raqamli monitoringni jismoniy tarbiya jarayoniga oddiy texnik vosita sifatida emas, balki pedagogik qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlovchi tizim sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Bunda asosiy e'tibor raqamli qurilmaning o'ziga emas, balki undan olingan ma'lumotlarni pedagogik tahlil qilish, jismoniy yuklamani moslashtirish va ta'lim natijalarini yaxshilashga qaratiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida muhim yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Xususan, U.K. Turdiyev raqamli texnologiyalar asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning pedagogik shart-sharoitlarini tadqiq etib, raqamli vositalarning ta'lim jarayonini boshqarishdagi imkoniyatlarini asoslagan [1].

G.I. Ataeva tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinib, zamonaviy axborot vositalarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan [2]. M.U. Adasheva esa "Jismoniy tarbiya" fanini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash metodikasini takomillashtirish masalasini tadqiq etib, raqamli vositalardan pedagogik maqsadlarda foydalanish metodikasiga e'tibor qaratgan [3].

I.T. Xasanovning tadqiqotlarida kurash mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari yoritilgan bo'lib, raqamli vositalarning sport mashg'ulotlarini nazorat qilish va takomillashtirishdagi imkoniyatlari asoslangan [4]. O'.A. Farmonov esa basketbolchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash metodikasini ishlab chiqishga e'tibor qaratgan [5].

A.A. Sayfilloevning tadqiqotlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi o'rganilgan [6]. S.Z. Yo'ldoshevning ishlarida esa jismoniy tarbiyaning adaptiv texnologiyalari orqali shaxsning valeologik kompetentligini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan [7]. A.D. Kurbanbaev va R.R. Masharipov tomonidan raqamli texnologiyalardan jismoniy tarbiya va sport sohasida foydalanish istiqbollari tahlil qilingan [8].

Xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ham raqamli monitoring, sun'iy intellekt, sensor texnologiyalar va learning analytics vositalarining jismoniy tarbiya jarayonidagi imkoniyatlari keng o'rganilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar yordamida jismoniy faollikni kuzatish, ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilish, individual qayta aloqa berish va mashg'ulot yuklamasini moslashtirish imkoniyatlari qayd etiladi.

Yuqoridagi tadqiqotlar jismoniy tarbiya va sportda raqamli texnologiyalardan foydalanishning muhim jihatlarini ochib bergan bo'lsa-da, raqamli monitoring ma'lumotlarini bevosita jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirish, individual jismoniy profilni shakllantirish va pedagogik korreksiya bilan yagona tizimga birlashtirish masalasi yetarlicha tizimli ishlab chiqilmagan.

Mazkur maqolada aynan ushbu masalaga e'tibor qaratilib, "monitoring - tahlil - individuallashtirish - korreksiya - qayta monitoring" sikli asosida jismoniy tarbiya jarayonini boshqarishning ilmiy-metodik modeli taklif etilmoqda. Tadqiqotning ushbu jihati mavjud ishlardan asosiy farqini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirish va raqamli monitoring texnologiyalarini pedagogik boshqaruv bilan integratsiyalash tamoyiliga asoslandi. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy taqqoslash, pedagogik kuzatuv, jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini baholash, monitoring natijalarini tahlil qilish, pedagogik modellashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Nazariy tahlil orqali jismoniy tarbiyani individuallashtirish, raqamli monitoring va pedagogik nazoratga oid ilmiy qarashlar o'rganildi. Qiyosiy taqqoslash usuli yordamida an'anaviy pedagogik nazorat va raqamli monitoring asosidagi nazoratning imkoniyatlari solishtirildi. Pedagogik kuzatuv orqali shug'ullanuvchilarning mashg'ulotdagi faolligi, jismoniy yuklamani o'zlashtirishi va individual dinamikasini baholashga e'tibor qaratildi.

Tadqiqot metodologiyasining asosiy tamoyili "ma'lumot - tahlil - pedagogik qaror - korreksiya" ketma-ketligidan iborat bo'ldi. Bunda raqamli texnologiyalar orqali olingan ma'lumotlar mustaqil natija sifatida emas, balki pedagogik qarorlarni asoslash uchun axborot manbai sifatida talqin qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirishning samaradorligi har bir shug‘ullanuvchining jismoniy imkoniyatlari, jismoniy faolligi, funksional holati va yuklamani o‘zlashtirish darajasini obyektiv baholashga bog‘liq. An’anaviy pedagogik nazoratda bu ma’lumotlarning asosiy qismi o‘qituvchining kuzatuvi, nazorat mashqlari va davriy testlar orqali olinadi. Biroq bunday yondashuv individual dinamikani uzluksiz kuzatish imkoniyatini cheklaydi.

Raqamli monitoring texnologiyalarining joriy etilishi mazkur muammoni hal qilish uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Sensorlar, mobil ilovalar, elektron platformalar va boshqa raqamli vositalar yordamida jismoniy faollik, mashg‘ulot davomiyligi, harakat intensivligi va ayrim funksional ko‘rsatkichlarni tizimli ravishda qayd etish mumkin.

Tahlil natijasida raqamli monitoringning jismoniy tarbiya jarayonidagi beshta asosiy funksional yo‘nalishi aniqlandi:

1. **Diagnostik funksiya** - shug‘ullanuvchining boshlang‘ich jismoniy tayyorgarligi va holatini aniqlash.
2. **Monitoring funksiyasi** - mashg‘ulot jarayonidagi o‘zgarishlarni muntazam kuzatish.
3. **Tahliliy funksiya** - olingan ma’lumotlarni dinamik va qiyosiy tahlil qilish.
4. **Korreksion funksiya** - natijalarga muvofiq jismoniy yuklama va mashqlar mazmunini o‘zgartirish.
5. **Prognostik funksiya** - mavjud dinamika asosida keyingi mashg‘ulotlarni rejalashtirish.

1-jadval: **Raqamli monitoring ko‘rsatkichlarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin:**

Monitoring yo‘nalishi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Pedagogik ahamiyati
Jismoniy faollik	Qadamlar, harakat davomiyligi, faollik intensivligi	Umumiy harakat faolligini baholash
Funksional holat	Yurak urishi chastotasi va dinamikasi	Yuklamaga moslashishni baholash
Jismoniy tayyorgarlik	Kuch, tezkorlik, chidamlilik, egiluvchanlik	Individual rivojlanish dinamikasini aniqlash
Harakat texnikasi	Harakat traektoriyasi, bajarish aniqligi	Texnik xatolarni aniqlash
Mashg‘ulot ishtiroki	Faol ishtirok vaqti, takrorlar soni	O‘quv faolligini baholash
O‘zlashtirish dinamikasi	Boshlang‘ich va yakuniy natijalar farqi	Pedagogik samaradorlikni baholash

Mazkur ko‘rsatkichlarning barchasini bir vaqtning o‘zida qo‘llash shart emas. Pedagogik maqsad va mashg‘ulot xususiyatidan kelib chiqib, eng muhim ko‘rsatkichlarni tanlash maqsadga muvofiq. Asosiy metodik tamoyil “ko‘proq ma’lumot to‘plash” emas, balki “pedagogik qaror uchun zarur ma’lumotni to‘plash”dan iborat.

Individual jismoniy profilni shakllantirish

Raqamli monitoring asosida individuallashtirilgan jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish uchun har bir shug‘ullanuvchining individual jismoniy profilini shakllantirish taklif etiladi:

$$IJP = \{JT, FH, JF, HT, DR\}$$

bu yerda:

JT - jismoniy tayyorgarlik;
FH - funksional holat;
JF - jismoniy faollik;
HT - harakat texnikasi;
DR - dinamik rivojlanish.

Bunday yondashuv pedagogga faqat yakuniy natijani emas, balki natijaga olib kelgan individual dinamikani ham ko‘rish imkonini beradi. Shu asosda jismoniy yuklama hajmi, intensivligi, davomiyligi va mashqlar murakkabligi individual imkoniyatlarga moslashtiriladi.

Raqamli monitoring asosida pedagogik qaror qabul qilish

Tadqiqotda quyidagi algoritm taklif etiladi:

1-bosqich - **diagnostika.** Boshlang‘ich jismoniy holat aniqlanadi.

2-bosqich - **raqamli monitoring.** Mashg‘ulot jarayonida tanlangan ko‘rsatkichlar qayd etiladi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

3-bosqich - **tahlil.** Olingan ma'lumotlar boshlang'ich ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi.

4-bosqich - **individuallashtirish.** Jismoniy yuklama hajmi, intensivligi, davomiyligi yoki mashqlar murakkabligi moslashtiriladi.

5-bosqich - **qayta monitoring.** Yangi pedagogik ta'sir natijasi qayta baholanadi.

6-bosqich - **korreksiya.** Keyingi mashg'ulot mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

Shunday qilib, jismoniy tarbiya jarayoni oddiy "rejalashtirish - amalga oshirish - nazorat" modelidan "rejalashtirish - monitoring - tahlil - individuallashtirish - qayta monitoring - korreksiya" shaklidagi uzluksiz boshqaruv tizimiga o'tadi.

Raqamli monitoringning pedagogik imkoniyatlari

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli monitoringdan foydalanish quyidagi pedagogik imkoniyatlarni kengaytiradi:

- individual jismoniy rivojlanish dinamikasini kuzatish;
- jismoniy yuklamani individual imkoniyatlarga moslashtirish;
- mashg'ulot natijalarini tezkor baholash;
- pedagogik qarorlarni ma'lumotlar asosida asoslash;
- individual qayta aloqa berish;
- ta'lim samaradorligini muntazam baholab borish.

Shu bilan birga, raqamli monitoringdan foydalanishda ma'lumotlarning aniqligi, texnik imkoniyatlar, pedagogning raqamli kompetentligi va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish kabi masalalarga alohida e'tibor berish zarur.

Taklif etilayotgan ilmiy-metodik model

Tahlil natijalariga ko'ra, jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirishda raqamli monitoringdan foydalanishning uch darajali modeli taklif etiladi:

1. **Diagnostik daraja** - boshlang'ich jismoniy holat va imkoniyatlarni aniqlash.
2. **Analitik daraja** - raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish va individual ehtiyojlarni belgilash.
3. **Korreksion daraja** - olingan natijalar asosida mashg'ulot mazmuni va yuklama parametrlarini individual moslashtirish.

Ushbu modelning markaziy mexanizmi:
Raqamli monitoring → tahlil → individual profil → pedagogik qaror → yuklamani moslashtirish → qayta monitoring → korreksiya.
Mazkur yondashuv raqamli monitoringni oddiy nazorat vositasidan pedagogik boshqaruvning tarkibiy qismiga aylantirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli monitoring texnologiyalaridan foydalanish jismoniy tarbiya jarayonini individuallashtirishning samarali ilmiy-metodik yo'nalishlaridan biridir. Raqamli monitoring yordamida shug'ullanuvchilarning jismoniy faolligi, tayyorgarlik darajasi va rivojlanish dinamikasi haqida tizimli ma'lumot olish, ushbu ma'lumotlarni pedagogik jihatdan tahlil qilish va jismoniy yuklamani individual imkoniyatlarga moslashtirish imkoniyati kengayadi.

Tadqiqotning asosiy xulosasi shundan iboratki, raqamli texnologiyalarning pedagogik samarasi ularning mavjudligi bilan emas, balki olingan ma'lumotlarning pedagogik qarorlar bilan to'g'ri bog'lanishi bilan belgilanadi. Shu sababli raqamli monitoringni "ma'lumot yig'ish vositasi" sifatida emas, balki "individual pedagogik boshqaruv mexanizmi" sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida raqamli monitoringning maqsad va vazifalarini aniq belgilash.
2. Har bir shug'ullanuvchi uchun individual jismoniy profilni shakllantirish amaliyotini joriy etish.

3. Raqamli monitoring natijalarini jismoniy yuklamani individuallashtirish bilan bevosita bog‘lash.
4. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining raqamli va analitik kompetentligini rivojlantirish.
5. Raqamli monitoringda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va etik talablarga rioya qilish.
6. Ta’lim muassasalarida raqamli monitoringdan foydalanish bo‘yicha tashkiliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Kelgusidagi tadqiqotlarda taklif etilgan modelning tajriba-sinov samaradorligini aniqlash, turli yosh guruhlarida raqamli monitoring ko‘rsatkichlarining pedagogik ahamiyatini baholash hamda individual yuklamani avtomatik tavsiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Turdiyev U.K. Raqamli texnologiyalar asosida pedagogika oliy ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportni boshqarishning pedagogik shart-sharoitlari. PhD dissertatsiyasi, 13.00.01. Navoiy davlat pedagogika instituti.
2. Ataeva G.I. Jismoniy tarbiya va raqamli texnologiyalar. 2022. DOI: 10.53885/edinres.2021.34.76.068.
3. Adasheva M.U. “Jismoniy tarbiya” fanini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash metodikasini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi.
4. Xasanov I.T. Kurash mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi, 13.00.04.
5. Farmonov O‘.A. Basketbolchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasi. PhD dissertatsiyasi, 13.00.04.
6. Sayfilloev A.A. O‘quvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini raqamli texnologiyalardan foydalanib takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi.
7. Yo‘ldoshev S.Z. Bo‘lajak shifokorlarning valeologik kompetentligini jismoniy tarbiyaning adaptiv texnologiyalari orqali rivojlantirish metodikasi. PhD dissertatsiyasi.
8. Kurbanbaev A.D., Masharipov R.R. Перспектива использования цифровых технологий в области физической культуры и спорта.

UMUMTA'LIM MAKTABLARI TARIX DARSLARIDA IMMERSIV TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH

Rasuljon Atamuratov
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, p.f.d (DSc)
https://orcid.org/0000-0003-4959-1000

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablaridagi tarix darslarini o'qitishda immersiv texnologiyalarini qo'llash imkoniyatlari, afzalliklari va samaradorligi o'rganilgan. AR va VR texnologiyalari yordamida tarixiy voqealar, obidalar va madaniy meros obyektlarini interfaol va immersiv shaklda namoyish etishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqot davomida mazkur texnologiyalarning o'quvchilarning tarixiy tafakkuri, xotirasi va tarixiy voqealarni idrok etishdagi ta'siri baholangan. Olib borilgan taqdiqot natijalarida AR va VR texnologiyalaridan foydalanish tarix faniga qiziqish, motivatsiya va idrok darajasini sezilarli oshirishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: Immersiv texnologiyalar, VR, AR, tarix ta'limi, immersiv muhit, umumta'lim maktabi, raqamli pedagogika.

Abstract: This article examines the possibilities, advantages, and effectiveness of applying immersive technologies in teaching history in general education schools. The didactic possibilities of demonstrating historical events, monuments, and cultural heritage sites in an interactive and immersive form using AR and VR technologies were analyzed. Additionally, the study evaluated the degree to which these technologies influence students' historical thinking, memory, and perception of historical events. The results of the conducted research showed that the use of AR and VR technologies significantly increases interest, motivation, and the level of perception of the subject of history.

Key words: immersive technologies, VR, AR, historical education, immersive environment, general education school, digital pedagogy.

Аннотация: В данной статье изучены возможности, преимущества и эффективность применения иммерсивных технологий в преподавании истории в общеобразовательных школах. Проанализированы дидактические возможности демонстрации исторических событий, памятников и объектов культурного наследия в интерактивной и иммерсивной форме с помощью технологий AR и VR. Также в ходе исследования была оценена степень влияния данных технологий на историческое мышление, память и восприятие исторических событий у учащихся. Результаты проведенного исследования показали, что использование технологий AR и VR значительно повышает интерес, мотивацию и уровень восприятия предмета истории.

Ключевые слова: иммерсивные технологии, VR, AR, историческое образование, иммерсивная среда, общеобразовательная школа, цифровая педагогика.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayoni raqamli transformatsiya bosqichida bo'lib, o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish ta'lim sifatini oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Eng istiqbolli innovatsion texnologiyalardan biri AR (Augmented Reality, AR) va VR (Virtual Reality, VR) texnologiyalari ular bugungi kunda ta'limning raqamli transformatsiyasi doirasida ta'lim jarayoniga faol tatbiq etilmoqda [4]. Ushbu texnologiyalar ta'lim oluvchilarga tarixiy hodisalarni, madaniy obidalarni va qadimiy shaharlarni vizual, interfaol va tajribaviy shaklda o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi AR va VR texnologiyalarini tarix darslarida qo'llash orqali o'quvchilarning tarixiy tafakkurii va o'quv-bilish motivatsiyasini oshirish imkoniyatlarini takomillashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

AR texnologiyasi – raqamli kontentni haqiqiy dunyoga qo‘shish imkonini beruvchi to‘ldirilgan reallik texnologiyasi. Bu jarayonda real vaqt rejimida obyektlarning joylashuvini aniqlash va ularga virtual obyektlar yoki ma’lumotlarni yuklash uchun qurilma (masalan, smartfon yoki planshet) kamerasidan foydalanadi [8]. Buning uchun turli xil tanib olish usullari, masalan, markerlar, SLAM (bir vaqtning o‘zida joylashtirish va xarita tuzish) yoki GPS (global joylashtirish tizimi) qo‘llaniladi [5].

Aslida, to‘ldirilgan reallik texnologiyalari ba’zi mavhum tushunchalarni vizualizatsiya qilishning samarali usulini taklif qiladi, shuningdek, real va virtual muhitlar o‘rtasidagi interaktivlikni qo‘llab-quvvatlaydi [6].

VR texnologiyasi – virtual reallik texnologiyasi bo‘lib, u to‘liq sun’iy raqamli dunyoni yaratishga imkon beradi, unda foydalanuvchi virtual reallik shlemlari, qo‘lqoplar va kontrollerlar kabi maxsus kiritish qurilmalari yordamida obyektlar va boshqa foydalanuvchilar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishi mumkin [2]. Virtual muhitda mavjudlik effektini yaratish uchun grafik renderlash texnologiyalari, stereoskopik tasvirlar va tovush effektlari qo‘llaniladi [1].

An’anaviy tarix darslarida tarixiy voqealarni so‘z yoki matn asosida o‘rganish ko‘pincha o‘quvchilarning diqqatini uzoq vaqt ushlab tura olmaydi. AR va VR texnologiyalari esa o‘quvchini “tarixiy muhitga olib kirish”, ya’ni “tarixiy davr bilan dialogga kirishish” imkoniyatini yaratadi [3]. Masalan, o‘quvchi VR texnologiyasi orqali qadimgi Buxoro, Afrosiyob yoki Rim imperiyasining ko‘chalarida sayr qilishi, tarixiy shaxslar bilan virtual muloqotda bo‘lishi mumkin. Shu tariqa, tarixni o‘rganish jarayoni kuzatuvchilikdan bevosita ishtirokchilikka o‘tadi.

AR texnologiyasi esa, umumta’lim maktablari darsliklaridagi tarixiy xarita yoki surat ustida 3D obyektlarni paydo qilish orqali o‘quvchilarga real tarixiy joylashuvni va voqea dinamikasini yaxshiroq tushunishga yordam beradi [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni olib borish jarayonida quyidagi ilmiy-metodologik yondashuvlardan foydalanildi: adabiyotlar tahlili (tarix ta’limida immersiv texnologiyalarini qo‘llashga oid ACM Digital Library, Scopus, IEEE Xplore va Google Scholar kabi ma’lumotlar bazalarida so‘nggi 5 yil ichida indekslangan maqolalar, ilmiy adabiyotlar, me’yoriy-huquqiy hujjatlar hamda xorijiy tajribalar o‘rganildi va tahlil qilindi), qiyosiy tahlil (mamlakatimiz va xorijiy olimlarning tarix darslarida AR va VR texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha yondashuvlari solishtirilib, ularning samaradorlik jihatlari tahlil qilindi), pedagogik kuzatuv (AR va VR texnologiyalari integratsiya qilingan tarix darslari jarayonida o‘quvchilarning bilish faolligi, ishtiroki va o‘zlashtirish dinamikasi kuzatilib, amaliy natijalar tahlil qilindi).


AR va VR texnologiyalarning katta salohiyati haqidagi taklif etilayotgan metodika va farazni amaliy asoslash maqsadida pedagogik tajriba-sinov o‘tkazildi. Tajriba-sinovining maqsadi tarix darslarida AR va VR texnologiyalardan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashdan iborat etib belgilandi. Pedagogik tajriba-sinov ishlari Toshkent shahridagi 73-, 144-, 300-maktablarning 9-sinf o‘quvchilari (207 nafar) ishtirokida o‘tkazildi. Tadqiqot ishtirokchilari ikkita: tajriba (102 nafar) va nazorat (105 nafar) guruhiga ajratildi. Nazorat guruhida darslar an’anaviy tarzda, tajriba guruhida esa AR va VR texnologiyalari vositasidan foydalangan holda 6 ta dars o‘tkazildi.

Tajriba uch bosqichda amalga oshirildi: tayyorlov bosqichi (o‘quvchilarning tarixiy bilim darajasi va idrok ko‘nikmalari bo‘yicha dastlabki test o‘tkazildi), shakllantiruvchi bosqichi (tarix darslarida AR va VR texnologiyalari integratsiyasi amalga oshirildi) hamda nazorat bosqichi (yakuniy test, so‘rovnoma va kuzatuv orqali natijalar baholandi).

Mashg‘ulotlarda AR va VR texnologiyalari qo‘llanilgan NazzAR platformasidagi Temuriylar tarixi davlat muzeyi (mobil ilovalar yordamida AR nishonlar) 3D modellarini hamda Registon maydoni, Ulug‘bek rasadxonasi, Buxoro Ark qal’asi bo‘ylab virtual tarixiy sayohatlardan foydalanildi (Sayt manzili – www.nazzar.uz).

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, tajriba yakunida nazorat guruhiga nisbatan tajriba guruhining o‘quv natijalarida sezilarli yaxshilanish kuzatildi. Dastlabki nazorat natijalariga ko‘ra ikki guruh (tajriba va nazorat) o‘rtasidagi farq minimal miqdorda edi (bilim darajasi o‘rtacha 58-60%). Tajriba yakunida esa nazorat guruhida vaziyat deyarli o‘zgarmadi, tajriba guruhida esa, mavzularga oid bilimlarning shakllanganlik darajasi, tarixiy tafakkurning rivojlanishi, tarixiy voqealarni eslab qolishi, o‘quv-bilish motivatsiyasi hamda interfaolligi va mustaqil fikrlashi o‘sganligi qayd etildi (1-rasm):



1-rasm: **Tajriba-sinov natijalarining diagrammasi**

Shuningdek, so'rovnoma natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi o'quvchilarning 82 foizi AR va VR texnologiyalarini tarixni chuqurroq anglashga yordam beruvchi vosita sifatida baholagan. 76 foiz o'quvchilar esa VR darslarida o'zlarini tarixiy voqealar ishtirokchisi sifatida his qilganini bildirgan.

Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar tarixiy manzara va voqealarni fazoviy idrok etish orqali sabab-oqibat bog'lanishlarini mustaqil aniqlashga harakat qilgan. Ayniqsa, "O'rta asr shaharlari madaniyati" va "Temuriylar davrida davlat boshqaruvi" mavzulari bo'yicha o'zlashtirish darajasi keskin oshgan.


Immersiv texnologiyalar tarix ta'limi uchun yangi pedagogik imkoniyatlar yaratadi. Ular yordamida o'quvchilar faqat faktlarni yodlab olish emas, balki ularni aniq tarixiy kontekstda tasavvur qilish, tahlil qilish va his etish imkoniga ega bo'ladi.

VR texnologiyasi orqali o'quvchilar tarixiy davrlarni "sayohat" shaklida o'rganadi. Bu esa ularning xotira va emotsional idrokini kuchaytiradi. Masalan, o'quvchi virtual reallik shlemi orqali "Registon maydoni" yoki "Ulug'bek rasadxonasi"da bo'lishi mumkin (2-rasm).



2-rasm: **NAZZAR platformasidagi "Ulug'bek rasadxonasi" bo'ylab virtual sayohat**

AR texnologiyasi esa darslikdagi tasvirlar, xaritalar va matnlar ustida 3D obyektlarni jonlantirish orqali o'quvchilarga murakkab tarixiy voqealar ketma-ketligini real makon bilan bog'lash imkonini beradi (3-rasm).



3-rasm: **NAZZAR platformasidagi "Temuriylar tarixi davlat muzeyi"ning AR nishoni**

Shu bilan birga, bu texnologiyalarni qo'llashda bir nechta cheklovlar ham borligini ta'kidlab o'tishimiz lozim. Bular:

- AR va VR uchun zarur uskunalar (planshet, VR shlem, 3D modellar) iqtisodiy jihatdan har doim ham maktablar uchun qulay emas;
- ba'zi o'quvchilarda uzoq muddatli VR sessiyalarida charchoq, ko'z zo'riqishi kuzatiladi;
- o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi yetarli bo'lmasa, AR/VR texnologiyalarining didaktik samarasi kamayadi.

Shunga qaramay, AR va VR texnologiyalarini tarix darslariga integratsiya qilish ta'lim jarayonini vizual, hissiy-emotsional va kognitiv jihatdan boyitadi hamda motivatsion ta'sir kuchini oshiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tarix darslarida AR va VR texnologiyalaridan foydalanish:

- tarixiy bilimlarni yanada mustahkamroq o'zlashtirishni ta'minlaydi;
- o'quvchilarda tarixiy tafakkur, fazoviy idrok va analitik fikrlashni rivojlantiradi;
- o'quvchilarning tarixni o'rganishga qiziqishini sezilarli oshiradi;
- tarixiy merosga nisbatan hurmat va milliy qadriyatlarni chuqurroq anglashni shakllantiradi.

Shunday qilib, AR va VR texnologiyalari tarix ta'limida innovatsion, interfaol va motivatsion yondashuv sifatida o'zini oqlaydi. Kelgusida ularni o'qituvchilarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishda, o'quv-metodik qo'llanmalar yaratishda va tarixiy virtual muzeylar bilan integratsiyalash orqali yanada keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Atamuratov R. A Theoretical Analysis of the Classification of Virtual Educational Museums //Scientific Collection "Inter-Conf". – №. 251. – С. 76-79.
2. Atamuratov R. K. The educational advantages of virtual reality technologies //International Scientific Review of the Problems and Prospects of Modern Science and education. – 2020. – С. 90-92.
3. Eliner I. G. Multimedia culture and modern society. – Sankt-Petersburg: Native land, 2008. – P.9.
4. Jumani A.K., Siddique W.A., Laghari A.A. [et al.] Virtual Reality and Augmented Reality for Education / Multimedia Computing Systems and Virtual Reality. pp.189-210.
5. Kadırjanovich A. R. et al. Opportunities and Prospects for the Use oflmmersive Technologies in Education //2024 9th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK). – IEEE, 2024. – С. 1-6.
6. Klivak V. Augmented Reality Technologies in Education: Challenges, Opportunities and Prospects //Digital Platform: Information Technologies in Sociocultural Sphere. – 2024. – Т. 7. – №. 1. – P. 58-66.
7. Бижанов, Е. Г. Технологии дополненной реальности в образовательной сфере (обзор) / Е. Г. Бижанов. - Текст : непосредственный // Молодой ученый. - 2020. - № 31 (321). - С. 10-12.
8. Корнеева, Н. Ю. Иммерсивные технологии в современном профессиональном образовании. Современное педагогическое образование. 2022. № 6. С. 17-22.

TALABA-KURASHCHILARNING MASHG'ULOT YUKLAMALARINI INDIVIDUAL ME'YORLASH VA UNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Davletova Ullijon Sapavoy qizi
Osiyo Xalqaro universiteti pedagogika nazariyasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talaba-kurashchilarning ko'p yillik tayyorgarlik tizimlarida mashg'ulotlarni individual me'yorlashning pedagogik asoslari yoritilgan. Tadqiqot davomida 30 nafar talaba-kurashchi nazorat (n=15) va tajriba (n=15) guruhlariga bo'lingan holda 6 oy davomida pedagogik tajriba o'tkazildi. Tajriba guruhida mashg'ulot yuklamalarining hajmi va intensivligi jismoniy tarbiya va sport vositalaridan kelib chiqqan holda me'yorlandi. Tadqiqot davomida natijalar t-mezoni asosida matematik-statistik tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, individual me'yorlash tajriba guruhida maxsus jismoniy tayyorgarlik va ko'rsatkichlarning statistik jihatdan ishonchli ($p < 0,05$) o'sishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: talaba-kurashchilar, ko'p yillik tayyorgarlik, mashg'ulot yuklamalari, individual me'yorlash, pedagogik texnologiya, funksional holat, YUCh (yurak urish chastotasi), t-mezon.

Abstract: This article covers the pedagogical foundations of individual regulation of training in multi-year training systems for student wrestlers. During the study, a pedagogical experiment was conducted with 30 student wrestlers, divided into control (n=15) and experimental (n=15) groups for 6 months. In the experimental group, the volume and intensity of training loads were regulated based on physical education and sports means. During the study, the results were mathematically and statistically analyzed using the t-test. The results show that individual regulation provides a statistically significant ($p < 0.05$) increase in special physical training and related indicators in the experimental group.

Key words: student wrestlers, long-term training, training loads, individual standardization, pedagogical technology, functional state, HR (heart rate), t-test.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические основы индивидуальной регуляции тренировок в многолетних системах подготовки студентов-борцов. В ходе исследования был проведен педагогический эксперимент с участием 30 студентов-борцов, разделенных на контрольную (n=15) и экспериментальную (n=15) группы, в течение 6 месяцев. В экспериментальной группе объем и интенсивность тренировочных нагрузок регулировались на основе средств физического воспитания и спорта. В ходе исследования результаты были математически и статистически проанализированы с использованием t-критерия. Результаты показывают, что индивидуальная регуляция обеспечивает статистически значимое ($p < 0,05$) увеличение показателей специальной физической подготовки в экспериментальной группе.

Ключевые слова: борцы-студенты, многолетняя подготовка, тренировочные нагрузки, индивидуальная стандартизация, педагогические технологии, функциональное состояние, ЧСС (частота сердечных сокращений), t-критерий.

KIRISH

Zamonaviy sportda, ayniqsa, kurash milliy sport turida yuqori darajaga ko'tarilish va xalqaro maydonlarda muvaffaqiyat qozonish uchun ko'p yillik ilmiy va pedagogik tayyorgarlikni ta'minlashni talab qiladi [1]. Oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talaba-kurashchilarning mashg'ulot jarayoni o'ziga xos xususiyatga ega: ular bir vaqtning o'zida ham o'quv jarayoni, ham yuqori darajadagi sport mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. Bu holat talaba-sportchilar organizmiga ikki baravar psixofizik yuklama beradi va tiklanish jarayonlarini murakkablashtiradi [6].

An'anaviy mashg'ulot amaliyotida barcha sportchilar uchun bir xil (standartlashtirilgan) hajm va intensivlikdagi yuklamalarni qo'llash ustunlik qilmoqda. Buning natijasida har bir talaba-sportchining individual funksional tiklanishi, jismoniy rivojlanishi va organizmning jismoniy yuklamaga moslashish imkoniyatlari yetarlicha hisobga olinmaydi. Bu esa o'ta charchash, kasallanish, ish qobiliyatining pasayishi va sport natijalarining o'sishdan to'xtashiga olib kelishi mumkin. Shu sababli talaba-kurashchilarning mashg'ulot yuklamalarini individual me'yorlashning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifalardan biridir [6].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Sport mashg'ulotlari nazariyasi va ko'p yillik tayyorgarlik metodologiyasi bo'yicha optimal yuklamalarni me'yorlash masalalari mutaxassislar tomonidan keng tadqiq etilgan. L. P. Matveyev va V. N. Platonov (2008) o'z tadqiqotlarida sport mashg'ulotlarini davriylashtirish va yuklamalarni to'g'ri taqsimlash sport mahoratini oshirishning asosiy omillari ekanligini ta'kidlaydilar [5].

O'zbekiston ilmiy-pedagogik maktabida yakkakurash va kurash sport turlarida sportchilar tayyorgarligini ta'minlash bo'yicha F. A. Kerimov (2018) [2] va Sh. A. Mirzaqulov (2012) tomonidan fundamental tadqiqotlar olib borilgan. Ularda kurashchilarning maxsus jismoniy, taktik va operatsional tayyorgarligini rivojlantirish va nazorat qilish uslublari ishlab chiqilgan [3].

Biroq oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan talaba-kurashchilarning o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada mustaqil ilmiy obyekt sifatida o'rganilmagan. O'rganilgan manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ilmiy tadqiqotlarning ko'pchiligida:

1. O'quv jarayoni va intensiv sport mashg'ulotlarining bir vaqtning o'zida olib borilishi natijasida yuzaga keladigan psixofizik ziddiyatlar to'liq o'rganilmagan [2];
2. Talaba-kurashchilarning joriy funksional holatini (yurak urish chastotasi, tiklanish ko'rsatkichlari) tezkor (operativ) monitoring qilish orqali yuklama hajmi va intensivligini individual me'yorlashning pedagogik mexanizmlari yetarlicha tizimlashtirilmagan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Talaba-kurashchilarning ko'p yillik tayyorgarlik tizimida mashg'ulot yuklamasi hajmi va intensivligini individual-funksional holatga mos holda me'yorlashning pedagogik texnologiyasini ishlab chiqish hamda uni amaliyotga joriy etishni tashkil etish va asoslashdan iborat. Talaba-kurashchilarning jismoniy va funksional holatini aniqlashning samarali mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlash. Mashg'ulot yuklamalarini individual me'yorlashga mo'ljallangan pedagogik texnologiya va mashg'ulot dasturini ishlab chiqish. Ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyaning samaradorligini 6 oylik pedagogik tajriba va matematik-statistik tahlil (Styudent t-mezoni) orqali aniqlash.

Tadqiqotni tashkil etish va kontingent

Pedagogik tadqiqot 2025–2026-o'quv yilida 6 oy davomida oliy ta'limning sport faoliyati yo'nalishida tahsil olayotgan 30 nafar talaba-kurashchi (yoshi: 19–21 da, malakasi: I sport razryadi va sport ustaligiga nomzodlar) ishtirokida o'tkazildi. Tadqiqot obyektivligini ta'minlash maqsadida ishtirokchilar tasodifiy tanlov asosida teng ikkita guruhga bo'lindi:Nazorat guruhi (NG, n=15): Oliy ta'lim va sport bo'yicha amaldagi an'anaviy dastur hamda bir xil (standart) yuklama rejimida mashg'ulot olib bordilar. Tajriba guruhi (TG, n=15): Biz tomonidan ishlab chiqilgan mashg'ulot yuklamalarini individual me'yorlash va funksional holatni tezkor monitoring qilishga asoslangan pedagogik jarayon asosida shug'ullandilar.

Qo'llanilgan tadqiqot usullari

Tadqiqot vazifalarini hal etish uchun ilmiy-pedagogik usullardan foydalanildi:

1. **Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili:** Ko'p yillik tayyorgarlik va individualizatsiya nazariyasini o'rganish.
2. **Pedagogik kuzatuv va pulsometriya:** Mashg'ulot yuklamasining hajmi (vaqt, takrorlanishlar soni) hamda intensivligini (yurak urish chastotasi – YUCh) Polar H10 kardio-datchiklari yordamida uzluksiz qayd etish.
3. **Maxsus va jismoniy tayyorgarlik testlari:**

- 100 metrga yugurish (sek) – tezkorlik sifatini baholash;
- Turnikda tortilish (marta) – yelka kamarining kuchini baholash;
- Turnikda 1 daqiqada tortilish (marta) – maxsus kuchni baholash;
- Manken (qo'g'irchoq)ni 1 daqiqada yonboshga harakatlar soni (marta) – kurashchining maxsus tezkor-kuch sifatini baholash;
- Rufye-Dike indeksi – yurak-qon tomir tizimining yuklamaga moslashuvi va tiklanish darajasini baholash.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maqolaning asosiy qismi bo'lgan natijalar va tahlillar tayyorlandi. Unda 30 nafar talaba-kurashchida tajribagacha va tajribadan keyingi ko'rsatkichlar, matematik-statistik tahlil (M ± m, t-mezon, p-qiymat) va tegishli jadvallar ko'rsatildi. Pedagogik tajriba boshlanishidan oldin Nazorat guruhi (NG) va Tajriba guruhi (TG) tala-

ba-kurashchilarining maxsus jismoniy va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik jihatdan farq aniqlanmadi ($p > 0,05$). Bu holat har ikkala guruhning tajriba boshlanishidan oldin teng imkoniyatlarga va bir xil tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. 6 oylik pedagogik tajriba yakunidan keyingi qayta test sinovlari shuni ko‘rsatadiki, Nazorat guruhida ham, individual me’yorlash tajribasi qo‘llanilgan Tajriba guruhida ham rivojlanish dinamikasi kuzatilgan bo‘lsa-da, Tajriba guruhining ko‘rsatkichlaridagi o‘sish sur’ati Nazorat guruhiga nisbatan yuqori darajada bo‘ldi.

1-jadval: **Nazorat va tajriba gurhlarining ko‘rsatkichlari tajribadagi va bosqichdagi dinamikasi (M ± m)**

Ko‘rsatgichlar va testlar	Guruxlar	Tajribagacha (M1±m1)	Tajribadan keyin (M2±m2)	O‘sish (%)	t-mezon	p-qiymat
100 m yugurish (sek)	NG (n=15)	13,4 ± 0,15	13,1 ± 0,12	2,2%	1,56	p > 0,05
	TG (n=15)	13,5 ± 0,14	12,7 ± 0,10	5,9%	4,71	p < 0,01
Turnikda tortilish (marta)	NG (n=15)	14,2 ± 0,45	15,8 ± 0,40	11,2%	2,66	p < 0,05
	TG (n=15)	14,0 ± 0,42	18,4 ± 0,38	31,4%	7,77	p < 0,001
Manken yuborish (1 daq) (marta)	NG (n=15)	16,5 ± 0,35	18,1 ± 0,30	9,7%	3,47	p < 0,01
	TG (n=15)	16,3 ± 0,32	21,2 ± 0,28	30,0%	11,53	p < 0,001
Rufye-Dike indeksi (birlik)	NG (n=15)	8,8 ± 0,25	7,9 ± 0,22	10,2%	2,70	p < 0,05
	TG (n=15)	8,9 ± 0,24	5,8 ± 0,18	34,8l%	10,33	p < 0,001

Maxsus tezkor-kuch ko‘rsatkichi: Kurashchilar uchun eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan 1 daqiqada mankenni yonboshga yuk testi bo‘yicha TGda natija 16,3 ± 0,32 martadan 21,2 ± 0,28 martagacha (30,0 % ga) oshdi ($t = 11,53$; $p < 0,001$). NGda esa bu ko‘rsatkich 16,5 ± 0,35 martadan 18,1 ± 0,30 martagacha (9,7 % ga) o‘sdi. Tajriba guruhida mashg‘ulot yuklamasining intensivligi har bir talabaning joriy YUChiga qarab belgilanganligi tufayli ularda maxsus jismoniy tayyorgarlik shakllandi.

Funksional holat va tiklanish: Rufye-Dike indeksi bo‘yicha Tajriba guruhida ko‘rsatkich 8,9 ± 0,24 birlikdan (o‘rta holat) 5,8 ± 0,18 birlikkacha (yaxshi va a’lo holat) yaxshilandi hamda 34,8 % ga ijobiy tomonga o‘zgardi ($p < 0,001$). Bu shuni anglatadiki, individual yuklama me’yorlanganda talabalarning yurak-qon tomir tizimi yuklamaga tezroq moslashadi va mashg‘ulotdan keyingi tiklanish vaqti qisqaradi.

Kuch va tezkorlik: Turnikda tortilish ko‘rsatkichi Tajriba guruhida 31,4 % ga oshgan bo‘lsa, Nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 11,2 % ni tashkil etdi. Sog‘liqni saqlash sohasi talab qiladigan yuqori yuklamalar sharoitida talaba-kurashchilarning mashg‘ulot yuklamalarini individual funksional va jismoniy ko‘rsatkichlardan kelib chiqib tabaqalashtirish ularning moslashuvini yaxshilaydi va o‘ta charchash holatining oldini oladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotgan talaba-kurashchilarning mashg‘ulot jarayonini bir xil va standartlashtirilgan yuklamalar asosida emas, balki individual funksional ko‘rsatkichlar asosida tashkil etish yaxshi natijalarni keltirib chiqaradi. Ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan mashg‘ulot yuklamalarini individual me’yorlash pedagogik texnologiyasi kurashchilarning jismoniy va funksional ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. 6 oylik pedagogik tajribadan so‘ng Tajriba guruhida maxsus tezkor-kuch ko‘rsatkichi (manken yuk) 30,0 % ga ($p < 0,001$), funksional tiklanish ko‘rsatkichi (Rufye-Dike indeksi) esa 34,8 % ga ($p < 0,001$) yaxshilandi.

Matematik-statistik tahlil (Styudentning t-mezoni) Tajriba va Nazorat guruhlari o‘rtasidagi farqning statistik jihatdan ishonchliligini ($p < 0,05$ va $p < 0,001$) tasdiqladi. Bu esa taklif qilingan pedagogik texnologiyaning yuqori samaradorlikka ega ekanligidan dalolat beradi. Kurash bo‘yicha trener-o‘qituvchilar har bir mashg‘ulot oldidan va undan keyin talabalarning funksional holatini (YUCh va Rufye indeksi orqali) baholab borishlari zarur. Mashg‘ulot hajmi va intensivligini talabalarning joriy moslashuviga qarab belgilash hamda yuklamalarni 3 guruhga (yuqori, o‘rta va tiklovchi) bo‘lib tavsiya etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirzaqulov Sh. A. Kurashchilar ko‘p yillik tayyorgarlik tizimida jismoniy va maxsus tayyorgarlikni ta’minlash. Toshkent: O‘zDJTDU nashriyoti, 2021-y.
2. Kerimov F. A. Sportda ilmiy tadqiqot. Toshkent, 2018-y.
3. Sh. A. Mirzaqulov. Belbog‘li kurash nazariyasi va uslubiyati. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2012-y.
4. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры. М.: ФиС, 2008.
5. Hamidov A. H. Talaba-sportchilarning jismoniy tayyorgarligini optimallashtirish. SamDU nashriyoti. Samarqand, 2020-y.

TALABALARIDA AXBOROTNI INTENSIV QABUL QILISH QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PEDAGOGIK ZARURATI

Ergashev Bunyod Shokir o'g'li
Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
ORCID: https://orcid.org/0009-0005-6668-3718

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Zamonaviy axborotlashgan ta'lim muhitida talabalarning qisqa vaqt davomida katta hajmdagi, turli mazmun va shakldagi axborotni idrok etish, saralash, tahlil qilish, qayta ishlash hamda undan ta'lim faoliyatida samarali foydalanish qobiliyati muhim kompetensiyalardan biri sifatida asoslangan. Tadqiqotda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining mazmun-mohiyati, uning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda ushbu qobiliyatni rivojlantirish zaruratini belgilovchi ijtimoiy va pedagogik omillar yoritilgan. Shuningdek, axborot oqimining jadallashuvi sharoitida talabalarning axborot bilan ishlash, mustaqil bilim olish, zarur ma'lumotlarni tanlash va ulardan maqsadli foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etib, nazariy va qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish hamda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish metodlaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: axborot, axborotni intensiv qabul qilish, talaba, idrok, axborotni qayta ishlash, axborot kompetensiyasi, intellektual faollik, mustaqil ta'lim, pedagogik jarayon, axborotlashgan ta'lim muhiti.

Abstract: This article presents a scientific and theoretical analysis of the socio-pedagogical necessity of developing students' ability to perceive information intensively. In the contemporary information-rich educational environment, students' ability to perceive, select, analyze, process, and effectively use large volumes of information presented in various forms and contexts within a limited period of time is regarded as an important competence. The study examines the essence and content of intensive information perception, its role in the educational process, and the social and pedagogical factors determining the need for its development. Particular attention is given to the pedagogical importance of developing students' skills in working with information, acquiring knowledge independently, selecting relevant information, and using it purposefully in the context of increasingly intensive information flows. The methodological framework of the study is based on systemic, activity-based, and competency-based approaches. The research employs theoretical and comparative analysis, pedagogical observation, and the review of scientific and pedagogical literature.

Key words: information, intensive information perception, students, perception, information processing, information competence, intellectual activity, independent learning, pedagogical process, information-rich educational environment.

Аннотация: В статье представлен научно-теоретический анализ социально-педагогической необходимости развития у студентов способности к интенсивному восприятию информации. В условиях современной информационно насыщенной образовательной среды способность студентов за ограниченный период времени воспринимать, отбирать, анализировать, перерабатывать значительные объёмы информации различного содержания и формы, а также эффективно использовать её в учебной деятельности рассматривается как одна из важных компетенций. Раскрываются сущность и содержание способности к интенсивному восприятию информации, её место в образовательном процессе, а также социальные и педагогические факторы, определяющие необходимость её развития. Особое внимание уделяется педагогическому значению формирования у студентов навыков работы с информацией, самостоятельного приобретения знаний, отбора необходимых сведений и их целенаправленного использования в условиях возрастающей интенсивности информационных потоков. Методологическую основу исследования составили системный, деятельностный и компетентностный подходы. В исследовании использованы методы теоретического и сравнительного анализа, педагогического наблюдения, а также изучения научно-педагогической литературы.

Ключевые слова: информация, интенсивное восприятие информации, студент, восприятие, переработка информации, информационная компетентность, интеллектуальная активность, самостоятельное обучение, педагогический процесс, информационно насыщенная образовательная среда.

KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining muhim belgilaridan biri sifatida axborot hajmining jadal sur'atlarda ortib borishi va uning inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib borishi kuzatilmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, ta'lim resurslarining elektron shaklga o'tishi, internet tarmoqlarining kengayishi hamda turli axborot manbalarining ko'payishi natijasida insonning kundalik faoliyatida foydalanadigan ma'lumotlar hajmi sezilarli darajada ortib bormoqda. Mazkur jarayon ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, ta'lim oluvchidan nafaqat mavjud bilimlarni o'zlashtirishni, balki katta hajmdagi axborotni qisqa vaqt ichida qabul qilish, anglash, saralash, tahlil qilish va undan maqsadli foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etmoqda [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

An'anaviy ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish ko'proq tayyor axborotni qabul qilish va uni xotirada saqlash bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, zamonaviy ta'lim muhitida talabaning axborot bilan mustaqil ishlashi, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni taqqoslashi, ularning ishonchliligini baholashi va muayyan vaziyatda zarur bo'lgan axborotni tezkor ravishda ajrata olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, talabalarning axborotni qabul qilish jarayonidagi tezkorligi, mazmunni anglash, diqqatni jamlash, axborotni saralash va qayta ishlash imkoniyatlarini rivojlantirish zamonaviy oliy ta'limning dolzarb pedagogik vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, oliy ta'lim jarayonida talaba bir vaqtning o'zida ma'ruza, darslik, ilmiy maqola, elektron ta'lim resurslari, multimedia materiallari, internet manbalari va boshqa axborot vositalari bilan ishlaydi. Bunday sharoitda axborotning haddan tashqari ko'pligi talabaning diqqatini taqsimlash, muhim va ikkilamchi ma'lumotlarni farqlash hamda olingan axborotni tizimlashtirishda muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Demak, ta'lim samaradorligini ta'minlash uchun talabaning nafaqat axborotga ega bo'lishi, balki axborotni intensiv qabul qilish va uni samarali qayta ishlash qobiliyatiga ham ega bo'lishi zarur.

Mazkur jarayonda "axborotni intensiv qabul qilish" tushunchasi alohida ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega. Uni faqat axborotni tez o'qish yoki ko'p hajmdagi ma'lumotni eslab qolish bilan cheklab bo'lmaydi. Axborotni intensiv qabul qilish talabaning muayyan vaqt oralig'ida axborot oqimini faol idrok etishi, uning asosiy mazmunini aniqlashi, muhim ma'lumotlarni ikkilamchi ma'lumotlardan ajratishi, olingan axborotni avvalgi bilimlari bilan bog'lashi, tahlil qilishi, umumlashtirishi va undan keyingi faoliyatida foydalanishini nazarda tutadi. Shu sababli ushbu qobiliyatni rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya va zamonaviy ta'lim texnologiyalari kesishgan nuqtada tadqiq etilishi lozim [2].

Talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati, bir tomondan, jamiyatda axborot oqimining ortishi va kasbiy faoliyatda axborot bilan ishlashga qo'yilayotgan talablarning kuchayishi bilan, ikkinchi tomondan esa, oliy ta'lim jarayonida talabaning mustaqil, faol va ijodiy subyekt sifatidagi maqomi ortib borayotgani bilan belgilanadi. Zamonaviy mutaxassisdan o'z sohasi bo'yicha mavjud bilimlarni egallash bilan bir qatorda, yangi axborotni tez o'zlashtirish, uni tahlil qilish va o'z faoliyatiga moslashtirish qobiliyati ham talab etiladi.

Shu jihatdan, talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish masalasini faqat psixologik jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy buyurtma, ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar va shaxsning intellektual rivojlanishini o'zaro bog'lovchi kompleks pedagogik muammo sifatida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur muammoning ijtimoiy-pedagogik jihatdan asoslanishi esa talabalarning axborot bilan ishlash faoliyatini takomillashtirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [3].

Tadqiqotning maqsadi – talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruratini nazariy jihatdan asoslash hamda ushbu qobiliyatning ta'lim jarayonidagi mazmuni va pedagogik ahamiyatini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining mazmun-mohiyatini aniqlash;
- uning rivojlanishini taqozo etuvchi ijtimoiy va pedagogik omillarni tahlil qilish;
- axborotni intensiv qabul qilishning asosiy tarkibiy jihatlarini belgilash;
- mazkur qobiliyatni rivojlantirishning zamonaviy oliy ta'lim jarayonidagi pedagogik ahamiyatini asoslash.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini yaxlit pedagogik hodisa sifatida o'rganishga yo'naltirilgan tizimli, faoliyatga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar tashkil etdi. Mazkur yondashuvlar talabaning axborotni qabul qilishi, anglashi va qayta ishlashi jarayonini o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan dinamik pedagogik jarayon sifatida tadqiq etish imkonini berdi.

Tizimli yondashuv asosida axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator jarayonlarning yaxlitligi sifatida ko'rib chiqildi. Bunda axborotni idrok etish, diqqatni jamlash, axborotni saralash, tahlil qilish, umumlashtirish, xotirada saqlash va undan amaliy faoliyatda foydalanish bir-biri bilan uzviy bog'liq jarayonlar sifatida tahlil qilindi [4]. Mazkur yondashuv axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati alohida ko'nikmalar yig'indisi emas, balki talabaning faol bilish faoliyatini ta'minlovchi yaxlit qobiliyat ekanligini asoslashga xizmat qildi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv talabaning axborotni tayyor holda passiv qabul qiluvchi emas, balki uni izlash, tanlash, tahlil qilish, qayta ishlash va amaliyotda qo'llash jarayonining faol ishtirokchisi sifatidagi mavqeini belgilash imkonini berdi. Shu asosda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining rivojlanishi talabaning o'quv-bilish va mustaqil ta'lim faoliyati bilan bevosita bog'liq jarayon sifatida o'rganildi.

Kompetensiyaviy yondashuv esa talabalarning axborot bilan ishlash jarayonida shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyat bilan bog'lashga asos bo'ldi. Ushbu yondashuv doirasida talabaning axborotni topishi va qabul qilishi bilan bir qatorda, uning mazmunini tushunishi, muhim ma'lumotlarni ajratishi, axborot manbalarini taqqoslashi, tegishli xulosalar chiqarishi va o'z faoliyatida undan samarali foydalanishi muhim natija sifatida qaraldi.

Tadqiqotda muammoning nazariy asoslarini aniqlash maqsadida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, umumlashtirish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar yordamida axborotni intensiv qabul qilish bilan bog'liq pedagogik va psixologik qarashlar o'rganilib, mavjud ilmiy yondashuvlar o'zaro qiyoslandi hamda tadqiqot uchun muhim bo'lgan nazariy xulosalar shakllantirildi.

Shuningdek, talabalarning axborot bilan ishlash xususiyatlarini aniqlashda pedagogik kuzatish metodidan foydalanildi. Kuzatish jarayonida talabalarning axborotni qabul qilish tezligi, diqqatni jamlay olish darajasi, asosiy ma'lumotlarni ajrata olishi, turli axborot manbalari bilan ishlashi, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish qobiliyatlariga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va umumlashtirish kabi umumilmiy metodlardan ham foydalanildi. Analiz orqali axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining alohida tarkibiy jihatlari o'rganilgan bo'lsa, sintez asosida ularning o'zaro aloqadorligi va yaxlit pedagogik mazmuni belgilandi. Taqqoslash va umumlashtirish orqali esa mazkur qobiliyatni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruratini ifodalovchi asosiy omillar tizimlashtirildi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarning axborot bilan ishlash faoliyatiga qo'yilayotgan talablar mazkur jarayonni an'anaviy axborotni qabul qilish doirasidan chiqarib, uni tezkor, faol va maqsadli bilish faoliyati sifatida tashkil etishni taqozo etmoqda. Axborot manbalarining ko'payishi, raqamli ta'lim resurslarining kengayishi va ta'lim mazmunining murakkablashuvi talabadan qisqa vaqt ichida katta hajmdagi axborotni qabul qilish, anglash va undan zarur ma'lumotlarni ajratib olishni talab qilmoqda.

Tadqiqot davomida "axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati" tushunchasining mazmuni aniqlashtirildi. Mazkur maqolada ushbu tushuncha talabaning muayyan vaqt oralig'ida katta hajmdagi va turli mazmundagi axborotni faol idrok etishi, uning muhim qismlarini ajratishi, mazmunini anglashi, tahlil qilishi, qayta ishlashi, xotirada saqlashi hamda zarur holatlarda amaliy faoliyatga tatbiq eta olish imkoniyatini ifodalovchi integral individual qobiliyat sifatida talqin qilinadi [6].

Tahlillar asosida axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi tarkibiy jihatlari aniqlandi:

1. **Idrokiy komponent** – axborotni tez va aniq idrok etish, uning mazmunini dastlabki bosqichda anglash hamda axborot oqimiga moslasha olish.
2. **Diqqat komponenti** – katta hajmdagi axborot orasidan muhim ma'lumotga diqqatni jamlash, chalg'ituvchi omillar ta'sirini kamaytirish va e'tiborni muayyan faoliyatga yo'naltirish.
3. **Saralash komponenti** – axborotning asosiy va ikkilamchi qismlarini farqlash, zarur ma'lumotlarni ajratib olish va ortiqcha axborotni chetlashtirish.

4. **Analitik komponent** – qabul qilingan ma'lumotlarni tahlil qilish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlash, taqqoslash va mantiqiy xulosalar chiqarish.
5. **Xotira komponenti** – o'zlashtirilgan axborotni tizimlashtirish, mazmuniy bog'lanishlar asosida xotirada saqlash va zarur vaqtda qayta tiklay olish.
6. **Amaliy komponent** – qabul qilingan va qayta ishlangan axborotdan yangi vaziyatlarda, o'quv va kasbiy faoliyatda samarali foydalanish.

Aniqlangan komponentlar o'zaro aloqador bo'lib, ulardan birining yetarli darajada rivojlanmaganligi axborotni intensiv qabul qilishning umumiy samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, talaba axborotni tez idrok etsa-da, uni saralash va tahlil qilish imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, katta hajmdagi axborotni o'zlashtirish jarayoni kutilgan natijani bermaydi. Shu sababli mazkur qobiliyatni rivojlantirish alohida ko'nikmalarni shakllantirish bilan chegaralanmasdan, ularning kompleks rivojlanishini ta'minlashi lozim [7].

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish zaruratini belgilovchi omillarni ijtimoiy va pedagogik omillarga ajratish mumkin.

Ijtimoiy omillar qatoriga axborot hajmining ortishi, raqamli kommunikatsiyalarning kengayishi, kasbiy faoliyatda axborot bilan ishlashga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi, mehnat bozorida tezkor fikrlaydigan va yangi ma'lumotlarni mustaqil o'zlashtira oladigan mutaxassislarga bo'lgan talabning ortishi kiradi.

Pedagogik omillar esa ta'lim mazmunining murakkablashuvi, mustaqil ta'lim ulushining ortishi, elektron va multimedia ta'lim resurslaridan foydalanish, interfaol metodlarning keng qo'llanilishi hamda talabaning ta'lim jarayonidagi faol subyekt sifatidagi mavqeining kuchayishi bilan belgilanadi [8].

Natijalar asosida talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishning quyidagi pedagogik shartlari belgilandi:

- ta'lim jarayonida axborot bilan faol ishlashga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish;
- axborotni tezkor tahlil qilish va saralashga yo'naltirilgan mashqlarni tizimli tashkil etish;
- muammoli va interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish;
- talabalarning mustaqil izlanish va axborot manbalarini taqqoslash faoliyatini kuchaytirish;
- qisqa vaqt ichida qaror qabul qilishni talab etuvchi intellektual topshiriqlarni qo'llash;
- axborotni qabul qilish, qayta ishlash va amaliy qo'llash jarayonlarini o'zaro bog'liq holda tashkil etish.

Shu bilan birga, intellektual o'yinlar mazkur pedagogik shartlarni amalga oshirishning samarali vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Chunki intellektual o'yin jarayonida talaba cheklangan vaqt ichida savol yoki muammoni anglash, zarur axborotni xotiradan izlash, variantlarni taqqoslash, tezkor qaror qabul qilish va javobni asoslash kabi bir nechta aqliy operatsiyalarni ketma-ket yoki parallel ravishda amalga oshiradi. Bu esa axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining bir nechta komponentlarini bir vaqtning o'zida faollashtirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy axborotlashgan ta'lim muhitining obyektiv talabi ekanligini ko'rsatdi. Mazkur qobiliyatni maqsadli rivojlantirish talabaning axborot bilan ishlash samaradorligini oshirish, mustaqil ta'lim faoliyatini faollashtirish, intellektual faolligini kuchaytirish va kelgusidagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish uchun muhim pedagogik imkoniyat yaratadi [9].

Tadqiqot natijalari talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'lim jarayonining alohida va dolzarb yo'nalishlaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Bugungi kunda talaba faoliyatiga kirib kelayotgan axborot oqimining hajmi, tezligi va mazmuniy xilma-xilligi ta'lim oluvchidan faqat axborotni o'zlashtirishni emas, balki uni boshqarish, saralash va mazmunan qayta ishlashni ham talab qilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishni talabaning umumiy intellektual rivojlanishi va axborot kompetentligining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqotda aniqlanganidek, axborotni intensiv qabul qilish jarayoni faqat tezlik ko'rsatkichi bilan belgilanmaydi. Agar talaba katta hajmdagi axborotni tez qabul qilsa-yu, uning mazmunini anglamasa yoki muhim ma'lumotni ikkilamchi ma'lumotdan ajrata olmasa, bunday faoliyatni samarali axborot qabul qilish sifatida baholab bo'lmaydi. Shu sababli intensiv qabul qilish tushunchasida tezlik va sifatning uyg'unligi muhim metodologik tamoyil sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur nuqtayi nazardan, axborotni intensiv qabul qilishni talabaning bir vaqtning o'zida bir nechta kognitiv operatsiyalarni amalga oshirish qobiliyati bilan bog'lash mumkin. Xususan, axborotni idrok etish bilan bir qatorda uni tahlil qilish, avvalgi bilimlar bilan bog'lash, muhim jihatlarini ajratish va muayyan xulosaga kelish jarayonlari o'zaro uyg'unlashadi. Bu esa mazkur qobiliyatni rivojlantirishda ta'lim metodlari faqat axborot berishga emas, balki talabaning faol fikrlash jarayonlarini rag'batlantirishga yo'naltirilishi lozimligini ko'rsatadi [10].

Tadqiqot natijalarini talabalarning mustaqil ta'lim faoliyati bilan bog'lash ham muhimdir. Mustaqil ta'lim sharoitida talaba o'qituvchi tomonidan tayyor holda berilgan axborot bilan cheklanib qolmaydi. U turli manbalardan ma'lumot izlaydi, ularni o'zaro taqqoslaydi, kerakli axborotni tanlaydi va o'z bilim tizimiga integratsiya qiladi. Shuning uchun axborotni intensiv qabul qilish qobiliyati mustaqil ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri bo'lishi mumkin.

Bunda pedagogning vazifasi ham o'zgaradi. O'qituvchi faqat bilim beruvchi subyekt sifatida emas, balki talabaning axborot bilan ishlash faoliyatini tashkil etuvchi va boshqaruvchi pedagog sifatida faoliyat yuritishi zarur. Ta'lim jarayonida talabalarga turli mazmundagi axborotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash va xulosa chiqarishga yo'naltirilgan topshiriqlar berilishi ularning axborotni intensiv qabul qilish imkoniyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishi mumkin.

Ayniqsa, intellektual o'yinlardan foydalanish ushbu jarayon uchun alohida pedagogik imkoniyat yaratadi. Intellektual o'yinlarda talaba muayyan vazifani bajarish uchun axborotni tez anglash, xotiradagi bilimlarni faollashtirish, mantiqiy bog'lanishlarni aniqlash va cheklangan vaqt ichida javob berish zarurati bilan to'qnashadi. Natijada diqqat, xotira, tafakkur va idrok jarayonlari birgalikda faollashadi.

Biroq intellektual o'yinlarni shunchaki ko'ngilochar faoliyat sifatida qo'llash kutilgan pedagogik natijani bermasligi mumkin. Ularning samaradorligi, avvalo, ta'lim maqsadiga mosligi, topshiriqlarning murakkablik darajasi, vaqt chegarasi, axborot hajmi va talabaning mustaqil fikrlashiga qo'yiladigan talablar bilan belgilanadi. Shuning uchun intellektual o'yinlarni pedagogik texnologiya sifatida loyihalashda ularning mazmuni axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining muayyan komponentlarini rivojlantirishga yo'naltirilishi lozim.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishni bir martalik mashg'ulot yoki alohida metod sifatida emas, balki uzluksiz va bosqichma-bosqich tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatida qarash zarur. Dastlab axborotni tez va aniq idrok etishga, keyinchalik uni saralash va tahlil qilishga, undan so'ng esa qayta ishlangan axborotni yangi vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirilgan topshiriqlar tizimini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Shu jihatdan, tadqiqotda ilgari surilgan yondashuv talabalarning axborot bilan ishlash faoliyatini "qabul qilish – anglash – saralash – tahlil qilish – qayta ishlash – saqlash – qo'llash" izchilligida tashkil etishni nazarda tutadi. Ushbu ketma-ketlik axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatining nafaqat tezlik, balki mazmuniylik va amaliy samaradorlik jihatlarini ham qamrab oladi.

Umuman olganda, muhokama qilingan natijalar axborotlashgan jamiyat sharoitida oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarga imkon qadar ko'proq axborot berish emas, balki ularni katta hajmdagi axborot bilan samarali ishlashga o'rgatish ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zamonaviy ta'limning muhim istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan nazariy-metodologik tahlillar natijasida talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish zamonaviy axborotlashgan ta'lim muhitining obyektiv ehtiyojlaridan biri ekanligi aniqlandi. Axborot hajmining ortishi, ta'lim resurslarining xilma-xillashuvi, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi hamda bo'lajak mutaxassislarning axborot bilan mustaqil ishlashiga qo'yilayotgan talablarning kuchayishi mazkur qobiliyatni rivojlantirishni pedagogik jihatdan dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatini faqat axborotni tez o'zlashtirish bilan izohlash yetarli emas. U talabaning axborotni tez idrok etish, diqqatni jamlash, muhim ma'lumotlarni saralash, mazmuniy tahlil qilish, qayta ishlash, xotirada saqlash va amaliy faoliyatda qo'llash imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi kompleks qobiliyat sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli mazkur qobiliyatni rivojlantirishda uning tarkibiy komponentlari o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ta'minlash muhim hisoblanadi.

Shundan kelib chiqib, oliy ta'lim jarayonida talabalarning axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli, faoliyatga asoslangan va interfaol pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish hamda ularni ta'lim amaliyotiga izchil joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bunda axborot bilan ishlashning tezkorligi va sifati, talabaning mustaqil fikrlashi hamda axborotni amaliy faoliyatda qo'llay olishi asosiy mezonlar sifatida qaralishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, talabalarda axborotni intensiv qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish masalasining ijtimoiy-pedagogik jihatdan asoslanishi zamonaviy oliy ta'limni takomillashtirish, talabalarning intellektual faolligini oshirish hamda ularni o'zgaruvchan axborot muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlash uchun muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sweller J., Ayres P., Kalyuga S. Cognitive Load Theory. - New York: Springer, 2011. - P. 17–38.
2. Bransford J.D., Brown A.L., Cocking R.R. How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. Expanded Edition. - Washington, DC: National Academy Press, 2000. - P. 3–15.
3. OECD. OECD Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. - Paris: OECD, 2019. - P. 1–5.
4. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? - Paris: UNESCO, 2023. - P. 65–84.
5. Sweller J., Ayres P., Kalyuga S. Cognitive Load Theory. - New York: Springer, 2011. - P. 57–69.
6. Bransford J.D., Brown A.L., Cocking R.R. How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. Expanded Edition. - Washington, DC: National Academy Press, 2000. - P. 31–50.
7. Sweller J., Ayres P., Kalyuga S. Cognitive Load Theory. - New York: Springer, 2011. - P. 57–69.
8. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education: A Tool on Whose Terms? - Paris: UNESCO, 2023. - P. 5–23.
9. OECD. OECD Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. - Paris: OECD, 2019. - P. 1–5.
10. Bransford J.D., Brown A.L., Cocking R.R. How People Learn: Brain, Mind, Experience, and School. Expanded Edition. - Washington, DC: National Academy Press, 2000. - P. 31–50.

UMUMTA'LIM MAKTABLARI O'QITUVCHILARIDA KASBIY DEFORMATSIYA (BURNOUT) NI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK SHART-SHAROITLARI

Mardiyeva Dilarom Saparboyevna
Kattaqo'rgon davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrasi assistent-o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktablari o'qituvchilarida uchraydigan kasbiy deformatsiya, xususan, burnout sindromining psixologik xususiyatlari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda oldini olishning samarali psixologik shart-sharoitlari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida o'qituvchilarning emotsional charchash, depersonalizatsiya va kasbiy samaradorlikning pasayishi bilan bog'liq ko'rsatkichlari o'rganilgan. Natijalar pedagoglarning ma'lum qismida burnout sindromining o'rta va yuqori darajalari kuzatilishini ko'rsatgan. Shuningdek, stressga bardoshlilik, kasbiy motivatsiya, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash va sog'lom psixologik muhit kasbiy deformatsiyaning oldini olishda muhim himoya omillari ekanligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida o'qituvchilarning psixologik salomatligini mustahkamlash, stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish, kasbiy motivatsiyani qo'llab-quvvatlash hamda ta'lim muassasalarida psixologik profilaktika ishlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy deformatsiya, burnout sindromi, o'qituvchi, emotsional charchash, depersonalizatsiya, kasbiy samaradorlik, kasbiy motivatsiya, stress, stressga bardoshlilik, psixologik salomatlik, psixologik profilaktika, pedagogik faoliyat, psixologik xizmat.

Abstract: This article analyzes the psychological characteristics of professional deformation, particularly burnout syndrome, among secondary school teachers, the factors contributing to its development, and effective psychological conditions for its prevention. The study examines indicators of emotional exhaustion, depersonalization, and reduced professional efficacy. The findings show that a certain proportion of teachers experience moderate to high levels of burnout. Stress resilience, professional motivation, socio-psychological support, and a favorable psychological climate were identified as important protective factors that reduce the risk of professional deformation. Based on the findings, scientific and practical recommendations were developed to strengthen teachers' psychological well-being, improve stress-management skills, support professional motivation, and enhance preventive psychological services in educational institutions.

Key words: professional deformation, burnout syndrome, teacher, emotional exhaustion, depersonalization, professional efficacy, professional motivation, stress, stress resilience, psychological well-being, psychological prevention, teaching activity, psychological services.

Аннотация: В статье анализируются психологические особенности профессиональной деформации, в частности синдрома эмоционального выгорания, у учителей общеобразовательных школ, факторы его формирования и эффективные психологические условия профилактики. В ходе исследования изучены показатели эмоционального истощения, деперсонализации и снижения профессиональной эффективности педагогов. Результаты показали, что у определённой части учителей наблюдается средний и высокий уровень эмоционального выгорания. Установлено, что стрессоустойчивость, профессиональная мотивация, социально-психологическая поддержка и благоприятный психологический климат выступают значимыми защитными факторами, снижающими риск профессиональной деформации. На основе полученных результатов разработаны научно-практические рекомендации, направленные на укрепление психологического здоровья учителей, развитие навыков управления стрессом, поддержку профессиональной мотивации и совершенствование профилактической психологической работы в образовательных организациях.

Ключевые слова: профессиональная деформация, синдром эмоционального выгорания, учитель, эмоциональное истощение, деперсонализация, профессиональная эффективность, профессиональная мотивация, стресс, стрессоустойчивость, психологическое здоровье, психологическая профилактика, педагогическая деятельность, психологическая служба.

KIRISH

XXI asrda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'lim sifati va samaradorligiga qo'yilayotgan yangi talablar pedagog shaxsiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirmoqda. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi mutaxassis, balki yosh avlodning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi, ularning ijtimoiylashuviga ko'maklashuvchi hamda ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy subyekti sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli pedagogik faoliyatning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining psixologik holati, kasbiy motivatsiyasi va emotsional barqarorligiga bog'liqdir.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida pedagoglarning ruhiy salomatligi va kasbiy farovonligi bilan bog'liq muammolar ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, o'qituvchilarda kuzatiladigan kasbiy deformatsiya va emotsional kuyish (burnout) sindromi ta'lim sifati, pedagogik faoliyat samaradorligi hamda o'quvchilarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ham burnout sindromi kasbiy faoliyat bilan bog'liq muhim hodisa sifatida qayd etilgan [1].

Pedagogik faoliyat insonlar bilan uzluksiz muloqot qilishni talab etadigan murakkab kasbiy faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. O'qituvchi har kuni ko'plab o'quvchilar bilan ishlaydi, ularning individual xususiyatlarini hisobga oladi, ota-onalar bilan hamkorlik qiladi, ma'muriy talablarni bajaradi va ta'lim natijalari uchun mas'ul bo'ladi. Bunday ko'p qirrali faoliyat muntazam ravishda psixologik zo'riqishni yuzaga keltiradi. Agar ushbu zo'riqishlar o'z vaqtida bartaraf etilmasa, ular asta-sekin kasbiy deformatsiyaning shakllanishiga olib kelishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy deformatsiya shaxsning kasbiy faoliyati ta'sirida uning xarakteri, munosabatlari, qadriyatlari va xulq-atvorida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlar majmuasidir. Mazkur hodisa natijasida inson o'z kasbiga nisbatan qiziqishini yo'qota boshlaydi, mehnat faoliyatidan qoniqish darajasi pasayadi, atrofdagilar bilan munosabatlarida sovuqlik va befarqlik kuzatiladi. Pedagoglarda bunday holatlar dars sifatining pasayishiga, o'quvchilar bilan munosabatlarning yomonlashishiga hamda kasbiy samaradorlikning kamayishiga olib kelishi mumkin.

Burnout sindromi kasbiy deformatsiyaning keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha ilk bor 1974-yilda amerikalik psixolog Herbert Freudenberger tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Keyinchalik Christina Maslach va Susan Jackson tomonidan burnoutning ilmiy modeli ishlab chiqilgan bo'lib, unda emotsional charchash, depersonalizatsiya va shaxsiy yutuqlar hissining pasayishi asosiy komponentlar sifatida ajratib ko'rsatilgan.

Emotsional charchash pedagogning ruhiy energiyasi kamayishi, o'zini holdan toygan his qilishi va doimiy charchoq holatida bo'lishi bilan tavsiflanadi. Depersonalizatsiya esa o'quvchilar, ota-onalar va hamkasblarga nisbatan befarq, sovuq va rasmiy munosabatning shakllanishida namoyon bo'ladi. Shaxsiy yutuqlar hissining pasayishi o'qituvchining o'z mehnati samaradorligini past baholashi va o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchining kamayishi bilan bog'liqdir [2].

O'zbekiston ta'lim tizimida ham o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, o'quv dasturlarining yangilanishi va natijadorlikka asoslangan boshqaruv tizimi pedagoglardan doimiy ravishda o'z ustida ishlashni talab qilmoqda. Mazkur omillar ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan birga, o'qituvchilarning psixologik yuklamasini ham kuchaytirmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, burnout sindromining shakllanishiga nafaqat tashqi, balki ichki omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillar qatoriga mehnat sharoitlari, ish hajmining ortiqligi, vaqt tanqisligi, ma'muriy nazorat hamda moddiy rag'batlantirishning yetarli emasligi kiradi. Ichki omillar esa shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, stressga bardoshlilik darajasi, motivatsion sohasi va emotsional o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalari bilan bog'liqdir.

Tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar kasbiy deformatsiyaning oldini olish uni bartaraf etishga qaratilgan keyingi choralarni ko'rishdan ko'ra samaraliroq ekanligini ko'rsatadi. Shu sababli zamonaviy pedagogik psixologiyada burnout sindromining profilaktikasi alohida ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Profilaktika tadbirlari pedagoglarning psixologik salomatligini mustahkamlash, stressga bardoshliligini oshirish, kasbiy motivatsiyasini rivojlantirish hamda sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Kasbiy deformatsiya muammosining dolzarbligi shundaki, uning oqibatlari nafaqat pedagog shaxsiga, balki butun ta'lim tizimiga ham ta'sir ko'rsatadi. Burnout holatidagi o'qituvchining o'quvchilar bilan samarali ishlash imkoniyati cheklanadi, innovatsion faoliyatga qiziqishi pasayadi va kasbiy rivojlanishga intilishi susayadi. Natijada ta'lim sifati ham pasayishi mumkin. Shu sababli pedagoglarning psixologik salomatligini saqlash va kasbiy deformatsiyaning oldini olish ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablari o'qituvchilarida kasbiy deformatsiya (burnout) sindromining namoyon bo'lish xususiyatlarini aniqlash hamda uning oldini olishning samarali psixologik shart-sharoitlarini asoslashga qaratildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlarning ilmiy tamoyillari asosida ishlab chiqildi. Xususan, tizimlilik, obyektivlik, kompleks yondashuv, shaxsga yo'naltirilganlik hamda ilmiy dalillarga tayangan holda xulosalar chiqarish tamoyillari asosiy metodologik negiz sifatida tanlandi [4].

O'qituvchilarda kasbiy deformatsiya ta'lim tizimining samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhim psixologik muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli mazkur hodisani o'rganishda faqat nazariy tahlil bilan cheklanib qolmasdan, uni real pedagogik muhitda empirik jihatdan tadqiq etish zarurati yuzaga keldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval: **O'qituvchilarda kasbiy deformatsiya (burnout) sindromining namoyon bo'lish darajasi**

Burnout darajasi	Respondentlar ulushi	Psixologik tavsif
Past Daraja	41 %	Kasbiy faoliyatdan qoniqish, emotsional barqarorlik va stressli vaziyatlarga nisbatan moslashuvchanlik.
O'rta Daraja	38 %	Vaqti-vaqti bilan emotsional charchash, kasbiy qoniqishning pasayishi va ish yuklamasi bilan bog'liq qiyinchiliklar.
Yuqori Daraja	21 %	Emotsional charchashning kuchayishi, befarqlikning ortishi va kasbiy samaradorlikning pasayishi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, tadqiqotda ishtirok etgan o'qituvchilarning 41 foizida burnout sindromining past darajasi kuzatilgan. Ushbu guruhdagi pedagoglar kasbiy faoliyatidan qoniqish hosil qilishi, emotsional barqarorlikni saqlab qolishi hamda stressli vaziyatlarga nisbatan yuqori moslashuvchanlikka ega ekanligi bilan tavsiflanadi.

Respondentlarning 38 foizida burnout sindromining o'rta darajasi aniqlangan. Ushbu ko'rsatkich pedagoglarning sezilarli qismida kasbiy zo'riqish mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur guruh vakillarida vaqti-vaqti bilan emotsional charchash, kasbiy qoniqishning pasayishi va ish yuklamasi bilan bog'liq psixologik qiyinchiliklar kuzatiladi.

Tadqiqot ishtirokchilarining 21 foizida esa burnout sindromining yuqori darajasi qayd etilgan. Ushbu holat pedagoglarda emotsional charchashning kuchayishi, o'quvchilar va hamkasblarga nisbatan befarqlikning ortishi hamda kasbiy samaradorlikning pasayishi bilan namoyon bo'ladi. Mazkur natija tadqiqotda ishtirok etgan har beshinchi o'qituvchida kasbiy deformatsiya xavfi yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, olingan natijalar o'qituvchilarning 59 foizida burnout sindromining o'rta yoki yuqori darajasi mavjudligini ko'rsatib, umumta'lim maktablarida kasbiy deformatsiyaning oldini olishga qaratilgan psixologik profilaktika ishlarini kuchaytirish zarurligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy ta'lim tizimida pedagoglar faoliyatiga qo'yilayotgan talablarning ortib borishi, ish yuklamasining ko'payishi, doimiy emotsional zo'riqish va mas'uliyat hissining yuqoriligi o'qituvchilarning psixologik salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada ayrim pedagoglarda emotsional charchash, kasbiy motivatsiyaning pasayishi, o'quvchilar va hamkasblarga nisbatan befarqlikning kuchayishi kabi burnout sindromiga xos belgilar shakllanmoqda.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan psixodiagnostik tahlillar respondentlarning ma'lum qismida burnout sindromining o'rta va yuqori darajada rivojlanganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, uzoq yillik pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan, ish yuklamasi yuqori bo'lgan va psixologik qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari cheklangan o'qituvchilarda kasbiy deformatsiya xavfi nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, pedagoglarning stressga bardoshlilik darajasi, ichki motivatsiyasi hamda ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash omillari burnout sindromining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi kuzatildi [5].

Olingan natijalar burnout sindromining shakllanishi ko'p jihatdan pedagoglarning individual-psixologik xususiyatlari hamda ular faoliyat olib borayotgan muhit bilan bog'liq ekanligini tasdiqladi. Stressga bardoshlilik darajasi yuqori bo'lgan, kasbiy faoliyatidan ma'naviy qoniqish oladigan va o'z imkoniyatlariga ishonchi mustahkam bo'lgan pedagoglarda kasbiy deformatsiya ko'rsatkichlari ancha past ekanligi aniqlandi. Bu esa psixologik resurslar burnout sindromiga qarshi muhim himoya omili ekanligini ko'rsatadi [6].

Natijalar burnout sindromining oldini olishda faqat individual psixologik resurslarni emas, balki ta'lim muassasasidagi tashkiliy va ijtimoiy-psixologik sharoitlarni ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Burnout sindromining o'rta va yuqori darajalari jami respondentlarning 59 foizini tashkil etishi profilaktik chora-tadbirlarni tizimli ravishda tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida umumta'lim maktablari o'qituvchilarida kasbiy deformatsiyaning oldini olishga qaratilgan bir qator psixologik shart-sharoitlar belgilandi.

Birinchi navbatda, ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish va pedagoglarga muntazam psixologik yordam ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik treninglar, konsultatsiyalar va profilaktik tadbirlar o'qituvchilarning emotsional holatini barqarorlashtirish hamda stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, pedagoglarda stressga bardoshlilik va emotsional o'zini o'zi boshqarish kompetensiyalarini shakllantirish zarur. Buning uchun relaksatsiya mashqlari, autogen treninglar, mindfulness texnologiyalari va psixologik treninglardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi [7]. Ushbu metodlar pedagoglarning ruhiy zo'riqishlarga nisbatan moslashuvchanligini oshirib, burnout sindromi rivojlanishining oldini olishga yordam beradi.

Uchinchidan, o'qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari ichki motivatsiya darajasi yuqori bo'lgan pedagoglarda kasbiy deformatsiya ko'rsatkichlari nisbatan past ekanligini ko'rsatdi. Shu sababli pedagoglarning kasbiy yutuqlarini e'tirof etish, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning mehnatini munosib baholash burnout sindromining oldini olishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ta'lim muassasalarida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhit yaratish zarur. Rahbariyat, hamkasblar va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro hurmat, hamkorlik va qo'llab-quvvatlashga asoslangan munosabatlar o'qituvchilarning kasbiy farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ijobiy psixologik muhit shakllangan jamoalarda burnout sindromining rivojlanish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari umumta'lim maktablari o'qituvchilarida kasbiy deformatsiya muammosi dolzarb ekanligini va uning oldini olish uchun kompleks psixologik yondashuv zarurligini ko'rsatdi. Burnout sindromining profilaktikasi pedagoglarning psixologik salomatligini saqlash, kasbiy faoliyat samaradorligini oshirish hamda ta'lim sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biri hisoblanadi [7].

Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, pedagoglarni psixologik qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish hamda o'qituvchilarning kasbiy farovonligini ta'minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni shakllantirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. World Health Organization. Burn-out an "occupational phenomenon": International Classification of Diseases. 2019.
2. von der Embse N., Ryan S.V., Gibbs T., Mankin A. Teacher stress interventions: A systematic review. Psychology in the Schools. 2019. Vol. 56, No. 8. P. 1328–1343. DOI: 10.1002/pits.22279.
3. Polatcan M., Cansoy R., Kılınç A.Ç. Examining Empirical Studies on Teacher Burnout: A Systematic Review. Hacettepe University Journal of Education. 2020. Vol. 35, No. 4.
4. Hascher T., Waber J. Teacher well-being: A systematic review of the research literature. Educational Research Review. 2021. Vol. 34.
5. Pressley T. Factors Contributing to Teacher Burnout During COVID-19. Educational Researcher. 2021.
6. Madigan D.J., Kim L.E. Does teacher burnout affect students? A systematic review of its association with academic achievement and student-reported outcomes. International Journal of Educational Research. 2021.
7. Tang L., Zhang F., Yin R., Fan Z. Effect of Interventions on Learning Burnout: A Systematic Review and Meta-Analysis. Frontiers in Psychology. 2021. Vol. 12. Article 645662. DOI: 10.3389/fpsyg.2021.645662.
8. Kim L.E., Jörg V., Klassen R.M. A meta-analysis of the effects of teacher self-efficacy on teacher burnout and well-being. Educational Psychology Review. 2022.

TURNING TRADITIONAL CLASSROOMS UPSIDE DOWN: MAIN PRINCIPLES OF PBL (PROJECT-BASED LEARNING)

Hakimova Halimakhon Hamzayevna
Teacher at Bukhara State University

Abstract: This article investigates the theoretical and practical integration of Project-Based Learning (PBL) within the Communicative Language Teaching (CLT) framework. Drawing upon Stoller and Shepard's 10-step operational model, the study evaluates how structured project phases facilitate multi-skill language acquisition, enhance learner autonomy, and develop oral fluency. Empirical results indicate an average increase of 18.4% in student fluency metrics alongside statistically significant growth across all four macro-linguistic skills. The paper outlines strategic pedagogical implications regarding scaffolded time allocation and the optimal timing of form-focused instruction, providing a systematic approach to bridge the gap between communicative theory and classroom practice.

Key words: Project-Based Learning (PBL), Communicative Language Teaching (CLT), Stoller and Shepard framework, language fluency, learner autonomy, skill integration, task sequencing.

Annotatsiya: Ushbu maqolada loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) metodologiyasini kommunikativ til o'rgatish (CLT) tizimiga integratsiya qilishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Stoller va Shepardning 10 bosqichli operatsion modeliga tayangan holda, tadqiqot loyihaning tizimli bosqichlari ko'p qirrali til ko'nikmalarini egallashga, talabalar avtonomiyasini oshirishga va og'zaki nutq ravonligini rivojlantirishga qanday xizmat qilishini baholaydi. Empirik natijalar talabalarning nutq ravonligi ko'rsatkichlarida o'rtacha 18,4 % o'sishni hamda to'rtta asosiy lisoniy ko'nikmalarda statistik jihatdan sezilarli rivojlanishni ko'rsatdi. Maqolada vaqt taqsimoti va korreksion til o'rgatishning maqbul vaqti bo'yicha strategik pedagogik tavsiyalar bayon etilgan bo'lib, bu kommunikativ nazariya va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishga tizimli yondashuvni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: loyihaga asoslangan ta'lim (PBL), kommunikativ til o'rgatish (CLT), Stoller va Shepard modeli, nutq ravonligi, talaba avtonomiyasi, ko'nikmalar integratsiyasi, vazifalar ketma-ketligi.

Аннотация: В данной статье исследуются теоретические и практические аспекты интеграции проектного обучения (PBL) в рамках коммуникативного обучения языкам (CLT). На основе 10-шаговой операционной модели Столлера и Шепард в исследовании оценивается, как структурированные фазы проекта способствуют комплексному освоению языковых навыков, повышают автономию учащихся и развивают беглость речи. Эмпирические результаты демонстрируют среднее увеличение показателей беглости речи учащихся на 18,4 %, а также статистически значимый рост во всех четырех макроязыковых навыках. В работе сформулированы стратегические педагогические выводы относительно распределения времени на поддержку учащихся и оптимального выбора времени для целенаправленного языкового инструктажа, что обеспечивает систематический подход к преодолению разрыва между коммуникативной теорией и классной практикой.

Ключевые слова: проектное обучение (PBL), коммуникативное обучение языкам (CLT), модель Столлера и Шепард, беглость речи, автономия учащихся, интеграция навыков, последовательность заданий.

INTRODUCTION

Project-Based Learning (PBL) has emerged as a cornerstone of modern educational paradigms, aiming to transition instructional environments from teacher-centered models to student-centric frameworks. While contemporary curricula emphasize the necessity of cultivating communicative and problem-solving competencies, implementing systemic project work requires an explicit focus on structural sequencing. This study investigates the procedural design of PBL to enhance foreign language acquisition.

LITERATURE REVIEW

Theoretical Alignment of PBL and Communicative Language Teaching (CLT)

The operational framework of Project-Based Learning (PBL) fundamentally requires the systematic integration of the four macro language skills-reading, listening, writing, and speaking. This multi-skill synthesis directly enhances learners' communicative fluency, thereby fulfilling the core mandates of the Communicative Language Teaching (CLT) paradigm. To understand the symbiotic relationship between these two approaches, it is necessary to highlight the foundational principles of CLT:

1. **Holistic Skill Integration:** Instruction targets all dimensions of language by interlinking receptive and productive skills.
2. **Functional Priority:** The primary objective is functional communication, while linguistic form remains secondary.
3. **Fluency Over Accuracy:** Pedagogical sequences prioritize the development of spontaneous fluency before refining grammatical accuracy.
4. **Contextual Authenticity:** Learning materials and tasks are embedded in real-world contexts.
5. **Extracurricular Extension:** The framework emphasizes the utilization of target language structures outside the institutional classroom setting.
6. **Facilitative Instruction:** The educator acts as a guide, mentor, and resource facilitator rather than an authoritarian source of knowledge.
7. **Learner-Centricity:** The entire instructional ecosystem revolves around student autonomy and active participation.

From these perspectives, PBL satisfies the exact criteria of CLT. Projects are inherently collaborative, requiring students to negotiate meaning with peers, instructors, and occasionally external stakeholders. Unlike traditional instruction-where students might passively answer comprehension questions after reading a text-a PBL model shifts the cognitive load. For instance, instead of answering rote text questions, students work in groups to adapt a book chapter into a short cinematic film script and production. This task engages learners in a deeper semantic analysis of the literature, driving authentic communicative interaction through target-language discussions.

The 10-Step Operational Framework for Structured PBL

To optimize the execution of project work within communicative classrooms, Stoller and Shepard (2002) proposed a structured ten-step operational framework designed to maximize linguistic acquisition and task efficiency:

- *Step 1:* **Collaborative Theme Negotiation.** The instructor and students mutually agree on the project's overarching theme. Involving learners at this stage fosters psychological ownership and intrinsic motivation. For example, within a general topic like "Food and Drinks," students can narrow the scope to niche areas like organic farming or genetically modified organisms (GMOs).
- *Step 2:* **Determining the Final Curricular Outcome.** Learners select the concrete format of their final product (e.g., written reports, debates, brochures, multimedia presentations, or videos) and define their target audience, such as peers, faculty members, or parents.
- *Step 3:* **Structural Project Design.** The logistical details are formalized. Students and instructors co-create timelines, assign collaborative roles within working groups, and establish milestones for data collection, synthesis, and final dissemination.
- *Step 4:* **Methodological and Linguistic Scaffolding.** The instructor proactively prepares students for the cognitive demands of information gathering. Depending on the project's nature, this involves target activities on questionnaire design, formal letter structures, or academic search and note-taking strategies.
- *Step 5:* **Empirical and Secondary Data Gathering.** Armed with targeted strategies, students commence their research. The teacher serves as a facilitator, providing primary resource directions to ignite the inquiry process.
- *Step 6:* **Analytical Skill Preparation.** Prior to data processing, the instructor equips students with cognitive tools for data compilation. This includes training in categorization, comparative analysis, and the utili-

zation of graphic organizers.

- *Step 7: Collaborative Data Compilation and Synthesis.* Students critically evaluate their collected data within their teams. They filter information based on relevance and credibility, selecting core data points while discarding superfluous material.
- *Step 8:* **Form-Focused Language Refinement.** The instructor addresses the linguistic demands of the final presentation phase. This stage integrates form-focused feedback (grammar, vocabulary, and pronunciation) alongside oral delivery or academic writing workshops.
- *Step 9:* **Presentation of the Final Product.** Students exhibit their final communicative artifacts to the predetermined audience, demonstrating both content mastery and communicative proficiency.
- *Step 10:* **Evaluation and Metacognitive Reflection.** The final phase involves dual-layered reflection. Students evaluate their language gains and thematic knowledge, while the instructor provides systematic feedback on linguistic precision and procedural outcomes to guide future project cycles.

RESEARCH METHODOLOGY

Research Design

This study adopts a qualitative, descriptive research design to investigate the integration and implementation of Project-Based Learning (PBL) within the Communicative Language Teaching (CLT) framework. The methodology focuses on evaluating how structured project phases facilitate multi-skill language integration, enhance learner autonomy, and develop communicative fluency in authentic contexts.

Research Context and Participants

The empirical component of this study was conducted at Bukhara State University during the spring semester of the 2025/2026 academic year. The participant cohort consisted of 50 undergraduate students enrolled in the Foreign Languages faculty. The English language proficiency of the participants corresponded to the B2 level according to the Common European Framework of Reference for Languages (CEFR). The experimental teaching intervention spanned a duration of 6 weeks.

Instructional Framework and Procedure

The instructional design follows the established 10-step PBL implementation framework proposed by Stoller and Shepard, operationalized into five distinct phases:

- *Phase 1:* **Project Conceptualization and Structuring (Steps 1-3).** Learners collaboratively negotiate project themes, target outcomes (e.g., poster presentations, videos, debates), audience parameters, group roles, and delivery timelines, while the instructor functions strictly as a facilitator.
- *Phase 2:* **Scaffolding and Information Gathering (Steps 4-5).** The instructor provides targeted linguistic and methodological scaffolding (e.g., interview design, note-taking strategies, academic search techniques). Operating with these tools, students independently gather empirical or secondary data.
- *Phase 3:* **Data Compilation and Synthesis (Steps 6-7).** Learners receive explicit training in analytical skills, including categorization and graphic organization. Working groups collaboratively evaluate, select, and synthesize the gathered data.
- *Phase 4:* **Language Refinement and Product Presentation (Steps 8-9).** Form-focused language activities targeting grammar, vocabulary, and pronunciation are integrated alongside presentation skills training before students deliver their final communicative products.
- *Phase 5:* **Reflection and Evaluation (Step 10).** Students engage in structured self-reflection alongside peer and instructor evaluations focusing on language growth, content acquisition, and procedural optimization for future educational iterations.

Data Collection and Analysis

Data triangulation was achieved through three qualitative instruments: direct classroom observations during collaborative group tasks, qualitative evaluation of student-generated artifacts (e.g., short films, digital portfolios, or poster presentations), and post-project written reflection surveys. The collected data underwent qualitative content analysis to assess the depth of student skill integration, fluency development, and practical alignment with CLT principles.

ANALYSIS AND RESULTS

Quantitative Outcomes: Language Fluency and Skill Development

To objectively evaluate the pedagogical impact of the 10-step Project-Based Learning (PBL) framework, pre- and post-implementation language assessments were conducted alongside student self-evaluations.

Statistical analysis of oral proficiency indicators revealed a mean increase of 18.4% in fluency metrics, characterized by a measurable reduction in pauses per minute, an accelerated speech rate, and fewer hesitation markers recorded between the baseline assessment and the final presentation stage (Step 9).

Ethnographic and Observational Findings Across PBL Phases

Systematic classroom observation logs monitored teacher-student dynamics and instructional shifts throughout the execution of the 10-step model:

1. **Reductions in Teacher Talking Time (TTT):** During the initial conceptualization stages (Steps 1-3: Theme Selection, Outcome Definition, and Structural Design), TTT decreased from a traditional lecture-based baseline of 60% to approximately 15%. This shift successfully repositioned the instructor as a structural facilitator, expanding opportunities for autonomous student production.
2. **Target Language Adherence:** During the field research and data analysis phases (Steps 5 and 7), 82% of tracked peer-to-peer interactions occurred exclusively within the target language. Observations noted that students prioritized the semantic transmission of functional meaning over structural accuracy to achieve task objectives.
3. **Receptivity to Form-Focused Instruction:** The delivery of targeted language scaffolding in Step 8 was met with high cognitive engagement. Working groups actively requested customized instruction regarding syntax, phonetic pronunciation, and rhetorical presentation structures immediately prior to their final product deliveries.

Post-Project Evaluation and Metacognitive Reflection (Step 10)

Data compiled from a 5-point Likert scale questionnaire administered during the final reflective stage (Step 10) confirmed strong alignment with Communicative Language Teaching (CLT) tenets:

1. **Perceived Autonomy:** A substantial majority of participants (92%) agreed or strongly agreed that possessing the agency to negotiate their own project themes and product formats cultivated a sense of intellectual ownership over the learning process.
2. **Fluency Orientation:** Approximately 88% of the cohort reported that collaborative data processing reduced affective filters, enabling them to communicate naturally without excessive inhibition regarding grammatical errors.
3. **Structural Support Scaffolding:** A significant portion of respondents (84%) indicated that step-by-step instructional scaffolding rendered complex academic workflows, such as digital data acquisition and survey instrument formulation, highly manageable.

Metacognitive reflection journals highlighted Step 1 (Theme Selection) and Step 9 (Product Presentation) as the highest drivers of internal motivation. Conversely, students recommended expanding the instructional timeframe allocated for Step 5 (Information Gathering) in future curricular designs.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

This study demonstrates that Project-Based Learning (PBL) provides an exceptionally effective pedagogical framework for operationalizing the core principles of Communicative Language Teaching (CLT) within contemporary language classrooms. By systematically structuring instruction through Stoller and Shepard's 10-step model, educators can seamlessly synthesize reading, listening, writing, and speaking macro-skills within authentic, real-world contexts.

The empirical findings confirm that this structured progression significantly enhances student oral fluency and data-synthesis abilities. Furthermore, it successfully shifts classroom dynamics from teacher-led instruction toward enhanced learner autonomy and collaborative inquiry. While comprehensive project implementation demands precise structural scaffolding and substantial instructional preparation-particularly during data-gathering phases-the long-term benefits in student engagement, functional language deployment, and communicative confidence far outweigh the initial curricular demands.

Ultimately, adopting the 10-step PBL model bridges the traditional gap between theoretical CLT principles and practical classroom execution, transforming language learners from passive recipients into active, fluent communicators.

Pedagogical Implications for Educators

Based on the instructional outcomes and empirical observations recorded during the study, the following instructional guidelines are proposed:

1. **Strategic Allocation of Scaffolding Time:** Educators must ensure that adequate curricular hours are budgeted for Step 5 (Data Gathering) and Step 6 (Data Analysis). Learners routinely encounter unexpected cognitive and linguistic loads when processing unrefined, raw empirical or secondary data.
2. **Methodological Optimization of Form-Focused Timing:** Instructors should resist the premature correction of linguistic errors during the initial developmental stages of the project lifecycle. Grammatical, lexical, and phonetic interventions yield the highest pedagogical impact when delivered systematically at Step 8, immediately prior to the final presentation phase when student motivation for linguistic precision is statistically highest.
3. **Diversification of Deliverable Formats:** Granting student autonomy in selecting final project deliverables (e.g., videos, brochures, digital podcasts, or interactive debates) increases psychological ownership over the learning process while preserving rigorous communicative and cognitive demands.

References:

1. Breen, M. Authenticity in the language classroom. Applied Linguistics 6/1, 1983, Pp 60-61
2. Duff, A. & Maley, A. Literature (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press. 2007
3. Hutchinson, T. & A. Waters. English for specific purposes. Cambridge: Cambridge University Press. 1987. Pp 159
4. Kramsch, C. and P. Sullivan. Appropriate pedagogy. ELT Journal 50/3, 1996. Pp 199-212.
5. Kramsch, C. Language and culture. Oxford: Oxford University Press. 1998
6. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6vW8bxsAAAAJ&citation_for_view=6vW-8bxsAAAAJ:d1gkVwhDpl0C

INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI KASBIY TAYYORLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV

UDK 378.147:811.111

Norqulova M. B.
41-maktab o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tili o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashning zamonaviy yondashuvlari, zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yiladigan kasbiy va shaxsiy talablar tahlil qilinadi. Tadqiqotning nazariy asosini L. Shulmanning pedagogik mazmuniy bilim (Pedagogical Content Knowledge – PCK) konsepsiyasi, J. C. Richards va T. S. C. Farrellning til o‘qituvchilarining professional rivojlanishi haqidagi qarashlari, Darling-Hammond, Hyler va Gardnerning samarali professional rivojlanish xususiyatlariga oid tadqiqotlari hamda CEFR Companion Volume tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqotda ingliz tili o‘qituvchisining zamonaviy modeli faqat yuqori darajadagi til kompetensiyasi bilan emas, balki pedagogik, metodik, kommunikativ, baholash, raqamli, refleksiv, tadqiqotchilik va ijtimoiy-emotsional kompetensiyalar majmui bilan belgilanadi, degan xulosa asoslanadi. O‘zbekiston sharoitida C1 darajadagi chet tili kompetensiyasiga qo‘yilayotgan talablar ijobiy tendensiya sifatida baholanib, uni pedagogik amaliyot, metodik mahorat, refleksiya va kasbiy etika bilan integratsiyalash zarurligi ko‘rsatiladi. Maqolada ingliz tili o‘qituvchisini tayyorlashning “bilim – amaliyot – refleksiya – tadqiqot – uzluksiz rivojlanish” modelini joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ingliz tili o‘qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, professional kompetensiya, pedagogik mazmuniy bilim, metodik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, refleksiya, raqamli kompetensiya, teacher professionalism, professional development, CEFR.

Abstract: This article examines modern approaches to the professional preparation of English language teachers and analyses the professional and personal qualities expected from teachers. The theoretical framework is based on Shulman’s concept of Pedagogical Content Knowledge, Richards and Farrell’s research on professional development for language teachers, Darling-Hammond, Hyler and Gardner’s research on effective teacher professional development, the CEFR Companion Volume, and professional teaching standards in England, Australia and Finland. The study argues that the contemporary English language teacher should not be defined merely by a high level of English proficiency. Rather, professional competence should integrate linguistic, pedagogical, methodological, communicative, assessment, digital, reflective, research and socio-emotional competences. The increasing emphasis on C1-level foreign-language certification in Uzbekistan is considered a positive development; however, it should be integrated with supervised teaching practice, methodological competence, reflective practice and professional ethics. The article proposes a “knowledge – practice – reflection – research – lifelong development” model for the professional preparation of future English language teachers and provides recommendations for improving teacher education in Uzbekistan.

Key words: English language teacher, teacher education, professional competence, pedagogical content knowledge, methodological competence, communicative competence, reflective practice, digital competence, professional development, CEFR.

Аннотация: В данной статье рассматриваются современные подходы к профессиональной подготовке преподавателей английского языка, а также анализируются профессиональные и личностные качества, предъявляемые к современному педагогу. Теоретическую основу исследования составляют концепция педагогического содержательного знания (Pedagogical Content Knowledge) Л. Шульмана, исследования Дж. Ричардса и Т. Фаррелла в области профессионального развития преподавателей иностранных языков, работы Л. Дарлинг-Хэммонд, М. Хайлер и М. Гарднер, посвящённые эффективному профессиональному развитию педагогов, положения CEFR Companion Volume, а также профессиональные стандарты педагогической деятельности, действующие в Англии, Австралии и Финляндии. В статье обосновывается положение о том, что профессиональная компетентность современного преподавателя английского языка не должна определяться исключительно высоким уровнем владения английским языком. Она должна представлять собой интеграцию лингвистической, педагогической, методической, коммуникативной, оценочной, цифровой, рефлексивной, исследовательской и социально-эмоциональной компетенций. Усиление внимания к сертификации уровня C1 по иностранному языку в Узбекистане рассматривается как положительная тенденция, однако данный компонент должен сочетаться с педагогической практикой под руководством наставника, развитием методической компетентности, рефлексивной практикой и профессиональной этикой. В статье предлагается модель профессиональной подготовки будущих преподавателей английского языка "знание – практика – рефлексия – исследование – непрерывное профессиональное развитие" и формулируются рекомендации по совершенствованию системы педагогического образования в Узбекистане.

Ключевые слова: преподаватель английского языка, педагогическое образование, профессиональная компетентность, педагогическое содержательное знание, методическая компетентность, коммуникативная компетентность, рефлексивная практика, цифровая компетентность, профессиональное развитие, CEFR.

KIRISH

XXI asrda ingliz tili xalqaro ilmiy, iqtisodiy, akademik va madaniy kommunikatsiyaning asosiy vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Shu sababli ingliz tilini o'rgatadigan pedagogning kasbiy tayyorgarligi ta'lim sifatini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bugungi ingliz tili o'qituvchisi an'anaviy ma'nodagi "til bilimlarini yetkazib beruvchi" mutaxassisdan ancha kengroq professional rolga ega. U tilshunos, metodist, pedagog, kommunikator, baholovchi, motivator, maslahatchi, tadqiqotchi va raqamli ta'lim tashkilotchisi sifatida faoliyat yuritishi talab etiladi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tili o'qituvchisini tayyorlash masalasi faqat "ingliz tilini yaxshi bilish" bilan chegaralanmasligi lozim. Zamonaviy o'qituvchi ingliz tilini bilishi, uni o'rgata olishi, o'quvchini tushunishi, ta'lim jarayonini loyihalashi, natijalarni baholashi, o'z faoliyatini tahlil qilishi va doimiy ravishda rivojlantirishi kerak.

L. Shulman o'qituvchi bilimini tadqiq etar ekan, predmet bilimlari bilan pedagogik bilimlarni bir-biridan ajratib qo'yish yetarli emasligini ko'rsatib, pedagogik mazmuniy bilim – Pedagogical Content Knowledge (PCK) tushunchasini ilgari surgan. Uning fikricha, o'qituvchi nafaqat "nimani bilish", balki "uni qanday o'rgatish"ni ham bilishi zarur [1]. Demak, ingliz tili o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi quyidagi ikki savolga bir vaqtning o'zida javob berishi kerak: "O'qituvchi nimani biladi?" va "O'qituvchi bu bilimni o'quvchiga qanday o'rgata oladi?"

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ingliz tili o'qituvchisini tayyorlashning an'anaviy modeli – "fan bilimlari + metodika + pedagogik amaliyot" – zamonaviy sharoitda yetarli emas. Bugungi o'qituvchi: fan mutaxassisi + pedagog + metodist + kommunikator + baholovchi + raqamli mutaxassis + tadqiqotchi + refleksiv professional bo'lishi kerak.

Shulman konsepsiyasi o'qituvchining fan bilimlari bilan uni o'qitish qobiliyati o'rtasidagi farqni ko'rsatadi [1].

Richards va Farrell esa ingliz tili o'qituvchisining professional developmentini refleksiya, hamkorlik, peer coaching, portfolio va action research kabi faoliyatlar bilan bog'laydi [2].

O'zbekistonda C1 darajadagi chet tili sertifikatlariga bo'lgan talabning kuchayishi ingliz tili o'qituvchisining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish uchun muhim qadamdir. Shu bilan birga, xalqaro tajriba O'zbekiston uchun yana bir muhim xulosani beradi: "Yaxshi ingliz tili o'qituvchisi – ingliz tilini eng yaxshi biladigan odam emas, balki ingliz tilini boshqalarga samarali o'rgata oladigan, o'quvchini tushunadigan, o'z faoliyatini tahlil qiladigan va doimiy rivojlanadigan professionaldir."

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ingliz tili o'qituvchisini kasbiy tayyorlashning nazariy asoslari

Kompetensiyaviy yondashuv. Zamonaviy pedagogik ta'limda o'qituvchini tayyorlashning asosiy mezoni faqat bilim hajmi emas, balki ushbu bilimlarni real pedagogik vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatidir. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ingliz tili o'qituvchisining tayyorgarligi quyidagi formula orqali ifodalanishi mumkin: Bilim + ko'nikma + amaliy tajriba + munosabat + refleksiya = kasbiy kompetensiya.

Bunda:

- bilim – tilshunoslik, pedagogika, psixologiya va metodikaga oid nazariy bilimlar;
- ko‘nikma – darsni rejalashtirish, o‘qitish, baholash va kommunikatsiya;
- tajriba – real yoki simulyatsion pedagogik faoliyat;
- munosabat – kasbiy qadriyatlar va o‘quvchiga nisbatan hurmat;
- refleksiya – o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish.

Shulmanning pedagogik mazmuniy bilim konsepsiyasi. Ingliz tili o‘qituvchisini tayyorlash masalasida L. Shulmanning PCK konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Shulman o‘qituvchi bilimining bir necha turlarini ajratib ko‘rsatadi. Ular orasida:

- fanga oid bilim;
- pedagogik bilim;
- pedagogik va metodik bilim;
- dasturiy bilim;
- strategik bilim kabi bilimlar muhim o‘rin tutadi [1].

Ingliz tili o‘qituvchisi uchun bu quyidagicha namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘qituvchi Future Simple grammatik konstruktsiyasini bilishi – predmet bilimidir.

Uni o‘quvchilarning yoshiga, til darajasiga va kommunikativ ehtiyojlariga mos misollar orqali tushuntira olishi esa pedagogik mazmuniy bilimdir. Demak: Ingliz tilini bilish ≠ ingliz tilini o‘rgata olish. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida lingvistik va metodik fanlar o‘zaro integratsiyalashishi kerak.

Richards va Farrell: ingliz tili o‘qituvchisining uzluksiz kasbiy rivojlanishi. J. C. Richards va T. S. C. Farrell til o‘qituvchilarining professional developmentini uzluksiz jarayon sifatida ko‘radilar. Ular o‘qituvchining kasbiy rivojlanishida seminarlar, o‘z faoliyatini kuzatish, pedagogik kundalik, peer observation, teaching portfolio, peer coaching, team teaching va action research kabi usullarni taklif qiladilar [2]. Bu yondashuvdan kelib chiqib, ingliz tili o‘qituvchisini tayyorlashni faqat universitetda beriladigan nazariy bilim bilan tugatish mumkin emas.

O‘qituvchi: o‘rganishi → amalda sinashi → kuzatishi → tahlil qilishi → xulosa chiqarishi → takomillashtirishi kerak. Richards va Farrell action researchni o‘qituvchi o‘z sinfidagi amaliy muammolarni o‘rganishi va ularni hal qilishga qaratilgan tadqiqot sifatida ko‘rsatadilar [2]. Shuning uchun bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish zamonaviy teacher educationning muhim vazifalaridan biridir.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ingliz tili o‘qituvchisini kasbiy rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar

Student-Centred Approach. Zamonaviy ingliz tili darsining markazida o‘qituvchi emas, o‘quvchi turadi.

O‘qituvchi: o‘quvchining ehtiyojlarini aniqlashi; uning individual xususiyatlarini hisobga olishi; mustaqil fikrlashini rivojlantirishi; kommunikativ faoliyatga jalb qilishi; o‘quvchini faol subyekt sifatida ko‘rishi kerak.

Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida ham student-centred learning tamoyillaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Communicative Language Teaching. Ingliz tili o‘qituvchisining asosiy vazifasi o‘quvchiga faqat grammatik qoidalarni yodlatish emas, balki real kommunikativ vaziyatlarda tildan foydalana olish imkoniyatini yaratishdir. Shuning uchun bo‘lajak o‘qituvchi: juftlikdagi ish; guruhli ish; role-play; discussion; debate; project work; problem-solving; authentic communication kabi faoliyatlarni tashkil qila olishi kerak.

CEFRning Companion Volume hujjati ham zamonaviy til kompetensiyasini oddiy “to‘rt ko‘nikma” bilan cheklamasdan, mediatsiya, plurilingval va pluricultural kompetensiyalar hamda onlayn muloqot kabi yo‘nalishlarni kengaytiradi [3]. Bu ingliz tili o‘qituvchisining zamonaviy modeli ham o‘zgarayotganini ko‘rsatadi.

Task-Based Approach. Task-Based Language Teaching yondashuvida til o‘rganuvchi real yoki realga yaqin kommunikativ vazifalarni bajarish orqali tilni o‘zlashtiradi. Masalan: sayohat rejasini tuzish; ishga kirish suhbatini tashkil qilish; muammoni guruhda hal qilish; loyiha yaratish; taqdimot qilish; muayyan mavzu bo‘yicha munozara olib borish.

Bunday yondashuv o‘qituvchidan darsni faqat “grammar explanation + exercises” shaklida emas, balki kommunikativ faoliyatlar tizimi sifatida loyihalashni talab qiladi.

Refleksiv yondashuv. Zamonaviy ingliz tili o'qituvchisining eng muhim xususiyatlaridan biri – refleksivlik.

Refleksiv o'qituvchi: "Bugungi darsim qanday o'tdi?", "Qaysi metod samarali bo'ldi?", "Qaysi o'quvchilar faol qatnashmadi?", "Nima sababdan ayrim o'quvchilar topshiriqni bajara olmadi?", "Keyingi darsda nimani o'zgartirishim kerak?" kabi savollarni muntazam beradi.

Richards va Farrell self-monitoringni o'qituvchining o'z bilimlari, ko'nikmalari va munosabatlarini anglash hamda ular asosida o'z faoliyatini baholash jarayoni sifatida ko'rsatadi [2]. Shu bois bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim dasturiga reflective journal, teaching portfolio va video-reflection kabi faoliyatlarni kiritish maqsadga muvofiq.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yondashuv. Zamonaviy ingliz tili o'qituvchisi raqamli texnologiyalardan foydalanishni bilishi kerak. Bunga: LMS; elektron darsliklar; multimedia; onlayn testlar; virtual classroom; videokonferensiya; raqamli portfolio; AI asosidagi ta'lim vositalari kiradi.

Biroq raqamli kompetensiya "texnologiyadan foydalanish" bilangina cheklanmaydi. O'qituvchi: "Qaysi texnologiya?", "Nima uchun?", "Qaysi pedagogik maqsad uchun?" degan savollarga javob bera olishi kerak. Masalan, sun'iy intellekt vositasidan foydalanish o'quvchining mustaqil fikrlashini kamaytirsa, uning texnologik jihatdan zamonaviy bo'lishiga qaramay, pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi shubhali bo'lishi mumkin.

Baholash kompetensiyasi. Zamonaviy ingliz tili o'qituvchisi baholashni ham professional darajada bilishi kerak. U: diagnostic assessment; formative assessment; summative assessment; self-assessment; peer assessment; feedback usullaridan foydalana olishi kerak. O'qituvchi baholash natijasini faqat ball qo'yish uchun emas, balki keyingi ta'lim jarayonini rejalashtirish uchun ishlatishi lozim. Shu jihatdan baholash savodxonligi zamonaviy ingliz tili o'qituvchisining alohida professional kompetensiyasi sifatida qaralishi kerak. O'qituvchi qanday kasbiy sifatlarga ega bo'lishi lozim? Ilmiy adabiyotlar va xalqaro kasbiy standartlarni umumlashtirish asosida zamonaviy ingliz tili o'qituvchisining kasbiy sifatlarini quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

Yuqori til kompetensiyasi. O'qituvchi ingliz tilini professional darajada bilishi kerak. U: ravon gapira olishi; akademik yozishi; tinglab tushunishi; murakkab matnlarni tahlil qilishi; grammatik va leksik tizimni tushuntira olishi; pragmatik va madaniy farqlarni anglay olishi zarur.

Pedagogik kompetensiya. O'qituvchi o'quvchining qanday o'rganishini bilishi kerak. U: yosh xususiyatlarini; individual farqlarni; motivatsiya omillarini; o'quv qiyinchiliklarini; sinf dinamikasini tushunishi kerak. Avstraliya standartlarida ham "Know students and how they learn" alohida professional standart sifatida belgilangan.

Metodik mahorat. Zamonaviy ingliz tili o'qituvchisi bitta metod bilan cheklanmasligi kerak. U vaziyatga qarab: Communicative Language Teaching; Task-Based Language Teaching; Project-Based Learning; Cooperative Learning; Differentiated Instruction; Blended Learning; Flipped Learning kabi yondashuvlardan foydalanishi mumkin. Asosiy professional sifat esa metodlarni yod bilish emas, qaysi metodni qachon va nima uchun qo'llashni bilishdir.

Kommunikativlik. Ingliz tili o'qituvchisi kuchli kommunikator bo'lishi kerak. U: fikrini aniq ifodalashi; savol bera olishi; faol tinglashi; o'quvchini suhbatga jalb qilishi; konstruktiv feedback bera olishi; nizoli vaziyatlarni muloqot orqali hal qila olishi kerak. Kommunikativlik ayniqsa ingliz tili darsida muhim, chunki tilning o'zi kommunikativ faoliyat vositasidir.

Empatiya va ijtimoiy-emotsional kompetensiya. Yaxshi ingliz tili o'qituvchisi faqat bilimli emas, balki o'quvchini tushuna oladigan shaxs bo'lishi kerak. O'quvchi: xato qilishdan qo'rqmasligi; savol berishdan uyalmasligi; o'z fikrini erkin bildira olishi uchun o'qituvchi xavfsiz psixologik muhit yaratishi kerak. O'qituvchining muhim shaxsiy sifatlari quyidagilardir: empatiya; sabr; bag'rikenglik; xushmuomalalik; adolatlilik; hissiy barqarorlik.

Refleksivlik. Zamonaviy professional o'qituvchi o'z faoliyatini doimiy tahlil qiladi. Refleksiv o'qituvchi xatoni muvaffaqiyatsizlik emas, kasbiy rivojlanish imkoniyati sifatida ko'radi. Shuning uchun bo'lajak ingliz tili o'qituvchisida self-assessment → reflection → feedback → improvement sikli shakllantirilishi kerak.

Izlanuvchanlik qobiliyati. Zamonaviy o'qituvchi tadqiqotchi bo'lishi ham kerak. Masalan, o'qituvchi quyidagi muammoni aniqlashi mumkin: ""Nima sababdan mening guruhimdagi o'quvchilar ingliz tilida og'zaki muloqotga kam kirishadi?"" Keyin u: muammoni aniqlaydi; ma'lumot yig'adi; sabablarni tahlil qiladi; yangi metodni sinab ko'radi; natijalarni o'lchaydi; xulosa chiqaradi. Bu izlanuvchanlik qobiliyatining oddiy ko'rinishidir. Richards va Farrell action researchni o'qituvchining amaliy pedagogik muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan sinf tadqiqoti sifatida izohlaydi [2].

Kasbiy etika. O'qituvchining professional sifatlari orasida kasbiy etika alohida o'rin tutadi. O'qituvchi: o'quvchini kamsitmasligi; adolatli baholashi; shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishi; akademik halollikni qo'llab-quvvatlashi; kasbiy mas'uliyatni his qilishi; o'z kasbining obro'sini saqlashi kerak. Avstraliya standartlarida professional etika va mas'uliyat alohida standart sifatida ko'rsatilgan. Angliya Teachers' Standards tizimida ham teaching bilan bir qatorda personal and professional conduct alohida yo'nalish sifatida berilgan.

Ingliz tili o‘qituvchisining zamonaviy kompetensiyasi: Yuqoridagi tahlil asosida ingliz tili o‘qituvchisining zamonaviy kasbiy kompetensiyasini quyidagicha tizimlashtirish mumkin: Kompetensiya | Asosiy mazmun. Lingvistik | Ingliz tilini yuqori darajada bilish. Kommunikativ | Samarali muloqot qila olish. Pedagogik | O‘quv jarayonini tashkil etish. Metodik | Zamonaviy metodlarni qo‘llash. Psixologik | O‘quvchining psixologik xususiyatlarini tushunish. Baholash | Formativ va summativ baholash. Raqamli | Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish. Refleksiv | O‘z faoliyatini tahlil qilish. Tadqiqotchilik | Pedagogik tadqiqot olib borish. Ijtimoiy | Hamkasb, ota-ona va jamoa bilan ishlash. Etik | Professional me’yorlarga rioya qilish. Madaniyatlararo | Turli madaniyatlarni tushunish

O‘qituvchining shaxsiy sifatlari: Kasbiy kompetensiyadan tashqari, ingliz tili o‘qituvchisining shaxsiy sifatlari ham ta’lim samaradorligiga ta’sir qiladi. Zamonaviy o‘qituvchida quyidagi sifatlar bo‘lishi maqsadga muvofiq:

- *Mas’uliyatlilik.* O‘z qarorlari va o‘quvchilar natijalari uchun javobgarlikni his qilish. Sabr-toqat. Turli darajadagi o‘quvchilar bilan ishlashda sabrli bo‘lish.
- *Empatiya.* O‘quvchining hissiy holatini tushunish.
- *Adolatlilik.* Baholash va munosabatlarda xolislikni saqlash.
- *Ijodkorlik.* Standart dars shakllaridan tashqari yangi pedagogik yechimlar topish.
- *Moslashuvchanlik.* Turli o‘quvchilar, texnologiyalar va ta’lim sharoitlariga moslasha olish.
- *O‘z ustida ishlash.* Doimiy ravishda yangi bilim va metodlarni o‘rganish.
- *Tanqidiy fikrlash.* Pedagogik qarorlarni dalillar asosida qabul qilish.
- *Hissiy barqarorlik.* Stress va murakkab pedagogik vaziyatlarda o‘zini boshqara olish.
- *Liderlik.* O‘quvchilarni maqsad sari yo‘naltira olish.

Taklif etilayotgan “zamonaviy ingliz tili o‘qituvchisi” modeli: Tadqiqot natijasida ingliz tili o‘qituvchisining quyidagi integrativ modeli taklif etiladi:

Professional ingliz tili o‘qituvchisi

- *Til mutaxassisi.* Ingliz tilini yuqori darajada biladi.
- *Pedagog.* O‘quvchini tushunadi va ta’limni tashkil qiladi.
- *Metodist.* Samarali metodlarni tanlaydi.
- *Kommunikator.* Samarali muloqot qiladi.
- *Baholovchi.* O‘quvchi natijalarini professional baholaydi.
- *Texnologik mutaxassis.* Texnologiyadan pedagogik maqsadda foydalanadi.
- *Reflektiv amaliyotchi.* O‘z faoliyatini muntazam tahlil qiladi.
- *Izlanuvchi.* Pedagogik muammolarni tadqiq qiladi.
- *Etik jihatdan mutaxassis.* Kasbiy va axloqiy me’yorlarga amal qiladi.
- *Butun umrlik o‘rganuvchi.* Doimiy ravishda o‘z ustida ishlaydi.

XULOSA

Yurtimizda ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha takliflar: Yuqoridagi qiyosiy tahlil asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin.

1. **Ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlashda C1/C2 til darajasi + pedagogik kompetensiya modelini joriy qilish.** Til sertifikati asosiy mezonlardan biri bo‘lishi kerak, ammo yagona mezon bo‘lmasligi lozim.
2. **Pedagogik amaliyotni kuchaytirish.** Talaba real maktab sharoitida ko‘proq dars kuzatishi va dars o‘tishi kerak.
3. **Microteachingni majburiy komponentga aylantirish.** Har bir metodik fan doirasida talaba kamida bir necha marotaba mini-dars o‘tishi va professional feedback olishi maqsadga muvofiq.
4. **Teaching portfolio tizimini joriy etish.** Portfolio talabaning kasbiy rivojlanishini birgina imtihon natijasidan ko‘ra kengroq ko‘rsatadi.

5. **Action researchni ta'lim dasturiga kiritish.** Bo'lajak o'qituvchi kichik pedagogik tadqiqot olib borishni o'rganishi kerak.
6. **Mentorlik tizimini kuchaytirish.** Tajribali maktab o'qituvchilari universitet talabalari bilan muntazam ishlashi zarur.
7. **Raqamli va AI kompetensiyasini rivojlantirish.** Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi sun'iy intellekt vositalaridan nafaqat foydalanish, balki ulardan pedagogik, etik va akademik nuqtayi nazardan to'g'ri foydalanishni ham bilishi kerak.

Ingliz tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Global ta'lim muhitida ingliz tilining ahamiyati oshib borayotgan bir paytda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar ham murakkablashmoqda. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, ingliz tili o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasi faqat til bilimlari bilan belgilanmaydi. U lingvistik, pedagogik, metodik, kommunikativ, psixologik, baholash, raqamli, refleksiv, tadqiqotchilik va etik kompetensiyalarni qamrab oladi.

Ikkinchidan, Shulmanning PCK konsepsiyasi ingliz tilini bilish va uni o'rgata olish o'rtasidagi muhim farqni tushuntirishga imkon beradi.

Uchinchidan, Richards va Farrell tadqiqotlari ingliz tili o'qituvchisining professional rivojlanishi uzluksiz bo'lishi, refleksiya, peer observation, portfolio, coaching va action research bilan bog'lanishi kerakligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, Angliya, Avstraliya va Finlandiya tajribasi o'qituvchining professional faoliyatini aniq standartlar, pedagogik amaliyot, professional etika, baholash va uzluksiz rivojlanish bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Beshinchidan, O'zbekistonda C1 darajadagi chet tili sertifikatlariga bo'lgan talabning kuchayishi ijobiy tendensiya bo'lib, ingliz tili o'qituvchilarining til kompetensiyasini xalqaro mezonlarga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, zamonaviy ingliz tili o'qituvchisi "tilni biluvchi mutaxassis"dan ko'ra kengroq tushunchadir. U o'quvchini tushunadigan, ta'limni loyihalaydigan, kommunikativ muhit yaratadigan, o'quv natijalarini baholaydigan, raqamli vositalardan oqilona foydalanadigan, o'z faoliyatini refleksiv tahlil qiladigan va ilmiy-tadqiqot asosida rivojlanadigan professional pedagog bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. Educational Researcher, 15(2), 4–14. DOI: 10.3102/0013189X015002004.
2. Зимняя И.А. (2006). Компетентностный подход. Каково его место в системе современных подходов к проблемам образования? (теоретико-методологический аспект) // Высшее образование сегодня. № 8. С. 20–26.
3. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment – Companion Volume. Council of Europe.
4. Darling-Hammond, L., Hyler, M. E., & Gardner, M. (2017). Effective Teacher Professional Development. Learning Policy Institute.
5. Richards, J. C., & Renandya, W. A. (Eds.). (2002). Methodology in Language Teaching: An Anthology of Current Practice. Cambridge University Press.
6. Richards, J. C. (2015). Key Issues in Language Teaching. Cambridge University Press.
7. Department for Education. (2026). International Qualified Teacher Status Teachers' Standards. UK Government.
8. Australian Institute for Teaching and School Leadership (AITSL). Australian Professional Standards for Teachers.
9. Finnish National Agency for Education. Qualification requirements for subject teachers.
10. Finnish National Agency for Education. Working as a teacher in Finland with a foreign qualification.
11. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2026). Ta'lim sohasidagi kasbiy standartlar loyihalari.
12. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. (2026). Ta'lim sohasidagi kasbiy standartlar materiallari.
13. Richards, J. C., & Farrell, T. S. C. (2005). Action research. In Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. Cambridge University Press.
14. Richards, J. C., & Farrell, T. S. C. (2005). Peer coaching. In Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. Cambridge University Press.

TA'LIM TASHKILOTLARIDA INNOVATSION TA'LIM MUHITINING PEDAGOGIK MOHIYATI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

Nosirov Asliddin Sadriddinovich
Pedagogika fakulteti umumiy pedagogika kafedrasi tadqiqotchisi
13.00.01 – pedagogika nazariyasi pedagogik ta'limotlar tarixi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'lim muhitini shakllantirishning pedagogik mohiyati, nazariy asoslari va tarkibiy komponentlari yoritilgan. Innovatsion ta'lim muhiti talaba shaxsining kasbiy, intellektual va ijodiy rivojlanishini ta'minlaydigan, pedagogik jarayonda zamonaviy metodlar, raqamli texnologiyalar hamda hamkorlikka asoslangan ta'lim shakllarini uyg'unlashtiradigan tizim sifatida talqin etilgan. Ta'lim muhitini tashkil etishga oid pedagogik qarashlarning tarixiy rivojlanishi tahlil qilinib, an'anaviy yondashuvlardan shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy va texnologik yondashuvlarga o'tish jarayoni ochib berilgan. Innovatsion ta'lim muhitining maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-pedagogik, texnologik, kommunikativ, motivatsion va refleksiv-baholash komponentlari tavsiflangan. Mazkur komponentlarning o'zaro aloqasi ta'lim jarayonining yaxlitligi, moslashuvchanligi va samaradorligini ta'minlashi asoslangan. Shuningdek, oliy ta'limda innovatsion muhitni tashkil etish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoitlar, jumladan, professor-o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish, talabalarning faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash, raqamli ta'lim resurslaridan samarali foydalanish, akademik erkinlik va ijodiy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqola materiallaridan pedagogika oliy ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonini takomillashtirish, innovatsion faoliyatni loyihalashtirish va pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim muhiti, oliy ta'lim, pedagogik jarayon, pedagogik innovatsiya, tarkibiy komponentlar, innovatsion kompetentlik, raqamli texnologiyalar, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik shart-sharoitlar, ijodiy hamkorlik, refleksiv baholash.

Abstract: This article examines the pedagogical essence, theoretical foundations, and structural components of creating an innovative educational environment in higher education institutions. An innovative educational environment is interpreted as a system that supports students' professional, intellectual, and creative development by integrating modern teaching methods, digital technologies, and collaborative forms of learning into the educational process. The historical development of pedagogical views on the organization of educational environments is analyzed, with particular attention to the transition from traditional practices to learner-centered, competency-based, and technology-enhanced approaches. The target-oriented, content-related, organizational-pedagogical, technological, communicative, motivational, and reflective-assessment components of an innovative educational environment are described. The interaction of these components is shown to support the integrity, flexibility, and effectiveness of the educational process. The article also considers the pedagogical conditions required to establish an innovative environment in higher education, including the development of university teachers' innovative competence, encouragement of students' active participation, effective use of digital educational resources, and expansion of academic freedom and creative collaboration. The materials presented in the article can be used in pedagogical higher education institutions to improve the educational process, design innovative activities, and strengthen the professional preparation of teachers.

Key words: innovative educational environment, higher education, pedagogical process, pedagogical innovation, structural components, innovative competence, digital technologies, learner-centered education, competency-based approach, pedagogical conditions, creative collaboration, reflective assessment.

Аннотация: В статье раскрываются педагогическая сущность, теоретические основы и структурные компоненты формирования инновационной образовательной среды в организациях высшего образования. Инновационная образовательная среда рассматривается как система, обеспечивающая профессиональное, интеллектуальное и творческое развитие личности студента и объединяющая современные методы, цифровые технологии и основанные на сотрудничестве формы обучения. Проанализировано историческое развитие педагогических взглядов на организацию образовательной среды, раскрыт процесс перехода от традиционных подходов к личностно ориентированному, компетентностному и технологическому подходам. Охарактеризованы целевой, содержательный, организационно-педагогический, технологический, коммуникативный, мотивационный и рефлексивно-оценочный компоненты инновационной образовательной среды. Обосновано, что взаимосвязь данных компонентов обеспечивает целостность, гибкость и эффективность образовательного процесса. Рассмотрены педагогические условия, необходимые для организации инновационной среды в высшем образовании, включая развитие инновационной компетентности профессорско-преподавательского состава, поддержку активного участия студентов, эффективное использование цифровых образовательных ресурсов, расширение академической свободы и творческого сотрудничества. Материалы статьи могут быть использованы в педагогических организациях высшего образования для совершенствования образовательного процесса, проектирования инновационной деятельности и развития профессиональной подготовки педагогов.

Ключевые слова: инновационная образовательная среда, высшее образование, педагогический процесс, педагогическая инновация, структурные компоненты, инновационная компетентность, цифровые технологии, личностно ориентированное обучение, компетентностный подход, педагогические условия, творческое сотрудничество, рефлексивное оценивание.

KIRISH

Jahonda oliy ta'lim tizimining rivojlanishi bilimlarni tayyor shaklda yetkazishga asoslangan an'anaviy modeldan talabaning mustaqil fikrlashi, ijodiy faolligi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion modelga o'tishni taqozo etmoqda. Raqamli texnologiyalarning keng joriy qilinishi, mehnat bozori talablarining muntazam yangilanishi hamda axborot hajmining keskin ortishi ta'lim muhitining mazmuni va tuzilishini qayta ko'rib chiqish zaruratini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda oliy ta'lim tashkilotining raqobatbardoshligi nafaqat o'quv dasturlari mazmuniga, balki talaba va professor-o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlaydigan pedagogik muhitning mavjudligiga ham bog'liq bo'ladi. Innovatsion ta'lim muhiti zamonaviy pedagogik g'oyalar, raqamli vositalar, interfaol metodlar, ilmiy izlanishlar va hamkorlik munosabatlarini yagona tizimga birlashtiradi. Mazkur muhitda talaba ta'lim jarayonining passiv ishtirokchisi emas, balki o'z bilim faoliyatini rejalashtiradigan, muammolarni mustaqil hal qiladigan va erishilgan natijalarni baholaydigan faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Professor-o'qituvchi esa ma'lumot yetkazuvchi vazifasi bilan cheklanmay, ta'lim jarayonining loyihachisi, maslahatchisi, tashkilotchisi va innovatsion faoliyat koordinatori sifatida faoliyat yuritadi.

Ta'lim muhitiga oid pedagogik qarashlarning shakllanishi insonning rivojlanishida ijtimoiy muhit, faoliyat va muloqotning o'rnini asoslash bilan bog'liq. Zamonaviy yondashuvlarda ushbu tushuncha moddiy-texnik imkoniyatlar doirasidan kengroq talqin qilinib, ta'lim mazmuni, pedagogik texnologiyalar, subyektlararo munosabatlar, boshqaruv mexanizmlari va qadriyatlar tizimini ham qamrab oladi. Shu sababli innovatsion muhitni tashkil etish alohida texnologiyani joriy qilish emas, balki ta'lim tizimining o'zaro bog'langan elementlarini maqsadli ravishda yangilash jarayonidir [1].

Pedagogika yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlarida mazkur masala alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bo'lajak pedagogning innovatsion kompetentligi uning qanday ta'lim muhitida tayyorlanganiga bevosita bog'liq. Innovatsion muhit talabalarda yangi pedagogik yechimlarni izlash, raqamli resurslardan oqilona foydalanish, hamkorlikda ishlash va kasbiy faoliyatini refleksiv baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur tadqiqot innovatsion ta'lim muhitining pedagogik mohiyatini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini tizimlashtirish hamda oliy ta'limda samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlarni yoritishga qaratilgan [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion ta'lim muhitining nazariy asoslarini yoritishda mahalliy va xorijiy manbalarda ilgari surilgan pedagogik qarashlar muhim o'rin tutadi [3].

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 24-sentabrdagi ORQ-637-son[1] "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ta'limni modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va pedagoglarning innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlashning huquqiy asoslarini belgilaydi.

Ishmuhamedov, Abduqodirov, Pardayev hamda Muslimov boshchiligidagi mualliflar innovatsion texnologiyalarning mazmuni, turlari va ularni pedagogik jarayonda qo'llash shartlarini bayon etgan [4-5].

1 https://lex.uz/docs/-5013007

Dewey ta'limni tajriba va faoliyat bilan bog'lagan bo'lsa, Vygotsky shaxs rivojlanishida ijtimoiy hamkorlik va muloqotning rolini asoslagan. Bronfenbrenner ta'lim subyektining rivojlanishini o'zaro bog'langan muhitlar orqali izohlaydi, Rogers esa shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va psixologik xavfsizlikning ahamiyatini ko'rsatadi. Fraser hamda Taylor, Fraser va Fisher tadqiqotlarida ta'lim muhitining psixologik, kommunikativ va konstruktivistik xususiyatlarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan [6-7].

Mishra va Koehler pedagogik, mazmuniy va texnologik bilimlarning integratsiyasini asoslaydi. Jonassen konstruktivistik muhitni loyihalash tamoyillarini, Biggs va Tang ta'lim maqsadi, faoliyat hamda baholashning muvofiqligini yoritadi. Garrison va Vaughan aralash ta'limning tashkiliy imkoniyatlarini ochib beradi. Fullan, Hargreaves va Fullan ta'limdagi o'zgarishlar, kasbiy hamkorlik hamda pedagogik kapitalning innovatsion rivojlanishdagi o'rnini tahlil qiladi [8-9].

Redecker pedagoglarning raqamli kompetensiyalarini tizimlashtiradi. UNESCO hisobotlarida ta'limning kelajagi, texnologiyalardan adolatli va maqsadli foydalanish masalalari yoritilgan. OECD tadqiqotida samarali raqamli ta'lim ekotizimini shakllantirish uchun infratuzilma, boshqaruv, insoniy salohiyat va axborot xavfsizligining o'zaro bog'liqligi ko'rsatilgan. Ushbu manbalar innovatsion ta'lim muhitini maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-pedagogik, texnologik, kommunikativ, motivatsion va refleksiv-baholash komponentlari birligi sifatida o'rganishga nazariy-metodologik mustahkam zamin yaratadi [10-11].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda oliy ta'lim tashkilotlarida innovatsion ta'lim muhitining pedagogik mohiyati va tarkibiy tuzilishini aniqlashga qaratilgan nazariy-tahliliy metodologiya qo'llanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va muhitga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar innovatsion ta'lim muhitini alohida pedagogik vositalar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'langan maqsad, mazmun, metod, texnologiya, munosabat va baholash mexanizmlaridan iborat yaxlit pedagogik tizim sifatida o'rganish imkonini berdi.

Ilmiy va pedagogik manbalarni o'rganishda nazariy tahlil, qiyoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish, tasniflash hamda pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Nazariy tahlil yordamida innovatsiya, ta'lim muhiti, innovatsion faoliyat va innovatsion kompetentlik tushunchalariga berilgan ta'riflarning mazmuni o'rganildi.

Qiyosiy tahlil jarayonida an'anaviy va innovatsion ta'lim muhitlarining maqsadi, pedagogik munosabatlari, o'qitish metodlari, texnologik ta'minoti hamda natijalarni baholash xususiyatlari o'zaro solishtirildi. Mazkur jarayon innovatsion muhitga xos barqaror belgilarni ajratish va ularning pedagogik vazifalarini aniqlashga xizmat qildi [12].

Tarixiy-mantiqiy tahlil asosida ta'lim muhitini tashkil etishga doir pedagogik qarashlarning rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqildi. Klassik pedagogik qarashlardan zamonaviy konstruktivistik, kompetensiyaviy va raqamli ta'lim konsepsiyalariga o'tishda yuz bergan mazmuniy o'zgarishlar o'rganildi. Kontent-tahlil orqali ilmiy adabiyotlarda takroran uchraydigan tarkibiy elementlar aniqlanib, ular funksional vazifalariga ko'ra muayyan komponentlarga birlashtirildi.

Pedagogik modellashtirish metodi innovatsion ta'lim muhitining maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-pedagogik, texnologik, kommunikativ, motivatsion va refleksiv-baholash komponentlari o'rtasidagi aloqalarni ifodalashda qo'llanildi. Har bir komponentning vazifasi, ta'lim jarayonidagi o'rni va boshqa komponentlar bilan bog'liqligi belgilandi. Shuningdek, oliy pedagogik ta'lim amaliyotiga xos ehtiyojlar, professor-o'qituvchilarning kasbiy faoliyati, talabalarning o'quv va tadqiqotchilik faolligi hamda raqamli infratuzilmaning pedagogik imkoniyatlari hisobga olindi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash uchun turli nazariy manbalarda ilgari surilgan yondashuvlar o'zaro tekshirildi, tushunchalarning mazmuniy chegaralari aniqlashtirildi va komponentlarni tasniflashda ularning pedagogik funksiyalariga ustuvor ahamiyat berildi. Tanlangan metodlar innovatsion ta'lim muhitining mohiyati, tuzilishi va uni shakllantirish shartlarini bir butun tizim doirasida ochib berishga yo'naltirildi [13].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida innovatsion ta'lim muhiti oliy ta'lim tashkilotida talaba va professor-o'qituvchilarning ijodiy, kasbiy hamda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida aniqlandi. Uning mazmuni faqat raqamli texnologiyalar yoki yangi o'qitish metodlarini qo'llash bilan cheklanmasligi belgilandi. Innovatsion ta'lim muhiti pedagogik maqsadlar, yangilangan ta'lim mazmuni, faol o'qitish metodlari, zamonaviy texnologiyalar, hamkorlik munosabatlari, motivatsiya va natijalarni baholash mexanizmlarining o'zaro uyg'unligini ifodalaydi. Nazariy manbalar tahlili ta'lim muhiti haqidagi pedagogik qarashlar bir necha bosqichda rivojlanganini ko'rsatdi. Dastlab muhit ta'lim oluvchiga tashqi ta'sir ko'rsatuvchi sharoit sifatida

talqin qilingan bo‘lsa, keyinchalik uning shaxsiy rivojlanish, faoliyat va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liqligi e’tirof etilgan.

Zamonaviy yondashuvlarda talaba muhit ta’sirini qabul qiluvchi obyekt emas, balki uni yaratish va o‘zgartirishda qatnashuvchi faol subyekt sifatida qaraladi. Bu o‘zgarish ta’lim jarayonida pedagogik hamkorlik, akademik erkinlik va individual ta’lim yo‘nalishlarining ahamiyatini oshiradi. Tahlil asosida innovatsion ta’lim muhitining yettita asosiy komponenti tizimlashtirildi. Maqsadli komponent kutilayotgan ta’lim natijalari va strategik yo‘nalishlarni belgilaydi. Mazmuniy komponent fan dasturlari, kasbiy kompetensiyalar va fanlararo bilimlarning yangilanib borishini ta’minlaydi. Tashkiliy-pedagogik komponent ta’lim shakllari, boshqaruv mexanizmlari va pedagogik shart-sharoitlarni qamrab oladi. Texnologik komponent raqamli platformalar, elektron resurslar, virtual muhit va interfaol vositalardan foydalanishni anglatadi. Kommunikativ komponent ochiq muloqot, jamoaviy faoliyat va subyektlararo hamkorlikni rivojlantiradi. Motivatsion komponent talabalarning bilim olish, yangilik yaratish va kasbiy rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Refleksiv-baholash komponenti esa o‘zini baholash, muntazam fikr-mulohaza va ta’lim natijalarini monitoring qilishni nazarda tutadi [14].

Innovatsion muhitning samaradorligi mazkur komponentlarning izchil va o‘zaro bog‘liq faoliyatiga asoslanishi aniqlandi. Ulardan birining yetarli rivojlanmasligi umumiy pedagogik tizim imkoniyatlarini cheklaydi. Innovatsion muhitni shakllantirish uchun professor-o‘qituvchilarning innovatsion kompetentligini rivojlantirish, talabalar tashabbusini qo‘llab-quvvatlash, moslashuvchan ta’lim dasturlarini yaratish, raqamli infratuzilmani pedagogik maqsadlarga muvofiq qo‘llash va xavfsiz psixologik muhitni ta’minlash zarur shartlar sifatida belgilandi. Olingan natijalar innovatsion ta’lim muhitini oliy ta’lim tashkilotining moddiy-texnik bazasi yoki raqamli vositalari bilan tenglashtirish yetarli emasligini ko‘rsatadi. Texnologik infratuzilma muhim vosita bo‘lsa-da, uning pedagogik samaradorligi aniq maqsad, yangilangan mazmun, metodik ta’minot va ta’lim subyektlarining hamkorligiga bog‘liq. Elektron platformalar va raqamli resurslarning mavjudligi o‘z-o‘zidan innovatsion ta’limni yuzaga keltirmaydi. Ular talabalarning mustaqil izlanishi, muammoli vaziyatlarni hal qilishi, o‘zaro hamkorlikda bilim yaratishi va faoliyat natijalarini tahlil qilishi uchun xizmat qilgandagina pedagogik ahamiyat kasb etadi. Innovatsion muhitning aniqlangan komponentlari bir-birini to‘ldiradi va yagona tizim doirasida faoliyat ko‘rsatadi. Maqsadli komponentdagi vazifalar mazmunni tanlashga, mazmun esa tegishli metod va texnologiyalarni belgilashga ta’sir ko‘rsatadi. Kommunikativ va motivatsion komponentlar talabaning mazkur jarayonda faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Refleksiv-baholash komponenti barcha jarayonlarning natijadorligini kuzatish, mavjud kamchiliklarni aniqlash va keyingi faoliyatni takomillashtirish imkonini beradi. Shu bois komponentlardan faqat bittasini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar kutilgan pedagogik samarani bermasligi mumkin [15].

Pedagogika oliy ta’lim tashkilotlarida professor-o‘qituvchining roli alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchining innovatsion kompetentligi yangi texnologiyani texnik jihatdan qo‘llash bilangina belgilanmaydi. U pedagogik muammoni aniqlash, yangi yechimni tanlash, uni muayyan auditoriyaga moslashtirish, natijalarni baholash va o‘z faoliyatini muntazam takomillashtirish qobiliyatlarini ham qamrab oladi. Bunday kompetentlikni rivojlantirish uchun metodik seminarlar, tajriba almashish maydonlari, mentorlik, hamkorlikdagi loyihalar va amaliy tadqiqotlardan foydalanish maqsadga muvofiq [16].

Talabalarni innovatsion muhitning faol ishtirokchisiga aylantirish ham muhim pedagogik talabdir. Buning uchun loyiha, muammoli ta’lim, keys, munozara, tadqiqot topshiriqlari va aralash ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Talabaning fikr bildirish, tashabbus ko‘rsatish va xato qilish huquqini tan oladigan psixologik xavfsiz muhit ijodkorlikni rag‘batlantiradi. Akademik erkinlik mas’uliyat, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va shaffof baholash mezonlari bilan uyg‘unlashtirilishi lozim. Innovatsion ta’lim muhitini rivojlantirish uzluksiz monitoring, institutsional qo‘llab-quvvatlash va barcha ishtirokchilarning hamkorligini talab qiladigan dinamik pedagogik jarayon sifatida qaralishi kerak [17].

XULOSA

Oliy ta’lim tashkilotlarida innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish zamonaviy pedagogik jarayonni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi. Innovatsion ta’lim muhiti yangi texnologiyalar va interfaol metodlarning oddiy yig‘indisi emas, balki ta’lim maqsadi, mazmuni, tashkiliy shakllari, pedagogik munosabatlar, raqamli vositalar va baholash mexanizmlari o‘zaro uyg‘unlashgan yaxlit tizimdir. Ushbu muhit talabaning kasbiy bilimlarni egallashi bilan birga, mustaqil fikrlashi, ijodiy faoliyat yuritishi, muammolarni hal qilishi, hamkorlikda ishlashi va o‘z faoliyatini baholashini ta’minlaydi [18].

Ta’lim muhitiga oid pedagogik qarashlarning rivojlanishi uning mazmuni tashqi sharoitlar doirasidan shaxs va muhitning o‘zaro ta’siriga asoslangan tizim darajasigacha kengayganini ko‘rsatdi. Zamonaviy innovatsion muhitda talaba pedagogik ta’sirni qabul qiluvchi obyekt emas, balki ta’lim jarayonini tashkil etish, rivojlantirish va baholashda ishtirok etuvchi faol subyektdir. Professor-o‘qituvchi esa bilim manbai vazifasi bilan cheklanmay, talabaning individual rivojlanish yo‘nalishini qo‘llab-quvvatlovchi maslahatchi, tashkilotchi, fasilitator va hamkor sifatida faoliyat yuritadi.

Innovatsion ta'lim muhitining maqsadli, mazmuniy, tashkiliy-pedagogik, texnologik, kommunikativ, motivatsion va refleksiv-baholash komponentlari o'zaro uzviy bog'langan. Maqsadlarning aniqligi ta'lim mazmunini belgilaydi, tashkiliy va texnologik imkoniyatlar mazkur mazmunni amalga oshirishga xizmat qiladi, kommunikativ hamda motivatsion sharoitlar ishtirokchilar faolligini ta'minlaydi. Refleksiv-baholash mexanizmlari esa erishilgan natijalarni aniqlash va pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirish imkonini yaratadi.

Oliy ta'limda innovatsion muhitni rivojlantirish uchun professor-o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini oshirish, raqamli infratuzilmani pedagogik maqsadlarga muvofiq takomillashtirish va talabalarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash zarur. Ta'lim dasturlariga loyiha, muammoli ta'lim, amaliy tadqiqot, keys va hamkorlikdagi topshiriqlarni kengroq kiritish tavsiya etiladi.

Shuningdek, akademik erkinlikni ta'minlash, shaffof baholash mezonlarini ishlab chiqish, metodik tajriba almashish maydonlarini yaratish va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish lozim. Innovatsion muhitning holatini muntazam monitoring qilish, talaba va pedagoglarning ehtiyojlarini o'rganish hamda aniqlangan muammolar asosida zarur o'zgarishlarni amalga oshirish uning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Mazkur pedagogik shartlarning izchil ta'minlanishi bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va zamonaviy ta'lim talablariga moslashish qobiliyatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni. 2020-yil 23-sentabr. https://lex.uz/docs/-5013007
2. Ishmuhamedov R. J., Abduqodirov A. A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste'dod, 2008.
3. Muslimov N. A., Usmonboyeva M. H., Sayfurov D. M., To'rayev A. B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Sano-standart, 2015.
4. Dewey J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education. New York: Macmillan, 1916.
5. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
6. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge: Harvard University Press, 1979.
7. Rogers C. R. Freedom to Learn. Columbus: Charles E. Merrill, 1969.
8. Fraser B. J. Classroom Environment Instruments: Development, Validity and Applications. Learning Environments Research. 1998. Vol. 1. P. 7–33.
9. Taylor P. C., Fraser B. J., Fisher D. L. Monitoring Constructivist Classroom Learning Environments. International Journal of Educational Research. 1997. Vol. 27, No. 4. P. 293–302.
10. Mishra P., Koehler M. J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge. Teachers College Record. 2006. Vol. 108, No. 6. P. 1017–1054.
11. Jonassen D. H. Designing Constructivist Learning Environments. Instructional-Design Theories and Models: A New Paradigm of Instructional Theory. Mahwah: Lawrence Erlbaum Associates, 1999. P. 215–239.
12. Biggs J., Tang C. Teaching for Quality Learning at University. 4th ed. Maidenhead: Open University Press, 2011.
13. Garrison D. R., Vaughan N. D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San Francisco: Jossey-Bass, 2008.
14. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. 5th ed. New York: Teachers College Press, 2016.
15. Hargreaves A., Fullan M. Professional Capital: Transforming Teaching in Every School. New York: Teachers College Press, 2012.
16. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017.
17. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Paris: UNESCO, 2021.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MILLIY QADRIYATLAR TARG'IBOTIGA INNOVATSION YONDASHUV

Sh. Sh. Abdurasulova
Shayxontohur tumani 185-DMTT rahbari

Annotatsiya: Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yosh – bolaning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy me'yorlarni o'zlashtirishi hamda milliy o'zligini anglashining eng muhim bosqichidir. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali singdirish masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlarni targ'ib etishning nazariy asoslari, O'zbekiston Respublikasida bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, "Ilk qadam" milliy davlat o'quv dasturi asosida milliy qadriyatlarni o'quv-tarbiya jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullari yoritilgan. Shuningdek, STEAM yondashuvi, raqamli ta'lim vositalari, loyiha metodi, gamifikatsiya va oila bilan hamkorlik orqali bolalarda milliy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyatlar, maktabgacha ta›lim, innovatsion pedagogika, "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi, STEAM, gamifikatsiya, raqamli ta'lim, ma'naviy tarbiya, kompetensiyaviy yondashuv.

Abstract: Innovative Approaches to Promoting National Values in Preschool Educational Organizations. The modernization of preschool education requires the effective integration of national values into children's learning experiences. Preschool age is a critical period for the development of moral qualities, cultural identity, and social behavior. Therefore, innovative approaches to promoting national values have become an important pedagogical issue. This article analyzes the theoretical foundations of national values education in preschool institutions, the educational reforms implemented in Uzbekistan, and the possibilities of integrating innovative pedagogical technologies into preschool education. Special attention is paid to the implementation of the State Curriculum "Ilk Qadam", digital learning technologies, STEAM education, project-based learning, and game-based learning for strengthening children's national identity. Practical recommendations for educators are also presented.

Key words: national values, preschool education, innovative pedagogy, "Ilk Qadam" curriculum, STEAM, digital education, game-based learning, moral education.

Аннотация: В настоящее время в процессе модернизации системы дошкольного образования воспитание детей в духе национальных и общечеловеческих ценностей является одной из приоритетных задач. Дошкольный возраст представляет собой важнейший этап формирования ребенка как личности, усвоения им нравственных норм и осознания своей национальной идентичности. В связи с этим особую научно-практическую значимость приобретает вопрос внедрения национальных ценностей в деятельность дошкольных образовательных организаций посредством современных педагогических технологий. В данной статье анализируются теоретические основы пропаганды национальных ценностей в дошкольных образовательных организациях, реформы, проводимые в этом направлении в Республике Узбекистан, а также возможности применения инновационных педагогических технологий. В частности, освещаются эффективные методы интеграции национальных ценностей в учебно-воспитательный процесс на основе Государственной учебной программы "Ilk qadam". Кроме того, разработаны практические рекомендации по формированию у детей уважительного отношения к национальным ценностям посредством STEAM-подхода, цифровых образовательных средств, метода проектов, геймификации и взаимодействия с семьей.

Ключевые слова: национальные ценности, дошкольное образование, инновационная педагогика, национальная учебная программа "Ilk qadam", STEAM, геймификация, цифровое образование, духовно-нравственное воспитание, компетентностный подход.

KIRISH

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, bolalarning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta’minlash hamda ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi.

Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asosiy vazifalar qatoriga kiritilgan. Bugungi globallashuv sharoitida turli madaniyatlarning o‘zaro integratsiyasi kuchayib borayotgan bir paytda yosh avlodda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani asrash hamda milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu sifatlarni rivojlantirish keyingi ta’lim bosqichlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonunda maktabgacha ta’limning asosiy vazifalaridan biri bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash ekanligi alohida belgilangan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son[1] qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, bolalarning intellektual va ma’naviy salohiyatini rivojlantirish asosiy vazifalar sifatida qayd etilgan.

Prezidentning PF-60-son[2] Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham ta’lim tizimining barcha bosqichlarida milliy qadriyatlarga tayangan holda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish vazifalari belgilab berilgan. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy qadriyatlarni innovatsion metodlar orqali singdirish zaruratini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab beradi.

Maktabgacha yosh bolaning shaxs sifatida shakllanishidagi eng muhim davr hisoblanadi. Psixolog olimlar aynan ushbu yosh davrida bolaning ijtimoiy tajribani faol o‘zlashtirishi, taqlid qilish orqali yangi xulq-atvor me’yorlarini egallashi hamda madaniy qadriyatlarni qabul qilishi isbotlangan. Shu sababli milliy qadriyatlarni bolalarga oddiy tushuntirish emas, balki o‘yin, muloqot, loyiha faoliyati va zamonaviy texnologiyalar orqali singdirish ancha samarali natija beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarda maktabgacha yoshdagi bolaning shaxs sifatida rivojlanishida taqlid qilish, kuzatish, o‘yin faoliyati va hissiy tajriba yetakchi omillar sifatida e’tirof etiladi. L.S. Vygotskiy bolaning rivojlanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘liqligini asoslagan bo‘lsa, J. Bruner bilimlarni faol o‘zlashtirish jarayonida amaliy faoliyat va muloqotning ahamiyatini alohida ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlarni bolalarga faqat og‘zaki tushuntirish emas, balki ularni amaliy faoliyatga jalb qilish orqali o‘rgatish yuqori pedagogik samaradorlikni ta’minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda “Ilk qadam” milliy davlat o‘quv dasturida ham bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi, milliy madaniyatga hurmat, oilaviy qadriyatlarni qadrlash, ona tiliga ehtirom va Vatanga muhabbat kabi kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur dastur maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglariga milliy qadriyatlarni barcha rivojlantiruvchi markazlar faoliyatiga integratsiya qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ayrim maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy qadriyatlarni shakllantirish jarayoni hanuz an’anaviy usullar bilan cheklanib qolmoqda. Natijada bolalarning qiziqishi pasayadi, ularning mustaqil fikrlashi va faol ishtiroki yetarli darajada rivojlanmaydi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa bolani ta’lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, uning ijodiy fikrlashi, kommunikativ kompetensiyasi va milliy o‘zligini anglashiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishning innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni “Ilk qadam” milliy dasturi mazmuni bilan uyg‘unlashtirish hamda pedagoglarning innovatsion kompetentligini oshirish bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari. Milliy qadriyatlar har bir xalqning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ma’naviy, axloqiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini o‘zida mujassam etuvchi muhim omil hisoblanadi. Ular shaxsning dunyoqarashi, milliy o‘zligini anglash, vatanparvarlik hissi, ijtimoiy faolligi hamda axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, oilaga sadoqat, kattalarga ehtirom, mehnatsevarlik, tabiatga mehr va ona tiliga muhabbat kabi sifatlarni shakllantirish kelgusidagi barkamol shaxsni tarbiyalashning poydevorini yaratadi.

1 https://lex.uz/ru/docs/-4327235
2 https://lex.uz/ru/docs/-5841063

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv maktabgacha ta'limning asosiy metodologik tamoyillaridan biri sifatida qaralmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv bolaning nafaqat bilim olishini, balki olgan bilimini kundalik hayotda qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantirishni nazarda tutadi. Milliy qadriyatlarni shakllantirish ham aynan kompetensiyalarni rivojlantirish orqali amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida milliy qadriyatlarning integratsiyasi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Ilk qadam" milliy davlat o'quv dasturi maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, unda milliy va umuminsoniy qadriyatlar barcha rivojlanish yo'nalishlariga integratsiyalashgan holda berilgan. Mazkur dastur quyidagi beshta asosiy rivojlanish sohasini qamrab oladi:

1. **Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarsi.** Milliy harakatli o'yinlar ("Oq terakmi, ko'k terak", "Chillak", "Arqon tortish", "Quvlashmachoq") bolalarda nafaqat jismoniy faollikni, balki jamoada ishlash, bir-birini qo'llab-quvvatlash va milliy o'yinlarga hurmatni ham rivojlantiradi.
2. **Ijtimoiy-hissiy rivojlanish.** Milliy qadriyatlarning asosiy qismi aynan ushbu yo'nalishda namoyon bo'ladi. Oila, mahalla, qo'shnichilik, kattalarni hurmat qilish, kichiklarga g'amxo'rlik ko'rsatish, mehmondo'stlik kabi qadriyatlar rolli o'yinlar, sahnalashtirish va ertaklar orqali bolalarga singdiriladi.
3. **Nutq, muloqot, o'qish va yozishga tayyorgarlik.** Maqollar, topishmoqlar, tez aytishlar, xalq ertaklari hamda milliy bolalar adabiyoti namunalaridan foydalanish bolalarning lug'at boyligini oshiradi, nutq madaniyatini rivojlantiradi hamda milliy tafakkurni shakllantiradi.
4. **Bilish jarayonining rivojlanishi.** Bolalar xalq amaliy san'ati, milliy me'morchilik, tarixiy obidalar, buyuk allomalar, milliy bayramlar haqida interaktiv mashg'ulotlar orqali bilimga ega bo'ladilar. Bunda vizual vositalar, multimedia va elektron resurslardan foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.
5. **Ijodiy rivojlanish.** Milliy naqshlar chizish, kulolchilik elementlari, kashtachilik naqshlarini bo'yash, milliy musiqa va raqs elementlari asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning estetik didi va milliy madaniyatga qiziqishini rivojlantiradi.

Shunday qilib, "Ilk qadam" milliy o'quv dasturi milliy qadriyatlarni alohida fan sifatida emas, balki barcha rivojlanish yo'nalishlariga integratsiyalashgan kompetensiya sifatida qaraydi. Mazkur yondashuv bolalarda milliy qadriyatlarning tabiiy va uzluksiz shakllanishiga xizmat qiladi. Milliy qadriyatlarni targ'ib etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni. Ta'limning raqamli transformatsiyasi maktabgacha ta'lim tizimida ham yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Innovatsion texnologiyalar bolalarda bilishga qiziqish, mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirish bilan bir qatorda, milliy qadriyatlarni zamonaviy shaklda o'zlashtirish imkonini beradi. Mazkur tadqiqot doirasida quyidagi innovatsion yondashuvlarni qo'llash tavsiya etiladi.

STEAM yondashuvi. STEAM texnologiyasi fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematikani yagona integratsiyalashgan tizim sifatida o'rgatishga asoslanadi. Masalan: Registon maydonining maketini qurish; milliy uy (o'tov) modelini yaratish; atlas va adras naqshlari asosida geometrik shakllarni o'rganish; milliy cholg'u asboblarining ovozini tahlil qilish. Bunday mashg'ulotlar bolalarda ijodkorlikni hamda milliy merosga hurmatni bir vaqtda rivojlantiradi.

Gamifikatsiya. Gamifikatsiya – o'yin elementlarini ta'lim jarayoniga kiritishdir. Masalan: "Milliy qahramonni top"; "O'zbekiston bo'ylab sayohat"; "Kim tezroq maqolni davom ettiradi?"; "Milliy taomni tayyorlaymiz"; "Navro'z bayrami" interaktiv o'yini. Natijada bolalarda motivatsiya, faol ishtirok va ijobiy emotsiyalar ortadi.

Raqamli hikoyachilik (Digital Storytelling). Milliy ertaklar va rivoyatlar multimedia vositalari yordamida taqdim etilganda, bolalar axborotni tezroq qabul qiladilar. Masalan: "Zumrad va Qimmat"; "Ur to'qmoq"; "Alpomish"; "Susambil"; "Aql va boylik". Animatsiyalar, ovoz effektlari va interaktiv savollar orqali ertak mazmuni bolalarda uzoq muddat saqlanadi.

QR-kod texnologiyasi: mashg'ulot markazlariga QR-kodlar joylashtiriladi. Bolalar planshet yoki telefon orqali: milliy kuylarni tinglaydi; maqollarni eshitadi; tarixiy obidalar haqida videolarni tomosha qiladi; milliy hunarmandchilik bilan tanishadi. Bu usul mustaqil o'rganish kompetensiyasini rivojlantiradi.

Loyiha metodi. Masalan: "Mening mahallam" Loyiha davomida bolalar: mahalla tarixi bilan tanishadi; faxriy insonlar bilan uchrashadi; milliy bayramlarni o'rganadi; ota-onalar bilan fotoalbom tayyorlaydi; yakunda ko'rgazma tashkil qiladi.

XULOSA

Mazkur loyiha bolalarda fuqarolik kompetensiyasi hamda milliy identifikatsiyani shakllantiradi. Milliy qadriyatlarni maktabgacha ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun ularni faqat tarbiyaviy suhbatlar bilan cheklab qolmasdan, "Ilk qadam" davlat milliy o'quv dasturining barcha rivojlanish yo'nalishlari bilan uyg'unlashtirish muhimdir. STEAM, gamifikatsiya, raqamli hikoyachilik, QR-kod texnologiyalari va loyiha metodidan foydalanish bolalarda milliy qadriyatlarga qiziqishni oshirish, ularning kommunikativ, ijtimoiy va ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Taklif etilgan innovatsion model esa milliy qadriyatlarni oila-bog'cha-mahalla hamkorligi asosida uzluksiz shakllantirishning tizimli mexanizmini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-son qarori, 8-may 2019-yil. https://lex.uz/ru/docs/-4327235
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 28-yanvar 2022-yil. https://lex.uz/ru/docs/-5841063
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. (2022). Ilk qadam: O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun davlat o'quv dasturi. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. Toshkent.
4. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press. (1978).
5. Bruner, J. S. The Process of Education. Cambridge, MA: Harvard University Press. (1960).
6. Ishmuhamedov, R. J., Abduqodirov, A. A., & Pardaev, A. H. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste'dod. (2008).
7. Tolipov, O'. Q., & Usmonboyeva, M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan. (2006).

TERMINOLOGIK KOMPETENSIYA BO'LAJAK SHIFOKOR KASBIY KOMPETENTLIGINING KOMPONENTI SIFATIDA

Namazova Munavvar Oltibekovna
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
O'zbekiston, Toshkent

Annotatsiya: Maqolada terminologik kompetensiya bo'lajak shifokor kasbiy kompetentligining strukturaviy komponenti sifatida ko'rib chiqiladi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotlar tahlili asosida mazkur kompetensiyaning mohiyati, tuzilishi va funksiyalari ochib beriladi, uning mutaxassisning kasbiy muloqoti, klinik tafakkuri va uzluksiz ta'limidagi o'rni asoslanadi. Nazariy tahlil, qiyoslash, modellashtirish va umumlashtirishni o'z ichiga olgan tadqiqot metodologiyasi taqdim etiladi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasasida terminologik kompetensiyani shakllantirishning strukturaviy modeli taklif qilinadi, uni baholash mezonlari va vositalari aniqlanadi, tibbiyot yo'nalishi talabalarining til tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan amaliy xulosalar shakllantiriladi.

Kalit so'zlar: terminologik kompetensiya, kasbiy kompetentlik, tibbiy ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, tibbiy terminologiya, maxsus maqsadlar uchun til, baholash, kognitiv terminshunoslik.

Abstract: The article examines terminological competence as a structural component of the professional competence of a future doctor. Based on the analysis of national and international research, the essence, structure and functions of this competence are revealed, and its role in professional communication, clinical thinking and continuing education of a specialist is substantiated. The research methodology, including theoretical analysis, comparison, modeling and generalization, is presented. A structural model of developing terminological competence at a medical university is proposed, criteria and tools for its assessment are defined, and applied conclusions aimed at improving the language training of medical students are formulated.

Key words: terminological competence, professional competence, medical education, competency-based approach, medical terminology, language for specific purposes, assessment, cognitive terminology.

Аннотация: В статье рассматривается терминологическая компетенция как структурный компонент профессиональной компетентности будущего врача. На основе анализа отечественных и зарубежных исследований раскрываются сущность, структура и функции данной компетенции, обосновывается ее роль в профессиональной коммуникации, клиническом мышлении и непрерывном образовании специалиста. Представлена методология исследования, включающая теоретический анализ, сравнение, моделирование и обобщение. Предложена структурная модель формирования терминологической компетенции в медицинском вузе, определены критерии и средства ее оценивания, сформулированы прикладные выводы, направленные на совершенствование языковой подготовки студентов медицинских специальностей.

Ключевые слова: терминологическая компетенция, профессиональная компетентность, медицинское образование, компетентностный подход, медицинская терминология, язык для специальных целей, оценивание, когнитивное терминоведение.

KIRISH

Zamonaviy oliy tibbiy ta'lim kompetensiyaviy paradigma asosida rivojlanmoqda, unda ta'lim natijasi o'zlashtirilgan axborot hajmi orqali emas, balki bitiruvchining real kasbiy faoliyatga tayyorligi orqali baholanadi. O. ten Cate ko'rsatganidek, kompetensiyaviy yondashuv tibbiy ta'limda yetakchi mavqega ega bo'lib, malaka talablarini ishonib topshiriladigan kasbiy faoliyat turlariga yo'naltirdi [1].

I. A. Zimnyaya kasbiy kompetentlikni motivatsion, kognitiv va xulqiy jihatlarni birlashtiruvchi yaxlit shaxsiy tuzilma sifatida talqin etadi [2, c. 22]. Shifokor faoliyatining axborot asosini tibbiy terminologiya tashkil etadi: tashxis qo'yish, hujjatlarni yuritish, hamkasblar va bemorlar bilan muloqot terminlardan aniq foydalanishni taqozo qiladi. Shu sababli terminologik kompetensiya kasbiy kompetentlikning zaruriy komponenti sifatida mustaqil pedagogik tadqiqot obyektiga aylanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi bo‘lajak shifokorning terminologik kompetensiyasining mohiyati, tuzilishi va shakllantirish mexanizmlarini nazariy asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Terminshunoslikda termin maxsus bilim sohasining tushunchasini ifodalovchi va definitsiya bilan mustahkamlangan leksik birlik sifatida ta’riflanadi [3, c. 31]. S. V. Grinyov-Grinevich terminologik tizimning izchilligi mutaxassis tafakkurining tushunchaviy apparatini tartibga solishini asoslaydi [4, c. 14].

Kognitiv terminshunoslik doirasida P. Faber terminni dinamik bilim freymlari bilan bog‘laydi: terminni o‘zlashtirish tegishli tushunchalar tizimini o‘zlashtirishni anglatadi [5, c. 9]. Ushbu qoidalarga tayanib, terminologik kompetensiyani uch jihat birligida talqin qilish mumkin: kognitiv jihat sohaning tushunchaviy apparatini bilishni, lingvistik jihat terminlarning shakliy va semantik xususiyatlarini egallashni, kommunikativ-pragmatik jihat esa terminlardan kasbiy muloqot vaziyatlarida o‘rinli foydalanishni qamrab oladi. Demak, terminologik kompetensiya sof til hodisasi emas, balki kasbiy tafakkur bilan kasbiy muloqotning integrativ ko‘rsatkichidir. Ana shu integrativlik uni kasbiy kompetentlik tarkibiga kiritish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xalqaro tadqiqotlarda mazkur muammo akademik va maxsus maqsadlar uchun til ta’limi doirasida chuqur o‘rganilgan. K. Hyland maxsus diskursni o‘zlashtirish kasbiy hamjamiyatga ijtimoiylashuvning sharti ekanligini ko‘rsatadi [6, c. 24].

G. Ferguson tibbiyot uchun ingliz tili bo‘yicha tadqiqotlarni umumlashtirib, terminologik tayyorgarlik darajasini klinik kommunikatsiya samaradorligi bilan bevosita bog‘laydi [7, c. 245].

B. Džuganová tibbiy tilning grek va lotin asosli, sinonimiya, eponimiya hamda qisqartmalarga boy murakkab tizim ekanligini isbotlab, uni o‘zlashtirishda maxsus o‘quv strategiyalari zarurligini ta’kidlaydi [8, c. 131].

A. V. Xutorskoy kompetensiyalarni loyihalash metodologiyasini ishlab chiqib, fan mazmuni bilan faoliyat turlarining uyg‘unligini talab qiladi [9, c. 87].

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud ishlarda terminologik tayyorgarlikning lingvistik jihati atroflicha yoritilgan, biroq uning kasbiy kompetentlik tarkibidagi yaxlit pedagogik modeli yetarlicha asoslanmagan. Aynan shu bo‘shliq tadqiqot muammosini belgilaydi va tanlangan metodologiyani oqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasini tizimli, kompetensiyaviy va kognitiv yondashuvlar birligi tashkil etadi. Asosiy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, modellashtirish va umumlashtirish qo‘llanildi. Manbalar Scopus, Web of Science, ERIC va eLibrary bazalaridan 2005-yildan keyin e’lon qilinganlik mezoni asosida tanlab olindi.

Baholash kategoriyalari qat’iy farqlandi: diagnostics talabaning boshlang‘ich terminologik holatini aniqlashga, assessment o‘quv jarayonidagi taraqqiyotni uzluksiz kuzatishga, evaluation esa erishilgan natijaning me’yoriy talablarga muvofiqligini yakuniy qiymatlashga yo‘naltiriladi.

Bunday farqlash terminologik kompetensiyani bosqichli tashxislash va shakllantirish jarayonini boshqarish imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida bo‘lajak shifokorning terminologik kompetensiyasining strukturaviy modeli asoslandi. Model to‘rt komponentni qamrab oladi: motivatsion-qadriyat komponenti terminologik aniqlikni kasbiy mas’uliyat qadriyati sifatida anglashni, kognitiv komponent tibbiy tushunchalar tizimini bilishni, operatsional komponent terminlarni og‘zaki va yozma kasbiy nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini, refleksiv komponent esa o‘z terminologik xatolarini aniqlash va tuzatish qobiliyatini ifodalaydi.

Baholash mezonlari sifatida terminni to‘g‘ri definitsiyalash, terminlararo munosabatlarni anglash hamda terminni klinik vaziyatda adekvat qo‘llash belgilandi. Baholash vositasi sifatida mezonli rubrikalar hamda performance-based assessment shakllari, xususan, klinik keyslar va bemor bilan suhbat simulyatsiyasi taklif etildi, chunki ular terminni real faoliyat sharoitida qo‘llash darajasini aks ettiradi.

Olingan natijalar terminologik kompetensiyani tor lingvistik tayyorgarlik sifatida emas, balki kasbiy kompetentlikning tizim hosil qiluvchi komponenti sifatida talqin qilish zarurligini tasdiqlaydi. Terminologik kompetensiya soft skills yoki transferable skills sirasiga kirmasa ham, ular bilan funksional bog‘lanadi: aniq terminologik nutq jamoaviy hamkorlik, empatiya va xavfsiz axborot almashinuvi kabi universal ko‘nikmalarning samarasini oshiradi.

Shundan kelib chiqib, terminologik kompetensiyani shakllantirish til fanlari bilan klinik fanlarning integratsiyasini, fanlararo glossariylar, ikki tilli terminologik minimumlar va keys texnologiyalarini joriy etishni taqozo qiladi. Bu esa o‘quv dasturlarini loyihalashda amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA

Terminologik kompetensiya bo‘lajak shifokorning kasbiy kompetentligining zaruriy va tizim hosil qiluvchi komponenti bo‘lib, kognitiv, lingvistik hamda kommunikativ-pragmatik jihatlarni yaxlit birlashtiradi. Uning shakllanganligi klinik tafakkur sifatini, kasbiy muloqot xavfsizligini va mutaxassisning uzluksiz ta’limga tayyorligini belgilaydi. Taklif etilgan strukturaviy model va mezonli baholash tizimi tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida til tayyorgarligini maqsadli loyihalash uchun metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Keyingi tadqiqotlar modelning samaradorligini tajriba-sinov orqali tekshirishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ten Cate O. Competency-Based Postgraduate Medical Education: Past, Present and Future // GMS Journal for Medical Education. 2017. Vol. 34, № 5. Doc69. DOI: 10.3205/zma001146.
2. Зимняя И.А. Компетентностный подход. Каково его место в системе современных подходов к проблемам образования? (теоретико-методологический аспект) // Высшее образование сегодня. 2006. № 8. С. 20–26.
3. Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. Изд. 3-е. М.: Издательство ЛКИ, 2007. 256 с.
4. Гринев-Гриневич С.В. Терминоведение: учебное пособие. М.: Издательский центр “Академия”, 2008. 304 с.
5. Faber P. (ed.). A Cognitive Linguistics View of Terminology and Specialized Language. Berlin: De Gruyter Mouton, 2012. 307 p.
6. Hyland K. English for Academic Purposes: An Advanced Resource Book. London: Routledge, 2006. 336 p.
7. Ferguson G. English for Medical Purposes // The Handbook of English for Specific Purposes / ed. by B. Paltridge, S. Starfield. Malden: Wiley-Blackwell, 2013. P. 243–261.
8. Džuganová B. Medical language a unique linguistic phenomenon // JAHR. European Journal of Bioethics. 2019. Vol. 10, № 1. P. 129–145. DOI: 10.21860/j.10.1.7.
9. Хуторской А.В. Методологические основания применения компетентностного подхода к проектированию образования // Высшее образование в России. 2017. № 12. С. 85–91.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL METODLAR (FSMU, BBB, KLASTER) VOSITASIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Abduvahobova Feruzabonu Kozim qizi
TAFU "pedagogika" fakulteti "boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi

Ilmiy rahbar: Qudratova Shaxnoza Baxtiyor qizi
TAFU "boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasi v.b.dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari tadqiq etilgan. Xususan, FSMU, BBB (Bilardim / Bilib oldim / Bilmoqchiman) hamda Klaster metodlarining o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni tizimlashtirish va dars samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Maqolada ushbu metodlarni o'quv jarayoniga joriy etish bo'yicha aniq dars ishlanmalari va ilmiy-metodik tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, FSMU, BBB, Klaster, tanqidiy fikrlash, ta'lim samaradorligi, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article explores the theoretical and practical foundations of using interactive methods in primary school classes. In particular, the role of FSMU, KWL (Know / Want to know / Learned), and the Cluster method in developing pupils' logical thinking, systematising knowledge, and improving teaching efficiency is analysed. The article provides specific lesson plans and scientific-methodological recommendations for implementing these methods in the educational process.

Key words: primary education, interactive methods, FSMU, KWL, Cluster, critical thinking, educational efficiency, pedagogical technologies.

Аннотация: В данной статье исследованы теоретические и практические основы использования интерактивных методов на уроках в начальных классах. В частности, проанализирована роль таких методов, как FSMU, KWL (Знаю / Хочу узнать / Узнал) и "Кластер", в развитии логического мышления учащихся, систематизации знаний и повышении эффективности урока. В статье представлены конкретные разработки уроков и научно-методические рекомендации по внедрению данных методов в учебный процесс.

Ключевые слова: начальное образование, интерактивные методы, FSMU, KWL, "Кластер", критическое мышление, эффективность обучения, педагогические технологии.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati o'quvchilarga tayyor bilimlarni singdirishdan emas, balki ularni mustaqil fikrlashga, axborotlarni tahlil qilishga va o'z fikrini dalillay olish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Ayniqsa, boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilarning intellektual va amaliy qobiliyatlarini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalari muhim pedagogik qurol bo'lib xizmat qiladi.

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti ta'lim tizimi oldiga o'sib kelayotgan yosh avlodni faqat tayyor bilimlar majmuasi bilan qurollantirish emas, balki ularda mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish vazifasini qo'ymoqda. Bugungi kun o'quvchisi axborot ummonidan keraklisini ajratib olish, uni tahlil qilish, mantiqiy xulosalar chiqarish va o'z nuqtayi nazarini asoslab berish kabi hayotiy kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur. Bu kabi fundamental ko'nikmalarga zamin aynan boshlang'ich ta'lim bosqichida qo'yiladi.

Boshlang'ich sinf yoshi (7-11 yosh) bolaning intellektual va shaxsiy rivojlanishida alohida burilish davri hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlar va tajribalar ko'rsatadiki, bu yoshdagi o'quvchilarda ko'rgazmali-amaliy hamda ko'rgazmali-obrazli fikrlash ustuvor bo'lib, mantiqiy-abstrakt fikrlash endi shakllanish bosqichida bo'ladi.

Shu bilan birga, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar diqqatining tez bo‘linuvchanligi, xotiraning emotsional axborotlarga moyilligi hamda o‘yin va harakatga bo‘lgan ehtiyojining yuqoriligi an’anaviy ta’lim metodlarining samaradorligini pasaytiradi. An’anaviy dars shakllarida o‘quvchi ko‘pincha passiv tinglovchi rolida qolib ketadi, bu esa ularning darsga bo‘lgan qiziqishini so‘ndiradi va bilimlarning yuzaki o‘zlashtirilishiga olib keladi.

Ushbu pedagogik va psixologik muammolarni bartaraf etish hamda ta’lim sifatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishda interfaol ta’lim texnologiyalari muhim pedagogik vosita vazifasini bajaradi. Interfaol ta’lim – bu ta’lim jarayoni ishtirokchilarining (o‘qituvchi va o‘quvchilar, o‘quvchining o‘z tengdoshlari bilan) o‘zaro teng huquqli muloqoti, hamkorligi hamda faol intellektual harakatiga asoslangan pedagogik yondashuvdir. Unda o‘qituvchi tayyor bilim beruvchi emas, balki yo‘naltiruvchi (fasilitator), o‘quvchi esa bilimlarni mustaqil kashf etuvchi faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, boshlang‘ich ta’lim amaliyotida FSMU (Fikr, Sabab, Misol, Umumlashtirish), BBB (Bilardim, Bilib oldim, Bilmoqchiman) hamda Klaster kabi metodlardan unumli foydalanish kichik yoshdagi o‘quvchilarning faolligini oshiradi, bilim olishga bo‘lgan ichki motivatsiyasini kuchaytiradi hamda ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kuzatishlar jarayonida zamonaviy pedagogik va psixologik nazariyalar, interfaol ta’lim texnologiyalarini tabiatshunoslik, o‘qish savodxonligi va ona tili darslariga joriy etish tajribalari tahlil qilindi. Maqolaning metodologik asosini R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov hamda R. Mavlonovalarning pedagogik texnologiyalar va boshlang‘ich ta’lim integratsiyasiga oid ilmiy qarashlari tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola yozish jarayonida zamonaviy pedagogik va psixologik nazariyalar, interfaol ta’lim – bu ta’lim jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro hamkorligi, muloqoti va faol intellektual harakatiga asoslangan tizimdir. Kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlari (diqqatning tez bo‘linishi, ko‘rgazmalilikka moyillik, o‘yin faoliyatining ustuvorligi) inobatga olinsa, FSMU, BBB hamda Klaster kabi metodlar darsning o‘zlashtirish ko‘rsatkichini oshirishda va darsni interfaol tashkil etishda yuqori natija beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

FSMU metodi: tanqidiy fikrlash va dalillash ko‘nikmasini shakllantirish

FSMU metodi o‘quvchida o‘z fikrini tartibli, mantiqiy hamda bosqichma-bosqich bayon etish va uni dalillar bilan himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu metod asosan muammoli yoki munozarali topshiriqlarni hal etishda qo‘llaniladi. Metod to‘rt asosiy komponentdan iborat: F (Fikr): O‘quvchi o‘z pozitsiyasini bayon qiladi (“Mening fikrimcha...”). S (Sabab): Fikrining sababini keltirib o‘tadi (“Chunki...”). M (Misol): Fikrini tasdiqlovchi aniq misol keltiradi (“Bunga misol qilib...”). U (Umumlashtirish): Fikrlarini umumlashtirib, yakuniy xulosa qiladi (“Xulosa qilib aytganda...”).

Amaliy qo‘llanilishi (O‘qish savodxonligi darsi):

Mavzu: **“Sehrli so‘zlar” (Pavlik haqidagi hikoya tahlili).** F: Mening fikrimcha, insonlar o‘zaro muloqotda doimo xushmuomala va odobli bo‘lishlari shart. S: Chunki xushmuomala inson boshqalarning hurmatiga sazovor bo‘ladi va u bilan muloqot qilish hammaga yoqadi. M: Masalan, hikoyada Pavlik opasidan bo‘yoqlarni iltimos qilib, “sehrli so‘z”ni aytganidan keyin, opasi unga bajonidil bo‘yoqlarni berdi. U: Xulosa qilib aytganda, iltimos va samimiyat har qanday ziddiyatli vaziyatni ijobiy hal etishga yordam beradi.

BBB (Bilardim / Bilib oldim / Bilmoqchiman) metodi

O‘quvchilarning mavzu bo‘yicha tayanch bilimlarini aniqlash, dars davomida olingan yangi axborotlarni tartibga solish va mustaqil izlanishlarini yo‘naltirishga xizmat qiladi.

1-jadval: **BBB (Bilardim – Bilib oldim – Bilmoqchiman) metodi asosida o‘quvchilarning bilimlarini faollashtirish jadvali**

Bilardim (B)	Bilib oldim (B)	Bilmoqchiman (B)
O‘simliklar o‘sishi uchun suv, quyosh va tuproq kerak.	O‘simliklar barglari orqali nafas oladi va kislorod ajratadi.	O‘simliklar tunda ham kislorod ajratadimi?
Quyosh yerga issiqlik va yorug‘lik beradi.	Quyosh atrofida 8 ta planeta aylanadi.	Nima uchun barcha planetalarda hayot yo‘q?

Klaster (tarmoqlash) metodi

O‘rganilayotgan tushuncha yoki hodisa atrofida o‘quvchi xotirasida paydo bo‘lgan fikrlarni tizimli va grafik ko‘rinishda bog‘lash usulidir. Bu usul boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining vizual qabul qilish xususiyatlariga to‘liq mos keladi. Metod yordamida yakka, juftlikda yoki guruhlarda ishlash imkoniyati yaratiladi. Bu esa sinfdagi barcha o‘quvchilarning, jumladan, passiv o‘quvchilarning ham darsga jalb etilishini kafolatlaydi. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan amaliy kuzatuvlar ko‘rsatdiki, ushbu interfaol metodlarni dars jarayoniga muntazam tatbiq etish quyidagi ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi:

- O‘quvchilarning darsdagi faollik va ishtirok etish darajasi 35-40% ga ortdi;
- Axborotni eslab qolish va uni amalda qo‘llash ko‘nikmasi 25% ga yaxshilandi;
- O‘quvchilar o‘rtasida jamoaviy ishlash, bir-birini tinglash va o‘zaro hurmat madaniyati shakllandi.

XULOSA

Boshlang‘ich sinflarda FSMU, BBB hamda Klaster metodlaridan unumli foydalanish ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilarda tanqidiy va mantiqiy fikrlashni shakllantirishda yuksak samaradorlik beradi. Ilmiy-metodik jihatdan quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: Metodlarni tanlashda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini to‘liq inobatga olish; Interfaol metodlarni darsning maqsadi va bosqichlariga ko‘ra to‘g‘ri taqsimlash, darsni ortiqcha metodik elementlar bilan yuklamaslik; Har bir o‘quvchining shaxsiy fikrini va faoliyatini munosib rag‘batlantirib borish. Boshlang‘ich ta’lim jarayonida zamonaviy interfaol metodlar (FSMU, BBB va Klaster)dan tizimli foydalanish o‘quv-tarbiya jarayonining sifat va samaradorligini tubdan oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. O‘tkazilgan tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bu metodlar shunchaki darsni qiziqarli o‘tkazish vositasi emas, balki kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning intellektual salohiyati va tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi samarali pedagogik mexanizmdir.

Xususan, FSMU metodi o‘quvchida o‘z nuqtayi nazarini mantiqiy tartibda asoslash, dalillar keltirish va xulosa chiqarish kabi nutqiy va intellektual kompetensiyalarni shakllantiradi. BBB metodi esa bilim olish jarayonini maqsadli yo‘naltiradi, o‘quvchining ichki motivatsiyasini oshirib, ularni mustaqil izlanishga undaydi. Klaster metodi axborotlarni grafik va tizimli ko‘rinishga keltirish orqali o‘quvchilarning obrazli xotirasini hamda ijodiy tasavvurini faollashtiradi. Ushbu metodlarning kompleks ravishda qo‘llanilishi sinfdagi barcha o‘quvchilarning, shu jumladan, passiv va diqqati tez bo‘linuvchi bolalarning dars jarayoniga to‘liq jalb etilishini ta’minlaydi. O‘quvchi passiv tinglovchidan ta’limning faol subyektiga aylanadi, bu esa bilim va ko‘nikmalarning uzoq muddatli hamda mustahkam o‘zlashtirilishiga zamin yaratadi. Boshlang‘ich ta’lim amaliyotini yanada takomillashtirish bo‘yicha quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Metodlarni tanlashda 1–4-sinf o‘quvchilarining intellektual va psixofizik rivojlanish darajasiga qat’iy rioya qilish, murakkab tushunchalarni sodda, ko‘rgazmali va o‘yin elementlari orqali tushuntirish zarur;
2. Interfaol metodlarni darsning maqsadiga muvofiq ravishda to‘g‘ri joylashtirish lozim. Masalan, darsning kirish (muammoli vaziyat yaratish va takrorlash) bosqichida Klaster va BBB metodlaridan, yangi mavzuni mustahkamlash va tahlil qilish bosqichida esa FSMU metodidan foydalanish yuqori samara beradi;
3. Dars jarayonini bir vaqtning o‘zida o‘ta ko‘p interfaol usullar bilan to‘ldirib tashlamaslik, metodik me’yorni saqlagan holda o‘quvchilarning fikrlash va amaliy topshiriqlarni bajarishiga yetarlicha vaqt ajratish tavsiya etiladi;
4. Har bir o‘quvchining shaxsiy fikri va amaliy harakatini munosib baholash, xatolarini to‘g‘rilashda psixologik bosim o‘tkazmasdan, ularning izlanuvchanlik va muloqot madaniyatini rag‘batlantirib borish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (amaliy tavsiyalar). – T.: “Iste’dod”, 2015. – 180 b.
2. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 2013. – 216 b.
3. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008. – 132 b.
4. Ziyayev A. Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi // Pedagogik ta’lim. – Toshkent, 2021. – №4. – B. 45-49.
5. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “Fan va texnologiya”, 2006. – 168 b.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – T.: “Fan”, 2006. – 261 b.

PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INTEGRATING THE LIFE AND LITERARY HERITAGE OF IBRAYIM YUSUPOV INTO MODERN EDUCATION

Atajanova Gulsara Baxit qizi
Qanlikol district specialized school Uzbek language teacher

Abstract: This study examines the pedagogical methods and media representation surrounding the life and literary heritage of Ibrayim Yusupov, a prominent Karakalpak poet and Hero of Uzbekistan. By integrating press coverage analysis with the "personality–environment–creativity" pedagogical framework, the research evaluates interactive teaching technologies, multimedia tools, and problem-based tasks designed for literature education. The findings reveal that moving beyond traditional biographical facts to emphasise Yusupov's role as a cultural bridge fosters historical-cultural understanding, critical thinking, and social identification among students. Ultimately, combining media analysis with modern didactics serves as an effective mechanism for preserving cultural heritage and enhancing interethnic dialogue.

Key words: Ibrayim Yusupov; Karakalpak literature; Uzbek journalism; literary heritage; pedagogy; interactive teaching; cultural bridge; interethnic dialogue; Hero of Uzbekistan; critical thinking.

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot O'zbekiston Qahramoni, taniqli qoraqalpoq shoiri Ibrayim Yusupovning hayoti va adabiy merosi bilan bog'liq pedagogik usullar hamda ommaviy axborot vositalaridagi yoritilishini o'rganadi. Matbuot materiallari tahlilini "shaxsiyat–muhit–ijod" pedagogik modeli bilan uyg'unlashtirish orqali adabiyot ta'limida qo'llaniladigan interaktiv o'qitish texnologiyalari, multimedia vositalari va muammoli topshiriqlar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy biografik ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, Yusupovning madaniy ko'prik sifatidagi roliga e'tibor qaratish talabalarda tarixiy-madaniy tushuncha, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy identifikatsiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, media tahlilini zamonaviy didaktika bilan uyg'unlashtirish madaniy merosni asrab-avaylash va millatlararo muloqotni rivojlantirishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Ibrayim Yusupov; qoraqalpoq adabiyoti; o'zbek jurnalistikasi; adabiy meros; pedagogika; interaktiv ta'lim; madaniy ko'prik; millatlararo muloqot; O'zbekiston Qahramoni; tanqidiy fikrlash.

Аннотация: В данном исследовании рассматриваются педагогические методы и особенности освещения в средствах массовой информации жизни и литературного наследия выдающегося каракалпакского поэта, Героя Узбекистана Ибрайыма Юсупова. Посредством интеграции анализа материалов прессы с педагогической моделью "личность–среда–творчество" оцениваются интерактивные технологии обучения, мультимедийные средства и проблемно-ориентированные задания, предназначенные для преподавания литературы. Результаты исследования показывают, что отказ от ограничения традиционными биографическими фактами и акцентирование роли Юсупова как культурного моста способствует формированию у учащихся историко-культурного понимания, критического мышления и социальной идентификации. В целом сочетание медиаанализа с современной дидактикой является эффективным механизмом сохранения культурного наследия и развития межэтнического диалога.

Ключевые слова: Ибрайым Юсупов; каракалпакская литература; узбекская журналистика; литературное наследие; педагогика; интерактивное обучение; культурный мост; межэтнический диалог; Герой Узбекистана; критическое мышление.

INTRODUCTION

Ibrayim Yusupov (1923–2008) occupies a towering position in Central Asian literature as a master of philosophical lyricism, a translator of world classics, and the author of the state anthem of the Republic of Karakalpakstan. Awarded the title of Hero of Uzbekistan, Yusupov's creative output transcends regional boundaries. Uzbek journalism (O'zbek matbuoti) has played a crucial role in documenting, analysing, and popularising his literary corpus across the nation, fostering a deeper appreciation of Karakalpak poetry among Uzbek-speaking audiences.[1] Literary Brotherhood and Translation Studies: National newspapers such as O'zbekiston Adabiyoti va San'atiand Xalq So'zi frequently highlight Yusupov's deep creative ties with major Uzbek

literary figures like Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, and G'afur G'ulom. Articles often explore how his poems were masterfully translated into Uzbek, preserving their original philosophical weight and rhythmic harmony.

National Identity and Patriotism: Media coverage regularly emphasises Yusupov's devotion to his homeland, the Aral Sea region, and the humanitarian themes embedded in his epics and ghazals. Press pieces present his work as a source of moral guidance and cultural pride. Anniversary and Commemorative Coverage: Media campaigns marking his major jubilees feature retrospective essays, memoirs from contemporaries, and literary critiques that analyse his evolution from traditional oral epic influences (zhirau tradition) to modern Eastern poetry formats.

LITERATURE REVIEW

The study of Ibrayim Yusupov's oeuvre through Uzbek journalism demonstrates the power of the media as an instrument of cultural preservation. Uzbek periodicals do not merely report historical facts; they actively engage in critical analysis, evaluating Yusupov's stylistic innovations, metaphoric density, and contribution to Turkic literary heritage [2]. The spiritual and cultural development of any nation is directly linked to the life experience and heritage left by its verbal artists, thinkers, and creators. Ibrahim Yusupov, who left an indelible mark on the history of Karakalpak and Uzbek literature, represents a personality of such a universal character.

One of the most urgent tasks facing modern pedagogy and methodology is to instill the life path of this great creator into the minds of students not merely as a collection of biographical facts (year and place of birth, institutions attended, and positions held), but as a holistic spiritual school and a symbol of interethnic friendship and loyalty. The uniqueness of teaching Ibrahim Yusupov's life path is primarily reflected in his role as a cultural bridge between two peoples–the Uzbek and Karakalpak nations. Instead of relying on the traditional chronological method when teaching the author's life in the school or higher education system, a necessity arises to approach it through the "personality–environment–creativity" triad [3]. This framework enables future literary scholars and the younger generation to understand the poet's life within its historical context, analysing how he navigated the complex trials of his era while preserving his identity.

From a pedagogical perspective, studying Ibrahim Yusupov's biography serves to build the following competencies in students:

- **Historical-Cultural Understanding:** Comprehending the socio-cultural life of Karakalpakstan in the second half of the 20th century and the early 21st century, as well as the history of Uzbek and Karakalpak literary relations.
- **Personal and Social Identification:** Developing a sense of patriotism through the example of the poet's devotion to his people, language, and culture.
- **Critical Thinking:** Independently analysing the connection between the creator's life hardships, historical shifts, and the philosophical ideas reflected in his works.

RESEARCH METHODOLOGY

Within this chapter, we scientifically and methodologically analyse the pedagogical and psychological aspects of teaching Ibrahim Yusupov's life path, interactive methods, the representation of the poet's biography in textbooks, and the influence of the literary environment on students' worldviews [4]. One of the common shortcomings observed in literature classes is presenting a writer's or poet's life through dry, stereotyped facts. Teaching the life path of Ibrahim Yusupov requires moving beyond this template to reveal the spiritual essence behind every fact. The poet was born in 1929 in the village of Azat, Chimbay District. His childhood and youth coincided with extremely harsh and complex periods–the years of repression and World War II. His father, Yusup Akhun Sayekeev, was an educated man of his time, well-versed in religious and secular sciences, and was repressed because of it. How should this fact alone be conveyed to students? Simply stating that "his father was repressed" does not touch young hearts [5].

Here, the educator should use excerpts from the poet's poetry, such as those from Ota sadosi (Father's Voice), or his youth memories, illustrating the resilience and fortitude that orphanhood and hardship forged in his character. Ibrahim Yusupov's education at the Karakalpak State Pedagogical Institute, his subsequent teaching career there, and his work at the Amudarya journal, the Union of Writers of Karakalpakstan, and the Academy of Sciences are not mere entries in a work log. These years represent a period during which the poet's organisational abilities in science and literature flourished, shaping an entire generation. Utilising the "Chronicle of Success" method is recommended when teaching these stages of the poet's career. Students can thus identify the practical contributions he made to the development of national culture and language in each position he held [6].

ANALYSIS AND RESULTS

One of the highest peaks of the poet's life journey was his activity during the years of independence and his being awarded the title of "Hero of Uzbekistan." In class, this event should be interpreted not merely as an award, but as the highest recognition of selfless labour, equal rights among national literatures, and cultural integration. The idea of brotherhood and shared spiritual roots between the Uzbek and Karakalpak peoples embodied by Ibrahim Yusupov must stand at the centre of pedagogical analysis. Teaching Ibrahim Yusupov's life path relies on modern didactic principles of education to achieve the desired effect. These principles expand students' worldviews and help them gain a deeper understanding of the poet's personality:

- **Historical Accuracy:** When studying the poet's biography, educators should rely on historical documents, the latest conclusions of literary studies, and memoirs. They should avoid unfounded myths or superficial interpretations regarding Ibrahim Yusupov, presenting his life in organic connection with the socio-political landscape of his time.
- **Multimedia and Visualization:** For today's digital generation (Gen Z), lecture texts alone are insufficient. Incorporating multimedia tools, virtual maps of places where he lived and worked, and documentary materials (such as archive videos dedicated to his life or audio recordings of his own voice) increases the emotional engagement of the lesson. Listening to songs composed to his poems also plays a major role in conveying a sense of his personality.
- **Problem-Based and Creative Tasks:** Give students problem-solving assignments to independently research Ibrahim Yusupov's life path. For instance, creative and thought-provoking questions like "If Ibrahim Yusupov were alive today, how would he address young people regarding environmental issues (such as the Aral Sea tragedy)?"encourage students to step into the poet's shoes and understand his inner world. When covering Ibrahim Yusupov's life, traditional lesson formats should be set aside in favour of non-traditional and interactive lesson models. Below, we provide an analysis of several pedagogical technologies that yield high efficiency in teaching this topic [7].

CONCLUSION

Uzbek journalism continues to play a vital role in keeping Ibrayim Yusupov's artistic vision vibrant and accessible. Future media studies can further explore how digital journalism and multimedia platforms expand the reach of Yusupov's poetic heritage to younger generations across Central Asia and internationally. The comprehensive analysis of Ibrayim Yusupov's life, literary heritage, and representation within the Uzbek press and educational methodology underscores his monumental status as a universal thinker, master of philosophical lyricism, and pivotal cultural bridge between the Uzbek and Karakalpak peoples. As a Hero of Uzbekistan, Yusupov's creative output transcends regional borders, embodying the shared spiritual roots, interethnic harmony, and collective literary traditions of Central Asia. Uzbek print and digital journalism (such as O'zbekiston Adabiyoti va San'ati and Xalq So'zi) serves not merely as a chronicler of historical facts but as an active mediator of cultural preservation.

Through insightful literary critiques, commemorative coverage, and translation studies, national press coverage actively promotes Yusupov's artistic vision, keeping his humanistic ideals, patriotic devotion to the Aral Sea region, and stylistic innovations vibrant and accessible to wider audiences. From a pedagogical perspective, teaching Ibrayim Yusupov's biography demands a departure from dry, chronological methods. By employing the "personality–environment–creativity" triad, modern methodology transforms the poet's biography into an immersive spiritual school. Integrating innovative, interactive, and multimedia-driven educational principles allows educators to foster critical thinking, historical-cultural understanding, and social identification among the younger generation. Ultimately, preserving and transmitting Ibrayim Yusupov's legacy through contemporary media platforms and modern pedagogical frameworks ensures that his profound philosophical insights and commitment to cultural unity continue to inspire future generations across Central Asia and the global scholarly community.

References:

1. Есемуратов Г. Ибрайым Юсуповтың поэзиясы. – Нөкис, 1976.
2. Мақсетова Ж. Поэтическая мастерство Ибрагима Юсупова. – Нукус, 1992.
3. Нарымбетов Ж. Саҳра гүли. – Нөкис, 2001.
4. Пахратдинов Д. И. Юсупов дөретиўшилигинде Шығыс классиклери дәстүрлери. – Нөкис, 2001.
5. Хамидова А. И. Юсупов творчествосы ҳәм Европа әдебияты. – Нөкис, 1999.
6. Базарбаев Ж. Даналығы гөззаллыққа уласқан шайыр. – Нөкис, 2009.
7. Алламбергенов К. Мәңги булақ (И. Юсуповтың өмири ҳәм дөретиўшилиги). – Нөкис, 2009.

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA OILA-MAKTAB HAMKORLIGINING O'RNI

Karimova Shoxsanam Islomxon qizi
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivatsiyasini shakllantirishda oila va maktab hamkorligining roli va ahamiyatiga bag'ishlangan. Ishda boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning o'quv faoliyatiga bo'lgan ichki va tashqi motivatsiyasi tushunchasi, uning turlari va shakllanish omillari tahlil qilingan. Oila-maktab hamkorligining yetarli emasligi o'quv motivatsiyasining pasayishiga, o'quvchi faoliyatining samarasizligiga va psixologik muammolarning yuzaga kelishiga olib kelishi pedagogik muammo sifatida ko'rsatilgan. Tadqiqotda o'quvchilar, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasida tadbirlar, suhbat va kuzatuv usullaridan foydalanilgan. Natijada oila-maktab hamkorligini mustahkamlash bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan o'qituvchilar, sinf rahbarlari va ota-onalar uchun uslubiy qo'llanma sifatida foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf o'quvchilari; o'quv motivatsiyasi; ichki motivatsiya; tashqi motivatsiya; oila-maktab hamkorligi; pedagogik muammo; motivatsiyani shakllantirish.

Abstract: This article is devoted to examining the role and importance of family-school collaboration in developing learning motivation among primary school students. The study analyzes the concepts of intrinsic and extrinsic motivation toward learning activities among primary school children, as well as their types and the factors influencing their development. Insufficient family-school collaboration is considered a pedagogical problem that may lead to decreased learning motivation, reduced effectiveness of students' educational activities, and the emergence of psychological problems. The study employed methods of organizing activities, interviews, and observation involving students, parents, and teachers. As a result, practical proposals and recommendations were developed to strengthen family-school collaboration, which can be used as methodological guidance for teachers, class teachers, and parents.

Key words: primary school students; learning motivation; intrinsic motivation; extrinsic motivation; family-school collaboration; pedagogical problem; motivation development.

Аннотация: Статья посвящена изучению роли и значения взаимодействия семьи и школы в формировании учебной мотивации у учащихся начальных классов. В работе проанализированы понятие внутренней и внешней мотивации детей младшего школьного возраста к учебной деятельности, их виды и факторы формирования. Недостаточное взаимодействие семьи и школы рассматривается как педагогическая проблема, способствующая снижению учебной мотивации, недостаточной эффективности учебной деятельности учащихся и возникновению психологических проблем. В исследовании использовались методы организации мероприятий, беседы и наблюдения с участием учащихся, родителей и учителей. В результате разработаны практические предложения и рекомендации по укреплению взаимодействия семьи и школы, которые могут быть использованы в качестве методического пособия для учителей, классных руководителей и родителей.

Ключевые слова: учащиеся начальных классов; учебная мотивация; внутренняя мотивация; внешняя мотивация; взаимодействие семьи и школы; педагогическая проблема; формирование мотивации.

KIRISH

Boshlang'ich sinf – bola hayotidagi eng muhim o'tish davridir. U birinchi marta "o'quvchi" maqomini oladi, o'qish-yozishni o'rganadi, maktabning qoidalari va talablariga moslashadi. Tasavvur qiling, bola maktabga birinchi bor keladi – hammasi yangi, qiziqarli. Agar bu vaqtda u o'qishdan rohat olsa, kelajakda ham o'quvchi bo'lib qoladi. Chunki aynan shu yoshda o'quv motivatsiyasi shakllanadi yoki, aksincha, o'qishga qiziqishi butunlay yo'qoladi. Respublikamizda 2023–2025-yillarda o'tkazilgan monitoring natijalariga ko'ra, 3–4-sinf o'quvchilarining 38–42 foizida ichki o'quv motivatsiyasi past darajada ekanligi aniqlandi (Xalq ta'limi vazirligi,

2024). Bu holat nafaqat o'qituvchilarning, balki oilaning ham faol ishtirokini talab qiladi. Bu faqat O'zbekiston muammosi emas. Balki, Jahon banki va UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich sinf bolalarining 30–50 foizida motivatsiya past bo'ladi. Masalan, Hindiston yoki Braziliyada shunga o'xshash holatlar mavjud, chunki oilalar ta'limni faqat "baholar" bilan bog'laydi. Motivatsiyaning pastligi kelajakda ishsizlik va ijtimoiy muammolarga olib keladi. O'quv motivatsiyasi (ya'ni, o'qishga bo'lgan ichki qiziqish va istak)ni shakllantirishda oila-maktab hamkorligi muhim omil sifatida qaraladi, chunki bola kunining 60–70 foizi oilada o'tadi va oiladagi munosabatlar maktabdagi muvaffaqiyatni oldindan belgilaydi.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivatsiyasini shakllantirishda oila-maktab hamkorligining imkoniyatlari, muammolari va samarali yo'nalishlarini ilmiy-pedagogik asosda tahlil qilishdan iborat. "O'quv motivatsiyasi" tushunchasi va uning turlarini quyidagi omillar orqali ifodalash mumkin:

1. **O'quv motivatsiyasi** – o'quvchi shaxsining o'quv faoliyatiga yo'naltirilgan ichki kuchi va qiziqishi deb ta'riflanadi. Ichki motivatsiya (intrinsic) – bilim olish jarayonining o'zi yoqimli bo'lgani uchun o'qish;
2. **Tashqi motivatsiya (extrinsic)** – baho, maqtov yoki sovg'a uchun o'qish. Ichki motivatsiya – bu bolaning "Men o'qimoqchiman, chunki qiziq", deyishi.

Tashqi motivatsiya esa "Baho uchun bo'lsa, o'qiyman", deyishidir. Boshlang'ich sinfda ichki motivatsiyani rivojlantirish muhim, chunki bola hali kichik va o'qishni o'yin deb qabul qilishi kerak.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologiya olimlari Abraham Maslou yoki Daniel Pinkning nazariyalariga ko'ra, ichki motivatsiya o'z-o'zini rivojlantirish va mustaqillikdan kelib chiqadi. Jahonda, masalan, Finlyandiyada maktablar o'yinli darslar orqali ichki motivatsiyani oshiradi, natijada PISA testlarida yuqori ball oladi [9–11].

Boshlang'ich sinfda ichki motivatsiyani shakllantirish muhim, chunki u uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Oila-maktab hamkorligi ta'riflari yuqorida keltirilganidek qoldiriladi, faqat boshlang'ich ta'limga urg'u beriladi. Shuningdek, oila-maktab hamkorligining ta'rifi va qonuniy asoslari quyidagi me'yoriy hujjatlarda keltirilgan: O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O'RQ–637-son[1] "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 40-moddasi maxsus ravishda boshlang'ich sinflarda ota-onalar bilan yaqin hamkorlikni talab qiladi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son[2] Farmonida "…o'quvchilarda ta'lim olishga kuchli motivatsiyani shakllantirish talab etilmoqda", deb alohida ta'kidlangan [2].

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida o'quv motivatsiyasini shakllantirish bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning bir nechta ilmiy qarashlari mavjud:

M. Quronov (2021)ning monografiyasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining 57 foizi o'quv motivatsiyasi oiladagi o'qish muhitiga bog'liq ekanligini asoslab bergan [3].

N. Voxidova va N. Raxmonqulovalar (2023) ilmiy maqolalarida "…agar oila va maktab talablari bir-biriga zid bo'lsa, bolada ichki ziddiyat yuzaga keladi va motivatsiya pasayadi", deb ta'kidlashgan [4].

J. Epstein (2011) ilmiy ishida oila-maktab hamkorligi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini 28 foiz oshirishi, bu esa bevosita ichki motivatsiyaga ta'sir qilishini tadqiq qilgan [5].

PISA-2022 tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ota-onasi haftada kamida bir marta o'qishi haqida suhbatlashadigan o'quvchilar o'rtacha 18 ball yuqori natija ko'rsatgan [9].

2023–2025-yillardagi empirik tadqiqot natijalari quyidagicha bo'lgan (Toshkent shahri va viloyatida 1240 nafar 2–4-sinf o'quvchisi va ularning ota-onasi ishtirokida): 41 foiz o'quvchi "O'qishni yoqtirmayman", deb javob berdi; 64 foiz ota-ona "Bolam uy vazifasini o'zi qilmaydi, majburlayman", dedi; Faqat 23 foiz oilada "kitob o'qish" oilaviy an'anaga aylangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oila salbiy munosabat ko'rsatsa (faqat baho so'rasa), bola o'qishdan qochadi. Aksincha, ijobiy e'tibor (muhokama, maqtov) motivatsiyani oshiradi. Shu bilan birga, xalqaro tadqiqotlarda (masalan, OECD PISA) o'xshash natijalar mavjud, ya'ni ota-onasi ta'lim jarayoniga jalb qilingan oilalarda bolalar o'rtacha 15–20% yaxshi o'qiydi. Masalan, Singapurda oila-maktab hamkorligi orqali motivatsiya 90% dan yuqori. Boshlang'ich sinf – o'quvchining hayotida maktabga bo'lgan munosabati bir umrga shakllanadigan eng muhim davr. Afsuski, ko'pchilik ota-ona "Bola maktabga borsin, o'qisin", degan fikr bilan kifoyalanib, o'qish

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://www.lex.uz/ru/docs/-4312785

jarayonidan chetda qolmoqda. Natijada, 3–4-sinfga kelib, “O‘qishni yoqtirmayman”, degan gap bolaning o‘z og‘zidan chiqib, o‘qituvchi ham, ota-ona ham hayratda qoladi. Aslida esa bu hayrat emas, balki oldindan ko‘rinib turgan oqibat.

O‘quv motivatsiyasi deganda faqat “yaxshi baho olish” istagini emas, balki bilim olish jarayonining o‘ziga qiziqishni, o‘rganishdan rohatlanishni tushunish kerak. Bu ichki motivatsiya boshlang‘ich sinfda oila va maktabning birgalikdagi harakati bilan shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ota-onasi farzandining darsini har kuni 10–15 daqiqa muhokama qilib turadigan oilalarda o‘quv motivatsiyasi 38–42% yuqori bo‘ladi. Bu bolaning kelajagiga qo‘yilgan eng katta sarmoya hisoblanadi. Ammo hozirgi kunda oila-maktab hamkorligi ko‘pincha “ota-onalar yig‘ilishi” va “baholar haqida SMS” bilan cheklanmoqda. Ota-ona maktabga faqat “Bola nimaga 3 oldi?” deb keladi, lekin “Bugun nimani o‘rganding, qiziq bo‘ldimi?” deb hech kim so‘ramaydi. Natijada bola maktabni “jazo joyi” deb qabul qiladi, o‘qituvchini esa “dushman” sifatida ko‘ra boshlaydi.


Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun eng katta motivator – ota-onasining e’tibori. Agar uyda “Qanaqa baho olding?” o‘rniga “Bugun yangi nimani o‘rganding, menga aytib ber”, degan savol odat tusiga kirsa, bola o‘qishni “majburiyat” emas, “o‘z hikoyasi” deb biladi. Bu yerda o‘qituvchining roli ham katta: u ota-onaga bola qanday qiziqish bildirayotganini, qayerda muvaffaqiyat qozonayotganini aniq va ijobiy tarzda yetkazishi kerak. Afsuski, ko‘p hollarda o‘qituvchi faqat “Uy vazifasini qilmagan”, degan ma’lumotni yuboradi. Bu esa oiladagi salbiy munosabatni yanada kuchaytiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oila-maktab hamkorligini yo‘lga qo‘yish uchun katta mablag‘ yoki murakkab dastur kerak emas. Kerak bo‘lgan narsa – har bir ota-ona va har bir o‘qituvchining “Bola uchun javobgarman”, degan ongli pozitsiyasi. Uni quyidagi tadbirlar orqali ham shakllantirish mumkin:

- har oy bir marta “Ochiq dars” yoki “Oila bilan birga o‘quv loyihasi” tadbirini o‘tkazish;
- haftada bir marta 5 daqiqalik “O‘quvchining muvaffaqiyati” nomli ijobiy xat yuborish;
- uyda “O‘qigan kitobim” yoki “Bugun o‘rganganlarim” daftarchasini yuritish;
- ota-onalarga “Bolamni qanday maqtash kerak?” mavzusida qisqa seminarlar tashkil qilish.

Bu oddiy qadamlarning har biri bolada “Men o‘qishga qodirman, o‘qish mening hayotimning muhim qismi”, degan ichki ishonchni shakllantiradi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchisining o‘quv motivatsiyasi – bu nafaqat maktabning, balki oilaning ham kundalik vazifasi hisoblanadi. Agar bugun oila va maktabni birlashtira olinsa, ertaga “o‘qishni yoqtirmaydigan” avlod tarbiyalanmaydi. Bu esa nafaqat pedagogik, balki milliy muammodir. Chunki o‘qishni sevgan bola – kelajakni sevgan bola, o‘qishni sevgan millat – kelajakka ishongan millat hisoblanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, asosiy muammolar 1-rasmda keltirilgan. kelib chiqib, asosiy muammolarni 1-rasmda keltirilgan.




1-rasm: **O‘quvchining o‘quv motivatsiyasini shakllantirishdagi muammolar**

Hamkorlikning boshlang‘ich sinfga xos shakllari quyidagilardan iborat: “Ota-onalar universiteti” (har oyda 1 marta); “Oila kutubxonasi” loyihasi; “Birgalikda o‘qiymiz” oilaviy o‘qish kechalari; “Motivatsiya daftari” – ota-ona va o‘qituvchi birgalikda to‘ldiradigan kunlik kuzatuv jurnali; Telegram va E-maktab orqali doimiy aloqa.

Amaliy tajribalar esa Toshkent shahridagi 65-maktabning 1-“B” va 4-“A” sinflarida (2025-yil) quyidagicha tashkil etildi: “Oila-maktab klubi” tashkil etildi; har chorakda “Eng faol oila” tanlovi o‘tkazildi; 4-sinf o‘quvchilarining ichki motivatsiyasi 2025-yilda 56% ni tashkil etgan [6].

Namangan viloyati Chust tumani 12-maktab tajribasida esa quyidagi natijaga erishilgan: "Ota-onalar bilan birgalikda ertalabki 10 daqiqalik "Motivatsion doira" o'tkazilgan va o'quvchilarning darsga kechikishi 78% kamayishiga erishilgan". Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, o'qituvchi va ota-ona hamkorligi orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv motivatsiyasini shakllantirish uchun "uch tomonlama motivatsiya" modeli taklif etildi (2-rasmga qarang).



2-rasm: **"Uch tomonlama motivatsiya" modeli**

Motivatsiya – oila va maktabning birgalikdagi mas'uliyatidir. Samarali yo'l – doimiy muloqot hisoblanadi. Ya'ni, oila – bolaning birinchi "maktabi", maktab esa ikkinchisi. Ikki tomon birlashsa, bola mustahkam poydevorga ega bo'ladi.

XULOSA

Xulosa va takliflarni quyidagicha bayon qilish mumkin: Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv motivatsiyasi – bu faqat maktabning emas, balki oila va maktabning birgalikdagi mas'uliyatidir. Qonuniy asoslar mavjud, ammo amalda tizimli hamkorlik hali yetarli emas.

Eng samarali yo'l – oila va maktabning doimiy, ochiq va teng huquqli muloqotini yo'lga qo'yishdir. Har bir maktabda "Oila-maktab hamkorligi bo'yicha maslahatchi" shtat birligini joriy etish; boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Ota-onalar bilan ishlash" bo'yicha 72 soatlik maxsus kursdan o'tkazishni majburiy qilish; har oy "Oilaviy o'qish kuni"ni respublika miqyosida o'tkazish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020. https://lex.uz/docs/-5013007
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni https://www.lex.uz/ru/docs/-4312785
3. Quronov M. Milliy tarbiya: monografiya. – T.: 2004. – B. 210.
4. Mavlonova R., Voxidova N., Raxmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. – 452 b.
5. Epstein J. School, Family, and Community Partnerships. – 2011.
6. Quronov M. Boshlang'ich ta'limda motivatsiya. – T.: 2021.
7. Mavlonova R., Musaeva N. Oila va maktab hamkorligi. – T.: 2023.
8. Xo'jayeva A. Toshkent shahri 64-maktab tajribasi. Ilmiy maqola, 2025.
9. Organisation for Economic Co-operation and Development. PISA Test
10. Pink D. H. Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us. – New York: Riverhead Books, 2009.
11. Silber K. "MIND Reviews: Drive: The Surprising Truth About What Motivates Us". – Scientific American, 7 May 2010.

USING MODEL ESSAYS TO DEVELOP IELTS WRITING TASK 2 PERFORMANCE: AN EVIDENCE-BASED APPROACH TO NOTICING, ANALYSIS, IMITATION AND INDEPENDENT WRITING

Otakulova Dildora Hakimbek qizi
Doctor of philosophy (PhD)

Abstract: This article examines how model essays can be used pedagogically to improve IELTS Writing Task 2 performance and proposes an evidence-based procedure for transforming them from passive reading materials into active learning resources. The literature suggests that model essays can support writing development, particularly when learners are explicitly guided to notice rhetorical organisation, vocabulary, grammatical patterns, cohesion, argument development, and task-response strategies. However, memorisation and direct imitation may encourage formulaic writing and limit learners' flexibility. The article therefore proposes a five-stage model consisting of purposeful reading, noticing and deconstruction, guided transformation, independent reconstruction, and feedback and reflection. The review concludes that model essays are most effective when used as temporary scaffolding that connects input with independent production rather than as templates for reproduction.
Key words: IELTS Writing Task 2; model essays; model texts; EFL writing; noticing; genre-based pedagogy; writing instruction; Lexical Resource; academic writing; independent writing.

Annotatsiya: Mazkur maqolada namunaviy insholardan IELTS Writing Task 2 natijalarini yaxshilash maqsadida pedagogik jihatdan qanday foydalanish mumkinligi tahlil qilinadi hamda ularni passiv o'qish materiallaridan faol ta'lim resurslariga aylantirishning ilmiy asoslangan usuli taklif etiladi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, namunaviy insholar o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga yordam berishi mumkin, ayniqsa o'quvchilarga ritorik tuzilish, lug'at, grammatik shakllar, koheziya vositalari, argumentlarni rivojlantirish va topshiriqqa javob berish strategiyalarini maqsadli ravishda aniqlash va tahlil qilish o'rgatilganda. Biroq insholarni mexanik tarzda yodlash va bevosita taqlid qilish formulaviy yozuvning shakllanishiga hamda o'quvchilarning fikrni turli vaziyatlarda moslashuvchan ifodalash qobiliyatining cheklanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli maqolada besh bosqichli model taklif etiladi: maqsadli o'qish, aniqlash va dekonstruksiya qilish, yo'naltirilgan transformatsiya, mustaqil qayta tuzish hamda fikr-mulohaza va refleksiya. Tadqiqot natijalariga ko'ra, namunaviy insholar tayyor matnlarni takrorlash uchun shablon sifatida emas, balki o'quvchini kirish materiali va mustaqil yozma faoliyat o'rtasida bog'lovchi vaqtinchalik pedagogik tayanch vositasi sifatida qo'llanganda eng samarali hisoblanadi.
Kalit so'zlar: IELTS Writing Task 2; namunaviy insholar; namunaviy matnlar; EFL yozuvi; noticing; janrga asoslangan pedagogika; yozuvni o'qitish; leksik resurs; akademik yozuv; mustaqil yozuv.

Аннотация: В данной статье рассматривается, каким образом образцы эссе могут использоваться в педагогических целях для повышения результатов в IELTS Writing Task 2, а также предлагается научно обоснованная процедура их преобразования из пассивных материалов для чтения в активные учебные ресурсы. Анализ научной литературы показывает, что образцы эссе могут способствовать развитию письменной речи, особенно когда учащимся целенаправленно предлагается обращать внимание на риторическую организацию текста, лексику, грамматические структуры, средства когезии, развитие аргументации и стратегии выполнения задания. Однако механическое заучивание и непосредственное копирование могут приводить к формульному характеру письменной речи и ограничивать гибкость учащихся. В связи с этим в статье предлагается пятиэтапная модель, включающая целенаправленное чтение, выявление и деконструкцию языковых и структурных особенностей, управляемую трансформацию, самостоятельное воссоздание текста, а также обратную связь и рефлексию. В заключение отмечается, что образцы эссе наиболее эффективно использовать как временную опору, обеспечивающую переход от языкового и содержательного материала к самостоятельному письменному продуцированию, а не как шаблоны для воспроизведения.
Ключевые слова: IELTS Writing Task 2; образцы эссе; образцы текстов; письменная речь в условиях EFL; noticing; жанровая педагогика; обучение письменной речи; лексический ресурс; академическое письмо; самостоятельное письмо.

INTRODUCTION

Writing is one of the most demanding productive skills for second-language learners because successful writing requires the simultaneous management of ideas, organisation, vocabulary, grammar, cohesion, audience, and communicative purpose. The challenge is particularly evident in high-stakes examinations such as the International English Language Testing System (IELTS). In Academic Writing Task 2, candidates are required to write an essay of at least 250 words in response to a point of view, argument, or problem. Their performance is evaluated according to four criteria: Task Response, Coherence and Cohesion, Lexical Resource, and Grammatical Range and Accuracy. These criteria demonstrate that successful IELTS writing involves considerably more than grammatical knowledge or vocabulary size. Candidates must understand the task, establish and maintain a clear position, develop relevant ideas, organise information logically, use appropriate vocabulary, and demonstrate grammatical control. Consequently, effective IELTS preparation requires pedagogical approaches that integrate language knowledge with rhetorical, cognitive, and strategic writing skills.

Model essays may therefore serve several pedagogical functions. They can provide input, demonstrate rhetorical organisation, support vocabulary learning, illustrate grammatical structures, develop genre awareness, and provide criteria against which learners can compare their own writing. Nevertheless, these benefits are unlikely to emerge automatically from exposure alone. Learners need structured activities that direct their attention to important textual features and subsequently require them to apply their knowledge independently. The present article examines the pedagogical use of model essays in IELTS Writing Task 2 preparation. It addresses six questions:

1. What pedagogical functions can model essays perform in IELTS preparation?
2. What does existing research suggest about their effectiveness?
3. Which features should learners consciously notice?
4. How can teachers transform model essays into active learning tasks?
5. What risks are associated with excessive reliance on model essays?
6. How can model-essay instruction be integrated with the four IELTS assessment criteria?

LITERATURE REVIEW

The present study employed an "integrative literature review" methodology. Rather than collecting original participant data, the study synthesised theoretical and empirical literature related to IELTS Writing Task 2, model texts, genre-based pedagogy, noticing, second-language writing, feedback, revision, and learner output. The literature was examined to identify recurring principles concerning how model essays influence writing development and under what instructional conditions they are most useful. Particular attention was given to research that directly investigated model essays or model texts and studies providing theoretical explanations for their potential effectiveness. The reviewed literature included IELTS research publications, official assessment documentation, peer-reviewed research articles, and established theoretical works in applied linguistics and second-language writing.

Key theoretical perspectives included Schmidt's (1990) noticing hypothesis, Swain's (1985, 1998) output-oriented perspective, genre-based pedagogy (Hyland, 2007; Martin & Rose, 2008), and research on second-language writing and assessment (Weigle, 2002). A particularly relevant empirical study was conducted by Nguyen and Le (2022), who examined a noticing-model-essay approach to IELTS Task 2 writing. Their quasi-experimental research involved 52 university students divided into experimental and control groups. The experimental group received instruction involving model essays and noticing activities, whereas the control group received conventional teacher and peer feedback. The findings indicated improvement in overall IELTS Task 2 performance in the experimental condition, with particularly notable development in Lexical Resource.

RESEARCH METHODOLOGY

The literature indicates that model essays can provide learners with valuable examples of how written language functions in context. Unlike isolated grammar exercises or vocabulary lists, model texts demonstrate relationships among purpose, content, organisation, vocabulary, grammar, and cohesion. Model essays can be particularly valuable for vocabulary development because they present lexical items in meaningful contexts. Learners can observe not only individual words but also collocations, grammatical patterns, semantic relationships, register, and lexical chunks. For example, rather than learning significant = important, students can encounter combinations such as: play a significant role in economic development. Have a significant impact on society. A significant proportion of the population

ANALYSIS AND RESULTS

Another important function of model essays is demonstrating how ideas are extended. A common weakness in IELTS writing is the presentation of claims without adequate explanation or support. A model paragraph can illustrate a sequence such as: Main idea → explanation → mechanism → example → consequence. For example, the claim that governments should invest more heavily in public transport is relatively undeveloped on its own. A model paragraph can show how investment may reduce dependence on private cars, increase the attractiveness of public transportation, reduce congestion, and lower transport-related emissions. The pedagogical objective is not to memorise the paragraph. Rather, learners should understand the process through which a general claim is transformed into a developed argument. This is directly related to Task Response because IELTS candidates are expected to present relevant ideas and support them adequately. Model essays can also make organisational patterns visible. Learners can analyse the function of introductions, body paragraphs, and conclusions and identify how ideas progress throughout the essay. A typical organisational pattern may include:

- **Introduction:** context, task paraphrase, thesis or position.
- **Body paragraph:** main idea, explanation, supporting detail, example, consequence.
- **Conclusion:** restatement of position and synthesis of main ideas.

The purpose of such analysis is not to impose one fixed structure on every IELTS essay. Instead, learners should understand the functional purpose of each section and recognise that different effective essays may realise these functions in different ways. Genre-based pedagogy supports this principle because it treats writing as purposeful communication rather than as the mechanical application of grammatical rules. The findings indicate that the pedagogical value of model essays depends primarily on the quality of activities surrounding them. A model essay should not be considered an instructional method in itself. Rather, it is a resource that can be incorporated into a broader process of modelling, analysis, practice, production, feedback, and revision. The central pedagogical implication is that model essays should function as temporary scaffolding. Scaffolding provides learners with support while they develop a skill and is gradually removed as independence increases. Memorisation can reduce the cognitive burden of writing under examination conditions, but it presents several methodological risks. Memorised language may not fit the task, may be used without understanding, may restrict idea generation, and may produce formulaic or unnatural writing. The most productive approach is therefore to memorise flexible language chunks, not complete arguments. For IELTS Task 2, this is particularly valuable because successful writing requires candidates to develop and support their own position rather than reproduce predetermined content. Teachers should select models that are linguistically appropriate, relevant to learners' proficiency levels, and sufficiently clear for analysis. Models should not be presented as perfect texts that learners must reproduce. Teachers should explicitly teach students "how to read a model essay". They should connect model analysis to IELTS assessment criteria and require independent production after analysis. Feedback should focus on manageable priorities rather than correcting every error simultaneously. Using multiple models is also recommended. A single model may lead learners to believe that there is only one acceptable way to write an IELTS essay.

Several models can demonstrate variation in introductions, thesis statements, paragraph structures, examples, vocabulary, and conclusions. During the first reading, they should understand the argument. During the second, they should analyse organisation. During the third, they should notice vocabulary and collocations. During the fourth, they should analyse grammar and cohesion. Finally, they should close the model and write independently. Several limitations should be acknowledged. First, the present study is an integrative literature review rather than an original experimental investigation. The proposed model therefore requires empirical validation. Second, research specifically examining model essays in IELTS preparation remains comparatively limited. The study by Nguyen and Le (2022) provides relevant evidence, but its sample was relatively small and its intervention was limited in duration.

Third, the effectiveness of model essays may vary according to learner proficiency. Lower-level learners may require more explicit scaffolding, whereas advanced learners may benefit from greater emphasis on variation and independent production. Fourth, model quality is crucial. Poorly written or excessively formulaic models may reinforce undesirable language. Finally, gains in vocabulary do not necessarily translate automatically into improvements in argumentation, grammar, or coherence. Future research should therefore investigate longer interventions, larger samples, different proficiency levels, and criterion-specific outcomes.

CONCLUSION

Model essays can be an effective resource for developing IELTS Academic Writing Task 2 performance when they are integrated into a systematic instructional process. Their effectiveness does not result simply from learners' exposure to high-quality writing. Instead, improvement is more likely when learners are encouraged to notice, analyse, transform, reproduce, evaluate, and apply features of model texts. The literature indicates that model essays can demonstrate argument organisation, thesis construction, paragraph development, vocabulary use, collocation, grammatical structures, cohesion, and academic style. They can therefore make aspects of successful writing visible to learners. However, model essays should not become templates for memorisation. Memorising complete essays or fixed paragraphs can restrict flexibility and may result in formulaic writing. The appropriate pedagogical principle is to learn "transferable patterns rather than predetermined content". The proposed five-stage model - purposeful reading, noticing and deconstruction, guided transformation, independent reconstruction, and feedback and reflection - provides a systematic way of achieving this goal. It creates a progression from input to analysis, from analysis to controlled production, and from controlled production to independent writing.

The evidence also suggests that model-essay instruction may have particularly strong effects on lexical development, while other IELTS criteria require additional targeted activities. Consequently, model essays should be integrated with explicit instruction in argumentation, coherence, grammar, critical thinking, feedback, revision, and self-assessment. The ultimate measure of successful model-essay instruction is "transfer". Learners have not truly learned from a model if they can only reproduce its language. They have learned when they can encounter a new IELTS Task 2 question, analyse it independently, generate relevant arguments, organise those arguments logically, select appropriate language, and produce an accurate response without relying on memorised material. The instructional process can therefore be summarised as:

Read → Notice → Analyse → Transform → Reconstruct → Write independently → Receive feedback → Reflect → Revise → Transfer.

A model essay should ultimately become unnecessary. Its pedagogical purpose is fulfilled when learners can use the knowledge acquired from models flexibly and independently in new writing situations.

References:

1. Abe, M. (2008). "Exploring the role of model essays in the IELTS Writing Test: A feedback tool". Unpublished master's thesis, The University of Queensland.
2. Damayanti, I. L. (2023). Building knowledge about language for teaching IELTS writing tasks: A genre-based approach. "Studies in English Language and Education".
3. Hyland, K. (2007). Genre pedagogy: Language, literacy and L2 writing instruction. "Journal of Second Language Writing, 16" (3), 148–164. https://doi.org/10.1016/j.jslw.2007.07.005
4. Hyland, K. (2023). Genre-based instruction and corpora. "TESOL Quarterly".
5. IELTS. (2023). "IELTS Writing Band Descriptors". British Council, IDP: IELTS Australia and Cambridge University Press & Assessment.
6. IELTS. (2026). "IELTS Academic Writing Test Format and Assessment Criteria". IELTS.
7. Martin, J. R., & Rose, D. (2008). "Genre Relations: Mapping Culture". Equinox.
8. Nguyen, L. Q., & Le, H. V. (2022). Improving L2 learners' IELTS Task 2 writing: The role of model essays and noticing hypothesis. "Language Testing in Asia, 12", 58.
9. Schmidt, R. W. (1990). The role of consciousness in second language learning. "Applied Linguistics, 11" (2), 129–158. https://doi.org/10.1093/applin/11.2.129
10. Swain, M. (1985). Communicative competence: Some roles of comprehensible input and comprehensible output in its development. In S. Gass & C. Madden (Eds.), "Input in Second Language Acquisitionz" (pp. 235–253). Newbury House.
11. Swain, M. (1998). Focus on form through conscious reflection. In C. Doughty & J. Williams (Eds.), "Focus on Form in Classroom Second Language Acquisition" (pp. 64–81). Cambridge University Press.
12. Tardy, C. M. (2019). "Genre-Based Writing: What Every ESL Teacher Needs to Know". University of Michigan Press.
13. Weigle, S. C. (2002). "Assessing Writing". Cambridge University Press.
14. Wingate, U., & Tribble, C. (2012). The best of both worlds? Towards an English for Academic Purposes/Academic Literacies writing pedagogy. "Studies in Higher Education, 37" (4), 481–495.
15. Zapata, G. C. (2022). Genre-based pedagogy and model texts in second-language writing. In "Genre-Based Writing Research and Pedagogy".
16. Zohbie, S. (2024). Using a genre-based approach to teach writing to elementary ESL students: A boon or a barrier? "TESOL Journal".

UZUNLIKKA SAKROVCHI YENGIL ATLETIKACHILARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Ro‘zimatova Shohista Boltaboy qizi
Osiyo Xalqaro universiteti pedagogika nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada uzunlikka sakrash bo‘yicha ixtisoslashgan yengil atletikachilarni tayyorlashda qo‘llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi – an’anaviy, ko‘p martalik takrorlashga asoslangan mashg‘ulot metodikasidan farqli o‘laroq, sportchining individual xususiyatlarini, kognitiv jarayonlarini va zamonaviy texnik vositalarni hisobga oluvchi yondashuvlarni ilmiy asoslash va ularni amaliyotga tatbiq etish yo‘llarini ko‘rsatishdan iborat. Maqolada chiziqli bo‘lmagan pedagogika, cheklovlarga asoslangan yondashuv, video tahlil va biomexanik nazorat, shuningdek, og‘zaki o‘z-o‘ziga ko‘rsatma berish va kuzatuv orqali o‘rgatish usullari kabi zamonaviy metodlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: uzunlikka sakrash, yengil atletika, pedagogik yondashuv, sport mashg‘uloti, chiziqli bo‘lmagan pedagogika, texnik tayyorgarlik, individuallashtirish, biomexanik tahlil.

Abstract: This article analyzes modern pedagogical approaches used in training athletes specializing in the long jump. The purpose of the study is to scientifically substantiate and identify ways of practically implementing approaches that take into account the athlete’s individual characteristics, cognitive processes, and modern technical tools, as opposed to traditional repetition-based training methods. The article examines contemporary methods such as nonlinear pedagogy, the constraint-led approach, video analysis and biomechanical monitoring, as well as instructional self-talk and observational learning techniques. The study employed methods of scientific-methodological literature analysis, comparative-typological analysis, and pedagogical observation.

Key words: long jump, athletics, pedagogical approach, sports training, nonlinear pedagogy, technical preparation, individualization, biomechanical analysis.

Аннотация: В данной статье проанализированы современные педагогические подходы, применяемые при подготовке легкоатлетов, специализирующихся в прыжках в длину. Цель исследования заключается в научном обосновании и определении путей практического внедрения подходов, учитывающих индивидуальные особенности спортсмена, его когнитивные процессы и современные технические средства, в отличие от традиционной методики, основанной на многократном повторении. В статье рассмотрены такие современные методы, как нелинейная педагогика, подход, основанный на ограничениях, видеоанализ и биомеханический контроль, а также методы обучения посредством самоинструктирования и наблюдения. В процессе исследования использовались методы анализа научно-методической литературы, сравнительно-типологического анализа и педагогического наблюдения.

Ключевые слова: прыжок в длину, лёгкая атлетика, педагогический подход, спортивная тренировка, нелинейная педагогика, техническая подготовка, индивидуализация, биомеханический анализ.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020-yildagi 637-son[1] “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi 04.09.2015-yildagi O‘RQ-394-son[2] qonunlarda ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya uzluksiz ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi ekanligi ko‘rsatilgan [6]. Yengil atletika, xususan, uzunlikka sakrash, texnik jihatdan murakkab, ammo tayyorgarlik davri qisqa vaqt ichida yuqori natijaga erishish imkonini beruvchi sport turi hisoblanadi. Shu sababli murabbiylar oldida sportchining harakat malakalarini tez va sifatli shakllantirish, individual imkoniyatlarini maksimal darajada ochib berish vazifasi turadi.

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/docs/-2742233

An'anaviy mashg'ulot metodikasi ko'pincha texnikani mexanik takrorlash orqali o'rgatishga asoslanadi. Bunday yondashuv boshlang'ich bosqichda ma'lum natija bersa-da, sportchining tafakkurini, o'zini o'zi tahlil qilish qobiliyatini va harakatni turli sharoitlarga moslashtirish ko'nikmasini yetarlicha rivojlantirmaydi. Zamonaviy sport pedagogikasi va biomexanika fanlarining rivojlanishi natijasida chiziqli bo'lmagan pedagogika, cheklovlarga asoslangan yondashuv, video tahlil va kognitiv o'rgatish usullari kabi yangi metodlar paydo bo'ldi. Ushbu yondashuvlarni O'zbekiston sport ta'limi amaliyotiga ilmiy asoslangan holda tatbiq etish masalasi hozirgi kunda alohida dolzarblik kasb etadi.

Tadqiqotning obyekti – uzunlikka sakrash bo'yicha ixtisoslashgan yengil atletikachilarni tayyorlash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – ushbu jarayonda qo'llaniladigan zamonaviy pedagogik yondashuvlar, metodlar va vositalar.

Tadqiqotning maqsadi – uzunlikka sakrovchi yengil atletikachilarni tayyorlashda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning mazmun-mohiyatini ochib berish va ularni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda quyidagi **vazifalar** belgilandi:

- uzunlikka sakrash texnikasini o'rgatishning an'anaviy va zamonaviy metodlarini qiyosiy tahlil qilish;
- chiziqli bo'lmagan pedagogika va cheklovlarga asoslangan yondashuvning mashg'ulot jarayonida qo'llanilish imkoniyatlarini aniqlash;
- kognitiv (og'zaki ko'rsatma berish, kuzatuv orqali o'rganish) va texnologik (video tahlil, biomexanik monitoring) vositalarning samaradorligini yoritish;
- murabbiylar va jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Shuni ta'kidlash lozimki, uzunlikka sakrash o'zining nisbatan sodda tashkiliy-moddiy talablari (maxsus maydoncha, depsinish taxtasi va qum chuquri) tufayli umumta'lim maktablari, sport maktablari va oliy ta'lim muassasalarida keng qo'llaniladigan yengil atletika turlaridan biri hisoblanadi. Shu bois ushbu sport turida qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish nafaqat yuqori mahoratli sportchilar, balki ommaviy jismoniy tarbiya tizimi uchun ham amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Uzunlikka sakrash texnikasini o'rgatish metodikasi masalalari o'zbekistonlik va xorijlik tadqiqotchilarning bir qator ishlarida yoritilgan.

M. J. Abdullayev, M. S. Olimov va N. T. Toxtaboyevlarning o'quv qo'llanmasida yengil atletika turlari texnikasini o'qitish bosqichlari, jumladan, uzunlikka sakrash texnikasi tavsifi keng yoritilgan bo'lib, unda yugurib kelish, depsinish, havoda uchish va yerga tushish fazalarining o'zaro bog'liqligi asoslangan [5].

M. A. Fatullayevaning tadqiqotida yengil atletikani o'qitish metodikasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan [4].

F. C. Ziyayev va hammualliflari umumta'lim maktablarining jismoniy tarbiya darslarida yengil atletika turlarini o'rgatish metodikasini takomillashtirish samaradorligini o'rganib, differensial yondashuvning o'quvchilar natijalariga ijobiy ta'sirini isbotlashgan [1].

F. M. Karimov va hammualliflari boshlang'ich ixtisoslashuv guruhidagi uzunlikka sakrovchi qizlarda depsinish kuchini rivojlantirish masalasini tadqiq etib, maxsus mashqlar tizimini ishlab chiqishgan [2].

Yuqoridagilarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, sport pedagogikasi fanida uzunlikka sakrash texnikasini o'rgatishda kognitiv, texnologik va individuallashtirilgan yondashuvlarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot maqsad va vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. **Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish** – mavzuga oid mahalliy va xorijiy manbalar, o'quv qo'llanmalar hamda ilmiy jurnallardagi maqolalar tizimli ravishda o'rganildi va umumlashtirildi.
2. **Qiyosiy-tipologik metod** – an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning afzallik va kamchiliklari o'zaro solishtirib chiqildi.
3. **Pedagogik kuzatuv** – oliy ta'lim muassasalari va sport maktablarida uzunlikka sakrash bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlar jarayoni kuzatildi, murabbiylar tomonidan qo'llanilayotgan usullar aniqlandi.

4. **Umumlashtirish va tizimlashtirish** – to‘plangan ma’lumotlar asosida zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishning bosqichma-bosqich modeli shakllantirildi.

Tadqiqot uch bosqichda olib borildi:

- *birinchi bosqich*da muammoning nazariy-metodologik asoslari o‘rganildi;
- *ikkinchi bosqich*da amaliy kuzatuvlar va murabbiylar bilan suhbatlar orqali dala materiali to‘plandi;
- *uchinchi bosqich*da olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uzunlikka sakrash texnikasini o‘rgatishda qo‘llaniladigan an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni bir qator mezonlar bo‘yicha solishtirish quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadval).

1-jadval: **Uzunlikka sakrashni o‘rgatishda an’anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning qiyosiy tavsifi**

Mezon	An’anaviy yondashuv	Zamonaviy pedagogik yondashuv
Texnikani o‘rgatish usuli	Harakatni bo‘laklarga bo‘lib, ko‘p marta mexanik takrorlash	Yaxlit harakatni o‘zgaruvchan sharoitlarda bajarish (cheklovlarga asoslangan yondashuv)
Sportchining roli	Ko‘rsatmani passiv bajaruvchi	Yechimni mustaqil izlovchi, faol ishtirokchi
Nazorat vositasi	Vizual kuzatuv va og‘zaki baho	Video tahlil, biomexanik ko‘rsatkichlar, raqamli qurilmalar
Xato ustida ishlash	Xatoni umumiy ko‘rsatma orqali tuzatish	Individual fikr-mulohaza (feedback) va o‘z-o‘ziga ko‘rsatma berish (self-talk)
Yosh xususiyatlari	Barcha sportchilarga bir xil dastur	Yosh, jinsi va tayyorgarlik darajasiga mos individual dastur
Motivatsiya	Tashqi nazoratga asoslangan	Ichki motivatsiya va o‘yin elementlaridan foydalanish

Uzunlikka sakrash texnikasi to‘rtta o‘zaro bog‘liq fazadan iborat: yugurib kelish, depsinish, havoda uchish va yerga tushish. Har bir faza o‘ziga xos pedagogik yondashuvni talab qiladi, shu sababli mashg‘ulot jarayonini ushbu fazalar bo‘yicha tizimli tashkil etish katta ahamiyatga ega. Yugurib kelish fazasida asosiy vazifa – barqaror ritm va maksimal nazorat qilinadigan tezlikka erishishdir. An’anaviy metodikada sportchi bir xil uzunlikdagi razbegni ko‘p marta takrorlaydi, biroq zamonaviy yondashuvda boshlang‘ich nuqtani ataylab o‘zgartirib turish (masalan, 30-60 santimetr oldinga yoki orqaga surish) orqali sportchining depsinish taxtasiga nisbatan fazoviy mo‘ljal olish qobiliyati maqsadli rivojlantiriladi. Bu, o‘z navbatida, musobaqa kunidagi psixologik bosim va tashqi omillar (shamol, yugurish yo‘lagining holati) ta’sirida ham barqaror natija ko‘rsatish imkonini beradi.

Depsinish fazasi sakrash uzunligini belgilovchi hal qiluvchi bosqich hisoblanadi, chunki aynan shu daqiqada gorizontal tezlik qisman vertikal tezlikka aylantiriladi. Ushbu fazani o‘qitishda depsinish oyog‘ining to‘g‘ri qo‘yilishi, tos-son bo‘g‘imlarining faol ishi va tananing vertikal holatini saqlash muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy metodikada bu bosqichni video sekin tasvirda tahlil qilish orqali sportchiga o‘z xatosini vizual tarzda ko‘rsatish an’anaviy og‘zaki tushuntirishga qaraganda ancha samarali natija beradi.

Havoda uchish fazasida sportchi tanasining muvozanatini saqlash va yerga tushishga tayyorgarlik ko‘rish talab etiladi. Bunda “osilib uchish” yoki “velosiped” usullaridan foydalaniladi, ular tananing oldinga qarab aylanish momentini nazorat qilishga xizmat qiladi. Yerga tushish fazasida esa oyoqlarni imkon qadar oldinga cho‘zish va tanani oldinga siljitish orqali sakrash natijasini yo‘qotmaslik muhim. Ushbu ikki faza, odatda, alohida yordamchi mashqlar (masalan, balandlikdan sakrab tushish, gimnastik moslamalarda muvozanat mashqlari) yordamida takomillashtiriladi. Yuqorida sanab o‘tilgan har bir fazani alohida-alohida, so‘ngra yaxlit harakat tarkibida o‘rgatish klassik metodika bilan ham amalga oshirilishi mumkin, biroq zamonaviy pedagogik yondashuvning afzalligi shundaki, u fazalarni o‘zaro bog‘liq holda, o‘zgaruvchan sharoitlarda va sportchining faol kognitiv ishtirokida shakllantirishga qaratilgan.

Chiziqli bo‘lmagan pedagogika (nonlinear pedagogy) nazariyasiga ko‘ra, sportchi, murabbiy va mashqlanish muhiti o‘zaro ta’sirlashuvchi murakkab tizim sifatida qaraladi. Ushbu yondashuv doirasida ishlab chiqilgan cheklovlarga asoslangan yondashuv (constraint-led approach) mohiyati shundan iboratki, murabbiy tayyor harakat namunasini “diktovka” qilish o‘rniga, mashq sharoitlarini (masofa, tezlik, moslama, maqsad) maqsadli ravishda o‘zgartirib boradi, natijada sportchi o‘zi uchun eng maqbul harakat yechimini mustaqil topadi [7; 8].

Uzunlikka sakrash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda elita darajadagi murabbiylarning tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yugurib kelish tezligini turlicha boshlang‘ich nuqtalardan boshlash (“varied start method”) va

depsinish taxtasiga turlicha yo'nalishlar bilan yaqinlashish ("varied targeting method") sportchida boshqotirmani hal qilish, ya'ni depsinish nuqtasini aniq his qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunday variativlik sportchini musobaqa sharoitidagi kutilmagan holatlarga (shamol, maydonchaning holati, hakamlar tomonidan belgilangan vaqt bosimi) moslashishga tayyorlaydi. Amaliyotda ushbu yondashuvni tatbiq etish uchun mashg'ulot jarayoni to'rt bosqichga bo'lib tashkil etiladi: yugurib kelish (razbeg) tezligi va ritmini shakllantirish, depsinish kuchini va burchagini takomillashtirish, havoda uchish fazasidagi muvozanatni saqlash texnikasi ("osilib uchish" yoki "velosiped" usullari) hamda yerga tushish paytida energiyani to'g'ri taqsimlash. Har bir bosqichda mashqlar bir xil emas, balki sportchining joriy natijalariga qarab moslashtirib boriladi.

So'nggi yillardagi tadqiqotlar kognitiv o'rgatish usullarining, xususan, og'zaki o'z-o'ziga ko'rsatma berish va kuzatuv orqali o'rganishning harakat malakasini shakllantirishga ijobiy ta'sirini isbotlamoqda. Boshlang'ich darajadagi sportchilar ishtirokida o'tkazilgan tajribada og'zaki ko'rsatma beruvchi guruh natijaviy ko'rsatkich (masofa) bo'yicha, video orqali kuzatuvchi guruh esa harakatning kinematik sifat ko'rsatkichlari (tana og'irlik markazining harakati) bo'yicha yaxshiroq natijalarga erishgan. Bu shuni ko'rsatadiki, ikkala usulni birgalikda qo'llash eng samarali natija beradi.

Hozirda video tahlil texnologiyasi zamonaviy mashg'ulot jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Maxsus dasturiy ta'minot yordamida sportchining yugurib kelish, depsinish va uchish fazalaridagi harakati sekin tasvirda tahlil qilinib, xatolar aniq ko'rsatiladi. Bunday "bilim asosidagi aqlli murabbiy" (knowledge-based trainer) tizimlari murabbiyning tajribasini raqamli ma'lumotlar bilan boyitib, xato ustida ishlash vaqtini qisqartiradi va fikr-mulohazaning aniqligini oshiradi. Shuningdek, oddiy va arzon vositalar – masalan, masofani belgilovchi belgilar yoki qo'lda tayyorlangan yordamchi jihozlar – ham, ayniqsa, umumta'lim maktablarida, o'quvchilarning harakatni tushunishini osonlashtirishi mumkin, bu esa har doim ham qimmat texnologiyalar zarur emasligini ko'rsatadi [5].

Shu bilan birga, texnologik vositalarni joriy etishda bir qator amaliy qiyinchiliklar ham mavjud. Ayniqsa, hududiy sport maktablari va umumta'lim muassasalarida maxsus video tahlil dasturlari, yuqori tezlikda suratga oluvchi kameralar yoki biomexanik sensorlarni sotib olish moliyaviy jihatdan har doim ham imkon bermaydi. Shu sababli murabbiylar oddiy smartfon kameralari va bepul dasturiy vositalar yordamida ham sportchi harakatini sekin tasvirda tahlil qilishni o'rganishlari, ya'ni "yuqori texnologiya" bilan "yuqori pedagogik samaradorlik" tushunchalarini bir-biridan ajrata bilishlari muhim ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, texnologiyaning o'zi emas, balki undan pedagogik jihatdan to'g'ri foydalanish natijaviy omil hisoblanadi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvning muhim tamoyillaridan biri – mashg'ulot dasturini sportchining yoshi, jinsi, jismoniy tayyorgarlik darajasi va psixologik xususiyatlariga moslashtirishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yuqori motivatsiyaga ega o'quvchilarda mashq uslubidagi o'qitish usuli buyruq uslubiga qaraganda yuqoriroq natija beradi, past motivatsiyali o'quvchilarda esa bu farq unchalik sezilmaydi. Demak, murabbiy nafaqat texnik, balki motivatsion jihatlarni ham hisobga olgan holda metodni tanlashi lozim [5].

Qizlar guruhida olib borilgan tadqiqotlar depsinish kuchini rivojlantirish uchun maxsus mashqlar tizimini talab qilishini ko'rsatgan, bu esa jinsiy xususiyatlarni hisobga olishning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi [2]. Shuningdek, umumta'lim maktablarida yengil atletikani o'rgatish metodikasini differensiallashtirish o'quvchilarning umumiy natijalarini sezilarli darajada oshirishi aniqlangan [1].

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida uzunlikka sakrovchi yengil atletikachilarni tayyorlashning yaxlit bosqichma-bosqich modelini taklif etish mumkin. Ushbu model sportchining yosh xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga qarab uchta asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: boshlang'ich tayyorgarlik, boshlang'ich ixtisoslashuv va yuqori sportga ixtisoslashuv bosqichlari. Har bir bosqichda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning turli elementlari nisbatan ko'proq yoki kamroq darajada qo'llaniladi (2-jadval).

2-jadval: **Tayyorgarlik bosqichlariga ko'ra zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ustuvor yo'nalishlari**

Bosqich	Asosiy vazifa	Ustuvor zamonaviy yondashuv
Boshlang'ich tayyorgarlik	Umumiy harakat malakalarini shakllantirish, sport turiga qiziqishni oshirish	Kuzatuv orqali o'rganish, o'yin va variativ mashqlar, oddiy va arzon yordamchi vositalar
Boshlang'ich ixtisoslashuv	Uzunlikka sakrash texnikasining asosiy elementlarini o'zlashtirish	Og'zaki o'z-o'ziga ko'rsatma berish, video-fikr-mulohaza, cheklovlarga asoslangan mashqlar
Yuqori sportga ixtisoslashuv	Texnikani musobaqa sharoitida barqarorlashtirish, individual uslubni takomillashtirish	Biomexanik monitoring, individuallashtirilgan dastur, chiziqli bo'lmagan pedagogika tamoyillari

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, boshlang‘ich bosqichda kuzatuv orqali o‘rganish va o‘yin elementlari ustuvor bo‘lsa, yuqori mahorat bosqichida cheklovlarga asoslangan individual mashqlar hamda biomexanik monitoring asosiy o‘rinni egallaydi. Bunday differensial yondashuv sportchining har bir rivojlanish davrida eng samarali pedagogik ta’sirni ta’minlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, barcha bosqichlarda murabbiy va sportchi o‘rtasidagi ishonchli hamkorlik, muntazam fikr-mulohaza almashinuvi hamda sportchining o‘z natijalarini mustaqil tahlil qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, mashg‘ulot jarayonini rejalashtirishda mavsumiylik tamoyiliga alohida e’tibor qaratish lozim. Tayyorgarlik davrining kuzgi-qishki bosqichida asosan umumjismoniy va maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirishga, bahorgi-yozgi bosqichda esa texnik-taktik mahoratni musobaqa sharoitiga yaqinlashtirishga urg‘u berilishi tavsiya etiladi. Har ikkala bosqichda ham video tahlil va biomexanik nazorat natijalari mashg‘ulot dasturini operativ tuzatish uchun asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, uzunlikka sakrovchi yengil atletikachilarni tayyorlashda faqat an’anaviy takrorlashga asoslangan metodika bilan cheklanib qolish yuqori sport natijalariga erishishni cheklaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar – chiziqli bo‘lmagan pedagogika, cheklovlarga asoslangan mashqlar, kognitiv o‘rgatish usullari va vide-texnologik vositalar – sportchining nafaqat texnik, balki intellektual va psixologik salohiyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- mashg‘ulot jarayonida harakatni bir xil sharoitda ko‘p marta takrorlash o‘rniga, sharoitlarni (masofa, tezlik, maqsad nuqtasi) izchil o‘zgartirib boruvchi variativ mashqlardan foydalanish;
- har bir mashg‘ulotda, imkon qadar, video tahlil yoki hech bo‘lmaganda tizimli vizual nazorat vositalaridan foydalanish;
- og‘zaki ko‘rsatma berish va kuzatuv orqali o‘rgatish usullarini birgalikda qo‘llash, ayniqsa, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida;
- mashg‘ulot dasturlarini sportchining yoshi, jinsi va motivatsiya darajasiga qarab individuallashtirish;
- murabbiylar va jismoniy tarbiya o‘qituvchilari uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar bo‘yicha malaka oshirish kurslari va uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, uzunlikka sakrash bo‘yicha yengil atletikachilarni tayyorlash tizimini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish nafaqat sportchilarning individual natijalarini oshiradi, balki O‘zbekistonda yengil atletika sport turining umumiy rivojlanish darajasini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Ushbu tadqiqot nazariy-uslubiy tahlil xarakteriga ega bo‘lib, kelgusi tadqiqotlarda taklif etilgan bosqichma-bosqich modelning aniq sportchilar guruhida eksperimental sinovdan o‘tkazilishi, natijalarning statistik jihatdan tasdiqlanishi hamda turli yosh va jins guruhlari uchun batafsil metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Bunday eksperimental tadqiqotlar zamonaviy pedagogik yondashuvlarning O‘zbekiston sharoitida qo‘llanilishi bo‘yicha yanada aniq va amaliy jihatdan asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 04.09.2015-yildagi “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi 394-son Qonuni. – Toshkent, 2015 (10-modda). https://lex.uz/docs/-2742233
2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020-yildagi 637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni https://lex.uz/docs/-5013007
3. Ziyayev F.S. va boshqalar. Yengil atletika sport turini rivojlantirishda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining jismoniy tarbiya darslarida yengil atletika turlarini o‘rgatish metodikasini takomillashtirish samaradorligi // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – № 3. – B. 348-355.
4. Karimov F.M. va boshqalar. Boshlang‘ich ixtisoslik guruhidagi uzunlikka sakrovchi qizlarning depsinish kuchini rivojlantirish // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – T. 1. – № 4. – B. 119-125.
5. Husniddin I. Yengil atletikaning metodologiyasi // Pedagogik tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 3. – № 1. – B. 755-759.
6. Fatullayeva M.A. Yengil atletikani o‘qitish metodikasi: o‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Buxoro, 2022.
7. Abdullayev M.J., Olimov M.S., Toxtaboyev N.T. Yengil atletika va uni o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma. – Jizzax: JDPU, 2021.

RAQAMLI KOMMUNIKATSIYA MUHITIDA AN'ANAVIY QADRIYATLAR TRANSFORMATSIYASI: INTERNET VA IJTIMOIY TARMOQLARNING MADANIY IDROK HAMDA IJTIMOIY ME'YORLARGA TA'SIRI

Shodiyev Jasur Xolmatjonovich
Jizzax davlat pedagogika universiteti "ijtimoiy fanlar" kafedrasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli kommunikatsiya muhitining an'anaviy qadriyatlar transformatsiyasiga ta'siri, xususan, Internet va ijtimoiy tarmoqlarning madaniy idrok hamda ijtimoiy me'yorlarni shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida mahalliy madaniy qadriyatlar va global raqamli tendensiyalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, milliy o'zlikning qayta talqin qilinishi, oilaviy qadriyatlarning o'zgarishi hamda avlodlararo tafovutlarning kuchayishi masalalariga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi algoritmik tavsiya tizimlari, raqamli hamjamiyatlar va shaxsiylashtirilgan kontentning foydalanuvchilarning madaniy qarashlari va qadriyatlariga ta'sir mexanizmlari ochib beriladi. Maqolada an'anaviy qadriyatlarni raqamli muhitga moslashtirish, madaniy merosni raqamlashtirish, ta'lim va davlat tashabbuslari orqali milliy-madaniy o'zlikni saqlash imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida an'analar va raqamli innovatsiyalar o'rtasidagi konstruktiv muloqotni rivojlantirish zamonaviy jamiyatning madaniy barqarorligini ta'minlashning muhim sharti ekanligi asoslanadi.
Kalit so'zlar: raqamli kommunikatsiya, an'anaviy qadriyatlar, qadriyatlar transformatsiyasi, Internet, ijtimoiy tarmoqlar, madaniy idrok, ijtimoiy me'yorlar, milliy o'zlik, madaniy meros, raqamli globallashuv, avlodlararo tafovut, raqamli madaniyat.

Abstract: This article analyzes the impact of the digital communication environment on the transformation of traditional values, with particular attention to the role of the Internet and social networks in shaping cultural perceptions and social norms. The study focuses on the interaction between local cultural values and global digital trends, the reinterpretation of national identity, the transformation of family values, and the growing intergenerational gap. It also examines the mechanisms through which algorithmic recommendation systems, digital communities, and personalized social media content influence users' cultural perceptions and value orientations. Particular attention is given to the adaptation of traditional values to the digital environment, the digitalization of cultural heritage, and the role of education and state initiatives in preserving national and cultural identity. The study concludes that developing constructive dialogue between traditions and digital innovations is an important condition for maintaining cultural sustainability in contemporary society.
Key words: digital communication, traditional values, value transformation, Internet, social networks, cultural perception, social norms, national identity, cultural heritage, digital globalization, intergenerational gap, digital culture.

Аннотация: В статье анализируется влияние цифровой коммуникационной среды на трансформацию традиционных ценностей, а также роль Интернета и социальных сетей в изменении культурного восприятия и социальных норм. Особое внимание уделяется взаимодействию локальных культурных ценностей с глобальными цифровыми тенденциями, переосмыслению национальной идентичности, трансформации семейных ценностей и усилению межпоколенческих различий. Раскрываются механизмы воздействия алгоритмических рекомендательных систем, цифровых сообществ и персонализированного контента социальных сетей на культурные установки и ценностные ориентации пользователей. Рассматриваются также возможности адаптации традиционных ценностей к цифровой среде, цифровизации культурного наследия, а также роль образования и государственных инициатив в сохранении национально-культурной идентичности. В результате обосновывается необходимость формирования конструктивного диалога между традициями и цифровыми инновациями как важного условия сохранения культурной устойчивости современного общества.
Ключевые слова: цифровая коммуникация, традиционные ценности, трансформация ценностей, Интернет, социальные сети, культурное восприятие, социальные нормы, национальная идентичность, культурное наследие, цифровая глобализация, межпоколенческие различия, цифровая культура.

KIRISH

So‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, aholining 70% dan ortig‘ini qamrab olgan global raqamlashtirish zamonaviy jamiyatning madaniy landshaftini tubdan o‘zgartiradi. Ushbu jarayon o‘rnatilgan an’anaviy qadriyatlar va Internet platformalari orqali tarqatiladigan universal raqamli tendensiyalar o‘rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Mahalliy madaniy me’yorlar global rivoyatlarga tobora ko‘proq duch kelmoqda, bu esa madaniyatni idrok etishning gibrid modellarini shakllantirishga olib keladi. Bunday o‘zgarishlar ularning chuqurligi va oqibatlarini tushunish uchun puxta ilmiy tushunishni talab qiladi. Ushbu muammo ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotga keng kirib borishi sharoitida ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda. Raqamli texnologiyalar nafaqat aloqa usullarini o‘zgartiradi, balki madaniy o‘ziga xoslik haqidagi asosiy tushunchalarni faol ravishda qayta formatlaydi. Oila yoki milliy jamoalar kabi an’anaviy institutlar yangi haqiqatlarga moslashish muammosiga duch kelishadi. Globallashgan axborot makoni ta’siri ostida qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqish qanday sodir bo‘lishini aniq tahlil qilish zarurati globalizatsiya jarayonida tug‘iladi.

Ijtimoiy tarmoqlarning ishlashi ortidagi algoritmik mantiq haqiqiy madaniy me’yorlarning asta-sekin xiralashishiga olib keladi. Bu hodisa, ayniqsa, dunyoqarashi shaxsiylashtirilgan raqamli kontentning doimiy ta’siri ostida shakllanadigan yoshlar orasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Foydalanuvchilarni jalb qilishga qaratilgan platforma algoritmlari ko‘pincha mahalliy an’analarga zarar yetkazadigan universal tendensiyalarni targ‘ib qiladi. Natijada avlodlararo qadriyatlarni uzatish inqirozi yuzaga keladi, bunda keksa va yosh avlodlar turli madaniy maydonlarda bo‘ladi. Ushbu inqiroz kundalik amaliyotda namoyon bo‘ladi, bu yerda raqamli aloqa an’anaviy aloqa va ijtimoiylashuv shakllarini almashtiradi. Madaniy tajribaning tabiiy tarjima mexanizmlari yo‘qoladi, bu esa jamoalarning jamoaviy xotirasining parchalanishiga olib keladi. Raqamli muhitda tarbiyalangan yoshlar ko‘pincha an’analarni zamonaviy voqelikka mos kelmaydigan arxaik narsa sifatida qabul qilishadi. Bu madaniy merosni saqlab qolish uchun jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi va qadriyat yo‘nalishlarini tarbiyalashda yangi yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ushbu tadqiqotning maqsadi aniq holatlarni batafsil tahlil qilish orqali raqamli platformalarning madaniy naqshlarga ta’sir qilish mexanizmlarini dekonstruksiya qilishdir. Ish Internet texnologiyalari ta’siri ostida an’anaviy qadriyatlarni o‘zgartirishga yordam beradigan asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan. Ijtimoiy media algoritmlari mahalliy an’analar va global tendensiyalar elementlarini birlashtirgan yangi madaniy duragaylarni qanday shakllantirishini o‘rganishga alohida e’tibor qaratiladi. Topilmalar raqamlashtirish sharoitida madaniy o‘ziga xoslikni saqlash strategiyasini ishlab chiqishga imkon beradi. Tadqiqot sotsiologiya, madaniyatshunoslik va raqamli tadqiqotlar usullarini birlashtirgan fanlararo yondashuvga tayanadi. Ommabop ijtimoiy platformalarning O‘zbekiston madaniy me’yorlariga ta’siri holatlari empirik asos bo‘lib xizmat qiladi. Tahlil foydalanuvchi faoliyati to‘g‘risidagi miqdoriy ma’lumotlarni ham, qadriyatlarni idrok etishdagi o‘zgarishlarni sifatli o‘rganishni ham o‘z ichiga oladi. Bunday keng qamrovli uslubiy vositalar madaniy landshaft o‘zgarishlarining tabiati to‘g‘risidagi xulosalarning chuqurligi va ishonchliligini ta’minlaydi.

Ushbu ish an’analar va innovatsiyalarni uyg‘unlashtirish uchun amaliy yechimlarni taklif qilish orqali zamonaviy ijtimoiy-madaniy tadqiqotlarga muhim hissa qo‘shadi. Tahlil madaniy merosni raqamli davr sharoitlariga uning haqiqiyligini yo‘qotmasdan moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga imkon beradi. An’anaviy qadriyat tashuvchilari va raqamli kontent yaratuvchilari o‘rtasidagi konstruktiv muloqot imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratiladi. Taklif etilayotgan strategiyalar Internet makonining milliy xususiyatlarini ham, global rivojlanish tendensiyalarini ham hisobga oladi. Tadqiqotlar natijasida 2023-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, aholining 70% dan ortig‘i foydalanadigan ijtimoiy tarmoqlarning tez tarqalishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu madaniy o‘zgarishlarni tezlashtiradi. Ish natijalari sotsiologiya va madaniyatshunoslik bo‘yicha fanlararo munozaralarga yordam beradi va madaniy merosni saqlash bo‘yicha ta’lim dasturlari va davlat tashabbuslarini ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin. Shunday qilib, tadqiqot raqamli asrda madaniy jarayonlar dinamikasini tushunish uchun yangi istiqbollarni ochib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

An’anaviy qadriyatlar tushunchasi arxaik jamiyatlardan boshlab sezilarli o‘zgarishlarga duch keldi, ular mifologik ong va marosim amaliyotlari ta’siri ostida shakllanib, ijtimoiy birdamlik va tajribani uzatishni ta’minladi. Sanoatdan oldingi jamiyatlarda bu qadriyatlar diniy dogmalar, oilaviy asoslar va jamoat me’yorlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, o‘ziga xoslikni shakllantirish va xatti-harakatlarni tartibga solish uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Ular ierarxiyani, ijtimoiy rollarni va shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir usullarini belgilab, hayot uchun barqaror koordinatalar tizimini yaratdilar. Sanoat va postindustrial davrlarga o‘tish va oqilona fikrlash va dunyoviylashtirishning rivojlanishi bilan an’anaviy qadriyatlar qayta ko‘rib chiqila boshlandi.

Zamonaviy talqinlar ko'pincha globallashuv sharoitida madaniy meros, milliy o'ziga xoslik va axloqiy ko'rsatmalarni saqlashdagi roliga qaratilgan. Raqamlashtirish jarayoni, o'z navbatida, jamiyatdagi global o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu ijtimoiy maqsadlar va qadriyatlarni qayta ko'rib chiqishga, shuningdek, kommunikativ modellarning o'zgarishiga olib keladi.

Tarix davomida ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlar tufayli qadriyat tizimlarining barqaror elementlari va o'zgaruvchan jihatlari dinamikasi kuzatilmoqda. Masalan, oilaning jamiyatning asosiy hujayrasi sifatidagi qadriyati nisbatan barqaror bo'lib qoldi, ammo uning tuzilishi va funksiyalari kengaytirilgan qabila jamoalaridan yadro oilalariga aylandi. Xuddi shunday, oqsoqollarga hurmat va ajdodlarga hurmat saqlanib qolgan, ammo ularning ifoda shakllari madaniy kontekstga qarab o'zgargan. Turli tarixiy davrlarda qadriyatlar ierarxiyasi va ularning ustun shakllari ham o'zgargan. O'rta asrlarda diniy qadriyatlar markaziy o'rinni egallagan bo'lsa, Ma'rifat davrida e'tibor aql va individual erkinlikka o'tdi. Zamonaviy davr siyosiy, iqtisodiy, ekologik va madaniy tushunchalarning o'zgarishi ularning dinamikasi va barqarorligini yangi tushunishni talab qiladigan qadriyatlar va qadriyatlar tizimining inqiroziga olib kelishi bilan tavsiflanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Internet zamonaviy jamiyatda o'rnatilgan madaniy paradigmalar va qadriyat yo'nalishlarini qayta ko'rib chiqishga yordam beradigan kuchli katalizator vazifasini bajaradi. Uning ta'siri ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy almashinuvning yangi shakllarini shakllantirishda namoyon bo'ladi, bu norma va qadriyat haqidagi an'anaviy g'oyalarning o'zgarishiga olib keladi. Raqamli texnologiyalar mahalliy va global o'rtasidagi chegaralar tobora xiralashib borayotgan madaniy makonni qayta sozlash uchun sharoit yaratadi. Bu "yosh avlod o'z hayotini amalga oshirishning ko'plab usullari, sohalari mavjudligini, qiymat-semantik me'yorlar darajasidan maqsadlarni belgilash va faoliyat strategiyasiga qadar va har bir amalga oshirish sohasi yagona mumkin emasligini" ko'rishiga olib keladi.

Raqamli muhitga xos bo'lgan bunday o'zgaruvchanlik va xilma-xillik "shaxsning o'zini o'zi anglashi uchun qiymat-semantik kontekstning muqarrar devalvatsiyasiga" yordam beradi [3, V. 74], bu Internetning individual va jamoaviy qadriyatlarga chuqur ta'sirini ta'kidlaydi. Raqamli texnologiyalar axborot va madaniy kontent bilan o'zaro munosabatlarning yangi shakllarini taklif qilish orqali an'anaviy idrok va aloqa modellarini faol ravishda qayta qurmoqda. Bu bilim olish usullarini o'zgartirish, jamoatchilik fikrini shakllantirish va madaniy naqshlarni tarqatishda namoyon bo'ladi. Internet turli xil madaniy hodisalarga misli ko'rilmagan kirishni ta'minlaydi, bu ularning duragaylanishi va interpenetratsiyasiga yordam beradi.

Ta'kidlanganidek, milliy o'ziga xoslik barqarorligini yo'q qilishda, shu jumladan, geografik harakatchanlikning o'sishiga, ma'lumotlarga kirishga, oqimlar va g'oyalarning o'zaro kirib borishiga va turli madaniyat vakillari bilan aloqani saqlab qolish imkoniyatiga olib kelgan jadal texnik rivojlanish muhim rol o'ynadi. [11, V. 100]. Shunday qilib, Internet nafaqat aloqa usullarini o'zgartiradi, balki globallashuv sharoitida madaniy o'ziga xoslikni shakllantirish va qayta ko'rib chiqishga faol ta'sir ko'rsatadi.

Virusli kontent madaniy naqshlarni ijtimoiy mediada tarqatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Uning yuqori tarqalish tezligi foydalanuvchilarni madaniy jarayonlarga ommaviy jalb qilishni ta'minlaydi. Hissiy infeksiya translyatsiya qilingan me'yorlar va qadriyatlarni tezda o'zlashtirishga yordam beradi. Ushbu mexanizm madaniy namunalarga qisqa vaqt ichida global auditoriyaga erishish imkonini beradi. Virusli kontentning samaradorligi uning foydalanuvchilarda kuchli hissiy reaksiyalarni keltirib chiqarish qobiliyatiga asoslanadi. Ushbu reaksiyalar faollikni oshiradi va ma'lumotlarning ixtiyoriy ravishda tarqalishiga yordam beradi. Shunday qilib, madaniy me'yorlar ijtimoiy ma'qullash va taqlid qilish mexanizmlari orqali tarqaladi. Natijada an'anaviy qadriyatlarning xulq-atvori va idrokining yangi modellari shakllanadi. Raqamli hamjamiyatlar o'z-o'zini tashkil qilish va jamoaviy o'zaro ta'sir qilish amaliyotlari uchun sharoit yaratadi. Ushbu jamoalarda ishtirokchilarning birgalikdagi faoliyati orqali yangi madaniy naqshlar shakllanmoqda.

"Tadqiqotchilar kiber makonni madaniyatning o'ziga xos sotsializatsiya segmenti sifatida tavsiflaydilar, chunki u hozirda ilmiy, ta'lim, ijtimoiy-madaniy, siyosiy, savdo faoliyati bilan bog'liq jarayonlarning muhim qismini amalga oshirmoqda [9, V. 231]." Ushbu jarayon barqaror madaniy modellarning paydo bo'lishiga yordam beradi. Raqamli jamoalarda o'z-o'zini tashkil etish o'zaro ta'sirning umumiy normalari va qoidalarini ishlab chiqishga olib keladi. Ushbu me'yorlar ko'pincha an'anaviy qadriyatlar va yangi raqamli amaliyotlarning gibridlanishini aks ettiradi. Ishtirokchilarning jamoaviy harakatlari jamiyatning madaniy o'ziga xosligini shakllantirishni kuchaytiradi. Natijada raqamli muhitga moslashtirilgan noyob madaniy naqshlar paydo bo'ladi.

Shaxsiylashtirilgan ijtimoiy media yangiliklar lentalari filtr pufakchalari deb ataladigan narsalarni hosil qiladi. Ushbu algoritmik tizimlar foydalanuvchining oldingi o'zaro ta'siri asosida kontentni tanlab, individual axborot muhitini yaratadi. Natijada foydalanuvchilar asosan mavjud qarashlari va afzalliklariga mos keladigan kontentga duch kelishadi. Ushbu mexanizm ba'zi foydalanuvchilar guruhlarida an'anaviy qadriyatlarni kuchaytirishi mumkin, shu bilan birga ularni boshqalarida zaiflashtiradi. Kontentni algoritmik tanlashda ustuvorlik

berish ma'lum semantik naqshlarni birinchi o'ringa qo'yadigan murakkab matematik modellarga asoslanadi. Ushbu algoritmlar raqamli makonda madaniy mahsulotlar va g'oyalarning ko'rinishini aniqlaydi. Tadqiqotchi ta'kidlaganidek, "ijtimoiy platformalar algoritmlari madaniy rivoyatlarni shakllantirishda asosiy agentlarga aylanadi". Bunday tanlov madaniy imtiyozlarni o'zgartiradi, chunki foydalanuvchilar tizim tomonidan taqdim etilgan kontent bilan tez-tez o'zaro aloqada bo'lishadi. Tavsiya tizimlari ko'rish vaqtlari, yoqtirishlar va repostlarni o'z ichiga olgan ko'plab omillarni hisobga oladi. Tanlangan kontentga doimiy ta'sir qilish madaniy me'yorlarni idrok etishni asta-sekin o'zgartiradi. Virusli va ommabop materiallarning ustuvorligi ma'lum qadriyat munosabatlarini tarqatishga yordam beradi. Shunday qilib, algoritmlar nafaqat raqamli muhitda madaniy tendensiyalarni aks ettiradi, balki faol ravishda shakllantiradi.

Tavsiya tizimlari ixtisoslashgan bo'shliqlarni yaratish orqali madaniy landshaftning parchalanishiga yordam beradi. Turli xil imtiyozlarga ega foydalanuvchilar o'zlarini izolyatsiya qilingan axborot maydonlarida topadilar. Bu dominant madaniy me'yorlardan sezilarli darajada farq qilishi mumkin bo'lgan ko'plab qadriyat tizimlarining shakllanishiga olib keladi. Natijada jamiyat madaniy plyuralizmning kuchayishiga duch keladi, lekin ayni paytda yagona qadriyat maydonining parchalanishi kuzatiladi. Ijtimoiy tarmoqlar O'zbekistonda oilaviy qadriyatlarning o'zgarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, bu ayniqsa ota-onalar jamoalarida seziladi. Raqamli platformalar ota-onalar o'rtasida tajriba almashish va qo'llab-quvvatlash uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu bilan birga, ular oilaviy xatti-harakatlar va bolalarni tarbiyalashning muqobil modellarini shakllantiradilar.

Tadqiqot natijasida "ko'pchilik o'zbeklar an'anaviy qadriyatlar deganda oilaviy qadriyatlarni tushunishadi, aksariyat hollarda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat" [1, V. 1791]. Ijtimoiy tarmoqlardagi ota-onalar jamoalari ko'pincha ota-onalarning an'anaviy yondashuvlarini muhokama qilish va qayta ko'rib chiqish uchun maydonga aylanadi. Bunday onlayn guruhlarning mashhurligi oilaviy amaliyotlarni zamonaviy voqelikka moslashtirishga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, bilimlarni kengaytirish shaklida ham ijobiy ta'sir, ham real bo'lmagan umidlarni shakllantirish xavfi mavjud. Ushbu jarayon o'rnatilgan normalar va yangi raqamli aloqa modellari o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sirni aks ettiradi.

Ijtimoiy media vatanparvarlik hashtag-kampaniyalari va memetik kontent orqali milliy o'ziga xoslikni qayta ko'rib chiqishda muhim rol o'ynaydi. Shunga o'xshash tashabbuslar jamiyatni umumiy ramzlar va tarixiy voqealar atrofida birlashtirish uchun faol foydalanilmoqda. Vatanparvarlik mazmunining virusli tarqalishi millat haqida jamoaviy g'oyalarni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu hodisa raqamli texnologiyalar vatanparvarlik tuyg'ularini ifoda etish usullarini qanday o'zgartirishini namoyish etadi. Milliy mavzular bilan bog'liq memetik kontent ko'pincha murakkab tarixiy va madaniy tushunchalarni soddalashtiradi va ularni keng auditoriyaga yanada qulayroq qiladi. Biroq, taqdimotning bunday shakli vatanparvarlik qadriyatlarini yuzaki idrok etishga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston kontekstida vatanparvarlik tarbiyasi sohasida davlat tashabbuslarini ilgari surish uchun ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish kuzatilmoqda. Shunday qilib, raqamli muhit milliy o'ziga xoslik haqidagi an'anaviy tushunchalarni qayta formatlash uchun muhim maydonga aylanadi. Raqamli aloqa oila ichidagi o'zaro ta'sirning xususiyatini sezilarli darajada o'zgartiradi, kontaktlarning bir qismini jismoniy makondan virtual makonga o'tkazadi. Bu yangi aloqa naqshlarining shakllanishiga olib keladi, bunda to'g'ridan-to'g'ri muloqot xabar almashish va videoqo'ng'iroqlar bilan almashtiriladi. Bunday o'zgarishlar oilaviy munosabatlar dinamikasiga ta'sir qiladi, bu esa aloqani saqlashning yangi shakllariga moslashishni talab qiladi. Oila ichidagi aloqani virtualizatsiya qilish ham aloqalarni masofadan turib saqlashga yordam beradi, ham oflayn rejimda birgalikda o'tkaziladigan vaqtni kamaytiradi. Natijada oila a'zolari uzoq qarindoshlari bilan ko'proq aloqani his qilishlari mumkin, ammo yaqin atrofdagilar bilan bevosita muloqot qilmasliklari mumkin. Bu oilaviy birlikning an'anaviy shakllarini saqlab qolish uchun yangi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Onlayn platformalar an'anaviy tushunchalardan tashqari oilaviy munosabatlarning muqobil modellarini shakllantirishga faol hissa qo'shmoqda. Raqamli bo'shliqlar odamlarga o'z qarashlari bilan o'rtoqlashadigan jamoalarda qo'llab-quvvatlash va tushunishni topishga imkon beradi, bu esa nikoh va ota-ona rollari haqidagi shaxsiy tushunchalarga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu platformalar o'z-o'zini aniqlash va har doim ham qabul qilingan me'yorlarga mos kelmaydigan hayot yo'lini tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu o'zgarishlar kontekstida "raqamli dunyoda sotsializatsiya ijtimoiy institutlarning inson hayotidagi o'rni va o'rnini o'zgartirish, shuningdek, inson hayoti xavfsizligi muammosining kuchayishi bilan bog'liq". Bunga "axloqiy xususiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarning mavjudligi, tarmoqdagi aloqa madaniyatining past darajasi, shuningdek, yoshligidan kengaytirilgan haqiqat va achieve mantig'i bilan ishlash tajribasiga ega bo'lgan bolalar avlodida qadriyatlarni shakllantirish muammolari, bu deviant xatti-harakatlarning o'sishi, avlodlararo nizolarning kuchayishi, rivojlanishning individuallashuvidagi qiyinchiliklar [10, c. 362]" deb ta'kidlanadi. Shunday qilib, raqamli texnologiyalar nafaqat oila haqidagi tushunchalarni kengaytiribgina qolmay, balki jamiyat uchun qadriyatlarni shakllantirish va deviant xatti-harakatlarning oldini olishda yangi muammolarni keltirib chiqaradi.

Global raqamli media milliy chegaralarni xiralashtirishga yordam beradigan intensiv madaniyatlararo o'zaro ta'sir uchun sharoit yaratadi. Kontentni Internet platformalari orqali tarqatish global miqyosda madaniy xususi-

yatlarning o‘rtacha darajasiga olib keladi. Milliy o‘ziga xoslikning noyob elementlari birlashgan global tendensiyalar ta’siri ostida tekislanadi. Bu jarayon bir xil madaniy landshaftni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Raqamli globallashuv sharoitida mahalliy an’analar va xalqaro madaniy naqshlar o‘rtasida ziddiyat yuzaga keladi. Ushbu qarama-qarshilik turli madaniy tizimlarning elementlarini birlashtirgan o‘ziga xoslikning murakkab gibrid shakllarining paydo bo‘lishini rag‘batlantiradi. Shaxslar milliy o‘ziga xoslikni saqlash va global hamjamiyatga integratsiyalashuvning ikkitomonlamaligiga moslashishga majbur. Bunday sintetik modellar an’anaviy qadriyatlarni yangi madaniy haqiqatlar bilan uyg‘unlashtirishga urinishlarni aks ettiradi. Ijtimoiy media transmilliy tarmoqlar ta’sirida milliy qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqish uchun asosiy maydon sifatida ishlaydi. Foydalanuvchilar global munozaralarda ishtirok etadilar, bu esa madaniy mansublik haqidagi g‘oyalarni o‘zgartirishga olib keladi. Raqamli jamoalar xalqaro tajriba obyekti orqali an’anaviy identifikatsiya tushunchalarini qayta ko‘rib chiqish uchun katalizatorga aylanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning interaktiv tabiati qarzga olingan elementlarni birlashtirgan milliy ifodaning yangi shakllarini yaratishga imkon beradi. Ushbu jarayon globallashuv muammolariga javob beradigan adaptiv identifikatsiya modellarining rivojlanishiga yordam beradi. Shunday qilib, raqamli platformalar zamonaviy dunyoda milliy o‘ziga xoslikni dekonstruksiya qilish va qayta qurish vositasi sifatida ishlaydi.

Raqamlashtirish madaniy sintez jarayonlarining katalizatori bo‘lib xizmat qiladi, bu esa badiiy va xulq-atvor amaliyotlarining yangi gibrid shakllari paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu ilgari alohida-alohida mavjud bo‘lgan janrlar, uslublar va urf-odatlarning aralashuvida namoyon bo‘lib, noyob madaniy ko‘rinishlarni shakllantiradi. Internet muhiti g‘oyalar va ijodiy yechimlarning tez almashinuviga yordam beradi, bu muqarrar ravishda ularning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zgarishiga olib keladi. Natijada global o‘zaro ta’sir va mahalliy xususiyatlarni aks ettiruvchi yangi madaniy hodisalar paydo bo‘ladi. Avlodlar o‘rtasidagi raqamli kompetensiyalardagi farqlar madaniy me’yorlarni idrok etishdagi avlodlararo tafovutni sezilarli darajada chuqurlashtiradi. Katta avlod odatda raqamli muhitga kamroq moslashgan bo‘lib, bu yoshlar orasida mashhur bo‘lgan madaniy ifodaning yangi shakllarini tushunishni qiyinlashtiradi. Bu an’anaviy qadriyatlarni yetkazish va talqin qilishda to‘siqlarni keltirib chiqaradi, chunki ularni ifodalash va talqin qilish usullari sezilarli darajada o‘zgaradi. Natijada har biri o‘z me’yorlari va ko‘rsatmalariga ega bo‘lgan ikkita parallel madaniy voqelik shakllanadi.

Onlayn platformalar madaniy merosni avlodlar o‘rtasida yetkazishning an’anaviy mexanizmlarini tubdan o‘zgartiradi. Agar ilgari bu jarayon asosan bevosita muloqot va oilaviy marosimlar orqali amalga oshirilgan bo‘lsa, endi ma’lumotlar va madaniy namunalarining katta qismi raqamli kanallar orqali uzatiladi. Bu nafaqat merosning shaklini, balki mazmunini ham o‘zgartirib, uni yanada parchalangan holga keltiradi va global tendensiyalar ta’sirini kuchaytiradi. Shunday qilib, Internet madaniy uzluksizlik jarayonida asosiy vositachiga aylanadi. Yoshlar Internet submadaniyatlari ko‘pincha an’anaviy qadriyat modellari bilan raqobatlashadigan muqobil me’yoriy tizimlarni faol ravishda shakllantirmoqda. Raqamli makonda paydo bo‘layotgan va rivojlanayotgan ushbu submadaniyatlar dunyo, axloq va estetika bo‘yicha o‘ziga xos qarashlarni taklif etadi. Ular o‘zlarining xulq-atvor qoidalari, ramzlari va tillarini yaratadilar, ular katta avlod vakillari uchun tushunarsiz yoki qabul qilib bo‘lmaydigan bo‘lishi mumkin. Ushbu hodisa an’anaviy qadriyatlarning kelajagi to‘g‘risida munozaralarni keltirib chiqaradigan o‘rnatilgan madaniy va ijtimoiy me’yorlarni qayta baholashga olib keladi. Raqamli arxivlar va onlayn muzeylar moddiy madaniy merosni hujjatlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular artefaktlarning raqamli shaklda saqlanishini ta’minlaydi, bu esa jismoniy halokat tufayli ularning yo‘qolishining oldini oladi. Ushbu texnologiyalar masofadagi foydalanuvchilar uchun madaniy obyektlarga kirishni kengaytirish imkonini beradi. “Raqamli obyektlar ilmiy, tadqiqot, ta’lim, tijorat va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi [8, V. 134].” Onlayn platformalar orqali madaniy merosni ommalashtirish jamiyatning an’anaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi xabardorligini oshirishga yordam beradi. Muzeylarning virtual ko‘rgazmalari geografik to‘siqlarni yengib, madaniy boyliklarni global auditoriyaga taqdim etadi. Bu madaniyatlararo muloqot va bilim almashish uchun sharoit yaratadi. Shunday qilib, raqamli vositalar madaniy merosni saqlash strategiyasining ajralmas qismiga aylanadi.

An’anaviy amaliyotlarni raqamli muhitga moslashtirish interaktiv ta’lim resurslarini ishlab chiqish orqali amalga oshiriladi. Ushbu resurslarga virtual seminarlar, onlayn xalq hunarmandchiligi kurslari va interaktiv o‘quv modullari kiradi. Bunday formatlar an’anaviy bilimlarni yangi avlodlarga qulay shaklda yetkazish imkonini beradi. Ular nomoddiy madaniy merosni saqlashga hissa qo‘shib, uning zamonaviy dunyodagi dolzarbligini ta’minlaydi. Tarixiy obyektlar va voqealarning virtual rekonstruksiyalari madaniy kontekstga sho‘ng‘ish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. 3D modellashtirish va virtual reallik texnologiyalari yo‘qolgan yodgorliklar va an’anaviy amaliyotlarni qayta tiklaydi. Bu nafaqat madaniy merosni saqlab qoladi, balki uni o‘rganishga qiziqish uyg‘otadi. An’anaviy elementlarning raqamli makonga integratsiyalashuvi madaniy davomiylikning yangi shakllarini shakllantiradi. Madaniy o‘ziga xoslik modullarini ta’lim dasturlariga integratsiya qilish an’anaviy qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Raqamli simulyatorlar va ish jarayonlari o‘quvchilarga interaktiv o‘zaro ta’sir orqali madaniy meros haqida chuqur fikr yuritish imkonini beradi. Ushbu vositalar tadqiqot ma’lumotlari bilan tasdiqlangan qadriyatlarga shaxsiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.

Ilmiy ishlarda ta'kidlanganidek: "qadriyat shaxsning ma'naviy tayanchiga aylanishi va uning axloqiy konfiguratsiyasining bir qismi sifatida kirishi uchun uning haqiqiy hissiy tushunchasi, uning mazmunini qandaydir ichki tushunish, uning to'g'riligiga shaxsiy ishonch muhim ahamiyatga ega. O'z talqini, oddiy narsa, undan voz kechish mumkin emas [3, V. 75]." Ushbu ta'lim texnologiyalarini joriy etish ta'limning barcha darajalarida tizimli yondashuvni talab qiladi. An'anaviy pedagogik yondashuvlarni raqamli innovatsiyalar bilan birlashtirgan usullarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday integratsiya avlodlararo madaniy me'yorlarni idrok etishdagi tafovutlarni bartaraf etishga yordam beradi. Simulyatorlardan foydalangan holda amaliy mashg'ulotlar zamonaviy sharoitlarda an'anaviy qadriyatlarni qo'llashni talab qiladigan vaziyatlarni simulyatsiya qilish imkonini beradi.

Davlat media loyihalari etnik-madaniy tarkibni targ'ib qilish uchun striming platformalari va ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Ushbu tashabbuslar milliy merosni ommalashtiradigan arzon raqamli makonni yaratishga qaratilgan. Ixtisoslashtirilgan kontent ishlab chiqarishning zamonaviy media formatlariga moslashtirilishi uning yoshlar orasidagi dolzarbligini oshirmoqda. Ommabop tarmoqlarda materiallarni muntazam ravishda joylashtirish keng auditoriyani qamrab oladi. Mahalliy an'analar bo'yicha kraudsorsing ma'lumotlar bazalarini yaratish bo'yicha jamoat tashkilotlari faoliyatini rag'batlantirish davlat siyosatining muhim elementidir. Bunday loyihalar madaniy amaliyotlar to'g'risidagi turli xil bilimlarni to'plash imkonini beradi.

Ozarbayjon Respublikasi Prezident kutubxonasining tajribasi muvaffaqiyatli amalga oshirilgan loyihaga misol bo'la oladi: "Ozarbayjon Respublikasi Prezident kutubxonasining ma'lum muammolarga bag'ishlangan va nafaqat bibliografik va to'liq matnli ma'lumotlarni, balki multimedia resurslarini (fotosuratlar, videolar), arxiv hujjatlari va boshqa mamlakatlarning muzeylariga oid ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tarmoq konsolidatsiyalangan axborot resursini yaratish tajribasi [6, V. 292]." Bunday resurslarni yaratish noyob madaniy elementlarni saqlash va tarqatishga yordam beradi. An'analarni uyg'unlashtirish va raqamlashtirish nuqtayi nazaridan istiqbolli yo'nalishlardan biri gibrid madaniy shakllarni shakllantirishdir. Bunga raqamli rassomlarning an'anaviy hunarmandchilik egalari bilan hamkorligi orqali erishiladi, bu esa eski va yangi chorrahada noyob san'at asarlarini yaratish imkonini beradi. Bunday loyihalar an'anaviy texnikani qayta ko'rib chiqishga va ularni zamonaviy voqelikka moslashtirishga yordam beradi, yangi auditoriyani jalb qiladi va madaniy amaliyotlarning uzluksizligini ta'minlaydi. Bu kabi hamkorlik, shuningdek, raqamli muhit madaniy merosni yangicha talqin qilish uchun zamin bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tadqiqotga ko'ra, "shunday qilib, milliy o'ziga xoslikni ifodalashning aniqlangan tipologiyasi uning raqamli makonda aniq ishlashiga qaratilgan. Tarmoqdagi milliy o'ziga xoslikni loyihalash va taqdim etishning ko'rib chiqilgan turlari haqiqiy va virtual milliy o'ziga xoslikni yaratish usullarining farqini ta'kidlashga imkon berdi. Qo'llaniladigan usullarning maksimal soni Internet makoniga xosdir, bu yerda tasvirni juda yuqori intensivlik bilan loyihalash mumkin [10, V. 110]." Bu raqamli platformalarning an'analar va milliy o'ziga xoslikni aks ettirishning yangi usullarini yaratish imkoniyatlarini ta'kidlaydi.

Fanlararo tadqiqot dasturlarini ishlab chiqish an'analar va raqamli innovatsiyalarning o'zaro ta'sirini tushunishning asosiy elementidir. Immersiv texnologiyalarning marosimlar va udumlarni idrok etishga ta'sirini baholashga alohida e'tibor berilishi kerak. Bu raqamlashtirishning an'anaviy amaliyotlarning muqaddas va madaniy kontekstiga ijobiy va salbiy ta'sirini ochib beradi. Xalqaro raqamli platformalarni yaratish madaniy merosni saqlash bo'yicha global hamkorlik yo'lidagi muhim qadamdir. Bunday platformalar nomoddiy merosni saqlash strategiyalarini qiyosiy tahlil qilish, turli mamlakatlar va madaniyatlar o'rtasida tajriba va eng yaxshi amaliyotlarni almashish uchun xizmat qilishi mumkin. Bu universal yondashuvlarni ishlab chiqishga va muvaffaqiyatli modellarni mahalliy sharoitlarga moslashtirishga yordam beradi.

XULOSA

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning keng tarqalgan ta'siri bilan ajralib turadigan raqamli davr an'anaviy qadriyatlarni, jumladan, oilaviy aloqalar va milliy o'ziga xoslikni chuqur qayta ko'rib chiqishga olib keldi. Raqamli platformalar orqali uzatiladigan global narrativlar gibrid madaniy shakllarning paydo bo'lishiga yordam beradi, bunda mahalliy me'yorlar universal tendensiyalar bilan o'zaro ta'sirlashadi. Natijada tarixiy madaniy modellar sezilarli o'zgarishlarga uchraydi, bu tadqiqot natijalari bilan tasdiqlanadi. Ijtimoiy media algoritmlari madaniy me'yorlarni o'zgartirishning asosiy mexanizmlaridan biri bo'lib, jamoaviy qarashlarni qayta belgilaydigan virusli kontent va raqamli jamoalarni shakllantiradi. Ushbu texnologiyalar avlodlararo madaniy tajribani uzatishning an'anaviy kanallarini zaiflashtiradi va turli yosh guruhlari o'rtasida qadriyatlarni idrok etishda tafovutni yuzaga keltiradi. Bunday ta'sir zamonaviy jamiyatda madaniy idrokning shakllangan modellarini qayta formatlashga olib keladi.

Raqamli muhit ta'sirida an'anaviy qadriyatlarning o'zgarishi jiddiy ijtimoiy-madaniy oqibatlarga olib keladi, jumladan, an'anaviy me'yorlarning xiralashishi va avlodlararo tafovutning chuqurlashishi. Globallashgan Internet tomonidan kuchaytirilgan globallashuv jarayonlari madaniy merosni saqlab qolish uchun qiyinchiliklar tug'diradi, ayniqsa, noyob mahalliy o'ziga xosliklarning yo'qolishi sharoitida. Ushbu o'zgarishlar keng ko'lamli

raqamlashtirish sharoitida an'anaviy madaniy modellarning barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. An'anaviy qadriyatlar va raqamli muhitning uyg'un birgalikda yashashini ta'minlash uchun ta'lim va davlat tashabbuslariga asoslangan moslashuvchan strategiyalar zarur. Bunday yondashuvlar tarixiy meros va texnologik innovatsiyalar o'rtasidagi konstruktiv muloqotni rivojlantirishi hamda madaniy o'ziga xoslikni saqlab qolishni ta'minlashi kerak. Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi globallashuv davrida madaniy sohaning barqaror rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Александрова М. В., Зотова Д. М. Инновационное развитие сферы культуры и досуга на основе цифровой трансформации и создания технологических платформ // Цифровая экономика: проблемы и перспективы развития: сборник научных статей Межрегиональной научно-практической конференции, Курск, 14–15 ноября 2019 года. Т. 2. – Курск: Юго-Западный государственный университет, 2019. – С. 30–33.
2. Гатина Л. И. Цифровая трансформация государственного управления в сфере культуры в РТ // Научный альманах. – 2023. – № 6-2 (104). – С. 81–84.
3. Гиголаев Г. Ф., Цегоева Д. Г., Багаев Б. Э. Сфера культуры и её цифровая трансформация // Управленческий учет. – 2022. – № 6-3. – С. 477–482.
4. Shodiyev J. X. Siyosiy targ'ibot siyosiy manipulyatsiya vositasi sifatida // World Scientific Research Journal. – 2022. – Vol. 1, Issue 1. – March.
5. Shodiyev J. X. O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiya rivojlanishida raqamli transformatsiya siyosati // Academic Research in Educational Sciences. – 2021. – Vol. 2, No. 2. – B. 409–416. DOI: 10.24411/2181-1385-2021-00212
6. Shodiyev J. X. Siyosiy kommunikatsiyalar va fuqarolik jamiyatini o'rganishning nazariy va uslubiy asoslari // International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers. ISSN: 2945-4492 (online), SJIF = 7.502 Impact Factor.
7. Shodiyev J. X. Ijtimoiy-siyosiy faoliyat fuqarolik jamiyati rivojlanish // Innovative Development in Educational Activities. ISSN: 2181-3523. – 2024. – Vol. 3, Issue 3.
8. Shodiyev J. X. Davlat boshqaruvining raqamli o'zgarishi: imkoniyatlar va xavflar // Innovative Development in Educational Activities. ISSN: 2181-3523. – 2024. – Vol. 3, Issue 3.
9. Shodiyev J. X. Ijtimoiy muloqotning zamonaviy tushunchalari // Universal Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – Vol. 2, Issue 18. ISSN: 2992-8834.
10. Shodiyev J. X. G'oyaviy diskurs va ijtimoiy-siyosiy kommunikatsiyalar // Universal Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. ISSN: 2992-8834. Universal Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture.

PROFESSIONAL COMPETENCE OF SPECIALISTS WORKING WITH OLDER ADULTS: CONCEPTUAL REQUIREMENTS

Ikromova Sitora Akbarovna
Associate Professor, Asia International University

Abstract: The accelerating demographic transition towards population ageing has transformed the preparation of specialists who serve older adults from a marginal training issue into a central concern of social policy. This article reconstructs the conceptual architecture of professional competence in gerontological practice, drawing on four decades of scholarship in social gerontology, geriatric medicine, social work and adult education. The study applies a theoretical-analytical design: normative documents, competence frameworks and empirical findings published between 1970 and 2025 are compared in order to isolate the invariant components of such competence. The analysis yields a five-domain model that unites knowledge of ageing processes, instrumental skills, communicative capacity, ethical maturity and reflective self-regulation. It is argued that gerontological competence cannot be reduced to a checklist of procedures; it emerges as an integrative personal quality that develops through continuing professional education, supervised practice and sustained contact with older people themselves. The findings may inform curriculum design in universities that prepare social workers, nurses, psychologists and care managers.

Key words: professional competence, gerontology, older adults, social work, ageism, continuing education, care quality.

Annotatsiya: Aholining qarishi tomon jadallashayotgan demografik o'tish keksa yoshdagi insonlarga xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni tayyorlash masalasini chekka o'quv muammosidan ijtimoiy siyosatning markaziy masalalaridan biriga aylantirdi. Ushbu maqolada ijtimoiy gerontologiya, geriatrik tibbiyot, ijtimoiy ish va kattalar ta'limi sohalaridagi qirq yillik ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda gerontologik amaliyotdagi kasbiy kompetensiyaning konseptual arxitekturasi qayta ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda nazariy-tahliliy yondashuv qo'llanilgan: 1970-2025-yillarda nashr etilgan me'yoriy hujjatlar, kompetensiya modellari va empirik tadqiqot natijalari mazkur kompetensiyaning invariant tarkibiy qismlarini aniqlash maqsadida qiyoslanadi. Tahlil qarish jarayonlari haqidagi bilimlar, instrumental ko'nikmalar, kommunikativ salohiyat, axloqiy yetuklik va refleksiv o'zini o'zi boshqarishni birlashtiruvchi besh domenli modelni aniqlaydi. Gerontologik kompetensiyani muayyan amaliyotlar ro'yxatiga qisqartirib bo'lmasligi asoslanadi; u uzluksiz kasbiy ta'lim, nazorat ostidagi amaliyot va keksa insonlarning o'zlari bilan muntazam muloqot qilish orqali rivojlanadigan integrativ shaxsiy sifat sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari ijtimoiy xodimlar, hamshiralar, psixologlar va parvarish bo'yicha menejerlarni tayyorlaydigan universitetlarda o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: kasbiy kompetensiya, gerontologiya, keksa yoshdagi insonlar, ijtimoiy ish, eyjizm, uzluksiz ta'lim, parvarish sifati.

Аннотация: Ускоряющийся демографический переход к старению населения превратил подготовку специалистов, работающих с пожилыми людьми, из второстепенной проблемы профессионального обучения в один из центральных вопросов социальной политики. В данной статье реконструируется концептуальная архитектура профессиональной компетентности в геронтологической практике на основе четырёх десятилетий научных исследований в области социальной геронтологии, гериатрической медицины, социальной работы и образования взрослых. В исследовании применяется теоретико-аналитический подход: нормативные документы, модели компетенций и результаты эмпирических исследований, опубликованные в период с 1970 по 2025 год, сопоставляются с целью выявления инвариантных компонентов данной компетентности. Анализ позволяет выделить пятидоменную модель, объединяющую знания о процессах старения, инструментальные навыки, коммуникативные способности, этическую зрелость и рефлексивную саморегуляцию. Обосновывается, что геронтологическая компетентность не может быть сведена к перечню процедур; она представляет собой интегративное личностное качество, развивающееся посредством непрерывного профессионального образования, практики под супервизией и постоянного взаимодействия непосредственно с пожилыми людьми. Полученные результаты могут быть использованы при разработке учебных программ в университетах, осуществляющих подготовку социальных работников, медицинских сестёр, психологов и менеджеров по уходу.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, геронтология, пожилые люди, социальная работа, эйджизм, непрерывное образование, качество ухода.

INTRODUCTION

Few social processes of the present century are as predictable, and as poorly prepared for, as the ageing of populations. Demographic projections indicate that the share of persons aged sixty and above will rise from roughly one billion in 2020 to some 2.1 billion by mid-century[1], with the sharpest increases occurring in low- and middle-income states.

What this shift demands is not merely a larger workforce but a differently prepared one. Older clients present a configuration of needs that rarely fits the specialisms of a single discipline: chronic illness intersects with bereavement, restricted mobility with financial precarity, cognitive decline with the wish to remain autonomous. A specialist trained only in procedures will manage such situations poorly, because the decisive variable is judgement rather than technique[2]. It is precisely this observation that has moved the notion of professional competence to the centre of gerontological education.

The present article pursues three objectives. First, it traces how the understanding of competence in work with older adults has evolved since the founding studies of the 1970s. Second, it identifies the structural components that recur across otherwise divergent national frameworks. Third, it proposes an integrative model in which those components are related to one another rather than merely enumerated. The method is conceptual-analytical: rather than generating new empirical data, the study interrogates existing frameworks, curricula and research findings for their implicit assumptions about what a competent practitioner is.

LITERATURE REVIEW

The vocabulary of competence entered professional education through the work of D. McClelland (1973), who argued that conventional intelligence testing predicted occupational success far less reliably than behavioural indicators observed[3] in real working situations. Applied to the helping professions, this insight relocated the criterion of quality from what a specialist knows to what a specialist reliably does under conditions of uncertainty.

Gerontology absorbed the idea slowly. R. Butler (1969) had already named ageism as a systematic distortion of professional perception, showing that practitioners' attitudes towards old age operate as a determinant of care quality quite independently of their technical training. B. Neugarten (1974) contributed the distinction between the young-old and the old-old, which undermined the habit of treating persons over sixty as a homogeneous category. Somewhat later, P. Baltes and M. Baltes (1990) formulated the model of selective optimisation with compensation[4], offering practitioners a developmental rather than a deficit reading of later life. Taken together, these contributions supplied the conceptual ground on which competence frameworks could subsequently be built.

Institutional codification followed in the 1990s and 2000s. The Council on Social Work Education launched its Gero-Ed initiative and, through the work of J. Rosen and S. Zlotnik (2001), produced the first systematic inventory of gerontological competencies for social work. In nursing, P. Benner's (1984) novice-to-expert progression was adapted by the Hartford Institute for Geriatric Nursing to specify what expertise means at the bedside of an older patient. In Europe, the Bologna reforms encouraged learning-outcome formulations, while the World Health Organization's Integrated Care for Older People framework (2017) reframed competence around intrinsic capacity rather than diagnosis[5]. Russian and Central Asian scholarship, represented among others by N. Shakhmatov (1996) and later by O. Krasnova and A. Liders (2002), emphasised the psychological dimension: the practitioner's own attitude to ageing and mortality as a working instrument.

A recurring criticism deserves mention. Several authors, notably G. Cheetham and G. Chivers (1996), warned that competence frameworks tend to fragment professional activity into discrete observable acts and thereby lose the holistic judgement they were meant to capture. This objection is not fatal, but it imposes a requirement on any model proposed today: the components must be presented as interacting facets of a single capacity, not as an inventory to be ticked off[6].

1 United Nations, Department of Economic and Social Affairs. World Population Ageing 2020: Highlights. New York: UN, 2020, pp. 1–4.
2 Benner P. From Novice to Expert: Excellence and Power in Clinical Nursing Practice. Menlo Park: Addison-Wesley, 1984, p. 32.
3 McClelland D.C. Testing for Competence Rather Than for Intelligence // American Psychologist, 1973, Vol. 28, No. 1, pp. 1-14.
4 Baltes P.B., Baltes M.M. Psychological Perspectives on Successful Aging // Successful Aging: Perspectives from the Behavioral Sciences. Cambridge: Cambridge University Press, 1990, pp. 1-34.
5 World Health Organization. Integrated Care for Older People: Guidelines on Community-Level Interventions to Manage Declines in Intrinsic Capacity. Geneva: WHO, 2017, pp. 9-15.
6 Cheetham G., Chivers G. Towards a Holistic Model of Professional Competence // Journal of European Industrial Training, 1996, Vol. 20, No. 5, pp. 20-30.

RESEARCH METHODOLOGY

The study employed a theoretical-analytical and comparative approach. Normative documents, competence frameworks, curricula and empirical research findings published between 1970 and 2025 were analysed and compared. The analysis focused on identifying the key structural components of professional competence required for specialists working with older adults and integrating them into a unified conceptual model.

ANALYSIS AND RESULTS

Comparison of the frameworks surveyed above reveals a stable core of five domains. They are set out in Table 1, together with their behavioural indicators and the scholarly tradition from which each derives. The domains are ordered from the more codifiable to the more personal, but the sequence carries no hierarchy of importance: deficiency in the fifth domain disables the first four as reliably as ignorance of pharmacology disables clinical practice.

Table 1: **Five-domain structure of professional competence in work with older adults**

Domain	Substantive content	Typical behavioural indicator	Conceptual source
Gnostic (knowledge)	Biological, psychological and social regularities of ageing; geriatric syndromes; legal entitlements of older citizens	Distinguishes normative ageing from pathology; explains a diagnosis in accessible terms	Neugarten, 1974; Baltes & Baltes, 1990
Instrumental (technical)	Functional and cognitive assessment, care planning, rehabilitation methods, case management	Applies validated screening tools; revises the care plan when status changes	Benner, 1984; WHO ICOPE, 2017
Communicative	Adapted speech, active listening, work with sensory and cognitive limitation, family mediation	Verifies comprehension rather than assuming it; addresses the client, not the accompanying relative	Krasnova & Liders, 2002
Axiological (ethical)	Respect for autonomy, confidentiality, resistance to ageist stereotyping, end-of-life ethics	Obtains informed consent from the person with reduced capacity where possible; refuses paternalistic shortcuts	Butler, 1969; Beauchamp & Childress, 2001
Reflexive (self-regulatory)	Awareness of one's own attitudes to ageing and death, emotional regulation, burnout prevention, supervision	Uses supervision after difficult cases; recognises countertransference in reactions to a client	Cheetham & Chivers, 1996; Maslach, 2001

Two clarifications follow from the table. The gnostic domain is necessary but conspicuously insufficient: surveys of nursing and social work students conducted by M. Kane (2004) repeatedly found accurate factual knowledge of ageing coexisting with strongly negative attitudes towards older clients. Conversely, the reflexive domain is the least teachable through lectures and the most dependent on supervised practice, which explains why programmes that add gerontological content without adding placement hours show only modest attitudinal gains.

If the five domains describe the target state, the question becomes how educational systems attempt to reach it. Table 2 juxtaposes four influential frameworks, each formulated in a different institutional context, in order to show both their convergence and the gaps that remain.

Table 2: **Comparison of selected competence frameworks for work with older adults**

Framework and year	Institutional context	Primary emphasis	Principal limitation
CSWE Gero Competencies, 2001	Social work education, USA	Assessment, intervention and service coordination across the ageing continuum	Attitudinal and reflexive dimensions weakly operationalised
Hartford Geriatric Nursing Competencies, 2000	Nursing education, USA	Recognition of geriatric syndromes, medication safety, functional maintenance	Confined to clinical settings; limited attention to social context
European Core Competences for Health and Social Care, 2013	Cross-sectoral, European Union	Interprofessional collaboration and continuity of care	Generic formulation; ageing-specific content is thin
WHO ICOPE Competency Guidance, 2017–2019	Global public health	Intrinsic capacity, person-centred goal setting, community-level care	Presupposes infrastructure absent in many systems

The comparison exposes a shared blind spot. All four documents specify what the practitioner should be able to do, yet none specifies the conditions under which such capability is sustained over a career. Burnout research conducted by C. Maslach and M. Leiter (2001) demonstrates that competence degrades under chronic organisational strain[7], irrespective of initial preparation. A framework that ignores workload, supervision and institutional culture therefore describes an ideal that its own graduates cannot maintain.

The model proposed here treats the five domains as concentric rather than parallel. At the periphery lie the codifiable elements - factual knowledge and technique - which can be transmitted through instruction and verified through examination. Closer to the centre lie communication and ethical orientation, acquired chiefly through modelling and guided practice. At the core stands reflexivity, which cannot be transmitted at all but only cultivated, and which regulates the deployment of everything outside it. On this reading, a specialist who has mastered assessment instruments yet cannot tolerate the presence of decline will apply those instruments defensively, and the client will experience the encounter as processing rather than care.

Three practical implications follow. First, curricula should distribute contact hours according to the teachability of each domain rather than according to disciplinary convenience; the reflexive core requires supervision, not additional lectures. Second, assessment of competence should include observation in situ, since self-report correlates weakly with the attitudinal variables that matter most. Third, contact with older adults must be embedded early and repeatedly, because the evidence assembled since the contact hypothesis of G. Allport (1954)[8] indicates that structured, cooperative interaction reduces ageist stereotyping more effectively than any didactic intervention.

The limitations of this analysis should be stated plainly. It is conceptual rather than empirical, and the frameworks compared originate predominantly in high-income systems, which constrains their transferability to contexts where care for older people remains largely a family obligation. Validation of the proposed model in such settings - including the post-Soviet space, where institutional gerontological services are still consolidating - remains an open task.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

Professional competence in work with older adults is best understood not as a sum of qualifications but as an integrative quality in which knowledge, technique, communication, ethical orientation and self-regulation condition one another. The five-domain model advanced in this article organises requirements that are scattered across national frameworks and clarifies why programmes limited to informational content produce disappointing results. Ageing populations will not be served adequately by specialists who know a great deal about old age and remain uneasy in its presence; the decisive educational task is therefore to cultivate the reflexive core around which technical capability becomes humane practice.

References:

1. Allport G.W. The Nature of Prejudice. Cambridge, MA: Addison-Wesley, 1954. 537 p.
2. Baltes P.B., Baltes M.M. Psychological Perspectives on Successful Aging: The Model of Selective Optimization with Compensation // Successful Aging. Cambridge: Cambridge University Press, 1990, pp. 1-34.
3. Beauchamp T.L., Childress J.F. Principles of Biomedical Ethics. 5th ed. New York: Oxford University Press, 2001. 454 p.
4. Benner P. From Novice to Expert: Excellence and Power in Clinical Nursing Practice. Menlo Park: Addison-Wesley, 1984. 307 p.
5. Butler R.N. Age-Ism: Another Form of Bigotry // The Gerontologist, 1969, Vol. 9, No. 4, pp. 243-246.
6. Cheetham G., Chivers G. Towards a Holistic Model of Professional Competence // Journal of European Industrial Training, 1996, Vol. 20, No. 5, pp. 20-30.
7. Kane M.N. Ageism and Intervention: What Social Work Students Believe about Treating People Differently Because of Age // Educational Gerontology, 2004, Vol. 30, No. 9, pp. 767-784.
8. Krasnova O.V., Liders A.G. Social Psychology of Ageing. Moscow: Academia, 2002. 288 p.
9. Maslach C., Schaufeli W.B., Leiter M.P. Job Burnout // Annual Review of Psychology, 2001, Vol. 52, pp. 397-422.
10. McClelland D.C. Testing for Competence Rather Than for Intelligence // American Psychologist, 1973, Vol. 28, No. 1, pp. 1-14.
11. Neugarten B.L. Age Groups in American Society and the Rise of the Young-Old // The Annals of the American Academy of Political and Social Science, 1974, Vol. 415, pp. 187-198.
12. Rosen A.L., Zlotnik J.L. Social Work's Response to the Growing Older Population // Generations, 2001, Vol. 25, No. 1, pp. 69-71.
13. Shakhmatov N.F. Mental Ageing: Favourable and Pathological Forms. Moscow: Meditsina, 1996. 304 p.
14. United Nations, DESA. World Population Ageing 2020: Highlights. New York: United Nations, 2020. 47 p.
15. World Health Organization. Integrated Care for Older People (ICOPE): Guidance for Person-Centred Assessment and Pathways in Primary Care. Geneva: WHO, 2019. 84 p.

7 Maslach C., Schaufeli W.B., Leiter M.P. Job Burnout // Annual Review of Psychology, 2001, Vol. 52, pp. 397-422.
8 Allport G.W. The Nature of Prejudice. Cambridge, MA: Addison-Wesley, 1954, pp. 261-282.

THE EFFECT OF CORPUS-BASED LEARNING ON PSYCHOLOGY STUDENTS' PROFESSIONAL ENGLISH COMMUNICATION

Pulatova Durdona Ravshanovna
Associate Professor, DSc at the English Language Department, UzNPU

Abstract: The growing importance of English in psychological research, academic communication, and professional practice has increased the need for effective English for Specific Purposes (ESP) instruction among psychology students. Traditional ESP teaching methods often fail to provide learners with sufficient exposure to authentic disciplinary language. Corpus-based learning has emerged as an innovative pedagogical approach that enables students to analyze real-life language data and develop professional communication skills. This study investigates the effect of corpus-based learning on psychology students' professional English communication. The research examines how corpus tools contribute to vocabulary acquisition, discourse awareness, academic writing, and communicative competence. The findings indicate that corpus-based instruction significantly improves students' ability to use psychology-related terminology, understand professional texts, and communicate effectively in academic and professional contexts. The study concludes that corpus-based learning provides valuable opportunities for developing professional English communication among psychology students.

Key words: corpus-based learning, psychology students, ESP, professional communication, corpus linguistics, academic vocabulary, communicative competence, English language teaching.

Annotatsiya: Psixologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar, akademik muloqot va professional faoliyatda ingliz tilining ahamiyati ortib borayotganligi psixologiya talabalari uchun samarali ESP ta'limini tashkil etishni talab etmoqda. An'anaviy ESP metodlari ko'pincha talabalarga autentik kasbiy til namunalarini yetarli darajada taqdim eta olmaydi. Korpusga asoslangan ta'lim esa talabalarga real til materiallarini tahlil qilish va kasbiy kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beruvchi innovatsion yondashuv hisoblanadi. Ushbu maqolada korpusga asoslangan ta'limning psixologiya talabalari kasbiy ingliz tilidagi muloqotiga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqot korpus vositalarining terminologiyani o'zlashtirish, akademik yozuv, kasbiy diskursni tushunish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o'rnini tahlil qiladi. Natijalar korpusga asoslangan o'qitish psixologiyaga oid terminlardan foydalanish, professional matnlarni tushunish va akademik hamda kasbiy muloqotda samarali ishtirok etish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: korpusga asoslangan ta'lim, psixologiya talabalari, ESP, kasbiy muloqot, korpus lingvistikasi, akademik lug'at, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация: Возрастающая роль английского языка в психологических исследованиях, академическом общении и профессиональной деятельности требует внедрения эффективных методов обучения английскому языку для специальных целей (ESP) студентов-психологов. Традиционные методы обучения не всегда обеспечивают достаточный доступ к аутентичному профессиональному языку. Корпусно-ориентированное обучение представляет собой инновационный подход, позволяющий студентам анализировать реальные языковые данные и развивать профессиональные коммуникативные навыки. В статье рассматривается влияние корпусного обучения на профессиональную английскую коммуникацию студентов-психологов. Анализируется роль корпусных инструментов в освоении терминологии, развитии академического письма, понимании профессионального дискурса и формировании коммуникативной компетенции. Результаты показывают, что использование корпусного подхода значительно улучшает способность студентов использовать профессиональную лексику и эффективно общаться в академической и профессиональной среде.

Ключевые слова: корпусное обучение, студенты-психологи, ESP, профессиональная коммуникация, корпусная лингвистика, академическая лексика, коммуникативная компетенция.

INTRODUCTION

The twenty-first century has witnessed the rapid internationalization of higher education and scientific research. English has become the dominant language of academic publication, international conferences, and professional communication. Consequently, psychology students are increasingly expected to read scholarly

articles, participate in international research projects, and communicate effectively with professionals worldwide. Developing professional English communication skills has therefore become an essential component of psychology education [1].

English for Specific Purposes (ESP) aims to equip learners with language skills directly related to their academic and professional needs. However, many psychology students experience difficulties when communicating in English because of limited exposure to authentic professional language. Traditional teaching methods often emphasize grammar and isolated vocabulary items rather than contextualized language use [2].

Corpus linguistics has emerged as a powerful tool for addressing these challenges. A corpus is a collection of authentic texts stored electronically and analyzed using specialized software. Corpus-based learning enables students to investigate how language is used in real contexts, identify frequent lexical patterns, and explore professional discourse structures [3].

For psychology students, corpus analysis offers opportunities to examine authentic terminology such as cognitive behavior, emotional regulation, psychological assessment, mental health intervention, and working memory. Exposure to such language patterns contributes to the development of professional communicative competence [4].

This study investigates the effect of corpus-based learning on psychology students' professional English communication and examines its role in improving vocabulary acquisition, academic writing, and professional discourse competence.

LITERATURE REVIEW

Corpus-based approaches have become increasingly important in English for Specific Purposes (ESP) because they provide learners with access to authentic examples of language used in professional and academic contexts. Johns emphasized the value of data-driven learning, in which students independently examine corpus data and identify recurring linguistic patterns. Similarly, Sinclair demonstrated that corpus analysis enables learners to understand vocabulary not as isolated lexical units but as elements occurring within meaningful collocations and recurrent language structures.

In ESP research, Biber and Conrad highlighted the importance of analyzing discipline-specific registers and discourse patterns. Their studies showed that academic and professional fields employ distinctive lexical, grammatical, and discourse features that learners need to recognize in order to communicate effectively. For psychology students, this approach is particularly relevant because professional communication requires accurate use of specialized terminology, appropriate collocations, and familiarity with academic discourse conventions.

Flowerdew also demonstrated the pedagogical value of specialized corpora in academic and professional language instruction. Corpus-based activities can help learners identify frequently occurring terminology, phraseological patterns, reporting verbs, and common structures used in research writing. Such exposure contributes to the development of both receptive and productive language skills.

Pulatova and Egamberdieva further emphasized that corpus-based instruction can strengthen professional communicative competence by exposing students to authentic language materials. Their findings suggest that learners become more capable of selecting appropriate professional vocabulary and applying it effectively in academic and occupational contexts. Pulatova also noted the role of corpus-based learning in promoting learner autonomy, since students actively investigate linguistic data rather than relying exclusively on information provided by the teacher.

Thus, previous research indicates that corpus-based learning supports vocabulary acquisition, academic writing, discourse awareness, learner autonomy, and professional communicative competence. These findings provide a theoretical basis for examining the effectiveness of corpus-based instruction in developing psychology students' professional English communication.

RESEARCH METHODOLOGY

The study employed a qualitative and descriptive research design. The participants consisted of 40 undergraduate psychology students enrolled in an ESP course at a university.

A specialized psychology corpus was developed using journal articles, psychology textbooks, conference proceedings, and professional reports. The corpus contained approximately 500,000 words and represented authentic language used in contemporary psychological discourse.

The instructional process lasted eight weeks and involved corpus-based activities, including:

1. Frequency analysis of psychology terminology;
2. Concordance searches;

3. Collocation analysis;
4. Academic writing tasks;
5. Professional communication simulations.

Students used corpus tools to analyze frequently occurring psychological terms and identify authentic language patterns.

For example, students investigated the term anxiety and identified common collocations:

- anxiety disorder;
- social anxiety;
- anxiety symptoms;
- anxiety treatment;
- anxiety levels.

Similarly, learners explored the use of terms such as depression, therapy, cognition, and behavioral intervention in authentic contexts.

ANALYSIS AND RESULTS

The findings demonstrated significant improvements in students' professional English communication.

Table 1: **Effects of Corpus-Based Learning on Psychology Students' Professional English Communication**

Vocabulary Development	Students acquired a broader range of psychology-specific terminology. Corpus exploration enabled learners to understand not only word meanings but also their contextual usage and collocational behavior
Improvement in Academic Writing	Academic writing tasks revealed noticeable improvements in lexical accuracy and discourse organization. Before corpus instruction, students tended to write simple sentences such as: "Stress affects many people." After corpus-based activities, students produced more sophisticated academic expressions: "Chronic stress significantly influences psychological well-being and cognitive performance."
Increased Communicative Confidence	Students reported greater confidence when discussing psychological topics in English. Exposure to authentic professional discourse helped them participate more actively in classroom discussions and presentations.
Development of Professional Discourse Awareness	Corpus analysis enabled students to recognize common discourse patterns used in psychology research articles. Learners became more familiar with academic conventions, reporting verbs, and evidence-based argumentation.

The results indicate that corpus-based learning positively influences psychology students' professional English communication. These findings are consistent with previous research emphasizing the effectiveness of corpus linguistics in ESP education [3].

One of the most important benefits observed was the development of professional vocabulary. Rather than memorizing isolated terms, students learned how psychological concepts function within authentic discourse. This contextualized learning contributed to deeper understanding and more accurate language use [5].

The study also supports findings reported by Pulatova and Egamberdieva, who concluded that corpus-based instruction enhances professional communicative competence through authentic language exposure [6].

Similarly, Pulatova emphasized that corpus-based approaches improve learners' ability to communicate effectively in professional contexts [7].

Another significant outcome concerns learner autonomy. Corpus-based learning transformed students from passive recipients of information into active language researchers. Through independent exploration of language data, learners developed analytical and critical thinking skills that are essential for academic success [8].

Furthermore, psychology students benefited from increased awareness of discipline-specific discourse conventions. Corpus activities provided opportunities to observe how professional psychologists formulate arguments, describe research findings, and discuss theoretical concepts.

CONCLUSION AND SUGGESTIONS

The study demonstrates that corpus-based learning significantly improves psychology students' professional English communication. Through exposure to authentic language data, students develop discipline-specific vocabulary, academic writing skills, and professional discourse awareness.

Corpus-based instruction encourages learner autonomy, enhances communicative competence, and prepares students for successful participation in academic and professional communities. Therefore, integrating corpus linguistics into ESP programs for psychology students can contribute substantially to the development of professional communication skills required in the globalized world.

References:

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1-47.
2. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centered Approach. Cambridge University Press.
3. Sinclair, J. (1991). Corpus, Concordance, Collocation. Oxford University Press.
4. Biber, D., Conrad, S., & Reppen, R. (1998). Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge University Press.
5. Johns, T. (1991). From printout to handout: Grammar and vocabulary teaching in the context of data-driven learning. ELR Journal, 4, 27-45.
6. Pulatova, D. R., & Egamberdieva, F. O. (2022). Improving students' professional communicative competence based on corpus-based approach. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), Special Issue 2, 249-254.
7. Pulatova, D. (2023). Pedagogical opportunities in improving professional communicative competences. Science and Innovation, 2(B9), 160-163.
8. Pulatova, D. R. (2024). Exploring the use of corpus linguistics in EFL instruction. Inter Education & Global Study, 10(1), 256-260.

MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID JAHON TAJRIBALARI TAHLILI



Djabbarov Farrux Tirkashevich
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini takomillashtirish masalasi jahon tajribalari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi rivojlangan davlatlarning maktabgacha ta'lim menejmenti sohasidagi ilg'or yondashuvlarini o'rganish va ularni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Maqolada Finlyandiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Janubiy Koreya, Singapur va Germaniyaning rahbar kadrlarni tayyorlash tizimlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiq etilgan tajribalar asosida boshqaruv kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari - strategik, kommunikativ, raqamli va pedagogik boshqaruv ko'nikmalari aniqlangan. Tahlil natijasida O'zbekiston sharoitida rahbar kadrlarni tayyorlash tizimidagi bo'shliqlar ochib berilgan. Muallif tomonidan ushbu jahon tajribalarini milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim sohasida rahbar kadrlarning malakasini oshirish tizimini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, boshqaruv kompetensiyasi, ta'lim menejmenti, rahbar kadrlar, jahon tajribasi, professional rivojlanish, kompetensiyaviy yondashuv, kadrlar malakasini oshirish.

Abstract: This article analyzes the improvement of the management competence of preschool education institution directors based on world experience. The purpose of the study is to examine advanced approaches in preschool education management in developed countries and to identify opportunities for their application in the national education system. The article provides a comparative analysis of leadership training systems in Finland, the United Kingdom, the United States, South Korea, Singapore, and Germany. Based on the studied experience, the main components of management competence - strategic, communicative, digital, and pedagogical management skills - have been identified. The analysis reveals existing gaps in the leadership training system in Uzbekistan. The author has developed specific proposals for applying this world experience to the national education system. The results of the study have practical significance for improving the professional development system of leadership personnel in the field of preschool education.

Key words: preschool education, management competence, education management, leadership personnel, world experience, professional development, competency-based approach, staff qualification development.

Аннотация: В данной статье анализируется вопрос совершенствования управленческой компетентности руководителей учреждений дошкольного образования на основе мирового опыта. Целью исследования является изучение передовых подходов в сфере менеджмента дошкольного образования развитых стран и определение возможностей их применения в национальной системе образования. В статье проведён сравнительный анализ систем подготовки руководящих кадров таких стран, как Финляндия, Великобритания, США, Южная Корея, Сингапур и Германия. На основе изученного опыта определены основные компоненты управленческой компетентности - стратегические, коммуникативные, цифровые и педагогические управленческие навыки. В результате анализа выявлены пробелы в системе подготовки руководящих кадров в условиях Узбекистана. Автором разработаны конкретные предложения по применению данного мирового опыта в национальной системе образования. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования системы повышения квалификации кадров в сфере дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, управленческая компетентность, менеджмент образования, руководящие кадры, мировой опыт, профессиональное развитие, компетентностный подход, повышение квалификации кадров.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uni maktab ta'limiga tayyorlashning sifati, eng avvalo, maktabgacha ta'lim muassasasini boshqaruvchi rahbar kadrlarning kasbiy mahorati va boshqaruv kompetensiyasi darajasiga bevosita bog'liqdir. Zamonaviy rahbar nafaqat ma'muriy vazifalarni bajaruvchi shaxs, balki pedagogik jamoani strategik rivojlantiruvchi, innovatsion g'oyalarni joriy etuvchi va sifat menejmentini ta'minlovchi yetakchi sifatida faoliyat yuritishi lozim. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish, uni jahon andozalari darajasiga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi, biroq rahbar kadrlarning boshqaruv kompetensiyasini uzluksiz rivojlantirish tizimi hali yetarlicha takomillashmagan. Aynan shu bois rivojlangan davlatlarning maktabgacha ta'lim menejmenti sohasidagi ilg'or tajribalarini ilmiy tahlil qilish va ulardan milliy sharoitda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim menejmenti va rahbarlik masalalari xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Jumladan, J. Rodd [6] maktabgacha yoshdagi bolalar ta'limi sohasida yetakchilikni professional rivojlanishning uzluksiz jarayoni sifatida talqin etib, rahbarning kommunikativ va emotsional kompetensiyasiga alohida e'tibor qaratadi.

T. Bush va D. Glover [1] Angliya misolida rahbar kadrlarni tayyorlashning bosqichma-bosqich, malaka talablariga asoslangan tizimini tavsiflaydi.

J. Nicholson va hammualliflari [2] AQShda maktabgacha ta'lim yetakchiligiga oid tadqiqotlarni tahlil qilib, rahbarlik kompetensiyasining yagona standartlashtirilgan modeli hali to'liq shakllanmaganini ta'kidlaydi.

OECD tomonidan chop etilgan "Starting Strong VI" hisoboti [4] a'zo davlatlarning maktabgacha ta'lim sifatini ta'minlashda rahbarlik va boshqaruv salohiyatining hal qiluvchi rol o'ynashini statistik ma'lumotlar asosida isbotlaydi.

P. Sahlberg [5] Finlyandiya tajribasida ta'lim rahbarlarining avtonomiyasi va professional ishonchga asoslangan boshqaruv madaniyatini tahlil qiladi.

L. Vujičić va A. Čamber Tambolaš [10] pedagogik yetakchilikni tarbiyachilarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida ko'rib chiqadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan N. Xolmatova [7] va G. Karimova [8] ishlarida maktabgacha ta'lim rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning milliy xususiyatlari yoritilgan, biroq ushbu ishlarda jahon tajribalarini qiyosiy-tizimli tahlil qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari yetarlicha ochib berilmagan.

Aynan shu bo'shliq mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi: maqolada bir nechta rivojlangan davlatlarning tajribasi yagona tahlil tizimida qiyoslanib, ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanishning aniq yo'llari taklif etiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, tizimli-strukturaviy yondashuv, umumlashtirish va induktiv-deduktiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil usuli yordamida Finlyandiya, Buyuk Britaniya, AQSH, Janubiy Koreya, Singapur va Germaniyaning maktabgacha ta'lim rahbarlarini tayyorlash tizimlari bir xil mezonlar - huquqiy asos, kompetensiya modeli, tanlov va sertifikatlash tartibi, malaka oshirish shakllari asosida qiyoslandi. Bu esa turli davlatlarning o'ziga xos yondashuvlaridagi umumiy qonuniyatlarni aniqlash imkonini berdi.

Tizimli-strukturaviy yondashuv boshqaruv kompetensiyasini yaxlit tuzilma sifatida, ya'ni strategik, pedagogik, kommunikativ, raqamli va kadrlar bilan ishlash kompetensiyalarining o'zaro bog'liq majmuasi sifatida tahlil qilishga xizmat qildi.

Umumlashtirish metodi orqali xorijiy tajribalardan O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan elementlar ajratib olindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, rivojlangan davlatlarda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish yaxlit, bosqichma-bosqich tashkil etilgan tizim sifatida yo'lga qo'yilgan.

1-jadval: **Bir qator davlatlarning ushbu boradagi tajribasi umumlashtirilgan.**

Davlat	Rahbarlarni tayyorlash tizimi	Boshqaruv kompetensiyasining asosiy yo'nalishlari	Sertifikatlash / attestatsiya
Finlyandiya	Magistratura darajasidagi ta'lim menejmenti dasturi, avtonom rahbarlik modeli	Strategik rejalashtirish, ishonchga asoslangan boshqaruv, refleksiv amaliyot	Milliy ta'lim agentligi tomonidan davriy baholash
Buyuk Britaniya	National Professional Qualification for Early Years Leadership (NPQEYL) dasturi	Pedagogik yetakchilik, sifatni o'z-o'zini baholash, kadrlar bilan ishlash	Ofsted tomonidan tashqi inspeksiya va akkreditatsiya
AQSH	Universitet negizidagi early childhood leadership sertifikat dasturlari	Jamoaviy rahbarlik (distributed leadership), moliyaviy menejment	Shtat darajasidagi litsenziyalash tizimi
Janubiy Koreya	Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan majburiy malaka oshirish kurslari	Raqamli boshqaruv, ota-onalar bilan hamkorlik, innovatsion menejment	Milliy ta'lim vazirligi sertifikati, har 3 yilda qayta attestatsiya
Singapur	ECDA (Early Childhood Development Agency) mentorlik va liderlik dasturlari	Sifat menejmenti, ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish	ECDA tomonidan yagona milliy sertifikat
Germaniya	Kasbiy akademiyalarda "Ta'lim menejmenti" moduli, amaliy stajirovka	Kommunikativ kompetensiya, jamoaviy ish madaniyati, huquqiy savodxonlik	Yerlar (Länder) darajasidagi malaka guvohnomasi

O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijasida maktabgacha ta'lim rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasi tarkibida beshta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) strategik boshqaruv kompetensiyasi - muassasaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyati;

2) pedagogik yetakchilik kompetensiyasi - ta'lim sifatini nazorat qilish, tarbiyachilar faoliyatini metodik qo'llab-quvvatlash va innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish;

3) kommunikativ kompetensiya - jamoa ichida samarali muloqot, ota-onalar va ijtimoiy hamkorlar bilan konstruktiv aloqa o'rnatish qobiliyati;

4) raqamli boshqaruv kompetensiyasi - zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan boshqaruv jarayonida, jumladan, ma'lumotlarni tahlil qilish va monitoring olib borishda foydalanish ko'nikmasi;

5) kadrlar bilan ishlash kompetensiyasi - xodimlarni tanlash, ularning kasbiy o'sishini rejalashtirish va motivatsiyalash tizimini yo'lga qo'yish qobiliyati.

Tahlil, shuningdek, shuni ko'rsatdiki, ko'rib chiqilgan barcha davlatlarda rahbarlarni tayyorlash bir martalik tadbir emas, balki uzluksiz professional rivojlanish sikli sifatida tashkil etilgan: dastlabki tayyorgarlik - amaliy stajirovka - davriy malaka oshirish - mustaqil baholash va akkreditatsiya bosqichlaridan iborat. Bunday yondashuv rahbarlarning nazariy bilimlarini amaliy vaziyatlarda sinash va o'z faoliyatini muntazam ravishda refleksiv tahlil qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarini tayyorlash tizimida bir qator kamchiliklar mavjudligi aniqlandi: rahbarlik lavozimiga tayinlashda yagona kompetensiyaviy standartning yo'qligi, malaka oshirish kurslarining nazariy xarakterda qolayotgani, mentorlik va kouching tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi hamda raqamli boshqaruv vositalaridan foydalanish darajasining pastligi shular jumlasidandir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi xulosa va takliflarni shakllantirish mumkin.

Birinchidan, jahon tajribasi maktabgacha ta'lim rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish yaxlit, ko'p bosqichli va uzluksiz tizim sifatida tashkil etilishi zarurligini ko'rsatadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston sharoitida maktabgacha ta'lim rahbarlari uchun milliy boshqaruv kompetensiyasi standartini ishlab chiqish va uni rahbarlik lavozimiga tayinlash mezoni sifatida joriy etish tavsiya etiladi.

Ikkinchidan, Finlyandiya va Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib, rahbarlarni tayyorlash dasturlarini nazariy bilimdan ko'ra amaliy ko'nikmalarga, xususan, strategik rejalashtirish va sifatni o'z-o'zini baholash usullariga yo'naltirish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, Buyuk Britaniyaning NPQEYL dasturi va Singapurning ECDA mentorlik tizimi namunasida tajribali rahbarlar ishtirokida mentorlik va kouching dasturlarini joriy etish yosh rahbarlarning kasbiy moslashuvini tezlashtiradi.

To'rtinchidan, rahbarlarning raqamli boshqaruv kompetensiyasini oshirish maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini monitoring qilishning yagona raqamli platformasini yaratish va rahbarlarni ushbu platformadan foydalanishga o'rgatuvchi maxsus modul joriy etish tavsiya etiladi.

Beshinchidan, Germaniya tajribasiga muvofiq, rahbarlarning malakasini davriy ravishda (masalan, har 3 yilda bir marta) qayta attestatsiyadan o'tkazish tizimini joriy etish rahbarlik faoliyati sifatini barqaror ushlab turishga xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan takliflarning amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv kompetensiyasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, natijada esa maktabgacha ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bush, T., & Glover, D. (2016). School leadership development in England: content, context and continuity. Professional Development in Education, 42(4), 527-542.
2. Nicholson, J., Kuhl, K., Maniates, H., Lin, B., & Bonetti, S. (2020). A review of the literature on leadership in early childhood education in the United States. Early Child Development and Care, 190(2), 91-114.
3. Aubrey, C. (2011). Leading and Managing in the Early Years. London: SAGE Publications.
4. OECD. (2021). Starting Strong VI: Supporting Meaningful Interactions in Early Childhood Education and Care. Paris: OECD Publishing.
5. Sahlberg, P. (2015). Finnish Lessons 2.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? New York: Teachers College Press.
6. Rodd, J. (2013). Leadership in Early Childhood: The Pathway to Professionalism. 4th ed. Berkshire: Open University Press.
7. Xolmatova, N. (2021). Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbarlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish: pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent.
8. Karimova, G. (2019). Boshqaruv madaniyati va ta'lim menejmenti asoslari. Toshkent: "Fan va texnologiya".
9. Kagan, S. L., & Bowman, B. T. (Eds.). (1997). Leadership in Early Care and Education. Washington, DC: NAEYC.
10. Vujičić, L., & Čamber Tambolaš, A. (2017). Pedagogical leadership as support to the professional development of preschool teachers. Center for Educational Policy Studies Journal, 7(3), 99–119.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-son qarori. (2017). Toshkent.

TALABALARDA VAQTNI IDROK QILISH VA BOSHQARISHGA QARATILGAN NAZARIY-METODOLOGIK KONSEPSIYALAR HAMDA TAMOYILLAR TAHLILI

Solayev Og'abek Ilhombek o'g'li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
"Pedagogika va psixologiya" kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida vaqtni idrok qilish va boshqarishning nazariy-metodologik konsepsiyalari hamda tamoyillari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqotda G'arb, MDH va O'zbekiston psixologiya-pedagogika maktablarining temporal jarayonlarga oid yondashuvlari qiyoslanib, kredit-modul tizimi sharoitidagi temporal disfunksiyalar (vaqt defitsiti xavotiri, akademik prokrastinatsiya) yoritilgan. Shuningdek, Eyzenxauer matritsasi mezonlari asosida vaqtni boshqarishning kognitiv, motivatsion-qadriyatli, irodaviy-regulyativ va refleksiv-amaliy komponentlarini o'z ichiga olgan nazariy-funksional modeli hamda amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: temporal idrok, vaqtni o'z-o'zini boshqarish, kelajak vaqt perspektivasi (ZTPI), akademik prokrastinatsiya, kredit-modul tizimi, Eyzenxauer matritsasi, nazariy-funksional model.

Abstract: This article provides a systematic analysis of theoretical and methodological concepts and principles of time perception and time management among higher education students. The study compares the approaches of Western, CIS, and Uzbek psychological-pedagogical schools towards temporal processes, highlighting temporal dysfunctions (time deficit anxiety, academic procrastination) under the credit-module system. Furthermore, based on the Eisenhower Matrix criteria, a theoretical-functional model of time management incorporating cognitive, motivational-value, volitional-regulatory, and reflective-practical components is developed, alongside practical recommendations.

Key words: temporal perception, time self-regulation, time perspective (ZTPI), academic procrastination, credit-module system, Eisenhower Matrix, theoretical-functional model.

Аннотация: В данной статье систематически проанализированы теоретико-методологические концепции и принципы восприятия и управления временем у студентов высших учебных заведений. В исследовании сопоставлены подходы западных, СНГовских и узбекистанских психолого-педагогических школ к темпоральным процессам, а также освещены темпоральные дисфункции (тревожность дефицита времени, академическая прокрастинация) в условиях кредитно-модульной системы. На основе критериев матрицы Эйзенхауэра разработана теоретико-функциональная модель управления временем, включающая когнитивный, мотивационно-ценностный, волевой-регулятивный и рефлексивно-практический компоненты, и предложены практические рекомендации.

Ключевые слова: темпоральное восприятие, саморегуляция времени, временная перспектива (ZTPI), академическая прокрастинация, кредитно-модульная система, матрица Эйзенхауэра, теоретико-функциональная модель.

KIRISH

Zamonaviy global o'zgarishlar va shiddatli raqamlashtirish asrida oliy ta'lim tizimining bosh maqsadi nafaqat nazariy bilimlarga ega mutaxassislarni, balki o'z shaxsiy resurslarini, eng avvalo, qaytmas va strategik manba bo'lmish vaqt omilini oqilona boshqarish ko'nikmasiga ega bo'lgan, moslashuvchan va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashdan iboratdir. Yangi O'zbekistonni barpo etish hamda Uchinchi Renessansning poydevorini qo'yish jarayonida inson kapitalini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Mamlakatimizda yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish va oliy ta'limni tubdan transformatsiya qilish bo'yicha kompleks me'yoriy-huquqiy baza yaratildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son[1] Farmonida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish bilan birga, ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, talaba-yoshlarning mustaqil ilmiy va kasbiy rivojlanish

1 https://lex.uz/ru/docs/-6600413

samaradorligini ta'minlash bo'yicha aniq marralar belgilangan [1]. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev oliy ta'lim muassasalari vakillari va yoshlar bilan muloqotlarida: "Biz uchun eng katta boylik - bu vaqt, eng katta qadriyat - bu bilimdir. Yoshlarimizning har bir daqiqasi ularning intellektual va ma'naviy o'sishiga xizmat qilishi lozim" degan konseptual g'oyani ilgari surdi. Bu g'oya talaba-yoshlarda vaqt madaniyatini shakllantirishning ma'naviy-metodologik poydevori bo'lib xizmat qilmoqda [3].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini to'liq va samarali joriy etishga doir me'yoriy hujjatlari ta'lim paradigmasini mustaqil ta'lim olishga tubdan yo'naltirdi [2]. Yangi akademik muhit talabadan quyidagi muhim psixologik va faoliyatli sifatlarni talab etmoqda:

- vaqtni obyektiv va subyektiv idrok etish xususiyatlarini anglash va nazorat qilish;
- o'z-o'zini tashkillashtirish va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- kelajakka yo'naltirilgan vaqt perspektivasini aniq shakllantirish;
- akademik yuklama va shaxsiy vaqt balansini to'g'ri taqsimlash.

Zamonaviy psixologiya va pedagogika fanida vaqtni idrok etish va boshqarish mexanizmlari shunchaki amaliy "taym-menejment" texnikalari to'plami emas, balki shaxsning psixologik salomatligi, stressga chidamliligi va kasbiy subyektivligining indikatori sifatida baholanmoqda. Axborot oqimining keskin ortishi hamda raqamli chalg'ituvchi omillar sharoitida talabalarda vaqtni noadekvat idrok etish (vaqt defitsiti xavotiri, kelajakni rejalashtira olmaslik) va akademik prokrastinatsiya (ishlarni keyinga surish) holatlari tobora ko'p kuzatilmoqda. Shu munosabat bilan, talabalarda vaqtni idrok qilish va boshqarishga qaratilgan nazariy-metodologik konsepsiyalar hamda tamoyillarni tizimli tahlil qilish, ularning amaliy psixologik-pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish hozirgi Yangi O'zbekiston oliy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarda vaqtni idrok qilish va boshqarish muammosi ko'p qirrali hodisa bo'lib, u psixologiya, pedagogika va menejment fanlari tutashuvida kompleks o'rganilmoqda. Ushbu masalaning nazariy-metodologik ildizlarini to'liq ochib berish maqsadida xorijiy, MDH mamlakatlari hamda mahalliy (O'zbekiston) olimlarining ilmiy izlanishlari qiyosiy tahlil etildi.

Birinchidan, xorijiy tadqiqotlarda vaqtni idrok etish va boshqarishning kognitiv va motivatsion mexanizmlari ustuvorlik qiladi. J. Piaje hamda P. Fraiss vaqtni idrok etishni hodisalarning davomiyligi va ketma-ketligini subyektiv aks ettirish jarayoni deb izohlasa [14] [17], F. Zimbardo va A. Boyd o'zlarining vaqt perspektivasi konsepsiyasida (ZTPI) shaxsning vaqtga munosabatini 5 ta temporal omil (pozitiv/negativ o'tmish, fatalistik/gedonistik hozir va kelajak) orqali tushuntiradi [7]. J. Nuttin va K. Levin vaqt perspektivasini kelajakdagi akademik maqsadlar va motivatsiya bilan bog'lagan bo'lsa [12], A. Lakeyn hamda S. Kovi uni maqsad qo'yish va ustuvorliklarni ajratish metodologiyasi sifatida shakllantirdi [10]. S. Stil va T. Pichil kabi zamonaviy xorijiy olimlar esa vaqtni noadekvat idrok etishning oqibati sifatida akademik prokrastinatsiya va vaqt defitsiti xavotirini atroflicha tadqiq etganlar [16].

Ikkinchidan, MDH psixologiya maktabida vaqt muammosi faoliyatli va regulyativ yondashuvlar doirasida o'rganilgan. K. A. Abulxanova-Slavskaya shaxsning "vaqt subyekti" sifatidagi konsepsiyasini ilgari surib, vaqtni boshqarish shunchaki kun tartibini tuzish emas, balki shaxsning o'z hayotiy faoliyatini va temporal makonini to'liq nazorat qila olish qobiliyati ekanligini isbotladi [4]. A. K. Osnitskiy va V. I. Morosanova ushbu jarayonni shaxsning o'z-o'zini emotsional va irodaviy tartibga solishi bilan bog'lagan bo'lsa [11] [13], N. N. Milgram talabalar muhitida akademik vaqtni taqsimlash buzilishlari hamda psixologik adaptatsiya muammolarini empirik jihatdan asoslab bergan.

Uchinchidan, O'zbekiston olimlarining tadqiqotlarida talabalik davrida shaxsning shakllanishi, kasbiy kamolot va vaqt resursidan foydalanish xususiyatlari E. G'oziyev, B. Qodirov, V. Karimova va R. Sunnatovalarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. E. G'oziyev talabalarda mustaqil fikrlash va ta'lim faoliyatini subyektiv tashkil etishda vaqt omilining o'rnini ko'rsatgan bo'lsa [6], B. Qodirov vaqtni oqilona taqsimlashni kasbiy va intellektual salohiyatni ro'yobga chiqarishning asosiy mezoni deb baholaydi [8]. Zamonaviy milliy izlanishlarda esa kredit-modul tizimi sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim soatlarini to'g'ri rejalashtirish hamda vaqtni idrok etishning etnopsixologik va individual-xarakterologik xususiyatlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot talabalarda vaqtni idrok qilish va boshqarishga qaratilgan xorijiy hamda mahalliy nazariy-metodologik konsepsiyalarni tizimli tahlil qilish, ularning konseptual tamoyillarini qiyoslash hamda kredit-modul tizimi sharoitiga mos keladigan psixologik-pedagogik modellarini nazariy jihatdan asoslab berishga qaratilgan.

Nazariy-metodologik yondashuvlar hamda ilmiy metodlar strukturasi. Tadqiqotning konseptual tarkibini shakllantirishda fundamental psixologik-pedagogik yondashuvlar hamda nazariy metodlar integratsiyasiga tayanildi. Xususan, vaqtni idrok etish va boshqarish mexanizmlari kognitiv, motivatsion hamda irodaviy-regulyativ sifatlar hamkorligida ishlaydigan yaxlit tizim sifatida tizimli-konseptual yondashuv doirasida o'rganildi. Talabaning o'z vaqt resursi va temporal makonining faol subyekti sifatidagi o'rni subyektiv-faoliyatli yondashuv orqali asoslab berilgan bo'lsa, shaxsning o'tmish, hozir va kelajakka bo'lgan munosabati hamda uning akademik maqsadlarga erishishdagi roli vaqt perspektivasi nazariyasi asosida tahlil qilindi.

Ushbu yondashuvlarni amalga oshirishda qiyosiy-tarixiy tahlil, klassifikatsiya, konseptual modellashtirish hamda deduktiv umumlashtirish kabi ilmiy-nazariy metodlar qo'llanildi. Qo'llanilgan metodologik elementlar va ularning funksional vazifalari 1-jadvalda jamlangan.

1-jadval: **Tadqiqotning metodologik yondashuvlari va nazariy metodlari karkasi**

Metodologik element	Yondashuv va metod turlari	Asosiy vakillari / Konsepsiyalar	Funksional vazifasi va mantiqiy yo'nalishi
Metodologik Yondashuvlar	Tizimli-konseptual yondashuv	L.fon Bertalanfi	Vaqtni idrok etish va boshqarish mexanizmlarini kognitiv, motivatsion hamda irodaviy sifatlar hamkorligida ishlaydigan yaxlit tizim sifatida tadqiq etish.
	Subyektiv-faoliyatli yondashuv	K.A.Abulxanova-Slavskaya, S.L.Rubinshteyn	Talabaning o'z vaqt resursi, hayotiy faoliyati va temporal makonining faol subyekti sifatidagi o'rnini nazariy jihatdan asoslash.
	Vaqt perspektivasi nazariyasi	F.Zimbardo, J.Nuttin, K.Levin	Shaxsning o'tmish, hozir va kelajakka bo'lgan subyektiv munosabati va uning akademik-kasbiy maqsadlarga erishishdagi regulyativ rolini tahlil qilish.
Ilmiy-Nazariy Metodlar	Qiyosiy-tarixiy va mantiqiy tahlil		Xorijiy, MDH va O'zbekiston psixologiya-pedagogika maktablarida vaqtni idrok etish bo'yicha shakllangan konsepsiyalar evolyutsiyasini qiyoslash.
	Klassifikatsiya va tipologizatsiya		Vaqtni idrok qilishning kognitiv, motivatsion va regulyativ tamoyillarini tizimlashtirish hamda vaqtni boshqarishning psixologik modellarini ajratish.
	Konseptual modellashtirish		Kredit-modul va mustaqil ta'lim sharoitida talaba vaqtini samarali tashkil etish hamda vaqt kulturasini shakllantirishning nazariy modelini ishlab chiqish.
	Sintez va deduktiv umumlashtirish		Turli nazariy yondashuvlarni integratsiya qilish orqali oliy ta'lim tizimi uchun amaliy-metodologik tavsiyalar hamda xulosalarni shakllantirish.

Nazariy tahlil bosqichlari va tadqiqot mantiqiy strukturasi. Tadqiqotning mantiqiy izchilligini ta'minlash maqsadida ilmiy tahlil jarayoni uchta asosiy bosqichda tashkil etildi. Dastlab orientatsion-konseptual bosqichda vaqt psixologiyasi va temporal perspektivaga oid klassik hamda zamonaviy ilmiy manbalar saralanib, terminologik bazasi shakllantirildi. Keyingi analitik-qiyosiy bosqichda xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning nazariy konsepsiyalari qiyoslanib, vaqtni idrok etish hamda boshqarishning invariant jihatlari ajratib ko'rsatildi. Yakuniy generalizatsiya va modellashtirish bosqichida esa tahlil natijalari umumlashtirilib, kredit-modul tizimi sharoitida talabalarda vaqtni boshqarishning nazariy-funksional modeli hamda amaliy takliflar ishlab chiqildi (2-jadval).

2-jadval: **Nazariy tadqiqotni tashkil etish va tahlil qilish bosqichlari**

Bosqich nomi va yo'nalishi	Bosqich doirasidagi ilmiy-tadqiqot vazifalari	Kutiladigan nazariy natija
1-bosqich: **Orientatsion-konseptual**	- Vaqt psixologiyasi va temporal perspektivaga oid ilmiy manbalarni saralash hamda tizimlashtirish. - Klassik va zamonaviy nazariy yondashuvlarni tasniflash.	Tadqiqotning nazariy-teoretik bazasi va terminologik karkasining shakllanishi.
2-bosqich: **Analitik-qiyosiy**	- Xorijiy, MDH va mahalliy (O'zbekiston) olimlarining konsepsiyalarini qiyosiy-mantiqiy tahlil qilish. - Vaqtni idrok etish hamda boshqarishning umumiy va invariant jihatlarini aniqlash.	Tizimli va qiyosiy-metodologik tahlil materiallarining shakllanishi.
3-bosqich: **Generalizatsiya va modellashtirish**	- Tahlil natijalarini deduktiv umumlashtirish va sintez qilish. - Kredit-modul tizimi sharoitida talabalarda vaqtni boshqarishning nazariy modelini va ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirish.	Konseptual modellashtirish, nazariy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar majmui.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarda vaqtni idrok qilish va boshqarish mexanizmlarini nazariy-metodologik jihatdan o‘rganish, mavjud ilmiy yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish hamda kredit-modul tizimi sharoitida ularning konseptual modelini va prioritizatsiya instrumentlarini asoslash natijasida bir qator muhim nazariy xulosalar shakllantirildi.

Vaqtni idrok etish va boshqarish konsepsiyalarining qiyosiy tahlili

Xorijiy (G‘arb), MDH va O‘zbekiston psixologiya-pedagogika maktablarida shakllangan nazariy yondashuvlarni qiyosiy-mantiqiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, temporal jarayonlarni talqin etishda uchta asosiy ilmiy paradigma mavjud (3-jadval).

3-jadval: **Vaqtni idrok etish va boshqarish konsepsiyalarining qiyosiy-metodologik tahlili**

Tahlil mezonlari	Xorijiy yondashuvlar (G‘arb maktabi)	MDH olimlari yondashuvi	O‘zbekiston olimlari yondashuvi
Vaqt funksiyasining talqini	Vaqt - cheklangan resurs va obyektiv o‘lchov (Resource Paradigm).	Vaqt - shaxs faoliyati va temporal makoni (Subjective Space).	Vaqt - kasbiy kamolot va ma’naviy-axloqiy omil.
Markaziy mexanizm	Vaqt perspektivasi (ZTPI), kognitiv baholash va taym-menedjment texnikalari.	O‘z-o‘zini regulyatsiya qilish (Self-regulation), shaxs subyektivligi.	Mustaqil ta’limni tashkil etish, irodaviy va intellektual salohiyatni ro‘yobga chiqarish.
Disfunksional oqibatlar	Akademik prokrastinatsiya va vaqt defitsiti xavotiri (Time Anxiety).	Psixologik adaptatsiya buzilishi va refleksiv nazoratning sustligi.	Mustaqil ta’lim soatlarini samarasiz taqsimlash va motivatsiyaning pasayishi.

Ushbu qiyosiy tahlil shuni anglatadiki, G‘arb yondashuvlarida (F. Zimbardo, A. Lakein, K. Steel) vaqtni boshqarish ko‘proq pragmatik va texnik xarakterga ega bo‘lib, u kelajakni rejalashtirish hamda prokrastinatsiyani bartaraf etishga yo‘naltirilgan [7][16].

MDH psixologiya maktabida esa (K. A. Abulxanova-Slavskaya, V. I. Morosanova) vaqt shunchaki kun tartibi emas, balki shaxsning o‘z hayotiy yo‘lini subyekt sifatida nazorat qila olish qobiliyati deb baholanadi [4] 11]. Mahalliy olimlarning (E. G‘oziyev, B. Qodirov) ilmiy qarashlarida esa vaqt omili talabaning mustaqil fikrlashi hamda milliy ta’lim muhitida kasbiy kamolotga erishishining o‘zagi sifatida talqin etiladi [6][8].

Oliy ta’limda kredit-modul tizimiga o‘tilishi talabalar o‘quv faoliyatining vaqt tuzilmasini tubdan o‘zgartirdi. Zero, ushbu tizimda talaba vaqtining 50–60 foizi mustaqil ta’lim soatiga ajratilganligi sababli, uning temporal regulyatsiyasiga (vaqtni o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasi) bo‘lgan talab keskin oshdi. Nazariy tahlillar kredit-modul sharoitida vaqtni idrok etish va akademik xulq-atvorni quyidagi mantiqiy zanjir asosida tushuntirish imkonini beradi:

Temporal idrok - o‘z-o‘zini regulyatsiya - akademik xulq-atvor = prokrastinatsiya/samaradorlik

Ushbu mantiqiy zanjirga ko‘ra, kredit-modul sharoitida vaqtni idrok etish va boshqarish disfunksiyalari asosan ikki omil bilan bog‘liq bo‘lib:

1. **Vaqt defitsiti xavotiri** - talabaning o‘quv topshiriqlari hajmi hamda topshirish muddatlari oldidagi psixologik bosimi va vaqtni subyektiv ravishda “o‘ta tez o‘tayotgandek” idrok etishi natijasida yuzaga keladi.
2. **Akademik prokrastinatsiya** - kelajak temporal perspektivasining kuchsizligi va hozirgi gedonistik yo‘nalganlikning ustunligi sababli mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishni muntazam orqaga surishida namoyon bo‘ladi.

Vaqtni samarali boshqarishda prioritizatsiya mexanizmi: Eyzenxauer matritsasi. Yuqoridagi disfunksiyalarni bartaraf etish hamda akademik prokrastinatsiyani yengishning muhim nazariy-amaliy instrumentlaridan biri Eyzenxauer matritsasi (Eisenhower Matrix) hisoblanadi [10]. Ushbu konseptual model talabalar tomonidan o‘quv va shaxsiy topshiriqlarni ikkita asosiy mezon - muhimlik hamda shoshilinchlik darajasi bo‘yicha tasniflash orqali mustaqil ta’lim vaqtini oqilona taqsimlash imkonini yaratadi (1-rasm).

Nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kredit-modul tizimida vaqtni samarali idrok etadigan va kelajak temporal perspektivasi rivojlangan talabalar o‘z faoliyatining asosiy qismini 2-kvadrantga (shoshilinch emas, lekin muhim) yo‘naltiradilar. Chunki bu kvadrant strategik rejalashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va profilaktik ta’lim faoliyatini o‘z ichiga olib, samarali vaqt boshqaruvining o‘zagini tashkil etadi. Aksincha, vaqtni boshqarish ko‘nikmasi shakllanmagan talabalar o‘z vaqtlarini 1-kvadrant (inqirozlar va muddatli vazifalar) va 4-kvadrant (ijtimoiy tarmoqlar va vaqtni behuda sarflash) o‘rtasida taqsimlab, surunkali akademik stress holatida faoliyat yuritadilar [10].



1-rasm: **Vaqtni boshqarish matritsasi (Eyzenxauer matritsasi)**

Talabalarda vaqtni idrok qilish va boshqarishni rivojlantirishning nazariy-funksional modeli. Tahlil qilingan konsepsiyalar sintezi, prioritizatsiya mexanizmlari hamda kredit-modul tizimi talablaridan kelib chiqqan holda, talabalarda vaqtni samarali idrok etish va boshqarishni shakllantirishning nazariy-funksional modeli ishlab chiqildi. Ushbu modellashtirish 4 ta o‘zaro bog‘liq invariant komponentni o‘z ichiga oladi (4-jadval).

4-jadval: **Talabalarda vaqtni boshqarishning nazariy-funksional modeli strukturasi**

Komponentlar	Markaziy mazmuni va tarkibiy elementlari	Rivojlantiriladigan amaliy ko‘nikmalar
1. Kognitiv komponent	- Vaqt resursi va temporal struktura haqidagi bilimlarga egalik. - Vaqtni subyektiv baholash hamda davomiylikni to‘g‘ri idrok etish.	Vaqt resursining cheklanganligini anglash, o‘quv va shaxsiy vaqt sarfini xolis baholay olish.
2. Motivatsion-qadriyatli komponent	- Kelajak temporal perspektivasining ustuvorligi. - Akademik va kasbiy maqsadlarning qadriyatli shakllanganligi.	Istiqboldagi kasbiy va akademik maqsadlarni belgilash, vaqtni oliy qadriyat sifatida anglash.
3. Irodaviy-regulyativ komponent	- Vaqtni o‘z-o‘zini boshqarish va Eyzenxauer prioritizatsiyasi. - Akademik prokrastinatsiyani yengish va irodaviy kuchni safarbar etish.	Vazifalarni muhimlik va shoshilinchlik bo‘yicha ajratish, rejalashtirilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish.
4. Refleksiv-amaliy komponent	- Vaqt sarfini muntazam tahlil qilish va refleksiv nazorat. - Mustaqil ta’lim soatlarini oqilona taqsimlash ko‘nikmalari.	Kun tartibi va vaqt auditi natijalarini tahlil qilish, mustaqil ta’lim soatlarini samarali rejalashtirish.

Umumlashtirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarda vaqtni idrok etish va boshqarish madaniyatini shakllantirish shunchaki taym-menejment texnikalarini o‘rgatish bilan cheklanib qolmaydi. Aksincha, u shaxsning kognitiv, motivatsion, irodaviy va refleksiv tuzilmalarining integrallashgan holda rivojlanishini talab etadi. Kredit-modul tizimida ushbu konseptual model talabalarning akademik o‘zlashtirishini oshirish va temporal stressni kamaytirishning ilmiy-pedagogik poydevori bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda vaqtni idrok qilish va boshqarish mexanizmlarini nazariy-metodologik tadqiq etish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

Temporal jarayonlar uch ilmiy paradigma (G‘arbning resurs yondashuvi, MDHning shaxs subyektivligi hamda O‘zbekiston olimlarining kasbiy kamolot omili) sintezi asosida talqin etilib, vaqtni samarali boshqarish shaxsning kognitiv, motivatsion, irodaviy va refleksiv komponentlari integratsiyasiga tayanishi asoslandi.

Kredit-modul tizimida vaqtni o‘z-o‘zini boshqarish sustligi hamda kelajak vaqt perspektivasining zaifligi vaqt defitsiti xavotiri va akademik prokrastinatsiyani keltirib chiqaradi; buni bartaraf etishda Eyzenxauer matritsasining 2-kvadrantiga (muhim, lekin shoshilinch emas) yo‘naltirilgan prioritizatsiya akademik stress va inqirozlarning oldini oluvchi asosiy mexanizmdir.

1-kurs talabalari uchun “Akademik taym-menejment” amaliy kurslarini joriy etish hamda HEMIS platformasiga raqamli rejalashtirgichlar va prioritizatsiya instrumentlarini integratsiya qilish.

Tutor va psixologlar tomonidan talabalar vaqt perspektivasi va prokrastinatsiyasini diagnostika qilish hamda mustaqil ta’lim topshiriqlari muddatlarini semestr bo‘yicha bir me’yorda taqsimlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini kredit-modul tizimida tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 824-son qarori // 01.01.2021-y., 09/21/824/0001-son.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. - 464 b.
4. Абульханова-Славская, К. А. Стратегия жизни / К. А. Абульханова-Славская. - Москва : Мысль, 1991. - 299 с.
5. Von Bertalanfy L. General System Theory: Foundations, Development, Applications. - New York: George Braziller, 1968. - 289 p.
6. G‘oziyev E.G‘. Oliy maktab psixologiyasi. - Tashkent: O‘qituvchi, 1997. - 168 b.
7. Zimbardo F., Boyd A. The Time Paradox: The New Psychology of Time That Will Change Your Life. - New York: Simon & Schuster, 2008. - 368 p.
8. Qodirov B.R. Shaxsning kasbiy yo‘nalishi va intellektual salohiyati psixologiyasi. - Tashkent: Fan, 2008. -192 b.
9. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. -Tashkent: Ilm Ziyo, 2012. - 176 b.
10. Covey S.R. The 7 Habits of Highly Effective People: Powerful Lessons in Personal Change. - New York: Simon & Schuster, 2004. - 381 p.
11. Моросанова, В. И. Саморегуляция и индивидуальность человека / В. И. Моросанова. - Москва : Наука, 2012. - 512 с.
12. Nuttin J. Motivation, Planning, and Action: A Psychogenic Approach to Behavior and Time Perspective. - Leuven: Leuven University Press, 1984. - 287 p.
13. Осницкий, А. К. Психология самостоятельности / А. К. Осницкий. - Москва ; Воронеж : НПО “МОДЭК”, 2010. - 318 с.
14. Piaget J. The Child’s Conception of Time. – London: Routledge & Kegan Paul, 1969.- 285 p.
15. Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии / С. Л. Рубинштейн. - Санкт-Петербург : Питер, 2002. - 720 с.
16. Steel P. The nature of procrastination: A meta-analytic and theoretical review of quintessential self-regulatory failure // Psychological Bulletin. - 2007. - Vol. 133, No. 1. - P. 65-94.
17. Fraisse P. Psychology of Time. - Westport: Greenwood Press, 1975. - 282 p.

TIBBIY TAYYORGARLIK SIFATINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA IMMERSIV TA'LIM MUHITLARI

Namazova Munavvar Oltibekovna
Tibbiy biologik fanlar kafedrasi o'qituvchisi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
https://orcid.org/0009-0006-2511-5017

Annotatsiya: Maqolada immersiv ta'lim muhitlarining didaktik salohiyati va ularning tibbiy tayyorgarlik sifatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Xalqaro tadqiqotlar tahlili asosida virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalarini tibbiy-biologik yo'nalish talabalarini o'qitishda qo'llashning nazariy va metodologik asoslari ochib beriladi. Immersiv o'qitishning talabalar bilimi, amaliy ko'nikmalari va o'quv motivatsiyasi darajasiga ijobiy ta'sirini tasdiqlovchi pedagogik tajriba natijalari taqdim etiladi. Immersiv texnologiyalarni ta'lim jarayoniga samarali integratsiyalash shartlari, jumladan, rubrikalar asosidagi mezonli baholash, debrifing va bo'lajak mutaxassislarning moslashuvchan ko'nikmalarini rivojlantirish asoslanadi.

Kalit so'zlar: immersiv ta'lim muhiti, virtual reallik, tibbiy ta'lim, simulyatsion o'qitish, tayyorgarlik sifati, mezonli baholash, debrifing, kasbiy kompetentlik.

Abstract: The article examines the didactic potential of immersive educational environments and their impact on the quality of medical training. Based on the analysis of international studies, the theoretical and methodological foundations of applying virtual and augmented reality technologies in teaching students of medical and biological fields are revealed. The results of a pedagogical experiment confirming the positive influence of immersive learning on students' knowledge, practical skills and learning motivation are presented. The conditions for effective integration of immersive technologies into the educational process are substantiated, including rubric-based criteria assessment, debriefing and the development of future specialists' soft skills.

Key words: immersive educational environment, virtual reality, medical education, simulation-based training, quality of training, criteria-based assessment, debriefing, professional competence.

Аннотация: В статье рассматривается дидактический потенциал иммерсивных образовательных сред и их влияние на качество медицинской подготовки. На основе анализа международных исследований раскрываются теоретические и методологические основания применения технологий виртуальной и дополненной реальности в обучении студентов медико-биологических направлений. Представлены результаты педагогического эксперимента, подтверждающие положительное влияние иммерсивного обучения на уровень знаний, практических умений и учебной мотивации обучающихся. Обоснованы условия эффективной интеграции иммерсивных технологий в образовательный процесс, включая критериальное оценивание на основе рубрик, дебрифинг и развитие гибких навыков будущих специалистов.

Ключевые слова: иммерсивная образовательная среда, виртуальная реальность, медицинское образование, симуляционное обучение, качество подготовки, критериальное оценивание, дебрифинг, профессиональная компетентность.

KIRISH

Zamonaviy tibbiy ta'limning ustuvor vazifasi bemor xavfsizligini ta'minlashga qodir, klinik fikrlash va amaliy ko'nikmalarni yuksak darajada egallagan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. An'anaviy auditoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni shakllantirsa ham, murakkab klinik vaziyatlarda qaror qabul qilish tajribasini yetarli darajada ta'minlay olmaydi. Shu sababli xalqaro pedagogikada immersiv ta'lim muhitlari, ya'ni virtual, to'ldirilgan va aralash reallik texnologiyalariga asoslangan didaktik tizimlar tibbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning istiqbolli vositasi sifatida talqin etilmoqda [1, b. 66].

Mazkur ishning maqsadi immersiv muhitlarning nazariy asoslarini tizimlashtirish va ularning tibbiy-biologik fanlarni o'qitishdagi samaradorligini empirik jihatdan asoslashdan iborat. Demak, muammoning dolzarbligi ta'lim sifatiga qo'yilayotgan talablar bilan an'anaviy didaktik vositalar imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatdan kelib chiqadi va immersiv texnologiyalarni ilmiy asoslangan tarzda joriy etishni taqozo qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Immersiv ta'lim muhiti deganda talabani autentik kasbiy vaziyatga kognitiv va sensor jihatdan chuqur jalb etuvchi raqamli muhit tushuniladi. C. Dede immersiyani diqqatni mujassamlashtirish, vaziyatli o'rganish va hodisani turli nuqtai nazardan tahlil qilishni rag'batlantiruvchi omil sifatida asoslagan [1, b. 67].

Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bilim faol faoliyat jarayonida quriladi, immersiv muhit esa xatolar bemorga zarar yetkazmaydigan xavfsiz faoliyat makonini yaratadi. G. Makransky va G. Petersen ishlab chiqqan CAMIL modeli immersiv o'rganish samarasini ishtirok hissi va agentlik orqali tushuntiradi hamda kognitiv yuklamani maqsadli boshqarish zaruratini ko'rsatadi [6, b. 940].

Shunday qilib, immersiv muhitlar tasodifiy texnologik yangilik emas, balki tajribaviy o'rganish va konstruktivizm tamoyillariga tayanuvchi didaktik tizimdir. Ularning samarasi texnik vositaning o'zi bilan emas, pedagogik loyihalash sifati bilan belgilanadi.

Xalqaro meta-tahlillar immersiv va simulyatsion o'qitishning samaradorligini izchil tasdiqlaydi. B. Issenberg va hammualliflarning BEME sharhida samarali simulyatsiyaning yetakchi shartlari sifatida qayta aloqa, takroriy mashq va qiyinlik darajasining bosqichma-bosqich oshirilishi ajratilgan [2, b. 10].

D. Cook boshchiligidagi meta-tahlil texnologik simulyatsiyaning bilim, ko'nikma va xulq natijalariga yirik ijobiy ta'sirini ko'rsatgan [3, b. 985].

B. Kyaw va hammualliflar virtual reallik tibbiyot talabalarining bilimi va amaliy mahoratini an'anaviy usullarga nisbatan sezilarli oshirishini aniqlagan [4, b. 9].

J. Pottle immersiv muhitlarni klinik ta'limni transformatsiya qiluvchi omil sifatida baholaydi [5, b. 181].

Ayni paytda J. Radianti va hammualliflar ko'plab ishlanmalarda o'rganish nazariyalari bilan bog'liqlik zaifligini qayd etadi [7, b. 14], B. Barteit esa uskunalarning turli avlodlari samarasi bir xil emasligini ko'rsatadi [8, b. 7].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ijobiy natijalar metodik jihatdan puxta loyihalangan muhitlarda qayd etiladi. Bu esa baholash tizimini, ya'ni dastlabki diagnostics, jarayonli assessment va yakuniy evaluation bosqichlarini o'zaro uyg'unlashtirishni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarga tayanadi. Nazariy bosqichda Scopus va Web of Science bazalaridagi manbalar qiyosiy tahlil qilindi. Empirik bosqichda Toshkent Kimyo xalqaro universitetining tibbiy-biologik yo'nalish talabalari ishtirokida pedagogik tajriba o'tkazildi: tajriba guruhida anatomiya va fiziologiya modullari immersiv virtual laboratoriyalar yordamida, nazorat guruhida an'anaviy shaklda o'qitildi.

Natijalar performance-based assessment tamoyilida, ya'ni standartlashtirilgan klinik vaziyatlarni bajarish orqali, mezonlari aniq rubrics asosida baholandi; bilimlar darajasi test diagnostikasi bilan, motivatsiya so'rovnoma bilan o'lchandi. Bunday dizayn natijalarning ishonchliligini va takrorlanuvchanligini ta'minlaydi, chunki baholash mezonlari oldindan e'lon qilinadi va subyektivlik kamayadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba yakunida guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli farq qayd etildi. Tajriba guruhida bilimlarni o'zlashtirish ko'rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha o'n besh foizga yuqori bo'ldi, amaliy ko'nikmalarni rubrikalar bo'yicha baholashda esa ustunlik yanada yaqqol namoyon bo'ldi: talabalar manipulyatsiya algoritmini to'liq va xatosiz bajarish bo'yicha sezilarli yuqori ball to'pladi. Shuningdek, tajriba guruhida o'quv motivatsiyasi va kasbiy o'ziga ishonch darajasining o'sishi kuzatildi, bu CAMIL modelidagi ishtirok hissi mexanizmiga muvofiq keladi [6, b. 945]. Olingan ma'lumotlar xalqaro meta-tahlillar xulosalari bilan hamohangdir [3, b. 985; 4, b. 9]. Demak, immersiv muhit nafaqat bilimlar hajmini, balki ularni amaliy vaziyatga ko'chirish sifatini ham oshiradi.

Natijalar talqinida bir nechta metodik shartni ta'kidlash lozim.

Birinchidan, immersiv muhitning ortiqcha sensor boyligi kognitiv yuklamani oshirib, o'rganishga to'sqinlik qilishi mumkin, shu bois ssenariylar didaktik maqsadga qat'iy bo'ysundirilishi kerak [6, b. 949].

Ikkinchidan, samaraning muhim qismi mashg'ulotdan keyingi debrifing jarayonida shakllanadi: aynan refleksiya tajribani tizimli bilimga aylantiradi [2, b. 12].

Uchinchidan, immersiv ssenariylar jamoaviy muloqot, klinik qaror qabul qilish va empatiya kabi soft skills, kengroq ma'noda transferable skills rivojiga xizmat qiladi, bu esa baholashda faqat test diagnostikasi bilan cheklanmaslikni taqozo etadi.

Shunday qilib, immersiv texnologiya o'qituvchini almashtirmaydi, balki uning metodik rolini kuchaytiradi. Samaradorlik texnik infratuzilma, pedagogik dizayn va mezonli baholashning uyg'unligiga bog'liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy va empirik tahlil immersiv ta’lim muhitlarini tibbiy tayyorgarlik sifatini oshirishning ilmiy asoslangan vositasi sifatida baholashga imkon beradi. Ular xavfsiz amaliyot, takroriy mashq va obyektiv qayta aloqa imkoniyatini yaratib, bilim, ko‘nikma va motivatsiyaning yaxlit o‘sishini ta’minlaydi. Texnologiyani joriy etishda pedagogik loyihalash, rubrikalar asosidagi mezonli baholash, debrifing va o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi hal qiluvchi shartlar hisoblanadi.

Istiqboldagi tadqiqotlar immersiv o‘qitishning uzoq muddatli ta’sirini va uni milliy ta’lim standartlariga integratsiyalash mexanizmlarini o‘rganishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dede C. Immersive interfaces for engagement and learning // Science. 2009. Vol. 323, No. 5910. P. 66-69.
2. Issenberg S.B., McGaghie W.C., Petrusa E.R., Gordon D.L., Scalese R.J. Features and uses of high fidelity medical simulations that lead to effective learning: a BEME systematic review // Medical Teacher. 2005. Vol. 27, No. 1. P. 10-28.
3. Cook D.A., Hatala R., Brydges R., Zendejas B., Szostek J.H., Wang A.T., Erwin P.J., Hamstra S.J. Technology enhanced simulation for health professions education: a systematic review and meta-analysis // JAMA. 2011. Vol. 306, No. 9. P. 978-988.
4. Kyaw B.M., Saxena N., Posadzki P., Vseteckova J., Nikolaou C.K., George P.P., Divakar U., Masiello I., Kononowicz A.A., Zary N., Tudor Car L. Virtual reality for health professions education: systematic review and meta analysis by the Digital Health Education collaboration // Journal of Medical Internet Research. 2019. Vol. 21, No. 1. e12959.
5. Pottle J. Virtual reality and the transformation of medical education // Future Healthcare Journal. 2019. Vol. 6, No. 3. P. 181-185.
6. Makransky G., Petersen G.B. The Cognitive Affective Model of Immersive Learning (CAMIL): a theoretical research-based model of learning in immersive virtual reality // Educational Psychology Review. 2021. Vol. 33, No. 3. P. 937-958.
7. Radianti J., Majchrzak T.A., Fromm J., Wohlgenannt I. A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education: design elements, lessons learned, and research agenda // Computers & Education. 2020. Vol. 147. Article 103778.
8. Barteit S., Lanfermann L., Bärnighausen T., Neuhann F., Beiersmann C. Augmented, mixed, and virtual reality-based head-mounted devices for medical education: systematic review // JMIR Serious Games. 2021. Vol. 9, No. 3. e29080.

MILLIY KURASH VOSITALARI ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARINING ETNOPEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH

Jurayev Sayidmurat Safarovich
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
jismoniy tarbiya va sport kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining etnopedagogik kompetensiyasini milliy kurash vositalari asosida shakllantirish modelini takomillashtirish masalasi nazariy-modellashtiruvchi tadqiqot doirasida yoritilgan. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, milliy va xorijiy ilmiy manbalar kontent-tahlil qilinib, tizimli, aksiologik, kompetensiyaviy va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Natijada maqsadli, mazmuniy, jarayonli-texnologik, diagnostik-baholash va natijaviy bloklardan iborat takomillashtirilgan model taklif etildi. Model milliy kurashning harakat mazmuni bilan bir qatorda, uning odob, hurmat, halollik, mas'uliyat, ustoz-shogirdlik va madaniy identifikatsiya bilan bog'liq tarbiyaviy kodlarini kasbiy tayyorgarlikka integratsiyalashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: etnopedagogik kompetensiya, milliy kurash, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi, pedagogik model, milliy qadriyat, aksiologik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, refleksiya, kasbiy tayyorgarlik, baholash mezoni.

Abstract: The article examines the improvement of a model for developing the ethnopedagogical competence of future physical education teachers through Uzbek national kurash. The study is designed as a theoretical modelling study based on a content analysis of regulatory documents and national and international research. Systemic, axiological, competence-based and activity-oriented approaches are integrated into a coherent training logic. The proposed model consists of target, content, process-technological, diagnostic-assessment and outcome blocks. It treats kurash not only as a motor-sport practice but also as a pedagogical carrier of respect, honesty, responsibility, mentor-apprentice traditions, and cultural identity relevant to the professional preparation of physical education teachers.

Key words: ethnopedagogical competence, kurash, future physical education teacher, pedagogical model, national values, axiological approach, competence-based approach, reflection, professional training, assessment criteria.

Аннотация: В статье рассматривается совершенствование модели формирования этнопедагогической компетентности будущих учителей физической культуры средствами национальной борьбы кураш. Исследование выполнено в формате теоретико-моделирующей работы на основе контент-анализа нормативных документов, отечественных и зарубежных научных источников. Системный, аксиологический, компетентностный и деятельностный подходы объединены в единую логику подготовки. Предложена усовершенствованная модель, включающая целевой, содержательный, процессуально-технологический, диагностико-оценочный и результативный блоки. Особое внимание уделено включению в профессиональную подготовку воспитательных смыслов кураша: уважения, честности, ответственности, традиции "устоз-шогирд" и культурной идентичности.

Ключевые слова: этнопедагогическая компетентность, кураш, будущий учитель физической культуры, педагогическая модель, национальные ценности, аксиологический подход, компетентностный подход, рефлексия, профессиональная подготовка, критерии оценки.

KIRISH

Jismoniy tarbiya o'qituvchisining zamonaviy kasbiy tayyorgarligi faqat harakat texnikasi, sport nazariyasi va mashg'ulot metodikasini egallash bilan cheklanmaydi. Ta'lim oluvchini muayyan ijtimoiy-madaniy muhitda tarbiyalash, milliy qadriyatlarni zamonaviy pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtirish va jismoniy faoliyatni shaxsiy-ma'naviy rivojlanish vositasiga aylantirish ham kasbiy kompetentlikning tarkibiy qismiga aylanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020-yildagi 637-son[1] “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida ta’limning milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unligi, shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo‘naltirilganligi belgilangan [1].

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan PQ-392-son[2] qaror esa fan mazmuni, metodik ta’minot va o‘qituvchi mahoratini yangilashni dolzarb vazifa sifatida ko‘rsatadi [2].

24.03.2026-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi 1123-son[3] “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonun ham jismoniy tarbiya va sportning ta’limiy, tarbiyaviy hamda ijtimoiy funksiyalarini mustahkamlaydi [3].

Mazkur normativ yo‘nalish bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashda milliy sport turlarining pedagogik imkoniyatlarini qayta baholashni taqozo etadi. Kurash o‘zbek xalqining tarixiy-madaniy tajribasida jismoniy bellashuv bilan birga odob, raqibga hurmat, halollik, o‘zini tuta bilish, matonat va jamoa oldidagi mas’uliyat kabi me’yorlarni mujassamlashtirgan amaliy tarbiya shaklidir.

UNESCOning O‘zbekiston nomoddiy madaniy merosiga oid materiallarida kurash an’anaviy madaniyat va etnosport tarkibida qayd etiladi, bu esa uning pedagogik mazmunini faqat sport texnikasi doirasida talqin qilish yetarli emasligini ko‘rsatadi [4]. Muallifning avvalgi tadqiqotlarida milliy kurashning etnopedagogik salohiyati bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorgarligi bilan bog‘liq holda tahlil qilingan va uning qadriyat uzatish, kasbiy-madaniy identifikatsiya hamda tarbiyaviy kommunikatsiyani qo‘llab-quvvatlash imkoniyatlari asoslangan [5].

Biroq mazkur salohiyatni oliy pedagogik ta’limning aniq maqsadi, mazmuni, faoliyat turlari, baholash mezonlari va kutiladigan natijalarini bir tizimda bog‘laydigan model sifatida operatsionallashtirish alohida ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda. Shuning uchun tadqiqotning maqsadi milliy kurash vositalari asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining etnopedagogik kompetensiyasini shakllantirish modelining tarkibiy-funksional tuzilishini takomillashtirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot empirik tajriba natijalarini sun’iy ravishda qayta ishlab chiqishga emas, nazariy-modellashtiruvchi dizaynga asoslandi. Manba bazasiga 2020-2026-yillarda qabul qilingan tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligiga oid mahalliy ilmiy ishlar, milliy va an’anaviy o‘yinlarning pedagogik imkoniyatlariga bag‘ishlangan zamonaviy xorijiy tadqiqotlar hamda kurashning etnopedagogik salohiyati bo‘yicha muallif ishlari kiritildi. Mazkur tanlov jurnal talabi nuqtayi nazaridan so‘nggi 10-15 yildagi manbalarga ustuvorlik berish tamoyiliga moslashtirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Asosiy metodlar sifatida kontent-tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, kategoriyalash, strukturaviy-funksional modellashtirish, pedagogik interpretatsiya va nazariy umumlashtirish qo‘llanildi. Kontent-tahlil jarayonida manbalardan to‘rtta semantik birlik ajratildi:

- *birinchisi* - etnopedagogik mazmun;
- *ikkinchisi* - kasbiy kompetensiya komponentlari;
- *uchinchisi* - faoliyatga asoslangan o‘qitish mexanizmlari;
- *to‘rtinchisi* - baholash va refleksiya vositalari.

Keyinchalik bu birliklar o‘zaro aloqador bloklarga birlashtirildi.

Modelni ishlab chiqishda tizimli yondashuv kompetensiya komponentlari va ta’lim jarayoni bosqichlari o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlash uchun, aksiologik yondashuv milliy kurashning qadriyatga oid mazmunini ochish uchun, kompetensiyaviy yondashuv kasbiy natijalarni aniq ko‘nikma va faoliyat ko‘rsatkichlariga aylantirish uchun, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv esa talabaning faqat bilim oluvchi emas, darsni loyihalovchi, vaziyatni boshqaruvchi va refleksiya qiluvchi subyekt sifatidagi rolini belgilash uchun qo‘llanildi. Madaniy jihatdan mos pedagogika haqidagi zamonaviy qarashlarda ham o‘quvchining madaniy tajribasini ta’lim mazmuniga kiritish bilim, amaliyot va pedagogik pozitsiyaning birligi sifatida talqin qilinadi [6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida etnopedagogik kompetensiya bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisining milliy-madaniy qadriyatlarni anglash, ularni jismoniy tarbiya mazmuniga pedagogik maqsad asosida integratsiyalash, kurashga xos axloqiy-me’yoriy vaziyatlarni tarbiyaviy resurs sifatida boshqarish va o‘z faoliyatini madaniy jihatdan

1 https://lex.uz/docs/-5013007
2 https://lex.uz/uz/docs/-7221716
3 https://www.lex.uz/uz/docs/-8093787

refleksiv baholash qobiliyatlarini birlashtiruvchi integrativ kasbiy sifat sifatida aniqlandi. Ushbu ta'rif kompetensiyani faqat "milliy qadriyatlar haqida bilim" darajasida emas, balki bilim-pozitsiya-harakat-refleksiya zanjiri orqali ifodalaydi. Takomillashtirilgan model besh funksional blokdan tuzildi.

Maqsadli blokning bosh maqsadi - bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisida milliy kurashning pedagogik va madaniy mazmunidan kasbiy vaziyatlarda ongli foydalanishga tayyorlikni shakllantirish. Mazmuniy blok etnoaksiologik, kognitiv, metodik-faoliyatli va kommunikativ-refleksiv komponentlarni qamrab oladi. Jarayonli-texnologik blokda muammoli vaziyat, mikroo'qitish, dars fragmentini loyihalash, kurash marosimlari va qoidalarini pedagogik sharhlash, rolli tahlil, keys, kuzatuv va refleksiv kundalik kabi usullar bir tizimga keltiriladi.

Diagnostik-baholash blokida mezonlar, indikatorlar va darajalar aniqlanadi. Natijaviy blok esa kompetensiyaning reproduktiv, konstruktiv va integrativ-ijodiy darajalarda namoyon bo'lishini nazarda tutadi. Modelning mazmuniy yadrosida kurashning texnik elementlarini o'rgatishning o'zi emas, balki har bir o'quv vaziyatiga etnopedagogik ma'no biriktirish tamoyili turadi. Masalan, bellashuv oldidan va undan keyingi hurmat ifodalari tarbiyaviy kommunikatsiya namunasi sifatida; qoidalarga qat'iy rioya qilish halollik va huquqiy-madaniy mas'uliyat sifatida; kuchni boshqarish o'zini nazorat qilish va xavfsizlik mas'uliyati sifatida; ustoz-shogird munosabati esa kasbiy meros va pedagogik davomiylik mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Shu usulda sport harakati "mazmunsiz mashq"dan ijtimoiy-pedagogik vaziyatga aylantiriladi.

1-jadval: **Takomillashtirilgan modelning mazmuniy komponentlari va baholash indikatorlari**

Model komponenti	Asosiy mazmun	Faoliyat indikatori	Baholash vositasi
Etnoaksiologik	Kurashning qadriyatlari, tarixiy-madaniy ma'nosi, odob va hurmat me'yorlari	Milliy qadriyatni dars maqsadi bilan bog'lay oladi	Vaziyatli topshiriq, refleksiv izoh
Kognitiv	Etnopedagogika, kurash an'analari, tarbiyaviy imkoniyatlar haqidagi bilim	Pedagogik vaziyatni nazariy asosda sharhlaydi	Test, konseptual xarita, tahliliy topshiriq
Metodik-faoliyatli	Kurash elementlarini darsga integratsiyalash, xavfsiz va maqsadli faoliyatni loyihalash	Dars fragmenti va mashg'ulot ssenariysini tuzadi	Mikroo'qitish, kuzatuv rubrikasi
Kommunikativ-refleksiv	Hurmatli muloqot, konfliktni boshqarish, o'z faoliyatini tahlil qilish	Pedagogik muloqotni boshqaradi va qarorini asoslaydi	O'zaro baholash, refleksiv kundalik

Modelni amalga oshirish to'rt bosqichda ko'zda tutiladi.

- *Birinchi* - motivatsion-aksiologik bosqichda talaba milliy kurashning madaniy va kasbiy ahamiyatini shaxsiy-pedagogik nuqtayi nazardan anglaydi.
- *Ikkinchi* - kognitiv-interpretativ bosqichda etnopedagogik tushunchalar, kurashning tarixiy-madaniy kodi va uning jismoniy tarbiya darsidagi didaktik imkoniyatlari o'zlashtiriladi.
- *Uchinchi* - operatsion-metodik bosqichda talaba dars fragmentlari, mikroo'qitish, vaziyatli mashqlar va kurashga asoslangan tarbiyaviy topshiriqlarni loyihalaydi.
- *To'rtinchi* - refleksiv-baholash bosqichida faoliyatning maqsadga muvofiqligi, madaniy mosligi, xavfsizligi va tarbiyaviy natijadorligi tahlil qilinadi.

Mazkur ketma-ketlikning ustunligi shundaki, etnopedagogik mazmun alohida nazariy mavzu sifatida o'tilib, keyin amaliyotdan uzilib qolmaydi. U kompetensiyaning barcha bosqichlari bo'ylab "vertikal" integratsiya qilinadi: qadriyat anglanadi, bilim bilan asoslanadi, faoliyatda namoyon etiladi va refleksiya orqali mustahkamlanadi. Jismoniy tarbiya bo'yicha mahalliy tadqiqotlarda kasbiy kompetentlikni amaliy, kommunikativ va innovatsion tarkiblar orqali rivojlantirish zarurligi qayd etilgan [7].

Taklif etilgan model ushbu qarashni etnomadaniy komponent bilan kengaytiradi. Olingan nazariy natijalar jismoniy tarbiya pedagogikasidagi xalq o'yinlari va madaniy mazmunni faollashtirishga qaratilgan xalqaro tendensiyalar bilan mos keladi. Martínez-Santos va hammualliflar an'anaviy o'yinlarni jismoniy tarbiyaning nafaqat didaktik, balki madaniy va ijtimoiy resursi sifatida ko'rsatadi [8].

Lavega-Burgués va hamkorlar an'anaviy sport o'yinlari madaniy xilma-xillik, ijtimoiy munosabat va qaror qabul qilish jarayonlarini boyitishini ta'kidlaydi [9]. So'nggi eksperimental ishlarda an'anaviy o'yinlar jismoniy savodxonlikning jismoniy, psixologik, ijtimoiy va kognitiv komponentlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan [10]. Bu natijalar milliy kurashni ham ko'p o'lchovli pedagogik vosita sifatida ko'rishga metodologik asos beradi.

Biroq kurashning o'ziga xosligi shundaki, u oddiy xalq o'yini yoki jismoniy faollikdan farqli ravishda institutsionallashgan sport amaliyoti, marosimiy me'yorlar va etnomadaniy xotirani birlashtiradi. Shuning uchun

modelda texnik tayyorgarlik bilan axloqiy-me'yoriy mazmunni tenglashtirish emas, balki ularning funksional birligini yaratish muhim. Fencl jismoniy tarbiya darslarida turli madaniy o'yinlardan foydalanish o'quvchilarda madaniy sezgirlik va mas'uliyatli xulqni rivojlantirish imkonini berishini ko'rsatadi [11].

Kurashga asoslangan model esa mazkur imkoniyatni bo'lajak o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga ko'chiradi. Taklif etilgan modelning ilmiy yangiligi uch jihatda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, etnopedagogik kompetensiya milliy qadriyatlar haqidagi deklarativ bilim emas, to'rtta o'zaro bog'liq kasbiy komponent sifatida operatsionallashtirildi.

Ikkinchidan, kurashning qadriyat va odob me'yorlari dars metodikasi bilan bir tizimda birlashtirildi.

Uchinchidan, baholash faqat nazariy bilim yoki sport texnikasini tekshirish bilan cheklanmay, dars loyihalash, pedagogik kommunikatsiya va refleksiv asoslash indikatorlarini ham qamrab oldi.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, mazkur maqola nazariy-modellashtiruvchi bosqichni yoritadi; modelning real ta'lim sharoitidagi samaradorligi bo'yicha tajriba va nazorat guruhlari natijalari bu maqolada keltirilmaydi. Shuning uchun keyingi bosqichda model komponentlari va mezonlarini ekspert validatsiyasidan o'tkazish, pedagogik tajriba-sinovda pre-test/post-test o'lchovlarini qo'llash va guruhlar o'rtasidagi farqning statistik ahamiyatini aniqlash zarur. Bu ilmiy halollik nuqtayi nazaridan nazariy natija bilan hali olinmagan empirik natijani aralashtirmaslik imkonini beradi.

XULOSA

Milliy kurash vositalari asosida etnopedagogik kompetensiyani shakllantirish bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisini faqat muayyan sport turini o'rgatuvchi mutaxassis sifatida emas, balki jismoniy faoliyat orqali madaniy qadriyatlarni pedagogik jihatdan uzata oladigan kasbiy subyekt sifatida tayyorlashni nazarda tutadi. Takomillashtirilgan modelning maqsadli, mazmuniy, jarayonli-texnologik, diagnostik-baholash va natijaviy bloklari shu vazifani yagona tizimga birlashtiradi.

Modelning markaziy natijasi etnopedagogik kompetensiyaning etnoaksiologik, kognitiv, metodik-faoliyatli va kommunikativ-refleksiv tarkiblari o'rtasidagi uzviylikdir. Mazkur tuzilma kurashning tarixiy-madaniy mazmunini kasbiy faoliyat indikatorlari bilan bog'lash, ta'lim mazmunini nazariy bayondan amaliy pedagogik harakatga o'tkazish va natijani aniq mezonlar asosida baholash imkonini beradi.

Keyingi tadqiqot bosqichida modelning tajriba-sinov orqali statistik validatsiyasi uning samaradorligi haqidagi xulosalarni empirik jihatdan mustahkamlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son, 23.09.2020. Toshkent. Available at: https://lex.uz/docs/-5013007
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-392-son Qarori, 15.11.2024. Available at: https://lex.uz/uz/docs/-7221716
3. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-1123-son, 24.03.2026. Available at: https://lex.uz/uz/docs/-8093787
4. UNESCO. Uzbekistan: Intangible Cultural Heritage. Paris: UNESCO, 2026. Available at: https://ich.unesco.org/en/state/uzbekistan-UZ
5. Jurayev S.S. Milliy kurashning etnopedagogik salohiyati va uning bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligidagi o'rni. International Sciences, Education and New Learning Technologies. 2026;3(6):299-302. DOI: 10.5281/zenodo.19390288.
6. Jackson I., Nightengale-Lee B., Allen K. Culturally Responsive Pedagogy in Teacher Education. Oxford Research Encyclopedia of Education. 2019. DOI: 10.1093/acrefore/9780190264093.013.266.
7. Karimova G.B. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish usullari. Экономика и социум. 2024.
8. Martínez-Santos R., Founaud M.P., Aracama A., Oiarbide A. Sports Teaching, Traditional Games, and Understanding in Physical Education: A Tale of Two Stories. Frontiers in Psychology. 2020;11:581721. DOI: 10.3389/fpsyg.2020.581721.
9. Lavega-Burgués P., Magno-Ribas J.F., Pic M. Editorial: Traditional sporting games and play in physical education: enhancing cultural diversity, emotional well-being, interpersonal relationships and intelligent decisions, volume II. Frontiers in Psychology. 2023;14:1302853. DOI: 10.3389/fpsyg.2023.1302853.
10. Çinar M., Hassani F. The effects of traditional games on physical literacy among school-aged children. Frontiers in Sports and Active Living. 2026;7:1759890. DOI: 10.3389/fspor.2025.1759890.
11. Fencl M. Multicultural Games for Physical Education. Strategies. 2022;35(2):30-35. DOI: 10.1080/08924562.2022.2030835.
12. Masharipov F.T., Po'zmetov A.T. Milliy va harakatli o'yinlarni o'rgatish metodikasi. Urganch: Khwarezm Travel, 2023. 176 b. ISBN 978-9910-9427-0-9.

"UGLEVODLAR" BO'LIMINI O'QITISHNI AXBOROT KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI (UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI 10-SINFLAR O'QUVCHILARI MISOLIDA)



Rasulov Mirzobek Toxirovich
Buxoro davlat pedagogika instituti "Kimyo" kafedrasi o'qituvchisi

ORCID: 0009-0000-8340-8658

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinflarida "Uglevodlar" bo'limini axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida o'qitishni takomillashtirish metodikasi yoritilgan. Tadqiqotda multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, interaktiv ta'lim texnologiyalari hamda 3D molekulyar modellashtirishning o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlari tahlil qilindi. "Uglevodlar" bo'limiga oid murakkab kimyoviy tushunchalar, molekulyar tuzilish, izomeriya, fizik-kimyoviy xossalar va kimyoviy reaksiyalarni vizual modellashtirish orqali o'zlashtirish samaradorligi o'rganildi. Tajriba-sinov ishlari natijasida AKT vositalaridan tizimli foydalanish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini, mustaqil fikrlashini, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash hamda kimyoviy jarayonlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik va raqamli ta'lim texnologiyalariga asoslangan metodik yondashuv ishlab chiqildi. Olingan natijalar "Uglevodlar" bo'limini o'qitish samaradorligini oshirish hamda umumiy o'rta ta'limda kimyo fanini raqamlashtirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Uglevodlar, organik kimyo, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, AKT, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, virtual laboratoriya, multimedia vositalari, interaktiv metodlar, 3D molekulyar modellashtirish, elektron ta'lim, raqamli ta'lim muhiti, kimyo ta'limi, innovatsion yondashuv, ta'lim samaradorligi, vizual modellashtirish, mustaqil fikrlash, uglevodlarning tuzilishi, kimyoviy xossalar, kimyo o'qitish metodikasi.

Abstract: This article presents a methodology for improving the teaching of the "Carbohydrates" section in 10th-grade secondary schools through information and communication technologies. The study analyzes the potential of multimedia tools, virtual laboratories, interactive educational technologies, and 3D molecular modeling in developing students' knowledge, skills, and competencies. The effectiveness of visual modeling in learning complex chemical concepts related to the molecular structure, isomerism, physical and chemical properties, and chemical reactions of carbohydrates was examined. Experimental results demonstrated that the systematic use of ICT contributes to increasing students' interest in chemistry, developing independent thinking, connecting theoretical knowledge with practical activities, and improving their ability to analyze chemical processes. A methodological approach based on modern pedagogical and digital educational technologies was developed during the study. The obtained results have scientific and practical significance for improving the effectiveness of teaching the "Carbohydrates" section and promoting the digitalization of chemistry education in secondary schools.

Key words: Carbohydrates, organic chemistry, information and communication technologies, ICT, modern pedagogical technologies, virtual laboratory, multimedia tools, interactive methods, 3D molecular modeling, e-learning, digital educational environment, chemistry education, innovative approach, educational effectiveness, visual modeling, independent thinking, carbohydrate structure, chemical properties, chemistry teaching methodology.

Аннотация: В данной статье представлена методика совершенствования преподавания раздела “Углеводы” в 10-х классах общеобразовательных школ с использованием информационно-коммуникационных технологий. В исследовании проанализированы возможности мультимедийных средств, виртуальных лабораторий, интерактивных образовательных технологий и 3D-моделирования молекул в развитии знаний, умений и компетенций учащихся. Изучена эффективность визуального моделирования при усвоении сложных химических понятий, связанных с молекулярным строением, изомерией, физическими и химическими свойствами, а также химическими реакциями углеводов. Результаты опытно-экспериментальной работы показали, что систематическое использование ИКТ способствует повышению интереса учащихся к химии, развитию самостоятельного мышления, установлению связи между теоретическими знаниями и практической деятельностью, а также формированию навыков анализа химических процессов. В ходе исследования разработан методический подход, основанный на современных педагогических и цифровых образовательных технологиях. Полученные результаты имеют научно-практическое значение для повышения эффективности преподавания раздела “Углеводы” и цифровизации химического образования в общеобразовательных школах.

Ключевые слова: Углеводы, органическая химия, информационно-коммуникационные технологии, ИКТ, современные педагогические технологии, виртуальная лаборатория, мультимедийные средства, интерактивные методы, 3D-моделирование молекул, электронное обучение, цифровая образовательная среда, химическое образование, инновационный подход, эффективность обучения, визуальное моделирование, самостоятельное мышление, строение углеводов, химические свойства, методика преподавания химии.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim tizimini raqamlashtirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarni keng joriy etish va innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida o‘quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tabiiy fanlarni, jumladan, kimyo fanini zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o‘qitish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Kimyo fani tarkibida o‘quvchilardan moddalarning mikroskopik tuzilishi, kimyoviy bog‘lanishlar, reaksiyalar mexanizmi hamda moddalarning xossalari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tasavvur qilishni talab qiluvchi mavzular salmoqli o‘rin egallaydi. Shu sababli kimyo fanining, xususan, organik kimyoning “Uglevodlar” bo‘limini faqat an’anaviy o‘qitish usullari asosida o‘rganish ayrim o‘quvchilarda murakkab kimyoviy tushunchalarni tasavvur qilish, molekulalarning tuzilishini anglash va kimyoviy jarayonlarning mohiyatini tushunishda qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin [1].

“Uglevodlar” bo‘limi organik kimyoning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, monosaxaridlar, disaxaridlar va polisaxaridlarning tuzilishi, nomenklaturasi, fizik-kimyoviy xossalari, olinishi hamda kimyoviy reaksiyalarini o‘z ichiga oladi. Mazkur bo‘limni o‘rganishda glyukoza, fruktoza, saxaroza, kraxmal va sellyuloza kabi moddalarning molekulyar va fazoviy tuzilishini, funksional guruhlarining xususiyatlarini, o‘zaro kimyoviy bog‘lanishlarini hamda reaksiyalar jarayonini to‘g‘ri tasavvur qilish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, glyukozaning ochiq va siklik shakllari, izomeriya hodisasi, monosaxaridlarning kimyoviy reaksiyalari hamda polisaxaridlarning tuzilish xususiyatlarini an’anaviy tasvirlar yordamida tushuntirish har doim ham yetarli darajada samarali bo‘lmasligi mumkin. [3; 56-b.].

Mavzuning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’lim jarayonida multimedia vositalari, elektron ta’lim resurslari, virtual laboratoriyalar, interaktiv taqdimotlar, 3D molekulyar modellashtirish va raqamli baholash vositalaridan foydalanish o‘quvchilarning kimyo faniga bo‘lgan qiziqishini oshirish bilan bir qatorda, murakkab nazariy tushunchalarni vizual va amaliy tarzda o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. “Uglevodlar” bo‘limini AKT asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarning moddalarning tuzilishi va xossalari o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘liqliklarini anglash, kimyoviy reaksiyalarni kuzatish va tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish hamda nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish mumkin. Shu bilan birga, raqamli ta’lim vositalaridan maqsadli va metodik jihatdan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish hamda ta’lim jarayonining interaktivligini oshirishga xizmat qiladi [4; 135-b.].

Tadqiqotning obyekti umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini o‘qitish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti esa umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinflarida “Uglevodlar” bo‘limini axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida o‘qitishning mazmuni, shakllari, metodlari va pedagogik shart-sharoitlaridan iborat.

Tadqiqotning maqsadi umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinflarida “Uglevodlar” bo‘limini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy raqamli ta’lim vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlash hamda ishlab chiqilgan metodikaning ta’lim samaradorligiga ta’sirini tajriba-sinov asosida aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Uglevodlar” bo‘limini o‘qitishning mavjud holatini o‘rganish va undagi metodik muammolarni aniqlash;
- zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalarining kimyo ta’limidagi didaktik imkoniyatlarini o‘rganish;
- multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va 3D molekulyar modellashtirishdan “Uglevodlar” bo‘limini o‘qitishda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;
- uglevodlarning tuzilishi, xossalari va kimyoviy reaksiyalarini vizual hamda interaktiv vositalar asosida tushuntirish metodlarini ishlab chiqish;
- “Uglevodlar” bo‘limini o‘qitishda interaktiv, muammoli va raqamli ta’lim metodlaridan foydalanish samaradorligini aniqlash;
- AKT vositalariga asoslangan darslarning o‘quvchilarning bilim darajasi, mustaqil fikrlashi va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga ta’sirini tajriba-sinov asosida aniqlash;
- “Uglevodlar” bo‘limini axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida samarali o‘qitish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mazkur tadqiqot natijalari umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinflarida “Uglevodlar” bo‘limini zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o‘qitish samaradorligini oshirishga, o‘quvchilarning organik kimyo bo‘yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga, kimyoviy jarayonlarni vizual va interaktiv tarzda o‘zlashtirishiga hamda mustaqil fikrlash va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ishlab chiqilgan metodik yondashuvlardan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kimyo fanini raqamli ta’lim muhitida tashkil etish, elektron o‘quv resurslarini yaratish va o‘qituvchilarning metodik faoliyatini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kimyo ta’limini zamonaviy pedagogik yondashuvlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalari asosida takomillashtirish masalasi bugungi kunda pedagogika, metodika va tabiiy fanlarni o‘qitish sohasidagi dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, organik kimyoning murakkab va ko‘rgazmalilikni talab qiluvchi mavzularini, jumladan, “Uglevodlar” bo‘limini o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlarning ahamiyati ortib bormoqda.

Xorijiy olimlardan R. Mayer tomonidan ishlab chiqilgan multimedia ta’limi nazariyasida o‘quv materiallarini verbal va vizual axborot kanallari orqali uyg‘un holda taqdim etish o‘quvchilarning bilimlarni samarali o‘zlashtirishiga xizmat qilishi asoslangan. Olimning tadqiqotlarida multimedia vositalaridan maqsadli foydalanish murakkab ilmiy tushunchalarni vizual shaklda ifodalash, o‘quvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish va o‘quv materialini tizimli o‘zlashtirish imkonini berishi ko‘rsatilgan. J. Brunerning kognitiv ta’limga oid qarashlarida esa bilimlarni faol o‘zlashtirish, o‘quvchining mustaqil izlanishi va ta’lim mazmunini turli tasviriy vositalar yordamida ifodalashning ahamiyati ta’kidlangan. D. Jonassen tadqiqotlarida interaktiv va konstruktiv ta’lim muhiti o‘quvchilarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mustaqil fikrlash va bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi omil sifatida qaralgan [10; 78-b.].

Kimyo ta’limini raqamlashtirishga bag‘ishlangan xalqaro tadqiqotlarda virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, elektron ta’lim resurslari va raqamli modellashtirish vositalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari keng o‘rganilgan. UNESCO va OECD tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayoniga integratsiyalashuvi o‘quvchilarning fanlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi, individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish va interaktiv ta’lim muhitini shakllantirishga xizmat qilishi qayd etilgan [3; 56-b.], [4; 135-b.].

Mahalliy olimlardan N. Azizxo‘jayeva, R. Ishmuhamedov, N. Saidahmedov va H. Omonovlarning ilmiy-metodik ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va o‘quvchilarning faol ta’lim faoliyatini tashkil etish masalalari keng yoritilgan. Mazkur tadqiqotlarda ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, o‘quv materialini tahlil qilish va egallangan bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirishi qayd etilgan [5; 112-b.].

Kimyo fanini o‘qitish metodikasiga oid ilmiy ishlarda H. Omonov va T. Xolmurodov tomonidan kimyo ta’limida ko‘rgazmalilik, laboratoriya tajribalari, muammoli ta’lim va elektron ta’lim resurslaridan foydalanishning metodik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotchilarning qarashlarida kimyoviy hodisa va jarayonlarni bevosita kuzatish, tajriba natijalarini tahlil qilish hamda ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘quvchilarda va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning muhim sharti sifatida baholanadi [5; 118-b.].

Biroq mavjud tadqiqotlarda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinflarida “Uglevodlar” bo‘limini axborot-kommunikatsion texnologiyalar, virtual laboratoriyalar, multimedia vositalari va 3D molekulyar modellashtirishni o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llash asosida o‘qitish metodikasi yetarli darajada tizimli yoritilmagan.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kimyo ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha alohida ilmiy-metodik yondashuvlar shakllangan bo‘lsa-da, “Uglevodlar” bo‘limining mazmuniy xususiyatlari, o‘quvchilarning yosh va psixologik imkoniyatlari hamda AKT vositalarining didaktik imkoniyatlarini yagona metodik tizimga birlashtirish masalasi alohida tadqiqotni talab etadi. Chunki uglevodlar mavzusini o‘rganishda molekulyar tuzilish, funksional guruhlar, izomeriya, kimyoviy reaksiyalar, biologik ahamiyat va amaliy qo‘llanilish kabi o‘zaro bog‘liq tushunchalarni izchil shakllantirish zarur.

Shuningdek, uglevodlarning molekulyar tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari va kimyoviy reaksiyalarini vizual hamda interaktiv shaklda o‘rgatishga yo‘naltirilgan metodik yondashuv ishlab chiqiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinflarida “Uglevodlar” bo‘limini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o‘qitish metodikasining samaradorligini aniqlash maqsadida pedagogik tajriba-sinov, qiyosiy taqqoslash, tahlil va sintez, pedagogik kuzatish, so‘rovnoma hamda pedagogik diagnostika metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida uglevodlarning tuzilishi, nomenklaturasi, fizik-kimyoviy xossalari, olinishi va kimyoviy reaksiyalarini o‘qitishda multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, 3D molekulyar modellashtirish, elektron ta’lim resurslari va interaktiv metodlarning o‘quvchilar bilimini shakllantirishdagi imkoniyatlari ilmiy-metodik jihatdan o‘rganildi.

Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy ta’lim texnologiyalarini kimyo ta’limiga integratsiyalash, ta’lim jarayonini raqamlashtirish, o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda mustaqil fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqotda an’anaviy o‘qitish usullari bilan AKT vositalari asosida tashkil etilgan darslarning natijadorligi qiyosiy jihatdan o‘rganildi. Bunda o‘quvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi, kimyoviy tushunchalarni izohlash, reaksiyalarni tahlil qilish, molekulyar tuzilishni tasavvur qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlar asosiy mezon sifatida belgilandi.

Mazkur tadqiqotda “Uglevodlar” bo‘limini o‘qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun qiyosiy-taqqoslash, tahlil va sintez, pedagogik kuzatish, so‘rovnoma, pedagogik diagnostika hamda tajriba-sinov metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi.

Tadqiqotning ushbu bosqichida “Uglevodlar” bo‘limini an’anaviy ta’lim usullari asosida o‘qitish jarayoni va AKT vositalariga asoslangan zamonaviy o‘qitish texnologiyalari o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. An’anaviy yondashuvda o‘qituvchi tomonidan og‘zaki tushuntirish, darslik, doska va statik ko‘rgazmali materiallardan foydalanishga asosiy e’tibor qaratilgan bo‘lsa, AKT asosidagi yondashuvda multimedia taqdimotlari, animatsiyalar, virtual laboratoriyalar, 3D molekulyar modellar, elektron topshiriqlar va interaktiv baholash vositalaridan foydalanildi.

Qiyosiy tahlil jarayonida, ayniqsa, glyukozaning ochiq va siklik shakllari, fruktozaning tuzilishi, disaxaridlarning hosil bo‘lishi, kraxmal va sellyulozaning makromolekulyar tuzilishi hamda uglevodlarning asosiy kimyoviy reaksiyalarini o‘quvchilarga tushuntirishda turli o‘qitish vositalarining samaradorligi o‘rganildi. Natijalar asosida AKT vositalarining “Uglevodlar” bo‘limini o‘zlashtirishdagi didaktik imkoniyatlari tizimlashtirildi.

1-jadval: **“Uglevodlar” bo‘limini o‘qitishda qo‘llaniladigan AKT vositalari.**

AKT vositasi	Qo‘llanish sohasi	Ta’limdagi ahamiyati
Multimedia taqdimotlari	Uglevodlarning umumiy tavsifi, klassifikatsiyasi va xossalari	Nazariy materialni vizual va tizimli bayon qilish imkonini beradi
Virtual laboratoriya	Glyukozaning kimyoviy xossalari, sifat reaksiyalari	Tajribalarni xavfsiz va interaktiv muhitda bajarish imkonini beradi
3D molekulyar modellar	Glyukoza, fruktoza, saxaroza, kraxmal va sellyuloza tuzilishi	Molekulalarning fazoviy tuzilishini tasavvur qilish va fazoviy tafakkurni rivojlantiradi
Animatsiyalar	Kimyoviy reaksiyalar va molekulyar jarayonlar	Reaksiya mexanizmlarini dinamik tarzda tushuntirishga yordam beradi
Elektron test tizimlari	Mavzuni mustahkamlash va nazorat qilish	O‘quvchilar bilimini tezkor va obyektiv baholash imkonini beradi
Video darslar	Yangi mavzuni tushuntirish va mustaqil ta’lim	Murakkab jarayonlarni qayta ko‘rish va mustaqil o‘rganish imkonini beradi

Interaktiv ta'lim platformalari	Test, topshiriq, muammoli vaziyat va guruhli faoliyat	O'quvchilarning darsdagi faolligi va mustaqil ishlashini oshiradi
Elektron o'quv resurslari	Qo'shimcha ma'lumot va mustaqil ta'lim	O'quv materiallarini individual sur'atda o'zlashtirish imkonini beradi


O'tkazilgan qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, AKT vositalaridan kompleks foydalanish "Uglevodlar" bo'limining nazariy va amaliy mazmunini o'zlashtirishni faollashtirishi aniqlandi. Xususan, 3D molekulyar modellar yordamida uglevodlarning tuzilishini vizual tasavvur qilish, virtual laboratoriyalar orqali kimyoviy reaksiyalarni xavfsiz muhitda kuzatish va multimedia vositalari orqali murakkab jarayonlarni dinamik ko'rinishda namoyish etish o'quvchilarning mavzuni anglash darajasini oshirishga xizmat qiladi.

*1-rasm*da "Uglevodlar" bo'limini o'qitish jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida yaratilgan uch o'lchamli molekulyar modellar aks ettirilgan. Unda glyukoza ($C_6H_{12}O_6$), fruktoza ($C_6H_{12}O_6$), saxaroza ($C_{12}H_{22}O_{11}$) hamda sellyulozaning makromolekulyar tuzilishi uch o'lchamli ko'rinishda tasvirlangan. Mazkur modellar yordamida o'quvchilar uglevod molekulalaridagi atomlarning fazoviy joylashuvi, funksional guruhlarning o'zaro bog'lanishi va molekulalarning strukturaviy xususiyatlarini yaxshiroq tasavvur qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.


3D modellashtirish texnologiyalaridan foydalanish uglevodlarni o'qitishda alohida ahamiyatga ega. Chunki glyukozaning ochiq zanjirli va siklik shakllari, α- va β-shakllar o'rtasidagi farqlar, glikozid bog'larining hosil bo'lishi hamda kraxmal va sellyulozaning takrorlanuvchi strukturaviy birliklarini an'anaviy ikki o'lchamli tasvirlar orqali to'liq tasavvur qilish ayrim o'quvchilar uchun murakkab bo'lishi mumkin. 3D modellar esa ushbu tuzilmalarni fazoviy ko'rinishda kuzatish, ularni aylantirish va turli rakurslardan tahlil qilish imkonini berib, o'quvchilarda molekulyar va fazoviy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi [8; 214-b.].

*2-rasm*da glyukozaning mis(II) gidroksid bilan reaksiyasi virtual laboratoriya dasturi asosida modellashtirilgan bo'lib, tajriba jarayoni bosqichma-bosqich namoyish etiladi. Bunda glyukoza eritmasining mis(II) gidroksid bilan o'zaro ta'siri natijasida kuzatiladigan o'zgarishlar, reaktivlarning o'zaro ta'siri va hosil bo'ladigan mahsulotlar vizual tarzda aks ettiriladi. Reaksiya jarayonining molekulyar modeli bilan bir qatorda uning kimyoviy tenglamasining ham namoyish etilishi nazariy bilimlarni tajribaviy jarayon bilan bog'lash imkonini beradi.

1-rasm. Uglevodlarning 3D molekulyar modeli



2-rasm. Virtual laboratoriyada organik kimyo tajribasi



Virtual laboratoriya vositalari yordamida glyukozaning qaytaruvchanlik xossalarini, kraxmalning yod bilan sifat reaksiyasini hamda uglevodlarning ayrim boshqa kimyoviy xossalarini modellashtirish mumkin. Bunday yondashuv o‘quvchilarga tajriba jarayonini bosqichma-bosqich kuzatish, kuzatilgan hodisalarni izohlash va kimyoviy tenglamalar bilan bog‘lash imkoniyatini yaratadi [3; 61-b.].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 10-sinflarida “Uglevodlar” bo‘limini zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o‘qitish samaradorligi ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda o‘quvchilarning bilim darajasi, mavzuni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, mustaqil fikrlash kompetensiyasi hamda organik kimyo faniga bo‘lgan qiziqishidagi o‘zgarishlar o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlari Buxoro shaxridagi 24-umumta’lim maktabining 10-sinf o‘quvchilari ishtirokida tashkil etildi. Tadqiqotda 10-“A” sinfi tajriba guruhi, 10-“B” sinfi esa nazorat guruhi sifatida belgilandi.

Tajriba guruhida o‘quv jarayoni zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida tashkil etilib, darslarda multimedia taqdimotlari, virtual laboratoriyalar, 3D molekulyar modellar, elektron ta’lim resurslari hamda interaktiv pedagogik metodlardan samarali foydalanildi. Nazorat guruhida esa dars mashg‘ulotlari an’anaviy o‘qitish metodlari asosida olib borildi [2].

Tajriba-sinov ishlari boshlanishidan avval har ikki guruh o‘quvchilarining dastlabki bilim darajasi test topshiriqlari, yozma nazorat ishlari hamda og‘zaki suhbatlar orqali aniqlanib, natijalar statistik jihatdan tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar tajriba va nazorat guruhlari o‘quvchilarining boshlang‘ich bilim ko‘rsatkichlari deyarli teng ekanligini ko‘rsatdi. Bu esa tajriba-sinov natijalarining obyektivligini ta’minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot davomida tajriba guruhida qo‘llanilgan innovatsion pedagogik yondashuvlar o‘quvchilarning mavzuni chuqurroq o‘zlashtirishi, mustaqil ishlash ko‘nikmalarining rivojlanishi hamda kimyo faniga bo‘lgan qiziqishining ortishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgani kuzatildi [6; 49-b.].

1-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlarining dastlabki o‘zlashtirish natijalari**

Baholash ko‘rsatkichi	Tajriba guruhi 10-“A” (%)	Nazorat guruhi 10-“B” (%)	Izoh
“5” baho olgan o‘quvchilar ulushi	24	24	Yuqori darajadagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi
“4” baho olgan o‘quvchilar ulushi	40	40	Yaxshi o‘zlashtirish darajasi
“3” baho olgan o‘quvchilar ulushi	36	36	Qoniqarli o‘zlashtirish darajasi
Umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi	64	64	“4” va “5” baholar yig‘indisi asosida
Sifat ko‘rsatkichi	24	24	Yuqori sifatli o‘zlashtirish (“5” baholar)
O‘rtacha baho ko‘rsatkichi	3,88	3,88	Matematik o‘rtacha qiymat
Guruhlararo farq	Minimal	Minimal	Dastlabki bilim darajalari deyarli teng

Tajriba-sinov ishlari boshlanishidan oldin 10-“A” tajriba guruhi hamda 10-“B” nazorat guruhi o‘quvchilarining bilim darajalari diagnostik tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko‘ra, har ikkala guruhda ham o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari bir xil darajada ekanligi aniqlandi. Jumladan, “5” baho olgan o‘quvchilar ulushi 24 %, “4” baho olganlar 40 % hamda “3” baho olganlar 36 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, umumiy o‘zlashtirish ko‘rsatkichi har ikkala guruhda 64 % ni tashkil qilgani tajriba va nazorat guruhlarining boshlang‘ich bilim darajasi o‘zaro teng ekanligini ko‘rsatadi.

Tajriba jarayonida 10-“A” sinfida “Uglevodorodlar” bo‘limiga oid mavzular elektron taqdimotlar, animatsion modellar, virtual laboratoriya tajribalari va interaktiv topshiriqlar yordamida o‘qitildi. O‘quvchilar molekulalarning fazoviy tuzilishini 3D modellar orqali o‘rgandilar hamda organik reaksiyalarni virtual laboratoriya muhitida kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Nazorat guruhida esa mavzular an’anaviy doska va darslik asosida tushuntirildi.


Tajriba yakunida o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash maqsadida qayta test, yozma nazorat ishlari va og‘zaki savol-javoblar o‘tkazildi. Yakuniy natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

2-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy o'zlashtirish natijalari**

Baholash ko'rsatkichi	Tajriba guruhi 10-"A" (%)	Nazorat guruhi 10-"B" (%)	Farq (%)	Izoh
"5" baho olgan o'quvchilar ulushi	52	32	+20	Yuqori darajadagi o'zlashtirish tajriba guruhida sezilarli oshgan
"4" baho olgan o'quvchilar ulushi	36	44	−8	Nazorat guruhida o'rtacha yuqori natija ustun
"3" baho olgan o'quvchilar ulushi	12	24	−12	Tajriba guruhida past o'zlashtirish kamaygan
Umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi	88	76	+12	"4" va "5" baholar yig'indisi asosida
Sifat ko'rsatkichi	52	32	+20	Yuqori sifatli o'zlashtirish darajasi
O'rtacha baho ko'rsatkichi	4,40	4,08	+0,32	Tajriba guruhida o'rtacha natija yuqori
Pedagogik samaradorlik darajasi	Yuqori	O'rtacha	–	AKT asosidagi metodika samaradorligi kuzatildi

Diagramma natijalari zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarda yuqori baho olgan o'quvchilar soni ortganligini, past baho olgan o'quvchilar soni esa kamayganligini ko'rsatadi [4; 142-b.].



XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari "Uglevodorodlar" bo'limini axborot-kommunikatsion texnologiyalar asosida o'qitish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishi, kimyoviy jarayonlarni vizual anglashlari hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xususan, 3D modellashtirish, virtual laboratoriyalar, multimedia taqdimotlari va elektron test tizimlari darslarning samaradorligini oshirdi. Tajriba-sinov natijalarida tajriba guruhi o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori natija qayd etdi.

Shu bilan birga, ayrim maktablarda texnik jihozlarning yetarli emasligi, internet sifati pastligi hamda o'qituvchilarning AKT kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi aniqlandi.

Taklif va tavsiyalar:

1. Ta'lim muassasalarini zamonaviy AKT vositalari bilan ta'minlash;
2. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini oshirish;
3. Virtual laboratoriya va 3D modellashtirish dasturlarini darslarga keng joriy etish;
4. Blended learning (aralash ta'lim) modelini amaliyotga tatbiq etish.

Umuman olganda, AKT vositalari "Uglevodorodlar" bo'limini o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarning ilmiy-tahliliy tafakkurini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi [3], [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim tizimini raqamlashtirish, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni rivojlantirish hamda innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etishga oid farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. (2023–2025). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kimyo fanini o'qitish bo'yicha o'quv dasturi va metodik tavsiyalar. Toshkent.
3. UNESCO. (2023). Digital learning and ICT in education: Global trends and best practices. Paris: UNESCO Publishing.
4. OECD. (2023). Education at a Glance 2023: ICT integration in teaching and learning. Paris: OECD Publishing.
5. Mamatqulov, A. (2020). Kimyo o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
6. Ismoilov, B., & Karimov, S. (2022). Kimyo ta'limida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi. Pedagogik ta'lim jurnali, 4(2), 45–52.
7. Egamberdiyev, X., & Karimov, M. (2022). Kimyoviy algoritmlarning nazariy asoslari. Toshkent: Yosh avlod matbaa.
8. Brown, T. L., LeMay, H. E., Bursten, B. E., Murphy, C., Woodward, P. (2018). Chemistry: The Central Science. Pearson Education.
9. Zumdahl, S. S., & Zumdahl, S. A. (2014). Chemistry. Cengage Learning.



"O'SIMLIKLAR FIZIOLOGIYASI" FANINING O'QUV MAZMUNINI STEAM YONDASHUVI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Xoliqulova Gulchehra Alimardon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'limda "O'simliklar fiziologiyasi" fanini STEAM yondashuvi asosida takomillashtirish masalasi yoritilgan. Mavjud o'quv mazmunining fundamental biologik mohiyatini saqlagan holda, uni tajriba, fanlararo tahlil, matematik hisoblash, raqamli texnologiyalar, modellashtirish va amaliy loyihalash faoliyatlari bilan integratsiyalash metodikasi asoslangan.

Kalit so'zlar: STEAM, o'simliklar fiziologiyasi, fanlararo integratsiya, o'quv mazmuni, tajriba, modellashtirish, raqamli texnologiyalar, oliy ta'lim.

Abstract: The article examines the improvement of teaching the discipline "Plant Physiology" in higher education based on the STEAM approach. A methodology is substantiated for integrating the existing curriculum content with experimental activities, interdisciplinary analysis, mathematical calculations, digital technologies, modeling, and practical design while preserving the fundamental biological content of the discipline.

Key words: STEAM, plant physiology, interdisciplinary integration, educational content, experiment, modeling, digital technologies, higher education.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос совершенствования преподавания дисциплины "Физиология растений" в высшем образовании на основе STEAM-подхода. Обоснована методика интеграции содержания действующей учебной программы с экспериментальной деятельностью, междисциплинарным анализом, математическими расчётами, цифровыми технологиями, моделированием и практическим проектированием при сохранении фундаментального биологического содержания дисциплины.

Ключевые слова: STEAM, физиология растений, междисциплинарная интеграция, содержание образования, эксперимент, моделирование, цифровые технологии, высшее образование.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida biologik fanlarni o'qitish mazmunini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish hamda ularning tadqiqotchilik, kreativ va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, biologik jarayonlarning murakkabligi va ko'p omilliligi ularni faqat nazariy bayon qilish orqali emas, balki tajriba, kuzatish, o'lchash, matematik tahlil, modellashtirish va amaliy faoliyat bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Shu nuqtayi nazardan, tabiiy fanlarni o'qitishda fanlararo integratsiyaga asoslangan STEAM yondashuvidan foydalanish ta'lim mazmunini zamonaviylashtirishning samarali yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

"O'simliklar fiziologiyasi" fani o'simlik organizmida kechadigan suv almashinuvi, mineral oziqlanish, fotosintez, nafas olish, o'sish va rivojlanish kabi fundamental fiziologik jarayonlarning qonuniyatlarini o'rganishi bilan biologik ta'lim tizimida alohida ahamiyatga ega. Mazkur jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, tashqi muhit omillariga bog'liq ravishda o'zgarishi va miqdoriy ko'rsatkichlar orqali ifodalanishi ushbu fanni o'qitishda biologiya bilan bir qatorda kimyo, fizika, matematika, texnologiya, muhandislik va san'at elementlarini integratsiyalash imkonini beradi.

Biroq an'anaviy o'qitish amaliyotida fan mazmunining muayyan qismi nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirishga yo'naltirilib, fiziologik jarayonlarni tajriba asosida tekshirish, miqdoriy baholash, modellashtirish va amaliy vazifalarni hal etish imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmaydi. Shu sababli "O'simliklar fiziologiyasi" fanining mavjud o'quv mazmunini tubdan o'zgartirish yoki yangi mavzular bilan ortiqcha kengaytirishdan ko'ra, uning ichki didak-

tik tuzilmasini qayta tashkil etish, mavjud biologik bilimlarni amaliy va tadqiqot faoliyati bilan bog‘lash muhim metodik vazifa sifatida belgilanadi. Bunda fiziologik jarayon o‘quv faoliyatining markaziy birligi sifatida olinib, mavzu mazmunini biologik muammoni aniqlash, fanlararo tushuntirish, tajriba o‘tkazish, o‘lchash, ma’lumotlarni matematik qayta ishlash, modellashtirish va amaliy xulosa chiqarish ketma-ketligida tashkil etish STEAM yondashuvining mazmuniy imkoniyatlarini kengaytiradi.

STEAM yondashuvida Science komponenti fiziologik jarayonlarning biologik mohiyatini ilmiy asoslashni, Technology zamonaviy raqamli va texnologik vositalardan foydalanishni, Engineering amaliy muammoni hal etishga qaratilgan loyihaviy faoliyatni, Arts natijalarni kreativ va vizual ifodalashni, Mathematics esa fiziologik ko‘rsatkichlarni o‘lchash, hisoblash, grafik va matematik modellar asosida tahlil qilishni ta’minlaydi. Natijada o‘quv mazmuni tayyor bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan axborotlar majmuasidan talabaning mustaqil izlanishi, dalillar asosida xulosa chiqarishi va amaliy yechim ishlab chiqishini ta’minlovchi faoliyatga yo‘naltirilgan metodik tizimga transformatsiyalanadi [1]. Mazkur yondashuvda ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlari o‘rtasidagi uzviylik ham kuchayadi.

Ma’ruzada o‘zlashtirilgan nazariy bilim laboratoriya yoki amaliy mashg‘ulotda tajriba orqali tekshiriladi, tajriba natijalari miqdoriy jihatdan qayta ishlanadi, grafik yoki model ko‘rinishida ifodalanadi hamda biologik nuqtayi nazardan talqin qilinadi. Masalan, transpiratsiya jarayonida o‘simlikning suv yo‘qotish tezligini aniqlash, fotosintezga tashqi omillar ta’sirini tajriba asosida baholash, o‘sish dinamikasini raqamli monitoring qilish yoki oziqa muhitining optimal tarkibini loyihalash kabi faoliyatlar biologik bilimlarni real amaliy vaziyatlar bilan bog‘lash imkonini beradi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi oliy ta’limda “O‘simliklar fiziologiyasi” fanining mavjud o‘quv mazmunini uning fundamental biologik mohiyatini saqlagan holda STEAM yondashuvi asosida qayta konstruksiyalash va talabalarni tajriba, fanlararo tahlil, matematik hisoblash, modellashtirish hamda amaliy loyihalash faoliyatiga yo‘naltiruvchi metodik asoslarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot doirasida fan dasturidagi mavjud modul va mavzularning mazmuniy tuzilmasi tahlil qilinib, ularni STEAM komponentlari bilan integratsiyalashning metodik imkoniyatlari aniqlandi. Shuningdek, fiziologik jarayonlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatining mazmuni, ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlari o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik hamda talabalarning amaliy-tadqiqot kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar tizimi takomillashtirildi [8]. Mazkur metodik yondashuv “O‘simliklar fiziologiyasi” fanini o‘qitish mazmunini nafaqat zamonaviy pedagogik talablar asosida yangilash, balki talabaning biologik jarayonlarni tushunishdan ularni tajribada tekshirish, miqdoriy baholash, modellashtirish va amaliy muammoni hal etishgacha bo‘lgan yaxlit faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan STEAM yondashuvi asosida takomillashtirilgan o‘quv mazmuni biologik ta’limning fanlararo, amaliy va tadqiqotchilik yo‘nalishini kuchaytiruvchi metodik vosita sifatida qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So‘nggi yillarda ta’lim mazmunini fanlararo integratsiya, amaliy faoliyat va kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish masalalari pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda Science, Technology, Engineering, Arts va Mathematics komponentlarini o‘zaro uyg‘unlashtirishga asoslangan STEAM yondashuvi talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik, muammoli vaziyatlarni hal etish, kreativ fikrlash va amaliy faoliyat kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beruvchi integrativ ta’lim modeli sifatida qaralmoqda. STEAM ta’limining nazariy asoslarini yorituvchi tadqiqotlarda fanlararo integratsiya ta’lim mazmunini alohida fanlarga ajratilgan bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan bilim, ko‘nikma va faoliyatlar tizimi sifatida tashkil etish imkonini berishi ta’kidlanadi.

J. Deweyning tajribaga asoslangan ta’lim haqidagi qarashlari [5], J. Piagetning konstruktivistik yondashuvi [7] hamda L. Vygotskiyning ta’lim va rivojlanishning ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga oid konsepsiyalari zamonaviy integrativ ta’lim modellarining nazariy-metodologik asoslarini shakllantirishda [6] muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur qarashlarda bilimning amaliy faoliyat jarayonida shakllanishi, muammoni mustaqil hal qilish va hamkorlikdagi faoliyat orqali yangi bilimlarni konstruksiya qilishga alohida e’tibor qaratiladi.

STEAM yondashuvining zamonaviy konseptual asoslarini ishlab chiqishda fanlararo integratsiyaning o‘rni G. Yakman tadqiqotlarida alohida yoritilgan. U STEAMni turli fan sohalarining o‘zaro aloqadorligini ta’minlovchi ta’lim konsepsiyasi sifatida izohlab, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikaning integratsiyasi orqali real muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatini tashkil etish imkoniyatlarini asoslaydi [1]. Bunday yondashuvda o‘quv mazmunining alohida komponentlari o‘zaro qo‘shilib ketmaydi, balki yagona muammoni turli fanlar nuqtayi nazaridan tushuntirish va hal qilishga xizmat qiladi.

Tabiiy fanlarni STEAM asosida o‘qitish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda o‘quvchilarning tajriba o‘tkazish, ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish, modellashtirish hamda loyiha faoliyatida ishtirok etishi ilmiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ko‘rsatiladi. Integrativ topshiriqlar orqali o‘rganuvchi biologik hodisani

nafaqat tavsiflaydi, balki uning sabablarini aniqlaydi, tajriba yordamida tekshiradi, olingan natijalarni matematik jihatdan qayta ishlaydi va amaliy yechim ishlab chiqadi [3]. Bu holat biologik ta'lim mazmunini reproduktiv o'zlashtirishdan tadqiqot va muammoli faoliyatga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Biologiyani o'qitish metodikasiga oid ilmiy ishlarda ham nazariy bilimlarni laboratoriya va amaliy mashg'ulotlar bilan uyg'unlashtirish masalasiga katta e'tibor qaratilgan. Biologik jarayonlarni bevosita kuzatish, tajriba asosida tekshirish, o'lchash va natijalarni tahlil qilish talabalarda ilmiy dunyoqarash va tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishning muhim sharti sifatida qaraladi. Xususan, o'simliklar fiziologiyasini o'rganishda suv almashinuvi, transpiratsiya, fotosintez, nafas olish, mineral oziqlanish, o'sish va rivojlanish kabi jarayonlarning tajriba asosida o'rganilishi nazariy bilimlarning amaliy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi [9].

"O'simliklar fiziologiyasi" fanining mazmuniga bag'ishlangan ilmiy va o'quv-metodik adabiyotlarda fiziologik jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, ularning hujayraviy va molekulyar mexanizmlari, tashqi muhit omillariga bog'liqligi hamda miqdoriy ko'rsatkichlar orqali ifodalanishi keng yoritilgan. O'simlik fiziologiyasiga oid klassik va zamonaviy tadqiqotlarda fotosintez va nafas olish, suv potensiali va osmos, mineral oziqlanish, gormonal boshqaruv hamda o'sish jarayonlarini eksperimental o'rganishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan. Mazkur ilmiy bilimlar "O'simliklar fiziologiyasi" fanining fundamental mazmunini shakllantirsa-da, ularni zamonaviy STEAM faoliyatlari bilan metodik jihatdan bog'lash alohida yondashuvni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Xorijiy tadqiqotlarda STEM va STEAM ta'limining samaradorligi masalasi ham keng o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarning umumiy xulosalariga ko'ra, integrativ va loyiha asosidagi ta'lim talabalarning muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ilmiy dalillar bilan ishlash, matematik modellashtirish, texnologik vositalardan foydalanish va kreativ yechim ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, adabiyotlarda STEAMni faqat fanlar ro'yxatini birlashtirish sifatida talqin qilish metodik jihatdan yetarli emasligi, integratsiya aniq o'quv muammosi, faoliyat va kutiladigan natija asosida tashkil etilishi zarurligi qayd etiladi [2, 4, 10].

O'zbekistonda ham biologiya ta'limi mazmunini modernizatsiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, tabiiy fanlararo integratsiyani kuchaytirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ishlarda biologik bilimlarni amaliy vaziyatlar bilan bog'lash, o'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatini tashkil etish, laboratoriya mashg'ulotlarining tadqiqotchilik yo'nalishini kuchaytirish hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari asoslangan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, STEAM yondashuvining nazariy va umumiy metodik asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, aynan oliy ta'limda "O'simliklar fiziologiyasi" fanining mavjud o'quv mazmunini saqlagan holda uni STEAM komponentlari asosida tizimli qayta konstruksiyalash masalasi yetarlicha tadqiq etilmagan. Xususan, fiziologik jarayonni o'quv faoliyatining markaziy birligi sifatida belgilash, har bir mavzuni biologik muammo, tajriba, o'lchash, matematik tahlil, modellashtirish va amaliy loyihalash bosqichlari bilan bog'lashning metodik mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjud. Shu jihatdan, mazkur tadqiqotda mavjud fan dasturining fundamental biologik mazmunini saqlab qolish bilan birga, uning didaktik tuzilmasini STEAM yondashuvi asosida takomillashtirishga e'tibor qaratildi. Bunda integratsiya mavzularni mexanik ravishda kengaytirish emas, balki mavjud mazmunning ichki imkoniyatlarini ochish, biologik bilimlarni tajriba, matematik hisoblash, texnologik vositalar, modellashtirish va muhandislik yechimlari bilan funksional bog'lash vositasi sifatida talqin qilindi. Bu esa tadqiqotning mavjud ilmiy-metodik yondashuvlardan farqli jihatini belgilaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"O'simliklar fiziologiyasi" fanining STEAM asosida takomillashtirilgan o'quv mazmunini ishlab chiqishda fan dasturining mavjud mazmuniy tuzilmasi metodik tayanch sifatida qabul qilinib, uning fundamental biologik yo'nalishi saqlab qolindi. Takomillashtirish jarayonida mazmunni yangi mavzular bilan mexanik ravishda kengaytirish emas, balki mavjud mavzularning ichki tuzilishini qayta tashkil etish, biologik bilimlarni tajriba, fanlararo tahlil, matematik hisoblash, texnologik vositalar, modellashtirish va amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lashga ustuvor ahamiyat berildi. Shu asosda o'quv mazmuni talabaning tayyor bilimni o'zlashtirishidan uni amaliy vaziyatda qo'llash, tekshirish, tahlil qilish va yangi yechim ishlab chiqishga yo'naltirildi.

Takomillashtirilgan mazmunning metodik konstruksiyasi fiziologik jarayonni o'quv faoliyatining markaziy birligi sifatida belgilashga asoslandi. Bunda har bir mavzuning mazmuni biologik muammo – fanlararo tushuntirish – tajriba – o'lchash – ma'lumotlarni tahlil qilish – modellashtirish – amaliy xulosa izchilligida tashkil etiladi. Mazkur ketma-ketlik Science komponenti orqali biologik qonuniyatni ilmiy asoslash, Technology orqali zamonaviy vositalardan foydalanish, Engineering orqali amaliy yechimni loyihalash, Arts orqali natijalarni kreativ va vizual ifodalash hamda Mathematics orqali miqdoriy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish imkonini beradi.

Shu boisdan, fan mazmunining mavjud 4 ta modul va 15 ta ma'ruza mavzusi saqlangan holda, ularning didaktik yo'nalishi qayta konstruksiyalandi.

*Birinchi modul*da hujayra fiziologiyasi bilan bog'liq bilimlar tuzilma, modda almashinuvi, membrana jarayonlari, osmos, suv potensiali va transpiratsiyani kuzatish hamda o'lchash faoliyatlari bilan bog'landi.

*Ikkinchi modul*da fotosintez va nafas olish jarayonlari energiya almashinuvi, kimyoviy o'zgarishlar, tajribaviy kuzatish, miqdoriy tahlil va modellashtirish asosida yoritildi.

Uchinchi modul mineral oziqlanishni elementlarning fiziologik funksiyasi, ularning o'zlashtirilishi, konsentratsiya va oziqlanish sharoitlarini aniqlash hamda optimal muhitni loyihalash faoliyati bilan uyg'unlashtirdi.

*To'rtinchi modul*da esa o'sish va rivojlanish jarayonlari o'lchash, raqamli monitoring, omillar ta'sirini tahlil qilish, modellashtirish va optimal sharoitni loyihalash bilan yakuniy integratsion bosqich sifatida tashkil etildi.

Takomillashtirilgan mazmunning modul va mavzular kesimidagi mazmuniy transformatsiyasi, yetakchi STEAM komponentlari hamda talabalar bajaradigan asosiy faoliyatlar 1-jadvalda tizimlashtirilgan.

1-jadval: **"O'simliklar fiziologiyasi" fanining STEAM asosida takomillashtirilgan o'quv mazmunining modul-mavzu tizimi**

№	Bazaviy mavzu	Takomillashtirilgan mazmunning asosiy yo'nalishi	Yetakchi STEAM integratsiyasi	Kutiladigan faoliyat
1	**Fan predmeti, metodi va tarixi**	O'simliklar fiziologiyasining shakllanishi, ilmiy tadqiqot metodlarining rivojlanishi va zamonaviy tadqiqot texnologiyalari	S + T + A	Ilmiy metodlar evolyutsiyasini o'rganish va vizual model yaratish
2	**Hujayraning kimyoviy tarkibi**	Biogen elementlar, suv, mineral tuzlar va organik moddalarning o'simlik fiziologiyasidagi funksional ahamiyati	S + M	Moddalar tarkibi va fiziologik funksiyasini taqqoslash, miqdoriy tahlil qilish
3	**Hujayra va plazmatik membrana**	Membrana tuzilishi, modda transporti, diffuziya, osmos va faol transport mexanizmlari	S + T + E + A	Membrana transportining modeli yoki maketini yaratish
4	**Suv almashinuvi**	Osmos, plazmoliz, deplazmoliz va suv potensialining fiziologik ahamiyati	S + M + T	Osmos jarayonini tajribada kuzatish, suv potensialini hisoblash va natijalarni tahlil qilish
5	**Suv harakati va transpiratsiya**	Suvning o'simlik bo'ylab harakati, transpiratsiya intensivligi va tashqi muhit omillarining ta'siri	S + M + T + E	Transpiratsiya tezligini aniqlash, natijalarni grafik ifodalash va optimal sharoitni aniqlash
6	**Xloroplastlar harakati**	Xloroplastlarning hujayradagi harakati va yorug'lik omiliga javob reaksiyasi	S + T + A	Mikroskopik kuzatish, olingan natijalarni tasvirlash va vizual model yaratish
7	**Fotosintezning yorug'lik reaksiyalari**	Yorug'lik energiyasining o'zlashtirilishi, elektronlar transporti va ATP hamda NADPH hosil bo'lishi	S + T + M	Fotosintez intensivligini tajribada aniqlash, natijalarni grafik tahlil qilish
8	**Fotosintezning qorong'ulik reaksiyalari**	CO_2 o'zlashtirilishi, Kalvin sikli va fotosintez mahsulotlarining hosil bo'lish mexanizmlari	S + M + T + A	Tashqi omillar ta'sirini modellashtirish va fotosintez jarayonining vizual modelini yaratish
9	**O'simliklarning nafas olishi**	Organik moddalarning parchalanishi, energiya ajralishi va nafas olish intensivligining fiziologik ahamiyati	S + M + T	Nafas olish jarayonini tajribada kuzatish, natijalarni o'lchash va tahlil qilish
10	**Nafas olish mexanizmlari**	Glikoliz, Krebs sikli, elektron transport zanjiri va ATP sintezining o'zaro bog'liqligi	S + T + A	Energiya oqimi va ATP hosil bo'lish mexanizmining konseptual modelini yaratish
11	**Mineral oziqlanish**	Mineral elementlarning fiziologik funksiyasi, makro- va mikroelementlarning o'simlik hayotidagi roli	S + M + A	Mineral elementlar yetishmovchiligi belgilarini aniqlash, taqqoslash va vizual xarita yaratish

12	**Ildiz orqali oziqlanish**	Ionlarning ildiz orqali o‘zlashtirilishi, mineral moddalarning transporti va oziqa eritmasining tarkibi	S + M + T + E	Oziqa eritmasining tarkibini hisoblash va optimal oziqlanish muhitini loyihalash
13	**O‘simliklarning o‘sishi**	O‘sish dinamikasi, hujayralarning bo‘linishi va cho‘zilishi, o‘sish tezligining miqdoriy ko‘rsatkichlari	S + M + T	O‘sish dinamikasini raqamli monitoring qilish, ma’lumotlarni grafik ko‘rinishda ifodalash
14	**Fitogormonlar**	Fitogormonlarning o‘sish va rivojlanishni boshqarishdagi roli, gormonal signal uzatilishi va fiziologik javob	S + T + A	Gormonal signal uzatilishining sxematik va vizual modelini yaratish
15	**O‘sish va rivojlanishga omillar ta’siri**	Yorug‘lik, harorat, suv, mineral oziqlanish va boshqa omillarning kompleks ta’siri	S + M + T + E + A	Tajriba natijalarini tahlil qilish va o‘simlik uchun optimal sharoit loyihasini ishlab chiqish

Jadvaldagi tizimlashtirilgan mazmuniy transformatsiya “O‘simliklar fiziologiyasi” fanining har bir mavzusini alohida-alohida STEAM komponentlariga bog‘lashdan ko‘ra, fiziologik jarayonning tabiiy mazmunidan kelib chiqib, integratsiyaning maqbul shaklini tanlash imkonini beradi. Bunda STEAM komponentlari mustaqil va bir-biridan ajratilgan holda emas, balki yagona o‘quv faoliyatining o‘zaro bog‘langan elementlari sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, transpiratsiya jarayonini o‘rganishda biologik qonuniyatni aniqlash Science komponentiga, suv yo‘qotilishini tajriba asosida o‘lchash Technology vositalariga, olingan natijalarni matematik hisoblash Mathematics komponentiga, jarayonni boshqarish yoki optimal sharoitni aniqlash Engineering faoliyatiga, natijalarni grafik va vizual model shaklida ifodalash esa Arts komponentiga tegishli bo‘ladi. Shu tariqa, bitta fiziologik jarayonning o‘zi bir nechta fan sohalarining bilim va faoliyatlarini tabiiy ravishda birlashtiruvchi didaktik birlikka aylanadi.

Takomillashtirilgan mazmunning yana bir muhim jihati fiziologik jarayonlarni miqdoriy ifodalash va dalillar asosida izohlash imkoniyatining kengaytirilishidir. O‘simliklar fiziologiyasidagi ko‘plab jarayonlar dinamik xarakterga ega bo‘lib, ularning intensivligi tashqi muhit omillarining o‘zgarishiga qarab turlicha namoyon bo‘ladi. Shu sababli, talaba faqat jarayonning biologik mohiyatini bilishi bilan cheklanmasdan, uning o‘zgarish qonuniyatlarini sonli ko‘rsatkichlar orqali aniqlashi lozim. Masalan, transpiratsiya tezligi, fotosintez intensivligi, urug‘ yoki niholning o‘sish sur’ati, oziqa eritmasining konsentratsiyasi kabi ko‘rsatkichlarni aniqlash orqali biologik hodisa matematik ifodaga ega bo‘ladi. Olingan natijalarni jadval, diagramma yoki grafik ko‘rinishida tasvirlash esa talabaning ma’lumotlarni tahlil qilish va fiziologik jarayon bo‘yicha ilmiy xulosa chiqarish ko‘nikmasini rivojlantiradi.

Bunday yondashuvda matematik hisoblash biologik mazmundan ajratilgan qo‘shimcha faoliyat sifatida emas, balki fiziologik jarayonni chuqurroq tushunish vositasi sifatida qo‘llanadi. Jumladan, vaqt birligida suv yo‘qotilishi, o‘sish tezligi, foizli o‘zgarish, o‘rtacha qiymat, tajriba variantlari o‘rtasidagi farq kabi ko‘rsatkichlarning hisoblanishi talabaning biologik ma’lumotlar bilan ishlash kompetensiyasini shakllantiradi. Natijada biologik kuzatish miqdoriy dalil bilan mustahkamlanadi, miqdoriy natija esa biologik qonuniyatni izohlashga xizmat qiladi. Takomillashtirilgan o‘quv mazmunida tajriba faoliyati ham yangi funksional mazmun kasb etadi.

An’anaviy laboratoriya mashg‘ulotida talaba ko‘pincha o‘qituvchi tomonidan belgilangan tajriba bosqichlarini ketma-ket bajarib, oldindan kutilgan natijaga keladi. STEAM asosidagi mazmunda esa tajriba muayyan biologik muammoni hal qilish vositasi sifatida tashkil etiladi. Talabaga muammo yoki savol beriladi, u mavjud bilimlari asosida faraz ilgari suradi, tajriba shartlarini belgilaydi, kuzatish va o‘lchashni amalga oshiradi, olingan ma’lumotlarni qayta ishlaydi hamda dalillarga asoslangan xulosa ishlab chiqadi. Bunday faoliyat laboratoriya mashg‘ulotining reproduktiv xarakterini kamaytirib, uni tadqiqotchilik faoliyatiga yaqinlashtiradi. Shuningdek, ma’ruza va laboratoriya mashg‘ulotlari o‘rtasidagi munosabat ham mazmuniy jihatdan qayta tashkil etiladi.

Ma’ruza faqat nazariy axborotni yetkazish bosqichi bo‘lib qolmasdan, keyingi amaliy faoliyat uchun muammoli va nazariy tayanch vazifasini bajaradi. Laboratoriya mashg‘ulotida esa ma’ruzada o‘zlashtirilgan bilim tajriba orqali tekshiriladi. Tajriba natijalari matematik jihatdan qayta ishlanib, grafik yoki model ko‘rinishida ifodalanadi va biologik jihatdan izohlanadi. Shu asosda “nazariya – tajriba – o‘lchash – tahlil – xulosa” yaxlit didaktik sikli shakllanadi.

Mazkur siklni o‘quv jarayoniga tatbiq etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Raqamli mikroskop, sensorlar, virtual laboratoriyalar, interaktiv modellar, elektron jadvallar va grafik dasturlar fiziologik jarayonlarni kuzatish hamda olingan natijalarni qayta ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, o‘simlik o‘sishining ma’lum vaqt oralig‘idagi dinamikasini raqamli monitoring qilish orqali talaba o‘lchash natijalarini avtomatik ravishda qayd etishi, grafik hosil qilishi va o‘sish tendensiyasini aniqlashi mumkin. Bunday faoliyat Technology komponentining biologik mazmun bilan funksional integratsiyasini ta’minlaydi. Engineering komponenti esa o‘quv mazmuniga “biologik muammoni amaliy yechimga aylantirish” mexanizmi

orqali kiritiladi. Bunda talaba mavjud biologik qonuniyatni bilish bilan cheklanmay, undan foydalanib ma'lum bir yechimni ishlab chiqadi. Masalan, o'simlik uchun optimal oziqa muhitini tanlash, transpiratsiyani kamaytirish yoki boshqarish sharoitlarini aniqlash, o'simlik o'sishini monitoring qilish tizimini taklif etish kabi topshiriqlar biologik bilimni loyihalash faoliyati bilan bog'laydi. Bu jarayonda talaba muammoni aniqlash, yechim variantlarini ishlab chiqish, ularni taqqoslash va eng maqbul variantni asoslash bosqichlaridan o'tadi.

Arts komponentining mazmunga kiritilishi esa fiziologik jarayonlarni ijodiy va vizual ifodalash bilan chegaralanmaydi. U talabaning murakkab biologik jarayonni soddalashtirib, tushunarli modelga aylantirish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Fotosintezning energiya oqimi, membrana orqali modda transporti, fitogormonlarning ta'sir mexanizmi yoki suvning o'simlik bo'ylab harakatini sxema, infografika, konseptual model yoki animatsion tasvir orqali ifodalash jarayonni tizimli tushunishga yordam beradi. Bunda vizual model biologik mazmunni bezash vositasi emas, balki tushunchalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini ochib beruvchi didaktik vosita sifatida qaraladi. Shu asosda takomillashtirilgan mazmunda talabaning faoliyati ham bosqichma-bosqich murakkablashib boradi.

Dastlab u fiziologik hodisani kuzatadi va tushuntiradi, keyinchalik uni tajribada tekshiradi va o'lchaydi, olingan ma'lumotlarni hisoblaydi va tahlil qiladi, keyingi bosqichda jarayonning modelini yaratadi, yakunda esa biologik muammoga amaliy yoki loyihaviy yechim taklif etadi. Bunday ketma-ketlik talabaning bilish faoliyatini oddiy reproduktiv darajadan yuqori darajadagi tahliliy, ijodiy va konstruktiv faoliyatga olib chiqadi. Demak, "O'simliklar fiziologiyasi" fanining STEAM asosida takomillashtirilgan o'quv mazmuni alohida fan elementlarini sun'iy ravishda birlashtirishga emas, balki fiziologik jarayonning o'zida mavjud bo'lgan fanlararo aloqalarni didaktik jihatdan ochib berishga asoslanadi. Bunday yondashuvda biologik mazmun asosiy o'rinni saqlab qoladi, STEAM komponentlari esa uni chuqur o'zlashtirish, tajribada tekshirish, miqdoriy baholash, modellashtirish va amaliyotga tatbiq etish vositasi sifatida xizmat qiladi. Natijada fan mazmuni talabaning "bilish" faoliyatidan "bilish – tekshirish – tahlil qilish – modellashtirish – loyihalash" faoliyatlar tizimiga transformatsiyalanadi.

XULOSA

"O'simliklar fiziologiyasi" fanining o'quv mazmunini STEAM yondashuvi asosida takomillashtirish jarayonida mavjud fan dasturining fundamental biologik mazmunini saqlab qolgan holda, uning didaktik tuzilmasini faoliyatga yo'naltirilgan tarzda qayta tashkil etish imkoniyati asoslandi. Bunda mazmunni yangi mavzular bilan mexanik ravishda kengaytirish emas, balki mavjud fiziologik jarayonlarning ichki fanlararo imkoniyatlarini ochib berish asosiy metodik tamoyil sifatida belgilandi.

Tadqiqot natijasida fiziologik jarayon o'quv faoliyatining markaziy didaktik birligi sifatida belgilandi va mavzularning mazmuniy tuzilmasini biologik muammoni aniqlash – fanlararo tushuntirish – tajriba o'tkazish – o'lchash – matematik tahlil – modellashtirish – amaliy yechim ishlab chiqish izchilligida tashkil etish imkoniyati ko'rsatildi. Mazkur yondashuv biologik bilimlarni nazariy o'zlashtirishdan ularni tajribada tekshirish, miqdoriy baholash va amaliyotda qo'llashgacha bo'lgan yaxlit o'quv faoliyatiga aylantirishga xizmat qiladi. Takomillashtirilgan mazmunda S – Science, T – Technology, E – Engineering, A – Arts va M – Mathematicskomponentlarining funksional imkoniyatlari fiziologik jarayonlarning tabiiy mazmunidan kelib chiqib, differensial tarzda qo'llanilishi aniqlandi. Bunda Science biologik qonuniyatlarni ilmiy asoslashni, Technology zamonaviy texnologik vositalar yordamida kuzatish va o'lchashni, Engineering biologik muammolarga amaliy va loyihaviy yechim ishlab chiqishni, Arts murakkab fiziologik jarayonlarni kreativ va vizual modellashtirishni, Mathematics esa miqdoriy ko'rsatkichlarni hisoblash, grafik va matematik tahlil qilishni ta'minlaydi.

Fan dasturidagi 4 ta modul va 15 ta ma'ruza mavzusining mazmuniy yo'nalishi saqlangan holda, ularning didaktik funksiyasi kengaytirildi. Xususan, suv almashinuvi va transpiratsiya, fotosintez, nafas olish, mineral oziqlanish, o'sish va rivojlanish kabi fiziologik jarayonlar tajriba, o'lchash, matematik qayta ishlash, raqamli monitoring, modellashtirish va loyihalash faoliyatlari bilan integratsiyalashgan holda tashkil etildi. Natijada mavjud o'quv mazmuni fanlararo, amaliy va tadqiqotchilik xarakteriga ega metodik tizimga transformatsiyalandi.

Shuningdek, ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlari o'rtasidagi funksional uzviylikni kuchaytirish orqali "nazariya – tajriba – o'lchash – tahlil – modellashtirish – xulosa" yaxlit didaktik siklini shakllantirish imkoniyati asoslandi. Bunday tashkil etish talabaning muammoni aniqlashi, faraz ilgari surishi, tajriba natijalarini olishi, ularni matematik jihatdan qayta ishlashi, biologik nuqtayi nazardan talqin qilishi va dalillarga asoslangan xulosa chiqarishiga sharoit yaratadi.

Umuman olganda, STEAM asosida takomillashtirilgan "O'simliklar fiziologiyasi" o'quv mazmuni talabaning bilish – tekshirish – o'lchash – tahlil qilish – modellashtirish – loyihalash faoliyatlarini yagona didaktik tizimda birlashtirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv oliy ta'limda biologik jarayonlarni chuqur va amaliy o'zlashtirish, talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik, kreativ, matematik va muhandislik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda biologiya ta'limi mazmunining zamonaviy fanlararo xususiyatini kuchaytirish uchun metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

"O'simliklar fiziologiyasi" fanining mavjud 4 ta moduli va 15 ta mavzusini saqlagan holda, ularning mazmunini S – Science, T – Technology, E – Engineering, A – Arts, M – Mathematics komponentlari bilan integratsiyalash tavsiya etiladi. Mashg'ulotlarni "biologik muammo → fanlararo tushuntirish → tajriba → o'lchash → matematik tahlil → modellashtirish → amaliy xulosa" ketma-ketligida tashkil etish maqsadga muvofiq. Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalarning muammo qo'yish, tajriba o'tkazish, natijalarni matematik qayta ishlash va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish faoliyatlarini kuchaytirish tavsiya etiladi. Raqamli mikroskop, sensorlar, virtual laboratoriyalar, interaktiv modellar va grafik dasturlardan mavzu mazmuniga mos ravishda foydalanish lozim. Talabalarning bilimini baholashda nazariy o'zlashtirish bilan bir qatorda, tajriba, tahlil, modellashtirish va amaliy yechim ishlab chiqish natijalarini ham hisobga olish tavsiya etiladi. Takomillashtirilgan STEAM mazmunini biologiyaning boshqa fan va modullariga moslashtirib, integrativ topshiriqlar tizimini yaratish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yakman G. STEAM Education: An Overview of Creating a Model of Integrative Education // Proceedings of the ITEEA Annual Conference. – 2008.
2. Yakman G. What is the Point of STE@M Education? // The STEAM Education Framework. – 2010.
3. Kelley T.R., Knowles J.G. A Conceptual Framework for Integrated STEM Education // International Journal of STEM Education. – 2016. – Vol. 3. – Article 11.
4. Bybee R.W. STEM Education Now More Than Ever. – Arlington: NSTA Press, 2018.
5. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
7. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. – New York: International Universities Press, 1952.
8. Taiz L., Zeiger E., Møller I.M., Murphy A. Plant Physiology and Development. – 6th ed. – Sunderland: Sinauer Associates, 2015.
9. Hopkins W.G., Hüner N.P.A. Introduction to Plant Physiology. – 4th ed. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2009.
10. Raven P.H., Evert R.F., Eichhorn S.E. Biology of Plants. – 8th ed. – New York: W.H. Freeman, 2013.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ ТЕКСТ КАК ПРОСТРАНСТВО МЫШЛЕНИЯ: АВТОРСКАЯ МЕТОДИКА ИНТЕРПРЕТАЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ СТУДЕНТОВ В ВУЗЕ

Жабборова Гулчехра Жобировна
Магистрант 2-го курса направления русский язык и литература БГПИ Бухара, Узбекистан

Аннотация: В статье представлена авторская методика "МЫСЛЬ–ТЕКСТ–СМЫСЛ", рассматривающая литературный текст как пространство формирования интерпретационного мышления студентов вузов. Предложен алгоритм "текстовый след → вопрос → гипотеза → доказательство → пересмотр → интерпретация", переводящий чтение от воспроизведения готовых смыслов к самостоятельной исследовательской деятельности.

Ключевые слова: литературный текст; интерпретационное мышление; авторская методика; "МЫСЛЬ–ТЕКСТ–СМЫСЛ"; текстовый след; гипотеза; доказательная интерпретация; смыслообразование.

Annotatsiya: Maqolada badiiy matnni oliy ta'lim talabalari interpretativ tafakkurini shakllantirish makoni sifatida talqin qiluvchi mualliflik "FIKR–MATN–MA'NO" metodikasi taqdim etilgan. "Matn izi → savol → gipoteza → dalil → qayta ko'rib chiqish → interpretatsiya" algoritmi taklif etilib, u o'qish jarayonini tayyor ma'nolarni takrorlashdan mustaqil tadqiqot faoliyatiga yo'naltiradi.

Kalit so'zlar: badiiy matn; interpretativ tafakkur; mualliflik metodikasi; "FIKR–MATN–MA'NO"; matn izi; gipoteza; dalillangan interpretatsiya; ma'no yaratish.

Abstract: The article presents the author's "THOUGHT–TEXT–MEANING" methodology, which regards the literary text as a space for developing the interpretive thinking of higher education students. The algorithm "textual trace → question → hypothesis → evidence → reconsideration → interpretation" is proposed to transform reading from the reproduction of ready-made meanings into an independent research activity.

Key words: literary text; interpretive thinking; author's methodology; "THOUGHT–TEXT–MEANING"; textual trace; hypothesis; evidence-based interpretation; meaning-making.

ВВЕДЕНИЕ

Современное литературное образование в высшей школе всё настойчивее выходит за пределы традиционной модели, в которой художественное произведение рассматривается преимущественно как объект пересказа, анализа сюжетно-композиционных особенностей и воспроизведения уже сформулированных литературоведческих оценок [1].

Университетское чтение требует иного качества интеллектуальной работы: студент должен не только понимать содержание текста, но и обнаруживать в нём проблемные узлы, устанавливать смысловые связи, сопоставлять различные интерпретации, аргументировать собственную позицию и осознавать механизм формирования читательского смысла. В этом контексте литературный текст становится не столько материалом для передачи готового знания, сколько пространством, в котором формируется и проверяется мысль. Особую методическую проблему представляет ситуация, когда студент воспринимает художественное произведение как завершённую систему значений, заранее определённых автором или учебником [2].

При таком восприятии чтение нередко сводится к поиску "правильного" ответа: кто является героем произведения, какова его характеристика, в чём заключается авторская позиция, какую идею следует выделить [4].

Подобная логика облегчает контроль усвоения материала, однако существенно ограничивает интеллектуальный потенциал художественного текста. Литература по своей природе предполагает смысловую многомерность, а потому университетское обучение должно создавать условия не для угадывания готового смысла, а для его аргументированного открытия. Именно поэтому в настоящем исследовании предлагается авторская методика "Текст → Вопрос → Гипотеза → Доказательство → Интерпретация", в которой интерпретационное чтение понимается как последовательное движение студента от непосредственной текстовой реакции к осмысленной исследовательской позиции [5].

Центральным становится не вопрос "что означает текст?", а вопрос "каким образом текст заставляет меня прийти к определённому смыслу?". Такое изменение исследовательской оптики переводит внимание с результата чтения на сам процесс мышления и позволяет сделать интеллектуальные операции читателя предметом целенаправленного обучения [6].

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

Теоретическую основу исследования составляют труды М. М. Бахтина "Эстетика словесного творчества", В. Ш. Изера "Акт чтения: теория эстетического воздействия", У. Эко "Роль читателя. Исследования по семиотике текста", а также Л. С. Выготского "Мышление и речь". Бахтинская концепция диалогичности позволяет рассматривать понимание художественного текста как взаимодействие различных смысловых позиций [9]; Эко акцентирует активную роль читателя в процессе интерпретации текста; Изер раскрывает механизм читательского достраивания и смыслообразования; Выготский связывает развитие мышления с речевой деятельностью.

Однако анализ данных концепций показывает, что они преимущественно раскрывают теоретическую природу текста, чтения, читательской активности и смыслообразования, тогда как конкретный педагогический механизм последовательного формирования у студента доказательной интерпретации требует дополнительной методической разработки [10].

Именно эту нишу занимает предлагаемая авторская методика "МЫСЛЬ–ТЕКСТ–СМЫСЛ". В ней идеи диалогичности, активного читателя и смыслового конструирования преобразуются в практический алгоритм: текстовый след → вопрос → гипотеза → доказательство → пересмотр → интерпретация. Тем самым существующие теоретические положения не воспроизводятся, а переводятся в новую педагогическую технологию формирования интерпретационного мышления студентов вуза [11].

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Авторская методика исходит из принципа "не объяснять текст вместо студента, а организовать ситуацию, в которой студент сможет доказательно объяснить текст сам". В рамках данного подхода художественное произведение рассматривается как открытая интеллектуальная система, содержащая смысловые напряжения, недосказанность, внутренние противоречия, повторяющиеся образы, речевые сигналы и композиционные решения. Эти элементы становятся не отдельными объектами формального анализа, а основаниями для постановки вопросов и построения интерпретационных гипотез [7].

Принципиальным является также переход от фрагментарного анализа художественных средств к логике смыслового взаимодействия. Эпитет, метафора, деталь, речевая характеристика персонажа или композиционный повтор приобретают методическую ценность не сами по себе, а тогда, когда студент способен показать их функцию в создании общего смысла произведения. Поэтому в предлагаемой модели формула анализа может быть представлена следующим образом: "элемент текста → функция → смысловой эффект → авторская стратегия → читательская интерпретация". Такая последовательность позволяет соединить литературоведческое наблюдение с развитием аналитического мышления.

Актуальность исследования определяется необходимостью поиска методических решений, способных превратить чтение художественного произведения в активную интеллектуальную деятельность студентов. Особенно значимым становится формирование у будущего специалиста способности работать с неоднозначной информацией, различать факт и интерпретацию, подтверждать выводы текстовыми основаниями, сопоставлять альтернативные позиции и самостоятельно формулировать аргументированное суждение. Литературный текст предоставляет для этого уникальные возможности, поскольку одновременно воздействует на эмоциональную, языковую, образную и логическую сферы сознания читателя [8]. В предлагаемой концепции интерпретация понимается не как субъективное "мнение о произведении", а как доказательное конструирование смысла на основе взаимодействия читательского вопроса и текстового материала.

Следовательно, субъективность чтения не устраняется, но переводится в научно организованную форму: любое утверждение студента должно иметь текстовую опору, а любая гипотеза - возможность проверки через систему наблюдений. Именно это позволяет соединить свободу читательского восприятия с академической требовательностью к аргументации. Целью настоящей статьи является разработка и теоретико-методическое обоснование авторской методики интерпретационного обучения студентов, в которой литературный текст выступает пространством формирования, развития и проверки мышления. Новизна предлагаемого подхода заключается в переносе методического акцента с передачи готовых литературоведческих интерпретаций на проектирование самого процесса смыслообразования студента. В результате чтение становится не завершающим этапом усвоения литературного знания, а интеллектуальной практикой, в которой студент учится задавать вопросы тексту, выдвигать гипотезы, находить доказательства, пересматривать первоначальные предположения и создавать собственную аргументированную интерпретацию.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Апробация авторской методики “МЫСЛЬ–ТЕКСТ–СМЫСЛ” была направлена на проверку того, изменяется ли характер интерпретационной деятельности студентов при переходе от традиционного анализа художественного произведения к поэтапному построению собственного смыслового вывода. Исследование проводилось со студентами первого курса филологического профиля. В экспериментальной работе приняли участие 60 студентов, которые были распределены на экспериментальную и контрольную группы по 30 человек. На диагностическом этапе студентам был предложен художественный текст, не знакомый им ранее. Задание предполагало самостоятельную интерпретацию без предварительного предъявления алгоритма анализа. Первоначальные ответы показали, что значительная часть студентов воспринимает интерпретацию преимущественно как пересказ содержания, характеристику персонажей или формулирование общей идеи произведения. При этом текстовые доказательства использовались эпизодически, а собственное мнение нередко оставалось без аргументированного обоснования. В экспериментальной группе последующая работа осуществлялась по авторской модели “текстовый след → вопрос → гипотеза → доказательство → пересмотр → интерпретация”. Принципиальным отличием занятий стало отсутствие готового интерпретационного вывода преподавателя. Студенту предлагалось самостоятельно обнаружить смысловой “след” в тексте, превратить его в вопрос, сформулировать первоначальную гипотезу и проверить её посредством конкретных фрагментов произведения. После проверки студент должен был либо подтвердить первоначальную версию, либо сознательно её изменить.

Полученные результаты продемонстрировали качественную динамику интерпретационного мышления. В экспериментальной группе доля студентов, способных самостоятельно выделять смыслово значимые текстовые детали, увеличилась с 46,7 % до 86,7 %. Способность формулировать проблемный вопрос к тексту выросла с 36,7 % до 80,0 %, а способность выдвигать собственную интерпретационную гипотезу – с 40,0 % до 83,3 %. Наиболее существенные изменения были зафиксированы в области доказательной культуры чтения. Если на начальном этапе только 30,0 % студентов регулярно подтверждали свои интерпретационные суждения конкретными элементами художественного текста, то после формирующего этапа этот показатель достиг 83,3 %. Одновременно увеличилась доля студентов, способных самостоятельно пересматривать первоначальную гипотезу после обнаружения противоречащих ей текстовых фактов: с 20,0 % до 70,0 %. Особенно показательным оказался переход от ответа типа “я думаю, что автор хотел сказать…” к ответу, построенному по иной логике: “я предполагаю…, поскольку в тексте обнаруживается…, что позволяет сделать вывод…”. Изменился не только объём литературоведческих знаний, но и сама структура студенческого высказывания: эмоциональная реакция стала превращаться в наблюдение, наблюдение – в вопрос, вопрос – в гипотезу, а гипотеза – в доказательную интерпретацию.

Для сопоставления результатов была использована контрольная группа, работавшая преимущественно с традиционными формами анализа. В ней также наблюдалась положительная динамика, однако она оказалась менее выраженной: способность аргументировать интерпретационные выводы увеличилась примерно на 20 процентных пунктов, тогда как в экспериментальной группе прирост составил более 50 процентных пунктов. Это позволяет предположить, что именно последовательная организация интеллектуальных действий, заложенная в авторской модели, оказывает существенное влияние на формирование самостоятельной интерпретации.

Таблица 1: **Динамика показателей интерпретационного мышления студентов экспериментальной группы до и после применения авторской методики "МЫСЛЬ–ТЕКСТ–СМЫСЛ"**

Критерий	Экспериментальная группа: до	Экспериментальная группа: после
Выделение смыслового "следа"	46,7 %	86,7 %
Постановка проблемного вопроса	36,7 %	80,0 %
Выдвижение интерпретационной гипотезы	40,0 %	83,3 %
Текстовое доказательство	30,0 %	83,3 %
Самостоятельный пересмотр гипотезы	20,0 %	70,0 %

Анализ письменных работ показал ещё один существенный результат: после применения методики студенты стали значительно реже ограничиваться пересказом и чаще устанавливать связи между отдельной художественной деталью и общей системой смыслов произведения. Если первоначально деталь рассматривалась преимущественно как иллюстрация содержания, то после обучения она начинала функционировать как аргумент, позволяющий реконструировать авторскую стратегию.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Результативность методики проявилась прежде всего не в увеличении количества интерпретаций, а в изменении их качества и структуры. Студент постепенно переходит от позиции потребителя готового литературоведческого смысла к позиции исследователя текста. Он не просто сообщает, "о чём произведение", а демонстрирует, как именно текст позволяет прийти к определённому пониманию. Полученные данные позволяют сформулировать основной результат исследования: авторская методика "МЫСЛЬ–ТЕКСТ–СМЫСЛ" создаёт педагогические условия для формирования доказательного интерпретационного мышления студентов. Её принципиальная эффективность связана с тем, что объектом обучения становится не только художественный текст, но и сам механизм рождения читательской мысли. В результате литературное занятие превращается из процедуры проверки понимания произведения в пространство интеллектуального исследования, где каждый значимый вывод должен пройти путь от текстового наблюдения до аргументированного смысла.

Список использованной литературы:

1. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. – 2-е изд. – М.: Искусство, 1986. – 444 с.
2. Выготский Л. С. Психология искусства. – М.: Педагогика, 1987. – 344 с.
3. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – 352 с.
4. Есин А. Б. Принципы и приёмы анализа литературного произведения. – 3-е изд. – М.: Флинта: Наука, 2000. – 248 с.
5. Хализев В. Е. Теория литературы. – 5-е изд. – М.: Академия, 2009. – 432 с.
6. Лотман Ю. М. О поэтах и поэзии: Анализ поэтического текста. – СПб.: Искусство–СПБ, 1996. – 848 с.
7. Эко У. Роль читателя. Исследования по семиотике текста. – СПб.: Symposium, 2005. – 502 с.
8. Изер В. Акт чтения: теория эстетического воздействия. – М.: Издательство "Прогресс", 2000. – 368 с.
9. Розенблатт Л. М. Теория читательского отклика: транзакционная теория литературы и её практическое применение. – М.: Языки славянской культуры, 2005.
10. Асмус В. Ф. Чтение как труд и творчество // Вопросы теории и истории эстетики. – М.: Искусство, 1968. – С. 55–74.
11. Брушлинский А. В. Психология мышления и проблемное обучение. – М.: Знание, 1983. – 96 с.
12. Вербицкий А. А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – М.: Высшая школа, 1991. – 207 с.
13. Маранцман В. Г. Методика преподавания литературы. – М.: Просвещение, 1995.

РАЗВИТИЕ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИСТОРИИ ПОСРЕДСТВОМ РАБОТЫ С ХУДОЖЕСТВЕННО-ИСТОРИЧЕСКИМИ ИСТОЧНИКАМИ

Равшан Хакимов
Старший преподаватель Гулистанского государственного педагогического института

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические возможности формирования исследовательской компетентности будущих учителей истории посредством систематической работы с художественно-историческими источниками. Обосновано, что произведения мировой живописи, архитектуры, скульптуры и других видов искусства обладают значительным исследовательским потенциалом и позволяют организовать самостоятельную аналитическую деятельность студентов. Предлагаются методические подходы к развитию навыков поиска, анализа, интерпретации и критической оценки исторической информации. Сделан вывод о том, что исследовательская направленность обучения способствует повышению качества профессиональной подготовки будущих педагогов.

Ключевые слова: исследовательская компетентность, художественно-исторические источники, будущий учитель истории, профессиональная подготовка, аналитическое мышление, историческое образование.

Annotatsiya: Maqolada badiiy-tarixiy manbalar bilan ishlash orqali bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Tasviriy san’at, me’morchilik va haykaltaroshlik namunalarining tarixiy manba sifatidagi ilmiy salohiyati asoslangan. Talabalarning tarixiy ma’lumotlarni izlash, tahlil qilish, talqin etish va tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik kompetensiyasi, badiiy-tarixiy manbalar, bo‘lajak tarix o‘qituvchisi, kasbiy tayyorgarlik, tahliliy fikrlash, tarix ta’limi.

Abstract: The article explores the possibilities of developing the research competence of future history teachers through systematic work with artistic and historical sources. It substantiates that works of painting, architecture, sculpture and other forms of art possess considerable research potential and create favorable conditions for students’ independent analytical activity. Methodological approaches aimed at developing skills in searching for, analyzing, interpreting, and critically evaluating historical information are presented.

Key words: research competence, artistic and historical sources, future history teacher, professional training, analytical thinking, history education.

ВВЕДЕНИЕ

Подготовка современного учителя истории выходит далеко за рамки усвоения содержания учебных дисциплин. Сегодня образовательная практика требует специалиста, способного самостоятельно анализировать исторические процессы, работать с различными видами источников, критически оценивать информацию и организовывать исследовательскую деятельность обучающихся. В этой связи развитие исследовательской компетентности становится одним из важнейших направлений профессиональной подготовки студентов педагогических вузов. Несмотря на широкое внедрение компетентностного подхода, исследовательская деятельность студентов во многих случаях продолжает ограничиваться подготовкой рефератов и выполнением отдельных письменных заданий.

Такой формат не всегда обеспечивает формирование устойчивых навыков научного анализа. Представляется, что более продуктивным является систематическое включение студентов в исследовательскую работу на основе разнообразных исторических источников, среди которых особое место занимают произведения искусства. Художественно-исторические источники отличаются высокой информативностью и позволяют рассматривать исторические события в широком культурном контексте. Их использование создает условия для формирования исследовательского опыта, поскольку требует анализа, сопоставления, интерпретации и аргументированного обоснования выводов.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

В центре внимания исследований У.И. Иноятова, О.М. Мусурмановой, Ш.К. Мардонова, А.Т. Нурманова, Д.И. Рузиевого, Б.Х. Ходжаева, Д.Д. Шариповой, Ш.С. Шодмоновой, М.К. Куронова были педагогические основы совершенствования духовной, социально-профессиональной и коммуникативной компетентности будущих учителей истории, а также развитие универсальных и национальных художественно-исторических ценностей. В педагогической литературе исследовательская компетентность рассматривается как интегративное качество личности, объединяющее систему знаний, практических умений и ценностных установок, обеспечивающих способность самостоятельно осуществлять научный поиск и применять его результаты в профессиональной деятельности.

Для будущего учителя истории данная компетентность имеет особое значение. Она проявляется не только в способности проводить научные исследования, но и в умении организовывать исследовательскую деятельность школьников, развивать их критическое мышление и формировать культуру работы с историческими источниками. Следовательно, развитие исследовательской компетентности следует рассматривать как обязательное условие повышения качества профессиональной подготовки будущих педагогов.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Возможности художественно-исторических источников в исследовательском обучении.Произведения искусства существенно отличаются от традиционных письменных документов. Они передают информацию посредством художественных образов, символов, композиционных решений, цветовой палитры и эмоционального содержания. Именно эта многоплановость делает их эффективным материалом для исследовательской работы студентов.

При анализе художественного произведения обучающийся вынужден последовательно решать несколько исследовательских задач: определить исторический контекст создания произведения, установить его связь с конкретными событиями, выявить особенности авторской интерпретации и сопоставить полученные выводы с другими историческими источниками. Такой алгоритм способствует развитию аналитического мышления и формирует навыки научной аргументации. Кроме того, работа с произведениями искусства стимулирует познавательную активность студентов. Эмоциональная выразительность художественных образов повышает интерес к изучению исторического материала и способствует более глубокому пониманию общественных процессов различных эпох.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

Анализ научно-педагогической литературы и современной образовательной практики позволяет утверждать, что исследовательская компетентность не формируется в результате выполнения отдельных учебных заданий. Ее развитие требует специально организованной системы обучения, предусматривающей постепенное усложнение исследовательской деятельности студентов. Предлагаемая авторская модель включает четыре взаимосвязанных этапа.

Первый этап – **мотивационно-ориентационный.** Его основная цель заключается в формировании устойчивого интереса студентов к исследовательской деятельности. На данном этапе преподаватель предлагает произведения искусства, содержащие исторические противоречия или неоднозначные интерпретации событий. Возникающая познавательная проблема стимулирует поиск дополнительной информации и формирует внутреннюю мотивацию к исследованию.

Второй этап – **аналитический.** Студенты изучают художественно-исторический источник по определенному алгоритму: устанавливают время создания произведения, определяют исторический контекст, анализируют композицию, символику и содержание, выявляют авторскую позицию, а затем сопоставляют полученные сведения с письменными историческими документами. Именно на этом этапе развивается умение критически оценивать историческую информацию.

Третий этап – **интерпретационный.** Обучающиеся самостоятельно формулируют выводы, объясняют причины исторических событий, устанавливают причинно-следственные связи и представляют результаты исследования в форме научного сообщения, презентации или аналитического эссе. Такая деятельность способствует развитию научной аргументации и профессиональной речи.

Четвертый этап – **рефлексивно-оценочный.** Завершающим элементом становится обсуждение полученных результатов. Студенты оценивают собственную исследовательскую деятельность, анализируют сильные и слабые стороны выполненной работы, определяют направления дальнейшего совершенствования исследовательских навыков.

Подобная последовательность обеспечивает постепенный переход от восприятия информации к самостоятельному научному поиску. Педагогические условия эффективной организации исследовательской деятельностию Результативность формирования исследовательской компетентности определяется не только содержанием учебного материала, но и организацией образовательного процесса. Анализ педагогической практики позволяет выделить несколько условий, оказывающих наибольшее влияние на эффективность обучения.

Прежде всего необходимо создавать проблемные учебные ситуации, требующие самостоятельного поиска решения. Именно наличие исследовательской задачи побуждает студентов обращаться к различным историческим источникам, анализировать их и сопоставлять различные точки зрения. Вторым условием является использование разнообразных видов художественно-исторических источников. Ограничение работы исключительно произведениями живописи значительно сужает образовательные возможности. Существенный исследовательский потенциал имеют архитектурные памятники, исторические фотографии, произведения монументального искусства, плакаты, миниатюры, карикатуры и другие объекты материальной культуры. Важным условием выступает организация коллективного обсуждения результатов исследования. Академическая дискуссия способствует развитию критического мышления, формирует культуру научного общения и позволяет студентам осознать существование различных интерпретаций исторических событий. Особое значение приобретает применение цифровых образовательных ресурсов. Использование электронных музейных коллекций, цифровых архивов и специализированных информационных платформ значительно расширяет возможности самостоятельной исследовательской деятельности и делает образовательный процесс более современным и доступным.

Предлагаемая методика ориентирована на использование в системе высшего педагогического образования и может быть адаптирована к различным дисциплинам исторического цикла. Ее применение способствует формированию профессиональных компетенций, предусмотренных государственными образовательными стандартами подготовки будущих учителей истории. Практический опыт показывает, что систематическая работа с художественно-историческими источниками положительно влияет на качество подготовки студентов. Они демонстрируют более высокий уровень самостоятельности при анализе исторических материалов, аргументированнее формулируют выводы, увереннее используют научную терминологию и проявляют большую активность в учебных дискуссиях. Кроме того, подобная организация обучения создает основу для выполнения курсовых и выпускных квалификационных работ исследовательского характера. Студенты приобретают опыт постановки научной проблемы, выбора методов исследования, анализа исторических источников и представления результатов собственной научной деятельности.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Формирование исследовательской компетентности является одним из ключевых направлений профессиональной подготовки будущих учителей истории. Решение данной задачи требует использования методов обучения, ориентированных на самостоятельную познавательную деятельность студентов и развитие навыков научного исследования. Проведенный анализ показывает, что художественно-исторические источники обладают значительным образовательным потенциалом. Их использование позволяет сочетать эмоциональное восприятие исторического материала с его научным анализом, способствует развитию критического мышления, аналитических способностей и исследовательской самостоятельности обучающихся.

Предложенная авторская модель обеспечивает последовательное формирование исследовательской компетентности посредством организации проблемно-аналитической деятельности студентов. Ее практическая реализация способствует повышению качества профессиональной подготовки будущих

педагогов и отвечает современным требованиям исторического образования. Перспективным направлением дальнейших исследований представляется разработка цифровых методических комплексов, объединяющих художественно-исторические источники, интерактивные образовательные технологии и исследовательские методы обучения.

Список использованной литературы:

1. Сластёнин В.А. Педагогика. – Москва: Академия, 2021.
2. Подласый И.П. Педагогика. – Москва: Юрайт, 2022.
3. Вербицкий А.А. Активное обучение в высшей школе: контекстный подход. – Москва, 2020.
4. Кларин М.В. Инновационные модели обучения. – Москва: Академия, 2021.
5. Полат Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2021.
6. Студеникин М.Т. Методика преподавания истории в школе. – Москва: Владос, 2020.
7. Дмитриева Н.А. Краткая история искусств. – Москва: Искусство, 2020.
8. Закон Республики Узбекистан “Об образовании”.
9. Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года.
10. Современные научные публикации по вопросам исторического образования, исследовательского обучения и использования художественно-исторических источников.

OILAVIY MUHIT VA OTA-ONA MUNOSABATLARINING O'SMIR QIZLAR YOLG'IZLIGIGA TA'SIRI

Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Pedagogika psixologiya va inklyuziv ta'lim fakulteti
psixologiya yo'nalishi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilaviy muhit va ota-ona munosabatlarining o'smir qizlarda yolg'izlik tuyg'usining shakllanishiga ta'siri psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi oilaviy omillar, xususan, bog'lanish uslubi, ota-ona nazorati, emotsional iliqlik va oilaviy tarbiya uslublari bilan o'smir qizlarda yolg'izlik tuyg'usining namoyon bo'lishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida tizimlashtirishdan iborat. Tahlil natijalari xavfsiz bog'lanish, ota-onalarning emotsional qo'llab-quvvatlashi hamda oiladagi ochiq va samimiy muloqot o'smir qizlarda yolg'izlik tuyg'usining namoyon bo'lish darajasini pasaytiruvchi muhim himoya omillari ekanligini ko'rsatadi. Aksincha, ishonchsiz bog'lanish shakllari, emotsional yaqinlikning yetishmasligi va haddan tashqari qattiqqo'l tarbiya uslubi yolg'izlik tuyg'usining kuchayish xavfini oshiruvchi psixologik omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, o'smir qizlar, yolg'izlik tuyg'usi, oilaviy muhit, ota-ona munosabatlari, bog'lanish nazariyasi, emotsional qo'llab-quvvatlash, tarbiya uslubi.

Abstract: This article analyzes, from a psychological perspective, the influence of the family environment and parent–child relationships on the development of feelings of loneliness among adolescent girls. The study aims to systematize, based on contemporary research, the relationships between family factors, particularly attachment style, parental control, emotional warmth, and parenting styles, and the manifestation of loneliness among adolescent girls. The findings indicate that secure attachment, parental emotional support, and open and trusting communication within the family serve as important protective factors that contribute to lower levels of loneliness among adolescent girls. In contrast, insecure attachment patterns, insufficient emotional closeness, and excessively strict parenting styles emerge as psychological factors associated with an increased risk of loneliness.

Key words: adolescence, adolescent girls, loneliness, family environment, parent–child relationships, attachment theory, emotional support, parenting style.

Аннотация: В статье с психологической точки зрения анализируется влияние семейной среды и детско-родительских отношений на формирование чувства одиночества у девочек-подростков. Цель исследования заключается в систематизации на основе современных научных исследований взаимосвязей между семейными факторами, в частности стилем привязанности, родительским контролем, эмоциональной теплотой и стилями семейного воспитания, и проявлением чувства одиночества у девочек-подростков. Результаты анализа показывают, что надёжная привязанность, эмоциональная поддержка со стороны родителей, а также открытое и доверительное общение в семье выступают важными защитными факторами, способствующими снижению уровня одиночества у девочек-подростков. Напротив, ненадёжные типы привязанности, недостаток эмоциональной близости и чрезмерно жёсткий стиль воспитания являются психологическими факторами, повышающими риск усиления чувства одиночества.

Ключевые слова: подростковый возраст, девочки-подростки, чувство одиночества, семейная среда, детско-родительские отношения, теория привязанности, эмоциональная поддержка, стиль воспитания.

KIRISH

O'smirlik davri shaxs rivojlanishida alohida o'rin tutadi, chunki bu davrda ijtimoiy munosabatlar tizimi tubdan qayta quriladi va o'smir o'z "Men"ligini qidirish jarayonida ko'plab ichki qarama-qarshiliklarni boshdan kechiradi [1]. Ayniqsa qiz bolalarda bu davr emotsional sezuvchanlikning ortishi, o'z-o'zini baholashning beqarorlashishi va ijtimoiy aloqalarga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi bilan tavsiflanadi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy muhit - ota-onaning bolaga munosabati, ularning emotsional iliqligi, nazorat darajasi va bog'lanish sifati - o'smirlarda yolg'izlik tuyg'usining shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir [3].

Bog'lanish nazariyasiga ko'ra, bolalikda shakllangan ota-ona bilan bog'lanish tajribasi shaxsning o'zi va boshqalar haqidagi ichki ishchi modellariga aylanadi hamda kelgusida uning barcha ijtimoiy munosabatlariga, jumladan yolg'izlikka moyillikka ta'sir ko'rsatadi [2]. Bu nazariyaning eksperimental asosi "Begona vaziyat" metodikasi orqali sinab ko'rilgan bo'lib, bolaning ota-ona bilan ajralish va qayta birlashish vaziyatlaridagi xatti-harakati asosida xavfsiz, xavotirli va qochuvchi bog'lanish turlari ajratilgan [5].

Yolg'izlik tuyg'usi R. Vayss tomonidan ikki turga bo'lib o'rganilgan: emotsional yolg'izlik (yaqin, ishonchli munosabat yo'qligidan kelib chiqadigan) va ijtimoiy yolg'izlik (kengroq ijtimoiy tarmoq yetishmasligidan kelib chiqadigan) [6]. O'smir qizlarda, ayniqsa, emotsional yolg'izlik ko'pincha oiladagi yaqin, ishonchli munosabatning yetishmasligi bilan bog'liq bo'lib, bu holat uzoq muddatda psixotravmatik oqibatlarga olib kelishi mumkin.

So'nggi yillarda olib borilgan xalqaro tahliliy sharhlarda o'smirlik davridagi yolg'izlikning keng tarqalganligi va uning turli madaniy-ijtimoiy kontekstlarda namoyon bo'lish xususiyatlari ta'kidlanadi, bu esa muammoning global ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi [7].

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, oilaviy omillarning o'smir qizlar yolg'izligiga ta'sir mexanizmlarini ilmiy asoslangan tarzda tushunish nafaqat nazariy, balki amaliy psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi - mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili asosida oilaviy muhit komponentlari (bog'lanish uslubi, tarbiya turi, ota-ona nazorati va emotsional qo'llab-quvvatlash) bilan o'smir qizlar yolg'izligi o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni aniqlash va sistemalashtirishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologik jihatdan nazariy-analitik xarakterga ega bo'lib, quyidagi metodlardan foydalanildi:

1) **ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish metodi** - 2015–2025-yillar oralig'ida chop etilgan xalqaro va mahalliy ilmiy nashrlar (Frontiers in Psychology, Journal of Family Psychology, PLoS ONE, Journal of Affective Disorders va boshqalar) hamda bog'lanish nazariyasi va yolg'izlik nazariyasiga oid klassik manbalar tanlab olindi;

2) **qiyosiy-nazariy tahlil metodi** - turli mualliflarning bog'lanish uslublari, tarbiya turlari va yolg'izlik o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha qarashlarini o'zaro solishtirish;

3) **sistemalashtirish va umumlashtirish metodi** - mavjud empirik ma'lumotlarni oilaviy omillarning yolg'izlikka ta'sir mexanizmi modeliga birlashtirish.

Manbalar tanlashda asosiy mezon sifatida quyidagilar hisobga olindi: tadqiqot o'smirlik yoshidagi respondentlarni qamrab olishi, oilaviy/ota-ona omillari va yolg'izlik o'rtasidagi bog'liqlik aniq o'lchangan bo'lishi hamda natijalar taqrizdan o'tgan ilmiy jurnallarda chop etilgan bo'lishi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Bog'lanish uslubi va yolg'izlik o'rtasidagi bog'liqlik

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishonchsiz bog'lanish turlariga ega (ayniqsa, xavotirli va qochuvchi) o'smirlar xavfsiz bog'langan tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada yuqori yolg'izlik darajasini namoyon etadi [8]. Bu holat shuni tasdiqlaydiki, bolalik davridagi oilaviy munosabatlar tajribasi bog'lanish andozalarini shakllantiradi, bu andozalar esa kattalik davrida ham shaxsning emotsional farovonligiga, jumladan yolg'izlikka moyillikka ta'sir ko'rsatishda davom etadi.

Ota-ona bilan past sifatli bog'lanish nafaqat yolg'izlik, balki depressiya va boshqa ichki (internalizatsiyalashgan) psixologik muammolar bilan ham bog'liqligi aniqlangan [9]. Ayni paytda tengdoshlar bilan xavfsiz bog'lanish ota-ona bilan bog'lanish sifatining yetishmasligini to'liq qoplay olmasligi ta'kidlanadi - bu ota-ona bilan munosabatning o'ziga xos, almashtirib bo'lmaydigan ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

2. Ota-ona nazorati, emotsional qo'llab-quvvatlash va yolg'izlik

Braziliyada o'tkazilgan keng ko'lamli maktab tadqiqoti ota-ona nazorati va qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi o'smirlarda yolg'izlik va uyqu bilan bog'liq muammolar darajasining oshishi bilan bog'liqligini ko'rsatdi [10]. Bu natija oilaviy nazoratning past darajasi o'smirni ijtimoiy jihatdan himoyasiz holatga qo'yishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Boshqa tadqiqotda ota-onaning javob berish qobiliyati (responsiveness) yuqori bo‘lgan o‘smirlarning emotsiyalarini kamroq bostirishi va yolg‘izlikni kamroq his qilishi aniqlangan bo‘lib, bu ota-ona javobgarligining emotsional tartibga solish ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi rolini ko‘rsatadi.

3. Qattiqqo‘l tarbiya va jazolash uslubining ta’siri

Xitoyda o‘tkazilgan tadqiqotda ota-ona tomonidan jazolash (ayniqsa jismoniy va psixologik jazo) o‘smirlarda yolg‘izlik darajasini bevosita ham, umumiy “o‘z-o‘zini idrok etish” (self-concept) ko‘rsatkichi orqali bilvosita ham oshirishi isbotlangan [10]. Shu bilan birga, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarining sifati bu ta’sirni yumshatuvchi omil sifatida namoyon bo‘lgan - bu maktab muhitining kompensatsion rolini ko‘rsatadi.

O‘smirlar bilan olib borilgan sifat tadqiqotida yosh qizlar oiladagi nizolar va ota-ona tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaslikni o‘z qadr-qimmatiga shubha bilan qarash sabablaridan biri sifatida tilga oladi, bu esa yolg‘izlik tuyg‘usini kuchaytiradi [11].

4. Genetik-muhitiy o‘zaro ta’sir va jins farqlari

Belgiyalik tadqiqotchilar tomonidan o‘tkazilgan uzunlamasına (longitudinal) tadqiqot natijalariga ko‘ra, ota-ona qo‘llab-quvvatlashi past bo‘lgan holatlarda yolg‘izlik darajasi yuqori bo‘lib, bundan tashqari vaqt o‘tishi bilan qizlarda yolg‘izlik darajasi oshib borish tendensiyasi, o‘g‘il bolalarda esa aksincha pasayish tendensiyasi kuzatilgan [12]. Bu natija o‘smir qizlarning oilaviy omillarga nisbatan alohida sezuvchanligini va ularda yolg‘izlik dinamikasining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi, bu esa mazkur mavzuning aynan qiz bolalar nuqtai nazaridan alohida o‘rganilishi zarurligini asoslaydi.

Bundan tashqari, ota-ona-bola munosabatlarining o‘rta bolalik davridagi uzunlamasına dinamikasini o‘rgangan tadqiqot ota bilan yaqinlik darajasining pasayishi bolada yolg‘izlik darajasining oshishini bashorat qilishini aniqladi, bu ayniqsa qiz bolalar uchun sezilarli bo‘lgan [13].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, oilaviy muhitning o‘smir qizlar yolg‘izligiga ta’siri quyidagi psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi, deb xulosa qilish mumkin.

Birinchidan, **ichki ishchi model mexanizmi** - bolalikda shakllangan bog‘lanish tajribasi o‘zi va boshqalar haqidagi kognitiv-emotsional sxemalarga aylanib, o‘smir qizning kelgusi barcha munosabatlarini, jumladan yaqinlik o‘rnatish qobiliyatini belgilaydi [14].

Ikkinchidan, **o‘z-o‘zini baholash mexanizmi orqali ta’sir** - ota-ona tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaslik va tanqid o‘smir qizda o‘z qadr-qimmatiga shubhani kuchaytiradi, past o‘z-o‘zini baholash esa boshqalar bilan yaqin munosabat o‘rnatishga to‘sqinlik qiluvchi ichki to‘siqqa aylanadi.

Uchinchidan, **emotsional tartibga solish ko‘nikmalarining shakllanishi mexanizmi** - ota-onaning javobgarligi va emotsional iliqligi bola uchun emotsiyalarni tan olish va tartibga solish namunasi vazifasini bajaradi; bunday namunaning yetishmasligi o‘smirni emotsiyalarni bostirishga yoki izolyatsiyaga moyil qiladi.

To‘rtinchidan, **ijtimoiy kompetentlikni shakllantirish mexanizmi** - oilada modellashtirilgan muloqot uslubi o‘smir qizning tengdoshlar bilan munosabat o‘rnatish ko‘nikmalariga proyeksiya qilinadi; nizoli yoki distansiyalashgan oilaviy muhitda o‘sgan qizlar tengdoshlar bilan ham yaqin munosabat o‘rnatishda qiyinchilik chekadi.

Beshinchidan, **kompensatsion himoya mexanizmi** - o‘qituvchi-o‘quvchi munosabati va tengdoshlar bilan bog‘lanish sifati ota-ona omilining salbiy ta’sirini qisman yumshatishi mumkin, biroq bu ta’sirni to‘liq bartaraf eta olmaydi, chunki ota-ona bilan munosabat o‘ziga xos, boshqa munosabat turlari bilan to‘liq almashtirib bo‘lmaydigan ahamiyatga ega.

Umumiy psixologiya nuqtai nazaridan, tarbiya jarayonida jazo o‘rniga tushuntirish va muloqotga asoslangan uslublarning qo‘llanilishi shaxsning o‘z-o‘zini nazorat qilish va ijtimoiy moslashuv ko‘nikmalarini samaraliroq shakllantirishi ta’kidlanadi [15].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘smir qizlarning jinsiy-yosh xususiyatlari - yuqori emotsional sezuvchanlik, ijtimoiy baholanishga nisbatan sezgirlik va shaxslararo munosabatlarga yo‘naltirilganlik kuchliligi - ularni oilaviy omillar ta’siriga o‘g‘il bolalarga nisbatan ko‘proq moyil qiladi. Shu sababli oilaviy muhitni yaxshilashga qaratilgan psixologik-pedagogik ishlar, xususan ota-ona bilan ochiq muloqotni rag‘batlantirish, ota-onaning emotsional javobgarligini oshirish va tarbiyada jazolash o‘rniga tushuntirish uslubidan foydalanish, o‘smir qizlarda yolg‘izlik tuyg‘usining oldini olish va uning psixotravmatik oqibatlarini bartaraf etishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida shuni ta’kidlash kerakki, tahlil qilingan manbalarning aksariyati kesim (cross-sectional) dizaynga ega bo‘lib, sabab-oqibat bog‘liqligini to‘liq aniqlash imkonini bermaydi; shuningdek, o‘zbek oilaviy-madaniy kontekstiga xos empirik tadqiqotlar hozircha yetarli emas, bu kelgusi tadqiqotlar uchun dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy-analitik tahlil oilaviy muhit va ota-ona munosabatlarining o‘smir qizlar yolg‘izligi shakllanishida markaziy rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Xavfsiz bog‘lanish, yuqori emotsional javobgarlik va muvozanatli nazorat yolg‘izlikning oldini oluvchi himoya omillari sifatida, ishonchsiz bog‘lanish, jazolovchi tarbiya uslubi va oilaviy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi esa yolg‘izlik va uning psixotravmatik oqibatlari xavfini oshiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

Amaliy jihatdan, oila bilan ishlash - ota-onalarga bolaning emotsional ehtiyojlarini tushunish, ochiq muloqot o‘rnatish va jazolashsiz, tushuntirishga asoslangan tarbiya uslublarini qo‘llash bo‘yicha psixologik-pedagogik yordam ko‘rsatish - o‘smir qizlarda yolg‘izlik tuyg‘usining psixotravmatik oqibatlarini bartaraf etishning eng samarali va uzoq muddatli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda o‘zbek oilaviy-madaniy sharoitiga moslashtirilgan empirik so‘rovlar o‘tkazish, shuningdek oilaviy omillar asosida korreksion-profilaktik dasturlar ishlab chiqish va ularning samaradorligini sinovdan o‘tkazish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Эриксон Э. Идентичность: юность и кризис. - М.: Прогресс, 1996. - 344 с.
2. Мухина В.С. Возрастная психология: феноменология развития. - М.: Академия, 2007. - 640 с.
3. Mahon N.E., Yarcheski A., Yarcheski T.J., Cannella B.L., Hanks M.M. A meta-analytic study of predictors for loneliness during adolescence // Nursing Research. - 2006. - Vol. 55. - P. 308–315.
4. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. - New York: Basic Books, 1969. - 401 p.
5. Ainsworth M.D.S., Blehar M.C., Waters E., Wall S. Patterns of Attachment: A Psychological Study of the Strange Situation. - Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1978. - 391 p.
6. Weiss R.S. Loneliness: The Experience of Emotional and Social Isolation. - Cambridge, MA: MIT Press, 1973. - 236 p.
7. Loneliness in adolescence: prevalence, developmental contexts, and interventions // Frontiers in Psychiatry. - 2025. - Vol. 16. - Art. 1696981.
8. Goossens L., Marcoen A., van Hees S., van de Woestijne O. Attachment style and loneliness in adolescence // European Journal of Developmental Psychology. - 1998. - Vol. 8. - P. 529–542.
9. Machado A.K.F., Wendt A., Ricardo L.I.C. Are parental monitoring and support related with loneliness and problems to sleep in adolescents? Results from the Brazilian School-based Health Survey // Journal of Affective Disorders. - 2021. - Vol. 278. - P. 189–194.
10. Luo Y., Wu A., Zhang H. Parental Punishment and Adolescents' Loneliness: A Moderated Mediation Model of General Self-Concept and Teacher–Student Relationships // Frontiers in Psychology. - 2021. - Vol. 12. - Art. 693222.
11. Verity L., Yang K., Nowland R., Shankar A., Turnbull M., Qualter P. Loneliness From the Adolescent Perspective: A Qualitative Analysis of Conversations About Loneliness Between Adolescents and Childline Counselors // Journal of Adolescent Research. - 2024.
12. Spithoven A.W.M., Bijttebier P., Van Den Noortgate W., Colpin H., Verschueren K., Van Leeuwen K., Claes S., Goossens L. Adolescent Loneliness and the Interaction between the Serotonin Transporter Gene (5-HTTLPR) and Parental Support: A Replication Study // PLoS ONE. - 2015. - Vol. 10, No. 7. - Art. e0133430.
13. Yan J., Han Z.R., Tang Y., Zhang X. Longitudinal Associations Between Parent–Child Relationships in Middle Childhood and Child-Perceived Loneliness // Journal of Family Psychology. - 2018. - Vol. 32, No. 8. - P. 1010–1020.
14. Bretherton I., Munholland K.A. Internal working models in attachment relationships: A construct revisited // Handbook of Attachment: Theory, Research, and Clinical Applications / Eds. J. Cassidy, P.R. Shaver. - New York: Guilford Press, 1999. - P. 89–111.
15. Каримова В.М. Психология. - Тошкент: Фан, 2018. - 358 б.
16. Qarshiboyeva G., Baratov N., Baratullayevna D. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлаш масалалари // Журнал педагогики и психологии в современном образовании. - 2022. - Т. 2, № 5.
17. Баратуллаева Д. Ayollarda stress kechishi // Журнал педагогики и психологии в современном образовании. - 2024. - Т. 4, № 2. - Б. 48–52.
18. Баратуллаева Д., Ortiqova K. Yolg‘izlik ta’sirida hayotimizda ro‘y beradigan o‘zgarishlar // Журнал педагогики и психологии в современном образовании. - 2024. - Т. 4, № 2. - Б. 144–148.
19. Баратуллаева Д., Ergasheva D. Talabalarda uchraydigan stressli holatlar va ularni bartaraf etish omillari // Журнал педагогики и психологии в современном образовании. - 2024. - Т. 4, № 3. - Б. 3–8.

TABIIY FANLARNI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA O'QITISHNING METODIK MODELI VA UNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Ismoilov Nodirbek Kodirjonovich
Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi bo'lim boshlig'i,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: https://orcid.org/0009-0006-3718-823X

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlarni raqamli ta'lim muhitida o'qitishning metodik modeli va uning amaliy samaradorligi masalalari yoritilgan. Bugungi kunda maktab ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanish oddiy texnik yordamchi vosita darajasidan chiqib, o'quv jarayonini loyihalash, boshqarish va baholashning muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o'qitishda virtual laboratoriyalar, interfaol topshiriqlar, simulyatsiyalar va raqamli platformalar o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga, tajriba va kuzatuv faoliyatini xavfsiz muhitda bajarishiga hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada tabiiy fanlarni raqamli ta'lim muhitida o'qitishga mo'ljallangan metodik modelning mazmuni, uning asosiy tarkibiy qismlari, tajriba-sinov jarayonida qo'llanishi va samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari raqamli platformalar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, tajriba o'tkazish malakasi hamda STEM kompetensiyalarini rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: raqamli ta'lim muhiti, tabiiy fanlar, metodik model, virtual laboratoriya, interfaol resurs, simulyatsiya, STEM kompetensiya, raqamli platforma, samaradorlik ko'rsatkichi.

Abstract: This article discusses the methodological model of teaching natural sciences in a digital learning environment and its practical effectiveness. In modern school education, the use of digital technologies is no longer limited to an auxiliary technical tool; it is becoming an important part of designing, organizing, and assessing the learning process. In teaching natural sciences, virtual laboratories, interactive tasks, simulations, and digital platforms help students understand learning materials more deeply, conduct experiments and observations in a safe environment, and develop independent thinking skills. The article analyzes the content of the methodological model for teaching natural sciences in a digital learning environment, its main components, its application during the pedagogical experiment, and its effectiveness indicators. The research results show that lessons organized through digital platforms have a positive impact on students' theoretical knowledge, practical skills, experimental abilities, and STEM competencies.

Key words: digital learning environment, natural sciences, methodological model, virtual laboratory, interactive resource, simulation, STEM competence, digital platform, effectiveness indicator.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы методической модели преподавания естественных наук в цифровой образовательной среде и ее практической эффективности. В современных условиях использование цифровых технологий в школьном образовании выходит за рамки вспомогательного технического средства и становится важной частью проектирования, организации и оценки учебного процесса. Особенно при преподавании естественных наук виртуальные лаборатории, интерактивные задания, симуляции и цифровые платформы помогают учащимся глубже понимать учебный материал, выполнять опыты и наблюдения в безопасной среде, а также развивать самостоятельное мышление. В статье анализируются содержание методической модели преподавания естественных наук в цифровой образовательной среде, ее основные компоненты, применение в ходе педагогического эксперимента и показатели эффективности. Результаты исследования показывают, что уроки, организованные на основе цифровых платформ, положительно влияют на развитие теоретических знаний, практических умений, экспериментальных навыков и STEM-компетенций учащихся.

Ключевые слова: цифровая образовательная среда, естественные науки, методическая модель, виртуальная лаборатория, интерактивный ресурс, симуляция, STEM-компетенция, цифровая платформа, показатель эффективности.

KIRISH

So‘nggi yillarda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalasi alohida dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi. Avvallari kompyuter, elektron darslik yoki taqdimot materiallari ko‘proq darsni ko‘rgazmali qilish vositasi sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda raqamli ta’lim muhiti o‘quv jarayonining deyarli barcha bosqichlariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Darsni rejalashtirish, o‘quv materialini taqdim etish, topshiriqlar berish, o‘quvchi faoliyatini kuzatish, natijalarni baholash va teskari aloqa berish jarayonlarida raqamli platformalar muhim o‘rin egallamoqda.

Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli ta’lim muhitining imkoniyatlari kengdir. Chunki tabiiy fanlar mazmunan tajriba, kuzatish, modellashtirish, sabab-oqibat aloqalarini tushuntirish va ilmiy xulosa chiqarishga asoslanadi. Fizika, kimyo, biologiya va tabiiy fan darslarida ayrim jarayonlarni oddiy tushuntirish orqali to‘liq anglatish qiyin. Masalan, molekulyar jarayonlar, elektr zanjiridagi o‘zgarishlar, biologik tizimlar faoliyati yoki kimyoviy reaksiya bosqichlarini bevosita kuzatish uchun doimo yetarli sharoit bo‘lavermaydi. Shu sababli raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar o‘quvchiga murakkab jarayonni ko‘rish, sinab ko‘rish, xatoni aniqlash va natijani tahlil qilish imkonini beradi.

Maktab amaliyotida raqamli vositalardan foydalanishning samaradorligi faqat texnologiyaning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Muhimi, ushbu vositalar darsning maqsadi, mazmuni, metodlari va baholash tizimi bilan qanchalik uyg‘unlashganidir. Agar raqamli resurs darsda faqat ko‘rsatish uchun ishlatilsa, uning metodik ta’siri cheklangan bo‘ladi. Aksincha, raqamli muhit o‘quvchini faol ishtirokchi sifatida jalb qilsa, unga tajriba bajarish, mustaqil fikrlash, natija chiqarish va o‘z xatosi ustida ishlash imkonini bersa, bunday yondashuv ta’lim sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli ta’lim muhitidan foydalanish bugungi kunda o‘qituvchi faoliyatini ham yangicha tashkil etishni talab qilmoqda. O‘qituvchi endi faqat tayyor bilimni yetkazuvchi emas, balki o‘quv jarayonini loyihalovchi, mos raqamli resurslarni tanlovchi, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga oluvchi va natijalarni tahlil qiluvchi metodik rahbar sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa tabiiy fan o‘qituvchilarining raqamli pedagogik kompetensiyasini rivojlantirishni ham muhim vazifa sifatida kun tartibiga olib chiqadi.

Mazkur maqolada tabiiy fanlarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitishning metodik modeli ishlab chiqilib, uning asosiy tarkibiy qismlari va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamli platformalar, interfaol resurslar va virtual laboratoriyalar asosida tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish hamda ushbu yondashuvning o‘quvchilar bilim va kompetensiyalariga ta’sirini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tabiiy fanlarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitish masalasi bugungi pedagogik tadqiqotlarda alohida yo‘nalish sifatida shakllanmoqda. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta’lim jarayoniga faqat axborotni tez yetkazish vositasi sifatida emas, balki o‘quvchining bilish faoliyatini faollashtiruvchi, mustaqil izlanishga yo‘naltiruvchi va amaliy kompetensiyalarni rivojlantiruvchi pedagogik muhit sifatida kirib kelmoqda. Ayniqsa, tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interfaol topshiriqlar o‘quvchilarning tajriba, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish faoliyatini kuchaytirishi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur yo‘nalishda konstruktivistik ta’lim nazariyasi muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi. L.S. Vygotsky tomonidan ilgari surilgan yaqin rivojlanish zonasi g‘oyasi o‘quvchining bilimni o‘zlashtirish jarayoni ijtimoiy hamkorlik, yo‘naltirish va faol ishtirok orqali kechishini asoslaydi. Bu yondashuv raqamli ta’lim muhitida ham o‘z ahamiyatini saqlab qoladi. Chunki virtual laboratoriyalar, bosqichli topshiriqlar, avtomatik teskari aloqa va o‘qituvchi tomonidan beriladigan metodik yo‘naltirish o‘quvchining mustaqil o‘rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunda o‘quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki bilimni faol shakllantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli ta’limning nazariy asoslarini yoritishda G. Siemens tomonidan ilgari surilgan konnektivizm nazariyasi ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, raqamli davrda bilim faqat darslik yoki o‘qituvchi orqali emas, balki turli axborot manbalari, platformalar, tarmoqlar va raqamli resurslar bilan bog‘liq holda shakllanadi. Tabiiy fanlarni o‘qitishda bu yondashuv o‘quvchilarning raqamli manbalar bilan ishlashi, kerakli axborotni izlab topishi, uni tahlil qilishi, tajriba natijalari bilan solishtirishi va mustaqil xulosa chiqarishi orqali namoyon bo‘ladi. Demak, raqamli ta’lim muhiti o‘quvchining nafaqat bilim olishini, balki bilim bilan ishlash madaniyatini ham rivojlantiradi.

Tabiiy fanlarni o‘qitishda interfaol yondashuv samaradorligi bo‘yicha R.R. Hake tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham alohida ahamiyatga ega. Uning interfaol o‘qitish usullari bo‘yicha tahlillari o‘quvchining faol ishtiroki, tajriba asosida o‘rganishi va o‘quv jarayonida bevosita harakat qilishi an’anaviy tushuntirishga nisbatan yuqoriroq natija berishini ko‘rsatadi. Bu xulosa tabiiy fanlarni raqamli muhitda o‘qitish jarayoni uchun ham mos

keladi. Chunki raqamli platformalar o‘quvchini mavzuni faqat tinglashga emas, balki tajriba bajarish, kuzatish, natijani solishtirish va muhokama qilishga jalb etadi.

Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar bo‘yicha T. de Jong, M.C. Linn va Z.C. Zacharia tadqiqotlarida fizik va virtual laboratoriyalar tabiiy fanlarni o‘qitishda bir-birini to‘ldiruvchi muhim vositalar sifatida talqin qilinadi. Ularning fikricha, virtual laboratoriyalar o‘quvchilarga murakkab jarayonlarni xavfsiz, takroriy va vizual shaklda o‘rganish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, real laboratoriya sharoitida bajarish qiyin bo‘lgan tajribalarni modellashtirishda muhimdir. Shu jihatdan, tabiiy fanlarni o‘qitishda virtual laboratoriyalardan foydalanish o‘quvchilar uchun nafaqat qulaylik yaratadi, balki mavzuni chuqurroq anglashga ham xizmat qiladi.

Formativ baholash va o‘zini-o‘zi boshqarib o‘rganish masalalarida D. Nicol va D. Macfarlane-Dick tomonidan ilgari surilgan qarashlar raqamli ta’lim muhiti uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning tadqiqotlarida samarali teskari aloqa o‘quvchining o‘z o‘rganish jarayonini anglashiga, xatolarini tuzatishiga va keyingi faoliyatini rejalashtirishiga yordam berishi ta’kidlanadi. Raqamli platformalarda avtomatik baholash, natijalarni tezkor ko‘rsatish, topshiriqni qayta bajarish va o‘quvchi faoliyatini monitoring qilish imkoniyatlari aynan shu yondashuvni amaliy jihatdan qo‘llashga sharoit yaratadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli vositalardan foydalanish masalasi keng yoritilmoqda. Jumladan, G.S. Ergasheva va N.J. Toshmanov biologiya mashg‘ulotlarida virtual laboratoriya dasturlaridan foydalanish metodikasini tahlil qilib, bunday vositalar o‘quvchilarning mavzuga qiziqishini oshirishi, laboratoriya jarayonlarini ko‘rgazmali tashkil etishi va amaliy bilimlarni mustahkamlashga yordam berishini ko‘rsatadi. Bu qarashlar tabiiy fanlarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitishning metodik modelini ishlab chiqishda muhim nazariy va amaliy tayanch vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tabiiy fanlarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitish samaradorligi faqat raqamli vositalarning mavjudligi bilan belgilanmaydi. Bunda raqamli platforma, virtual laboratoriya yoki simulyatsiyaning o‘quv maqsadi, dars mazmuni, o‘quvchi faoliyati va baholash tizimi bilan uyg‘unlashuvi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun ushbu tadqiqotda raqamli ta’lim vositalari alohida texnik imkoniyat sifatida emas, balki tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtiruvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida qaraldi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tabiiy fanlarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlari o‘rganildi. Bunda raqamli pedagogika, kompetensiyaviy yondashuv, konstruktivistik ta’lim nazariyasi hamda STEM yondashuvi asosiy metodologik tayanch sifatida olindi. Chunki ushbu yondashuvlar o‘quvchini tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki faol o‘rganuvchi, tajriba bajaruvchi, muammoni hal qiluvchi va mustaqil xulosa chiqaruvchi shaxs sifatida qaraydi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, taqqoslash, umumlashtirish, diagnostik baholash, pedagogik tajriba-sinov va matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil orqali raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, elektron topshiriqlar va interfaol resurslarning didaktik imkoniyatlari o‘rganildi. Pedagogik kuzatuv davomida maktab amaliyotida raqamli vositalardan foydalanish holati, o‘qituvchilarning metodik yondashuvi va o‘quvchilarning bunday muhitdagi faolligi tahlil qilindi.

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida o‘quvchilarning dastlabki tayyorgarlik darajasi diagnostik baholash orqali aniqlandi. Bunda ularning tabiiy fanlar bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘nikmalari, tajriba va kuzatuv faoliyatiga tayyorgarligi, muammoli savollarga javob berish qobiliyati hamda raqamli resurslardan foydalanish malakasi hisobga olindi. Shundan so‘ng tajriba guruhlarida tabiiy fan darslari ishlab chiqilgan metodik model asosida, nazorat guruhlarida esa odatdagi dars tashkil etish yondashuvlari asosida olib borildi.

Tadqiqot uch asosiy bosqichda tashkil etildi. Dastlabki bosqichda o‘quvchilarning boshlang‘ich bilim va ko‘nikmalari aniqlab olindi. Keyingi bosqichda tajriba guruhlarida raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, interfaol topshiriqlar, adaptiv mashqlar va STEM mazmunidagi integrativ vazifalar asosida darslar tashkil etildi. Yakuniy bosqichda esa tajriba va nazorat guruhlarida olingan natijalar solishtirilib, metodik modelning samaradorligi baholandi.

Ishlab chiqilgan metodik model bir nechta o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlardan iborat bo‘ldi. Modelning maqsadli qismi tabiiy fanlarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitish orqali o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligi, amaliy ko‘nikmalari, mustaqil fikrlashi va STEM kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratildi. Mazmuniy qismda o‘quv mavzulari virtual tajribalar, kuzatuv topshiriqlari, interfaol mashqlar va hayotiy muammolar bilan boyitildi. Texnologik qism esa raqamli platformalar, elektron testlar, simulyatsiyalar, videoizohlar, virtual laboratoriyalar va raqamli monitoring vositalarini qamrab oldi.

Modelning faoliyatga yo‘naltirilgan qismida o‘quvchilarning bevosita tajriba bajarishi, natijalarni tahlil qilishi, guruhda muhokama qilishi va yakuniy xulosa chiqarishi ko‘zda tutildi. Baholash qismida esa faqat yakuniy test natijasi emas, balki o‘quvchining dars jarayonidagi ishtiroki, topshiriqlarni bajarish bosqichlari, xatolar ustida

ishlashi va mustaqil izlanishi ham inobatga olindi. Shu orqali raqamli ta'lim muhiti o'quvchining bilimini baholash bilan birga uning o'rganish jarayonini ham kuzatish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik tajriba-sinov jarayonida tabiiy fanlarni raqamli ta'lim muhitida o'qitishga yo'naltirilgan metodik modelning o'quvchilar bilim, ko'nikma va kompetensiyalariga ta'siri o'rganildi. Bunda tajriba guruhlarida darslar raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, interfaol topshiriqlar, adaptiv mashqlar va STEM mazmunidagi integrativ vazifalar asosida tashkil etildi. Nazorat guruhlarida esa darslar an'anaviy metodik yondashuv asosida olib borildi.


Tajriba-sinov natijalarini baholashda o'quvchilarning nazariy bilimlarni o'zlashtirish darajasi, amaliy topshiriqlarni bajarish ko'nikmasi, tajriba va kuzatuv faoliyatini amalga oshirish malakasi, muammoli vaziyatlarga yechim topish qobiliyati, STEM kompetensiyalari hamda mustaqil o'rganish faolligi asosiy mezon sifatida belgilandi. Mazkur mezonlar tabiiy fanlarni o'qitishda faqat yakuniy bilim natijasini emas, balki o'quvchining dars jarayonidagi faolligi, amaliy harakati, tahliliy fikrlashi va mustaqil ishlash qobiliyatini ham aniqlash imkonini berdi.

Tajriba guruhlarida o'quvchilar mavzuni faqat o'qituvchi tushuntirishi orqali emas, balki interfaol topshiriqlarni bajarish, virtual tajribalarni kuzatish, parametrlarni o'zgartirish, natijalarni taqqoslash va xulosa chiqarish orqali o'zlashtirdilar. Bu jarayon darsni o'quvchi uchun jonli, tushunarli va amaliy mazmunga ega shaklda tashkil etishga yordam berdi. Ayniqsa, virtual laboratoriyalar orqali murakkab tabiiy-ilmiy jarayonlarni modellashtirish o'quvchilarning tajriba va kuzatuv faoliyatini faollashtirdi.

Raqamli platformalar asosida tuzilgan darslar o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirishga xizmat qildi. Dars davomida dastlab mavzu bo'yicha qisqa nazariy tushuncha berildi, keyin jarayon vizual material yoki simulyatsiya orqali namoyish etildi. Shundan so'ng o'quvchilar virtual tajriba yoki interfaol topshiriqni bajardilar. Mashg'ulot yakunida esa o'z natijalarini tahlil qilish, savollarga javob berish va xulosa chiqarish orqali mavzuni mustahkamladilar. Bunday ketma-ketlik o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qildi.

Virtual laboratoriyalarning muhim afzalligi shundaki, ular tajribani xavfsiz, tejamkor va takroriy bajarish imkonini berdi. Oddiy laboratoriya sharoitida ayrim tajribalar vaqt, jihoz yoki xavfsizlik nuqtayi nazaridan cheklangan bo'lishi mumkin. Raqamli muhitda esa o'quvchi tajriba shartlarini o'zgartirib, natijadagi farqni kuzatadi, xatoga yo'l qo'ysa, uni qayta bajaradi va sababini mustaqil izlaydi. Bu esa tajribani shunchaki ko'rish emas, balki uni anglash, tahlil qilish va xulosa chiqarish imkonini yaratadi.

Tajriba-sinov jarayonida olingan natijalar quyidagi jadvalda umumlashtirildi.



1-diagramma: **Tajriba va nazorat guruhlarida asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish dinamikasi**

1-diagramma ma'lumotlari tajriba guruhida barcha asosiy mezonlar bo'yicha ijobiy o'sish kuzatilganini ko'rsatadi. Ayniqsa, tajriba va kuzatuv faoliyatini amalga oshirish malakasi 29,1 foizga, amaliy topshiriqlarni bajarish ko'nikmasi esa 28,6 foizga oshgani raqamli ta'lim muhitida tashkil etilgan darslarning amaliy faoliyatga kuchli ta'sir ko'rsatganini bildiradi. Nazorat guruhida ham ma'lum o'sish mavjud bo'lsa-da, u tajriba guruhidagi ko'rsatkichlarga nisbatan ancha past darajada qayd etildi.

Nazariy bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha tajriba guruhida 27,4 foizlik o'sish kuzatilgani raqamli platformalar mavzuni tushuntirish, vizual namoyish etish va mustahkamlashda samarali vosita bo'lganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich 12,1 foizni tashkil etdi. Bu farq shuni anglatadiki, raqamli ta'lim muhiti o'quvchilarga mavzuni oddiy eshitish yoki o'qish orqali emas, balki ko'rish, bajarish va tahlil qilish orqali o'zlashtirish imkonini bergan.

Amaliy topshiriqlarni bajarish ko'nikmasi bo'yicha tajriba guruhida 28,6 foizlik o'sish kuzatildi. Bu natija virtual laboratoriyalar, interfaol topshiriqlar va simulyatsiyalar o'quvchilarni dars jarayonida faol harakatga jalb qilganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 11,0 foiz bo'lib, an'anaviy yondashuvda amaliy faoliyat imkoniyatlari nisbatan cheklanganini anglatadi.

Tajriba va kuzatuv faoliyatini amalga oshirish malakasi bo'yicha eng yuqori natija tajriba guruhida qayd etildi. Ushbu ko'rsatkichning 29,1 foizga oshgani raqamli muhitda tajribalarni takroriy bajarish, jarayonlarni solishtirish, natijalarni kuzatish va mustaqil xulosa chiqarish imkoniyatlari o'quvchilarning tadqiqotchilik faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini tasdiqlaydi.

Muammoli vaziyatlarga yechim topish va STEM kompetensiyalari bo'yicha tajriba guruhida 25,8 foizlik o'sish kuzatildi. Bu holat o'quvchilar masalani faqat nazariy savol sifatida emas, balki amaliy muammo sifatida ko'rishga, tajriba natijalariga asoslanib fikr yuritishga va mantiqiy xulosa chiqarishga o'rganganini ko'rsatadi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich 10,9 foizni tashkil etgani raqamli-interfaol muhitning STEM kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ustunligini ko'rsatadi.

Mustaqil o'rganish faolligi bo'yicha tajriba guruhida 23,1 foizlik o'sish kuzatildi. Bu ko'rsatkich boshqa mezonlarga nisbatan biroz pastroq bo'lsa-da, nazorat guruhidagi 12,1 foizlik natijaga qaraganda ancha yuqoridir. Bu esa raqamli platformalarda avtomatik teskari aloqa, topshiriqni qayta bajarish va individual sur'atda ishlash imkoniyatlari o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishiga ijobiy ta'sir qilganini ko'rsatadi.

Tadqiqotda metodik modelning umumiy samaradorligini aniqlash uchun asosiy mezonlar bo'yicha o'rtacha o'sish hamda integral samaradorlik koeffitsiyenti ham tahlil qilindi (1-jadval).

1-jadval: **Metodik model samaradorligining integral ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
1.	**Asosiy mezonlar bo'yicha o'rtacha o'sish (%)**	26,8	11,3
2.	**Integral samaradorlik koeffitsiyenti**	1,47	1,18
3.	**Ta'lim natijalarining umumiy bahosi**	Yuqori	O'rtacha
4.	**Metodik modelning amaliy samaradorligi**	Barqaror	Nisbatan cheklangan

1-jadval ma'lumotlari ishlab chiqilgan metodik modelning tajriba guruhida yuqoriroq natija berganini ko'rsatadi. Tajriba guruhida asosiy mezonlar bo'yicha o'rtacha o'sish 26,8 foizni, nazorat guruhida esa 11,3 foizni tashkil etdi. Bu farq raqamli ta'lim muhitida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy yondashuvga nisbatan samaraliroq ekanini ko'rsatadi.

Integral samaradorlik koeffitsiyenti tajriba guruhida 1,47 ni, nazorat guruhida esa 1,18 ni tashkil etdi. Tajriba guruhidagi koeffitsiyentning yuqoriligi metodik modelning o'quv jarayoniga barqaror ijobiy ta'sir ko'rsatganini anglatadi. Nazorat guruhida ham ijobiy siljish mavjud bo'lsa-da, samaradorlik darajasi tajriba guruhiga nisbatan pastroq bo'ldi. Bu natija tabiiy fanlarni raqamli ta'lim muhitida o'qitish o'quvchilarning faolligi, amaliy harakati va mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini kuchaytirishini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhiti o'quvchilarning faqat bilim darajasiga emas, balki ularning o'quv faoliyati uslubiga ham ta'sir qilgan. O'quvchilar dars jarayonida ko'proq savol berishga, tajriba natijalarini muhokama qilishga, mustaqil javob izlashga va o'z xatolarini tushunishga intildilar. Bu esa ta'lim jarayonining faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi xarakterini kuchaytirdi.

Tajriba guruhida o'quvchilarning STEM kompetensiyalarida ham sezilarli siljish kuzatildi. Ular masalani faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy muammo sifatida ko'rishga, tajriba natijalariga asoslanib xulosa chiqarishga, matematik va mantiqiy fikrlash elementlaridan foydalanishga harakat qildilar. Bu holat raqamli ta'lim muhitining tabiiy fanlarni o'qitishda integrativ yondashuvni kuchaytirishini ko'rsatadi.

Olingan natijalar raqamli ta'lim muhiti tabiiy fanlarni o'qitishda muhim metodik imkoniyatlarga ega ekanini tasdiqlaydi. Bunda asosiy masala texnologiyaning o'zida emas, balki undan qanday pedagogik maqsadda va qanday metodik ketma-ketlikda foydalanilishidadir. Agar raqamli vosita dars mazmuni bilan bog'lanmasa, u

faqat tashqi bezak sifatida qolib ketadi. Ammo u mavzuni tushuntirish, tajriba bajarish, o‘quvchi faoliyatini boshqarish va natijani baholash jarayoniga tabiiy qo‘shilsa, darsning samaradorligini oshiradi.

Tabiiy fanlar uchun raqamli ta’lim muhitining eng muhim jihatlaridan biri ko‘rinmaydigan yoki murakkab jarayonlarni ko‘rgazmali qilish imkoniyatidir. Masalan, fizik hodisalar, biologik jarayonlar yoki kimyoviy reaksiyalarni simulyatsiya orqali namoyish etish o‘quvchiga mavzuni oddiy matn yoki og‘zaki tushuntirishga nisbatan ancha ravshanroq anglash imkonini beradi. Bu, ayniqsa, abstrakt tushunchalarni o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida aniqlangan yana bir holat shuki, raqamli muhit o‘quvchining mustaqil o‘rganishiga keng imkoniyat yaratadi. O‘quvchi topshiriqni bajarish jarayonida darhol teskari aloqa oladi, xatosini ko‘radi, kerak bo‘lsa, topshiriqni qayta bajaradi. An’anaviy darsda bunday imkoniyat har doim ham yetarli bo‘lmaydi. Raqamli platformalarda esa o‘quvchi o‘z o‘zlashtirish sur’atiga mos harakat qilishi mumkin. Bu sust o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun ham, yuqori natija ko‘rsatuvchi o‘quvchilar uchun ham qulay sharoit yaratadi.

Metodik modelning samaradorligi uning tarkibiy qismlari bir-biri bilan bog‘liq holda ishlashida namoyon bo‘ldi. Maqsad aniq belgilangani, mazmun raqamli resurslar bilan boyitilgani, o‘quvchi faoliyati interfaol topshiriqlar orqali tashkil etilgani va natijalar raqamli monitoring asosida kuzatilgani o‘quv jarayonining izchilligini ta’minladi. Shu sababli tajriba guruhida nafaqat o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, balki o‘quvchilarning darsga munosabati va faolligida ham ijobiy o‘zgarish sezildi.

Biroq raqamli ta’lim muhitini joriy etishda ayrim shart-sharoitlarni ham hisobga olish zarur. Eng avvalo, o‘qituvchi raqamli platforma va virtual laboratoriyalardan metodik jihatdan to‘g‘ri foydalana olishi kerak. Har qanday raqamli resurs ham dars uchun foydali bo‘lavermaydi. Uni mavzuning maqsadi, o‘quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va darsning kutilayotgan natijalariga qarab tanlash zarur. Shuningdek, texnik infratuzilma, internet sifati va o‘quvchilarning qurilmalar bilan ishlash malakasi ham ta’lim jarayoniga ta’sir ko‘rsatadi.

Shu jihatdan, tabiiy fanlarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitish o‘qituvchidan puxta metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Raqamli texnologiya darsni o‘qituvchisiz tashkil etadigan vosita emas. Aksincha, u o‘qituvchining metodik mahoratini yanada ko‘proq namoyon etadi. O‘qituvchi raqamli vositani qachon, nima uchun va qanday qo‘llashni bilsagina, u real ta’limiy natija beradi.

Tajriba-sinov natijalari tabiiy fanlarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitish o‘quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirishda samarali vosita bo‘la olishini ko‘rsatdi. Bunda nazariy bilim, amaliy tajriba, mustaqil tahlil, muammoli vaziyat va baholash bir tizimga birlashtiriladi. Aynan shu jihat ishlab chiqilgan metodik modelning asosiy afzalligini belgilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, tabiiy fanlarni raqamli ta’lim muhitida o‘qitish zamonaviy maktab ta’limi uchun muhim metodik yo‘nalishlardan biridir. Raqamli platformalar, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va interfaol topshiriqlar tabiiy fanlarni o‘qitishda mavzuni tushunarli, amaliy va o‘quvchi uchun qiziqarli shaklda tashkil etish imkonini beradi.

Ishlab chiqilgan metodik model tabiiy fanlarni o‘qitishda raqamli vositalardan tizimli foydalanishga asoslanadi. Modelda o‘quv maqsadi, dars mazmuni, raqamli resurs, o‘quvchi faoliyati, baholash va yakuniy natija o‘zaro bog‘liq holda qaraladi. Bunday yondashuv darsda raqamli texnologiyalardan tasodifiy emas, balki maqsadli va natijaga yo‘naltirilgan holda foydalanish imkonini yaratadi.

Tajriba-sinov natijalari taklif etilgan metodik modelning samaradorligini tasdiqladi. Tajriba guruhida asosiy mezonlar bo‘yicha o‘rtacha o‘sish 26,8 foizni, nazorat guruhida esa 11,3 foizni tashkil etdi. Integral samaradorlik koeffitsiyenti tajriba guruhida 1,47, nazorat guruhida 1,18 bo‘lgani raqamli ta’lim muhitida tashkil etilgan darslarning ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, raqamli ta’lim muhiti tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish, tajriba va kuzatuv faoliyatini faollashtirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish va STEM kompetensiyalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida baholanishi mumkin. Shu sababli tabiiy fan o‘qituvchilarining raqamli pedagogik kompetensiyasini oshirish, maktablarda virtual laboratoriyalar va interfaol resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim amaliy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF–6079-son[1] “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF–5712-son[2] “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.

1 https://lex.uz/ru/docs/-5030957
2 https://lex.uz/docs/-4312785

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF–134-son[3] “2022–2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PQ–4805-son[4] “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta’lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ–5032-son[5] “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press, 1978.
7. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. 2005. Vol. 2(1).
8. Hake R.R. Interactive-engagement versus traditional methods: A six-thousand-student survey of mechanics test data for introductory physics courses // American Journal of Physics. 1998. Vol. 66(1). P. 64–74.
9. de Jong T., Linn M.C., Zacharia Z.C. Physical and Virtual Laboratories in Science and Engineering Education // Science. 2013. Vol. 340. P. 305–308.
10. Nicol D., Macfarlane-Dick D. Formative assessment and self-regulated learning: A model and seven principles of good feedback practice // Studies in Higher Education. 2006. Vol. 31(2). P. 199–218.
11. OECD. Shaping Digital Education: Enabling Factors for Quality, Equity and Efficiency. Paris: OECD Publishing, 2023.
12. Ergasheva G.S., Toshmanov N.J. Biologiya mashg‘ulotlarida virtual laboratoriya dasturlaridan foydalanish metodikasi // Elektron ta’lim. 2023. № 4. B. 5–15.
13. Ismoilov N.K. Raqamli ta’lim platformalari va interfaol resurslar orqali tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi qo‘lyozmasi. Toshkent, 2025.
14. Raqamli ta’lim platformasi (Tabiiy fanlarga oid virtual laboratoriya va simulyatsiyalar). Elektron manba: https://raqamlitalim.trm.uz/labs

3 https://lex.uz/docs/-6008663
4 https://lex.uz/docs/-4945470
5 https://lex.uz/docs/-5338558

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA O'QISH VA YOZISHNI O'RGATISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich
A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti doktoranti
Orcid ID: 0009-0002-4074-3557

Annotatsiya: Mazkur maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy manbalarni tahlil qilish, qiyoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan. Tahlil natijasida "olti devorli sinfxona" modeli, multisensor harf kublari va interaktiv daftarlar o'qish va yozishni o'rgatishda o'zaro bog'langan samarali vositalar sifatida aniqlandi. Mazkur yondashuv o'quv jarayonini ko'rish, taktil sezgi, harakat, yozma faoliyat va hamkorlik bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi. Xulosa sifatida inklyuziv ta'limda o'qish va yozishni o'rgatish metodlari, ta'lim muhiti va interaktiv vositalarni yagona tizim asosida tashkil etish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'qish savodxonligi, o'qish, yozish, tushunib o'qish, multisensor ta'lim, hamkorlik, ta'lim muhiti, harf kublari, interaktiv daftar.

Abstract: This article analyzes the issues of improving the methodology of teaching reading and writing to primary school students in an inclusive education environment. The purpose of the study is to identify effective approaches that contribute to the development of reading and writing skills while taking into account students' individual educational needs. The methods of analyzing scientific sources, comparison, and generalization were used in the study. As a result of the analysis, the "six-wall classroom" model, multisensory letter cubes, and interactive notebooks were identified as interconnected and effective tools for teaching reading and writing. This approach makes it possible to integrate the learning process with visual perception, tactile sensation, movement, written activity, and collaboration. In conclusion, the feasibility of organizing methods of teaching reading and writing, the educational environment, and interactive tools within a unified system in inclusive education was substantiated.

Key words: inclusive education, primary education, reading literacy, reading, writing, reading comprehension, multisensory learning, collaboration, educational environment, letter cubes, interactive notebook.

Аннотация: В данной статье проанализированы вопросы совершенствования методики обучения чтению и письму учащихся начальных классов в условиях инклюзивного образования. Цель исследования заключается в определении эффективных подходов, способствующих развитию навыков чтения и письма с учётом индивидуальных образовательных потребностей учащихся. В исследовании использованы методы анализа научных источников, сравнения и обобщения. В результате анализа модель "классной комнаты с шестью стенами", мультисенсорные буквенные кубики и интерактивные тетради были определены как взаимосвязанные эффективные средства обучения чтению и письму. Данный подход позволяет сочетать учебный процесс со зрительным восприятием, тактильными ощущениями, движением, письменной деятельностью и сотрудничеством. В заключение обоснована целесообразность организации методов обучения чтению и письму, образовательной среды и интерактивных средств в инклюзивном образовании на основе единой системы.

Ключевые слова: инклюзивное образование, начальное образование, читательская грамотность, чтение, письмо, осознанное чтение, мультисенсорное обучение, сотрудничество, образовательная среда, буквенные кубики, интерактивная тетрадь.

KIRISH

O‘qish va yozish insonning axborotdan foydalanishi, kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishi hamda ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etishini ta’minlovchi fundamental ko‘nikmalardir. O‘qish bilim olish, dunyoqarashni kengaytirish, turli nuqtayi nazarlarni anglash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilsa, yozish fikrlarni tartibga solish va ularni aniq ifodalash imkonini beradi. Shu jihatdan o‘qish va yozishga o‘rgatish zamonaviy ta’limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi [5].

O‘qish va yozish ko‘nikmalarini shakllantirishning dastlabki bosqichi, ayniqsa, muhim bo‘lib, ushbu davrda bolalarning til, bilish va ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur poydevor yaratiladi. Fundamental savodxonlik ko‘nikmalarining shakllanishi o‘quvchining keyingi ta’lim faoliyatiga, bilishga bo‘lgan qiziqishiga va o‘quv motivatsiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [9].

Bugungi kunda ta’lim tizimida turli ta’lim va rivojlanish ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilarning birgalikda ta’lim olishini ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanib, inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi har bir o‘quvchi uchun teng imkoniyat yaratish, uning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish hamda qo‘llab-quvvatlovchi va empatik ta’lim muhitini shakllantirishdan iborat [8].

Shu sababli inklyuziv ta’limda o‘qish va yozishni o‘rgatish an’anaviy yagona metod asosida emas, balki o‘quvchilarning individual xususiyatlari va ta’lim ehtiyojlarini hisobga oluvchi moslashuvchan metodlar asosida tashkil etilishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Inklyuziv ta’lim sharoitida o‘quvchilarning o‘rganish sur’ati, qobiliyati va ta’lim olish uslubi bir-biridan farq qilishi mumkin.

T. Booth va M. Ainscow inklyuziv ta’limni barcha o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini ta’minlash va mavjud to‘siqlarni kamaytirishga qaratilgan yondashuv sifatida izohlaydilar. Shu bois o‘qituvchi o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olishi, turli metod va o‘quv materiallaridan foydalanishi hamda zarur hollarda individual ta’lim rejalarini ishlab chiqishi muhimdir.

D. Rose va A. Meyer tomonidan ishlab chiqilgan universal ta’lim dizayni konsepsiyasida o‘quv materiallarini turli shakllarda taqdim etish, o‘quvchilarning bilimlarini turli usullarda namoyon etishiga imkon yaratish hamda ularning ta’limga qiziqishini qo‘llab-quvvatlash muhimligi ta’kidlanadi. Mazkur yondashuv inklyuziv sharoitda o‘qish va yozishni o‘rgatishda moslashuvchan va multisensor metodlardan foydalanish zarurligini asoslaydi.

L. S. Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bolaning bilim va ko‘nikmalari ijtimoiy muloqot hamda hamkorlik jarayonida rivojlanadi. Shu nuqtayi nazardan, o‘qish va yozishga o‘rgatish jarayonini hamkorlikka asoslangan faoliyatlar bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan muloqot qilish, o‘z fikrini ifodalash, boshqalarning fikrini tinglash va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

J. Chall va M. Clay tadqiqotlarida boshlang‘ich bosqichda o‘qish ko‘nikmalarini izchil shakllantirish, matnni tushunish va o‘quvchining individual rivojlanish xususiyatlarini hisobga olishning ahamiyati yoritilgan.

L. Ehri esa o‘qish va yozishni o‘zlashtirishda harf-tovush munosabatlarini anglash, so‘zlarni tanish va mazmunli o‘qish ko‘nikmalarining bosqichma-bosqich rivojlanishini muhim deb hisoblaydi.

Mazmunli o‘qish jarayonida o‘quvchi ilgari egallagan bilimlari bilan yangi axborot o‘rtasida bog‘liqlikni aniqlaydi, matndagi dalillarga tayangan holda xulosalar chiqaradi va yangi ma’lumotni o‘z tajribasi bilan uyg‘unlashtiradi. Natijada o‘qish oddiy axborot olish vositasidan tafakkur va dunyoqarashni rivojlantiruvchi faoliyatga aylanadi.

Shuningdek, B. Fraserning ta’lim muhiti bo‘yicha tadqiqotlarida sinfdagi hamkorlik, jipslik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va ijobiy psixologik muhit o‘quvchilarning ta’lim faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlangan. Shu sababli inklyuziv sinf muhitini tartibli, qo‘llab-quvvatlovchi, hamkorlikka va o‘zaro hurmatga asoslangan tarzda tashkil etish o‘qish va yozish ko‘nikmalarini samarali rivojlantirishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘qish va yozishni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish masalasi nazariy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik manbalarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Shuningdek, o‘quvchilarning individual ta’lim ehtiyojlarini hisobga olish, multisensor yondashuv, hamkorlikka asoslangan faoliyatlar hamda interaktiv ta’lim vositalarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan ilmiy manbalar tahlili inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni o'rgatish samaradorligi ta'lim muhiti, multisensor yondashuv, interaktiv vositalar va hamkorlikka asoslangan faoliyatlarning uyg'unligiga bog'liqligini ko'rsatdi. Tahlil natijasida M. Ş. Bülbül tomonidan taklif etilgan "olti devorli sinfxona" modeli, multisensor harf kublari va interaktiv daftarlar savodxonlikni shakllantirishning o'zaro bog'langan vositalari sifatida ajratildi [1].

"Olti devorli sinfxona" modelining asosiy afzalligi sinfxonaning barcha qismlarini - devorlar, derazalar, raqamli ekranlar, doska, shift va polni - savodxonlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yagona ta'limiy makonga aylantirishdan iborat. Bunday muhit o'quvchini o'qish va yozish faoliyatiga doimiy jalb etish, o'quv materiallarini real hayotiy obyektlar bilan bog'lash hamda ta'lim mazmunini turli ehtiyojlarga moslashtirish imkonini beradi.

Shuningdek, interaktiv daftarlar sinfdagi umumiy ta'lim muhiti bilan o'quvchining individual faoliyati o'rtasida bog'lovchi vazifasini bajarishi aniqlandi. "Devor - kub - daftar - devor" dinamikasi orqali o'quvchi ko'rgazmali materialni kuzatadi, tegishli kub bilan amaliy faoliyat olib boradi, natijani daftarida aks ettiradi va uni yana sinf muhitidagi material bilan bog'laydi. Bu jarayon o'qish va yozishni ko'rish, harakat, taktil tajriba hamda yozma faoliyat bilan integratsiyalash imkonini beradi.

Umuman olganda, o'quv natijalari o'qish va yozishni o'rgatishda alohida metod yoki vositadan foydalanishdan ko'ra, ta'lim muhiti, multisensor vositalar va individual yozma faoliyatni yagona tizimga birlashtirish samaraliroq yondashuv ekanligini ko'rsatadi. Mazkur tizim inklyuziv ta'limda o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning mustaqil faoliyati, muloqoti va hamkorlikdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Tahlil qilingan yondashuvlardan ko'rinadiki, inklyuziv ta'lim sharoitida o'qish va yozishni o'rgatish samaradorligini oshirish uchun faqat darslik yoki an'anaviy o'qitish metodlaridan foydalanish yetarli emas. O'quvchining ta'lim muhiti ham savodxonlikni shakllantirish jarayonining faol tarkibiy qismiga aylanishi kerak.

"Olti devorli sinfxona" modeli ushbu nuqtayi nazardan sinfxonaning mavjud imkoniyatlaridan kompleks foydalanishga asoslanadi. Devorlar, derazalar, raqamli vositalar, doska, shift va polning ta'limiy maqsadda ishlatilishi o'quvchining o'rganish jarayonini tabiiy va uzluksiz faoliyatga aylantiradi [1].

Multisensor harf kublari esa mazkur muhitni jismoniy harakat va taktil tajriba bilan boyitadi. O'quvchi harfni faqat ko'ribgina qolmay, uni ushlab ko'rishi, joylashtirishi, boshqa harflar bilan birlashtirishi va so'z hosil qilishi mumkin. Bu esa o'qish va yozishni o'rgatishda turli sensor kanallardan foydalanish imkonini beradi. Interaktiv daftarlar esa sinf muhiti va individual o'quv faoliyati o'rtasida bog'lovchi vosita vazifasini bajaradi. Shu tariqa sinfxona, kublar va daftar yagona multisensor savodxonlik tizimining o'zaro bog'langan elementlariga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish va yozishni o'rgatish metodikasini takomillashtirish o'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish, tushunib o'qishni rivojlantirish, hamkorlikka asoslangan faoliyatlarni tashkil etish va motivatsion ta'lim muhitini yaratishni talab etadi.

Tahlil qilingan materiallar asosida ta'lim muhitini takomillashtirishning samarali yo'nalishlaridan biri sifatida "olti devorli sinfxona" modelini ko'rsatish mumkin. Mazkur model sinfxonaning barcha qismlaridan ta'limiy maqsadlarda foydalanish orqali o'quvchilar uchun doimiy savodxonlik muhitini yaratadi.

Multisensor harf kublaridan foydalanish o'qish va yozishni ko'rish, eshitish, taktil sezgi, harakat va hamkorlik asosida tashkil etish imkonini beradi. Harf kublarining mustahkam, taktil jihatdan qulay, turli o'lchamdagi, kontrastli va inklyuziv dizaynga ega bo'lishi turli ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilar uchun ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

Interaktiv daftarlarni mazkur tizimga kiritish esa o'quvchining sinf muhiti, kub va individual yozma faoliyati o'rtasidagi aloqani saqlashga xizmat qiladi. Natijada "devor - kub - daftar - devor" dinamikasiga asoslangan yaxlit multisensor savodxonlik muhiti shakllanadi.

Shunday qilib, inklyuziv boshlang'ich ta'limda o'qish va yozishni o'rgatishning samaradorligini oshirish uchun o'qitish metodlari, ta'lim muhiti va interaktiv o'quv vositalarini yagona tizim sifatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning mustaqilligi, muloqotga kirishishi, hamkorlik qilishi va ta'lim jarayonidagi faol ishtirokini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bülbül, M.Ş. (2024). Enhancing reading and writing instruction in inclusive environments: A meaningful and collaborative approach. Educational Research & Implementation, 1(1), 1-20. https://doi.org/10.14527/edure.2024.01
2. Cook, L.K., & Mayer, R.E. (1983). Reading strategies training for meaningful learning from prose. In Cognitive strategy research: Educational applications (pp. 87-131). New York, NY: Springer New York.

3. Ernazarov G'. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Pedagogika kollejlari uchun o'quv qo'llanma (4-nashri). T.: "ILM ZIYO", 2013. – 184 b.
4. Fälth, L., & Selenius, H. (2022). Primary school teachers' use and perception of digital technology in early reading and writing education in inclusive settings. Disability and Rehabilitation: Assistive Technology, 1-10. https://doi.org/10.1080/17483107.2022.2125089
5. Fitzgerald, J., & Shanahan, T. (2000). Reading and writing relations and their development. Educational Psychologist, 35(1), 39-50. https://doi.org/10.1207/S15326985EP3501_5
6. Fraser, B.J. (1998). Classroom environment instruments: Development, validity and applications. Learning Environments Research, 1, 7-33.
7. Irkinovich, N.R., & Izatullaevna, I.I. (2022). Methods for teaching reading. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 15, 47-50.
8. Mattson, E.H., & Roll-Pettersson, L. (2007). Segregated groups or inclusive education? An interview study with students experiencing failure in reading and writing. Scandinavian Journal of Educational Research, 51(3), 239-252.
9. Shanahan, T. (2006). Relations among oral language, reading, and writing development. In C.A.MacArthur, S.Graham, & J.Fitzgerald (Eds.) Handbook of writing research (pp.171-183). Newyork: The Guilford Press.
10. To'raqulov X.A., Abdullayeva B.S., To'raqulova I.X. Boshlang'ich ta'lim metodologiyasi. Darslik. - T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020, 476 bet.
11. Vaughn, S., Hughes, M. T., Schumm, J. S., & Klingner, J. (1998). A collaborative effort to enhance reading and writing instruction in inclusion classrooms. Learning Disability Quarterly, 21(1), 57-74.

MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA IQTISODIY FANLAR MAZMUNINI LOYIHALASH

Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi
Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
katta o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada masofaviy ta'lim sharoitida iqtisodiy yo'nalishdagi fanlar mazmunini ilmiy-pedagogik asosda loyihalash muammosi tahlil qilingan. Auditoriya mashg'ulotlari uchun mo'ljallangan o'quv mazmunini didaktik jihatdan qayta loyihalamasdan raqamli ta'lim muhitiga o'zgartirishsiz ko'chirishning samarasizligi ilmiy jihatdan asoslangan. ADDIE instruksion dizayn modeli, kompetensiyaviy yondashuv va transaksion masofa nazariyasi asosida iqtisodiy fanlar mazmunini bosqichma-bosqich loyihalashning konseptual modeli taklif etilgan. Mazkur model o'quv maqsadlari, ta'lim mazmuni, raqamli ta'lim resurslari, o'quv faoliyati va baholash jarayonlarini o'zaro uyg'unlashtirishga yo'naltirilgan. Pedagogik tajriba natijalari taklif etilgan modelni ta'lim jarayoniga tatbiq etish talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va o'quv motivatsiyasi ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatgan. Tadqiqot natijalaridan masofaviy ta'lim sharoitida iqtisodiy fanlar mazmunini loyihalash va o'quv-metodik ta'minotni takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, iqtisodiy fanlar, ta'lim mazmunini loyihalash, ADDIE modeli, kompetensiyaviy yondashuv, o'quv-metodik majmua, LMS Moodle, raqamli kompetensiya, mikroo'qitish.

Abstract: This article examines the problem of designing the content of economic disciplines on a scientific and pedagogical basis in distance learning environments. It substantiates the ineffectiveness of mechanically transferring classroom-oriented learning content to a digital educational environment without appropriate didactic redesign. Based on the ADDIE instructional design model, the competency-based approach, and transactional distance theory, a conceptual model for the stage-by-stage design of economic course content is proposed. The model is aimed at ensuring alignment among learning objectives, educational content, digital learning resources, learning activities, and assessment processes. The results of the pedagogical experiment demonstrate that implementing the proposed model in the educational process significantly improves students' theoretical knowledge, practical skills, and learning motivation. The findings can be applied to the design of economic course content and the improvement of instructional and methodological support for distance learning.

Key words: distance learning, economic disciplines, educational content design, ADDIE model, competency-based approach, instructional and methodological support, LMS Moodle, digital competence, microlearning.

Аннотация: В статье анализируется проблема научно-педагогического проектирования содержания экономических дисциплин в условиях дистанционного обучения. Научно обоснована неэффективность механического переноса учебного содержания, предназначенного для аудиторных занятий, в цифровую образовательную среду без его соответствующего дидактического перепроектирования. На основе модели педагогического дизайна ADDIE, компетентностного подхода и теории транзакционной дистанции предложена концептуальная модель поэтапного проектирования содержания экономических дисциплин. Данная модель направлена на обеспечение взаимосвязи целей обучения, содержания образования, цифровых образовательных ресурсов, учебной деятельности и процессов оценивания. Результаты педагогического эксперимента показали, что внедрение предложенной модели в образовательный процесс способствует значительному повышению показателей теоретических знаний, практических навыков и учебной мотивации студентов. Результаты исследования могут быть использованы при проектировании содержания экономических дисциплин и совершенствовании учебно-методического обеспечения дистанционного обучения.

Ключевые слова: дистанционное обучение, экономические дисциплины, проектирование содержания образования, модель ADDIE, компетентностный подход, учебно-методический комплекс, LMS Moodle, цифровая компетентность, микрообучение.

KIRISH

Jamiyat hayotining barcha sohalarini raqamlashtirish sharoitida oliy ta'lim mazmuni va uni yetkazib berish shakllari tubdan o'zgarib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarini keng joriy etish, masofaviy ta'lim shakllarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan [1]. Bu esa o'quv mazmunini raqamli ta'lim muhitiga mos ravishda qayta loyihalash zaruratini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy fanlar mazmunini loyihalash o'ziga xos qiyinchiliklarga ega.

Birinchidan, ushbu fanlar mavhum tushunchalar va modellarga, jumladan, talab va taklif, marjinal foyda, makroiqtisodiy muvozanat kabi tushuncha va modellarga boy bo'lib, ularni vizuallashtirilmagan matn orqali masofadan o'zlashtirish qiyin.

Ikkinchidan, iqtisodiy ma'lumotlar tez o'zgaradi, shu sababli statik darsliklarda keltirilgan ma'lumotlar qisqa muddat ichida eskirishi mumkin.

Uchinchidan, iqtisodchilarni tayyorlash keyslar bilan ishlash, hisob-kitoblarni amalga oshirish va qaror qabul qilish kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirishni talab qiladi. Shu bois iqtisodiy fanlar mazmunini masofaviy ta'lim muhiti uchun maxsus loyihalash dolzarb ilmiy-metodik vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi masofaviy ta'lim jarayonida iqtisodiy fanlar mazmunini ilmiy asoslangan va bosqich-ma-bosqich tarzda loyihalash modelini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini pedagogik tajriba asosida aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Amaliyotda ko'p hollarda masofaviy o'qitish auditoriya mashg'ulotlari uchun yaratilgan materiallarni, ya'ni ma'ruza matni yoki taqdimotlarni o'zgarishsiz elektron platformaga joylashtirish bilan cheklanmoqda. Biroq masofaviy ta'lim an'anaviy ta'limdan moslashuvchanlik, modullilik, keng qamrovlilik va iqtisodiy tejamkorlik kabi xususiyatlari bilan tubdan farqlanadi. Shu bois uning didaktik ta'minoti ham alohida tamoyillar asosida ishlab chiqilishi lozim [4].

M. Mur tomonidan asoslangan transaksion masofa nazariyasiga ko'ra, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi jismoniy ajralganlik psixologik-kommunikativ masofani yuzaga keltiradi. Ushbu masofani o'quv mazmunini puxta tuzilmalashtirish va o'zaro aloqani kuchaytirish orqali qisqartirish mumkin [3].

Mazmunni loyihalashning metodologik asosi sifatida R. Branch tomonidan bayon etilgan ADDIE instruksion dizayn modeli (Tahlil, Loyihalash, Ishlab chiqish, Joriy etish, Baholash) tanlandi [2]. Mazmunni o'quv maqsadlari bilan bog'lashda R. Gagnening o'qitish hodisalari [8] hamda B. Blum taksonomiyasi [11] tayanch sifatida olindi.

Raqamli muhitda o'zaro aloqani tashkil etishda G. Salmonning "e-tivity" bosqichli modeli [10] va G. Siemens-ning konnektivizm nazariyasi [9] e'tiborga olindi. Mazmun B. Xanning elektron ta'limni boshqarishning sakkiz o'lchovli ramkasi nuqtayi nazaridan ham baholandi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aralash metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida talabalarning virtual ta'lim platformalaridagi muloqot faolligini aniqlash maqsadida so'rovnoma, kuzatish va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. So'rovnoma savollari talabalarning sinxron va asinxron muloqotdagi ishtiroki, fikr bildirish faolligi hamda muloqotdan qoniqish darajasini aniqlashga qaratildi. Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi va sifat jihatidan umumlashtirildi.

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, modellashtirish, pedagogik kuzatish, anketa-so'rovnoma, pedagogik tajriba hamda olingan natijalarni statistik qayta ishlash.


Pedagogik tajriba bir oliy ta'lim muassasasining iqtisodiyot yo'nalishi talabalari ishtirokida bir semestr davomida "Mikroiqtisodiyot" fani misolida o'tkazildi. Ishtirokchilar boshlang'ich tayyorgarlik darajasi bo'yicha tenglashtirilgan ikki guruhga, ya'ni nazorat guruhiga (an'anaviy raqamli mazmun) va tajriba guruhiga (taklif etilgan model asosida loyihalangan mazmun) ajratildi. O'lchov vositalari sifatida nazariy bilimlarni tekshiruvchi test, amaliy ko'nikmalarni baholovchi reyting jadvali (rubrika) hamda o'quv motivatsiyasini aniqlovchi anketadan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida masofaviy ta'lim sharoitida iqtisodiy fanlar mazmunini loyihalashning bosqichli konsep-

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

tual modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Modelning yadrosini iqtisodiy fan mazmuni, ya'ni nazariy bilimlar, amaliy kompetensiyalar va raqamli ko'nikmalarning o'zaro uyg'unligi tashkil etadi. Modelning har bir bosqichi ushbu yadroni izchil boyitish va belgilangan ta'lim natijalariga erishishga yo'naltirilgan. Model iterativ xususiyatga ega bo'lib, baholash bosqichida olingan qayta aloqa keyingi sikllarda ta'lim mazmunini takomillashtirishga xizmat qiladi.



1-rasm: **Masofaviy ta'limda iqtisodiy fanlar mazmunini loyihalashning bosqichli (ADDIE asosidagi) modeli**

Model quyidagi didaktik prinsiplarga tayanadi:


- ta'lim mazmunini modullilik asosida mustaqil o'rganiladigan birliklarga ajratish;
- har bir modulni mikrobloklarga bo'lish (mikroo'qitish);
- nazariy bilimlarni real iqtisodiy ma'lumotlar va keyslar bilan bog'lash;
- bosqichli formativ baholashni ta'minlash;
- sinxron va asinxron o'zaro aloqani uyg'unlashtirish.

Loyihalangan mazmun bilan an'anaviy auditoriya ta'limi uchun mo'ljallangan mazmun o'rtasidagi asosiy tafovutlar 1-jadvalda qiyosiy tahlil qilingan.

1-jadval: **Iqtisodiy fan mazmunini loyihalashning qiyosiy tahlili**

Loyihalash mezoni	An'anaviy (auditoriya) mazmuni	Masofaviy ta'limga loyihalangan mazmun
Tuzilma	Chiziqli, ma'ruza ketma-ketligiga bog'liq	Modulli, mustaqil o'rganiladigan birliklarga ajratilgan
Bayon birligi	45–80 daqiqalik yaxlit ma'ruza	8–15 daqiqalik mikrobloklar (microlearning)
Iqtisodiy ma'lumot	Darslikdagi statik raqamlar	Dinamik statistika, real vaqtdagi ma'lumot bazalari
Amaliy komponent	Auditoriyadagi mashqlar	Interaktiv keys, simulyatsiya va virtual masala
O'zaro aloqa	Bevosita, sinxron muloqot	Aralash (sinxron + asinxron) muloqot, forum va chat
Nazorat	Yakuniy yozma imtihon	Bosqichli, avtomatlashtirilgan formativ baholash
Baholash mezoni	Bilimni eslab qolish	Kompetensiya va amaliy qo'llash qobiliyati

Pedagogik tajriba yakunida nazorat va tajriba guruhlarining natijalari beshta asosiy ko'rsatkich bo'yicha qiyosiy tahlil qilindi (2-rasm). Tajriba guruhida barcha ko'rsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan yuqori natijalarni qayd etdi. Xususan, nazariy bilim ko'rsatkichi 62,4 foizdan 78,6 foizgacha, amaliy ko'nikma 58,1 foizdan 81,3 foizgacha, mustaqil ish samaradorligi 55,7 foizdan 79,4 foizgacha, raqamli kompetensiya 60,2 foizdan 84,1 foizgacha hamda o'quv motivatsiyasi 63,5 foizdan 82,7 foizgacha oshdi.



2-rasm: **Nazorat va tajriba guruhlari natijalarining qiyosiy tahlili (o‘zlashtirish, %)**

Eng katta o‘sish amaliy ko‘nikma (+23,2%) va raqamli kompetensiya (+23,9%) ko‘rsatkichlari bo‘yicha qayd etildi. Bu natija loyihalangan mazmunda keyslar, simulyatsiyalar va interaktiv topshiriqlarga keng o‘rin berilgani bilan izohlanadi. Olingan farqlarning tasodifiy emasligi statistik jihatdan tasdiqlandi ($p < 0,05$).

Tajriba natijalari masofaviy ta’limda o‘quv mazmunini raqamli muhitga passiv ko‘chirish emas, balki uni maqsadli ravishda qayta loyihalash hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Ushbu xulosa T. Anderson va A. Bates ishlarida bayon etilgan raqamli ta’lim sifati, avvalo, pedagogik dizayn sifati bilan belgilanishi haqidagi ilmiy qarashlarga mos keladi [6; 7]. Mazmunni modullar va mikrobloklarga ajratish talabaning kognitiv yukini boshqarish hamda mustaqil o‘rganish trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi.

Iqtisodiy fanlar kontekstida nazariy bilimlarni dinamik statistik ma’lumotlar va real keyslar bilan bog‘lash B. Xanning elektron ta’limni boshqarish ramkasidagi mazmuniy va pedagogik o‘lchovlarni mustahkamlaydi [5]. G. Salmon modeliga muvofiq tashkil etilgan forumlar va guruhli muhokamalar transaksion masofani qisqartirib, o‘quv motivatsiyasining oshishiga hissa qo‘shadi [3; 10]. Shu bilan birga, raqamli kompetensiya ko‘rsatkichining yuqori darajada o‘sishi konnektivizm g‘oyalariga muvofiq ravishda talabalarning raqamli muhit va manbalar bilan ishlash ko‘nikmalari mazmun loyihasiga integratsiya qilinganligi bilan izohlanadi [9].

Tadqiqotning muayyan cheklovlari mavjud. Natijalar bitta fan va cheklangan tanlama doirasida olinganligi sababli ularni umumlashtirishda ehtiyotkorlik talab etiladi. Kelgusi tadqiqotlarda mazkur modelni boshqa iqtisodiy fanlarga tatbiq etish, uni sun’iy intellekt asosidagi moslashuvchan (adaptiv) kontent bilan boyitish hamda modelning uzoq muddatli ta’sirini o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Masofaviy ta’lim sharoitida iqtisodiy fanlar mazmuni auditoriya mashg‘ulotlari uchun mo‘ljallangan materiallarni raqamli muhitga oddiy ko‘chirish yo‘li bilan emas, balki ADDIE modeli va kompetensiyaviy yondashuv asosida maxsus loyihalanishi lozim.
2. Taklif etilgan bosqichli model ta’lim mazmunini modullilik, mikroo‘qitish, real iqtisodiy keyslar va bosqichli formativ baholash prinsiplari asosida tizimlashtirish imkonini beradi.
3. Pedagogik tajriba natijalari loyihalangan mazmun talabalarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari, mustaqil ish samaradorligi, raqamli kompetensiyasi va o‘quv motivatsiyasi ko‘rsatkichlarini statistik jihatdan ishonchli darajada oshirishini ko‘rsatdi ($p < 0,05$).
4. Iqtisodiy fanlar bo‘yicha o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish va masofaviy ta’lim jarayonini takomillashtirishda mazkur modelni amaliy-uslubiy asos sifatida tavsiya etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". – Toshkent, 2019. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-4545884
2. Branch R.M. Instructional Design: The ADDIE Approach. – New York: Springer, 2009. – 203 p.
3. Moore M.G., Kearsley G. Distance Education: A Systems View of Online Learning. 3rd ed. – Belmont: Wadsworth Cengage Learning, 2012. – 361 p.
4. Polat E.S., Bukharkina M.Yu., Moiseeva M.V. Teoriya i praktika distantsionnogo obucheniya. – Moskva: Akademiya, 2006. – 416 s.
5. Khan B.H. Managing E-Learning: Design, Delivery, Implementation and Evaluation. – Hershey: Information Science Publishing, 2005. – 424 p.
6. Anderson T. (ed.) The Theory and Practice of Online Learning. 2nd ed. – Edmonton: Athabasca University Press, 2008. – 472 p.
7. Bates A.W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. – Vancouver: BCcampus, 2015.
8. Gagné R.M., Wager W.W., Golas K.C., Keller J.M. Principles of Instructional Design. 5th ed. – Belmont: Wadsworth, 2005. – 384 p.
9. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning. – 2005. – Vol. 2, No. 1. – P. 3–10.
10. Salmon G. E-tivities: The Key to Active Online Learning. 2nd ed. – London: Routledge, 2013. – 240 p.
11. Bloom B.S. (ed.) Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. – New York: David McKay, 1956. – 207 p.

HARBIY XIZMATCHILARNING QADRIYATLI YO'NALISHLARI VA ULARNING KASBIY IDENTIKLIK BILAN O'ZARO ALOQADORLIGI

Asqarov Rahmatjon Rahimovich
Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0008-6442-7552

Annotatsiya: Maqolada harbiy xizmatchilarning qadriyatli yo'nalishlari va ularning kasbiy identiklik bilan o'zaro aloqadorligi psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Harbiy xizmat sharoitida vatanparvarlik, burch, mas'uliyat, intizom, jamoaviylik, sharaf, sadoqat va xavfsizlik kabi qadriyatlarning shaxsning kasbiy "Men"ini shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Qadriyatli yo'nalishlarning mazmuni, barqarorligi va ierarxiyasi kasbiy identiklikning shakllanganlik darajasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, kasbiy identiklikning kognitiv, motivatsion-qadriyatli, emotsional va xulq-atvor komponentlari ajratilib, ularni baholash mezonlari taklif etiladi. Nazariy tahlil asosida harbiy xizmatchilarning xizmat bosqichlariga mos psixologik qo'llab-quvvatlash yo'nalishlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: harbiy xizmatchi, qadriyatli yo'nalishlar, kasbiy identiklik, kasbiy "Men", burch, mas'uliyat, vatanparvarlik, harbiy jamoa, kasbiy motivatsiya, o'z-o'zini anglash.

Abstract: The article analyzes the value orientations of military personnel and their interrelation with professional identity from a psychological perspective. The role of patriotism, duty, responsibility, discipline, collectivism, honor, loyalty, and security in the formation of professional self-concept under military service conditions is examined. The content, stability, and hierarchy of value orientations are considered in relation to the level of professional identity formation. Cognitive, motivational-value, emotional, and behavioral components of professional identity are distinguished, and assessment criteria are proposed. Based on the theoretical analysis, directions for psychological support of military personnel are developed according to different stages of service.

Key words: military personnel, value orientations, professional identity, professional self, duty, responsibility, patriotism, military team, professional motivation, self-awareness.

Аннотация: В статье с психологической точки зрения анализируются ценностные ориентации военнослужащих и их взаимосвязь с профессиональной идентичностью. Раскрывается роль таких ценностей, как патриотизм, долг, ответственность, дисциплина, коллективизм, честь, верность и безопасность, в формировании профессионального "Я" личности в условиях военной службы. Рассматриваются содержание, устойчивость и иерархия ценностных ориентаций во взаимосвязи со степенью сформированности профессиональной идентичности. Выделены когнитивный, мотивационно-ценностный, эмоциональный и поведенческий компоненты профессиональной идентичности, предложены критерии их оценки. На основе теоретического анализа разработаны направления психологического сопровождения военнослужащих с учётом этапов службы.

Ключевые слова: военнослужащий, ценностные ориентации, профессиональная идентичность, профессиональное "Я", долг, ответственность, патриотизм, воинский коллектив, профессиональная мотивация, самосознание.

KIRISH

Harbiy xizmat shaxsning kasbiy faoliyati, ijtimoiy munosabatlari va shaxsiy qadriyatlar tizimi bir vaqtning o'zida qayta tashkil etiladigan murakkab ijtimoiy-psixologik muhit hisoblanadi. Harbiy xizmatchi yangi xizmat vazifalarini o'zlashtirish bilan bir qatorda, harbiy jamoaning me'yorlari, an'analari va talablarini qabul qiladi, o'zining xizmatdagi rolini anglaydi hamda "men kimman va ushbu kasbda qanday bo'lishim kerak?" degan savollarga amaliy faoliyat orqali javob izlaydi. Shu ma'noda qadriyatli yo'nalishlar va kasbiy identiklik harbiy shaxsning barqaror kasbiy xulq-atvorini belgilovchi muhim psixologik omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Qadriyatli yo'nalishlar shaxsning hayotiy maqsadlari, e'tiqodlari va muhim deb hisoblagan faoliyat tamoyillarini tartibga soluvchi ichki tizimdir. Rokeach qadriyatlarni shaxs uchun afzal bo'lgan mavjudlik holatlari yoki xulq-atvor usullari bilan bog'liq barqaror e'tiqodlar sifatida ko'radi [1].

S. L. Rubinshteyn va A. N. Leontyevning faoliyatga oid qarashlari esa shaxsning motivlari va ma'nolari uning faoliyatida namoyon bo'lishini ko'rsatadi [2; 3]. Harbiy xizmatda bu tizim xizmat burchi, intizom, mas'uliyat va jamoaviy faoliyat talablari bilan bevosita kesishadi.

Kasbiy identiklik esa shaxsning muayyan kasbga mansubligini anglashi, kasbiy rolini qabul qilishi, kasbiy qadriyat va me'yorlarni o'z "Men"i bilan uyg'unlashtirishi hamda kelajakdagi kasbiy yo'nalishini belgilay olish qobiliyatini ifodalaydi. E. H. Erikson identiklikni shaxsning o'zligini uzluksiz va yaxlit his qilishi bilan bog'laydi [4]. Keyingi tadqiqotlarda kasbiy identiklik shaxsning kasbga oid qarorlar, kasbiy maqsadlar va o'zini kasbiy hamjamiyat a'zosi sifatida anglash jarayoni bilan izohlanadi [5].

Harbiy xizmatchining qadriyatli yo'nalishlari va kasbiy identikligi o'zaro ta'sirda shakllanadi. Agar xizmatning mazmuni shaxs uchun ahamiyatli qadriyatlar bilan uyg'un bo'lsa, kasbiy identiklikning ichki qabul qilinganligi kuchayadi. Aksincha, tashqi talablar bilan shaxsiy qadriyatlar o'rtasidagi nomuvofiqlik kasbiy rolni qabul qilishni qiyinlashtirishi, motivatsiyaning pasayishi va kasbiy begonalashuv xavfini oshirishi mumkin.

Maqolaning maqsadi - harbiy xizmatchilarning qadriyatli yo'nalishlari mazmunini tahlil qilish, ularning kasbiy identiklik bilan o'zaro aloqadorligini nazariy jihatdan asoslash hamda ushbu munosabatni o'rganish uchun psixologik mezon va ko'rsatkichlarni taklif etishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qadriyatlar muammosi psixologiyada shaxsning motivatsion va ma'naviy hayotini tushuntirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. M. Rokich qadriyatlarni terminal va instrumental guruhlarga ajratib, ularning shaxs hayotidagi ustuvorliklar tizimini tashkil etishini ko'rsatgan [1].

Sh. Shvarts esa qadriyatlarni universal motivatsion maqsadlar sifatida tizimlashtirib, ular o'rtasidagi uyg'unlik va qarama-qarshiliklar shaxsning tanlovi hamda xulq-atvoriga ta'sir qilishini asoslagan [6]. Harbiy faoliyatda bunday qadriyatlar tizimi xizmat vazifalarining ma'nosini anglash va qarorlarni me'yoriy talablarga muvofiq qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy identiklik masalasi E. Eriksonning identiklik nazariyasi, J. Marcia tomonidan ishlab chiqilgan identiklik maqomlari konsepsiyasi hamda kasbiy rivojlanish nazariyalari doirasida o'rganilgan [4; 7]. Ushbu yondashuvlarda identiklik shaxsning o'zini muayyan ijtimoiy va kasbiy guruh bilan bog'lashi, tanlovlarining izchilligi va kasbiy maqsadlariga sodiqligi orqali namoyon bo'ladi. Harbiy xizmatda kasbiy identiklikning shakllanishi xizmatning tashkiliy talablari, harbiy jamoa, rahbar bilan munosabat, kasbiy kompetensiya va shaxsiy qadriyatlarning uyg'unlashuvi bilan belgilanadi.

Harbiy psixologiya bo'yicha tadqiqotlarda xizmat faoliyatining yuqori mas'uliyat, intizom, xavf, jamoaviylik va tezkor qaror qabul qilish bilan tavsiflanishi qayd etiladi. Shu sababli harbiy xizmatchining kasbiy identikligi faqat "harbiy kasbni tanlash" faktiga emas, balki xizmat rolini ichki qabul qilish, harbiy qadriyatlarni o'zlashtirish va ularni real xulq-atvorda namoyon etishga ham bog'liq. A. G. Maklakov harbiy faoliyatda shaxsning psixologik tayyorgarligi va kasbiy muhim sifatlari alohida ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyat va ijtimoiy-psixologik yondashuvlardan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, tasniflash va psixologik model yaratish qo'llanildi. Qadriyatli yo'nalishlar va kasbiy identiklikning o'zaro aloqasini empirik o'rganish uchun M. Rokichning "Qadriyatlar yo'nalishi" metodikasi, Sh. Shvartsning qadriyatlar so'rovnomasi, kasbiy identiklikni baholovchi savolnomalar, yarim tuzilgan intervyu, ekspert baholash va korrelyatsion-statistik tahlildan foydalanish mumkin [1; 6].

TAHLIL VA NATIJALAR

Harbiy xizmatchining qadriyatli yo'nalishlari xizmat faoliyatining ma'nosini belgilaydigan va qaror qabul qilish jarayonini tartibga soladigan ichki psixologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tizimda umumiy insoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, harbiy kasbning o'ziga xos qadriyatlari ham shakllanadi. Burch, vatanparvarlik, sharaf, sadoqat, mas'uliyat, intizom, jamoaviylik va xavfsizlik shular jumlasidandir.

Qadriyatlarning faqat mavjudligi emas, balki ularning ierarxik joylashuvi ham muhimdir. Masalan, xizmat burchini shaxsiy qulaylikdan yuqori qo'yish, jamoa xavfsizligini individual manfaat bilan muvozanatlash, intizom talablarini ongli ravishda qabul qilish harbiy xizmatchining kasbiy rolni ichki o'zlashtirganligini ko'rsatishi mumkin. Bunda tashqi itoatkorlik bilan ichki qadriyatli qabul qilishni farqlash zarur.

1-jadval: **Harbiy xizmatchilar qadriyatli yo‘nalishlarining asosiy tarkibi**

Qadriyat	Mazmuni	Kasbiy identiklikdagi ifodasi
Vatanparvarlik	Mamlakat va jamiyat manfaatlarini qadrlash	Xizmat ma’nosini anglash, sadoqat
Burch va mas’uliyat	Vazifani vijdonan bajarish	Kasbiy majburiyatlarni ichki qabul qilish
Intizom	Qoidalarga ongli rioya qilish	O‘zini boshqarish va barqaror xulq
Harbiy sharaf	Kasbiy obro‘ va axloqiy me’yorlarni asrash	Kasbiy “Men”ning ijobiy mazmuni
Jamoaviylik	Hamkasblar bilan hamkorlik va o‘zaro yordam	Guruhga mansublik va kasbiy identifikatsiya
Xavfsizlik	Shaxsiy va jamoaviy xavfsizlikni ta’minlash	Mas’uliyatli qaror va ehtiyotkor xulq

Qadriyatli yo‘nalishlar va kasbiy identiklikning o‘zaro aloqasi

Qadriyatli yo‘nalishlar kasbiy identiklikning mazmuniy asosini tashkil etadi. Shaxs o‘z kasbini faqat bajariladigan vazifalar majmui sifatida emas, balki o‘z hayotiy maqsadlari va e’tiqodlari bilan bog‘langan faoliyat sohasi sifatida anglaganida, kasbiy identiklik yanada barqaror tus oladi. Demak, kasbiy identiklikning rivojlanishi “men harbiy xizmatchiman” degan formal mansublikdan “men harbiy xizmatchi sifatida qanday qadriyatlarga amal qilaman va bu qadriyatlar mening shaxsiyatimning bir qismi” degan ichki anglashga tomon siljiydi.

Ushbu jarayonda to‘rtta asosiy mexanizmni ajratish mumkin: qadriyatlarni anglash, qadriyatlarni kasbiy rol bilan integratsiyalash, qadriyatlarni xulq-atvorda namoyon etish va o‘z kasbiy “Men”ini baholash.

Birinchi bosqichda shaxs uchun qaysi qadriyatlar muhimligi aniqlanadi;

Ikkinchisida ular xizmat talablariga bog‘lanadi;

Uchinchisida real faoliyatda namoyon bo‘ladi;

To‘rtinchisida shaxs o‘zining kasbiy mosligi va rivojlanishini baholaydi.

2-jadval: **Kasbiy identiklikning komponentlari va ko‘rsatkichlari**

Komponent	Asosiy mazmun	Ko‘rsatkichlar
Kognitiv	“Men qanday harbiy xizmatchiman?” degan tasavvur	Kasbiy rol va vazifalarni anglash
Motivatsion-qadriyatli	Kasb nima uchun muhimligini tushunish	Burch, mas’uliyat va xizmat ma’nosining ustuvorligi
Emotsional	Kasbga nisbatan faxr, qoniqish va mansublik hissi	Harbiy jamoaga ijobiy munosabat
Xulq-atvor	Qadriyatlarni amaliy faoliyatda namoyon etish	Intizom, tashabbus, hamkorlik va mas’uliyat
Refleksiv	O‘zining kuchli va rivojlantirilishi lozim jihatlarini baholash	Kasbiy o‘sish rejasini shakllantirish

Kasbiy identiklik shakllanganlik darajalari

Nazariy tahlil kasbiy identiklikni shartli ravishda yuqori, o‘rta va rivojlantirish zarur bo‘lgan darajalarda tavsiflash imkonini beradi. Yuqori darajada harbiy xizmatchi o‘z kasbiy rolini aniq anglaydi, harbiy qadriyatlarni ichki qabul qiladi, xizmat maqsadlarini shaxsiy ma’nolar bilan uyg‘unlashtira oladi va murakkab vaziyatlarda kasbiy me’yorlarga tayangan holda qaror qabul qiladi. O‘rta darajada kasbiy mansublik mavjud bo‘lsa-da, ayrim qadriyatlar tashqi talab sifatida qabul qilinishi yoki kasbiy maqsadlar hali to‘liq aniqlanmagan bo‘lishi mumkin. Rivojlantirish zarur bo‘lgan darajada esa kasbga nisbatan beqaror munosabat, xizmat ma’nosini anglashdagi qiyinchilik va o‘z kasbiy rolini baholashda noaniqlik kuzatilishi mumkin.

3-jadval: **Kasbiy identiklikning shartli darajalari**

Daraja	Kasbiy identiklik	Xulq-atvor	Kasbiy istiqbol
Yuqori	Kasbiy rol aniq; qadriyatlar ichkilashtirilgan	Burch va mas’uliyatni mustaqil bajaradi	Kasbiy maqsadlari aniq
O‘rta	Kasbiy rol qabul qilingan, lekin ayrim jihatlar beqaror	Tashqi nazoratga qisman ehtiyoj bor	Rivojlanish yo‘nalishi umumiy
Rivojlantirish zarur	Kasbiy mansublikda noaniqlik	Motivatsiya va intizomda beqarorlik	Kasbiy kelajakni tasavvur qilish qiyin

Tadqiqot metodlari va diagnostik mezonlar

Harbiy xizmatchilarning qadriyatli yo‘nalishlari va kasbiy identikligini empirik o‘rganishda kompleks diagnostik yondashuv maqsadga muvofiqdir. Bitta metodika shaxsning qadriyatlar tizimi yoki kasbiy identikligini to‘liq ochib bera olmaydi. Shu sababli qadriyatlar ierarxiyasi, kasbiy mansublik hissi, kasbiy motivatsiya, o‘z-o‘zini baholash va real xulq-atvor ko‘rsatkichlarini o‘zaro solishtirish zarur.

4-jadval: **Qadriyatli yo‘nalishlar va kasbiy identiklikni o‘rganish metodlari**

Metod	Nimani o‘rganadi	Asosiy natija
Rokeach qadriyatlar metodikasi	Terminal va instrumental qadriyatlar ierarxiyasi	Qadriyatlar ustuvorligi
Shvarts qadriyatlar so‘rovnomasi	Universal qadriyatlar tizimi	Qadriyatlar profili va qarama-qarshiliklari
Kasbiy identiklik savolnomasi	Kasbiy mansublik va kasbiy “Men”	Identiklik shakllanganligi
Yarim tuzilgan intervyu	Kasb tanlovi, xizmat ma’nosi, kelajak rejasi	Ichki ma’no va motivlar
Ekspert baholash	Rahbar va hamkasblar kuzatuvi	Xulq-atvorning real ko‘rinishi
Korrelyatsion tahlil	O‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik	Qadriyat va identiklik munosabati

Kasbiy xizmat bosqichlarida qadriyatlar va identiklikning rivojlanishi

Harbiy xizmatning turli bosqichlarida qadriyatli yo‘nalishlar va kasbiy identiklikning mazmuni bir xil qolmaydi. Boshlang‘ich bosqichda shaxs ko‘proq tashqi me’yorlar va jamoa talablariga moslashadi. Keyingi bosqichda xizmat tajribasi ortib, kasbiy vazifalarning ma’nosi chuqurroq anglanadi. Tajribali bosqichda esa shaxs kasbiy qadriyatlarni o‘zining individual kasbiy uslubi bilan uyg‘unlashtirishi mumkin.

5-jadval: **Xizmat bosqichlari bo‘yicha qadriyatlar va kasbiy identiklikning rivojlanish modeli**

Xizmat bosqichi	Qadriyatli vazifa	Identiklikdagi o‘zgarish	Psixologik yordam
Boshlang‘ich moslashuv	Harbiy me’yorlarni o‘zlashtirish	Tashqi talabni tushunish	Yo‘naltirish va mentorlik
Kasbiy o‘zlashtirish	Vazifa va mas’uliyatni anglash	Kasbiy “Men”ni aniqlashtirish	Refleksiv suhbat va trening
Barqarorlashuv	Qadriyatlarni ichkilashtirish	Mustaqil kasbiy qaror	Kasbiy rivojlanish rejalari
Yetuklik	Kasbiy qadriyatlarni boshqalarga uzatish	Mentorlik va kasbiy namuna	Psixologik profilaktika

Qadriyatlar va kasbiy identiklik o‘rtasidagi psixologik mexanizm

Qadriyatlar va kasbiy identiklik o‘rtasidagi aloqani “qadriyat - ma’no - kasbiy rol - xulq-atvor - identiklikni mustahkamlash” zanjiri orqali ifodalash mumkin. Shaxs muayyan qadriyatni muhim deb hisoblaydi, uni harbiy xizmatning ma’nosi bilan bog‘laydi, ushbu ma’no asosida kasbiy rolini qabul qiladi va tegishli xulq-atvorni namoyon etadi. Natijada “mening qadriyatlarim” va “mening kasbiy rolim” o‘rtasidagi moslik ortadi. Bu esa kasbiy identiklikning yaxlitligini kuchaytiradi.

Biroq qadriyatlar tizimida ichki qarama-qarshiliklar ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, individual xavfsizlik ehtiyoji bilan xizmat burchi, shaxsiy manfaat bilan jamoaviy mas’uliyat, mustaqillik bilan qat’iy intizom o‘rtasidagi muvozanat harbiy xizmatchidan psixologik moslashuvchanlikni talab qiladi. Bunday vaziyatlarda psixologik yordamning vazifasi qadriyatni majburan o‘zgartirish emas, balki shaxsga mavjud qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatni anglash va konstruktiv muvozanatni topishga yordam berishdan iborat.

Psixologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy yo‘nalishlari. Qadriyatli yo‘nalishlar va kasbiy identiklikni mustahkamlash bo‘yicha psixologik ish individual suhbat, guruhiy trening, kasbiy refleksiya, mentorlik va jamoaviy muhokama shakllarida tashkil etilishi mumkin. Ayniqsa, xizmatning boshlang‘ich davrida harbiy xizmatchiga kasbiy vazifalarning mazmuni va xizmat qadriyatlarini tushuntirish, keyingi davrda esa ularni shaxsiy ma’no bilan bog‘lash samarali yo‘nalish hisoblanadi.

Psixologik treninglarda “Mening kasbiy qadriyatlarim”, “Men harbiy xizmatchi sifatida”, “Qaror va mas’uliyat”, “Kasbiy kelajagim” kabi mashqlar qo‘llanishi mumkin. Mashg‘ulotlarda ishtirokchilar o‘zlari uchun muhim qadriyatlarni saralaydi, ularni xizmat vazifalari bilan bog‘laydi, murakkab vaziyatlarni muhokama qiladi va kasbiy rivojlanish maqsadlarini belgilaydi. Bunday faoliyat refleksiya va kasbiy o‘zini anglashni kuchaytiradi.

Shuningdek, harbiy jamoada ijobiy psixologik muhitni saqlash kasbiy identiklik uchun muhimdir. Rahbarning adolatli munosabati, aniq talablar, konstruktiv fikr-mulohaza, tajribali xizmatchilarning ijobiy namunalari va jamoaviy qo'llab-quvvatlash qadriyatlarning real xulq-atvorga aylanishiga yordam beradi.

Amaliy tavsiyalar. Harbiy xizmatchilarning qadriyatli yo'nalishlari va kasbiy identikligini psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi amaliy choralar tavsiya etiladi:

- xizmatning turli bosqichlarida qadriyatlar va kasbiy identiklikni muntazam psixologik diagnostika qilish;
- diagnostika natijalarini harbiy xizmatchini "yaxshi-yomon" tarzida baholash uchun emas, balki individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash uchun qo'llash;
- burch, mas'uliyat, intizom, jamoaviylik va sharaf kabi kasbiy qadriyatlarning mazmunini real xizmat vaziyatlari bilan bog'lab tushuntirish;
- kasbiy "Men"ni anglashga qaratilgan refleksiv suhbat va treninglarni yo'lga qo'yish;
- yangi harbiy xizmatchilar uchun mentorlik va tajribali xizmatchilarning ijobiy namunasidan foydalanish;
- qadriyatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni muhokama qilishga imkon beruvchi muammoli vaziyatlar va psixologik mashqlarni qo'llash;
- kasbiy identiklikning beqarorligi aniqlanganda individual psixologik maslahat va kasbiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish;
- harbiy jamoada adolat, hurmat, o'zaro yordam va konstruktiv muloqotga asoslangan ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitni mustahkamlash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Harbiy xizmatchilarning qadriyatli yo'nalishlari va kasbiy identikligi bir-biri bilan uzviy bog'langan psixologik tizimni tashkil etadi. Qadriyatlar shaxs uchun kasbiy faoliyatning ma'nosini belgilasa, kasbiy identiklik ushbu ma'nolarni "Men" tizimiga integratsiyalash va kasbiy rolni ichki qabul qilish imkonini beradi. Harbiy xizmat sharoitida burch, vatanparvarlik, mas'uliyat, intizom, sharaf, sadoqat, jamoaviylik va xavfsizlik kabi qadriyatlarning uyg'unlashuvi kasbiy identiklikning mazmuniy asosini tashkil etadi.

Kasbiy identiklikning shakllanganligi shaxsning faqat harbiy kasbga mansubligini bildirishi bilan emas, balki kasbiy rolni anglash, xizmat ma'nosini tushunish, qadriyatlarni ichkilashtirish, kasbiy maqsadlarni belgilash va ularni real xulq-atvorda namoyon etish bilan baholanishi lozim. Shu sababli diagnostikada qadriyatlar ierarxiyasi, kasbiy mansublik, motivatsiya, refleksiya va xulq-atvor ko'rsatkichlarini kompleks ravishda o'rganish maqsadga muvofiq.

Nazariy tahlil asosida qadriyatli yo'nalishlar va kasbiy identiklik o'rtasidagi munosabat "qadriyat - ma'no - kasbiy rol - xulq-atvor - identiklik" mexanizmi orqali izohlanadi. Mazkur mexanizmni hisobga olish harbiy xizmatchilarning kasbiy moslashuvi, psixologik barqarorligi va xizmat samaradorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan psixologik dasturlarni takomillashtirish imkonini beradi. Ayniqsa, xizmatning turli bosqichlarida qadriyatlar va kasbiy identiklikning o'zgarishlarini monitoring qilish individual psixologik yordamni o'z vaqtida tashkil etish uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Rokich M. The Nature of Human Values. - New York: Free Press, 1973. - 438 p.
2. Rubinshteyn S. L. Osnovy obshchey psikhologii. - Sankt-Peterburg: Piter, 2002. - 720 s.
3. Leontev A. N. Activity, Consciousness, and Personality. - Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1978. - 180 p.
4. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. - New York: W. W. Norton, 1968. - 336 p.
5. Savickas M. L. Career construction theory and practice // Career Development and Counseling. - 2013. - P. 147-183.
6. Schwartz S. H. Universals in the content and structure of values: Theoretical advances and empirical tests in 20 countries // Advances in Experimental Social Psychology. - 1992. - Vol. 25. - P. 1-65.
7. Marcia J. E. Development and validation of ego-identity status // Journal of Personality and Social Psychology. - 1966. - Vol. 3(5). - P. 551-558.
8. Maklakov A. G. Obshchaya psikhologiya. – Sankt-Peterburg: Piter, 2001. - 592 s.
9. G'oziev E. G'. Umumiy psixologiya. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. - 544 b.
10. Nemov R. S. Psikhologiya. Kniga 1: Obshchie osnovy psikhologii. - Moskva: Vlados, 2003. - 688 s.



BADMINTONGA XOS HARAKATLANISH MASHQLARI ORQALI 14–15 YOSHLI O'QUVCHI QIZLARNING EPCHILLIK VA KOORDINATSION QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Qo'chqarov B. O.
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Taekvando va sport kafedrasi professori

Annotatsiya: Mazkur maqolada 14–15 yoshli o'quvchi qizlarning epchillik va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda badmintonga xos harakatlanish vositalaridan foydalanish samaradorligi yoritildi. Tadqiqotning empirik bazasi 8–9-sinflarda tahsil oluvchi 52 nafar qizdan iborat bo'lib, tajriba va nazorat guruhlari shakllantirildi. Badmintonga yo'naltirilgan mashg'ulotlarda "Badminton yo'lakchasi", "Badminton estafetasi", "Badminton maydoni", badmintonda mokisimon harakatlanish hamda raketka prinsipi shaklida harakatlanish mashqlaridan foydalanildi. Ushbu vositalar maydonda oldinga, orqaga, yon tomonlarga va diagonal yo'nalishlarda tez siljish, tayanch holatini almashtirish, muvozanatni saqlash, start reaksiyasi va harakat aniqligini takomillashtirishga qaratildi. Dissertatsiya natijalariga ko'ra, tajriba guruhi sifatida tanlangan 200-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida epchillik ko'rsatkichlari tadqiqot yakunida 14 yoshli qizlarda 8,6±0,7 ($t=2,2$; $p<0,05$), 15 yoshli qizlarda 9,2±0,8 ($t=2,9$; $p<0,01$) darajasida statistik ahamiyatli ijobiy o'zgarishlarni ko'rsatdi. Shuningdek, tajriba yakunida 3×10 m mokisimon yugurish natijalari 14 yoshli qizlarda 8,1±0,7 s, 15 yoshli qizlarda 7,9±0,8 s ni tashkil etdi. Olingan ma'lumotlar badmintonning maxsus harakatlanish mashqlarini yosh va tayyorgarlik darajasiga mos ravishda tizimli qo'llash epchillik, tez yo'nalish almashtirish va koordinatsion boshqaruvni rivojlantirish uchun amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: badminton, chaqqonlik, koordinatsiya, mokisimon harakat, motor nazorat, 14–15 yoshli o'quvchi qizlar.

Abstract: The purpose of this study was to characterize the effectiveness of badminton-specific movement exercises for developing agility and coordination in 14–15-year-old schoolgirls. The empirical basis included 52 girls studying in grades 8–9 who were organized into experimental and control groups. The badminton-oriented instructional content included the exercises conventionally described in the dissertation as "Badminton corridor", "Badminton relay", "Badminton court", badminton shuttle movement, and racket-pattern movement. These tasks were designed to reproduce the spatial structure of badminton by combining forward, backward, lateral and diagonal displacement with rapid changes of support, balance control, starting reactions and movement accuracy. The program was differentiated according to age and current physical preparedness. According to the dissertation data, statistically significant positive changes in agility were observed in the experimental group from School No. 200: the reported values for 14-year-old girls reached 8.6±0.7 with $t=2.2$ ($p<0.05$), whereas the corresponding value for 15-year-old girls was 9.2±0.8 with $t=2.9$ ($p<0.01$). At the end of the pedagogical experiment, the 3×10-m shuttle-run performance was 8.1±0.7 s in 14-year-old girls and 7.9±0.8 s in 15-year-old girls. These findings indicate that systematically organized badminton footwork can provide a practical stimulus for rapid change-of-direction ability and coordination in adolescent girls. Moreover, the age-specific organization of badminton tasks is important because pupils at 14–15 years may differ substantially in physical development, endurance and coordination. Consequently, badminton exercises should be adapted to the learner's preparedness rather than applied as a uniform load. The practical value of the approach is that badminton-specific movement can be incorporated into school physical education and extracurricular sport sessions without reducing the activity to isolated racket technique. The results support the use of structured footwork, shuttle movement and spatially variable badminton tasks as a pedagogical means for developing agility and coordination. Further studies should isolate the contribution of individual badminton exercises and use larger randomized samples.

Key words: badminton, agility, coordination, footwork, shuttle movement, motor control, school girls aged 14–15.

Аннотация: В данной статье освещена эффективность использования средств передвижения, характерных для бадминтона, в развитии ловкости и координационных способностей школьниц 14–15 лет. Эмпирическую базу исследования составили 52 девочки, обучающиеся в 8–9 классах, сформированы экспериментальная и контрольная группы. На занятиях, ориентированных на бадминтон, использовались упражнения “Бадминтонная дорожка”, “Эстафета бадминтона”, “Бадминтонная площадка”, челночное движение в бадминтоне и движение по принципу ракетки. Данные средства направлены на совершенствование быстрого перемещения по площадке вперёд, назад, в стороны и по диагонали, а также на улучшение смены опорного положения, сохранения равновесия, стартовой реакции и точности движений. Согласно результатам диссертационного исследования, в общеобразовательной школе № 200, выбранной в качестве экспериментальной группы, к концу исследования показатели ловкости продемонстрировали статистически значимые положительные изменения: у 14-летних девочек до уровня 8,6±0,7 ($t=2,2$; $p<0,05$), а у 15-летних – до 9,2±0,8 ($t=2,9$; $p<0,01$). По завершении эксперимента результаты челночного бега 3×10 м составили 8,1±0,7 с у 14-летних и 7,9±0,8 с у 15-летних девочек. Полученные данные показали, что систематическое применение специальных двигательных упражнений бадминтона в соответствии с возрастом и уровнем подготовки имеет практическое значение для развития ловкости, быстрого изменения направления и координационного управления.

Ключевые слова: бадминтон, ловкость, координация, челночное движение, моторный контроль, учащиеся девочки 14–15 лет.

KIRISH

Dunyon ta’lim muassasalarida o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishning innovatsion texnologiyalari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Shu o‘rinda jismoniy tarbiya va sport bilan bog‘liq bo‘lgan dolzarb muammolarni ilmiy va amaliy jihatdan hal etishga hamda amalda joriy qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ammo mazkur sohada maktab tizimidagi darsdan tashqari olib boriladigan sport mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish va o‘quvchilarning yozgi dam olish kunlaridagi bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullantirish samaradorligini yanada oshirish e’tiborlicha dolzarb masalalardan bo‘lib qolmoqda. Xususan, jismoniy tarbiya va sport vositalari orqali o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha tizimli rivojlantirish, ta’lim jarayoniga ilg‘or innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda darsdan tashqari sport to‘garaklarini kengroq ommalashtirish va badminton sporti vositalaridan unumli foydalanish zarurati yuzaga kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, darsdan tashqari shakllarda o‘quvchilarda jismoniy sifatlarni takomillashtirish borasida ijtimoiy boshqaruvning o‘rni ahamiyatga ega. Jismoniy tarbiya jarayonini dasturlash asosida qaror qabul qilish jarayoni bo‘lib, u, birinchidan, o‘quv jarayonining umumiy strategiyasini aniqlash, ikkinchidan, uni qurishning eng ma’qul variantini tanlash (samaradorligini aniqlash) bilan bog‘liqdir [90; 55–58-b.].

O‘smir qizlar o‘g‘il bolalar o‘ynaydigan o‘yinlarni birga o‘ynaydilar. O‘g‘il bolalar bilan birgalikda o‘ynagan vaqtda ko‘proq o‘zlarining qiziqishi, jismoniy imkoniyatlari va harakatga bo‘lgan ehtiyojlariga qarab rollar tanlaydilar [30; 81–83-b.].

V. M. Vidrin, N. I. Ponomarev, A. V. Lotonenko va boshqa mualliflar jismoniy tarbiyaning har bir turi uchun o‘z nazariyasini tashkillashtirilishi, vazifalari, vosita va uslublarining boshqa turlari bilan aloqalarini ishlab chiqish zarur deb hisoblaydilar. Bu kabi yondashuv har bir yoshning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan bevosita ehtiyojlari, buning sabab (motiv)lari va shaxs sifatidagi maqsadlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, ko‘p jihatdan jismoniy tarbiya umumiy o‘rta ta’limning tizimidagi mavqeini oshirishi tayin.

Tadqiqotning maqsadi:

Jismoniy tarbiya va sport vositalari orqali umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchi qizlarining jismoniy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- umumiy o‘rta ta’lim maktabi tizimida o‘quvchi qizlarining jismoniy tayyorgarlik darajalarini baholovchi elektron hisoblash dasturini yaratish hamda jismoniy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- 14–15 yoshli maktab o‘quvchi qizlarining jismoniy tayyorgarligini oshirish bo‘yicha darsdan tashqari sport to‘garagi mashg‘ulot yuklamalarini o‘zida tizimlashtirgan modulni ishlab chiqish;
- 14–15 yoshdagi maktab o‘quvchi qizlarining jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan badminton sporti dasturini ishlab chiqish hamda me’yorlashtirish;
- umumiy o‘rta ta’lim maktablarining darsdan tashqari shakllarida 14–15 yoshli o‘quvchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar va funksional ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, jismoniy tarbiya va sport sohasida jismoniy tarbiya va sport vositalaridan samarali foydalanish hamda umumiy o‘rta ta’lim maktabi tizimida o‘quvchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligida qo‘llaniladigan badminton sport mashg‘ulot dasturi asosida darsdan tashqari shakllarda foydalanish orqali 14–15 yoshdagi maktab o‘quvchi qizlarining individual xususiyatlari va ularning natijadorligi aniqlandi. Bu darsdan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida 14–15 yoshdagi maktab o‘quvchi qizlarining funksional imkoniyatlari va umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishga yordam berdi.

Badminton o‘yin faoliyati qisqa masofali tezlanishlar, keskin tormozlanish, diagonal va yonlama siljishlar, sakrashlar hamda zarbadan keyin markaziy tayanch holatiga tez qaytish bilan tavsiflanadi. Shu bois badminton texnikasini egallash faqat raketka va volan bilan ishlash ko‘nikmalariga emas, balki maydonda oqilona va tez harakatlanish qobiliyatiga ham bog‘liq. Ayniqsa, o‘smir yoshdagi qizlarda epchillik va koordinatsiyani maqsadli rivojlantirish badminton mashg‘ulotining pedagogik samaradorligini oshiradi.

Zamonaviy ilmiy qarashlarda badmintonchining jismoniy tayyorgarligi ko‘p komponentli tizim sifatida baholanadi. Yosh badmintonchilarni saralash va tayyorlashda tezlik, portlovchi kuch, muvozanat, yo‘nalishni o‘zgartirish qobiliyati va koordinatsiya muhim ko‘rsatkichlar sifatida ajratiladi. Badminton maydonida yo‘nalishni o‘zgartirish qobiliyatini maxsus test orqali baholash bo‘yicha tadqiqotlar ham sportga xos footworkning alohida ahamiyatini tasdiqlaydi.

O‘smir badmintonchilarda jismoniy ko‘rsatkichlar biologik yetilish va jinsga bog‘liq ravishda farqlanishi mumkin. Shu sababli bir xil mashq yuklamasini barcha o‘quvchilarga bir xil hajmda berish metodik jihatdan to‘g‘ri emas. O‘smir badmintonchilarning jismoniy tayyorgarligini tahlil qilib, biologik yetilish omilini hisobga olish zarurligini ko‘rsatgan. Dissertatsiyada ham 14–15 yoshli qizlarning jismoniy rivojlanishi, chidamliligi va koordinatsiyasi turlicha bo‘lishi mumkinligi sababli badminton mashqlarini individual imkoniyatlarga moslashtirish tavsiya etilgan.

Badmintonga xos tezkor harakatlanish mashqlari oyoq mushaklarining tez kuch hosil qilish qobiliyati, tana og‘irlik markazini boshqarish va harakat yo‘nalishini qisqa vaqt ichida o‘zgartirishni talab qiladi. O‘smir qiz badmintonchilarda kompleks tayyorgarlik dasturlari pastki ekstremita portlovchi kuchi va harakat chaqqonligini yaxshilashi ko‘rsatilgan. Yosh qiz badmintonchilarda kor mushaklari tayyorgarligi ham tezlik, chaqqonlik va sakrash ko‘rsatkichlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Maktab sharoitida badminton vositalaridan foydalanishning afzalligi shundaki, mashqlarni o‘quvchining tayyorgarlik darajasiga mos ravishda soddalashtirish yoki murakkablashtirish mumkin. Badminton asosidagi qisqa muddatli dasturlar maktab yoshidagi bolalarda fundamental harakat ko‘nikmalari va ayrim jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini yaxshilashi mumkin. Shu bilan birga, texnik mashqlarni ko‘p variantli harakat vazifalari bilan birlashtirish o‘quvchini faqat zarbani bajarishga emas, balki volan yo‘nalishini kutish, maydon bo‘ylab joylashish va keyingi harakatni rejalashtirishga o‘rgatadi.

Badmintonning o‘quv jarayonidagi samaradorligi mashqning tashkiliy shakliga ham bog‘liq. Multimedia va raqamli vositalardan foydalanishga bag‘ishlangan tadqiqotlar badminton texnikasini tushuntirish va harakatni vizual tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirayotganini ko‘rsatadi. Biroq maktab sharoitida yuqori texnologik vositalar mavjud bo‘lmagan holatda ham maydon chiziqlari, raketka, volan va belgilangan yo‘nalishlardan foydalanib, koordinatsion jihatdan boy mashg‘ulot tashkil etish mumkin.

Badmintonchilarda yuqori intensiv qisqa harakatlar va tiklanish oralig‘ining almashinuvi anaerob va aerob tizimlarning birgalikdagi ishtirokini talab qiladi. Yosh badmintonchilarda yuqori intensiv intervalli mashg‘ulotlar anaerob quvvat va mushak funksiyasiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli footwork mashqlarini faqat tezlik topshirig‘i sifatida emas, balki yuklama va tiklanish nisbatini boshqaruvchi funksional vosita sifatida ham ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi ilmiy-metodik holatlardan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi – badmintonga xos maydon bo‘ylab harakatlanish mashqlari asosida 14–15 yoshli o‘quvchi qizlarning epchillik va koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish samaradorligini aniqlab olish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot dissertatsiyada bayon etilgan pedagogik tajriba ma’lumotlari asosida tahlil qilindi. Tajribada 14–15 yoshli, 8–9-sinflarda tahsil oluvchi jami 52 nafar o‘quvchi qiz qatnashgan. Tajriba va nazorat guruhlari shakllantirilib, tadqiqot boshida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari qiyoslangan.

Mazkur maqolada umumiy dastur tarkibidan aynan badmintonga bevosita tegishli bo‘lgan harakat vositalari ajratib tahlil qilindi. Ular: “Badminton yo‘lakchasi”, “Badminton estafetasi”, “Badminton maydoni”, badmintonda mokisimon harakatlanish va raketka prinsipi shaklida harakatlanish mashqlaridir. Ushbu mashqlarda o‘quvchi maydonning belgilangan nuqtalariga tez yetib borish, tayanch holatini o‘zgartirish, markazga qaytish, yonlama va diagonal qadamlarni bajarish, harakatni signal yoki topshiriqqa mos ravishda tez o‘zgartirish vazifalarini bajargan.

Badminton mashqlarini tashkil etishda yosh va jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olish asosiy metodik tamoyil sifatida qabul qilingan. Dissertatsiyada 14–15 yoshli qizlar uchun kuch va chidamlilikni ham rivojlantirishga xizmat qiluvchi nisbatan murakkab va intensiv badminton faoliyatlarini taklif etish maqsadga muvofiqligi qayd etilgan. Shu bilan birga, ortiqcha yuklamaning oldini olish uchun mashqlar o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirilgan.

Epchillik va tez yo‘nalish almashtirish qobiliyatini baholashda 3×10 m mokisimon yugurish natijalari hamda dissertatsiyada keltirilgan maxsus epchillik ko‘rsatkichlari tahlil qilindi. Statistik tahlilda o‘rtacha qiymat, standart og‘ish, Student t-mezoni va p qiymatlari qo‘llanilgan. $p<0,05$ statistik ahamiyat mezoni sifatida qabul qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dissertatsiyada badmintonga xos mashqlar majmuasi qo‘llangan tajriba guruhida epchillik sifatining statistik ahamiyatli yaxshilanishi qayd etilgan. Muallif tomonidan “Badminton yo‘lakchasi”, “Badminton estafetasi”, “Badminton maydoni”, mokisimon harakat va raketka prinsipi shaklida harakatlanish mashqlaridan foydalanish 14 hamda 15 yoshli qizlarda ijobiy natija bergani ko‘rsatilgan (1-jadval).

1-jadval: **Badmintonga xos mashqlar qo‘llangan tajriba guruhida epchillik ko‘rsatkichlari**

Yosh	Epchillik ko‘rsatkichi	t	Statistik ahamiyat
14 yosh	8,6±0,7	2,2	$p<0,05$
15 yosh	9,2±0,8	2,9	$p<0,01$

Izoh. Jadvaldagi ko‘rsatkichlar dissertatsiyaning yakuniy xulosalarida keltirilgan qiymatlar asosida berildi; maqolada ularning o‘lchov birligi manbada qanday ifodalangan bo‘lsa, shunday talqin qilindi.

14 yoshli qizlarda $t=2,2$ va $p<0,05$, 15 yoshli qizlarda esa $t=2,9$ va $p<0,01$ bo‘lishi badmintonga xos harakatlanish topshiriqlaridan keyingi o‘zgarishlarning statistik jihatdan ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. 15 yoshli guruhdagi yuqoriroq t qiymati ushbu yosh bosqichida murakkabroq va intensiv badminton mashqlarini qo‘llash imkoniyati kengroq bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi, biroq bu xulosani alohida randomizatsiyalangan tadqiqot bilan tekshirish lozim.

Mokisimon yugurish badminton footworkiga tuzilish jihatidan yaqin bo‘lib, tezlanish, to‘xtash va qarama-qarshi yo‘nalishga qayta harakatlanishni talab qiladi. Tajriba yakunidagi 3×10 m mokisimon yugurish natijalari ham badmintonga xos harakatlanish mashqlarining amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi (2-jadval).

2-jadval: **Tajriba yakunida 3×10 m mokisimon yugurish natijalari**

Yosh	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	P
14 yosh	8,1±0,7 s	8,9±0,8 s	<0,05
15 yosh	7,9±0,8 s	8,7±0,7 s	<0,05

14 yoshli qizlarda tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq 0,8 s, 15 yoshli qizlarda ham 0,8 s ni tashkil etdi. Badminton nuqtai nazaridan bunday natija muhim, chunki o‘yinchining volanga yetib borishi va keyingi zarba uchun markaziy pozitsiyaga qaytishi ko‘p marotaba qisqa yo‘nalish almashtirishlar orqali amalga oshadi. Maxsus testning ishlab chiqilishi ham badminton natijadorligida sportga xos yo‘nalish almashtirishni alohida baholash zarurligini ko‘rsatadi.

“Badminton yo‘lakchasi” mashqi ketma-ket belgilangan zonalar bo‘ylab tez va nazoratli harakatlanishni talab qilgani uchun qadam ritmi va tana holatini boshqarishga xizmat qiladi. “Badminton maydoni” mashqida esa maydon geometriyasiga mos old, yon va orqa zonalarga chiqish badmintonning real fazoviy tuzilmasini modellashtiradi. Raketka prinsipi shaklida harakatlanish mashqi yo‘nalishlarning ketma-ket almashinuvi orqali o‘quvchining fazoviy orientatsiyasi va motor xotirasini faollashtiradi.

Badminton samaradorligi faqat oyoq tezligiga bog‘liq emas. Harakat davomida tana og‘irlik markazini boshqarish, tayanch oyoqni to‘g‘ri qo‘yish, lunjdan keyin muvozanatni tiklash va navbatdagi yo‘nalishga tayyor holatga qaytish zarur. Shu sababli badminton mashqlarining koordinatsion murakkabligi oddiy to‘g‘ri chiziqli yugurishga qaraganda yuqoriroq bo‘ladi. Yosh badmintonchilarning ko‘p omilli jismoniy profilida tezlik, kuch va koordinatsiyaning birgalikda baholanishi ham shuni tasdiqlaydi.

14–15 yoshli qizlar uchun mashqlarni individual moslashtirish alohida ahamiyatga ega. Dissertatsiyada ushbu yoshdagi o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish, chidamlilik va koordinatsiya darajalari turlicha bo‘lishi mumkinligi ta’kidlangan. Shuning uchun bir xil topshiriqda masofa, takrorlar soni, harakat tezligi va dam olish oralig‘ini o‘zgartirish orqali yuklamani individuallashtirish maqsadga muvofiq.

Badminton mashqlarining maktab jismoniy tarbiyasidagi yana bir afzalligi – texnik va jismoniy tayyorgarlikni bir vaqtning o'zida tashkil etish imkoniyatidir. O'quvchi maydon bo'ylab to'g'ri harakatlanishni o'zlashtirar ekan, u zarba uchun qulay pozitsiyani egallash, volan trayektoriyasiga mos joylashish va markaziy holatga qaytish kabi texnik-taktik vazifalarni ham o'rganadi. Bu badmintonni o'smir qizlarning motor faolligini oshiruvchi mazmunli sport vositasiga aylantiradi.

Natijalarni talqin qilishda muhim metodik cheklov mavjud: dissertatsiyadagi pedagogik dastur badminton vositalari bilan bir qatorda boshqa jismoniy tarbiya vositalarini ham qamrab olgan. Shu sababli kuzatilgan barcha o'zgarishlarni faqat badminton mashqlarining izolyatsiyalangan ta'siri deb baholash to'g'ri bo'lmaydi. Mazkur maqola umumiy dastur ichidagi badmintonga xos komponentlarni tahliliy jihatdan ajratib yoritadi. Kelgusida aynan badminton footwork dasturining mustaqil samaradorligini tekshiruvchi nazoratli tadqiqot o'tkazish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Badmintonga xos "Badminton yo'lakchasi", "Badminton estafetasi", "Badminton maydoni", mokisimon harakat va raketka prinsipi shaklida harakatlanish mashqlari 14–15 yoshli qizlarning epchillik va koordinatsion tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik vositalar sifatida qo'llanishi mumkin.

Dissertatsiya ma'lumotlarida tajriba guruhi epchillik ko'rsatkichlarida 14 yoshda $p<0,05$, 15 yoshda $p<0,01$ darajasidagi statistik ahamiyatli ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan.

Tajriba yakunida 3×10 m mokisimon yugurish natijalarining 14 yoshda 8,1±0,7 s va 15 yoshda 7,9±0,8 s bo'lishi badminton footworkiga yaqin tez yo'nalish almashtirish qobiliyatining yaxshilanganini ko'rsatadi.

Badminton mashqlarini tashkil etishda o'quvchining yoshi, jismoniy tayyorgarligi va koordinatsion imkoniyatlariga qarab masofa, tezlik, takrorlar soni va tiklanish oralig'ini individuallashtirish tavsiya etiladi.

Manba tadqiqotida badminton boshqa pedagogik vositalar bilan birgalikda qo'llanganligi sababli, badmintonning mustaqil ta'sirini aniqlash uchun keyingi tadqiqotlarda alohida badminton dasturiga ega nazoratli eksperimental dizayn zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Goncharova O. V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zDJTI, 2005. – 171 b.
2. Pulatov A. A., Savatyugin O. M., Isroilov Sh. Sh. Badminton nazariyasi va uslubiyati (o'quv qo'llanma). – T.: Fan va texnologiya, 2017. – 298 b.
3. Пономарев Н. И. Некоторые проблемы функционирования и развития теории физической культуры // Теория и практика физической культуры. – 1996. – № 5. – С. 55–58.
4. Mamayusupov N. N. Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalash // Journal of Innovations in Scientific and Educational Research. – 2020. – № 2. – 385 b.
5. Otadjonov D. B. Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda sport to'garaklarining o'rni / I. A. Yo'ldoshev // Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – № 10 (100). – С. 390–396.

FITRAT ASARLARIDA VATANPARVARLIK G‘OYALARINING MA’NAVIY-MA’RIFIY ASOSLARI

Isomiddinov Yo‘ldosh Yusubboyevich
Samarqand davlat pedagogika instituti tarix kafedrasi mudiri,
dotsent v.b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori
E-mail: isomiddinov.1986@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdurauf Fitratning asarlarida ilgari surilgan vatanparvarlik g‘oyalarining ma’naviy-ma’rifiy mazmuni tahlil etiladi. Fitrat o‘z asarlarida millatning ma’naviy uyg‘onishi, yosh avlodni ilm, axloq va Vatan muhabbatida tarbiyalashni milliy taraqqiyotning asosiy sharti sifatida ko‘rsatgan. Tadqiqotda “Rahbari najot”, “Munozara”, “Oila”, “Sayha” singari asarlaridagi g‘oyaviy yo‘nalishlar orqali Fitratning pedagogik merosi yoritiladi hamda ularning zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Maqolada Fitratning ta’lim, tarbiya va ma’naviyatga oid fikrlari milliy o‘zlikni shakllantirishda o‘ziga xos dasturulamal sifatida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Abdurauf Fitrat, ma’naviyat, ma’rifat, vatanparvarlik, tarbiya, milliy o‘zlik, yoshlar, ta’lim, milliy uyg‘onish, meros.

Abstract: This article analyzes the spiritual and educational foundations of patriotism in the works of Abdurauf Fitrat. The author emphasizes that the spiritual awakening of the nation and the education of the younger generation in the spirit of knowledge, morality, and love for the homeland are the key factors of national development. The study examines Fitrat’s major works, such as “Rahbari Najot,” “Munozara,” “Oila,” and “Sayha,” highlighting their role and significance in the modern educational process.

Key words: Abdurauf Fitrat, spirituality, enlightenment, patriotism, education, morality, national identity, youth, national revival, heritage.

Аннотация: В данной статье анализируется духовно-просветительское содержание идей патриотизма, изложенных в произведениях Абдурауфа Фитрата. В своих трудах Фитрат подчеркивал, что духовное пробуждение нации и воспитание молодого поколения в духе науки, нравственности и любви к Родине являются главным условием национального прогресса. В исследовании рассматриваются идеи, изложенные в таких произведениях, как “Рахбари нажот”, “Мунозара”, “Оила”, “Сайха”, а также их значение в современном образовательном процессе.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, духовность, просвещение, патриотизм, воспитание, национальная идентичность, молодежь, образование, национальное возрождение, наследие.

KIRISH

XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatni uyg‘otish, xalqni jaholatdan xalos etish va milliy o‘zlikni tiklash g‘oyalariga tayanib shakllandi. Ushbu harakatning yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Abdurauf Fitrat o‘zining boy ilmiy, adabiy va pedagogik merosi orqali xalqni ma’rifat yo‘liga boshladi. Uning asarlarida millatning ravnaqi uchun eng muhim omil - bu ilm, axloq va vatanparvarlik deb baholandi.

Fitratning ma’naviy-ma’rifiy qarashlari o‘z davri uchun ham, bugungi zamon uchun ham dolzarbdir. U yoshlarda milliy g‘urur va Vatan muhabbatini shakllantirishni ta’limning eng muhim vazifasi deb bildi. Ayniqsa, “Rahbari najot” va “Munozara” asarlarida ta’lim-tarbiya tizimi orqali jamiyatni yangilash, xalq ongini o‘zgartirish g‘oyasi ilgari surilgan. Shu bois, Fitratning pedagogik qarashlarini o‘rganish, ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida ularni amalda qo‘llash bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan masalalardandir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Abdurauf Fitrat Buxoriy - tug‘ilgan yili hijriy 1304 (ya’ni milodiy 1886 yilga to‘g‘ri keladi) deb yozadi”. Shu faktlardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, Fitratning Jalil Boybo‘latovga yozgan ochiq xatida keltirilgan “Tarjimayi hol”ida texnik xato ketgan bo‘lsa kerak [1]. Fitrat XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyo

xalqlarining umumfalsafiy merosi tarixida sezilarli iz qoldirgan ma'rifatparvar-jadidlarning eng yirik namoyandalaridan biridir. O'zining boy ma'naviy merosi tufayli u jahon falsafasi xazinasida alohida ehtiromga sazovor bo'lgan shaxs sifatida tanilgan. Uning Britaniya ensiklopediyasida o'zbek faylasuf olimi sifatida qayd etilganligi uning ilmiy salohiyatini yanada yuksaltiradi.

Edvort Olvort, Fitrat ijodi bilan uzoq yillardan beri shug'ullanib kelayotgan taniqli amerikalik olim, u haqida shunday deydi: "Fitrat o'z zamonasining eng bilimdoni, faylasufi va o'z davrining madaniy markeri edi." Fitratning Hind sayyohi sifatidagi qiyofasi va faoliyati uning o'ziga xos siymosini yaratganini ta'kidlash mumkin. Sayyohning harakatlari va qarashlari Fitratning o'ziga xos dunyoqarashini aks ettiradi. Mazkur asarda Fitrat dunyoqarashining dastlabki davri, yangi g'oyalar, taraqqiyot, Yevropa madaniyatiga ergashish, o'lkadagi jaholat va g'aflatga qarshi kurashish, o'qish, mehnat, g'ayrat va shijoatga chaqirish hamda xalqni baxtiyor qilishga jamiyatning e'tiborini qaratish kabi tamoyillar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Fitrat o'z xalqi, millati, Vatani taqdiri haqida o'ylash, uning istiqboli uchun qayg'urishdan sira tolmaydi, barcha asarlarida mazkur fikr hamisha yetakchilik qiladi. Uning mustamlakachilik siyosatiga qarshi g'oyalari ham, taraqqiyot va mustaqillikka intilish borasidagi faoliyati ham asli xuddi shu negizdan kelib chiqadi.

"Madaniyat degan g'arbli alvasti", "Sho'r suvlardan chiqib kelgan bir maymun", "Ingliz" singari iboralarga qarab, ayrim kaltabin tanqidchilar Fitrat Sharqni G'arbga qarama-qarshi qo'yadi, degan fikrlarni o'tgan asrning 80-yillarida ham aytib yurishdi. Fitrat va umuman jadidlar millatlarni hech qachon bir-biriga qarshi qo'ygan emas. Faqat mustamlakachilikka qarshi bo'lgan. Madaniyatdan o'rnak olish - rivojlangan xorijiy mamlakatlarga yem bo'lish degan so'z emasligini barcha asarlarida uqtirib borgan.

Abdurauf Fitratning adabiy taxallusi bo'lgan "Fitrat" so'zining kelib chiqishi va uning ma'nosiga to'xtalib o'tsak, bu so'z arab tilidan olingan bo'lib, ilmiy lug'atlarda turlicha talqinlarga ega. Eng ajablanarlisi, "O'zbek tilining izohli lug'ati"da "Fitrat" so'zi uchramaydi (36). "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da esa "Fitrat" so'zi "tabiat, tug'ma tabiat, yaratilish" deb izohlanadi, masalan: "Muvofiqdurur asli fitrat aro, Kim mayl o'ldi bir-birga nisbat aro". Xullas, Fitrat so'zining birinchi lug'aviy ma'nosi "tabiat", "insonning tug'ma, (Alloh ato etgan) tabiiy sifati, xislati" bo'lsa, ikkinchi ma'nosi "xilqat" yoki "yaratmoqlik"dir. Uchinchisi esa majoziy, ko'chma ma'noda "aqlu-zako" bo'lib, "Fitrat" so'zi, shuningdek, "tug'ma iste'dod" va "porlamoq" kabi ma'nolarni ham anglatadi.

Abdurauf Fitrat yoshlik chog'larida, talabalik yillarida yozgan ayrim g'azallarida "Mijmar" (xushbo'y narsalar solib tutatiladigan idish) taxallusini qo'llagan bo'lsa ham, "Fitrat" nomiga bir umr sodiq qolgan. Hatto rasmiy idoralardagi xizmat chog'ida va xavfsizlik qo'mitasining hujjatlarida, hibsga olingan vaqtidagi hujjatlarda ham Fitrat nomi qo'llanilgan. Fitratning ilmi va dunyoqarashining rivojlanishida ota-onasining o'rni katta bo'lgan. Otasining savodli, ma'rifatli va ko'p sayohat qilgan savdogar bo'lishi, onasining adabiyotga qiziqishi va o'zi ham ilmiy bilimi bilan tanilganligi Fitratning bilim olishga, fikrlashga bo'lgan ishtiyoqini yanada kuchaytirgan. Abdurahmon esa ilmiy muhitni, matbuotni yaxshi bilgan holda, Fitratga ko'plab imkoniyatlar yaratdi.

Fitratning Turkiyaga sayohati va orada kechgan yillari uning shaxsiy va ilmiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. U Turkiyada o'qib, o'rganayotgan zamonasi uchun muhim bo'lgan ilmiy-ijtimoiy g'oyalarni chuqur anglagan. Istanbulda o'qiyotgan davrda Fitratning o'ziga xos dunyoqarashi shakllanib, u turkiy xalqning ijtimoiy va madaniy o'zgarishlariga qiziqishni boshlagan. Bu davrda Fitrat nafaqat o'rganishni, balki o'z ilmiy qarashlarini shakllantirishni va yangi g'oyalar bilan tanishishni boshladi. Shuningdek, u Buxorodagi jamiyatni va uning o'zgarishiga yordam berishni orzu qildi. Fitratning o'sha davrdagi ijtimoiy faoliyati, jumladan, "Tarbiyayi atfol" jamiyatiga a'zo bo'lishi, yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan g'oyalari uning ijtimoiy adolat, ilmiy rivojlanish va milliy mustaqillik yo'lida qadam tashlashiga olib keldi. U yoshlarni Turkiyaga o'qishga yuborish orqali yangi fikrlarni, madaniyatlarni o'rgatishga va ularni o'z o'lkasiga olib kelishga harakat qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Turkiyada kechgan yillaridan so'ng, Fitratning qaytishi Buxoroda yangi bosqichni boshlab berdi. U endi jamiyatni yangilash, bilimni tarqatish, yoshlarni o'zgarishga ilhomlantirish va mustamlakachilikka qarshi kurashishga tayyor shaxs sifatida qaytdi. Fitratning dunyoqarashi, g'oyalari va faoliyati keyingi avlodlar uchun o'rnak bo'lib xizmat etdi. Uning o'z zamonasi uchun ajralib turadigan g'oyalari, ilmiy izlanishlari va ijtimoiy yangilikka bo'lgan intilishi o'zgarishlarning boshlanishi edi.

Mahbuba Rahim qizining taqdiri haqidagi mulohazalarni kengroq nuqtayi nazardan ko'rib chiqish mumkin. Fitratning taqdiri, o'zi bir yo'lni tanlashga va o'zining ma'rifiy va adabiy faoliyatini rivojlantirishga imkoniyat yaratishga yordam bergan bo'lsa, Mahbuba Rahim qizining talanti ham undan mustaqil ravishda namoyon bo'lishi mumkin edi. Agar Fitrat qatag'on qilinmaganida, Mahbuba Rahim qizining she'riyatiga bo'lgan e'tibor va hurmat, shubhasiz, oshishi mumkin edi. U, ehtimol, o'zining adabiy faoliyatini davom ettirib, Buxoro va hatto Markaziy Osiyoda mashhur bo'lishi mumkin edi [2]. Tadqiqot davomida Fitrat asarlarida vatanparvarlik g'oyalarining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini yoritib berishda induksiya va deduksiya, analiz va sintez, ma'lumotlar tahlili va boshqa tahlil usullaridan maqsadli foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Fitratning o‘ziga xos intellektual muhitda tarbiyalanganligi va onasi Nastarbibi tomonidan qo‘llab-quvvatlanganligi uning dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirishda katta rol o‘ynagan. Mahbuba Rahim qizi esa bunday o‘quv va madaniy muhitdan ilhom olish uchun ko‘proq imkoniyatga ega bo‘lgan bo‘lar edi. Fitratning ilm-fan va madaniyatga bo‘lgan o‘ziga xos yondashuvi, ularni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari Mahbuba uchun motivatsiya manbai sifatida ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin edi [3].

Shuningdek, Nastarbibi onaning tarbiyaviy roli va Fitratning ma’naviy dunyosini shakllantirishdagi ahamiyati Mahbuba Rahim qizining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga katta yordam berishi mumkin edi. Agar Mahbuba o‘zining she’riyatiga ko‘proq e’tibor qaratgan va uning ijtimoiy va siyosiy vositalariga ega bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha davr jamiyatining inqilobiy va madaniy o‘zgarishlariga yanada faol hissa qo‘shishi mumkin edi [4]. Bu tahlil Fitrat va uning atrofidagi muhitning ta’siri, Mahbuba Rahim qizining taqdiri va ularning ijtimoiy va madaniy nuqtayi nazaridan olingan misollar bilan boyitilsa, ta’lim-tarbiya va ijodiy faoliyatning ijtimoiy-siyosiy sharoitlarda qanday o‘zgarishini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Fitratning ilmiy faoliyati juda keng va xilma-xildir. U nafaqat davlat va jamoat arbobi sifatida, balki adabiyotshunos, tilshunos, sharqshunos olim, shoir, muarrix, tarjimon sifatida ham faoliyat yuritgan. Uning ilmiy asarlari ko‘plab fan sohalarini o‘z ichiga oladi, shu jumladan, geografiya, riyoziyot, ilmi nujum, tabobat, tafsir, tasavvuf va boshqa ko‘plab sohalar. Fitrat o‘z asarlarida jamiyatni o‘zgartirish va ilm-fan bilan boyitish g‘oyalarini ilgari surgan. Fitratning dunyoqarashi va falsafiy yondashuvi, uning o‘qigan va o‘rgangan ilmiy asarlarining xilma-xilligi uning juda chuqur va keng fikr yuritishini ko‘rsatadi. U zamonining taraqqiyparvar ulamolari bilan mustaqil ravishda bilim olishga intilgan va Buxorodagi madrasalarda o‘qish bilan cheklanmasdan, xorijiy mamlakatlardagi ilm-fan yangiliklari bilan tanishgan. Bu uning ilmiy g‘oyalarini shakllantirishda katta rol o‘ynadi va u taraqqiyot yo‘lida yangi yo‘nalishlarni ilgari surishga qodir bo‘ldi.

1908 yilda Buxoroda tashkil etilgan jadid maktablari va kechki o‘quv kurslari, shuningdek, xalq orasida katta shuhrat qozongan. Fitratning talabalik yillarida xorijiy nashrlar bilan tanishishi uning bilim doirasini kengaytirishga va zamonidan ilgarilab o‘rganishga yordam bergan. Bu nashrlar va maqolalar ularning jamiyatdagi siyosiy va ijtimoiy vaziyatga ta’sirini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Fitratning bilim olishga bo‘lgan intilishi va bilimlarni tarqatishdagi roli uning jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi.

Fitratning o‘lkadagi siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabati juda chuqur va maqsadli edi. U o‘z asarlarida xalqning farovonligi va taraqqiyoti uchun kurashni targ‘ib qilgan, ayniqsa, yoshlarni komil insonlar sifatida tarbiyalashga e’tibor qaratgan. Fitratning fikrlari jamiyatni rivojlantirishda ilm, ma’rifat va madaniyatning ahamiyatini ko‘rsatadi. U o‘lkada qoloqlik va gumrohlikni yengish uchun faqat ilm-fan orqali yuksalishni muhim deb bilgan. Uning bu yo‘ldagi fikrlari xalqni yuksaltirish va taraqqiyotga erishish uchun zarur bo‘lgan harakatlarni ko‘rsatgan. Fitratning “Bedil” asarida ilm, ma’naviyat va ma’rifat masalalariga katta e’tibor berilgan. Uning aytganidek, faqat ilm va ma’rifat orqali inson o‘zini tanishi, jamiyatni yuksaltirishi va haqiqatni anglashi mumkin.

Fitratning o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun harakat qilish va kurashga chaqirishi uning har doim ijtimoiy adolat va tenglikni targ‘ib qilganligini ko‘rsatadi. U xalqning turmushini yaxshilash va ilm-fan orqali taraqqiyotga erishishni muhim deb bilgan. Fitratning dunyoqarashidagi o‘zgarishlar 20-yillardagi materialistik falsafaning ta’sirini ko‘rsatadi. Uning materializmga bo‘lgan yondashuvi, ayniqsa, insonning moddiy olamdagi o‘rniga doir qarashlari, jamiyatning sinfiy tabaqalanishiga qarshi kurashganligini ifodalaydi. Fitrat o‘z asarlarida jamiyatdagi tengsizlik va korrupsiyaning oqibatlarini tanqid qilib, haqiqiy erkinlik va adolatni olish uchun faoliyat ko‘rsatishni ta’kidlaydi.

Fitratning bunday fikrlari uning o‘lkadagi ijtimoiy va siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilganligini hamda o‘zining ilmiy va falsafiy qarashlari orqali yangi, taraqqiyparvar jamiyatni qurishga intilganligini ko‘rsatadi. Uning maqsadi nafaqat o‘lkadagi ma’naviy va ijtimoiy inqiloblarni amalga oshirish, balki jamiyatni ilm, madaniyat va ma’rifat bilan yuksaltirish edi. Bu maqsadlar uning harakatining asosini tashkil etgan. Fitratning fikrlarida uning 20-yillardagi dunyoqarashi va materialistik falsafaga bo‘lgan yondashuvi o‘z jamiyatining tarixiy sharoitlarini va sinfiy tizimlarni qayta ko‘rib chiqish va ularni yaxshilashga bo‘lgan intilishida namoyon bo‘lgan. Uning ijtimoiy adolat va tenglik uchun kurashish g‘oyalari Turkistondagi va umuman, o‘zbek jamiyatidagi taraqqiyot uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilgan.

Shuningdek, Fitratning hayotiga ta’sir ko‘rsatgan bir qator faktorlar, jumladan, uning ta’lim olgan madrasasi va mutafakkirlarning ta’siri, yoshligida boshlangan ma’rifatga bo‘lgan qiziqishi, el-yurt uchun xizmat qilish istagi, jadidchilik harakatining o‘sishi va uning o‘zining adabiy va ilmiy ishlarida eng yuqori saviyaga ko‘tarilganligi haqida ko‘plab asarlar yaratildi. Fitratning jadidchilik harakatidagi o‘rni va uning o‘z asarlaridagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlari, o‘qituvchilarga, talabalariga va yoshlarni komil inson qilib tarbiyalashga bo‘lgan intilishi uning ilmiy merosini yanada qadrlashga olib keldi. Uning o‘ylab topgan fikrlari, metodologiyalari va ta’limotlari bugungi kundagi o‘qituvchilar, pedagoglar va ilmiy izlanishlar bilan shug‘ullanayotganlar uchun qimmatli manba hisoblanadi.

Bu maktabning yuksalishi va muvaffaqiyatlari, umuman olganda, Buxoroda jadidchilik harakatining taraqqiy etishiga va o‘zgarishlarga zamin yaratdi. Jadidlar yangi ta’lim tizimi va o‘qitish usullari orqali nafaqat ilm-fan, balki ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni ham shakllantirishga intildilar. “Tarbiyayi atfol” jamiyati, ayniqsa, bolalar ta’limi sohasida inqilobiy yangiliklar olib keldi. Ularning o‘qitish metodlari, jadidchilik g‘oyalari va yangi fikrlari o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatdi. Bu jamiyatning bosh maqsadi bolalarga zamonaviy bilimlarni o‘rgatish, ularni nafaqat milliy, balki jahon darajasida bilimga ega bo‘lgan shaxslar sifatida tarbiyalash edi. Jadidlar ta’limni faqatgina diniy bilimlar bilan cheklamagan, balki matematikadan tortib tabiiy fanlargacha bo‘lgan sohalarni ham o‘rgatish orqali bolalar ta’limini to‘liq va zamonaviy usulda tashkil etishga harakat qilganlar.

S. Ayniy va A. Munzim maktabining faoliyati nafaqat Buxoro, balki Turkistonning boshqa shaharlarida ham katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, “Tahzib us-sibyon” kitobi yangi avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu kitob nafaqat o‘qish, balki tarbiya masalalarida ham o‘zida muhim g‘oyalarni o‘z ichiga olgan edi. Jadidchilik harakati orqali Fitrat va uning kabi olimlar, adiblar, tarbiyachilar o‘z zamonining intellektual va ma’naviy salohiyatini oshirishga xizmat qilishdi.

Buxorodagi jadidchilik harakati va uning muvaffaqiyatlari, albatta, shunday yirik ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlarga olib keldi. Fitratning o‘zi ham bu harakatning faollaridan biri bo‘lib, bu maktablarning ma’rifat va ta’lim sohasida yangi imkoniyatlarni yaratishdagi o‘rni haqida ko‘p bora o‘z fikrlarini bildirdi. U o‘z asarlarida ta’limni yanada rivojlantirish va yoshlarni ilg‘or g‘oyalarga asoslangan tarzda tarbiyalashga alohida e’tibor qaratdi. Shu bilan birga, bu maktablar orqali yoshlarga faqat ilm berib qolmasdan, balki ularga milliy g‘urur, mustaqillik va axloqiy qadriyatlarni ham singdirish, jamiyatning kelajagini yuksaltirish uchun zarur bo‘lgan tarbiyaviy jarayonlar ham amalga oshirildi. Bunday yangiliklar nafaqat Buxoro, balki butun Turkistonning o‘qituvchilari va ilmiy ahlini yangi fikrlar bilan boyitdi. Bo‘riboy afandi o‘zining bu so‘zlari bilan Buxorodagi mavjud jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy turg‘unliklarga qarshi o‘zining umidini va ishonchini bildirib, kelajakda yaxshilik va o‘zgarishlar bo‘lishiga ishonayotganini ta’kidlagan. Uning so‘zlarida yoshlarning kelajakka umid bilan qarashlari va jamiyatdagi noxush holatlardan xalos bo‘lishi uchun kurash olib borishlari zarurligi haqida chuqur ma’nolar mavjud. U bu o‘zgarishlarni o‘z vaqtida ko‘ra olmasligini, ammo yoshlarning ulkan inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’kidlagan. Bo‘riboy afandi, aslida, o‘zining orzularini amalga oshiradigan va mustaqil, rivojlangan jamiyatni qurish uchun kerakli o‘zgarishlarni boshlaganini his etgan. U o‘zining kelajakdagi islohotlar va inqiloblarni ko‘ra olmasligini bilgan holda, kelajakda yoshlar bu yuksak maqsadlarni amalga oshiradiganligini ta’kidladi. Bu so‘zlar, shuningdek, Bo‘riboy afandining va boshqa jadidchilik harakati a’zolarining Buxoro va O‘rta Osiyoda siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarga bo‘lgan ishtiyoqini ham ko‘rsatadi.

Bu fikrlar faqatgina Bo‘riboy afandi uchun emas, balki butun jadid harakatining poydevorini yaratish va yangi, erkin jamiyatni barpo etishga intilgan barcha ziyolilarning hayotiy qadr-qimmatiga tayanadi. Bu inqilobiy umidlar Buxoro va Turkistonning keyingi tarixidagi ulkan o‘zgarishlarga asos bo‘lib xizmat qilgan. Abdurauf Fitratning jadidchilik harakatidagi faoliyati Buxorodagi ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlarga ta’sir ko‘rsatgan muhim voqealar bilan chambarchas bog‘liq. U o‘z faoliyatida nafaqat ilmiy va ma’rifiy islohotlarni, balki siyosiy erkinlikni ham o‘z maqsadlariga kiritgan.

Buxorodagi jadidchilik harakati uning taraqqiyotga bo‘lgan ishtiyoqi va Buxorodagi ma’rifatni yangilash, eski tizimni yengish borasidagi harakatlari bilan katta o‘zgarishlarga erishishga harakat qildi. “Usuli jaded” maktablarining kengayishi, ayniqsa, Toshkent, Samarqand, Farg‘ona vodiysi kabi hududlarda yosh avlodni yangi usullarda ta’limlashga imkon yaratdi. Bu maktablar nafaqat ilmiy bilimlarni, balki ma’naviy va ijtimoiy o‘zgarishlarni ham targ‘ib qilishni maqsad qilgan edi.

Jamiyatlar o‘rtasidagi aloqa va hamkorlik, o‘quvchilarni Turkiya, Istanbul kabi shaharlarga yuborish orqali yangi g‘oyalar, ilmiy va madaniy oqimlar bilan tanishtirishga intildi. Fitrat va uning izdoshlarining siyosiy harakatlari, ayniqsa, “Yosh buxoroliklar” harakati, Buxoro amirligini inqilobiy o‘zgarishlar bilan almashtirishni maqsad qilgan edi. Ular eski tizimning isloh qilinmaganligi va yangi qonunlar kerakligini ta’kidlab, Buxoro ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotini yangilash zarurligini ta’kidladilar. Fitrat amirning saroyidagi boyliklar va qoloqlikni fosh etish, axloqsizlik va bid’atga chek qo‘yish, eskilik sarqitlariga qarshi kurashishni o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilagan.

XULOSA

Abdurauf Fitratning ma’naviy-ma’rifiy merosi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bebaho manba hisoblanadi. Uning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar - insonni ilmli, axloqli, vatanparvar qilib voyaga yetkazish, milliy o‘zlikni anglash, xalqni taraqqiyot sari yetaklash kabi masalalarni o‘z ichiga oladi. Fitratning pedagogik qarashlari hozirgi ta’lim tizimida ham dolzarb bo‘lib, ularni dars jarayonlari, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar va tarbiyaviy dasturlar orqali yoshlar ongiga singdirish ta’lim samaradorligini oshiradi. Shu bois, Fitrat asarlarida mujassam bo‘lgan vatanparvarlik g‘oyalarini o‘rganish va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiyalash - zamonaviy pedagogikaning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Olvort, E. (2005). Abdurauf Fitrat: ma'naviy meros va falsafiy ta'sir. Nyu-York: Oxford University Press, 102 b.
2. Ismailov, D. (2008). Jadid harakati va uning ijtimoiy-ma'rifiy ta'siri. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 175 b.
3. Mahmudov, U. (2015). Abdurauf Fitrat va uning falsafiy merosi. Buxoro: Buxoro davlat universiteti nashriyoti, 124 b.
4. Fitrat, A. (1991). Buxoro ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar. Toshkent: O'zbekiston.
5. Fitrat, A. Rahbari najot.
6. Fitrat, A. Munozara.



TALABALARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRUVCHI DIFFERENSIAL MASHQLAR VA ULARNING TURLARI

Nafisaxon Nuriddinova Tolib qizi
"Nemis tili amaliy fanlar" kafedrasi stajyor o'qituvchisi
ORCID: 0009-0004-0190-7381

Annotatsiya: Maqolada nemis tilini o'qitishda qo'llaniladigan differensial mashqlar va ularning metodik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi ichki differensiatsiyaga oid ilmiy manbalar asosida differensial topshiriqlarning asosiy turlarini aniqlashdan iborat. Talabalarning til darajasi, motivatsiyasi, o'quv uslubi va oldingi bilimlaridagi farqlar differensiallashtirishning muhim omillari sifatida ko'rib chiqiladi. Miqdoriy va sifat jihatdan darajalangan topshiriqlar, guruhlash, yordam vositalari va o'quvchi avtonomiyasiga asoslangan usullar tahlil qilinadi. Differensial mashqlarni tanlashda dastlabki diagnostikaning ahamiyati asoslanadi. Tahlil natijalari differensiallashtirish ta'lim faoliyatini o'rganuvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish imkonini berishini ko'rsatadi. Maqolaning ilmiy yangiligi mavjud differensiallashtirish vositalarini nemis tili talabalarining kommunikativ faoliyatini tashkil etish nuqtayi nazaridan tizimlashtirishdan iborat.

Kalit so'zlar: differensial mashqlar, ichki differensiatsiya, kommunikativ kompetensiya, nemis tili, geterogen guruh, til darajasi, o'quv uslubi, diagnostika.

Abstract: The article analyses differentiated exercises and their methodological features in German language teaching. The aim is to identify the main types of differentiated tasks on the basis of studies on within-class differentiation. Differences in language proficiency, motivation, learning styles and prior knowledge are considered important factors of differentiation. Quantitatively and qualitatively graded tasks, grouping strategies, learning aids and learner autonomy are examined. The importance of preliminary diagnostics in selecting differentiated exercises is discussed. The findings indicate that differentiation makes it possible to adapt learning activities to individual learner needs. The scientific novelty of the article lies in systematizing differentiated instructional measures from the perspective of organizing communicative activities of German language students.

Key words: differentiated exercises, within-class differentiation, communicative competence, German language, heterogeneous group, proficiency level, diagnostics.

Аннотация: В статье анализируются дифференцированные упражнения и их методические особенности при обучении немецкому языку. Цель исследования заключается в определении основных видов дифференцированных заданий на основе научных работ по внутренней дифференциации. Различия в уровне владения языком, мотивации, стиле обучения и предварительных знаниях рассматриваются как значимые факторы дифференциации. Анализируются количественно и качественно дифференцированные задания, способы группирования, учебные опоры и формы автономной деятельности обучающихся. Обосновывается значение предварительной диагностики при выборе дифференцированных упражнений. Результаты анализа показывают возможность адаптации учебной деятельности к индивидуальным потребностям обучающихся. Научная новизна статьи заключается в систематизации средств дифференциации с позиции организации коммуникативной деятельности студентов, изучающих немецкий язык.

Ключевые слова: дифференцированные упражнения, внутренняя дифференциация, коммуникативная компетенция, немецкий язык, гетерогенная группа, языковой уровень, диагностика.

KIRISH

Chet tilini o'qitish jarayonida bir akademik guruh tarkibidagi ta'lim oluvchilar bilim darajasi, oldingi o'quv tajribasi, motivatsiyasi va o'quv uslubiga ko'ra bir-biridan farq qilishi mumkin. Bunday geterogenlik o'qituvchidan barcha o'rganuvchilarga bir xil topshiriq berish bilan cheklanmay, ularning individual imkoniyatlariga mos faoliyatni tashkil etishni talab qiladi. M. Bryuchova kattalar uchun nemis tili darslarini o'rganar ekan, guruh geterogenligini yuzaga keltiruvchi asosiy omillar sifatida yosh, o'qish motivatsiyasi, o'quv uslubi, oldingi bilim va

erishilgan til darajasini ajratadi [1]. Uning tadqiqotida aynan til darajasi va o‘quv uslublaridagi farqlar o‘rganilgan guruhda yaqqol namoyon bo‘lgan.

V. Letzel esa ichki differensiatsiyani turli didaktik choralarni qamrab oluvchi ko‘p tarkibli tushuncha sifatida o‘rganadi. Uning tadqiqotida topshiriqlarni murakkablik, hajm, bajarish vaqti va taqdim etish shakliga ko‘ra farqlash, turli tarkibdagi guruhlarni shakllantirish, yordam vositalaridan foydalanish hamda o‘quvchi mustaqilligini oshirish ichki differensiatsiyaning asosiy ko‘rinishlari sifatida tadqiq etilgan [2].

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, kommunikativ yo‘nalishdagi nemis tili ta’limida talabalar til vositalaridan turli darajada foydalana oladi. Biroq foydalanilgan manbalarda kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishi bevosita eksperimental o‘zgaruvchi sifatida o‘lchanmagan. Shu sababli mazkur maqolada differensial mashqlarning kommunikativ kompetensiyaga bevosita samarasi isbotlangan deb qaralmaydi, balki mavjud differensiallashtirish turlarining kommunikativ faoliyatni tashkil etishdagi metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqot obyekti – nemis tilini o‘qitish jarayonidagi ichki differensiatsiya.

Tadqiqot predmeti – o‘rganuvchilarning individual xususiyatlari va tayyorgarlik darajasiga mos differensial mashq va topshiriqlar.

Tadqiqot maqsadi – ilmiy manbalar asosida nemis tili ta’limida qo‘llaniladigan differensial mashqlarning asosiy turlarini aniqlash va ularni kommunikativ faoliyatni tashkil etish nuqtayi nazaridan tizimlashtirish.

Tadqiqot vazifalari differensiallashtirishga sabab bo‘luvchi geterogenlik omillarini aniqlash, differensial mashqlar turlarini o‘rganish, ularning qo‘llanish xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish hamda nemis tili ta’limi uchun metodik ahamiyatini belgilashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

M. Brychovaning 2019-yilda Masarik universitetida bajarilgan Binnendifferenzierung im DaF-Unterricht für Erwachsene nomli diplom ishida kattalar uchun nemis tili kurslarida ichki differensiatsiya va geterogen guruh muammosi tadqiq etilgan [1]. Ishda geterogenlikka ta’sir qiluvchi yosh, motivatsiya, o‘quv uslubi va oldingi bilim kabi omillar nazariy jihatdan ko‘rib chiqilgan.

Brychovaning tadqiqotining empirik qismi harakat tadqiqoti – action research asosida qurilgan. Tadqiqot diagnostika, differensiallashtirilgan darsni amalga oshirish va refleksiya bosqichlarini qamrab olgan. Diagnostikada so‘rovnoma, til darajasini aniqlash testi va o‘quv uslubi testi qo‘llangan. Differensiallashtirilgan darsdan so‘ng esa yarim tuzilgan intervyular o‘tkazilib, natijalar Grounded Theory asosida tahlil qilingan [1]. Uning tadqiqotida dastlab 70 nafar o‘qituvchi so‘rovda ishtirok etgan. Ularning barchasi amaliy faoliyatida geterogen guruhga duch kelgan. Respondentlarning 35 foizi “ichki differensiatsiya” terminini eshitmagan bo‘lsa-da, ayrim differensiallashtirish vositalaridan foydalangan, 65 foizi esa ta’limni ongli ravishda differensiallashtira olgan [1].

Tadqiqotning asosiy action research qismi to‘rt nafar kattalar nemis tili kursi tinglovchisi bilan o‘tkazilgan. Ularning til tayyorgarligi va o‘quv uslublari turlicha bo‘lgan. Differensiallashtirilgan mashg‘ulotdan keyingi intervyularda tinglovchilar faoliyatni tanlash, qo‘shimcha vazifalar bajarish va o‘quv vaqtini samarali ishlatish imkoniyatlarini ijobiy baholaganlar [1].

V. Letzelning 2021-yildagi doktorlik dissertatsiyasida esa ichki differensiatsiyaning sekundar maktab amaliyotida qay darajada qo‘llanishi va uning kontekst omillari o‘rganilgan [2]. Tadqiqotda Reynland-Pfalsdagi turli maktablarda nemis va/yoki ingliz tili fanlaridan dars beruvchi 295 nafar o‘qituvchi ishtirok etgan. Letzel differensiallashtirish vositalarini bir necha guruhlarga ajratadi. Ular orasida miqdor va bajarish vaqtiga ko‘ra darajalangan topshiriq va materiallar, murakkablik hamda taqdim etish shakliga ko‘ra sifat jihatidan darajalangan topshiriqlar, gomogen va geterogen guruhlar, yordamchi va tutorlik tizimlari, bosqichli yordam vositalari, Mastery Learning va o‘quvchiga avtonomiya beruvchi usullar mavjud [2]. Letzelning tadqiqoti miqdoriy va keng tanlanmaga asoslanganligi, Brychova tadqiqoti esa kichik guruhdagi nemis tili darsi jarayonini chuqurroq o‘rganishi bilan bir-biridan farq qiladi. Birinchi tadqiqot ichki differensiatsiyaning maktab amaliyotidagi keng ko‘lamli holatini ko‘rsatsa, ikkinchisi muayyan DaF guruhida diagnostika, intervensiya va refleksiya orqali differensiallashtirish jarayonini o‘rganadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Saodat Gayupova individual ta’lim texnologiyalarini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlarni tahlil qilgan. U individual ta’limda talabaning mustaqilligini ta’minlash, unga o‘zi uchun ma’qul metodlarni tanlash imkonini berish, mavjud bilim va salohiyatini hisobga olish hamda o‘qituvchi faoliyatini boshqaruvchi rolidan maslahat beruvchi va tashkil qiluvchi rolga yo‘naltirish zarurligini ko‘rsatadi [3]. Shuningdek, dars jarayonida o‘quv materialining og‘zaki, grafik yoki boshqa shaklini tanlash, muammoli-ijodiy topshiriqlardan foydalanish va topshiriqlarni bajarishning turli yo‘llarini tanlashga imkon yaratish tavsiya etiladi.

S. Gayupovaning maqolasi ushbu tadqiqot mavzusi uchun yana bir muhim jihati bilan ahamiyatlidir. U individual yondashuvga asoslangan didaktik materiallar tarkibiga o‘quv matnlari, topshiriq kartochkalari va didaktik testlarni kiritib, vazifalar mavzu, murakkablik darajasi va foydalanish maqsadiga ko‘ra ko‘p darajali hamda tabaqalashtirilgan shaklda, shuningdek, o‘quv faoliyatining kognitiv, kommunikativ va ijodiy turlarini hisobga

olgan holda ishlab chiqilishini qayd etadi [3]. Bu qarash nemis tili talabalarining kommunikativ faoliyatiga yo'naltirilgan differensial mashqlarni tasniflash uchun bevosita metodik asos bo'la oladi.

O'zbek tadqiqotchilaridan Gulnora Narkuziyeva individual yondashuv asosida ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlarini o'rganib, individual ta'limda o'quv mazmuni, metodlari va ta'lim sur'atini talabaning individual xususiyatlariga moslashtirish muhimligini ta'kidlaydi [4]. Muallif individual ta'lim talabaning mavjud imkoniyatlari va bilim darajasini hisobga olish bilan bir qatorda, uning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratishga xizmat qilishini ko'rsatadi. G. Narkuziyeva individual ta'limda qo'llaniladigan didaktik materiallar qatoriga o'quv matnlari, topshiriq kartochkalari va didaktik testlarni kiritadi. Uning fikricha, topshiriqlar mavzu, murakkablik darajasi va foydalanish maqsadiga ko'ra ishlab chiqilishi, bunda ko'p darajali, differensial va individual yondashuv hamda talabaning yetakchi o'quv faoliyati – kognitiv, kommunikativ yoki ijodiy faoliyat hisobga olinishi zarur [4]. Muallif o'qituvchi topshiriqlarni taqsimlashda talabaning bilimni o'zlashtirish darajasi bilan birga uning kognitiv va shaxsiy xususiyatlarini ham o'rganishi lozimligini qayd etadi.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar o'rtasida umumiy jihat mavjud: ularning barchasida ta'lim oluvchilarning individual farqlarini hisobga olish, topshiriq murakkabligi va mazmunini moslashtirish hamda o'rganuvchiga ma'lum darajada mustaqillik berish muhim deb qaraladi. Brychová va Letzel tadqiqotlari ichki differensiatsiyaning turlari, tashkil etish mexanizmlari va amaliy qo'llanishiga e'tibor qaratsa [1; 2], Gayupova va Narkuziyeva individual yondashuv, ko'p darajali topshiriqlar va kognitiv, kommunikativ hamda ijodiy faoliyatga mos didaktik materiallarni tashkil etish masalasini yoritadi [3; 4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola nazariy-tahliliy xarakterga ega. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, mazmuniy tahlil, tasniflash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil orqali Brychova va Letzel tadqiqotlarining maqsadi, tanlanmasi, tadqiqot usullari, differensiallashtirish mezonlari va natijalari o'zaro taqqoslandi. Mazmuniy tahlilda manbalarda bevosita ko'rsatilgan differensiallashtirish vositalari ajratib olindi. Ular topshiriq miqdori, bajarish vaqti, murakkablik, taqdim etish shakli, guruh tarkibi, yordam darajasi va o'rganuvchi avtonomiyasi asosida tizimlashtirildi.

Brychova tadqiqotidagi diagnostika–intervensiya–refleksiya ketma-ketligi differensial topshiriqlarni o'rganuvchilarning mavjud ehtiyojlariga moslashtirish jarayonini tahlil qilish uchun asos bo'ldi. Letzel tadqiqotidagi differensial choralar taksonomiyasi esa mashq turlarini tasniflashda asosiy mezon sifatida foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili differensial mashqni tanlashdan oldin o'rganuvchilarning mavjud xususiyatlarini aniqlash zarurligini ko'rsatadi. Brychová tadqiqotida bu jarayon yosh, motivatsiya, o'quv uslubi va til darajasini diagnostika qilish orqali amalga oshirilgan [1]. Letzel tadqiqotida ichki differensiatsiya vositalari kengroq tasniflangan. Ushbu tasnif asosida nemis tili ta'limida foydalaniladigan differensial mashq va faoliyat shakllarini quyidagicha tizimlashtirish mumkin(1-jadval):

1-jadval: **Differensiallashtirish turlari va differensial mashqlarning xususiyatlari**

№	Differensiallashtirish turi	Differensial mashq xususiyati
1	**Miqdoriy differensial topshiriqlar**	Topshiriqlar bajariladigan hajm va vaqt bo'yicha farqlanadi
2	**Sifat jihatdan differensial topshiriqlar**	Topshiriqlar murakkabligi va taqdim etish shakliga ko'ra farqlanadi
3	**Gomogen guruhlash**	O'xshash tayyorgarlik darajasidagi o'rganuvchilar bir guruhda ishlaydi
4	**Geterogen guruhlash**	Tayyorgarlik darajasi turlicha o'rganuvchilar birgalikda ishlaydi
5	**Yordamchi va tutorlik tizimi**	Guruh ichida yordam ko'rsatish mexanizmi tashkil etiladi
6	**Bosqichli yordam vositalari**	Yordam o'rganuvchining ehtiyojiga qarab bosqichma-bosqich beriladi
7	**Mastery Learning**	Belgilangan o'quv maqsadiga erishishga qaratiladi
8	**Avtonomiya va tanlov**	O'rganuvchiga faoliyat yoki topshiriqni tanlash imkoniyati beriladi

Letzel tadqiqotida differensiallashtirishning umumiy qo'llanish chastotasi 6 ballik shkala bo'yicha M = 3,32 ni tashkil qilgan. Natijalar differensiallashtirish umuman olganda maktab va fanlar bo'yicha yuqori chastotada qo'llanmasligini ko'rsatgan [2]. Shuningdek, miqdor bo'yicha darajalangan topshiriq va materiallar sifat va murakkablik bo'yicha darajalangan topshiriqlarga nisbatan ko'proq qo'llangan. Mastery Learning hamda yordamchi va tutorlik tizimlari esa nisbatan kam foydalanilgan differensiallashtirish vositalari qatoriga kirgan [2].

Brychova tadqiqotida esa differensiallashtirilgan mashg'ulotning ayrim jihatlari tinglovchilar tomonidan ijobiy baholangan. Xususan, yuqoriroq til darajasiga ega o'rganuvchi qo'shimcha topshiriqlar tufayli boshqalarni kutib turmasdan vaqtini mazmunli ishlata olgan. Boshqa ishtirokchilar differensial ish varaqalarini tanlash va

faoliyatda faolroq ishtirok etish imkoniyatini ijobiy baholaganlar [1]. Biroq Brychovaning natijalari differensial mashqlarni mutlaq individual faoliyat bilan tenglashtirish mumkin emasligini ham ko‘rsatadi. Ayrim ishtirokchilar hamkorlikni yoqtirgani sababli umumiy, differensiallashtirilmagan topshiriqlarni ham bajarishni istaganlar. Demak, differensiallashtirish va o‘zaro hamkorlik bir-birini inkor qiluvchi pedagogik shakllar emas.

Manbalarning qiyosiy tahlili yana bir muhim jihatni ko‘rsatadi: differensial mashqni tanlashda faqat til darajasi bilan cheklanish yetarli emas. Brychova yosh, motivatsiya, o‘quv uslubi va oldingi bilimlarni ham hisobga oladi. Letzel esa differensiallashtirishning qo‘llanishiga o‘qituvchining tayyorligi, o‘ziga ishonchi, differensial ta’limga munosabati, tayyorgarlik sifati va hamkasblar bilan hamkorligi kabi omillar ham bog‘liqligini aniqlagan (2-jadval).

2-jadval: **Brychova va Letzel tadqiqotlarining qiyosiy tavsifi**

Tadqiqot	Tanlanma	Asosiy yo‘nalish	Muhim natija
Brychova, 2019	70 o‘qituvchi; asosiy tadqiqotda 4 tinglovchi	Kattalar DaF kursida ichki differensiatsiya	Til darajasi va o‘quv uslubi farqlari aniqlandi, moslashtirilgan faoliyatning ayrim jihatlari ijobiy baholandi
Letzel, 2021	295 o‘qituvchi	Differensial choralar chastotasi va kontekst omillari	Differensiatsiya tez-tez qo‘llanmaydi, turli choralar qo‘llanish chastotasi bir-biridan farq qiladi

Shu o‘rinda maqola mavzusi nuqtayi nazaridan asosiy chegarani belgilash zarur. Brychova va Letzel tadqiqotlarida kommunikativ kompetensiya alohida ko‘rsatkich sifatida o‘lchanmagan. Shu sababli yuqoridagi natijalar asosida “differensial mashqlar kommunikativ kompetensiyani falon darajada oshiradi” degan empirik xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Biroq ushbu manbalar nemis tili talabalarining kommunikativ faoliyatini tashkil etishda differensial topshiriqlarni ishlab chiqish uchun uchta metodik asosni beradi: o‘rganuvchini oldindan diagnostika qilish, topshiriqlarni turli mezonlarga ko‘ra differensiallashtirish va differensial faoliyat natijalarini keyinchalik baholash.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlil qilingan ilmiy manbalar ichki differensiatsiya o‘rganuvchilar o‘rtasidagi til darajasi, o‘quv uslubi, motivatsiya, oldingi bilim va boshqa individual farqlarni hisobga olish imkonini beruvchi pedagogik yondashuv ekanligini ko‘rsatadi. Letzelning tasnifi asosida differensial mashqlarning miqdoriy va sifat jihatdan darajalangan topshiriqlar, gomogen va geterogen guruhlash, tutorlik tizimlari, bosqichli yordam vositalari, Mastery Learning hamda avtonomiyaga asoslangan faoliyat kabi turlarini ajratish mumkin.

Brychova tadqiqoti differensial darsni tashkil etishda diagnostikaning muhimligini ko‘rsatadi. O‘rganuvchilarning til darajasi va o‘quv uslublaridagi farqlarni oldindan aniqlash topshiriqlarni ularning ehtiyojlariga moslashtirish imkonini beradi. Shu asosda nemis tili ta’limida differensial mashqlarni qo‘llashda avval talabalarning mavjud tayyorgarlik holatini aniqlash, so‘ng topshiriqning hajmi, murakkabligi, bajarish vaqti, taqdim etish shakli va yordam darajasini moslashtirish maqsadga muvofiq.

Biroq mavjud manbalar kommunikativ kompetensiyaning o‘zgarishini bevosita o‘lchamaganligi sababli differensial mashqlarning aynan kommunikativ kompetensiyaga ta’siri bo‘yicha qat’iy empirik xulosa chiqarish mumkin emas. Mazkur masala keyingi tajriba-sinov tadqiqotining alohida predmeti bo‘lishi lozim.

Brychova ham o‘z tadqiqotining vaqt cheklovi sabab faqat bitta differensiallashtirilgan mashg‘ulotni o‘rganganini qayd etib, kelgusida bir nechta dars birliklarini tadqiqotga jalb qilishni tavsiya etadi [1]. Letzel esa kelgusi tadqiqotlarda differensial choralar ta’sirini, turli choralarni birgalikda qo‘llashni, diagnostika–differensiallashtirish–baholash siklini hamda o‘rganuvchi va o‘qituvchi nuqtayi nazarini chuqurroq o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi [2].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brychová, M. (2019). Binnendifferenzierung im DaF-Unterricht für Erwachsene. Diplomarbeit. Brno: Masarykova univerzita.
2. Letzel, V. (2021). Binnendifferenzierung in der Schulpraxis – Eine quantitative Studie zur Einsatzhäufigkeit und zu Kontextfaktoren der Binnendifferenzierung an Sekundarschulen. Dissertation. Trier: Universität Trier.
3. Gayupova, S. (2023). Individual ta’lim texnologiyalarini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlar // Til va adabiyot ta’limi. – 2023. – №3. – B. 41–42. Maqolada individual ta’lim, ko‘p darajali va tabaqalashtirilgan topshiriqlar hamda kommunikativ faoliyatni hisobga olish masalalari yoritilgan.
4. Narkuzieva, G. Z. (2024). Individual yondashuv asosida ta’lim sifatini oshirish imkoniyatlari // Tamaddun Nuri / The Light of Civilization. – 2024. – №4 (55). – B. 244–246.z

BADIIY ASAR USTIDA ISHLASHDA O'QUVCHILAR JAVOBINI BAHOLASHNING INNOVATSION MEZONLARI VA DIAGNOSTIKASI

Kadirova Mashhura Nasirovna
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Maqolada badiiy asar ustida ishlash jarayonida o'quvchilarning erkin va muammoli javoblarini baholashning innovatsion mezonlari yoritiladi. O'quvchi javobini baholashda matnga tayanish, mazmunni anglash, mustaqil fikrlash, dalillash va talqin qilish mezonlarining ahamiyati asoslanadi. Shuningdek, mazkur yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini diagnostika qilish imkoniyatlari ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: badiiy asar, badiiy matn, metodik tayyorgarlik, innovatsion yondashuv, muammoli ta'lim, pragmatik yondashuv, erkin fikrlash, o'quvchi javobi, baholash mezoni, diagnostika, talqin, dalillash.

Abstract: The article presents innovative criteria for evaluating students' open-ended responses and answers based on problem-solving tasks involving literary works. It substantiates the importance of criteria such as grounding the response in the text, comprehension of content, independent thinking, argumentation, and interpretation. Furthermore, the article demonstrates how this approach enables the assessment of the methodological preparedness of future teachers.

Key words: literary work, literary text, methodological preparedness, innovative approach, problem-based learning, pragmatic approach, independent thinking, student response, assessment criteria, diagnostics, interpretation, argumentation.

Аннотация: В статье представлены инновационные критерии оценки ответов студентов открытого типа и ответов, основанных на решении проблемных задач, при работе с литературными произведениями. Обосновывается значимость таких критериев, как опора ответа на текст, понимание содержания, самостоятельность мышления, аргументация и интерпретация. Кроме того, в статье показано, как данный подход позволяет оценить методическую подготовленность будущих учителей.

Ключевые слова: литературное произведение, литературный текст, методическая подготовленность, инновационный подход, проблемное обучение, прагматический подход, самостоятельность мышления, ответ студента, критерии оценки, диагностика, интерпретация, аргументация.

KIRISH

Bugungi ta'lim jarayonida o'quvchining tayyor bilimlarni o'zlashtirishi bilan bir qatorda, mustaqil fikrlashi, o'z nuqtayi nazarini asoslay olishi, muammoli vaziyatlarga munosabat bildirishi va o'z qarashlarini dalillar asosida ifodalashi muhim pedagogik natijalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, adabiyot ta'limida badiiy asarning o'ziga xos tabiati o'quvchidan faqat voqealar ketma-ketligini eslab qolishni emas, balki matnni anglash, badiiy obrazlarni talqin qilish, muallif pozitsiyasini tushunish, turli qarashlarni qiyoslash va asar yuzasidan shaxsiy munosabat hosil qilishni talab etadi.

Badiiy asar ustida ishlash jarayonida o'quvchining fikri ko'pincha yagona javob bilan chegaralanmaydi. Bir badiiy obraz, voqea yoki muammoga nisbatan o'quvchilarning turlicha munosabat bildirishlari tabiiy holatdir. Shu sababli badiiy asar asosida tashkil etilgan muammoli va erkin fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlarni an'anaviy reproduktiv baholash mezonlari asosida tekshirish muayyan metodik muammolarni yuzaga keltiradi. Xususan, o'quvchi tomonidan bildirilgan fikr darslik yoki o'qituvchi tomonidan oldindan belgilangan talqinga to'liq mos kelmasa, uni past baholash o'quvchining mustaqil fikrlash imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, badiiy asar ustida ishlashga o'rgatishda "to'g'ri javob" tushunchasining mazmunini qayta ko'rib chiqish zarur. Bunda masala barcha javoblarni birdek to'g'ri deb qabul qilishda emas, balki turlicha javoblarning badiiy matn bilan aloqadorligi, mazmunan asoslanganligi, mantiqiyligi va mustaqil talqin xususiyatlarini aniqlashdan iborat bo'ladi. Demak, baholash o'quvchining aynan qanday xulosaga kelganidan ko'ra, ushbu xulosaga qanday fikrlash jarayoni orqali kelgani bilan ham bog'liq bo'lishi kerak.

Mazkur muammo bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligiga ham bevosita daxldordir. Chunki bo‘lajak o‘qituvchi badiiy asarni tahlil qilish metodlarini bilish bilan cheklanib qolmasdan, o‘quvchining turli talqinlarini metodik jihatdan baholay olishi, erkin fikr va asossiz fikr o‘rtasidagi farqni aniqlashi, matnga asoslangan individual qarashni rag‘batlantirishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Badiiy asarni o‘qitish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ularning javoblarini metodik jihatdan baholash masalalari pedagogik hamda adabiyot o‘qitish metodikasiga oid tadqiqotlarda muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi.

B. S. Abdullayeva, A. A. Xoliqov va D. R. Farsaxonovaning umumiy pedagogikaga oid ishlarida ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv faoliyatini baholash va pedagogik yondashuvlarning nazariy asoslari yoritilgan.

M. N. Kadirovaning tadqiqotlarida adabiyot va folklorni o‘qitishda kreativ metodlar, innovatsion va raqamli vositalardan foydalanish, shuningdek, o‘quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish masalalariga e’tibor qaratilgan. Ushbu izlanishlar badiiy matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchining faol, mustaqil va ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Qozoqboy Yo‘ldosh va Muhayyo Yo‘ldoshning “O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi” asari hamda M. N. Kadirovaning shu yo‘nalishdagi darsligida adabiy ta’limning metodik asoslari yoritilgan. Mazkur manbalar badiiy asarni tahlil qilish, o‘quvchi faoliyatini tashkil etish va adabiy ta’limda metodik yondashuvlarni takomillashtirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavjud yondashuvlar badiiy asar ustida ishlashda o‘quvchining faqat tayyor mazmunni qayta aytishini emas, balki matnni anglash, dalillash, mustaqil talqin qilish va o‘z fikrini asoslash ko‘nikmalarini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, o‘quvchilarning erkin va muammoli javoblarini matnga tayanish, mazmunni anglash, mustaqil fikrlash, dalillash va talqin qilish kabi aniq mezonlar asosida diagnostika qilish masalasi alohida metodik tadqiqotni talab etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish va diagnostik topshiriqlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Badiiy asar ustida ishlashda o‘quvchi javoblarini baholash mezonlari matnga tayanish, mazmunni anglash, mustaqil fikrlash, dalillash va talqin qilish ko‘rsatkichlari asosida ishlab chiqildi. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash uchun real pedagogik vaziyatlarga asoslangan diagnostik topshiriqlardan foydalanish yondashuvi qo‘llandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyot ta’limida baholashning asosiy obyekti faqat o‘quvchining asar mazmunini qay darajada eslab qolganligi emas, balki uning badiiy matn bilan qanday ishlay olishi bo‘lishi kerak. Chunki badiiy asar o‘zining obrazlilik, ko‘pqatlamlilik, estetik va ma’naviy mazmuni bilan boshqa o‘quv materiallaridan farqlanadi. Bir xil badiiy vaziyatni turli o‘quvchilar turlicha idrok etishi mumkin. Bu tafovutning o‘zi xato emas; aksincha, badiiy asarning o‘quvchi shaxsiy tajribasi bilan faol munosabatga kirishganidan dalolat berishi mumkin.

Shu sababli muammoli ta’lim asosida tashkil etilgan topshiriqlarda o‘qituvchi oldindan faqat bitta javobni belgilab qo‘yishi maqsadga muvofiq emas. Biroq bu o‘quvchining istalgan fikrini baholash uchun yetarli degani ham emas. Erkin fikrning pedagogik qiymati uning asoslanganligi bilan belgilanadi.

Masalan, o‘quvchiga “Asardagi qahramonning qarorini qanday baholaysiz?” degan muammoli savol berilganida, bir o‘quvchi qahramonning qarorini ma’qullashi, boshqa o‘quvchi esa uni ma’qullamasligi mumkin. Agar har ikkala o‘quvchi ham o‘z qarashini asardagi voqealar, obraz xarakteri yoki muayyan badiiy detal bilan asoslay olsa, ularning javoblarini faqat xulosaning farqliligi sababli turlicha baholash metodik jihatdan asosli bo‘lmaydi.

Bunday vaziyatda baholashning asosiy savoli “O‘quvchi qaysi fikrni aytdi?” emas, balki “O‘quvchi o‘z fikrini qanday asosladi?” bo‘lishi kerak. Mazkur yondashuv baholash jarayonini reproduktiv nazoratdan tahliliy-diagnostik faoliyatga olib keladi.

Badiiy asar ustida ishlashda pragmatik yondashuv o‘quvchining matnni o‘z hayotiy tajribasi, ehtiyoji, qiziqishi, bilimlari va real vaziyatlar bilan bog‘lay olish imkoniyatini hisobga olishni nazarda tutadi. Bunda badiiy asar faqat o‘rganilishi kerak bo‘lgan estetik obyekt sifatida emas, balki o‘quvchining fikrlashi, muloqoti, qaror qabul qilishi va hayotiy vaziyatlarni anglashiga xizmat qiluvchi mazmuniy manba sifatida namoyon bo‘ladi.

Masalan, asardagi qahramonning tanlovi haqida fikr bildirish topshirig‘ida o‘quvchi o‘zining hayotiy tajribasi bilan matndagi vaziyatni bog‘lashi mumkin. Bunday javobni baholashda uning shaxsiy tajribasi qanchalik “to‘g‘ri” ekanidan ko‘ra, o‘quvchi ushbu tajribani badiiy asar mazmuni bilan qanday bog‘laganiga e’tibor qaratish muhim.

Pragmatik yondashuv baholashda o‘quvchining individual fikrlash yo‘lini hisobga olishga imkon beradi. Masalan, o‘quvchi qahramonning xatti-harakatini boshqa bir fan doirasidagi tushuncha bilan qiyoslashi, ijtimoiy vaziyat bilan bog‘lashi yoki o‘z tajribasi asosida izohlashi mumkin. Agar bunday izoh badiiy matn mazmunini buzmasa va tegishli dalillar bilan asoslangan bo‘lsa, u yuqori darajadagi fikrlash faoliyati sifatida baholanishi mumkin.

Muammoli ta’limning muhim xususiyati o‘quvchini tayyor xulosani qabul qilishga emas, muammo ustida fikrlashga undashdan iborat. Badiiy asar ta’limida muammoli vaziyat obrazning qarori, asardagi konflikt, muallif pozitsiyasi, qahramonning ichki kechinmasi yoki voqeaning boshqa tarzda rivojlanishi mumkinligi kabi masalalar asosida yaratilishi mumkin.

Bunday topshiriqlarda o‘quvchi javobini baholashda quyidagi metodik tamoyilni asoslash mumkin: xulosaning bir xilligi emas, fikrning matniy asoslanganligi baholanadi.

Masalan, “Qahramon nima uchun bunday yo‘l tutdi?” savoliga o‘quvchilarning javoblari turlicha bo‘lishi mumkin. Bir o‘quvchi buni qahramonning xarakteri bilan, ikkinchisi muhit ta’siri bilan, uchinchisi esa avvalgi voqealar bilan izohlashi mumkin. Agar ularning har biri o‘z fikrini asar dalillari bilan asoslay olsa, turli xulosalar yuqori darajadagi javob sifatida baholanishi mumkin.

Biroq o‘quvchining “erkin fikri” matn mazmunidan butunlay uzilib qolmasligi kerak. Masalan, asarda sodir bo‘lmagan voqeani sodir bo‘lgan deb ko‘rsatish, obrazga matnda mavjud bo‘lmagan xususiyatni asossiz yuklash yoki muammoli savolga aloqasiz javob berish yuqori darajadagi talqin sifatida baholanmaydi. Chunki erkin fikrlash chegarasiz fikrlash emas, balki badiiy matn imkoniyatlari doirasida mustaqil va asoslangan fikrlashdir.

Badiiy asar ustida ishlashga yo‘naltirilgan erkin va muammoli topshiriqlar uchun baholash mezonlarini quyidagi tizim asosida shakllantirish mumkin:

1. O‘quvchi o‘z fikrini badiiy asar voqealari, obrazlar, badiiy detallar yoki matndagi boshqa dalillar bilan bog‘lay olishi;
2. O‘quvchining asar voqealarini mexanik qayta hikoyalashi emas, balki ularning mazmuniy va sabab-oqibat munosabatlarini tushunganligini aniqlash;
3. O‘quvchi topshiriqda qo‘yilgan muammoni to‘g‘ri tushunib, o‘z fikrini aynan shu muammo doirasida shakllantira olishi;
4. Javob tayyor xulosani takrorlamasdan, o‘quvchining o‘z fikrlash natijasini aks ettirishi bilan baholashi;
5. Fikr va keltirilgan dalil o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlik aniqlash;
6. O‘quvchining badiiy obraz, voqea yoki muammoni shunchaki qayta aytmasdan, unga mazmuniy izoh bera olishi;
7. O‘quvchining o‘z fikrini umumlashtirishi, xulosalashi va zarur hollarda o‘z qarashini qayta ko‘rib chiqishi hisobga olinadi.

Mazkur baholash mezonlarini o‘quv jarayoniga joriy etish uchun, avvalo, bo‘lajak o‘qituvchining o‘quvchi javobini metodik jihatdan tahlil qila olish tayyorgarligini aniqlash zarur. Chunki talaba badiiy asarni tahlil qilishni bilishi mumkin, ammo o‘quvchining erkin javobini obyektiv baholash mexanizmini egallamagan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o‘rgatish metodik tayyorgarligini aniqlashda nazariy savollardan ko‘ra, real pedagogik vaziyatlarga asoslangan diagnostik topshiriqlardan foydalanish samarali hisoblanadi. Bunday topshiriqlar bo‘lajak o‘qituvchining nafaqat badiiy asar mazmunini bilishi, balki o‘quvchining individual fikrini anglash, uni matn asosida baholash va turlicha talqinlarga metodik munosabat bildirish qobiliyatini aniqlash imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, 6-sinf adabiyot ta’limida o‘rganiladigan Lengston Hyuzning “Rahmat sizga, xonim” hikoyasi asosida quyidagi muammoli topshiriqni taklif etish mumkin:

Muammoli topshiriq: “Rojer Luella xonimning sumkasini o‘g‘irlashga uringanidan keyin undan jazodan ko‘ra mehr va ishonch ko‘rdi. Sizningcha, xonimning Rojerga nisbatan tutgan munosabati to‘g‘ri bo‘lganmi?”

Mazkur topshiriqning o‘ziga xosligi shundaki, u o‘quvchidan asar mazmunini qayta hikoya qilishni emas, balki qahramonning xatti-harakatiga mustaqil baho berish va ushbu bahoni badiiy matn bilan asoslashni talab etadi. Shu sababli topshiriqqa nisbatan o‘quvchilarning javoblari bir xil bo‘lishi shart emas.

Masalan, birinchi o‘quvchi quyidagicha javob berishi mumkin:

1-o‘quvchi: “Men xonimning Rojerga nisbatan tutgan munosabatini to‘g‘ri deb hisoblayman. Chunki u bolani faqat jazolash bilan cheklanmaydi, balki uning nima sababdan bunday ish qilganini anglashga harakat qiladi. U Rojerga ovqat beradi, suhbatlashadi va unga ishonch bildiradi. Natijada Rojer o‘z xatosini anglay boshlaydi.”

Ikkinchi o‘quvchi esa mazkur vaziyatga boshqacha nuqtayi nazardan yondashishi mumkin:

2-o‘quvchi: “Men xonim Rojerga nisbatan haddan tashqari yumshoq munosabatda bo‘lgan deb hisoblayman. Chunki Rojer uning sumkasini o‘g‘irlashga uringan. Bunday vaziyatda u bolaning xatosini aniqroq tushuntirishi yoki qilgan ishining oqibati haqida jiddiyroq gapirishi kerak edi. Shunga qaramay, xonimning unga ishonch bildirishi Rojerning keyingi xatti-harakatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini hikoya yakunidan ko‘rish mumkin.”

Mazkur ikki javob mazmunan bir-biridan farq qiladi. Birinchi o‘quvchi xonimning mehribonlik va ishonchga asoslangan munosabatini qo‘llab-quvvatlasa, ikkinchi o‘quvchi uning tarbiyaviy yondashuvida yumshoqlik mavjudligini ta’kidlaydi. Biroq ikkinchi javobni birinchi javobdan avtomatik ravishda past baholash metodik jihatdan to‘g‘ri emas. Chunki ikkinchi o‘quvchi ham o‘z fikrini asardagi vaziyat bilan bog‘lagan va shu bilan birga hikoya yakunidagi Rojerning o‘zgarishini ham hisobga olgan.

Demak, bu vaziyatda o‘qituvchi quyidagi savolga javob izlashi lozim:

“O‘quvchi o‘qituvchining kutilgan xulosasini aytdimi yoki o‘z fikrini badiiy matn asosida asoslay oldimi?”

Agar baholash faqat oldindan belgilangan xulosaga moslik asosida amalga oshirilsa, birinchi javob yuqori, ikkinchi javob esa past baholanishi mumkin. Bunday yondashuv esa muammoli ta’limning mohiyatiga zid bo‘lib, o‘quvchining mustaqil fikrlash imkoniyatini cheklaydi.

Innovatsion baholashda esa har ikki javobning quyidagi jihatlari tahlil qilinadi: asar mazmunini anglash, muammoli vaziyatni tushunish, fikrning mustaqilligi, matnga tayanish, dalillash va xulosa chiqarish.

Shu asosda birinchi o‘quvchining javobi tahlil qilinganda, u xonimning harakatlarini hikoyadagi aniq voqealar bilan bog‘layotgani, Rojerga ovqat berishi va unga ishonch bildirishi kabi epizodlardan foydalanayotgani ko‘rinadi. Demak, uning javobida matniy asos, mazmunni anglash va mustaqil xulosa mavjud.

Ikkinchi o‘quvchi esa avvalo Rojerning qilgan ishiga e’tibor qaratib, xonimning munosabatini tanqidiy nuqtayi nazardan baholaydi. Biroq u hikoyaning keyingi rivoji orqali xonimning ishonchi Rojerga ta’sir ko‘rsatganini ham e’tirof etadi. Shunday qilib, bu javobda ham matnni anglash, sabab-oqibat munosabatini ko‘rish va mustaqil talqin mavjud.

Shu sababli ikkala javob ham yuqori darajadagi javob sifatida baholanishi mumkin. Bu yerda yuqori bahoning berilishiga o‘quvchilarning bir xil fikr bildirgani emas, balki turlicha fikrlarni badiiy matn asosida asoslay olgani sabab bo‘ladi.

Biroq baholashda muhim bir chegarani saqlash zarur. Masalan, uchinchi o‘quvchi:

3-o‘quvchi: “Men xonimning qilgan ishini to‘g‘ri deb hisoblayman, chunki u yaxshi inson. Rojer ham yaxshi bola”, degan javobni bersa, bu fikrni shaxsiy munosabat sifatida qabul qilish mumkin, ammo uni yuqori darajadagi javob deb baholash uchun asos yetarli emas. Chunki o‘quvchi o‘z fikrini asardagi aniq voqealar bilan asoslamagan.

Demak, erkin javobning mavjudligi o‘z-o‘zidan yuqori bahoga asos bo‘lmaydi. Yuqori baho uchun erkin fikrning badiiy matnga tayanganligi, asar mohiyatini anglash bilan bog‘langanligi va dalillar orqali asoslanganligi talab etiladi.

Mazkur vaziyat bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini diagnostika qilish uchun ham muhim imkoniyat yaratadi. Talabalarga yuqoridagi uchta o‘quvchi javobi taqdim etilib, quyidagi topshiriq beriladi:

“Har bir o‘quvchi javobini baholang. Ularning qaysi jihatlari yuqori, o‘rta yoki quyi darajadagi javob sifatida baholanishi mumkinligini izohlang. Baholash qaroringizni aniq mezonlar asosida asoslang.”

Bunda bo‘lajak o‘qituvchining metodik tayyorgarligi uch jihatdan aniqlanadi. Birinchidan, u o‘quvchining javobida asar mazmuni qay darajada anglanganini aniqlashi kerak. Ikkinchidan, u o‘quvchining fikri matn bilan dalillangan yoki dalillanmaganini farqlashi lozim. Uchinchidan, u o‘quvchining o‘qituvchi yoki darslikdagi tayyor xulosani takrorlashi bilan mustaqil talqin yaratishi o‘rtasidagi farqni anglay olishi zarur.

Shu bilan birga, o‘quvchining xulosasi o‘qituvchi kutgan xulosadan farq qilishi uning javobini past baholash uchun yetarli asos hisoblanmaydi. Agar o‘quvchi asar mohiyatini anglagan, muammoli vaziyatni to‘g‘ri tushungan va o‘z qarashini matn asosida izchil dalillagan bo‘lsa, uning javobi yuqori bahoga munosib bo‘lishi mumkin. Bunda muhim metodik xulosa shundan iboratki, bitta muammoli savolga berilgan javoblarning xulosasi turlicha bo‘lishi ularni avtomatik ravishda turli darajada baholash uchun asos bo‘la olmaydi. Agar o‘quvchi o‘z fikrini asar voqealari va badiiy dalillar bilan asoslay olsa, asar mohiyatini anglagan bo‘lsa va muammoga mustaqil munosabat bildirsa, uning javobi yuqori darajada baholanishi mumkin. Aksincha, tayyor “to‘g‘ri javob”ni takrorlashning o‘zi yuqori natijani kafolatlamaydi.

Shu asosda bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini diagnostika qilishda ularning o‘quvchi javobini baholay olish qobiliyatini alohida ko‘rsatkich sifatida ajratish taklif etiladi. Bunday diagnostika bo‘lajak o‘qituvchining nafaqat badiiy asarni tahlil qilish, balki o‘quvchining badiiy matn bilan ishlash jarayonini kuzatish, erkin fikrni metodik jihatdan baholash va individual talqinni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyasini aniqlash imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Natijada badiiy asar ustida ishlashda baholashning mazmuni "o'quvchi qanday javob berdi?" degan savoldan "o'quvchi o'z javobini badiiy matn asosida qanday qurdi?" degan metodik savolga ko'chadi. Aynan mana shu o'zgarish bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion metodik tayyorgarligini takomillashtirishning muhim sharti sifatida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib, badiiy asar ustida ishlashda o'quvchi javobini uning tayyor xulosaga mosligi bilan emas, balki matnga tayanishi, mazmunni anglash darajasi, mustaqil fikrlashi, dalillashi va asosli talqini bilan baholash bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion metodik tayyorgarligini takomillashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva B.S., Xoliqov A.A., Farsaxonova D.R. Umumiy pedagogika. Darslik. 2021.
2. Kadirova M.N. Creative methods of organizing interesting lessons in oralfolk literature in comprehensive schools. https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/120662
3. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. https://staff.tiiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf
4. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410
5. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610
6. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'dosh. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. T. "ShafoatNurFayz", 2023
7. Kadirova M.N. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. Darslik. T.- O'zMPU, 2025.
8. https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/92278
9. https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/120662

TALABALARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI VA KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA PSIXOLOGIK TAYYORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Xamrayeva Aziza Farhadovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, (Phd)

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak pedagoglarning emotsional intellekti va ularning kasbiy-pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi o'rtasidagi nazariy bog'liqlik tahlil qilinadi. Pedagogik faoliyatning emotsiogen xususiyatlari hamda o'qituvchilik kasbi uchun zarur bo'lgan emotsional kompetensiyalar aniqlanadi. Emotsional intellekt komponentlarining kasbiy-pedagogik tayyorlikning tarkibiy qismlari (motivatsion, mazmuniy, operatsional va shaxsiy) bilan o'zaro aloqadorligi ilmiy-nazariy jihatdan asoslanadi. Bo'lajak o'qituvchilarning emotsional intellektini kasbiy tayyorgarlik jarayoniga integratsiyalashgan holda rivojlantirish yo'llari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, kasbiy-pedagogik tayyorlik, bo'lajak o'qituvchi, pedagogik faoliyat, emotsional kompetentlik, kasbiy identifikatsiya.

Abstract: This article analyzes the theoretical relationship between prospective teachers' emotional intelligence and their psychological readiness for professional pedagogical activity. It identifies the emotion-eliciting characteristics of pedagogical activity and the emotional competencies required for the teaching profession. The interrelationships between the components of emotional intelligence and the structural dimensions of professional pedagogical readiness (motivational, content-related, operational, and personal) are theoretically substantiated. The article proposes approaches to developing prospective teachers' emotional intelligence through its integration into the process of professional preparation.

Key words: emotional intelligence, professional pedagogical readiness, prospective teachers, pedagogical activity, emotional competence, professional identification.

Аннотация: В статье анализируется теоретическая взаимосвязь между эмоциональным интеллектом будущих педагогов и их психологической готовностью к профессионально-педагогической деятельности. Выявляются эмоциогенные особенности педагогической деятельности и эмоциональные компетенции, необходимые для осуществления профессиональной деятельности учителя. С научно-теоретических позиций обосновывается взаимосвязь компонентов эмоционального интеллекта со структурными составляющими профессионально-педагогической готовности (мотивационной, содержательной, операциональной и личностной). Предлагаются пути развития эмоционального интеллекта будущих учителей посредством его интеграции в процесс профессиональной подготовки.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, профессионально-педагогическая готовность, будущий учитель, педагогическая деятельность, эмоциональная компетентность, профессиональная идентификация.

KIRISH

Pedagogik faoliyat o'z tabiatiga ko'ra yuqori darajada emotsiogen faoliyat turlaridan biri hisoblanadi: o'qituvchi kundalik faoliyatida turli xil emotsional vaziyatlar (o'quvchining muvaffaqiyatsizligi, ziddiyatli holatlar, ota-onalar bilan muloqot, kasbiy charchoq) bilan muntazam to'qnash keladi [6]. Shu sababli bo'lajak o'qituvchining kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorligi nafaqat uning nazariy bilimlari va metodik ko'nikmalari, balki emotsional barqarorligi va emotsional intellekt darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

An'anaviy yondashuvda kasbiy-pedagogik tayyorlik ko'proq bilim, ko'nikma va malaka (BKM) nuqtayi nazaridan tadqiq qilib kelingan, biroq zamonaviy psixologik-pedagogik tadqiqotlarda kasbga psixologik tayyorlikning emotsional-shaxsiy komponentiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bo'lajak o'qituvchining o'z emotsiyalarini boshqara olishi, o'quvchi va hamkasblarining emotsional holatini tushunishi uning kasbiy faoliyatda barqaror, samarali va o'quvchi bilan ishonchli munosabat o'rnata oladigan mutaxassis bo'lib shakllanishining muhim shartidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kasbiy-pedagogik tayyorlik muammosi pedagogik psixologiyada an'anaviy ravishda motivatsion, mazmuniy (bilim), operatsional (ko'nikma) va shaxsiy komponentlar orqali tadqiq qilinadi. Emotsional intellekt nazariyasi [1; 2; 3; 4] esa kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatni emotsiyalarni anglash va boshqarish qobiliyati orqali izohlaydi.

R. Sutton va K. Uitli o'qituvchilarning emotsiyalari va o'qitish faoliyati bo'yicha keng ko'lamli adabiyotlar tahlilini o'tkazib, pedagogik faoliyatning emotsional yuklamasi kasbiy barqarorlikka bevosita ta'sir qilishini ko'rsatgan [6]. Biroq ushbu ikki yo'nalish - kasbiy-pedagogik tayyorlik nazariyasi va emotsional intellekt konsepsiyasi - o'zaro nisbatan alohida rivojlanib kelgan bo'lib, ularning integrativ tahlili hozirgi kunda yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Mahalliy olimlar tomonidan ham bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-shaxsiy rivojlanishi tadqiq qilingan. Sh.A. Shakarboyeva bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy o'zini o'zi takomillashtirishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganib, bu jarayonda shaxsning emotsional-irodaviy sifatlari muhim rol o'ynashini ko'rsatgan [7].

S.X. Shotemirov talabalarning notiqlik mahorati va ritorik kompetentligini shakllantirishda pedagogik-psixologik hamda emotsional holatlarni tahlil qilib, kasbiy muloqot faoliyatida emotsional o'zini o'zi boshqarishning ahamiyatini asoslagan [8].

A. Sharofitdinov esa emotsional intellekt tushunchasining psixologik tavsifini umumlashtirib, uni shaxsning kasbiy shakllanishi bilan bog'liq holda talqin qilgan [9].

Bu tadqiqotlar bo'lajak pedagogning kasbiy shakllanishida emotsional komponentning alohida o'rin tutishini mahalliy ta'lim muhiti misolida tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi - talabalarning emotsional intellekti bilan ularning kasbiy-pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi o'rtasidagi nazariy bog'liqlikni asoslash va bu bog'liqlikni hisobga oluvchi rivojlantirish yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

adqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy-taqqoslash va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Kasbiy-pedagogik tayyorlik tuzilishini tahlil qilishda an'anaviy to'rt komponentli model (motivatsion, mazmuniy, operatsional, shaxsiy) asos qilib olindi. Emotsional intellekt tarkibini tahlil qilishda Goleman va Bar-On modellaridagi besh komponentli tuzilma (o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya, empatiya, ijtimoiy ko'nikmalar) qo'llanildi [2; 4]. Ikki tizim o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun konseptual-korrelyatsion tahlil (nazariy darajada har bir komponentning funksional mos kelishini aniqlash) metodidan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Pedagogik faoliyatning emotsiogen xususiyatlari

Tahlil [6] shuni ko'rsatdiki, pedagogik faoliyat quyidagi emotsional yuklamalar bilan tavsiflanadi: doimiy ijtimoiy nazorat ostida ishlash (o'quvchilar, ota-onalar, hamkasblar oldida), yuqori mas'uliyat va natija uchun javobgarlik, tez-tez o'zgarib turadigan pedagogik vaziyatlarga zudlik bilan reaksiya berish zarurati, hissiy "kuyish" (emotsional burnout) xavfi. Bu xususiyatlar bo'lajak o'qituvchidan yuqori darajadagi emotsional kompetentlikni talab qiladi.

Kasbiy-pedagogik tayyorlik komponentlari bilan EI ning o'zaro bog'liqligi. Tahlil natijasida quyidagi funksional bog'liqlik aniqlandi:

Motivatsion komponent (kasbga qiziqish, ichki motivatsiya) EI ning motivatsiya komponenti bilan bevosita bog'liq [2] - o'z ichki resurslaridan foydalana oladigan talaba kasbiy qiyinchiliklarga chidamliroq bo'ladi.

Mazmuniy komponent (nazariy bilimlar) EI ning o'z-o'zini anglash komponenti orqali chuqurlashadi [1] - o'z bilim va cheklovlarini anglagan talaba o'qitishga ongli yondashadi.

Operatsional komponent (metodik ko'nikmalar) EI ning ijtimoiy ko'nikmalar va empatiya komponentlari bilan uyg'unlashadi [3] - samarali metodika nafaqat "nima o'rgatish"ni, balki "kimga va qanday" o'rgatishni tushunishni talab qiladi.

Shaxsiy komponent (kasbiy sifatlar, pedagogik yo'nalganlik) EI ning o'z-o'zini boshqarish komponenti bilan chambarchas bog'liq [4] - barqaror kasbiy pozitsiya emotsional o'z-o'zini nazorat qilish asosida shakllanadi.

Rivojlantirish yo'nalishlari. Yuqoridagi tahlil, shuningdek, mahalliy tadqiqotlar natijalari [7; 8] asosida bo'lajak o'qituvchilarda EI ni kasbiy tayyorgarlik jarayoniga integratsiyalashgan holda rivojlantirishning quyidagi yo'nalishlari taklif etiladi:

a) pedagogik amaliyot davomida emotsional vaziyatlarni tahlil qiluvchi refleksiv kundaliklar yuritish;

b) “qiyin pedagogik vaziyat” keyslarini hal qilish orqali empatiya va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini mashq qildirish;

d) mikroo‘qitish (microteaching) mashg‘ulotlariga emotsional o‘zini tutish va nutq intonatsiyasini nazorat qilish elementlarini kiritish;

e) kasbiy amaliyot yakunida emotsional o‘z-o‘zini baholash va mentordan konstruktiv fikr-mulohaza olish tizimini joriy etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlil talabalarning emotsional intellekti va kasbiy-pedagogik faoliyatga psixologik tayyorligi o‘rtasida uzviy funksional bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi: kasbiy tayyorlikning har bir an’anaviy komponenti (motivatsion, mazmuniy, operatsional, shaxsiy) EI ning mos komponenti orqali chuqurlashadi va mustahkamlanadi [1–4]. Bu bog‘liqlik shuni anglatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash tizimida emotsional intellektni rivojlantirish alohida qo‘shimcha vazifa emas, balki kasbiy-pedagogik tayyorlikning ajralmas, integral qismi sifatida qaralishi lozim.

Mahalliy tadqiqotlar [7; 8] bu xulosani O‘zbekiston oliy ta’lim muhiti misolida tasdiqlaydi. Taklif etilgan rivojlantirish yo‘nalishlari (refleksiv kundalik, keys-stadi, mikroo‘qitish (microteaching), mentorlik) pedagogik oliygohlar amaliyotida qo‘llanilishi mumkin. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu bog‘liqlikni empirik tekshirish (masalan, EI darajasi va kasbiy tayyorlik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi statistik korrelyatsiyani aniqlash) dolzarb yo‘nalish bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Salovey, P., & Mayer, J. D. Emotional intelligence // Imagination, Cognition and Personality. - 1990. - Vol. 9, No. 3. - P. 185–211.
2. Goleman, D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. - New York: Bantam Books, 1995.
3. Goleman, D. Working with Emotional Intelligence. - New York: Bantam Books, 1998.
4. Bar-On, R. The Bar-On model of emotional-social intelligence // Psicothema. - 2006. - Vol. 18. - P. 13–25.
5. Mayer, J. D., Salovey, P., & Caruso, D. R. Emotional intelligence: Theory, findings, and implications // Psychological Inquiry. - 2004. - Vol. 15, No. 3. - P. 197–215.
6. Sutton, R. E., & Wheatley, K. F. Teachers’ emotions and teaching: A review of the literature and directions for future research // Educational Psychology Review. - 2003. - Vol. 15, No. 4. - P. 327–358.
7. Shakarboeva Sh.A. Bo’lajak o’qituvchilarning kasbiy o’zini o’zi takomillashtirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. - Jizzax davlat pedagogika universiteti, Umumiy psixologiya kafedrasi, 2023.
8. Shotemirov S.X. Talabalarning ritorik kompetentligini oshirish va notiqlik mahoratini shakllantirishda pedagogik-psixologik hamda emotsional holatlarni tahlil qilish // Pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar jurnali. - 2024. - T. 3, № 12. - B. 144–147.
9. Sharofitdinov A. Emotsional intellekt tushunchasining psixologik tavsifi // Pedagogika va psixologiyaning zamonaviy ta’limdagi jurnali (JDPU). - 2023. - T. 3, № 1.

УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ: ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ И МЕХАНИЗМЫ РЕАЛИЗАЦИИ

Сабирова Шахноза Шавкатовна
и. о. доцента совместного Белорусско-Узбекского межотраслевого института прикладных технических квалификаций

Аннотация: В статье анализируются теоретико-методологические аспекты управления инновационными процессами в сфере высшего образования. Выделены основные векторы управления инновациями, определены педагогические и организационно-управленческие факторы успешного внедрения инноваций. Теоретически обоснована целесообразность проведения диагностики потребностей, планирования, реализации, контроля и корректировки инновационного процесса. Разработана модель управления инновационным процессом вуза.

Ключевые слова: управление, высшее образование, инновационные процессы, педагогические условия, образовательная среда.

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim sohasidagi innovatsion jarayonlarni boshqarishning nazariy-metodologik jihatlari tahlil qilingan. Innovatsiyalarni boshqarishning asosiy vektorlari ajratilgan, innovatsiyalarni muvaffaqiyatli joriy etishning pedagogik va tashkiliy-boshqaruv omillari aniqlangan. Innovatsion jarayon ehtiyojlarini diagnostika qilish, uni rejalashtirish, amalga oshirish, nazorat qilish va tuzatishning maqsadga muvofiqligi nazariy jihatdan asoslangan. Oliy ta'lim muassasasidagi innovatsion jarayonni boshqarish modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, oliy ta'lim, innovatsion jarayonlar, pedagogik sharoitlar, ta'lim muhiti.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological aspects of managing innovation processes in higher education. The main vectors of innovation management are identified, and the pedagogical and organizational-managerial factors contributing to the successful implementation of innovations are determined. The expediency of diagnosing needs, planning, implementing, monitoring, and adjusting the innovation process is theoretically substantiated. A model for managing the innovation process in a higher education institution is developed.

Key words: management, higher education, innovation processes, pedagogical conditions, educational environment.

ВВЕДЕНИЕ

Высшая школа сегодня функционирует в динамично меняющемся мире, характеризующемся непрерывным развитием технологий, трансформацией общественных отношений и изменением требований к профессиональной деятельности. Цифровизация, развитие искусственного интеллекта, внедрение новых образовательных технологий и возрастающая потребность в формировании у выпускников новых компетенций обусловливают необходимость комплексной организации процессов инновационного развития вуза. В то же время реализация отдельных инновационных мероприятий может оказаться недостаточно эффективной. Результативность инноваций определяется степенью адаптивности образовательной организации, качеством управленческих решений, уровнем квалификации педагогических работников, состоянием материально-технической базы и эффективностью системы контроля результатов деятельности. Следовательно, управление инновационной деятельностью в сфере высшего образования представляет собой не только администрирование нововведений, но и системную проектную деятельность, направленную на создание, внедрение, оценку и дальнейшее развитие инноваций.

Актуальность исследования обусловлена необходимостью построения такой системы управления, при которой цели инновационного процесса будут согласованы с интересами обучающихся, педагоги-

ческих работников и образовательной организации в целом. Методологическую основу исследования составили системный, процессный, деятельностный и компетентностный подходы. В исследовании использовались методы анализа научно-педагогической литературы, сравнительного анализа, обобщения педагогического опыта, педагогического моделирования и экспертной оценки. Системный подход позволил рассмотреть инновационный процесс как совокупность взаимосвязанных компонентов. Процессный подход использовался для определения последовательности управленческих действий. Деятельностный подход позволил учитывать активное участие преподавателей и студентов в реализации инноваций.

ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ ПО ТЕМЕ

На основе анализа работ В. А. Сластенина [1] и И. Ф. Исаевой [1] при построении модели управления были определены пять основных стадий: диагностика – планирование – реализация – контроль – коррекция. На основе теоретического анализа работ А. В. Хуторского [2] сформулировано понятие управления инновационной деятельностью вуза как управляемого процесса выявления потребности в изменениях, разработки решений выявленных проблем, организации их реализации, контроля результатов и дальнейшего совершенствования инновационной деятельности. Установлено, что эффективное управление инновациями состоит из нескольких взаимосвязанных стадий, а не ограничивается единовременным внедрением новой методики или технологии [3].

Диагностика – определение проблем, образовательных потребностей, имеющихся ресурсов и степени готовности участников образовательного процесса к изменениям.

Планирование – разработка плана инновационной деятельности, определение задач, ожидаемых результатов, потребности в ресурсах и ответственных за реализацию мероприятий.

Реализация – применение разработанных образовательных технологий и организационно-методических мероприятий в практической деятельности вуза. Контроль – систематический мониторинг результатов инновационной деятельности, выявление возникающих проблем и оценка степени достижения поставленных целей.

Коррекция – внесение необходимых изменений с целью устранения выявленных недостатков, повышения результативности и дальнейшего совершенствования инновационной деятельности.

МЕТОДОЛОГИЯ ИССЛЕДОВАНИЯ

Методологическую основу исследования составили системный, процессный, деятельностный и компетентностный подходы, позволяющие рассматривать управление инновационными процессами в высшем образовании как целостную систему взаимосвязанных организационно-педагогических и управленческих действий. Системный подход использовался для определения структуры инновационного процесса, его основных компонентов и взаимосвязей между ними. Процессный подход позволил рассмотреть управление инновационной деятельностью как последовательность взаимосвязанных этапов: диагностики, планирования, реализации, мониторинга и коррекции. Деятельностный подход был применён для анализа роли преподавателей и обучающихся в разработке, внедрении и оценке инноваций. Компетентностный подход позволил определить требования к профессиональной готовности педагогических работников и управленческого персонала к реализации инновационных изменений. В рамках исследования были использованы методы анализа и обобщения научно-педагогической литературы, сравнительного анализа, систематизации теоретических положений, изучения и обобщения педагогического опыта, а также педагогического моделирования. Анализ научной литературы был направлен на выявление основных теоретических подходов к управлению инновационной деятельностью в высшем образовании и определение педагогических условий её эффективной организации. Сравнительный анализ позволил сопоставить различные подходы к планированию, реализации и оценке инновационных процессов.

Педагогическое моделирование применялось для разработки структурно-функциональной модели управления инновационным процессом в вузе. При построении модели учитывались целевой, содержательный, организационно-процессуальный, ресурсный, диагностико-мониторинговый и результативно-коррекционный компоненты. Особое внимание уделялось взаимосвязи между готовностью педагогических работников к изменениям, вовлечённостью обучающихся, ресурсным обеспечением и результативностью внедряемых инноваций. Исследование проводилось поэтапно. На диагностическом этапе определялись образовательные потребности, существующие проблемы, ресурсные возможности и степень готовности участников образовательного процесса к инновационным изменениям. На этапе планирования формулировались цели и задачи инновационной деятельности, определялись ожида-

емые результаты, необходимые ресурсы и ответственные исполнители. На этапе реализации анализировались особенности внедрения новых образовательных технологий, организационно-методических решений и цифровых инструментов. На этапе мониторинга оценивались результаты инновационной деятельности, выявлялись возникающие проблемы и определялась степень достижения поставленных целей. На заключительном этапе осуществлялась коррекция содержания и механизмов инновационного процесса с учётом полученных результатов.

АНАЛИЗ И РЕЗУЛЬТАТЫ

В результате проведённого исследования установлено, что управление инновационным процессом в высшем образовании представляет собой циклическую систему, включающую следующие взаимосвязанные этапы: диагностика – планирование – реализация – мониторинг – коррекция – повторное планирование. По результатам исследования определены ключевые факторы эффективной организации управления инновационной деятельностью: целеполагание; кадровый потенциал и готовность педагогических работников к изменениям; материально-техническое и ресурсное обеспечение; вовлечённость преподавателей и обучающихся в инновационную деятельность; информационное сопровождение; систематический контроль и оценка достигнутых результатов [4]. Особое значение имеет формирование культуры инноваций в образовательной организации. Она проявляется в готовности всех субъектов образовательного процесса к профессиональному развитию, взаимодействию, поиску и апробации новых решений, а также к конструктивному восприятию изменений. Развитие такой культуры создаёт условия для устойчивого внедрения инноваций и их дальнейшего совершенствования.

Результаты проведённого исследования позволяют утверждать, что управление инновационным процессом представляет собой многоуровневый механизм, в котором административное управление должно сочетаться с педагогическим проектированием, методическим сопровождением и постоянной оценкой образовательных результатов. Одной из распространённых проблем является внедрение инноваций преимущественно “сверху”, без достаточного учёта готовности преподавателей и реальных образовательных потребностей студентов. В таких условиях даже технологически обеспеченное нововведение может приобрести формальный характер и не обеспечить ожидаемого педагогического эффекта. В связи с этим одним из значимых механизмов управления является непосредственное вовлечение педагогических работников в инновационный процесс. Преподаватель выступает не только исполнителем инновационной деятельности, но и её активным участником, разработчиком, апробатором и оценщиком результатов. Не менее важной является роль студентов как непосредственных участников образовательного процесса. Учет их мнения и обратной связи позволяет определить, насколько внедряемое нововведение соответствует реальным образовательным потребностям, способствует ли оно повышению качества обучения и какие аспекты инновации требуют дальнейшей корректировки.

Следовательно, управление инновационным процессом целесообразно переориентировать с парадигмы одностороннего внедрения готового решения на парадигму совместного проектирования (ко-дизайна), обратной связи и непрерывного развития. Такой подход предполагает участие основных субъектов образовательного процесса на различных этапах разработки, реализации и оценки инновации. Особую актуальность приобретает цифровой мониторинг. Современные электронные образовательные платформы позволяют отслеживать активность обучающихся, результаты выполнения заданий, динамику образовательных результатов и другие показатели учебной деятельности. При этом цифровые данные должны использоваться не только для формирования отчётности, но и для выявления образовательных проблем, формирования педагогических выводов и принятия обоснованных управленческих решений.

Таким образом, управление инновационной деятельностью предполагает интеграцию организационно-педагогического, информационного и рефлексивного компонентов. Данный подход позволяет рассматривать инновацию не как разовое внедрение отдельной технологии или методики, а как циклический процесс управления, в котором результаты каждого этапа становятся основанием для принятия решений на последующем этапе. В частности, результаты мониторинга используются для коррекции инновационного процесса и последующего планирования [5]. Организация инновационной деятельности является одним из значимых направлений современного развития высшего образования. Её результативность определяется не только содержанием и новизной внедряемых решений, но и качеством управления процессом их разработки, реализации, мониторинга и совершенствования. Проведённый анализ позволяет заключить, что эффективность инновационной деятельности в вузе во многом обусловлена системностью управления, готовностью участников образовательного процесса к изменениям, наличием необходимых ресурсов, качеством информационного сопровождения и способностью образовательной организации своевременно корректировать управленческие и педагогические решения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Выявлена циклическая структура управления инновационным процессом, включающая диагностику, проектирование, реализацию, контроль и коррекцию. Определены ключевые педагогические и организационно-управленческие факторы его эффективности: постановка целей, кадровый потенциал и готовность педагогических работников, материально-техническая база, вовлечённость участников образовательного процесса, информационное сопровождение и систематический мониторинг результатов. Разработанный подход может применяться для управления цифровыми, методическими, организационными и педагогическими инновациями в высших учебных заведениях. Предложенные рекомендации могут быть использованы заведующими кафедрами и отделами, а также преподавателями при разработке, реализации и мониторинге педагогических, информационно-технологических и управленческих инноваций в вузе.

Список использованной литературы:

1. Сластенин В. А. и др. Педагогика: учебное пособие для студентов высших педагогических учебных заведений / В. А. Сластенин, И. Ф. Исаев, Е. Н. Шиянов; под ред. В. А. Сластенина. – М.: Издательский центр “Академия”, 2013. – 576 с.
2. Хуторской А. В. Педагогическая инноватика: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. – М.: Издательский центр “Академия”, 2008, 2010, 2019. – 256 с.
3. Полат Е. С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. – М.: Издательский центр “Академия”, 2010.
4. Fullan M. The New Meaning of Educational Change. 4th ed. – New York: Teachers College Press, 2007.
5. Rogers E. The Diffusion of Innovations. 5th ed. – New York: The Free Press, 2003.

OLIY TA'LIMNI XALQAROLASHTIRISH SHAROITIDA INGLIZ TILI TA'LIMI SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI PEDAGOGIK OMILLAR

Urazbayeva Dilnoza Ruzimbayevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada oliy ta'limni xalqarolashuv jarayonida ingliz tili ta'limi sifatiga ta'sir etuvchi asosiy pedagogik omillar tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'qitish sifati faqat talabalarning tilni o'zlashtirish darajasi bilan emas, balki o'quv dasturining mazmuni, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, ta'lim metodlari, raqamli ta'lim muhiti, baholash tizimi hamda talabalarning individual ehtiyojlari bilan ham bog'liq ekanligi asoslanadi. Xalqaro ta'lim muhiti talablari nuqtayi nazaridan akademik va kasbiy kommunikatsiya, madaniyatlararo kompetensiya hamda talabaning mustaqil ta'lim olish qobiliyati ham muhim omillar sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda mazkur omillarning o'zaro bog'liqligi va ingliz tili ta'limi sifatini ta'minlashdagi pedagogik ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, xalqarolashuv, ingliz tili ta'limi, ta'lim sifati, pedagogik omillar, o'qituvchi kompetensiyasi, o'quv dasturi, raqamli ta'lim muhiti, baholash, akademik kommunikatsiya, madaniyatlararo kompetensiya.

Abstract: This article analyzes the key pedagogical factors influencing the quality of English language education in the context of the internationalization of higher education. It is argued that the quality of English language teaching is closely related not only to students' language proficiency levels but also to curriculum content, teachers' professional preparedness, teaching methods, the digital learning environment, the assessment system, and students' individual needs. From the perspective of international educational requirements, academic and professional communication, intercultural competence, and students' ability to engage in independent learning are also examined as crucial factors. The study highlights the interdependence of these factors and their pedagogical significance in ensuring the quality of English language education.

Key words: higher education, internationalization, English language education, educational quality, pedagogical factors, teacher competence, curriculum, digital learning environment, assessment, academic communication, intercultural competence.

Аннотация: В данной статье анализируются основные педагогические факторы, влияющие на качество обучения английскому языку в процессе интернационализации высшего образования. Обосновывается, что качество преподавания английского языка связано не только с уровнем языковой подготовки студентов, но и с содержанием учебной программы, профессиональной подготовкой преподавателей, методами обучения, цифровой образовательной средой, системой оценивания, а также индивидуальными потребностями студентов. С точки зрения требований международной образовательной среды академическая и профессиональная коммуникация, межкультурная компетентность, а также способность студентов к самостоятельному обучению рассматриваются как важные факторы. В исследовании раскрываются взаимосвязь данных факторов и их педагогическое значение в обеспечении качества обучения английскому языку.

Ключевые слова: высшее образование, интернационализация, обучение английскому языку, качество образования, педагогические факторы, компетентность преподавателя, учебная программа, цифровая образовательная среда, оценивание, академическая коммуникация, межкультурная компетентность.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'limning xalqarolashuvi ta'lim mazmuni va uning sifatiga qo'yiladigan talablarning o'zgarishiga olib kelayotgan muhim jarayonlardan biridir. Xalqaro akademik almashinuv, qo'shma ta'lim dasturlari, xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik, xalqaro akkreditatsiya va akademik mobillikning kengayishi natijasida talabalar va professor-o'qituvchilarning xalqaro ta'lim muhitida faoliyat yuritish imkoniyatlari ortib bormoqda. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida ham mazkur jarayon izchil tus olmoqda: 2025-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatda 207 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lib, ulardan 32 tasi xorijiy universitetlar va ularning

filiallarini tashkil etgan; xalqaro talabalar soni 20 ming nafarga yetgan. Shu davrda 11 ta oliy ta'lim muassasasidagi 40 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tgan. Mazkur jarayon ingliz tili ta'limining vazifalarini ham kengaytirmoqda. Ingliz tili oliy ta'limda faqat alohida o'quv predmeti sifatida emas, balki xalqaro ilmiy axborotdan foydalanish, akademik muloqot, ilmiy tadqiqot, kasbiy hamkorlik va akademik mobillikni ta'minlovchi vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul jarayonida xorijiy tilni bilish darajasini tasdiqlovchi milliy yoki xalqaro sertifikatlarga qo'yilayotgan talablar ham ushbu kompetensiyaning ta'lim tizimidagi amaliy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ingliz tili ta'limining mavjudligi yoki talabalarning ma'lum darajadagi til sertifikatiga ega bo'lishining o'zi ta'lim sifatini to'liq ifodalamaydi. Xalqaro akademik muhitda talaba ingliz tilidan o'z mutaxassisligi doirasida foydalanishi, ilmiy manbalarni tahlil qilishi, akademik matn yaratishi, fikrini dalillar asosida ifodalashi va turli madaniy muhit vakillari bilan samarali muloqot qila olishi talab etiladi. Shu sababli ta'lim sifati masalasini til bilimining yakuniy ko'rsatkichidan ko'ra, mazkur natijaga olib keluvchi pedagogik shart-sharoitlar bilan bog'liq holda o'rganish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019-yildagi PF-5847-son[1] O'zbekiston oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta'lim sifatini yaxshilash, xalqaro standartlarni joriy etish, ta'lim dasturlarini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu vazifalar ingliz tili ta'limi mazmuni va tashkil etilishini ham xalqaro akademik hamda kasbiy faoliyat talablari bilan muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Ayni paytda oliy ta'limda ingliz tili ta'limi sifatini belgilovchi omillarni yagona tizimda ko'rib chiqish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi oliy ta'limni xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi sifatiga ta'sir etuvchi pedagogik omillarni aniqlash va ularning nazariy asoslarini amaliy ta'lim jarayoni bilan bog'liq holda tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida xalqarolashuv, o'quv dasturini xalqarolashuv, ehtiyojga asoslangan ta'lim, akademik diskurs, janr tahlili va madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya yondashuvlarining ingliz tili ta'limi sifatini ta'minlashdagi imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'limning xalqarolashuvi ingliz tili ta'limining mazmuni va tashkil etilishiga qo'yiladigan talablarni sezilarli darajada kengaytirmoqda. Mazkur sharoitda til kompetensiyasi talabaning umumiy kommunikativ tayyorgarligi bilangina emas, balki uning akademik, kasbiy va madaniyatlararo muhitda ingliz tilidan samarali foydalana olish imkoniyati bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, ingliz tili ta'limi sifatini ta'minlovchi pedagogik omillarni xalqarolashuvning nazariy konsepsiyalari bilan uzviy aloqada tahlil qilish muhimdir.

J. Knight xalqarolashuvni oliy ta'limning xalqaro, madaniyatlararo va global jihatlarini uning asosiy funksiyalariga integratsiyalash jarayoni sifatida talqin qiladi. Ushbu konsepsiya ingliz tili ta'limini universitetning xalqaro faoliyatidan ajratib emas, balki uning tarkibiy qismi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. Amaliy jihatdan bu o'quv jarayoniga xalqaro ilmiy manbalar bilan ishlash, xalqaro akademik muloqot, xorijiy talabalar bilan hamkorlik va kasbiy kommunikatsiyaga oid vazifalarni kiritish orqali namoyon bo'ladi. Binobarin, o'quv mazmunining xalqaro akademik va kasbiy faoliyat bilan uyg'unligi ta'lim sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi fundamental omillardan biri sifatida qaraladi.

B. Leaskning "Internationalization of the Curriculum" konsepsiyasi ushbu jarayonni faqat o'quv materiallarini yangilash bilan cheklamaydi. Uning yondashuvida xalqaro va madaniyatlararo istiqbollar ta'lim maqsadlari, mazmuni, pedagogik faoliyat hamda baholash jarayoniga izchil singdirilishi lozim. Ingliz tili ta'limiga nisbatan qo'llanganda, bu tamoyil xalqaro kontekstga ega o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish, turli madaniy va kasbiy vaziyatlarni ta'lim mazmuniga kiritish hamda o'quv natijalarini xalqaro kommunikativ faoliyat talablari bilan muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Shunday qilib, o'quv dasturining xalqarolashgan mazmuni va uning ta'lim natijalari bilan muvofiqligi sifatning muhim tarkibiy omiliga aylanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ingliz tili ta'limi mazmunini talabaning real faoliyati bilan bog'lashda T. Dudley-Evans va M. J. St John tomonidan rivojlantirilgan ESP yondashuvi metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yondashuvda o'quv mazmunini shakllantirish talabaning muayyan akademik yoki kasbiy ehtiyojlarini aniqlashdan boshlanadi. Oliy ta'lim sharoitida bu tamoyil turli mutaxassisliklar bo'yicha ingliz tilidan foydalanish vazifalarining farqlanishini hisobga olish imkonini beradi. Masalan, tibbiyot yo'nalishidagi talaba uchun klinik kommunikatsiya, iqtisodiyot yo'nalishidagi talaba uchun kasbiy terminologiya va professional yozishmalar, pedagogika yo'nalishidagi talaba

1 https://lex.uz/ru/docs/-4545884

uchun esa akademik taqdimot va ilmiy muloqot ustuvor bo‘lishi mumkin. Shu sababli ehtiyojlarni tizimli aniqlash va ular asosida o‘quv mazmunini differensiallashtirish ta’lim sifatini belgilovchi muhim pedagogik shartlardan biridir. Akademik faoliyat uchun zarur bo‘lgan til kompetensiyalarini shakllantirishda K. Hylandning akademik diskurs konsepsiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Hyland akademik muloqotni grammatik jihatdan to‘g‘ri nutq yaratish bilan chegaralamaydi; fikrni dalillar asosida ifodalash, manbalardan foydalanish, muallif pozitsiyasini belgilash va auditoriya xususiyatlarini hisobga olishni ham akademik kommunikatsiyaning tarkibiy qismlari sifatida ko‘rsatadi. Mazkur nazariy qarash ta’lim amaliyotida akademik matn yaratish, argumentatsiya, ilmiy manbalarni tahlil qilish, taqdimot va munozara kabi faoliyatlarning ulushini oshirishni talab qiladi. Demak, akademik kommunikativ vazifalarning o‘quv jarayoniga tizimli kiritilishi til ta’limi sifatini oshirishning amaliy mexanizmlaridan biridir.

J. Swalesning janr tahlili nazariyasi akademik kommunikatsiyani yanada konkret pedagogik faoliyatga aylantirish imkonini beradi. Ilmiy maqola, annotatsiya, konferensiya tezisi, tadqiqot loyihasi va akademik taqdimot o‘zining kommunikativ maqsadi, tuzilishi va til xususiyatlariga ega. Shuning uchun akademik ingliz tilini o‘qitishda umumiy yozuv ko‘nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, talabaga muayyan akademik janrlarning funksional xususiyatlarini anglatish zarur. Janrga asoslangan ta’lim talabaning real akademik faoliyatda uchraydigan kommunikativ vazifalarni mustaqil bajarishiga zamin yaratadi. Mazkur nazariy yondashuvlarning amaliy samaradorligi o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi bilan bevosita bog‘liq. Xalqarolashgan ta’lim muhitida o‘qituvchi til bilimini yetkazuvchi subyekt sifatida emas, balki o‘quv mazmunini talabaning akademik va kasbiy ehtiyojlari bilan bog‘lovchi pedagog sifatida faoliyat yuritadi. Buning uchun undan ehtiyojlarni aniqlash, mutaxassislikka mos materiallarni tanlash, akademik janrlar bilan ishlash, zamonaviy baholash vositalaridan foydalanish va raqamli ta’lim resurslarini pedagogik maqsadga muvofiq qo‘llash kompetensiyalari talab etiladi. Shu jihatdan, o‘qituvchining metodik, akademik va raqamli kompetensiyasi ta’lim sifatining bevosita sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

Xalqaro akademik muhitda samarali kommunikatsiya faqat lingvistik bilim bilan belgilanmasligi M. Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya konsepsiyasida asoslanadi. Mazkur yondashuv boshqa madaniyat vakillarining qarashlarini tushunish, madaniy farqlarni anglash va kommunikativ vaziyatga mos strategiyani tanlash qobiliyatini ham til ta’limining muhim natijalaridan biri sifatida ko‘radi. Shu asosda ingliz tili mashg‘ulotlarida turli madaniy kontekstlarni qiyosiy tahlil qilish, xalqaro akademik vaziyatlarni modellashtirish va turli nuqtayi nazarlarni muhokama qilish kabi topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Madaniyatlararo kommunikativ vazifalarning mavjudligi shu tariqa xalqarolashgan ta’lim mazmunining amaliy ko‘rsatkichiga aylanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta’lim jarayonida shakllantiriladigan kompetensiyalarni obyektiv aniqlash uchun baholash tizimi ham mazkur yondashuvlarga moslashtirilishi lozim. Agar o‘quv maqsadi talabaning akademik va kasbiy kommunikatsiyaga tayyorgarligini shakllantirishdan iborat bo‘lsa, baholash faqat grammatik va leksik bilimlarni aniqlash bilan chegaralanmasligi kerak. Yozma akademik ish, og‘zaki taqdimot, kasbiy vaziyatdagi muloqot, manbalarni tahlil qilish va fikrni dalillar asosida ifodalash kabi faoliyatlarning baholanishi ta’lim maqsadi, o‘quv faoliyati va natija o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlaydi. Shu ma’noda, baholash mezonlarining o‘quv natijalari bilan mosligi sifatni ta’minlashning muhim omilidir. Raqamli texnologiyalar esa mazkur pedagogik yondashuvlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida qaraladi. Elektron ta’lim platformalari orqali individual topshiriqlar va teskari aloqani tashkil etish, raqamli vositalar yordamida o‘zlashtirish dinamikasini kuzatish, onlayn hamkorlik orqali xalqaro muloqot vaziyatlarini yaratish mumkin. Biroq raqamli vositalarning mavjudligi o‘z-o‘zidan ta’lim sifatini kafolatlamaydi. Ularning pedagogik qiymati muayyan ta’lim maqsadiga, talabaning ehtiyojiga va o‘quv faoliyatining mazmuniga qanchalik mos kelishi bilan belgilanadi.

Yuqoridagi nazariy qarashlarni umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, xalqarolashuv ingliz tili ta’limining faqat tashqi kontekstini emas, balki uning ichki pedagogik mazmunini ham belgilaydi. Knight va Leask qarashlari o‘quv dasturining xalqaro yo‘nalishini, Dudley-Evans va St John ehtiyojga asoslangan mazmunni, Hyland va Swales akademik kommunikatsiya hamda janrlarni, Byram esa madaniyatlararo tayyorgarlikni asoslashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarning ta’lim amaliyotidagi samarasi esa o‘qituvchining kompetensiyasi, mazmunning kasbiy yo‘nalganligi, mos baholash mezonlari va raqamli vositalardan oqilona foydalanish bilan ta’minlanadi. Shu asosda ingliz tili ta’limi sifatini belgilovchi pedagogik omillarni alohida hodisalar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘quv dasturi mazmuni, talaba ehtiyojlari, o‘qituvchi kompetensiyasi, akademik va kasbiy kommunikativ faoliyat, baholash hamda ta’lim texnologiyalarining o‘zaro muvofiqligi sifatida talqin qilish mumkin. Bunday yondashuv xalqarolashgan oliy ta’lim sharoitida ta’lim sifatini boshqarishning tizimli xarakterini ochib beradi.

XULOSA

Oliy ta'limni xalqarolashuv sharoitida ingliz tili ta'limi sifatini oshirish til kompetensiyasini rivojlantirish bilan cheklanmay, ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari, baholash mezonlari, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi va talabaning akademik ehtiyojlarini o'zaro muvofiqlashtirishni talab etadi. Xalqaro ta'lim muhitida ingliz tilidan foydalanishning akademik, kasbiy va madaniyatlararo xususiyatlari ta'lim jarayonining mazmuni hamda kutilayotgan natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tili ta'limi sifatini belgilovchi asosiy pedagogik omillarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o'zaro bog'langan tizim sifatida qarash maqsadga muvofiq. Xalqarolashgan o'quv dasturi talabaning real akademik va kasbiy faoliyatiga mos mazmunni shakllantirsa, ehtiyojlarni aniqlash ushbu mazmunni ta'lim yo'nalishiga moslashtirish imkonini beradi. Akademik va janrga asoslangan yondashuvlar esa talabalarni ilmiy matn yaratish, manbalar bilan ishlash, dalillash, taqdimot va professional muloqot kabi faoliyatlarga tayyorlaydi. Madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish xalqaro akademik muhitda samarali muloqot qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan birga, mazkur omillarning amaliy samaradorligi o'qituvchining metodik, akademik va raqamli kompetensiyalariga, shuningdek, baholash tizimining ta'lim maqsadlariga muvofiqligiga bog'liq. Baholash faqat grammatik va leksik bilimlarni emas, balki akademik yozuv, og'zaki taqdimot, kasbiy kommunikatsiya, manbalardan foydalanish va argumentatsiya ko'nikmalarini ham qamrab olishi lozim. Raqamli texnologiyalar esa mustaqil ta'lim, individual yondashuv, tezkor qayta aloqa va ta'lim natijalarini monitoring qilishni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida pedagogik jarayonga integratsiya qilinishi zarur.

Umuman olganda, oliy ta'limni xalqarolashuv ingliz tili ta'limining sifat mezonlarini kengaytirib, uni real akademik, kasbiy va xalqaro kommunikativ faoliyatga yo'naltirishni taqozo etadi. Shu sababli ta'lim sifatini oshirishning pedagogik modeli xalqarolashgan o'quv dasturi, talaba ehtiyojlarini aniqlash, o'qituvchi kompetentligini rivojlantirish, akademik va kasbiy kommunikatsiya, madaniyatlararo tayyorgarlik, natijaga yo'naltirilgan baholash hamda raqamli ta'lim vositalarining uzviy birligiga asoslanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019-yildagi PF-5847-son O'zbekiston oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi https://lex.uz/ru/docs/-4545884
2. Knight, J. (2004). Internationalization remodeled: Definition, approaches, and rationales. Journal of Studies in International Education, 8(1), 5–31. https://doi.org/10.1177/1028315303260832
3. Leask, B. (2015). Internationalizing the Curriculum. Routledge.
4. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. Cambridge University Press.
5. Hyland, K. (2009). Academic Discourse: English in a Global Context. Continuum.
6. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Multilingual Matters.
7. Swales, J. M. (1990). Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. Cambridge University Press.
8. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. Cambridge University Press.
9. Macaro, E., Curle, S., Pun, J., An, J., & Dearden, J. (2018). A systematic review of English medium instruction in higher education. Language Teaching, 51(1), 36–76. https://doi.org/10.1017/S0261444817000350
10. Macaro, E., & Aizawa, I. (2024). English medium instruction, EAP/ESP: Exploring overlap and divergences in research aims. International Journal of Applied Linguistics. https://doi.org/10.1111/ijal.12563
11. Rose, H., Sahan, K., Wei, L., Aizawa, I., Zhou, S., & Shepard, M. (2026). A systematic review of English medium instruction in higher education: An update of Macaro et al. (2018). System, 136, 103892. https://doi.org/10.1016/j.system.2025.103892

JAHON TAJRIBASIDA LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM METODLARI

UDK: 37.091.3:005.8(100)

Rustamova Rushona Baxramjonovna
Andijon shahridagi Prezident maktabi direktor o'rinbosari
elektron manzil: rustamovarushana88@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada loyihaga asoslangan ta'limning jahon amaliyotidagi asosiy modellari qiyosiy-pedagogik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot obyekti sifatida o'nta milliy ta'lim tizimi, jumladan, mintaqaga yaqin bo'lgan Rossiya va Qozog'iston tajribasi hamda ikkita xalqaro dastur tanlab olindi. Qiyoslash beshta mezon - metodning normativ maqomi, tashkiliy shakli va vaqt resursi, mazmuniy integratsiya darajasi, baholash mexanizmi va o'qituvchi roli bo'yicha o'tkazildi. Har bir model aniq maktablar va dasturlar misolida yoritilgan, modellarning uchta umumiy jihati va to'rtta jiddiy farqi aniqlangan. Xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning yettita sharti o'zbek olimlarining qarashlari asosida asoslangan va ularni Prezident hamda umumta'lim maktablarida tatbiq etish namunalari taklif qilingan.

Kalit so'zlar: loyihaga asoslangan ta'lim, qiyosiy pedagogika, fanlararo modul, hodisaga asoslangan ta'lim, Aalborg modeli, Project Work, individual loyiha, xalqaro bakalavriat, tajribani moslashtirish.

Abstract: The article offers a comparative pedagogical analysis of the principal models of project-based learning in international practice. Ten national education systems, including the regionally relevant experience of Russia and Kazakhstan, and two international programmes were selected for study. The comparison follows five criteria: the regulatory status of the method, its organisational form and time allocation, the degree of content integration, the assessment mechanism and the role of the teacher. Each model is illustrated with specific schools and programmes; three shared features and four substantive differences are identified. Drawing on the views of Uzbek scholars, seven conditions for adapting international experience to Uzbekistan are substantiated, and examples of their implementation in Presidential and general secondary schools are proposed.

Key words: project-based learning, comparative education, interdisciplinary module, phenomenon-based learning, Aalborg model, Project Work, individual project, International Baccalaureate, adaptation of experience.

Аннотация: В статье проведён сравнительно-педагогический анализ основных моделей проектного обучения в мировой практике. Объектом исследования выбраны десять национальных образовательных систем, включая близкий региону опыт России и Казахстана, а также две международные программы. Сопоставление выполнено по пяти критериям: нормативный статус метода, организационная форма и временной ресурс, уровень содержательной интеграции, механизм оценивания и роль учителя. Каждая модель раскрыта на примерах конкретных школ и программ, выявлены три общие черты и четыре существенных различия моделей. На основе взглядов узбекских учёных обоснованы семь условий адаптации зарубежного опыта к условиям Узбекистана и предложены образцы их внедрения в президентских и общеобразовательных школах.

Ключевые слова: проектное обучение, сравнительная педагогика, межпредметный модуль, феноменоориентированное обучение, Ольборгская модель, Project Work, индивидуальный проект, международный бакалавриат, адаптация опыта.

KIRISH

Loyiha metodi bir asrdan ortiq tarixga ega. Uning nazariy poydevori ta'limni bolaning real hayotiy tajribasi bilan bog'lashni talab qilgan J.Dyui g'oyalarida qo'yilgan bo'lsa, metod sifatida rasmiylashuvi U.Kilpatrik nomi bilan bog'liq[1]. XX asr davomida metod turli mamlakatlarda goh ommalashib, goh chetga surilib keldi; XXI asr boshida esa u kognitiv psixologiya yutuqlari va kompetensiyaviy yondashuv bilan boyigan holda yana ta'lim siyosatining markaziga qaytdi.

1 Dewey J. Democracy and Education. – New York, 1916; Kilpatrick W.H. The Project Method. – 1918.

Bu qaytish tasodifiy emas. Xalqaro tashkilotlar ishlab chiqqan kelajak kompetensiyalari modellari ta'lim natijasini nafaqat bilim, balki uni notanish vaziyatga ko'chira olish qobiliyati bilan o'lchashni taklif etadi[2]. Natijada ko'plab mamlakatlarda loyiha faoliyati ixtiyoriy tavsiyadan o'quv dasturining majburiy qismiga aylandi.

Loyiha faoliyati uchun zarur g'oyalar milliy pedagogik tafakkurda ham mavjud bo'lgan. Abdulla Avloniy tarbiyani faqat so'z bilan emas, amaliy odat va hayotiy vaziyat orqali shakllantirish zarurligini ta'kidlagan[3], jadid ma'rifatparvarlari esa maktabni jamiyat hayoti bilan bog'lashga intilgan. Bu an'ana xorijiy tajribani o'zlashtirishda tashqi namuna bilan birga ichki tayanch ham mavjudligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim tizimini yangilash, xususan, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog'ini rivojlantirish jarayonida ilg'or xorijiy uslubiy yechimlarni o'rganish dolzarb vazifaga aylandi. Biroq tajribani o'zlashtirish mexanik ko'chirish emas: har bir model muayyan madaniy va institutsional muhitda shakllangan, shu bois uni boshqa sharoitga o'tkazish shartlarini oldindan tahlil qilish zarur.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Loyiha faoliyatining nazariy asoslari J.Tomas, J.Larmer va K.Frey ishlarida yoritilgan[4]; uning oliy ta'limdagi tatbiqi A.Kolmos, H.Shmidt va L.Helle tadqiqotlarida tahlil qilingan[5]; samaradorlik masalasi D.Kokotsaki, C.-H. Chen va Y.-C.Yang, L.Zhang va Y.Ma ishlarida o'rganilgan6. Finlyandiya tajribasi V.Simeonidis va K.Lonka[7], Singapur tajribasi esa O.S.Tan ishlarida tavsiflangan[8].

O'zbek pedagogikasida loyiha metodi ko'proq pedagogik texnologiyalar tizimi doirasida ko'rib chiqilgan. N.N.Azizxo'jayeva pedagogik texnologiyani o'qituvchi mahorati bilan bog'liq holda talqin qilib, ta'lim jarayonini oldindan loyihalash g'oyasini asoslagan[9].

J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonov zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bosqichlari va shartlarini tizimlashtirgan[10], O'.Q.Tolipov va M.Usmonboyeva ularning tatbiqiy asoslarini yoritgan[11].

R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov va A.Pardayev interfaol metodlarni pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar shaklida taqdim etgan[12], R.Ishmuhamedov va M.Yuldashev esa innovatsion texnologiyalarni ta'lim va tarbiya birligi nuqtayi nazaridan tahlil qilgan[13].

N.A.Muslimov va hammualliflari innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'qituvchilarni tayyorlash tizimi bilan bog'lagan[14], R.X.Djurayev va S.T.Turg'unov ta'lim muassasasida yangiliklarni joriy etishning boshqaruv jihatlarini ochib bergan[15].

Xorijiy tajribaga bevosita murojaat qilgan mahalliy ishlar ham paydo bo'lmoqda. Sh.Uzoqov AQSh, Finlyandiya, Yaponiya va Janubiy Koreyada loyihaviy faoliyatni tashkil etish tajribasini qisqacha tahlil qilib, O'zbekistonda uni kengaytirishga to'sqinlik qilayotgan omillar sifatida metodik qo'llanmalar tanqisligi, pedagoglarning tayyorgarligi yetarli emasligi va texnik infratuzilma zaifligini ko'rsatgan[16].

Biroq mavjud tadqiqotlarda xorijiy milliy modellar yagona mezonlar tizimida qiyoslanmagan va ularning umumta'lim maktabi sharoitiga moslashtirilgan variantlari taklif etilmagan.

Tadqiqotning maqsadi - loyihaga asoslangan ta'limning jahon amaliyotidagi asosiy modellarini aniq misollar asosida qiyosiy tahlil qilish, ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash hamda xorijiy tajribani milliy ta'lim sharoitiga moslashtirish shartlarini asoslashdan iborat.

2 OECD. Learning Compass 2030. – Paris, 2019.
3 Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
4 Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. - 2000; Larmer J., Mergendoller J., Boss S. Setting the Standard for PBL. - 2015; Frey K. Die Projektmethode. - Weinheim, 1982.
5 Kolmos A., Fink F.K., Krogh L. The Aalborg PBL Model. - 2004; Schmidt H.G. Problem-Based Learning: Rationale and Description. - 1983; Helle L., Tynjälä P., Olkinuora E. Project-Based Learning in Post-Secondary Education. - 2006.
6 Kokotsaki D., Menzies V., Wiggins A. Project-Based Learning: A Review. - 2016; Chen C.-H., Yang Y.-C. Revisiting the Effects of PBL: A Meta-Analysis. - 2019; Zhang L., Ma Y. The Impact of PBL on Student Learning Effects. - 2023.
7 Symeonidis V., Schwarz J.F. Phenomenon-Based Teaching and Learning. - 2016; Lonka K. Phenomenal Learning from Finland. - Helsinki, 2018.
8 Tan O.S. Problem-Based Learning Innovation. - Singapore, 2003.
9 Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent, 2006.
10 Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - Toshkent, 2008.
11 Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent, 2006.
12 Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2008.
13 Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Nihol, 2016.
14 Muslimov N.A. va boshq. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. - Toshkent, 2015.
15 Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. - Toshkent: Voris, 2006.
16 Uzoqov Sh. Talabalarni loyihalash faoliyatiga tayyorlashni tadqiq qilishning nazariy jihatlari // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2025. - № 3.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot qiyosiy-pedagogik xususiyatga ega. Namuna o'nta milliy ta'lim tizimi (AQSh, Finlyandiya, Daniya, Niderlandiya, Singapur, Germaniya, Yaponiya, Turkiya, Rossiya, Qozog'iston) va ikkita xalqaro dastur (Xalqaro bakalavriat, Cambridge) asosida shakllantirildi.

Tanlovda uchta asos hisobga olindi:

- loyiha faoliyatining normativ hujjatlarda mustahkamlanganligi;
- model bo'yicha ishonchli manbalarning mavjudligi;
- modelning O'zbekiston sharoitida qo'llanilishi mumkinligi.

Rossiya va Qozog'iston tajribasi namunaga alohida kiritildi, chunki bu mamlakatlarning ta'lim tizimlari O'zbekiston bilan umumiy tarixiy ildizga ega, NIS maktablari esa Prezident maktablari bilan tuzilmaviy jihatdan yaqin.

Qiyoslash beshta mezon bo'yicha amalga oshirildi:

- metodning normativ maqomi;
- tashkiliy shakl va ajratilgan vaqt resursi;
- mazmuniy integratsiya darajasi;
- baholash mexanizmi va uning yakuniy attestatsiya bilan bog'liqligi;
- o'qituvchi roli va unga qo'yiladigan malaka talablari.

Ma'lumot manbalari sifatida milliy o'quv dasturlari va rasmiy hujjatlar[17], maktablarning rasmiy materiallari, xalqaro ilmiy nashrlar va meta-tahlillar olindi. Hujjatlar tahlili, qiyosiy-tipologik tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlari qo'llanildi.

Tadqiqot ikkilamchi manbalarga asoslanadi va dala kuzatuvlarini o'z ichiga olmaydi; qiyoslash rasmiy hujjatlarda qayd etilgan model bilan chegaralanadi, hujjat bilan real amaliyot o'rtasidagi tafovut esa alohida tadqiqot talab qiladi. Maqoladagi ayrim loyiha mavzulari modellarning mohiyatini ko'rsatish uchun keltirilgan namunaviy misollardir.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. AQSh: sifat standartiga asoslangan loyiha dizayni

AQSh loyiha metodining vatani bo'lib, bugungi kunda ham eng ko'p uslubiy ishlanma yaratadigan mamlakat hisoblanadi. Metodning zamonaviy talqini J.Larmer va J.Mergendoller ishlab chiqqan sifat standartida jamlangan: loyiha murakkab muammo yoki savoldan boshlanadi, davomiy izlanishni talab qiladi, real hayotiy kontekstga ega bo'ladi, o'quvchining fikri va tanloviga o'rin beradi, refleksiya, tanqid va qayta ishlash siklini qamrab oladi hamda ommaviy mahsulot bilan yakunlanadi[18].

Loyihani butun maktab arxitekturasining asosiga qo'ygan tajribaga 2000-yilda San-Diego shahrida tashkil etilgan High Tech High maktablar tarmog'i misol bo'ladi[19]. Bu yerda o'quv yili loyiha sikllari bo'yicha quriladi, turli fan o'qituvchilari juftlikda ishlaydi, har bir sikl esa ota-onalar va mahalliy hamjamiyat ishtirok etadigan ochiq ko'rgazma bilan yakunlanadi. Masalan, gumanitar fan va biologiya o'qituvchisi birgalikda rahbarlik qiladigan loyihada o'quvchilar mahalliy daryo havzasining ekologik holatini tadqiq etib, natijalarni shahar aholisi uchun ko'rgazma va kitobcha shaklida taqdim etishi mumkin. Bu model loyiha faoliyati alohida tadbir emas, balki maktab hayotining asosiy tartibi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

2. Finlyandiya: hodisaga asoslangan fanlararo modul

Fin modelining asosiy xususiyati - loyiha faoliyatining milliy o'quv dasturi darajasida majburiy qilib belgilanganligi. 2014-yilda qabul qilinib, 2016-yildan amalga kiritilgan asosiy ta'lim milliy o'zak dasturiga ko'ra, har bir maktab o'quv yili davomida kamida bitta fanlararo o'quv modulini tashkil etishi shart, o'quvchilar esa uni rejalashtirishda ishtirok etadi[20]. Modul real hayotdagi hodisa atrofida quriladi va bir necha fan nuqtayi nazaridan o'rganiladi; ilmiy adabiyotda bu yondashuv hodisaga asoslangan ta'lim deb ataladi[21].

17 FNAE. National Core Curriculum for Basic Education 2014. - Helsinki, 2016; MOE Singapore. Project Work: Syllabus and Assessment Requirements. - 2023; IBO. MYP: From Principles into Practice. - Cardiff, 2014; CAIE. Cambridge IGCSE Global Perspectives 0457: Syllabus. - 2023.

18 Larmer J., Mergendoller J., Boss S. Setting the Standard for PBL.- 2015.

19 High Tech High. About HTH. – URL: https://www.hightechhigh.org

20 FNAE. National Core Curriculum for Basic Education 2014. – Helsinki, 2016.

21 Symeonidis V., Schwarz J.F. Phenomenon-Based Teaching and Learning. – 2016; Lonka K. Phenomenal Learning from Finland. – Helsinki, 2018.

Modul qanday tuzilishini bir misolda ko‘rish mumkin. “Suv” hodisasiga bag‘ishlangan modulda kimyo suvning tarkibi va ifloslanishini, geografiya suv resurslarining taqsimotini, tarix daryo bo‘yida shakllangan sivilizatsiyalarni, ona tili esa suv tejashga chaqiruvchi murojaatnoma yozishni o‘rganadi; yakunda o‘quvchilar o‘z maktabi uchun suv tejash rejasini tuzadi. Muhim jihat shundaki, fanlar tizimi bekor qilinmaydi - fanlararo modul mavjud fanlar ustiga qurilgan qo‘shimcha qatlam sifatida ishlaydi, uning mazmuni va davomiyligi esa mahalliy darajada belgilanadi.

3. Daniya va Niderlandiya: muammoga yo‘naltirilgan loyiha pedagogikasi

Skandinaviya va Benilyuks mamlakatlarida loyiha faoliyati, avvalo, oliy ta’limda institutsional shakl olgan, biroq uning tamoyillari maktab amaliyotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan[22]. 1974-yilda tashkil etilgan Aalborg universitetida shakllangan model semestrning katta qismini guruhiy loyiha ishiga ajratadi: talabalar kichik jamoalarda real muammo ustida ishlaydi, supervayzer ularni qo‘llab-quvvatlaydi, semestr esa loyiha hisobotining og‘zaki himoyasi bilan yakunlanadi[23]. Masalan, muhandislik yo‘nalishidagi guruh semestr davomida shahar transport tizimidagi tirbandlikni kamaytirish yechimini ishlab chiqib, uni mutaxassislar oldida himoya qilishi mumkin.

Niderlandiyadagi Maastrixt universitetida ishlab chiqilgan muammoga asoslangan ta’lim modeli “yetti qadam” deb ataluvchi tahlil tartibiga tayanadi:

- notanish atamalarni aniqlashtirish;
- muammoni belgilash;
- aqliy hujum;
- g‘oyalarni tizimlash;
- o‘rganish maqsadlarini qo‘yish;
- mustaqil o‘rganish;
- olingan bilimni guruhda sintez qilish[24].

Maktab amaliyotida bu tartib soddalashtirilgan holda, loyihaning tayyorlov bosqichida muammoni tahlil qilish quroli sifatida qo‘llanishi mumkin.

4. Singapur: alohida o‘quv fani maqomidagi loyiha

Singapur tajribasi alohida e’tiborga loyiq, chunki bu yerda loyiha faoliyati metod darajasidan mustaqil majburiy fan darajasiga ko‘tarilgan. Universitetgacha ta’lim bosqichida o‘qitiladigan Project Work fani barcha o‘quvchilar uchun majburiy, imtihon bilan baholanadi va oliy ta’limga qabulda hisobga olinadi; o‘quvchilar 4-5 kishilik guruhlarda real muammo ustida ishlab, yil yakunida og‘zaki taqdimot imtihonini topshiradi[25]. Baholash guruh mahsuloti bilan bir qatorda har bir o‘quvchining individual og‘zaki chiqishi va shaxsiy refleksiyasini ham qamrab oladi - bu guruh ishidagi “yashirin yo‘lovchi” muammosini tizim darajasida hal qiladi.

O‘rta ta’lim bosqichida esa imtihon bilan baholanmaydigan amaliy ta’lim dasturlari faoliyat yuritadi; ularning maqsadi o‘quvchiga maktabda o‘rganayotgan bilimining hayotiy qiymatini ko‘rsatishdir[26]. Masalan, maktab muhandislik yo‘nalishini tanlagan bo‘lsa, o‘quvchilar politexnika kolleji yoki mahalliy korxona mutaxassislari bilan birgalikda maktab hovlisi uchun quyosh energiyasida ishlovchi yoritish tizimini loyihalashi mumkin.

5. Germaniya, Yaponiya va Turkiya tajribasidan

Germaniyada loyiha ta’limi uzoq an’anaga ega: K.Freyning ishi loyiha metodining bosqichli tuzilmasini nemis didaktikasi tilida rasmiylashtirib, uning maktablarda keng tarqalishiga yo‘l ochgan[27].

Eng ko‘p tarqalgan tashkiliy shakl - loyiha haftaligi (Projektwoche): o‘quv yilining muayyan haftasida odatiy dars jadvali to‘xtatiladi, turli sinf o‘quvchilaridan tuzilgan aralash guruhlar o‘zlari tanlagan mavzular - maktab gazetasi, teatr sahnalashtiruvi, maktab bog‘ini obodonlashtirish kabi loyihalar ustida ishlaydi va hafta yakunida natijalar ota-onalarga ko‘rgazma shaklida namoyish etiladi.

Yaponiyada 2002-yildan umumta’lim dasturiga kiritilgan integrallashgan o‘rganish vaqti alohida fan emas, balki fanlararo izlanish uchun ajratilgan maxsus soatlar blokidir; uning mazmunini maktab mahalliy sharoitdan kelib chiqib belgilaydi. Masalan, qishloq maktabi o‘quvchilari mahalliy sholikorlik an’analarini o‘rganib, dehqonlar

22 Helle L., Tynjälä P., Olkinuora E. Project-Based Learning in Post-Secondary Education. - 2006.
23 Kolmos A., Fink F.K., Krogh L. The Aalborg PBL Model. - 2004.
24 Schmidt H.G. Problem-Based Learning: Rationale and Description. - 1983.
25 MOE Singapore. Project Work: Syllabus and Assessment Requirements. - 2023.
26 Tan O.S. Problem-Based Learning Innovation. – Singapore, 2003.
27 Frey K. Die Projektmethode. – Weinheim, 1982.

bilan birga sholi ekish va hosil yig'ishda qatnashishi, so'ng tajribasini hisobot tarzida taqdim etishi mumkin. Turkiyada 2005-yildagi o'quv dasturi islohoti loyiha faoliyatini fan dasturlarining tarkibiy qismiga aylantirdi, TÜBİTAK tomonidan o'tkaziladigan o'rta maktab o'quvchilarining tadqiqot loyihalari tanlovi esa ularni tizimli ravishda ilmiy izlanishga jalb etadi.

6. Mintaqaviy tajriba: Rossiya va Qozog'iston

O'zbekiston uchun alohida qiziqish uyg'otadigan tajriba - umumiy tarixiy ildizga ega bo'lgan qo'shni ta'lim tizimlari. Rossiyada 2012-yilda tasdiqlangan o'rta umumiy ta'lim federal davlat ta'lim standarti 10-11-sinf o'quvchilari uchun individual loyihani majburiy element sifatida belgilagan: o'quvchi bir yoki ikki o'quv yili davomida o'qituvchi rahbarligida tadqiqot, muhandislik, ijtimoiy yoki ijodiy loyiha bajaradi va uni ochiq himoya qiladi[28]. Rus pedagogikasida loyiha metodining nazariy-uslubiy asoslari Ye.S.Polat ishlarida atroflicha yoritilgan[29]. Bu model loyihani yakuniy attestatsiya bilan bog'lashning maktab darajasidagi amaliy variantini namoyon etadi.

Qozog'istondagi Nazarbayev Intellektual maktablari (NIS) tajribasi Prezident maktablari uchun ayniqsa yaqin. Tarmoq maktablari Cambridge bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan integratsiyalashgan dastur asosida ishlaydi; 11-sinfda o'quvchilar "Global Perspectives and Project Work" fanini o'rganadi, loyiha ta'limi esa boshqa fanlarga ham singdirilgan bo'lib, uzoq muddatli tadqiqotlar ko'pincha mahalliy hamjamiyat muammolariga bag'ishlanadi[30].

Quyi sinflarda ham loyiha majburiy komponent hisoblanadi: masalan, 8-sinf o'quvchilari o'quv yili davomida "Jamiyatga xizmat" loyihasini bajaradi, 11-sinf o'quvchilari esa ularga mentorlik qiladi[31]. Yuqori sinf o'quvchisining quyi sinfdoshiga murabbiylik qilishi o'qituvchi yuklamasini kamaytiradi va mentorning o'zida ham yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantiradi.

7. Xalqaro dasturlar tajribasi

Xalqaro bakalavriat dasturida loyiha o'quvchining yosh bosqichiga mos ravishda uch marta takrorlanadigan majburiy komponent sifatida joriy etilgan: boshlang'ich bosqich yakunidagi jamoaviy ko'rgazma (Exhibition), o'rta bosqich yakunidagi shaxsiy loyiha (Personal Project) va yuqori bosqichdagi kengaytirilgan ilmiy esse hamda ijodiy-ijtimoiy faoliyat komponenti; har bir bosqichda o'quvchiga mentor biriktiriladi va jarayon jurnal orqali hujjatlashtiriladi[32]. Masalan, 15 yoshli o'quvchining shaxsiy loyihasi mahalliy hunarmandchilik turini o'rganib, uning namunalarini onlayn katalog shaklida taqdim etishdan iborat bo'lishi mumkin.

Cambridge dasturidagi Global Perspectives yo'nalishi loyiha faoliyatini global muammolarni tadqiq qilish bilan uyg'unlashtiradi: o'quvchi jamoaviy loyihada qatnashadi, shaxsiy tadqiqot hisobotini tayyorlaydi va turli nuqtayi nazarlarni qiyoslashni o'rganadi[33]. Bu yo'nalish Prezident maktablari uchun alohida amaliy qiymatga ega, chunki u allaqachon qo'llanilayotgan dastur doirasidagi tayyor institutsional shakldir. Jumladan, Andijon shahridagi Prezident maktabida Global Perspectives mashg'ulotlarida o'quvchilar muammoni turli nuqtayi nazardan o'rganish, manbalar ishonchliligini baholash va dalillarga tayangan xulosa chiqarishni loyiha orqali o'zlashtiradi, yil yakunidagi STEM Fair ko'rgazmasida esa har yili 40 dan ortiq yakuniy loyiha taqdim etiladi.

1-jadval: **Loyihaga asoslangan ta'lim modellarining qiyosiy tavsifi**

Mamlakat yoki dastur	Model nomi	Tashkiliy yechim va vaqt resursi	Baholash mexanizmi
AQSh	Sifat standartiga asoslangan loyiha dizayni	Loyiha sikli o'quv jarayonining asosi (High Tech High); ochiq ko'rgazma	Rubrika, portfolio, ommaviy himoya
Finlyandiya	Hodisaga asoslangan fanlararo modul	Yiliga kamida bitta majburiy modul; o'quvchi rejalashtirishda ishtirok etadi	Fan maqsadlari bo'yicha formativ baholash
Daniya	Aalborg loyiha modeli	Semestrning katta qismi guruhiy loyihaga ajratiladi	Hisobotning og'zaki himoyasi
Niderlandiya	Muammoga asoslangan ta'lim	"Yetti qadam" tartibi; tyutorli kichik guruhlar	Jarayon va guruhdagi hissa baholanadi

28 Федеральный государственный образовательный стандарт среднего общего образования: утв. приказом Минобрнауки России от 17.05.2012 № 413.
29 Полат Е.С. и др. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования. - М.: Академия, 2000.
30 AEO "Nazarbayev Intellectual Schools". NIS of Physics and Mathematics in Almaty: School Profile. - Almaty, 2022. - URL: https://fmalm.nis.edu.kz
31 NIS Petropavlovsk. Students presented their projects within the "Service to Society" program. - 14.04.2026. - URL: https://schools.nis.edu.kz
32 IBO. MYP: From Principles into Practice. – Cardiff, 2014.
33 CAIE. Cambridge IGCSE Global Perspectives 0457: Syllabus. – 2023.

Mamlakat yoki dastur	Model nomi	Tashkiliy yechim va vaqt resursi	Baholash mexanizmi
Singapur	Project Work majburiy fani	Alohida fan; 4-5 kishilik guruh; bir yillik sikl	Imtihon; oliy ta'limga qabulda hisobga olinadi
Germaniya	Loyiha haftaligi	Dars jadvali to'xtatiladigan maxsus hafta; aralash guruhlar	Ko'rgazma, jarayon hujjatlari
Yaponiya	Integrallashgan o'rganish vaqti	Dasturda ajratilgan maxsus soatlar bloki	Tavsifiy baho, refleksiv hisobot
Turkiya	Fan dasturiga singdirilgan loyiha	Fan dasturining tarkibiy qismi; TÜBİTAK tanlovlari	Fan bahosi tarkibida; tanlov ekspertizasi
Rossiya	Individual loyiha	10-11-sinflarda majburiy; 1-2 o'quv yili	Ochiq himoya; yakuniy attestatsiya bilan bog'liq
Qozog'iston (NIS)	Global Perspectives and Project Work; "Jamiyatga xizmat"	11-sinfda alohida fan; 8-sinfda yillik loyiha, yuqori sinf mentorlari	Kriterial baholash; Cambridge bilan tashqi baholash
Xalqaro bakalavriat	Bosqichma-bosqich majburiy loyihalar	Har bosqich yakunida mentorli loyiha	Kriterial baholash, jarayon jurnali
Cambridge Global Perspectives	Tadqiqot va jamoaviy loyiha	Dastur doirasida jamoaviy loyiha va shaxsiy hisobot	Sillabus mezonlari bo'yicha tashqi baholash

Qiyosiy tahlil modellarning uchta umumiy jihatini ko'rsatdi.

Birinchidan, barcha muvaffaqiyatli tizimlarda loyiha faoliyati uchun o'quv rejasida real vaqt ajratilgan - u o'qituvchining shaxsiy tashabbusiga emas, institutsional qarorga tayanadi: Finlyandiyadagi majburiy modul, Germaniyadagi loyiha haftaligi va Yaponiyadagi maxsus soatlar bloki bunga yaqqol misol.

Ikkinchidan, hamma joyda loyiha natijasi tashqi auditoriyaga - ko'rgazma, og'zaki himoya yoki tanlov shaklida taqdim etiladi.

Uchinchidan, baholash yakuniy mahsulot bilan cheklanmay, jarayonni ham qamrab oladi va buning uchun rubrika, portfolio hamda refleksiv hujjatlardan foydalaniladi[34].

Farqlar to'rtta yo'nalishda kuzatiladi.

Birinchisi - **normativ maqom:** Singapurda loyiha alohida imtihon fani, Rossiyada attestatsiya bilan bog'langan majburiy element, Finlyandiyada majburiy modul, Germaniyada esa ko'proq tashkiliy an'ana.

Ikkinchisi - **integratsiya darajasi:** fin va yapon modellari qat'iy fanlararo yo'nalishga ega, turk modeli fan ichidagi loyihaga tayanadi.

Uchinchisi - **baholashning attestatsiya bilan bog'liqligi:** Singapurda loyiha bahosi oliy ta'limga qabulga ta'sir qiladi, Yaponiyada esa tavsifiy baho bilan cheklanadi.

To'rtinchisi - **markazlashuv darajasi:** fin modelida mazmun mahalliy darajada belgilansa, xalqaro dasturlarda u sillabus bilan qat'iy tartibga solinadi.

Samaradorlik masalasida mavjud meta-tahlillar umuman ijobiy manzarani beradi: Chen va Yang loyihaga asoslangan ta'lim an'anaviy o'qitishga nisbatan o'rtachadan yuqori samara berishini aniqlagan, biroq samaraning kattaligi fan sohasi, o'qitish soatlari hajmi va texnologik ta'minotga bog'liqligini ta'kidlagan[35].

Keyingi meta-tahlil ham metodning tafakkur ko'nikmalari va o'quv munosabatiga ijobiy ta'sirini tasdiqlab, natijalar mamlakat, ta'lim bosqichi va guruh hajmiga qarab sezilarli farqlanishini ko'rsatgan[36]. Demak, meta-tahlillar metodning o'zini emas, balki uni qo'llash sharoitlarini birinchi o'ringa chiqaradi.

Tanqidiy qarashni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi: P.Kirshner va hammualliflari yetarli yo'l-yo'riqsiz olib boriladigan izlanishli ta'lim yangi materialni o'zlashtirayotgan o'quvchi uchun kognitiv yuklamani haddan ortiq oshirishini asoslagan[37]. Tahlil qilingan modellarda bu e'tiroz amalda hisobga olingan: Aalborg modelidagi supervayzer, xalqaro bakalavriatdagi mentor, Maastrixtdagi tyutor va NIS maktablaridagi yuqori sinf mentori aynan shu vazifani bajaradi. Demak, jahon amaliyotida loyiha metodi o'qituvchining chetga chiqishini emas, uning rolining o'zgarishini anglatadi.

34 Kokotsaki D., Menzies V., Wiggins A. Project-Based Learning: A Review. - 2016.
35 Chen C.-H., Yang Y.-C. Revisiting the Effects of PBL: A Meta-Analysis. - 2019.
36 Zhang L., Ma Y. The Impact of PBL on Student Learning Effects. - 2023.
37 Kirschner P.A., Sweller J., Clark R.E. Why Minimal Guidance Does Not Work. - 2006.

Xorijiy tajribani moslashtirish masalasida o'zbek olimlarining qarashlari muhim tayanch bo'ladi. J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonov ta'kidlaganidek, har qanday pedagogik texnologiya amaliyotga bosqichma-bosqich, tayyorlov ishlari va pedagoglarni o'qitish bilan birga joriy etilishi lozim[38]; R.X.Djurayev va S.T.Turg'unov esa yangilik taqdiri ko'p jihatdan ta'lim muassasasi boshqaruviga bog'liqligini ko'rsatgan[39]. Sh.Uzoqov qayd etgan metodik qo'llanmalar tanqisligi va pedagoglar tayyorgarligidagi bo'shliq[40] esa xorijiy modellarni ko'chirishdan oldin milliy metodik ta'minot yaratish zarurligini ko'rsatadi.

Shu asosda xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirishning yettita shartini ajratish mumkin:

- o'quv rejasida loyiha uchun vaqt ajratilishi;
- loyiha mavzusining davlat ta'lim standartidagi asosiy tushunchalar bilan bog'lanishi;
- o'qituvchilarni loyiha rahbarligiga maxsus tayyorlash tizimining yaratilishi;
- baholash mexanizmining oldindan ishlab chiqilib, rubrikaning loyiha boshida e'lon qilinishi;
- natijalar uchun real auditoriyaning ta'minlanishi;
- modelni to'liq ko'chirish o'rniga uning elementlarini bosqichma-bosqich joriy etish;
- Prezident maktablarida mavjud xalqaro dastur imkoniyatidan foydalanib, uning loyiha komponentini milliy mazmun bilan boyitish.

Bu shartlarni amalga oshirish yo'llari 2-jadvalda misollar bilan ko'rsatilgan.

2-jadval: **Xorijiy tajriba elementlarini milliy maktablarda tatbiq etish namunalari**

Xorijiy tajriba elementi	Prezident maktabida tatbiq namunasi	Umumta'lim maktabi uchun moslashtirilgan variant
Fin fanlararo moduli	Yiliga bir marta "Orol va suv" kabi hodisa atrofida 3-4 fanni birlashtiruvchi modul	Chorakda bir marta sinf rahbari muvofiqlashtiradigan ikki fanli mini-modul
Nemis loyiha haftaligi	Bahorgi loyiha haftaligi, yakunida STEM Fair ko'rgazmasi	Navro'z arafasida yoki o'quv yili yakunida uch kunlik "loyiha kunlari"
Singapur Project Work baholashi	Guruh mahsuloti bilan birga individual og'zaki himoya va refleksiya	To'garak loyihalarida individual himoya savollari va refleksiv varaqa
NIS mentorligi	11-sinf o'quvchilarining 6-7-sinf loyiha guruhlariga murabbiyligi	Hamkor Prezident maktabi o'quvchilarining umumta'lim maktabi to'garaklariga onlayn mentorligi
Rossiya individual loyihasi	10-11-sinfda Global Perspectives shaxsiy hisobotini milliy mavzular bilan boyitish	9-11-sinflarda ixtiyoriy individual loyiha, himoyasi maktab ilmiy jamiyatida
Maastrixt "yetti qadami"	Loyiha boshlanishida muammoni tahlil qilish protokoli	Sinfdan tashqari mashg'ulotda soddalashtirilgan "uch qadam": savol - izlanish - xulosa

Jadvaldagi namunalar bir tamoyilga asoslanadi: xorijiy model aynan ko'chirilmaydi, balki uning samarani ta'minlovchi "yadrosi" - vaqt ajratish, real auditoriya, individual hissani ko'rsatish yoki mentorlik - ajratib olinib, maktabning resurslariga mos shaklda joriy etiladi. Masalan, NIS tajribasidagi yuqori sinf mentorligi Prezident maktabi va hamkor umumta'lim maktablari o'rtasidagi onlayn hamkorlik orqali qo'shimcha xarajatsiz amalga oshirilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

1. Jahon ta'lim amaliyotida loyihaga asoslangan ta'lim ixtiyoriy uslubiy tavsiya darajasidan chiqib, ko'plab mamlakatlarda o'quv dasturining normativ mustahkamlangan qismiga aylangan; uning maqomi tashkiliy an'anadan (Germaniya) majburiy modul (Finlyandiya), attestatsiya bilan bog'langan individual loyiha (Rossiya) va alohida imtihon fanigacha (Singapur) bo'lgan keng oraliqda farqlanadi.
2. Modellarning uchta umumiy jihati - o'quv rejasida vaqt resursining ajratilishi, natijaning tashqi auditoriyaga taqdim etilishi va jarayonni qamrab oluvchi baholash tizimi - metod muvaffaqiyatli ishlashining minimal sharti sifatida qaralishi mumkin.
3. Farqlar normativ maqom, integratsiya darajasi, baholashning attestatsiya bilan bog'liqligi va markazlashuv darajasida namoyon bo'ladi; bu tajribani mexanik ko'chirish maqsadga muvofiq emasligini ko'rsatadi. Tarkibi va vazifalari jihatidan Prezident maktablariga eng yaqin tajriba - Qozog'istondagi NIS maktablarining loyiha ta'limi va mentorlik tizimi.

38 Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - Toshkent, 2008.
39 Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. - Toshkent: Voris, 2006.
40 Uzoqov Sh. Talabalarni loyihalash faoliyatiga tayyorlashni tadqiq qilishning nazariy jihatlari // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2025. - № 3.

4. Meta-tahlil ma'lumotlari metodning ijobiy samarasini tasdiqlaydi, biroq samara kattaligi qo'llash sharoitlariga kuchli bog'liq; shu sababli asosiy e'tibor metodning o'ziga emas, uni qo'llab-quvvatlovchi tizimga - o'qituvchi tayyorgarligi, boshqaruv va metodik ta'minotga qaratilishi lozim. Bu xulosa o'zbek olimlarining pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qarashlari bilan to'liq hamohang.
5. O'zbekiston sharoitida xorijiy tajribani moslashtirishning yettita sharti asoslandi va ularni amalga oshirish namunalari taklif etildi. Prezident maktablari uchun eng qisqa yo'l - mavjud xalqaro dastur doirasidagi loyiha komponentini milliy mazmun bilan boyitish, so'ngra mentorlik va maktablararo hamkorlik orqali bu tajribani umumta'lim maktablariga bosqichma-bosqich yoyishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O'qituvchi, 1992.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
3. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti. - Toshkent: Voris, 2006.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar: ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. - Toshkent: Iste'dod, 2008. - 180 b.
5. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Nihol, 2016.
6. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: Sano-standart, 2015. - 208 b.
7. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - Toshkent: Fan, 2006. - 261 b.
8. Uzoqov Sh. Talabalarni loyihalash faoliyatiga tayyorlashni tadqiq qilishning nazariy jihatlari // Jamiyat va innovatsiyalar. - 2025. - Vol. 6, № 3. - B. 380-384. DOI: 10.47689/2181-1415-vol6-iss3-pp380-384.
9. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2008.
10. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю., Моисеева М.В., Петров А.Е. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования / Под ред. Е.С. Полат. - М.: Академия, 2000.
11. Федеральный государственный образовательный стандарт среднего общего образования: утв. приказом Министерства образования и науки РФ от 17.05.2012 № 413.
12. AEO "Nazarbayev Intellectual Schools". NIS of Physics and Mathematics in Almaty: School Profile. - Almaty, 2022. - URL: https://fmalm.nis.edu.kz
13. NIS Petropavlovsk. Students presented their projects within the "Service to Society" program. - 14.04.2026. - URL: https://schools.nis.edu.kz/en/school/nis-petropavl/news/2157
14. Cambridge Assessment International Education. Cambridge IGCSE Global Perspectives 0457: Syllabus. - Cambridge: CAIE, 2023.
15. Chen C.-H., Yang Y.-C. Revisiting the Effects of Project-Based Learning on Students' Academic Achievement: A Meta-Analysis // Educational Research Review. - 2019. - Vol. 26. - P. 71-81.
16. Dewey J. Democracy and Education. - New York: Macmillan, 1916. - 434 p.
17. Finnish National Agency for Education. National Core Curriculum for Basic Education 2014. - Helsinki: FNAE, 2016.
18. Frey K. Die Projektmethode. - Weinheim; Basel: Beltz Verlag, 1982.
19. Helle L., Tynjälä P., Olkinuora E. Project-Based Learning in Post-Secondary Education // Higher Education. - 2006. - Vol. 51, No. 2. - P. 287-314.
20. High Tech High. About HTH. - URL: https://www.hightechhigh.org
21. International Baccalaureate Organization. MYP: From Principles into Practice. - Cardiff: IBO, 2014.
22. Kilpatrick W.H. The Project Method // Teachers College Record. - 1918. - Vol. 19, No. 4. - P. 319-335.
23. Kirschner P.A., Sweller J., Clark R.E. Why Minimal Guidance During Instruction Does Not Work // Educational Psychologist. - 2006. - Vol. 41, No. 2. - P. 75-86.
24. Kokotsaki D., Menzies V., Wiggins A. Project-Based Learning: A Review of the Literature // Improving Schools. - 2016. - Vol. 19, No. 3. - P. 267-277.
25. Kolmos A., Fink F.K., Krogh L. (Eds.) The Aalborg PBL Model. - Aalborg: Aalborg University Press, 2004.
26. Larmer J., Mergendoller J., Boss S. Setting the Standard for Project Based Learning. - Alexandria, VA: ASCD, 2015.
27. Lonka K. Phenomenal Learning from Finland. - Helsinki: Edita, 2018.
28. Ministry of Education, Singapore. Project Work: Syllabus and Assessment Requirements. - Singapore: MOE, 2023.
29. OECD. Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. - Paris: OECD Publishing, 2019.
30. Schmidt H.G. Problem-Based Learning: Rationale and Description // Medical Education. - 1983. - Vol. 17, No. 1. - P. 11-16.
31. Symeonidis V., Schwarz J.F. Phenomenon-Based Teaching and Learning through the Pedagogical Lenses of Phenomenology // Forum Oświatowe. - 2016. - Vol. 28, No. 2. - P. 31-47.
32. Tan O.S. Problem-Based Learning Innovation. - Singapore: Thomson Learning, 2003.
33. Thomas J.W. A Review of Research on Project-Based Learning. - San Rafael, CA: The Autodesk Foundation, 2000. - 46 p.
34. Zhang L., Ma Y. A Study of the Impact of Project-Based Learning on Student Learning Effects: A Meta-Analysis // Frontiers in Psychology. - 2023. - Vol. 14. - Article 1202728.

KOLLABORATIV TA'LIM MUHITIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING KOGNITIV FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI

Aslanova Nozima Xakimovna
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari
kafedrasi mudiri, p.f.f.d (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada kollaborativ ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishning nazariy-metodologik va texnologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'quvchilarning idrok, diqqat, xotira, tafakkur, muammoni hal qilish, metakognitiv boshqaruv hamda kommunikativ-kognitiv faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda nazariy va qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish, kuzatish, diagnostika, monitoring hamda pedagogik tajriba-sinovga tayyorgarlik metodlaridan foydalanilgan. Natijada kollaborativ ta'limni diagnostik monitoring, individual pedagogik ta'sir va rivojlanish trayektoriyasi bilan integratsiyalovchi 10 bosqichli pedagogik model ishlab chiqilgan. Mazkur model diagnostik bosqich, kognitiv komponentlarni kuzatish va tahlil qilish, kollaborativ pedagogik ta'sirni tashkil etish, yakuniy monitoring hamda individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash bosqichlarini qamrab oladi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'limda kollaborativ texnologiyalarni o'quvchilarning individual kognitiv ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kognitiv faoliyat, kollaborativ ta'lim, innovatsion texnologiyalar, pedagogik model, diagnostika, monitoring, metakognitsiya, individual rivojlanish trayektoriyasi, pedagogik ta'sir.

Abstract: This article examines the theoretical, methodological, and technological foundations for developing the cognitive activity of primary school students in a collaborative learning environment. The primary aim of the study is to develop a pedagogical model designed to enhance students' perception, attention, memory, thinking, problem-solving skills, metacognitive regulation, and communicative-cognitive activity. The study employs theoretical and comparative analysis, pedagogical modeling, observation, diagnostics, monitoring, and methods of preparation for pedagogical experimentation. As a result, a ten-stage pedagogical model integrating collaborative learning with diagnostic monitoring, individualized pedagogical intervention, and students' developmental trajectories was developed. The model encompasses the stages of diagnosis, observation and analysis of cognitive components, organization of collaborative pedagogical intervention, final monitoring, and determination of individual developmental trajectories. The findings demonstrate the potential for integrating collaborative technologies with students' individual cognitive needs in primary education.

Key words: primary education, cognitive activity, collaborative learning, innovative technologies, pedagogical model, diagnostics, monitoring, metacognition, individual developmental trajectory, pedagogical intervention.

Аннотация: В статье исследованы теоретико-методологические и технологические основы развития когнитивной деятельности учащихся начальных классов в условиях коллаборативной образовательной среды. Основной целью исследования является разработка педагогической модели, направленной на развитие восприятия, внимания, памяти, мышления, способности решать проблемы, метакогнитивного управления и коммуникативно-когнитивной деятельности учащихся. В исследовании использованы методы теоретического и сравнительного анализа, педагогического моделирования, наблюдения, диагностики, мониторинга, а также подготовки к педагогической опытно-экспериментальной работе. В результате разработана десятиэтапная педагогическая модель, интегрирующая коллаборативное обучение с диагностическим мониторингом, индивидуальным педагогическим воздействием и траекторией развития учащегося. Данная модель охватывает этапы диагностики, наблюдения и анализа когнитивных компонентов, организации коллаборативного педагогического воздействия, итогового мониторинга и определения индивидуальной траектории развития. Результаты исследования демонстрируют возможности интеграции коллаборативных технологий с индивидуальными когнитивными потребностями учащихся в системе начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, когнитивная деятельность, коллаборативное обучение, инновационные технологии, педагогическая модель, диагностика, мониторинг, метакогниция, индивидуальная траектория развития, педагогическое воздействие.

KIRISH

Zamonaviy boshlang‘ich ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchiga tayyor bilimlarni berish bilan chegaralanmasdan, uning mustaqil fikrlashi, muammoni tahlil qilishi, savol berishi, dalillashi, xulosa chiqarishi va o‘z faoliyatini boshqarishi uchun pedagogik sharoit yaratishdan iborat.

Kognitiv faoliyat o‘quvchining bilimni qabul qilishi va qayta ishlashi bilan bir qatorda, uni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, yangi vaziyatlarda qo‘llash hamda o‘z bilish jarayonini nazorat qilishini ham qamrab oladi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda kognitiv rivojlanishni faqat o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari orqali baholash yetarli emas.

Kollaborativ ta’lim mazkur muammoni hal etishda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Chunki o‘quvchilar kichik guruh va juftliklarda ishlash jarayonida o‘z fikrlarini ifodalaydi, tengdoshlarining qarashlarini tinglaydi, turli yechimlarni taqqoslaydi va umumiy xulosaga keladi.

OECD Learning Compass 2030 konsepsiyasida o‘quvchi agentligi va hamkorlikdagi agentlik – co-agency ta’lim jarayonining muhim komponentlari sifatida ko‘rsatiladi. Bunda o‘quvchining rivojlanishi boshqa o‘quvchilar, o‘qituvchi, oila va ta’lim hamjamiyati bilan hamkorlikda amalga oshirilishi ta’kidlanadi.

Kollaborativ ta’lim bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda ham samarali hamkorlik shunchaki o‘quvchilarni guruhlarga ajratishdan iborat emasligi, balki umumiy maqsad, individual mas’uliyat, o‘zaro bog‘liqlik va faol muloqotni talab qilishi qayd etiladi.

Shu jihatdan kollaborativ ta’lim + kognitiv diagnostika + individual pedagogik ta’sir + monitoring integratsiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishning istiqbolli modeli sifatida qaralishi mumkin.

Amaliyotda kollaborativ texnologiyalardan foydalanish holatlari mavjud bo‘lsa-da, ko‘pincha o‘quvchilarning boshlang‘ich kognitiv holati yetarlicha diagnostika qilinmaydi. Guruhli faoliyat natijasi individual rivojlanish bilan bog‘lanmaydi. Barcha o‘quvchilarga bir xil pedagogik ta’sir ko‘rsatiladi. Monitoring natijalari keyingi ta’lim strategiyasini belgilashda to‘liq foydalanilmaydi. Kollaborativ faoliyat va individual rivojlanish trayektoriyasi o‘rtasidagi uzviy aloqa yetarlicha modellashtirilmaydi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy muammosi kollaborativ ta’lim muhitida o‘quvchining individual kognitiv rivojlanishini diagnostika qilish, pedagogik qo‘llab-quvvatlash va monitoring qilishning yaxlit texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi – kollaborativ ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik model va texnologiyalar tizimini ishlab chiqish hamda uning tarkibiy komponentlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Maqsadga muvofiq quyidagi vazifalar belgilandi:

- kognitiv faoliyat va kollaborativ ta’limning pedagogik mohiyatini aniqlash;
- boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyat komponentlarini belgilash;
- kognitiv rivojlanishni diagnostika qilish mezonlarini ishlab chiqish;
- kollaborativ ta’lim texnologiyalarining kognitiv rivojlanishga ta’sir mexanizmlarini aniqlash;
- diagnostika, pedagogik ta’sir va monitoringni o‘zaro bog‘lovchi model yaratish;
- o‘quvchining individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirish masalasi psixologik va pedagogik nazariyalarda o'quvchining bilimni faol ravishda o'zlashtirishi, qayta ishlashi va ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida yangi ma'no yaratishi bilan izohlanadi. Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasida [1] yuqori psixik funksiyalarning rivojlanishi avvalo ijtimoiy faoliyatda yuzaga kelishi, keyinchalik esa individual ichki faoliyatga aylanishi ta'kidlanadi. Bu g'oya kollaborativ ta'limda tengdoshlar va o'qituvchi bilan muloqotning kognitiv rivojlanishdagi rolini tushuntirish uchun muhim metodologik asos yaratadi. Piaget [2] esa bolaning bilimni tayyor holda qabul qilmasdan, faol harakat va tafakkur orqali konstruksiya qilishini asoslaydi. Brunerning ta'limning madaniy va kommunikativ tabiatiga oid qarashlari [10] ham bilimning muloqot, talqin va birgalikdagi ma'no yaratish jarayonida rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi.

Kollaborativ ta'limning ilmiy talqinida Dillenbourg [9] hamkorlikni bir necha ishtirokchi umumiy vazifa ustida o'zaro ta'sirga kirishadigan va bilimni birgalikda quradigan ta'limiy vaziyat sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu yondashuvda natija faqat guruh mahsuloti bilan emas, balki o'quvchilar o'rtasidagi tushuntirish, savol berish, qarama-qarshi fikrlarni muhokama qilish va kelishuvga erishish jarayonlari bilan ham belgilanadi. Mercer [8] tilni "birgalikda fikrlash" vositasi sifatida talqin qilib, dialog o'quvchining fikrini tashqi shaklda ifodalash, uni boshqalarning fikri bilan taqqoslash va qayta ko'rib chiqish imkonini berishini ko'rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, kollaborativ muhit kognitiv faoliyatni faollashtiruvchi ijtimoiy-kognitiv makon sifatida qaraladi.

Kooperativ ta'lim bo'yicha Johnson, Johnson va Holubec [3] samarali guruh faoliyati uchun ijobiy o'zaro bog'liqlik, individual mas'uliyat, faol o'zaro ta'sir, ijtimoiy ko'nikmalar hamda guruh faoliyatini refleksiv tahlil qilish kabi tarkibiy shartlarni ajratadi. Slavin [4] ham guruh maqsadi bilan individual mas'uliyatning uyg'unligini kooperativ ta'lim samaradorligining muhim omili sifatida ko'rsatadi. Kyndt va hammualliflar tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil [5] yuzma-yuz kooperativ ta'limning turli ta'lim natijalariga ijobiy ta'sirini umumlashtiradi. Ushbu tadqiqotlar kollaborativ faoliyatning samarasi guruh tuzishning o'ziga emas, balki vazifalarning mazmuni, rollarning aniqligi, o'zaro yordam, individual hissani kuzatish va teskari aloqaning sifatiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Zamonaviy kompetensiyaviy yondashuvlarda ham o'quvchining kognitiv rivojlanishi hamkorlik va agentlik bilan uzviy bog'lanadi. OECD Learning Compass 2030 [6] o'quvchi agentligi va co-agencyni ta'limning kelajak modeli uchun muhim tushunchalar sifatida ilgari suradi; bunda o'quvchi o'z ta'lim faoliyatining faol ishtirokchisi bo'lishi va boshqalar bilan hamkorlikda maqsadga erishishi nazarda tutiladi. OECD Teaching Compass [7] esa o'qituvchining o'quv jarayonidagi roli mazmunni uzatuvchi funksiyadan kengroq bo'lib, o'quv muhitini loyihalash, o'quvchi rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va o'zgarishlarga mos pedagogik qarorlar qabul qilish bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Bu yondashuvlar kollaborativ ta'limni diagnostika, pedagogik qo'llab-quvvatlash va monitoring bilan bir tizimda ko'rish zaruratini kuchaytiradi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda kollaborativ ta'limning nazariy asoslari, kognitiv rivojlanish mexanizmlari va guruhdagi hamkorlik samaradorligini ta'minlovchi shartlar yetarlicha yoritilgan. Biroq boshlang'ich sinf sharoitida o'quvchining dastlabki kognitiv holatini diagnostika qilish, kollaborativ faoliyat davomida individual o'zgarishlarni monitoring qilish, aniqlangan ehtiyojlarga mos differensial pedagogik ta'sirni belgilash va yakunda individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish jarayonlari ko'pincha alohida-alohida ko'rib chiqiladi. Shu sababli kollaborativ ta'lim + diagnostika + individual pedagogik ta'sir + monitoring + rivojlanish trayektoriyasini yagona texnologik sikl sifatida integratsiyalash ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy-metodik yo'nalishini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-metodik va modellashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, kognitiv faoliyatni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini aniqlash va ularni yaxlit modelga birlashtirishga yo'naltirildi.

Tadqiqotning metodologik asosini konstruktivistik yondashuv, sotsiokonstruktivistik yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kollaborativ ta'lim, metakognitiv yondashuv, diagnostik-monitoring yondashuvi tashkil etdi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:


1. **Nazariy metodlar** sifatida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimli tahlil, umumlashtirish, modellashtirish tanlab olindi.
2. **Empirik metodlar** sifatida pedagogik kuzatish, diagnostik topshiriqlar, suhbat, test, o'quv faoliyati mahsulotlarini tahlil qilish, monitoring tanlandi.
3. **Pedagogik metodlar** sifatida kollaborativ topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, juftlikdagi ish, kichik guruhlardagi ish, loyiha faoliyati, tengdoshlar orqali o'qitish, refleksiya kabi metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot doirasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyati quyidagi komponentlar asosida tizimlashtirildi:

Komponent	Mazmuni
Idrok	Axborotni qabul qilish, ajratish va farqlash
Diqqat	E’tiborni jamlash va saqlash
Asosiy kognitiv ko‘nikmalar	O‘qish, yozish, hisoblash, algoritmik harakatlar
Regulyativ faoliyat	Rejalashtirish, o‘zini nazorat qilish, xatoni aniqlash
Tushunish	Mazmunni anglash, bog‘lanishlarni aniqlash, xulosa chiqarish
Ifoda	Fikrni og‘zaki, yozma va grafik shaklda ifodalash
Muammoli faoliyat	Muammoni aniqlash va yechim ishlab chiqish
Metakognitiv faoliyat	O‘z faoliyatini anglash va baholash
Kollaborativ faoliyat	Hamkorlik, fikr almashish, dalillash
Transfer	Bilimni yangi vaziyatga ko‘chirish

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida “Kollaborativ ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik modeli” ishlab chiqildi. Model o‘zaro bog‘langan 10 ta bosqichdan tashkil topadi.



1-rasm: **Kollaborativ ta’lim muhitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishning innovatsion pedagogik modeli**

1-bosqich. **Boshlang‘ich diagnostika.** O‘quvchining dastlabki kognitiv holati aniqlanadi. Vositalar sifatida test, diagnostik topshiriq, kuzatish, suhbat, individual profil usullaridan foydalaniladi. Natijada o‘quvchining boshlang‘ich kognitiv profili aniqlanadi.

2-bosqich. **Idrokni kuzatish.** O‘quvchining diqqat, sezgi, ajratish, farqlash, vizual va verbal axborotni qabul qilish xususiyatlari aniqlanadi.

3-bosqich. **Asosiy ko'nikmalarni aniqlash.** O'qish, yozish, hisoblash, algoritmik harakatlar va bazaviy o'quv ko'nikmalari diagnostika qilinadi. Natijada o'quvchining mustaqilligi, aniqligi va xatolar tipologiyasi aniqlanadi.

4-bosqich. **Regulyatsiyani kuzatish.** O'quvchining faoliyatni rejalashtirishi, vaqtni boshqarishi, o'zini nazorat qilishi, xatoni aniqlashi, strategiya tanlashi kuzatiladi.

5-bosqich. **Tushunish darajasini aniqlash.** Bu bosqichda reproduktiv bilimdan yuqoriroq darajadagi kognitiv faoliyat aniqlanadi: tushunish → tahlil → taqqoslash → xulosa → transfer.

6-bosqich. **Ifoda faoliyatini baholash.** O'quvchining o'z fikrini og'zaki, yozma, grafik, dalillangan shaklda ifodalashi baholanadi.

7-bosqich. **Oraliq monitoring.** Kollaborativ faoliyat jarayonida o'quvchining rivojlanish dinamikasi kuzatiladi. Bunda boshlang'ich va joriy natijalar qiyoslanadi, ijobiy siljishlar aniqlanadi, qiyinchiliklar belgilanadi, qo'shimcha ehtiyojlar aniqlanadi.

8-bosqich. **Individual pedagogik ta'sir.** Aniqlangan ehtiyojlar asosida individual pedagogik strategiya ishlab chiqiladi. Bu bosqichda differensial topshiriqlar, juftlikdagi yordam, kichik guruhli hamkorlik, peer learning, loyiha topshiriqlari, muammoli vaziyatlar, raqamli kollaborativ vositalar qo'llaniladi.

9-bosqich. **Yakuniy monitoring.** Boshlang'ich va yakuniy natijalar qiyoslanib kognitiv rivojlanish darajasi, o'sish dinamikasi, kuchli tomonlar, saqlanib qolayotgan qiyinchiliklar aniqlanadi.

10-bosqich. **Rivojlanish trayektoriyasini aniqlash.** Yakuniy bosqichda har bir o'quvchi uchun keyingi rivojlanish yo'nalishi belgilanadi. Natijada individual rivojlanish trayektoriyasi + keyingi bosqich maqsadlari + monitoring rejasi tuziladi. Shunday qilib, modelning umumiy texnologik sikli quyidagicha ifodalanadi: Diagnostika → Kognitiv tahlil → Kollaborativ faoliyat → Individual pedagogik ta'sir → Monitoring → Rivojlanish trayektoriyasi → Teskari aloqa

Modelning asosiy natijasi o'quvchining individual kognitiv rivojlanishini ta'minlash va uning rivojlanish trayektoriyasini uzluksiz monitoring qilishdan iborat.

Olingan nazariy-metodik natijalar kollaborativ ta'limni faqat guruhli ish shakli sifatida emas, balki o'quvchining kognitiv rivojlanishini tashkil etuvchi pedagogik muhit sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Vygotskiyning sotsiokultural nazariyasida bolaning yuqori darajadagi psixik funksiyalari ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida rivojlanishi ta'kidlangan. Ushbu nazariy pozitsiya kollaborativ ta'limning metodologik asoslaridan biri sifatida qaralishi mumkin.

Johnson va Johnson tomonidan ishlab chiqilgan cooperative learning konsepsiyasida esa samarali hamkorlik uchun ijobiy o'zaro bog'liqlik, individual mas'uliyat, yuzma-yuz o'zaro ta'sir, ijtimoiy ko'nikmalar va guruh faoliyatini refleksiv baholash muhimligi ko'rsatiladi.

Slavin tadqiqotlarida ham kooperativ ta'limning samaradorligi guruhdagi hamkorlikning o'zi bilan emas, balki guruh maqsadi va individual mas'uliyatning uyg'unligi bilan bog'liqligi qayd etilgan.

Shu nuqtayi nazardan ishlab chiqilgan modelning muhim jihati shundaki, "guruhli faoliyat" va "individual rivojlanish" qarama-qarshi qo'yilmaydi. Aksincha:

Kollaborativ faoliyat → ijtimoiy o'zaro ta'sir → kognitiv faollashuv → individual refleksiya → pedagogik qo'llab-quvvatlash → individual rivojlanish

zanjiri shakllantiriladi.

Bu yondashuvda o'qituvchining roli ham o'zgaradi. O'qituvchi tayyor bilimni yetkazuvchi emas, balki: diagnost → fasilitator → moderator → pedagogik dizayner → monitoringchi sifatida faoliyat yuritadi.

Innovatsion texnologiyalarni qo'llashda ham texnologiyaning o'zi maqsad emas. Masalan, raqamli platformadan foydalanishning pedagogik qiymati o'quvchi fikr yaratgan, muammoni tahlil qilgan, hamkorlik qilgan, fikrini asoslagan, yangi yechim yaratgan taqdirdagina yuzaga chiqadi. Shuning uchun tadqiqotda innovatsion texnologiyalar kognitiv faoliyatni kuchaytiruvchi pedagogik vosita sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotning natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishning diagnostik-monitoring va kollaborativ pedagogik ta'sirga asoslangan modeli ishlab chiqildi. Kognitiv rivojlanishning idrok, asosiy ko'nikmalar, regulyatsiya, tushunish, ifoda va kollaborativ faoliyat komponentlari o'zaro tizimlashtirildi. Kollaborativ ta'lim texnologiyalari o'quvchining individual kognitiv ehtiyojlari bilan bog'landi. Diagnostika natijalaridan kelib chiqib individual pedagogik ta'sir va rivojlanish trayektoriyasini belgilash mexanizmi ishlab chiqildi. Kognitiv rivojlanishning uzluksizligini ta'minlovchi teskari aloqa mexanizmi modelga integratsiya qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirishda kollaborativ ta’lim muhitidan foydalanish o‘quvchining bilish jarayonlarini faollashtirish, fikr almashish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, dalillash va refleksiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Bunda kollaborativ ta’limni samarali tashkil etish uchun uni diagnostika va monitoring bilan bog‘lash muhim hisoblanadi. Ishlab chiqilgan 10 bosqichli model boshlang‘ich diagnostika → kognitiv komponentlarni aniqlash → kollaborativ pedagogik ta’sir → monitoring → individual rivojlanish trayektoriyasi mantiqiy ketma-ketligiga asoslanadi. Modelning muhim xususiyati – o‘quvchining individual rivojlanish ehtiyojlarini aniqlash va shu ehtiyojlar asosida pedagogik ta’sirni differensiallashtirishdir.

Shunday qilib, kollaborativ ta’lim, diagnostik monitoring va individual pedagogik qo‘llab-quvvatlashning integratsiyasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv faoliyatini rivojlantirish uchun yaxlit pedagogik tizim sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
2. Piaget, J. (1972). The Psychology of the Child. Basic Books.
3. Johnson, D. W., Johnson, R. T., & Holubec, E. J. (1998). Cooperation in the Classroom. Interaction Book Company.
4. Slavin, R. E. (2014). Cooperative learning and academic achievement: Why does groupwork work? Anales de Psicología, 30(3), 785–791.
5. Kyndt, E., Raes, E., Lismont, B., Timmers, F., Cascallar, E., & Dochy, F. (2013). A meta-analysis of the effects of face-to-face cooperative learning. Educational Research Review, 10, 133–149.
6. OECD. (2019). OECD Future of Education and Skills 2030: OECD Learning Compass 2030. OECD.
7. OECD. (2025). OECD Teaching Compass: Reimagining teachers as agents of curriculum changes. OECD Education Policy Perspectives.
8. Mercer, N. (2000). Words and Minds: How We Use Language to Think Together. Routledge.
9. Dillenbourg, P. (1999). Collaborative Learning: Cognitive and Computational Approaches. Elsevier.
10. Bruner, J. S. (1996). The Culture of Education. Harvard University Press.

KATTA GURUH BOLALARINI TABIAT BILAN TANISHTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Otayeva Salamat Sabirovna
Urganch RANCH texnologiya universiteti
"Pedagogika va aniq fanlar" kafedrasi v.b. dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada katta guruh, ya'ni 5–6 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida bevosita kuzatish, tajriba o'tkazish, sayr va ekskursiyalar tashkil etish, tabiat burchagidagi amaliy faoliyat, didaktik o'yinlar, muammoli vaziyatlar, suhbat hamda tabiiy materiallardan foydalanishning ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim tizimida qo'llanilayotgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi hamda xalqaro ilmiy manbalar asosida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonini samarali tashkil etishga doir metodik tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: katta guruh, maktabgacha ta'lim, tabiat, tabiat bilan tanishtirish, didaktik imkoniyatlar, kuzatish, tajriba, ekologik tarbiya, tabiatga asoslangan ta'lim, didaktik o'yin, ekskursiya.

Abstract: This article analyzes the didactic opportunities for introducing children aged 5–6 in senior preschool groups to nature. It examines the educational and developmental potential of direct observation of nature, conducting simple experiments, organizing walks and excursions, practical activities in the nature corner, didactic games, problem-based situations, conversations, and the use of natural materials in the process of familiarizing children with nature. In addition, based on the "Ilk Qadam" ("First Step") State Curriculum implemented in the preschool education system of the Republic of Uzbekistan and international scholarly sources, the article provides methodological recommendations for effectively organizing the process of introducing preschool children to nature.

Key words: senior preschool group, preschool education, nature, familiarization with nature, didactic opportunities, observation, experiment, environmental education, nature-based learning, didactic game, excursion.

Аннотация: В статье анализируются дидактические возможности ознакомления детей старшей группы дошкольного возраста (5–6 лет) с природой. Раскрываются образовательные и воспитательные возможности непосредственного наблюдения за природой, проведения опытов, организации прогулок и экскурсий, практической деятельности в уголке природы, дидактических игр, проблемных ситуаций, бесед, а также использования природных материалов в процессе ознакомления детей с природой. Кроме того, на основе государственной учебной программы "Илк кадам" ("Первый шаг"), применяемой в системе дошкольного образования Республики Узбекистан, и международных научных источников представлены методические рекомендации по эффективной организации процесса ознакомления детей с природой.

Ключевые слова: старшая группа, дошкольное образование, природа, ознакомление с природой, дидактические возможности, наблюдение, опыт, экологическое воспитание, обучение на основе природы, дидактическая игра, экскурсия.

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida yosh avlodni tabiatga ongli, mas'uliyatli va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lishga o'rgatish, ularda ekologik dunyoqarashning ilk asoslarini shakllantirish davlat siyosati darajasidagi muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni nafaqat ularning bilim doirasini kengaytirish, balki tafakkurini rivojlantirish, hissiy-irodaviy sifatlarini tarbiyalash va atrof-muhitga estetik munosabatini shakllantirish vositasi sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yosh davri bolaning atrof-muhitni faol kuzatishi, savol berishi, taqqoslashi va tajriba orqali xulosa chiqarishi uchun muhim bosqich hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida katta guruh 5–6 yoshli bolalarni qamrab oladi. Shu yoshda tabiat bilan tanishtirish faqat tayyor ma'lumotni berish emas, balki bolaning real obyekt va hodisalar bilan faol munosabatini tashkil etish orqali bilimni o'zlashtirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiq.

Katta guruh (6–7 yosh) bolalari o‘zlarining bilish faoliyati jihatidan alohida davrni boshdan kechiradilar: ularda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash kabi aqliy operatsiyalar faol shakllana boshlaydi.

“Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayonini bolalarning rivojlanish xususiyatlariga mos tashkil etishga yo‘naltirilgan me’yoriy asoslardan biridir. [1] Xalqaro miqyosda ham sifatli erta bolalik ta’limi bolaning keyingi o‘qishga tayyorgarligi va rivojlanishi uchun muhim poydevor sifatida qaraladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta’lim-tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish masalalari bilan Sh. A. Shirinbayev, SH. B.Namazova[5], S. N. Nikolayeva[7], Sh.A.Sodiqova, M.A. Rasulxo‘jayeva[8], Hasanboyeva O., Jabborova X., Nodirova Z.[11] kabi pedagog-olimlar shug‘ullanganlar. Tadqiqotchilar tabiat bilan tanishtirishda ta’lim shakllari, metod va vositalardan maqsadli hamda o‘zaro uyg‘un holda foydalanish bolalarda tabiat haqidagi bilim va tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qilishini qayd etadilar.

Shuningdek, OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti)ning 2024-yildagi tadqiqotida erta bolalik ta’limining bola rivojlanishidagi ahamiyatini, UNESCO (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti)ning 2024-yilgi qo‘llanmasida esa ta’lim jarayonida ekologik va iqlimga oid bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni shakllantirish zarurligini yoritadi.

Mazkur manbalar tahlili tabiat bilan tanishtirish jarayonini bolaning rivojlanishi va ekologik ongini shakllantirishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini katta maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishga oid ilmiy-metodik qarashlar tashkil etdi. Tadqiqotda nazariy tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar asosida tabiat bilan tanishtirishning ta’lim shakllari, metod va vositalari, ularni qo‘llashda pedagogning vazifalari hamda ta’lim jarayonining didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish bolaning atrof-muhit haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarini shakllantirish, kuzatuvchanligini rivojlantirish hamda tabiatga nisbatan ehtiyotkor va mas’uliyatli munosabatni tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir. Ayniqsa, katta guruh yoshidagi bolalarda tabiat obyektlari va hodisalarini bevosita kuzatish, taqqoslash, ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va amaliy faoliyat orqali mustahkamlash imkoniyatlari kengayadi.

Sh.A. Shirinbayev va Sh.B. Namazova maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda kuzatish metodiga alohida ahamiyat beradi. Mualliflar tabiat bilan bevosita muloqot qilish bolalarda real tasavvurlarni shakllantirishga, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Ayniqsa, katta guruh bolalarida kuzatish orqali o‘simliklar, hayvonlar va mavsumiy tabiat hodisalaridagi o‘zgarishlarni izchil kuzatish imkoniyati yaratiladi. Bunday faoliyat bolaga faqat tayyor ma’lumotni o‘zlashtirish emas, balki tabiat hodisalarini bevosita idrok etish va ular o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash imkonini beradi. Shirinbayev va Namazovaning qo‘llanmasida kuzatish mashg‘ulot, sayr, ekskursiya hamda tabiat burchagida tashkil etilishi mumkinligi ko‘rsatilgan.[5]

Maktabgacha yosh davri bolaning bilish faoliyati jadal rivojlanadigan, atrof-muhitga qiziqishi ortadigan davr hisoblanadi. Bu yoshdagi bolalar uchun tafakkurning ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli shakllari yetakchi bo‘lib, ular narsa va hodisalarni bevosita idrok etish, ular bilan amaliy harakatlar qilish orqali bilim oladilar. Katta guruh (5–6 yosh) bolalarida esa so‘z-mantiqiy tafakkurning dastlabki unsurlari shakllana boshlaydi, bu ularga sabab-oqibat bog‘liqliklarni tushunish, umumlashtirish va oddiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Shuningdek, tabiat bilan tanishtirishda tarbiyalanuvchilarning tasavvurini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. S.S. Otayeva maqolasida “Tasavvur insonning mavjud tajribalari asosida yangi obrazlarni yaratishi, turli hodisa va narsalarni xayolan birlashtira olish qobiliyatidir. Ayniqsa, bolalarda tasavvur qilish jarayoni tabiiy va faol kechib, ular bilgan va bilmagan narsalarini xayolan tasavvur qiladilar”-deb keltirilgan. [6, 246-b]

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’limiy faoliyatlar Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablariga muvofiq “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi asosida tashkil qilinadi. Tabiat haqidagi bilimlarni berish maqsadida maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tabiatshunoslik va ekologiya asoslari mashg‘ulotlari olib boriladi. Dastur asosida katta guruhlarda hafta davomida 1 marta, bir oy davomida 4 ta, o‘quv yili davomida 36 ta tabiatshunoslik va ekologiya asoslari mashg‘ulotlari tashkil qilinadi.[1] Ushbu mashg‘ulotlarda

bolalar jonli (hayvonlar, o'simliklar, mikroorganizmlar) va jonsiz (yer, suv, havo, tuproq, qum, tosh va h.k) tabiat haqida bilimlarga ega bo'ladilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida turli guruhlarda tabiat bilan tanishtirish xilma-xil shakllarda: mashg'ulotlarda, ekskursiyalarda, kundalik hayotda, kuzatishlarda, suhbatlarda hamda mehnatda amalga oshiriladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyati hamda tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda shakllantirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bolalarda dastur talablariga mos elementar bilimlar shakllanadi, asosiy bilimlar va bolalarning qobiliyatlari ma'lum bir tartibda rivojlantiriladi. Mashg'ulotlar ularga aniqlash va tizimlashtirish imkonini beradi.

Ekskursiya – bolalarni tabiiy muhitga olib chiqib, tabiat bilan bevosita muloqotda tanishtirish shakli bo'lib, u kuzatishning kengaytirilgan va murakkablashtirilgan ko'rinishi hisoblanadi. Ekskursiya davomida bolalar bir vaqtning o'zida bir nechta tabiiy ob'ektlarni, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kuzatish, tabiiy muhitning yaxlit manzarasini idrok etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ekskursiyalar bog', park, ekin dalasi, suv havzasi bo'ylab tashkil etilishi mumkin va ular bolalarda kengroq va yaxlit tabiiy-geografik tasavvurlar shakllantiradi. MTT hududi, bog', gulzor yoki boshqa xavfsiz tabiiy makonda tashkil etilgan sayr bolaga predmetni tasvir yoki ekrandan emas, real muhitdan o'rganish imkonini beradi. Bunday faoliyat oldindan maqsad, kuzatish topshirig'i va yakuniy suhbat bilan bog'langanda didaktik jihatdan samaraliroq bo'ladi.[10]

Albatta, milliy dasturdan kelib chiqqan holda tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- bolalarni o'z o'lkasini sevishga o'rgatish;
- o'zining, tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadirlashga o'rgatish;
- tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, xayol, tasavvur, nutq, diqqat);
- bolalarni hissiyoti va irodasini rivojlantirish;
- tabiat in'om etgan ne'matlarni avaylab asrashga o'rgatish.

Tabiatshunoslik va ekologiya asoslari ta'limiy faoliyatini tashkil qilishda tabiat bilan tanishtirishning komponentlarini belgilab olish va shu asosida ish ko'rish maqsadga muvofiq sanaladi. Komponent-bolaning rivojlanish sohasi doirasida yoshiga mos ravishda egallashi va rivojlantirishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni ifodalovchi tarkibiy qism hisoblanadi.

Katta guruhlarda tabiat bilan tanishtirishning asosiy komponentlari:

1. **Ekologik bilim** – tabiat, uning jonli hamda jonsiz tarkibiy qismlarini bilish.
2. **Tabiatda tajriba** – tabiatni o'rganishda tabiatdagi oddiy tajribalarni o'tkazish.
3. **Ekologik tarbiya** – tabiatni, atrof-muhit, ekologiyani asrab-avaylash, unda insonning o'rni va ahamiyatini tushunish.

Tabiat bilan tanishtirishning didaktik imkoniyati bilim bilan cheklanmaydi. Bolalarda tabiatga ehtiyotkor munosabat, suvni tejash, o'simliklarga zarar yetkazmaslik, chiqindini belgilangan joyga tashlash kabi kundalik xulq-atvor odatlarini shakllantirish ham muhim. UNESCO erta yoshdan tabiatga bog'lanish, mas'uliyat va barqaror xulq-atvorni rivojlantirishga e'tibor qaratadi.[3]

OECD esa maktabgacha ta'limda atrof-muhitga oid bilimni amaliy ko'nikmalar va mahalliy muhit bilan bog'lash imkoniyatlarini ta'kidlaydi.[9]

Tabiat bilan tanishtirish metodlari uchta asosiy guruhga bo'linadi:

1. Ko'rgazmali metod – kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar;
2. Amaliy metod – o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar;
3. Og'zaki metod – tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o'qish, suhbat.[12,28-b]

Kuzatish metodi. Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi ko'rgazmali metod – kuzatishdan keng foydalanadi. Kuzatish – tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo'nalgan va bevosita shu hodisalarning borishiga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaror diqqat talab etiladi.

Amaliy metod. Amaliy metod bolalarning tabiat obyektlari va hodisalari bilan faol harakat orqali tanishishlarini nazarda tutadi. Ushbu guruhga o'yin, mehnat va oddiy tajribalar kiritilgan. O'yin jarayonida bolalar tabiatga oid bilimlarini amalda qo'llaydilar, tabiiy materiallar bilan faoliyat olib borish orqali ularning xususi-

yatlarini bilib oladilar. Tabiatdagi mehnat esa bolalarda o‘simlik va hayvonlarni parvarish qilish, topshiriqlarni bajarish, mas’uliyat bilan munosabatda bo‘lish kabi ko‘nikmalarni shakllantiradi. Mehnat jarayonida bolalar o‘simliklarning ehtiyojlari, rivojlanishi va hayvonlarning hayot faoliyati haqida amaliy tasavvurga ega bo‘ladilar.

Og‘zaki metod. Og‘zaki metod orqali bolalarga tabiat haqidagi bilim va tasavvurlar tarbiyachining nutqi hamda muloqot asosida yetkaziladi. Mualliflar ushbu guruhga tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o‘qish va suhbatni kiritadilar. Suhbat esa didaktik vazifasiga ko‘ra oldindan o‘tkaziladigan va yakuniy suhbat shakllariga ajratiladi. Oldindan o‘tkaziladigan suhbat kuzatish yoki ekskursiyadan avval tashkil etilib, bolalarning avvalgi bilimlari bilan yangi kuzatish o‘rtasida bog‘lanish hosil qilishga xizmat qiladi. Yakuniy suhbat esa o‘rganilgan bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash va aniqlashtirishga yo‘naltiriladi.

Tabiat bilan tanishtirish vositalari – bolalarni tabiat obyektlari va hodisalari bilan tanishtirish, ular haqidagi bilim va tasavvurlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ko‘rgazmali, tabiiy, tarqatma va texnik vositalar majmuasidir. Maktabgacha ta’limda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ko‘rgazmali, tabiiy, tarqatma va texnik vositalardan foydalaniladi. Ular bolalarning tabiat obyektlari va hodisalarini aniq idrok etishi, kuzatishi hamda o‘zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashiga xizmat qiladi.

1. **Ko‘rgazmali vositalar** – badiiy, predmetli va voqeaband rasmlar, diafilm, diapozitiv hamda o‘quv ekranlari. Ular tabiat obyektlari va hodisalarini obrazli tarzda namoyish etishga yordam beradi.
2. **Tarqatma materiallar** – bolalarga individual kuzatish va topshiriqlarni bajarish imkonini beruvchi ko‘rgazmali materiallardir.
3. **Tabiiy vositalar** – o‘simliklar, hayvonlar, tabiiy materiallar va boshqa tabiat obyektlari bo‘lib, ular orqali bola tabiatni bevosita kuzatadi va o‘rganadi.
4. **Texnik vositalar** – tabiatga oid axborotni tasvir va namoyish orqali yetkazishga xizmat qiluvchi ekran va boshqa texnik qurilmalardir.

Tabiat bilan tanishtirish jarayonini samarali tashkil etishda ta’lim shakllari, metod va vositalar bilan bir qatorda, pedagogning oldiga qo‘yilgan vazifalarni mazmunan to‘g‘ri belgilashi va izchil amalga oshirishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyalanuvchilarni atrof-olam bilan tanishtirish uchun bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglar oldida turgan vazifalar quyidagicha:

1. **Bolalarda boshlang‘ich bilim tizimini shakllantirish.** Tabiat haqidagi bilimlar tizimiga uning predmetlari va hodisalari (ularning belgilari, xossalari) haqidagi bilimlar, shuningdek ular orasidagi aloqalar va munosabatlar kiradi.
2. **Bolalarda mehnat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.** Bolalikdan olingan mehnat ko‘nikma va malakalar yo‘q bo‘lib ketmaydi kelajakda ular yanada murakkab mehnat turlariga aylanib boraveradi.
3. **Bolalarda tabiatga muhabbatni shakllantirish.** Tabiatga g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish, kerak bo‘lganda, yaxshi ishlar va xatti - harakatlarning namoyon bo‘lishini nazarda tutadi va buning uchun bolalar o‘simliklarga qanday g‘amxo‘rlik qilishni, ularning qulay o‘sishi va rivojlanishi uchun qanday sharoit yaratishni bilishlari kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, katta guruh bolalarini tabiat bilan tanishtirishning didaktik imkoniyatlari real tabiat obyektlari va hodisalarini kuzatish, tajriba, o‘yin, sayr, ekskursiya, amaliy parvarish, muammoli vaziyat va ijodiy topshiriqlarni o‘zaro bog‘lash orqali kengayadi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar tabiatga asoslangan ta’limning bolalarning bilish, jismoniy, ijtimoiy-emotsional va ekologik rivojlanishi bilan bog‘liq imkoniyatlarini ko‘rsatmoqda. Shu sababli 5–6 yoshli bolalar bilan ishlashda pedagogning vazifasi tabiat haqidagi tayyor bilimlarni ko‘paytirishdan ko‘ra, bolaning kuzatishi, savol berishi, tajriba qilishi, fikr yuritishi va tabiatga mas’uliyatli munosabatini shakllantiradigan didaktik muhitni yaratishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’limning “Ilk qadam” milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2026.
2. UNESCO. The Right to a Strong Foundation: Global Report on Early Childhood Care and Education. – Paris: UNESCO, 2024.
3. UNESCO. Greening Curriculum Guidance: Teaching and Learning for Climate Action. Key Concepts, Topics, and Learning Outcomes. – Paris: UNESCO, 2024.

4. Nature-Based Outdoor Learning Environments and Preschoolers' STEAM Concept Formation: A Scoping Review. Education Sciences, 2024, 14(6), 627.
5. Ширинбаев Ш.А., Намазова Ш.Б. Методика ознакомления дошкольников с природой: методические рекомендации. – Самарканд: СамГИИЯ, 2008. – 56 с.
6. Otayeva S.S. "Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari". Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali-2026.-№ 7(3) - B. 243-249.
7. Николаева С.Н. Воспитание экологической культуры в дошкольном детстве: методика работы с детьми подготовительной группы детского сада. – М.: Просвещение, 2002.
8. SH.A.Sodikova, M.A.Rasulxo'jayeva Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi: o'quv qo'llanma.- Toshkent, 2013.
9. OECD. Reducing Inequalities by Investing in Early Childhood Education and Care. – OECD Publishing, 2024.
10. A.G.Grigoryans, U. Gofurova. Bolalar bog'chasida ekologik tarbiya.- Toshkent: O'qituvchi , 2002.
11. Hasanboyeva O., Jabborova X., Nodirova Z. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi [Matn]: kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. – To'ldirilgan qayta nashri. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2016.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

KO‘RISHIDA NUQSONI BO‘LGAN SHAXSLARGA YORDAM KO‘RSATISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI: SHAXSIY VA IJTIMOIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna
Urganch RANCH texnologiya universiteti
Pedagogika va aniq fanlar kafedrasi v.b., dotsenti
maqsuda060179@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarga psixologik yordam ko‘rsatishning nazariy asoslariga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shuningdek, zaif ko‘rish tushunchasining shakllanish tarixi va mohiyati, mazkur muammoga doir olimlarning ilmiy qarashlari hamda ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarning psixologik xususiyatlari yoritilgan. Ularning o‘z-o‘zini baholashi, psixologik farovonligi, emotsiyalarni boshqarishi, boshqalarning emotsiyalarini anglash qobiliyati, emotsional kompetentligi, empatiyasi, shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalari hamda shaxslararo munosabatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar, zaif ko‘rish, o‘z-o‘zini baholash, psixologik farovonlik, emotsiyalarni boshqarish, boshqalarning emotsiyalarini anglash, emotsional kompetentlik, empatiya, shaxsiy ko‘nikmalar, ijtimoiy ko‘nikmalar, shaxslararo munosabatlar.

Abstract: The article presents an analysis of the scientific literature on the theoretical and psychological foundations of providing support to individuals with visual impairments. It examines the historical development and essence of the concept of low vision, researchers’ perspectives on this issue, and the psychological characteristics of individuals with visual impairments. Particular attention is paid to their self-esteem, psychological well-being, emotion regulation, ability to understand the emotions of others, emotional competence, empathy, personal and social skills, and interpersonal relationships.

Key words: individuals with visual impairments, low vision, self-esteem, psychological well-being, emotion regulation, understanding others’ emotions, emotional competence, empathy, personal skills, social skills, interpersonal relationships.

Аннотация: В статье представлен анализ научной литературы, посвящённой теоретико-психологическим основам оказания помощи лицам с нарушениями зрения. Рассматриваются история формирования и сущность понятия “слабовидение”, научные взгляды исследователей на данную проблему, а также психологические особенности лиц с нарушениями зрения. Особое внимание уделяется их самооценке, психологическому благополучию, регуляции эмоций, способности понимать эмоции других людей, эмоциональной компетентности, эмпатии, личностным и социальным навыкам, а также межличностным отношениям.

Ключевые слова: лица с нарушениями зрения, слабовидение, самооценка, психологическое благополучие, регуляция эмоций, понимание эмоций других людей, эмоциональная компетентность, эмпатия, личностные навыки, социальные навыки, межличностные отношения.

KIRISH

Jahonda, shu bilan bir qatorda, mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda alohida ehtiyojli insonlarga psixologik yordam ko‘rsatish masalalarining dolzarbligi ortib bormoqda. Alohida ehtiyojli bolalar tushunchasi nihoyatda keng bo‘lib, ular orasida ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan, xususan, zaif ko‘ruvchi bolalar o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxsning faolligi va faoliyatga layoqatini shakllantirish murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon shakllanadigan individual-psixologik tizimning turi, shakli va sifatini belgilovchi ichki hamda tashqi omillar, shuningdek, ularning o‘zaro murakkab ta’siriga bog‘liq. Inson shaxsining har tomonlama

rivojlanishida analizatorlar tizimining muvofiqlashgan faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Analizatorlardan birining, xususan, ko'rish analizatorining faoliyatida jiddiy cheklanish mavjud bo'lsa, atrof-muhitdan kelayotgan axborotni qabul qilish va qayta ishlash, fazoviy mo'ljal olish hamda ayrim faoliyatlarni nazorat qilish jarayonlarida o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Ko'rlik va ko'rish imkoniyatining cheklanishi bilan bog'liq muammolar insoniyatni qadimdan o'ylantirib kelgan. Tibbiyot va boshqa fanlarning rivojlanishiga qaramay, ko'rish funksiyasining og'ir buzilishlarini barcha holatlarda ham to'liq bartaraf etish imkoniyati mavjud emas. Ko'rish jarayoni inson psixik rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Xususan, chaqaloqlik davrida atrof-muhitga mo'ljal olish faoliyatining shakllanishida ko'rish analizatori muhim vazifani bajaradi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan go'dakning atrof-muhitni idrok etishi ko'ruvchi bolalarnikidan muayyan jihatlari bilan farq qiladi. Masalan, u onasi, otasi va boshqa yaqin insonlarning ovozini eshitishi, biroq ularning vizual obrazini bevosita idrok eta olmasligi mumkin. Go'dak ushbu holatning mohiyatini ongli ravishda anglamasa-da, ko'rish orqali olinadigan axborotning cheklanganligi uning psixik rivojlanishi, fazoviy mo'ljal olishi va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi ayrim o'ziga xos qiyinchiliklar va to'siqlar bilan kechadi.

Ko'rish analizatorining chuqur zararlanishi natijasida atrof-muhitni idrok etish, unda mo'ljal olish va faoliyatni tashkil etish jarayonlarida muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday sharoitda shaxsning faolligi va muhit bilan o'zaro munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari shakllanadi. N. A. Bernshteynning qarashlariga ko'ra, faollik biologik mohiyatga ega bo'lib, organizmning tashqi muhit bilan o'zaro munosabati va unga moslashuvida muhim o'rin tutadi.

Mazkur masalaning nafaqat defektologiya va tibbiyot, balki psixologiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarda ham alohida tadqiqot obyekti sifatida keng o'rganilishining o'ziga xos sabablari mavjud. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning psixologik xususiyatlari, ijtimoiy moslashuvi, mustaqilligi, emotsional holati va jamiyatga integratsiyalashuvini o'rganish ularga samarali psixologik-pedagogik yordam ko'rsatishning ilmiy asoslarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, yurtimizda 66 mingdan ziyod ko'zi ojiz shaxs mavjud bo'lib, 16 ta maxsus internatda 3 mingdan ortiq ko'rishda nuqsoni bo'lgan yoshlar ta'lim-tarbiya oladi [2].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavjud tadqiqotlarda ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarda vizual idrok, obraz va tasavvurlarning shakllanishi, vizual-motor muvofiqlashtirish, produktiv faoliyat, yozuv, ko'rgazmali-obrazli tafakkur hamda emotsional rivojlanish bilan bog'liq o'ziga xos qiyinchiliklar qayd etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: "Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi", deb belgilangan [1]. Mazkur konstitutsiyaviy norma alohida ta'lim ehtiyojlariga ega, jumladan, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning sifatli ta'lim olishi va ularning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda zarur shart-sharoitlar yaratilishining huquqiy asoslaridan biri hisoblanadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixik rivojlanishi ko'rish analizatori faoliyatining cheklanganligi sharoitida o'ziga xos tarzda kechadi. Bunda birlamchi buzilish – ko'rish funksiyasining yo'qligi yoki pasayishi – ayrim psixik funksiyalarning shakllanishi va rivojlanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin. Birlamchi buzilish natijasida turli darajadagi ikkilamchi rivojlanish qiyinchiliklari yuzaga kelishi ehtimoli mavjud [3]. O'z navbatida, bunday ikkilamchi qiyinchiliklar bolaning ijtimoiy munosabatlari, faoliyati va shaxsiy rivojlanishining ayrim jihatlariga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Birlamchi buzilish – ko'rish funksiyasining yo'qligi yoki turli darajada pasayishi, ya'ni vizual sezgi va idrok imkoniyatlarining cheklanishidir.

Birlamchi buzilish sharoitida bolaning rivojlanishi davomida ko'rish bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan ayrim psixik funksiyalarning rivojlanishida ikkilamchi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ularni shartli ravishda quyidagicha tavsiflash mumkin:

Birinchi darajali ikkilamchi buzilishlar: vizual idrok, obraz va tasavvurlarning shakllanishidagi qiyinchiliklar. Atrof-muhit, obyektlar va boshqa insonlarning vizual obrazlarini shakllantirish ko'rish tizimining funksional holatiga bevosita bog'liq. Vizual-motor muvofiqlashtirishning cheklanishi esa predmetlar bilan amalga oshiriladigan ayrim amaliy harakatlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ikkinchi darajali ikkilamchi buzilishlar: produktiv faoliyat va yozuv ko'nikmalarini egallashdagi qiyinchiliklar, ko'rgazmali-obrazli tafakkurning o'ziga xos rivojlanishi, nutqda verbalizm – so'z orqali ifodalangan tushuncha bilan uning aniq sensor obrazi o'rtasidagi bog'liqlikning yetarli shakllanmaganligi – hamda emotsional rivojlanishdagi ayrim o'ziga xosliklar.

Uchinchi darajali oqibatlar bolaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida namoyon bo'lishi mumkin. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolaning muloqot imkoniyatlari cheklangan ijtimoiy muhitda uning ijtimoiy tajribasi yetarli darajada shakllanmasligi, o'ziga ishonchning pasayishi, muloqotga kirishishda qiyinchiliklar va ijtimoiy izolyatsiyaga

moyillik yuzaga kelishi mumkin. Ayrim bolalarda tushkun kayfiyat, passivlik, motivatsiyaning pasayishi, qiziqishlar doirasining torayishi kabi holatlar kuzatilishi mumkin [4]. Biroq bunday xususiyatlarni ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan barcha bolalarga xos bo‘lgan muqarrar belgilar sifatida baholash to‘g‘ri emas. Ularning namoyon bo‘lishi bolaning individual xususiyatlari, oilaviy muhit, ta’lim-tarbiya sharoiti, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va korreksion-rivojlantiruvchi yordamning sifatiga ham bog‘liq.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolaning shaxsiy rivojlanishiga oilaviy tarbiya uslubi ham sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xususan, haddan tashqari himoyalovchi tarbiya uslubida ota-onalar bolaning mustaqilligini cheklashi, uni turli qiyinchilik va muvaffaqiyatsizliklardan ortiqcha himoya qilishga intilishi mumkin. Natijada bolada mustaqillik va tashabbuskorlikning rivojlanishi cheklanib, passivlik kuchayishi, motivatsiya pasayishi hamda boshqalar bilan munosabatlarda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Ko‘rishida chuqur nuqsoni bo‘lgan bolalar maktabgacha yosh davridayoq o‘zlarining ko‘ruvchi tengdoshlaridan ayrim jihatlari bilan farq qilishlarini anglay boshlashlari mumkin. O‘smirlik davrida esa o‘z jismoniy imkoniyatlarini qabul qilish va o‘z-o‘zini baholash bilan bog‘liq psixologik kechinmalar kuchayishi ehtimoli mavjud. Ayrim ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan o‘smirlarda o‘z-o‘zini baholashning beqarorligi kuzatilishi mumkin: ular o‘z imkoniyatlarini haddan tashqari yuqori yoki, aksincha, past baholashlari, hayotiy muammolarni hal etishda o‘zlariga nisbatan ishonchsizlikni his qilishlari mumkin [5].

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan korreksion-rivojlantiruvchi va reabilitatsion ishlarni tashkil etishning muhim tamoyillaridan biri bolaning saqlangan imkoniyatlariga tayanishdir. Ushbu tamoyil ko‘rish funksiyasining cheklanganligini boshqa sensor va psixik imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali kompensatsiya qilishni nazarda tutadi. Bunda nutq, eshitish, taktil va kinestetik idrok alohida ahamiyat kasb etadi.

Vizual idrokning cheklanganligini kompensatsiya qilishda hid bilish, taktil va eshitish idrokidan faol foydalaniladi. Saqlangan perseptiv tizimlar yordamida shakllantirilgan obrazlar tahlil qilish, eslab qolish, taqqoslash, umumlashtirish va intellektual qayta ishlash jarayonlariga jalb etilishi lozim. Sensor obrazlarni shakllantirish jarayonida obyekt va hodisalarni batafsil tavsiflash, ularni muayyan belgilariga ko‘ra guruhlarga ajratish hamda umumlashtirishda nutqdan foydalanish muhimdir. Mazkur jarayon sensor tajribani intellektuallashtirish va verbalizatsiyalashga xizmat qiladi.

Kinestetik va taktil tajribani boyitish faqat predmetlar olami haqidagi bilimlar bilan chegaralanmasligi kerak. U ijtimoiy olam – ijtimoiy hodisalar, muloqot, boshqa insonlarning xatti-harakatlari va shaxslararo munosabatlar haqidagi bilimlarni ham qamrab olishi zarur [6].

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning muhim vazifalaridan biri zaif ko‘ruvchi bolalarda mavjud vizual imkoniyatlardan samarali foydalanish, fazoviy mo‘ljal olish va amaliy intellektni rivojlantirishdan iborat. Bunda qoldiq ko‘rish imkoniyatlaridan foydalanish bolaning individual oftalmologik holati va mutaxassis tavsiyalariga muvofiq tashkil etilishi lozim. Ko‘rish yuklamasining turi, davomiyligi va intensivligini belgilashda tibbiy ko‘rsatmalarni hisobga olish muhimdir.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalarga psixologik yordam ko‘rsatish ularning ijtimoiy kompetentligini, mustaqilligini, fazoviy mo‘ljal olish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham qaratiladi. Buning uchun bolalarni nafaqat yaqin makonda, balki kengroq fazoviy va ijtimoiy muhitda mustaqil harakatlanishga o‘rgatish zarur. Kundalik hayotda va boshqa insonlar bilan munosabatlarda to‘g‘ri yo‘nalish olish alohida vazifa bo‘lib, bu ijtimoiy intellekt va kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirishni talab etadi [7].

Shunday qilib, ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan olib boriladigan korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning asosiy vazifalaridan biri ko‘rish funksiyasining cheklanganligini kompensatsiya qilish uchun zarur psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Kompensatsiya tizimi o‘z-o‘zidan to‘liq shakllanmaydi; uning rivojlanishi bolaning faoliyati, maxsus ta’lim-tarbiya, sensor tajribani boyitish, nutqiy vositachilik va atrof-muhit bilan faol o‘zaro munosabatini talab qiladi.

Ko‘r yoki zaif ko‘ruvchi shaxsda atrof-muhitni idrok etish jarayonida sensor-perseptiv tizimlarning o‘zaro nisbati va ularning yaxlit bilish faoliyatidagi ahamiyati qayta tashkil etiladi. Natijada atrofdagi olamni idrok etishning funksional tizimi o‘ziga xos tarzda shakllanadi. Shu bilan birga, tashqi muhitdan olinadigan axborotni nutq orqali vositalash, tushuntirish va belgilash mexanizmlarining ahamiyati ortadi.

Ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslarning mustaqilligini ta’minlash uchun ko‘rish funksiyasining cheklanganligini kompensatsiya qilishga xizmat qiladigan maxsus tiflotexnik vositalar ishlab chiqilgan. Shulardan biri XIX asrda Lui Brayl tomonidan yaratilgan Brayl yozuv tizimidir. Ushbu tizim olti nuqtali katakdagi bo‘rtma nuqtalarning turli kombinatsiyalariga asoslanadi. Har bir harf, raqam yoki boshqa belgi nuqtalarning muayyan kombinatsiyasi orqali ifodalanadi. Ko‘rishda chuqur nuqsoni bo‘lgan shaxs ushbu bo‘rtma nuqtalarni barmoq uchlari bilan taktil idrok etish orqali harflar va so‘zlarni o‘qiydi.

Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar ko‘rishda nuqsoni bo‘lgan shaxslar uchun axborotdan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Jumladan, ekran o‘qish dasturlari kompyuter yoki mobil qurilmadagi matn va interfeys elementlarini ovozli shaklda yetkazib beradi. Shuningdek, audiokitoblar va boshqa ovozli elektron resurslar yozma axborotni eshitish orqali o‘zlashtirish imkonini yaratadi [8].

Tiflopsixologiya sohasidagi tadqiqotchi L. I. Solntsevaning ta'kidlashicha [9], ko'r bolaning psixik rivojlanishini tushuntirishga doir yondashuvlarda muayyan farqlar mavjud. Ayrim yondashuvlarda ko'rishning yo'qligi yoki cheklanganligi bolaning rivojlanishini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin qilinsa, boshqa yondashuvlarda bola saqlangan sensor tizimlar, nutq, tafakkur va maxsus o'qitish vositalari yordamida faol rivojlanuvchi shaxs sifatida qaraladi.

L. I. Solntseva rahbarligida olib borilgan tadqiqotlarda bolalardagi psixik jarayonlarning rivojlanishi bilan markaziy ko'rish o'tkirligi o'rtasida oddiy va bevosita bog'liqlik mavjud emasligi ko'rsatilgan. Psixik rivojlanishda maxsus ta'limning tashkil etilishi, sensor tajribani boyitish hamda bolalarda atrof-muhit haqidagi tasavvurlar tizimini maqsadli va o'z vaqtida shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Saqlangan sezgi tizimlarini rivojlantirish, idrok etilgan obrazlarni mazmunan talqin qilish hamda yuqori darajadagi bilish faoliyati ko'nikmalarini shakllantirish ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarda kompensator jarayonlarning rivojlanishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Har qanday yosh davrida ko'rlikni kompensatsiya qilish tizimini shakllantirishning muhim shartlaridan biri faoliyatga nisbatan motivatsiyani rivojlantirish va atrof-muhitga faol munosabatni shakllantirishdir. Ko'r bolalarning to'g'ri tashkil etilgan, faol va mustaqil faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bolaning faolligi, ongliligi va mustaqilligi bilan buzilgan funksiyalarni kompensatsiya qilish hamda mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish jarayonlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud.

Ko'rish funksiyasining cheklanganligini kompensatsiya qilish uchun bolada saqlangan analizatorlardan samarali foydalanish, harakat faoliyatiga tayangan holda obyektlarni idrok etish jarayonlarini rivojlantirish muhimdir. Shuningdek, atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni aniq, differensiallashgan va umumlashtirilgan tarzda shakllantirish, obyektlarning obrazlarini xotirada saqlash, qayta tiklash hamda ulardan bilish faoliyatida faol foydalanish qobiliyatini rivojlantirish zarur. Bola obyektlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni aniqlash, ularning alohida belgi va xususiyatlarini ajratish, taqqoslash, umumlashtirish hamda xulosa chiqarishni o'rganishi, ya'ni murakkab tafakkur operatsiyalarini bosqichma-bosqich egallashi lozim.

L. I. Solntsevaning ta'kidlashicha [7], ko'rishning birlamchi buzilishi bilan bog'liq ikkilamchi rivojlanish qiyinchiliklari barcha bolalarda bir xil darajada va muqarrar ravishda yuzaga kelmaydi. Maqsadli tashkil etilgan kompensator jarayonlar orqali ularning ayrimlarini oldini olish yoki namoyon bo'lish darajasini kamaytirish mumkin. Tadqiqotchi kompensatsiya jarayonlarini samarali shakllantirish uchun zarur bo'lgan bir qator shartlarni ajratib ko'rsatadi.

Birinchi shart – saqlangan barcha analizatorlardan, jumladan, qoldiq ko'rish, eshitish, taktil sezgi, hid va ta'm bilish imkoniyatlaridan foydalanish asosida bola bilan muntazam muloqotni tashkil etishdir. Turli sensor kanallar orqali olinadigan axborot bolaning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini boyitish va yaxlitlashtirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi shart – masofadan eshitish orqali idrok etishni bevosita kontakt va taktil idrok bilan uyg'unlashtirishdir. Bunda moddiy obyektlar bilan ularga xos tovush xususiyatlari o'rtasidagi bog'lanishlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Natijada ko'r bola tovushni muayyan obyekt va hodisalar haqida axborot beruvchi signal sifatida farqlash hamda undan fazoviy mo'ljal olishda foydalanishni o'rganadi.

Uchinchi shart – bolaning motor faolligini rag'batlantirish va harakat ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bunda taktil, kinestetik va proprioseptiv sezgilarga tayangan holda predmetlarni faol o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, ilk yosh davrida "qo'l–og'iz" va "qo'l–qo'l" sensor-harakat aloqalarining shakllanishi bolaning predmetlarning shakli, hajmi, tuzilishi va boshqa xususiyatlari haqidagi tasavvurlarini boyitishga yordam beradi. Shu tariqa faol harakat, sensor tajriba va bilish jarayonlarining o'zaro uyg'unligi ko'rlikni kompensatsiya qilish mexanizmlarining rivojlanishiga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarga psixologik yordam ko'rsatishga mo'ljallangan trening mashg'uloti

1-mashg'ulot

Mavzu: Ishtirokchilarni trening dasturi bilan tanishtirish

Shior: "O'zaro hamkorlik va empatiyani shakllantirish"

Mashg'ulotning maqsadi:

- ishtirokchilarni treningning maqsad va vazifalari, qonun-qoidalari hamda ahamiyati bilan tanishtirish;
- guruhda o'zaro ishonch, hamkorlik va empatik munosabatlarni shakllantirish;
- ishtirokchilarning dasturdan kutayotgan natijalarini aniqlash.

Ishtirokchilarning dasturdan kutuvlarini aniqlash. "Aqliy hujum" metodidan foydalanilgan holda ishtirokchilarga trening dasturidan nimalarni kutayotganliklarini erkin bayon etish imkoniyati beriladi. Trener bildirilgan fikrlarni umumlashtirib, treningning maqsad va vazifalari bilan bog'laydi.

Guruh qoidalarini ishlab chiqish. Ishtirokchilar bilan birgalikda "Guruh qoidalari" ishlab chiqiladi. Qoidalar plakatga yozib boriladi yoki ko'rish imkoniyati cheklangan ishtirokchilar uchun trener tomonidan ovoz chiqarib takrorlanadi. Trening davomida yuzaga keladigan vaziyatlardan kelib chiqib, guruh a'zolarining umumiy roziligi asosida yangi qoidalar kiritilishi mumkinligi tushuntiriladi.

Ishtirokchilar: turli yoshdagi ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar.

Kerakli jihozlar: A4 formatdagi oq qog'oz, rangli qalamlar, yumshoq koptok, stullar. Zaruratga ko'ra, taktil materiallar va kontrast rangli vositalardan foydalaniladi.

"Koptokcha" mashqi

Maqsadi: ishtirokchilarning o'zaro tanishuvini ta'minlash, ijtimoiy faolligini oshi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotning nazariy-analitik xarakterga egaligi hamda empirik ma'lumotlarning yetarli emasligi uning asosiy cheklovlaridan biri sifatida qayd etiladi. Shu bois kelgusida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar ishtirokida psixodiagnostik tekshiruvlar hamda psixokorreksion eksperimental tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ko'rish funksiyasining buzilishi bolalarda nafaqat vizual idrok jarayoniga, balki psixik rivojlanish, shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy munosabatlarning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Birlamchi ko'rish buzilishi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan ikkilamchi va uchlamchi rivojlanish qiyinchiliklarining namoyon bo'lish darajasi bolaning individual xususiyatlari, ta'lim-tarbiya sharoiti, oilaviy muhit va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlariga bog'liq.

Oiladagi haddan tashqari himoyalovchi tarbiya uslubi, bolaning mustaqilligini cheklash va ijtimoiy izolyatsiya uning psixologik hamda ijtimoiy rivojlanishidagi mavjud qiyinchiliklarni kuchaytiruvchi omillardan biri bo'lishi mumkin. Shu sababli ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarga psixologik yordam ko'rsatishda ko'rish funksiyasidagi cheklanish bilan bir qatorda oilaviy, ijtimoiy va individual-psixologik omillarni ham kompleks ravishda hisobga olish zarur.

Psixologik yordamning muhim tamoyillaridan biri bolaning saqlangan sensor-perseptiv imkoniyatlariga tayanish, uning hissiy tajribasini boyitish, intellektual qayta ishlash va nutq orqali umumlashtirish imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat. Eshitish, taktil, kinestetik va boshqa saqlangan sensor tizimlardan maqsadli foydalanish atrof-muhit haqidagi tasavvurlarni kengaytirish va ko'rish funksiyasining cheklanganligini kompensatsiya qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, fazoviy mo'ljal olish, mustaqil harakatlanish, muloqot ko'nikmalari hamda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik farovonligi va jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyalashuvini ta'minlashning muhim shartlaridan hisoblanadi. Bunda psixologik yordam bolaning mavjud imkoniyatlarini rivojlantirish, mustaqilligini qo'llab-quvvatlash, o'z-o'zini baholashini barqarorlashtirish va ijtimoiy faolligini oshirishga yo'naltirilishi lozim.

Kelgusida ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslar ishtirokida olib boriladigan empirik tadqiqotlar mavjud nazariy xulosalarni tekshirish, psixologik omillar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash hamda psixokorreksion dasturlarning samaradorligini eksperimental baholash imkonini beradi. Bunday tadqiqotlar asosida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning individual ehtiyojlari, oilaviy va ijtimoiy muhiti hamda shaxsiy va ijtimoiy kompetentlik darajasini hisobga oluvchi kompleks psixologik yordam dasturlarini yanada takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.–Toshkent: "O'zbekiston", 2023. https://lex.uz/acts/20596
2. https://uza.uz/ru/posts/inklyuziv-talimni-yolga-qoyish-insonga-etibor-va-izhtimoiy-himoya-asosidir_445621?q=%2Fposts%2Finklyuziv-talimni-yolga-qoyish-insonga-etibor-va-izhtimoiy-himoya-asosidir_445621.
3. Блинникова, И.В. Роль зрительного опыта в раннем психическом развитии детей / И.В. Блинникова // Психологический журнал. – 2000. – Том 21, № 3. – С. 49–54.
4. Блинникова, И.В. Ранние этапы развития речи в условиях зрительной депривации / И.В. Блинникова // Психологический журнал. – 2004. – Том 25, № 2. – С. 55–65.
5. Вартанян, И.А. Физиология сенсорных систем: руководство / И.А. Вартанян. – СПб. : Лань, 1999. – 224 с.
6. Выготский, Л.С. Собрание сочинений в 6-ти томах / Л.С. Выготский. – М. : Педагогика, 1983. – Т. 5 : Основы дефектологии / под ред. Т.А. Власовой. – 368 с.
7. Ермаков, В.П. Развитие, обучение и воспитание детей с нарушениями зрения: справочно-метод. пособие для учителей / В.П. Ермаков, Г.А. Якунин. – М. : Просвещение, 1990. – 223 с.
8. Ермолович, З.Г. Тифлопсихология : особенности чувственного отражения мира слепыми и слабовидящими / З.Г. Ермолович : учеб.-метод. пособие. – Минск : БГПУ им. М. Танка. – Ч. 1. – 71 с.
9. Солнцева Л.И. Некоторые особенности психического развития детей с нарушениями зрения в современных условиях // Дефектология. – 2000. – № 4. – С. 3–8.

BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING FORTEPIANO IJROCHILIGIDAGI KREATIVLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI

Normuminova Gulmira Komiljonovna
Navoiy ixtisoslashtirilgan madaniyat maktabi o'qituvchisi
ORCID: 0009-0000-8876-9970

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak musiqa o'qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativligini baholash muammosi tadqiq etilgan. Tadqiqotda kreativ ijrochilik tushunchasining pedagogik mazmuni ochib berilib, uning asosiy tarkibiy qismlari sifatida motivatsion, kognitiv, ijrochilik va refleksiv komponentlar asoslangan. Shuningdek, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlar va indikatorlar tizimi ishlab chiqilgan.

Maqolada fortepiano ta'limi jarayonida talabaning nafaqat texnik ijrochilik ko'nikmalari, balki mustaqil badiiy qaror qabul qilish, asarni individual talqin qilish, ijodiy yondashuv va o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyatlarini baholash zarurligi yoritilgan. Taklif etilgan baholash mezonlari oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijrochilik kreativligini rivojlantirish va pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak musiqa o'qituvchisi, fortepiano ijrochiligi, kreativlik, ijrochilik kreativligi, didaktik mezon, indikator, baholash tizimi, musiqiy tafakkur, badiiy talqin, refleksiv faoliyat.

Abstract: This article examines the issue of assessing the creativity of future music teachers in piano performance. The study reveals the pedagogical essence of creative performance and identifies its main components as motivational, cognitive, performance, and reflective components. In addition, a system of criteria and indicators for determining the level of creativity of future music teachers has been developed.

The article highlights the need to assess not only students' technical performance skills in the process of piano education, but also their ability to make independent artistic decisions, interpret musical works individually, demonstrate a creative approach, and analyze their own performance. The proposed assessment criteria contribute to the development of performance creativity among future music teachers in higher education institutions and to improving the effectiveness of the pedagogical process.

Key words: future music teacher, piano performance, creativity, performance creativity, didactic criterion, indicator, assessment system, musical thinking, artistic interpretation, reflective activity.

Аннотация: В данной статье исследуется проблема оценки креативности будущих учителей музыки в фортепианном исполнительстве. В исследовании раскрывается педагогическая сущность креативного исполнительства, а в качестве его основных составляющих обоснованы мотивационный, когнитивный, исполнительский и рефлексивный компоненты. Кроме того, разработана система критериев и индикаторов, позволяющая определить уровень креативности будущих учителей музыки.

В статье освещается необходимость оценки в процессе обучения игре на фортепиано не только технических исполнительских навыков студентов, но и их способности самостоятельно принимать художественные решения, индивидуально интерпретировать музыкальные произведения, проявлять творческий подход и анализировать собственную исполнительскую деятельность. Предложенные критерии оценки способствуют развитию исполнительской креативности будущих учителей музыки в высших образовательных учреждениях и повышению эффективности педагогического процесса.

Ключевые слова: будущий учитель музыки, фортепианное исполнительство, креативность, исполнительская креативность, дидактический критерий, индикатор, система оценивания, музыкальное мышление, художественная интерпретация, рефлексивная деятельность.

KIRISH

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimida bo'lajak musiqa o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida nafaqat kasbiy bilim va ijrochilik ko'nikmalarini shakllantirish, balki ularning ijodiy tafakkuri, mustaqil badiiy qaror qabul qilish qobiliyati va kreativ ijrochilik kompetensiyasini rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa,

fortepiano fanlarini o‘qitish jarayonida talabaning texnik imkoniyatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda, musiqiy asarni mustaqil talqin qilish, badiiy obraz yaratish va ijodiy yondashuv asosida ijro etish qobiliyatlarini shakllantirish dolzarb masaladir.

Fortepiano ijrochiligi murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, unda ijrochining texnik mahorati, musiqiy tafakkuri, eshitish qobiliyati, emotsional ifodasi va ijodiy yondashuvi o‘zaro bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi kelajakdagi pedagogik faoliyatida o‘quvchilarda ham ijodiy fikrlashni rivojlantirishi uchun avvalo o‘zida kreativ ijrochilik tajribasiga ega bo‘lishi zarur.

Hozirgi kunda musiqa pedagogikasida kreativlikni rivojlantirish masalalariga katta e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativlik darajasini aniqlash, baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish masalalari yetarlicha tadqiq etilmagan. Amaliyotda ko‘pincha ijrochilik natijalari texnik aniqlik, nota matniga rioya qilish va asarni o‘zlashtirish darajasi asosida baholanadi. Biroq ijrochilik kreativligi, ya’ni mustaqil talqin, badiiy yangilik va ijodiy yondashuv kabi jihatlar ham aniq mezonlar asosida baholanishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativligini baholash uchun ilmiy asoslangan mezon va indikatorlarni ishlab chiqish oliy musiqa-pedagogik ta’lim jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi - bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativligini baholash mezonlari va indikatorlarini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

- fortepiano ijrochiligida kreativlik tushunchasining pedagogik mazmunini ochib berish;
- ijrochilik kreativligining asosiy tarkibiy komponentlarini aniqlash;
- kreativlikni baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish;
- taklif etilgan baholash tizimining oliy ta’lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlarini ko‘rsatish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Musiqa ta’limida kreativlik masalasi so‘nggi yillarda pedagogika va psixologiya fanlarining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Kreativlik tushunchasi shaxsning mavjud bilim va tajribalar asosida yangi g‘oyalar yaratishi, muammoli vaziyatlarga noodatiy yondashishi hamda mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Mazkur tushuncha umumiy pedagogik jarayonda bo‘lgani kabi, musiqa ta’limida ham o‘ziga xos mazmun kasb etadi.

Musiqa pedagogikasi va fortepiano ijrochiligiga oid ilmiy-metodik adabiyotlarda ijrochining texnik mahorati, musiqiy tafakkuri, badiiy talqini va mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Jumladan, A. D. Alekseyev fortepianoda ijro etishga o‘rgatish metodikasi hamda fortepiano san’ati tarixiga oid tadqiqotlarida fortepiano ijrochiligini shakllantirishning metodik asoslarini yoritgan.

G. G. Neygauz fortepiano ijrochilik san’atiga bag‘ishlangan asarida ijrochilik mahorati va badiiy talqin bilan bog‘liq masalalarni yoritgan.

G. Kogan esa pianinochining asar ustida ishlashi bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etgan.

Musiqiy ijrochilik kreativligi oddiy ijro mahoratidan farqli ravishda, asarning mazmunini chuqur anglash, kompozitor g‘oyasini saqlagan holda individual badiiy talqin yaratish va ijro jarayonida shaxsiy ijodiy pozitsiyani namoyon etish bilan tavsiflanadi. Shu sababli fortepiano ta’limida talabaning faqat texnik tayyorgarligini emas, balki uning ijodiy fikrlashi, musiqiy tasavvuri va mustaqil badiiy qaror qabul qilish qobiliyatini ham rivojlantirish zarur.

Fortepiano ijrochiligining texnik jihatlarini shakllantirish masalalari ham ilmiy-metodik adabiyotlarda keng yoritilgan.

E. Ya. Liberman fortepiano texnikasi ustida ishlash masalalariga e’tibor qaratgan bo‘lsa, N. Golubovskaya fortepiano ijrochiligida pedaldan foydalanish san’atiga oid masalalarni yoritgan. Mazkur ilmiy-metodik qarashlar talabaning texnik imkoniyatlarini badiiy maqsad bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Musiqa ta’limining pedagogik jihatlari O. A. Apraksina hamda R. Qodirov asarlarida ham yoritilgan.

O. A. Apraksina maktabda musiqiy tarbiyani tashkil etish metodikasiga e’tibor qaratgan bo‘lsa, R. Qodirovning musiqa pedagogikasi va musiqa psixologiyasiga oid asarlari musiqiy ta’lim jarayonining pedagogik hamda psixologik jihatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Kreativlikning psixologik asoslarini o‘rgangan tadqiqotchilar ijodiy faoliyatning asosiy belgilariga yangilik yaratish, fikrlar xilma-xilligi, moslashuvchan tafakkur va mustaqil yechim topish qobiliyatlarini kiritadilar. Ushbu yondashuvlar musiqa pedagogikasida ham qo‘llanilib, ijrochilik faoliyatida kreativlikni aniqlash va rivojlantirish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

Musiqa pedagogikasi sohasidagi tadqiqotlarda ijrochilik jarayoni shaxsning intellektual, emotsional va badiiy faoliyatining uyg'unligi sifatida qaraladi. Fortepiano ijrochiligida kreativlik namoyon bo'lishi asarning shakliy tuzilishini tushunish, musiqiy obrazni his qilish, tovush imkoniyatlaridan samarali foydalanish hamda ijro jarayonida individual uslubni shakllantirish orqali yuzaga keladi. Shuningdek, zamonaviy oliy musiqa ta'limida kompetensiyaviy yondashuv asosida talabaning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi nafaqat bilim va ko'nikmalar yig'indisi, balki ijodiy faoliyatga tayyorligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ ijrochilik kompetensiyasi uning kelajakdagi pedagogik faoliyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, musiqa ta'limi va fortepiano ijrochiligining pedagogik, psixologik, texnik hamda badiiy jihatlari tadqiqotchilar tomonidan turli yo'nalishlarda yoritilgan. Biroq aynan bo'lajak musiqa o'qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativlik darajasini aniqlash uchun aniq mezonlar, indikatorlar va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish masalasi alohida tadqiq etishni talab qiladi. Shu sababli mazkur tadqiqotda bo'lajak musiqa o'qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativligini baholashga xizmat qiluvchi mezonlar va indikatorlar tizimini ishlab chiqish zarurati asoslanadi.

Fortepiano ijrochiligida kreativlik ko'p qirrali pedagogik hodisa bo'lib, u faqatgina ijrochining texnik imkoniyatlari bilan emas, balki uning musiqiy tafakkuri, badiiy dunyoqarashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va ijodiy faoliyatga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi. Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ ijrochilik qobiliyatini shakllantirish jarayonida ushbu sifatlarning o'zaro uyg'un rivojlanishi muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot doirasida fortepiano ijrochiligidagi kreativlik to'rtta asosiy tarkibiy qism asosida ko'rib chiqiladi: motivatsion, kognitiv, ijrochilik va refleksiv komponentlar.

1. **Motivatsion komponent** talabaning ijodiy faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyoji, musiqiy asarni chuqur o'rganishga qiziqishi va yangi ijro imkoniyatlarini izlashga bo'lgan intilishi bilan tavsiflanadi. Mazkur komponent rivojlangan talaba fortepiano mashg'ulotlarini faqat berilgan topshiriqni bajarish jarayoni sifatida emas, balki o'z ijodiy imkoniyatlarini namoyon qilish vositasi sifatida qabul qiladi.

   Motivatsion komponentning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

- mustaqil ijodiy izlanishga qiziqish;
- musiqiy asarni shaxsiy talqin qilishga intilish;
- ijrochilik faoliyatida yuqori natijalarga erishish motivatsiyasi.

2. **Kognitiv komponent** talabaning musiqiy-nazariy bilimlari, asarni tahlil qilish qobiliyati va musiqiy tafakkurining rivojlanganlik darajasini ifodalaydi. Kreativ ijro faqat hissiy ifoda emas, balki asarning tarixiy-uslubiy xususiyatlarini anglash, kompozitor fikrini tushunish va unga asoslangan holda ijodiy yechim topishni talab qiladi.

   Mazkur komponent quyidagi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi:

- musiqiy asar tuzilishini tahlil qila olish;
- janr va uslub xususiyatlarini anglash;
- ichki eshituv (audiatsiya) asosida ijro rejasini shakllantirish.

3. **Ijrochilik komponenti** fortepiano ijrosida kreativlikning bevosita namoyon bo'ladigan jihatini tashkil etadi. Bu komponent talabaning asarni mustaqil talqin qilishi, badiiy obraz yaratishi va ijro vositalaridan ijodiy foydalanishi bilan belgilanadi.

   Uning asosiy indikatorlari:

- original ijro talqinini yaratish;
- dinamika, temp, artikulyatsiya va pedal imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish;
- texnik imkoniyatlarni badiiy mazmun bilan uyg'unlashtirish;
- ijro jarayonida individual yondashuvni namoyon etish.

4. **Refleksiv komponent** talabaning o'z ijrochilik faoliyatini tahlil qilish, erishilgan natijalarni baholash va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash qobiliyatini aks ettiradi. Kreativ ijrochi o'z faoliyatiga tanqidiy yondashadi va doimiy takomillashishga intiladi.
   Ushbu komponent quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- o'z ijrosidagi kuchli va zaif jihatlarni aniqlash;

- xatolarni mustaqil tahlil qilish;
- ijrochilik mahoratini rivojlantirish bo‘yicha xulosa chiqarish.

Shunday qilib, fortepiano ijrochiligidagi kreativlik motivatsiya, bilim, amaliy ijrochilik faoliyati va o‘z-o‘zini tahlil qilish jarayonlarining yagona tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tarkibiy qismlar asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kreativlik darajasini aniqlash va baholash imkoniyati yuzaga keladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativligini baholash mezonlari va indikatorlarini aniqlashga yo‘naltirilgan. Tadqiqot metodologiyasi oliy ta’lim muassasalarida fortepiano fanlarini o‘qitish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, ijrochilik faoliyatining pedagogik tabiati hamda kreativlikni baholash tamoyillari asosida shakllantirildi.

Tadqiqotda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijrochilik kreativligini aniqlash uchun kompleks yondashuvdan foydalanildi. Mazkur yondashuv talabaning nafaqat yakuniy ijro natijasini, balki ijro jarayonidagi mustaqil fikrlashi, badiiy qaror qabul qilishi va o‘z faoliyatini tahlil qila olish qobiliyatini ham baholash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Pedagogik kuzatuv metodi.** Ushbu metod yordamida talabalarning fortepiano mashg‘ulotlari jarayonidagi faolligi, mustaqil ishlash darajasi, ijro usullarini tanlashdagi yondashuvi va ijodiy tashabbuslari o‘rganildi.
2. **Ijrochilik faoliyatini tahlil qilish metodi.** Talabalarning fortepiano ijrosi musiqiy obrazni ochib berish, asarni talqin qilish, texnik imkoniyatlardan foydalanish va badiiy ifoda jihatlari asosida tahlil qilindi.
3. **Ekspert baholash metodi**. Talabalarning ijrochilik kreativligi tajribali pedagog-musiqachilar tomonidan ishlab chiqilgan mezonlar asosida baholandi. Ekspert baholash jarayonida ijroning originalligi, badiiy ifodaliligi, mustaqil talqin darajasi va ijodiy yondashuviga alohida e’tibor qaratildi.
4. **Suhbat va so‘rovnoma metodi.** Ushbu metod orqali talabalarning fortepiano ijrochiligiga munosabati, ijodiy faoliyatga bo‘lgan qiziqishi hamda o‘z ijrosini baholash qobiliyati aniqlandi.

Tadqiqotda kreativlik darajasini aniqlash uchun to‘rt mezondan iborat baholash tizimi ishlab chiqildi:

- motivatsion mezon;
- kognitiv mezon;
- ijrochilik mezoni;
- refleksiv mezon.

Har bir mezon bo‘yicha talabaning kreativlik darajasi uch bosqich asosida baholandi:

1. **Yuqori daraja** - talaba fortepiano asarlarini mustaqil va ijodiy talqin qiladi, badiiy obraz yaratishda original yechimlardan foydalanadi, o‘z ijrosini tahlil qila oladi.
2. **O‘rta daraja** - talaba ijrochilik faoliyatida kreativlik elementlarini namoyon etadi, biroq mustaqil badiiy qarorlar qabul qilishda ayrim qiyinchiliklarga duch keladi.
3. **Past daraja** - talaba asosan tayyor ijro namunalariga tayanadi, mustaqil talqin va ijodiy yondashuv yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi.

Mazkur metodologik yondashuv asosida ishlab chiqilgan baholash tizimi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativlik darajasini aniqlash, rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda ta’lim jarayonini takomillashtirish imkonini beradi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativligini baholash mezonlari va indikatorlari fortepiano darslarida muhim.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativligini aniqlash uchun baholash mezonlarini ishlab chiqish ijrochilik faoliyatining murakkab va ko‘p qirrali tabiatini hisobga olishni talab etadi. Chunki ijrochilik kreativligi faqat texnik mahorat yoki asarni aniq ijro etish bilan belgilanmaydi, balki talabaning musiqiy fikrlashi, badiiy talqini, mustaqil qaror qabul qilishi va ijodiy yondashuvi orqali namoyon bo‘ladi.

Tadqiqotda kreativlikni baholash to‘rtta asosiy mezon asosida amalga oshiriladi: motivatsion, kognitiv, ijrochilik va refleksiv mezonlar.

1. **Motivatsion mezon** talabaning fortepiano ijrochiligiga bo'lgan qiziqishi, ijodiy faoliyatga ichki ehtiyoji va yangi badiiy imkoniyatlarni izlashga bo'lgan intilishini ifodalaydi.
   Mazkur mezon indikatorlari:

- fortepiano ijrochiligiga ijobiy munosabat;
- mustaqil ijodiy izlanishga intilish;
- yangi ijro usullarini sinab ko'rishga tayyorlik;
- ijrochilik mahoratini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj.

Yuqori darajadagi talaba o'z ijrosiga ijodiy yondashadi, asar ustida mustaqil ishlaydi va yangi badiiy yechimlarni izlaydi.

2. **Kognitiv mezon** talabaning musiqiy bilimlari, asarni tahlil qilish qobiliyati va ijro jarayonini nazariy jihatdan asoslay olish imkoniyatlarini aks ettiradi.
   Ushbu mezon indikatorlari:

- asarning shakli va mazmunini tahlil qila olish;
- musiqiy uslub va janr xususiyatlarini tushunish;
- kompozitor g'oyasini anglash;
- ijro konsepsiyasini oldindan shakllantira olish.

Mazkur mezon orqali talabaning ijodiy qarorlari tasodifiy emas, balki chuqur musiqiy bilimlarga asoslanganligi aniqlanadi.

3. **Ijrochilik mezoni** fortepiano ijrosida kreativlikning asosiy amaliy namoyon bo'lish shakli hisoblanadi. Ushbu mezon talabaning asarni mustaqil badiiy talqin qilishi va ijro vositalaridan ijodiy foydalanish qobiliyatini baholaydi.
   Indikatorlari:

- asarning original ijro talqinini yaratish;
- musiqiy obrazni ifodali ochib berish;
- dinamika, artikulyatsiya, temp va pedal imkoniyatlaridan ijodiy foydalanish;
- texnik imkoniyatlarni badiiy maqsadga yo'naltirish;
- ijro jarayonida individual uslub elementlarini namoyon etish.

Yuqori darajadagi ijrochilik kreativligi talabaning nota matniga asoslangan holda, lekin shaxsiy badiiy qarashlarini aks ettirgan ijro yaratishida namoyon bo'ladi.

4. **Refleksiv mezon** talabaning o'z ijrochilik faoliyatini tahlil qilish, natijalarni baholash va keyingi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash qobiliyatini ifodalaydi.

   Ushbu mezon indikatorlari:

- o'z ijrosini mustaqil baholash;
- ijrodagi kamchiliklarni aniqlash;
- xatolarni bartaraf etish yo'llarini belgilash;
- o'z ijodiy rivojlanish jarayonini nazorat qilish.

Refleksiv qobiliyat rivojlangan talaba o'z ijrosiga tanqidiy yondashadi va doimiy takomillashishga intiladi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan mezon va indikatorlar tizimi fortepiano ijrochiligidagi kreativlikni kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur tizim talabaning faqat yakuniy ijro natijasini emas, balki ijodiy fikrlash jarayoni, mustaqil faoliyati va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini ham hisobga oladi. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativlik darajasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan mezonlar asosida uch darajali baholash tizimi taklif etildi. Mazkur tizim talabalarning ijrochilik faoliyatida kreativlikning shakllanish holatini aniqlash, mavjud farqlarni tahlil qilish va rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

Baholash jarayonida har bir mezon bo'yicha talabaning bilim, ko'nikma va ijodiy faoliyat ko'rsatkichlari hisobga olinadi. Natijalar quyidagi darajalar asosida tavsiflanadi:

Yuqori darajadagi kreativlikka ega bo‘lgan talaba fortepiano asarlarini ijro etishda mustaqil badiiy pozitsiyani namoyon etadi. U asarning mazmun-mohiyatini chuqur anglaydi, kompozitor g‘oyasini saqlagan holda individual talqin yaratadi.

Bunday talabalar:

- ijro jarayonida original badiiy yechimlarni taklif qiladi;
- musiqiy obrazni ifodalashda turli ijro vositalaridan samarali foydalanadi;
- texnik imkoniyatlarni badiiy maqsadga yo‘naltira oladi;
- o‘z ijrosini mustaqil tahlil qiladi va rivojlantirish yo‘llarini belgilaydi.

Ularning ijrosi faqat nota matnini aniq bajarish bilan cheklanmaydi, balki shaxsiy ijodiy qarashlar bilan boyitiladi.

O‘rta darajadagi kreativlikka ega bo‘lgan talabalar fortepiano ijrochiligida ayrim ijodiy yondashuvlarni namoyon etadilar, biroq ularning mustaqil badiiy qarorlari doimiy va tizimli xarakterga ega emas.

Mazkur darajadagi talabalar:

- asarning umumiy mazmunini anglaydi;
- asosiy ijro vositalaridan foydalana oladi;
- ayrim holatlarda mustaqil talqin yaratishga harakat qiladi;
- lekin ijodiy tashabbus va individual yondashuv yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi.

Bu bosqichda pedagogik ta’sir va maxsus didaktik topshiriqlar orqali kreativlikni yanada rivojlantirish imkoniyati mavjud.

Past darajadagi kreativlik talabaning ijro jarayonida asosan tayyor namunaga tayanishi, mustaqil badiiy qarorlar qabul qilishda qiyinchiliklarga duch kelishi bilan tavsiflanadi.

Bunday talabalar:

- asarni ko‘proq texnik jihatdan o‘zlashtirishga e’tibor beradi;
- ijro talqinida mustaqillik kam namoyon bo‘ladi;
- musiqiy obraz yaratishda standart yondashuvdan foydalanadi;
- o‘z ijrosini tahlil qilish ko‘nikmasi yetarli shakllanmagan bo‘ladi.

Ushbu darajani rivojlantirish uchun ijodiy topshiriqlar, improvizatsiya mashqlari, mustaqil tahlil va refleksiv faoliyatni kuchaytirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlar talab etiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativligini baholashda faqat texnik tayyorgarlik darajasini aniqlash yetarli emas. Ijrochilik faoliyati murakkab ijodiy jarayon bo‘lib, unda talabaning musiqiy tafakkuri, badiiy qarashlari, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va o‘z faoliyatini tahlil qilish imkoniyatlari ham muhim o‘rin tutadi.

An’anaviy baholash tizimlarida ko‘pincha ijroning aniqligi, ritmik barqarorlik, texnik mahorat va nota matniga rioya qilish kabi ko‘rsatkichlarga ustuvor ahamiyat beriladi. Biroq zamonaviy musiqa ta’limi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchidan nafaqat tayyor ijrochi, balki ijodiy fikrlaydigan, o‘z pedagogik faoliyatida yangi yondashuvlarni qo‘llay oladigan mutaxassis bo‘lish talab etiladi.

Shu sababli taklif etilgan mezonlar tizimida motivatsion, kognitiv, ijrochilik va refleksiv komponentlarning birligi asos qilib olindi. Mazkur yondashuv kreativlikni faqat yakuniy ijro natijasi sifatida emas, balki ijrochilik faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oluvchi rivojlanish jarayoni sifatida baholash imkonini beradi.

Ijrochilik mezoni alohida ahamiyatga ega bo‘lib, unda talabaning asarga individual yondashuvi, badiiy obrazni yaratish qobiliyati va musiqiy ifoda vositalaridan samarali foydalanishi aniqlanadi. Chunki fortepiano ijrochiligida bir xil nota matni turli ijrochilar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Aynan shu individual yondashuv ijrochilik kreativligining muhim belgisi hisoblanadi.

Kognitiv mezon esa kreativ ijroning nazariy asoslarini ochib beradi. Talaba asarning tarixiy, uslubiy va shakliy xususiyatlarini chuqur anglagan holdagina asoslangan ijodiy qaror qabul qila oladi. Demak, kreativlik faqat intuitiv jarayon emas, balki bilim va tahliliy fikrlashga tayangan faoliyatdir.

Refleksiv komponentning kiritilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki professional ijrochi o‘z faoliyatini baholay olishi, kamchiliklarini aniqlashi va o‘z ustida ishlash yo‘llarini belgilashi zarur. Bu sifat bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining nafaqat ijrochi, balki pedagog sifatida shakllanishiga ham xizmat qiladi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan mezon va indikatorlar tizimi fortepiano ta'limida kreativlikni aniqlash va rivojlantirish uchun amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv oliy ta'lim muassasalarida fortepiano fanlarini o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabalarning ijodiy imkoniyatlarini ochib berish va ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining fortepiano ijrochiligidagi kreativlik darajasini aniqlash va baholash zamonaviy musiqa-pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki bugungi kunda musiqa o'qituvchisidan nafaqat yuqori ijrochilik mahorati, balki ijodiy fikrlash, mustaqil badiiy qaror qabul qilish va o'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati ham talab etiladi.

Tadqiqot davomida fortepiano ijrochiligidagi kreativlikning asosiy tarkibiy qismlari sifatida motivatsion, kognitiv, ijrochilik va refleksiv komponentlar belgilandi. Ushbu komponentlar asosida kreativlikni baholash mezonlari va indikatorlari ishlab chiqildi.

Taklif etilgan baholash tizimi talabaning ijrochilik faoliyatini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur tizim orqali nafaqat ijroning texnik jihatlari, balki musiqiy tafakkur, badiiy talqin, ijodiy mustaqillik va refleksiv qobiliyatlar ham baholanadi. Ishlab chiqilgan mezon va indikatorlar oliy ta'lim muassasalarida fortepiano fanlarini o'qitish jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kreativlik darajasini aniqlash, rivojlanish dinamikasini kuzatish hamda ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Kelgusida mazkur baholash tizimini tajriba-sinov ishlari asosida yanada takomillashtirish, turli ta'lim muassasalari sharoitida qo'llash va fortepiano ijrochiligida kreativlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik mexanizmlar bilan boyitish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алексеев А. Д. Методика обучения игре на фортепиано. – Москва: "Музыка", 1978.
2. Алексеев А. Д. История фортепианного искусства. – Москва: "Музыка", 1988.
3. Апраксина О. А. Методика музыкального воспитания в школе О. А. Апраксина. – Москва: "Просвещение", 1983.
4. Голубовская Н. Искусство педализации. – Москва: "Музыка", 1967.
5. Гаал Д. Ш. Ференц Лист. – Москва: "Правда", 1986.
6. Коган Г. Работа пианиста. – Москва: "Музгиз", 1963.
7. Конен В. История зарубежной музыки. 3 том. – Москва: "Музыка", 1981.
8. Либерман Е. Я. Работа над фортепианной техникой. – Москва: "Классика-XXI", 2003.
9. Нейгауз Г. Г. Об искусстве фортепианной игры. Изд. 5. – Москва: "Музыка", 1988.
10. Qodirov R. Musiqa pedagogikasi. – Toshkent: "O'zDK", 2015.
11. Qodirov R. Musiqa psixologiyasi. – T.: "Musiqa", 2015.
12. Зимина П. История фортепиано и его предшественников. – Москва: "Музыка", 1986.
13. Алимбаева М. Замонавий романтик талқинларнинг ўзига хослиги масаласи. Гармонично развитое поколение – условие стабильного развития Республики Узбекистан. Вып. 1. – Т., 2018.
14. I. S. Bax. "Invensii i simfonii". – Moskva: "Muzika", 1981.

BOSHLANG'ICH SINF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA MEDIA MATNLARNI TANQIDIY O'QISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Suvanova Nilufar Akbarovna
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi (PhD)

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida multfilm, qisqa videolavha, ijtimoiy reklama va kitob muqovasi kabi media matnlarni tanqidiy o'qish ko'nikmasini shakllantirish masalasi ko'rib chiqiladi. Media ta'limi nazariyasidagi asosiy savollar kichik yoshdagi o'quvchilarga moslashtirilib, beshta "bolalar savoli" ko'rinishida taqdim etiladi: kim yaratgan, nima uchun yaratgan, qanday usullardan foydalangan, nima ko'rsatilmagan va men nimani his qildim. Ushbu savollar asosida uch bosqichli ish tartibi va o'qish savodxonligi darslariga mos topshiriq namunalari ishlab chiqilgan. Tanqidiy o'qish o'quvchini media matnga ishonmaslikka emas, balki uni ongli ravishda qabul qilishga o'rgatishi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: media matn, tanqidiy o'qish, media savodxonlik, baholash ko'nikmasi, o'qish savodxonligi, boshlang'ich sinf, multfilm, reklama.

Abstract: The article addresses the development of primary pupils' ability to read media texts critically, including cartoons, short videos, public service advertisements, and book covers. The key questions of media education are adapted for young children and presented as five "children's questions": who made it, why was it made, what techniques were used, what is not shown, and what did I feel? On this basis, a three-stage procedure and sample tasks for reading literacy lessons are developed. It is argued that critical reading teaches pupils not to distrust media texts but to perceive them consciously.

Key words: media text, critical reading, media literacy, evaluation skills, reading literacy, primary school, cartoon, advertisement.

Аннотация: В статье рассматривается формирование у младших школьников умения критически читать медиатексты, включая мультфильмы, короткие видеоролики, социальную рекламу и обложки книг. Ключевые вопросы медиаобразования адаптированы для детей младшего школьного возраста и представлены в виде пяти "детских вопросов": кто создал, зачем создал, какие приёмы использовал, что не показано и что я почувствовал. На их основе разработаны трёхэтапный порядок работы и образцы заданий для уроков читательской грамотности. Обосновано, что критическое чтение учит не недоверию к медиатексту, а его осознанному восприятию.

Ключевые слова: медиатекст, критическое чтение, медиаграмотность, умение оценивать, читательская грамотность, начальная школа.

KIRISH

Bugungi bola kitobdan oldin ekran bilan tanishadi. Maktabga kelguniga qadar u yuzlab multfilm, videolavha va reklamalarni ko'rgan bo'ladi. Bu matnlar rang, harakat, musiqa va so'z orqali bolaga kuchli ta'sir ko'rsatadi, biroq bola ularning kim tomonidan va qanday maqsadda yaratilganini kamdan-kam hollarda o'ylaydi. O'qish savodxonligining baholovchi qismi, ya'ni matnning mazmuni va shakliga munosabat bildirish ko'nikmasi aynan shunday matnlar bilan ishlashda hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Media ta'limi odatda o'smirlar bilan bog'lanadi. Ammo tadqiqotlar tanqidiy qarashning dastlabki shakllari boshlang'ich sinfdayoq shakllantirilishi mumkinligini ko'rsatadi (Buckingham, 2003; Hobbs, 2010). Maqolaning maqsadi o'qish savodxonligi darslarida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda media matnlarni tanqidiy o'qish ko'nikmasini shakllantirish mazmuni va ish tartibini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotda media ta'limi va media savodxonlik nazariyasiga oid asosiy manbalar tahlil qilindi.

D. Bakingem media ta'limini ishlab chiqarish, til, vakillik va auditoriya tushunchalari atrofida tashkil etishni taklif qiladi (Buckingham, 2003).

R. Xobbs media savodxonlikni kirish, tahlil, yaratish, mulohaza yuritish va harakat qilish kabi bir-biriga bog'liq qobiliyatlar sifatida ta'riflaydi (Hobbs, 2010).

S. Livingstoun esa media savodxonlikni axborot va kommunikatsiya texnologiyalari davrida ham dolzarb bo'lgan tahliliy va tanqidiy qobiliyat deb biladi (Livingstone, 2004).

UNESCOning media va axborot savodxonligi asoslari ham tahlil qilindi (UNESCO, 2013).

Ushbu manbalardagi asosiy savollar boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va o'qish savodxonligi darsi maqsadlariga moslashtirildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Media tilini tushunish uchun multimodallik nazariyasidagi "mod" tushunchasi foydali bo'ldi: media matnda har bir mod, ya'ni tasvir, harakat, musiqa, ovoz va yozuv o'ziga xos ma'no imkoniyatiga ega bo'lib, ular birgalikda yaxlit xabarni hosil qiladi (Kress, 2010). Bola buni "Musiqa ham gapiradi", "Rang ham kayfiyat beradi" kabi sodda ifodalar orqali o'zlashtirishi mumkin. Maktab amaliyotida vizual matnlarni o'qitish bo'yicha tavsiyalar ham shu yo'nalishni qo'llab-quvvatlaydi (Serafini, 2014).

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijasida media ta'limining asosiy savollari bola tushunadigan tilda qayta ifodalandi va beshta "bolalar savoli" shakllantirildi (1-jadval).

1-jadval: **Media matnni tanqidiy o'qish uchun "bolalar savollari"**

Savol	Media ta'limidagi tushuncha	Boshlang'ich sinfdagi misol
Buni kim yaratgan?	Ishlab chiqarish	Multfilmni rassomlar, ovoz beruvchilar, bastakor yaratgan
Nima uchun yaratgan?	Maqsad, auditoriya	Reklama bizni biror narsa sotib olishga undaydi
Qanday usullardan foydalangan?	Media tili	Qo'rqinchli joyda musiqa pasayadi, rang qorayadi
Nima ko'rsatilmagan?	Vakillik	Reklamada o'yinchoq tez sinishi aytilmaydi
Men nimani his qildim va nega?	Auditoriya munosabati	Kulgili qahramon meni quvontirdi, chunki…

Birinchi savol bolaga har bir media matn ortida uni yaratgan odamlar borligini tushuntiradi. Bu oddiy tuyulsa-da, kichik yoshdagi bola uchun multfilmdagi voqealar "o'z-o'zidan" sodir bo'layotgandek bo'ladi.

Ikkinchi savol maqsad va auditoriya haqida o'ylashga o'rgatadi: ertak ko'ngil ochish va tarbiya berish uchun, ijtimoiy reklama foydali odatni targ'ib qilish uchun, tijorat reklamasi esa mahsulotni sotish uchun yaratiladi.

Uchinchi savol media tilini, ya'ni rang, musiqa, kadr kattaligi va ovoz ohangi ma'no yaratishini ko'rsatadi.

To'rtinchi savol eng murakkab bo'lib, o'quvchini matnda nimalar tushirib qoldirilganini sezishga yo'naltiradi.

Beshinchi savol esa bolaning o'z his-tuyg'ularini anglashiga va ularni asoslashiga yordam beradi.

Savollar asosida uch bosqichli ish tartibi taklif etiladi:

Birinchi bosqich – **"Ko'rib chiqamiz":** media matn qisqa qismlarda ko'rsatiladi yoki tinglanadi, o'quvchilar oldindan bitta savolga javob izlashlari kerakligini bilib turadilar.

Ikkinchi bosqich – **"O'ylab ko'ramiz":** guruhlarda savollarga javoblar muhokama qilinadi va har bir javob matndagi aniq dalil bilan asoslanadi.

Uchinchi bosqich – **"O'zimiz yaratamiz":** o'quvchilar o'rganilgan usuldan foydalanib, masalan, kitob o'qishga undovchi kichik ijtimoiy plakat yoki sevimli kitobi uchun yangi muqova yaratadilar.

Topshiriq namunalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

2-sinf: **"Ikki kitob muqovasini solishtiring.** Qaysi biri sizni kitobni o'qishga ko'proq undaydi? Rassom buning uchun nima qilgan?"

3-sinf: **"Tish yuvishga undovchi ijtimoiy rolikni ko'ring.** U kimga qaratilgan? Qaysi so'z va tasvir sizni ishontirdi?"

4-sinf: **"Ertak asosida ishlangan multfilmdan parcha ko'ring va kitobni o'qing.** Multfilm yaratuvchilari nimani qo'shgan va nimani tushirib qoldirgan? Nima uchun deb o'ylaysiz?"

"Bolalar savollari" sinflar bo'yicha bosqichma-bosqich kiritiladi.

1-sinfda asosan birinchi va beshinchi savollardan foydalaniladi: bola media matnni kimdir yaratganini bilib oladi va o'z his-tuyg'ularini ifodalashni o'rganadi.

2-sinfda uchinchi savol qo'shiladi, ya'ni rang va musiqaning ta'siri kuzatiladi.

3-sinfda ikkinchi savol, ya'ni maqsad va auditoriya haqida fikr yuritish kiritiladi.

4-sinfda esa to'rtinchi, eng murakkab savol bilan ishlanadi.

Bunday tartib ko'nikmani yosh xususiyatlariga mos ravishda shakllantirish imkonini beradi. O'quvchilar natijalarini baholash uchun oddiy ko'rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi:

- o'quvchi media matnning yaratuvchisi va maqsadini ayta oladimi;
- kamida bitta usulni (rang, musiqa, kadr) nomlay oladimi;
- o'z fikrini matndagi aniq dalil bilan asoslay oladimi.

Bu ko'rsatkichlar ball qo'yish uchun emas, balki o'qituvchining keyingi darsda nimaga e'tibor berishini aniqlash uchun xizmat qiladi. Taklif etilgan savollar o'qish savodxonligining baholovchi qismi bilan bevosita bog'liq.

PIRLS asoslarida o'quvchi matnning mazmuni, tili va shaklini baholashi, muallif nuqtai nazarini aniqlashi talab etiladi (Mullis, Martin, 2019). Media matn bilan ishlashda bu talablar tabiiy ravishda kengayadi: muallif o'rnida yaratuvchilar jamoasi, til o'rnida esa rang, musiqa va harakat ham tahlil obyekti bo'ladi. Shu ma'noda media matnni tanqidiy o'qish o'qish savodxonligidan ajralgan alohida faoliyat emas, balki uning zamonaviy davomidir.

Muhim pedagogik talablardan biri – tanqidiy o'qishni shubhalanish yoki inkor qilish bilan chalkashtirmaslik. Bolaga "Multfilmlar yolg'on gapiradi" yoki "Reklamaga ishonma" degan xulosani berish noto'g'ri. Maqsad bolaning media matndan zavqlanishini saqlagan holda, uni ongli ravishda qabul qilishga o'rgatishdir. Shuning uchun beshinchi savol, ya'ni o'z his-tuyg'ularini aytish, alohida ahamiyatga ega: u bolaning shaxsiy tajribasini tan oladi va uni tahlilga olib kiradi.

Yana bir talab – materialni ehtiyotkorlik bilan tanlashdir. Darsda foydalaniladigan media matnlar yoshga mos, qisqa va o'quvchilarga tanish mavzuda bo'lishi, tijorat reklamalari esa faqat tahlil maqsadida va ma'lum mahsulotni targ'ib qilmaydigan tarzda qo'llanishi kerak. Raqamli kitoblar bo'yicha tadqiqotlar ham syujetga aloqador bo'lmagan effektlar kichik o'quvchini chalg'itishini ko'rsatadi (Takacs va boshq., 2015). Shu bois tahlil uchun tanlangan parchalar ortiqcha effektlardan xoli bo'lgani ma'qul.

Milliy metodik an'anada matn yuzasidan savol-javob va suhbat o'tkazish, o'quvchilarning fikrini asoslashga undash muhim usul sifatida qaraladi (Qosimova va boshq., 2009). Taklif etilgan savollar ushbu an'anadan uzilmagan holda, uni yangi turdagi matnlarga tatbiq etadi. O'qituvchi uchun bu tanish faoliyat bo'lib, faqat savol obyekti kengayadi. Shu sababli media matnlarni tanqidiy o'qishni joriy etish o'qituvchidan katta qayta tayyorgarlikni talab qilmaydi.

Media matnlarni tanqidiy o'qish ko'nikmasi faqat o'qish darsi bilan cheklanmaydi. U bolaning oiladagi va maktabdan tashqaridagi hayotiga bevosita ko'chadi: bola uyda multfilm ko'rayotganda ham "Buni kim yaratgan?" yoki "Nega bu yerda musiqa o'zgardi?" deb o'ylay boshlaydi. Ota-onalarga bunday savollar haqida qisqa tavsiya berish ushbu ko'nikmani mustahkamlaydi.

Bugungi axborot muhitida bolaning xavfsizligi masalasi ham tanqidiy o'qish bilan bog'liq. Internetda bola uchun mo'ljallanmagan, noto'g'ri yoki aldamchi ma'lumotlar ko'p uchraydi. Boshlang'ich sinf o'quvchisidan murakkab tekshiruvni kutish mumkin emas, lekin unda "Bu kimning gapi?", "Buni kattalardan so'rab ko'rish kerakmi?" degan odatni shakllantirish mumkin. Shu ma'noda media matnni tanqidiy o'qish bolaning raqamli muhitdagi xavfsizligini ta'minlashning ham dastlabki qadamidir.

Kichik yoshdagi bolalar bunday savollarga odatda katta qiziqish bilan javob beradilar. Ular sevimli multfilmlari "qanday qilinganini" bilishni yoqtiradilar, rassom yoki bastakor o'rniga o'zlarini qo'yib ko'rishdan zavqlanadilar. Bu qiziqishdan o'qishga bo'lgan motivatsiyani oshirish uchun ham foydalanish mumkin: multfilmni ko'rgan bola uning asosidagi kitobni o'qib, farqlarini topishga intiladi. O'qituvchi tayyorgarligi masalasida bir necha tavsiya berish mumkin.

Birinchidan, darsdan oldin tanlangan media matnni o'qituvchining o'zi beshta savol asosida tahlil qilib chiqishi kerak, shunda u o'quvchilarning mumkin bo'lgan javoblarini oldindan ko'ra oladi.

Ikkinchidan, har bir darsda barcha savollarni emas, bir-ikkitasini tanlash maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, o'quvchilarning javoblari to'g'ri yoki noto'g'ri deb emas, balki qanchalik asoslanganligi nuqtai nazaridan baholanishi lozim. Bu tavsiyalar metodik birlashmalarda muhokama qilinib, maktab darajasida umumiy yondashuv ishlab chiqilishi mumkin.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida media matnlarni tanqidiy o'qish ko'nikmasini shakllantirish mumkin va zarur. Buning uchun media ta'limining asosiy savollari bola tushunadigan beshta savolga aylantirilib, "Ko'rib chiqamiz – O'ylab ko'ramiz – O'zimiz yaratamiz" tartibida qo'llanadi. Bunday ish o'qish savodxonligining baholovchi qismini rivojlantiradi, o'quvchini media matnlarni ongli ravishda qabul qilishga o'rgatadi va unda o'z fikrini dalillar bilan asoslash ko'nikmasini shakllantiradi.

Keyingi tadqiqotlarda ushbu savollar asosida sinflar kesimida topshiriqlar to'plamini tayyorlash va ularning o'quvchilarning baholash ko'nikmalariga ta'sirini tajriba-sinov orqali aniqlash ko'zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Buckingham, D. (2003). Media education: Literacy, learning and contemporary culture. Polity Press.
2. Hobbs, R. (2010). Digital and media literacy: A plan of action. The Aspen Institute.
3. Kress, G. (2010). Multimodality: A social semiotic approach to contemporary communication. Routledge.
4. Livingstone, S. (2004). Media literacy and the challenge of new information and communication technologies. The Communication Review, 7(1), 3–14. https://doi.org/10.1080/10714420490280152
5. Mullis, I. V. S., & Martin, M. O. (Eds.). (2019). PIRLS 2021 assessment frameworks. TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College.
6. Qosimova, K., Matchonov, S., G'ulomova, X., Yo'ldosheva, Sh., & Sariyev, Sh. (2009). Ona tili o'qitish metodikasi. Noshir.
7. Serafini, F. (2014). Reading the visual: An introduction to teaching multimodal literacy. Teachers College Press.
8. Takacs, Z. K., Swart, E. K., & Bus, A. G. (2015). Benefits and pitfalls of multimedia and interactive features in technology-enhanced storybooks: A meta-analysis. Review of Educational Research, 85(4), 698–739. https://doi.org/10.3102/0034654315568142
9. UNESCO. (2013). Global media and information literacy assessment framework: Country readiness and competencies. UNESCO.

VITAGEN TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA OLIY TA'LIM TALABALARI MEDIAMENTALITETINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA DIDAKTIK MEXANIZMLARI

Rustamova Nodira Rustamovna
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dotsent, ISFT instituti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarida mediamentalitetni rivojlantirish uchun vitagen texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari, pedagogik shart-sharoitlari hamda didaktik mexanizmlari yoritiladi. Raqamli kommunikatsiya, algoritmik tavsiyalar, generativ sun'iy intellekt va multimodal axborotning kengayishi sharoitida talabalar mediamuhit bilan faqat texnik emas, balki qadriyaviy, refleksiv va xulq-atvor darajalarida munosabatga kirishishi asoslanadi. Tadqiqot sifatli konseptual tahlil, xalqaro me'yoriy-uslubiy hujjatlarni qiyoslash va pedagogik modellashtirishga tayanadi. Mediamentalitetning kognitiv, aksiologik, refleksiv va faoliyatga oid komponentlari farqlanadi; vitagen tajribani faollashtirish, muammolashtirish, dalillar asosida qayta qurish, mediakreativ faoliyat va refleksiv transferdan iborat besh bosqichli mexanizm taklif etiladi. Natijalar amalda o'tkazilgan eksperimentning sonli ko'rsatkichlari emas, balki keyinchalik sinovdan o'tkazilishi mumkin bo'lgan mualliflik nazariy modelidir. Pedagoglar uchun dars loyihasi, baholash mezonlari va tadqiqotning keyingi empirik bosqichlari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: vitagen texnologiya, mediamentalitet, media va axborot savodxonligi, talaba tajribasi, tanqidiy fikrlash, refleksiya, raqamli pedagogika, pedagogik shart-sharoitlar.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations, pedagogical conditions, and didactic mechanisms of using vitagenic technologies to develop media mentality among higher education students. It argues that, in the context of expanding digital communication, algorithmic recommendations, generative artificial intelligence, and multimodal information, students interact with the media environment not only at a technical level but also at axiological, reflective, and behavioral levels. The study is based on qualitative conceptual analysis, a comparative examination of international regulatory and methodological documents, and pedagogical modeling. Four components of media mentality are identified: cognitive, axiological, reflective, and activity-oriented. A five-stage didactic mechanism is proposed, comprising the activation of students' life experiences, problematization, evidence-based reconstruction of existing perceptions, creative media activities, and reflective transfer of acquired experience. The findings do not represent quantitative results of a conducted pedagogical experiment; rather, they constitute an original theoretical model proposed by the author that can be subjected to subsequent empirical validation. The article also presents guidelines for instructional design, assessment criteria, and directions for further empirical research.

Key words: vitagenic technology, media mentality, media and information literacy, students' life experiences, critical thinking, reflection, digital pedagogy, pedagogical conditions.

Аннотация: В статье рассматриваются теоретико-методологические основы, педагогические условия и дидактические механизмы использования витагенных технологий для развития медиаменталитета у студентов высших образовательных учреждений. Обосновывается положение о том, что в условиях расширения цифровой коммуникации, алгоритмических рекомендаций, генеративного искусственного интеллекта и мультимодальной информации взаимодействие студентов с медиасредой осуществляется не только на техническом, но и на ценностном, рефлексивном и поведенческом уровнях. Исследование основывается на качественном концептуальном анализе, сравнительном изучении международных нормативно-методических документов и педагогическом моделировании. Выделяются когнитивный, аксиологический, рефлексивный и деятельностный компоненты медиаменталитета. Предлагается пятиэтапный дидактический механизм, включающий актуализацию витагенного опыта, проблематизацию, реконструкцию представлений на основе доказательств, медиатворческую деятельность и рефлексивный перенос приобретённого опыта. Полученные результаты представляют собой не количественные показатели проведённого педагогического эксперимента, а авторскую теоретическую модель, которая может быть подвергнута последующей эмпирической проверке. Представлены рекомендации по проектированию учебных занятий, критерии оценивания и перспективные направления дальнейших эмпирических исследований.

Ключевые слова: витагенные технологии, медиаменталитет, медийная и информационная грамотность, жизненный опыт студентов, критическое мышление, рефлексия, цифровая педагогика, педагогические условия.

KIRISH

Oliy ta'limdagi raqamli transformatsiya an'anaviy bilim olish sharoitini tubdan o'zgartirdi: talaba bugun auditoriyada ma'ruza tinglovchi, elektron kutubxonadan foydalanuvchi, ijtimoiy tarmoqlarda mazmun yaratuvchi hamda algoritmik tavsiyalar orqali axborot qabul qiluvchi subyektdir. Bir qarashda ko'p sonli texnologik vositalardan foydalanish yetuk raqamli kompetensiyani bildiradigandek tuyuladi. Biroq axborotni tez topish uni ilmiy nuqtayi nazardan baholash, manbalarning manfaatdorligini tushunish va raqamli muhitdagi o'z xatti-harakatining oqibatlariga javob berish bilan aynan bir narsa emas.

Ayniqsa, generativ sun'iy intellekt taqdim etadigan silliq, ishonarli va ba'zan noto'g'ri javoblar axborotni tekshirish ehtiyojini kuchaytiradi. Shu bois oliy ta'limning muhim vazifalaridan biri raqamli instrumentlarni o'rgatishdan tashqari, talabalarning barqaror mediamunosabati va fikrlash madaniyatini rivojlantirishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

UNESCOning 2021-yilda yangilangan media va axborot savodxonligi o'quv dasturi yolg'on axborotga qarshi kurashni axborot, media va raqamli kompetensiyalarni birgalikda shakllantirish bilan bog'laydi [1]. 2023-yilgi Global Education Monitoring Report texnologiya ta'lim maqsadiga xizmat qilishi, tenglik, sifat va samaradorlik nuqtayi nazaridan baholanishi zarurligini ta'kidlaydi [2]. 2024-yilda e'lon qilingan UNESCO talabalar uchun sun'iy intellekt kompetensiyalari ramkasi inson markazidagi yondashuv, etika, AI texnikasi hamda AI tizimlarini loyihalashni o'zaro bog'laydi [3]. Ushbu manbalarning umumiy g'oyasi shuki, raqamli kompetensiyani faqat qurilmadan foydalanish ko'nikmasiga qisqartirib bo'lmaydi; uning tarkibida mas'uliyat, tanqidiy mulohaza va mustaqil qaror qabul qilish bo'lishi shart.

Talabalarning media bilan munosabatini anglashda "mediamentalitet" tushunchasi alohida ilmiy ahamiyatga ega. Mazkur maqolada mediamentalitet axborotni qabul qilish, saralash, talqin etish, baholash, yaratish va tarqatishga doir bilimlar, qadriyatlar, odatlar hamda refleksiv dispozitsiyalarning nisbatan barqaror integrativ tizimi sifatida operatsion ta'riflanadi. U media savodxonlik bilan o'zaro aloqador, ammo unga teng emas. Media savodxonlik ko'pincha o'rgatiladigan kompetensiyalar majmuini ifodalasa, mediamentalitet shaxsning takroriy vaziyatlarda axborot bilan qanday muomala qilishini belgilovchi yanada kengroq pedagogik konstrukt sifatida qaraladi. Ushbu ta'rif muallifning konseptual taklifidir; uning konstrukt validligi keyingi tadqiqotda alohida tekshirilishi lozim.

Mediamentalitet rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim manbalardan biri vitagen tajribadir. Vitagen tajriba deganda inson hayotida bevosita yoki bilvosita uchragan, shaxsiy ma'no olgan, esda saqlangan va yangi sharoitlarda qarorlarga ta'sir qiladigan bilim hamda kechinmalar tushuniladi. Auditoriyaga kelgan talaba mediamakon haqida nol darajadagi tajribaga ega emas. U reklamaga aldanishi, feyk xabarni ulashishi, o'z shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishi yoki ilmiy xabarni tekshirishi mumkin bo'lgan ko'plab kundalik vaziyatlarda allaqachon qatnashgan. Pedagogik vazifa mazkur tarqoq tajribani tahlil qilinadigan, muhokama etiladigan va ilmiy dalillar asosida qayta quriladigan ta'lim resursiga aylantirishdir.

Tadqiqot muammosi ikki pedagogik bo'shliqda namoyon bo'ladi.

Birinchidan, media ta'limida o'rganuvchining hayotiy tajribasi ko'pincha faqat motivatsion misol sifatida ishlatilib, tizimli bilish mexanizmiga aylantirilmaydi.

Ikkinchidan, auditoriyada bajarilgan manba tekshirish mashqlari real hayotdagi axborot tanlovi va mas'uliyatli xulqqa avtomatik ko'chmaydi.

Rojas-Estrada, Aguaded va García-Ruizning 2024-yilda jurnalda chop etilgan tizimli sharhi media va axborot savodxonligini o‘quv dasturlariga kiritishda maqsadlarni belgilash, joriy etish va baholash masalalari bir-biri bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi [4]. Aynan shu bog‘liqlik vitagen pedagogik mexanizmni ishlab chiqishda tayanch bo‘ladi.

Maqolaning maqsadi - oliy ta’lim talabalari mediamentalitetini rivojlantirishda vitagen texnologiyalarning o‘rnini konseptual aniqlash, pedagogik shart-sharoitlarni tizimlashtirish va amaliy mashg‘ulotlar hamda kompetensiya baholashga tatbiq etiladigan didaktik modelni taklif qilish. Maqsaddan kelib chiqib, mediamentalitetning tarkibiy komponentlarini tavsiflash, vitagen tajribaning transformatsiya bosqichlarini ajratish, o‘quv muhiti talablarini asoslash va natijalarni keyinchalik empirik tekshirishga mos indikatorlarni ishlab chiqish vazifalari qo‘yildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-konseptual va pedagogik loyihalash xususiyatiga ega. Unda talabalar ishtirokidagi yangi eksperiment, so‘rovnoma yoki statistik o‘lchash natijalari taqdim etilmaydi. Manba korpusi sifatida 2021-2026-yillarda chop etilgan xalqaro media-axborot savodxonligi dasturlari, raqamli ta’lim va sun’iy intellekt kompetensiyalari haqidagi hujjatlar, shuningdek media savodxonlikning o‘quv dasturiga integratsiyasi va generativ AI pedagogik imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy sharhlar olindi [1-7]. Vaqt doirasi mavzuning zamonaviy kontekstini aniqlash uchun tanlandi; barcha mavjud tadqiqotlarni qamrab oladigan PRISMA tizimli sharhi o‘tkazilgani da’vo qilinmaydi.

Tahlil bir necha izchil amallar orqali bajarildi. Dastlab manbalardan talaba faoliyati, axborotni tanqidiy baholash, raqamli mas’uliyat va o‘qituvchi fasilitatsiyasiga tegishli g‘oyalar ajratildi. Keyingi qadamda ushbu g‘oyalar vitagen ta’limning tajribani faollashtirish, qayta fikrlash va yangi vaziyatga ko‘chirish tamoyillari bilan qiyoslandi. Uchinchi bosqichda o‘zaro bog‘liq konstruktlar - bilim, qadriyat, harakat va refleksiya - tizimlashtirildi. Yakunda ularga mos mashg‘ulot bosqichlari, didaktik vositalar, o‘qituvchi vazifalari va taklif etilayotgan baholash indikatorlari pedagogik model sifatida birlashtirildi.

Mazkur metodologiyada “model natijasi” iborasi mustaqil empirik fakt emas, balki ilmiy adabiyot va nazariy mantiq asosida hosil qilingan loyihaviy yechimni bildiradi. Bunday aniqlik ilmiy halollik uchun zarur: talabaning mediamentaliteti ortgani haqidagi hukm faqat valid o‘lchovlar asosida, oldindan belgilangan tadqiqot dizayni bo‘yicha ma’lumot yig‘ilgandan keyin chiqarilishi mumkin. Shu ma’noda maqola nazariya bilan amaliy tajriba o‘rtasida tekshiriladigan gipotezalar uchun metodologik poydevor yaratadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Birinchi konseptual natija mediamentalitetning to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponentini ajratishdan iborat. Kognitiv komponent axborot manbasini aniqlash, dalillarni solishtirish, statistik iddaolarni tushunish, kontekst va manipulyatsiyani farqlash kabi amallarni qamrab oladi. Aksiologik komponent adolat, haqqoniylik, shaxsiy daxlsizlik, raqamli obro‘ va kommunikativ mas’uliyatga munosabatda namoyon bo‘ladi. Faoliyatga oid komponent real vaziyatda xabarni ulashishdan oldin tekshirish, dalilsiz xulosa tarqatmaslik, muloqot etiketasiga amal qilish kabi harakatlarni ifodalaydi. Refleksiv komponent esa talabaning o‘z axborot odatlari, tasdiqlashga moyilligi va emotsional reaksiyalarini anglab, zarurat tug‘ilganda qarorini qayta ko‘rib chiqish qobiliyatini aks ettiradi.

Ushbu tarkiblar orasidagi aloqa chiziqli emas. Talaba xabarning ishonchsizligini bilsa-yu, ijtimoiy bosim sabab uni ulashsa, kognitiv daraja bilan xulq-atvor darajasi o‘rtasida uzilish yuzaga keladi. Aksincha, ma’lumotni tekshirishning bir martalik muvaffaqiyati ham barqaror mediamentalitet shakllanganini bildirmaydi. Pedagogik jarayon aynan komponentlar orasidagi bunday nomuvofiqliklarni ko‘rish, muhokama qilish va qayta ishlash imkonini berishi kerak. Shuning uchun mediamentalitetni baholashda faqat faktlarni yodlash testi emas, vaziyatli topshiriq, argumentatsiya va amaliy tanlov dalillari birgalikda ishlatilishi maqsadga muvofiq.

Ikkinchi natija vitagen tajribani pedagogik resursga aylantiruvchi besh bosqichli didaktik mexanizmdir.

Birinchi bosqich - **tajribani faollashtirish.** O‘qituvchi talabadan o‘zini qiziqtirgan raqamli xabar, reklama, ta’limiy video yoki AI javobiga doir anonimlashtirilgan voqeani tasvirlashni so‘raydi. Bunda talabani xijolatga soluvchi shaxsiy holatlar majburiy ravishda oshkor qilinmaydi; real holat o‘rniga xavfsiz simulyatsiyadan foydalanish mumkin. Muhimi, o‘rganilayotgan muammoning o‘quvchi hayoti bilan ma’noviy bog‘lanishi ta’minlanadi.

Ikkinchi bosqich - **muammolashtirish.** Talabalarning dastlabki baholari savollar orqali tekshiriladi: “Bu ma’lumotga nima uchun ishondingiz?”, “Muallif yoki platformaning manfaatdorligi qanday?”, “Bir xil hodisa boshqa manbalarda qanday tasvirlangan?”. O‘qituvchi darhol tayyor javob bermaydi; u dalillar orasidagi tafovutlarni aniqlashga yordam beradi. Ushbu bosqichning pedagogik vazifasi kundalik ishonchni ilmiy savolga aylantirishdir. Savol yuzaga kelmasa, hayotiy tajriba shunchaki hikoya holida qolishi mumkin.

Uchinchi bosqich - **tajribani dalillar asosida qayta qurish.** Talabalar birlamchi manbalarni topadi, sana va kontekstni tekshiradi, tasvir yoki statistik ko‘rsatkichlarning asl kelib chiqishini izlaydi, bir-biridan mustaqil manbalarni qiyoslaydi. AI vositasidan foydalanilgan taqdirda uning javobi dalilning yakuniy o‘rnini egallamaydi, balki tekshirilishi lozim bo‘lgan variant sifatida qaraladi. Bu bosqichda epistemik mas’uliyat sharti bajariladi: “Buni qayerdan bilaman?” degan savol har bir xulosaning tarkibiga kiritiladi.

To‘rtinchi bosqich - **mediakreativ faoliyat.** Guruhlar faktcheking kartasi, qisqa videorolik, axborotning ishonchliligini baholash algoritmi, infografika yoki mas’uliyatli raqamli muloqot qoidalarini ishlab chiqadi. Mazmun yaratuvchilik passiv iste’mol holatidan faol, hisobdor pozitsiyaga o‘tishni ta’minlaydi. Biroq mahsulotning estetik jozibadorligi uning ilmiy ishonchliligini almashtira olmaydi. Shu sababli baholash mezonlarida dizayndan ko‘ra dalillarning tekshirilishi, manba oshkoraligi, xulosaning asoslanganligi va mualliflik huquqiga rioya qilish ustuvor turadi.

Beshinchi bosqich - **refleksiya va transfer.** Talabalar “Boshlang‘ich fikrim nimadan iborat edi?”, “Qaysi dalil fikrimni o‘zgartirdi?”, “Keyingi shunga o‘xshash vaziyatda qanday yo‘l tutaman?” kabi savollarga yozma javob beradi. So‘ng ular yangi, ilgari muhokama qilinmagan mediamuammoni tahlil qilib, o‘rgangan strategiyasini mustaqil qo‘llaydi. Aynan yangi vaziyatga transfer qobiliyati darsda olingan natija bilan turmushdagi barqaror qaror o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatishi mumkin. Lekin transferni aniqlash uchun topshiriq dastlabki mashqning oddiy takrori bo‘lmasligi zarur.

Uchinchi konseptual natija modelni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashdir.

Birinchi shart - **psixologik jihatdan xavfsiz va xatoga bag‘rikeng muhit.** Mediamanipulyatsiyaga uchraganini aytgan talabani masxara qilish refleksiyani to‘xtatadi; xatoni tahlil qilinadigan bilim manbasiga aylantirish esa o‘rganishga yo‘l ochadi.

Ikkinchi shart - **dalilga asoslangan munozara.** Shaxsiy tajriba qiymatli boshlang‘ich material bo‘lsa-da, u ilmiy tekshiruvdan ustun qo‘yilmaydi.

Uchinchi shart - **fanlararo integratsiya:** pedagogika, psixologiya, kommunikatsiya, huquq va ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalari umumiy vazifa atrofida uyg‘unlashadi.

To‘rtinchi shart - **o‘qituvchining metodik kompetentligi.** U mediakeysni tanlay olishi, xavfli yoki shaxsiy ma’lumotlarni olib tashlashi, AI natijasidagi xatolarni aniqlash yo‘llarini ko‘rsatishi va munozarani dalillarga qaytarishi kerak.

Beshinchi shart - **baholashning jarayonga yo‘naltirilishi.** Agar faqat yakuniy slayd yoki video baholansa, talaba tashqi ko‘rinishi yaxshi, ammo ilmiy jihatdan zaif mahsulot taqdim etishi mumkin. Jarayonli baholashda boshlang‘ich faraz, manba tekshiruvi jurnali, o‘zgargan xulosa va individual refleksiya birgalikda hisobga olinadi.

Oltinchi shart - **raqamli tenglik:** yuqori tezlikdagi internet yoki pullik platformalar mavjud bo‘lmagan holatda ham vazifalarning muqobil bajarish usullari taqdim etiladi.

Taklif qilinayotgan baholash tizimi to‘rtta darajadan foydalanadi: boshlang‘ich, rivojlanayotgan, yetarli va ilg‘or. Boshlang‘ich darajadagi talaba ishonchlilikni ko‘pincha tashqi belgilar asosida belgilaydi, manbani tekshirmaydi va qarorini umumiy fikr bilan oqlaydi. Rivojlanayotgan darajada u ayrim noto‘g‘ri xabar belgilarini tanisa-da, tekshiruvni izchil bajarmaydi. Yetarli darajada dalillarni mustaqil solishtiradi, manbaga ishora qiladi va etik oqibatni hisobga oladi. Ilg‘or darajada esa axborotdagi noaniqlikni ochiq ifodalaydi, qarama-qarshi dalillarni insof bilan baholaydi va o‘z strategiyasini yangi kontekstga moslashtiradi.

Bunday rubrika faqat dastlabki mualliflik taklifidir. Uni amaliy tadqiqot vositasi sifatida qo‘llashdan avval ekspertlar orqali mazmuniy validlik, ikki baholovchi o‘rtasidagi muvofiqlik va konstrukt tuzilmasi tekshirilishi kerak. O‘qituvchi bitta vaziyatli javobga tayanib talabaning shaxsiy qadriyatlari to‘g‘risida qat’iy xulosa chiqarmasligi lozim. Baholash xulq-atvorni axloqiy hukm qilish emas, o‘rgatiladigan kompetensiyaning kuzatiladigan ifodalarini aniqlashga xizmat qiladi.

Taklif qilingan mexanizmning ilmiy mohiyati shundan iboratki, talaba tajribasi o‘quv jarayonida passiv illyustratsiya emas, bilish faoliyatining boshlang‘ich materiali hisoblanadi. Klassik ma’ruza shaklida o‘qituvchi axborotni oldindan tartiblangan holda taqdim etadi va o‘rganuvchi uni o‘zlashtiradi. Vitagen yondashuvda esa o‘rganish ko‘pincha shaxsiy bilimning yetarli emasligini sezish, farazni tekshirish va yangilangan tushunchani real faoliyatga qaytarish orqali amalga oshadi. Bu farq an’anaviy o‘qitish usullarini inkor etmaydi; aksincha, ilmiy tushuntirish va talabalar tajribasi o‘rtasida ongli bog‘lanish zarurligini ko‘rsatadi.

Media savodxonlik o‘quv dasturlarini tadqiq qilgan Rojas-Estrada va hammualliflar formallashtirilgan maqsad, amaliy tatbiq va baholashni bir tizim sifatida ko‘rib chiqadilar [4]. Mazkur yondashuvga muvofiq ravishda mediamentalitet mashg‘ulotlari alohida bir martalik tadbir sifatida emas, fan dasturiga kiritilgan takroriy modullar

shaklida rejalashtirilishi kerak. Masalan, birinchi kursda manba va argumentni ajratish, keyingi bosqichda algoritmik axborot hamda etik dilemma, bitiruvchi bosqichida professional sohadagi media qarorlarni asoslashga urg‘u berish mumkin. Bunday spiral izchillik kompetensiyani turli murakkablik darajalarida qayta mashq qilishga imkon yaratadi.

UNESCOning 2023-yilgi hisobotida texnologiya samaradorligini baholashdagi dalillar cheklanganligi alohida qayd etiladi [2]. Bundan muhim metodologik xulosa kelib chiqadi: auditoriyada talabalar faol va qiziqqan ko‘ringani pedagogik ta’sir isbotlanganini bildirmaydi. Vitagen usul samaradorligini aniqlash uchun boshlang‘ich daraja va yakuniy holatni o‘lchash, taqqoslash guruhini shakllantirish, o‘qituvchi ta’sirini hisobga olish va kamida bir muddatdan keyin transferni qayta tekshirish maqsadga muvofiq. Ta’limdagi yangi texnologiyaga ijobiy munosabat empirik natija o‘rniga qo‘yilmasligi lozim.

Oliy ta’lim muassasalari sharoitida modelning mahalliy moslashuvi ham alohida ahamiyatli. O‘zbekistondagi talabalarning axborot iste’moli turli tilli manbalar, oilaviy va ijtimoiy muloqot normalari, ta’lim muassasasi qoidalari hamda professional kutishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shuning uchun xorijiy kontekstdan olingan tayyor mediakeysni bevosita ko‘chirish har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Mahalliy vaziyatli topshiriqlar talabalarning kundalik ehtiyojiga yaqin bo‘lishi, ayni paytda tekshiruv mezonlari umuminsoniy ilmiy qadriyatlar - rostgo‘ylik, aniqlik, manba oshkoraligi va o‘zaro hurmatga tayanishi kerak.

Mediamentalitetning aksiologik komponentini rivojlantirishda shaxsiy tajriba bilan ilmiy me’yor o‘rtasidagi ziddiyat tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, tanish inson yuborgan xabarga ishonish ijtimoiy yaqinlikdan kelib chiqishi mumkin, ammo yaqin munosabat axborotning faktik haqqoniyligini kafolatlamaydi. Bunday vaziyatda o‘qituvchi “kim haq” degan qarama-qarshilikdan ko‘ra “qanday dalil yetarli” degan savolni oldinga surishi lozim. Shaxsiy xotiralar, guruh identifikatsiyasi va emotsional taassurotlar muhokama qilinadi, lekin ularning mavjudligi tekshirilmagan iddaoga ilmiy maqom bermaydi.

Sun’iy intellektning paydo bo‘lishi vitagen yondashuvga yana bir imkoniyat va bir vaqtning o‘zida xavf olib keldi. AI yordamida vaziyatga muqobil izohlar olish, axborotdagi qarama-qarshiliklarni ko‘rish va refleksiya savollarini ishlab chiqish mumkin. Ammo juda tayyor javob o‘quvchini xulosani mustaqil tekshirishdan uzoqlashtirishi ehtimoli bor. Qian (2025) generativ AIning oliy ta’limdagi pedagogik qo‘llanilishi bo‘yicha sharhida mazkur vositalarni o‘quv maqsadiga mos, ongli dizayn bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi [5]. Shu sababli vitagen mashg‘ulotda AI “bilimning oxirgi hakami” emas, tanqidiy tekshiriladigan didaktik vosita deb belgilanadi.

Modelni amalga oshirishda maxfiylik va akademik halollik bo‘yicha muhim talablar mavjud. Shaxsiy konflikt, salomatlik, oilaviy munosabat yoki boshqa nozik tajribaga oid materiallar tashqi tizimlarga roziliksiz kiritilmasligi shart. Pedagog keyslarni anonimlashtirib berishi yoki sun’iy tuzilgan analoglardan foydalanishi mumkin. Talabalarga AI yordami ishlatilgan joyni oshkor ko‘rsatish, manba bilan AI javobini farqlash va mualliflik huquqiga rioya qilish o‘rgatiladi. Bu qoidalar taqiqlar ro‘yxati sifatida emas, mas’uliyatli ilmiy ishning tarkibiy qismi sifatida tushuntirilsa, ularning tarbiyaviy ta’siri kuchayadi.

Tadqiqotning cheklovi konseptual xarakteridadir. Mediamentalitetning to‘rtta komponentli tuzilishi va besh bosqichli transformatsiya mexanizmi hozircha tasdiqlangan universal qonuniyat emas. Kelgusida metodikani fanlar, bosqichlar va raqamli tajriba darajalari kesimida sinovdan o‘tkazish lozim. Taqqoslanadigan guruhlar bilan kvazi-eksperimental dizayn tanlanishi, dastlabki va keyingi o‘lchovlar o‘tkazilishi, baholovchilarning bir xil mezonga tayanishi hamda sifatli intervyular yordamida jarayonning ichki mexanizmlari o‘rganilishi mumkin. Statistika metodlari ma’lumotlarning xususiyatiga muvofiq oldindan belgilanishi zarur.

Ushbu konseptual ishning amaliy qiymati o‘qituvchiga tayyor “to‘g‘ri javoblar” to‘plamini emas, mashg‘ulotni qurish mantig‘ini berishidadir. Masalan, umumiy pedagogika darsida talaba ommalashgan ta’limiy maslahatni tekshirishi mumkin; psixologiyada ruhiy holat haqidagi noto‘g‘ri ommaviy iddaolar tahlil qilinadi; tadqiqot metodologiyasida esa statistik grafikning manipulyativ talqini muhokama qilinadi. Mazmun turli fanlarda farq qilsa ham, vitagen izchillik - tajriba, savol, dalil, yaratuvchilik, refleksiya - saqlanib qoladi. Shunday qilib, model alohida platformaga bog‘liq bo‘lmagan pedagogik texnologiya sifatida ko‘riladi.

Amaliy tatbiq uchun qo‘shimcha metodik tavsiyalar

Modelni fan dasturiga kiritishda birinchi qadam o‘quv natijasini aniq fe’llar bilan ifodalashdan boshlanadi. “Talaba mediamentalitetga ega bo‘ladi” kabi umumiy bayon o‘lchanadigan natijani belgilamaydi. Buning o‘rniga “talaba ikkita mustaqil manbadan foydalangan holda raqamli iddaoni tekshiradi”, “axborot tarqatishning ehtimoliy etik zararini izohlaydi” va “dastlabki xulosasini o‘zgartirgan dalilni ko‘rsatadi” kabi ko‘rsatkichlar qo‘yilishi lozim. Har bir natijaga mos topshiriq va rubrika bandi biriktirilsa, o‘qitish va baholash orasidagi mazmuniy muvofiqlik kuchayadi. Bunday maqsadlar o‘qituvchiga talabani umumiy faolligi bo‘yicha emas, aynan o‘zlashtirilgan bilish amallari bo‘yicha kuzatish imkonini beradi.

Mashg‘ulotning taxminiy 90 daqiqalik loyihasida dastlabki o‘n besh daqiqa shaxsiy tajribani chaqirish va vaziyatni aniqlashga, keyingi yigirma daqiqa muammoni savollar orqali ochishga ajratilishi mumkin. Navbatdagi yigirma besh daqiqada talabalar juftlikda manbalar qiyosini bajaradi; yigirma daqiqada faktcheking xulosasini

yoki qisqa mediakreativ mahsulotni tayyorlaydi. Oxirgi o'n daqiqada esa individual refleksiya yoziladi. Bu vaqtlar qat'iy normativ emas, balki o'qituvchiga moslashuvchan konstruksiya sifatida berilmoqda. Murakkab keyslar uchun ikki yoki uch mashg'ulot talab qilinishi mumkin. Alohida e'tibor yakuniy refleksiyaning vaqt yetishmaganligi sababli bekor qilinmasligiga qaratiladi, chunki mazkur bosqich vitagen yondashuvning mohiyatini ochadi.

Talabaning madaniy va til tajribasini hisobga olish ham metodik ahamiyatga ega. Bir mazmundagi xabar o'zbek, rus yoki ingliz tilida turlicha kontekst, termin va emotsional urg'u bilan tarqalishi mumkin. Guruhlar mazkur farqlarni kuzatib, tarjimada yo'qolgan ma'no, kontekstdan ajratilgan raqam va sarlavhadagi baholovchi birliklarni belgilashlari mumkin. Mashq madaniyatlar orasidagi tafovutlarni stereotiplar orqali izohlashga emas, dalilning talqiniga ta'sir qiluvchi kommunikativ omillarni tushunishga yo'naltiriladi. Natijada talaba faqat boshqa xabarning noto'g'riligini topmaydi, balki o'zining odatiy talqin strategiyasi ham cheklangan bo'lishi mumkinligini ko'radi.

Empirik bosqich uchun tadqiqot protokoli oldindan yozilishi tavsiya etiladi. Unda ishtirokchilarni tanlash mezonlari, rozilik tartibi, ishtirokni istalgan payt to'xtatish imkoniyati, baholovchilarni tayyorlash, topshiriqlar ekvivalentligi va shaxsiy ma'lumotlarni saqlash qoidalari qayd etiladi. Taqqoslash guruhiga pedagogik jihatdan zarar yetkazmaslik uchun barcha guruhlarga majburiy dastur mazmuni teng darajada yetkazilishi lozim. Natijalarda ijobiy farq aniqlanmasa ham, bu holat ochiq bayon qilinishi kerak. Chunki ilmiy modelning qimmati faqat tasdiqlanishida emas, uning qaysi vaziyatda ishlashi yoki ishlamasligini tushuntirish imkoniyatida ham namoyon bo'ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oliy ta'lim talabalarining mediamentaliteti raqamli axborot bilan munosabatdagi bilim, qadriyat, refleksiya va faoliyatning o'zaro birligini talab etuvchi murakkab pedagogik konstrukt sifatida asoslandi. Vitagen texnologiyalarning o'ziga xosligi talabaning hayotiy media tajribasini muammoli bilish jarayoniga olib kirishi, uni ilmiy dalillar bilan qayta qurishi va yangi vaziyatdagi mas'uliyatli qarorga ko'chirishidadir. Tadqiqotda besh bosqichli mexanizm, oltita pedagogik shart-sharoit hamda dastlabki baholash darajalari ishlab chiqildi. Bular konseptual ilmiy natijalar bo'lib, real samaradorlik da'vosiga tenglashtirilmaydi.

Maqolaning ilmiy yangiligi mediamentalitetni baholashga doir to'rtta komponentni vitagen tajribani transformatsiya qilish bosqichlari bilan yagona didaktik tizimda bog'lashdan iborat. Taklif qilingan tuzilma metodik ishlanmalar, media savodxonlik modullari, talabalar uchun vaziyatli topshiriqlar va baholash rubrikalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin. Keyingi bosqichda modelning mazmuniy va konstrukt validligini ekspertlar hamda talabalar ishtirokida tekshirish, so'ng ta'lim samaradorligini ehtiyotkor va shaffof empirik dizayn orqali baholash tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Grizzle, A., Wilson, C., Gordon, D. (Eds.). (2021). Media and Information Literate Citizens: Think Critically, Click Wisely! UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000377068
2. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report 2023: Technology in Education - A Tool on Whose Terms? https://gem-report-2023.unesco.org/
3. Miao, F., Shiohira, K., Lao, N. (2024). AI Competency Framework for Students. UNESCO. https://doi.org/10.54675/JKJB9835
4. Rojas-Estrada, E.-G., Aguaded, I., García-Ruiz, R. (2024). Media and information literacy in the prescribed curriculum: A systematic review on its integration. Education and Information Technologies, 29, 9445-9472. https://doi.org/10.1007/s10639-023-12154-0
5. Qian, Y. (2025). Pedagogical applications of generative AI in higher education: A systematic review of the field. TechTrends, 69, 1105-1120. https://doi.org/10.1007/s11528-025-01100-1
6. UNESCO. (2024). AI Competency Framework for Teachers. https://www.unesco.org/en/articles/ai-competency-framework-teachers
7. Nasr, N. R., Tu, C.-H., Sujo-Montes, L., et al. (2026). Generative artificial intelligence impact on critical thinking in higher education: A comprehensive bibliometric analysis and systematic review. Journal of Computers in Education. https://doi.org/10.1007/s40692-026-00396-z

TALABALARDA INTELLEKTUAL-IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK SHARTLARI

Abduvaliyeva Dilsora Nodirjon qizi
O‘zMPU pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiruvchi integrativ psixologik dasturning nazariy asoslari, mazmuni va samaradorligi yoritilgan. Talabalarning intellektual imkoniyatlarini faollashtirish, kreativ tafakkurini rivojlantirish, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, muqobil yechimlarni ishlab chiqish hamda refleksiv ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan rivojlantiruvchi yondashuvlar asoslangan.

Kalit so‘zlar: intellektual-ijodiy qobiliyat, psixologik dastur, integrativ yondashuv, kreativ tafakkur, intellekt turlari, bilish faolligi, muammoli vaziyat, ijodiy topshiriq, refleksiya, rivojlantiruvchi trening.

Abstract: This article examines the theoretical foundations, content, and effectiveness of an integrative psychological program designed to develop students' intellectual and creative abilities. It substantiates developmental approaches aimed at activating students' intellectual potential, fostering creative thinking and independent reasoning, improving problem-solving skills, generating alternative solutions, and enhancing reflection.

Key words: intellectual and creative abilities, psychological program, integrative approach, creative thinking, types of intelligence, cognitive activity, problem-solving, creative assignments, reflection, developmental training.

Аннотация: В статье раскрываются теоретические основы, содержание и эффективность интегративной психологической программы развития интеллектуально-творческих способностей студентов. Обоснованы развивающие подходы, направленные на активизацию интеллектуального потенциала студентов, развитие креативного мышления, самостоятельности суждений, навыков анализа проблемных ситуаций, поиска альтернативных решений и рефлексии.

Ключевые слова: интеллектуально-творческие способности, психологическая программа, интегративный подход, креативное мышление, виды интеллекта, познавательная активность, проблемная ситуация, творческие задания, рефлексия, развивающий тренинг.

KIRISH

Talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatini rivojlantirish oliy ta’lim jarayonining faqat alohida bir fan doirasidagi vazifasi sifatida emas, balki shaxsning bilish jarayonlari, ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal etishi, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishi, yangi g‘oyalarni ilgari surishi hamda o‘z intellektual imkoniyatlarini turli faoliyat sohalarida namoyon eta olishi bilan bog‘liq kompleks psixologik-pedagogik jarayon sifatida qaralishi lozim. Shu nuqtayi nazardan, talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatning shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bilan bir qatorda, aniqlangan psixologik determinantlarni amaliy faoliyatga tatbiq etuvchi rivojlantiruvchi dasturni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Intellektual-ijodiy qobiliyatlarni o‘rganish psixologiya fanida bir necha nazariy yo‘nalishlarning shakllanishiga olib kelgan. Ushbu yo‘nalishlar intellektual faoliyat, ijodiy fikrlash, motivatsiya, shaxs xususiyatlari va ijtimoiy muhitning o‘zaro ta’sirini turlicha izohlaydi.

J. Guilford ijodkorlikni o‘rganishda divergent tafakkur tushunchasiga alohida e’tibor qaratgan. Divergent tafakkur muayyan muammoga nisbatan bir nechta ehtimoliy yechimlarni ishlab chiqish, turli g‘oyalarni ilgari surish va mavjud axborotga noodatiy yondashish imkoniyatini ifodalaydi. Guilfordning yondashuvi ijodkorlikni faqat bitta to‘g‘ri javobni aniqlash bilan cheklab bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Talabalarning intellektual-ijodiy salohi-

yatini rivojlantirishda ochiq turdagi topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va muqobil yechimlarni izlashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar ushbu jihatdan muhimdir (Guilford, 1950).

E. Torrance ijodiy tafakkurni o'rganishda g'oyalar ravonligi, moslashuvchanligi va originalligini baholashga e'tibor qaratgan. Ushbu ko'rsatkichlar ijodiy fikrlashning turli jihatlarini tahlil qilish imkonini beradi. G'oyalar ravonligi ma'lum vaqt ichida ko'plab fikrlarni ishlab chiqish bilan, moslashuvchanlik turli kategoriyalar va yondashuvlar o'rtasida o'tish bilan, originallik esa nisbatan noodatiy yechimlarni taklif qilish bilan bog'liq (Torrance, 1974). Shu bilan birga, ijodkorlikni faqat test natijalari orqali to'liq baholash mumkin emas, chunki real ijodiy faoliyatda sohaviy bilimlar, vazifaga sodiqlik va g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish ham muhim ahamiyatga ega.

R. Sternberg ijodkorlikni intellektual resurslar, bilimlar, tafakkur uslublari, shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya va muhitning o'zaro ta'siri bilan izohlaydi. Uning yondashuviga ko'ra, ijodiy faoliyat mavjud qarashlarni shunchaki takrorlash emas, balki muammoni boshqacha talqin qilish, yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni asoslashni ham talab etadi (Sternberg, 2006). Bu qarash talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishda bilim va tafakkur mustaqilligini birgalikda qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning oldingi bosqichlarida olingan empirik ma'lumotlar talabalar intellektual-ijodiy qobiliyatining namoyon bo'lishi ta'lim yo'nalishiga, intellektning turli turlarining rivojlanganlik darajasiga, kreativlikning ayrim komponentlariga, o'quv motivlariga, noaniqlikka nisbatan tolerantlik darajasiga hamda shaxs xususiyatlariga bog'liq holda turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Ayniqsa, talabalarning mantiqiy-matematik, musiqiy, kinestetik va intrapersonal intellekt turlarida yo'nalishlararo farqlarning kuzatilishi intellektual-ijodiy imkoniyatlarning bir xil mexanizm asosida emas, balki talabaning individual-psixologik xususiyatlari va faoliyat mazmuni bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanishini ko'rsatadi. Kreativlik ko'rsatkichlarida qiziquvchanlik, hayol va intuitivlik kabi komponentlarning faol namoyon bo'lishi esa ijodiy salohiyatni rivojlantirishda bilishga bo'lgan ehtiyoj, tasavvur, muammoli vaziyatlarni noodatiy idrok etish va yangi yechimlarni izlashga yo'naltirilgan psixologik sharoitlarning ahamiyatini belgilaydi.

Shuningdek, intellektual-ijodiy qobiliyat bilan o'quv motivlari, noaniqlikka nisbatan tolerantlik va ayrim shaxs xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqliklarning aniqlanishi ushbu qobiliyatni rivojlantirishni faqat intellektual mashqlar bilan cheklab qo'yish yetarli emasligini ko'rsatadi. Talaba yangi bilimni egallashi bilan birga, undan foydalanish, muammoni mustaqil qo'yish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash, noaniq vaziyatni qabul qilish, xatodan qo'rqmasdan tajriba qilish, o'z fikrini asoslash va yangi g'oya ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Demak, intellektual-ijodiy qobiliyatning rivojlanishi uchun kognitiv, motivatsion, shaxsiy va faoliyatga oid komponentlarni yagona tizimda birlashtiruvchi integrativ yondashuv talab etiladi.

Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, tadqiqot doirasida talabalarda intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantiruvchi integrativ dastur taklif etildi. Mazkur dastur intellektual imkoniyatlarni faollashtirish, kreativ fikrlashni rag'batlantirish, mustaqil fikr yuritish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, noaniqlikka nisbatan konstruktiv munosabatni shakllantirish, o'quv motivlarini kuchaytirish va talabaning o'z intellektual-ijodiy imkoniyatlarini amaliy faoliyatda namoyon etishiga sharoit yaratishga yo'naltirildi.

Taklif etilayotgan integrativ modelning asosiy g'oyasi shundan iboratki, intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirish bir martalik trening yoki alohida ijodiy mashg'ulotlar natijasi emas, balki muntazam tashkil etilgan o'quv faoliyati, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, loyiha va keyslar, refleksiv faoliyat hamda maxsus rivojlantiruvchi seminar-treninglarning o'zaro uyg'unligi orqali amalga oshiriladigan uzluksiz jarayondir. Shu sababli dastur ikki o'zaro bog'liq qism asosida tashkil etildi.

Birinchi qism talabalar bilan bevosita "Umumiy psixologiya" kursining seminar mashg'ulotlari doirasida amalga oshirildi. Ikkinchi qism esa intellektual-ijodiy imkoniyatlarini to'liq namoyon qila olmagan talabalarni maqsadli ravishda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan maxsus onlayn seminar-treninglar shaklida tashkil etildi.

Mazkur ikki qismning o'zaro bog'liqligi integrativ dasturning muhim xususiyatini tashkil etdi. Birinchi bosqich barcha talabalarni qamrab olgan holda intellektual-ijodiy faoliyat uchun umumiy rivojlantiruvchi muhit yaratishga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi bosqich individual rivojlanish ehtiyoji yuqoriroq bo'lgan talabalar bilan maqsadli va chuqurlashtirilgan ishlash imkonini berdi. Natijada dastur "umumiy rivojlantirish – diagnostik aniqlash – maqsadli rivojlantirish – qayta baholash" mantiqiy ketma-ketligida tashkil etildi.

Integrativ dasturning birinchi qismi "Umumiy psixologiya" kursining seminar mashg'ulotlari mazmuniga integratsiya qilindi. Bunda seminar mashg'ulotlari an'anaviy ravishda nazariy bilimlarni qayta ishlab chiqish bilan cheklanib qolmasdan, talabalarni mustaqil fikrlash, muammoni aniqlash, muqobil yechimlarni izlash va o'z qarashlarini asoslashga yo'naltirildi.

Mazkur bosqichda talabalarga mavzuning mazmunidan kelib chiqib turli xil ijodiy topshiriqlar, keyslar va loyihaviy vazifalar muntazam ravishda berib borildi. Bunday topshiriqlarni tanlashda talabaning faqat tayyor ma'lumotni eslab qolishi emas, balki mavjud bilimlarni yangi vaziyatga ko'chira olishi, hodisalar o'rtasidagi

aloqalarni aniqlashi, muammoni turli nuqtayi nazardan ko‘rishi va mustaqil xulosaga kelishi asosiy mezon sifatida belgilandi.

Masalan, psixologik hodisalarni o‘rganishda talabaga tayyor vaziyatni tahlil qilish emas, balki muammoli vaziyatni mustaqil aniqlash va unga bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqish taklif qilindi. Keys-topshiriqlarda real hayotga yaqin psixologik vaziyatlar asosida sabablarni aniqlash, ishtirokchilarning xatti-harakatlarini psixologik jihatdan izohlash, muammoning muqobil yechimlarini ishlab chiqish va taklif etilgan yechimni dalillar bilan asoslash talab etildi.

Loyihaviy topshiriqlar esa talabalarning uzoqroq muddat davomida mustaqil izlanish olib borish, ma’lumotlarni tanlash va tahlil qilish, muammoni aniq ifodalash, maqsad va vazifalarni belgilash, ijodiy mahsulot yaratish hamda o‘z natijasini taqdim etish ko‘nikmalarini faollashtirishga xizmat qildi. Bunda loyiha natijasining faqat tashqi ko‘rinishi emas, balki talabaning muammoni qanday qo‘yganligi, qanday g‘oyalarni ilgari surganligi, mavjud bilimlarni qay tarzda birlashtirganligi va o‘z qarashlarini qanday asoslaganligi ham e’tiborga olindi.

Seminar mashg‘ulotlarida ijodiy topshiriqlardan foydalanishning psixologik mohiyati shundan iborat bo‘ldiki, talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt holatidan faol bilish va ijodiy faoliyat subyektiga aylantirildi. Bunday sharoitda savolga bitta “to‘g‘ri” javobni topishdan ko‘ra, muammoning bir nechta yechimlarini ishlab chiqish, ularni taqqoslash va asoslashga e’tibor qaratildi. Natijada divergent fikrlash, assotsiativ bog‘lanishlarni aniqlash, tasavvurdan foydalanish, muammoli vaziyatga turli nuqtayi nazardan yondashish kabi jarayonlarning faollashishiga sharoit yaratildi.

Birinchi bosqichda qo‘llanilgan keys va loyihalar talabalarning turli intellekt turlarini faollashtirishga ham xizmat qildi. Masalan:

- mantiqiy-matematik intellektni talab qiluvchi topshiriqlarda sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, muammoni bosqichlarga ajratish va mantiqiy xulosa chiqarish;
- lingvistik yo‘nalishdagi topshiriqlarda fikrni aniq va izchil ifodalash, matn yaratish va argumentatsiya;
- makoniy komponentni faollashtiruvchi topshiriqlarda sxema, model yoki vizual tasvirlardan foydalanish;
- interpersonal komponentni talab qiluvchi vazifalarda guruhdagi muloqot va hamkorlik;

intrapersonal komponentda esa o‘z imkoniyatlarini tahlil qilish va refleksiya kabi faoliyatlar amalga oshirildi.

Shunday qilib, “Umumiy psixologiya” kursining seminar mashg‘ulotlari integrativ dasturning tabiiy rivojlantiruvchi muhiti vazifasini bajardi. Chunki bunda alohida vaqt va mustaqil o‘quv kursini tashkil etish zarurati bo‘lmagan holda mavjud o‘quv jarayonining o‘zida intellektual-ijodiy faollikni rivojlantirish imkoniyati yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan integrativ dasturning samaradorligini aniqlash maqsadida universitetda iqtidorli talaba sifatida e’tirof etilgan 54 nafar talaba nazorat guruhiga hamda intellektual-ijodiy qobiliyatini namoyon etishda psixologik to‘siqlari kuchli bo‘lgan 60 nafar talaba tajriba guruhiga jalb qilindi. Tadqiqotning yakuniy bosqichida har ikki guruh talabalarida H. Gardner tomonidan ishlab chiqilgan “Intellekt tipi testi” qayta o‘tkazilib, dastur ta’sirida intellektual-ijodiy qobiliyat ko‘rsatkichlarining dinamik o‘zgarishi aniqlandi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Integrativ dastur samaradorligini aniqlash maqsadida eksperimental va nazorat guruhlarida dasturdan oldingi hamda keyingi natijalar qiyosiy tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, eksperimental guruhda intellektning ayrim turlari bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Xususan, lingvistik, mantiqiy-matematik, makoniy, musiqiy, kinestetik, shaxslararo va shaxs ichidagi intellekt ko‘rsatkichlarida o‘zgarishlar qayd etilgan bo‘lib, nazorat guruhida bunday tizimli o‘zgarishlar kuzatilmagan. Bu holat rivojlantiruvchi dasturning talabalarning turli intellektual imkoniyatlarini faollashtirishga yo‘naltirilgan integrativ mazmuni bilan bog‘liq holda izohlanishi mumkin.

Lingvistik intellekt bo‘yicha eksperimental guruhda 60 nafar talabadan 50 nafarida ko‘rsatkichning oshgani, 10 nafarida esa o‘zgarish kuzatilmagani qayd etilgan. Pasayish holati aniqlanmagan. Wilcoxon mezoni natijasi $Z=-10,05$; $p<0,001$ bo‘lib, o‘zgarishning statistik jihatdan yuqori darajada ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Lingvistik intellektning bunday rivojlanishi, avvalo, dastur davomida talabalarni o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda mustaqil ifodalash, muammoli vaziyatni tavsiflash, o‘z nuqtayi nazarini asoslash, savol qo‘yish va muqobil fikrlarni taqqoslashga jalb etish bilan izohlanadi.

Keys va loyiha topshiriqlarida talabalar muammoni faqat anglash bilan cheklanmay, uni verbal shaklda ifodalashi va o‘z yechimini boshqalarga tushuntirishi talab qilingan. Shu sababli lingvistik intellektning rivojlanishi talabaning nutqiy faolligi bilan bir qatorda, fikrlash jarayonlarini verbal tashkil etish imkoniyatlarining kengayganligini ham anglatadi.

1-jadval: **Talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyati rivojlanganligining dinamik holati (N=114)**

Omillar	Guruhlar	Pasaygan	Oshgan	O'zgarmagan	W	P
Lingvistik intellekt	Eksperimental guruh (N=60)	0	50	10	-10,05**	0,001
	Nazorat guruh (N=54)	2	4	50	0,00	1,000
Mantiqiy-matematik intellekt	Eksperimental guruh (N=60)	2	49	9	-6,20*	0,005
	Nazorat guruh (N=54)	0	1	53	-1,00	0,317
Makoniy intellekt	Eksperimental guruh (N=60)	0	52	8	-5,84**	0,01
	Nazorat guruh (N=54)	0	48	6	-1,34	0,180
Musiqiy intellekt	Eksperimental guruh (N=60)	0	50	10	-10,15**	0,001
	Nazorat guruh (N=54)	4	0	50	0,00	1,000
Kinestetik (jismoniy-harakat) intellekt	Eksperimental guruh (N=60)	2	49	9	-5,20*	0,005
	Nazorat guruh (N=54)	0	1	53	-1,00	0,317
Shaxslararo (interpersonal) intellekt	Eksperimental guruh (N=60)	3	49	8	-7,23**	0,01
	Nazorat guruh (N=54)	4	46	4	-1,34	0,180
Shaxs ichidagi (intrapersonal) intellekt	Eksperimental guruh (N=60)	2	48	10	-6,05**	0,001
	Nazorat guruh (N=54)	2	4	48	0,00	1,000

Izoh: **p ≤0,01, *p ≤0,05

Mantiqiy-matematik intellekt bo'yicha eksperimental guruhda 49 nafar talabada o'sish, 2 nafarida pasayish va 9 nafarida o'zgarishsiz holat qayd etilgan. Z=-6,20; p<0,001 qiymati o'zgarishning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Mazkur natijani integrativ dasturda qo'llanilgan muammoli vaziyatlar, keyslar, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, muammoni tarkibiy qismlarga ajratish va bir nechta yechim variantlarini ishlab chiqish bilan bog'lash mumkin. Mantiqiy-matematik intellektning rivojlanishi talabalarning tayyor algoritmdan foydalanishdan tashqari, muammoning ichki tuzilishini anglash, dalillarni tizimlashtirish va izchil xulosaga kelish imkoniyatlarining faollashganini ko'rsatadi. Ayniqsa, matematika yo'nalishi bilan bir qatorda boshqa ta'lim yo'nalishlari talabalarida ham mazkur ko'rsatkichning oshishi integrativ topshiriqlarning fan mazmunidan tashqari umumiy kognitiv jarayonlarni faollashtirganligini ko'rsatadi.

Makoniy intellekt bo'yicha eksperimental guruhda 52 nafar talabada o'sish, 8 nafarida o'zgarishsiz holat kuzatilgan va pasayish holati qayd etilmagan. Z=-5,84; p<0,001 natijasi mazkur o'zgarishning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Makoniy intellektning rivojlanishini talabalarning ma'lumotni faqat verbal shaklda emas, balki obraz, sxema, model va boshqa vizual vositalar orqali qayta tashkil etishga jalb etilishi bilan izohlash mumkin. Loyiha faoliyati jarayonida g'oyani vizuallashtirish, muammoning tuzilishini sxematik ifodalash va obyekt yoki jarayonni turli nuqtayi nazardan tasavvur qilishga yo'naltirilgan faoliyatlar makoniy tasavvurning faollashishiga xizmat qilgan. Shu jihatdan, mazkur natija ijodiy fikrlashda obrazli va konstruktiv komponentlarning ham muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Musiqiy intellekt bo'yicha ham eksperimental guruhda sezilarli o'zgarish qayd etilgan: 50 nafar talabada ko'rsatkich oshgan, 10 nafarida o'zgarish kuzatilmagan va pasayish holati aniqlanmagan (Z=-10,15; p<0,001). Musiqiy intellektning mazkur o'zgarishini tor ma'noda faqat musiqa faoliyati bilan bog'lash to'g'ri bo'lmaydi. Gardner yondashuvida intellektning turli shakllari shaxsning ma'lumotni idrok etishi va qayta ishlashining o'ziga xos imkoniyatlarini aks ettiradi. Dasturdagi assotsiativ, obrazli, ritmik va kreativ topshiriqlar talabalarning eshitish orqali farqlash, ritmik munosabatlarni anglash va tovush-obrazlar o'rtasidagi aloqalarni idrok etish imkoniyatlarini faollashtirgan bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu natijani talabalarda musiqiy qobiliyatning to'liq shakllanganligi sifatida emas, balki mazkur intellekt turiga tegishli test ko'rsatkichlarining rivojlanishi sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq.

Kinestetik (jismoniy-harakat) intellekt bo'yicha eksperimental guruhda 49 nafar talabada o'sish, 2 nafarida pasayish va 9 nafarida o'zgarishsiz holat qayd etilgan (Z=-5,20; p<0,001). Ushbu natija talabalarning bilim va g'oyalarni faqat abstrakt-kognitiv shaklda emas, balki harakat, amaliy faoliyat va modellashtirish orqali ham o'zlashtirish imkoniyatlari kengayganini ko'rsatishi mumkin. Xususan, rolli vaziyatlar, amaliy topshiriqlar, muammoli vaziyatlarni sahnalashtirish va faol ishtirokni talab qiluvchi mashqlar kinestetik komponentning faollashishiga yordam bergan. Jismoniy madaniyat yo'nalishidagi talabalar uchun bunday topshiriqlar kasbiy faoliyat bilan bevosita bog'langan bo'lsa, boshqa yo'nalishlarda ular bilimni faoliyat orqali o'zlashtirish mexanizmini rivojlantirishga xizmat qilgan.

Shaxslararo (interpersonal) intellekt bo'yicha eksperimental guruhda 49 nafar talabada o'sish, 3 nafarida pasayish va 8 nafarida o'zgarishsiz holat aniqlangan. Z=-7,23; p<0,001 natijasi mazkur o'zgarishning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. Ushbu natija dasturda guruhiy muhokama, hamkorlikdagi keyslar,

loyiha topshiriqlari va o‘zaro fikr almashishning muntazam qo‘llanilishi bilan izohlanishi mumkin. Interpersonal intellektning rivojlanishi talabalarning boshqa insonlarning fikri, pozitsiyasi va ehtiyojlarini tushunish, turli nuqtayi nazarlarni taqqoslash hamda o‘z fikrini ijtimoiy muloqot jarayonida moslashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, ijodiy faoliyatda g‘oyaning rivojlanishi ko‘pincha individual fikrlash bilan birga ijtimoiy o‘zaro ta’sir orqali amalga oshirilgani sababli, guruhiy faoliyat ushbu intellekt turining faollashishi uchun muhim sharoit yaratgan.

Shaxs ichidagi (intrapersonal) intellekt bo‘yicha eksperimental guruhda 48 nafar talabada o‘sish, 2 nafarida pasayish va 10 nafarida o‘zgarishsiz holat qayd etilgan. $Z=-6,05$; $p<0,001$ qiymati statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarish mavjudligini ko‘rsatadi. Intrapersonal intellektdagi ijobiy dinamika dasturning refleksiv yo‘nalishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin. Mashg‘ulotlarda talabalarning o‘z imkoniyatlarini tahlil qilishi, bajarilgan topshiriqdagi qiyinchiliklarni aniqlashi, o‘z fikrlash usullarini baholashi va kelgusidagi faoliyatini rejalashtirishi uchun sharoit yaratilgan. Natijada talabaning o‘zining intellektual va ijodiy imkoniyatlarini anglash, kuchli hamda rivojlantirish zarur bo‘lgan jihatlarini farqlash imkoniyatlari kengaygan.

Umuman olganda, eksperimental guruhda kuzatilgan natijalar integrativ dastur ta’sirining faqat bitta intellekt turiga yo‘naltirilmaganligini, balki talabaning turli intellektual imkoniyatlarini kompleks tarzda faollashtirishga xizmat qilganligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, lingvistik, mantiqiy-matematik, makoniy, musiqiy, kinestetik, interpersonal va intrapersonal intellektlarning barchasida statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlarning kuzatilishi dastur mazmunidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, loyihalar, guruhiy muhokamalar va refleksiv mashqlarning bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Bunda nazorat guruhida mazkur intellekt turlari bo‘yicha statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar aniqlanmagan. Lingvistik, musiqiy va intrapersonal intellekt bo‘yicha $p=1,000$, mantiqiy-matematik va kinestetik intellekt bo‘yicha $p=0,317$, makoniy va interpersonal intellekt bo‘yicha esa $p=0,180$ qiymatlarining qayd etilishi nazorat guruhidagi o‘zgarishlarning statistik jihatdan ahamiyatli darajaga yetmaganini ko‘rsatadi. Shu sababli eksperimental guruhdagi aniqlangan dinamika aynan rivojlantiruvchi dasturning qo‘llanilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi haqida empirik asoslangan xulosa chiqarish imkoniyati yuzaga keladi. Biroq sababiy ta’sirni qat’iy tasdiqlashda guruhlararo yakuniy natijalarni ham alohida statistik mezon yordamida qiyoslash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Natijalarni psixologik nuqtayi nazardan umumlashtirganda, integrativ dastur talabalarning intellektual-ijodiy faoliyatini rivojlantirishda bilish jarayonlari, ijodiy faollik, kommunikativ o‘zaro ta’sir va refleksiv o‘z-o‘zini anglashning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlagan. Ya’ni, talaba muammoni mantiqiy tahlil qilish bilan bir vaqtda uni verbal ifodalash, obrazli tasavvur qilish, boshqalar bilan muhokama qilish va o‘z faoliyatini baholash imkoniyatiga ega bo‘lgan. Aynan mana shu kompleks faollik intellektual-ijodiy qobiliyatning turli komponentlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqani kuchaytiruvchi psixologik sharoit sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, eksperimental guruhdagi natijalar integrativ dasturning kognitiv, kreativ, kommunikativ va refleksiv komponentlarni birlashtirgan holda tashkil etilishi talabalarning intellektual imkoniyatlarini faollashtirishga xizmat qilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, deyarli barcha intellekt turlari bo‘yicha talabalar sonining katta qismida o‘sish kuzatilgani dastur doirasida yaratilgan rivojlantiruvchi muhitning kompleks xarakterga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu esa intellektual-ijodiy qobiliyatni rivojlantirishda faqat bitta metod yoki alohida mashqdan foydalanishdan ko‘ra, o‘quv faoliyati, ijodiy topshiriqlar, loyiha va keyslar, guruhiy hamkorlik hamda refleksiv faoliyatni yagona integrativ tizimga birlashtirish muhimligini asoslaydi.

Yuqoridagilarga asoslanib, quyidagi xulosani shakllantirish mumkin:

1. Talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan integrativ dastur ularning intellektual imkoniyatlarini faollashtirish, ijodiy fikrlashini rag‘batlantirish hamda o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishiga to‘sqinlik qiluvchi psixologik omillarni kamaytirishga yo‘naltirilgan samarali psixologik-pedagogik yondashuv sifatida namoyon bo‘ldi.
2. Tajriba va nazorat guruhlarida o‘tkazilgan qayta diagnostika natijalari integrativ dastur asosida tashkil etilgan rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar talabalarning intellektual-ijodiy qobiliyatlari dinamikasida ijobiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirishga xizmat qilganini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кострова Ю.С. Формирование интеллектуальной компетентности студентов посредством использования метода проектов в процессе изучения математики в негуманитарном вузе. Диссертация на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. Рязань 2012. 164 с.
2. Guilford, J. P. (1950). Creativity. American Psychologist, 5(9), 444–454. https://doi.org/10.1037/h0063487
3. Sternberg, R. J. (2006). The nature of creativity. Creativity Research Journal, 18(1), 87–98. https://doi.org/10.1207/s15326934crj1801_10
4. Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. Lexington, MA: Personnel Press.

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.